

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY

# GLOBAL RAQAMLASHUV VA BARQAROR RIVOJLANISH: YOSHLAR SIYOSATI VA INSON HUQUQLARI



RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIY ANJUMAN

→ 2026-YIL ←

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY**



**“GLOBAL RAQAMLASHUV VA BARQAROR RIVOJLANISH:  
YOSHLAR SIYOSATI VA INSON HUQUQLARI”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari**

**TO‘PLAMI**

**2026-yil**

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY**

**СБОРНИК**

**тезисов Республиканской научно-практической конференции на тему**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВИЗАЦИЯ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ:  
МОЛОДЁЖНАЯ ПОЛИТИКА И ПРАВА ЧЕЛОВЕКА»**

**2026 год**

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY**

**COLLECTION**

**of theses of the Republican Scientific and Practical Conference on the theme**

**“GLOBAL DIGITALIZATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT:  
YOUTH POLICY AND HUMAN RIGHTS”**

**2026**

**TOSHKENT – 2026**

UO‘K

KBK

R

Global raqamlashuv va barqaror rivojlanish: yoshlar siyosati va inson huquqlari. [konferensiya materiallari] – Toshkent: 2026. – 900 b.

**Ma’sul muharrir** I.B. Yo‘ldashev

Tahririyat hay’ati: Q.Sh. Xannayev, D.A. Raxmonov, G.A. Matkarimova, I.X. Abduraxmonov, S.Y. Nishanov, S.S. Babayev, N.P. Kurbanova

**Taqrizchilar:** prof., i.f.d., J.H. Ataniyazov; prof., yu.f.d. A.A. Otajonov; prof., psixologiya fanlari doktori (DSc) G.Yu.Baykunosova; f.-m/f., prof., A.R. Hayotov; PhD., dotsent S.B. Ibragimova.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonidagi vazifalardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi “2026-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 11-son buyrug‘iga asosan 2026-yil 11-mart kuni Tashkent International Universityda “Global raqamlashuv va barqaror rivojlanish: yoshlar siyosati va inson huquqlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi. Mazkur to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi, Huquqiy ta’minlash va xalqaro huquqiy aloqalar bo‘limi, O‘zmilliybank AJ “Kelajakka qadam” markazi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti hamda Tashkent International University va boshqa oliy o‘quv yurt professor o‘qituvchilari, olimlar va tadqiqotchilarning yashil iqtisodiyot, moliyaviy barqarorlik va ekologik loyihalarni moliyalashtirish masalalari, yashil qonunchilik va barqaror rivojlanish uchun huquqiy mexanizmlar, ekologik ong va jamiyatning yashil taraqqiyotga munosabati, yashil ta’lim tizimi va ekologik bilimlarni oshirishda innovatsion yondashuvlar, barqaror rivojlanish uchun zamonaviy texnologiyalar, sun’iy intellekt va innovatsion yechimlar hamda ekologik terminologiya va yashil taraqqiyot bo‘yicha til hamda madaniyatlararo tadqiqot masalalariga qaratilgan ilmiy tezislarida o‘z ifodasini topgan.

Mazkur konferensiya tezislari global raqamlashtirish va barqaror rivojlanish sharoitida yoshlar siyosati, inson huquqlari, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy-huquqiy transformatsiyalar, innovatsion yondashuvlar hamda ushbu yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

***Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va meyoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga hamda tanqidiy fikr mulohazalarga mualliflarning o‘zlari ma’suldirlar.***

**“GLOBAL RAQAMLASHUV VA BARQAROR RIVOJLANISH:  
YOSHLAR SIYOSATI VA INSON HUQUQLARI”  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN**

**KIRISH SO‘Z**

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari, qadrli olimlar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va aziz yoshlar!

Bugun sizlarni Tashkent International Universityda ko‘rib turganimizdan xursandmiz. Sizlar bilan hozirgi kunda jahonda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan “Global raqamlashuv va barqaror rivojlanish: yoshlar siyosati va inson huquqlari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanda jam bo‘lib turibmiz. Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar va raqamli iqtisodiyot jahon iqtisodiyotining asosiy drayverlariga aylanib borayotganligi hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Bu jarayonlar iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va inson huquqlarini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu masalalar mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari sifatida ham belgilangan. Xususan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar bilan o‘tkazilgan uchrashuvlarda mamlakatimizda 22 milliondan ortiq yoshlar jamiyatning katta ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati ekani ta‘kidlandi. Shu bilan birga, respublika bo‘ylab 60 mingdan ortiq yoshlar ishtirok etgan muloqotlar orqali ularning taklif va tashabbuslari muhokama qilindi. Yoshlar xalqaro fan olimpiadalarida 66 ta oltin, 147 ta kumush va 221 ta bronza medallarini qo‘lga kiritgani esa mamlakatimiz yoshlarining intellektual salohiyati yuksak ekanini ko‘rsatadi.

Jahon miqyosida ham raqamli iqtisodiyotga investitsiyalar jadal o‘smoqda. BMTning Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (UNCTAD) ma‘lumotlariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot yaqin o‘n yillikda global qiymat yaratishning ikkidan uch qismidan ortig‘ini ta‘minlashi va yillik 10–12 foiz atrofida o‘shishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaga investitsiyalar hali ham yetarli emas. Masalan, 2024-yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasiga global “greenfield” investitsiyalar 15 mlrd dollar atrofida bo‘lgan bo‘lsa, bu sohada har yili kamida 60 mlrd dollardan ortiq investitsiya talab etiladi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, yoshlarning innovatsion salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va inson huquqlarini raqamli muhitda ta‘minlash masalalari nafaqat milliy, balki global ahamiyatga ega.

Raqamli transformatsiya sharoitida ekologik barqarorlik va inson huquqlarini ta'minlash masalalari yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, global issiqxona gazlari chiqindilarining qariyb 75 foizi energetika va sanoat tarmoqlariga to'g'ri keladi, shu bois atrof-muhitni muhofaza qilishda innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, dunyo aholisining taxminan 2,6 milliard nafari hali ham internetdan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega emas, bu esa raqamli tengsizlik masalasi bilan bir qatorda axborotdan foydalanish huquqini ta'minlash dolzarbligini ko'rsatadi. Mutaxassislar baholashicha, "yashil" raqamli texnologiyalar va intellektual monitoring tizimlarini joriy etish orqali global chiqindilarni 10–15 foizgacha kamaytirish imkoniyati mavjud. Shu nuqtai nazardan, ekologik barqarorlik, raqamli innovatsiyalar va inson huquqlarini himoya qilish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan strategik yo'nalishlar hisoblanadi.

Bugungi anjuman ana shu dolzarb masalalarni ilmiy jihatdan muhokama qilish uchun muhim maydon hisoblanadi.

Ishonamizki, bugungi ilmiy muloqotlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi, O'zmilliybank AJ "Kelajakka qadam" markazi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti va qator boshqa tashkilotlar ishtirokida raqamli transformatsiya sharoitida barqaror rivojlanishni ta'minlash, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va inson huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladigan yangi g'oya va amaliy takliflarni shakllantirishga zamin yaratadi.

Anjuman ishiga yangi ilmiy yutuqlar tilayman.

*Universitet rektori, I.Yuldashev*

# 1-SHO‘BA. YOSHLAR SIYOSATI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA YOSHLARNING ISHTIROKI

## IJTIMOIYLASHUV JARAYONIDA YOLG‘ONNING PREVENTIV MEHANIZMLARI: O‘SMIRLAR VA ILP O‘SPIRINLAR MISOLIDA

**Nishanov Sarvar Yuldiboyevich**  
“Tashkent International University”  
xalqaro universiteti  
Ijtimoiy fanlar va ta’lim kafedrası mudiri  
Psixologiya fanlari bo’yicha  
falsafa doktori (Ph.D), dotsent

Jahonda ijtimoiylashuv jarayonida yolg‘on genezisi, evolyutsiyasi, preventivlik mexanizmlarin muammosi keng o‘rganilib kelinmoqda. Jahonning turli universitetlaridagi tadqiqotchilar odamlar qanday aldaydi, ishonch va manipulyatsiya jarayonida aldovni qanday payqashlari bo’yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari rivojlangan mamlakatlarda yolg‘on va aldovni tadqiq etish markazlari tashkil etilgan (Harvard University, USA); ishonch va yolg‘onni o‘rganish markazi (Kaliforniya University, San-Dirgo); (University Karnege-Mellon, Stenford), aldov psixologiyasi (Leyden universiteti, (Niderlandiya); Amsterdam universiteti (Niderlandiya), Maks Planka instituti (Germaniya), Getebor universiteti ( Shvetsiya), ijtimoiy tarmoq va madaniyatdagi aldovlarni o‘rganuvchi tadqiqot guruxlari (Singapur va Janubiy Koreya); maxsus ta’lim sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar kasbiy so‘nishining hayot sifatiga ta’siri o‘rganilgan (Moskva davlat pedagogika va psixologiya instituti, Rossiya Federatsiyasi).

Jahonda ijtimoiylashuv jarayonida yolg‘onchilik omillarini aniqlash bo’yicha quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: zamonaviy psixologiya va ijtimoiy psixologiya sohasidagi izlanishlar; fiziologik qo‘zg‘alishni taxlil qilishdan nutq mazmunini taxlil qilish va kognitiv metodlarga o‘tish zamonaviy tadqiqotlarda ro‘y bermoqda. Hikoyaning detallarini taxlil qilishga asoslangan yolg‘onni aniqlash metodikalari tadqiqotchilar guruxi tomonidan ishlab chiqilmoqda. Tarixiy va badiiy kontekstda yolg‘on axborotlarni o‘rganadigan maxsus loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xususan biz o‘z izlanishlarimizda Respublikamizning 3 hududida, OTMLarining ilk o‘spirinlari hamda o‘smirlarida “Sizingcha, inson nega yolg‘on gapiradi?” degan savolga bergan javoblarini 1-jadvalda aks ettirishga harakat qildik.


**1-jadval**

### Respondentlarning yolg‘on gapirish sabablari haqidagi fikrlari (% , N=676)

№	Javoblar mazmuni	Kichik o‘smirlar	Katta o‘smirlar	Ilk o‘spirinlar	O‘spirinlar
1	O‘zini himoya qilish uchun	<b>46,6</b> %	<b>32,1</b> %	<b>42,4</b> %	32,4 %
2	Maqsadga erishish uchun	23,3 %	28,5 %	28,4 %	8,2 %
3	Boshqalarga yoqish uchun	23,3 %	9,4 %	14,1 %	24,3 %
4	O‘z foydasini ko‘zlab	6,8 %	30 %	14,1 %	<b>35,1</b> %
	Jami	100%	100%	100%	100%

Yuqoridagi jadvalda kichik o'smirlar 13,3 % - o'z foydasini ko'zlab degan javobga to'g'ri keladi. 43,4 % - sinaluvchilar o'zini himoya qilish uchun, 13,3 % - boshqalarga yoqish uchun, 30 % sinaluvchilar - maqsadga erishish uchun inson yolg'on gapirishini ta'kidlashgan. Katta o'smirlarning javoblari kichik o'smirlarnikiga yaqin bo'lib, ular ham eng ko'p javob 32,1 % hollarda o'zini himoya qilish uchun, 30 % - o'z foydasini ko'zlab, 28,5 % - maqsadga erishish uchun inson yolg'on gapirishini bildirishgan.

Ilk o'spirinlarning javoblari o'smirlarnikiga yaqin bo'lib, 42,4 % - o'zini himoya qilish uchun, 28,4 % - maqsadga erishish uchun shaxs yolg'ondan foydalanishini bildirishgan. Bu fikrlar haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun quyidagi rasmni hosil qildik.



**1-rasm. Respondentlarning yolg'on gapirish sabablari haqidagi fikrlari (%)**

O'spirinlar ichida eng ko'p javob – o'z foydasini ko'zlab degan javobga to'g'ri keladi, bunday javob bergan respondentlar 35,1 % ni tashkil etadi. 32,4 % sinaluvchilar o'zini himoya qilish uchun, 24,3 % - boshqalarga yoqish uchun, 8,2 % sinaluvchilar maqsadga erishish uchun inson yolg'on gapirishini ta'kidlashgan.

Bu javoblardan inson ko'proq o'z foydasini ko'zlab va o'zini himoya qilish uchun yolg'on ishlatishi aniqlandi.

Yuqoridagi jadval natijalarini qiyoslab, o'smir va o'spirinlarda bir xil – o'zini himoya qilish uchun yolg'on gapirsa, o'spirinlarning fikricha, inson o'z foydasini ko'zlab, yolg'on gapirishi aniqlandi. Bizningcha, bu javoblar, o'smirlar ko'pincha birorta nojo'ya harakatini yashirish, jazodan qutulish, o'zini himoya qilish uchun yolg'on gapiradi. O'spirinlarda esa insonning yolg'on gapirishi ortida o'z foydasi yotadi, foyda ko'rmasa, maqsad bo'lmasa inson yolg'on gapirmaydi degan fikrlari sababdir.

**2-jadval.**

**“Sizningcha, inson nega yolg'on gapiradi?” Savoliga berilgan javoblar ( $\chi^2$  mezonida, n=676)**

Sizningcha, inson nega yolg'on gapiradi?					$\chi^2$	p
Respondent-lar	O'zini himoya qilish uchun	Maqsadga erishish uchun	Boshqalarga yoqish uchun	O'z foydasini ko'zlab		
qizlar	120	120	72	276	24,328	0,00**
yigitlar	24	32	0	32		
Jami	144	152	72	308		

Izoh:\*\* - p<0.01

Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turganidek, yolg'on motivlarida ham jins farqlari mavjud ( $\chi^2=24,328$ ; p<0,01). Yigitlar ko'proq o'z maqsadiga erishish uchun, o'z foydasini ko'zlab yolg'on ishlatadi. Qizlar esa ko'proq o'z foydasini ko'zlab yolg'on ishlatishi aniqlandi. Qator tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan izlanishlarda ham shunga yaqin ma'lumotlar olingan.

Yigitlarning yolg'on gapirishi maqsadga qaratilgan bo'lib, o'zini himoya qilish, haqiqiy sabablarni yashirish uchun aldashi va biroz yo'qimli ekanligi aniqlangan. Qizlarda esa yolg'on gapirish ko'pincha vaziyatga bog'liq bo'lib, o'ziga ishonchni saqlab qolish uchun o'zini aldash bilan oqlanadi.

Birinchi marta yolg'on gapirishning jins farqlarini aniqlash uchun statistik mezondan foydalandik, natijalar quyidagi jadvalda keltiriladi.

**3-jadval.**

**«Siz birinchi marta hayotingizda qayerda yolg'on ishlatgansiz?» savoliga berilgan javoblar ( $\chi^2$  - mezon asosida, n=676)**

Savol	Siz birinchi marta hayotingizda qayerda yolg'on ishlatgansiz?				$\chi^2$	p
	O ilada	Bog'c hada	Makta bda	Uni ver sitetda		
Respondentlar						
Qizlar	32	3	72	136	48	130 ,436 00**
Yigitlar	0	32	48	8		
Jami	32	3	104	184	56	

Izoh:\*\* - p<0.01

Yuqoridagi jadvalda qizlar birinchi marta oidada yolg'on ishlatgan bo'lsalar, yigitlar maktabda yolg'on gapirganliklarini ta'kidlashgan ( $\chi^2 = 58,630$ ; p<0.01). Bu natijalarni qizlarning, o'g'il bolalarga qaraganda psixik jihatdan ertaroq rivojlanishi bilan bog'lash mumkin. Shuning uchun ham ular birinchi marta oilada yolg'on gapirganliklarini eslagan, yigitlar bo'lsa keyingi ijtimoiylashuv bosqichlari bog'chada, maktabda birinchi marta aldashganliklarini eslashgan.

Biz uchun insonning qaysi yosh davridan yolg'on ishlatishi masalasi ham qiziqish uyg'otdi. Buning uchun biz «Sizingcha, inson qachondan boshlab yolg'on ishlata boshlaydi?» savoli bilan murojaat qildik, javoblarni quyidagi jadvalda keltiramiz.

Hozirgi vaqtda har bir odam yolg'on va aldovga duch kelishi kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo'lib qolgan, eng achinarlisi, siz u biz deyarli har kuni firibgarlik va shu kabi yomon xislatlar, nayranglar maqsadida unga duch kelamiz. Odamlar o'zlarining yovuz maqsadlardagi ishlarini yashirish uchun haqiqatni berkitish va yolg'onni oshirish holatlari oddiy va odatiy holga aylanib qolgan, lekin yaxshilik uchun ishlatiladigan aldovlar ham bor. Bularning barchasi bizni o'rab turibdi va odamlar o'zlarini bu haqda ogohlantirishga yoki hech bo'lmaganda o'z yo'nalishidagi firibgarliklarni kamaytirishga intilishlari kerak. Bizning tadqiqotda, tadqiqotchi yuzasidan oldimizga qo'ygan maqsadimiz esa odamlarni ushbu atrofida o'rab turgan, ildiz otgan yolg'onchilik va aldov holatlarini psixologik, psixofiziologik jihatdan ochib berish, ularning signallarini aniq hamda tushinarli tilda yetkazishdir.

Bir so'z bilan aytganda, yolg'on va yolg'onchilik ham yaxshi inson tarbiyasi yo'lida ota-ona va pedagoglar oldidan chiqadigan ko'p sonli dovonlardan biridir. Uni yengib o'tish ham ulkan sabr-toqatni va hayotiy donishmandlikni talab qiladi. Axir bu haqiqiy inson uchun tarbiya maydonlarida kechadigan o'gir janglarning biridir va bu jabhadagi kurash ham oson kechmasligi aniq. Fikrlarim so'ngida hurmatli o'quvchi inson psixikasida kechadigan har qanday aks ya'ni reallik bu haqiqatdir kimdir uchun bu yolg'on men esa buni yolg'on haqidagi barcha haqiqat deb tamomlashni o'rinli deb bildim.

## **ЦИФРОВАЯ ЦЕНЗУРА: ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ БАЛАНС МЕЖДУ БЕЗОПАСНОСТЬЮ И ПРАВОМ НА ВЫРАЖЕНИЕ**

**Саидова Камола Усканбаевна**

Профессор Ташкентского международного университета,  
доктор педагогических наук (DSc)  
e-mail: [kamola.u.saidova@gmail.com](mailto:kamola.u.saidova@gmail.com)

В цифровую эпоху обеспечение безопасности в интернете и свободы слова выступают двумя взаимосвязанными, но потенциально конфликтующими правовыми и педагогическими категориями. Цифровая цензура, как механизм ограничения доступа к определённой информации, способна защищать общество от вредоносного контента. Однако это также может нарушать фундаментальные права личности на выражение мнений и доступ к информации. В контексте Республики Узбекистан, анализ педагогического баланса между этими принципами требует учёта, как конституционных гарантий свободы слова, так и нормативно-правовых актов, направленных на безопасность цифрового пространства.

Конституция Республики Узбекистан закрепляет свободу мысли, слова и убеждений в статье 33: «Каждый имеет право на свободу мысли, слова и убеждений... право искать, получать и распространять любую информацию... Государство создаёт условия для обеспечения доступа к сети Интернет» [1]. Ограничения допускаются «только в соответствии с законом» и исключительно в целях защиты конституционного строя, общественной безопасности, здоровья, нравственности и прав других лиц.

Эта норма отражает международно-правовые стандарты, в том числе статью 19 Всеобщей декларации прав человека [2], которая гарантирует свободу выражения мнений и доступа к информации через любые средства и независимо от государственных границ.

Важно учитывать и то, что Конституция также обеспечивает тайну переписки и электронных сообщений (Статья 31) [1], а нарушения этих прав допускаются лишь законно и на основе судебного решения.

Таким образом, право на свободу выражения в цифровой среде в Республике Узбекистан признано на высшем правовом уровне, и любые ограничения должны однозначно соответствовать законам.

Обратим внимание и на то, что в 2022 году был принят Закон Республики Узбекистан «О кибербезопасности» (№ ЗРУ-764) [3], направленный на регулирование отношений в сфере кибербезопасности. Он закрепляет принцип законности, приоритет защиты интересов личности, общества и государства в киберпространстве и другие основы государственной политики по обеспечению безопасности в сети. И, несмотря на то, что этот Закон прямо не содержит положений о свободе слова, его общий характер означает то, что при реализации мер по обеспечению кибербезопасности должна соблюдаться «законность» и другие права, гарантированные Конституцией Узбекистана.

В 2007 году был принят Закон «О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «О средствах массовой информации»» (№ ЗРУ-78) [4], который закрепляет недопустимость цензуры в средствах массовой информации: никто не вправе требовать предварительного согласия на публикацию сообщений или изменения материалов до их выхода.

Однако закон также устанавливает то, что СМИ не должны использоваться для пропаганды насилия, вражды, или других противоправных целей. Всё это показывает стремление к балансу между свободой выражения и защитой общества от опасной информации.

В целом, термин «цифровая цензура» подразумевает контроль, фильтрацию или ограничение доступа к информации в цифровой среде. В образовательном контексте, педагоги могут сталкиваться с необходимостью обеспечивать информационную

безопасность обучающихся, одновременно защищая их право на свободный доступ к знаниям и выражение идей.

Современное педагогическое образование должно включать развитие цифровой грамотности — умения критически оценивать информацию, различать достоверные источники и понимать риски цифрового пространства (дезинформация, вредоносный контент, манипуляции). Такое образование способствует снижению зависимости от внешних запретов как основного механизма защиты.

Можно обратить внимание на то, что педагогический баланс достигается через сочетание:

1) Нормативного регулирования, которое определяет пределы допустимого (согласно Конституции и законодательству).

2) Образовательных подходов, развивающих критическое мышление и цифровую компетентность.

3) Этических стандартов поведения в сети, которые способствуют ответственному выражению мнений без нарушения прав других.

При этом цифровая цензура, как инструмент ограничения — должна быть минимальным и правомерным средством защиты, применяемым лишь тогда, когда иное невозможно для обеспечения безопасности и общественного порядка, как предусмотрено Конституцией Республики Узбекистан.

В свою очередь, образовательные учреждения должны выступать не только как механизмы фильтрации опасного контента, но и как площадки формирования ответственной цифровой культуры, где обсуждаются этические и юридические аспекты свободы слова, ответственность за информацию и правомерность ограничений. При этом педагоги должны ориентироваться на действующее законодательство: гарантии свободы выражения в Конституции, запрет цензуры в медийном законодательстве и требования о законности мер безопасности.

В комплексе, необходимо подчеркнуть то, что педагогический баланс между цифровой цензурой, безопасностью и правом на выражение в Республике Узбекистан требует системного подхода, основанного на согласовании правовых и образовательных механизмов регулирования цифровой среды. Его основой выступают конституционные гарантии свободы выражения мнений и доступа к информации, определяющие пределы допустимого вмешательства государства, а также законодательство в сфере кибербезопасности, применяемое строго в соответствии с принципами законности, соразмерности и необходимости. При этом устойчивость данного баланса обеспечивается образовательной стратегией, направленной на развитие цифровой грамотности, критического мышления и культуры ответственного поведения в сети.

Учитывая вышеизложенное, целесообразно предложить следующее:

1) Интеграцию модулей по цифровой грамотности и медиабезопасности в программы подготовки педагогов и повышения их квалификации.

2) Разработку методических рекомендаций для образовательных учреждений, направленных на сочетание информационной безопасности с уважением к праву обучающихся на свободный доступ к знаниям.

3) Введение образовательных курсов по цифровой этике и правовой культуре, раскрывающих вопросы ответственности за распространение информации и пределы допустимого выражения мнений.

4) Создание прозрачных процедур применения ограничительных мер в образовательной среде, основанных на принципах законности, соразмерности и открытости.

5) Развитие сотрудничества между государственными органами, образовательными учреждениями и экспертным сообществом для выработки сбалансированной политики регулирования цифрового пространства.

Таким образом, эффективное регулирование цифровой среды возможно лишь при гармоничном сочетании правовых гарантий, механизмов кибербезопасности и педагогических инструментов формирования ответственной цифровой культуры. Только при таком подходе свобода слова и безопасность перестают восприниматься как противоположные категории и становятся взаимодополняющими элементами устойчивого развития личности и общества в условиях цифровой трансформации.

#### Список использованной литературы

1. Конституция Республики Узбекистан. URL.: <https://constitution.uz/ru/clause/index>
2. Всеобщая декларация прав человека, резолюция ООН 217 A(III) от 10 декабря 1948 г. URL.: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
3. Закон Республики Узбекистан «О кибербезопасности», от 15.04.2022 г. № ЗРУ-764. URL.: <https://lex.uz/uz/docs/5960609>
4. Закон Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «О средствах массовой информации»», от 15.01.2007 г. № ЗРУ-78. URL.: <https://lex.uz/docs/1106875>

### THE WORK “HUMAYUNNAMA” BY KHWANDAMIR AS AN IMPORTANT HISTORICAL SOURCE

**Ahmadov Muzaffar Borievich**  
Tashkent International University  
Associate Professor,  
Department of Pedagogy and Social Sciences

According to prominent historians of our country, historical works written during the rule of the **Baburids** in India are not inferior in number or scholarly value to those produced during the era of **Amir Temur**.

For example, *Baburnama* by **Zahiriddin Muhammad Babur**, *Humayunnama* by **Gulbadan Begim**, *Akbarnama* and *Ain-i Akbari* by **Abu'l-Fazl Allami**, *Tabaqat-i Akbari* by **Nizam al-Din Ahmad Dehlavi**, *Tazkirat-i Zikr-i Padshahkhanayi Deccan* by **Abdulhaq Sayfiddin Bukhari**, *Tuzuk-i Jahangiri* by **Jahangir Shah**, *Tarikh-i Firishta* or *Gulshan-i Ibrahimi* by **Muhammad Qasim Hindushah**, *Muntakhab al-Tawarikh* by **Abdul Qadir Badauni**, *Iqbalnama-yi Jahangiri* or *Jahangirnama* by **Sharif ibn Dust Mutamad Khan**, *Zafarnama-yi Shahjahani* by **Abu Talib Hamadani**, *Padshahnama* or *Shahjahanama* by **Abdul Hamid Lahori**, *Tarikhnama* by **Jalal al-Din Shirazi**, *Lata'if al-Akhbar* by **Rashid Khan Badi**, *Amal-i Salih* by **Muhammad Salih Lahuri**, *Khulasat al-Tawarikh* by **Sanjay Rai Munshi**, *Ma'asir-i Alamgiri* by **Muhammad Saqi Musta'id Khan**, *Mukhtasar-i Latif* by **Rup Narayan Kikhtari**, and many others.

As is well known, in our country science, literature, fine arts, calligraphy, and music had been highly developed even before the Timurid period. From the second half of the fifteenth century onward, these fields flourished even more. During this time such figures as **Alisher Navoiy**, **Abdurahman Jami**, **Kamoliddin Behzad**, **Mirhond**, **Safi Bukhari**, **Kamoliddin Husayn Jalair**, **Khoja Muhammad** and **Jalaliddin Muhammad Andijani**, as well as **Darvishali Changi**, and dozens of other renowned enlighteners and artists were active. A significant contribution to the great culture of that period was also made by **Giyath al-Din Khwandamir**.

He was a disciple of the great thinker, poet, and writer **Alisher Navoiy**, and the grandson of the eminent historian **Mirhond**, and was one of the mature scholars of his time. Khwandamir's rich and substantial scholarly legacy is an important source for studying the distant past of our people and their high culture. Through their immortal historical works, they enriched our centuries-old culture and left an inexhaustible mark on the history of scholarship.

The valuable scholarly heritage of **Giyath al-Din Khwandamir** has been thoroughly studied by the outstanding orientalist of our time and our mentor, Academician **Dilorom Yusupova**. In each of Khwandamir's works, the past history of the people and the stirring events of those times are vividly depicted.

*Khulasat al-Akhbar fi Ahwal al-Akhyar* ("A Summary of World Information on the Conditions of the Virtuous") was completed between 1448 and 1499. *Dastur al-Wuzara* ("Instruction for Viziers") was completed in 1500. Another valuable work, *Ma'asir al-Mulk* ("Contemporaries of the Timurid Rulers"), was also completed in 1500. The fact that Khwandamir completed two or even three works at the same time is, of course, remarkable.

Another work by the historian, *Makarim al-Akhlaq* ("The Book of Noble Qualities"), was completed in the year of **Alisher Navoiy's** death and was dedicated specifically to him. One more substantial work, *Nama-yi Nami* ("Famous Names"), was written around 1525 or possibly later. Finally, Khwandamir's most famous work, *Habib al-Siyar fi Akhbar wa Afrad al-Bashar* ("Biographies of Beloved Friends and Selected Figures"), was written between 1515 and 1527.

As is known, in the final years of his life—namely, in the summer of 1527—**Giyath al-Din Khwandamir** left for India to serve **Zahiriddin Muhammad Babur**, and in the autumn of 1528 he arrived at Babur's court. At that time, Babur was residing in the city of Awadh. According to information provided in the famous *Baburnama*, the renowned poet **Shahab Mu'ammayy**, the teacher of the large **Sultaniya** madrasa in Herat **Amir Ibrahim Mashhadi**, and **Giyath al-Din Khwandamir** all arrived at Babur's court. The shah received them with great honor and respect and granted them positions among the court officials. This fact demonstrates that **Zahiriddin Muhammad Babur** deeply valued learning and enlightenment and highly esteemed figures of science, culture, and literature. Khwandamir remained by Babur's side and served him faithfully until Babur's death.

After Babur's death, Khwandamir served his son and heir to the throne, **Nasir al-Din Humayun Shah**, and also became one of his close companions. During his service under Humayun Shah, at the ruler's request, Khwandamir wrote and left his final work. The scholarly object of our research is precisely this work, entitled *Qanun-i Humayuni* ("The Laws of Humayun") or *Humayunnama*.

Humayun Shah, like his father **Zahiriddin Muhammad Babur** and his great-grandfather **Amir Temur**, sought to implement distinctive reforms in state governance. The history and processes of these reforms are reflected in *Qanun-i Humayuni*. This work may be regarded as a kind of continuation of *Temur Tuzuklari* ("The Code of Temur"), that is, as an extension of Timurid traditions of state administration adapted to the conditions of India.

*Qanun-i Humayuni* has attracted the attention of some oriental scholars. For example, the orientalist **Nasiba Qarieva** used this work in her кандидатская dissertation. However, the work has not been specifically studied as an independent scholarly object nor fully presented to the public. Therefore, its study remains a relevant and important task.

*Qanun-i Humayuni* has come down to us in three manuscript copies: one preserved in the **British Museum** (London), the second in **Tehran** (Iran), and the third in **Saint Petersburg** (Russia). There is also a copy published in India and translated into English. In 1940, the work was published in India by the Iranian researcher **Hiloyat Husayn**. Although the work is relatively small in volume (53 pages), it possesses great scholarly value.

Written in Persian, *Qanun-i Humayuni* provides detailed information about Humayun Shah's accession to the throne, the reforms carried out during his reign, the distribution of days and weeks, the designation of working days, advice on daily attire, various illustrations, constructed ships, bazaars, creative activities, and his remarkable gold-woven carpet of joy, *Bisat-i Nishat*, commissioned by his order. The language of the work is elegant; it includes masnavis, qit'as, bayts, and poems, while well-chosen verses from the Qur'an illuminate the human soul.

At present, this work has been fully translated from Persian into Uzbek; only scholarly editing and the preparation of commentaries and explanations remain to be completed.

## GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR

**Bekmirzayev Ilhomjon Isroiljonovich**

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti, “Ijtimoiy fanlar va ta’lim” kafedrası

professori, tarix fanlari doktori (DSc)

Globallashuv bugungi davrning eng muhim ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlaridan biri sifatida butun dunyo xalqlarining hayotiga chuqur ta’sir ko’rsatmoqda. Bu jarayon iqtisodiy integratsiya, axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi, madaniyatlararo muloqotning kengayishi va turli qadriyatlarining bir-biriga yaqinlashuvi orqali namoyon bo’ladi. Ayniqsa, yoshlar hayotida globallashuvning ta’siri yanada sezilarli bo’lib, ularning dunyoqarashi, ma’naviyati, turmush tarzi va ijtimoiy faolligini shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Yoshlar jamiyatning eng faol, ijodkor va yangilikka intiluvchi qatlamidir. Shu bois globallashuv jarayonida ular birinchi navbatda yangi imkoniyatlar, zamonaviy bilimlar, ilg’or texnologiyalar va madaniy qadriyatlar bilan tanishadilar. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali dunyo miqyosidagi axborot oqimiga to’g’ridan-to’g’ri ulanib, global miqyosda shakllanayotgan tendensiyalarni tezda qabul qiladilar. Bu esa ularning tafakkurini kengaytiradi, zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo’lishiga yordam beradi. Shu bilan birga, globallashuvning salbiy jihatlari ham mavjud bo’lib, ular yoshlarning milliy qadriyatlaridan uzoqlashishi, iste’molchilik ruhining kuchayishi, ma’naviy bo’shliq paydo bo’lishi kabi muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Globallashuv jarayoni bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy hayoti, ta’limi, madaniyati va dunyoqarashiga chuqur ta’sir ko’rsatmoqda. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy integratsiya va texnologik taraqqiyot, balki madaniyatlararo muloqot, identitet masalalari va ta’lim tizimlarining o’zgarishini ham o’z ichiga oladi.

Yoshlar va globallashuvning ijtimoiy ta’siri ortib bormoqda. Globallashuv yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi, ularni transmilliy madaniyat oqimlariga jalb etadi. Brill nashriyotida chop etilgan *Youth and Globalization* jurnalida yoshlar hayoti ko’p darajali (iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy) kontekstda shakllanayotgani ta’kidlanadi<sup>1</sup>.

Springer nashrida chop etilgan *Youth Cultures in a Globalized World* kitobida esa globallashuv yoshlar madaniyatini shakllantirishda muhim omil sifatida ko’riladi. Unda yoshlar subkultural harakatlari va ijtimoiy faolligi globallashuvga javob sifatida talqin qilinadi<sup>2</sup>.

Globallashuv davrida yoshlar masalasi nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy va ma’naviy jihatdan ham dolzarbdir. Chunki yosh avlodning qanday tarbiya topishi, qanday qadriyatlarni o’zlashtirishi va qanday dunyoqarashga ega bo’lishi kelajak jamiyatning qiyofasini belgilaydi. Shu sababli globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasi, ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, milliy o’zlikni saqlash va global madaniyat bilan uyg’unlashtirish masalalari alohida e’tibor talab qiladi.

Globallashuv ta’lim tizimlariga ham sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. UNESCO tomonidan chop etilgan *Globalization and Education* hisobotida ta’lim siyosati, moliyalashtirish, mazmun va metodikada global standartlar shakllanayotgani, shu bilan birga mahalliy madaniyatlarining ayrim hollarda chetlab qo’yilayotgani qayd etiladi<sup>3</sup>. Shuningdek, Routledge nashrida e’lon qilingan tadqiqotda globallashuv ta’lim tizimlarini butun dunyoda qayta shakllantirib, o’quv dasturlari va pedagogik yondashuvlarni o’zgartirayotgani ta’kidlanadi<sup>4</sup>.

MDPI jurnalida chop etilgan *Young People’s Constructions of Identities: Global Perspectives* maqolasida yoshlarning identiteti globallashuv sharoitida transmilliy va ko’p qatlamli

<sup>1</sup> Weiss, L. (2020). *Youth and Globalization*. Leiden: Brill.

<sup>2</sup> Nilan, P., & Feixa, C. (2006). *Global youth? Hybrid identities, plural worlds*. London: Routledge.

<sup>3</sup> Carnoy, M. (1999). *Globalization and educational reform: What planners need to know*. Paris: UNESCO.

<sup>4</sup> Spring, J. (2008). *Research on globalization and education*. New York: Routledge.

shaklda rivojlanayotgani ko'rsatiladi<sup>5</sup>. Yoshlar global madaniyat oqimlari ta'sirida o'z milliy qadriyatlarini qayta talqin qilmoqda. Oxford University Press tomonidan chop etilgan tadqiqotlarda esa globallashuv ijtimoiy identitetlarni milliy darajadan transmilliy darajaga siljitishi mumkinligi haqida ilmiy dalillar keltiriladi<sup>6</sup>.

Globallashuvning ijobiy jihatlaridan biri shundaki, yoshlar uchun cheksiz imkoniyatlar ochiladi: xorijiy ta'lim dasturlarida qatnashish, xalqaro loyihalarda ishtirok etish, turli madaniyatlar bilan tanishish va o'z salohiyatini dunyo miqyosida namoyon etish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, bu jarayon ularni raqobatbardosh bo'lishga, zamonaviy kasblarni egallashga, innovatsion fikrlashga undaydi. Ammo bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish uchun yoshlar mustahkam ma'naviy asosga, milliy qadriyatlarga sodiqlikka va tanqidiy tafakkurga ega bo'lishlari zarur.

Shunday qilib, globallashuv davrida yoshlar masalasi ko'p qirrali va murakkab jarayon sifatida ko'rilishi lozim. Bu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlarini chuqur tahlil qilish, yosh avlodni global dunyo bilan uyg'un holda tarbiyalash, ularning milliy o'zligini saqlab qolish va zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Yosh avlodning bilimli, kasb-hunarli, ma'naviy barkamol bo'lib voyaga yetishi nafaqat jamiyatning bugungi taraqqiyoti, balki kelajak istiqboli uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlar bilan muntazam muloqotlar tashkil etilib, ularning fikr-mulohazalari, orzu-intilishlari va tashabbuslari davlat siyosatida o'z aksini topmoqda.

“Ko'ksaroy” qarorgohida bo'lib o'tgan navbatdagi uchrashuvda mamlakatimizning barcha hududlaridan, jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 60 mingdan ortiq yoshlar vakillari ishtirok etgani bu jarayonning qanchalik keng ko'lamli va muhim ekanini ko'rsatadi. Davlat rahbari yig'ilganlarni samimiy qutlab, O'zbekistondagi 22 milliondan ziyod yoshlar timsolida ulkan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuchni ko'rayotganini ta'kidlaydi. Bu fikr globallashuv davrida yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni naqadar muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Prezident tomonidan bildirilgan fikrlarda har bir vazirlik, hokimlik, oliy ta'lim muassasalari, texnikum va maktab rahbarlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklandi. Ular o'z hududidagi yoshlarning til va kasb-hunar o'rganishi, sport bilan shug'ullanishi, g'oya va loyihalarini amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratishi, startap tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi, eng muhimi, yoshlarni ishli va daromadli qilishga mas'ul ekanliklari alohida qayd etildi. Bu yondashuv globallashuv sharoitida yoshlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, ularni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirishga qaratilgan.

So'nggi yillarda yaratilgan keng imkoniyatlar natijasida yoshlarimiz xalqaro miqyosda yuksak natijalarga erishmoqda. Jahon fan olimpiadalarida 66 ta oltin, 147 ta kumush va 221 ta bronza medalining qo'lga kiritilishi O'zbekiston yoshlari intellektual salohiyatining yuksak darajada ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, Garvard, Yel, Prinston, Kolumbiya, Kornell kabi dunyoning eng nufuzli oliygohlarida 500 nafardan ortiq yoshlarimiz tahsil olayotgani, TOP-100 talik reytingdagi universitetlarda 3,5 mingdan ziyod o'g'il-qizlarimiz o'qiyotgani globallashuv davrida ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarning yorqin ifodasidir.

Innovatsion fikrlashga intilayotgan yoshlarimiz tomonidan yaratilgan 63 ta startap loyihasining AQSh, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlar bozoriga kirib borgani esa O'zbekiston yoshlari nafaqat ichki, balki xalqaro miqyosda ham o'z o'rnini topayotganini ko'rsatadi. Sport sohasida ham yoshlarimiz xalqaro arenalarda 720 ta oltin, 671 ta kumush va 854 ta bronza medalini qo'lga kiritib, mamlakatimiz sha'nini yuksaltirmoqda. Bugungi kunda yosh tadbirkorlar yurtimizdagi biznes vakillarining 35 foizini

<sup>5</sup> Harris, A. (2016). Young people's constructions of identities: Global perspectives. *Youth Studies Australia*, 35(2), 45–59.

<sup>6</sup> Held, D., & McGrew, A. (2007). *Globalization theory: Approaches and controversies*. Oxford: Oxford University Press.

tashkil etayotgani esa iqtisodiy sohada yoshlarning faolligi va tashabbuskorligini yaqqol namoyon etadi.

Globalashuv davrida yoshlarimizning bunday yutuqlari O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'sini oshiribgina qolmay, balki milliy taraqqiyotning mustahkam poydevorini yaratmoqda. Shu bois yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida doimo e'tibor markazida bo'lib kelmoqda.

Turon hududi turkiy xalqlar uchun qadimdan buyuk sivilizatsiyalar markazi bo'lib kelgan. Bu yurt nafaqat ilm-fan, adabiyot va madaniyatda, balki yosh avlod tarbiyasida ham o'ziga xos an'analarni shakllantirgan. Har bir sulola hukmronligi davrida yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, ularning jamiyatdagi o'rni va kelajakdagi mas'uliyati alohida e'tibor markazida bo'lgan. Globalashuv davrida yoshlar masalasini o'rganishda tarixiy tajribaga murojaat qilish muhim, chunki o'tmishdagi yondashuvlar bugungi kun uchun ham ibratli saboqlar beradi.

Xorazmshohlar davrida yoshlar tarbiyasi. Xorazmshohlar sulolasi hukmronlik qilgan davrda yosh shahzodalar va malikalar tarbiyasi davlat siyosatining muhim qismi bo'lgan. Har bir shahzoda kelajakda hukmdorlikka tayyorlanishi uchun maxsus muallimlar qo'yilgan, ular diniy bilimlar, arab va fors tillarini o'rganish, shariat asoslari, adabiyot, tarix va harbiy san'atdan saboq olishgan. Harbiy san'atni o'rganish alohida ahamiyat kasb etgan, chunki hukmdorlik faqat siyosiy emas, balki harbiy salohiyatni ham talab qilgan. Yosh shahzodalar jangovar mashqlar, ot choptirish, qilichbozlik va jangovar strategiyalarni o'rganib, amalda qo'llashga tayyorlangan. Bu jarayon ularni nafaqat hukmdorlikka, balki xalqni himoya qilishga ham tayyorlagan. Shuningdek, Xorazmshohlar davrida ilm-fan va madaniyatga e'tibor berilgan, yoshlar madrasalarda ta'lim olib, diniy va dunyoviy bilimlarni egallashgan.

Somoniylar davrida yoshlar ta'limi. Somoniylar davrida ilm-fan va adabiyot yuksak darajada rivojlangan. Bu davrda yoshlar arab va fors tillarida ta'lim olib, dunyoqarashlarini kengaytirganlar. Somoniylar hukmronligi davrida Buxoro va Samarqand ilmiy markazga aylangan, yoshlar bu yerda diniy ilmlar bilan bir qatorda falsafa, mantiq, tibbiyot, matematika va adabiyotdan saboq olishgan. Yosh avlodning ilmga bo'lgan qiziqishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan, olimlar va shoirlar saroyda e'zozlangan. Bu davrda shakllangan ilmiy muhit yoshlarning tafakkurini kengaytirib, ularni nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlar bilan ham qurollantirgan. Somoniylar davrida yetishib chiqqan olimlar keyinchalik butun islom olamida mashhur bo'lgan.

Buxoro va Samarqand madrasalari. Buxoro va Samarqand madrasalari asrlar davomida musulmon dunyosining eng mashhur ilmiy markazlari bo'lib kelgan. Bu madrasalarda yosh avlod diniy va dunyoviy bilimlar bilan qurollangan. Qur'on, hadis, fiqh, tafsir kabi diniy fanlar bilan bir qatorda matematika, falakiyot, tibbiyot, falsafa va adabiyot ham o'qitilgan. Madrasalarda ta'lim olayotgan yoshlar nafaqat ilmiy bilimlarni egallagan, balki ma'naviy poklik, halollik, sabr-toqat kabi fazilatlarini ham o'zlashtirgan. Bu markazlar butun musulmon dunyosida mashhur bo'lib, ko'plab olimlar va mutafakkirlar aynan shu madrasalarda ta'lim olgan. Yosh avlodning ilmga bo'lgan qiziqishi va ma'naviy barkamolligi bu markazlarda shakllangan.

Amir Temur o'z davrida nafaqat buyuk sarkarda, balki davlat arbobi sifatida ham yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat bergan. Uning farzandlari va nabiralari davlat boshqaruvi, harbiy san'at, diplomatiya va ilm-fan sohalarida puxta ta'lim olganlar. Temuriy malikalar ham ma'naviy jihatdan yuksak tarbiya ko'rgan, ayrimlari ilm-fan va adabiyot homiylari sifatida tanilgan. Masalan, Ulug'bekning ilmiy maktabi, Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-adabiy merosi bularning barchasi temuriylar davrida yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan e'tiborning natijasidir.

Temuriy shahzodalar uchun maxsus muallimlar tayinlangan, ular diniy bilimlar, arab va fors tillari, matematika, falakiyot, tarix va adabiyotdan saboq olganlar. Bu jarayon yoshlarni nafaqat davlat boshqaruviga, balki ilmiy izlanishlarga ham tayyorlagan. Ulug'bekning Samarqanddagi rasadxonasi va ilmiy maktabi yosh avlodning ilm-fan sohasidagi yuksak salohiyatini ko'rsatadi.

Islom sivilizatsiyasi markazida yosh avlod tarbiyasi eng muhim masalalardan biri bo'lgan. Qur'on va hadisda ilm olish, ota-onaga hurmat, halollik va ma'naviy poklik yoshlar tarbiyasining asosiy tamoyillari sifatida belgilangan. Imom Buxoriy hayoti bunga yorqin misoldir. Uning onasi

o'g'lining ta'lim olishi uchun katta jasorat ko'rsatgan, ilmga bo'lgan muhabbatni singdirgan. Natijada Imom Buxoriy hadis ilmining eng buyuk namoyandaligidan biriga aylangan.

Shuningdek, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy kabi allomalar ham yoshligidan ilmga qiziqib, keyinchalik butun islom olamida tan olingan ulug' zotlarga aylanganlar. Bu misollar islom sivilizatsiyasida yoshlarning ta'lim-tarbiyasi qanday yuksak darajada bo'lganini ko'rsatadi. Turon hududida faoliyat olib borgan sulolalar yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Xorazmshohlar davrida yosh shahzodalar harbiy san'at va davlat boshqaruvi sirlarini o'rgangan, Somoniylar davrida ilm-fan va adabiyotga katta e'tibor berilgan, Buxoro va Samarqand madrasalari yosh avlodni diniy va dunyoviy bilimlar bilan qurollantirgan, Alisher Navoiy esa o'z asarlarida yoshlarning ma'naviy barkamolligini ta'kidlagan. Bu tarixiy misollar globallashuv davrida yoshlar masalasiga yondashishda ibratli saboq bo'lib xizmat qiladi.

Islom huquqi olimlari ham o'zlarida jamlagan ilmlarini bir-birlariga meros qoldirgan. Turon hududining o'zida dastlab islom ilmlari oilalarda shakllangan. Aytaylik, Iyodiyalar oilasi, Pazadviylar oilasi, Mozalar oilasi, Sadrlar oilasi kabi olimlar shakllanib, yetishib chiqqan oilalar mashhur bo'lgan. Bundan ko'rinib turibdiki, ma'lum bir ilm otadan farzandlarga, nabiralarga o'tib kelgan. Yuridik fanlari doktori, professor Abdulkhakim Shar'iy Juzjoniy bir-biridan fiqh ilmini o'rgangan ustoz-shogirdlar va ota-bolalar haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tgan. Masalan Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya sharh bidoyatil muftadi" asariga yozilgan eng mashhur sharhlarning muallifi Buxorolik faqih alloma Sadrush sharia Ahmad ibn Jamoluddin Ubaydulloh al-Mahbubiy al-Buxoriy, uning o'g'li Tojush sharia Mahmud ibn Sadrush sharia, Tojush sharianing ikkinchi nabirasi Ubaydulloh ibn Mas'ud shular jumlasidandir<sup>7</sup>.

Globallashuv davrida yoshlar masalasi haqida olib borilgan tahlillar, shuningdek, Turon hududidagi tarixiy tajribalar va islom huquqi olimlarining merosiy faoliyati bir narsani ko'rsatadi: yosh avlod tarbiyasi va huquqlarini kafolatlash masalasi har doim jamiyat taraqqiyotining markazida bo'lgan. Tarixiy misollarda — Amir Temur davrida shahzodalar ta'limi, Somoniylar davrida ilm-fan markazlari, Buxoro va Samarqand madrasalari, jadidlar harakati, hamda fiqh olimlari oilalarida ilmning avlod-dan-avlodga o'tishi — barchasi yoshlarning ilmiy, ma'naviy va huquqiy tarbiyasiga qaratilgan yuksak e'tiborning ifodasidir.

Islom huquqi manbalarida bolalar va yoshlarning huquqlari alohida kafolatlangan. Burhonuddin Marg'inoniy "Hidoya" asarida bolalar nafaqasi masalasiga maxsus bo'lim ajratgan bo'lsa, boshqa fiqhiy asarlarda ham yoshlarning huquqiy himoyasi, ota-onaning mas'uliyati va jamiyatning tarbiyaviy vazifalari keng yoritilgan. Bu esa shariatning ijtimoiy adolat tamoyillari yosh avlodning huquqlarini himoya qilishga qaratilganini ko'rsatadi.

Islom huquqida yoshlarning, bolalarning huquqi kafolatlangan. Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya sharh bidoyatil muftadi" asarida bolalar nafaqasining kafolatlangani haqida berilgan ma'lumotlar uchun maxsus bo'lim ajratgan<sup>8</sup>. Bu kabi holatlarni nafaqat Burhoniddin Marg'inoniyning, barcha ajdodlarimizning fiqhiy asarlarida ham uchratishimiz mumkin.

Tarixiy tajribalar va fiqhiy merosni umumlashtirgan holda, ilmiy muammo shunday yechimga ega: globallashuv davrida yoshlar tarbiyasi va huquqlarini kafolatlash masalasi faqat zamonaviy siyosiy va ijtimoiy mexanizmlar bilan emas, balki tarixiy meros va diniy-huquqiy tamoyillar bilan uyg'un holda hal etilishi lozim. Yosh avlodning huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyati va ma'naviy barkamolligi jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqqan holda:

- yoshlar tarbiyasi tarixiy meros va globallashuv sharoitida uyg'un yondashuvni talab qiladi.
- Islom huquqi va fiqhiy meros yoshlarning huquqlarini kafolatlashda zamonaviy

<sup>7</sup> Qarang: A. Sh. Jo'zjoniy. Marg'inoniy va uning izdoshlari. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2000. – B. 33-34.

<sup>8</sup> Burhonuddin Marg'inoniy. Hidoya sharh bidoyatil muftadi – 2. – Toshkent: "Hilol-Nashr", 2025. B. 529.

huquqiy tizimlar uchun ham asosiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

- Tarixiy tajribalar ilmning avlodan-avlodga o'tishi, madrasalar va ilmiy oilalar faoliyati bugungi globallashuv davrida yoshlar siyosatini shakllantirishda ibratli model sifatida qo'llanishi mumkin.

Demak, globallashuv davrida yoshlar masalasiga yechim sifatida tarixiy merosni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish, yoshlarning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash va ularni ilmiy-ma'naviy barkamollikka yetaklash eng muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

#### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar:**

1. Carnoy, M. (1999). Globalization and educational reform: What planners need to know. Paris: UNESCO.
2. Harris, A. (2016). Young people's constructions of identities: Global perspectives. Youth Studies Australia, 35(2), 45–59.
3. Held, D., & McGrew, A. (2007). Globalization theory: Approaches and controversies. Oxford: Oxford University Press.
4. Nilan, P., & Feixa, C. (2006). Global youth? Hybrid identities, plural worlds. London: Routledge.
5. Spring, J. (2008). Research on globalization and education. New York: Routledge.
6. Weiss, L. (2020). Youth and Globalization. Leiden: Brill.
7. Sh. Jo'zjoniy. Marg'inoniy va uning izdoshlari. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2000. – B. 33-34.
8. Burhonuddin Marg'inoniy. Hidoya sharh bidoyatil mubtadi – 2. – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2025. B. 529.

## **SUN'IY INTELLEKT VA NEYROSETLARNING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

**Ganiyeva Muborak Adilovna**  
“Tashkent International University”  
xalqaro universiteti  
Ijtimoiy fanlar va ta'lim kafedrası  
v.b. professori

XXI asrda raqamli transformatsiya ta'lim tizimini tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltirdi. An'anaviy ta'lim modellari o'quvchilar ehtiyojlarini to'liq qamrab olmayotgani sababli sun'iy intellekt va neyroset texnologiyalari ta'limni modernizatsiya qilishning muhim vositasiga aylanmoqda.

Sun'iy intellekt inson intellektiga xos o'rganish, tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini modellashtiruvchi texnologiyalar majmui bo'lib, ta'limda o'quv jarayonini intellektual boshqarish imkonini beradi. Neyrosetlar esa katta hajmdagi ma'lumotlar orasidagi yashirin bog'liqliklarni aniqlab, o'quvchilar faoliyatini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi [2].

Pedagogik nuqtai nazardan sun'iy intellekt quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: ta'limni ma'lumotlarga asoslangan boshqarish; o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash; adaptiv o'qitishni tashkil etish; doimiy teskari aloqani yo'lga qo'yish; o'qituvchi faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

Didaktik tizimning barcha komponentlariga (maqsad, mazmun, metod, vosita, natija) sun'iy intellekt sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Natijada ta'lim jarayoni yanada shaxsga yo'naltirilgan va samarali tus oladi.

Zamonaviy didaktikaning muhim tamoyillaridan biri – individual yondashuvdir. An'anaviy auditoriya sharoitida buni to'liq amalga oshirish murakkab va sun'iy intellekt esa quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: o'quvchi modelini yaratish; bilim darajasini aniqlash; o'rganish tezligini baholash; shaxsiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Neyrosetlar yordamida o‘quv materiali murakkabligi, hajmi va ketma-ketligi o‘quvchining individual xususiyatlariga moslashtiriladi. Bu esa “bir xil dastur – turli o‘quvchi” muammosini sezilarli darajada kamaytiradi.

Learning analytics o‘quv ma’lumotlarini tahlil qilish orqali pedagogik qarorlarni optimallashtirishga xizmat qiladi [4]. Neyrosetlar yordamida: o‘zlashtirish darajasi prognoz qilinadi; xavf guruhidagi talabalar aniqlanadi; drohout xavfi kamaytiriladi; individual o‘quv trayektoriyasi belgilanadi. Bu yondashuv ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Sun’iy intellekt baholash tizimini quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtiradi: avtomatik tekshiruv; formatif monitoring; diagnostik tahlil; tezkor va individual feedback.

Real vaqtli feedback o‘quvchining xatolarini darhol ko‘rishiga va o‘zini boshqarib o‘rganishiga yordam beradi. Bu esa o‘z-o‘zini tartibga soluvchi o‘rganish (self-regulated learning)ni rivojlantiradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim natijalarining uch bosqichini kompleks qo‘llab-quvvatlaydi: **bilimlarni egallash** – adaptiv kontent orqali; **ko‘nikmalarni shakllantirish** – moslashtirilgan mashqlar orqali; **kompetensiyalarni rivojlantirish** – simulyatsiya va muammoli vaziyatlar orqali.

Virtual laboratoriyalar, chatbotlar va simulyatorlar amaliy ko‘nikmalarni xavfsiz muhitda rivojlantirish imkonini beradi.

### 1-jadval

#### Learning analytics atamasining o‘zbek tilidagi tarjima variantlari va ularning qo‘llanishi

Inglizcha atama	O‘zbekcha tarjima	Qo‘llanish darajasi	Qisqa izoh
Learning analytics	O‘quv tahlili	Eng ko‘h qo‘llanadi	O‘quv jarayoniga oid ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishga xizmat qiladi
Learning analytics	Ta’limiy analitika	Ilmiy uslubda ishlatiladi	Ma’lumotlar asosida pedagogik qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan faoliyat
Learning analytics	O‘qishni tahlil qilish	Kamroq qo‘llanadi	O‘quvchilarning o‘rganish faoliyatini kuzatish jarayonini bildiradi

Zamonaviy yondashuvga ko‘ra, sun’iy intellekt o‘qituvchini almashtirmaydi, Balki uning roli quyidagicha taqsimlanadi:

**Sun’iy intellekt:** ma’lumotlarni tahlil qiladi; prognoz beradi; tavsiyalar ishlab chiqadi.

**O‘qituvchi:** pedagogik qaror qabul qiladi; motivatsiya beradi; ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlaydi; tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda mazkur model eng samarali yondashuv sifatida e’tirof etilmoqda [1]. Oliy ta’limda sun’iy intellektdan samarali foydalanish quyidagi omillarga bog‘liq: pedagogik maqsad ustuvorligi; adaptiv ta’lim muhitini yaratish; o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi; learning analytics infratuzilmasi; pedagogik etika va ma’lumotlar xavfsizligi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt va neyroset texnologiyalari ta’limning individual yondashuvini hosil qiladi, adaptiv o‘qitishni rivojlantirish, baholashni obyektivlashtirish hamda kompetensiyalarni shakllantirishda katta didaktik ahamiyatga ega.

Ular ta’lim jarayonini moslashuvchan, ma’lumotlarga asoslangan va shaxsga yo‘naltirilgan tizimga aylantiradi. Biroq ushbu texnologiyalarni joriy etishda pedagogik maqsadga muvofiqlik, metodik asoslanganlik, etik me’yorlar va o‘qituvchining yetakchi rolini saqlash muhim shart hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, sun’iy intellekt va neyroset texnologiyalarini ta’lim jarayoniga samarali joriy etish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

**Pedagogik maqsad ustuvorligini ta'minlash.** Sun'iy intellekt vositalarini joriy etishda texnologik imkoniyatlardan ko'ra didaktik maqsadlar ustuvor qo'yilishi, har bir raqamli yechim o'quv natijalarini yaxshilashga xizmat qilishi lozim.

**Adaptiv ta'lim platformalarini bosqichma-bosqich joriy etish.** Oliy va umumiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oluvchi adaptiv o'qitish tizimlarini sinovdan o'tkazish va kengaytirish maqsadga muvofiq.

**Learning analytics infratuzilmasini yaratish.** Ta'lim muassasalarida o'quv ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va vizuallashtirish imkonini beruvchi yagona analitik hlatformalarni ishlab chiqish zarur.

**O'qituvchilarning raqamli va sun'iy intellekt kompetensiyasini rivojlantirish.** Pedagog kadrlar uchun sun'iy intellektdan didaktik foydalanish bo'yicha malaka oshirish kurslari, mikrosertifikat dasturlari va amaliy treninglar tizimini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

**"Human-in-the-loop" modelini metodik jihatdan mustahkamlash.** Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt yordamchi vosita sifatida qo'llanilib, yakuniy pedagogik qaror har doim o'qituvchi tomonidan qabul qilinishini ta'minlovchi metodik yo'riqnomalar ishlab chiqilishi zarur.

**Baholash tizimini intellektuallashtirish.** Formativ baholash, diagnostik monitoring va real vaqtli feedbackni qo'llab-quvvatlovchi SI asosidagi baholash vositalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish maqsadga muvofiq.

**Pedagogik etika va ma'lumotlar xavfsizligini kuchaytirish.** Talabalar ma'lumotlarini himoya qilish, algoritmik shaffoflikni ta'minlash hamda sun'iy intellektdan foydalanish etik standartlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

**Milliy raqamli ta'lim kontentini rivojlantirish.** O'zbek tilidagi intellektual o'quv resurslari, adaptiv elektron darsliklar va neyrosetga mos o'quv ma'lumotlar bazasini yaratish strategik ahamiyatga ega.

**Ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlarini kengaytirish.** Oliy ta'lim muassasalarida "AI in Education" yo'nalishida ilmiy laboratoriyalar tashkil etish va hilot loyihalarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

**Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.** Yetakchi xorijiy universitetlar va texnologik markazlar bilan qo'shma loyihalar, akademik almashinuv va grant dasturlarini kengaytirish sun'iy intellektni ta'limga joriy etishni jadallashtiradi.

Kelgusida sun'iy intellekt va neyrosetlar kompetensiyaviy ta'lim modelining muhim tarkibiy qismiga aylanishi kutilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). **Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education.** Hearson.
2. LeCun, Y., Bengio, Y., & Hinton, G. (2015). Deep learning. *Nature*, 521(7553), 436–444.
3. Holmes, W., & Tuomi, I. (2022). **State of the Art and Practice in AI in Education.** Eurohean Commission.
4. Siemens, G., & Baker, R. (2012). Learning analytics and educational data mining. *LAK Conference Proceedings.*
5. Beshalko, V. H. (2008). **Pedagogika va ilg'or ta'lim texnologiyalari.** Moskva.
6. Muslimov, N. A. (2016). **Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash metodikasi.** Toshkent: Fan.

## **BULLING ISHTIROKCHILARINING SHAXSLARARO MUNOSABATDAGI O‘ZIGA XOSLIGI**

**Nozima Mullabaeva Makhmudjanovna**

“Tashkent International University” xalqaro universiteti prof.v.b,

Psixologiya fanlari doktori (DSc)

E-mail: [noz1978@mail.ru](mailto:noz1978@mail.ru)

Bugungi kunda jahonda ta’lim jarayonidagi psixologik xavfsizlik masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, psixologik xavfsizlik masalalari bugungi kunning eng dolzarb mavzularidan biri bo’lib, ta’limdagi xavfsizlik bolalarning bir qator shaxs xususiyatlarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. 2021 yilda xalqaro kunning asosiy mavzusi sifatida kiberbulling va onlayn zo’ravonlikka qarshi kurash masalalari yoritildi. kiberbulling.net saytining ma’lumotlariga ko’ra, bulling sodir etuvchi agressorlarning 70 foizi boshqalarning shaxsiy ma’lumotlarini chop qilishni maqbul ish deb hisoblasalar, 45% erkak (40% ayol) agressorlar salbiy postlar yozib turishlarini tan olganlar. Biroq, atigi 5% agressorlarga o’zlari amalga oshirgan bulling uchun uyaliq va aybdorlik his etishlarini bildirganlar. YUNESKO ma’ruzasida keltirilgan statistik ma’lumotlarga ko’ra har uchtdan bir o’quvchi har xil turdagi zo’ravonlikka uchrar ekanlar [6].

Birinchi navbatda skandinaviyalik psixologlarning tadqiqotlari natijasida bulling profilaktikasining fenomenologik va texnologik jihatlari tahlil qilingan va ularning tahlili natijasida dunyo olimlari bulling bo’yicha ilmiy tahlillarni amalga oshira boshladilar. Bu mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hamma bullingning barcha ishtirokchilarida og’ir asoratlar saqlanib qolishi bilan izohlanadi. Rossiyada bulling va ta’qib mavzusi bo’yicha turli davrlarda turli olimlar tadqiqot olib borganlar: I.S.Kon, S.N.Yenikolopov, V.S.Sobkin, S.V.Krivsova, A.A.Bochaver, K.D.Xlomovlar shular jumlasidandir. Bulling fenomeni shaxs psixologiyasi, sotsial va klinik psixologiyaning predmeti sifatida o’rganilmoqda. Munosabatlar, agressiyalar, hokimiyatni o’rganish maqsadida eksperimentlar o’tkazilgan (eng yorqin eksperimentlardan Stenli Milgrem elektrik kuchlanishlar bilan va Filipp Zimbardoning qamoq eksperimenti), ulardan olingan ma’lumotlar tahlili ko’plab olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keltirib o’tilgan [1].

*Bevosita bulling* - bolaga nisbatan urish, haqorat qilish, mas’hara qilish, uning buyumlariga zarar yetkazish yoki pulini olib qo’yish hamda *bilvosita bulling* – mishmishlar tarqatish, boykot e’lon qilish, qochish, do’stlik orqali manipulyatsiya qilish («*Agar sen u bilan do’st bo’lsang, mening do’stim emassan*») kabi bulling ko’rinishlarini ajratishimiz mumkin. Bundan tashqari, jinsiy xarakterdagi haqoratlar, tahdidlar, irqiy xarakterga ega bo’lgan laqablar ham shular jumlasiga kiradi. Bevosita bulling, asosan, kichik maktab yoshida, bilvosita bulling esa o’smirlik va o’spirinlik davriga ko’proq xosdir (Farmer, Xie, 2007) [2, 3]. O’g’il bolalar qizlarga nisbatan ta’qibning turli ko’rinishlarida ishtirok etishga moyilroq bo’ladilar (Cook et al., 2010). O’g’il bolalar ko’proq jismoniy ta’qib qurbonlari bo’lishlari mumkin: ularning pullarini tortib olishadi, buyumlariga zarar yetkazishadi, va ularga tahdid qilib ma’lum bir faoliyatni bajarishga majbur qilishadi. Qizlarda esa bulling aksariyat hollarda mish-mishlar, haqoratomuz so’zlar va xatti-harakatlarda namoyon bo’lishi mumkin (Finkelhor et al., 2005; Nansel et al., 2001; Olweus et al., 2007). Internetning keng tarqalishi bilan bullingning yangi shakli – *kiberbulling* paydo bo’ldi. Kiberbulling zamonaviy texnologiyalardan SMS, elektron manzil, ijtimoiy tarmoqlar orqali tahdid qilish usulidir [1].

D.Olweusning 1980 yillarda amalga oshirilgan ilk anonim tadqiqotlariga ko’ra quyidagilar aniqlangan: 15% bolalar doimiy ravishda bullingga duch keladilar, 9% bolalar bulling qurboni, 7% buller, 2% ikki xil rolda bo’ladilar (Olweus, 1993). Turli xil yillarda olimlar turli natijalarga ega bo’ldilar. Masalan, 2007 yilda AQShda o’tkazilgan tadqiqot natijalariga ko’ra 32% maktab o’quvchilari maqtabdagi bulling ishtirokchisi bo’lganliklarini tan olganlar. 2005 yilda Yevropada amalga oshirilgan kross-madaniy tadqiqotlarning ko’rsatishicha o’g’il bolalarda 9%dan

(Shvesiya) 45% gacha (Litva) bulling holatlari qayd qilingan bo'lsa, qizlarda bu ko'rsatkich 5% dan (Shvesiya) 36% gacha (Litva) bo'lar ekan. Ular har oy o'rta hisobda ikki xil ko'rinishdagi bullingni boshidan kechirar ekanlar. (Craig et al., 2009; Zaborskis et al., 2005). Umuman olganda turli xil madaniyatlarga mansub ega bo'lgan bolalar maktabda o'qish davrida 5%dan 75%gacha an'anaviy bullingga uchrashi mumkinligi haqidagi ma'lumotlar taqdim etilgan (Ryan, Morgan, 2011). Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridagi kiberbullingga kelsak, 2010 yil amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra o'rtacha 10%dan 40%gacha o'quvchi-yoshlar kiberbullingga uchraganliklari aniqlangan (Tokunaga, 2010) [4; 5].

Xulosa qilib aytganda, bulling masalalari psixologiya fani va amaliyotida eng yangi yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bulling tushunchasining nazariy va amaliy tahlili psixologiya fanining turli tarmoqlari va yo'nalishlari doirasida amalga oshiriladi. Shu paytgacha umumiy psixologiya va ijtimoiy psixologiya, mehnat psixologiyasi va psixofiziologiyasi, rivojlanish psixologiyasi, pedagogik psixologiya, psixoterapiya, ekstremal psixologiya, ekologik psixologiya sohalar doirasida xavfsizlik masalalari o'rganilgan va tahlil qilingan. Bundan tashqari sotsiologiya, tibbiyot, psixiatriya, nevrologiya, umumiy xavfsizlik nazariyalari asosida psixologik xavfsizlik tushunchalari shakllantirilgan.

### **Adabiyotlar.**

1. Albuquerque P.P. Efeitos Tardios do Bullying e Trastorno de Estresse Pos-Traumático: Uma Revisão Crítica / P.P. Albuquerque, L. Cavalcanti, S.M. D'Afonseca // *Psicologia: Teoria e Pesquisa*. – 2013. – V. 29, 1. – P.91-98

2. Баркан А. Дедовщина в школе или школьный буллинг / А. Баркан. – [Электронный ресурс]. – URL: [http://abarkan.ucoz.com/publ/dedovshhina\\_v\\_shkole\\_ili\\_shkolnyj\\_bulling/1-1-0-18](http://abarkan.ucoz.com/publ/dedovshhina_v_shkole_ili_shkolnyj_bulling/1-1-0-18) (дата обращения 05.05.2025).

3. Бочавер А.А. Кибербуллинг: травля в пространстве современных технологий / А.А. Бо-чавер, К.Д. Хломов // *Психология. Журнал Высшей школы экономики*. – 2014. – Т. 11. – № 3. – С. 177–191

4. Волкова Е.Н. Методологические основания для выработки программ профилактики подросткового буллинга / Е.Н. Волкова, Л.А. Цветкова, И.В. Волкова // *Сибирский психологический журнал*. – 2019. – №74. С.88-100. DOI 10.17223/17267080/74/5

5. Гришина Т.Г. Виктимизация подростков в травле и ее взаимосвязь с семейными факторами // *Национальное здоровье*. 2019. № 4. С. 79-88.

6. Mullabaeva Nozima Maxmudjonovna Maktabdagi xavfsiz muhit bolalar shaxsini rivojlantirish omili sifatida. Psixologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent-2022

## **RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA YOSHLAR SIYOSATI: RAQAMLI DAVRDA YOSHLAR ISHTIROKINI KUCHAYTIRISHNING HUQUQIY VA IJTIMOIY MEXANIZMLARI**

**O'lmasxo'jayev Zoirxo'ja Abbos o'g'li**  
"Tashkent International University"  
xalqaro universiteti professori

XXI asr fuqarolarning davlat bilan o'zaro munosabatlarida tub burilish (paradigma o'zgarishi) yuz bergan davr sifatida tavsiflanadi va bu jarayon asosan raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi bilan bog'liq. Ushbu o'zgarishlarning oldingi saflarida ko'pincha "raqamli avlod" (digital natives) deb ataladigan, raqamli muhitni intuitiv tushunadigan yoshlar qatlami turibdi. Biroq, texnologiyaning shunchaki mavjudligi konstruktiv fuqarolik ishtiroki yoki iqtisodiy integratsiyani kafolatlamaydi. Buning uchun raqamli xizmatlardan foydalanishni imtiyoz emas, balki fundamental huquq deb tan oladigan, puxta o'ylangan, huquqiy asoslangan va ijtimoiy qamrab oluvchi "Yoshlar siyosati" talab etiladi. Rivojlanayotgan davlatlar, xususan Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun bu masala o'ta dolzarbdir. O'zbekiston ushbu fenomen uchun noyob

va qiziqarli namuna hisoblanadi. O'rtacha yoshi G'arb davlatlariga qaraganda ancha past bo'lgan "yoshlar qatlamining kattaligi" (youth bulge) bilan mamlakatning demografik dividendi uning raqamli strategiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Hukumatning "Raqamli O'zbekiston – 2030" [5] kabi ulkan dasturi mamlakatni mintaqaviy IT-xabga aylantirishni maqsad qilgan bo'lsa-da, ushbu strategiyani muvaffaqiyati yoshlarning huquqiy va ijtimoiy safarbarligiga bevosita bog'liq. Ushbu maqola ikkita asosiy savolga javob berishni maqsad qilgan: Birinchidan, O'zbekistondagi amaldagi huquqiy bazalar yoshlarning raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatdagi ishtirokini qanchalik rag'batlantiradi yoki to'sqinlik qiladi? Ikkinchidan, ushbu siyosatning "raqamli avlod"ga bo'lgan aniq ijtimoiy ta'siri qanday? Ushbu savollarga javob berish orqali tadqiqot To'rtinchi sanoat inqilobi talablariga javob beradigan yoshlar siyosatini takomillashtirish uchun "yo'l xaritasi"ni taklif etadi. Raqamli fuqarolik bo'yicha ilmiy munozaralar texnik kirish imkoniyatiga (birinchi darajali raqamli tafovut) e'tibor qaratishdan ko'nikmalar va foydalanish darajasiga (ikkinchi darajali raqamli tafovut) qarab rivojlandi. Mossberger va boshqalar (2008) raqamli fuqarolikni "jamiyat hayotida onlayn ishtirok etish qobiliyati" deb ta'riflaydilar [4]. Yoshlar uchun bu ishtirok ikki qirralidir: iqtisodiy (gig-iqtisodiyotda bandlik, IT startaplar) va fuqarolik (faollik, ovoz berish, petitsiyalar). An'anaviy yoshlar siyosati ko'pincha yoshlarga ijtimoiy ta'minot oluvchilar sifatida qaraydi. Biroq, IHTning "Yoshlar boshqaruvi" modeli kabi zamonaviy yondashuvlar yoshlarga hamkor sifatida munosabatda bo'lishni targ'ib qiladi. So'nggi tadqiqotlar (masalan, Kligler-Vilenchik & Literat, 2020) shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar yoshlarning siyosiy munozaralarga kirishish to'siqlarini kamaytiradi [2]. O'zbekiston kontekstida so'nggi huquqiy islohotlar olimlar "rivojlanish modeli" deb ataydigan yondashuvga mos keladi, bunda davlat modernizatsiyani jadallashtirish uchun inson kapitaliga faol sarmoya kiritadi [9]. G'arbda raqamli transformatsiya bo'yicha salmoqli adabiyotlar mavjud bo'lsa-da, Markaziy Osiyo huquqiy tizimlariga qaratilgan Scopus bazasidagi tadqiqotlar kam. Ushbu maqola O'zbekistonda qo'llanilayotgan maxsus qonunchilik hujjatlari va ijtimoiy dasturlarni tahlil qilish orqali ushbu bo'shliqni to'ldirishga harakat qiladi. Ushbu tadqiqotda doktrinal huquqiy tahlilni empirik ikkilamchi ma'lumotlar tahlili bilan birlashtirgan aralash metodlardan foydalanilgan.

1. O'zbekiston Respublikasining asosiy qonunchilik hujjatlari, jumladan, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun (2016), "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va IT Park ekotizimiga oid tegishli Prezident farmonlari o'rganildi [5].

2. Statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hisobotlari va xalqaro indekslardan (BMTning Elektron hukumat sharhi 2024, Jahon bankining GovTech yetuklik indeksi) olindi [3], [8].

3. "Bir million o'zbek dasturchilari" va UNICEF tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan "U-Report" platformasi kabi maxsus dasturlar ishtirok ko'rsatkichlarini baholash uchun tahlil qilindi [7].

O'zbekistonda raqamli yoshlar siyosatining huquqiy asosi 2017-yildan buyon sezilarli darajada mustahkamlandi. *IT Park Uzbekistanning* tashkil etilishi yosh tadbirkorlarga qaratilgan maxsus huquqiy rejimni — soliq imtiyozlari va eksterritorial maqomni yaratdi. 2024-yil holatiga ko'ra, IT Park rezidentlari korporativ va ijtimoiy soliqlardan ozod qilingan bo'lib, bu siyosat yoshlar boshchiligidagi startaplar portlashiga bevosita sabab bo'ldi. Bundan tashqari, huquqiy islohotlar diskursiga raqamli huquqlarning kiritilishi "Raqamli konstitutsionalizm" sari siljishdan dalolat beradi. Davlat shuni tan oldiki, kafolatlangan internetga kirish imkoniyatisiz qishloq yoshlari uchun ta'lim olish va mehnat qilish bo'yicha qonuniy huquqlarni amalga oshirib bo'lmaydi.

Ma'lumotlar davlat investitsiyalari va yoshlarning natijalari o'rtasida mustahkam bog'liqlikni ko'rsatmoqda:

IT sektori o'sishi: IT xizmatlari eksporti hajmi 2017-yildan 2022-yilgacha 50 baravarga o'sib, 2023-yilga kelib 300 million dollardan oshdi. Ushbu o'sishni ta'minlayotgan ishchi kuchining asosiy qismi 30 yoshgacha bo'lganlardir.

Ta'lim qamrovi: "Bir million o'zbek dasturchilari" tashabbusi 1,2 milliondan ortiq yoshlarni dasturlashning asosiy ko'nikmalariga muvaffaqiyatli o'qitdi.

Fuqarolik aloqa kanallari: UNICEF bilan hamkorlikda ishga tushirilgan *U-Report* platformasi 180 000 dan ortiq yosh respondentlarni qamrab oldi. Ushbu vosita hukumatga SMS va Telegram orqali qonunchilikdagi o'zgarishlar bo'yicha yoshlarning fikrini o'rganish imkonini beradi va ilgari mavjud bo'lmagan to'g'ridan-to'g'ri aloqa mexanizmini yaratadi [7].

18-30 yosh oralig'idagi aholi qatlami orasida *my.gov.uz* (Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali)dan foydalanish darajasi boshqa har qanday yosh guruhiga qaraganda yuqori. Yoshlar universitetga hujjat topshirishdan tortib biznesni ro'yxatdan o'tkazishgacha bo'lgan raqamli davlat xizmatlarining asosiy foydalanuvchilari hisoblanadi, bu esa raqamli davlat mexanizmlariga bo'lgan ishonch yuqoriligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning yondashuvi "Davlat – platforma sifatida" nazariyasini aks ettiradi, bunda hukumat raqamli infratuzilmani (tezkor internet, startaplar uchun API kirish, soliqsiz zonalar) ta'minlaydi, yoshlar esa innovatsiyalarni taqdim etadi. Ushbu simbiotik munosabatlar shahar markazlarida yoshlar ishsizligini kamaytirdi va mamlakat ichida "raqamli ko'chmanchilar"ning yangi sinfini yaratdi. Ushbu muvaffaqiyatlarga qaramay, tanqidiy tahlil tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Jahon bankining "Raqamli inklyuziya loyihasi" (2023) qishloq hududlarida internet tezligi va barqarorligi Toshkentdan ortda qolayotganini ta'kidlaydi [9]. Qonun teng huquqlarni kafolatlagan bo'lsa-da, chekka tumandagi huquqshunos talabaniing *de-fakto* tajribasi poytaxtdagidan keskin farq qiladi. Agar infratuzilma bo'shlig'i yopilmasa, raqamlashtirish ijtimoiy tengsizlikni tuzatish o'rniga uni chuqurlashtirish xavfini tug'diradi [6]. Yoshlar ishtiroki onlayn muhitga ko'chgani sayin, ma'lumotlar maxfiyligi va kiberjinoyatchilik bilan bog'liq huquqiy xatarlar ortib bormoqda. O'zbekistonda shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunlar qabul qilingan bo'lsa-da, yoshlarning o'z raqamli izlari bo'yicha huquqiy savodxonligi pastligicha qolmoqda. Yuridik va umumta'lim maktablari o'quv dasturlariga nafaqat mutaxassislar, balki umumiy fuqarolik ta'limi uchun "Raqamli huquq"ni kiritishga shoshilinch ehtiyoj mavjud. "Raqamli yoshlar siyosati muvaffaqiyatining paradoksi bu "virtual aql oqimi" xavfidir. Yosh o'zbek dasturchilari global miqyosda raqobatbardosh bo'lib borar ekan, ular xorijiy kompaniyalarda ishlashi yoki emigratsiya qilishi mumkin. Keyingi o'n yillikdagi siyosiy vazifa nafaqat iste'dodlarni o'qitish, balki raqobatbardosh imkoniyatlarni taklif qiluvchi ichki bozorni yaratish orqali ularni saqlab qolishdan iboratdir.

Yoshlarning O'zbekiston raqamli transformatsiyasiga integratsiyalashuvi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun model bo'lib xizmat qiladi. Huquqiy rag'batlarni (soliq imtiyozlari, startaplarni qo'llab-quvvatlash) ijtimoiy dasturlar (ta'lim tashabbuslari, fuqarolik ilovalari) bilan uyg'unlashtirish orqali davlat o'z "yoshlar qatlami" energiyasidan samarali foydalandi. Biroq, ushbu siyosatni global ahamiyatga ega qilish uchun O'zbekiston "ikkinchi avlod" muammolarini hal qilishi kerak: qishloq va shahar o'rtasidagi raqamli tafovutni yo'qotish, ma'lumotlar maxfiyligi himoyasini kuchaytirish hamda texnik kodlash ko'nikmalari bilan bir qatorda tanqidiy fikrlashni qadrlaydigan raqamli madaniyatni shakllantirish [10]. O'zbekiston yoshlari uchun texnologiya endi shunchaki o'yin-kulgi vositasi emas; bu ijtimoiy mobillik va huquqiy imkoniyatlarni kengaytirishning asosiy richagidir. Mamlakat yoshlar siyosatining kelajagi, so'zsiz, raqamlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Brennen, J. S., & Kreiss, D. (2016). Digitalization. *The International Encyclopedia of Communication Theory and Philosophy*, 1-11. <https://doi.org/10.1002/9781118766804.wbiect111>
2. Kligler-Vilenchik, N., & Literat, I. (2020). Youth Digital Participation: Now More than Ever. *Media and Communication*, 8(2), 171-174. <https://doi.org/10.17645/mac.v8i2.3180>
3. Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. (2024). *Report on the Implementation of the "Digital Uzbekistan – 2030" Strategy*. Tashkent: Government Press.
4. Mossberger, K., Tolbert, C. J., & McNeal, R. S. (2008). *Digital Citizenship: The Internet, Society, and Participation*. MIT Press.

5. President of the Republic of Uzbekistan. (2020). Decree No. UP-6079 "On Approval of the Strategy 'Digital Uzbekistan - 2030' and Measures for its Effective Implementation". *Lex.uz National Database of Legislation*.

6. Salza, G., & Samuel, R. (2025). Digital engagement and youth: a scoping review of opportunities, risks, and the role of socioeconomic resources. *Journal of Youth Studies*, 1-18.

7. UNICEF Uzbekistan. (2024). *Youth Voices and Actions: U-Report and Digital Participation in Central Asia*. Retrieved from <https://www.unicef.org/uzbekistan>

8. United Nations. (2024). *E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development*. New York: UN Department of Economic and Social Affairs.

9. World Bank. (2023). *Uzbekistan Digital Inclusion Project: Project Appraisal Document*. Washington, DC: World Bank Group.

10. Xu, H. (2023). Youth engagement in promoting digital innovation to accelerate the UN SDG 4. *Sustainable Development Goals Knowledge Platform*.

## **AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING FAOL JORIY ETILISHI YOSHLARNING DUNYOQARASHI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA’SIRI**

**O’lmasxo’jayev Zoirxo’ja** PhD, professori  
“Tashkent International University”  
xalqaro universiteti mas’ul xodimi

**Ommaviy axborot vositalarida, rasmiy veb-saytlarda,  
ijtimoiy tarmoqlarda parlament palatalari majlislarini,  
har bir tadbir haqidagi axborotlarni keng va tizimli  
yoritishni kuchaytirish kerak.  
Sh. Mirziyoyev**

So‘nggi yillarda axborot texnologiyalarining faol joriy etilishi yoshlarning dunyoqarashi va yoshlar madaniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Turli elektron qurilmalar yordamida yoshlar bir-biri bilan faol muloqot qiladi, dunyoni kashf etadi, ko‘plab axborotga ega bo‘ladi. Axborot texnologiyalari tufayli yoshlar o‘rtasida o‘ziga xos madaniyat shakllana boshladi. Bir tomondan, yoshlar internetdan oladigan ma’lumotlarning iste’molchisidir. Ammo boshqa tomondan, yoshlarning o‘zlari axborot manbai bo‘lib, axborot texnologiyalari sohasida madaniyatni shakllantiradi va rivojlantiradi.

Bu jarayonning bir nechta asosiy yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

- Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot
- Kibersport
- Blog yuritish
- Virtual muzeylarni yaratish.

Internet tufayli har bir kishi nafaqat ish yoki o‘qish uchun kerakli ma’lumotlarni topishi, balki bo‘sh vaqtlarini turli ko‘ngilochar tadbirlar bilan diversifikatsiya qilishi mumkin, ularning asosiysi ijtimoiy tarmoqlardagi faol muloqotdir. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanganini hamma biladi. Axborot makoniga bo‘lgan ehtiyoj ular tomonidan insonning asosiy ehtiyojlaridan biri sifatida qabul qilinadi.

Har bir ijtimoiy tarmoq muayyan funksiyalar uchun mo‘ljallangan. Masalan, Facebook muloqot qilish, ko‘ngil ochish va yangi ma’lumotlarni olish uchun mo‘ljallangan; X (Twitter) – har qanday yoshdagi Internet foydalanuvchilari uchun veb-interfeys, tezkor xabar almashish vositalari yoki uchinchi tomon mijoz dasturlari yordamida ommaviy xabarlar uchun; Instagram – fotosuratlar va videolarni almashish uchun. Ijtimoiy tarmoqlarning afzalliklari bilan bir qatorda muayyan kamchiliklari ham mavjud.

Afzalliklari:

- Birinchidan, bu masofadagi qulay aloqa.
- Ikkinchidan, suhbatdoshni tanlash qobiliyati.
- Uchinchidan, voqealar va yangiliklar markazida bo‘lish.

Kamchiliklari:

- Haqiqiy aloqani virtual aloqa bilan almashtirish.
- Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining aksariyati ularga shunchalik ko‘nikib qolganki, ularsiz o‘z hayotini tasavvur qila olmaydi.

- Ijtimoiy tarmoqlar ko‘p vaqt oladi.
- Shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi.

Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot mavzusi bo‘yicha 30 kishi ishtirokida kichik so‘rov o‘tkazildi.

So‘rov quyidagi natijalarni berdi:

- 27 nafar respondent ijtimoiy tarmoqlarga kuniga 3 martadan ortiq kirishadi;
- 4 nafari ijtimoiy tarmoqdan faqat muloqot uchun foydalanish;
- 23 nafari o‘yin-kulgi uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish;
- 5 nafari har kuni internetga kirish zarurligini his qilishlarini tan olishdi.

Bu so‘rovnoma orqali yoshlar uchun muloqot juda muhim degan xulosaga kelishimiz mumkin, lekin agar ular o‘zlarini cheklamasa, bu narkotikaga aylanishi mumkin. Yoshlar o‘rtasida kibersportga bo‘lgan qiziqish ham juda yuqori. 2001 yildan kibersport rasmiy sport turi sifatida tan olingan. Bu sport turi o‘ziga yoqqan narsadan daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lgan yoshlar orasida katta talabga ega. Maxsus turnirlar uchun g‘oliblar sport toifalari va mukofotlarini olishadi, bu qo‘shimcha rag‘batdir. Odatda kibersportni ham ikki tomoni bor tangaga qiyoslashadi. Ya’ni uning ham ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

Ijobiy tomonlari:

- Inson o‘zi sevgan ish bilan shug‘ullanadi, jarayondan zavq oladi;
- Natijalarga erishgandan so‘ng, ma’lum doiralarda shon-shuhrat qozoniladi va karyerasining o‘sishiga imkoniyat paydo bo‘ladi;
- dunyoni ko‘rish, qiziqish doirasidagi odamlar bilan yangi tanishuvlar qilish imkoniyati;
- Uyda mashq qilish.

Kamchiliklari:

- Professional darajada o‘ynash va o‘yinning barcha nayranglari va nozik tomonlarini bilish uchun unga ko‘p vaqt ajratish kerak bo‘ladi.

Elektrosportning asosiy kamchiligi uning inson salomatligiga salbiy ta’siridir. O‘tirgan turmush tarzi jismoniy salomatlikka salbiy ta’sir qiladi. Ko‘rish va eshitish organlari ham zararlanadi, chunki o‘yinchi deyarli butun vaqtini kompyuter monitori oldida o‘tkazadi. Ba’zida insonning ruhiy salomatligi ham xavf ostida qoladi. Kompyuter o‘yinlariga qiziqqan odam uchun virtual va real dunyo o‘rtasidagi chegara juda qisqarib borishi ayni paytdagi eng dolzarb muammo sifatida qaraladi.

Virtual madaniyatning eng ommabop yo‘nalishi bu blogerlik sohasidir. Blogerlik – yoshlar orasida mashhur bo‘lgan yangi kasb. Blog yaratish oson, shuning uchun ko‘plab yoshlar bloger bo‘lishadi. Siz o‘zingizning qiziqishlaringiz asosida blog mavzusini tanlashingiz mumkin, uni mohirona boshqarish mashhurlik va yaxshi daromad keltirishi mumkin. Bugungi kunda videobloglar juda mashhur. Turli mavzular bo‘yicha sharhlar, oshpazlik reseptlari va maslahatlar, tadqiqotlar va tajribalar – bunday bloglar yuz mingdan ortiq ko‘riladi. Biroq, bloggerning kasbi ko‘rinadigan darajada oddiy emas. Blog ochishni rejalashtirayotgan har bir kishi tomoshabinlarni qiziqtirishi, tushunarli va qiziqarli tarzda yuritishi kerak. Statistika ko‘ra, yuzta blogdan faqat o‘ntasi ko‘proq yoki kamroq mashhur bo‘lishi va faqat bittasi haqiqiy mashhurlikka erishishi. Vlogging ham ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega.

Ijobiy jihatlari:

- Ijodkorlik. YouTube yoki Instagramda video yaratish ijodiy o‘zini o‘zi anglash uchun ajoyib imkoniyatdir. Aynan nima qilishingiz muhim emas, puxta o‘ylangan shou yaratish, layfstayl blokini boshqarish yoki tarjimalar qilish, har qanday shaklda ijodkorlik hayotni yangi ranglar bilan to‘ldiradi.

– Tan olinish. Odamlar sizning videolaringizni kutishlari, fikringizni tinglashlari va sizni qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini bilish kishiga o‘zgacha energiya bag‘ishlaydi. Bu esa o‘z ishidan qoniqish hissini olib keladi. Hatto kichik auditoriya ham o‘zingizga ishonch uyg‘otishi va o‘zingiz yoqtirgan narsani qilishga undashi mumkin.

– Aloqa. O‘z blogingizni yuritish sizga ham auditoriyangiz, ham hamkasblaringiz bilan muloqot qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O‘nlab, yuzlab yoki minglab odamlar siz bilan suhbatlashishdan xursand bo‘lishadi. Shuningdek, boshqa blogerlar bilan muloqot qilish orqali siz nafaqat yangi tanishlar, balki do‘stlar ham topishingiz mumkin.

Salbiy tomonlari:

– Negativlik. Fikr qoldirish qobiliyati har kimga sizning ishingiz haqida o‘z fikrini bildirish imkonini beradi. Afsuski, bu juda ko‘p nazoratsiz nafratni qo‘zg‘atadi. Ayniqsa, blogerning fikri ko‘pchilikdan farq qilganda. Muallifning fikriga qo‘shilmaslik odatiy holdir. Muayyan bosqichda negativlik endigina boshlanayotgan loyihaning ruhiyatini jiddiy ravishda buzishi mumkin. Xeyt, ya‘ni nafrat blog yurituvchi o‘smirning ruhiyatiga jiddiy zarba berishi, bu esa undagi qobiliyatlarni yuzaga chiqishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

– O‘z fikringizni o‘tkazish. Yuqoriga qarab blogerlar, ko‘pchilik o‘zlarining ideallari kabi bo‘lishni xohlashadi, ularning ta‘siriga tushib qolishadi. O‘smirlar orasida blogerning obro‘si birinchi o‘rinda turadi, ba‘zan esa yaqinlarining obro‘sidan ustun turadi. Blogerlar o‘z fikrlarini o‘tkazishlari va boshqalarning fikrini boshqarishga urinishlari mumkin. Bu esa muloqotda bag‘rikenglik va rang-baranglikni kamaytirib qo‘yadi.

Postindustrial (axborot) jamiyatining asosiy tendensiyalaridan biri globalashuv bo‘lib, uning sur‘atlarini oshirishda axborot texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi. Bu tendensiya ko‘pincha madaniyatlarning birlashishiga olib keladi. Zamonaviy jamiyatda an‘anaviy madaniy qadriyatlarni unutish xavfi mavjud.

Binobarin, bizning oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri turli xalqlarning madaniy merosini asrab-avaylashdir. Shu ehtiyoj bilan bog‘liq holda axborot texnologiyalaridan foydalanish nihoyatda muhim bo‘lib, buning natijasida madaniy meros (madaniy yodgorliklar, turli artefaktlar) raqamlashtirish orqali kelajak avlodlar uchun hamon saqlanib qolishiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Shuning uchun virtual muzeylar yaratish Internetda madaniyatni rivojlantirishning dolzarb va istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. Bu g‘oya yaqinda paydo bo‘ldi va umumiy ma‘qullandi. Ushbu texnologiya tufayli siz uyingizdan chiqmasdan turli madaniy joylarga tashrif buyurishingiz mumkin.

Albatta, ko‘pchiligimiz sayohatlar yoki diqqatga sazovor joylar haqida boshqa dasturni ko‘rganimizdan so‘ng, bu joylarga tashrif buyurishni xohlaymiz, lekin bunga vaqt va imkon yetmasligi bizni tushkun qilib qo‘yadi. Kundalik muammolar ko‘pincha orzularimizni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Virtual ekskursiyalar, albatta, kerakli ob‘yektlarga haqiqiy tashrifni anglatmaydi, ammo bu ba‘zilar uchun orzu qilingan va juda uzoq bo‘lgan joylar bilan tanishishning ajoyib usuli. 3D texnologiyasi sizga to‘liq mavjudlik hissini beradi. Siz o‘zingizning yutuqlaringizni muzeylar va galereyalar orqali o‘zingizga mos tezlikda boshqarishingiz mumkin. Siz har qanday ob‘yektga yaqindan tekshirishingiz, xonadan xonaga o‘tishingiz, istalgan vaqtda turni tark etishingiz va o‘zingiz uchun qulay bo‘lgan istalgan vaqtda davom ettirishingiz mumkin. Bular – virtual sayohatlarning afzalliklari.

Virtual ekskursiyalarning yana bir ijobiy jihati yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni san‘at orqali go‘zallik bilan tanishtirish, estetik tafakkurini oshirishdir.

Yagona kamchiligi shundaki, virtual muzeyning eng rang-barang, sifatli va qiziqarli ko‘rgazmasi ham haqiqiy muzeyga tashrif buyurishda paydo bo‘ladigan tuyg‘uni bizga to‘liq yetkaza olmaydi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, axborot texnologiyalarining hayotimizga joriy etilishi yoshlarga o‘zi sevgan ish bilan shug‘ullanish imkoniyatini bermoqda, shu bilan birga dunyoqarash kengayishi, moddiy farovonlikka erishish istagini ham qanoatlantirmoqda.

Shuni yodda tutish kerakki, Internet nafaqat madaniy ma'lumotlarni tarqatish usulidir, balki uni yaratuvchi ijodkorlikni ham rag'batlantiruvchi imkoniyatdir. Biz internet tarmog'ining demokratlashuvini kuzatishimiz mumkin, bu esa foydalanuvchilar, jumladan, yoshlarning zarur axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Shuning uchun biz internetda bepul foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarning sifati haqida o'ylashimiz kerak. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek segmentidagi kontentlarning saviyasi masalasida jiddiy o'zgarishlarni kechiktirmasligimiz lozim. Chunki yoshlar real olamdan ko'ra virtual dunyoga ko'proq o'rganib qolmoqda. Bu esa bizni yangi yondashuvlarni o'ylashga majbur qiladi.

## **RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHNING DOLZARB MASALALARI**

**Toirova Dilfuza Fayzullayevna**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Samarqand filiali, "Tillar" kafedrasida mudir,  
filologiya fanlar doktori (DSc), professor

Hozirgi globallashtirish davrida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga, xususan ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli transformatsiya ta'lim jarayonini tashkil etish, bilimlarni uzatish va o'quvchilar kompetensiyalarini shakllantirish usullarini tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlash va yoshlarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida raqamli platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar hamda interaktiv o'qitish metodlarining joriy etilishi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimini yangilash va takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli transformatsiya ta'lim tizimining barcha bosqichlariga ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, ta'lim jarayonining tashkil etilish shakllari o'zgarib, an'anaviy o'qitish metodlari bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar asosida interaktiv o'qitish usullari keng qo'llanila boshladi. Elektron ta'lim platformalari, onlayn kurslar va masofaviy ta'lim tizimlari bilim olish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega:

Birinchidan, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish zarur. Bu o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish, o'quv materiallarini interaktiv shaklda taqdim etish va talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish muhim masalalardan biridir. O'qituvchilar zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi, raqamli platformalar va elektron resurslardan samarali foydalanishni bilishi zarur.

Uchinchidan, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, interaktiv metodlar va raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiya ta'lim tizimida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Elektron boshqaruv tizimlari orqali ta'lim jarayonini monitoring qilish, baholash tizimlarini takomillashtirish va o'quv jarayonini samarali boshqarish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, pedagoglarning raqamli

savodxonligi darajasining turlicha bo'lishi hamda ayrim hududlarda internet imkoniyatlarining cheklanganligi ta'lim tizimini to'liq raqamlashtirish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish hamda ta'lim tizimini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va ta'lim muhitini innovatsion asosda tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Kelajakda raqamli ta'lim muhitini yanada rivojlantirish orqali yosh avlodni global raqamli jamiyat talablariga mos ravishda tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limni raqamlashtirishga oid qarorlari va farmonlari.

2. To'xtaxodjaeva M. **Pedagogika nazariyasi va amaliyoti**. – Toshkent, 2020.

3. Xoliqov A. **Ta'limda innovatsion texnologiyalar**. – Toshkent, 2021.

4. UNESCO. **Digital Transformation in Education**. – Paris, 2022.

## YOUTH POLICY AND YOUTH PARTICIPATION IN DIGITAL TECHNOLOGIES

**Tillayeva Shakhlo Maksudovna**

Bukhara Technical University, Associate Professor,

Department of Uzbek and Foreign Languages

Youth is the most active and creative stratum of society; they form the basis of future politics, economy, and cultural life. Today's globalization and the rapid development of digital technologies require the broad involvement of young people not only in traditional social activities, but also in the digital environment<sup>1</sup>. Digital platforms, social networks, online education, and communication tools are creating new opportunities in youth policy. At the same time, the participation of young people in digital technologies plays an important role in increasing their civic engagement, ability to implement innovative ideas, and social activity<sup>2</sup>.

<sup>1</sup>Rasulova, G. (2021). *Youth policy and its role in society*. Tashkent: Science.

1. Youth policy and its importance Youth policy is a systematic activity of the state and society aimed at protecting the interests of young people, involving them in social, economic, and cultural life. In this regard, government agencies, non-governmental organizations, and educational institutions develop mechanisms to involve young people in political and social processes. Research shows that the political activity of young people determines their future role in society<sup>3</sup>.

2. Digital technologies and youth Digital technologies are emerging as the main means of communication, learning, creative, and social activities in the lives of young people. On digital platforms, young people have the opportunity to implement innovative ideas, increase civic engagement through social networks, and exchange knowledge. At the same time, digital literacy ensures that young people can function effectively and safely in the digital environment.

3. Ways to increase the participation of young people in digital technologies

1. Digital education and training: Engaging young people in learning digital technologies through online platforms, webinars, and courses.

2. Social projects and hackathons: Encouraging young people to actively participate in innovative projects.

3. Political and social platforms: Taking into account the opinions of young people through online consulting, political forums, and e-democracy tools.

4. Cultural and creative integration: Supporting creative and cultural projects of young people through digital media and interactive platforms.

<sup>2</sup>Karimov, A. (2020). *Digital technologies and youth participation*. Tashkent: Science.

- Organize special trainings to familiarize young people with digital technologies and ensure their competent use.

- State and non-governmental organizations should develop programs for young people that increase social and political activity on digital platforms.

- Ensure that young people's online activities are safe and effective by increasing digital literacy.

- Encourage innovative and creative decision-making in society by integrating youth policy and digital technologies.

Youth participation in youth policy and digital technologies plays a crucial role in shaping the future of society, fostering innovation, and ensuring sustainable development. Engaging young people in political, social, and cultural processes through both traditional mechanisms and digital platforms strengthens civic responsibility, encourages social activism, and promotes creative problem-solving. The study demonstrates that digital technologies provide young people with unprecedented opportunities for communication, collaboration, and knowledge exchange, thereby enhancing their capacity to contribute meaningfully to society. Effective participation in these platforms increases awareness of public issues, supports the development of leadership skills, and nurtures a sense of ownership over community initiatives. Furthermore, the integration of youth policy with digital tools enables governments, educational institutions, and non-governmental organizations to tailor programs that align with the needs and aspirations of the younger generation.

<sup>3</sup>Maksudovna, T. Sh. (2021). *Co-Study Of Language And Culture In Mastering A Foreign Language*. Web of Scientist.

#### **List of Sources**

1. Rasulova, G. (2021). Youth policy and its role in society. Tashkent: Science.
- Karimov, A. (2020). Digital technologies and youth participation. Tashkent: Science.
- Maksudovna, T. Sh. (2021). Co-Study Of Language And Culture In Mastering A Foreign Language. Web of scientist:

2. Maqsudovna, T. S. (2023). Use Of Effective Methods In Teaching Foreign Languages. Journal Of Innovation, Creativity And Art, 2(4), 87-89.

3. Johnson, L. (2021). Digital platforms and civic participation. New York: Springer

## **RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI YOSHLAR SIYOSATINI**

### **RIVOJLANTIRISH**

**Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasining mudiri PhD dotsent

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti, “Ijtimoiy fanlar va ta'lim” kafedrası PhD dotsent

[abrorxonovak@gmail.com](mailto:abrorxonovak@gmail.com)

XXI asr globallashuv, axborotlashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan tavsiflanadi. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida raqamli texnologiyalar nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshqarish mexanizmlarini ham tubdan o'zgartirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqib, boshqaruv samaradorligi, shaffoflik hamda ochiqlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, yoshlar siyosatini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yoshlar har qanday davlatning strategik resursi, intellektual va innovatsion salohiyatining asosiy manbai hisoblanadi. Jamiyatning kelajak taraqqiyoti yoshlarning bilim darajasi, ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyalariga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham ko'plab davlatlarda yoshlar siyosati

davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi sifatida shakllantirilmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot va bilimlar jamiyati sharoitida yoshlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni innovatsion jarayonlarga jalb etish muhim vazifaga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar yoshlar siyosatini amalga oshirishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Jumladan, elektron hukumat tizimlari orqali davlat xizmatlaridan foydalanishning soddalashtirilishi, onlayn taʼlim platformalarining kengayishi, masofaviy muloqot va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar bilan samarali kommunikatsiya oʻrnatish imkoniyatlari paydo boʻlmoqda.[5;8b] Raqamli platformalar yoshlarning tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash, ularning bandligini taʼminlash, startap va innovatsion loyihalarni rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida soʻnggi yillarda raqamlashtirish jarayonlariga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Jumladan, Raqamli Oʻzbekiston – 2030 strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi, taʼlim, sogʻliqni saqlash va iqtisodiyot sohalarida keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur strategiya raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron xizmatlar koʻlamini kengaytirish va aholining raqamli savodxonligini oshirishni nazarda tutadi. Bu jarayonlar yoshlar siyosatini yangi bosqichga olib chiqib, uning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida”gi Qonuni yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi ishtirokini taʼminlashning huquqiy asoslarini belgilab beradi.[5;7-8b] Raqamli texnologiyalar ushbu qonunda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda samarali vosita sifatida namoyon boʻlmoqda. Biroq raqamli muhitda yoshlar siyosatini rivojlantirish jarayoni muayyan muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, hududlar oʻrtasida raqamli infratuzilma notekisligi, yoshlar oʻrtasida raqamli tafovut (digital divide)ning mavjudligi, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik masalalari dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda turli mafkuraviy tahdidlar, notoʻgʻri axborot tarqalishi va manipulyativ kontentlarning koʻpayishi yoshlar ongiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Shu bois raqamli texnologiyalarni yoshlar siyosati bilan uygʻunlashtirish jarayonida kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuv zarur.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, raqamli transformatsiya jarayonida inson kapitalini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yoshlar siyosatini raqamli muhit bilan integratsiyalash orqali davlat boshqaruvida interaktivlik, tezkorlik va samaradorlikni taʼminlash mumkin. Bu esa yoshlarning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini kengaytirish, ularning tashabbuskorligini ragʻbatlantirish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, raqamli texnologiyalar orqali yoshlar siyosatini rivojlantirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan chuqur oʻrganishni talab etadi.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanib, davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlar tizimini tubdan oʻzgartirmoqda. Axborotni yaratish, qayta ishlash va uzatish jarayonlarining avtomatlashtirilishi boshqaruv samaradorligini oshirib, davlat va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarni yanada shaffof va ochiq shaklga olib chiqmoqda. Shu jihatdan, yoshlar siyosatini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish masalasi nazariy va amaliy ahamiyatga ega boʻlib, zamonaviy boshqaruv modelining ajralmas qismiga aylanmoqda. Yoshlar siyosati davlat tomonidan yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning intellektual va ijtimoiy salohiyatini roʻyobga chiqarish hamda jamiyat hayotidagi faol ishtirokini taʼminlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuidir. Oʻzbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida”gi Qonuni yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi oʻrnini mustahkamlashning huquqiy asoslarini belgilab beradi.[2; 8b]

Raqamli transformatsiya jarayoni yoshlar siyosatini amalga oshirish mexanizmlarini sezilarli darajada takomillashtirmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimlari orqali davlat xizmatlaridan foydalanish jarayoni soddalashtirdi, murojaatlarni koʻrib chiqish tezlashdi hamda yoshlar uchun grant, subsidiya va ijtimoiy dasturlarda ishtirok etish imkoniyatlari kengaydi. Raqamli Oʻzbekiston – 2030 strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi, taʼlim va iqtisodiyot sohalarini raqamlashtirish jarayoni jadallashdi. Bu esa yoshlarning bandligi, tadbirkorlik faoliyati va kasbiy rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. Raqamli platformalar yoshlar bilan davlat organlari oʻrtasida bevosita va tezkor muloqot oʻrnatish imkonini berib, ularning tashabbus va

takliflarini tizimli ravishda inobatga olishga xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar yoshlarning ta'lim olish imkoniyatlarini ham kengaytirdi. Onlayn kurslar, masofaviy ta'lim platformalari va virtual treninglar orqali yoshlar zamonaviy kasb va ko'nikmalarni egallash imkoniga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, axborot savodxonligi, media savodxonlik, dasturlash asoslari, kiberxavfsizlik ko'nikmalari va raqamli tadbirkorlik kompetensiyalari yoshlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi kasb turlari, jumladan frilans faoliyati, elektron savdo, IT xizmatlar va startap loyihalar keng rivojlanmoqda. Bu jarayon yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli muhitda yoshlar siyosatini rivojlantirish qator muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Hududlar o'rtasida raqamli infratuzilmaning notekisligi, internet tezligi va texnik imkoniyatlarning farqlanishi yoshlar o'rtasida raqamli tafovutni keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri axborot, manipulyativ kontent va turli mafkuraviy tahdidlarning mavjudligi yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kiberxavfsizlik masalalari ham dolzarb bo'lib, yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish tizimli yondashuvni talab etadi. Raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi esa ayrim yoshlarning texnologiyalardan samarali foydalanishiga to'sqinlik qilmoqda.[7;67b]

Raqamli texnologiyalar orqali yoshlar siyosatini takomillashtirish uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, barcha hududlarda sifatli internet infratuzilmasini yaratish va texnik ta'minotni yaxshilash muhimdir. Ikkinchidan, maktab va oliy ta'lim tizimida raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlarni kuchaytirish lozim. Uchinchidan, yoshlar uchun yagona integratsiyalashgan raqamli platforma yaratish orqali grantlar, loyihalar va imkoniyatlar haqida to'liq va shaffof ma'lumot taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, yoshlarni tanqidiy fikrlash va media savodxonlikka o'rgatish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash ham ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi zarur. Umuman olganda, raqamli texnologiyalar yoshlar siyosatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular boshqaruv samaradorligini oshirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish hamda iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Raqamli transformatsiya jarayonida yoshlarning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish esa davlat siyosatining strategik maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ustuvor omiliga aylanib, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlar tizimiga chuqur kirib bormoqda. Ushbu jarayon yoshlar siyosatini ham sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. raqamli transformatsiya yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, bandligini ta'minlash hamda innovatsion salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim vosita hisoblanadi[8; 89-90b] Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlar uchun qulay raqamli muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Elektron hukumat tizimlari, onlayn ta'lim platformalari, raqamli xizmatlar va startap ekotizimining rivojlanishi yoshlar siyosatini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning mustahkam huquqiy asosini yaratib bermoqda. Biroq raqamli muhitda yoshlar siyosatini rivojlantirish jarayonida raqamli tafovut, kiberxavfsizlik, axborot tahdidlari va raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun kompleks va tizimli yondashuv zarur.

- ✚ barcha hududlarda sifatli raqamli infratuzilmani rivojlantirish;
- ✚ yoshlarning raqamli kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish;
- ✚ yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi yagona integratsiyalashgan raqamli platformalarni yaratish;
- ✚ kiberxavfsizlik va media savodxonlikni kuchaytirish orqali yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish;

🚀 innovatsion startap va texnologik loyihalarni davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, raqamli texnologiyalar orqali yoshlar siyosatini rivojlantirish davlatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlash, inson kapitalini yuksaltirish hamda yosh avlodni global raqobat sharoitiga tayyorlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Raqamli transformatsiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni yoshlar manfaatlarini bilan uyg‘unlashtirish kelajak taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2016.8b
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2003.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosatiga oid farmon va qarorlari to‘plami. – T., 2017–2024. 7-8b
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.5b
7. Abduqodirov A. Axborot texnologiyalari va ta‘lim samaradorligi. – T., 2019.67b
8. Musayev Q. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – T., 2021. 89-90b
9. World Bank. Digital Development Overview. – Washington, 2023.
10. OECD. Youth and Digital Policy Review. – Paris, 2021.

## **RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA YOSHLARNING IJTIMOY**

### **FAOLLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI**

#### **Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi kafedrasining mudiri PhD dotsent  
“Tashkent International University”  
xalqaro universiteti, “Ijtimoiy fanlar va ta‘lim” kafedrasida PhD dotsent  
[abrorxonovak@gmail.com](mailto:abrorxonovak@gmail.com)

Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalari tubdan o‘zgartirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiyot, ta‘lim, boshqaruv va ijtimoiy munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Bunday sharoitda yoshlarning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi va innovatsion fikrlashi mamlakat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda. O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlashning huquqiy asoslarini belgilab berdi. [1;6b] Mazkur qonunda yoshlarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishi muhim vazifa sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilinib, unda davlat boshqaruvi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarni raqamlashtirish bilan bir qatorda, aholining, ayniqsa yoshlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Ushbu strategiya yoshlarni IT sohasiga keng jalb etish, startap ekotizimini rivojlantirish hamda innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash orqali ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, Yoshlar ishlari agentligi tashkil etilishi yoshlar bilan ishlash tizimini institutsional jihatdan mustahkamladi. Agentlik tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar yoshlarning

tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularni raqamli texnologiyalar asosida o'qitish va ijtimoiy loyihalarga jalb etishga qaratilgan.

Raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi nafaqat texnologik, balki pedagogik va ijtimoiy muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki raqamli makonda faol ishtirok etuvchi yosh avlodni shakllantirish uchun ularda tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, kiberxavfsizlik madaniyati va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish zarur. Raqamli transformatsiya bugungi kunda shunchaki texnologik yangilanish jarayoni emas, balki jamiyat taraqqiyotining yangi modelini shakllantiruvchi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, ijtimoiy soha va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyat mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Bunday sharoitda yoshlar nafaqat raqamli texnologiyalar iste'molchisi, balki ularni yaratuvchi va rivojlantiruvchi asosiy ijtimoiy kuchga aylanmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, bu jarayonda yoshlarning bilim va ko'nikmalarini zamon talablari asosida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida qayd etilgan.[3;5b] Mazkur qonun yoshlarning zamonaviy kompetensiyalarni egallashiga huquqiy zamin yaratadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, IT xizmatlari eksportini oshirish hamda yoshlarni dasturlash va innovatsion faoliyatga keng jalb etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.[2;12-13b] Ushbu strategik hujjat yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishni davlat rivojlanish siyosatining tarkibiy qismi sifatida ko'rsatadi. Raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning ijtimoiy faoligi bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- ❖ Fuqarolik faoligi. Raqamli platformalar orqali yoshlar jamoatchilik muhokamalarida, ijtimoiy tashabbuslarda va volontyorlik faoliyatida faol ishtirok etmoqda. Elektron hukumat tizimi, onlayn murojaat platformalari va ochiq ma'lumotlar bazalari yoshlarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytiradi.

- ❖ Innovatsion faollik. IT sohasidagi startaplar, sun'iy intellekt loyihalari, mobil ilovalar yaratish jarayonida yoshlarning ulushi ortib bormoqda. Bu jarayon, xususan, IT Park Uzbekistan faoliyati orqali tizimli ravishda qo'llab-quvvatlanmoqda.

- ❖ Ijtimoiy-media faollik. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun fikr bildirish, ijtimoiy muammolarni ko'tarish va ma'rifiy kontent yaratish maydoniga aylangan. Biroq bu jarayon media savodxonlik va axborot xavfsizligi masalalarini ham dolzarb qilib qo'yadi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari yoshlar oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Zamonaviy yosh avloddan nafaqat texnik bilim, balki tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, jamoada ishlash, kreativlik va moslashuvchanlik kabi kompetensiyalar talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari kompleks yondashuvni talab etadi. [8;67-68b] Bu mexanizmlar normativ-huquqiy asos, institutsional qo'llab-quvvatlash, ta'lim tizimi integratsiyasi va motivatsion rag'batlantirish tizimini o'z ichiga olishi zarur. Bugungi kunda raqamli notenglik muammosi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Ayrim hududlarda internet tezligi va texnik imkoniyatlarning yetarli emasligi yoshlarning teng imkoniyatlardan foydalanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, kiberxavfsizlik tahdidlari, zararli axborot oqimi va manipulyativ kontent yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish bilan bir qatorda, ularning axborot madaniyatini shakllantirish ham muhim vazifadir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi ilmiy, pedagogik va ijtimoiy jihatdan kompleks o'rganishni talab etadi. Mazkur maqolada ushbu jarayonning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ijtimoiy munosabatlar, davlat boshqaruvi, ta'lim tizimi va iqtisodiy mexanizmlar tubdan yangilanmoqda. Bunday

sharoitda yoshlar jamiyatning eng faol va innovatsion qatlamiga aylanishi tabiiydir. Chunki yosh avlod yangi texnologiyalarni tez o'zlashtiradi, global axborot makonida erkin harakatlana oladi va zamonaviy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish salohiyatiga ega. Shu bois raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan.

Mamlakatimizda yoshlar siyosati tizimli ravishda takomillashtirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni yoshlarning jamiyat va davlat hayotidagi ishtirokini kengaytirish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va huquqiy himoyasini ta'minlashni nazarda tutadi. Ushbu qonun yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi. Shu bilan birga, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, IT infratuzilmasini kengaytirish va yoshlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu esa yoshlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish va ularni global raqamli maydonga integratsiya qilish imkonini bermoqda.

Raqamli transformatsiya yoshlar uchun keng ko'lamli imkoniyatlar yaratmoqda. Avvalo, ta'lim sohasida masofaviy o'qish, onlayn kurslar, elektron kutubxonalar va xalqaro platformalardan foydalanish orqali bilim olish imkoniyatlari kengaydi. Bu esa yoshlarning o'z ustida mustaqil ishlashiga, yangi kasb va ko'nikmalarni egallashiga zamin yaratmoqda. Iqtisodiy jihatdan esa frilans faoliyati, startap loyihalar va IT xizmatlari yoshlar bandligini ta'minlashning zamonaviy shakliga aylandi. Xususan, IT Park Uzbekistan tomonidan yaratilayotgan ekotizim yosh tadbirkorlar va dasturchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning innovatsion g'oyalarini amaliyotga joriy etishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar yoshlarning ijtimoiy tashabbuslarini rivojlantirish, ularni grant va loyihalarga jalb etish orqali ijtimoiy faollikni oshirmoqda.

So'nggi yillarda yoshlar orasida IT sohasiga qiziqishning ortishi, onlayn ta'limning ommalashuvi va raqamli savodxonlik darajasining oshishi ijobiy o'zgarishlar sifatida baholanadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali jamoatchilik nazorati kuchayib, yoshlar ijtimoiy muammolar yuzasidan o'z fikrini erkin bildirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Biroq bu jarayon bilan bir qatorda raqamli notenglik, kiberxavfsizlik tahdidlari va zararli axborot oqimining kuchayishi kabi muammolar ham mavjud. Shuning uchun yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish jarayoni ularning media savodxonligi va axborot madaniyatini shakllantirish bilan uyg'un holda olib borilishi zarur.

Raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishning samarali mexanizmlari kompleks yondashuvni talab etadi. Avvalo, ta'lim tizimida raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida kodlash, dasturlash asoslari, axborot xavfsizligi va media savodxonlikni o'qitish yoshlarning ongli va mas'uliyatli raqamli fuqaroga aylanishini ta'minlaydi. Shuningdek, startap grantlari, innovatsion tanlovlar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish yoshlarning tashabbuskorligini oshiradi. Rag'batlantirish tizimini kuchaytirish, iqtidorli yoshlarni davlat mukofotlari va stipendiyalar bilan taqdirlash ham ularning motivatsiyasini mustahkamlaydi[9;43-47b]. Amaliy jihatdan hududlarda bepul IT o'quv markazlarini ko'paytirish, qizlarning texnologiya sohasidagi ishtirokini rag'batlantirish, yoshlar uchun raqamli liderlik dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, kiberxavfsizlik bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish va yoshlar orasida raqamli etika tamoyillarini shakllantirish zarur. Faqat tizimli va uzviy yondashuv orqali yoshlarni raqamli jamiyatning faol, mas'uliyatli va tashabbuskor subyektiga aylantirish mumkin.

Raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoshlar uchun ta'lim, tadbirkorlik va fuqarolik ishtiroki borasida keng imkoniyatlar yaratmoqda. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli makonda xavfsizlik, media savodxonlik va teng imkoniyatlarni ta'minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Demak, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish

uzluksiz ta'lim, institutsional qo'llab-quvvatlash va samarali rag'batlantirish mexanizmlarini talab etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun. – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari, 2016. 6b
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidentligi, 2020. 12-13b
3. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari, 2020. 5b
4. Yoshlar ishlari agentligi rasmiy veb-sayti. – <https://yoshlar.uz>
5. IT Park Uzbekistan rasmiy veb-sayti. – <https://itpark.uz>
6. World Bank. Digital Economy Report 2021: "Harnessing the Transformative Power of Digital Technologies for Youth". – Washington, 2021.
7. UNESCO. "Youth and ICTs: Opportunities and Challenges". – Paris, 2020.
8. Abdullayeva, M. Raqamli iqtisodiyot va yoshlarning ijtimoiy faolligi. – T.: Fan, 2022.67-68b
9. Karimov, S. Innovatsion va raqamli texnologiyalar orqali yoshlarni rivojlantirish. – T.: O'zbekiston, 2021. 43-47b

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ СТРЕСС КАК РЕЗУЛЬТАТ СИНДРОМА ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ВЫГОРАНИЯ РУКОВОДИТЕЛЕЙ**

**Инагамова Лола Усманбековна**

Академия государственной политики и управления  
при Президенте Республики Узбекистан  
доцент школы государственной политики и управления  
Доктор философии по психологическим наукам (PhD), доцент  
[Lolahon8322@mail.ru](mailto:Lolahon8322@mail.ru)

Синдром эмоционального выгорания в настоящее время представлен актуальность в изучении данного феномена в управленческой деятельности и выработки практических мер по профилактике эмоционального выгорания молодых руководителей и их реабилитации. Как описывалось ранее, профессиональная деятельность молодых руководителей относится к группе риска формирования стрессовых состояний, вплоть до тяжелых и хронических форм, что в результате приводит к возникновению сопутствующих симптомокомплексов, среди которых тревожность, депрессия, эмоциональное выгорание и т.д.

Впервые термин «эмоциональное выгорание» было введено американским психиатром Дж. Фрейдбернером в 1974 г. Он понимал эмоциональное выгорание как *психологическое состояние здорового человека, который находится в тесном и интенсивном общении с пациентами или клиентами в эмоционально тяжелой нагруженной атмосфере в процессе оказания им профессиональной помощи* [6].


Первоначально данный термин обозначал состояние истощения и изнеможения, которое было связано с ощущением собственной бесполезности и беспомощности. Термин «выгорание» («burnout») применяется для описания, переживаемого человеком состояния психического, эмоционального и физического истощения, которое вызывается длительной включенностью в ситуации, которые содержат достаточно высокие эмоциональные требования, которые часто являются следствием сочетания непомерно высоких эмоциональных затрат человека с хроническими ситуационными стрессами [9].

В своих работах К. Маслач (1976) определяла синдром «эмоционального выгорания» как дезадаптированность человека к рабочему месту из-за неадекватных межличностных отношений и чрезмерной рабочей нагрузки [8, с.39].

Согласно 11-му пересмотру Международной классификации болезней (МКБ-11) Всемирной организацией здравоохранения в 2019 году, профессиональный синдром эмоционального выгорания был отнесен классу «Факторы, влияющие на состояние здоровья населения и обращения в учреждения здравоохранения» (Код: QD85. Название: «Профессиональный синдром эмоционального выгорания») [15]. При этом, эмоциональное выгорание затрагивает только профессиональную сферу, но никак ни другую.

МКБ-11 содержит следующее определение эмоционального выгорания - *это синдром, признаваемый результатом хронического стресса на рабочем месте, который не был успешно преодолен*. Синдром выгорания характеризуется тремя признаками: ощущением мотивационного или физического истощения, чувством негативизма или цинизма к профессиональным обязанностям; снижение работоспособности [6].

К тому же, продолжительный характер синдрома эмоционального выгорания может стать причиной возникновения психосоматических болезней: заболевания сердечно-сосудистой системы, расстройства желудочно-кишечного тракта, заметных изменений в сенсорной чувствительности, резкой потери или увеличения веса и т.д. К тому же у молодых руководителей может возникнуть чувство собственной несостоятельности, безразличие к работе и утрата прежде значимых для них жизненных ценностей, всё это в совокупности приводит к ухудшению их качества жизни.



**Рисунок 1 – Опрос американского института Гэллупа в 2020 г. на предмет изучения частоты эмоционального выгорания среди сотрудников**

Проведенный опрос американским институтом Гэллупа в 2020 г. Показал, что ещё в марте 2020 года наблюдалось эмоциональное выгорание различной степени у 76% офисных работников (рис. 1), а 28% из них ответили, что они наблюдают у себя симптомы эмоционального выгорания «очень часто» или «всегда». К тому же, было выявлено, что сотрудники, испытывающие эмоциональное выгорание на 63% чаще просят больничный, на 23% чаще находятся на лечении в больнице и в 2,6 раза чаще других активно ищут другую работу [2].

При этом стоит отметить, что среди основных факторов возникновения эмоционального выгорания выделяют переработку – риск выгорания значительно возрастает, если количество рабочих часов в неделю превышает 50 часов и значительно повышается после 60 часов. Но важно отметить то, как сотрудники воспринимают свою рабочую нагрузку, это оказывает значительное влияние на возникновение синдрома выгорания, чем фактическое количество отработанных часов в неделю. Кроме этого, среди главных факторов, связанных с формированием выгорания, пять факторов.

Молодые руководители в основном понимают, что выгорание — вполне реальная вещь. Но они, во-первых, недооценивают его вред, а во-вторых, думают, что это какая-то будущая проблема, которой следует избежать. А не реальное состояние, в котором многие их работники пребывают уже сейчас. Вместе с этим, проведенное исследование институтом Гэллапа позволило вычислить сколько стоит компании руководитель, выгоревший эмоционально на работе – это около 34% от заработной платы данного сотрудника. А по данным исследования ассоциации для менеджеров по персоналу SHRM (The Society for Human Resource Management) показано [19], что отпуск является универсальным средством для повышения внимательности руководителей на 78% и снижения риска выгорания на 81%.

Среди симптомов эмоционального выгорания В.В. Бойко [4], выделяет следующие симптомы (Рис.2):



**Рисунок 2 – Симптомокомплекс синдрома эмоционального выгорания (по В.В. Бойко)**

Согласно концепции М. Буриша (1994), в развитии синдрома профессионального выгорания можно выделить несколько главных фаз (табл. 1).

**Фазы синдрома (эмоционального) выгорания**

1. Предупреждающая фаза - чрезмерная активность в работе (отказ от личных интересов в сторону профессии; ограничение социальных контактов; чувство незаменимости на работе);

- истощение (усталость; бессонница и т.д.).

2. Снижение уровня собственного участия - снижение участия по отношению к коллегам, подчиненным, партнерам и руководству (переход от помощи к надзору; потеря положительного настроения; приписывание вины за свои неудачи другим людям);

- снижение участия по отношению к другим окружающим (отсутствие эмпатии, безразличие, цинизм);

- снижение участия по отношению к профессиональной деятельности (нежелание выполнять обязанности; опоздания; ранний уход с работы; акцент на материальном аспекте работы);

- возрастание требований (чувство того, что люди используют тебя; зависть; потеря жизненного идеала).

3. Эмоциональные реакции - депрессия (постоянное чувство вины; снижение самооценки; апатия; страхи);

- агрессия (защитные установки; обвинение других; игнорирование своего участия в общих неудачах; соперничество в конфликтах; подозрительность и конфликтность с окружающими);

4. Фаза деструктивного поведения - в сфере интеллекта (снижение концентрации внимания; отсутствие способности к выполнению сложных задач; ригидность мышления; отсутствие воображения);

- в эмоционально-социальной сфере (безразличие; избегание неформальных контактов; отсутствие участия в жизни других людей, либо чрезмерная привязанность к конкретному лицу; избегание тем, связанных с работой; самодостаточность; одиночество; скука);

- в мотивационной сфере (отсутствие собственной инициативности; снижение эффективности деятельности; формальное выполнение заданий).

5. Психосоматические реакции - снижение иммунитета;

- бессонница, сексуальные расстройства;

- повышенное давление, тахикардия, головные боли;

- боли в позвоночнике, расстройства пищеварения;

- зависимость от никотина, кофеина, алкоголя;

- неспособность к релаксации в свободное время.

6. Фаза разочарования - отрицательная жизненная установка;

- чувство беспомощности и бессмысленности в жизни;

- экзистенциальное отчаяние (потеря смысла жизни).

Согласно концепции М. Буриша существует определенная тенденция, которая заключается в том, что чем выше зависимость от работы, тем выше вероятность наступления полного отчаяния. На первом этапа выгорания профессиональная деятельность является главным смыслом в жизни специалиста (молодого руководителя) [6].

Стоит заметить, что введенный термин «выгорание» означает «сгореть» от того, что сначала кто-то «загорелся» своей работой [13]. Выгорание возникает по причине несоответствия между собственным вкладом и полученным или ожидаемым вознаграждением, в результате чего возникают первые симптомы выгорания. Обезличивается отношение между руководителем и профессиональной деятельностью, подавляются гуманные формы поведения с людьми (с коллегами, подчиненными, партнерами и руководством), что создает угрозу для личностного развития и профессионализации.

### **Список использованной литературы**

1. Агапов В.С. Я-концепция в структуре управленческой деятельности руководителя. - М.: Государственный университет управления, 1999. 56-с.

2. Американский институт Gallup. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.gallup.com/workplace/288539/employee-burnout-biggest-myth.aspx> (Дата обращения: 26.09.2020).

3. Березина Е. Шеф сгорел на работе. Синдром эмоционального выгорания чаще встречается у менеджеров высшего звена // Российская Бизнес-газета – Карьера и менеджмент. - 2014 г. - Т. №28 (957).

4. Бойко В.В. Синдром «эмоционального выгорания» в профессиональном общении. СПб.: Речь, 2003. – 87 с.

5. Водопьянова Н. Е. Синдром выгорания: диагностика и профилактика. - СПб.: Питер, 2005. -52с.

6. Водопьянова Н. Е., Старченкова Е. С. Синдром выгорания. Диагностика и профилактика: практическое пособие. - М.: Юрайт изд. 3-е, исправ. и доп., 2017. –113 с.

7. Нартова-Бочавер С.К. «Coping behavior» в системе понятий психологии личности // Психологический журнал. - 1997 г. - №5. - стр. 20-30.

8. Маслач К. Профессиональное выгорание: как люди справляются. Статья, 1978 г. – 39 с.
9. Орёл В.Е. Синдром психического выгорания личности. - М.: «Институт психологии РАН», 2005. – 19с.
10. Платонов К.К. Краткий словарь системы психологических понятий. - М., 1984. – 85 с.
11. Савина, Н.С. Специфика психического выгорания в управленческой деятельности / Н.С. Савина // Вестник Ярославского государственного университета им. П.Г. Демидова. Серия Гуманитарные науки. - Ярославль: ЯрГУ, 2009. № 1. – 55-60 с.
12. Словарь по профориентации и психологической поддержке Словарь по профориентации и психологической поддержке // Национальная психологическая энциклопедия. [Электронный ресурс] URL:<http://vocabulary.ru/dictionary/27/word/stresoustoichivost>. (Дата обращения: 23.09.2020 г.)
13. Ҳайитов, О.Э., Инагамова, Л.У. Стрессни бошқариш [Матн]: дарслик / О.Э. Ҳайитов, Л.У. Инагамова. – Ташкент: “Akademiya”, 2022. – 35 с.
14. Эмоциональное выгорание у медицинских работников как предпосылка астенизации и психосоматической патологии/ А. В. Балахонов, В. Г. Белов, Е. Д. Пятибрат, А. О. Пятибрат - Вестник Санкт-Петербургского университета, 2009. Сер. 11. Вып. 3 . – 59 с.
15. 11-й пересмотр Международной классификации болезней (МКБ). [Электронный ресурс]. URL: [https://www.who.int/mental\\_health/evidence/burnout/ru/?fbclid=IwAR2ac5XuFoeZ8gYLvCn1o rBmBIVYb8y80UxNOnZRQ3SITySEVbQ\\_yAA7eI4](https://www.who.int/mental_health/evidence/burnout/ru/?fbclid=IwAR2ac5XuFoeZ8gYLvCn1o rBmBIVYb8y80UxNOnZRQ3SITySEVbQ_yAA7eI4) (Дата обращения: 23.09.2020).
16. Bandura A. Self-efficacy: toward a unifying theory of behavioral change // Psychological Review.. - 1977 г.. - vol. 84. - 191-215 с.
17. Cooper C., Marshall J. Occupational sources of stress: a review of the literature relating to coronary heart disease and mental ill health // Journal of Occupational Psychology. - 1976 г.. - Vol. 49. . - 11-28 с.
18. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, appraisal and coping. - N. Y. : Springer, 1984.
19. The Society for Human Resource Management [Электронный ресурс]. URL:<https://www.shrm.org/resourcesandtools/hr-topics/employee-relations/pages/workers-taking-more-vacation-.aspx> (Дата посещения: 26.09.2020).

## **GLOBALASHUV JARAYONINING GO‘ZALLIK KATEGORIYASIGA DESTRUKTIV TA‘SIRI**

**Mirakbarova Dildora Miralisher qizi**

Tashkent International University

xalqaro universiteti

“Ijtimoiy fanlar va ta’lim” kafedrasi dotsenti,

falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

[dmirakbarova2207@gmail.com](mailto:dmirakbarova2207@gmail.com)

Go‘zallikka intilish har bir insonning tabiiy ehtiyoji hisoblanadi. Go‘zallik o‘lchovlarini belgilash va baholashda esa har bir inson individual bo‘lib, bu uning estetik didi va qadriyatlariga bog‘liq. Inson uchun ahamiyatli bo‘lgan narsalar qadriyat hisoblanadi. Afsuski, bugungi globalashuv davrida asliy qadriyatlarimiz o‘zgarib ketayotgani achinarli hol. Nafaqat moddiy, balki ma’naviy qadriyatlar ham, jumladan, go‘zallik o‘lchovlari bugungi kunda bizning milliy va diniy qadriyatlarimizda belgilanganidan tubdan farq qiladi.

Rus plastik jarrohi A.Ye. Belousov o‘zining kitobida plastik jarrohlikka quyidagicha ta’rif bergan: “Plastik yoki kosmetik jarrohlik – bu to‘qima nuqsonlari, deformatsiyalari va turli tana qismlarida disfunktsiyalari mavjud bo‘lgan bemorlarni jarrohlik yo‘li bilan davolash usullarini

ishlab chiqadigan tibbiyot sohasi hisoblandi. Zamonaviy tushunchalarga ko'ra, "plastik jarrohlik" tananing alohida qismlarining shaklini biologik to'qimalar yordamida o'zgartirish, jarohatlangan funksiyasini tiklash, almashtirish, ko'chirib o'tkazish – implantatsiya qilish kabi jarrohlik usullarini o'z ichiga qamrab oladi. Plastik jarrohlik jarohatlar va shikastlanish oqibatlarini, shuningdek, tug'ma yoki ortirilgan nuqsonlarni davolash uchun amalga oshiriladi".[1:21-23]

Plastik jarrohga murojaat qilinganda bemorning yoshiga qarab yuz va tana shakli, erkak va ayollarning tashqi ko'rinishidagi tabiiy o'ziga xosliklari, tana, yuz, peshona, ko'z, burun, lab, quloq mutanosibliklarining matematik formulalari orqali estetik me'yorlar aniqlanadi va shunga ko'ra muolaja amalga oshiriladi. Ushbu estetik me'yorlarga asoslangan holda olib borilgan jarrohlik amaliyotidan jarroh ham, bemor ham o'zlari kutgan natijaga erisha oladilar.[2:115-116]

Bugungi kunda rekonstruktivdan ko'ra estetik jarrohlikka murojaatlar ko'proq kuzatilmoqda. Estetik jarrohlik amaliyotlari soni so'nggi yillarda jadal oshib bormoqda. ISAPS (Xalqaro estetik plastik jarrohlik jamiyati) ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda plastik jarrohlar tomonidan dunyo bo'yicha 12,8 millionga yaqin jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 14,9 millionga yetgan. 2023-yilda esa jarrohlik amaliyotlari soni 15,8 milliondan oshdi.[3]

Mavzuni tadqiq qilar ekanmiz, plastik jarrohlik amaliyoti natijasidagi ko'ngilsizliklar, jarohatlar va hattoki, o'lim holatlari aslida insonlarning "soxta" mutaxassislariga murojaat qilishlaridan kelib chiqishini o'rgandik. Aslida, "kosmetologiya" – "yuzni parvarishlash" degan ma'noni anglatadi. Shu sababdan ushbu mutaxassislik bo'yicha o'qib, oliy ma'lumot olgan insonlar ham faqatgina yuzni parvarish qilish huquqiga egalar. Chet davlatlarda ularga nafaqat plastik jarrohlik qilishga, hattoki in'yeksiya qilishga ham ruxsat berilmaydi. Butun dunyo bo'yicha oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxs, hattoki, tibbiyot kollejni bitirgan bo'lsa ham, shifokor nazoratisiz in'yeksiya qilishi mumkin emas. Haqiqiy mutaxassis kosmetologlar ham boshqa tibbiyot xodimlari kabi bakalavr, magistratura, ordinatura bosqichlarida ta'lim oladilar. Doimiy ravishda o'z ustilarida ishlab, malaka oshirishlari shart.

Sodda, beparvo, kamchiqimlikni ko'zlaydigan odamlar aynan shunday "soxta kosmetolog"larning o'ljasiga aylanib qoladilar. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlangan ushbu zamonda "soxta kosmetolog"lar facebook, instagram kabi ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanib kelmoqdalar. Ma'lum pullar evaziga ijtimoiy tarmoqlarini reklama qildirib, o'z auditoriyalarining sonini oshirib boradilar. Va bu ishlarida ularga ko'pincha mahsulotni yoki mutaxassislik diplomini tekshirmagan, dardi faqat katta pul ishlash bo'lgan yoki barter evaziga kosmetik muolajalardan foydalangan bloggerlar yordam bermoqdalar. "Soxta kosmetolog"lar ijtimoiy tarmoqlarida o'z mehnat stajlarini katta ko'rsatib, davolagan yoki go'zallashtirgan "soxta mijoz"lari rasmlarini joylaydilar. Profillariga "xirurg kosmetolog", "doktor kosmetolog" degan mavjud bo'lmagan mutaxassislik nomlarini yozib qo'yganlar. Plastik jarrohlik amaliyotlari mavjud bo'lsa salonlarda yoki ko'p hollarda uylarida amalga oshiriladi. Hattoki, "soxta kosmetolog"lar tibbiyotda mumkin bo'lmagan jarrohlik turlaridan biri tanadan ortiqcha yog'larni olib tashlash bilan ham shug'ullanmoqdalar. Buni aslida ozishga hech qanday foydasi yo'q. Tanadan uzog'i bilan 15-20% yog' olinadi. Asorati esa xavfli. Bunday jarrohlik amaliyoti natijasida neykroz, ichki qon ketish holatlari kuzatiladi.

Vaziyatning yana bir ayanhli tomoni shundaki, "soxta kosmetolog"lar ma'lum pul evaziga 3 oylik o'quv kurslari ishlab chiqib, o'zlarining davomchilari bo'lgan shogirdlarini yetishtirib chiqarmoqdalar. Kurs so'ngida "soxta kosmetolog"larning o'zlari tomonidan yasalgan sertifikatlar topshiriladi. Sertifikatda 3 oylik kursning o'zida o'quvchi amaliyot o'taganligi haqida yolg'on ma'lumot ham kiritilgan. Kursni bitirgan o'quvchilar muolajalarni, jumladan plastik jarrohliklarni amalga oshirishni boshlab yuboradilar.

Mavzu bo'yicha ijtimoiy tarmoqlarni o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga duch keldik. Toshkentda kosmetologiyaga oid ko'plab kurslar ochilgan. Kurslar o'rtacha 7 kundan 40 kungacha davom etadi. Kurslar narxi esa o'rtacha 2-3 mln.dan boshlanadi. Kurs so'ngida yuqorida aytganimizdek, o'quvchiga amaliyot o'talgani haqida ham sertifikat beriladi. Shuningdek, ushbu kosmetik kurslarda online qatnashish va bitirganlik haqida sertifikatni olish ham mumkin ekan.

Plastik jarrohlik amaliyotini o'tkazishga odamning qo'rquvni his qilmasligini o'zi yetarli emas. Tartibiga ko'ra, jarrohlikdan oldin bemorning sog'lig'i amaliyotga tayyor bo'lishi, analizlar topshirishi, kardiolog kabi shifokorlar ko'rigidan o'tishi lozim. Jarrohlikning yaxshi o'tgani bu amaliyotning bir qismi, xalos. Bemor jarrohlikdan so'ng doimiy ravishda shifokor nazoratida bo'lishi, shifokorning bir qator ko'rsatmalari va tavsiyalariga amal qilishi kerak. Sababi, plastik jarrohlik natijasi shifokorga ham, bemorga ham bog'liqdir.

E'tibor berib o'rgansak, "soxta" kosmetologlarning tegishli oliy ta'lim muassasasi tomonidan berilgan diplomi mavjud bo'lmaydi. Agar jarrohlik amaliyoti uyda o'tkazilayotgan bo'lsa, ushbu ish bilan shug'ullanish uchun ham litsenziyasi mavjud emas. Bu esa qonunbuzarlik hisoblanadi. 2021 yil 14 iyul kuni qabul qilingan va 15 iyuldan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi 701-son Qonunining 52-moddasida "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik asoslari" belgilangan bo'lib, unga ko'ra, "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi huquqbuzarliklar uchun jismoniy shaxslar qonunga muvofiq jinoiy va (yoki) ma'muriy javobgarlikka tortiladi"[4] deyilgan.

Aksariyat holatlarda kosmetologlar aynan litseziyaga ega emasligi, ehtiyotsizlik oqibatida badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish orqali ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar.[5,6]

"Ommaviy madaniyat" go'zallik o'lchovlarini o'ziga qurol qilib olar ekan, odamlarning individualligi yo'qolib, hamma bitta, hissiyotsiz qiyofaga kirib qolayotgandek go'yo. Asrlar davomida rivojlanib, saqlanib kelingan qadriyatlar unutilib, zombilashish avj olib bormoqda. Keksa yosh vakillarining nurli yuzlari o'rnini kosmetik vositalar va jarrohliklardan charchagan yuzlar egallab olgan. "Ongsizlantirish madaniyati" chumolidek o'rmalab hayotimizning har bir jabhasiga kirib oldi. Uni to'xtatish uchun ilm olish va u orqali qadriyatlar uchun miyamiz hamda qalbimizda filtr yaratishimiz lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. А.Е. Белоусов «Пластическая реконструктивная и эстетическая хирургия». – Санкт-Петербург: ГИППОКРАТ, 1998.
2. Пластическая хирургия и реконструктивная хирургия лица. Под редакцией А.Д. Пейпла. – Москва: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2007.
3. Global Survey 2021/2022/2023: Full Report and Press Releases | ISAPS. [https://www.isaps.org/discover/about-isaps/global-statistics/global-survey-2021\(2022/2023\)-full-report-and-press-releases/](https://www.isaps.org/discover/about-isaps/global-statistics/global-survey-2021(2022/2023)-full-report-and-press-releases/).
4. O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi 701-son Qonuni. <https://lex.uz/en/docs/5511879#5515949>.
5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi. <https://lex.uz/docs/-97664#-4914344>.
6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. <https://lex.uz/mact/-111453>.

#### **RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA YOSHLAR SIYOSATI MASALALARI**

**Saydullaev Alisher Nasrullaevich**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti dotsenti

Hozirgi jadal taraqqiyot bosqichi raqamli texnologiyalar bilan belgilanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarlarining keng qo'llanilishi jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy tuzilmasiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

2015 yilda United Nations tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish kun tartibi global taraqqiyotning insonparvar modelini belgilab berdi. Ushbu hujjatda iqtisodiy o'sish ijtimoiy adolat va ekologik muvozanat bilan uyg'un holda ta'minlanishi lozimligi ta'kidlangan.

Yoshlar global o'zgarishlarning asosiy ishtirokchisi sifatida raqamli muhitda faol harakat qilmoqda. Shu sababli raqamlashtirish va barqaror rivojlanish masalalarini yoshlar siyosati hamda inson huquqlari nuqtai nazaridan o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Raqamlashtirish - bu jamiyat hayotining barcha sohalariga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish jarayonidir. Bu jarayon quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- elektron davlat xizmatlari;
- raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat;
- onlayn ta'lim platformalari;
- masofaviy mehnat tizimi;
- sun'iy intellekt va avtomatlashtirish.

Raqamli texnologiyalar mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini berib, shaffof boshqaruvni ta'minlaydi. Biroq texnologiyalardan foydalanish imkoni barcha uchun teng emas. Bu holat raqamli tengsizlik muammosini keltirib chiqaradi.

Barqaror rivojlanish tushunchasi iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlik va ekologik muvozanatni saqlashni anglatadi. Yoshlar esa bu jarayonning strategik resursi hisoblanadi.

United Nations tomonidan ilgari surilgan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" yoshlarning ta'lim, bandlik va teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ustuvor vazifa sifatida belgilaydi.

Ma'lumki yoshlar siyosati quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

- ta'lim va kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish;
- raqamli savodxonlikni oshirish;
- innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantirish;
- fuqarolik ishtirokini kengaytirish.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar uchun yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsion g'oyalarni amalga oshirish orqali barqaror taraqqiyotga hissa qo'shmoqda.

Inson huquqlari universal va ajralmas qadriyat sifatida e'tirof etilgan. 1948 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" xalqaro huquqiy tizimning asosini tashkil etadi.

Raqamli muhitda inson huquqlari quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- so'z va fikr erkinligi;
- axborot olish huquqi;
- shaxsiy hayot daxlsizligi;
- ma'lumotlarni himoya qilish;
- tenglik va kamsitishdan himoya.

Shu bilan birga, internet muhitida kiberjinoyatchilik, axborot manipulyatsiyasi va shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi kabi tahdidlar mavjud. Bu esa raqamli huquqlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

UNESCO tahlillariga ko'ra, dunyo aholisining muayyan qismi hali ham barqaror internetga ega emas. Bu holat ta'lim va iqtisodiy imkoniyatlarni cheklaydi.

Raqamli tengsizlik quyidagi omillar bilan bog'liq:

- hududiy infratuzilma farqi;
- iqtisodiy imkoniyatlar;
- gender tafovutlari;
- ta'lim darajasi.

Muammoni hal qilish uchun davlatlar tomonidan raqamli infratuzilmani kengaytirish, ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish va aholining barcha qatlamlari uchun teng sharoit yaratish talab etiladi.

World Bank tadqiqotlari raqamli ko'nikmalarga ega yoshlar iqtisodiy o'sishni jadallashtirishini ko'rsatadi. Shu sababli kelgusida yoshlar siyosati quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratishi lozim:

- sun'iy intellekt va IT ta'limi;

- kiberxavfsizlik madaniyati;
- startap loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash;
- raqamli huquqiy savodxonlikni oshirish.

Raqamli muhitda faol yosh avlod shakllanishi barqaror jamiyat qurishning muhim sharti hisoblanadi.

Global raqamlashtirish barqaror rivojlanish jarayonlarini tezlashtiruvchi omil hisoblanadi. Biroq texnologiyalar inson manfaatiga xizmat qilishi uchun huquqiy kafolatlar va ijtimoiy adolat ta'minlanishi zarur. Yoshlar salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, ularning huquqlarini himoya qilish va teng imkoniyatlar yaratish barqaror taraqqiyotning strategik shartidir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, raqamli transformatsiya va inson huquqlarini uyg'unlashtirish orqali adolatli, innovatsion va barqaror jamiyat barpo etish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Caidov A. "Raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekiston qonunchiligi va inson huquqlarini himoya mexanizmlari" T. 2020
2. Dustyorova S.N. Yoshlar siyosati va ularning davlat siyosatidagi o'rni, ustuvor yo'nalishlar tahlili. T.2022
3. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. – 2015.
4. United Nations. Universal Declaration of Human Rights. – 1948.
5. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot va yoshlar siyosati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar.

## **RAQAMLI TEXNOLOGIYA MUHITIDA O'SPIRINLIK DAVRI VAKILLARIDA IMPOSTER SINDROMINING YUZAGA KELISHI**

**Nilufarxon Yuldasheva Sherqo'zi qizi**  
Renessans ta'lim universiteti v.b dotsenti, PhD  
e-mail: [nilufary660@gmail.com](mailto:nilufary660@gmail.com)

Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi va ijtimoiy media platformalarining o'spirinlarning kundalik hayotiga chuqur kirib borishi, yoshlar orasida o'zini baholash, muvaffaqiyatni qabul qilish va psixologik holatni shakllantirishda yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shunday muammolardan biri imposter sindromidir.

Imposter sindromining o'spirinlarda yuzaga kelishi, faqat shaxsiy muvaffaqiyatlarni baholash bilan bog'liq emas, balki ularning psixologik holatiga, stressga, o'ziga bo'lgan ishonchsizlikka va motivatsiya pasayishiga ham ta'sir qiladi. Raqamli texnologiyalar, xususan ijtimoiy media, yoshlarning o'zlarini boshqalar bilan solishtirish va doimiy ravishda muvaffaqiyatni ko'rsatish ehtiyojini kuchaytiradi.

Imposter sindromi (yoki imposter fenomeni) psixologik holat sifatida 1978-yilda psixologlar Paulin Klens va Suzanna Aymes tomonidan ta'riflangan bo'lib, bu sindrom o'z muvaffaqiyatlarini tasodifiy yoki "yolg'on" deb hisoblash, shuningdek, o'zini haqiqiy muvaffaqiyatga erishgan deb his qilmaslikni o'z ichiga oladi<sup>9</sup>. S.Mulangi va R.Jagsi kabi tadqiqotchilar, o'spirinlar orasida imposter sindromi rivojlanishining sababi sifatida ijtimoiy taqqoslashni va o'zlarini boshqalar bilan solishtirishni ko'rsatganlar<sup>10</sup>. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, ayniqsa ijtimoiy media platformalari, bu jarayonni yanada kuchaytiradi, chunki yoshlar doimiy ravishda boshqalarning muvaffaqiyatlarini ko'rishadi va bu ular uchun raqobat va taqqoslashni yanada oshiradi<sup>11</sup>.

<sup>9</sup> Clance, P. R., & Imes, S. A. (1978). The imposter phenomenon in high achieving women: Dynamics and therapeutic intervention. *Psychotherapy: Theory, research & practice*, 15(3), 241.

<sup>10</sup> Mullangi, S., & Jagsi, R. (2019). Imposter syndrome: treat the cause, not the symptom. *Jama*, 322(5), 403-404.

<sup>11</sup> Fardouly, J., Diedrichs, P. C., Vartanian, L. R., & Halliwell, E. (2015). Social comparisons on social media: The impact of Facebook on young women's body image concerns and mood. *Body Image*, 13, 38-45.

Bundan tashqari, imposter sindromining o'spirinlar orasida keng tarqalganligi, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy mediadagi taqqoslashning ularning o'ziga bo'lgan ishonchga, motivatsiya va psixologik salomatlikka qanday ta'sir ko'rsatishi haqida ham ko'plab tadqiqotlar mavjud. Chou va Edge (2012) o'zlarining tadqiqotlarida, ijtimoiy media platformalari, ayniqsa Instagram va Facebook kabi vizual tarmoqlarda, yoshlarning o'zlarini boshqalar bilan solishtirishni kuchaytirishini va ularning o'z muvaffaqiyatlariga ishonmasliklarini oshirganini aniqladilar<sup>12</sup>.

Imposter sindromining psixologik xususiyatlari ham keng o'rganilgan. O'spirinlar orasida imposter sindromining rivojlanishi, ularning stress darajasini oshiradi, o'ziga bo'lgan ishonchni pasaytiradi va motivatsiyani kamaytiradi<sup>13</sup>. Seligman va Bandura kabi psixologlar, o'ziga bo'lgan ishonch va muvaffaqiyatni baholashning psixologik salomatlikka ta'sirini tadqiq etganlar va o'z-o'ziga ishonchsizlikning motivatsiya va umumiy farovonlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatganlar<sup>14</sup>.

Raqamli muhitda imposter sindromining yuzaga kelishi bir qator psixologik omillar bilan bog'liq bo'lib, bu omillar yoshlarning o'zini past baholashiga, muvaffaqiyatlarini inkor etishlariga va o'zlarini "haqiqiy emas" deb his qilishlariga sabab bo'ladi.

Birinchi psixologik omil – ijtimoiy taqqoslash. O'spirinlar o'zlarini doimiy ravishda boshqalar bilan taqqoslashadi, ayniqsa ijtimoiy media platformalarida. Ijtimoiy taqqoslash nazariyasiga ko'ra, insonlar o'zlarini boshqalar bilan solishtirgan holda o'zini baholashadi, bu esa o'ziga bo'lgan ishonchsizlikni kuchaytiradi va imposter sindromining rivojlanishiga olib keladi.

Ikkinchi psixologik omil – muvaffaqiyatni tashqi omillarga bog'lash. O'spirinlar o'z muvaffaqiyatlarini ko'pincha tasodifiy omillar yoki baxtga bog'lashadi, bu esa ularning o'z muvaffaqiyatlariga ishonchni yo'qotishlariga olib keladi. Raqamli muhitda, xususan, onlayn platformalarda taqdim etilgan muvaffaqiyatlar ko'pincha ko'rsatilgan, tahrirlangan yoki manipulyatsiya qilingan materiallarga asoslangan bo'lishi mumkin. Bu holat o'spirinlarni o'z muvaffaqiyatlarini haqiqiy deb his qilishdan to'sadi va ular o'zlarini "aldangan" deb hisoblashadi.

Uchinchi omil – doimiy muvaffaqiyatni ko'rsatish va raqobat. Raqamli texnologiyalar muhitida, ayniqsa ijtimoiy media orqali muvaffaqiyatlar va yutuqlarni doimiy ravishda ko'rsatish va baham ko'rish ehtiyoji o'spirinlarda raqobatni kuchaytiradi. Bu raqobat, o'spirinlarni o'zlarini boshqalar bilan solishtirib, o'z muvaffaqiyatlarini yuqori baholashga olib keladi.

To'rtinchi psixologik omil – stress va muvaffaqiyatdan qo'rqish. O'spirinlar uchun ijtimoiy mediadagi muvaffaqiyatga doimiy ravishda intilish va boshqalarning muvaffaqiyatlarini ko'rsatishdan qo'rqish, o'zini haqiqiy deb his qilishning qiyinlashishiga olib keladi. Buning natijasida, ular o'z muvaffaqiyatlarini tasodifiy deb hisoblaydilar va o'zlarini "aldangan" deb his qilishadi.

Beshinchi omil – o'zini yomon his qilish va xavotir. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy media o'spirinlarga boshqalar tomonidan boshqarilgan tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi, bu esa ularni o'zlariga bo'lgan salbiy qarashlarni kuchaytiradi. O'spirinlar o'zlarini doimiy ravishda boshqalarning yuksak muvaffaqiyatlari bilan solishtirib, o'zlarini "yolg'on" muvaffaqiyatga erishgan deb his qilishadi.

Bu omillarni tahlil qilish, imposter sindromining psixologik sabablari va uning oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar muhitida o'spirinlarda imposter sindromining oldini olish va uni kamaytirish uchun quyidagi tavsiyalarni kiritish muhimdir:

1. O'spirinlarga imposter sindromining ta'sirini kamaytirish uchun psixologik maslahatlar va qo'llab-quvvatlash tizimlarini joriy qilish zarur. Bu tizimlar, o'spirinlarga o'z muvaffaqiyatlarini haqiqiy deb his qilishni o'rgatish va ularni doimiy ravishda boshqalar bilan taqqoslashdan saqlanishga yordam berishi mumkin.

<sup>12</sup> Chou, H. T. G., & Edge, N. (2012). "They are happier and having better lives than I am": The impact of using Facebook on perceptions of others' lives. *Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking*, 15(2), 117-121

<sup>13</sup> Clance, P. R. (1985). The impostor phenomenon. *New Woman*, 15(7), 40-43.

<sup>14</sup> Seligman, M. E. P. (1990). *Learned optimism: How to change your mind and your life*. Knopf.

2. O'spirinlarga o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish va imposter sindromining oldini olish uchun maktablar va o'quv muassasalarida maxsus pedagogik dasturlarni ishlab chiqish lozim. Bu dasturlar yoshlarni ijtimoiy media va raqamli platformalarda o'z muvaffaqiyatlarini boshqalar bilan solishtirishdan ko'ra, o'zlarining haqiqiy erishgan yutuqlarini qadrlashga o'rgatishi kerak.

3. Raqamli texnologiyalarni ijobiy tarzda ishlatish uchun o'spirinlarni ongli ravishda ta'lim berish zarur. Ularni ijtimoiy media platformalaridan muvaffaqiyatlarini ko'rsatish va boshqalar bilan taqqoslashda ehtiyotkorlik bilan foydalanishga rag'batlantirish lozim. Yoshlarni, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda doimiy muvaffaqiyatni ko'rsatishning riyokorona va manipulyatsiya qilingan bo'lishi mumkinligini tushunishga o'rgatish kerak. Bu, ularning o'z muvaffaqiyatlarini haqiqiy deb his qilishlariga yordam beradi.

4. O'spirinlarga muvaffaqiyatni tashqi omillarga, baxtga yoki tasodifga bog'lashdan ko'ra, ularning o'z salohiyati va mehnatiga asoslangan muvaffaqiyatlarini qadrlashni o'rgatish lozim. O'z muvaffaqiyatlarini ichki resurslar va qobiliyatlar bilan bog'lash, o'spirinlarga o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi.

5. Raqobatni sog'lom tarzda, o'z-o'zini rivojlantirish va shaxsiy yutuqlarni qadriga yetish orqali yo'naltirish kerak. O'spirinlar uchun, raqobat o'zlarini yaxshilash, yangi mahoratlarni o'rganish va shaxsiy maqsadlariga erishishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ular o'z muvaffaqiyatlarini boshqalar bilan taqqoslashni to'xtatib, o'z yo'lini topishga va o'z yutuqlarini qadrlashga o'rganishlari zarur.

6. Oila va jamiyatning yoshlarning psixologik holatiga ta'siri katta ahamiyatga ega. O'spirinlar, o'zlarining muvaffaqiyatlari va yutuqlari haqida oila va yaqinlaridan ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi fikrlar olishlari kerak. Oila, yoshlarni o'z muvaffaqiyatlarini qadrlash va salbiy taqqoslashlardan saqlanishga o'rgatishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, imposter sindromi o'spirinlar orasida raqamli texnologiyalar muhitida keng tarqalgan psixologik holat bo'lib, ularning o'zini past baholashiga va o'z muvaffaqiyatlarini inkor etishiga olib keladi. Biroq, yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amalga oshirish orqali o'spirinlarning psixologik salomatligini yaxshilash va imposter sindromini kamaytirish mumkin. Bu tavsiyalar, yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, muvaffaqiyatlarini haqiqiy deb his qilish va ijtimoiy media muhitida sog'lom ravishda rivojlanishlariga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Clance, P. R., & Imes, S. A. (1978). The imposter phenomenon in high achieving women: Dynamics and therapeutic intervention. *Psychotherapy: Theory, research & practice*, 15(3), 241.
2. Festinger, L. (1954). A theory of social comparison processes. *Human Relations*, 7(2), 117-140.
3. Fardouly, J., Diedrichs, P. C., Vartanian, L. R., & Halliwell, E. (2015). Social comparisons on social media: The impact of Facebook on young women's body image concerns and mood. *Body Image*, 13, 38-45.
4. Bandura, A. (1997). *Self-efficacy: The exercise of control*. W.H. Freeman and Company.
5. Chou, H. T. G., & Edge, N. (2012). "They are happier and having better lives than I am": The impact of using Facebook on perceptions of others' lives. *Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking*, 15(2), 117-121.
6. Seligman, M. E. P. (1990). *Learned optimism: How to change your mind and your life*. Knopf.
7. Mullangi, S., & Jagsi, R. (2019). Imposter syndrome: treat the cause, not the symptom. *Jama*, 322(5), 403-404.

**JADIDLAR ILMIY MEROSINI O'RGANISHDA RAQAMLI  
TEXNOLOGIYALARNING YOSHLAR MA'NAVIY TAFAKKURINI  
RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI**

**Murodov Adham Ilhom O'g'li**

"Tashkent International University"

xalqaro universiteti, "Ijtimoiy fanlar va ta'lim" kafedrası

p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.,

E-mail: [adhammurodov05@gmail.com](mailto:adhammurodov05@gmail.com)

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida milliy-ma'naviy merosni asrab-avaylash, uning qadriyatlarini saqlash va yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, milliy merosning yoshlar tomonidan chuqur anglanishi faqat kitob va an'anaviy dars shakllari orqali emas, balki zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirilganda samarali bo'ladi. Xususan, jadidchilik harakati namoyandalarning ilmiy va ma'rifiy merosi milliy uyg'onish, erkin tafakkur, mustaqil fikrlash va ijtimoiy taraqqiyot g'oyalari o'zida mujassam etgan bebaho manbadir. Bu meros nafaqat tarixiy hujjat sifatida, balki pedagogik va ma'naviy-resurs sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy yoshlar "raqamli avlod" sifatida axborot va bilimlarni asosan elektron manbalar orqali qabul qiladi. Shu sababli, jadidlar ilmiy va ma'rifiy merosini ularga yetkazishda raqamli texnologiyalar muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Elektron kutubxonalar, raqamlashtirilgan arxivlar, interaktiv platformalar, videodarslar va multimedia loyihalari yoshlarni nafaqat tarixiy ma'lumot bilan tanishtiradi, balki ularning ma'naviy tafakkuri, milliy g'ururi va erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Shu bois, milliy-ma'naviy merosni o'rganish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash nafaqat ilmiy va pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Bu jarayon yoshlarning tarixiy xotirasi, madaniy ong va milliy o'zlikni anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada jadidlar ilmiy-merosini zamonaviy yoshlar ongiga yetkazishda raqamli texnologiyalarning roli va pedagogik-psixologik ahamiyati tahlil qilinadi.

Jadidlar – Turkiston ijtimoiy-ma'rifiy hayotida tub burilish yasagan ziyolilar bo'lib, ular ta'lim, matbuot, adabiyot va teatr orqali milliy ongni uyg'otishga harakat qilganlar. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvarlar ilm-fan va tarbiya orqali jamiyatni isloh qilish g'oyasini ilgari surganlar.

Ularning ilmiy merosi – darsliklar, publitsistik maqolalar, dramatik asarlar va ma'rifiy risolalar – bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Masalan, Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari yoshlar tarbiyasining nazariy asoslarini belgilab bergan[1]. Fitrat asarlarida esa milliy o'zlikni anglash va mustaqil tafakkur masalalari chuqur yoritilgan[2].

Raqamli texnologiyalar jadidlar merosini keng jamoatchilikka yetkazishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron kutubxonalar, raqamlashtirilgan arxiv materiallari, onlayn platformalar va multimedia loyihalar yoshlarning jadidlar asarlari bilan erkin tanishishiga xizmat qilmoqda. Masalan, Ziyonet ta'lim portali hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi elektron fondlari orqali ko'plab tarixiy va adabiy manbalarga kirish imkoniyati mavjud.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar jadidlar merosini interaktiv shaklda o'rganish imkonini beradi. Virtual taqdimotlar, videodarslar, podkastlar va hujjatli filmlar yoshlarning qiziqishini oshirib, tarixiy shaxslar faoliyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu jarayon nafaqat bilim berish, balki yoshlarning ma'naviy tafakkuri, milliy g'ururi va tarixiy xotirasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi[3].

Biroq, jadidlar merosini raqamlashtirish jarayonida ilmiylik, manbalar ishonchliligi va tarixiy haqiqatni saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Aks holda, noto'g'ri talqin va yuzaki yondashuvlar ma'naviy merosning asl mazmunini buzishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Jadidlar ilmiy merosi milliy uygʻonish va maʼrifatparvarlik gʻoyalarining muhim manbai hisoblanadi. Uni yoshlar ongiga singdirishda raqamli texnologiyalar samarali va zamonaviy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Elektron resurslar, onlayn platformalar va multimedia shakllari orqali jadidlar asarlarini keng targʻib qilish yoshlarning tarixiy ongini, maʼnaviy tafakkurini va milliy oʻzligini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bois jadidlar merosini raqamlashtirish va uni taʼlim jarayoniga integratsiya qilish bugungi kunning dolzarb maʼnaviy-maʼrifiy vazifalaridan biri sifatida eʼtirof etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1992.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2000.
3. Qosimov B. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004.
4. Murodov A.I. jadidlar ilmiy merosi asosida pedagogika oliy taʼlim tashkilotlari talabalarining kasbiy koʻnikmalarini rivojlantirish / p.f.f.d. (PhD) diss. T. 2023

### **GLOBAL RAQAMLASHUV DAVRIDA YOSHDAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA AFFILIATSIYA MOTIVATSIYASINING TUTGAN OʻRNI**

**Norkulova Nargiza Tashpulatovna,**

psixologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD),  
“Tashkent International University” xalqaro universiteti  
“Ijtimoiy fanlar va taʼlim” kafedrasida dotsenti,  
E-mail: [nargiza.norkulova@mail.ru](mailto:nargiza.norkulova@mail.ru)

Bugungi global raqamlashtirish sharoitida yangicha fikrlaydigan, fuqarolik jamiyatini qurishda mamlakat ravnaqiga hissa qoʻsha oladigan, oʻz kasbining sir asrorlarini puxta egallagan mutaxassislarni etkazib berish uzluksiz taʼlim tizimi oldida turgan eng muhim masalalardan biridir. Buning uchun oʻquv jarayonini samaradorligini oshirish lozim. Bu vazifani bajarishga kirishishdan oldin nafaqat anʼanaviy pedagogik usullardan foydalanib darsni tashkil etish, balki dunyo tajribasiga ham nazar tashlash, ulardan oʻzimizga maqbullarini olib, milliy taʼlim tizimiga moslashtirish orqali darslarni yanada qiziqarli oʻtish, hozirgi kun oʻqituvchilarini mustaqil oʻquv jarayoniga jalb etish, ularning oʻzaro hamkorlikda oʻqishlarini taʼminlash, oʻqituvchilarda jamoa boʻlib ishlay bilish qobiliyatini rivojlantirish, raqobatbardosh jamoadan faqatgina oʻz bilimlari va jamoa aʼzolarining oʻzaro ahilligi va madaniyatligi bilangina gʻolib chiqishlari mumkinligini uqtirish lozimligi hozirgi kunda hech kimga sir emas.

Keyingi paytlarda zamonaviy taʼlimning, yaʼni psixolog va pedagoglarni jiddiy oʻylantirib kelayotgan muammo, u ham boʻlsa hozirgi kun pedagoglarida maktab faoliyatiga boʻlgan motivatsiyani oshirish masalasidir.

Motivatsiya muammosi shaxs tuzilishida muhim ahamiyatga ega boʻlib, inson xulq-atvori va faoliyatini tushuntirib berishda qoʻllaniladigan asosiy tushuncha hisoblanadi. Shulardan muhimi affiliatsiya (ing. to affiliate – birlashtirmoq, birlashmoq, insonni boshqa odamlar davrasida boʻlishga intilishi) motividir. Affiliatsiya motivi shaxs ehtiyojlari ierarxiyasining eng yuqori darajasiga mansub boʻlib, u shaxs tabiatining fundamental va bazaviy motivi hisoblanadi va eng muhim xususiyatlaridan biri insonlarning oʻzaro bir-birlari bilan taʼsiri doirasidagina rivojlanadi.

Affiliatsiya ehtiyoji deganda odamlar bilan ijobiy aloqa oʻrnatish, saqlab qolish va mustahkamlash tushuniladi. Ushbu ehtiyoji bor shaxs, nafaqat odamlarga intilib, ijobiy emotsional muloqotdan bahra oladi, balki insoniy munosabatlar doirasida uni muhim hayotiy maʼno sifatida qabul qiladi. Baʼzida esa bu ehtiyoj shunchalik ahamiyatga molik boʻlib qoladiki, boshqa ehtiyojlardan ustunroq turadi. Chunki affiliatsiya motivatsiyasi - muloqotga intilish, bilishga intilish, oʻz-oʻzini taʼkidlash, manfaatli hamkorlikka intilish kabi maqsadlar, ehtiyojlar, motivlar majmuidan iborat boʻlib, ular oʻqituvchi va oʻquvchini oʻquv faoliyati davomida aqliy, anglanilgan muloqot jarayoniga oʻtishga undaydi. Bu esa hozirgi kun yoshlarida soʻzlashuv nutqi

malakalarining shakllanishiga olib keladi. Ayniqsa, pedagogik kasb egalari uchun affiliatsiya motivining shakllanganlik darajasi birinchi darajali masalalardan biriga aylanishi kerak, chunki affiliativ o‘zaro ta’sir engillik, ishonch uyg‘ota olish, o‘zaro tushunish va jalb qila olish, odamlarni birlashtira olish kabi xarakteristikalarini o‘z ichiga qamrab oladi.

O‘zbekiston yoshlarida affiliatsiya motivini ijtimoiy-psixologik tomonlarini yoritib beruvchi aniq ilmiy tadqiqot ishlari deyarli mavjud emas. Bu holat mamlakatimiz sharoitida yoshlarda, xususan, pedagog yoshlarida affiliativ motivatsiyani psixologik tabiatini o‘rganish va shunga mos tarzda ta’lim-tarbiya dasturlarini, ijtimoiy-psixologik trening dasturlarini ishlab chiqilishini **dolzarb ilmiy muammo** sifatida namoyon etadi.

Affiliatsiya motivini talabalarda to‘g‘ri shakllantirish bizga o‘z ish joyida kommunikativ kompetentlikka ega bo‘lgan, shu jumladan fuqarolik jamiyatini barpo etishda o‘z hissasini qo‘shuvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlab berish imkonini beradi. Affiliatsiya motivini yoshlarimizda shakllantirishga ta’sir etuvchi bir nechta omillar haqida aytib o‘tish joiz.

1. Affiliatsiya motivi, ayniqsa affiliativ xulq-atvorning namoyon bo‘lishi bolalikdan oiladagi o‘zaro munosabatlar xilma-xilligi (stili)ga bog‘liq bo‘ladi.

2. Affiliatsiya nisbatan ehtiyoj universal hisoblanib, yosh, gender, etnik mansublikdan qat’iy nazar barcha insonlarga xos bo‘ladi, lekin uning xarakteri va mazmuni shaxs tarbiyasi, ijtimoiylashuv sharoitlaridan kelib chiqqan holda farqlanadi.

3. Tinglovchilarda professional kasb egallash davrida o‘qitish motivatsiyalari bilan birgalikda affiliatsiya va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyalarining uyg‘unlikda olib borilishi ijtimoiy xulq mustahkamlanishiga erishish orqali kommunikativ jihatdan bilimdon (kompetent) mutaxassis etishtirib berishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

4. Shunday qilib, ushbu motivatsiyani amaliyotda pedagogik kadrlarda hamda talabalarda shakllantirish uchun ta’limning interaktiv usul va shakllari, maxsus vaziyatli topshiriqlar, talaba muvaffaqiyatining individual xaritasi kabi o‘z ichiga multimedial, attraktsiya va boshqa texnik usullarni qamrab oluvchi kopleks pedagogik vositalardan foydalanishni talab etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh. O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan ma’ruzasi // Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., 2016 yil 7 dekabr.

2. Tulenova G.J. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma’naviy omilning roli. Fal.fan.dok. O‘zMU. – T., 2006. – 317b.

3. Шапарь В.Б. Новейший психологический словарь \В.Б. Шапарь, В.Е.Россоха, О.В. Шапарь; под общ.ред.В.Б. Шапаря. – Изд.3-е – Ростов н\Д.: Феникс, 2007.-с-43.

4. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность, т.1. СПб.: Питер – 2003. – С. 347-370.

5. Buunk B. Affiliation and helping interactions within organizations: a critical analysis of the role social support with regard to occupation stress. \ inStroebe W., Hewstone M. European Review of Social Psychology, – Chichester: John Wiley, 1990, 1, p. 293-322.

# ТРАНСФОРМАЦИЯ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ: ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ И МЕХАНИЗМЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ

Хахлина Екатерина Александровна  
Tashkent International University  
кафедра «Социальные науки и образование»,  
кандидат психологических наук PhD,  
[ekhakhlina@gmail.com](mailto:ekhakhlina@gmail.com)

Современная молодежь, формирующаяся в эпоху развития цифровых технологий, определяемая в терминах американского эксперта в образовании М. Пренски как «цифровые аборигены» (*digital natives*), воспринимает цифровое пространство не как инструмент, а как естественную среду обитания. Для системы образования это означает необходимость смены привычных методов работы: от информирования к созданию экосистемы цифрового участия. Исходя из теории культурно-исторического развития Л. С. Выготского [1], высшие психические функции формируются через использование внешних стимулов-орудий, в XXI веке ими становятся интерфейсы и алгоритмы. В связи с этим, можно сделать выводы, что, цифровая среда молодежной политики становится пространством не только социального, но и личностного развития.

## **Мотивационные механизмы молодежной политики: от стимула к самоактуализации**

В эпоху цифровых технологий ключевой задачей молодежной политики становится преодоление «гражданской апатии». Это можно реализовать через активацию внутренних психологических ресурсов, через грамотную мотивацию, повышение личностной активности. Эффективность вовлечения молодежи напрямую зависит от того, насколько цифровые инструменты способны удовлетворить базовые и высшие потребности личности. По теории самодетерминации, разработанной Э. Деси и Р. Райаном [2], долгосрочная вовлеченность в деятельность возможна только при условии перехода от внешней мотивации к внутренней. Такой переход реализуется через удовлетворение трех основных потребностей:

- Автономия: молодежь стремится быть субъектом собственной деятельности. Цифровые платформы особо эффективны, когда они дают пользователю право выбора траектории участия, когда человек чувствует, что жизнь принадлежит ему и все под его контролем;

- Компетентность: опора на теорию мотивации достижения показывает, что цифровая активность поддерживается через осознание роста собственных умений и навыков. Элементы геймификации выступают как объективные маркеры признания. Программы или игры, в которых постепенно повышаются уровни сложности, наиболее востребованы, особенно в ситуации социальной оценки и поддержки в группах. Это часто наблюдается в сетевых играх, социальных приложениях и соцсетях.

- Связанность: формирование «цифровых референтных групп» позволяет молодежи чувствовать причастность к масштабным процессам, удовлетворяя потребность в аффилиации, то есть стремлении человека быть в обществе, потребности в дружеских, доверительных отношениях.

Таким образом цифровая среда помогает молодежи удовлетворять базовые потребности, развивать личностные и коммуникативные качества, получать социальное признание. Поэтому перспективно создавать экосистемы цифрового участия.

## **Цифровая среда как пространство самоактуализации**

Высшим уровнем вовлеченности в деятельность выступает потребность в самоактуализации, разработанная и описанная в теориях А. Маслоу [5]. Для современной

молодежи цифровые технологии — это неограниченные возможности, расширяющие границы личности. Самоактуализация в цифровой среде реализуется через:

- Творческий вклад: создание уникального контента и ИТ-решений.
- Поиск смыслов: переход от потребления к решению глобальных задач (киберволонтерство, глобализация в образовательной среде).
- Состояние «потока»: согласно М. Чиксентмихайи [6], это состояние возникает, когда сложность цифровой задачи идеально соответствует уровню навыков участника, обеспечивая глубокое погружение в деятельность. Состояние «потока» помогает ощутить полное единение с деятельностью и ситуацией.

Таким образом, цифровая среда может помочь личности реализовывать себя и стремиться к самоактуализации. Чему свидетельствует появление новых профессий в цифровом пространстве.

### **Цифровая идентичность и задачи социализации**

Как известно, юношеский возраст — это период активного поиска идентичности. Э. Эриксон [7] подчеркивал, что успешное разрешение кризиса идентичности возможно только в ситуации признания обществом вклада молодого человека. Когда молодежная политика предлагает привлекательные цифровые роли (разработчик программ, лидер мнений, инноватор и т.д.), это способствует переходу личности из состояния «диффузии» к «достигнутой идентичности» по классификации Дж. Марсиа [4]. Иначе потребность в самоидентификации будет реализована в деструктивных интернет-сообществах.

### **Психологическая безопасность и цифровые риски**

Трансформация молодежной политики неизбежно сталкивается с проблемой психологического благополучия и рисков. Исследования К. Янг [8] указывают на формирование интернет-аддикций, он также разработал систему диагностики ключевых признаков аддикции и классифицировал типы патологической зависимости от сети. Кибераддикция связана со стремлением бесконтрольного нахождения в сети интернета. Эффективная цифровая политика должна не просто подстраиваться под «клиповое мышление», а развивать критическое мышление, переводя пользователя из позиции пассивного участника в позицию активного создателя (prosumer), что соответствует принципу ведущей деятельности (А. Н. Леонтьев). Деятельностный подход А. Н. Леонтьева [3] говорит о том, что личность формируется в деятельности. Следовательно, противодействие рискам заключается в переориентации молодежи с пассивного «скроллинга» на активное созидание контента.

Таким образом, успешная молодежная политика в эпоху цифровизации — это «личностно-центрированная» модель. Ориентация на внутреннюю мотивацию, поддержку идентичности и стремление к самоактуализации позволяет превратить цифровые инструменты из каналов связи в катализаторы развития человеческого потенциала, что будет способствовать минимизации рисков эмоциональной депривации и снижению цифровой тревожности.

### **Список литературы**

1. Выготский Л. С. Психология развития человека – М.: Эксмо, 2005. – 1136 с.
2. Деси Э. Л. Самодетерминация и внутренняя мотивация в поведении человека – М.: Ин-т психологии РАН, 2018. – 412 с.
3. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность – М.: Политиздат, 1975. – 304 с.
4. Марсиа Дж. Е. Статусы эго-идентичности: теория и методы исследования // Психология самосознания: хрестоматия – Самара: Бахрах, 2003. – С. 543–562.
5. Маслоу А. Мотивация и личность. – 3-е изд. – СПб.: Питер, 2019. – 400 с.
6. Чиксентмихайи М. Поток: Психология оптимального переживания – М.: Альпина нон-фикшн, 2021. – 461 с.
7. Эриксон Э. Г. Идентичность: юность и кризис – М.: Прогресс, 2006. – 352 с.
8. Young K. S. Internet Addiction: The Emergence of a New Clinical Disorder // CyberPsychology & Behavior. – 1998. – Vol. 1, No. 3. – P. 237–244.

9. Deci E. L. & Ryan R. M. (2000). The "What" and "Why" of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior. *Psychological Inquiry*, 11(4), 227-268.

## **YOSHLAR SIYOSATI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA YOSHLARNING ISHTIROKI**

**Tursunova Malika Baxtiyor qizi**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston  
milliy pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi”  
kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD

Raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar jamiyatning eng faol qatlamiga aylanmoqda. O‘zbekistonda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar yoshlarning ta’lim olishi, kasb egallashi va zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishiga xizmat qilmoqda.<sup>15</sup>

Yoshlar siyosati va raqamli texnologiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik bugungi kunda alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yoshlar siyosatining institutsional asoslari.

O‘zbekistonda yoshlar bilan ishlash tizimi takomillashib, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlovchi muhim institut sifatida faoliyat yuritmoqda<sup>16</sup>. Shuningdek, raqamli rivojlanish sohasida Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan IT-ta’limni kengaytirish va yoshlarni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda<sup>17</sup>.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishda IT Park Uzbekistan muhim rol o‘ynab, yosh startapchilar uchun qulay muhit yaratmoqda<sup>18</sup>.

Raqamli kompetensiyalar va yoshlar. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli kompetensiyalar yoshlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omildir<sup>19</sup>. Raqamli savodxonlik, dasturlash ko‘nikmalari va axborot xavfsizligi bo‘yicha bilimlar zamonaviy yosh avlod uchun zaruriy talabga aylangan. Biroq hududiy infratuzilmaning notekis rivojlanishi va kiberxavfsizlik madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Yoshlar siyosati va raqamli transformatsiya jarayonlari o‘zaro integratsiyalashgan holda samaradorlikni ta’minlaydi. Raqamli kompetensiyalarni erta yoshdan shakllantirish uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Institutsional qo‘llab-quvvatlash yoshlarning innovatsion faolligini oshiradi. Hududiy raqamli tafovutni kamaytirish barqaror rivojlanishning muhim shartidir.

1. Maktablarda majburiy raqamli savodxonlik modullarini joriy etish.
2. Qishloq hududlarida bepul IT-markazlar tashkil etish.
3. Yosh startaplar uchun grant va soliq imtiyozlarini kengaytirish.
4. Kiberxavfsizlik bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.
5. Yoshlarning raqamli faolligini baholovchi milliy indikatorlar tizimini yaratish.

Xulosa. Yoshlar siyosati va raqamli texnologiyalar o‘zaro bog‘liq jarayonlar bo‘lib, mamlakatning innovatsion taraqqiyotini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Raqamli ko‘nikmalarga ega yoshlar jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev nutqlari va farmonlari. – Toshkent, 2022.

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016.

<sup>17</sup> Raqamli rivojlanish strategiyasi materiallari. – Toshkent, 2023.

<sup>18</sup> IT Park Uzbekistan rasmiy hisobotlari, 2024.

<sup>19</sup> Perrenoud P. Key Competencies for the 21st Century. – Geneva, 2004.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev nutqlari va farmonlari. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni, 2016.
3. Raqamli rivojlanish strategiyasi materiallari. – Toshkent, 2023.
4. IT Park Uzbekistan rasmiy hisobotlari, 2024.
5. Perrenoud P. Key Competencies for the 21st Century. – Geneva, 2004.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

**Shodmonova Abera Shodiyevna**

Renessans ta'lim universiteti  
“Pedagogika” kafedrasi katta o'qituvchisi

Mamlakat qatoriga kirishiga erishish ya'ni, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbiiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish, qolaversa, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tadbiiq etish to'g'risida aytib o'tilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunining qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimining asosi yaratildi. Binobarin, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 26-moddasida o'qitish jarayoniga ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng ko'lamda tadbiiq etish barcha turdagi ta'lim muassasalari oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Dunyo bo'yicha rivojlangan mamlakatlarda yoshlarni ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda va ushbu yo'nalishlar bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Bu borada respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida tub islohotlar olib borilmoqda va ularning mazmun – mohiyatini kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni intellektual salohiyatli, ma'naviy yetuk, jismonan baquvvat, innovatsion rivojlangan barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalalarini hal qilish tashkil etadi. Ularda erishilgan natijalar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkur qamrovini yuksaltirishda muhim didaktik asos bo'lib, ular orqali boshlang'ich ta'lim mazmuni zamonaviy talablar asosida shakllantirishga erishilmoqda. Shu bilan birga hozirda jamiyat taraqqiyoti darajasi zamonaviy ta'limda ilm-fan va texnika-texnologiyalarning ilg'or yutuqlaridan foydalanishni ham taqozo etmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatini rivojlantirish masalalari yuzasidan olib borgan izlanishlarimiz natijalari ta'lim jarayonida muayyan fanlarni o'qitishda ma'lum bir ta'lim yo'nalishini amalga oshirishda innovatsion metod va texnologiyalarni ishlab chiqib, ulardan ma'lum yo'nalishlarda samarali foydalanishga mo'ljallangan ijodiy faoliyati muhitini yaratib, boshlang'ich ta'limni optimal tashkil etish kerakligini ko'rsatmoqda. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risidagi farmonida ayni ko'rib chiqilayotgan muammo yechimini hal qilishga doir keng imkoniyatlar yaratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 iyundagi “Yoshlar-kelajagimiz” Davlat dasturi to'g'risidagi Farmonida “Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir”, deb alohida belgilangan. Shunga ko'ra jamiyatimizdagi mehnat – haqiqiy ijod, quvonch manbai. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv mehnatiga ijodiy munosabat uyg'otib, mehnatning haqiqiy ijod, quvonch manbaiga aylanishiga ko'maklashishi kerak. Mental arifmetika umumta'lim

maktabining boshlang'ich bosqichida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish, tarbiyalash va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning majburiy sharti va tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli xil usullari qolaversa, darsdan tashqari faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Taniqli olimlardan N.K.Krupskaya, A.S.Makarenko, A.V.Lunacharskiy, S.L.Rubinshteynlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda mehnat yoki texnologiya fani muhim o'rin egallaydi, deb hisoblaydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z qo'llari bilan biror bir buyumni yasash, tayyorlash, o'quvchilarda ehtiyotkorlik hisini va xotirani rivojlantiradi, shu bilan bir qatorda, ma'suliyatlilik, qat'iyatlilik va sabr-toqatni o'rgatadi. Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktabda, ayniqsa, grafik insho yozishni o'rganishda yordam beribgina qolmay, keyinchalik ularning hayotida bu ko'nikmalar foydali hamda samarali bo'ladi. Texnologiya darslari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini tasavvurini, tafakkurini badiiy va san'atni shakllantirishga rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining miya yarim shar kasalliklari va nutqiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun juda muhim bo'lgan nozik vosita hisoblanadi. Ijodiy yoki mahorat darslari boshlang'ich sinf o'quvchilariga nafaqat tasavvurni rivojlantirishda, balki ko'plab amaliy ko'nikmalarni ham shakllanishida yordam beradi. Masalan, bir tugmani tikish, rangli qog'ozlardan biror bir buyum yasash, nonushta tayyorlash, oilangiz va do'stlaringizga o'z qo'llaringiz bilan sovg'alar tayyorlash, bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida rivojlanishi maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, qiziqish o'quvchilarning emotsional bezagi biror buyum, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo'nalishidir. Shunga ko'ra, psixologiyada qiziqishning ikki turi o'quvchilarning ta'lim jarayonida aniqlanadi: birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi esa bilvosita qiziqishdir. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarida o'z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o'quvchilarda ta'limga faol munosabat namoyon bo'ladi. Albatta, boshlang'ich sinf o'quvchilarini qiziqishlarini va qiziqish orqali ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda bir nechta omillar va samarali usullar mavjud bo'lib ulardan bir nechta usullarni ko'rib chiqamiz.

“Yopiq kitob” usuli- bu muayyan fan bo'yicha matn materialini qo'llanish usullaridan biri bo'lib, o'quvchilardan matnda bor ma'lumotlarni eslab qolishni, lekin munozara paytida matnni qayta bayon etmaslikni talab qiladi. Bu usul ham boshqa usullar bilan birgalikda qo'llanishni va o'quvchilar o'qishda faqat “qayta bayon etish” bilan chegaralanmasliklarini talab qiladi.

Ushbu usul boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy faoliyati muhitida dars mashg'ulotlarini olib borishdagi umumlashtiruvchi dars mashg'ulotlarida (interfaol o'quv mashg'ulotlarida) juda ham qo'l keladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun eng qulay va oson ishlov beradigan material bu qog'ozdir. Qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish qo'llarning mushaklarining rivojlanishiga yordam beradi, o'quvchilarning ko'rish faoliyatini yaxshilaydi, uni yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun tayyorlaydi, boshlang'ich sinf o'quvchilarning estetik rivojlanishiga, ranglarni biri birlariga uyg'unlashtirishda ham o'z aql idroklariga tayanishadi.

Ayniqsa, loy (plastilin) bilan ishlash darslari (haykaltaroshlik) yoki loy plastilin yordamida biror bir buyum yasash. Haykaltaroshlik darslari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'ziga xos bo'lmagan (bu va shunga o'xshash ish uchun zarur bo'lgan) shaxsning ijodiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi, ammo umumiy ahamiyatga ega. Ushbu darslar boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularning dunyoqarashlarini, tasavvurlarini kengaytiradi, axloqiy g'oyalarni shakllantiradi va atrofdagi dunyoga ijodiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, loydan (plastilindan) tayyorlangan barcha mahsulotlar hayot bilan bog'liq bo'lgan xursandchiliklarni dekorativ va amaliy san'atga juda ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini kengaytirishda va rivojlantirishda sayohat o'yinlari alohida pedagogik ahamiyatga ega. Ular geografik, tarixiy, o'lkashunoslik xarakteriga ega. Bunday o'yinlar kitoblar, xaritalar va turli hujjatlar yordamida amalga oshiriladi. Ular o'quvchilarda tasavvur qilish vaziyatlari yordamida o'tkaziladi. Barcha harakatlar va kechinmalar o'yindagi rollar yordamida aniqlanadi. Bu yerda o'quvchilar geolog, iqtisotchi, zoolog, muhandis rollarida namoyon bo'ladilar. O'quvchilar kundaliklar, xatlar yozadilar, bilish xarakteriga ega

bo'lgan turli-tuman materiallarni to'playdilar. Bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan katta o'zgarishlar maktab oldiga o'quv faoliyatning barcha jabhalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatni rivojlantirish hamda jamiyatda shaxs sifatida shakllantirish bilan bog'liq muammolar yechimini hal etish vazifasini qo'yimoqda. Bu muammolarning yechimini topishda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kun pedagogi boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan ishlaganda bu qobiliyatlarning yanada samaraliroq shakllanishiga va rivojlanishiga yordam berishi, boshlang'ich sinf o'quvchilarning aqliy va amaliy malakalarini faollashtirishni ta'minlaydigan ta'lim usullari va metodlarini qo'llashga diqqatini qaratishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, har bir boshlang'ich sinf o'quvchining shaxsiy xususiyati, imkoniyatiga qarab ijodiy faoliyatni, ishtiyoqini, qiziqishini samarali rivojlantirish uchun avvalo boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'z ijodiy qobiliyatlarini mustaqil ravishda namoyish etish imkoniga ega bo'lgan shartsharoitlarni, dars mashg'ulotlarida o'ziga bo'lgan ishonchini, berilayotgan ijodiy vazifalarni bajarishda mustaqil qaror qabul qilishini ta'minlash va ijodiy muhitni yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.E.Jumayev. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi moduli bo'yicha o'quv – uslubiy majmua. II qism. Toshkent, 2018.
2. Tolipov F., M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006.
3. Кондаков, А.М. Федеральный государственный стандарт общего образования и подготовка учителей / А.М. Кондаков // Педагогика. - 2010. - №5 4. Бобоева,
4. М. (2022). Особенности развития логического мышления младших школьников. Ученый XXI века, (5-1 (86)), 22-25.
5. Бобаева, з. М. (2021). Формирование толерантности у школьников в процессе изучения этнокультуры различных народов. In диалог культур и толерантность общения (pp. 66-71).
6. Бобаева, з. М. (2023). Педагогические особенности логического мышления младших школьников и пути его развития в процессе обучения. Экономика и социум, (1-1 (104)), 183-191

## **OLIY TA'LIM TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA YOSHLARNING IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI**

**Abdullayeva Marjona Asadullayevna**

“Tashkent International University” xalqaro universiteti  
Ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga shiddat bilan kirib kelayotgan bugungi kunda jamiyatning eng faol qatlami bo'lgan yoshlarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlari ham tubdan o'zgarib bormoqda. Oliy ta'lim tizimi an'anaviy bilim berish dargohidan raqamli iqtisodiyot, moliyaviy texnologiyalar va axborot jamiyati uchun yetuk, ijtimoiy faol hamda kreativ fikrlaydigan kadrlarni tayyorlovchi innovatsion klasterga aylanmoqda. Oliy ta'lim muassasalarini raqamli transformatsiyalash sharoitida talaba-yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, eng avvalo, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini zamonaviy elektron platformalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali kengaytirishni taqozo etadi. Bugungi kun talabasi faqatgina auditoriyada nazariy bilimlarni o'zlashtiruvchi passiv tinglovchi emas, balki raqamli makonda o'zining fuqarolik pozitsiyasini erkin namoyon eta oladigan, ijtimoiy muammolarga kreativ yechimlar taklif qila biladigan faol ishtirokchidir. Bu jarayonda elektron ta'lim muhiti, jumladan interfaol boshqaruv tizimlari (LMS platformalari), virtual idoralar va raqamli muloqot tarmoqlari talabalarga nafaqat sifatli ta'lim olish, balki universitetning ichki boshqaruv jarayonlarida, ochiq muloqotlarda va talabalar o'zini o'zi boshqarish tizimlarida bevosita qatnashish imkonini yaratib

bermoqda. Raqamli makon yoshlar uchun o'z g'oyalarini ilgari surish, innovatsion ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish va davlat siyosati doirasida qabul qilinayotgan strategik qarorlarga daxldorlik hissi bilan munosabat bildirish uchun eng qulay va tezkor minbar vazifasini o'tamoqda.

Oliy ta'limdagi raqamli transformatsiya jarayonlari yoshlarning huquqiy va ijtimoiy-siyosiy madaniyatini yuksaltirishda butunlay yangicha mexanizmlarni taqdim etadi. Xususan, "elektron hukumat" va "elektron ishtirok" (e-participation) konsepsiyalarining o'quv va tarbiya jarayoniga chuqur integratsiya qilinishi talabalarda demokratik qadriyatlarni raqamli formatda shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalar universitet miqyosidagi saylovlarda, masalan, yoshlar ittifoqi yetakchisini yoki talabalar kengashi vakillarini saylashda shaffof raqamli texnologiyalar asosida onlayn ovoz berish orqali elektron demokratiya jarayonlarining bevosita amaliy ishtirokchisiga aylanadilar. Bu kabi lokal miqyosdagi ijtimoiy-siyosiy amaliyotlar kelgusida yoshlarning respublika miqyosidagi yirik siyosiy kampaniyalarda ongli, siyosiy yetuk va faol ishtirok etishiga mustahkam zamin yaratadi. Shu bilan birga, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar, tahliliy bloglar va maxsus kraudsorsing platformalaridagi faoliyati ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi hamda siyosiy sotsializatsiyasini mislsiz darajada tezlashtiradi. Davlat organlari, mahalliy boshqaruv idoralari va yoshlar o'rtasidagi virtual muloqotning to'g'ridan-to'g'ri o'rnatilishi, turli xil elektron murojaatlar va ochiq ma'lumotlar portallaridan samarali foydalanish ko'nikmalarining shakllanishi talabalarining jamiyatdagi mavjud tizimli muammolarni chuqur tahlil qilish hamda siyosiy jarayonlarga xolis va tanqidiy baho berish salohiyatini keskin oshiradi.

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mexanizmlarini tahlil qilar ekanmiz, ushbu murakkab jarayonni mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish, global biznes boshqaruvi, moliyaviy texnologiyalar (FinTech) va kreativ iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqish g'oyatda maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak iqtisodchilar, moliyachilar, menejerlar va logistika sohasi mutaxassislarini oliy ta'lim bosqichida tayyorlashda ularning shunchaki tor doiradagi kasbiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan cheklanmasdan, balki makroiqtisodiy islohotlar, davlatning investitsion iqlimi va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli dasturlarga bevosita daxldorlik hissini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yoshlarning chinakam ijtimoiy faolligi quruq siyosiy shiorlarda emas, balki ularning iqtisodiy mustaqilligi, mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan innovatsion startap loyihalari orqali ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli biznes-inkubatorlar, venchur moliyalashtirish asoslarini o'rgatuvchi virtual maydonchalar va kreativ markazlarning tashkil etilishi yoshlarni qisqa muddatda iqtisodiyotning faol drayverlariga aylantirmoqda. Elektron savdo, raqamli moliyaviy logistika va zamonaviy IT xizmatlari sohasidagi chuqur bilimlar yoshlarga nafaqat o'z biznesini mustaqil yo'lga qo'yish, balki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga doir qonunchilik hujjatlari, me'yoriy hujjatlar va davlat siyosiy dasturlari muhokamasida professional darajada, asosli takliflar bilan ishtirok etish imkonini beradi. Iqtisodiy va pedagogik savodxonligi yuqori bo'lgan, innovatsion raqamli texnologiyalarni kundalik amaliyotida mukammal o'zlashtirgan yoshlar jamiyatdagi keng ko'lamlı islohotlarning asl mohiyatini hammadan ko'ra to'g'riroq anglaydi va davlat yoshlar siyosatini ro'yobga chiqarishda chinakam tayanch kuchiga aylanadi.

Biroq, ochiq axborot va raqamli muhit yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda, o'ziga xos jiddiy xavf va tahdidlarni ham yuzaga keltirayotganini unutmaslik lozim. Global axborot xurujlari, feyk (yolg'on) xabarlar, destruktiv g'oyalar, turli manipulyativ texnologiyalar va radikal oqimlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali chaqmoq tezligida tarqalishi hayotiy tajribasi yetarli bo'lmagan yoshlar ongiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, xalqaro maydonda turli xil mafkuraviy ziddiyatlar va axborot urushlari avj olayotgan bir sharoitda talabalarda mustahkam raqamli immunitetni, yuksak axborot iste'moli madaniyatini va media savodxonlikni shakllantirish har bir oliy ta'lim muassasasining strategik va eng ustuvor vazifalaridan biriga aylanmog'i zarur. Talabalar qatlamining ijtimoiy-siyosiy faolligi stixiyali, hissiyotlarga berilgan holda emas, balki chuqur ongli, yuksak vatanparvarlik ruhi, qonun ustuvorligi va ming yillik milliy

qadriyatlarimizga qat'iy asoslangan holda rivojlanishi uchun kompleks va zamonaviy pedagogik yondashuvlar talab etiladi. Bu borada OTM o'quv dasturlariga axborot xavfsizligi, raqamli sotsiologiya, ommaviy psixologiya va siyosiy kommunikatsiyalar bo'yicha maxsus integrativ fanlarni kiritish, talabalarni doimiy ravishda axborotni filtrdan o'tkazishga va tanqidiy fikrlashga (critical thinking) o'rgatish o'ta muhimdir. Shuningdek, talaba-yoshlarning virtual makondagi muloqot madaniyati va huquqiy mas'uliyatini tartibga soluvchi "Raqamli etika va xulq-atvor" qoidalarini ishlab chiqish hamda doimiy tarbiyaviy jarayonga joriy etish ijtimoiy platformalardagi turli huquqbuzarliklar va kiber-jinoyslarning barvaqt oldini olishga juda katta yordam beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini maqsadli va tizimli ravishda oshirib borish, ularni chinakam yetakchilarga aylantirish maqsadida bir qator ilg'or innovatsion mexanizmlarni ta'lim amaliyotiga zudlik bilan keng joriy etish talab qilinadi. Birinchi navbatda, har bir oliygohda talabalar o'z fikr-mulohazalari, innovatsion g'oyalari va ijtimoiy loyihalarini ochiq e'lon qilishi, muhokamaga qo'yishi, shuningdek, universitet rektori va ma'muriyati bilan byurokratik to'siqlarsiz to'g'ridan-to'g'ri elektron muloqotga kirishishi mumkin bo'lgan maxsus "Elektron talabalar portali" (Student e-Portal) tizimini to'laqonli ishga tushirish zarurdir. Ushbu raqamli portal orqali yoshlar nafaqat o'z oliygohining ichki akademik va ijtimoiy hayotiga oid masalalarda, balki respublika miqyosida qabul qilinayotgan yangi qonun loyihalari muhokamasida ham o'z pozitsiyalarini bevosita bildirish va tegishli o'zgartirishlar taklif qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Ikkinchidan, o'quv yurtlari miqyosida talabalar orasida raqamli ko'ngillilik (e-volunteering) harakatini davlat miqyosida rivojlantirish lozim. Masofaviy tarzda ekologik, ta'limiy, yuridik loyihalarda qatnashish, onlayn platformalar orqali aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga, ayniqsa maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarga maslahatlar berish orqali yoshlarning altruistik, bag'rikenglik va ijtimoiy foydali faoliyati rag'batlantiriladi. Uchinchidan, talabalarning huquqiy va siyosiy bilimlarini uzluksiz oshirib borish maqsadida respublikaning yirik siyosiy arboblari, deputatlar, taniqli iqtisodiyot ekspertlari va IT sohasi yetakchilari ishtirokida doimiy ishlaydigan virtual debat klublari, onlayn forumlar va master-klasslar tashkil etish amaliyotini ommalashtirish darkor. Bunday ochiq muloqot maydonchalari yoshlarda raqamli formatda muzokaralar olib borish madaniyatini, siyosiy tolerantlikni va raqobatbardosh g'oyalarni dadil ilgari surish malakasini mukammal shakllantiradi.

Oliy ta'lim tizimini raqamli transformatsiyalash jarayoni nafaqat texnologik qulayliklar yaratish, balki butun millat taraqqiyotiga bevosita daxldor bo'lgan, chuqur ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega serqirra hodisadir. Yangi O'zbekistonning kelajagi, uning jahon maydonidagi iqtisodiy-siyosiy o'rni bugungi yoshlarning naqadar faol, intellektual salohiyatli, mustaqil fikrlovchi va zamonaviy axborot texnologiyalaridan jamiyat manfaati yo'lida unumli foydalana oladigan shaxslar bo'lib yetishishiga bevosita bog'liqdir. Zamonaviy universitetlar va institutlar talabalarda faqatgina tor doiradagi amaliy mutaxassislik malakalarini emas, balki yuksak fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy adolat tuyg'usi hamda davlat boshqaruvida raqamli vositalar orqali faol ishtirok etish ko'nikmalarini tarbiyalovchi chinakam progressiv institutlarga aylanishi davr talabidir. Yuqorida tahlil qilingan va taklif etilgan innovatsion raqamli mexanizmlarning ta'lim tizimi amaliyotiga bosqichma-bosqich, to'g'ri va tizimli tatbiq etilishi yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi bevosita ishtirokini sifat jihatidan butunlay yangi, yuksak bosqichga olib chiqadi hamda ularning cheksiz kreativ g'oyalarni jamiyat taraqqiyoti yo'lida maqsadli safarbar etish uchun eng ishonchli zamin yaratadi.

### **Foydalalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1) Abdullayev, M. N. Oliy ta'lim tizimini raqamlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari : monografiya / M. N. Abdullayev. – Toshkent : Iqtisodiyot, 2021. – 180 b.

2) G'afforov, Ya. X. Yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni / Ya. X. G'afforov, Sh. A. Toshpo'latov // Fuqarolik jamiyati. – Toshkent, 2022. – № 2. – B. 45-51.

3) Qodirov, B. N. Elektron hukumat va yoshlar: raqamli ishtirok etishning zamonaviy tendensiyalari / B. N. Qodirov // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 2020. – № 4. – B. 22-28.

4) Xolmatova, Z. A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida talaba-yoshlarning innovatsion va kreativ salohiyatini rivojlantirish / Z. A. Xolmatova // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Toshkent, 2023. – № 1. – B. 112-118.

5) Савельев, И. В. Политическая активность молодежи в условиях цифровизации общества / И. В. Савельев // Вопросы политологии. – Москва, 2019. – Т. 9, № 7. – С. 1340-1348.

6) Смирнов, В. А. Электронное участие (e-participation) как механизм молодежной политики / В. А. Смирнов // Социологические исследования. – Москва, 2021. – № 5. – С. 98-106.

7) Bennett, W. L. The logic of connective action: Digital media and the personalization of contentious politics / W. L. Bennett, A. Segerberg. – Cambridge : Cambridge University Press, 2013. – 239 p.

8) Boulianne, S. Social media use and participation: A meta-analysis of current research / S. Boulianne // Information, Communication & Society. – London, 2015. – Vol. 18, Iss. 5. – P. 524-538.

## **ABU HAFS UMAR NASAFIYNING ILMIY MEROSIDA YOSHLARNI ILMGA**

### **TARG‘IB QILISH MASALASI**

**Abdurashidov Ahrorxon**

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Ijtimoiy fanlar va huquq” kafedrasida tayanch doktoranti

Toshkent xalqaro universiteti

“Ijtimoiy fanlar va ta’lim” kafedrasida o‘qituvchisi

E-mail: [ahrorxonabdurashidov97@gmail.com](mailto:ahrorxonabdurashidov97@gmail.com)

Islom ilmiy an’analarida ilmga targ‘ib masalasi doimo markaziy o‘rinda bo‘lib kelgan. Ayniqsa, o‘rta asrlarda yashab ijod qilgan allomalar ilmni jamiyat barqarorligi, e’tiqod softligi va ma’naviy kamolotning asosi sifatida talqin etganlar. Movarounnahr ilmiy muhitida yetishib chiqqan yirik mutafakkirlardan biri Abu Hafs Umar Nasafiy o‘zining serqirra ilmiy merosi orqali yosh avlodni ilmga targ‘ib etish masalasiga alohida e’tibor qaratgan allomalardandir. Uning asarlarida ilm faqat bilim yig‘ish jarayoni emas, balki insonning e’tiqodi, axloqi va jamiyatdagi mas’uliyatini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida talqin etiladi.

Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy hijriy V asr oxiri - VI asr boshlarida Movarounnahr mintaqasida yashab ijod qilgan yirik hanafiy-moturidiy olimlardan biridir. Manbalarda uning hijriy 461-yillar atrofida tug‘ilgani, 537-yilda Samarqand shahrida vafot etgani qayd etiladi<sup>20</sup>. Bu davr Movarounnahrda islom ilmlari, xususan, hadis, fiqh, aqida va tafsir fanlari yuksak darajada rivojlangan, ilmiy maktablar shakllangan davr edi. Nasaf, Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda yirik ulamolar yetishib chiqqan bo‘lib, Abu Hafs Nasafiy ana shu boy ilmiy muhitda kamol topgan.

Mazkur davrning muhim jihati shundaki, yoshlarni ilmga yo‘naltirish, ularni diniy va dunyoviy bilimlar bilan tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida qaralgan. Abu Hafs Nasafiy ham ana shu an’anaga sodiq qolgan holda, o‘z asarlari va ilmiy faoliyati orqali ilmning ahamiyatini, ayniqsa, yoshlik davrida ilm talab qilish zaruratini alohida ta’kidlab kelgan.

Abu Hafs Nasafiy sarmahsul olim bo‘lib, u hadis, aqida, fiqh va tafsir sohalarida ko‘plab asarlar yaratgan. Manbalarda uning yuzga yaqin asar yozgani zikr qilinadi. Ushbu asarlar orasida

---

<sup>20</sup> Rahimjonov D. Abu Hafs Nasafiy. T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – B. 39.

ayniqsa aqidaviy va axloqiy yo‘nalishdagi kitoblari yoshlarda ilmga muhabbat uyg‘otish, to‘g‘ri e‘tiqod va mustahkam dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilgan.

Nasafiyning mashhur asarlaridan biri bo‘lgan “al-Aqoid an-Nasafiyya” islom aqidasiining ixcham, ammo mazmunan chuqur bayonini o‘zida mujassam etgan. Ushbu asar keyingi asrlarda madrasalarda asosiy darslik sifatida o‘qitilgan. Asarning ta‘limiy ahamiyati shundaki, u yosh talabalarni murakkab falsafiy bahslarga kirmasdan, e‘tiqod asoslarini aniq va tushunarli tarzda o‘rganishga yo‘naltiradi. Bu esa yoshlarni ilmga yaqinlashtirishda muhim omil bo‘lgan<sup>21</sup>.

Shuningdek, Nasafiyning hadis va fiqhga oid asarlarida ilm talab qilishning fazilati, olimning jamiyatdagi o‘rni, ilmning amal bilan uyg‘unligi haqida ko‘plab fikrlar uchraydi. U ilmni faqat nazariy bilim sifatida emas, balki inson axloqi va jamiyat barqarorligini ta‘minlovchi kuch sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv yoshlarni ilmga targ‘ib qilishda juda muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Abu Hafs Nasafiyning ilmiy merosini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, uning asarlarida yosh avlodni ilmga undash g‘oyasi bevosita yoki bilvosita tarzda yetakchi o‘rin egallaydi. U ilmni faqatgina ma‘lum bir tabaqaning emas, balki butun xalqning burchi sifatida ko‘radi. Ayniqsa ilmni yoshlikda egallash zarurligini ta‘kidlaydi. Chunki aynan shu davrda bilim mustahkam singishi va inson hayotiga chuqur ta‘sir ko‘rsatishi alohida ta‘kidlanadi.

Nasafiy ilm va amal o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka e‘tibor qaratadi. Uning qarashlariga ko‘ra haqiqiy ilm insonni axloqan komillikka yetaklashi, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashi lozim. Bu jihat yoshlarni ilmga targ‘ib qilishda faqat kasbiy yoki dunyoviy manfaatni emas, balki ma‘naviy kamolotni ham asosiy maqsad sifatida belgilaydi.

Shu bois Abu Hafs Nasafiyning ilmiy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ayniqsa, yoshlarni ilmga rag‘batlantirish, ularda to‘g‘ri e‘tiqod va sog‘lom tafakkurni shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda Abu Hafs Umar an-Nasafiyning ilmiy merosi nafaqat aqida va fiqh ilmlarining rivojida, balki yoshlarni ilm-ma‘rifatga yo‘naltirishda ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi ayon bo‘ladi. Alloma yashagan XI–XII asrlar Movarounnahr hududi ilmfan yuksak taraqqiy etgan, madrasalar faoliyati kuchaygan va ilm ahliga ijtimoiy ehtiyoj yuqori bo‘lgan davr bo‘lib, Nasafiyning ilmiy qarashlari aynan mana shu muhitda shakllangan.

Nasafiy asarlarida ilm inson e‘tiqodi, axloqi va jamiyat barqarorligining asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Uning aqidaviy qarashlarida ilm faqat nazariy bilim emas, balki yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, ularni bid‘at, xurofot va adashishlardan saqlovchi kuch sifatida ko‘rsatiladi. Bu jihat, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida ilmning ahamiyatini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar bilan hamohangdir.

Shuningdek Nasafiyning asarlarida ilm va amal o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik alohida ta‘kidlanadi. U ilmni faqat o‘rganish emas, balki uni hayotda tatbiq etish, axloqiy yetuklik bilan uyg‘un holda namoyon qilish zarurligini ilgari suradi. Bu yondashuv yoshlarni faqat bilimli emas, balki mas‘uliyatli, tafakkurli va jamiyat oldidagi burchini anglaydigan shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

---

<sup>21</sup> Nasafiy Abu Hafs Umar ibn Muhammad. At-taysir fittafsir. Bayrut: Darul lubob, 2019. – B. 877.

## EMOTSIONAL INTELLEKT – YOSHLAR TA'LIM JARAYONINING SAMARADORLIGINI BELGILOVCHI OMIL SIFATIDA

**Ibrohimov Farrux Farhodjon o'g'li**

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti

“Ijtimoiy fanlar va ta'lim” kafedrası o'qituvchisi

email: farrukhbekfarhodovich@gmail.com

Zamonaviy ta'lim tizimida yoshlarning nafaqat intellektual salohiyatini, balki ularning emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash muhim pedagogik va psixologik vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv va axborot oqimining keskin ortishi sharoitida ta'lim samaradorligi ko'p jihatdan shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish hamda boshqalar bilan samarali muloqot qila olish kompetensiyalariga bog'liq. Emotsional intellekt yoshlarning o'quv jarayoniga moslashuvi, bilimlarni ongli o'zlashtirishi va stressli vaziyatlarda barqaror faoliyat yuritishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ushbu fenomenni ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

“Emotsional intellekt” atamasi ilmiy muomalaga J. Meyer va P. Salovey tomonidan kiritilgan bo'lib, keyinchalik D. Goulman tomonidan keng ommalashtirilgan. Tadqiqotchilar ushbu tushunchani shaxsning emotsiyalarni anglash, ularni boshqarish va ijtimoiy munosabatlarda samarali qo'llash qobiliyati sifatida talqin qiladilar.

P. Salovey modeliga ko'ra, emotsional intellekt quyidagi asosiy komponentlarni qamrab oladi:

- emotsiyalarni idrok etish;
- emotsiyalarni tafakkur jarayoniga yo'naltirish;
- emotsional holatlarni tushunish;
- emotsiyalarni boshqarish.

Mazkur komponentlar o'zaro integratsiyalashgan holda yoshlarning o'quv faoliyatida muhim psixologik resurs vazifasini bajaradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt yoshlarning ta'lim jarayoniga quyidagi yo'nalishlarda kompleks ta'sir ko'rsatadi:

1. Akademik o'zlashtirish. Emotsiyalarini boshqara oladigan yoshlar diqqatni jamlash, ma'lumotni qayta ishlash va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishda yuqori natija ko'rsatadi. Ijobiy emotsional fon kognitiv jarayonlarning samaradorligini oshiradi.

2. O'quv motivatsiyasi va faollik. Rivojlangan emotsional intellekt ichki motivatsiyani kuchaytiradi, o'quv faoliyatiga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi hamda ijtimoiy hamkorlikni faollashtiradi.

3. Stressga chidamlilik va psixologik barqarorlik. Emotsional kompetentlik yoshlarning frustratsiya va tashvish holatlariga moslashuvini yengillashtiradi, bu esa ta'lim jarayonida barqaror natijalarni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 iyuldagi 577-son qarorida ta'lim muassasalarida psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur hujjat yoshlarning emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, profilaktik ishlarni kuchaytirish hamda psixologik xizmat samaradorligini oshirish zaruratini ko'rsatadi. Bu esa emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, emotsional intellekt yoshlar ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim psixologik omillardan biridir. U akademik muvaffaqiyat, o'quv motivatsiyasi va psixologik barqarorlikning kompleks rivojlanishini ta'minlaydi.

Amaliy jihatdan quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- ta'lim jarayoniga emotsional kompetentlikni rivojlantiruvchi treninglarni joriy etish;
- psixologik xizmat faoliyatida EI diagnostika metodikalaridan foydalanish;
- pedagoglarni emotsional pedagogika elementlari bo'yicha tayyorlash;

➤ yoshlar uchun stress-menejment va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqish.

Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan tizimli ishlar yoshlarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish va ularning shaxsiy hamda kasbiy kamolotini ta’minlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mayer DJ. Emotional intelligence information. 2005. – P. 95
2. Current directions in emotional Intelligence research / P. Salovey.
3. In M.Lewis & J.M. Haviland (Eds.). Handbook of emotions (2nd ed.). – N.Y.: Guilford, 2000. – P. 504 – 520
4. Гоулман, Д. Эмоциональное лидерство: Искусство управления людьми на основе эмоционального интеллекта / Д. Гоулман, Р. Бояцис, Э. Макки; пер. с англ. - М.: Альпина Бизнес Букс, 2005. – 301 с.
5. Emotional intelligence and social interaction / P.N. Lopes // Personality and Social Psychology Bulletin. – 2004. – Vol. 30. – P. 101 – 104.
6. EDUCATION TEACHERS IN THE INNOVATION CLUSTER OF HIGHER EDUCATION\ Proceedings of International Multidisciplinary Scientific Remote Online Conference on Innovative Solutions and Advanced Experiments, 2020.
7. Maratov Temur Gayrat ugli, Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology, European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 2020;

### **TALABALAR SHAXSIDA OPTIMIZM VA MUAMMONI HAL QILISH**

#### **STRATEGIYALARI MUTANOSIBLIGINING PSIXOLOGIK DETERMINATSIYASI**

**Ko‘chkinova Zulxumor Shohobiddin qizi**

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

“Ijtimoiy va gumanitar fanlari”

kafedra stajior o‘qituvchisi

email. [xkochkinova@gmail.com](mailto:xkochkinova@gmail.com)

Zamonaviy psixologiya fanida talabalik davri, shaxsning kognitiv va emotsional resurslarining faollashadigan, murakkab hayotiy muammolarga duch keladigan muhim bosqich sifatida qaraladi. Ushbu davrda talabalar nafaqat akademik qiyinchiliklarga, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy o‘zgarishlar va kelajakdagi professional faoliyatga oid turli muammolarga duch kelishlarini ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan bunday murakkab vaziyatlar, o‘z navbatida, talabalar shaxsiyatining turli jihatlarini masalan intellektual salohiyatidan tortib, hissiy holati va psixologik holatlarigacha o‘zgartirishga ta’sir qiladi.

Talabalarining muammolarni hal qilish qobiliyati (problem-solving skills) ularning intellektual salohiyatiga bog‘liq bo‘lishi bilan birga, shaxsiy-psixologik xususiyatlar, xususan, optimizm darajasi ham bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Optimizm bu muammoli vaziyatlarga nisbatan ijobiy va konstruktiv yondashuvni qo‘llashga yordam beradigan psixologik xususiyatdir.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar uchun optimizmning yuqori darajasi nafaqat akademik muvaffaqiyatlarga erishishga yordam beradi, balki stressni boshqarish, qarorlar qabul qilish va hissiy barqarorlikni saqlashda ham muhim omil hisoblanadi. Shunday qilib, talabalarining muammolarni hal qilish qobiliyatini o‘rganish, nafaqat ularning intellektual salohiyatini, balki psixologik resurslarining ahamiyatini ham ta’kidlaydi. Optimizm, shuningdek, talabalar orasida salbiy psixologik holatlarni engishga, stressni kamaytirishga va ijtimoiy va akademik qiyinchiliklarga mukammal yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Mazkur ilmiy ishda, optimizm va muammoni hal qilish qobiliyati o‘rtasidagi psixologik aloqalarni chuqur tahlil qilish va bu jarayonlarda optimizmning ahamiyatini o‘rganish asosida talabalarining psixologik holatini yaxshilashga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Pozitiv psixologiya asoschisi Martin Seligman o'zining "O'rganilgan optimizm" nazariyasida optimizmni voqealarni tushuntirib berish uslubi (explanatory style) sifatida belgilaydi. Seligman tadqiqotlariga ko'ra, optimist talabalar muvaffaqiyatsizliklarni quyidagi tarzda baholaydilar:

- **Vaqtinchalik** (o'tib ketuvchi);
- **Spesifik** (faqat shu vaziyatga tegishli);
- **Eksternal** (tashqi omillar ta'sirida yuzaga kelgan).

Seligman optimistlar muvaffaqiyatsizliklarni vaqtinchalik, faqat ma'lum vaziyatga tegishli va tashqi omillar ta'sirida yuzaga kelgan deb baholashini ta'kidlaydi. Bu optimistik dunyoqarash, talabada "muammoni yengish mumkin" degan ishonchni shakllantiradi, chunki ular muvaffaqiyatsizlikni o'zlariga bog'lamaydilar. Bunday yondashuv, talabalarni konstruktiv harakatga undaydi va ularni muvaffaqiyatsizlikdan keyin qayta tiklanishga, yangi imkoniyatlarni ko'rishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, shaxsiy rivojlanish va muammolarni hal qilishdagi muvaffaqiyatni oshiradi.[] Talabalarga optimistik dunyoqarashni shakllantirish, ularning nafaqat akademik, balki hayotdagi barcha sohalarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur hisoblanadi. Muvaffaqiyatsizlikni vaqtinchalik va tashqi omillarga bog'lash, shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga yordam beradi, bu esa yengish uchun ijobiy motivatsiyani oshiradi.

Albert Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-kognitiv nazariyasiga ko'ra, shaxsning o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchi (self-efficacy) optimizmning asosiy komponenti hisoblanadi. Bandura bu ishonchni shaxsning o'zining qobiliyatiga bo'lgan ishonchi sifatida ta'riflaydi va u muvaffaqiyatga erishish uchun muhim psixologik mexanizm sifatida qaraladi. Talabalarda optimizm muammoni hal qilishning kognitiv determinanti sifatida quyidagicha namoyon bo'ladi:

Optimist talabalar yanada murakkab va ambitsiyali maqsadlarni qo'yadilar. Ular o'zlarining muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini yuqori baholaydilar va ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni mobilizatsiya qiladilar.

Optimist talabalar muammo qarshisida passiv kutish o'rniga, faol rejalashtirish va resurslarni safarbar qilish strategiyasini tanlaydilar. Ular muvaffaqiyatga erishish uchun yangi va ijobiy strategiyalar ishlab chiqishga moyil bo'ladilar.

To'siqlarga duch kelganda, optimistik kutilma kognitiv turg'unlikning oldini oladi. Bu, o'z navbatida, talabalarga murakkab vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilish va muammolarni hal qilishda mustahkam turishga yordam beradi.[] Banduraning o'z-o'ziga samaradorlik nazariyasi muhim ahamiyatga ega, chunki optimistik talaba o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchni rivojlantirgan holda, nafaqat o'zini muvaffaqiyatga yetaklaydi, balki muammolarni hal qilishda innovatsion va samarali strategiyalarni ishlab chiqadi. O'ziga bo'lgan ishonchni oshirish talabalarning hayotdagi muvaffaqiyatlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Ch.Karver va M.Shayer tomonidan ishlab chiqilgan "Dispozitsion optimizm" modeli muammoni hal qilish jarayonini kibernetik boshqaruv tizimi sifatida tushuntiradi. Ushbu nazariyaga ko'ra, optimizm muammo va shaxs o'rtasidagi munosabatni tartibga soluvchi "filtr" vazifasini bajaradi. Optimizm, shuningdek, talabalar tomonidan tanlangan koping-strategiyalariga ta'sir ko'rsatishini ko'rishimiz mumkin:

**Konstruktiv kopingda** optimist talabalar muammoni hal qilishda "muammoga yo'naltirilgan" (problem-focused) strategiyalarni qo'llaydilar. Ular axborot qidirish, reja tuzish va ijtimoiy yordam so'rashga moyil bo'ladilar. Bunday yondashuv talabalarni samarali harakat qilishga, muammolarni ijobiy tarzda hal qilishga undaydi.

**Destruktiv kopingda** aksincha, pessimistik moyillikka ega talabalarda "emotsiyaga yo'naltirilgan" (emotion-focused) yoki qochish (avoidance) strategiyalari ustunlik qiladi. Bu esa muammoning yanada chuqurlashishiga va talabalarni hissiy qiyinchiliklarga duchor qilishi mumkin.[] Karver va Shayerning dispozitsion optimizm nazariyasi muammolarni hal qilishda optimizmning qanday rol o'ynashini aniq tushuntiradi. Optimist talabalar ijobiy va faol koping-strategiyalarni tanlagan holda, muammolarni samarali boshqarishga qodir bo'ladilar. Aksincha,

pessimist talabalar qochish strategiyalarini qo'llash orqali muammolarni yanada chuqurlashtiradilar.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabalar shaxsidagi optimizm va muammoni hal qilish qobiliyati o'rtasida mustahkam korrelyatsion va deterministik aloqadorlik mavjud. Optimizm shunchaki hissiy holat emas, balki muammoni hal qilish jarayonini yo'naltiruvchi kognitiv mexanizm hisoblanadi. Talabalarda optimistik interpretatsiya uslubini rivojlantirish ularning nafaqat akademik o'zlashtirishini, balki ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasini ham samarali ta'minlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Bandura A. "Self-Efficacy: The Exercise of Control." W. H. Freeman and Company, 1997. p. 32-34
2. Karver C.S., and Scheier M.F. "Dispositional Optimism and Physical Well-Being: The Influence of Generalized Outcome Expectancies on Health." *Journal of Personality*. 1994. 62(1), p. 13-29
3. Karver. C.S., and Scheier M.F. "Optimism, Coping, and Health: Assessment and Implications of Generalized Outcome Expectancies." *Health Psychology*, 2002. 21(5), p. 380-390.
4. Seligman M. "Learned Optimism." Random House, 1990. p. 78-80
5. Tennen H., Affleck G., and Armeli S. "A Daily Process Model of Optimism and Physical Health." *Journal of Social and Clinical Psychology*, 2000. 19(2), p. 223-236.

#### ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ

Рустамов А.Т.

Преподаватель кафедры Социальных наук и образования  
Tashkent International University  
[gallianoabror@gmail.com](mailto:gallianoabror@gmail.com)

Цифровая среда стала основным источником знаний для современного молодого поколения. Информация поступает через новостные ленты, мессенджеры и видеоплатформы быстрее, чем она может быть осмыслена. В результате меняется не только объём доступных сведений, но и характер их восприятия: пользователь сначала реагирует, а затем пытается понять содержание.

Например, при перебоях в работе популярных мессенджеров регулярно распространяются сообщения о «блокировке интернета», хотя фактически речь идёт о технических сбоях. Большинство пользователей пересылает такие сообщения без проверки источника, ориентируясь на срочность, а не на достоверность. Таким образом, проблема современного информационного общества заключается не в нехватке знаний, а в их избыточности. В этих условиях ключевым становится умение оценивать информацию, сопоставлять источники и сомневаться в первом впечатлении.

Главной особенностью цифровой коммуникации является фрагментарность. Молодой человек одновременно просматривает десятки коротких сообщений - заголовки, комментарии, видеоролики. Полноценное чтение заменяется просмотром, а понимание - впечатлением. Особую роль играет визуальный контент: короткое видео воспринимается как доказательство события, даже если оно вырвано из контекста. Старые записи природных явлений или происшествий нередко распространяются как «события сегодняшнего дня», вызывая доверие благодаря наглядности.

Алгоритмы рекомендаций усиливают этот эффект. Платформа демонстрирует материалы, соответствующие прежним интересам пользователя, формируя замкнутую

информационную среду. Человек сталкивается преимущественно с подтверждением собственных взглядов и реже проверяет их. В результате реакция опережает анализ.

В цифровой среде скорость распространения информации становится важнее её точности. Сообщение получает популярность благодаря эмоциональности, а не доказательности. Во время пандемии COVID-19 активно распространялись советы о «домашнем лечении», не имеющие медицинского основания. Пользователи доверяли им, поскольку они поступали от знакомых людей, а повторяемость воспринималась как подтверждение истинности.

В последние годы в Узбекистане широкое распространение получили фишинговые сообщения, отправляемые якобы от имени знакомых, родственников или государственных органов - например, уведомления о «штрафе» или «исполнительном производстве» с требованием срочной оплаты. Молодые пользователи, активно взаимодействующие с цифровыми сервисами государства, чаще всего становятся основной аудиторией таких сообщений: именно они регулярно пользуются онлайн-платежами и мобильными приложениями. Убедительность строится на официальном стиле и срочности, а доверие возникает из-за привычки к цифровым услугам.

В этих условиях критическое мышление выступает механизмом защиты. Оно позволяет отделять форму сообщения от его содержания, проверять источник и сопоставлять сведения. Таким образом, медиаграмотность становится частью цифровой гражданственности - способности ответственно участвовать в цифровой жизни общества.

Формирование данного навыка происходит не только в учебной аудитории. Образование задаёт основу т.е. умение работать с источниками, но закрепляется навык в повседневной медиапрактике. Пользователь, однажды распространивший недостоверную информацию и столкнувшийся с её опровержением, начинает внимательнее относиться к последующим сообщениям. Личный опыт проверки оказывается более эффективным, чем формальное предупреждение.

Поэтому важен не запрет информации, а объяснение механизмов её появления: кто является источником, какую цель преследует сообщение и почему оно вызывает эмоциональную реакцию. Постепенно формируется привычка анализировать, а не реагировать.

Отсутствие критического мышления влияет на общественную коммуникацию. Непроверенные сведения превращаются в коллективные убеждения и вызывают реакции, не связанные с реальными событиями. Напротив, пользователи, склонные проверять информацию, реже распространяют слухи и чаще аргументируют свою позицию. Это повышает качество общественного обсуждения.

Таким образом, развитие критического мышления выступает не только образовательной задачей, но и направлением современной молодёжной политики. Участие молодёжи в цифровых технологиях предполагает не только владение инструментами, но и ответственность за распространяемую информацию.

Цифровая эпоха изменила значение образованности: важным стало не накопление знаний, а умение работать с информацией. Формирование культуры проверки и анализа является условием осознанного участия молодёжи в общественной жизни и её устойчивой интеграции в информационное общество.

### **Список использованной литературы**

1. Закон Республики Узбекистан «О государственной молодёжной политике» от 14 сентября 2016 г.
2. Закон Республики Узбекистан «Об информатизации» от 11 декабря 2003 г.
3. Закон Республики Узбекистан «О персональных данных» от 2 июля 2019 г.
4. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6079 «Об утверждении стратегии “Цифровой Узбекистан – 2030”» от 5 октября 2020 г.

5. Buckingham, David. (2003). Chapter Three of Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture.
6. European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027: Resetting Education and Training for the Digital Age. – Brussels, 2021.
7. Jenkins, Henry. (2006). Confronting the Challenges of Participatory Culture - Media Education for the 21st Century (Part 2). 10.7551/mitpress/8435.001.0001.
8. Kizilhan Taner, Bal Sevil. (2016). The Rise of the Network Society - The Information Age: Economy, Society, and Culture. Contemporary Educational Technology. 7. 10.30935/cedtech/6177.
9. OECD (2021), 21st-Century Readers: Developing Literacy Skills in a Digital World, PISA, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/a83d84cb-en>.
10. Potter, W. (2022). Analysis of definitions of media literacy. Journal of Media Literacy Education. 14. 27-43. 10.23860/JMLE-2022-14-2-3.

## **BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI KONTEKSTIDA YOSHLARNING KASBIY YO‘NALISHINI PROGNOZLASH**

**Ziyodaxon Nabijonova Boxodir qizi**  
“Tashkent International University”  
o`qituvchisi  
E-mail: [nabijonovaziyoda@gmail.com](mailto:nabijonovaziyoda@gmail.com)

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishi inson kapitalining sifat darajasiga, xususan, yoshlarning ongli va ijtimoiy mas’uliyatli kasb tanlashiga bevosita bog‘liqdir. Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida yoshlarning kasbiy yo‘nalishini prognozlash masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, yoshlarning kasbiy yo‘nalishi ularning shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari, motivatsiyasi, ijtimoiy muhit hamda mehnat bozoridagi talablar bilan uzviy bog‘liq jarayondir. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi esa ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatni ta’minlay oladigan kasblarga ehtiyojni kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, kelajakda “yashil iqtisodiyot”, raqamli texnologiyalar, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohalarida kasbiy ehtiyojlar ortib borishi prognoz qilinmoqda.<sup>22</sup>

Kasbiy yo‘nalishni prognozlashda psixologik diagnostika, kasbiy qiziqishlar va qadriyatlar tizimini aniqlash, shuningdek, shaxsning moslashuvchan kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijtimoiy mas’uliyat va ekologik ong kabi kompetensiyalar barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi asosiy omillar hisoblanadi.

2015-yilda United Nations tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) inson kapitalini rivojlantirish, sifatli ta’lim va munosib mehnatni ta’minlash orqali uzoq muddatli taraqqiyotga erishishni nazarda tutadi. Ayniqsa, 4-, 8-maqsadlar yoshlarning kasbiy rivoji bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularni integratsiyalashgan holda o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.<sup>23</sup>


O‘zbekistonda yoshlar ulushi yuqori bo‘lgani sababli kasbiy yo‘nalishni prognozlash masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. Milliy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, **2025-yil 1-yanvar holatiga 14–30 yoshdagi yoshlar soni 9 630 556 nafar** bo‘lib, bu aholining 25,7% ini tashkil

---

<sup>22</sup> United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York: United Nations Publishing.

<sup>23</sup> International Labour Organization. (2020). *Global Employment Trends for Youth 2020: Technology and the Future of Jobs*. Geneva: ILO.

etgan. Bu ko‘rsatkich kasb tanlash, kadrlar tayyorlash va bandlik siyosatini “oldindan ko‘ra olish” (forecasting) tamoyiliga o‘tkazish zarurligini kuchaytiradi.<sup>24</sup>



Yoshlarning kasbiy yo‘nalishini prognozlashda klassik va zamonaviy kasbiy rivojlanish nazariyalari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Donald Superning “hayot davomida kasbiy rivojlanish” nazariyasiga ko‘ra,<sup>25</sup> kasbiy tanlov shaxsning butun hayoti davomida shakllanib boradi va turli bosqichlarni o‘z ichiga oladi (o‘shish, izlanish, mustahkamlash, saqlash). Ushbu yondashuv kasbiy yo‘nalishni prognozlashda yoshning rivojlanish bosqichini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Jon Hollandning tipologik nazariyasida<sup>26</sup> esa, shaxsning psixologik tipi (realistik, intellektual, ijtimoiy, konvensional, tadbirkorlik, badiiy) bilan kasbiy muhit o‘rtasidagi moslik asosiy mezon sifatida qaraladi. Bu yondashuv psixologik diagnostika orqali yoshlarning kelajak kasbiy muvaffaqiyatini prognozlash imkonini beradi.

Yana bir zamonaviy konstruktiv yondashuv doirasida Mark Savickas tomonidan ilgari surilgan “kasbni konstruksiyalash” nazariyasi<sup>27</sup> ham shaxsning kasbiy yo‘li ijtimoiy tajriba, shaxsiy ma’nolar va moslashuvchanlik orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Bu yondashuv barqaror rivojlanish sharoitida yoshlarning kasbiy moslashuvchanligini prognozlashda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari kontekstida yoshlarning: ijtimoiy mas’uliyat hissi, ekologik ong, jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga tayyorligi kasbiy prognozlashda muhim indikator sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois kasbiy yo‘naltirish jarayonida faqat iqtisodiy foyda emas, balki shaxsning qadriyatlar tizimi ham hisobga olinishi lozim.

Yoshlarning kasbiy yo‘nalishiga oilaviy muhit, ta’lim muassasalari, tengdoshlar guruhi va ommaviy axborot vositalari sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy stereotiplar ayrim kasblarning

<sup>24</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Press-reviz: “O‘zbekistonda yoshlar soni qancha?” (2025 yil 1-yanvar holati)

<sup>25</sup> Super, D. E. (1990). *A life-span, life-space approach to career development*. San Francisco: Jossey-Bass

<sup>26</sup> Holland, J. L. (1997). *Making vocational choices: A theory of vocational personalities and work environments* (3rd ed.). Odessa, FL: Psychological Assessment Resources.

<sup>27</sup> Savickas, M. L. (2013). Career construction theory and practice. In S. D. Brown & R. W. Lent (Eds.), *Career development and counseling* (pp. 147–183). Hoboken, NJ: Wiley.

“nufuzli” yoki “kam istiqbolli” sifatida qabul qilinishiga sabab bo‘lib, bu holat ongli kasbiy tanlovga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Mehnat bozoridagi beqarorlik, kasblarning tez o‘zgarishi va raqamlashtirish jarayonlari yoshlarning psixologik noaniqlik holatini kuchaytiradi. Shu sababli kasbiy yo‘nalishni prognozlashda psixologik barqarorlik, stressga chidamlilik va moslashuvchanlik kabi shaxsiy resurslar alohida e‘tiborga olinishi zarur.


O‘zbekistonda oliy ta‘lim qamrovi va tizim ko‘lami tez kengaymoqda. Milliy statistika press-relizida **2024/2025 o‘quv yili boshida 222 ta oliy ta‘lim muassasasi** faoliyat yuritayotgani, shundan **99 tasi nodavlat** ekani qayd etilgan. Shu davrda OTMlarga **qabul 381,7 ming** nafarga yetgani ham ko‘rsatiladi.

Talabalar kontingenti ham oshgan: **2024/2025 yili boshida OTM talabalari 1 432,8 ming** nafar bo‘lib, qizlar ulushi 50,6% ni tashkil etgan. Oliy ta‘limdagi bunday o‘shish kasbiy yo‘nalish prognozini ikki tomonlama dolzarb qiladi:

- ko‘proq yosh OTMga kirayotgani sabab **kasbiy yo‘naltirishning sifati** tanlov xatolarini kamaytirishi kerak;

- ta‘lim mazmuni mehnat bozoriga mos kelmasa, **diplom–bandlik tafovuti** kuchayadi.

Ta‘lim tizimidagi o‘shish trendi haqida ochiq manbalarda ham “2017–2024 yillarda OTMlar soni va qamrov keskin kengaygani” qayd etiladi.<sup>28</sup>



Zamonaviy sharoitda ta‘lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa – yoshlarni mavjud kasblarga emas, balki **o‘zgaruvchan va noaniq kelajak sharoitida moslashuvchan faoliyat yurita oladigan mutaxassislar** sifatida tayyorlashdan iborat. Shu bois sifatli ta‘lim tushunchasi quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- ta‘lim mazmunining mehnat bozori talablariga mosligi;
- nazariya va amaliyot integratsiyasi;
- shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaga asoslangan yondashuv;
- kasbiy yo‘naltirish va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimining mavjudligi.

Kasbiy yo‘nalishni prognozlash jarayonida sifatli ta‘lim yoshlarning kasbiy qiziqishlari va qobiliyatlarini erta aniqlash hamda rivojlantirish imkonini beradi.

Kasbiy yo‘naltirish ta‘lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u yoshlarning ongli kasb tanlashiga xizmat qiladi. Psixologik nuqtai nazardan, ta‘lim muassasalarida kasbiy yo‘naltirish quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

- kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash;

<sup>28</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. “Higher Education 2024/2025” rasmiy statistik byulleteni

- shaxsning individual qobiliyatlarini rivojlantirish;
- kasbiy maqsadlarni shakllantirish;
- real mehnat bozori haqida adekvat tasavvur berish.

Sifatli ta'lim muhitida o'quvchi yoki talaba o'zini turli faoliyat turlarida sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa kasbiy tanlovni prognozlashning aniqligini oshiradi.

Barqaror rivojlanish maqsadlarining 4-doirasida ta'limning kompetensiyaga asoslangan modeli muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu model kasbiy yo'nalishni prognozlashda quyidagi asosiy kompetensiyalarning shakllanishiga e'tibor qaratadi:<sup>29</sup>

- kognitiv kompetensiyalar (tanqidiy fikrlash, muammo yechish);
- ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar (jamoada ishlash, muloqot);
- raqamli kompetensiyalar;
- o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy refleksiya ko'nikmalari.

Mazkur kompetensiyalar yoshlarning kelajak kasbiy faoliyatida barqarorlik va moslashuvchanlikni ta'minlab, kasbiy muvaffaqiyatni oldindan prognozlash imkonini beradi.

Kasbiy yo'nalishni samarali prognozlash uchun ta'lim tizimi quyidagi institutlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi lozim:

- psixologik xizmatlar;
- bandlik va mehnat bozorini tahlil qiluvchi tashkilotlar;
- ish beruvchilar va xususiy sektor;
- innovatsion va startap ekotizimlari.

Mazkur hamkorlik ta'lim jarayonida real kasbiy istiqbollarni hisobga olish imkonini beradi va yoshlarning kasbiy yo'nalishini ilmiy asosda prognozlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning kasbiy yo'nalishini barqaror rivojlanish maqsadlari asosida prognozlash ta'lim tizimi, psixologik xizmatlar va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy hamkorlikni kuchaytirishni taqozo etadi. Ushbu yondashuv yoshlarning ongli kasb tanlashini ta'minlab, jamiyatning inson kapitalini rivojlantirish va uzoq muddatli barqaror taraqqiyotga erishish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York: United Nations Publishing.
2. International Labour Organization. (2020). *Global Employment Trends for Youth 2020: Technology and the Future of Jobs*. Geneva: ILO.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Press-reliz: "*O'zbekistonda yoshlar soni qancha?*" (2025 yil 1-yanvar holati)
4. Super, D. E. (1990). *A life-span, life-space approach to career development*. San Francisco: Jossey-Bass.
5. Holland, J. L. (1997). *Making vocational choices: A theory of vocational personalities and work environments* (3rd ed.). Odessa, FL: Psychological Assessment Resources.
6. Savickas, M. L. (2013). Career construction theory and practice. In S. D. Brown & R. W. Lent (Eds.), *Career development and counseling* (pp. 147–183). Hoboken, NJ: Wiley.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "Higher Education 2024/2025" rasmiy statistik byulleteni
8. UNESCO. (2017). *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. Paris: UNESCO.

<sup>29</sup> UNESCO. (2017). *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. Paris: UNESCO.

**GLOBAL RAQAMLASHUV DAVRIDA YOSHLARDA EKOLOGIK  
QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH ORQALI EKOLOGIK TA'LIMDA  
ZAMONAVIY INTERAKTIV USULLAR VA TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI  
FOYDALANISH YO'LLARI**

**Sodiqov Jaxongir Toshpulat o'g'li**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail:sodiqovjaxongir827@gmail.com

**ORCID [https://orcid.org/ 0009-0002-5912-0050](https://orcid.org/0009-0002-5912-0050)**

Global raqamlashuv davri insoniyat hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik kabi innovatsion vositalarning kundalik hayotga kirib kelishi ta'lim tizimiga ham yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, ekologik ta'lim sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat ta'lim samaradorligini oshirish, balki yoshlarda ekologik qadriyatlarni shakllantirishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda.

Ekologik qadriyatlar – bu insonning tabiatga bo'lgan munosabati, atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash kabi tushunchalarni o'z ichiga oluvchi ma'naviy-axloqiy me'yorlar majmuidir. Ostanov (2023) ta'kidlaganidek, shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar muhim o'rin tutadi hamda yoshlarda tabiatni sevishtirish, uni muhofaza qilish, tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish dolzarb vazifadir .

1. Ekologik ta'limda qo'llanilayotgan zamonaviy interaktiv texnologiyalar turlari va imkoniyatlarini tizimlashtirish;

2. Xalqaro va milliy miqyosda amalga oshirilayotgan ilg'or loyihalarni tahlil qilish;

3. Raqamli texnologiyalar asosida ekologik qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini yoritish;

4. Mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Ekologik ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari so'nggi yillarda bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda o'rganilmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqining "Education for Climate" koalitsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar , EPAL platformasidagi o'yinlashtirish va mikro-sertifikatlash bo'yicha tadqiqotlar bu boradagi ilg'or tajribalarni jamlagan.

**Sun'iy intellekt va ekologik ta'lim.** AI4GreenClassrooms loyihasi doirasida o'qituvchilarning sun'iy intellekt vositalari yordamida ekologik ta'limni tashkil etish bo'yicha metodikasi ishlab chiqilgan. Ushbu loyiha doirasida o'qituvchilar ekologik ma'lumotlarni tahlil qilish, sun'iy intellekt asosidagi sinf faoliyatlari va simulyatsiyalarni yaratish ko'nikmalarini egallaydilar . Shuningdek, "Let's Green the Future" loyihasi doirasida ChatGPT, Gamma, Suno, Teachable Machine kabi sun'iy intellekt vositalari ekologik ta'limga integratsiya qilingan.

**Virtual reallik (VR) texnologiyalari.** UNESCO va Syurix San'at Universiteti hamkorligida Markaziy Osiyo muzliklariga bag'ishlangan "Glacier Lifelines" VR loyihasi ishlab chiqilgan. Ushbu loyiha doirasida yaratilgan virtual reallik tajribasi iqlim o'zgarishining muzliklarga ta'sirini vizualizatsiya qiladi va to'rt interaktiv bo'limni o'z ichiga oladi: sug'orish, gidroenergetika, muzlik monitoringi va tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish . Loyiha doirasida O'zbekiston Milliy universiteti, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston universitetlari vakillari uchun VR texnologiyalarini ta'limga joriy etish bo'yicha treninglar o'tkazilgan .

**O'yinlashtirish va mikro-sertifikatlash.** ACCESS loyihasi doirasida 6-11 yoshli bolalar uchun 181 ta mikrodars va o'yinlashtirilgan mikro-sertifikatlash platformasi yaratilgan. Har bir mikrodars interaktiv viktorina bilan bog'langan bo'lib, to'g'ri javoblar uchun o'quvchilar raqamli nishonlar (badges) oladilar. Bu tizim o'quvchilarning ekologik bilimlarni o'zlashtirish jarayonini o'yin shaklida tashkil etish va ularning muvaffaqiyatini rag'batlantirish imkonini beradi .

**Milliy tajribalar.** O‘zbekistonda UNESCOning GLOFCA loyihasi doirasida Pskem va Tepar qishloqlaridagi maktablar ob-havo stansiyalari bilan jihozlangan. O‘quvchilar ushbu stansiyalarni boshqarish, ma'lumotlarni tahlil qilish va maktab loyihalarida foydalanishni o‘rganmoqdalar. Bu ularga nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikmalar ham beradi. Shuningdek, Samarqand shahrida o‘tkazilgan Xalqaro yoshlar ekologik oromgohida BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha muzokaralariga taqlid qiluvchi "Diplomatiya" interaktiv o‘yini tashkil etilgan. COP29 doirasida esa O‘zbekiston, Ozarbayjon, Vengriya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkiya tomonidan 2024–2030-yillarda barqaror rivojlanish madaniyatini ilgari surish hamda bolalar va yoshlarni iqlim kun tartibiga jalb qilish bo‘yicha Xalqaro strategiya imzolangan.

**Global ekologik inqiroz va raqamli avlod.** XXI asrda insoniyat global ekologik muammolar – iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, atrof-muhit ifloslanishi bilan yuzma-yuz turibdi. Ayni paytda, hozirgi yoshlar "raqamli avlod" sifatida tavsiflanadi – ular uchun internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar kundalik hayotning ajralmas qismidir. Shu bois, ekologik ta'limni an'anaviy usullar bilan emas, balki yoshlarga tanish va qiziqarli bo‘lgan raqamli formatlarda tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Ilmiy dolzarblik.** Ekologik ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari, ushbu vositalarning ekologik qadriyatlarni shakllantirishga ta'siri hali yetarlicha o‘rganilmagan. Xususan, virtual reallik tajribalarining empatiya va ekologik ongga ta'siri, o‘yinlashtirish elementlarining motivatsiyaga ta'siri kabi masalalar chuqur ilmiy tahlilni talab etadi.

**Amaliy ahamiyat.** Zamonaviy interaktiv texnologiyalar ekologik ta'limda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- *Vizualizatsiya* – murakkab ekologik jarayonlarni (masalan, muzliklarning erishi, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini) vizual tarzda namoyish etish;

- *Interaktivlik* – o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish imkoniyati;

- *O‘yinlashtirish* – o‘quv jarayonini qiziqarli va rag‘batlantiruvchi shaklda tashkil etish [citation:3; 7];

- *Masofaviy ta'lim* – geografik joylashuvdan qat'i nazar, barcha yoshlarning ekologik ta'lim olish imkoniyati;

- *Simulyatsiya* – real hayotda xavfli yoki qiyin bo‘lgan vaziyatlarni (masalan, tabiiy ofatlar) modellashtirish.

**Ijtimoiy ahamiyat.** Raqamli texnologiyalar orqali ekologik qadriyatlarni shakllantirish nafaqat individual ongni o‘zgartirish, balki yoshlarni ekologik harakatlarga jalb qilish, ularning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Samarqanddagi Xalqaro yoshlar ekologik oromgohi misolida ko‘rinadiki, yoshlar nafaqat bilim oladi, balki o‘z yechim va takliflarini ham bildirmoqdalar.

## **2. Virtual (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari**

VR va AR texnologiyalari ekologik ta'limda "immersiv" (cho‘mish) tajribani taqdim etadi:

- **Glacier Lifelines** loyihasi (UNESCO) – Markaziy Osiyo muzliklariga virtual sayohat, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini ko‘rsatish, interaktiv vazifalar. Loyiha doirasida yaratilgan VR tajriba to‘rt interaktiv bo‘limdan iborat: sug‘orish, gidroenergetika, muzlik monitoringi va tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish. Bu o‘quvchilarga real hayotda borish qiyin bo‘lgan joylarni "ziyosat qilish" va ekologik muammolarni bevosita "his qilish" imkonini beradi.

## **3. O‘yinlashtirish (gamification) elementlari**

O‘yinlashtirish – o‘yin elementlarini noo‘yin kontekstlarda qo‘llashdir. Ekologik ta'limda o‘yinlashtirish quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

"Diplomatiya" interaktiv o‘yini misolida, ishtirokchilar guruhlariga bo‘linib, BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha muzokaralariga taqlid qiladilar. Har bir guruh ma'lum bir mamlakatni va uning iqlim o‘zgarishi muammosiga munosabatini ifodalaydi. Bu o‘yin yoshlarga nafaqat ekologik

bilim, balki diplomatiya, muzokaralar olib borish, turli manfaatlarni hisobga olish kabi ko'nikmalarni ham beradi.

#### **4. Sensor texnologiyalari va real vaqt rejimidagi monitoring**

O'quvchilarni real ekologik ma'lumotlar bilan ishlashga o'rgatish – muhim yo'nalishdir:

- **GLOFCA loyihasi** doirasida O'zbekistonning Pskem va Tepar qishloqlaridagi maktablar ob-havo stansiyalari bilan jihozlangan. O'quvchilar ushbu stansiyalarni boshqarish, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, maktab loyihalarida foydalanishni o'rganmoqdalar. Ular harorat, yog'in va boshqa parametrlar asosida ko'chki va sel xavfini bashorat qilish mumkinligini anglab yetmoqdalar .

- **AI4GreenClassrooms** loyihasida o'qituvchilar sensor ma'lumotlarini tahlil qilish va sun'iy intellekt modellari bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydilar .

13 yoshli o'quvchi Ruxshonaning fikricha: "Men fanni yaxshi ko'raman, bu sehriga o'xshaydi. Men harorat va boshqa ma'lumotlardan ko'chkilarni bashorat qilish mumkinligini bilmasdim". Bu misol sensor texnologiyalarining yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

#### **5. Interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar**

- **Sifir Atik temali interaktiv o'yinlar** – Kocaeli universiteti festivalida VR ko'zoynaklar orqali chiqindilarni ajratish o'yini, o'rmon va dengiz ekotizimlaridagi stsenariylar .

- **Bisikletla energiya ishlab chiqarish** – qayta tiklanuvchi energiya manbalariga e'tiborni jalb qiluvchi interaktiv tajriba .

- **Quiz Flight** – atiq yoneti, iklim deęiřiklięi ve enerji verimlilięi konularida interaktiv bilgi yariřması .

##### **1. Empatiya va hissiy bog'liqlik**

Virtual reallik va immersiv texnologiyalar yoshlarda tabiatga nisbatan hissiy bog'liqlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Muzliklarning erishini VR orqali "ko'rish", uning oqibatlarini "his qilish" o'quvchilarda ekologik muammolarga nisbatan empatiya uyg'otadi . Bu hissiy tajriba ekologik qadriyatlarining chuqurroq o'zlashtirilishiga olib keladi.

##### **2. Faol ishtirok va "agentlik" hissi**

O'yinlashtirilgan platformalar va interaktiv vazifalar yoshlarga o'z bilim va ko'nikmalarini namoyish etish, muammolarga yechim taklif qilish imkonini beradi. grECOTrails tashabbusi talabalar tomonidan boshqariladi – ular nafaqat foydalanuvchi, balki kontent yaratuvchisi sifatida ham ishtirok etadilar . Bu "agentlik" hissi yoshlarning ekologik mas'uliyatini oshiradi.

##### **3. Tajriba orqali o'rganish (learning by doing)**

Sensor stansiyalari bilan ishlash , chiqindilarni ajratish o'yinlari , energiya ishlab chiqarish tajribalari – bularning barchasi "tajriba orqali o'rganish" tamoyiliga asoslanadi. Yoshlar nafaqat nazariy bilim oladi, balki amaliy ko'nikmalarni ham egallaydi.

##### **4. Ijtimoiy ta'sir va hamkorlik**

Raqamli platformalar yoshlar o'rtasida hamkorlikni, tajriba almashishni, birgalikda loyihalar amalga oshirishni ta'minlaydi. Samarqanddagi Xalqaro yoshlar ekologik oromgohida turli mamlakatlardan kelgan yoshlar birgalikda ekologik muammolarga yechim izlaydilar . COP29 doirasidagi xalqaro hujjatlar esa bu hamkorlikni institutsional darajada mustahkamlaydi .

##### **1. Texnologik infratuzilma muammolari**

**Muammo:** Ko'plab ta'lim muassasalarida, ayniqsa qishloq joylarda, zamonaviy texnologiyalar (VR jihozlari, yuqori tezlikdagi internet) yetishmaydi.

##### **Yechimlar:**

- Davlat-xususiy sheriklik asosida maktablarni texnologik jihozlash;
- UNESCO tomonidan tavsiya etilgan ko'chma VR to'plamlarini tarqatish ;
- Mobil ilovalar va past tarmoqli talab qiladigan platformalarni ishlab chiqish;
- "Bulutli" texnologiyalardan foydalanish.

##### **2. Kontentning mahallilashtirilmaganligi**

**Muammo:** Ko'plab raqamli ekologik resurslar chet tillarida va mahalliy kontekstga moslashtirilmagan.

### **Yechimlar:**

- Mahalliy ekologik muammolar (masalan, Orol dengizi, Markaziy Osiyo muzliklari)ga bag'ishlangan VR va AR kontent yaratish;
- Milliy tillarda ekologik platformalar ishlab chiqish;
- Xalqaro loyihalarni mahalliyashtirish (masalan, grECOTrails tajribasini Markaziy Osiyoga moslashtirish).

### **3. Monitoring va baholash tizimining yetishmasligi**

**Muammo:** Interaktiv texnologiyalarning ekologik qadriyatlarni shakllantirishga ta'sirini baholash metodologiyasi ishlab chiqilmagan.

### **Yechimlar:**

- ACCESS loyihasidagi mikro-sertifikatlash tizimi kabi baholash mexanizmlarini joriy etish ;
- GreenComp va DigComp kompetensiya ramkalari asosida monitoring tizimini yaratish ;
- Uzoq muddatli tadqiqotlar o'tkazish.

### **1. Milliy darajada:**

- **"Raqamli ekologik ta'lim" konsepsiyasini ishlab chiqish** – 2024–2030-yillarga mo'ljallangan Xalqaro strategiya doirasida O'zbekiston uchun milliy dastur yaratish.
- **Maktablarni texnologik jihozlash** – UNESCO tajribasi asosida kamida 100 ta maktabni VR to'plamlar va sensor stansiyalari bilan ta'minlash.
- **O'qituvchilar malakasini oshirish** – Pedagogika oliy o'quv yurtlarida "Ekologik ta'limda raqamli texnologiyalar" ixtisoslashuvini joriy etish.

### **2. Ta'lim tizimida:**

- **O'quv dasturlariga integratsiya** – "Ekologiya", "Geografiya", "Biologiya" fanlari tarkibiga VR va interaktiv vositalar bilan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarni kiritish.
- **O'yinlashtirilgan platforma yaratish** – ACCESS va grECOTrails tajribasi asosida O'zbekiston yoshlari uchun milliy ekologik platforma ishlab chiqish.
- **"Yashil ko'nikmalar" mikro-sertifikatlash tizimi** – O'quvchilarning ekologik kompetensiyalarini rasman tan olish va sertifikatlash mexanizmini joriy etish.

### **3. Mahalliy kontent yaratish:**

- **"Orol dengizi" VR loyihasi** – Orol fojiasining sabablari va oqibatlarini ko'rsatuvchi immersiv tajriba yaratish.
- **"Markaziy Osiyo muzliklari" interaktiv atlas** – UNESCO loyihasini kengaytirish, barcha maktablar foydalanishi mumkin bo'lgan onlayn platforma yaratish.
- **"Ipak yo'li ekologiyasi" AR ilovasi** – Tarixiy obidalar atrofidagi ekologik o'zgarishlarni ko'rsatuvchi mobil ilova.

### **4. Xalqaro hamkorlik:**

- **COP29 strategiyasini amalga oshirish** – 2024-2030 yillarga mo'ljallangan Xalqaro strategiya doirasida mintaqaviy loyihalarni faollashtirish.
- **Erasmus+ loyihalarida ishtirok** – AI4GreenClassrooms kabi loyihalarda O'zbekiston ta'lim muassasalarining ishtirokini kengaytirish.
- **UNESCO dasturlarida faollik** – GLOFCA va Cryosphere loyihalarida ishtirokni davom ettirish.

Global raqamlashtirish sharoitida yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvori tobora ko'proq raqamli muhit ta'sirida shakllanmoqda. Shu bois ekologik ta'lim tizimida zamonaviy interaktiv usullar va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki yoshlarda barqaror ekologik qadriyatlarni shakllantirishning muhim pedagogik mexanizmiga aylanmoqda. Raqamli platformalar, multimedia vositalari, virtual va kengaytirilgan reallik, onlayn loyihalar hamda gamifikatsiya elementlari ekologik bilimlarni yoshlar ongiga chuqur va barqaror singdirish imkonini bermoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv va texnologiyalarga asoslangan ekologik ta'lim an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan yoshlarning faolligi, mustaqil fikrlashi va mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Ayniqsa, global ekologik muammolarni raqamli modellashtirish, onlayn

muhokamalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik tashabbuslarni targ'ib etish yoshlarni tabiatni muhofaza qilish jarayonining bevosita ishtirokchisiga aylantiradi. Bu esa ekologik qadriyatlarining faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki amaliy hayotiy ehtiyoj darajasida shakllanishiga xizmat qiladi.

## **DIGITAL TECHNOLOGIES IN YOUTH POLICY: CYBERSECURITY ISSUES AND YOUTH PARTICIPATION IN THE DIGITAL SPACE**

**Mavlonov Azizbek Rustamovich**

Teacher at Navoi University of Innovations

[azizmavlonov13@gmail.com](mailto:azizmavlonov13@gmail.com)

In today's era of globalization and information technology, the progress of any country is determined by its digital potential. As the President of the Republic of Uzbekistan, Sh.M. Mirziyoyev, noted: "Without a digital economy, there is no future for the country's economy." This issue is doubly relevant for Uzbekistan, where young people make up more than 60 percent of the population.

As one of the priority directions of the state youth policy, the adoption of the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy and the implementation of the "One Million Uzbek Coders" project have opened wide opportunities for young people.<sup>30</sup> However, there is another side to the coin. As digital technologies penetrate deeper into our lives, the scale of threats in the virtual space, particularly cybercrime, is expanding. The fact that young people are active on the internet, but lack life experience and legal literacy, makes them the most vulnerable stratum to cyberattacks. Therefore, the purpose of this article is not only to attract young people to digital technologies but also to research mechanisms for teaching them to navigate safely in this space.

Modern youth policy encourages the use of the internet as a primary tool for realizing the intellectual potential of youth. However, analysis shows that for many, digital literacy is understood merely as turning on a computer and using social networks. In reality, true digital literacy is the skill of ensuring information security.

Today, the most dangerous types of cyberattacks targeting youth are:

**Social Engineering:** In this method, criminals use human psychology rather than technical tools. They manipulate young people's gullibility, interest in "free prizes," or sense of fear (e.g., fake messages stating "your account has been blocked").

**Phishing Attacks:** Stealing young people's login credentials or their parents' bank card information through fake web pages. For example, false links such as "Presidential Gift" or "Free Internet Traffic," widely circulated on Telegram networks, specifically target youth.

**Cyberbullying:** Harassment in the virtual space and intimidation through the dissemination of personal information. This situation is becoming a serious social problem among teenagers, leading to deep depression and even suicide.

According to the author, the most worrying trend is that young people are becoming not only victims but also perpetrators of crime. Global experience and cases observed in Uzbekistan show that young people aged 14-25 are knowingly or unknowingly committing cybercrimes.

Young people who have basic knowledge in the IT field but do not understand the legal consequences are referred to in international terminology as "Script Kiddies." Although they do not write malicious software themselves, they use ready-made viruses and codes found on the internet to carry out the following actions:

Organizing DDoS attacks (disabling servers);

Hacking and selling others' social network and game accounts (PUBG, FreeFire, etc.);

"Carding" (buying or using stolen bank card data).

---

<sup>30</sup> Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6079 dated October 5, 2020.

Many young people perceive these actions merely as a "prank" or a way to show off. However, according to the relevant articles of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, criminal liability is established for theft and sabotage committed using information technologies<sup>31</sup>. Youth ignorance of this fact is jeopardizing their future.

Traditional prohibitive measures (blocking sites, confiscating phones) are ineffective in solving the problem. We need a new approach that teaches young people how to "live" in the digital world.

First, it is necessary to introduce the concept of "Digital Immunity" into the education system. This is not just a computer science lesson, but rules of cyber hygiene: creating complex passwords, enabling two-factor authentication, and verifying unfamiliar links.

Second, promoting the culture of "Ethical Hacking." To guide young people with a high interest in IT but a tendency towards "hacking" onto the right path, they must be taught to find vulnerabilities and protect systems. Working on Bug Bounty platforms creates a legal source of income for young people and turns them away from the path of crime.

As a result of the analysis and studies conducted, the following conclusions and suggestions have been formulated to further improve the integration of youth policy and digital technologies:

Establishment of a "Cyber Volunteers" movement. Creating volunteer groups consisting of active youth in the IT field under the Youth Affairs Agency. Based on the "peer-to-peer" principle, they will conduct advocacy work on cybersecurity in neighborhoods and schools, teaching adults and children how to avoid phone scammers.

Creation of media content on legal literacy. Placing short, impactful video clips about the legal consequences of cybercrime (imprisonment, fines) on platforms where young people spend the most time, such as Instagram, TikTok, and YouTube. Young people must feel that every action in the virtual world has responsibility in real life.

Revision of educational programs. Introducing special courses on "Personal Data Protection" and "Fundamentals of Cybersecurity" into school and university curriculums. It is appropriate to emphasize practical exercises (such as detecting simulated phishing attacks) rather than theory.

Digitization of psychological support centers. Launching online platforms or Telegram bots that allow young people who are victims of cyberbullying and internet fraud to apply anonymously.

In conclusion, digital technology is a powerful weapon. The task of youth policy is to teach young people to use this weapon not to harm themselves and society, but to build the digital future of Uzbekistan.

#### **REFERENCES:**

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6079 dated October 5, 2020 "On approval of the 'Digital Uzbekistan - 2030' strategy and measures for its effective implementation."

2. Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. (Article 278-1. Unlawful (unauthorized) access to computer information).

3. Law of the Republic of Uzbekistan "On Cybersecurity", April 15, 2022, No. ZRU-764.

4. Khodjayev M.T. "Youth and Information Security: Problems and Solutions". Textbook. Tashkent – 2023.

---

<sup>31</sup> *Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. Article 278-1.*

## YOSH AVLODNI ZAMONAVIY KASBLARGA O‘QITISHDA ILMIY- PEDAGOGIK ASOSLAR (Virtual texnologiyalar asosida)

**Xalmanov Ural Rasulovich** —

Jizzax davlat pedagogika universiteti

“Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: [xalmanov77@gmail.com](mailto:xalmanov77@gmail.com)

Raqamli iqtisodiyot va to‘rtinchi sanoat inqilobi sharoitida mehnat bozori tarkibi tubdan o‘zgarib bormoqda. Sun‘iy intellekt, dasturlash, kibernetika, robototexnika, yashil energetika kabi yo‘nalishlar zamonaviy kasblarning asosini tashkil etadi. Shu bois yoshlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash ta‘lim tizimining ustuvor vazifasiga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘limni modernizatsiya qilish jarayoni huquqiy jihatdan O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni bilan mustahkamlangan bo‘lib, unda ta‘limning uzluksizligi, innovatsion rivojlanish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish tamoyillari belgilangan. Shuningdek, “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” da yoshlarni kasb-hunarga o‘qitish va raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etilgan.

**Zamonaviy kasblarga tayyorlashning nazariy asoslari.** Ilmiy adabiyotlarda kasbiy tayyorgarlik kompetensiyaviy yondashuv asosida talqin etiladi. Kompetensiya – bu bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning integrativ majmui bo‘lib, real kasbiy vazifalarni samarali bajarish qobiliyatini ifodalaydi.

Virtual texnologiyalar asosida ta‘limni tashkil etish konstruktivizm, faoliyat yondashuvi va raqamli pedagogika tamoyillariga tayanadi. Bunda o‘quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki interaktiv muhitda mustaqil izlanish va amaliy tajriba orqali egallaydi.

STEM-yondashuv, loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning), masofaviy laboratoriyalar va simulyatsiyalar zamonaviy kasblarga yo‘naltirishning samarali mexanizmlaridan hisoblanadi.

**Virtual texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari.** Virtual texnologiyalar quyidagi didaktik imkoniyatlarni ta‘minlaydi:

1. **Vizualizatsiya va modellashtirish** – murakkab texnologik jarayonlarni virtual simulyatsiya orqali tushuntirish.

2. **Interaktivlik** – o‘quvchi faol ishtirokini ta‘minlash.

3. **Individual ta‘lim trayektoriyasi** – shaxsiy qiziqish va qobiliyatga mos o‘qitish.

4. **Masofaviy hamkorlik** – global ta‘lim resurslaridan foydalanish imkoniyati.

Masalan, virtual laboratoriyalar orqali muhandislik yoki energetika yo‘nalishidagi tajribalarni xavfsiz va iqtisodiy samarali tarzda amalga oshirish mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarda texnologik savodxonlik va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

**Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kompetensiyasini shakllantirish.** Zamonaviy kasblar ko‘pincha ekologik barqarorlik tamoyillari bilan bog‘liq. Shu bois yoshlarni kasbiy tayyorlash jarayonida ekologik mas‘uliyatni shakllantirish muhimdir.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy asoslarini belgilaydi.

Virtual platformalar orqali energiya tejash modellarini yaratish, ekologik muammolarni simulyatsiya qilish va “yashil iqtisodiyot” loyihalarini ishlab chiqish o‘quvchilarning ekologik kompetensiyasini rivojlantiradi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari ta‘lim jarayonida ekologik ong va mas‘uliyatni mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi.

**Integrativ model va metodik tavsiyalar.** Virtual texnologiyalar asosida zamonaviy kasblarga tayyorlash quyidagi model asosida amalga oshirilishi mumkin:

- **Motivatsion bosqich** – kasbiy yo‘naltirish va raqamli savodxonlikni shakllantirish;
- **Kognitiv bosqich** – nazariy bilimlarni raqamli resurslar orqali egallash;

• **Amaliy bosqich** – virtual laboratoriyalar va loyihalar asosida ko‘nikmalarni mustahkamlash;

• **Refleksiv bosqich** – o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish.

Pedagogik jihatdan blended learning (aralash ta’lim), gamifikatsiya, raqamli portfoliolar va kompetensiyaviy baholash mexanizmlarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Virtual texnologiyalar asosida yosh avlodni zamonaviy kasblarga o‘qitish ta’limning innovatsion modelini shakllantiradi. Bu jarayon kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va ekologik mas’uliyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat siyosati va normativ-huquqiy hujjatlar bilan qo‘llab-quvvatlanayotgan mazkur yo‘nalish raqobatbardosh va barqaror rivojlanishga hissa qo‘sha oladigan avlodni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”.
3. Uralov, N., & Islomov, D. (2021). Virtual texnologiyalar orqali kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. *Pedagogika va Innovatsiyalar*, 4(15), 45–52.
4. Hamidov, A. (2020). STEM yondashuvi asosida maktablarda innovatsion ta’limni tashkil etish. *O‘zbekiston Pedagogika Jurnal*, 2, 22–30.
5. Xalmanov, U. R. (2023). Virtual laboratoriyalar va raqamli platformalar orqali o‘quvchilarning texnologik savodxonligini rivojlantirish. *Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi*, 5(1), 15–23.
6. Xalmanov U., Mardonov B. Inshoatlarni qo‘riqlash tizimini matematik modellashtirish yordamida tashkil etish //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 3. – С. 282-286.
7. The role of virtual technologies in developing professional competence in the methodology of teaching mathematics. (2026). *International Journal of Artificial Intelligence*, 6(02), 656-658.
8. Xalmanov Ural Rasulovich. (2026). Bo‘lajak matematika o‘qituvchisining kasbiy salohiyatini shakllantirish. *Multidisciplinary journal: fundamental research scientific journal*, 2(02), 55–60.
9. Абдуллаева Н. *Теоретические основы формирования педагогической компетентности.* — Ташкент, 2021.
10. Rasulovich X. U. Texnologik talim jarayonda gidroavtomatikaning o‘rni va ruvoji //MATERIALLARI TO‘PLAMI. – T. 17.
11. Xalmanov U., Matematikani o‘qitishda o‘qituvchining psixologik tayyorgarligi «Zamonaviy ijtimoiy psixologiya: an‘analar va istiqbollar» mavzuidagi II-xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari
12. Xalmanov U., Sensor texnologiyalarini oziq ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarishda o‘rni. Iste‘mol bozorini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash-farovonlik va taraqqiyotning muhim omili ilmiy-amaliy anjumani materiallari FarPi
13. Xalmanov U., Телекоммуникация сохасида кириш занжирларининг асосий кўрсаткичлари. JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN. Research Science and Innovation House

## **O‘SPIRINLAR ORASIDA BULLING HOLATINING PAYDO BO‘LISHI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Tillayeva Nodira Iskandar qizi**  
Toshkent Amaliy Fanlar universiteti  
Psixologiya kafedra o‘qituvchisi

O‘zbekistonda ta‘lim tizimini isloh qilish va ta‘lim sohasida korrupsiya va zo‘ravonlikni kamaytirish bo‘yicha ko‘plab tashabbuslar ilgari surilmoqda. 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchilarni jismoniy va ma‘naviy sog‘lomlashtirish”ga doir farmoni, ta‘lim muassasalarida xavfsiz muhit yaratish uchun muhim huquqiy asoslarni tashkil etdi. Shuningdek, yoshlarni aqlli va ma‘naviy jihatdan yetuk avlod sifatida tarbiyalashda ta‘lim jarayonida zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan yondashuvlar kuchaytirilib kelinmoqda. Hozirgi kunda, dunyo bo‘ylab turli davlatlar, shu jumladan, O‘zbekistonda ham bullyingga qarshi kurashish, o‘quv jarayonlarini takomillashtirish va yoshlarning ruhiy salomatligini himoya qilish borasida siyosiy tashabbuslar va qonunchilik ishlab chiqilmoqda. Siyosiy iqlimda ta‘lim muassasalarida xavfsiz va sog‘lom muhit yaratish, o‘quvchilarning psixologik salomatligini ta‘minlashga qaratilgan bir qator qonunlar va dasturlar mavjud. Bulling yoki ta‘qib qilish o‘smirlar orasida tobora kengayib borayotgan ijtimoiy muammo sifatida shakllanmoqda. Bu hodisa, bir guruh yoki shaxsning boshqa bir shaxsni doimiy ravishda kamsitish, haqoratlash, shaxsiy huquqlarini buzish va psixologik zo‘ravonlik qilish orqali unga zarar yetkazishdan iboratdir. O‘spirinlar orasida bullingning paydo bo‘lishi nafaqat jamiyatda axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi, balki ta‘lim jarayoniga ham jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bulling o‘zi nima? Bulling—bu zo‘ravonlik, majburlash, haqoratli so‘zlar bilan masxara qilish yoki tahdid qilish, ishonchni suiiste‘mol qilish, tajovuzkorlik qilish yoki dominantlikdan qo‘rqitish uchun foydalanish. Xulq-atvor ko‘pincha takrorlanadi va odatiy holdir. Bulling (ta‘qib qilish) o‘zgacha ijtimoiy fenomen sifatida, nafaqat o‘quvchilar orasida psixologik va jismoniy zarar yetkazish holatini anglatadi, balki bu holat keng miqyosda ta‘lim tizimida jiddiy ijtimoiy, psixologik va ta‘limiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu fenomen, o‘smirlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, nafaqat jismoniy, balki ruhiy zo‘ravonlikni ham o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda ta‘lim tizimini isloh qilishga qaratilgan siyosiy tashabbuslar, shuningdek, bullingni kamaytirish va yoshlarni sog‘lom va ma‘naviy yetuk avlod sifatida tarbiyalashga yo‘naltirilgan dasturlar ham mavjud.

Bulling, ijtimoiy psixologik fenomen sifatida, o‘ziga xos xulq-atvorlar yig‘indisi bo‘lib, bu o‘zida biror shaxsga yoki guruhga nisbatan takroran va davomiy tarzda qilingan zo‘ravonlik, haqoratlar, tahdidlar, kamsitish va o‘z huquqlarini buzish holatlarini o‘z ichiga oladi. Bu, odatda, bir yoki bir nechta shaxs tomonidan boshqa bir shaxsga qarshi amalga oshiriladi.

O‘spirinlar orasidagi bulling nafaqat shaxsiy psixologik muammolarga olib keladi, balki o‘quv jarayoniga ham jiddiy salbiy ta‘sir qiladi. Bu muammo ijtimoiy, psixologik va ta‘lim sohasida samarali hal etilishi zarur. Maktablar, oilalar va jamiyatning o‘zgaruvchan muhitini inobatga olgan holda, bullingning oldini olish, ta‘lim jarayonini mustahkamlash va o‘smirlarning ijtimoiy va psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Faqatgina jamoaviy sa‘y-harakatlar orqali bu ijtimoiy muammo bartaraf etilishi mumkin. Bullingning paydo bo‘lishi ko‘plab ijtimoiy va psixologik omillarga bog‘liq. Bu jarayonni yanada chuqurroq tahlil qilishda quyidagi muhim jihatlarga e‘tibor qaratish zarur: O‘spirinlar orasidagi bullying ko‘pincha guruh dinamikasiga bog‘liq. Ijtimoiy normallar, guruhning a‘zolari tomonidan belgilangan qoidalar bullyingni kuchaytirishi mumkin. Ba‘zi hollarda, guruhning eng kuchli a‘zolari o‘zlarini boshqalarga ustun qo‘yish, hukmronlik qilish orqali bullyingni amalga oshiradilar. Bu esa ijtimoiy tengsizlik va jamiyatda huquqlarni buzishga olib keladi. O‘spirinlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik, o‘z-o‘zini past baholash, oilaviy muammolar va shaxsiy hayotdagi noxush tajribalar bullyingni keltirib chiqarishi mumkin.

Bullyingni amalga oshirgan shaxslar ko'pincha o'zlariga ishonchsiz bo'lib, boshqalarga nisbatan tajovuzkor bo'lishadi, chunki ular bu orqali o'zlarining kuchini vaustunligini his qilishadi. Axborot texnologiyalar ham bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar bullyingni yangi shakllarini, masalan, kiberbullyingni paydo qilishga olib kelgan. O'spirinlar internet orqali bir-Jismoniy zo'rvonlik –bu shaxsga jismoniy zarar yetkazish, uni ta'qib qilish, urish yoki boshqa jismoniy tajovuzlar bilan bog'liqdir. Ruhiiy zo'rvonlik–haqoratlar, masxara qilish, kamsitish, shaxsiy huquqlarni poymol qilish, tasavvurdagi qo'rquvni yaratish, his-tuyg'ularni izolyatsiya qilish kabi ruhiy zo'rvonlikni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy izolyatsiya–guruhlar tomonidan o'zini tanitishga yoki ishtirok etishga ruxsat bermaslik, jamiyatdan ajratish. Kiberbullying–internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali zo'rvonlik qilish, masxara qilish va haqoratli xabarlar yuborish, birlariga masxara qilish, haqorat qilish va ularning shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilish orqali bullyingni amalga oshirishadi. Bu esa, an'anaviy bullyingdan yanada ko'proq jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bullingning o'quv jarayoniga salbiy ta'siri bir necha jihatdan ko'rinadi:-Bulling qurbonlari psixologik travmalarni boshdan kechirishadi, bu ularning o'z-o'ziga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Ular maktabga borishni xohlamasliklari, o'zlarini xavf ostida his qilishlari va ijtimoiy muhitga qiziqishlarini yo'qotishlari mumkin. Bullingning ta'siri ostida bo'lgan o'smirlar o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yo'qotadilar. Ular doimiy ravishda stress va xavotirda bo'lishadi, bu esa diqqatni jamlashni qiyinlashtiradi va o'quv natijalarini pasaytiradi. Bulling qurbonlari o'zlarini maktab muhitida yolg'iz va ajralib qolgan his qilishlari mumkin. Ularning ijtimoiy aloqalari cheklangan bo'lib, bu ularning jamiyatda integratsiya qilishiga to'sqinlik qiladi. Maktabda bullyingning keng tarqalishi o'qituvchilar bilan muammolarni keltirib chiqaradi va sinfda beqarorlikni yuzaga keltiradi. Bu esa o'qituvchilarning e'tiborini sinfdagi boshqa o'quvchilarga qaratishiga to'sqinlik qiladi, natijada ta'lim sifati pasayadi. Bulling ijtimoiy va psixologik fenomen sifatida o'smirlar orasida tobora kengayib borayotgan muammoga aylangan. Uning ta'lim tizimidagi salbiy ta'siri, nafaqat o'quvchilarning psixologik va hissiy salomatligini, balki ta'limning umumiy samaradorligini ham pasaytiradi. Bullingga qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan siyosiy va huquqiy tashabbuslar nafaqat ta'lim tizimini yaxshilashga, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlar va tashabbuslar bullyingning oldini olishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevral kuni "Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-51-son qarori
2. Tagunova, I. A., Selivanova, N. L. & Valeeva, R. A. (2016). The Category of Upbringing in Russian and Western Studies. *Mathematics Education*, 11(1)
3. Tarasov S.V. *Obrazovatel'naya sreda: ponyatie, struktura, tipologiya* // J.Vestnik SanktPiterburgskogo GUa im. A.S.Pushkina. – SPb.: 2011. - № 11.–S. 133-138
4. Tillayeva, N. (2024). Maktab O'quvchilarining Ijtimoiy Moslashuvining Psixologik Xususiyatlari. *Modern Science and Research*, 3(1), 1- 5. 9. 5.
5. Tillaeva Nodira Iskandar. (2024). Psychological characteristics of students and activation of its cognitive activity.

## **YOSHLARDA KASBIY MAS'ULIYATNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Keldibekova Moxichexra Mavlonbek qizi**

Toshkent shahar Chilonzor tumani 183-maktab Psixologi

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida yoshlarning kasbiy mas'uliyatini shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasbiy

mas'uliyat – shaxsning professional faoliyatda o'z vazifalarini vijdonan, axloqiy va me'yoriy talablar asosida bajarish qobiliyati – nafaqat ish unumdorligini, balki jamiyat va tashkilot faoliyatining sifatini ham belgilaydi[1].

Raqamli texnologiyalar – elektron platformalar, interaktiv treninglar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiya dasturlari – yoshlarning kasbiy mas'uliyatini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi[2]. Ular o'quvchilarni faol ishtirok etishga, mustaqil qaror qabul qilishga va real ish vaziyatlarini o'zlashtirishga yo'naltiradi[3]. Shu bilan birga, raqamli muhit psixologik jihatdan o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, stress va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy hamkorlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi[4].

### **1. Pedagogik va psixologik roli**

Raqamli texnologiyalar pedagogik jarayonda interaktivlikni oshirish orqali kasbiy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiya dasturlari va interaktiv testlar o'quvchilarga turli professional vaziyatlarni xavfsiz muhitda sinab ko'rish imkonini beradi[5]. Masalan, elektron simulyatsiya yordamida yoshlar kasbiy qarorlar qabul qiladilar, natijalarni baholaydilar va o'z xatolarini tahlil qiladilar. Shu jarayon yoshlarning mas'uliyatni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini mustahkamlaydi, shuningdek, ularning kritikal va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Psixologik nuqtai nazardan, o'quvchining faol ishtirok etishi “faol o'rganish” prinsipi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon mas'uliyatni o'zlashtirishni kuchaytiradi[6].

### **2. Motivatsiya va e'tibor**

Raqamli vositalar yoshlarning motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Multimedia kontent (videodarslar, animatsiyalar, interaktiv testlar) e'tibor va qiziqishni kuchaytiradi, bu esa kasbiy mas'uliyatni shakllantirish uchun psixologik zamin yaratadi[7]. Shu bilan birga, onlayn feedback va baholash tizimlari o'quvchilarga o'z ishini tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini beradi.

Motivatsiya va e'tibor psixologiyada yoshlarning ichki va tashqi rag'batlarini uyg'unlashtirish bilan bog'liq bo'lib, raqamli muhitda bu jarayon yanada samarali bo'ladi[8].

### **3. Ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalar**

Raqamli platformalar jamoaviy ish va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish imkonini oshiradi. Virtual guruh loyihalari, onlayn seminarlar va forumlar yoshlarni mas'uliyatni nafaqat o'z ishida, balki jamoaviy natijalar uchun ham his qilishga o'rgatadi<sup>5</sup>.

Bu jarayon psixologik jihatdan yoshlarning empatiya, hamkorlik, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi va ularni professional muhitga tayyorlaydi. Shu bilan birga, virtual hamkorlik vaziyatlari orqali yoshlar turli qarorlar qabul qilishda bir-birining tajribasidan o'rganadi, mas'uliyatni baholash va qayta ko'rib chiqish qobiliyatini oshiradi.

### **4. Stressni boshqarish va qaror qabul qilish**

Raqamli simulyatsiya va interaktiv mashg'ulotlar yoshlarni turli professional vaziyatlarda qaror qabul qilishni mashq qilinishiga imkon beradi<sup>6</sup>. Bu psixologik jihatdan stressga chidamlilikni oshiradi va vaziyatni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan, virtual muhitda yuzaga keladigan murakkab ish vaziyatlarini hal qilish jarayoni o'quvchilarga reaktiv va proaktiv qarorlar qabul qilishni o'rgatadi, bu esa ularning kasbiy mas'uliyatini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, o'quvchilar turli vaziyatlarda xatolarini tahlil qilib, o'z faoliyatini optimallashtirishni o'rganadilar.

### **5. Individual yondashuv**

Raqamli ta'lim platformalari har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'qitish imkonini beradi. Masalan, adaptiv o'quv tizimlari har bir yoshning qobiliyati va bilim darajasiga moslashtirilgan vazifalarni taqdim etadi<sup>7</sup>. Bu esa psixologik jihatdan har bir o'quvchi uchun motivatsiyani oshiradi va mas'uliyatni rivojlantirish jarayonini shaxsiylashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar yoshlarning kasbiy mas'uliyatini shakllantirishda samarali pedagogik va psixologik vosita sifatida xizmat qiladi. Ular nafaqat bilim berish, balki motivatsiya, qaror qabul qilish, stressni boshqarish, ijtimoiy hamkorlik va

mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bois, zamonaviy ta'lim tizimida raqamli vositalarni tizimli va psixologik jihatdan asoslangan holda qo'llash yoshlarning kasbiy salohiyatini oshirishning strategik yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. To'xtaxo'jayev N. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Ishmuhamedov R., Yo'ldoshev M. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
3. UNESCO. Digital Learning and Education Policy Guidelines. – Paris, 2018.
4. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury Academic, 2016.
5. Karimov N. Psixologiya va pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2015.
6. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010.
7. Saidov A. Kasbiy ta'lim va psixologik rivojlanish. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
- Muslimov N. Kasbiy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.

### **YOSHLARGA HUQUQ FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK AHAMIYATI**

**Xolmurzayev Nabi Imomqul o'g'li**  
IIV Sirdaryo akademik litseyi  
Oliy toifali huquq fani o'qituvchisi

Bugungi kunda globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi va axborotlashgan jamiyatning shakllanishi sharoitida yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik vazifaga aylangan. Jamiyat hayotining barcha sohalarida raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi fuqarolardan nafaqat umumiy bilim, balki huquqiy bilim va ko'nikmalarni ham talab etmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning huquqiy ongini shakllantirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda o'z huquq va majburiyatlarini anglashga o'rgatish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga keng joriy etilishi huquq fanini o'qitish metodikasini ham tubdan yangilamoqda. An'anaviy dars shakllari o'rnini interaktiv platformalar, elektron resurslar, masofaviy ta'lim tizimlari va multimedia vositalari egallamoqda. Bu esa o'quv jarayonini yanada vizual, tizimli va samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Zamonaviy yondashuvlar nafaqat nazariy bilim berishga, balki huquqiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish hamda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, raqamli muhitda huquqiy ma'lumotlarning ochiqligi va tezkorligi yoshlarning normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayon huquqiy madaniyatni oshirish, qonun ustuvorligini anglash va ijtimoiy faollikni kuchaytirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois huquq fanini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida o'qitish bugungi kun ta'lim tizimining strategik vazifalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Huquq fanini o'qitishda raqamli texnologiyalar — elektron platformalar, interaktiv dasturlar, masofaviy ta'lim tizimlari va multimedia vositalari — o'quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Xususan, Ziyonet ta'lim portali hamda Google Classroom platformasi orqali o'quv materiallarini tezkor yetkazish va nazorat qilish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Birinchidan, raqamli texnologiyalar huquqiy bilimlarni vizuallashtirish imkonini yaratadi. Masalan, konstitutsiyaviy tuzilma, davlat hokimiyati tizimi yoki sud jarayonlari interaktiv sxemalar va videodarslar orqali tushuntirilganda o'quvchilarning idrok darajasi oshadi[1].

Ikkinchidan, masofaviy ta'lim tizimlari yoshlarning mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, raqamli ta'lim vositalari o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi[2].

Uchinchidan, huquq fanini o'qitishda onlayn test tizimlari va virtual sud jarayonlari (moot court) yoshlarning huquqiy tafakkurini amaliy jihatdan rivojlantiradi. Bu jarayon interfaollikni kuchaytirib, nazariy bilimni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash imkonini beradi[3].

To'rtinchidan, raqamli texnologiyalar yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlar va ochiq ma'lumotlar bazalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Masalan, LexUZ milliy qonunchilik bazasi orqali o'quvchilar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustaqil ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shu bilan birga, raqamli ta'lim jarayonida axborot xavfsizligi, tanqidiy tahlil va media savodxonlik masalalariga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Aks holda, noto'g'ri ma'lumotlar yoshlarning huquqiy ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarga huquq fanini o'qitishda raqamli texnologiyalar zamonaviy pedagogik vosita sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ular huquqiy bilimlarni samarali yetkazish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois huquq ta'limida raqamli platformalardan oqilona va tizimli foydalanish yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ishmuhamedov R., Yo'ldoshev M. *Ta'limda innovatsion texnologiyalar.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
2. UNESCO. *Digital Learning and Education Policy Guidelines.* – Paris, 2018.
3. Saidov A. *Huquqiy ta'lim nazariyasi va metodikasi.* – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.

## **RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA YOSHLARNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI**

**Bozorov Sunnatillo Mexriqulovich**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
Ingliz filologiyasi fakulteti kechki ta'lim dekan muovini

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli transformatsiya jarayoni iqtisodiyot, ta'lim, davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, siyosiy kommunikatsiya va fuqarolik ishtirokining yangi mexanizmlari paydo bo'lishi natijasida yoshlarning jamiyat hayotidagi roli yanada ortib bormoqda.

Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalar fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni kuchaytirish hamda jamoatchilik nazoratini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi<sup>32</sup>.

Yoshlar har qanday jamiyatning eng faol va innovatsion qatlamini tashkil etadi. Ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki demokratik institutlarning rivojlanishi hamda fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar jamiyatdagi muammolarni muhokama qilish, jamoatchilik tashabbuslarini ilgari surish hamda davlat organlari bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa yoshlarning siyosiy faolligi va fuqarolik ongini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Avvalo, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati yoshlarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirishda muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar

---

<sup>32</sup> Castells M. *The Rise of the Network Society.* Oxford: Blackwell Publishers, 2010.

yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash hamda iqtidorli yoshlarni rag'batlantirishga xizmat qilmoqda<sup>33</sup>.

O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamli infratuzilmaning rivojlanishi yoshlarning ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. 2023 yil yakunlariga ko'ra mamlakatda internet foydalanuvchilari soni 31 milliondan oshgan<sup>34</sup>. Davlat statistika ma'lumotlariga ko'ra, 14–30 yosh oralig'idagi aholi qatlamida internetdan muntazam foydalanish darajasi 90 foizga yaqinlashgan<sup>35</sup>.

Shuningdek, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatilgan elektron xizmatlardan foydalanuvchilar soni 2020 yilga nisbatan 2023 yilda qariyb ikki baravarga oshgan<sup>36</sup>. Bu esa yoshlarning davlat boshqaruvi jarayonlaridagi bilvosita ishtiroki kengayayotganini ko'rsatadi.

Raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlari ham yoshlar faolligining oshayotganini tasdiqlaydi. IT Park rezidentlari tarkibida yosh tadbirkorlarning ulushi 65 foizdan ortiqni tashkil etadi<sup>37</sup>. Bu raqam yoshlarning innovatsion loyihalar va startap ekotizimidagi rolini mustahkamlayotganini anglatadi.

Raqamli transformatsiya jarayoni ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda tizimli muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, birinchi navbatda hududlar o'rtasida raqamli tafovut saqlanib qolmoqda. Yirik shaharlarda yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy texnologiyalar keng tarqalgan bo'lsa, ayrim chekka hududlarda infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa yoshlarning imkoniyatlarida nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda.

Ikkinchi muammo – raqamli savodxonlikning chuqur mazmuniy darajada shakllanmaganligidir. Raqamli savodxonlik faqat texnik ko'nikmalar emas, balki axborotni tanqidiy tahlil qilish, media madaniyat va kiberxavfsizlik qoidalarini bilishni ham o'z ichiga oladi<sup>38</sup>. UNESCO konsepsiyasiga ko'ra, media va axborot savodxonligi fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi<sup>1</sup>.

Uchinchi muammo – yoshlarning raqamli siyosiy ishtiroki hali ham asosan passiv shaklda namoyon bo'layotganidir. Elektron platformalarda ovoz berish, so'rovnomalarda qatnashish ko'rsatkichlari oshgan bo'lsa-da, tashabbus bildirish va muhokama jarayonlarida faol ishtirok darajasi pastligicha qolmoqda.

Mazkur muammolarni hal etishda tizimli va institutsional yondashuv zarur. Muallifning ilmiy pozitsiyasiga ko'ra, raqamli transformatsiya jarayonlari yoshlar siyosatining tarkibiy qismi sifatida ko'rilishi va u alohida yo'nalish sifatida davlat dasturlarida mustahkamlanishi lozim.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun kuchli instrument hisoblanadi. Internet qamrovining kengayishi, elektron hukumat xizmatlarining rivojlanishi va IT sohasidagi imkoniyatlar yoshlarning jamiyatdagi rolini kuchaytirmoqda. Biroq mavjud salohiyat to'liq ishga solinmagan.

Ilmiy xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, yoshlar siyosati raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks model asosida qayta ko'rib chiqilishi zarur. Raqamli savodxonlik nafaqat texnik ko'nikma, balki fuqarolik madaniyati va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashgan holda shakllantirilishi kerak.

Amaliy takliflar quyidagilardan iborat:

Birinchi, umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimida "Raqamli fuqarolik va axborot xavfsizligi" modullarini majburiy fan sifatida joriy etish lozim.

Ikkinchi, hududiy raqamli tafovutni kamaytirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosida zamonaviy IT markazlar tarmog'ini kengaytirish zarur.

<sup>33</sup> Norris P. Digital Divide: Civic Engagement and the Internet Worldwide. Cambridge University Press, 2001.

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. 2023 yil yakuniy hisobot ma'lumotlari

<sup>35</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Aholining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi to'g'risida statistik byulleten, 2023

<sup>36</sup> Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) statistik ma'lumotlari, 2023.

<sup>37</sup> IT Park Uzbekistan rasmiy yillik hisoboti, 2023.

<sup>38</sup> Hague C., Payton S. Digital Literacy Across the Curriculum. – Futurelab, 2010.

Uchinchidan, elektron hukumat platformalarida yoshlar uchun alohida interaktiv muhokama maydonlarini yaratish orqali ularning tashabbuskorligini oshirish kerak.

To'rtinchidan, yosh startaplar uchun grant, soliq imtiyozlari va mentorlik dasturlarini institutsional asosda mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur chora-tadbirlar yoshlarning raqamli transformatsiya jarayonlaridagi ishtirokini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi va milliy taraqqiyot strategiyasiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell Publishers, 2010.
2. Norris P. Digital Divide: Civic Engagement and the Internet Worldwide. Cambridge University Press, 2001.
3. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. 2023 yil yakuniy hisobot ma'lumotlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Aholining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi to'g'risida statistik byulleten, 2023.
5. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) statistik ma'lumotlari, 2023.
6. IT Park Uzbekistan rasmiy yillik hisoboti, 2023.
7. Hague C., Payton S. Digital Literacy Across the Curriculum. – Futurelab, 2010.

## **RAQAMLI MADANIYAT VA IJTIMOIYLASHUVNING AN'ANAVIY SHAKLLARI INQIROZI**

**Xurshid Karimov**

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

e-mail: [s201@tiue.uz](mailto:s201@tiue.uz)

XXI asrda raqamli texnologiyalar faqat muloqot vositasi bo'lishdan to'xtab, tafakkur, o'ziga xoslik va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning yangi shakllarini shakllantiruvchi mustaqil madaniy muhitga aylandi. Raqamli madaniyat - bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining faoliyat ko'rsatishi natijasida yuzaga keladigan me'yorlar, qadriyatlar, amaliyotlar va ramziy shakllar majmuidir. U tarmoq mantiqi, axborot almashuvining yuqori tezligi, idrokning fragmentarligi va kommunikatsiyaning algoritmik tashkil etilishi bilan tavsiflanadi.

Shu bilan birga, an'anaviy ijtimoiylashuv institutlari - oila, maktab, diniy va madaniy tashkilotlar, mahalliy jamoalar transformatsiyasi kuzatilmoqda. Savol tug'iladi: raqamli madaniyat ijtimoiylashuvning an'anaviy shakllari inqirozining omilimi yoki ularning yangi evolyutsion bosqichimi?

Ijtimoiylashuv an'anaviy ravishda shaxs tomonidan jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor modellarini o'zlashtirish jarayoni sifatida tushunilgan. Mumtoz sotsiologiyada (E.Dyurkgeym, T.Parsons) ijtimoiylashuv shaxsning oila, ta'lim va din institutlari orqali ijtimoiy tizimga integratsiyalashuvi mexanizmi sifatida qaralgan [1].

Biroq, tarmoqli jamiyatning rivojlanishi bilan (M. Kastels) ijtimoiy tuzilma yanada markazlashmagan, kommunikatsiya esa globallashtirish [2]. Raqamli muhit an'anaviy ierarxiyalarning rolini zaiflashtirib, gorizontal aloqalarni shakllantiradi [3]. Shaxs ko'plab muqobil qadriyat tizimlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa me'yorlarning xilma-xillashuvi va o'ziga xoslikning parchalanishiga olib keladi [4].

Postmodern falsafasi (J.Bodriyyar, J.-F.Liotar) "katta rivoyatlar"ning xiralashishi va simulyativ voqelikning o'sishini ko'rsatdi. Raqamli makonda bu tendensiya tobora kuchayib bormoqda: virtual tasvirlar va media tuzilmalar ko'pincha ijtimoiy o'zaro ta'sirning haqiqiy tajribasini almashtirmoqda.

Raqamli madaniyat ijtimoiylashuvning o'ziga xos mexanizmlarini yaratadi:

- Axborotni algoritmik tanlash.
- Virtual identiklik.
- Tarmoqdagi ommaviylik.

- Klipli fikrlash.

Shunday qilib, raqamli madaniyat nafaqat an'anaviy ijtimoiylashuvni to'ldiradi, balki shaxsni jamiyatga qo'shishning muqobil modelini shakllantiradi.

Oila va maktab an'anaviy ravishda qadriyatlarni yetkazish, axloqiy munosabatlarni shakllantirish va ijtimoiy nazorat funksiyalarini bajargan. Raqamli asrda ularning ta'siri qisman kamayadi. Yoshlar ko'pincha ota-onalari yoki o'qituvchilaridan ko'ra onlayn muhitdan ma'lumot va xulq-atvor me'yorlarini tezroq va jadalroq oladilar [5].

Bundan tashqari, raqamli muhit shaxsni individuallashtirish va avtonomlashtirishga yordam beradi. Bir tomondan, bu tanlov erkinligini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, jamoaviy o'ziga xoslik va avlodlararo vorisiylikni zaiflashtiradi.

Ijtimoiy begonalashuv fenomeni ham kuzatiladi: virtual muloqot hissiy aloqalar chuqurligini pasaytirishi, yolg'izlik va xavotirni kuchaytirishi mumkin. Ajablanarlisi shundaki, giperkommunikatsiya sharoitida inson haqiqiy muloqotning yetishmasligini his qilishi mumkin [6].

Xavf-xatarlarga qaramay, raqamli madaniyat katta integrativ salohiyatga ega. U bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, global hamjamiyatlarni shakllantiradi, madaniyatlararo o'zaro ta'sir va fuqarolik faolligini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Raqamli platformalar yoshlarga jamoat tashabbuslari, xalqaro loyihalar, ta'lim dasturlarida ishtirok etish imkonini beradi [6]. Shunday qilib, raqamli ijtimoiylashuv tanqidiy fikrlash va mediasavodxonlikni shakllantirish sharti bilan shaxsiy va kasbiy rivojlanish resursiga aylanishi mumkin.

Ijtimoiylashuvning an'anaviy shakllari inqirozi haqida gapirganda, uning dialektik xususiyatini hisobga olish muhimdir. Gap avvalgi institutlarni butunlay yo'q qilish haqida emas, balki ularning funksiyalarini o'zgartirish haqida ketmoqda. Oila va maktab raqamli vositalarni birlashtirib, ijtimoiylashuvning gibridd modelini shakllantirishi mumkin.

Bugungi kunning vazifasi "an'anaviy" va "raqamli"ni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish emas, balki ularning o'zaro uyg'unligini topishdan iborat. Raqamli madaniyat yangi mas'uliyat etikasini, empatiyani rivojlantirishni va axborotni tanqidiy qabul qilishni talab qiladi.

Raqamli madaniyat ijtimoiylashuvning an'anaviy shakllari uchun ham chaqiriq, ham imkoniyat vazifasini bajaradi. U qadriyatlarni uzatish mexanizmlarini o'zgartiradi, yangi o'ziga xosliklarni shakllantiradi va ijtimoiy aloqalar tabiatini o'zgartiradi.

An'anaviy ijtimoiylashuv inqirozi iyerarxiyalarning zaiflashuvi, qadriyatlarning parchalanishi va tajriba virtualizatsiyasining o'sishida namoyon bo'ladi. Biroq, raqamli texnologiyalarni ta'lim va ijtimoiy siyosatga ongli ravishda integratsiya qilish orqali an'anaviy qadriyatlar va raqamli kompetentlikni birlashtirgan barqaror ijtimoiylashuv modelini shakllantirish mumkin.

Shunday qilib, ijtimoiylashuvning kelajagi raqamli madaniyatdan voz kechish bilan emas, balki jamiyatning uni o'zlashtirishning falsafiy va axloqiy jihatdan asoslangan strategiyasini ishlab chiqish qobiliyati bilan belgilanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Durkheim E. *Suicide: A Study in Sociology*. – London: Routledge, 2002.
2. Castells M. *The Rise of the Network Society* (2nd ed.). – New Jersey, Wiley-Blackwell, 2010.
3. Бекбаев Р. Рене Генон и его место в синтезе традиционализма и межкультурного диалога: диссертация доктора философии (PhD). – Ташкент, 2023.
4. Castells M. *Communication Power*. – Oxford: Oxford University Press, 2009.
5. Jenkins H. *Convergence Culture*. – New York: NYU Press, 2006.
6. Boyd D. *It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens*. – New Haven: Yale University Press, 2014.

## YOSHLAR SIYOSATIDA RAQAMLI TA'LIM ORQALI MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING O'RNI

**Jaloliddin Eshquvvatov**

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

e-mail: [j.eshquvvatov@gmail.com](mailto:j.eshquvvatov@gmail.com)

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi hayotning barcha sohalarini jadal raqamlashtirish, axborot makonining globallasuvi va madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Yoshlar bunday sharoitda nafaqat raqamli texnologiyalarning eng faol foydalanuvchisi, balki ijtimoiy o'zgarishlarning asosiy subyekti hamdir. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar, raqamli ta'lim resurslari yoshlarning muloqot qilish, o'zini o'zi aniqlash va ijtimoiylashuvining yangi modellarini shakllantirmoqda.

Bunday vaziyatda shaxsning uyg'un rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlash va madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosati alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli ta'lim ushbu vazifalarni amalga oshirishning eng muhim vositasiga aylanmoqda, chunki u bilim olish imkoniyatini kengaytiradi, global o'zaro ta'sirni rag'batlantiradi va konstruktiv madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi [1, b.50].

Madaniyatlararo kompetensiya turli madaniyat vakillarining samarali o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan bilim, ko'nikma, qadriyat munosabatlari va muloqot qobiliyatlari majmuidir. Unga kognitiv komponent (madaniy xususiyatlarni bilish), xulq-atvor komponenti (muloqot va moslashish ko'nikmalari), shuningdek, aksiologik komponent (tolerantlik, hurmat, empatiya) kiradi [2, b.58].

Raqamli jamiyat sharoitida madaniyatlararo aloqalar har kuni - onlayn munozaralar, xalqaro loyihalar, ta'lim platformalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladi. Biroq, shakllangan madaniyatlararo kompetensiyaning yo'qligi stereotiplarning tarqalishiga, ksenofobiyaga, radikalashuvga va virtual muhitda nizolarga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, yoshlar siyosati nafaqat yoshlar rivojlanishining iqtisodiy yoki ijtimoiy jihatlariga, balki o'zaro hurmat va muloqot tamoyillariga asoslangan barqaror madaniyatlararo o'ziga xoslikni shakllantirishga ham yo'naltirilishi kerak.

Raqamli ta'lim madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi [3, b.5]. Onlayn kurslar, xalqaro ta'lim dasturlari, virtual almashinuvlar, raqamli forumlar va qo'shma loyihalar yoshlarga turli mamlakatlar va madaniyatlar vakillari bilan hududiy cheklovlarsiz muloqot qilish imkonini beradi.

*Birinchi*dan, raqamli ta'lim muhiti madaniy dunyoqarashni kengaytirishga yordam beradi. Turli xil axborot manbalaridan foydalanish turli xalqlarning tarixi, an'analari, diniy va madaniy xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi.

*Ikkinchi*dan, xalqaro onlayn loyihalarda ishtirok etish madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini, ko'p madaniyatli jamoada ishlash qobiliyatini, qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlardagi farqlarni hisobga olishni rivojlantiradi.

*Uchinchi*dan, raqamli ta'lim mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Axborotning haddan tashqari ko'pligi va soxta xabarlarining tarqalishi sharoitida yoshlar axborotni tahlil qila olishi, manipulyatsiyalarni aniqlay olishi va radikal mafkuralardan qochishi kerak.

Madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda raqamli ta'lim salohiyatidan samarali foydalanish uchun yoshlar siyosati quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- ta'lim dasturlariga madaniyatlararo muloqot va raqamli etikaga bag'ishlangan fanlar va modullarni kiritish;
- xalqaro onlayn platformalar va universitetlar o'rtasidagi ta'lim hamkorligini qo'llab-quvvatlash;
- bag'rikenglik va madaniyatlar muloqotini targ'ib qilishga qaratilgan raqamli yoshlar

forumlari va tashabbuslarini rivojlantirish;

- raqamli media savodxonlik va onlayn radikallashuvning oldini olish dasturlarini yaratish;
- raqamli madaniyatlararo hamkorlik sohasida yoshlarning startaplari va ijtimoiy loyihalarini rag'batlantirish.

Bunday tashabbuslarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi yoshlarda nafaqat kasbiy kompetensiyalarni, balki ijtimoiy mas'uliyat, madaniy xilma-xillikka hurmat va fuqarolik yetukligini shakllantirish imkonini beradi.

Raqamli ta'lim orqali madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish ijtimoiy barqarorlik va jamiyat integratsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [4, b.410]. Konstruktiv muloqot ko'nikmalariga ega bo'lgan yoshlar ekstremistik g'oyalar ta'siriga kamroq beriluvchan, axborot manipulyatsiyasiga chidamli va madaniyatlararo muloqotda vositachi bo'lishga qodir bo'ladi.

Bundan tashqari, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga, global mehnat bozorida yoshlarning raqobatbardoshligini oshirishga va xalqaro maydonda davlatning ijobiy imidjini shakllantirishga yordam beradi [5, b.72].

Shunday qilib, raqamli ta'lim orqali madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda yoshlar siyosatining roli strategik ahamiyatga ega. Globallashuv va jamiyatning raqamli transformatsiyasi sharoitida aynan raqamli ta'lim bag'rikeng, mas'uliyatli va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashning asosiy mexanizmiga aylanmoqda.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ta'lim innovatsiyalari va raqamli madaniyatni rivojlantirishni birlashtirgan kompleks yondashuv jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash imkonini beradi. Madaniyatlararo kompetensiya raqamli asrda nafaqat ta'lim vazifasiga, balki milliy xavfsizlik, ijtimoiy totuvlik va global hamkorlik omiliga aylanmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yusupova D.I. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini shakllantirishda innovativ, interfaol metodlardan foydalanish // Zamonaviy ta'lim. – 2020. – №12(97). – B.47-55.

2. Бекбаев Р. Рене Генон и его место в синтезе традиционализма и межкультурного диалога: диссертация доктора философии (PhD). – Ташкент, 2023.

3. Irisqulov M.T., Nurmatova N.A. Zamonaviy globallashuv jarayonida millat tili va madaniyatining o'rni (tahliliy sharh) // Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2020. – №5(90). – B.3-9.

4. Shayxislamov N.Z. Kognitiv tilshunoslik to'g'risida tushuncha va uning universal tabiati // Scientific progress. – 2021. – №1(5). – B.408-415.

5. Mustafaev A. Falsafiy tafakkur tarixida lyudvig vitgenshteyn falsafasining shakllanish shart sharoitlari // Central Asian Journal of Academic Research. – 2024. – №2(5). – B.71-79.

### **"RAQAMLASHGAN JAMIYATDA YOSHLAR PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI TA'MINLASH, TALABALARDA AYBDORLIK HISSI SHAKLLANISHIGA OILAVIY MUHITNING TA'SIRI"**

**Sultonbekova O'g'iloy Ilyosjon qizi,**

FDU magistranti

Email:oygulxonsultonbekova@gmail.com

Global raqamlashuv sharoitida shaxsning ruhiy olami va ijtimoiy munosabatlari tizimi jiddiy transformatsiyaga uchramoqda. Zamonaviy yoshlar, xususan, talabalar hayotiga raqamli texnologiyalarning chuqur kirib borishi nafaqat ta'lim formatini, balki oilaviy muloqotning mohiyatini ham o'zgartirib yubordi. Bugungi kunda yoshlar orasida kuzatilayotgan gadjetlarga bog'liqlik muammosi, afsuski, oila a'zolari o'rtasidagi emotsional aloqalarning zaiflashuviga va "oilaviy uzoqlashish" fenomenining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu jarayonning eng

xatarli psixologik oqibatlaridan biri — talabalarda aybdorlik hissining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishidir. Raqamli dunyoda vaqtining asosiy qismini o'tkazayotgan talaba, virtual olam va real hayot majburiyatlari o'rtasida muvozanatni yo'qotib qo'ymoqda. Natijada, u o'zini ota-onasi oldidagi farzandlik burchini yetarli darajada bajara olmayotgandek, ularning ishonchini oqlamayotgandek va akademik kutishlarga javob bera olmayotgandek his qila boshlaydi. Gadgetlarga bog'liqlik natijasida kelib chiqadigan muloqot tanqisligi talabada "yashirin aybdorlik" kompleksini shakllantiradi. Ota-onaning moddiy va ma'naviy ko'magi evaziga ta'lim olayotgan talaba, o'z vaqtini gadgetlarga sarflayotgani uchun o'zini ota-onasi oldida qarzdor va aybdor deb hisoblaydi. Oilaviy uzoqlashish natijasida yuzaga kelgan emotsional vakuum, talabaning o'zini "oila uchun foydasiz" deb baholashiga olib keladi. Ota-ona kutgan yuksak natijalarni bera olmaslikdan qo'rqish raqamli chalg'ishlar fonida yanada keskinlashadi.

Shundan kelib chiqadiki, raqamlashgan jamiyatda yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida talabalar ruhiy barqarorligini ta'minlash, ulardagi destruktiv aybdorlik hissini oilaviy muhitni sog'lomlashtirish orqali korreksiya qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Inson huquqlari va shaxs kamoloti masalalari bevosita yoshlarning bunday ichki psixologik krizislardan ozod bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir. Global raqamlashuv sharoitida shaxsning ruhiy olami va ijtimoiy munosabatlari tizimi jiddiy transformatsiyaga uchramoqda. Zamonaviy yoshlar, xususan, talabalar hayotiga raqamli texnologiyalarning chuqur kirib borishi nafaqat ta'lim formatini, balki oilaviy muloqotning mohiyatini ham o'zgartirib yubordi. Bugungi kunda yoshlar orasida kuzatilayotgan gadgetlarga bog'liqlik muammosi, afsuski, oila a'zolari o'rtasidagi emotsional aloqalarning zaiflashuviga va "oilaviy uzoqlashish" fenomenining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu jarayonning eng xatarli psixologik oqibatlaridan biri — talabalarda aybdorlik hissining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishidir. Raqamli dunyoda vaqtining asosiy qismini o'tkazayotgan talaba, virtual olam va real hayot majburiyatlari o'rtasida muvozanatni yo'qotib qo'ymoqda. Natijada, u o'zini ota-onasi oldidagi farzandlik burchini yetarli darajada bajara olmayotgandek, ularning ishonchini oqlamayotgandek va akademik kutishlarga javob bera olmayotgandek his qila boshlaydi. Gadgetlarga bog'liqlik natijasida kelib chiqadigan muloqot tanqisligi talabada "yashirin aybdorlik" kompleksini shakllantiradi. Ota-onaning moddiy va ma'naviy ko'magi evaziga ta'lim olayotgan talaba, o'z vaqtini gadgetlarga sarflayotgani uchun o'zini ota-onasi oldida qarzdor va aybdor deb hisoblaydi. Oilaviy uzoqlashish natijasida yuzaga kelgan emotsional vakuum, talabaning o'zini "oila uchun foydasiz" deb baholashiga olib keladi. Ota-ona kutgan yuksak natijalarni bera olmaslikdan qo'rqish perfeksionistik aybdorlik raqamli chalg'ishlar fonida yanada keskinlashadi. Shu nuqtai nazardan, raqamlashgan jamiyatda yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida talabalar ruhiy barqarorligini ta'minlash, ulardagi destruktiv aybdorlik hissini oilaviy muhitni sog'lomlashtirish orqali korreksiya qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Inson huquqlari va shaxs kamoloti masalalari bevosita yoshlarning bunday ichki psixologik krizislardan ozod bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir. An'anaviy oilaviy muhitda "yuzma-yuz" muloqot talaba uchun emotsional quvvat manbai bo'lib xizmat qilgan. Biroq, gadgetlarga bog'liqlik natijasida oila a'zolari bir uyda yashasada, ruhan bir-biridan uzoqlashmoqda. Bu holat psixologiyada "parallel mavjudlik" deb ataladi. Talaba o'z vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga sarflar ekan, uning ongosti qatlamida ota-onasiga ajratmagan vaqti uchun yashirin aybdorlik kompleksi ildiz ota boshlaydi. Oila kutishlari va akademik aybdorlik

Raqamli texnologiyalar ota-onalarda farzandlarining ta'lim darajasiga bo'lgan talabni yanada oshirdi. Oila muhitida ota-ona tomonidan qo'yilgan "ideal farzand" standarti va talabaning real imkoniyatlari ayniqsa, gadgetlar tufayli diqqatning tarqoqligi o'rtasidagi nomuvofiqlik "perfeksionistik aybdorlik"ni yuzaga keltiradi. Talaba o'zini ota-onasi sarflayotgan resurslarga pul, vaqt, ishonch nomunosib deb hisoblay boshlaydi. Yoshlar siyosati va psixologik huquqlar. Barqaror rivojlanishning muhim sharti — shaxsning ruhiy yaxlitligidir. Yoshlar siyosati darajasida talabalaridagi aybdorlik hissini faqat shaxsiy muammo emas, balki oilaviy tizim va raqamli muhitning to'qnashuvi sifatida ko'rish lozim. Talabaning raqamli dunyoda "yo'qolib qolmasligi" va oilasi bilan sog'lom aloqani saqlab qolishi uning inson sifatidagi fundamental huquqlaridan

biridir. Tadqiqot doirasida olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, global raqamlashuv sharoitida talaba-yoshlarning psixologik barqarorligi bevosita ularning eng yaqin ijtimoiy muhiti — oila bilan bog'liqdir. Zamonaviy gadjetlarga bog'liqlik va virtual olamga sho'ng'ish natijasida yuzaga kelayotgan "oilaviy uzoqlashish" fenomeni talaba shaxsida murakkab ichki ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

**Xulosa** Aybdorlik hissining transformatsiyasi yani raqamli davrda talabalardagi aybdorlik hissining manbai faqatgina akademik muvaffaqiyatsizlik emas, balki oila a'zolari bilan jonli muloqotning yo'qolishi va ota-onaning yuqori kutishlarini oqlay olmaslik qo'rquvidir. Oila — barqarorlik omili sifatida Gadjetlar dunyosida talaba uchun oila nafaqat moddiy ta'minotchi, balki emotsional xavfsizlik maskani bo'lishi shart. Oila muhitidagi sog'lom muloqot talabadagi destruktiv his-tuyg'ularni neytrallashtiruvchi asosiy himoya mexanizmi hisoblanadi. Yoshlarning ruhiy salomatligini muhofaza qilish, ularni raqamli axborot xurujlaridan va ichki psixologik krizislardan himoya qilish barqaror rivojlanishning fundamental asosi qilib olishimiz kerak. Endi esa tavsiyalarga keladigan bo'lsak talabalar uchun asosiy aytib o'tishimiz lozim. OTMlarda talabalarning oilaviy munosabatlarini sog'lomlashtirishga qaratilgan "Raqamli gigiyena va oilaviy muloqot" mavzusida treninglar tashkil etish. Ota-onalar orasida farzandlariga nisbatan perfeksionistik talablarni kamaytirish bo'yicha psixologik tushuntirish ishlarini olib boorish. Talabalarda o'z-o'zini ayblash tendensiyasini kamaytirish uchun ularning emotsional intellektini rivojlantirishga qaratilgan metodikani joriy etish. Umuman olganda, raqamlashgan jamiyatda talabaning psixologik barqarorligini ta'minlash — bu faqat shaxsiy masala emas, balki oila, ta'lim muassasasi va davlat yoshlar siyosatining o'zaro integratsiyalashgan harakati natijasidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. G'oziyev E.G. "Umumiy psixologiya". – Toshkent, 2010.
3. Karimova V.M. "Oila psixologiyasi". – Toshkent, 2007. Oila muhiti va uning shaxs shakllanishidagi roli bo'yicha fundamental manba.
4. Erikson E. "Identity: Youth and Crisis". – New York: Norton, 1968. (Yoshlik davridagi krizislar va o'zlikni anglash nazariyasi uchun).
5. Kohlberg L. "Essays on Moral Development". – Harper & Row, 1981. (Aybdorlik hissi va axloqiy ong shakllanishi bo'yicha).
6. Zalivayeva I.A. "Psixologicheskiye osobennosti chuvstva vini u studentov". – Moskva, 2005. (Dissertatsiyangizning bevosita mavzusi bo'yicha ilmiy ish).
7. Turakulova U.A. "Raqamli jamiyatda yoshlar muloqot madaniyati". "Psixologiya" ilmiy jurnali. – Buxoro, 2022.
8. Turle S. "Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other". – Basic Books, 2011. (Gadjetlarga bog'liqlik va oilaviy uzoqlashish fenomenini tushuntiruvchi jahon miqyosidagi mashhur asar).
9. Yunusov R. "Oila va jamiyat: raqamli transformatsiya jarayonlari". – Toshkent: Fan, 2023.
10. World Health Organization (WHO). "Adolescent mental health in the digital age". – Geneva, 2024.

### **DIFFERENSIAL TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGLAR ISH FAOLIYATINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI**

**Abdullayeva Feruza Xayrulla qizi**  
Toshkent shahridagi Puchon Universiteti  
Ta'limni boshqarish yo'nalishi magistranti

«Differensiya» so'zining negizi «differentsiatsiya» bo'lib, lotincha «differentia» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, „farq“ yoki „**Kasbiy yuklamalar**“ tushunchasi esa talaba yoki o'qituvchining ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha bajarishi kerak bo'lgan vazifalar hajmi va murakkabligini anglatadi.

**Differensial ta'lim** boshqacha yoki alohida bo'lish yoki bo'lish jarayonini anglatadi. Kembridj lug'atiga ko'ra, «differensiatsiya» - bu boshqa shunga o'xshash narsalardan farq qilish yoki farq qilish jarayoni yoki haqiqati bildiradi. Tarbiyaviy ma'nosiga ko'ra, bir dars doirasida turli o'quv materiallari va usullaridan turli o'quvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda foydalanish tushuniladi. Ushbu konsepsiya turli sohalarida, jumladan, matematika, biologiya va ta'limda qabul qilingan bo'lib, u o'zgarish tezligini topish, uyali ixtisoslashuv yoki individual ehtiyojlarni qondirish uchun o'qitishni o'zgartirish kabi jarayonlarni bildiradi. Differensiatsiya - bu alohida o'qitish o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim maqsadlari, mazmuni va o'qitish usullarini tanlash va moslashtirishga rahbarlik qilish orqali o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Differensiatsiya - bu alohida o'qitish uchun o'quvchilarning har qanday individual qobiliyatlari asosida guruhlariga bo'linishi. Differensiallashtirish ta'limi - bu bir oz boshqacha o'quv rejalari, dasturlari, texnologiyalari bo'yicha o'qitish uchun individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilarni guruhlash.

*Differensiatsiyaviy yondashuv* - guruhlar o'xshash qobiliyatlarga ega bo'lgan guruhlarda o'qitishni qo'llab-quvvatlash uchun turli usullar va strategiyalardan foydalangan holda, guruh a'zolarining xususiyatlariga asoslanib tuziladi. Bu tamoyil o'quvchilarning qiziqishlari, ijodkorligi va o'rganish qobiliyatlari kabi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim maqsadlari, mazmuni va o'qitish usullarini tanlash va moslashtirishga rahbarlik qilish orqali o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan.

*Kasbiy yuklamalar va Emotsional zo'riqish* - Kasbiy yuklamalar tushunchasi esa talaba yoki o'qituvchining ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha bajarishi kerak bo'lgan vazifalar hajmi va murakkabligini anglatadi. Bu insonning ruhiy va jismoniy resurslari tashqi bosim yoki ichki kechinmalar tufayli haddan tashqari sarflanishi holatidir. Bu holat ko'pincha uzoq davom etgan stress, javobgarlikning yuqoriligi yoki kutilmagan qiyinchiliklar natijasida yuzaga keladi.

*Differensial yondashuvning psixologik va pedagogik asoslari* ta'limdagi differensiatsiya usulining Psixologik asoslari o'quvchilarning turli xil kognitiv qobiliyatlarini, oldingi tajribalarini va mavjud bilimlarini tan olishni o'z ichiga oladi. Bu o'qituvchilardan ushbu individual farqlarni hisobga olgan holda o'qitish strategiyalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi va miyaga asoslangan ta'lim tamoyillaridan ilhom olgan holda, bu yondashuv o'quvchilar tegishli qiyinchilik darajasida kurs materiallari bilan samarali muloqot qilishlari mumkin bo'lgan qo'llab-quvvatlovchi va mazmunli o'quv muhitini yaratishga ustuvor ahamiyat beradi. Bundan tashqari, differensiatsiya usuli psixologik va pedagogik elementlarni o'zida mujassam etgan bo'lib, o'qitish usullarini har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan, buni chet tili ta'limi sohasidagi tadqiqotlar va turli xil o'qitish usullarini sinab ko'rishni isbotlaydi. Oqibatda, ushbu ta'lim yondashuvi o'ylangan rejalashtirish va amalga oshirish orqali individual nomutanosibliklarni muntazam ravishda hal qilish barcha o'quvchilar uchun ta'lim jarayonini boyitadi degan ishonchga asoslangan. Differensial yondashuvning asosiy pedagogik asoslari: O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim: Differensiatsiya o'quvchini ta'lim jarayonining markaziga qo'yadi. Bu o'quvchilarning turli xil kelib chiqishi va turli xil o'rganish uslublari, afzalliklari va qobiliyatlariga ega ekanligini tan oladi. Shu sababli, o'qitish ushbu farqlarni hisobga olish va o'quvchilarga o'z ta'limini egallashga imkon berish uchun mo'ljallangan. Moslashuvchan ta'lim: Differensiatsiyani qo'llaydigan o'qituvchilar hamma o'quvchilar ham bir xil sur'atda yoki bir xil usullar bilan tarkibni o'zlashtira olmasligini tushunishadi. Ular o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil ta'lim strategiyalari, materiallar va baholashlardan foydalanadilar. Bu tarkibni o'zgartirish, o'qitish tezligini sozlash yoki muqobil topshiriqlarni taqdim etishni o'z ichiga olishi mumkin. O'rganish uchun baholash: Baholash differensiallashtirish yondashuvining ajralmas qismidir. O'qituvchilar doimiy ravishda o'quvchilarning yutuqlarini baholaydilar, ularning kuchli, zaif tomonlari va o'sish sohalarini aniqlash. Ushbu doimiy baholash o'quv qarorlari haqida ma'lumot beradi, bu o'qituvchilarga o'quvchilarning individual ehtiyojlarini samarali qondirish uchun o'qitishni moslashtirishga imkon beradi. Moslashuvchan guruhlash: guruhlash strategiyalari hamkorlikda o'rganish va individuallashtirilgan ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun tabaqalashtirilgan o'qitishda

strategik ravishda qo'llaniladi. O'qituvchilar o'quvchilarni tayyorgarligi, qiziqishlari yoki o'rganish uslublariga qarab guruhlashlari mumkin va bu guruhlar muayyan o'quv maqsadlari va faoliyatiga qarab tez-tez o'zgarishi mumkin. Xilma-xillik: Differenziatsiya sinfda inklyuzivlik va xilma-xillikka hurmat madaniyatini rivojlantiradi. U har bir o'quvchining o'ziga xos kelib chiqishi, tajribasi va istiqbollari qadrayonlari mavjud bo'lib, ular amalga oshirilsa, o'quvchilarning o'z ta'limlarida faol ishtirok etishlari uchun kengaytirilgan imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin.

*Differensial ta'limning afzalliklari:*

-Bilimlardagi bo'shliqlarning oldini olish: Farqlash o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi bo'shliqlarning oldini olishga yordam beradi va sinf bo'ylab tayyorgarlik darajasini tenglashtiradi.

-Qobiliyat va qiziqishlarni rivojlantirish: Moslashtirilgan ta'lim tajribasini taqdim etish orqali o'quvchilarning qobiliyatlari va qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beradi.

- Bilim sifatini oshirish: tabaqalashtirilgan ta'lim o'quvchilar bilimining umumiy sifatini oshiradi.

- O'qish vaqtidan samarali foydalanish: har

Bir o'quvchining o'quv vaqtidan samaraliroq foydalanishni, vazifalarni ularning qobiliyatlari va o'rganish ehtiyojlariga moslashtirish orqali ta'minlaydi.

**Differensial ta'limda boshqaruv** pedagog hammaga birdek yoqadigan taomni charchab qolmasdan tayyorlashi kerak.

1. O'qituvchining ishini to'g'ri taqsimlash

O'qituvchi hamma talaba bilan birma-bir gaplashib chiqishga ulgurmaydi. Shuning uchun ishini quyidagicha soddalashtirish kerak:

Tayyor shablonlar: Har bir dars uchun "Oson", "O'rtacha" va "Qiyin" darajadagi topshiriqlarni oldindan tayyorlab qo'yish.

Guruhlash: Talabalarni 25 kishi deb emas, balki 3 ta guruh (bilim darajasiga ko'ra) deb qarash. Bu o'qituvchining diqqatini 25 tadan 3 taga kamaytiradi.

2. Rahbarning vazifasi (Qanday boshqarish kerak?)

Maktab yoki oliygoh rahbari o'qituvchidan "hamma talabaga bir xil dars o't" deb talab qilmasligi kerak. Buning o'rniga:

Vaqt berish: Differensial dars tayyorlash oddiy darsdan qiyinroq. Shuning uchun o'qituvchiga qog'ozbozlikni kamaytirib, ijodiy izlanishga vaqt berish lozim. Texnologiyani joriy etish: Kompyuter o'zi tekshiradigan testlarni ko'paytirish. O'qituvchi qo'lda daftar tekshirib o'tirmasligi kerak.

3. Emotsional yuklamani qanday yengillatish? O'qituvchi "hamma ulgurishi shart" degan fikr bilan o'zini qiynamasligi uchun:

Hamkorlik: Ikki-uchta o'qituvchi birlashib, bitta mavzu bo'yicha turli darajadagi materiallarni bir marta tayyorlaydi va hamma foydalanadi.

Kichik g'alabalar: Talabaning darajasi bir pog'onaga ko'tarilsa ham, bu pedagog uchun katta natija sifatida tan olinishi kerak.

4. Qisqa xulosa (Formula) Yaxshi boshqaruv = To'g'ri texnologiya + Guruhlar bilan ishlash + O'qituvchiga erkinlik.

**Xulosa:** O'tkazilgan ishlar bo'yicha quyidagilar aniq bo'ldiki differensial ta'lim pedagoglarining faoliyatida ishlash pedagogdan juda katta sabr va mashaqqatni talab qiladi. Ammo ularning ish faoliyatini soddalashtirish va ularning kasbiga bo'lgan muhabbatini oshirish maqsad qilgan rahbar o'z ishchi jamoasini olg'a intilishi uchun yangi usullar yaratish vazifasi o'z oldiga maqsad qilib qoyadi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Yangi tahrir, 2023-yil )  
Cambridge Dictionary Online. "Differentiation" definition.
2. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books (Individual qobiliyatlar va o'rganish uslublari haqida).

3. Tomlinson, C. A. How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. ASCD (Differensial ta'lim strategiyalari bo'yicha jahon tan olgan asosiy manba).
4. Vigotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press (Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi uchun).

## **RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALAR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI**

**Abdullayeva Marjona Asadullayevna**  
Tashkent International University  
Ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi  
**Amonova Aziza Razzoq qizi**  
Buxoro davlat universiteti  
Tarix va yuridik fanlar fakulteti  
2-bosqich talabasi

Bugungi zamonaviy globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida ta'lim tizimini yangilash obyektiv zaruratga aylandi. Oliy ta'lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi institut, balki innovatsion g'oyalar va ijtimoiy taraqqiyot drayveri sifatida faoliyat yuritishi talab etilmoqda. Bunday sharoitda ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonida asosiy manfaatdor tomonlardan biri bo'lgan talabalarning ishtirokini faol ta'minlash va ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy yondashuvda talaba ko'proq ta'lim xizmatini iste'mol qiluvchi subyekt sifatida qaralgan bo'lsa, zamonaviy paradigma uni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi va hamkoriga aylantirishni nazarda tutadi. Shu bois mazkur maqolada talabalarni ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayoniga jalb etishning nazariy asoslari, mexanizmlari va kutilayotgan natijalari ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli ta'lim tizimida talabalar kompetentligini rivojlantirish quyidagi strategiyalar orqali amalga oshiriladi:

1. Talabalarni innovatsion loyihalar, raqamli platformalar, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va ijtimoiy tashabbuslarga jalb etish orqali ulardagi liderlik, tanqidiy fikrlash va mas'uliyat kompetensiyalarini rivojlantirish;

2. Moodle tizimi orqali o'quv materiallarini joylashtirish, topshiriqlarni nazorat qilish va baholash jarayonini amalga oshirish;

3. Interaktiv va kolloborativ ta'lim muhitini yaratish;

Raqamli ta'lim platformalaridan samarali foydalanish ham kompetentlikni oshirishning asosiy omillaridan biri sanalib, masalan, Google Classroom platformasi talabalar va o'qituvchilar o'rtasida tezkor aloqa hamda hamkorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, Zoom orqali masofaviy darslar, seminar va muhokamalar tashkil etilib, kommunikativ kompetensiyalar rivojlantiriladi. Bu jarayon talabada raqamli savodxonlikni shakllantiradi. Bunday sharoitda talabalar raqamli muhitning faol va to'g'ri foydalanuvchisi va yaratuvchisiga aylanishi bugungi talaba-yoshlarning salohiyatini keskin oshirishga xizmat qiladi va bu borada, bugungi xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim tizimini yangilash kontekstida talabalar faolligi bilan pedagogik transformatsiya o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida qaralib bu yondashuv talabalarni faqat o'quv jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki uni yakuniy foydalanuvchisi va shakllantiruvchisi sifatida ko'rmoqda.

Shuningdek, raqamli ta'lim tizimi kompleks va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligiga bog'liq. Su boisdan, qaror qabul qilish jarayonlarida talabalar ishtirokini kengaytirish ta'lim muassasasida hamkorlik muhitini shakllantirishning samarali vositasi sifatida talqin etilmoqda. Buning uchun, talabalar kengashi, fakultet miqyosidagi muhokamalar va ishchi guruhlarda ularning ishtiroki ta'lim muassasasida hamkorlik muhitini kuchaytirishga xizmat qiladi va natijada boshqaruv jarayonida shaffoflik va o'zaro ishonch ortadi. Talaba-yoshlarni mazkur jarayonning markaziga qo'yish zamonaviy ta'lim

paradigmasining muhim talabi hisoblanadi. Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida raqamli platformalar yaratish, startup tashabbuslari, ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etish orqali talabalar nafaqat bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ta'lim muhitini modernizatsiya qilishga bevosita hissa qo'shadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda

Xulosa o'rnida aytganda, ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayoni zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, mazkur jarayonning samaradorligi esa bevosita unda ishtirok etuvchi subyektlarning, xususan talabalarning ko'nikmasi bilan belgilanadi. Talabani ta'lim jarayonining markaziy figurasi sifatida e'tirof etish, uni boshqaruv va innovatsion tashabbuslarga jalb etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omili bo'lib qoladi. Shunday ekan, talabalarda raqamlashtirish ko'nikmasini oshirish va ularni raqamli ta'lim muhitiga jalb etish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatga ega strategik vazifa sifatida qaralishi va ularning faolligi va tashabbuskorligi ta'lim muassasasining raqobatbardoshligi, shaffofligi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim resurs sifatida qabul qilinishi lozim.

#### **Foydalalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1) G'afforov, Ya. X. Yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni / Ya. X. G'afforov, Sh. A. Toshpo'latov // Fuqarolik jamiyati. – Toshkent, 2022. – № 2. – B. 45-51.

2) Qodirov, B. N. Elektron hukumat va yoshlar: raqamli ishtirok etishning zamonaviy tendensiyalari / B. N. Qodirov // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 2020. – № 4. – B. 22-28.

3) Савельев, И. В. Политическая активность молодежи в условиях цифровизации общества / И. В. Савельев // Вопросы политологии. – Москва, 2019. – Т. 9, № 7. – С. 1340-1348.

4) Alexander Astin (1984). Talabalarning ishtiroki: Oliy ta'lim uchun rivojlanish nazariyasi / Journal of College Student Personnel, 25(4), 297–308.

5) Буданов В.Г. Новые технологии цифровой жизни – перспективы и риски изменений антропоферы // Философские науки. 2016. № 6. С. 47-55.

## **XONDAMIRNING “HUMOYUNNOMA” ASARI MUHIM TARIXIY MANBA SIFATIDA**

**Ahmadov Muzaffar Boriyevich**

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti

Pedagogika va ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti

**D.A. Ergashev**

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti

Huquqshunoslik yo'nalishi talabasi

Mamlakatimizning yirik tarixchilari ta'kidlashicha, Hindistonda **Boburiylar** hukmronligi davrida yozilgan tarixiy asarlar soni va ilmiy qiymati jihatidan **Amir Temur** davrida yaratilgan asarlardan qolishmaydi.

Masalan, «Boburnoma» **Zahiriddin Muhammad Bobur**, “Humoyunnoma” **Gulbadanbegim**, “Akbarнома”, “Oyini Akbari” **Abu Fazl Allomiy**, “Tabaqoti Akbari” **Nizomiddin Ahmad Dehlaviy**, “Tazkirayi zikri Podshohxonayi Dekan” **Abdulhaq Sayfiddin Buxoriy**, “Tuzuki Jahongiriy” **Jahongirshoh**, “Tarixi Firishta” yoki “Gulshani Ibrohimiy” **Muhammad Qosim Hindushoh**, “Muntaxab at-tavorix” **Abdulqodir Badauniy**, “Iqbolnomayi Jahongiriy” yoki “Jahongirnoma” **Sharif ibn Do'st Mutamadxon**, “Zafarnomayi Shohjahoniy” **Abu Tolib Hamadoniy**, “Podshohnoma” yoki “Shohjahonoma” **Abdulhamid Lahoriy**, “Tarixnoma” **Jaloliddin Sheroziy**, “Latoifi axbor” **Rashidxon Badi**,

“Amali Solih” Muhammad Solih Lahuriy, “Xulosat at-tavorix” Sunjay Ray Munshi, “Maosiri Olamgiri” Muhammad Soqi Musta’idxon, “Muxtasari Latif” Rup Narayan Kixtari va boshqalar shular jumlasidandir.

Ma’lumki, yurtimizda ilm-fan, adabiyot, tasviriy san’at, xattotlik va musiqa san’ati Temuriylar davridan ancha avval ham rivojlangan edi. XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu yo’nalishlar yanada yuksaldi. Bu davrda **Alisher Navoiy**, **Abdurahmon Jomiy**, **Kamoliddin Behzod**, **Mirxond**, **Safi Buxoriy**, **Kamoliddin Husayn Jaloir**, **Xoja Muhammad va Jaloliddin Muhammad Andijoniy**, shuningdek **Darvishali Changiy** kabi o’nlab mashhur ma’rifatparvar va san’atkorlar ijod qildilar. Bu buyuk madaniyatga **G’iyosiddin Xondamir** ham salmoqli hissa qo’shgan.

U **Alisher Navoiy** kabi ulug’ mutafakkir, shoir va adibning shogirdi, yirik tarixchi olim **Mirxond**ning nabirasi bo’lib, o’z davrining yetuk allomasi edi. Xondamirning boy va mazmunli ilmiy merosi xalqimizning uzoq o’tmishi va yuksak madaniyatini o’rganishda muhim manba hisoblanadi. Ular o’zlarining boqiy tarixiy asarlari bilan ko’p asrlik madaniyatimizni boyitib, ilm-fan tarixida o’chmas iz qoldirdilar.

G’iyosiddin Xondamirning qimmatli ilmiy merosi zamonamizning yirik sharqshunosi va ustozimiz akademik **Dilorom Yusupova** tomonidan chuqur o’rganilgan. Xondamirning har bir asarida xalqning o’tmish tarixi va o’sha davrning hayajonli voqealari yorqin tasvirlangan.

“**Xulosat ul-axbor fi ahvoli ul-ahyor**” (“Olam axborining solih kishilar ahvoriga doir xulosasi”) asari 1448–1499-yillar oralig’ida yakunlangan. “**Dastur ul-vuzaro**” (“Vazirlar uchun nasihat”) 1500-yilda tugallangan. Yana bir qimmatli asari “**Maosir ul-mulk**” (“Temuriy hukmdorlar zamondoshlari”) ham 1500-yilda yozib bitirilgan. Xondamirning bir vaqtning o’zida ikki-uch asarni yakunlagani, albatta, kishini hayratga soladi.

Muarrifning yana bir asari “**Makorim ul-axloq**” (“Olijanob fazilatlar kitobi”) **Alisher Navoiy** vafot etgan yilda yozilgan bo’lib, aynan unga bag’ishlangan. Shuningdek, mazmunli asarlardan biri “**Nomayi nomiy**” (“Mashhur nomlar”) bo’lib, taxminan 1525-yillarda yoki undan keyin yaratilgan. Nihoyat, Xondamirning eng mashhur asari “**Habib us-siyar fi axbor va afrod ul-bashar**” (“Sevimli do’stlar va tanlangan kishilar tarjimai hollari”) 1515–1527-yillar oralig’ida yozilgan.

Ma’lumki, G’iyosiddin Xondamir hayotining so’nggi yillarida, aniqrog’i 1527-yil yozida **Zahiriddin Muhammad Bobur** xizmatiga kirish uchun Hindistonga yo’l oladi va 1528-yil kuzida Bobur huzuriga yetib boradi. Bu paytda Bobur Aud shahrida yashar edi. “**Boburnoma**”da keltirilishicha, mashhur shoir **Shohob Muammoiy**, Hirotidagi yirik “**Sultoniy**” madrasasi mudarrisi **Amir Ibrohim Mashhadiy** va G’iyosiddin Xondamir Bobur huzuriga keladilar. Shoh ularni yuksak izzat-ikrom bilan kutib olib, saroy xizmatchilari qatoridan joy beradi. Bu hol **Zahiriddin Muhammad Boburning** ilm-ma’rifatni, fan va adabiyot ahlini naqadar e’zozlaganini ko’rsatadi. Xondamir Bobur vafotigacha uning yonida xizmat qiladi.

Boburshoh vafotidan so’ng Xondamir uning o’g’li va taxt vorisi **Nosiriddin Humoyunshoh**ga xizmat qiladi va yaqin do’stlari safidan joy oladi. Humoyunshoh iltimosiga ko’ra Xondamir o’zining so’nggi asarini yozib qoldiradi. Biz tadqiq etgan ilmiy obyekt ham aynan shu asar bo’lib, u “**Qonuni Humoyuniy**” (“Humoyun qonunlari”) yoki “**Humoyunnoma**” deb ataladi.

Humoyunshoh otasi Bobur va buyuk bobosi **Amir Temur** singari davlat boshqaruvida o’ziga xos islohotlarni amalga oshirishni maqsad qilgan. Bu islohotlarning tarixi va jarayonlari “**Qonuni Humoyuniy**” asarida aks etgan. Asarni “Temur tuzuklari”ning o’ziga xos davomchisi, ya’ni Temuriylar davri davlat boshqaruvi an’analarning Hindiston sharoitida qo’llanilishi sifatida baholash mumkin.

“**Qonuni Humoyuniy**” ayrim sharqshunos olimlar e’tiborini tortgan. Jumladan, sharqshunos olim **Nasiba Qoriyeva** o’z nomzodlik dissertatsiyasida ushbu asardan foydalangan. Biroq asar alohida ilmiy obyekt sifatida maxsus tadqiq etilib, keng jamoatchilikka yetarlicha taqdim etilmagan. Shu bois uni o’rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

“**Qonuni Humoyuniy**” bizgacha uch nusxada yetib kelgan: biri **Britaniya muzeyida** (London), ikkinchisi Tehronda (Eron), uchinchisi Sankt-Peterburgda (Rossiya) saqlanadi. Shuningdek, Hindistonda nashr etilib, ingliz tiliga tarjima qilingan nusxasi ham mavjud. Asar 1940-yilda Hindistonda eronlik tadqiqotchi **Hidoyat Husayn** tomonidan chop etilgan. Hajmi kichik (53 sahifa) bo‘lishiga qaramay, nihoyatda katta ilmiy qiymatga ega.

Asar fors tilida yozilgan bo‘lib, unda Humoyunshohning taxtga o‘tirishi, davlat boshqaruvidagi islohotlar, hafta va kunlarning taqsimoti, ish kunlarining belgilanishi, kundalik kiyim-kechakka oid maslahatlar, turli tasvirlar, qurilgan kemalar, bozorlar, bunyodkorlik ishlari, shuningdek, Humoyunshoh buyurtmasi bilan to‘qilgan oltin naqshli quvonch gilami - “**Bisoti nishot**” haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Asarning tili go‘zal bo‘lib, unda masnaviyalar, qit‘alar, baytlar va she‘rlar keltirilgan, Qur‘ondan olingan oyatlar esa inson qalbini yoritadi.

Hozirgi kunda bu asar fors tilidan o‘zbek tiliga to‘liq tarjima qilingan bo‘lib, faqat ilmiy tahrir, izoh va sharhlar bilan boyitish ishlari qolgan.

## **GLOBAL RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Karamatova Dilfuza Sadinovna**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti  
“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” kafedrasida dotsenti v.b.

**Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi  
e-mail: [nigina.mahmudova06@gmail.com](mailto:nigina.mahmudova06@gmail.com)

XXI asrda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Global raqamlashtirish jarayoni ta’lim tizimi oldiga ham yangi talab va vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning raqamli savodxonligini shakllantirish, innovatsion fikrlashini rivojlantirish va zamonaviy kompetensiyalarni tarkib toptirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois boshlang‘ich ta’lim tizimini modernizatsiya qilish pedagogikaning muhim ilmiy yo‘nalishiga aylanmoqda.


Modernizatsiya - bu ta’lim mazmuni, shakl va metodlarining zamonaviy talablar asosida yangilanishidir. Boshlang‘ich ta’lim tizimini modernizatsiya qilish faqat texnik vositalarni joriy etish bilanгина cheklanmasligi kerak. Haqiqiy modernizatsiya - bu ta’lim mazmuni, metodlari va baholash tizimining yangilanishi bilan bog‘liq kompleks jarayondir.

Global raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich ta’lim tizimini samarali modernizatsiya qilish uchun quyidagi amaliy taklif va tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- ✓ Boshlang‘ich sinflarda raqamli savodxonlik elementlarini bosqichma-bosqich joriy etish.
- ✓ O‘qituvchilar uchun muntazam AKT malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
- ✓ Interaktiv elektron darsliklar yaratish.
- ✓ STEAM asosidagi integratsiyalashgan darslarni ko‘paytirish.
- ✓ O‘quvchilarning raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish.

Global raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning pedagogik asoslarini quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin:

<b>Pedagogik asos</b>	<b>Mohiyati</b>	<b>Amaliy ahamiyati</b>
SHAXSIYLASHTIRILGAN VA ADAPTIV TA'LIM-Global raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning eng muhim pedagogik asoslaridan biri bu shaxsiylashtirilgan va adaptiv ta'lim hisoblanadi.	Bu yondashuv o'quv dasturlari va materiallarini har bir bolaning individual xususiyatlariga moslashni nazarda tutadi. Bu konstruktivistik pedagogika va metakognitiv yondashuvga asoslanadi.	O'quvchilarning motivatsiyasini 30-40% ga oshirish, kognitiv yukni kamaytirish va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi.
O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK RAQAMLI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH - Bu o'qituvchilarning raqamli vositalarni nafaqat texnik, balki pedagogik jihatdan samarali qo'llash qobiliyatidir.	Bu "Aysberg kompetensiya modeli" va "Emotsional-ijtimoiy kompetensiya nazariyasi"ga tayanadi.	O'qituvchilarni zamonaviy darslarni tashkil etish, xalqaro baholash dasturlariga (PIRLS kabi) tayyorgarlik ko'rish va o'quvchilarni "axborot ummoni"da himoya qilishga tayyorlaydi.
MEDIASAVODXONLIK VA TANQIDIY FIKRLASH - Bu bolalarni turli axborotlarni tahlil qilish, ishonchligini baholash va undan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdir.	Bolalarni yolg'on axborot va raqamli xavflardan himoya qilish.	PIRLS-2026 kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishning asosiy shartlaridan biri.
STEAM VA FANLARARO INTEGRATSIYA - Bu aniq fanlar, texnologiya, muhandislik va matematikani bir-biri bilan bog'lab o'qitish orqali bolalarda innovatsion va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir.	Bolalarni kelajak kasblariga tayyorlash	Bolalarning muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.
INKLYUZIVLIK VA RAQAMLI TENGLIK - Bu barcha bolalar, jumladan, qizlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va chekka hududlardagilar uchun raqamli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishdir.	Ta'limdagi tengsizlikni kamaytirish.	Har bir bolaning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishiga zamin yaratadi va adolatli jamiyat qurishga hissa qo'shadi.



Global raqamlashtirish kontekstida Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarida amalga oshirilgan raqamli ta'lim tajribalari haqida ilmiy va amaliy misollar keltirilgan:

Finlandiya tajribasi. Finlandiya raqamlashtirishni ta'lim tizimining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan davlatlardan biridir. Uning raqamli ta'lim yondashuvi quyidagicha:

Mamlakat ta'lim siyosati doirasida raqamli ko'nikmalar va texnologiyalarni qo'llashni umumta'lim jarayoniga kiritish ustuvor vazifa sifatida qaraladi, bu orqali o'quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish va ta'limning sifati hamda inkluzivligini oshirish maqsad qilingan. Raqamli strategiya "Digitalisation of education and training" hujjatlarida belgilanganidek, raqamli xizmatlar, infratuzilma va integratsiyalangan yondashuvlar butun tizim bo'ylab ishlab chiqilgan.

M-learning kabi raqamli loyiha asosida o'quvchilar va o'qituvchilar mobil va onlayn muhitda bilim almashish va hamkorlik qilish imkoniga ega bo'lishadi, shu bilan birga digital ko'nikmalar orqali individual o'rganish rag'batlantiriladi.

Ta'limda texnologiyalarni qo'llash ta'lim jarayonini osonlashtirishga xizmat qiladi, lekin Finlandiya yondashuvi texnologiyani maqsad uchun emas, balki o'quv jarayonini chuqurlashtirish vositasi sifatida qo'llashni afzal ko'radi (masalan, kodlash, raqamli ko'nikmalar, media savodxonligi).

Ushbu yondashuv, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich kiritish orqali o'quvchilarning ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Singapur tajribasi. Singapur ta'lim tizimining raqamlashtirish yo'nalishi innovatsiyalar va milliy platformalar orqali amalga oshiriladi:

Raqamli o'quv platformasi "Singapore Student Learning Space (SLS)" kabi tizimlar orqali o'quvchilar va o'qituvchilar uchun birlashtirilgan elektron ta'lim resurslari va real vaqti analytics vositalari taqdim etiladi, bu esa individual o'quv jarayonini monitoring qilish va o'quvchi ehtiyojiga moslashtirish imkonini beradi.

Singapur ta'lim siyosati doirasida «hayot davomida o'rganish» tamoyili asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi; davlat SkillsFuture kabi milliy dasturlar orqali raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi va o'rganishni kelajak yoshi uchun ham zarur qilib qo'yadi.

Ta'lim jarayonida loyiha-asosli o'rganish, muammolarni hal etish va STEM ta'limi keng qo'llanadi. Bu esa o'quvchilarning texnologik savodxonligi va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlaydi.

Bu yondashuvlar Singapurda raqamli resurslarni o'qitish metodologiyasi bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarning raqamli dunyo bilan samarali muloqot qilishi uchun imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, global raqamlashtirish jarayoni boshlang'ich ta'lim tizimi oldiga yangi pedagogik vazifalarni qo'yimoqda. Ta'limni modernizatsiya qilish faqat texnik vositalarni joriy etish bilan cheklanmay, balki mazmun, metod va baholash tizimini yangilashni talab etadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar pedagogik maqsadga muvofiq va tizimli qo'llanilgandagina yuqori samaradorlik beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054.
2. UNESCO. (2021). *Digital Education Transformation Framework*. Paris: UNESCO Publishing.
3. Karamatova, D. и Mahmudova, N. "Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchining kreativ yondashuvi". *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*. 4, 7 (2025), 133–138.
4. European Commission. (2021). *Digital Education Action Plan 2021–2027*. Brussels.
5. Mahmudova N.M. "O'quvchilarning o'rganish faoliyatini kuzatish va tahlil qilishda katta ma'lumotlar va data mining texnologiyalarining qo'llanilishi"/ "Sun'iy intellekt nazariyasi va

amaliyoti: tajriba, muammolar va istiqbollar” mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 17-18 iyun, 2025. 687-689 b.

6. Mahmudova N.M. “O‘quvchilar darsni samarali o‘zlashtirishida zamonaviy 3D va raqamli texnologiyalarning roli” / “Sun‘iy intellekt nazariyasi va amaliyoti: tajriba, muammolar va istiqbollar” mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 17-18 iyun, 2025. 153-155 b.

## **“BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI”**

**Karamatova Dilfuza Sadinovna**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti  
“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” kafedrası dotsenti v.b.

**Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi  
e-mail: [nigina.mahmudova06@gmail.com](mailto:nigina.mahmudova06@gmail.com)

Hozirgi globallashuv va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarning huquq va majburiyatlari haqidagi dastlabki tasavvurlarini shakllantirish ularning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini belgilab beradi.

Huquqiy madaniyat – bu insonlarning huquqiy bilim darajasi, qonunlarga nisbatan ongli munosabati, ularni hurmat qilishi hamda kundalik hayotda huquqiy me‘yorlarga qat‘iy rioya etishini ifodalovchi tushuncha. Bu tushuncha fuqarolarning huquqiy ongini, qonunlarga rioya qilish darajasini va huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizligini o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta oladigan, savollar berishdan cho‘chimaydigan, xatolaridan o‘rganadigan muhitda o‘qishlari zarur. Bu esa ularning huquqiy tushunchalarni o‘zlashtirishiga yordam beradi. Pedagoglar esa o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, har bir bolaning huquqiy bilimlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etishlari lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida huquqiy madaniyatni rivojlantirish – o‘yinlar, ertaklar, rolli o‘yinlar va interfaol usullar orqali o‘z huquq va majburiyatlarini tushuntirishdir. Bu jarayon sodda, ko‘rgazmali va hayotiy misollar yordamida, qoidalarga rioya qilish, hurmat va mas‘uliyat tuyg‘ularini shakllantirishga qaratiladi.

Har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarda huquqiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni faqat nazariy tushuntirish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Chunki ushbu yosh davrida bolalar abstrakt tushunchalarga nisbatan hayotiy, aniq va ko‘rgazmali misollar orqali tezroq anglaydi hamda eslab qoladi. Shu sababli huquqiy tushunchalarni shakllantirishda interaktiv va amaliy metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta‘minlaydi.

Xususan, interaktiv metodlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirib, ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Hayotiy vaziyatli topshiriqlar orqali o‘quvchilar kundalik hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan huquqiy holatlarni tahlil qilishni o‘rganadi. Rolli o‘yinlar esa bolalarda mas‘uliyat, adolat va qonunlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Muammoli savollar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirib, ularni o‘z huquq va majburiyatlarini anglashga yo‘naltiradi.

Shuningdek, huquqiy madaniyatni rivojlantirish faqat dars jarayoni bilan cheklanmasligi kerak. Sinfdan tashqari tadbirlar, tarbiyaviy soatlar, mavzuli uchrashuvlar va tanlovlar orqali o‘quvchilarning huquqiy ongini mustahkamlash mumkin.

## Boshlang'ich Ta'limda Huquqiy Madaniyatni Rivojlantirish Metodologiyasi



Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida huquqiy savodxonlikni shakllantirish bo'yicha quyidagi amaliy taklif va tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ✓ Boshlang'ich sinflar uchun "Huquqiy savodxonlik daqiqalari"ni joriy etish.
- ✓ Har oyda "Mening huquqim" mavzusida sinf soatlari o'tkazish.
- ✓ Rolli o'yinlar orqali sud jarayoni, muammoli vaziyatlarni sahnalashtirish.
- ✓ Bolalar huquqlari bo'yicha maxsus ko'rgazmali materiallar ishlab chiqish.
- ✓ Raqamli platformalarda huquqiy viktorinalar tashkil etish.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarga huquqiy bilimlarni ularning yosh xususiyatlariga mos, sodda va tushunarli tarzda yetkazish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Murakkab huquqiy tushunchalarni hayotiy misollar va interfaol usullar orqali izohlash samarali natija beradi. Quyidagi metodlar huquqiy madaniyatni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi:

Suhbat va munozara usuli – o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda o'z huquq va majburiyatlarini anglashga yordam beradi.

Rolli o'yinlar – turli huquqiy vaziyatlarni sahnalashtirish orqali bolalarning muammoli holatlarni tushunish va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

"Huquqiy savodxonlik daqiqalari" – muntazam ravishda qisqa ma'lumotlar berish orqali huquqiy bilimlarni izchil mustahkamlash imkonini yaratadi.

"Mening huquqim" mavzusidagi sinf soatlari – o'quvchilarda shaxsiy huquq, burch va javobgarlik tushunchalarini tarkib toptiradi.

Raqamli viktorinalar va interaktiv topshiriqlar – axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning qiziqishi va faolligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida huquqiy madaniyatni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu jarayon o'quvchilarda huquqiy bilim, mas'uliyat, adolat va qonunlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Huquqiy tushunchalarni sodda, ko'rgazmali va hayotiy misollar asosida tushuntirish, interaktiv va amaliy metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, huquqiy tarbiya faqat dars jarayoni bilan cheklanmasdan, sinfdan tashqari tadbirlar orqali ham mustahkamlanishi lozim. Mazkur yondashuv o'quvchilarning kelajakda huquqiy ongli va faol fuqarolar bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
2. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2020.

3. Karamatova D.S., Mahmudova N.M. “The integration of digital technologies in modern education as a pressing pedagogical challenge”. American journal of education and learning 4 (1), 433-442. 2026. <https://advancedscienti.com/index.php/AJEL/article/view/3785/>

4. Karamatova D.S., Mahmudova N.M. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish”. ILM FAN IFTIXORI. Vol. 1. №1(2025). <https://interspp.com/index.php/ilmfaniftixori/article/view/3491>

5. Mahmudova.N.M. “Tarbiyaviy tadbirlar vositasida ekologik tarbiyani shakllantirish” // Boshlang‘ich ta‘lim tabiiy fanlarining zamonaviy tendensiyalari: muammolari,yechimlari, o‘qitishning innovatsion yondoshuvlari” mavzusidagi respublika ilmiy anjumani materiallari to‘plami. Toshkent 2025. 382-387 b.

## **BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIDA SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

**Kasimova Alimjonovna Odinaxon**

Nizomiy nomidagi O‘z. M.P.U.

“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” kafedrası hamda

Toshkent Xalqaro Universiteti

“Ijtimoiy fanlar va ta‘lim” kafedrası

o‘qituvchisi p.f.f.d. (PhD),

**Zoxidova Diyora Akmalovna**

**To‘liboyeva O‘g‘iljon Anvar qizi**

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari

Zamonaviy ta‘lim jarayoni global raqamli transformatsiya davridan o‘tmoqda. Bu jarayonda sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalari o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash, ta‘lim kontentini moslashtirish va adaptiv yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Maxsus SI vositalari pedagogik jarayonni soddalashtiribgina qolmay, balki o‘quvchi–o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirni ham yangi sifat darajasiga ko‘taradi.

Ushbu tezisda boshlang‘ich ta‘lim jarayonida sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik imkoniyatlari ham nazariy, ham amaliy jihatdan yoritiladi.

Sun‘iy intellekt — bu kompyuter tizimlari orqali murakkab vazifalarni hal qiluvchi algoritmik texnologiyalar yig‘indisidir. SI asosan mashinaviy o‘qitish (machine learning), natural language processing, learning analytics va intelligent tutoring systems kabi elementlardan iborat bo‘lib, ta‘lim jarayonini avtomatlashtirish, o‘quv materyallarini moslashtirish hamda o‘quv chog‘idagi xatoliklarni aniqlash kabi funksiyalarni bajaradi [2;5]. Sun‘iy intellekt tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasini, zaif tomonlarini va rivojlanish sur‘atini real vaqt rejimida aniqlay oladi. Misol uchun, adaptiv testlar o‘quvchining javoblarini tahlil qilib, uning qaysi bo‘limda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko‘rsatadi. Buning natijasida o‘qituvchi dars rejasini optimal tarzda tuzadi va individual yondashuvni yo‘lga qo‘yadi [4].

Adaptiv SI tizimlari o‘quvchining hozirgi bilim darajasiga mos materiallarni tanlab beradi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga matematika yoki ona tili mashqlarini murakkablik darajasiga ko‘ra qayta tashkil etadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularni muvaffaqiyatli o‘rganishga undaydi [5;6].

Sun‘iy intellekt bilan qo‘llaniladigan gamifikatsiya elementlari (ball tizimi, tanlovlar, virtual mukofotlar) o‘quvchilarda qiziqishni oshiradi hamda bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi. Bu pedagogik imkoniyat o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shu bilan birga ijobiy pedagogik muhit hosil qiladi [6;8].

Zamonaviy ta‘lim jarayoni global raqamli transformatsiya bosqichida bo‘lib, pedagogik jarayonlarni individualizatsiya qilish va samaradorligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalari o‘quvchilarning bilim

darajasini tahlil qilish, o'rganish jarayonini individual trayektoriya bo'yicha boshqarish va motivatsiyani oshirish imkonini beradi.

Sun'iy intellektning pedagogik qo'llanilishi boshlang'ich sinf o'qituvchisini darsga tayyorlash, metodik resurslarni moslashtirish va interaktiv metodlarni samarali qo'llash jarayonida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan, SI pedagogik jarayonni yanada adaptiv, dinamik va natijaviy qiladi.

O'qituvchining tayyorgarligi darsning sifatini belgilovchi asosiy omildir. O'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida, ta'lim jarayonini tashkil etilishida SI texnologiyalari quyidagi yo'nalishlarda yordam beradi:

1. **Materiallar tanlash va tavsiya qilish.** SI tizimi dars mavzusiga mos eng samarali vizual, interaktiv va raqamli resurslarni avtomatik tavsiya qiladi. Masalan, mavhum tushunchalarni vizual animatsiyalar yordamida tushuntirish imkoniyatini yaratadi.

2. **Dars rejasini individualizatsiya qilish.** O'quvchilarning avvalgi bilim darajasi va qobiliyatlari SI tomonidan tahlil qilinadi, shuningdek, darsning qaysi bosqichlariga ko'proq e'tibor berish kerakligi aniqlanadi. Shu tariqa o'qituvchi darsni adaptiv tarzda tashkil qiladi.

3. **Rejalashtirish va monitoring.** SI algoritmlari yordamida o'quvchilarning qaysi mashqlarni tez yoki sekin bajarayotganini aniqlash mumkin, bu esa darsning samaradorligini oshiradi.

Metodik ta'minot o'qituvchining darsni samarali o'tkazishida asosiy rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt yordamida metodik jarayon quyidagicha boyitilib borishi mumkin bo'ladi:

• **Adaptiv kontent:** SI o'quvchining javoblari va xatolarini tahlil qilib, mashqlar murakkabligini avtomatik moslashtiradi.

• **Baholash va feedback:** O'quvchilarning faoliyati real vaqt rejimida tahlil qilinadi va o'qituvchiga individual yordam ko'rsatish tavsiyalari beriladi.

• **Raqamli portfoliolar:** Har bir o'quvchining yutuqlari va rivojlanish trayektoriyasi SI tomonidan qayd etiladi va keyingi darslar uchun adaptiv yo'nalishlar ishlab chiqiladi.

Shu tarzda metodik ta'minot SI imkoniyatlari bilan birlashtirilganda o'quvchilarning individual o'rganish sur'ati va bilim faolligi sezilarli darajada oshadi.

Interaktiv metodlar o'quvchilarning darsdagi faolligini rag'batlantiradi va SI bilan birlashtirilganda pedagogik jarayon yanada samarali bo'ladi:

1. **Gamifikatsiya.** SI tizimi o'quvchilarning harakatlarini tahlil qilib, ularni rag'batlantiruvchi ball tizimi va virtual mukofotlarni belgilaydi. Masalan, robototexnika darsida blokli dasturlash topshiriqlarini to'g'ri bajarishga qarab mukofotlash [5;8].

2. **Real vaqt yo'naltiruvchi.** O'quvchi kod yozayotganda SI algoritmlari xatoliklarni aniqlaydi va "virtual tutor" orqali yo'naltiruvchi savollar beradi. Bu o'quvchining mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi [3;7].

3. **Individual trayektoriya.** SI tizimi o'quvchining harakatlarini monitoring qiladi va kelgusi darslar uchun murakkablik darajasini moslashtiradi. Shu tariqa har bir o'quvchi o'z sur'atida bilim oladi va muvaffaqiyat hissi oshadi

Boshlang'ich ta'lim jarayonida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish pedagogik jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, SI o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, individual trayektoriya yaratish va darsni adaptiv tarzda boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, SI yordamida o'qituvchi darsga tayyorgarlik jarayonini optimallashtiradi, metodik ta'minotdan samarali foydalanadi va interaktiv metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning faolligini oshiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari quyidagi pedagogik imkoniyatlarni yaratadi:

1. **Individualizatsiya** – har bir o'quvchining qobiliyati, bilim darajasi va o'zlashtirish sur'atiga moslashtirilgan dars jarayoni.

2. **Real vaqt monitoring** – o'quvchilarning har bir harakati tahlil qilinib, xatolar aniqlanadi va yo'naltiruvchi feedback beriladi.

3. **Motivatsiya va faollikni oshirish** – gamifikatsiya, virtual tutor va interaktiv vazifalar yordamida o'quvchilar darsga faol jalb qilinadi.

4. **Rivojlanish trayektoriyasini boshqarish** – kelgusi darslar uchun murakkablik darajasi moslashtiriladi va “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi doirasida individual rivojlanish ta’minlanadi.

Shu bilan birga, SI pedagogik jarayonda o’qituvchining rolini yanada strategik darajaga ko’taradi. Endi o’qituvchi texnik xatolarni tuzatuvchi emas, balki o’quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantiruvchi yo’naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi.

Natijada, boshlang’ich sinf o’quvchilari nafaqat bilim va ko’nikmalarini samarali shakllantiradi, balki zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko’nikmalarini intuitiv tarzda egallaydi, raqamli kompetensiyalarini rivojlantiradi va STEM sohalariga bo’lgan qiziqishi mustahkamlanadi. Shu tariqa SI pedagogik jarayonni samarali, qiziqarli va natijaviy qiladi, boshlang’ich ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Akbarov, S. Raqamli ta’lim va sun’iy intellektning pedagogik qo’llanilishi. Toshkent: Ilm, 2020.
2. Uzelac A., Gligoric N. Adaptive Learning Systems in Engineering Education. – IEEE Access, 2020, p. 44–50.
3. Xolboyev, R. Innovatsion ta’lim usullari va pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Ilmiy nashr, 2021
4. Woolf B. Intelligent Tutoring Systems. – Morgan Kaufmann, 2010, p. 78.
5. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-makers. – 2021, p. 27–30
6. Usmonova, D. Sun’iy intellekt asosida adaptiv ta’limning pedagogik imkoniyatlari. Toshkent: Ilm, 2021.
7. Saidov, I. Sun’iy intellekt yordamida interaktiv dars metodlari. Toshkent: Fan, 2020.
8. Yuldasheva, S. Innovatsion pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalar. Toshkent: Pedagogika, 2021.

#### **BOSHLANG’ICH TA’LIMDA ROBOTOTEXNIKA FANINI O’QITISHDA ADAPTIV- INTELLEKTUAL MODELNI QO’LLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Nizomiy nomidagi O’z. M.P.U.**

“Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi” kafedrası hamda

Toshkent Xalqaro Universiteti

“Ijtimoiy fanlar va ta’lim” kafedrası  
o’qituvchisi p.f.f.d. (PhD), Kasimova

**Odinaxon Alimjonovna**

Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabasi  
Shamsiddinova Farzona

Zamonaviy ta’lim paradigmasida raqamli transformatsiya jarayonlari o’quv jarayonini nafaqat raqamlashtirishni, balki uni intellektual boshqarishni ham taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang’ich ta’lim bosqichida robototexnika fanini o’qitish o’quvchilarda texnik ijodkorlik va algoritmik tafakkurni shakllantirishda poydevor vazifasini o’taydi. Biroq, an’anaviy o’qitish metodikasi o’quvchilarning individual kognitiv imkoniyatlari va o’zlashtirish sur’atlari orasidagi keskin farqlarni (diferensial farqlarni) to’liq qoplashga qodir emas. Shu bois, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalariga asoslangan adaptiv ta’lim modellarini ishlab chiqish va ularni robototexnika darslariga integratsiya qilish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Sun’iy intellekt bugungi hayotimizning ajralmas bir bo’lagiga aylandi. Ta’lim sohasida Al turli sharoitlarda sinovdan o’tkazila boshladi. shu bilan birga sun’iy intellektga tobora talab ham ortib bormoqda.

Raqamli iqtisodiyot davrida STEM ta'limini boshlang'ich sinflardan boshlash strategik vazifa hisoblanadi. Robototexnika — bu nafaqat texnik fan, balki kichik yoshdagi o'quvchilarda algoritmik tafakkur, fazoviy tasavvur va muammoli vaziyatlarni yechish ko'nikmalarini shakllantiruvchi kompleks vositadir. Biroq, 7-10 yoshli bolalarning tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lganligi sababli, ta'limni individuallashtirish zarurati tug'iladi. [1, 87-b].

Sun'iy intellekt ta'lim jarayonida qaror qabul qilishni avtomatlashtiruvchi mexanizm sifatida qo'llanadi [2, 12-b]. Zamonaviy tadqiqotlar SI asosidagi ta'lim muhitlari o'quv natijalarini sezilarli oshirishini ko'rsatmoqda [3, 45-b].

Bloomning "Mastery Learning" konsepsiyasi individual o'zlashtirish tezligi tamoyiliga asoslanadi [4, 18-b]. Mazkur yondashuv adaptiv ta'limning nazariy poydevorini tashkil etadi.

### **ADAPTIV TA'LIMNING NAZARIY ASOSLARI**

Adaptiv ta'lim tushunchasi dastlab personalizatsiyalangan o'qitish tizimlari doirasida shakllangan. [1,90-b] Brusilovsky adaptiv tizimlarni foydalanuvchi modeli, kontent modeli va pedagogik strategiya asosida tavsiflaydi [93-b]. Sun'iy intellekt algoritmlari ta'lim jarayonida bilim darajasini prognoz qilish va murakkablikni moslashtirish imkonini beradi [5, 210-b]. Machine learning metodlari o'quvchining xatoliklarini aniqlab, keyingi topshiriqlarni optimallashtiradi [6, b- 34]. Holmes va boshqalar ta'kidlashicha, SI asosidagi adaptiv tizimlar o'quv motivatsiyasini oshiradi [3, 63-b].

Adaptiv-intellektual model — bu o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi, o'zlashtirish tezligi va tafakkur xususiyatlariga moslashgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu model sun'iy intellekt elementlari, raqamli texnologiyalar hamda differensial ta'lim tamoyillariga asoslanadi.

Boshlang'ich ta'limda robototexnika J.Piage va S.Peypertning konstruktivizm hamda konstruksionizm nazariyalariga tayanadi. Bolalar "o'ynab o'rganish" (learning by making) orqali mavhum tushunchalarni (masalan, datchik signali yoki sikl operatori) moddiylashtiradi.

Adaptiv model ushbu jarayonda Bloom taksonomiyasining quyi bosqichlaridan (eslab qolish, tushunish) yuqori bosqichlariga (yaratish, tahlil) o'tishni har bir o'quvchi uchun individual sur'atda ta'minlaydi.

Robototexnika mexanika, elektronika va dasturlashni birlashtiruvchi kompleks fan hisoblanadi [7,5-b]. Siciliano va Khatib robot tizimlarini ko'p komponentli muhandislik tizimi sifatida tavsiflaydi [7,12-b].

Robototexnika o'qitishda nazariya va amaliyot integratsiyasi muhimdir [8,44-b]. Shu sababli individual farqlar keskin namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan model quyidagi komponentlardan iborat:

**Intellektual diagnostika:** O'quvchining vizual (rasmli) testlar orqali mantiqiy darajasini va sensor-motor ko'nikmalarini aniqlash.

**Dinamik kontent generatori:** Agar o'quvchi Scratch yoki Blockly kabi muhitlarda kod yozishda qiynalsa, tizim avtomatik ravishda murakkab algoritmnini sodda blok-sxemalarga ajratib beradi.

Virtual SI-tutor (Gamifikatsiya): Bolaga xatolarini "robot-yordamchi" obrazida, uning yoshiga mos sodda tilda tushuntiradi.

Learning analytics o'quvchilarning faoliyatini monitoring qilish va rivojlanish trayektoriyasini modellashtirish imkonini beradi [9,3-b].

Boshlang'ich sinf robototexnika darslarida adaptiv model statik emas, balki **dinamik sikl** ko'rinishida ishlaydi. Bu jarayon o'quvchining har bir harakatiga qarab real vaqt rejimida (real-time) o'zgarib boradi. Biz bu jarayonni quyidagi bosqichlarda ko'rib chiqamiz:

**1-bosqich: Adaptiv Diagnostika (Kirish).** Dars boshida tizim o'quvchining nafaqat bilimni, balki kognitiv holatini ham aniqlaydi. Gamifikatsiyalangan (o'yinli) testlar orqali bolaning bugungi darsga tayyorlik darajasi, konstruktor detallarini tanish tezligi va mantiqiy bog'liqlikni ilg'ash qobiliyati skanerlanadi.

**2-bosqich: Faoliyat Analitikasi (Ma'lumot yig'ish).** O'quvchi planshetda blokli dasturlash (masalan, LEGO Education yoki Scratch) bilan shug'ullanayotganda, SI (Sun'iy Intellekt) quyidagi metrikalarni tahlil qiladi:

- o *Bloklarni tanlashdagi ikkilanish vaqti;*
- o *Mantiqiy xatolarning takrorlanishi;*
- o *Dasturni ishga tushirish va xatolarni tuzatish (debugging) strategiyasi.*

**3-bosqich: Trayektoriyani Differensial Moslashtirish.** Tahlil natijasiga ko'ra, tizim o'quvchini avtomatik ravishda tegishli darajaga o'tkazadi:

- o **Iqtidorli o'quvchi uchun (Scaffolding):** Murakkab labirint algoritmi, datchiklar integratsiyasi yoki o'zgaruvchilardan foydalanish vazifasi.
- o **Sustroq o'quvchi uchun (Supportive):** Vizual yordamchilar, tayyor kodli bloklarni to'g'ri ketma-ketlikka qo'yish yoki robotning chiziq bo'ylab harakatlanishini ta'minlovchi sodda modullar.

**4-bosqich: Intellektual Tutor va Qayta Aloqa.** Adaptiv tizim shunchaki xatoni ko'rsatmaydi, balki yo'naltiruvchi savol beradi. Masalan: "*Sening roboting to'siqni ko'rmayapti, balki masofa datchigi bloki faol emasdir?*". Bu bolada mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

**5-bosqich: Dinamik Portfoliolashtirish va Kelajak Modeli.** Dars yakunida o'quvchining muvaffaqiyati asosida kelgusi darsning murakkablik darajasi dasturlanadi. Bu o'quvchining "Yaqin rivojlanish zonasi" (Vygotsky nazariyasi) doirasida qolishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'limga adaptiv modelning integratsiya qilinishi o'quv jarayonining didaktik mohiyatini tubdan o'zgartirib, birinchi navbatda kognitiv yuklamani (Cognitive Load) optimallashtirishga xizmat qiladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning ishchi xotirasi cheklanganligini inobatga olgan holda, tizim murakkab dasturlash sintaksisi yoki og'ir mantiqiy shartlarni filtrlaydi va faqat bolaning joriy o'zlashtirish darajasiga mos kontentni taqdim etadi. Bu yondashuv o'quvchida muvaffaqiyatsizlik tufayli yuzaga keladigan "o'rganilgan o'jizlik" sindromining oldini olib, uning o'rniga barqaror motivatsiya va erta professional o'zlikni anglash (Self-ID) hissini shakllantiradi. Bola doimiy ravishda o'z imkoniyatlari chegarasidagi, ammo yengib bo'ladigan qiyinchiliklar bilan to'qnash kelishi natijasida "g'alaba" hissini tuyadi, bu esa robototexnika va muhandislik sohasiga bo'lgan qiziqishni erta bosqichda mustahkamlab, kelajakdagi STEM kasblari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Shu bilan birga, ushbu model ta'lim jarayonida o'qituvchining strategik pozitsiyasini (Orchestration) yangi bosqichga olib chiqadi. Sinfdagi o'quvchilar soni ko'p bo'lgan sharoitda o'qituvchi har bir bola bilan individual shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lmasa-da, adaptiv tizimning boshqaruv paneli (Dashboard) orqali "turg'unlik" holatiga tushib qolgan o'quvchilarni real vaqt rejimida aniqlay oladi. Bu esa o'qituvchining vazifasini texnik xatolarni tuzatuvchi xodimdan, o'quvchining ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantiruvchi ta'limiy facilitator (yo'naltiruvchi) darajasiga ko'taradi. Natijada, o'quvchilar nafaqat robot yasashni o'rganadilar, balki mashinali o'qitish algoritmlari bilan bevosita muloqot qilish orqali zamonaviy texnologiyalarning ishlash prinsipini intuitiv darajada tushunib, raqamli kompetentlik va tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Brusilovsky P. Adaptive Educational Systems. – IJAIED, 2001, p. 87–95.
2. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. – Pearson, 2020, p. 12.
3. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education. – CCR, 2019, p. 45–63.
4. Bloom B. Human Characteristics and School Learning. – McGraw-Hill, 1976, p. 18–21.
5. Bishop C. Pattern Recognition and Machine Learning. – Springer, 2006, p. 210–220.
6. Woolf B. Building Intelligent Interactive Tutors. – Morgan Kaufmann, 2010, p. 34.
7. Siciliano B., Khatib O. Springer Handbook of Robotics. – Springer, 2016, p. 5–15.

8. Uzelac A., Gligoric N. Adaptive Learning Systems in Engineering Education. – IEEE Access, 2020, p. 44–50.
9. Siemens G., Baker R. Learning Analytics and Educational Data Mining. – LAK, 2012, p. 3–5.
10. Woolf B. Intelligent Tutoring Systems. – Morgan Kaufmann, 2010, p. 78.
11. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020, 14-modda.
12. VanLehn K. The Relative Effectiveness of Human Tutoring. – Educational Psychologist, 2011, p. 210–215.
13. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-makers. – 2021, p. 27–30

## **YOSHLAR SIYOSATI DOIRASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA YOSHLARNING FAOL ISHTIROKINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI**

**Ganiyeva Muborak Adilovna**  
 “Tashkent International University”  
 xalqaro universiteti  
 Ijtimoiy fanlar va ta’lim kafedrası  
 v.b. professori  
**Sultanova Ruzigul**  
 “Tashkent International University”  
 xalqaro universiteti talabasi

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni yanada ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar iqtisodiyot, ta’lim, boshqaruv va ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib kelgan bir paytda yoshlarning ushbu jarayonlardagi faol ishtirokini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yoshlar – jamiyatning eng dinamik, innovatsion va moslashuvchan qatlami bo‘lib, ular raqamli muhitga tez moslashishi bilan ajralib turadi. Shu sababli zamonaviy yoshlar siyosatining muhim vazifalaridan biri – yoshlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni raqamli iqtisodiyot subyekti sifatida shakllantirish hamda texnologik jarayonlarga faol jalb etishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda yoshlar siyosati va raqamlashtirish yo‘nalishida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, yoshlar bandligini ta’minlash dasturlari, IT-parklar faoliyati yoshlarning raqamli faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq mavjud imkoniyatlarga qaramay, yoshlarning raqamli texnologiyalardagi ishtirokini tizimli va barqaror rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – yoshlar siyosati doirasida raqamli texnologiyalarda yoshlarning faol ishtirokini rivojlantirish mexanizmlarini kompleks tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Yoshlar siyosati – bu davlat va jamiyat tomonidan yoshlarning ijtimoiylashuvi, bandligi, ta’lim olishi, o‘zini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Zamonaviy sharoitda ushbu siyosatning muhim komponentlaridan biri raqamli rivojlanish bilan uzviy bog‘liq.

Raqamli transformatsiya – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tubdan yangilash jarayonidir. Ushbu jarayonda inson kapitali, ayniqsa yoshlarning raqamli kompetensiyasi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda yoshlarning raqamli ishtiroki quyidagi komponentlar orqali tavsiflanadi: raqamli savodxonlik darajasi; texnologik ijodkorlik; onlayn fuqarolik faolligi; raqamli tadbirkorlik; innovatsion loyihalarda ishtirok.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning raqamli texnologiyalardagi faolligi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ijtimoiy barqarorlikni ham oshiradi. Shu bois yoshlar siyosati va raqamli siyosat integratsiyasi dolzarb masalaga aylanmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlarning IT sohasiga jalb etilishi sezilarli darajada oshdi. IT-park rezidentlari sonining ko'payishi, dasturlash kurslari, onlayn ta'lim platformalarining kengayishi bunga dalildir.

Ijobiy tendensiyalar bilan birga quyidagi muammolar ham mavjud: hududlar o'rtasida raqamli tafovut; amaliy ko'nikmalarning yetarli emasligi; startap madaniyatining sust rivojlanishi; motivatsiya va yo'naltirish tizimining fragmentarligi; qizlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarning kam qamrovi.

Mazkur muammolar yoshlarning raqamli texnologiyalardagi ishtirokini tizimli mexanizmlar asosida rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Yoshlarning raqamli faolligini rivojlantirish mexanizmlari quyidagilardan iborat:

1. Institutsional mexanizmlar – bu davlat va nodavlat tuzilmalar orqali yoshlarning raqamli rivojlanishini qo'llab-quvvatlash tizimidir. Asosiy yo'nalishlar: IT-parklar va texnoparklar faoliyatini kengaytirish; yoshlar innovatsion markazlarini ko'paytirish; universitet–sanoat hamkorligini kuchaytirish; raqamli startaplar uchun grant tizimini rivojlantirish.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, institutsional qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lgan hududlarda yoshlarning texnologik faolligi sezilarli yuqori bo'ladi.

Yoshlarning raqamli kompetensiyasini shakllantirishda ta'lim tizimi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Muhim yo'nalishlar: maktabdan boshlab kodlash asoslarini o'qitish; STEAM yondashuvini keng joriy etish; loyiha asosida o'qitish; raqamli ko'nikmalarni baholash tizimini joriy etish; o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish.

Zamonaviy pedagogika yoshlarni passiv iste'molchidan faol yaratuvchiga aylantirishga qaratilishi lozim.

Yoshlarning texnologiyalarga qiziqishini oshirishda motivatsiya muhim omil hisoblanadi. Samarali vositalar: hackathon va tanlovlar; IT stipendiyalar; muvaffaqiyatli yoshlar imiji; mentorlik dasturlari; gamifikatsiya elementlari.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ichki motivatsiya shakllangan yoshlar raqamli sohada uzoq muddat faol bo'ladi.

Texnik imkoniyatlar mavjud bo'lmasa, yoshlar faolligini oshirish qiyin. Zarur choralar: keng polosali internet qamrovini kengaytirish; qishloq hududlarida IT markazlar ochish; arzon qurilmalar bilan ta'minlash; ochiq raqamli platformalarni rivojlantirish.

Raqamli tenglik – yoshlar siyosatining muhim tamoyillaridan biri bo'lishi kerak. Yoshlarni nafaqat foydalanuvchi, balki yaratuvchi va tadbirkor sifatida shakllantirish muhim. Samarali yo'llar: startap inkubatorlari; venchur moliyalashtirish; biznes-akseleratorlar; eksportga yo'naltirilgan IT xizmatlari; frilanserlikni rivojlantirish.

Bu yo'nalish yoshlar bandligini ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega.

Rivojlangan davlatlar tajribasi quyidagi xulosalarni beradi: **Estoniya** – raqamli fuqarolikni maktabdan o'rgatadi. **Janubiy Koreya** – yoshlar uchun bepul IT markazlar tarmog'i mavjud. **Finlyandiya** – loyiha asosida o'qitish ustuvor. **Singapur** – davlat tomonidan startaplarga kuchli grantlar beriladi.

Ushbu tajribalar O'zbekiston sharoitida moslashtirilgan holda joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi: yoshlar siyosati va raqamli strategiyalar integratsiyasini kuchaytirish; har bir hududda "yoshlar it markazi" modelini joriy etish; raqamli ko'nikmalar bo'yicha milliy sertifikat tizimini yaratish; qizlar va imkoniyati cheklangan yoshlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish; universitetlarda majburiy raqamli kompetensiya modullarini kiritish. yoshlar startaplari uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish; mentorlik ekotizimini rivojlantirish. raqamli volontyorlik harakatini yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning faol ishtiroki mamlakatning innovatsion rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot shuni

ko'rsatdiki, yoshlarning raqamli texnologiyalardagi faolligini oshirish kompleks yondashuvni talab qiladi.

Eng samarali model – bu institutsional, pedagogik, motivatsion va infratuzilmaviy mexanizmlarning o'zaro integratsiyasi hisoblanadi. Agar ushbu yo'nalishlar tizimli ravishda rivojlantirilsa, yoshlar nafaqat raqamli iqtisodiyot iste'molchisi, balki uning faol yaratuvchisiga aylanishi mumkin.

Kelgusida yoshlar siyosatini raqamli kun tartibi bilan uyg'unlashtirish, hududiy tenglikni ta'minlash va innovatsion ekotizimni kuchaytirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmon. – Toshkent, 2020.
2. “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 2016.
3. Youth and Digitalisation: Opportunities and Risks in the Digital Age. – Paris: OECD Publishing, 2019.
4. Global Education Monitoring Report: Technology in Education. – Paris, 2023.
5. The Future of Jobs Report. – Geneva, 2023.

### **ISLOM ESTETIKASI VA ZAMONAVIY SAN'AT**

**Mirakbarova Dildora Miralisher qizi**

Toshkent xalqaro universiteti dotsenti,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
[dmirakbarova2207@gmail.com](mailto:dmirakbarova2207@gmail.com)

**Ibrohimova Aziza Oybek qizi**

Toshkent xalqaro universiteti 1-kurs talabasi  
[ibrokhimovaaziza9@gmail.com](mailto:ibrokhimovaaziza9@gmail.com)

Islom estetikasi – bu islomiy e'tiqod, falsafa va tasavvufiy qarashlarga asoslangan, go'zallikni (jamol) ilohiy qudratning in'ikosi va inson ma'naviy kamolotining vositasi sifatida talqin qiluvchi nazariy va amaliy tizimdir. U tasviriy san'atdan ko'ra geometrik naqshlar, arab xattotligi va me'morchilikka e'tibor qaratib, olamning ilohiy tartibini va ruhiy poklikni aks ettiradi.

Islom estetikasi masalasi o'zbek falsafiy tafakkurida, asosan, Sharq falsafasi, tasavvufiy meros va madaniy-estetik qarashlar doirasida chuqur o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda akademik tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri S. Shermuhamedov bo'lib, u estetik tafakkurni insonning ma'naviy dunyosi va axloqiy kamoloti bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, Sharq va islom estetikasi go'zallikni sof tashqi shakl emas, balki ichki ma'no va ruhiy uyg'unlik orqali anglaydi[1].

Islom estetik tafakkurining shakllanishida tasavvuf falsafasining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masala N. Komilov asarlarida atroflicha yoritilgan bo'lib, olim tasavvufiy estetikani ilohiy go'zallikni ramziy idrok etish shakli sifatida izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, islom estetikasi san'atni insonni komillikka yetaklovchi ma'naviy vosita deb biladi[2].

Sharq estetik tafakkuri tarixini tizimli tahlil qilgan olimlardan yana biri M. Xudoyqulov hisoblanadi. U o'z tadqiqotlarida islom estetikasi me'morchilik, xattotlik va naqsh san'atida mutanosiblik hamda cheksizlik g'oyasi orqali namoyon bo'lishini ilmiy asoslaydi[3]. M. Xudoyqulovning qarashlari islom estetikasi zamonaviy san'atda vizual minimalizm va ramziy ifodaning nazariy ildizlarini tushunishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy san'at va estetik ong transformatsiyasi masalalari B. Ergashev tadqiqotlarida keng yoritilgan. Olim zamonaviy san'atda an'anaviy go'zallik mezonlarining yemirilishi va estetik pluralizm kuchayishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u milliy va diniy estetik qadriyatlar global san'at jarayonida muqobil estetik paradigma sifatida namoyon bo'lishi mumkinligini ilmiy asoslaydi[4]. Ushbu qarashlar islom estetikasi va zamonaviy san'at o'rtasidagi munosabatlarni yangicha talqin qilish zaruratini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot falsafiy-estetik metodologiyaga

asoslangan bo‘lib, unda bir nechta o‘zaro bog‘liq ilmiy usullardan foydalanildi. Avvalo, qiyosiy-tahliliy metod orqali islom estetik tafakkurining asosiy kategoriyalari (go‘zallik, ramziylik, mutanosiblik, ma‘naviylik) zamonaviy san‘atdagi estetik tushunchalar bilan solishtirildi. Ushbu yondashuv estetik paradigmalarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari islom estetikasi va zamonaviy san‘at o‘rtasidagi munosabatlar murakkab, ammo biryoqlama qarama-qarshilikka asoslanmaganligini ko‘rsatdi. Olib borilgan qiyosiy-falsafiy tahlil shuni aniqladiki, islom estetikasi zamonaviy san‘at jarayonlarida muqobil va mustaqil estetik paradigma sifatida namoyon bo‘lish imkoniyatiga ega. Bu holat estetik pluralizm sharoitida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, islom estetik tafakkurida markaziy o‘rin tutuvchi ma‘naviylik va ichki uyg‘unlik g‘oyalari zamonaviy san‘atdagi tashqi shakli tajribalardan farqli o‘laroq, estetik idrokning chuqur metafizik qatlamiga yo‘naltirilgan. S. Shermuhamedov ta‘kidlaganidek, Sharq va islom estetikasi go‘zallikni inson ruhiy kamoloti bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin qiladi.[1] Ushbu yondashuv zamonaviy san‘atdagi estetik relativizm fonida muhim muqobil nazariy asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Sharq va islom estetik tafakkurida go‘zallik tushunchasi insonning ichki ma‘naviy kamoloti bilan bevosita bog‘liqdir. B. Ergashev tomonidan ilgari surilgan estetik pluralizm haqidagi qarashlar muhokamada alohida ahamiyat kasb etdi. Olim fikriga ko‘ra, zamonaviy san‘at makonida milliy va diniy estetik an‘analar global diskursdan siqib chiqarilmaydi, aksincha, ular yangi estetik mazmun bilan boyitilishi mumkin.[4]

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, islom estetikasi va zamonaviy san‘at o‘rtasidagi munosabatlar qarama-qarshi estetik tizimlar emas, balki turli maqsad va metodlarga ega bo‘lgan, ammo o‘zaro muloqotga kirisha oladigan estetik paradigmalar sifatida talqin qilinishi lozim. Bu yondashuv zamonaviy estetik falsafada madaniyatlararo dialogni kuchaytirish va san‘atni ma‘naviy jihatdan qayta anglash uchun muhim nazariy asos yaratadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. S. Shermuhamedov. Falsafa. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
2. N. Komilov. Tasavvuf va badiiy tafakkur. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
3. M. Xudoyqulov. Sharq estetik tafakkuri tarixi. – Toshkent: Fan, 2016.
4. B. Ergashev. Zamonaviy madaniyat va san‘at falsafasi. – Toshkent: Akademnashr, 2020.

## **ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ ОБУЧАЮЩИХСЯ В КОНТЕКСТЕ ЗАЩИТЫ ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ**

**Саидова Камола Усканбаевна**

Профессор Ташкентского международного университета,  
доктор педагогических наук (DSc)  
e-mail: [kamola.u.saidova@gmail.com](mailto:kamola.u.saidova@gmail.com)

**Мохина Сулаймонова**

Студентка Ташкентского международного университета

В условиях цифровой трансформации общества вопросы защиты персональных данных становятся не только предметом правового регулирования, но и важным образовательным элементом формирования правовой культуры личности. Можно отметить то, что правовая культура обучающихся — это комплекс знаний, ценностных ориентиров и практических навыков, обеспечивающих правовое сознание и правомерное поведение в цифровой среде. И поскольку обработка персональных данных происходит повсеместно — в образовательных учреждениях, социальных сетях, государственных сервисах, — критически важно включить их защиту в образовательные программы как элемент правового воспитания. Анализ такого процесса, как правило, требует учёта действующих норм Конституции и специализированного законодательства Республики Узбекистан.

В соответствии со статьёй 31 Конституции Республики Узбекистан, закреплено право каждого на защиту персональных данных; также гарантируется неприкосновенность

личной жизни и тайна различного рода сообщений, в том числе электронных. Ограничение данных прав допускается исключительно в случаях и порядке, предусмотренных законом, и на основании судебного решения [1]. Обозначенные положения отражают права индивида на личную неприкосновенность и являются основой для формирования правовой культуры в образовательных контекстах.

Ключевым нормативным актом, регулирующим отношения в сфере защиты персональных данных, является Закон Республики Узбекистан от 2 июля 2019 г. № ЗРУ-547 «О персональных данных» [2]. Он применяется к отношениям, возникающим при обработке и защите персональных данных с использованием любых технологий, в том числе информационных.

Отдельно законодательство предусматривает условие локализации: персональные данные граждан Республики Узбекистан, обрабатываемые с использованием информационных технологий (включая интернет), должны храниться на технических средствах, физически расположенных на территории страны и зарегистрированных в государственном реестре [3].

Под «правовой культурой» в научной литературе понимается совокупность правовых знаний, убеждений, ценностных ориентаций и навыков, которые обеспечивают способность личности действовать в правовом поле общества [4]. В цифровую эпоху к этому добавляется понятие «цифровой правовой компетенции» — т.е. способность сознательно использовать цифровые технологии в соответствии с законом, понимать права и обязанности, связанные с обработкой персональных данных, и защищать свои интересы при пользовании информационными сервисами.

Для обучающихся, это означает способность:

- осознанно давать согласие на обработку персональных данных;
- понимать риски цифрового взаимодействия (например, утечка данных, кибермошенничество);
- оценивать правомерность сбора и использования персональных данных организациями;
- применять правовые знания на практике (например, защищать свои права в случае нарушения законодательства о персональных данных).

Можно подчеркнуть именно то, что современное образование должно учитывать цифровую реальность. Проблемы защиты персональных данных логично включать в предметы, связанные с правом, обществознанием, информатикой и ИТ-безопасностью. Это создаёт основу для формирования правосознания и практических навыков.

Так, обучение способно охватывать следующие аспекты:

- **Правовые основы защиты персональных данных** — изучение Конституции Республики Узбекистан и Закона «О персональных данных» как базы правового регулирования;
- **Права субъектов данных** — умение понимать свои права в цифровой среде (право на доступ, исправление, удаление данных и др.);
- **Обязанности операторов и организации обработки данных** — ожидания к компаниям и государственным структурам, их роль в защите данных;
- **Практические кейсы и симуляции** — анализ ситуаций нарушения прав (например, утечки, несанкционированный доступ, распространение без согласия и т.п.).

Кроме того, правовая культура формируется эффективнее, когда её изучение проводится междисциплинарно:

- **юридическая дисциплина** — анализ нормативно-правовых актов, прав и обязанностей;
- **этика и социальные науки** — обсуждение моральных аспектов обработки данных, дискриминации и уважения к личной жизни;

▪ **информационные технологии** — практические навыки защиты данных, понимание технических средств защиты (шифрование, пароли, антивирусы и т.п.).

Такие подходы помогают обучающимся увидеть проблему как *сочетание правовых, этических и технических аспектов*, что укрепляет правосознание и самооценку ответственности в цифровой среде.

Создание образовательной среды, которая поощряет уважение к правам других и ответственное обращение с данными, крайне важно. Это включает:

1. Политику конфиденциальности во всех учебных заведениях, объясняемую учащимся.
2. Кодексы поведения в цифровой образовательной среде.
3. Инструменты обратной связи для решения вопросов нарушения прав.

При этом сам педагог — не только носитель знаний, но и *мотиватор правомерного поведения*, который должен:

- создавать условия для обсуждения правовых вопросов;
- моделировать реальные ситуации нарушения прав и предложить алгоритмы их решения;
- развивать критическое мышление при оценке цифровых рисков и инструментов защиты.

Формирование правовой культуры обучающихся в контексте защиты персональных данных — это не только ознакомление с нормами Конституции Республики Узбекистан и Закона «О персональных данных», но и развитие правового сознания, цифровой грамотности и практических навыков. Образовательные программы должны быть ориентированы на междисциплинарность, содержать реальные кейсы из жизни в цифровой среде и способствовать формированию ответственного, правосознающего гражданина. В то же время государственная и образовательная политика способна обеспечить сочетание правовых гарантий и инструментов, чтобы обучающиеся могли эффективно реализовывать свои права и защищать личные данные в современном информационном обществе.

И по результатам исследования представляется целесообразным:

**1) Интегрировать вопросы защиты персональных данных** в образовательные программы по праву, обществознанию и информационной безопасности с учётом положений Конституции Республики Узбекистан и Закона Республики Узбекистан «О персональных данных».

**2) Развивать цифровую правовую компетенцию обучающихся**, формируя навыки осознанного согласия на обработку персональных данных, понимание прав субъекта данных и способов их защиты.

**3) Совершенствовать локальные акты образовательных учреждений**, обеспечивая прозрачность политики конфиденциальности и механизмы защиты прав обучающихся в цифровой среде.

**4) Повышать квалификацию педагогов** в сфере правового регулирования персональных данных и цифровой безопасности.

Реализация указанных мер будет способствовать формированию устойчивой правовой культуры обучающихся и развитию ответственного поведения в условиях цифровизации общества.

#### Список использованной литературы

1. Конституция Республики Узбекистан. Режим доступа: <https://constitution.uz/ru/clause/index>
2. Закон Республики Узбекистан «О ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ» (от 02 июля.2019 г., за № ЗРУ-547). Режим доступа: <https://lex.uz/docs/4396428>
3. Data protection laws in Uzbekistan. Режим доступа: <https://www.dlapiperdataprotection.com/index.html?c=UZ&t=law>
4. Comparing legal cultures / D. Nelken (ed.). — London: Routledge, 2017. — 290 p.

## PROKRASTINATSIYANING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Nozima Mullabaeva Makhmudjanovna**

“Tashkent International University” xalqaro universiteti prof.v.b,

Psixologiya fanlari doktori (DSc)

E-mail: [noz1978@mail.ru](mailto:noz1978@mail.ru)

**Raximova R.**

“Tashkent International University” talabasi

Zamonaviy makonda barcha istalgan va rejalashtirilgan narsalarni bajarish uchun vaqt yetishmasligi muammosi tobora keskinroq yuzaga chiqmoqda. Odamlarning aksariyati hayotida hech bo‘lmaganda bir marta muhim ishni boshlash istagi bo‘lmagan vaziyatga duch kelishgan. Odamlar turli ishlar bilan shug‘ullanib, o‘z kuchlarini hisob-kitob qilar ekanlar, ba’zi ishlarni bajarishni "keyinroqqa" qoldiradilar yoki umuman bajarmaydilar. Berilgan ishlarni "keyinroqqa" qoldirishning namoyon bo‘lishi "prokrastinatsiya" atamasi bilan tasniflanadi. Sustkashlik hodisasi tobora keng tarqalmoqda.

Salbiy natijalar nafaqat shaxsning muvaffaqiyati va mahsuldorligining pasayishi hamda uning o‘quv jarayonida shakllanishiga to‘sqinlik qilishida, balki o‘z muvaffaqiyatsizligining keskin hissiy kechinmalarida ham namoyon bo‘ladi. Natijada aybdorlik hissi, o‘z ishining natijalaridan qoniqmaslik kabi psixologik holatlar paydo bo‘ladi. Prokrastinatsiya, odatda, yakuni shaxs uchun juda muhim bo‘lgan ishda ifodalanadi. Natijaning yuqori ahamiyatini, uni stress sifatida baholash vaziyatini, xavotirlanish kabi hodisalar ham belgilashi mumkin. Biroq, prokrastinatsiya muammosi mamlakatimizda o‘rganilmoqda. Bu yo‘nalish yaqinda paydo bo‘ldi va "keyinroqqa qoldirish" moyilligini keltirib chiqaradigan aniq aniqlangan sabablar deyarli yo‘q.

Prokrastinatsiya - keng tarqalgan hodisa bo‘lib, inson uchun muhim va ahamiyatli bo‘lgan ishlarni "keyinroqqa" qoldirishning uzluksiz, "surunkali" takrorlanishi (va subyektiv kechinmalarning ma‘lum bir siklini bosib o‘tishi) sifatida namoyon bo‘ladi.

Prokrastinatsiyaning asosiy xususiyatlari: irratsionallik (subyekt kechiktirishning salbiy oqibatlarini oldindan tushunadi, ammo baribir hech narsa qilmaydi); onglilik (individ o‘z rejalarini o‘zgartirmaydi, faqat oldindan rejalashtirilgan narsani ataylab kechiktiradi); salbiy hissiy kechinmalar, ichki noqulaylik (bu xususiyat prokrastinatsiya va dangasalikni ajratish imkonini beradi).

Shu munosabat bilan prokrastinatsiyani o‘rganish bilan bog‘liq muammolarning o‘zida bir qator masalalarni qayd etish mumkin.

1. Zamonaviy bosqichda muammoning ishlab chiqilishi. "Kechiktirish" tushunchasini bir qator tarkibiy qismlarga ega bo‘lgan va boshqa obyektga nisbatan "o‘z majmuasida alohida funksiyaga ega bo‘lgan" tizim sifatida ko‘rib chiqish kerak, bu tizimli yondashuv doirasida ushbu mavzu bo‘yicha barcha muammolarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Prokrastinatsiya ma‘lum bir tizimning oddiy elementi emas, uning o‘zi tahlilning turli birliklari bilan ifodalanishi mumkin.

2. Prokrastinatsiyaning kuzatiladigan (xulq-atvor) komponenti muhim ishlarni bajarishni oxirgi lahzaga qoldirishdir, shuning uchun boshqa ko‘rinishlardan, o‘xshash ko‘rinish shakliga (dangasalik yoki ongli xulq-atvor strategiyasi) ega bo‘lgan bemorlarni faqat ichki tuzilishi va uni aks ettiruvchi belgilarini farqlash imkonini beradi.

3. "Kechiktirish" tushunchasining ta‘rifi muammosi. prokrastinatsiya tushunchasi e‘tiborni tortadi, yetarlicha katta miqdordagi tizimlashtirilgan ma‘lumotlar, shu jumladan turli xil yondashuvlar, tushunchalar, nazariy topilmalar va empirik ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, ular zamonaviy psixologiya tomonidan hali to‘liq tushunilmagan. Ko‘pincha prokrastinatsiya olimlarning metodologik afzalliklaridan kelib chiqqan holda ko‘rib chiqiladi. Prokrastinatsiya ruhiy holat, strategiya va koping-strategiya, ijtimoiy-psixologik amaliyot, fenomen, regulyativ salohiyatning shakllanmaganligi, istakning yo‘qligi, o‘tkir his-tuyg‘ularga intilish tendensiya, moyillik, odat, xulq-atvor namunasi, ongli harakat va h.k.

Aslida ong osti bizni boshqarsa — "erta" bo'lmaydi, faqat "bugun, hozir" bo'ladi. Lekin bosh miyani boshqarishni o'z qo'limiz bilan tizimga topshirib qo'yganmiz. Mana shu — bizning "5 daqiqa"miz necha soatga, ba'zan kunlarga cho'zilishining asosiy sababi.

Nima uchun aynan shunday deyilgan? Oddiy misol bilan tushuntiraman.

Talabalar dars yoki ma'ruzada ustozni tinglaydi — to'g'rimi? Ammo inson diqqati 20 daqiqadan keyin bo'linadi. O'sha payt ular nima qiladi — domla so'zini tinglaydimi? Yo'q. Ularda ikkita yo'l qoladi: uxlash yoki ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish. Domla gapini to'liq eshitmaydi. Shuning uchun ko'p talabalar uyga vazifani unutadi — telefonda ko'zi, e'tibori boshqa joyda. Ustoz uy ishi bergan, "ha bo'ldi, rahmat ustoz" deydi, chiqib ketadi. Hayol boshqa joyda.

Va eng qizig'i — semestr o'rtasida va oxirida imtihonlar keladi. Hammasi shunday bo'ladi: telefon, ijtimoiy tarmoq, buzilgan uyqu, darsga onda-sonda qaraladi. Oraliq topshiradi — bir hafta uxlamasdan. Kechasi uyqu o'rniga balki qoniqmasa, yakuniyga oldindan tayyorlanaman deydi. Lekin unda ham shu holat. "Keng semestrda zo'r tayyorlanib, oldindan qilib boraman" — hech qachon bugun qilmagan ishni ertaga qilmaysiz.

Bilasizmi, nima uchun? Chunki ertaning ham ertasi bor. Shu siz oddiy qaraydigan "5 daqiqa" - soat, kun, hafta, oy, yil bo'ladi. Sezmasdan. Ertaga deyaverasiz - bir kun erta kelmaydi, hammasi tugaganini bilasiz. Bu shunchaki kichik va oddiy misol edi, holos.

Inson miyasi evolyutsion jihatdan har qanday qiyinchilikni "xavf" deb qabul qilishga dasturlangan. Qadimgi instinktlar uchun noqulaylik o'lim xavfi bilan teng edi. Shuning uchun qiyin vazifaga duch kelganimizda, miyadagi amigdala — xavf markazi — xuddi sizni yirtqich hayvon quvlayotgandek signal beradi.

Natijada siz vazifadan emas, u keltirib chiqaradigan psixologik og'riqdan qochasiz. Miya har qanday vazifani "bu xavfsizmi?" degan prizma orqali baholaydi va uchta asosiy qo'rquvni uyg'otadi: layoqatsizlik qo'rquvi — "agar uddalay olmasam-chi?"; rad etilish qo'rquvi — ongsiz qismimiz uchun tanqid poda'dan haydaliq va o'lim bilan barobar; nazoratni yo'qotish qo'rquvi — noaniqlik oldida nerv tizimi "tormoz"ni bosadi.

Ijtimoiy tarmoqlar esa aynan mana shu qo'rquvdan qutulishning eng tezkor va arzon yo'li. Miya shuni tanlaydi — chunki u oson.

*2010-yildan keyin nima o'zgardi — va kim qurib qo'ydi buni?*

Prokrastinatsiya qadimdan bor — miloddan avvalgi 800-yilda ham shoirlar bu haqda nola qilgan. Lekin u 2010-yildan so'ng haqiqiy epidemiyaga aylandi.

Sababi oddiy: smartfonlar inqilobi. Internet cho'ntakka kirdi va "vaqt o'g'risi" bilan masofamiz nol santimetrda tushdi. Ijtimoiy tarmoqlar miyadagi rohatlanish markazini o'g'irlab oldi. Endi miya mehnat qilib bilim olishni emas, birgina "svayp" orqali keladigan arzon zavqni xohlaydi. 2020 yil — pandemiya davri — ko'rsatkichlarni yanada oshirdi. Odamlar vaqt topdi, ammo o'sha vaqtni unumliligi yo'qola boshladi.

Psixologiya doktori Piers Steel tadqiqotlariga ko'ra, hozir bu holatga 95% aholi chalingan. Lekin bu faqat biologiya emas — bu ataylab qurilgan tizim. Men o'zim ijtimoiy tarmoqda o'tirganimda "shunchaki biroz" deb soatlar ketib qoladi. Nima uchun? Chunki TikTok, Reels, YouTube Shorts — bular tasodifan qiziqarli emas. Ular sizning nima qiziqtirishingizni, nimadan qo'rqishingizni, nimaga muhtojligingizni o'rganib, aynan o'sha tuyg'ungizni qitiqlab turadi.

Va o'ylab ko'ring: bu platformalarni yaratganlar o'zlari ulardan deyarli foydalanmaydi. Steve Jobs o'z farzandlariga iPad bermagan. Silicon Valley texnologlari bolalarini gadjetlardan uzoq, maxsus maktablarga o'qitadi. Ular bu narsaning nima ekanligini, qayerga olib borishini biladi.

**Xulosa:** Prokrastinatsiya — bu sizning layoqatsizligingiz emas. Bu tizimingiz "eski dastur"da qolib ketganidan signal. Lekin bugungi vaqtinchalik qulaylik uchun to'lanadigan narx juda qimmat — u siz xohlagan hayotni boy berishingizga olib keladi.

Hech narsa birdan o'zgarmaydi. Lekin bugun bir qadam qo'ying. Ertaga deyaverasiz — bir kun erta kelmaydi. Hammasi tugaganini bilib qolasiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Болотова А. К., Чеврениди А. А. Временной модус прокрастинации в ретроспективе: виды, предикторы и последствия // Культурноисторическая психология. 2017. Т. 13. № 4. С. 101–108. DOI: 10.17759/chp.2017130411
2. Боровская Н. В. Психологические и психофизиологические предпосылки лености студентов: автореф. дис. ... канд. психол. наук. СПб., 2008. 23 с.
3. Борусяк Е. В. Прокрастинация как одна из форм неэффективных копингстратегий студентов // 18й Международный научнопромышленный форум «Великие реки 2016» / отв. ред. А. А. Лапшин: в 3 т. Н. Новгород: ННГАСУ, 2016. Т. 2. С. 312–315.
4. Варваричева Я. И. Исследование связи прокрастинации, тревожности и IQ у школьников // Здоровье нации — основа процветания России: материалы научнопрактических конгрессов IV Всерос сийского форума. М.: НЦССХ им. А. Н. Бакулева РАМН, 2008. Т. 2. С. 147–149

## **YOSHLAR SIYOSATI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA YOSHLARNING ISHTIROKI: MARKAZIY OSIYO VA GLOBAL PARADIGMALAR TAHLILI**

**O‘lmasxo‘jayev Zoirxo‘ja Abbos o‘g‘li**

“Tashkent International University” xalqaro universiteti professori

**Kurbanaliyev Sardor Alidjanovich**

“Tashkent International University” xalqaro universiteti

Yurisprudensiya, 2-bosqich talabasi

| E-mail: [sardorkurbon@gmail.com](mailto:sardorkurbon@gmail.com)

Raqamli texnologiyalarning yoshlar kundalik hayotiga integratsiyalashuvi global yoshlar siyosatida fundamental o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Zamonaviy geosiyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy diskursda yoshlar qatlamiga endilikda faqat ta‘lim va davlat dasturlarining obyekt sifatida qaralayotgani yo‘q. Aksincha, yoshlar global miqyosda fuqarolik, iqtisodiy va texnologik landshaftlarni shakllantirishga qodir faol raqamli fuqarolar sifatida e‘tirof etilmoqda [5]. Raqamli infratuzilmaning jadal kengayishi va mobil internetning ommalashuvi yoshlarning demokratik jarayonlardagi ishtiroki, mehnat bozoriga kirib borishi hamda ijtimoiy-madaniy o‘zlikni anglash mexanizmlarini tubdan o‘zgartirdi. Biroq ushbu raqamli transformatsiyaning ta‘siri geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy chegaralar bo‘ylab notekis taqsimlangan. Raqamli platformalar ijtimoiy faollik va siyosiy savodxonlik uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratsa-da, ular jiddiy tizimli xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Mazkur xavflar qatoriga algoritmik manipulyatsiya, dezinformatsiyaning (noto‘g‘ri ma‘lumotlarning) tezkor tarqalishi, kiberbulling (internetdagi ta‘qib) va raqamlashtirilgan mehnat taqsimoti orqali ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikning chuqurlashuvi kiradi [7]. Zamonaviy akademik tadqiqotlarda yoshlar siyosati va raqamli ishtirok o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik inson kapitalini rivojlantirish hamda fuqarolik imkoniyatlarini kengaytirish kabi nazariy yondashuvlar orqali chuqur tahlil qilinmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va internetga ulanish darajasining 90 foizdan oshishi jiddiy siyosiy ahamiyat kasb etadi [11]. Tezkor texnologik taraqqiyot dalillarga asoslangan normativ-huquqiy choralar va keng qamrovli ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish jarayonidan doimiy ravishda o‘zib ketmoqda. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga kirib borayotgan bir davrda, yoshlarning nafaqat texnik ko‘nikmalarini shakllantirish, balki axborotni tanqidiy baholash, xavfsizlikni ta‘minlash va ma‘lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Global ko‘rsatkichlar tahlili zamonaviy yoshlarning raqamli ishtirokida jiddiy tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Jismoniy ulanish to‘siqlarining bartaraf etilishi o‘z-o‘zidan raqamli tengsizlikni yo‘q qilmaydi; masalan, Yevropa Ittifoqida yoshlarning 28 foizi haligacha tayanch raqamli ko‘nikmalarga ega emas [2]. Birlashgan Millatlar Tashkilotining

*Youth2030* strategiyasi Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (BRM) erishish doirasida yoshlarni tizimli qarorlar qabul qilish jarayonlariga teng huquqli hamkor sifatida jalb qilish zarurligini ta'kidlaydi [13]. Ushbu tadqiqot hisoboti davlat tomonidan boshqariladigan tezkor raqamli transformatsiyani boshdan kechirayotgan Markaziy Osiyo mintaqasi – xususan, O'zbekiston Respublikasi misolida yoshlar raqamli ishtirokining tarkibiy dinamikasi, nazariy asoslari va empirik voqeligini tadqiq etadi. Yoshlar ishtirokini konseptualizatsiya qilish so'nggi o'ttiz yil ichida sezilarli darajada takomillashdi va jismoniy jamoatchilik ishtirokiga asoslangan an'anaviy modellardan virtual o'zaro ta'sirlarni hisobga oluvchi ko'p qatlamli raqamli fuqarolik doiralarga ko'chdi.

Yoshlar ishtirokining sifati va tarkibiy yaxlitligini baholashning fundamental asosi 1992-yilda Rojer Xart tomonidan ishlab chiqilgan "Ishtirok etish zinapoyasi"dir [3].

Ushbu taksonomiya yoshlar ishtirokining sakkizta o'ziga xos bosqichini belgilaydi:

1–3-bosqichlar (Manipulyatsiya, Bezak, Tokenizm): Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi ishtirokidan ularni xabardor qilmasdan, sun'iy ravishda foydalanish yoki ularga faqat vizual vosita (fon) sifatida qarash.

4–5-bosqichlar (Xabardor qilingan va Maslahatlashilgan): Yoshlar aniq rollarga tayinlanadi, onlayn so'rovnomalarda qatnashadi, ammo jarayon kattalar nazoratida bo'ladi.

6–8-bosqichlar (Hamkorlik va Yoshlar yetakchiligi): Yoshlar tashabbusi bilan yaratilgan startaplar, raqamli kampaniyalar va davlat bilan hamkorlikda qabul qilinadigan qarorlar (eng yuqori darajadagi ishtirok).

Raqamli fuqarolik va ijobiy texnologik rivojlanish Yoshlarning ijobiy rivojlanishi (Positive Youth Development — PYD) va Raqamli fuqarolik ta'limi tizimlari yoshlarning texnologiya orqali bilim va ko'nikmalarini oshirishni talab qiladi. Qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ijtimoiy faolligi jamiyatni harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lishi uchun ularning raqamli savodxonligi va huquqiy ongi yuqori darajada bo'lishi shart [10]. Raqamli savodxonlikning yetishmasligi mafkuraviy immunitetning pasayishiga va kibernetik xavfsizlik tahdidlariga nisbatan zaiflikka olib keladi.

Birinchi darajali: Internet tarmog'i va texnik qurilmalarga ega bo'lishdagi (infratuzilmaviy) tengsizlik.

Ikkinchi darajali: Raqamli ko'nikmalardagi va internetdan foydalanish xarakteridagi farqlar (masalan, kimdir ta'lim uchun, kimdir faqat ko'ngilochar maqsadda foydalanishi).

Uchinchi darajali: Onlayn faoliyatni real ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklarga (rasmiiy ish topish, sifatli ta'lim olish, siyosiy jarayonlarga ta'sir o'tkazish) aylantira olish qobiliyatidagi tengsizlik [14].

Markaziy Osiyodagi raqamli landshaftning o'ziga xos xususiyati uning asosan mobil internet infratuzilmasiga tayanishidir. Mintaqa yoshlari orasida internetdan foydalanish darajasi (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'izistonda) o'rtacha 89–93 foizni tashkil qiladi [15].

1. Qozog'iston: "Smart Bridge" platformasi va Sun'iy Intellekt (AI) eksporti bo'yicha mintaqa yetakchisi.

2. Qirg'iziston: "Yuqori texnologiyalar parki" (HTP) va yosh IT-mutaxassislar uchun joriy etilgan 5 foizlik imtiyozli soliq rejimi bilan ajralib turadi.

3. O'zbekiston: IT Park va "One Million Uzbek Programmers" kabi davlat tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlanuvchi strategik tashabbuslarga ega.

4. Tojikiston: Mintaqadagi eng past ko'rsatkich (57 foiz), internet narxining yuqoriligi va cheklangan infratuzilma yoshlarning raqamli faolligiga to'sqinlik qilmoqda [4].

O'zbekistonda virtual olam transformatsiyasi va internetning yoshlar ongiga ta'siri, ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida yangi ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda, bu esa kibernetik salbiy ta'siridan huquqiy himoya qilish masalalarini dolzarblashtirdi. O'zbekiston aholisining qariyb 60 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Bu demografik ustunlik ulkan iqtisodiy salohiyatni taqdim etishi bilan birga, mehnat bozoriga kuchli bosim o'tkazadi. Raqamli transformatsiya davlatning "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi orqali yoshlar bandligini ta'minlashning asosiy drayveriga (yetakchi kuchiga) aylantirilgan [8].

Raqamli bilimlarni kengaytirish maqsadida 2025-yil holatiga ko'ra, yoshlarni IT sohasiga yo'naltirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. 2024–2025-yillarda qabul qilingan "Yoshlar bandligi dasturi" doirasida 384,4 ming nafar ishsiz va tadbirkorlikni boshlash istagidagi yosh qamrab olinib, shundan 161,5 ming nafarining bandligi bevosita ta'minlandi [9]. Norasmiy bandlik (taxminan 5,5 million kishi) hamon jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, ammo raqamli ta'lim orqali yoshlarni rasmiy iqtisodiyot sektoriga o'tkazish jarayoni tezlashmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bo'yicha mutaxassislar tayyorlash ko'lami kengayib bormoqda. "Bir million o'zbek dasturchilari" dasturining muvaffaqiyati ortidan, 2025-yilda "Besh million sun'iy intellekt yetakchilari" dasturiga start berildi. Garchi asosiy raqamli xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari juda yuqori bo'lsa-da, O'zbekiston yoshlari o'rtasida chuqurroq texnik va axborot xavfsizligiga oid raqamli ko'nikmalar past darajada saqlanib qolmoqda. Yoshlar orasida internetdan asosan ijtimoiy tarmoqlar va o'yinlar uchun foydalanish ustuvorlik qiladi. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU)da o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, hatto ixtisoslashgan AKT yo'nalishi talabalari orasida ham kiberxavfsizlik madaniyati va huquqiy bilimlar darajasi (74 foiz) nisbatan past hisoblanadi [6]. *U-Report* platformasi kabi raqamli vositalar orqali yoshlarning fikrini inobatga olish amaliyoti O'zbekistonda mintaqa davlatlari orasida birinchilardan bo'lib tatbiq etildi [12]. Biroq bu asosan Xart zinapoyasining 4 va 5-bosqichlarida (Maslahatlashish va Xabardor qilish) amalga oshirilmoqda. Yoshlarning qarorlar qabul qilishda bevosita boshqaruvchi va tashabbuskor (7–8-bosqichlar) rollarini o'zlashtirishi uchun raqamli platformalardan to'liq potensialda foydalanish hali ham cheklangan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston hukumati raqamli texnologiyalarga asosan inson kapitalini shakllantirish va iqtisodiy qoloqlikdan chiqishning utilitar (amaliy-iqtisodiy) vositasi sifatida qaramoqda. Iqtisodiy tomondan amalga oshirilgan sa'y-harakatlar – yoshlar bandligini raqamli ko'nikmalar orqali ta'minlash – yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda. Biroq Raqamli yoshlarning ijobiy rivojlanishi nazariyasiga ko'ra, davlat siyosati yoshlarning mafkuraviy immunitetini va kiberxavfsizligini ta'minlamasdan, faqat tor doiradagi iqtisodiy ko'nikmalarni rivojlantirsa, bu raqamli makonning toksik jihatlari (dezinformatsiya, onlayn ta'qib) ta'sirini kuchaytirishi mumkin [1]. Ya'ni, insonlarni texnologik ishchi kuchiga aylantirish bilan birga, ularning raqamli muloqot madaniyati va axborot savodxonligi kabi raqamli fuqarolik ko'nikmalarini oshirish ijtimoiy muammolarning oldini olishda muhim omildir.

Xulosa. O'zbekiston va Markaziy Osiyo yoshlarining to'liq raqamli davrga kirib borishi ulkan iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar maydoni ekanligini empirik raqamlar tasdiqlamoqda. Shunga qaramay, ikkinchi va uchinchi darajadagi raqamli tengsizlik – ayniqsa gender tafovuti hamda qishloq-shahar o'rtasidagi farq davlat e'tiboriga muhtoj.

Tavsiyalar:

- Ta'lim dasturlari integratsiyasi: Faqatgina kodlash yoki texnik dasturlashga emas, balki media-axborot savodxonligi, kiberxavfsizlik huquqi va ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish (kognitiv ko'nikmalar) darslarini umumiy ta'limning barcha bosqichlariga kiritish.
- Raqamli infratuzilmani markazsizlashtirish: Qishloq va shahar hududlarida internet sifati hamda qurilmalardan foydalanish imkoniyatlarini tenglashtirish.
- Fuqarolik ishtirokini rag'batlantirish: Yoshlarning faqat maslahatchi (so'rovnomalarga javob beruvchi) sifatidagi emas, balki ijtimoiy muammolarni raqamli vositalar yordamida mustaqil hal qila oladigan va qarorlar qabul qilishda bevosita qatnasha oladigan yetakchi qatlamga aylanishi uchun platformalar yaratish.
- Psixologik va kiber-himoya mexanizmlari: Yoshlarni manipulyatsiya va axborot oqimidagi salbiy illatlardan himoya qilish uchun milliy makonda xavfsiz va konstruktiv virtual muhitni ta'minlash ustida ishlash.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Bers M.U. The Positive Technological Development Framework: Moving Beyond "Digital Natives". – Hershey: IGI Global, 2010.

2. European Commission. Digital Economy and Society Index (DESI) 2024. – Brussels: European Commission, 2024.
3. Hart R.A. Children's Participation: From Tokenism to Citizenship. – Florence: UNICEF, 1992.
4. Internet Society. Internet Accessibility Report: Central Asia. – Reston: Internet Society, 2024.
5. ITU. Measuring Digital Development: Facts and Figures 2024. – Geneva: ITU Publications, 2024.
6. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU. Talabalar o'rtasida kiberxavfsizlik madaniyati tahlili bo'yicha so'rovnoma natijalari. – Toshkent: TATU, 2024.
7. OECD. Empowering Youth in the Digital Age. – Paris: OECD Publishing, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida (PF-6079-son). – Toshkent: Adolat, 2020.
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Yoshlar bandligi va mehnat bozori ko'rsatkichlari: 2024 yil yakunlari. – Toshkent: Statistika agentligi, 2025.
10. Ribble M. Digital Citizenship in Schools: Nine Elements All Students Should Know. – Washington: ISTE, 2015.
11. UNICEF. Digital connectivity and the future of children in Central Asia. – Geneva: UNICEF Regional Office for Europe and Central Asia, 2023.
12. UNICEF Uzbekistan. U-Report Uzbekistan: Youth Voices in Digital Era. – Toshkent: UNICEF, 2023.
13. United Nations. Youth2030: The UN Youth Strategy. – New York: United Nations, 2018.
14. Van Dijk J.A.G.M. The Digital Divide. – Cambridge: Polity Press, 2020.
15. World Bank. Central Asia Digital Readiness Assessment. – Washington, DC: World Bank Group, 2024.

## **MA'NAViy YUKSALISHDA INSON HUQUQLARINING O'RNI: IJTIMOiy-FALSAFIY VA HUQUQIY TAHLIL**

**O'lmasxo'jayev Zoirxo'ja Abbos o'g'li**

“Tashkent International University” xalqaro universiteti professori

**Kurbanaliyev Sardor Alidjanovich**

“Tashkent International University” xalqaro universiteti

Yurisprudensiya, 2-bosqich talabasi

| E-mail: [sardorkurbon@gmail.com](mailto:sardorkurbon@gmail.com)

Insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, davlatlarning iqtisodiy qudrati va texnologik rivojlanishi ularning ma'naviy barqarorligini to'liq ta'minlay olmaydi. Moddiy farovonlik ma'naviy yuksalish bilan, xususan, inson huquqlari va qadr-qimmatini oliy darajaga ko'tarish bilan uyg'unlashgandagina chinakam barkamol jamiyat vujudga keladi [1]. Ma'naviyat va huquq bir-birini inkor etmaydi, aksincha, huquq — ma'naviyatning amaliyotdagi daxlsiz chegaralarini belgilab beruvchi vositadir.

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanishlar markazida turgan “Inson qadri uchun” tamoyili ham bevosita ushbu ikki tushunchaning sinergiyasini ifodalaydi. Inson huquqlari o'z-o'zidan faqat qonuniy hujjatlarda yozilgan qoidalar to'plami emas; u insonning ma'naviy erkinligi, fikrlash doirasi va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaruvchi po'ydevordir [2].

Huquq va ma'naviyat aloqadorligi qadimdan mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Sharq va G'arb falsafasida insonning erkinligi uning axloqiy va ma'naviy darajasiga bog'liq ekanligi ko'p bora ta'kidlangan. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy o'zining “Fozil odamlar shahri” asarida ta'kidlaganidek, inson faqat jamiyat ichida va o'zgalarning haqqiga rioya

qilgan holdagina baxtga (ma'naviy kamolotga) erisha oladi [3]. Sharq falsafasida qonun va huquq tushunchalari ko'proq "adolat", "insof" va "diyosat" kabi ma'naviy toifalar orqali talqin etilgan. Alisher Navoiy asarlarida ham el-yurt manfaati va inson huquqlarini himoya qilish (adolat o'rnatish) ma'naviy komillikning oliy belgisi sifatida ko'rsatilgan [4].

G'arb falsafasida bu masala ratsionalistik asosda yondashiladi. Nemis faylasufi Immanuel Kantning "Kategorik imperativ" qoidasi bunga yorqin misoldir: "O'zingga nisbatan qanday munosabatda bo'lishlarini xohlasang, boshqalarga ham shunday munosabatda bo'l" [5]. Kant insonni hech qachon qandaydir maqsadlar uchun vosita emas, balki oliy maqsadning o'zi deb biladi. Aynan shu g'oya keyinchalik 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining konseptual asosi bo'lib xizmat qildi. Deklaratsiyaning 1-moddasida "Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarida teng bo'lib tug'iladilar. Ular aql va vijdon sohibidirlar..." degan jumla aynan inson huquqlarining ma'naviy ildiziga urg'u beradi [6].

Ma'naviy yuksalish ma'rifat va madaniyatdan boshlanadi. Ularning ichida esa huquqiy madaniyat alohida o'rin tutadi. Huquqiy madaniyat – bu shaxsning qonunlarni bilishi, hurmat qilishi va unga og'ishmay amal qilishi hamda o'z huquqlarini anglagan holda o'zgalar huquqini toptamasligidir. Olimlar ta'kidlashicha, huquqiy ong qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyatda jinoyatchilik va ma'naviy degradatsiya shunchalik past bo'ladi [7]. O'z huquqini taniydigan inson o'z qadrini biladi, o'z qadrini bilgan inson esa hech qachon tuban ishlarga (korrupsiya, adolatsizlik, o'g'rilik) qo'l urmaydi. Shu ma'noda, inson huquqlarini ta'minlash mexanizmlari qanchalik mukammal ishlasa, shaxs o'zini shunchalik erkin his qiladi va bu erkinlik uni yangiliklar yaratishga, ilm-fan va san'at bilan shug'ullanishga, ya'ni ma'naviy yuksalishga undaydi [8].

Huquqiy nigilizm (qonunlarga ishonmaslik va ularni mensimaslik) jamiyat ma'naviyatini yemiruvchi asosiy omillardan biridir [9]. Qachonki odamlar o'z huquqlari davlat va sud organlari tomonidan munosib himoya qilinmasligini ko'rsa, ularda umidsizlik, loqaydlik va axloqiy tanazzul boshlanadi. Shuning uchun "O'zbekiston – 2030" strategiyasida va yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlarini so'zsiz ta'minlash davlatning bosh vazifasi etib belgilandi [10]. Adolat bor joyda umid, umid bor joyda esa ma'naviy taraqqiyot bo'ladi. Ko'pincha inson huquqlari va erkinliklarini mutlaqlashtirish va uni har qanday mas'uliyatdan xoli deb tushunish holatlari kuzatiladi. Biroq inson huquqlari falsafasida "erkinlik – bu anarxiya emas" degan qat'iy qoida bor. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasida juda chuqur falsafiy fikr ilgari surilgan: "Har bir insonning jamiyat oldida majburiyatlari bor, chunki faqat jamiyatdagina uning shaxsi erkin va to'liq rivojlanishi mumkin" [11]. Bu shuni anglatadiki, shaxsning ma'naviy yuksalishi uning o'z xalqiga, oilasiga, jamiyatiga bo'lgan burchini his qilishdan boshlanadi. Huquq va majburiyat tarozining ikki pallasidir. Erkinlik o'z ma'naviy mezonlarini yo'qotsa, u o'zboshimchalikka aylanadi. Globallashuv va Internet davrida so'z erkinligi huquqidan foydalanish ba'zan kiber-bulling, feyk xabarlar tarqatish yoki axloqsizlikni targ'ib qilish kabi illatlar bilan to'qnash kelmoqda [12]. Bunda huquq normalari inson ma'naviyatini asrash vositasi sifatida maydonga chiqadi. Sotsiolog Z.Bauman o'zining "Oquvchan zamonaviylik" (*Liquid Modernity*) asarida zamonaviy inson o'z erkinligini boshqarishda ma'naviy kompasni yo'qotib qo'yayotgani haqida ogohlantiradi [13]. Demak, bugungi kunda inson huquqlarini ma'naviy ta'lim va raqamli axloq (*digital ethics*) bilan uyg'unlikda o'rgatish davr talabidir. Bugungi O'zbekiston inson huquqlari va ma'naviy yuksalish sohasida tub islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu jarayon davlat rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans ostonasi" g'oyasida o'z ifodasini topgan [14]. Yangi Konstitutsiya va Inson qadri: 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklariga bag'ishlangan normalar qariyb 3 barobarga ko'paytirildi [15]. Konstitutsiyaga "inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyatdir" degan qoida muhrlandi. "Qadriyat" so'zining o'zagi bevosita ma'naviyat bilan bog'liq bo'lib, davlat organlari faoliyatida adolat va yuksak axloqiy mezonlar bo'lishini kafolatlaydi.

Ma'lumki, qashshoqlik insonni o'z huquqlarini anglash va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish (kitob o'qish, san'atdan bahramand bo'lish) imkoniyatidan mahrum qiladi [16]. Mamlakatda

ijtimoiy huquqlarni ta'minlash orqali aholi farovonligini oshirish maqsad qilinganki, bu o'z navbatida xalqning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Inson huquqlari va ma'naviy yuksalish bir medalning ikki tomonidir. Huquq va qonun shaxs erkinligining jismoniy va ijtimoiy chegaralarini himoya qilsa, ma'naviyat uning ruhiy dunyosini boyitadi. Inson huquqlari qadrlanmaydigan, odamlar o'z fikrini erkin ifoda eta olmaydigan, adolatsizlik ustun bo'lgan jamiyatda hech qanday ma'naviy yuksalish haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Shuning uchun, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda eng muhim qadam – qonun ustuvorligini mustahkamlash, yosh avlod ongiga inson huquqlariga hurmat va huquqiy madaniyat tuyg'usini bolalikdanoq chuqur singdirish hisoblanadi. Jamiyatning chinakam qudrati qonunlarning qattiqqo'lligida emas, balki fuqarolarning huquqiy va ma'naviy barkamolligida namoyon bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. Oxford University Press, 36-bet.
2. Saidov, A. X. (2020). *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi: tarixi va buguni*. Toshkent: Adolat, 15-bet.
3. Abu Nasr Forobiy. (1993). *Fozil odamlar shahri*. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 185-bet.
4. Alisher Navoiy. (1991). *Mahbub ul-qulub* (Asarlar, 15 tomlik, 13-tom). Toshkent: Fan, 68-bet.
5. Kant, I. (1998). *Groundwork of the Metaphysics of Morals* (Trans. M. Gregor). Cambridge University Press, p. 41.
6. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr). 1-modda.
7. Vengerov, A. B. (2000). *Teoriya gosudarstva i prava*. Moskva: Yurisprudensiya, 245-bet.
8. Dworkin, R. (1977). *Taking Rights Seriously*. Harvard University Press, p. 198.
9. Tadjixanov, U., Saidov, A. (1998). *Huquqiy madaniyat nazariyasi*. Toshkent: IIV Akademiyasi, 88-bet.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "«O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
11. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 29-modda.
12. Castells, M. (2009). *Communication Power*. Oxford University Press.
13. Bauman, Z. (2000). *Liquid Modernity*. Polity Press, p. 55-57.
14. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston, 45-bet.
15. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. (2023). Toshkent: "O'zbekiston", 2-bob, Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.
16. Sachs, J. (2005). *The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time*. Penguin Books.

#### **TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHI MOTIVATSIYASI**

**D.T. Pulatova**

Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti professori

**F. Ahrorova**

Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti talabasi

Ta'lim tizimida dolzarb muammolar va vazifalar bola, jamiyat hamda davlat rivojlanishini amalga oshirilishi, ta'lim oluvchilarni jamiyatga, mustaqil hayotga tayyorlash, ularda faol fuqarolik kompetensiyalari, mas'uliyati, iqtidor va qobiliyatlari rivojlanishi uchun imkoniyatlarni yaratish, ta'lim samaradorligi va sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Umumiy o'рта ta'limning poydevori bo'lmish boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi: bolaning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabati, bugungi kunda eng zarur bo'lgan o'qish savodxonligi, turli manbalar bilan ishlash, asosiy matematik tushunchalarni bilish va hayotda qo'llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilish, kommunikativ muloqotga kirisha olish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi fani - ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlodni tarbiyalovchi, jamiyat uchun yetuk inson etib tayyorlovchi va bu sohada zarur ta'limiy-tarbiyaviy muammolarni hal etuvchi fandır. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois, didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida ta'lim yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, bunyodkorlik g'oyalari asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

1. Ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.

2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.

3. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish.

4. Ta'lim muassasalari hamda, ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.

5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.

6. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini boshlang'ich pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.

7. Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.

8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.

9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Hozirgi kunda o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtirish, ularning jarayonga bo'lgan qiziqishlarini oshirish masalasi dolzarb hisoblanmoqda. Shunday ekan ularning faolligini oshiruvchi o'qitish shakllarini ishlab chiqish va joriy etish muhimdir. Muammolarni hal etish, o'quvchi potensialini ochish, uning imkoniyatlarini yuzaga chiqarish muammoli talimda kuzatiladi. Muammoli ta'lim o'quvchining fikrlashga, muammoga turli tomondan qarashga, muammoning bir necha yechimlarini topishga, mulohaza bilan fikr yuritishga, hayotiy vaziyatlarda munosib yechimlarni topishga o'rgatuvchi samarali ta'lim shakli.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni guruhlariga bo'lib har bir guruhga muammolar muhokamasini o'tkazish uchun imkoniyat yaratib beradi. Masalan tabiiy fanlar darsi misolida oladigan bo'lsak muammo "Tabiat ifloslanishining oldini olish", "Chiqindilarni qayta ishlash" "Suvni tejash" va hokozo. Bolalar ushbu muammo yechimini dalillar asosida takliflar bilan yoritib berishlari, muammoning yechimini bir necha variantlar bilan ochib berishlari mumkin bo'ladi.

O'qituvchi bunday vaziyatni yaratishda albatta o'quvchilar salohiyatini, yosh xususiyatlarini, mavzular darajasini, o'quv dasturining mazmuniga to'g'ri kelishi kerak bo'ladi. Muammoli vaziyatning algoritmi:

- ta'lim beruvchi tomonidan mavzuga oid muammoning aniqlanish va tanlanishi;

- ta'lim oluvchilar tomonidan guruhlarda muammo bo'yicha sabab oqibatlarini tahlil qilinishi;

- guruhlarda muammoning munosib yechimlarini bir necha variantlarining taxmin qilinishi;

- muammoning taxmin qilingan yechimlari orasidan to'g'ri variantlarini tanlanishi;
- guruhlar tomonidan muammo yechimini taklif etish va taqdim etish;
- taklif etilgan yechimlar o'qituvchi tomonidan tahlil etiladi, qo'shimchalar zarur holatlarda kiritilishi mumkin.
- guruhlar rag'batlantiriladi.

Bu ta'lim o'quvchilarda ijodkorlikni tashabbuskorlikni, yangi g'oyalar bilan ish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bunday ko'nikmalar bolalarni hayotga etuk fuqaro etib tayyorlaydi. Turli vaziyatlarda insonning kurashuvchanligini, tafakkurini, shaxsini tarbiyalaydi. Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda hozirjavob, turli muammolarda qiynalmay, labbay deb javob beruvchi mukammal, shijoatli faol fuqaro obrazini yaratadi.

Ko'p yillik kuzatuvlar, amaliy tajribalar, o'tkazilgan tajriba sinovlar shuni ko'rsatadiki, qiziqish va faollik ta'lim jarayonida juda muhim faktor bo'lib, u muvaffaqiyatlarni, pirovard natijalarni kafolatlovchi omildir.

Shu sababli ta'lim darg'alaridan Yan Amos Komenskiy ham o'z davrida qiziqish – bu ta'limni kelajagini ta'minlovchi yorqin yo'l bo'lib, ta'limga quvonch keltiruvchi faktor deb tushuntirgan. Jon Jak Russo "...bolani atrofini o'rab turgan predmet va voqealarga qiziqishni oshirish bilan bola uchun zavq keltirishiga o'rganish unga shavq baxshida etish, uni muvaffaqiyat sari yetaklaydi" deydi

Bilishga qiziqish bu shaxsni ichki his tuyg'usi bo'lib, bunda nafaqat chuqur va puxta bilim olibgina qolmay unda shaxsning intellektual, emotsional, erkin fikrlash, mushohada qilish, tasavvurini rivojlanishiga sabab bo'ladi. Agar shaxs doimiy ravishda maxsus yo'nalishda o'z qiziqishi asosida ish yuritsa, bu o'sha sohaga moyilligi asosida ma'lum sohani chuqur – puxta, har tomonlama o'zlashtirib oladi, bu esa uni kompotentlik qobiliyatini oshiradi.

Uning qiziqishi o'quvchi talabani universal o'quv-biluv ko'nikmalarini oshib borishiga, faollashuviga va nihaoyat shaxsda motivatsiyani vujudga kelishiga olib keladi. Bu holat shaxsni o'z-o'ziga turtki berish, olg'a siljish, qo'zg'alishiga sabab bo'ladi. Endi unda ehtiyojlarni qondirish uchun harakat paydo bo'ladi. Yangi tushuncha va bilimlarni ola boshlaydi. Uning tasavvurlari kengayadi.

Yuqoridagi holatlarni vujudga kelishi talaba-o'quvchini ijodkorlik sari yetaklaydi. Bu esa o'z navbatida yangilik, bunyodkorlik, yaratuvchanlik imkoniyatlarini vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Yuqorida zikr etilgan xususiyatlarni hammasi mavjud holatni o'zgartirishga yangilik, goho tasodifan kutilmagan o'zgarishlarni vujudga kelishiga asos bo'ladi. Harakatchanlik, tinimsiz izlanish sinchkovlik yangiliklar sari intilish, shaxsda "bilimga chanqoqlikni" tug'diradi. unday holatlarda shaxs tashqi dunyoni o'rganishga faol kirishadi va yangi bilimlar sari intiladi. O'quvchi talabalarni bilishga bo'lgan qiziqishini orttirish va faollashtirish uchun ularni ijodkorlikka, mustaqil ishlashga, o'z ustida mustaqil izlanish olib borishga o'rgatib borish muhim omil hisoblanadi.

Umuman o'quvchi talabalarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini faol ma'ruzalar, turli o'yinli vaziyatlarni tashkil etish, turli diskusiyalar debatlar aqliy hujumlar, davra suhbatlari rolli o'yinlar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar yaxshi natijalar beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Mirzyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil.
2. Yo'ldoshev J. Yo'ldosheva F. Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim sifat kafolati. –T.: 2008 y. 153 b.
3. Children's cognitive skills in the educational process. Tarannum. Ilmiy tadqiqotlar natijalari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18346693>
4. "Modern approaches and educational methods of preparing children for social life". Science innovation. International scientific journal. ISSN: 2181 -3337. 2025 . 11.

## **RAQAMLI TEXNOLOGIYA MUHITIDA TALABALARDA IMPOSTER SINDROMINI RIVOJLANTIRUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR**

**Nilufarxon Yuldasheva Sherqo‘zi qizi**  
Renessans ta‘lim universiteti v.b dotsenti, PhD  
e-mail: [nilufary660@gmail.com](mailto:nilufary660@gmail.com)

**Ravshanova Shaxnoza Murodjon qizi**  
Renessans ta‘lim universiteti  
psixologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi  
e-mail: [shaxnoza440@gmail.com](mailto:shaxnoza440@gmail.com)

Raqamli texnologiyalarning kundalik hayotda o‘z o‘rnini tobora kengaytirishi, talabalarning o‘qish va ilmiy faoliyatini ham chuqur ta‘sir qilmoqda. Raqamli muhitda o‘qish, masofaviy ta‘lim va onlayn kommunikatsiya talabalarda turli xil psixologik holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shulardan biri imposter sindromi bo‘lib, bu talabalarning o‘z yutuqlarini tan olishda qiynalishi va doimiy ravishda “ular haqiqatan ham bunga loyiq emas” degan fikrda bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu maqolada, raqamli texnologiyalar muhitida imposter sindromining rivojlanishiga ta‘sir etuvchi psixologik omillarni tahlil qilamiz.

Imposter sindromi raqamli texnologiyalar kontekstida alohida ahamiyatga ega, chunki masofaviy ta‘limda talaba o‘zini bevosita o‘qituvchilar va tengdoshlaridan ajratilgan his qiladi. Bu holat o‘z navbatida ishonchsizlikni keltirib chiqarishi, o‘z yutuqlarini qadrlamaslikka va har doim “yashirin raqib”ni sezishga olib kelishi mumkin. Raqamli texnologiyalar shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo‘lgan muvaffaqiyat hikoyalari va idealizatsiyalangan hayot tarzlari orqali ham imposter sindromining kuchayishiga olib keladi.

Raqamli texnologiyalar muhitida talabalarda imposter sindromining rivojlanishiga ta‘sir etuvchi psixologik omillar keng qamrovli va murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu omillar talabalarning o‘zlarini qanday his qilishlariga, o‘z yutuqlarini qanday baholashlariga va raqamli ta‘lim tizimlarida muvaffaqiyatni qanday tasavvur qilishlariga bevosita ta‘sir qiladi.

Birinchi omil – o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini doimiy ravishda tekshirish imkoniyatini yaratadi. Masofaviy ta‘lim va onlayn kurslar orqali o‘quvchilar o‘zlarini doimo baholashga majbur bo‘ladilar. Bu esa ularni o‘z bilimlari va yutuqlarini izchil tahlil qilishga olib keladi, ammo ko‘pincha bunday holat o‘z-o‘zini tanqid qilishning kuchayishiga va o‘z yutuqlarini rad etishga sabab bo‘ladi. Talabalar o‘zlarini “yolg‘onchi” sifatida his qilishi mumkin, chunki ular o‘z muvaffaqiyatlarini haqli deb hisoblashda qiynaladi. Bu, o‘z navbatida, imposter sindromining rivojlanishiga olib keladi, chunki talabalar o‘z qobiliyatlarini baholashda ishonchsizlikni sezadilar.

Ikkinchi omil esa tengdoshlarning raqamli ko‘rinishidir. Onlayn muhitda talabalar o‘z tengdoshlari bilan doimiy ravishda solishtiriladi. Ijtimoiy tarmoqlarda va raqamli ta‘lim platformalarida ko‘rsatilgan muvaffaqiyat hikoyalari va ma‘lumotlar talabalarda kuchli ta‘sir o‘tkazadi. Ularning muvaffaqiyatlari ko‘pincha idealizatsiyalangan bo‘lib, boshqalar tomonidan belgilangan yuqori me‘yorlarga javob beradigan tarzda ko‘rsatiladi. Natijada, talabalar o‘zlarini doimo past baholaydilar, chunki ular o‘zlarining muvaffaqiyatlarini boshqalar bilan solishtirganda, o‘zlarining erishgan yutuqlari yetarli darajada mukammal emasligini his qiladilar. Bu esa, albatta, imposter sindromini rivojlantirishga olib keladi, chunki talabalar o‘zlarining haqiqiy salohiyatini tan olishda qiynaladilar.

Yuqori kutishlar va ta‘lim muhitining raqamli ko‘rinishi ham imposter sindromiga ta‘sir etuvchi yana bir muhim omildir. Masofaviy ta‘limda talabalar ko‘proq mustaqil ravishda o‘z faoliyatlarini amalga oshirishga majburdirlar. Bu holat, o‘z navbatida, o‘zini boshqarish qobiliyatini yuqori darajaga olib chiqadi. Biroq, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z bilimlarini mustaqil tarzda tekshirishda yuzaga keladigan yuqori kutishlar talabalarni yanada ko‘proq siqadi. Talabalar ko‘pincha mukammallik talabining ortishi natijasida o‘zlarini ishonchsiz his qilishadi, chunki ular doimo mukammal natijalar kutadilar, lekin o‘zlarini yetarlicha muvaffaqiyatli deb his qilmaydilar.

So'nggi omil esa raqamli izolyatsiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishning yo'qligidir. Onlayn ta'limda talabalar o'zlarini izolyatsiya qilgan holda, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan ajratilgan his qilishlari mumkin. Bu holat talabalarning o'z yutuqlarini tasdiqlovchi signal va ijtimoiy baholashni olish imkoniyatlarini kamaytiradi. Raqamli muhitda o'zaro aloqalar ko'pincha cheklangan va ko'rinmas bo'ladi, bu esa talabalarga o'z muvaffaqiyatlarini boshqalar tomonidan tan olinmasligi va rag'batlantirilmassligini his qilishiga olib keladi. Shu tariqa, talaba o'zining yutuqlarini haqli deb hisoblashda qiynaladi va bu holat imposter sindromining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar muhitida talabalarda imposter sindromining rivojlanishiga olib keladigan psixologik omillar turli omillarning birlashgan ta'siridir. O'ziga bo'lgan ishonchsizlik, tengdoshlari bilan solishtirish, yuqori kutishlar va raqamli izolyatsiya — bularning barchasi talabalarning o'zlarini doimiy ravishda baholashiga va o'z yutuqlarini tan olishda qiynalishiga olib keladi. Shuning uchun, bu omillarga qarshi samarali choralar ko'rish, talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlarini yaratish muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Clance, P. R., & Imes, S. A. (1978). The imposter phenomenon in high achieving women: Dynamics and therapeutic intervention. *Psychotherapy: Theory, Research & Practice*, 15(3), 241-247.
2. Hutzell, J. R., & Albrecht, C. (2019). Imposter Syndrome: Causes, consequences, and interventions. *Journal of Psychology*, 58(2), 134-142.
3. Harvey, J. C., & Katz, C. (1985). *The imposter phenomenon: Overcoming the fear that haunts your success*. St. Martin's Press.
4. Parkman, A. (2016). The imposter syndrome in higher education: An exploratory study. *Journal of College Student Development*, 57(4), 431-435.
5. Kumar, S., & Jagacinski, C. M. (2006). Imposter feelings in academic settings: The role of motivation, self-regulation, and perceived social support. *Learning and Individual Differences*, 16(3), 319-331.
6. Topping, K. J. (2011). *Peer tutoring in context*. Routledge.
7. Singh, N., & Kaur, M. (2020). The role of social comparison in the development of imposter syndrome in digital learning environments. *International Journal of Educational Technology*, 21(3), 25-33.

## **YOSHLAR SIYOSATIDA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA IJTIMOIY MOSLASHUV JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Raximova Nazokatxon Kasimdjonovna**

Renessans ta'lim universiteti  
Pedagogik ta'lim va psixologiya kafedراسи PhD,.

**Abdurashidova E. A.**

Psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayoni — bu bolaning yangi ijtimoiy muhitga, ya'ni maktab sharoitiga kirib borishi, unda faoliyat olib borishi va jamoadagi o'z o'rnini topishiga qaratilgan murakkab psixologik hamda pedagogik jarayondir. Maktabga ilk bor qadam qo'ygan bola uchun sinf jamoasiga kirish, o'qituvchi va sinfdoshlar bilan muloqot o'rnatish, yangi tartib-qoidalarni qabul qilish muayyan psixologik moslashuv davrini talab qiladi. Bu davrda bolaning shaxsiy xususiyatlari, emotsional holati, xarakteri va ilgari shakllangan ijtimoiy ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik jihatdan qaralganda, ijtimoiy moslashuvning boshlang'ich bosqichi ko'pincha bolada hayajon, xavotir, o'ziga ishonchsizlik yoki noaniqlik hissi bilan kechadi. Ba'zi bolalarda esa yangi sharoitga tez moslashish, o'zini erkin tutish va faol ishtirok etish kuzatiladi. Bu farqlar bolalarning temperament turi, oilaviy tarbiya

sharoitlari va oldingi ijtimoiy tajribalariga bog'liqdir.<sup>39</sup> Masalan, oilasida doimiy ravishda muloqot qiluvchi, o'yin orqali guruh faoliyatiga o'rgatilgan bola ijtimoiy moslashuvda ko'proq muvaffaqiyat qozonadi. Bolaning emotsional-irodaviy rivojlanishi ham moslashuv jarayonida katta rol o'ynaydi. Maktabda u o'z hissiyotlarini boshqarish, o'z xatti-harakatlarini tartibga solish, qoidalar va talablarni bajarish, o'z fikrini mantiqiy ifodalash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, sinfdoshlar bilan muloqot qilish, do'stlar orttirish, o'zaro yordam berish va konfliktlarni konstruktiv yo'l bilan hal etish kabi ijtimoiy kompetensiyalar ham shakllanadi. Ijtimoiy moslashuvga ta'sir etuvchi omillar ichida tashqi omillar (maktab muhiti, o'qituvchi uslubi, sinfdagi psixologik iqlim, oila yordami) va ichki omillar (bolaning temperament turi, o'ziga ishonch darajasi, qiziqishlari va motivatsiyasi) alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi bolaning yangi muhitga moslashishida psixologik qo'llab-quvvatlashni tashkil etishi, unga moslashuv davrida individual yondashishi zarur. Oila esa bolaning o'zini maktabda ishonchli his etishiga, yangi talablarni qabul qilishiga va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishiga yordam berishi lozim. Bundan tashqari, ijtimoiy moslashuv jarayonida psixologik xizmat ko'rsatishning ahamiyati beqiyosdir.<sup>40</sup>

Maktab psixologi bolaning ijtimoiy muammolarini aniqlash, unga mos psixokorreksion va psixoprofilaktik tadbirlarni amalga oshirish orqali ijobiy natijalarga erishishi mumkin. Psixologik treninglar, guruhiy o'yinlar va kommunikativ mashg'ulotlar bolalarda o'zaro muloqot madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayonining psixologik xususiyatlari masalasi bugungi kunda pedagogika va psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki maktabga kirish davri bolaning hayotidagi eng muhim o'zgarishlardan bo'lib, bu davrda u yangi ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi, o'zini sinf jamoasining bir a'zosi sifatida anglay boshlaydi va ta'lim faoliyatining asosiy subyekti bo'lib shakllanadi. Shu bosqichda bolaning o'zini tutishidagi, hissiyotlaridagi va ijtimoiy muloqotidagi o'zgarishlarni chuqur o'rganish uning kelajakdagi o'quv va tarbiyaviy muvaffaqiyatlarini belgilovchi muhim omildir. Psixologik jihatdan moslashuv — bu bolaning yangi ijtimoiy muhit talablariga mos ravishda o'z xulq-atvori, hissiy reaksiyalari va kommunikativ strategiyalarini qayta shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon ko'pincha uch asosiy bosqichda kechadi: dastlabki orientatsiya bosqichi (yangi muhit va talablarni idrok etish), faol integratsiya bosqichi (yangi ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va faoliyatda qatnashish) va barqarorlashuv bosqichi (moslashuvning to'liq shakllanishi, shaxsiy o'rnini topish).<sup>41</sup> Moslashuv jarayonida bolaning fiziologik holati ham ahamiyatlidir.<sup>42</sup> Chunki maktabga kirish bilan uning kun tartibi, jismoniy yuklamalari va aqliy faolligi keskin o'zgaradi. Bu esa ba'zan charchash, diqqatning tez chalg'ishi, uyqu tartibining buzilishi yoki psixologik zo'riqish kabi holatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun moslashuv davrida bola faoliyati fiziologik imkoniyatlariga mos rejalashtirilishi lozim. Emotsional-irodaviy rivojlanish darajasi bolaning moslashuvdagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy ichki omillardan biridir. O'z hissiyotlarini boshqara olish, yangi qoidalarni tez qabul qilish, vaziyatga mos qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlangan bolalar odatda tezroq moslashadi. Aksincha, emotsional beqarorlik, o'ziga ishonchsizlik yoki muloqotdan qochish kabi holatlar moslashuvni sekinlashtiradi. Ijtimoiy moslashuvning tashqi omillari ichida o'qituvchi shaxsining roli alohida ahamiyatga ega. Pedagogning mehribon, tushunuvchan va qo'llab-quvvatlovchi munosabati bolalarda xavfsizlik hissini shakllantirib, yangi muhitga bo'lgan ijobiy munosabatni kuchaytiradi. Shuningdek, sinfdagi psixologik iqlim, o'quvchilarning o'zaro yordam va hurmatga asoslangan munosabatlari moslashuv jarayonini tezlashtiradi. Maktab va oila hamkorligi bu jarayonda hal qiluvchi omil bo'lib, ota-onalar farzandlarining his-tuyg'ularini tushunishi, dars tayyorlash jarayonida yordam berishi, maktabdagi faoliyatini rag'batlantirishi

<sup>39</sup> G'ulomova, S. (2018). Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi 97-B

<sup>40</sup> Karimova, Z. (2022). Ijtimoiy psixologiya va moslashuv jarayonlari. Toshkent: Fan nashriyoti 45-B

<sup>41</sup> G'ulomova, S. (2018). Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi 78-B

<sup>42</sup> Karimova, Z. (2022). Ijtimoiy psixologiya va moslashuv jarayonlari. Toshkent: Fan nashriyoti 56-B

muhimdir. Bunda ota-onalarning pedagogik savodxonligi va psixologik madaniyati yuqori bo'lishi ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shuningdek, moslashuv davrida maxsus psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish, ijtimoiy-kommunikativ o'yinlar, jamoaviy topshiriqlar, dramatisatsiya mashg'ulotlari va treninglar o'tkazish bolaning o'ziga ishonchini oshiradi, muloqot doirasini kengaytiradi hamda ijobiy ijtimoiy tajribalarni shakllantiradi.<sup>43</sup>

Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayoni ularning shaxsiy rivojlanishi, o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyati va ijtimoiy faolligi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Bu jarayon murakkab bo'lib, bolaning individual psixologik xususiyatlari, emotsional-irodaviy rivojlanish darajasi, oilaviy muhit va maktabdagi psixologik iqlim kabi ichki va tashqi omillar ta'siri ostida kechadi. Moslashuv davrida o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik, pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlashning tizimli yo'lga qo'yilishi bolaning yangi ijtimoiy sharoitga tezroq va samarali moslashishiga xizmat qiladi. Shuningdek, maxsus o'yinlar, treninglar, kommunikativ mashg'ulotlar orqali bolalarda muloqot ko'nikmalari, o'ziga ishonch va jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish ijtimoiy moslashuvni sezilarli darajada yengillashtiradi. Natijada, moslashuv jarayonining muvaffaqiyatli kechishi bolaning kelgusi ta'lim bosqichlarida ham barqaror psixologik holat va ijtimoiy muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdullaeva, M. (2021). Bolalar psixologiyasi va rivojlanish nazariyalari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Ahmedov, N. (2019). Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
3. Bekmurodova, D. (2020). Maktab psixologiyasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. G'ulomova, S. (2018). Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.
5. Karimova, Z. (2022). Ijtimoiy psixologiya va moslashuv jarayonlari. Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Rasulova, M. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining moslashuv muammolari. Toshkent: Innovatsion rivojlanish markazi.
7. Usmonova, L. (2020). Bolalar va o'smirlar psixologiyasi. Toshkent: Yangi nashr.
8. Xolmatova, N. (2019). Pedagogika va psixologiya asoslari. Toshkent: Iqtisod-moliya.

### **YOSHLAR SIYOSATI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA YOSHLARNING ISHTIROKI VA IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Raximova Nazokatxon Kasimjonovna**  
Renessans ta'lim universiteti Pedagogika fakulteti  
Pedagogik ta'lim va psixologiya kafedrasi PhD,  
**Baxtiyorbekova I.U.**  
psixologiya yo'nalish 3 kurs talabasi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Agar biz ta'limni o'zgartirsak, ta'lim insonni o'zgartiradi. Inson o'zgarsa – butun jamiyatimiz o'zgaradi". Ushbu konseptual fikr bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar siyosati va raqamli texnologiyalar integratsiyasining naqadar hayotiy zarurat ekanligini yorqin ifoda etadi. Zero, jamiyatning intellektual salohiyati, iqtisodiy barqarorligi va innovatsion taraqqiyoti bevosita yoshlarning zamonaviy bilim hamda raqamli ko'nikmalarni egallash darajasiga uzviy bog'liqdir. Bugungi

---

1. <sup>43</sup> Bekmurodova, D. (2020). Maktab psixologiyasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Yangi asr avlodi.

shiddatli globallashuv va to'rtinchi sanoat inqilobi davrida raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyat hayotining barcha jabhalariga shiddat bilan kirib bordi, bu esa yoshlar bilan ishlash tizimini mutlaqo yangicha texnologik yondashuvlar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Yosh avlod vakillari nafaqat raqamli texnologiyalarning faol iste'molchisi, balki ularning yaratuvchisi, startap loyihalar muallifi va jamiyatni raqamli modernizatsiya qiluvchi asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, yoshlarning axborot texnologiyalari sohasidagi ishtirokini kengaytirish, kiber-savodxonligini oshirish va raqamli muhitda ijtimoiy-siyosiy faolligini tizimli rag'batlantirish bugungi kunning eng dolzarb davlat ahamiyatiga molik masalasidir. Raqamli texnologiyalar yoshlar uchun global bilimlar xazinasidan foydalanishda cheksiz imkoniyatlar ochish bilan birga, ularning ongi va qadriyatlar tizimiga ham kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Bu esa davlat yoshlar siyosati doirasida kompleks va himoyalangan raqamli ekotizim yaratishni talab etadi.

Mazkur maqolada yoshlar siyosatining raqamli texnologiyalar bilan o'zaro aloqadorligi, yoshlarning AKT sohasidagi ishtirok darajasi va bu jarayonda yuzaga kelayotgan psixologik-pedagogik muammolar, xususan raqamli tafakkurning shakllanish mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularda kiberxavfsizlik ko'nikmalarini shakllantirishning strategik mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Zamonaviy yoshlar siyosati raqamli avlodning ehtiyojlariga mos rivojlanishi, ularni nafaqat texnologik bilimlar, balki yuksak ma'naviy fazilatlar bilan ham qurollantirishi shart.

### **1. Yoshlarning raqamli ishtiroki holati va statistik tahlili**

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar siyosati raqamli iqtisodiyot talablariga muvofiq transformatsiya qilinmoqda. Mamlakat aholisining 60 foizdan ortig'ini tashkil etuvchi yoshlar raqamli texnologiyalarni hayotga tatbiq etishda asosiy kontingent hisoblanadi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida tashkil etilgan IT-parklarda yaratilgan ish o'rinlarining 80 foizi aynan 25 yoshgacha bo'lgan mutaxassislar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Biroq, raqamli ishtirok faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmay, yoshlarning ijtimoiy boshqaruvdagi faolligini ham qamrab oladi. Elektron hukumat platformalari va "Mening fikrim" kabi portallarda bildirilayotgan tashabbuslarning aksariyati yoshlar tomonidan ilgari surilayotgani ularning nafaqat texnik, balki siyosiy yetukligini ham ko'rsatmoqda.

### **2. Raqamli texnologiyalar va yoshlar psixologiyasining o'zaro aloqadorligi**

Raqamli muhit yoshlarning psixologik portretiga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy yoshlarda "**klipcha tafakkur**" shakllanishi kuzatilib, bu axborotni tezkor qabul qilish va kognitiv moslashuvchanlikni oshiradi. Shu bilan birga, virtual muloqot jarayonida yoshlarning **emotsional intellekti** o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarga o'zining individual "Men"ini namoyon etish va ijtimoiy tasdiqlanish (layklar va ijobiy fikrlar orqali) imkonini beradi. Bu psixologik ehtiyoj yoshlarni ijtimoiy loyihalarga, xayriya tadbirlari va ekologik harakatlarga mobilizatsiya qilishda muhim drayver bo'lib xizmat qiladi. Davlat yoshlar siyosatining vazifasi esa ushbu raqamli energiyani vatanparvarlik va milliy manfaatlarni himoya qilish kabi konstruktiv yo'nalishlarga yo'naltirishdan iboratdir.

### **3. Raqamli xavfsizlik va psixologik salomatlik muammolari**

Texnologik taraqqiyot yoshlar psixikasiga turlicha xavflarni ham olib keladi. Virtual makondagi faollik yoshlarni kiber-bulling, feyk axborotlar va manipulyativ g'oyalar ta'siriga zaif qilib qo'yadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning 45 foizi axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasiga ega emas, bu esa ularning dunyoqarashi shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, "**raqamli identifikatsiya inqirozi**" muammosi ham dolzarb bo'lib, real hayot bilan virtual obraz o'rtasidagi tafovut yoshlarda ruhiy zo'riqishlarni keltirib chiqarishi mumkin. "Raqamli qaramlik" (gadjet-nomofobiya) real ijtimoiy aloqalarning zaiflashishiga va o'quv motivatsiyasining pasayishiga olib keladi. Shu bois, ta'lim tizimida "Raqamli etika" va "Kiber-gigiya" fanlarini psixologik treninglar bilan uyg'unlashtirish strategik zaruratdir.

### **4. Xalqaro tajriba va innovatsion modellarning adaptatsiyasi**

Rivojlangan davlatlar (Janubiy Koreya, Estoniya) tajribasi shuni ko'rsatadiki, yoshlarning raqamli savodxonligi ularning ruhiy barqarorligi bilan birga rivojlantiriladi. O'zbekistonda "Bir

million dasturchi" va "Yoshlar texnoparklari" kabi loyihalar yoshlarning texnik bilimlarini amaliy ijtimoiy mas'uliyat bilan birlashtirishga xizmat qilmoqda. Innovatsion yondashuv shundaki, yoshlar faqat dasturchi emas, balki jamiyatning real muammolarini (masalan, "Aqlli mahalla") yechuvchi raqamli fuqarolar sifatida tarbiyalanmoqda. Bu jarayon yoshlarda o'z mehnati natijasini ko'rish orqali ruhiy qoniqish va ijtimoiy daxldorlik hissini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar asrida yoshlar siyosatining muvaffaqiyati nafaqat zamonaviy texnik infratuzilmani yaratish, balki yosh avlodning intellektual va psixologik salohiyatini milliy manfaatlar hamda ijtimoiy taraqqiyotga oqilona yo'naltirish bilan belgilanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning raqamli dunyodagi faolligi ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etish darajasini tubdan o'zgartirib, jamiyat boshqaruvida yangicha, innovatsion yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qilmoqda. Biroq, ushbu jarayon o'z-o'zidan barqaror ijobiy natija bermaydi, aksincha, u davlat, ta'lim tizimi va oila instituti o'rtasidagi o'zaro uyg'un hamkorlikni, ayniqsa, raqamli pedagogikani rivojlantirishni taqozo etadi. Raqamli olam yoshlar uchun global bilimlar xazinasini ochish bilan bir qatorda, ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi va ruhiy salomatligiga ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarda kuchli "axborot immuniteti"ni shakllantirish, ularni kiber-bulling, manipulyativ feyk xabarlar va buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishni davlat ahamiyatiga molik dolzarb vazifa qilib qo'yadi. Yoshlarning virtual muhitdagi psixologik xavfsizligini ta'minlash uchun media savodxonlik ko'nikmalarini tizimli ravishda oshirib borish, ta'lim muassasalarida raqamli etika va kiber-psixologiya asoslarini joriy etish strategik ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, raqamli platformalar orqali ijtimoiy ishtirokni kengaytirish yoshlarda davlat va jamiyat taqdiri uchun mas'uliyat hissini uyg'otishning eng samarali mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017.
3. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2010.
4. Войскунский А.Е. Психология и Интернет. – М.: Акрополь, 2010. (Raqamli psixologiya bo'yicha asosiy qo'llanma).
5. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni. 2016-yil 14-sentabr.
6. Quronov M. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2008.
7. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi rasmiy portali – [www.yoshlar.uz](http://www.yoshlar.uz)
8. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi tahliliy ma'lumotlari – [www.digital.uz](http://www.digital.uz)

## **YOSHLAR SIYOSATI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: MAKTABGACHA**

### **YOSHDAI BOLALARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA TA'SIRI**

**Raximova Nazokatxon Kasimdjonovna**

Renessans ta'lim universiteti

Pedagogik ta'lim va psixologiya kafedrası PhD

**Jabbarova Nozliya Xalmuradovna**

Psixologiya yo'nalishi 5-sitqi bo'lim talabasi

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida inson omili jamiyat taraqqiyotining asosiy resursi sifatida e'tirof etilmoqda. Inson kapitalining shakllanishi esa, avvalo, erta yosh davrlarida, xususan maktabgacha yosh bosqichida boshlanadi. Mazkur davrda bolaning psixologik rivojlanishi uning kelajakdagi ta'lim faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy kamoloti uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Maktabgacha yosh davri psixologiyada shaxs rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri sifatida qaraladi. Chunki aynan shu davrda

bola atrof-muhitni faol idrok eta boshlaydi, ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, nutqi va tafakkuri rivojlanadi, emotsional tajribasi boyiydi. Psixolog olimlar (L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin, J. Piaget va boshqalar) ushbu davrni shaxs rivojlanishining senzitiv bosqichi sifatida baholaganlar. Maktabgacha yosh bolalarning psixologik rivojlanish sohasi ko'p qirrali dunyo: maktabgacha yosh - bu bolaning ruhiy olami gullab-yashnaydigan, har bir kuni yangi kashfiyotlar va cheksiz imkoniyatlar bilan to'la, hayratlanarli davr. Bu paytda bolaning ongida nafaqat tashqi dunyo haqidagi tasavvurlar, balki uning o'z "meni" ham shakllana boshlaydi. Ushbu maqolada biz ana shu murakkab va qimmatli rivojlanish yo'lida bolalar qanday psixologik bosqichlardan o'tishini, ularning ruhiyatida qanday ajoyib o'zgarishlar ro'y berishini ko'rib chiqamiz.

Maktabgacha yosh davri odatda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda bolaning organizmi va psixikasi jadal rivojlanadi. Bola faol harakatda bo'ladi, atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri kuchayadi, bilishga bo'lgan ehtiyoji ortadi. Psixologik jihatdan bu davr tashqi faoliyatdan ichki psixik jarayonlarga o'tish davri hisoblanadi. L.S. Vygotskiy ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni asoslab, maktabgacha yoshda kattalar rahbarligi ostida tashkil etilgan faoliyat bolaning yaqin rivojlanish zonasini kengaytirishini ta'kidlaydi. Bu esa psixologik rivojlanishning ijtimoiy tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi. Har bir bola o'ziga xos ritmda rivojlanadi, ammo barcha maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik o'sishida umumiy ohanglar mavjud. Bu davrni uch asosiy partiyaga bo'lish mumkin:

**Birinchi partiya (0-3 yosh)** - sevgi va xavfsizlik asosida qurilgan asos. Bu davrda bola butunlay sezgilar orqali yashaydi: qo'liga olgan har bir o'yinchoq, eshitgan har bir ovoz, ko'rgan har bir rang uning dunyosini kengaytiradi. Ota-onaning issiq tabassumi - bu uning tinchlik va ishonch manbai. Bu paytda shakllanayotgan hissiy bog'lanish kelajakdagi barcha insoniy munosabatlarning poydevoriga aylanadi.

**Ikkinchi partiya (3-5 yosh)** - fantaziya va o'yinlar podsholigi. Keling, tasavvur qilaylik: oddiy kartondan qutilar qal'a, stullar poyezd, xolaning sholipi sehrli tayoqchaga aylanadi. Bu erda bolaning tasavvuri cheksiz, o'yin - uning asosiy ishi. Bu orqali bola nafaqat atrof-muhitni o'rganadi, balki murakkab hissiyotlarni (quvonch, xavf, g'azab, achchiqlanish) boshqarishni o'rganadi. U "men" va "sen" o'rtasidagi chegara chizig'ini topa boshlaydi.

**Uchinchi partiya (5-7 yosh)** - kashfiyotlar va mantiqiy izlanishlar davri. "Nima uchun?" savoli uning sevimli iborasiga aylanadi. Bulutlar qanday osiladi? Quyosh qayerga ketadi? Uning qidiruvchi ongi har bir javobni yangi savollar tug'diradi. Bu paytda bola o'z fikrlarini aniqroq ifodalay boshlaydi, kelishuvlar tuzish, navbatni kutish, his-tuyg'ularini boshqarish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydi.

Rivojlanishning to'rtta o'lchovi. 1. **Aql soati: intellektual o'sish.** Bola atrofidagi dunyoni har tomonlama o'rganishga intiladi. Uning diqqati bir narsadan ikkinchisiga o'tib turadi, lekin kattalar uni qiziqtirgan narsaga e'tibor bilan qaratganda, bu diqqat uzoqroq saqlanadi. Kichik haykalchalar yashirish va topish o'yinlari orqali xotira rivojlanadi, turli shakldagi bloklarni moslashtirish esa fazoviy tafakkurni shakllantiradi. Har bir yangi so'z uning tushunchalar dunyosini kengaytiradi. 2. **Yurak raqsi: hissiy olam.** Maktabgacha yoshdagi bolaning hissiyoti ochiq va samimiy. Quvonchi butun vujudini egallaydi, xafaligi esa haqiqiy ko'z yoshlarida akslanadi. Bu davrda bola o'z his-tuyg'ularini tan olish va ularni ifodalashni o'rganadi. "Men hozir xursandman", "Men qo'rquyapman" deya aytish - katta psixologik yutuqdir. Ota-ona va tarbiyachilarning vazifasi - bu hissiyotlarni qabul qilish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish, shu bilan bolaga o'zini anglash va o'zini qadrlash tuyg'usini berishdir. 3. **Do'stlik ko'prigi: Ijtimoiylashuv**

Sandixdagi birinchi "ber-bering" o'yinidan tortib, murakkab rolli o'yinlargacha - ijtimoiy rivojlanish doimiy ravishda davom etadi. Bola boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lishni, g'alaba va mag'lubiyatni qanday qabul qilishni, adolat va halollik tushunchalarini o'rganadi. Uning dunyosida do'st paydo bo'ladi - bu alohida psixologik hodisa bo'lib, unda sadoqat, hamdardlik va o'zaro yordam tuyg'ulari paydo bo'ladi. 4. **So'z sehri: til rivojlanishi.** Bola so'zlar sehrini o'zlashtiradi. Avval oddiy tovushlar, keyin birikmalar, so'ngra butun gaplar. Har bir yangi ibora - bu dunyoni anglashning yangi usuli. Hikoya qilish, she'r aytish, o'ylab topilgan voqealar

haqida gapirish orqali bola nafaqat tilni, balki ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradi. Katta maktabgacha yoshda u allaqachon murakkab hikoyalar to'qiy oladi va hatto o'z fantastik dunyosini yarata boshlaydi.

Bolaning psixologik rivojlanishi uning o'z kuchi va atrof-muhitning uyg'unligidir. Bu yo'lda kattalar quyidagi rollarni o'ynaydi: 1. **Kuzatuvchi va tarjimon:** Bolaning harakatlari, o'yinlari, rasmlari orqali uning ichki dunyosini tushunishga harakat qilish. 2. **Ittifoq qiluvchi muhit yaratuvchisi:** Xavfsiz, qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi muhit yaratish, unda bola xato qilishdan qo'rqmasdan, yangi narsalarni sinab ko'rishga jur'at etadi. 3. **O'yin sherigi:** Bolaning dunyosiga kirib, uning qoidalari bo'yicha o'ynash, lekin zarurat tug'ilganda yangi g'oyalar va echimlarni taklif qilish. 4. **Hissiyotlar ko'prigi:** Bolaning hissiyotlarini nomlay olish va ularni qabul qilish, his-tuyg'ular tilini o'rgatish.

Maktabgacha yoshda bilish jarayonlari sezilarli darajada rivojlanadi. Sezgi va idrok jarayonlari takomillashib, bola predmetlarning rang, shakl, hajm kabi xususiyatlarini farqlay boshlaydi. Idrokning yaxlitligi va barqarorligi ortadi. Xotira asosan ixtiyorsiz xarakterga ega bo'lib, emotsional jihatdan ta'sirli axborotlar tez va mustahkam esda qoladi. Katta maktabgacha yoshga kelib ixtiyoriy xotira elementlari shakllana boshlaydi. Tafakkur jarayonida obrazli tafakkur ustunlik qiladi. Bola muammoli vaziyatlarni ko'proq tasviriy obrazlar orqali hal etadi. Shu bilan birga, mantiqiy tafakkur elementlari - taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilish qobiliyatlari rivojlana boshlaydi. Nutq bolaning psixologik rivojlanishida yetakchi omillardan biridir. Maktabgacha yoshda lug'at boyligi jadal ortadi, grammatik tuzilmalar shakllanadi, bog'lanishli nutq rivojlanadi. Nutq orqali bola o'z fikrini ifodalaydi, emotsiyalarini boshqaradi va ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi.

Muloqot jarayonida bola tengdoshlar va kattalar bilan o'zaro munosabatga kirishadi. Bu esa ijtimoiy ko'nikmalar, empatiya va hamkorlik sifatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Maktabgacha yosh davrida emotsiyalar yorqin va bevosita bo'ladi. Bola quvonch, xafalik, qo'rquv kabi his-tuyg'ularni ochiq namoyon etadi. Iroda jarayonlari esa asta-sekin shakllanib, o'z xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyati rivojlanadi. Emotsional barqarorlikni ta'minlashda tarbiyachi va ota-onalarning psixologik savodxonligi muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshda bola o'zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. "Men" obrazi shakllanadi, o'z-o'zini baholashning dastlabki ko'rinishlari paydo bo'ladi. Jamoaviy faoliyat orqali ijtimoiy qoidalar va normalar o'zlashtiriladi. O'yin maktabgacha yosh davrining yetakchi faoliyati hisoblanadi. Syujetli-rolli o'yinlar orqali bola ijtimoiy rollarni egallaydi, tasavvur va ijodkorlik rivojlanadi. Didaktik o'yinlar esa kognitiv jarayonlarni faollashtiradi.

Har bir bola - yulduzli osmon. Maktabgacha yoshdagi har bir bola - bu o'z galaktikasida yashaydigan yagona olam. Uning psixologik rivojlanishi qat'iy qoidalar majmui emas, balki har bir bolaning o'ziga xosligini hurmat qilgan holda, uning ichki boyliklarini ochishga yordam berish jarayonidir. Kattalarning vazifasi - bu yulduzli osmonni kuzatish, uning har bir yulduzining yorqinligiga hayron bo'lish va bola o'z yo'nalishini topishda unga yo'l-yo'riq ko'rsatishdir. Bolaning psixologik sog'lig'i - bu nafaqat bugungi kun, balki butun kelajakning poydevoridir. Bu poydevor muhabbat, hurmat, tushunish va go'zal g'oyalar bilan mustahkamlangan bo'lsa, unda bola nafaqat maktabga, balki hayotga ham puxta tayyor bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi murakkab va tizimli jarayon bo'lib, kognitiv, emotsional, ijtimoiy va shaxsiy omillarning o'zaro uyg'unligida kechadi. Ushbu davrda yaratilgan qulay psixologik-pedagogik muhit bolaning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlaydi.

Amaliy tavsiyalar.

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish.
2. O'yin texnologiyalariga asoslangan ta'lim metodlarini keng qo'llash.
3. Ota-onalar uchun psixologik maslahat va treninglar tashkil etish.
4. Har bir bolaga individual yondashuvni ta'minlash.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Vygotskiy L.S. Psixologiya rivojlanishi nazariyasi. - Moskva: Pedagogika, 1984.
2. Elkonin D.B. Bolalar psixologiyasi. - Moskva: Akademiya, 1999.
3. Piaget J. Bola tafakkurining rivojlanishi. - Sankt-Peterburg: Piter, 2003.
4. Davletshin M. Yosh va pedagogik psixologiya. - Toshkent: O'qituvchi, 2010.
5. Davletshina G.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologiyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2018.
6. G'oziev E. Umumiy psixologiya. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
7. Muxina V.S. Yosh psixologiyasi. - M.: Akademiya, 1999.
8. Karimova V.M. Maktabgacha ta'lim psixologiyasi. - Toshkent: Fan, 2020.

## YOSHLAR SIYOSATIDA OILAVIY TARBIYADA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**PhD, N.K. Raximova**

Renessans ta'lim universiteti

Pedagogik ta'lim va psixologiya kafedrası

**D.A. Abduvobova**

Psixologiya yo'nalishi 5-sirtqi bo'lim talabasi

Bugungi globalashuv jarayonida yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarni asrash va ularni oilaviy tarbiya tizimiga singdirish muhim ijtimoiy-psixologik masalalardan biriga aylanmoqda. Oila jamiyatning eng kichik bo'g'ini bo'lib, unda shaxsning dastlabki psixologik sifatlari, dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari shakllanadi. Shu bois oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanish nafaqat ma'naviy, balki psixologik ahamiyatga ham ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'z nutqlarida: *“Oila – jamiyatning tayanchi, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylaydigan muqaddas maskandir”*<sup>44</sup>, deb ta'kidlaydi. Ushbu fikr oilaning tarbiyaviy va psixologik rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Milliy qadriyatlar – bu xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy tajribasi bo'lib, ular oilaviy tarbiya jarayonida bolaning shaxs sifatida kamol topishida muhim psixologik omil bo'lib xizmat qiladi<sup>45</sup>.

Milliy qadriyatlar deganda urf-odatlar, an'analar, marosimlar, milliy mentalitet, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy munosabatlar tizimi tushuniladi. Oila muhitida ushbu qadriyatlar kundalik hayot orqali bola ongiga tabiiy ravishda singib boradi. Oilaviy tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- shaxsning axloqiy fazilatlarini shakllantiradi;
- ijtimoiy moslashuvni osonlashtiradi;
- milliy o'zlikni anglash hissini kuchaytiradi;
- ruhiy barqarorlik va ijobiy emotsional holatni ta'minlaydi.

Psixologik nuqtayi nazardan qaralganda, bola oilada ko'rgan, eshitgan va his qilgan qadriyatlarni ichki psixik tuzilmasiga singdiradi. Masalan, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, sabr-toqat, andisha kabi tushunchalar bolaning xulq-atvorida barqaror psixologik sifatlarga sifatida namoyon bo'ladi<sup>46</sup>.

Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya:

- bolaning emosional intellekti rivojlanishiga;
- ijtimoiy munosabatlarda ijobiy moslashuviga;

<sup>44</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2022.

<sup>45</sup> Davletshin M. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2016. 121-b

<sup>46</sup> G'oziev E. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2014. 172-b

- o'zini anglash va baholash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oila eng muhim milliy qadriyat hisoblanadi, chunki aynan shu oila muhitida inson hulqining shakllanishidagi barcha tarbiya mezonlari, ichki dunyosini boyitadigan madaniy rivojlanishga asos solinadi. Oila shaxsni har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi, shaxsni ijtimoiy va ijodiy faolligini oshiradi

Turkiy xalqlarga xos urf-odatlariga ko'ra, nikoh marosimlari qat'iy qonun-qoidalar asosida tashkil etilgan, marosim davomida oila, qarindosh- urug', oqsoqollar, keksa chol-kampirlar maslahati va yo'l-yo'riqlariga rioya etilgan. Zardo'shtiylik tartib-qoidalariga ko'ra, o'z hayotini uylanmay yoki turmushga chiqmasdan o'tkazish qoralangan. «Avesto»da zardo'shtiylikning oltin qoidalaridan biri - oila muqaddas sanalgani bois, boshqa ayrim sabablarga ko'ra, masalan, ig'vo, tuhmat, er-xotinning o'zaro kelishmovchiligi, ota-ona bilan murosa-madora qila olmaslik kabi bahonalar bilan nikohning bekor qilinishiga yo'l qo'yilmagan.

Alloh erkakni erlarga xos, ayolni esa, ayollarga xos xususiyatlar bilan yaratdi. Binobarin, ularo'z tabiiy xususiyatlarida ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, o'z jinsini ulug'lab, boshqa jinsni mensimaslikka haqqi yo'q. Aksincha, bu ikki jinsning o'zaro bir-biriga hurmati, mehr-muhabbati yaratganning o'zi tomonidan buyurilgan amallardan bo'lib, ahil va inoqlikda yashash, bir-birini sevishga da'vat etilgan. Bu haqda Qur'onning bir qator suralarida oyatlar keltiriladi: «Er o'zlari va oilasiga taalluqli barcha narsalar to'g'risida doimo xotini bilan bamaslahat ish qilishi lozim, chunki ular so'zsiz ravishda teng sherikdirlar»

Boshqa bir o'rinda Forobiy oila, shaharni inson tanasidagi a'zolarga qiyoslab, bu a'zolarning tabiati, holati va harakatiga ko'ra turlicha bo'lsa ham, lekin yagona maqsad, ya'ni inson tanasi faoliyatini ta'minlash maqsadida o'zining ma'lum ishini bajarishi haqida ma'lumot beradi. Demak, biror mamlakatda o'nlab shaharlar, bu shaharlarning har birida yuzlab va minglab oila va xonadonlar yashashi tabiiy hol bo'lib, garchi bu uy yoki shaharlar har xil, biri ikkinchisini takrorlamaydigan bo'lishiga qaramay, ular o'zaro birikib, shahar yoki mamlakatni tashkil etadilar hamda uni takomillashtiradilar<sup>47</sup>.

Oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarning aks etishi mumtoz adabiyotda "Insonparvarlik", "Adolat", "Ezgulik", "Erkinlik", "Halol mehnat", "To'g'ri so'zlik", "O'zaro yordam" va "Go'zallik"ni madh etish hamda insoniyatni shunga chorlash sifatida kuzatiladi. Bu adabiyot o'zining insonparvarlik asoslari bilan bir qatorda, bir vaqtning o'zida barcha davrlar uchun ham hayotiy ekanligini namoyon etib kelmoqda, uning hayotbaxsh qirralari Navoiy "Xamsa"si, Bobur g'azallari, Xayyom "To'rtliklari", Sa'diyning "Bo'stoni", Firdavsiyning "Shohnoma"si, Qoshg'ariy naqlari va Nodira ko'z yoshlari kabilarda yorqin namoyon bo'ladi. Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida oila va milliy qadriyatlarning rivojlanishi yonma-yon kechgan o'zaro bog'liq va uzluksiz jarayondir.

Ularning rivojlanish shakllari turlicha kechgan bo'lsa-da, o'zining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari jihatdan ularni bir qancha umumiyliklar bog'lab turadi. Shunday umumiyliklardan biri bu tarbiya sohasidir. Yoshlar tarbiyasi oilaning har bir evolyutsion bosqichida (qon-qarindosh oila, juft oila, punalual' oila, monogam oila) qanday o'zgarib borgan bo'lsa, u millat evolyutsiyasi taraqqiyot bosqichlarida (urug', qabila, elat, millat, xalq, xalqlar birligi) ham shunday o'zgarib borgan. Agar oilaviy munosabatlar darajasidagi yoshlar tarbiyasida oila va uning taraqqiyoti uchun real ahamiyatga ega bo'lgan ko'nikmalar bilan shakllantirilib borilgan bo'lsa, millat shakllari bilan bog'liq o'zgarishlarda ham aynan shunday asos tarbiyada ustuvor bo'lgan<sup>48</sup>.

Ularning har birini tahlil etganda, ularning ichki xususiyatlari hamda qonuniyatlaridan kelib chiqadigan bir qancha jihatlarni kuzatish mumkin bo'ladi. Oilaning ilk taraqqiyot bosqichida (qon-qarindaosh oila bosqichida) hali milliy qadriyatlar tugul qadriyat tushunchalari to'liq shakllanmagan amorf (mavhum) holda bo'lgan. O'zining juft oila taraqqiyot bosqichida ham bu jarayon shunday davom etadi. Faqatgina uchinchi bosqichdan boshlab, jamiyatda ishlab chiqarish

<sup>47</sup> Usmonova M. Oilada bola tarbiyasi. – Toshkent, 2020. 252-b

<sup>48</sup> Abdurahmonov F. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent, 2017. 99-b

munosabatlari hamda shunga mos tarzda urug' jamoa munosabatlari rivojlanishi bilan milliy qadriyatlarning kuchayishi hamda ularning oiladagi bola tarbiyasiga ta'siri o'sib borishi kuzatiladi<sup>49</sup>.

Oilaning monogam (yakka) tartibdagi taraqqiyoti bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bir yo'nalishda, ya'ni shu oila muhiti ta'siri ostidagi tarbiya asosida kechadi. Bu muhitning o'zi esa jamiyatdagi ijtimoiy muhit natijasi bo'lib, unda albatta, milliy qadriyatlarning o'rni kata bo'ladi. Milliy qadriyatlar oila muhiti ta'siri orqali bolalar ruhiyatiga singdirilib boriladi. Natijada, bolalarda oila tarbiyasi natijasida mehnat, kasb tanlash, uyiga, mahallasiga va vatanga nisbatan mehr hamda sadoqat ko'nikmalari shakllanib boradi. Bularning barchasi pirovard natijada bolalar shaxsining to'la ijtimoiylashuvi bilan yakunlanadi.

Oilaviy tarbiyada ota-ona shaxsiy namunasi muhim psixologik mexanizm hisoblanadi. Bola ota-onaning xatti-harakatlari, muomalasi, milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini kuzatish orqali o'rganadi<sup>50</sup>.

Agar ota-ona:

- milliy an'analarga hurmat bilan yondashsa;
- oila muhitida milliy ruhni saqlasa;
- tarbiyaviy jarayonda qadriyatlardan ongli foydalansa,
- unda bola psixologik jihatdan sog'lom, mustaqil fikrlovchi va milliy ongli shaxs bo'lib voyaga yetadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va ommaviy madaniyat ta'siri natijasida ayrim oilalarda milliy qadriyatlarga e'tibor susaymoqda. Bu esa bolalarda identifikatsiya muammolari, ijtimoiy begonalashuv, emotsional beqarorlik kabi psixologik holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shu sababli oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarni zamonaviy psixologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanish shaxs psixologik rivojining muhim sharti hisoblanadi. Milliy qadriyatlar bolaning axloqiy, emotsional va ijtimoiy shakllanishida barqaror psixologik poydevor yaratadi. Ota-onaning tarbiyaviy mas'uliyati, shaxsiy namunasi va milliy ongga ega bo'lishi oilaviy tarbiyaning samaradorligini belgilaydi. Zamonaviy jamiyat sharoitida milliy qadriyatlarni oilaviy tarbiya tizimida saqlash va rivojlantirish psixologik barqaror, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2022.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Davletshin M. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2016. 121-b
4. G'oziev E. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2014. 172-b
5. Sattarov S. Milliy tarbiya asoslari. – Toshkent, 2018. 155-b
6. Musurmonova O. Ma'naviy tarbiya metodikasi. – Toshkent, 2015. 74-b
7. Abdurahmonov F. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent, 2017. 99-b
8. Usmonova M. Oilada bola tarbiyasi. – Toshkent, 2020. 252-b

---

<sup>49</sup> G'oziev E. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2014. 179-b

<sup>50</sup> Musurmonova O. Ma'naviy tarbiya metodikasi. – Toshkent, 2015. 74-b

## **YOSHLAR SIYOSATI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA YOSHLARNING ISHTIROKI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH OMILLARI**

**Murodov Adham Ilhom o'g'li**

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti, “Ijtimoiy fanlar va ta’lim” kafedrası

p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.,

E-mail: [adhammurodov05@gmail.com](mailto:adhammurodov05@gmail.com)

**S.G' Raimjonov**

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti, XIM-3-25 talabasi

Yoshlar siyosati va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik XXI asrda davlat rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jamiyat hayotining barcha sohalarida chuqur transformatsion jarayonlar yuz bermoqda. Mazkur jarayonlarda yoshlar eng faol ijtimoiy qatlam sifatida namoyon bo'lib, ular nafaqat raqamli mahsulot va xizmatlarning asosiy iste'molchisi, balki innovatsion g'oyalar va texnologik yechimlar yaratuvchisi sifatida ham ishtirok etmoqda. Shu sababli yoshlar siyosatini raqamli rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtirish zamonaviy davlat boshqaruvining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda [1].

Yoshlar siyosati davlat tomonidan yosh avlodning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning intellektual, ma'naviy va kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuidir [2]. Zamonaviy sharoitda mazkur siyosatning samaradorligi ko'p jihatdan yoshlarning raqamli kompetensiyalari darajasi bilan belgilanadi. Chunki raqamli iqtisodiyot sharoitida bilim, innovatsiya va texnologiya asosiy ishlab chiqarish omiliga aylanmoqda.

Raqamli iqtisodiyot iqtisodiy faoliyat jarayonlarida raqamli texnologiyalar va ma'lumotlardan keng foydalanishga asoslangan tizim sifatida tavsiflanadi [3].

Ushbu tizim doirasida dasturiy ta'minot ishlab chiqish, elektron tijorat, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va bulutli texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Yoshlar aynan shu yo'nalishlarda yuqori faollik ko'rsatib, startap loyihalar, innovatsion platformalar va texnologik tashabbuslar orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, internet foydalanuvchilarining eng katta qismini yoshlar tashkil etadi, bu esa ularning raqamli makondagi ustun mavqeini ko'rsatadi [4].

Raqamli texnologiyalar yoshlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirdi. Masofaviy ta'lim platformalari, onlayn kurslar va ochiq ta'lim resurslari yoshlarning bilim olish jarayonini yanada moslashuvchan va samarali qilmoqda. Shu bilan birga, frilans faoliyati, masofaviy bandlik va elektron tijorat yoshlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq raqamli muhit bilan bog'liq kiberxavfsizlik, axborot tahdidlari va media savodxonlik masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun yoshlar siyosati doirasida nafaqat IT ko'nikmalarini rivojlantirish, balki axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish ham zarurdir [5].

O'zbekistonda yoshlar siyosati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun yoshlarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi [2]. Shuningdek, “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida mamlakatda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron hukumat tizimini takomillashtirish va IT sohasini kengaytirish choralari belgilangan [6]. IT-parklar tashkil etilishi, yosh dasturchilarni qo'llab-quvvatlash dasturlari va startap loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlari yoshlarning innovatsion faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shunga qaramay, hududlar o'rtasidagi raqamli tafovut, internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda malakali IT mutaxassislar yetishmasligi kabi muammolar mavjud. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun raqamli ta'limni maktab bosqichidan joriy

etish, yoshlar uchun maxsus texnologik inkubatorlar tashkil etish hamda xalqaro tajribani keng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar siyosati va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi integratsiya barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Yoshlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy infratuzilmani shakllantirish orqali mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Raqamli transformatsiya jarayonlarida yoshlar strategik resurs sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. United Nations. World Youth Report. New York, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, 2016-yil.
3. Tapscott D. The Digital Economy. New York, 2014.
4. UNDP. Youth and Digitalization Report, 2021.
5. UNESCO. Digital Literacy Framework, 2018.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, 2020-yil.

### **TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARNING SUN'IY INTELLEKTDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI**

**Murodov Adham Ilhom o'g'li**

"Tashkent International University"

xalqaro universiteti, "Ijtimoiy fanlar va ta'lim" kafedrası

p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.,

E-mail: [adhammurodov05@gmail.com](mailto:adhammurodov05@gmail.com)

**R. A. Jaloliddinova**

"Tashkent International University"

xalqaro universiteti, XIM-1-25 talabasi

Ta'lim tizimida yoshlarning sun'iy intellektdan samarali foydalanish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida ta'lim sohasi tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi o'quv jarayonini yanada interaktiv, moslashuvchan va samarali shaklga olib chiqmoqda. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy intellekt ta'limni shaxsga yo'naltirilgan model asosida rivojlantirish, sifat va tenglikni ta'minlash imkonini beruvchi muhim vositalardan biridir[1]. Shu bilan birga, texnologiyalarning jadal rivojlanishi yoshlarning ulardan ongli va mas'uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Sun'iy intellekt inson tafakkuriga xos bo'lgan o'rganish, tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va qaror qabul qilish jarayonlarini modellashtiruvchi texnologiyalar majmuasidir. Ta'lim sohasida u adaptiv o'qitish tizimlari, virtual yordamchilar, avtomatik baholash platformalari, ma'lumotlar tahlili va generativ modellar shaklida qo'llanilmoqda. OECD hisobotlarida ta'kidlanishicha, raqamli texnologiyalarni to'g'ri integratsiya qilgan ta'lim tizimlarida o'quvchilarning natijalari va o'zlashtirish ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi[2]. Bu esa sun'iy intellektning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

An'anaviy ta'lim tizimida barcha o'quvchilarga bir xil metod va tezlikda bilim beriladi, bu esa individual farqlarni yetarli darajada hisobga olmaslikka olib keladi. Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv platformalar esa har bir o'quvchining bilim darajasi, qiziqishi va o'zlashtirish sur'atiga mos ravishda materiallarni taklif etadi. Masalan, Khan Academy platformasi o'quvchining xatolarini tahlil qilib, unga individual tavsiyalar beradi va qo'shimcha mashqlar taklif etadi[3]. Bunday yondashuv bilimlardagi bo'shliqlarni aniqlash, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish va o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda generativ sun‘iy intellekt vositalari keng tarqaldi. OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy til modellari murakkab mavzularni tushuntirish, matn yaratish, kod yozish va ilmiy ma‘lumotlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega[4]. Yoshlar ushbu vositalardan referat tayyorlash, tarjima qilish, dasturlash masalalarini yechish va ilmiy izlanishlarda foydalanmoqda. Generativ modellar tezkorlik va qulaylik yaratishi bilan birga, ba‘zida noto‘g‘ri yoki tasdiqlanmagan ma‘lumotlarni taqdim etishi mumkin. Shu sababli ulardan foydalanishda tanqidiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni sun‘iy intellektdan samarali foydalanishga tayyorlashda raqamli savodxonlikni rivojlantirish asosiy omillardan biridir. Raqamli savodxonlik axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va undan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Yoshlar sun‘iy intellekt natijalarini tekshira olishi, bir nechta manbani solishtira bilishi va ma‘lumotlarning ishonchligini aniqlay olishi zarur. Bu jarayonda ta‘lim muassasalari va pedagoglarning roli beqiyosdir.

Shuningdek, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish sun‘iy intellektdan samarali foydalanishning muhim shartidir. Sun‘iy intellekt tayyor javob beruvchi vosita sifatida emas, balki muammoni chuqurroq anglash va tahlil qilishga yordam beruvchi yordamchi sifatida qo‘llanilishi lozim. Agar yoshlar barcha vazifalarni sun‘iy intellekt zimmasiga yuklasa, ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyati sustlashishi mumkin. Shu bois ta‘lim jarayonida sun‘iy intellektdan foydalanish me‘yorlari va chegaralari aniq belgilanishi zarur.

Akademik halollik masalasi ham alohida e‘tiborni talab qiladi. Sun‘iy intellekt yordamida yaratilgan matnni o‘zlashtirilgan bilim sifatida taqdim etish plagiat hisoblanadi. Shuning uchun talabalar va o‘quvchilar sun‘iy intellektdan yordamchi vosita sifatida foydalanishi, biroq mustaqil tahlil va xulosalarni o‘zlari ishlab chiqishi kerak. Ilmiy etikaga rioya qilish ta‘lim sifatini saqlashning muhim omilidir.

Sun‘iy intellektni ta‘lim tizimida keng qo‘llash bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. Jumladan, shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligi, texnologik qaramlik, raqamli tengsizlik va noto‘g‘ri axborot xavfi mavjud. Barcha hududlarda texnologiyalarga teng kirish imkoniyati mavjud emasligi ijtimoiy tafovutlarni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli davlat va ta‘lim muassasalari tomonidan normativ-huquqiy asoslarni ishlab chiqish, pedagoglar malakasini oshirish va xavfsizlik choralarni kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, sun‘iy intellekt ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim vositasidir. Uning samarali qo‘llanilishi yoshlarning raqamli savodxonligi, tanqidiy fikrlashi va akademik mas‘uliyatiga bog‘liq. Sun‘iy intellekt inson tafakkurining o‘rnini egallamasligi, balki uni rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi zarur. Faqat shundagina ushbu texnologiyalar ta‘lim sifatini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va ularning global raqobatbardoshligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities. Paris, 2019.
2. OECD. Digital Education Outlook 2021. Paris: OECD Publishing, 2021.
3. OpenAI. GPT-4 Technical Report. 2023.
4. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. Artificial Intelligence in Education. Boston, 2019.
5. Luckin, R. Machine Learning and Human Intelligence. London, 2018.
6. Selwyn, N. Education and Technology: Key Issues and Debates. London, 2016.

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA YOSHLARNI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

**Murodov Adham Ilhom o‘g‘li**

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti, “Ijtimoiy fanlar va ta’lim” kafedrası

p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.,

E-mail: [adhammurodov05@gmail.com](mailto:adhammurodov05@gmail.com)

**A. U. Rixsiboyev**

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti,

Menejment yo‘nalishi talabasi

Bugungi kunda, raqamli transformatsiya jarayoni zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi o‘quv jarayonini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. UNESCO hisobotlarida ta’kidlanishicha, raqamli texnologiyalar ta’limning ochiqligi va sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi[1].

Raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy yo‘llaridan biri - shaxsiylashtirilgan o‘qitish modelini joriy etishdir. Adaptiv platformalar o‘quvchining bilim darajasi va o‘zlashtirish sur‘atini hisobga olgan holda individual topshiriqlarni taqdim etadi. Masalan, Khan Academy platformasi o‘quvchilarning xatolarini tahlil qilib, mos mashqlarni tavsiya etadi[2]. Bu esa bilimlardagi bo‘shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

Masofaviy ta’lim ham samaradorlikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Google Classroom va Zoom Video Communications kabi platformalar yordamida o‘quv jarayonini masofadan turib tashkil etish, nazorat qilish va baholash mumkin. Bu ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, vaqt va hududiy cheklovlarni kamaytiradi[3].

Interaktiv va multimediya vositalari o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Animatsiyalar, videolarlar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar o‘quv materialini yanada tushunarli qiladi. OECD tadqiqotlariga ko‘ra, interaktiv metodlar qo‘llanilgan ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi yuqoriroq bo‘ladi[4].

Sun‘iy intellekt asosidagi tizimlar ham ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy til modellari o‘quvchilarga murakkab mavzularni tushuntirish, savollarga javob berish va mustaqil o‘rganish jarayonida yordam berish imkonini yaratadi[5]. Bunday vositalar o‘qituvchining yordamchi instrumenti sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar mavjud. Jumladan, internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, texnik vositalarning yetishmasligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining pastligi va axborot xavfsizligi masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Raqamli savodxonlikni shakllantirish ushbu muammolarni kamaytirishning muhim shartidir.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar yoshlarni o‘qitish samaradorligini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini individuallashtirish, interaktivlikni kuchaytirish, masofaviy ta’limni rivojlantirish hamda nazorat va baholash tizimini takomillashtirish imkonini beradi. Raqamli vositalardan maqsadli va oqilona foydalanish ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. UNESCO. *Education in a Digital World*. Paris, 2021.
2. OECD. *Digital Education Outlook 2021*. Paris: OECD Publishing, 2021.
3. OpenAI. *GPT-4 Technical Report*. 2023.
4. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. *Artificial Intelligence in Education*. Boston, 2019.
5. Selwyn, N. *Education and Technology: Key Issues and Debates*. London, 2016.

6. Khan Academy Research and Platform Reports, 2021.
7. Google for Education. Digital Learning Reports, 2022.

## **INTERNET VA IJTIMOYIY TARMOQLARNING YOSHLAR TARBIYASIGA**

### **TA’SIRI**

**Murodov Adham Ilhom o‘g‘li**

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti, “Ijtimoiy fanlar va ta’lim” kafedrası

p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.,

E-mail: [adhammurodov05@gmail.com](mailto:adhammurodov05@gmail.com)

**A.X. Turg‘unbayevov**

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti, XIM-3-25 talabasi

Bugungi kunda axborotlashgan jamiyat sharoitida internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar yoshlarning ta’lim olish va ijtimoiylashuv jarayonida muhim omil hisoblanadi[1]. Internet orqali yoshlar tezkor axborotga ega bo‘lish, masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanish va global muloqot maydoniga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Internetning konstruktiv jihatlaridan biri - bilim olish imkoniyatining kengayishidir. Elektron kutubxonalar, onlayn kurslar va ilmiy platformalar yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. OECD tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli vositalardan oqilona foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi[2].

Shu bilan birga, internet yoshlarning global muloqotini rivojlantiradi. Ijtimoiy tarmoqlar va professional platformalar orqali yoshlar tengdoshlar, mutaxassislar va turli mamlakat vakillari bilan muloqot qilishi, dunyoqarashini kengaytirishi mumkin. Masalan, LinkedIn, Facebook, Telegram va boshqa platformalarda yoshlar nafaqat ijtimoiy aloqalarni rivojlantiradi, balki ilmiy va professional resurslardan foydalanadi. Shu tarzda, internet yoshlarning zamonaviy jamiyat talablariga mos keladigan shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, internetning destruktiv jihatlari ham mavjud. Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan, zo‘ravonlik, axloqsizlik va zararli odatlarni targ‘ib qiluvchi materiallar uchramoqda. Turli ekstremistik oqimlar ham internet orqali yoshlarni o‘z ta’siriga olishga urinmoqda. UNICEF hisobotlarida internetdagi zararli kontent bolalar va o‘smirlarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan[3]. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda vaqtni behuda sarflash, videolar va xabarlarni ko‘rib o‘tkazish yoshlarning o‘qish, ijodiy faoliyat va ijtimoiy rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu bois, internetdan maqsadli va me’yor bilan foydalanish yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarni ma’naviy va intellektual rivojlantirishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport, kitobxonlik, intellektual o‘yinlar va IT kurslari orqali ularni foydali faoliyatga jalb etish ishlari amalga oshirilayotganini ta’kidlagan[2]. Shu bilan birga, raqamli savodxonlikni oshirish orqali yoshlarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, internetning destruktiv ta’sirini kamaytirish va ularni global axborot maydonida samarali ishlashga o‘rgatish mumkin. Onlayn resurslardan foydali va ilmiy maqsadlarda foydalanish yoshlarning kasbiy, ilmiy va madaniy salohiyatini oshiradi, ularni zamonaviy raqobatbardosh jamiyatga tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar tarbiyasiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Ularning konstruktiv jihatlari yoshlarning bilim va dunyoqarashini kengaytirsa, destruktiv jihatlari esa ma’naviy zaiflik va vaqtni behuda sarflashga olib kelishi mumkin. Shu sababli internetdan foydalanishda me’yor, maqsadlilik va nazorat muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. UNESCO. *Digital Transformation in Education*. Paris, 2022.
4. OECD. *Digital Education Outlook*. Paris: OECD Publishing, 2021.
5. UNICEF. *The State of the World's Children: Children in a Digital World*. New York, 2017.
6. Castells M. *The Rise of the Network Society*. Oxford: Blackwell, 2010.

### JADIDCHILIKDA PSIXOLOGIYANING O'RNI

**Murodov Adham Ilhom o'g'li**

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti, “Ijtimoiy fanlar va ta’lim” kafedrası

p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.,

E-mail: [adhammurodov05@gmail.com](mailto:adhammurodov05@gmail.com)

**S.A. Tolibjonova**

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti, PS-1-25 talabasi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati millatni ma'rifat, ilm-fan va zamonaviy tafakkur asosida taraqqiy ettirishni maqsad qilgan ijtimoiy-madaniy oqim edi. Jadidchilik faqat siyosiy yoki ma'rifiy harakat bo'lib qolmay, balki inson ongini, dunyoqarashini va ruhiyatini yangilashga qaratilgan ma'naviy-psixologik jarayon ham bo'lgan. Shu jihatdan psixologiya jadidchilik mafkurasida muhim o'rin tutadi.

Jadidchilik namoyandalari, xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlar jamiyat taraqqiyotini inson ongini o'zgartirish orqali amalga oshirish mumkinligini ta'kidlaganlar.

Avvalo, jadidchilikda tarbiya va ta'limning psixologik asoslari muhim o'rin egallagan. Abdulla Avloniy o'zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida inson ruhiyati, axloqiy fazilatlar va ijtimoiy xulq-atvor o'rtasidagi bog'liqlikni ochib bergan[1]. U tarbiyani “yo hayot – yo mamot masalasi” deya baholaydi. Bu yondashuv shaxs psixologiyasini millat taqdiri bilan bog'laydi.

Ikkinchidan, jadidlar milliy o'zlikni anglash psixologiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Fitrat asarlarida milliy g'urur, o'zlikni anglash va mustaqil fikrlash ruhiy jarayon sifatida talqin etiladi[2]. Uning fikricha, jaholat va mutaassiblik avvalo inson ongidagi qo'rquv va passivlikdan kelib chiqadi.

Uchinchidan, jadid maktablarida qo'llanilgan “usuli jadid” ta'lim tizimi bolalar psixologiyasini hisobga olgan holda tashkil etilgan. Yangi usuldagi maktablarda tovush asosida savod o'rgatish, ko'rgazmali qurollardan foydalanish, suhbat va munozara metodlari qo'llanilgan[3]. Bu esa o'quvchilarning tafakkurini faollashtirishga xizmat qilgan.

To'rtinchidan, jadid adabiyotida dramatik asarlar orqali ijtimoiy-psixologik muammolar ochib berilgan. Masalan, Behbudiyning “Padarkush” dramasida jaholatning shaxs ruhiyatiga salbiy ta'siri ko'rsatiladi[4]. Bu asar orqali muallif ijtimoiy muammolarning psixologik ildizlarini ochishga harakat qiladi.

Shuningdek, jadidchilik harakati mustamlakachilik sharoitida millat ruhiyatini uyg'otish, qo'rquv va loqaydlikni yengish, ijtimoiy faollikni oshirishga qaratilgan psixologik uyg'onish jarayoni sifatida ham namoyon bo'ladi. Ular matbuot, teatr va maktab orqali omma ongiga ta'sir ko'rsatganlar.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati nafaqat ma'rifiy va siyosiy islohotlar, balki chuqur psixologik yangilanish jarayoni ham bo'lgan. Jadidlar inson ongini o'zgartirmasdan jamiyatni o'zgartirib bo'lmasligini anglaganlar. Ular ta'lim, adabiyot va ijtimoiy faoliyat orqali

milliy ong, mustaqil tafakkur va axloqiy barkamollikni shakllantirishga intilganlar. Shu bois jadidchilikni milliy uygʻonishning psixologik asosi sifatida baholash mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1992.
2. Fitrat A. *Tanlangan asarlar*. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2000.
3. Qosimov B. *Jadidchilik harakati tarixi*. – Toshkent: Sharq, 2004.

Behbudiy M. *Padarkush*. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1989.

## **YOSHLARDA HUQUQIY ONGNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING OʻRNI**

**Murodov Adham Ilhom oʻgʻli**

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti, “Ijtimoiy fanlar va taʼlim” kafedrası

p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.,

E-mail: [adhammurodov05@gmail.com](mailto:adhammurodov05@gmail.com)

**Sh.S. Shuxratov**

“Tashkent International University”

xalqaro universiteti, HQ-7-25r talabasi

Bugungi kunda, jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri – yoshlarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy madaniyatga ega boʻlishidir. Zero, huquqiy ong nafaqat shaxsning amaldagi qonunlarga boʻlgan munosabatini, balki uning huquq va majburiyatlarini chuqur anglab yetishi, qonun talablariga ongli ravishda rioya qilishi hamda huquqiy normalarni kundalik hayotda toʻgʻri qoʻllay olish koʻnikmalarini ham ifodalaydi<sup>1</sup>. Huquqiy madaniyat esa huquqiy bilim, huquqiy eʼtiqod va huquqiy xulq-atvor birligida namoyon boʻlib, jamiyatda qonun ustuvorligini taʼminlashning muhim sharti hisoblanadi.

Ayniqsa, yoshlar – jamiyatning eng faol va harakatchan qatlami sifatida – huquqiy ong va madaniyat darajasi bilan davlat va jamiyat rivojiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Huquqiy savodxonligi yuqori boʻlgan yoshlar oʻz huquqlarini himoya qila oladi, boshqalarning huquqlarini hurmat qiladi hamda turli huquqbuzarliklarning oldini olishga hissa qoʻshadi. Bu esa demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida esa mazkur jarayonni samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Internet tarmoqlari, elektron taʼlim platformalari, mobil ilovalar va elektron hukumat tizimlari orqali huquqiy maʼlumotlarni tezkor va qulay shaklda yetkazish imkoniyati kengaydi. Natijada yoshlarning huquqiy bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan bevosita tanishishi hamda davlat organlari bilan ochiq muloqot olib borishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shu bois, zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar yoshlar huquqiy ongini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon boʻlmoqda.

Darhaqiqat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida huquqiy taʼlim va targʻibot ishlari yangi bosqichga koʻtarildi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasida “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasining qabul qilinishi davlat boshqaruvi va ijtimoiy sohalarda raqamli tizimlarni keng joriy etishga xizmat qilmoqda<sup>2</sup>. Bu esa yoshlarning huquqiy axborotlardan tezkor va qulay foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarning elektron bazalari, jumladan, Lex.uz milliy qonunchilik bazasi orqali fuqarolar, ayniqsa yoshlar, qonun hujjatlari bilan bevosita tanishish imkoniga ega boʻlmoqda<sup>3</sup>. Bunday ochiqlik va shaffoflik huquqiy ongni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, elektron hukumat tizimi orqali davlat xizmatlarining onlayn shaklda koʻrsatilishi yoshlarning huquq va majburiyatlarini amaliy jihatdan anglashiga yordam bermoqda.

Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilayotgan masofaviy ta'lim platformalari ham yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Onlayn kurslar, vebinarlar, interaktiv testlar orqali huquqiy bilimlarni mustahkamlash imkoniyati kengaymoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali huquqiy targ'ibot materiallarining tarqatilishi yoshlar orasida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda<sup>4</sup>.

Shu bilan birga, raqamli makonda ayrim muammolar ham mavjud. Soxta axborotlar, kiberjinoyatlar va axborot xavfsizligiga tahdidlar yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin<sup>5</sup>. Shu sababli, nafaqat huquqiy bilimlarni oshirish, balki axborot madaniyatini shakllantirish ham dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar yoshlar huquqiy ongini rivojlantirishda muhim va samarali vosita hisoblanadi. Ular huquqiy axborotlarning ochiqligini ta'minlaydi, ta'lim jarayonini interaktiv va qulay shaklga keltiradi hamda yoshlarning ijtimoiy-huquqiy faolligini oshiradi. Kelgusida raqamli platformalardan samarali foydalanish, axborot xavfsizligini ta'minlash va innovatsion huquqiy ta'lim usullarini keng joriy etish yoshlar huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Islomov Z.M. Huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni (“Raqamli O'zbekiston – 2030”).
3. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi.
4. Saidov A.X. Huquqiy madaniyat va yoshlar tarbiyasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasining “Axborot xavfsizligi to'g'risida”gi Qonuni, 2022 yil.

## **YOSHLAR VA SIYOSAT: YOSHLARNING SIYOSIY JARAYONLARDAGI ISHTIROKI**

**X. K. Muxammadiyeva**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi  
kafedrası (PhD) dotsenti  
“Tashkent International University”  
xalqaro universiteti, “Ijtimoiy fanlar va ta'lim” kafedrası PhD dotsenti

**R.Rayimova**

TII Unversiteti Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi 3-kurs talabasi

Bugungi kunda global miqyosda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishida yoshlar hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Yoshlar – jamiyatning eng faol qatlami sifatida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlar siyosatini to'g'ri yo'lga qo'ygan va yoshlarning salohiyatidan samarali foydalana olgan mamlakatlar jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan katta e'tibor va g'amxo'rlik sabab bugungi kunda yoshlarimiz barcha jabhalarda katta-katta yutuqlarga erishib, boshqa rivojlangan davlatlarning yoshlaridan kam emasliklarini namoyon qilib kelmoqdalar.

Yoshlarga e'tibor masalasida Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev: “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy maqsadi – yoshlarni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotida faol ishtirok etadigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan, innovatsion fikrlaydigan mutaxassislar etib tarbiyalashdan iborat.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlar siyosati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarga oid qonunchilik bazasining takomillashtirilishi, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlarining qabul qilinishi mamlakatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarimizning mustaqil fikirlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqiyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmagdigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, - deya ta‘kidlaganlari yurtimiz yoshlariga yana-da kuch-g‘ayrat, shijoat hamda g‘urur tuyg‘usini baxsh etadi.

Kelajak yoshlarning, ayniqsa, siyosiy jarayonlarda davlat boshqaruvida qatnashuvini ta‘minlaydigan ijtimoiy-madaniy, siyosiy madaniyatni shakllantirishda siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari shu bilan birgalikda yoshlar tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish lozim.

Yoshlarning siyosiy faolligini oshirish, huquq va erkinliklarini teran anglash borasida ommaviy axborot vositalari yetarli darajada ish olib borishi lozim.

Yoshlar siyosiy faolligini kuchaytirish, shu bilan birgalikda ularning o‘z qobiliyatini to‘la ro‘yobga chiqarish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish lozim. Zero, yoshlarda siyosiy ongning yuksalishida Konstitutsiyamizning ahamiyati, o‘rni beqiyosdir.

Chunki yoshlarning huquqiy, siyosiy ongi va madaniyati bevosita Konstitutsiyada belgilangan normalarning mazmun-mohiyati zamirida shakllanadi, rivojlanadi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasida “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta‘minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi” - degan normaning mustahkamlanishi yuqoridagi fikrimizning yorqin dalilidir.

Bugungi kunda yoshlar jamiyatning eng faol va innovatsion qatlami hisoblanadi. Ularning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki nafaqat davlatning rivojlanishi, balki barqaror demokratik tizimning shakllanishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar yangi g‘oyalar, o‘zgarishlarga bo‘lgan intilish va yuqori motivatsiya bilan siyosiy hayotga yangi ruh bag‘ishlaydi. Ammo ko‘plab mamlakatlarda bu qatlamning siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki yetarli darajada ta‘minlanmagan.

Har qanday jamiyatda ijtimoiy hayotning markazida, qon-tomirida yoshlar va ularning kelajagi, ertangi kunga ishonchi va maqsad-manfaatlari yotadi.

Bu omillar hozirgi globallashuv jarayonlari jadal kechayotgan bugungi kunimizda ham o‘zgacha tarzda namoyon bo‘lmoqda. Milliy mafkuraga sodiqlik, bilim va keng dunyoqarashga ega, tashabbuskor ba ayni damda ma‘naviy dunyosi boy, yashashdan umidi katta va ishonchi yuksak yoshlarga keng imkoniyat ba qulaylik yaratib berish O‘zbekiston jamiyatning ijtimoiy siyosatdagi birlamchi masalalardan hisoblanadi.

Shu boisdan ham davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev BMTning Yoshlar strategiyasida takidlangandek, “Yoshlar siyosiyatida eng qimmatli va o‘ta muhim resurslar mujassam topgan bo‘lib, unga har qancha investitsiya kiritrsa arziydi, chunki bu sarmoyalar bir necha barobar ziyoda bo‘lib qaytadi”.

Yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligining fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi muhim omil sifatidagi o‘rni va ahamiyatini tahlil etishda, eng avvalo, unga oid ilmiy kategoriyalarni o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xususan, bunda “faollik”, “siyosiy faollik”, “ijtimoiy siyosiy faollik”, “huquqiy faollik” kabi siyosiy-huquqiy kategoriyalarning mazmun-mohiyatini hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik masalalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda yoshlar jamiyatning eng faol va innovatsion qatlami hisoblanadi. Yoshlar nafaqat kelajak avlod, balki hozirgi davrning ham asosiy kuchidir. Ularning siyosiy jarayonlardagi faolligi quyidagi sabablarga ko‘ra muhim hisoblanadi:

- yosh avlod zamonaviy texnologiyalar va bilimlarga ega bo‘lib, ular siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga innovatsion yondashuv olib kirishi mumkin.

- ko‘plab mamlakatlarda yoshlar jamiyatning asosiy qismini tashkil etadi. Ularning ovozi milliy va xalqaro siyosatga ta‘sir ko‘rsatishi tabiiy.

- bugungi kunda qabul qilingan siyosiy qarorlar eng avvalo yosh avlod hayotiga ta‘sir qiladi.

Shu bois, ular o‘z kelajaklari uchun javobgarlikni his qilishi va jarayonlarda faol bo‘lishi talab etiladi.

Biroq yoshlarning siyosatdagi ishtirokini cheklab kelayotgan muammolar ham mavjud bo‘lib, ular:

Birinchidan, yoshlarning bir qismi siyosiy tizimni korrupsiya, adolatsizlik va shaffoflikning yetishmasligi bilan bog‘laydi. Bu esa ularda siyosatga nisbatan loqaydlik va ishonchsizlikni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, yoshlar ko‘pincha siyosiy jarayonlarda qatnashish uchun yetarlicha bilim va tajribaga ega emasliklarini his qilishadi. Bu ularda passivlikni yuzaga keltiradi.

Uchinchidan, siyosiy kampaniyalar va harakatlarda qatnashish ko‘pincha moliyaviy harajatlarni talab qiladi. Yoshlar bu resurslarga ega bo‘lmasliklari tufayli jarayonlardan chetda qolishi mumkin.

To‘rtinchidan, ba‘zi jamiyatlarda yoshlarni “tajribasiz”, “noloyiq” deb hisoblashadi. Bu ularning siyosatga qo‘shilishiga to‘siq bo‘ladi.

Yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalb qilish usullari mavjud bo‘lib, yoshlar siyosatda faol ishtirok etishi uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim deb o‘ylaymiz, binobarin:

- ta‘lim va siyosiy savodxonlikni oshirish, ya‘ni maktab va universitetlarda siyosiy ta‘limni kengaytirish, yoshlarni siyosiy huquq va burchlari haqida xabardor qilish ularning faolligini oshiradi.

- raqamli platformalardan foydalanish. Bugungi kunda yoshlar ko‘proq ijtimoiy tarmoqlarda faol.

Siyosiy partiyalar va tashkilotlar raqamli platformalar orqali yoshlar bilan muloqot o‘rnatib, ularni siyosiy hayotga jalb qilishi mumkin.

- yoshlar o‘z g‘oyalarini ilgari surishi uchun maxsus tashkilotlar va harakatlarni qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Bu ularning siyosiy tajribasini oshiradi.

- parlament va mahalliy hokimiyat organlarida yoshlar uchun kvotalar joriy qilish orqali ularning vakilligi ta‘minlanishi mumkin.

- yosh liderlarni aniqlash va ularga imkoniyat yaratish orqali yangi siyosiy avlodni shakllantirish mumkin.

O‘zbekiston misolida yoshlarning siyosatdagi ishtiroki sezilarli darajada oshib bormoqda. Mamlakatda Yoshlar ittifoqi, Yoshlar parlamenti kabi tashkilotlar faoliyat olib bormoqda.

Bu esa yoshlarning siyosiy va ijtimoiy hayotda faolroq bo‘lishiga imkon yaratmoqda. Shu bilan birga, hukumat tomonidan yoshlar siyosati yo‘nalishida qabul qilingan dasturlar va qarorlar ularning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Biroq, yoshlarga siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida yana-da ko‘proq ishtirok etish imkoniyatlarini berish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar zarur.

Yoshlarning ovozi kuchli siyosiy jarayonning asosiy komponenti bo‘lishi kerak. Yoshlar – har bir jamiyatning kelajagi. Ularning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi nafaqat davlat boshqaruvi, balki butun jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi uchun muhimdir.

Yoshlar siyosatidagi yangiliklar turli sohalarida o‘z aksini topmoqda. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning ta‘lim olishiga katta e‘tibor bermoqda. Ta‘lim tizimida yoshlar uchun yangi dasturlar, grantlar, stipendiyalar va xorijiy universitetlarda o‘qish imkoniyatlari yaratilgan.

Yoshlar o‘rtasida kasb-hunar ta‘limiga bo‘lgan talab ortib bormoqda, chunki bugungi kunning talablariga mos ravishda o‘quvchi yoshlar uchun o‘z kasbini egallash muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, yoshlarni ish bilan ta‘minlash masalasi ham davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

O‘zbekiston hukumati yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratish, ularni tadbirkorlikka jalb etish va biznes boshlashga yordam berish uchun yangi qonunlar va dasturlarni ishlab chiqmoqda.

Yoshlar uchun dastlabki biznes treninglar, mentorlik dasturlari, grantlar va imtiyozlar taqdim etilmoqda, bu esa ularning ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faolligini oshiradi.

Yoshlar siyosatidagi yangiliklar nafaqat ta'lim va kasb-hunar sohalarida, balki yoshlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularga yangi imkoniyatlar yaratish borasida ham bir qator muhim o'zgarishlarni o'z ichiga olmoqda.

O'zbekiston hukumati yoshlarning madaniy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash uchun innovatsion dasturlarni amalga oshirgan. Shuningdek, yoshlarni kasbga yo'naltirish va professional rivojlanishlarini ta'minlashga qaratilgan yangi yo'nalishlar joriy etilmoqda.

Bu yo'nalishlar yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga, ularni o'z hayotini shakllantirish va kelajakda o'zlarini har tomonlama rivojlantirish uchun zarur imkoniyatlar yaratishga qaratilgan.

Yoshlarni ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga faol jalb etish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun hukumat tomonidan turli tashabbuslar qo'llab-quvvatlanmoqda.

Masalan, yoshlar uchun parlamentda o'z ovozini eshittirish, fuqarolik jamiyatida faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish va ularga boshqaruvda qatnashish uchun maxsus treninglar tashkil etilmoqda.

Bu yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishga va ularning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy sharoitda yoshlar siyosati – bu davlat va jamiyat boshqaruvining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini kuchaytirish, zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda yoshlar siyosati sohasidagi huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, yoshlarning potensialidan samarali foydalanish mexanizmlarini rivojlantirish talab etiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yoshlar siyosatga qo'shilganida, jamiyat innovatsion yondashuv, adolat va shaffoflikka erishadi. Shuning uchun siyosiy tizim yoshlarning ovozini eshitishi va ularga yetarlicha imkoniyat yaratishi lozim. Yangi avlod – yangi imkoniyatlar demakdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida 2023 yil 11 sentyabr PF-158-son Farmoni.lex.uz/ru/docs/-6600413.
3. Mirziyoyev, Sh.M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: O'zbekiston, 2016-yil.
4. Yusupov A. Yoshlar siyosati: nazariy va amaliy masalalar. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 245 b.
5. Ergashev I. Yoshlar siyosati va zamonaviy tendensiyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 180 b.
6. Abdullaev B. Yoshlar bandligi: muammolar va yechimlar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. – №2. – B. 45-52.
7. Yunusov L. Yoshlarni davlat boshqaruvida ishtirokini ta'minlash mexanizmlari // Jamiyat va boshqaruv. – 2022. – №1. – B. 112-120.
8. Muxammadeva, X. K O'quvchilardagi kitobxonlik madaniyati orqali altruistik motivlarni rivojlantirish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1284-1288.
9. Rajabova N. K. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 4. – S. 349-352.

10. Muhammadiyeva, X. K., & Ergasheva, G. Z. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(2), 10-14.

11. Muxammadeva, X. K., Nurmuratova, I., Tulaganova, S., & Jumaniyazova, M. (2022). O'QUVCHILARDAGI KITOBXONLIK MADANIYATI ORQALI ALTRUISTIK MOTIVLARNI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1284-1288.

## MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING GLOBALLASHUV SHAROITIDA JAMIYAT HAYOTIDAGI ROLI

**X. K. Muxammadiyeva**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi  
kafedrası (PhD) dotsenti  
"Tashkent International University"  
xalqaro universiteti, "Ijtimoiy fanlar va ta'lim" kafedrası PhD dotsent

**R. Rayimova**

TII Unversiteti Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi 3-kurs talabasi

XX-XXI asrga kelib ulkan muammolarni falsafiy jihatdan anglash asosida bashariyat madaniyatidagi g'oyat muhim qadriyatlar to'g'risidagi masalalar o'rta qo'yildi: milliy, diniy va umuminsoniy masalalar; urush yoki tinchlik; yaratish yoki vayron qilish; tabiat ustidan «hukmronlik qilish» yoki odam bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirish mana shunday ulkan muammolardan hisoblanadi.

O'z-o'zini anglashning navbatdagi shakli insonning jamiyatdagi o'z o'rnini, ijtimoiy mavjudot ekanligini, jamiyatning bir a'zosi, jamiyatning konkret bir rivojlanish bosqichi davri muayyan madaniyat, ijtimoiy guruhiga mansub ekanligini tushunishdan iborat.

O'zo'zini anglashning yuqori shakli, bu har bir kishining jamiyat fuqarosi sifatida o'z hatti – harakatlarining mohiyat va mazmunini tushungan holda, jamiyat oldidagi javobgarlik burchi va majburiyatlarini to'liq anglab etib faoliyatini tashkil etish bu faoliyat uchun mas'uliyatlarni his etish o'z faoliyati ustidan o'z nazoratini o'rnatish o'z faoliyatiga baho bera oladigan o'zo'ziga hisob bera oluvchi shaxs ekanligini tushunishdir.

O'z – o'zini anglashning bu shakli konkret individ bilan bog'liq bo'lgan shaklidir. Insonning o'z - o'zini anglashi ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadi va namoyon bo'ladi.

Chunki, har bir kishi o'zini boshqa kishilar bilan, boshqa kishilarni esa o'zi bilan taqqoslaydi, u o'zini boshqalar bilan qiyoslab idrok etadi va shu asosda o'z-o'zini anglaydi.

Milliy o'z-o'zini anglash esa, aslida, har bir millat madaniyati, ma'naviyati milliy qadriyatlari shu millatning o'zligini anglab etish yo'lida xizmat qilishi lozim. Bu esa pirovard oqibatda, jahon sivilizatsiyasining ham tezlashuviga olib keladi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda.

Mazkur islohotlarning yanada samarali natijalar berishi kelajagimiz bo'lmish yoshlarimizning har tomonlama kamol topishi va zamonaviy madaniyat tendensiyalarida shakllanishi va tarbiya topishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Zotan, yoshlarimizning madaniyatli shaxs sifatida shakllanishi ularning Vatan ravnaqi, yurt taraqqiyoti va xalqi oldidagi mas'uliyatini qanchalik his etishlariga bog'liq. SHu nuqtai nazardan qaraganda, ongli, irodali, mustaqil fikrlovchi, har tomonlama faol, madaniyatli, kelajak taraqqiyot uchun mas'uliyatli yoshlar tarixiy taraqqiyotimizni belgilovchi katta kuchlardan biri ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Rivojlangan ilg'or mamlakatlarida zamonaviy madaniyat kontekstida yoshlarning zamonaviy madaniy qiyofasining shakllanish tendensiyalari va antropologik xususiyatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, yoshlar zamonaviy madaniyatini global voqelik sifatida o'rganish, milliy taraqqiyot ko'rsatkichi mezon sifatida ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda.

Zamonaviy madaniyatni muhim voqelik sifatida tadqiq etish, jamiyat taraqqiyot indeksleri, ko'rsatkich va mezonlari sifatida sotsiologik, madaniy, iqtisodiy va integrativ qonunlari doirasida anglash, izohlash va samarali, ratsional tashkil etish mexanizmlarini yaratish, ularning inson manfaatlariga ta'sirini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda yurtimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni saqlab qolish uchun ona tilimizni, tariximizni, adabiyotimiz va san'atimizni etarlicha o'rgatishning optimal yo'llarini topmog'imiz lozim.

Urf-odatlarimiz ham takomillashtirilishi va zamonaviylashtirilishi juda zarur. Ijtimoiy ongda, odamlarning hatti-harakatlarida burilish yuz berishi, yangi ideallar va qadriyatlar qaror topmog'i dardkor.

«Shaxsiy qadriyatlar yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, nafosati, go'zalligi, ijtimoiy mavqei, qobiliyati, iste'dodi va intellektual salohiyati bilan bog'liq qadriyatlardir.

Umuman olganda, shaxsiy qadriyatlar deganda shaxsning ijtimoiy faoliyatida zaruriy ehtiyojga aylangan, turmush tarzini yaxshilashga ko'mak beradigan, amaliy faoliyati uchun qadrlil bo'lgan napsa-hodisalap majmui tushuniladi»

Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro'y berayotgan yuksalish jarayonlari o'zini barcha sohalarida namoyon etmoqda.

Binobarin, mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida biz o'zimizning milliy o'zligimizni anglash, boy tarixiy-ma'naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyati, mag'zini chaqish va uni ro'yobga chiqarishga intilgan bo'lsak, endilikda xalqimiz jipslanib "milliy tiklanishdan – milliy yuksalish" g'oyasini sobit qadamlilik bilan amalga oshirishga kirishdi.

Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendensiyasi qaror topishi, unga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarining mujassamligi e'tirof etilmoqda. Milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar uyg'un bo'lgan ijtimoiy tafakkur – mamlakatimiz barqaror rivojlanishining o'zan mezon va mustahkam poydevoriga aylanmoqda.

Bugun O'zbekistonda yoshlarning ezgu maqsadlarini hayotga tadbiiq etishlari uchun zarur barcha sharoitlar yaratilmoqda. YOshlar muammolari davlat siyosati darajasida hal etilmoqda. 2017 yil 30 iyunda mamlakatimiz yoshlari hayotida yangi sahifa ochildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi, uning asosiy faoliyati yoshlarning barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va amalga oshirishga qaratildi.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda ijodkorlik, kreativlik qobiliyatlarini yanada rivojlantirish maqsadida qator yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta'lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga etishi mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir.

Yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ularni ijtimoiy va ijodiy faollikka undashda milliy-umuminsoniy an'analarning ahamiyati, bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir.

Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida shunday dedi: "Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga etishi bilan bog'liq.

Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz.

O‘zbek xalqining asriy an‘analari, jumladan, tarbiya sohasidagi an‘analari ajdodlarimizning tabarruk qadriyatlari bilan bog‘liq. YOshi kattalarga salom berish, ularni hurmat qilish, yoshi kichiklar va kuchsizlarni avaylash, ilm olish va kasb o‘rganishga da‘vat, halol mehnat qilishga chaqirish, qo‘shnilar bilan xushmuomala bo‘lish kabi an‘analar o‘zbeklar oilalarida, ularning dinga munosabatlaridan qat‘iy nazar, yoshlarga singdirib kelingan.

Afsuski, ilg‘or qarashli, o‘qimishli, odobli va kelajagini bugundan, yoshlik chog‘idan qurayotgan yoshlar bilan bir qatorda, ishyoqmas, qo‘pol, takasaltang, savodsiz va gumroh o‘spirin yoshlar ham uchrab turibdi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bunday yoshlar ham dunyoviy, ham diniy savodsiz bo‘lib, ularning tarbiyasiga oilalarida kam e‘tibor berilgan, asosan, moddiy ta‘minlab qo‘yish bilan cheklanilgan.

Yoshlar tarbiyasida ma‘rifat va madaniyatning muhim o‘rnini e‘tiborga olib, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2017-2018-yillarda qator g‘oyalar va tashabbuslarni ilgari surdi.

Buyuk ajdodlarimizning bebaho ilmiy-ma‘rifiy meroslarini o‘rganishdan tashqari, ushbu muassasalarning asosiy vazifasi yoshlarni buyuk va shonli o‘tmishga hurmat hamda iftixor bilan qarash, ulug‘ ajdodlarga munosib avlod bo‘lishga, ilm va ma‘rifat olishga intilish ruhida tarbiyalashdan iborat.

Yoshlar va jamiyatning turli yoshdagi boshqa a‘zolarining ma‘rifiy-madaniy tarbiyasida tabarruk qadriyatlarimiz imkoniyatlari, buyuk ma‘naviy-ma‘rifiy merosimizdan foydalanish jarayonida

Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, yoshlar, xotin-qizlar va boshqa jamoatchilik tashkilotlari faoliyat olib bormoqdalar.

Umid qilamizki, barcha sa‘y-harakatlar o‘zining ijobiy natijalarini, albatta beradi. YOshlar tarbiyasiga barcha mas‘ul hamkasblarimizni, yoshlarimizning o‘zlarini dinimiz tarixi, milliy-diniy va madaniy an‘analarimizni chuqurroq o‘rganish, ulardan ma‘rifiy-tarbiyaviy maqsadlarda faolroq foydalanishni taklif qilgan bo‘lardim.

Bugun yoshlar hayoti va kamoloti bilan bog‘liq muammolar barchada birdek mas‘ullik hissini oshirish, o‘z oldiga yangi maqsad va rejalarni belgilab olishda muhim omillardan biriga huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishda qonun va adolat ustuvorligini ta‘minlash eng muhim vazifa bo‘lib qolayotganini ta‘kidladi.

Adolat umuminsoniy qadriyatlar tizimida o‘ziga xos o‘rin egallagan konsepsiya sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Ko‘rinadiki, yoshlar dunyoqarashida milliy-ma‘naviy qadriyatlarga tayanish, uning talqini va jamiyatimizda iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda tutgan o‘rni bugungi muhim muammolar jumlasidandir. Jamiyat ma‘naviy hayotida milliy qadriyatga munosabat muammolari quyidagi omillarga bog‘liq deb aytish mumkinki, birinchidan, mustaqillik ulug‘ ne‘mat va qadriyat ekanligini chuqur idrok etgan holda, umummaqsad yulida yoshlar o‘zlarini ozod shaxs va erkin fuqaro sifatida jamiyat oldidagi o‘z mas‘uliyatini chuqur anglab, faollik ko‘rsatishi har birlarining qalb amriga aylanishi lozim.

Ikkinchidan, jamiyatni erkinlashtirish va ma‘naviyat demokratiya hamda yoshlar dunyoqarashida milliy-ma‘naviy qadriyatlarga tayanish bilan ham uzviy bog‘liq. Mamlakat, xalq, millatning buguni va kelajagiga daxldor bo‘lgan qadriyatlar masalasida o‘z fikrini ochiq va erkin bildirish ayrim salbiy holatlarning oldini oladi.

Eng muhimi, fikrni erkin aytish muhim. YOshlar fikriga hurmat bilan qarash, o‘zgalar fikri bilan hisoblashish va unga tayanish orqali milliy ma‘naviy qadriyatlarni tiklash bilan maqsadlar amalga oshib boradi. Uchinchidan, demokratik jamiyatda milliy-ma‘naviy qadriyatlarni tiklashga fikrni erkin bildirishga ehtiyoj ortadi.

Muammolarni hal etish va qadriyatlar bilan bog‘liq haqiqatni bilishga sharoit paydo bo‘ladi.

Fikrlar xilma-xilligi, munozara madaniyati shakllanadi. Faqat o‘z fikrini o‘tkazish, o‘zgalar fikrini bo‘g‘ib qo‘yish hollarining oldi olinadi.

To‘rtinchidan, milliy ma‘naviy qadriyatlarning tiklanishi tufayli yoshlar o‘z erkinligi, ozodligi va mustaqilligini qadrlaydigan, unga hurmat bilan qaraydigan, shu tuyg‘uga ko‘proq ehtiyoj sezadigan bo‘lib boradi. Madaniy merosga nisbatan befarqlik va loqaydlik kabi ayrim illatlar barham topadi.

Beshinchidan, bugun yoshlarga e‘tibor, ularga imtiyoz shakllari ishlab chiqildi, yoshlarga ibrat bo‘lishga noloyiq ayrim shaxslar faoliyatida uchraydigan, qadriyatlarimizga to‘g‘ri kelmaydigan salbiy xususiyatlarga barham berish imkoniyati tug‘iladi.

Oltinchidan, mustaqil mamlakatda har bir yoshning qaysi sohada ishlashidan qat‘iy nazar, avvalo, ozod va erkin shaxs, inson sifatida o‘zligini anglamog‘i zarur ekanligini ko‘rsatadi. O‘zlikni anglash esa ma‘naviy qadriyatlarni chuqur o‘rganish, asrab-avvaylab rivojlantirish orqali amalga oshadi.

Zero, yoshlar haqiqiy ozodlikni, erkinlikni qalban his va idrok etmasdan erkin hamda ozod fuqaro sifatida faoliyat ko‘rsatish qiyin.

Mustaqil O‘zbekistonning kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari taraqqiyot davrida, asriy ma‘naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimizning tarixiy tajribalaridan to‘g‘ri foydalanib, ularning ibratli ishlaridan saboq olish mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurilishi vazifalarini amalga oshirishga, mamlakatning ma‘nan yuksalishiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida 2023 yil 11 sentyabr PF-158-son Farmoni.lex.uz/ru/docs/-6600413.
3. Mirziyoyev.Sh.M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: O‘zbekiston, 2016-yil.
4. Yusupov A. Yoshlar siyosati: nazariy va amaliy masalalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 245 b.
5. Ergashev I. Yoshlar siyosati va zamonaviy tendensiyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 180 b.
6. Abdullaev B. Yoshlar bandligi: muammolar va yechimlar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. – №2. – B. 45-52.
7. Yunusov L. Yoshlarni davlat boshqaruvida ishtirokini ta‘minlash mexanizmlari // Jamiyat va boshqaruv. – 2022. – №1. – B. 112-120.
8. Muxammadeva, X. K O‘quvchilardagi kitobxonlik madaniyati orqali altruistik motivlarni rivojlantirish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1284-1288.
9. Rajabova N. K. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirishga ta‘sir etuvchi omillar //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 4. – S. 349-352.
10. Muhammadiyeva, X. K., & Ergasheva, G. Z. (2021). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(2), 10-14.
11. Muxammadeva, X. K., Nurmuratova, I., Tulaganova, S., & Jumaniyazova, M. (2022). O‘QUVCHILARDAGI KITOBXONLIK MADANIYATI ORQALI ALTRUISTIK MOTIVLARNI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1284-1288

**BOSHLANG‘ICH SINIF “TARBIYA” DARSLARIDA SUN‘IY INTELLEKT VA  
RAQAMLI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING TARBIYAVIY  
IMKONIYATLARI**

**Tursunova Malika Baxtiyor qizi**

Nizomiy nomidagi O‘zMPU Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi  
kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD  
[tursunovamalika054@gmail.com](mailto:tursunovamalika054@gmail.com)

**Ismoilova Sadoqat Xamza qizi**

Nizomiy nomidagi O‘zMPU Maktabgacha va boshlang‘ich  
ta‘lim fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim yunalishi  
4-kurs talabasi  
[Ismoilovasadoqat1404@gmail.com](mailto:Ismoilovasadoqat1404@gmail.com)

Bugungi kunning “Alfa avlodi” axborot texnologiyalari qurshovida o‘smoqda. Zamonaviy pedagogikada tarbiya tushunchasi faqat axloqiy o‘g‘itlar berish bilan cheklanmaydi; bu jarayon o‘quvchida axborot filtrini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Sun‘iy intellekt vositalari o‘quvchiga ma‘lumotlarni saralashni o‘rgatishda laboratoriya vazifasini o‘taydi. Masalan, dars davomida neyrotarmoqlar yaratgan noto‘g‘ri (feyk) axloqiy xulosalarni tahlil qilish orqali bolalarda tanqidiy tafakkur (critical thinking) rivojlanadi. Bu esa ularni kelajakda internetdagi zararli g‘oyalardan himoya qiluvchi “ma‘naviy immunitet”ning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf davri bolada axloqiy tushunchalar ilk bor tizimlashadigan, “yaxshi” va “yomon” o‘rtasidagi chegara shakllanadigan eng muhim bosqichdir. Bugungi kunda sun‘iy intellekt (SI) faqatgina matematika yoki informatika darslari uchun emas, balki “Tarbiya” fanida insoniy fazilatlarini tushuntirishning kreativ quroliga aylanmoqda. SI algoritmlari yordamida yaratilgan personajlar va interaktiv stsenariylar bolalarga mavhum axloqiy qoidalarni jonli, hayotiy misollar orqali yetkazib beradi.

Interaktiv stsenariylar va axloqiy tanlov simulyatsiyasi, Tarbiya darslarida SI imkoniyatlaridan foydalanishning eng samarali usuli — bu dinamik stsenariylardir. Maxsus dasturlar bolaga turli hayotiy vaziyatlarni taklif etadi. Bola qabul qilgan qarorga qarab, SI voqealar rivojini o‘zgartiradi. Bu usul bolada tanqidiy fikrlashni va o‘z xatti-harakati uchun javobgarlikni his qilishni o‘rgatadi. Bu yerda texnologiya shunchaki o‘yin emas, balki axloqiy laboratoriya vazifasini o‘taydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun o‘yin — asosiy o‘rganish vositasidir. Tarbiya darslarida gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) elementlarini qo‘llash, ya‘ni axloqiy topshiriqlarni bajarish evaziga raqamli nishonlar yoki ballar berish tizimi bolaning ijtimoiy faolligini oshiradi. Masalan, "Kunning eng odobli o‘quvchisi" raqamli reytingini yuritish bolalar o‘rtasida sog‘lom ma‘naviy raqobatni yuzaga keltira oladi. Sun‘iy intellekt esa ushbu ballarni xolis hisoblab, bolaning ijobiy xatti-harakatlarini rag

Milliy qadriyatlar va zamonaviy talqin uyg‘unligi. Raqamli vositalar milliy qadriyatlarimizni bolalarga zamonaviy tilda yetkazishga yordam beradi. SI yordamida “tirilgan” buyuk allomalarimiz obrazlari o‘quvchi bilan muloqotga kirishishi mumkin. Bu o‘quvchida tariximizga nisbatan faxr tuyg‘usini uyg‘otadi. Multimedia vositalari orqali xalq ertaklari va dostonlaridagi qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish bolaning hissiyotlariga kuchli ta‘sir o‘tkazadi. Bunday yondashuv “Tarbiya” darsini quruq nasihatgo‘ylikdan jonli muloqot maydoniga aylantiradi.

Raqamli etika va xavfsizlik madaniyatini shakllantirish. Tarbiya darslarida raqamli vositalardan foydalanish orqali o‘qituvchi bolada kiber-etikani shakllantiradi. Internetda odob-axloq qoidalariga rioya qilish, bironing shaxsiy ma‘lumotlarini hurmat qilish ko‘nikmalari SI tizimlari bilan ishlash jarayonida o‘z-o‘zidan o‘zlashtiriladi. Bola texnologiyadan faqat ko‘ngilochar vosita sifatida emas, balki shaxsiy rivojlanish instrumenti sifatida foydalanishni o‘rganadi.

**Shaxsiy taklifim:** Men kelajakda “tarbiya” darsliklaridagi har bir mavzu uchun QR - kodlar orqali kiriladigan, mavzuga doir audio ertaklar ,tarbiyaviy videoroliklar va SI - o‘yinlar bazasini yaratishni taklif qilaman.

Mazkur mavzu ustida olib borgan izlanishlarim va shaxsiy pedagogik tajribam shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun raqamli vosita faqatgina texnik uskuna emas, balki dunyoni anglashning yangicha usulidir. Mening fikrimcha, o‘qituvchi darsda sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish orqali bolaning nafaqat bilimini, balki uning emotsional reaksiyalarini ham ijobiy tomonga yo‘naltira oladi. Bu esa sinfdagi ma‘naviy muhitni sog‘lomshtirishga va har bir o‘quvchining ichki salohiyatini ochishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar tarbiyada o‘qituvchining o‘rnini bosmaydi, balki uning eng yaqin ko‘makchisiga aylanadi.

**Xulosa qilib aytganda.** Boshlang‘ich sinf “Tarbiya”darslarida sun‘iy intellekt va raqamli vositalardan foydalanish zamonaviy pedagogikaning hayotiy zaruratidir. Ushbu texnologiyalar an‘anaviy ta‘limdagi “nasihatgo‘ylik” uslubidan voz kechib, bolani faol ishtirokchiga, axloqiy qarorlar qabul qiluvchi shaxsga aylantirish imkonini beradi. Raqamli vositalar milliy qadriyatlarimizning “eskirmasligi” haqidagi tushunchani mustahkamlaydi va uni raqamli asrning har qanday ma‘naviy tahdidlariga chidamli bo‘lgan shaxs sifatida shakllantiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. 2019.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
3. To‘rayeva O.M. “Boshlang‘ich sinfdagi ma‘naviy fazilatlarini shakllantirishda raqamli texnologiyalar”. 2023.
4. UNESCO. “Artificial Intelligence in Education”. – Paris, 2019.
5. Xalq ta‘limi vazirligi. “Tarbiya” fani bo‘yicha o‘qituvchi kitobi (1-4-sinflar). – Toshkent, 2023.

### YOSHLAR SIYOSATI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA YOSHLARNING FAOL ISHTIROKINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

**Tursunova Malika Baxtiyor qizi**

Nizomiy nomidagi O‘zMPUBoshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi  
kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD  
[tursunovamalika054@gmail.com](mailto:tursunovamalika054@gmail.com)

**Abdilhamidova Madina**

O‘zMPU Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti  
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi  
[abdilhamidovamadina243@gmail.com](mailto:abdilhamidovamadina243@gmail.com)

Globalashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylandi. XXI asrda davlatlarning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan yosh avlodning bilim va ko‘nikmalariga, ayniqsa raqamli kompetensiyalariga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan yoshlar siyosati nafaqat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash vositasi, balki innovatsion rivojlanishning strategik instrumenti sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston sharoitida yoshlar aholining katta qismini tashkil etadi. Bu esa davlat siyosatida yoshlar masalasiga ustuvor yo‘nalish sifatida qarashni taqozo etadi. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jarayonida yoshlarning faol ishtirokini ta‘minlash esa iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va innovatsion taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi<sup>51</sup>.

---

<sup>51</sup> Castells, M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. Oxford: Blackwell Publishing, 2010. 597 p.

Yoshlar siyosati davlatning yosh avlodni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy faolligini oshirish hamda intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir. Zamonaviy yondashuvlarda yoshlar siyosati paternalistik modeldan hamkorlik modeliga o'tmoqda. Bu modelda yoshlar faqat yordam oluvchi emas, balki qaror qabul qilish jarayonining faol subyekti sifatida ishtirok etadi.

Raqamli jamiyat sharoitida yoshlar siyosatining asosiy vazifalaridan biri raqamli tenglikni ta'minlash, ya'ni barcha yoshlar uchun internet, axborot resurslari va zamonaviy texnologiyalarga teng kirish imkoniyatini yaratishdir<sup>52</sup>.

Yoshlarning raqamli texnologiyalardagi faol ishtiroki bir nechta asosiy omillarga bog'liq. Birinchidan, raqamli savodxonlik darajasi. Raqamli savodxonlik nafaqat kompyuterdan foydalanish, balki ma'lumotlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish va raqamli kontent yaratish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, ta'lim tizimining moslashuvchanligi. STEAM yo'nalishidagi ta'lim, dasturlash, robototexnika, sun'iy intellekt asoslarini o'rgatish yoshlarning texnologik kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Uchinchidan, innovatsion infratuzilma. IT-parklar, startap inkubatorlar, akselerator dasturlar yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. To'rtinchidan, normativ-huquqiy baza. Yoshlarning raqamli iqtisodiyotda erkin va xavfsiz faoliyat yuritishi uchun mustahkam qonunchilik asoslari zarur<sup>53</sup>.

Yoshlarning raqamli texnologiyalardagi ishtirokini rivojlantirish uchun quyidagi mexanizmlarni samarali deb hisoblash mumkin:

Ta'limiy mexanizmlar- maktab va oliy ta'lim muassasalarida raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan fanlar ulushini oshirish, masofaviy ta'lim platformalarini keng joriy etish, ochiq onlayn kurslar orqali bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Institutsional mexanizmlar- yoshlar tashkilotlari va davlat idoralari o'rtasida raqamli platformalar orqali muloqotni kuchaytirish, elektron hukumat tizimlarida yoshlar uchun alohida interaktiv xizmatlar yaratish, grant va subsidiyalar ajratish mexanizmini takomillashtirish lozim.

Iqtisodiy mexanizmlar- raqamli startaplar uchun soliq imtiyozlari, venchur moliyalashtirishni rivojlantirish, frilans faoliyatini qonuniylashtirish va qo'llab-quvvatlash yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaydi.

Ijtimoiy-psixologik mexanizmlar- yoshlar orasida innovatsion fikrlashni rivojlantirish, muvaffaqiyatli IT-mutaxassislar tajribasini ommalashtirish, mentorlik tizimini joriy etish ularning motivatsiyasini oshiradi.

*Yoshlar – internetdan eng faol foydalanuvchilar:* Jahon miqyosida 15–24 yoshdagi yoshlarning 75 – 82 % internetdan foydalanadi, bu boshqa yosh guruhlaridan ancha yuqori .

*EU mamlakatlarida yoshlarning raqamli faolligi juda yuqori:* 16 – 29 yoshli yoshlarda 96 – 97 % kunlik internetdan foydalanadi, bunda ijtimoiy tarmoqlar eng ko'p ishlatiladi .

*Axborotni tanqidiy tekshirish past:* Internetdan foydalanish yuqori bo'lsa ham, faqat 36 % yoshlar onlayn topgan ma'lumotni bir necha manbadan tekshiradi.

*Raqamli kirish kengaymoqda:* Dunyo bo'yicha yoshlarning 79 % ijtimoiy va raqamli muhitda qatnashmoqda, bu raqam raqamli faollikning global tendensiyasini ko'rsatadi .

*Yoshlar raqamli qurilmalarga juda bog'liq:* OECD ma'lumotlariga ko'ra, 15 yoshli bolalarning 98 % smartfonga ega va ko'pchiligi haftasiga 30+ soat raqamli qurilmalardan foydalanadi

---

<sup>52</sup> Brynjolfsson, E., McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W.W. Norton & Company, 2014. 306 p.

<sup>53</sup> Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum, 2016. 192 p.

**Statistik ko'rsatkichlar jadvali (Yoshlar va raqamli texnologiyalar)<sup>54</sup>**

<b>№</b>	<b>Statistik ko'rsatkich</b>	<b>Ma'lumot manbai / Izoh</b>
1	<b>Global yoshlar internetdan foydalanish darajasi:</b> 75 % yoshlar (15-24 yosh) internetdan foydalanadi, bu boshqa yosh toifalaridan 10 % yuqori	Butunjahon aholisining raqamli ulushi, 2022 data
2	<b>Global internet foydalanish umumiy ko'rsatkich:</b> 82 % 15-24 yoshlar internetdan foydalanadi	ITU statistikasi
3	<b>EU (Evropa Ittifoqi) yoshlar internetdan kundalik foydalanish:</b> 97 % (16-29 yosh)	Eurostat, 2024 data
4	<b>EU yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda faolligi:</b> 88 % – onlayn profillar yaratish yoki post qilish	Eurostat, 2024 data
5	<b>EU yoshlar internetdan kundalik foydalanish (2022):</b> 96 %	Eurostat, 2022 data
6	<b>EU yoshlar axborotni onlayn tekshirish darajasi:</b> 36 % kontentni tekshiradi	Eurostat, 2023 data
7	<b>Global yoshlar raqamli ulushi:</b> 79 % yoshlar onlayn	ITU digital inclusion background
8	<b>UNICEF global raqamli yoshlar farqi:</b> yoshlar internetdan foydalanish boshqalaridan yuqori	UNICEF tahlili
9	<i>OECD statistikalarida 15-yoshli bolalarning 98 % smartfonga ega*</i> va ko'pchiligi haftada $\geq 30$ soat raqamli qurilmadan foydalanadi	OECD tahlili

Yoshlarning raqamli makondagi faolligi bilan bir qatorda kiberxavfsizlik muammolari ham dolzarbdir. Soxta axborot, kiberjinoyatchilik, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi masalalari alohida e'tibor talab qiladi. Shu sababli yoshlar siyosatida raqamli madaniyat va axborot xavfsizligi bo'yicha tizimli targ'ibot ishlarini olib borish zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar siyosati va raqamli texnologiyalar o'zaro uzviy bog'liq yo'nalishlardir. Raqamli transformatsiya jarayonida yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash davlatning innovatsion rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, startup ekotizimini rivojlantirish, elektron hukumat imkoniyatlarini kengaytirish va kiberxavfsizlikni ta'minlash orqali ularning jamiyat hayotidagi faolligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Kelgusida yoshlar siyosatini raqamli platformalar bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirish, sun'iy intellekt va yangi texnologiyalar asosida innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash barqaror taraqqiyotning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. 2016 yil 14 sentabr. O'RQ-406-son. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016, №37, 426-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2020 yil 5 oktyabr. PF-6079-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020.
3. Castells, M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. Oxford: Blackwell Publishing, 2010. 597 p.
4. Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum, 2016. 192 p.

<sup>54</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2020 yil 5 oktyabr. PF-6079-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020.

5. Brynjolfsson, E., McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W.W. Norton & Company, 2014. 306 p.
6. Castells, M. Communication Power. Oxford: Oxford University Press, 2009. 571 p.

## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA ESTETIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI SHAKL VA VOSITALARI**

**Tursunova Malika Baxtiyor qizi**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston  
milliy pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta‘lim  
pedagogikasi kafedrası” katta o‘qituvchisi, PhD

**Aminova Oltinay Davranbek qizi**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti  
Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta‘lim)  
1-bosqich magistranti

Zamonaviy ta‘lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik tarbiyani samarali tashkil etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning estetik idrokini faollashtirish, badiiy tafakkurini rivojlantirish hamda ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

AKT asosidagi virtual muzey sayohatlari o‘quvchilarga jahon san‘ati namunalari masofadan turib idrok etish imkonini yaratadi. Bu jarayon san‘at asarlarini tahlil qilish, ularning estetik qiymatini anglash va madaniy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. 3D modellar orqali san‘at asarlari va me‘moriy obidalarini uch o‘lchamli formatda kuzatish esa makon, shakl va kompozitsiya haqidagi estetik tasavvurlarni chuqurlashtiradi.

Shuningdek, interaktiv dasturlar o‘quvchilarning estetik faoliyatga faol jalb etilishiga imkon yaratib, mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Raqamli hikoyalar (digital storytelling) texnologiyasi vizual, audio va matniy elementlarni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarda ranglar uyg‘unligi, ritm, tovush va kompozitsiya bo‘yicha estetik tanlovlar qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Natijada estetik tafakkur integrativ va tizimli rivojlanadi.

Estetik tarbiyada milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuv

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik madaniyatni shakllantirishda milliy-madaniy merosga tayangan holda ish olib borish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar estetik tarbiyaning mazmuniy asosini tashkil etib, o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, badiiy did va estetik qarashlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Xususan, xalq og‘zaki ijodi (ertaklar, qo‘shiqlar, baytlar) orqali o‘quvchilar milliy estetik tafakkur namunalari bilan tanishadilar. Milliy hunarmandchilik turlari – kashtachilik, kulolchilik, zargarlik, to‘qimachilik o‘quvchilarda mehnat estetikasi va badiiy didni rivojlantiradi. Milliy naqsh va bezaklardan tasviriy san‘at darslarida foydalanish ranglar uyg‘unligi va kompozitsion tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, an‘anaviy musiqa va raqslar bilan tanishish o‘quvchilarning musiqiy-estetik sezgirligini oshiradi, milliy san‘atga nisbatan barqaror qiziqish va hurmatni shakllantiradi.

O‘quv jarayonini estetik jihatdan samarali tashkil etish. Boshlang‘ich sinflarda estetik tarbiyaning samaradorligi o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga bevosita bog‘liq. Dars jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Jumladan, kichik yoshdagi o‘quvchilarning diqqatini uzoq vaqt davomida barqaror saqlab bo‘lmasligi, faoliyat turlarini o‘z vaqtida almashtirib borish zarurati e‘tiborga olinishi lozim.

Murakkab qo‘shiq va raqs elementlarini bir necha bosqichda o‘rganish, musiqiy-ritmik harakatlardan so‘ng darhol vokal mashg‘ulotlarga o‘tmaslik estetik ta‘lim samaradorligini oshiradi. Dars jarayonida ijobiy emotsional muhit yaratish o‘quvchilarning estetik faolligini oshiruvchi muhim omil bo‘lib, bu ularning ijodiy faolligini rag‘batlantiradi.

Ta'lim muhitini estetik jihatdan boyitish. Maktab va sinf xonalarining estetik jihatdan to'g'ri bezatilishi estetik tarbiyaning samarali amalga oshirilishida muhim didaktik omil hisoblanadi. Estetik jihatdan boy muhit "jim tarbiyachi" vazifasini bajarib, o'quvchilarda tartib, uyg'unlik va go'zallikka intilish hissini shakllantiradi. Tabiiy elementlar, badiiy ko'rgazmalar va vizual uyg'unlik estetik sezgirlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinflarda estetik tarbiyani shakllantirish murakkab va ko'p qirrali pedagogik jarayon bo'lib, u zamonaviy pedagogik texnologiyalar, milliy qadriyatlar va ilg'or pedagogik tajribaning uyg'unligini talab etadi. Tadqiqot natijalari estetik madaniyatni shakllantirishda tizimli, izchil va individual yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Estetik tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, nazariya va amaliyot birligi, hamda yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyillari asosiy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida go'zallikni anglash, qadrlash va yaratishga bo'lgan barqaror ehtiyojni shakllantirish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Zunnunov A. Boshlang'ich sinflarda estetik madaniyatning shakl uslub tamoyillari // International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH». - 2025. - Vol. 4. - Issue 1. - P. 234-237.
2. Kuttibekova N. Art-pedagogik texnologiyalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash // Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy jurnali. - <https://jdpu.uz>
3. Yaqubova D.X. Innovative Forms of Aesthetic Culture Formation in Primary School Students // American Journal of Science on Integration and Human Development. - 2025. - Vol. 3. - Issue 4. - P. 15-17.
4. Maktab yoshidagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti muammolariga munosabatni shakllantirish // Cyberleninka. - 2026. - <https://cyberleninka.ru>
5. 1-4-sinfda estetik tarbiyani shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari // Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. - 2022. - P. 183-184.
6. Estetik tarbiya metodikasi: o'quv qo'llanma. -Buxoro: BuxDU, 2023.135 p.
7. Karimov A. Estetik madaniyat va uning shakllanish tamoyillari // Pedagogika fanlari. - 2018. - № 3. - S. 45-52.
8. Nemensky B.M. Esteticheskoe vospitanie v nachalnoy shkole: integrativnyy podkhod // Nachalnaya shkola. - 2015. - № 12. - S. 15-20.
9. Suxomlinskiy V.A. O vospitanii cheloveka. - M.: Prosveshchenie, 1985. - 456 s.
10. Qodirov A. Milliy an'analar asosida estetik madaniyatni shakllantirish // O'zbekiston pedagogika jurnali. - 2021. - № 2. - S. 78-85.

### **BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI O'QITISHDA VARIATIV**

#### **PEDAGOGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH**

**Baltamuratova Aksungul Perdebaevna**

Nizomiy nomidagi O'zMPU, Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD

**Yangiboyeva Gulsevar**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

O'qitishning zamonaviy variativ tizimlarining tasnifiga o'tishda, ularni yaxlit pedagogik jarayonning muhim hususiyatlaridan kelib chiqib ko'rib chiqishga muvofiq ko'rinadi. "Pedagogik jarayon ta'lim va tarbiyaning birligi va o'zaro bog'liqligidagi yaxlit ta'lim-tarbiyaviy jarayon bo'lib, uning subektlarning birgalikdagi faoliyati, hamkorligi va birgalikda yaratilishi bilan tavsiflanadi, o'quvchining har tomonlama rivojlanishi va o'z-o'zini anglashga yordam beradi. U pedagogik tizimlar sharoitida ta'lim va tarbiya maqsadlarini amalga oshiradigan jarayon bo'lib, bunda tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar uyushgan holda o'zaro hamkorlik qiladi. Ta'lim

o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda **«Aqliy hujum»**, **«Fikrlar hujumi»**, **«Tarmoqlar» metodi**, **«Sinkveyn»**, **«BBB»**, **«Beshinchisi ortiqcha»**, **«6x6x6»**, **«Bahs-munozara»**, **«Rolli o'yin»**, **FSMU**, **«Kichik guruhlarda ishlash»**, **«Yumaloqlangan qor»**, **«Zigzag»**, **«Oxirgi so'zni men aytay»** kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqlarning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: **«Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish**

**uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko‘raylik»**[1], - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko‘zlangan maqsadga erishishga o‘z hissangizni qo‘shasiz degan umiddamiz.

**«Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha» metodi**

O‘quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

• **O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;**

• **hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;**

• **o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;**

• **o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).**

Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

• **o‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;**

• **o‘quvchilar mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo‘lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;**

• **o‘quvchilar o‘z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.**

Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Bizningcha, ta'limiy o‘yinlarga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o‘yinlar o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi kerak;
2. O‘yinlar o‘tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo‘lishi lozim;
3. Ta'limiy o‘yinlarni o‘tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o‘yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak;
5. Ta'limiy o‘yinlarning o‘tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Винокурова, Н.К. Развитие творческих способностей учащихся. – М: Педагогический поиск, 1999. – 95 с.

2. Креативный ребенок: Диагностика и развитие творческих способностей. – М.: Высшая школа, 2004. – 416 с.

3. Кудрявцев, В.Т. Диагностика общих творческих способностей дошкольника // Развивающее образование в системе дошкольного воспитания: Сборник статей. – Дубна, 1995. – С. 126-148.

4. Леонтьев, А.Н. О формировании способностей // Вопросы психологии. – 1960. – № 1. – С. 34-38.

5. Матюшкин, А.М. Развитие творческой активности школьников. – М.: Педагогика, 2011. – 155 с.

6. Балтамуратова А.П. Развитие творческой деятельности будущих педагогов начального образования в контексте развивающего обучения Нукус давлат педагогика институти “**Fan va jamiyat**” **ilmiy-uslubiy jurnali 4-son/ 45-47 бетлар, Нукус 2022**

7. **Baltamuratova A.P.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy tayyorlash jarayonida ijodiy faoliyatini takomillashtirish samaradorligi TDPU “Ilmiy axborotlari” jurnali 11-son 2022

8. **Baltamuratova A.P.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ijodiy faoliyatining mazmuni va tuzilishi M.Ulug‘bek nomidagi UzMU “UzMU xabarlari” ilmiy jurnali, 1/1 2023 ISSN 2181-7324

9. **Baltamuratova A.P.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchi faoliyatida pedagogik va ijodiy qobiliyat. Impact Factor: 9.2 ISSN-L: 2544-980X. Miasto Przyszłości Kielce 2022 <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/822/76>

10. **Baltamuratova A.P.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini takomillashtirish. Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations, (2022, November 28) Prague, Czech. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7370316>

11. **Baltamuratova A.P.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari va funksiyalari. «Zamonaviy dunyoda Innovation Tadqiqotlar, Nazariya Va Amaliyot» Nomli Ilmiy, Respublika Onlayn Konferensiya, Attribution 4.0 International (2022). 1(27), 138–148. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7376276>

12. **Baltamuratova A.P.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish «XXI asr ko‘nikmalarini ommalashtirishda talabalarning roli» Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya I-qism. Jizzax shahri 18 noyabr 2022 yil.

Baltamuratova A.P. & Raxmatova R.D. (2022). Aniq Va Tabiiy Fanlarni O‘qitish Metodikasini Takomillashtirish Nazariy Bilimlarini Amaliyot Bilan Bog‘lash. Miasto Przyszłości, Impact Factor 9.2. N 29, Pp. 286–289. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/775>

## IMPLEMENTING DIGITAL TECHNOLOGIES IN LANGUAGE LEARNING SKILLS

**Xakimova Munira Xabibullayevna**  
Tashkent University for Applied Sciences,  
senior teacher and scientific supervisor,  
[munirakhakimova2575@gmail.com](mailto:munirakhakimova2575@gmail.com)  
**Mukhayyo Turdiyeva**-graduater of  
Tashkent University for Applied Sciences,  
history and philology faculty,  
[Mukhayyoturdiyeva@gmail.com](mailto:Mukhayyoturdiyeva@gmail.com)

The rapid development of technology has transformed many aspects of human life, including education. In the field of language teaching, Information and Communication Technology (ICT) has introduced innovative, speaking, reading, and writing. Traditional teaching methods often limit student interaction and exposure to authentic materials. ICT tools, however, provide multimedia resources, real-time communication, and access to global information, which significantly contribute to language development. This study aims to analyze the effectiveness of ICT tools in teaching language skills and to explore their advantages and challenges in educational settings.

The integration of ICT in language education has been widely discussed by scholars. Warschauer (1996) emphasized that technology enhances communicative competence through

computer-mediated communication.<sup>55</sup>The three primary areas of Warschauer's contributions to applied linguistics are computer-assisted language learning (CALL), literacy, and equity and social inclusion of culturally and linguistically diverse people using technology.

Chapelle (2001) highlighted the importance of technology in improving second language acquisition.<sup>56</sup> Computer technology provides learners with new and varied options for language learning through interactive tasks delivered through CD-ROMs, Web pages, and communications software on the Internet. The relationship between SLA and CALL is the main topic of Chapelle's (2001) article, "Computer-Assisted Language Learning," which identifies eight cognitive characteristics that may influence how students focus during directed language learning tasks. These include altered output, altered interaction, time pressure (or lack thereof), modality, support, surprise, control, and stakes. She adds to these several socio-affective elements that underlie communication willingness as well as other factors to take into account, like learners' cognitive traits, task choices, and practical considerations. These serve as the foundation for a set of six CALL evaluation principles: potential for language acquisition, learner fit, authenticity, positive impact, meaning focus, and usefulness.

Studies by Blake (2013) show that online learning platforms enhance students' speaking and listening skills through authentic communication.<sup>57</sup> Despite decades of emphasis on the issue of speaking skills being neglected in English as a Second Language (ESL) classrooms, not much has improved in recent years. Given our growing reliance on technology, it is thought that authentic videoconferencing—which is now feasible thanks to the advent of numerous videoconferencing platforms—will help ESL students improve their speaking abilities. Recent research confirms that ICT increases student motivation and engagement while providing opportunities for individualized learning (Dudeny & Hockly, 2012).<sup>58</sup> Early teaching theories can be broadly classified into two categories, according to Richards and Rodgers: process-oriented theories and condition-oriented theories. The former focuses on learners' mental processes, while the latter emphasizes classroom conditions and teaching methods (Richards and Rodgers 2001). The theoretical foundation of FLT has drastically changed from behaviorist theory, cognitive theory, constructivist theory, to connectionist theory since the introduction of information technology into the classroom at the start of the 20th century (Dudeny and Hockly 2012).

This study applies a qualitative and descriptive research design. Data were collected through classroom observation, analysis of previous research, and comparison of traditional and ICT-based teaching methods. The research focuses on university-level English language learners who use digital tools such as:

1. Multimedia presentations: 2. Online learning platforms: 3. Language learning applications: 4. Virtual communication tools

The collected data were analyzed to determine the effectiveness of ICT in developing language skills.

**Listening Skills:** ICT tools such as podcasts, YouTube videos, and interactive listening applications provide authentic input. Students are exposed to native pronunciation, different accents, and real-life conversations. This improves listening comprehension and pronunciation accuracy.

**Speaking Skills:** Online platforms (Zoom, Google Meet, language exchange apps) create opportunities for real-time communication. Students practice speaking beyond classroom limits, which reduces anxiety and builds confidence.

---

<sup>55</sup> Warschauer, M. (1996). Computer-Mediated Collaborative Learning: Theory and Practice. *Modern Language Journal*, 80(4), 470–481

<sup>56</sup> Chapelle, C. A. (2001). *Computer Applications in Second Language Acquisition*. Cambridge University Press.

<sup>57</sup> Blake, R. (2013). *Brave New Digital Classroom: Technology and Foreign Language Learning*. Georgetown University Press.

<sup>58</sup> Dudeny, G., & Hockly, N. (2012). ICT in ELT: How Did We Get Here and Where Are We Going? *ELT Journal*, 66(4), 533–542.

**Reading Skills:**Digital texts, online articles, and e-books enhance reading comprehension. Hyperlinked vocabulary and instant translation tools help learners understand complex texts more effectively.  
**Writing Skills**

Writing applications such as Grammarly and collaborative tools like Google Docs allow immediate feedback. This improves grammatical accuracy, coherence, and vocabulary usage.

The findings demonstrate that ICT integration leads to higher student motivation, improved academic performance, and increased learner autonomy.

Advantages;

- a)Increased motivation and engagement
- b)Access to authentic materials
- c)Immediate feedback
- d)Development of autonomous learning
- e)Flexible and interactive environment

Challenges;

- a)Limited technical resources
- b)Internet connectivity issues
- c)Insufficient teacher training
- d)Possible digital distractions

Despite these challenges, proper planning and professional development can ensure effective ICT implementation.

In conclusion,the study confirms that ICT tools significantly enhance the teaching and learning of language skills. Technology supports interactive and student-centered approaches while improving learners' proficiency in listening, speaking, reading, and writing. To meet the demands of modern education, integrating ICT into language classrooms is not optional but essential.When used properly and purposefully, technologies make the language teaching process more effective and higher in quality. The present study has demonstrated that the integration of Information and Communication Technology (ICT) in language teaching significantly enhances the development of the four essential language skills: listening, speaking, reading, and writing. The findings confirm that ICT tools provide authentic materials, interactive environments, and immediate feedback, which contribute to more effective and meaningful language learning experiences.

Through multimedia resources and online platforms, students are exposed to real-life language use, diverse accents, and global communication opportunities. Although certain challenges such as limited technical resources, insufficient teacher training, and potential digital distractions may hinder the effective implementation of ICT, these obstacles can be minimized through proper planning, institutional support, and continuous professional development for teacher.In conclusion, ICT is not merely an additional teaching aid but an essential component of modern language education. When used purposefully and pedagogically, digital technologies create student-centered, interactive, and flexible learning environments that significantly improve language proficiency. Therefore, educators and institutions should actively integrate ICT tools into language classrooms to meet the demands of 21st-century education and to prepare learners for global communication.

### **References**

1. Warschauer, M. (1996). Computer-Mediated Collaborative Learning: Theory and Practice. *Modern Language Journal*, 80(4), 470–481.
2. Chapelle, C. A. (2001). *Computer Applications in Second Language Acquisition*. Cambridge University Press.
3. Dudeney, G., & Hockly, N. (2012). ICT in ELT: How Did We Get Here and Where Are We Going? *ELT Journal*, 66(4), 533–542.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.

## **ЁШЛАР СИЁСАТИ СОҲАСИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШ.**

**Рўзиева Камола Жаҳонгир қиз**

Тошкент ахборот технологиялари университет.

Кибрхавфсизлик факультети.

Кибрхавфсизлик инжиниринг йўналиши талабаси

Ҳозирги вақтда дунёнинг кўпгина мамлакатларида ёшлар билан ишлашнинг янгича моделларини шакллантириш ҳамда уларни амалга оширишда инновацион механизм ва технологияларни яратишга оид кўплаб илмий тадқиқот марказлари фаолият олиб бормоқда. Ушбу моделларни ишлаб чиқишда уларнинг замон талабларига мослигига асосан бажарадиган вазифаларига катта миқдордаги инвестицияларни жалб қила олиш хусусиятига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бундан ташқари, ёшлар сиёсати бўйича миллий моделларнинг нафақат локал нуқтаи назардан муваффақиятли амал қилиши балки, уларнинг мазкур соҳадаги халқаро муносабатларга интеграциялаша олиши, мазкур сиёсатнинг самарадорлигини белгиловчи муҳим мезонлари сифатида қаралмоқда. Мустақиллик йилларида кўпгина соҳалар қатори Ўзбекистон Республикасининг ёшларга оид давлат сиёсати ҳам алоҳида йўналиш сифатида тубдан қайта ташкил топди ва бир қатор муҳим тадрижий тараққиёт босқичларини бошдан кечирди. Бугунги кунда ҳам мазкур долзарб масалага устувор аҳамият қаратилмоқда. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев — “Биз ёшларга доир давлат сиёсатини ҳеч оғишмасдан, қатъият билан давом эттирамиз. Нафақат давом эттирамиз, балки бу сиёсатни энг устувор вазифамиз сифатида бугун замон талаб қилаётган юксак даражага кўтарамиз. Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор қуч ва имкониятларини сафарбар этамиз”, дея қатъий фикр билдиргани эътиборлидир. Шунга мувофиқ ёшларга оид давлат сиёсатини жамиятнинг барча қатламларига интеграциялаша оладиган тарзда амалга ошириш моделини ишлаб чиқиш унда қўлланиладиган механизм ва технологияларни такомиллаштириш билан боғлиқ илмий ва амалий ишланмаларни тадқиқ этиш вазифаси долзарб аҳамиятга эга.

Давлат барча ёшлар учун тенг имкониятлар ва шароитлар яратишга масъул бўлади. Бунда таълим, фан, маданият, спорт ва тадбиркорлик соҳаларида ёшларни қўллаб-қувватлаш муҳим ўрин тутади. Ёшларга оид давлат сиёсати устувор йўналишларини белгилашда, Давлат ёшларнинг ижтимоий-иқтисодий муаммоларини ҳал қилиш, уларнинг салоҳиятини ривожлантиришга йўналтирилган аниқ чора-тадбирларни амалга ошириш мажбуриятини ўз зиммасига олади.

Юртимизда ташкил этилаётган янги давлат ва нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари, умумтаълим мактаблари, олий ўқув юртлири, нуфузли хорижий университетларнинг филиаллари, замонавий ИТ-парклар, маданият муассасалари ва спорт иншоотлари, мутлақо янги намунадаги таълим масканлари — «Президент мактаблари», «Темурбеклар мактаби», «Ижод мактаблари» бугунги глобаллашув шароитида рақобатга қодир бўлган етук кадрларнинг янги авлодини тарбиялашга хизмат қилмоқда.

Мазкур қадам, юртимиз ёшларининг мамлакатимиз равнақи ва юксалиши, фуқароларнинг фаровон турмуш, муносиб ҳаётга эга бўлиши, жаҳондаги илғор жамиятлар сафидан ўрин олиши каби мақсадларни ҳаётга татбиқ этишдаги ўрни ва роли залворли эканлигининг эътирофи бўлди, десак муболаға бўлмайди. Бугунги кунда ҳаётга изчиллик билан татбиқ этилаётган ёшларга оид давлат сиёсатига кўра, юртимиз ёшларига бир қатор

имкониятлар яратилган. Бундай имкониятлар Конституция талабларини амалга оширишда тизимли ёндашувни таъминлашга хизмат қиляпти.

❖ Булар аввало, таълим соҳасидаги имкониятлар, яъни Давлат томонидан мактаблар, коллежлар, олий ўқув юрларида таълим олиш учун бепул ёки имтиёзли шартлар яратилган.

❖ Иккинчидан, ёшларнинг қобилияти ва натижаларига қараб давлат стипендиялари ва таълим грантлари ажратилган.

❖ Учунчидан, ишсиз ёшлар ва янги касб ўзлаштироқчи бўлганлар учун касбий таълим дастурлари ташкил этилди. Давлат ёшлар учун янги иш ўринлари ташкил қилишга қаратилган дастурларни амалга оширади.

❖ Тўртинчидан, ёш тадбиркорларга ўз бизнесини бошлаши учун имтиёзли кредитлар ва субсидиялар берилади. Ёшлар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш марказлари томонидан, Стартаплар ва кичик бизнес лойиҳалари учун маслаҳат, таълим ва молиявий ёрдам кўрсатилади.

❖ Бешинчидан, ишсиз ёшларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш бўйича, ёшлар бандлигини таъминлаш учун давлат томонидан вақтинча иш топиш дастурлари ташкил қилинади.

❖ Олтинчидан, имтиёзли уй-жой ва ижарага оид масалалар юзасидан, ёш оилалар ва ёш мутахассислар учун имтиёзли ипотека дастурлари жорий этилади.

❖ Еттинчидан, моддий ёрдамга муҳтож, кам таъминланган ва ногиронлиги бор ёшларга давлат томонидан моддий ёрдам кўрсатилади. Шунингдек, меҳрибонлик уйларида тарбияланган, етим болалар, боқувчисини йўқотган ва ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни қўллаб-қувватлайди.

❖ Саккизинчидан, ёшларнинг экологик, меҳнат ва фуқаролик ҳуқуқларини ҳимоя қилиш мақсадида, Давлат ёшларнинг ҳуқуқлари ва манфаатларини ҳимоя қиладиган қонунларни қабул қилади ва ижро этилишини таъминлайди.

❖ Тўққизинчидан, ёшлар масалаларига оид омбудсманлар ва марказлар ёшларнинг ҳуқуқлари бузилганда ёрдам кўрсатувчи мутахассислар ва ташкилотлар фаолият юритади.

❖ Ўнинчидан, маданият, спорт ва маънавият соҳасидаги имкониятлар бўйича, Давлат ёшлар учун спорт ва маданият соҳасида фаолият юритувчи тўғарақлар ва клубларни ташкил қилади. Ёшларнинг жисмоний ривожланиши ва соғлом турмуш тарзини қўллаб-қувватлаш учун турли мусобақалар ўтказилади. Ёшлар ўртасида ижтимоий ва маънавий мулоқотни ривожлантириш мақсадида форумлар, фестиваллар ва танловлар ташкил қилинади.

Бундан ташқари, ёшларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётда фаол иштирок этишини таъминлайдиган ёшлар ташкилотлари фаолият юритади. Ёшлар раҳбарлик ва лидерлик кўникмаларини ривожлантириш учун махсус дастурлар орқали тайёрланади. Давлат ёшлар парламентлари ёки ёшларнинг сиёсий жараёнларда қатнашишига имконият яратувчи ташкилотларни қўллаб-қувватлайди. Мамлакат аҳолисининг 18,9 млн. нафари ёки 54 фоизини 30 ёшгача бўлган ёшлар ва болалар ташкил этади. Ёшларнинг 9,5 миллиони эркак, 9,4 миллиони эса аёл жинсига мансуб.

Республикада ёшларга оид давлат сиёсатининг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш мақсадида 2017-2020 йилларда 50 дан ортиқ қонун ва қонуности ҳужжатлари қабул қилинди, 30 июнь - "Ёшлар куни" деб эълон қилинди. Мамлакатимизда кейинги йилларда амалга оширилаётган ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ислохотлар натижасида тараққиётнинг мутлақо янги босқичига қадам қўйилди. Ёшларга оид давлат сиёсати доирасида ижтимоий-иқтисодий, ташкилий ва ҳуқуқий чора-тадбирларни тизимли равишда амалга оширувчи давлат бошқарув органи сифатида Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ташкил этилди.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенатида Ёшлар, маданият ва спорт масалалари қўмитаси, Олий Мажлис Сенати қошида 100 нафар ва Қонунчилик палатаси қошида 250 нафар фаол ва ташаббускор ёшлардан иборат "Ёшлар

парламент"лари, Қонунчилик палатасида Ёшлар масалалари бўйича комиссия ташкил қилинди."Маҳаллабай" ўрганишлар орқали ёшларнинг бандлигини таъминлаш, касб-хунарга ўқитиш, тадбиркорликка жалб этиш, шунингдек, улар ўртасида маданият, санъат, спорт, ахборот технологиялари ва китобхонликни ривожлаштириш мақсадида янгича тизим асосида барча туман (шаҳар)ларда "Ёшлар дастурлари"ни амалга ошириш йўлга қўйилди.

Ҳар бир маҳалла, туман, шаҳар ва вилоят кесимида ижтимоий, ҳуқуқий, психологик қўллаб-қувватлашга, билим ва касб ўрганишга эҳтиёжи ва иштиёқи бор бўлган ишсиз ёшлар киритиладиган "Ёшлар дафтари" тизими жорий этилди. Бундай улуғвор ўзгаришлар негизида "Инсон кадри учун" ғояси ҳамда ислохотларнинг "Инсон — жамият — давлат" бош тамойилини Конституциямиз мазмунига чуқур сингдириб, ҳаётимизда бош қадриятга айлантиришдек эзгу ишлар мужассам. Яратилган бундай имкониятлар ёшларнинг шахсий салоҳиятини рўёбга чиқаришга ва келажақда давлат тараққиётига ҳисса қўшишига хизмат қилади.

Ёшларга оид давлат сиёсатини тадқиқ этишга қаратилган қадриятимеъёрий, тизимли ва тузилмавий-функционал, институционал, социологик, антропологик психологизм, бихевиористик ва ёшларнинг сиёсий хулқатворлари ҳамда сиёсий маданиятини эмпирик тадқиқ этишга қаратилган статистик, ҳужжат таҳлили, анкета сўровномаси, лаборатория эксперименти, иш ўйини, кузатиш кўплаб назарий-методологик ёндашувларни ажратиб кўрсатиш мумкин. Ёшлар сиёсати бўйича халқаро тажриба таҳлили шуни кўрсатадики, бугунги кунда айтилиб соҳада ёшлар билан ишлашнинг янгича моделларини ишлаб чиқиш ҳамда уларни амалга оширишда инновацион механизм ва технологияларни қўллашга бўлган интилиш тенденцияси кузатилмоқда.

**Ўзбекистон Республикасида ёшларга рақамли технологияларни ўргатиш бўйича бир нечта дастурлар мавжуд:**

• **IT-шаҳарча.** Худудларда ёшларга рақамли технологиялар ва хорижий тилларни ўрганиш учун қўшимча шароитлар яратиш мақсадида ташкил этилган.

• **Бир миллион дастурчи.** 7 ёшдан 30 ёшгача бўлган ёшларни рақамли технологиялар соҳасида мутахассисларга йўналтириш бўйича чора-тадбирлар дастури.

• **Бир миллион ўқувчи.** 18 ёшгача бўлган болалар ва ўсмирларни рақамли технологиялар соҳасида мутахассисларга йўналтириш бўйича чора-тадбирлар дастури.

• **Бир миллион ёш.** 14 ёшдан 30 ёшгача бўлган ёшларни рақамли технологиялар соҳасида мутахассисларга йўналтириш бўйича чора-тадбирлар дастурилари ёшларга оид давлат сиёсатининг мустаҳкамланиши, ёшларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, уларнинг имкониятларини кенгайтириш ва келажақ авлодларнинг ҳар томонлама ривожланиши учун муҳим ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади.

Хулоса ўрнида, худудларда ёшларни замонавий касб ва хорижий тилларга ўқитиш, уларда рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда, шу жумладан халқаро миқёсда хизматлар кўрсатиш орқали юқори даромад топиш кўникмаларини шакллантириш, шунингдек, жойларда рақамлаштириш соҳасидаги мутахассислар тайёрлаш фаолиятини кенгайтириш ҳамда экспорт қилиш салоҳиятини оширишда хизмат қилади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикасининг "Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида"ги Қонуни, 2016 йил 14 сентябр

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, "Худудларда ёшларга рақамли технологиялар ва хорижий тилларни ўрганиш учун қўшимча шароитлар яратишга қаратилган «IT-шаҳарча»лар фаолиятини ташкил этиш тўғрисида" Тошкент ш., 2024 йил 15 май, ПҚ-178-сон.

3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. –Б. 14. 6

4. Холмахматов А. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишнинг механизмлари ва технологиялари. Автореферат. 2019 й.

# GLOBAL RAQAMLASHUV VA BARQAROR RIVOJLANISH YOSHLAR SIYOSATI VA INSON HUQUQLARI.

**Islomxo‘jayeva Dildoraxon Absalamxo‘ja qizi**

Tashkent International University

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Email:dildoraislomxojayeva@gmail.com

Bugungi kunda dunyo shiddat bilan raqamli asr sari intilmoqda. Texnologik taraqqiyotning eng faol foydalanuvchilari — yoshlar hisoblanadi. Ularning hayoti, o‘qish jarayoni, muloqot uslubi va dunyoqarashi zamonaviy texnologiyalar bilan chambarchas bog‘lanib bormoqda. Shu bois, texnologiyalar yoshlar ongiga qanday ta‘sir ko‘rsatmoqda, ularning ijtimoiy hayotidagi o‘rni qanday — bu savollar jamiyatshunoslar, psixologlar va pedagoglar uchun dolzarb masalaga aylanmoqda. XXI asr — axborot va innovatsiyalar asridir. Internet, sun‘iy intellekt, virtual haqiqat, raqamli o‘yinlar, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning kunlik hayotining ajralmas qismiga aylangan. So‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, o‘rta statistik yosh kishi kuniga o‘rtacha 5–7 soat vaqtini internetda o‘tkazadi. Bu esa, ularning dunyo qarashini shakllantirishda texnologiyalarning roli naqadar kuchli ekanligini ko‘rsatadi. - Ta‘lim jarayonida samaradorlik: Onlayn ta‘lim platformalari (Coursera, Khan Academy, EduMarket va boshqalar) yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirdi. - Axborotga tezkor kirish: Texnologiyalar yoshlarni global bilim maydoniga bog‘laydi. - Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Raqamli texnologiyalar yoshlarning ijodkorlik qobiliyatini namoyon etish imkonini beradi. - Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari: Dasturlash, dizayn, marketing kabi sohalar texnologik vositalar orqali o‘rganilmoqda. - Internet qaramligi: Ijtimoiy tarmoqlarga haddan ortiq berilish diqqatni jamlay olmaslik, motivatsiyaning pasayishi va ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi. - Axborot ifloslanishi: Internetdagi yolg‘on va manipulyativ ma‘lumotlar yoshlar tafakkuriga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. - Ijtimoiy begonalashuv: Onlayn muloqot ortidan jonli muloqot kamayib, insonlar orasidagi samimiylilik pasayadi. - Sog‘liq muammolari: Kompyuter oldida uzoq vaqt o‘tirish, uyqusizlik va harakatsizlik sog‘lom turmush tarziga tahdid soladi. Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 2030) va raqamli iqtisodiyot integratsiyasi kambag‘allikni kamaytirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va iqtisodiy o‘rtni jadallashtirishning asosiy vositasidir. Raqamli texnologiyalar yashil iqtisodiyotga o‘tish, boshqaruv samaradorligini oshirish va aholi farovonligini yuksaltirishda xizmat qiladi. O‘zbekiston-2030 strategiyasi doirasida ushbu yo‘nalishlar hududiy rivojlanish va global maqsadlarga erishish uchun birlashtirilmoqda.

**Raqamli iqtisodiyot va SDG 2030:** Raqamli vositalar (IT, AI, Big Data) SDGning 17 ta maqsadiga, xususan, sifatli ta‘lim, munosib ish o‘rinlari va sanoatni rivojlantirishga erishishni tezlashtiradi.

**Yashil iqtisodiyot:** Raqamli texnologiyalar energiya samaradorligini oshirish va ekologik izni kamaytirish orqali barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

**O‘zbekiston-2030 strategiyasi:** Mamlakatda hududiy rivojlanish strategiyalariga SDG integratsiyasi orqali iqtisodiy o‘rtni va globallashtirish jarayonlarida raqamlashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bir paytlar ilmiy fantastika sohalar uchun mo‘ljallangan sun‘iy intellekt (SI) endi juda real, rivojlanayotgan texnologiya bo‘lib, keng ko‘lamli ilovalar va afzalliklarga ega. Bir necha soniya ichida katta hajmdagi ma‘lumotlarni yaratishdan so‘rovlarga javob berish, ma‘lumotlarni tahlil qilish, vazifalarni avtomatlashtirish va shaxsiy yordam ko‘rsatishgacha u juda ko‘p narsaga qodir. Ajablanarlisi shundaki, bunday ko‘p qirrali SI texnologiyasi tezda ko‘plab biznes va tarmoqlarning bir qismiga aylanib, dunyomizni shakllantiruvchi jarayonlarda tobora katta rol o‘ynamoqda. Sun‘iy intellekt — bu kompyuter tizimlarining insonning aqlli xatti-harakatlarini takrorlashga qodir bo‘lgan texnologiya va ilmiy yo‘nalishdir. SI tizimlari odamlarning intellektual faoliyatlarini o‘rganishga, tushunishga va ularga javob berishga qodir bo‘lishi kerak. Bunda kompyuterlar ma‘lumotlarni qayta ishlash, qarorlar qabul qilish, "raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali 9-son mantiqiy tahlil, tasvirni tanib olish, tilni tushunish va boshqa ko‘plab

intellektual vazifalarni bajarishi mumkin. Sun'iy intellektning bugungi kun uchun eng keng tarqalgan qo'llaniladigan shakli — zaif sun'iy intellekt bo'lib, u turli sohalarda yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda. SI texnologiyalarining rivojlanishi, ayniqsa, iqtisodiyotda, sanoatda, sog'liqni saqlashda va xizmatlar sohasida keng ko'lamlı imkoniyatlarni yaratmoqda. SI global iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda va 2030 yilda global yalpi ichki mahsulotga taxminan 15,7 trillion AQSh dollari hissa qo'shishi kutilmoqda. Bu o'sish qisman unumdorlikning o'sishi (jami 6,6 trillion AQSh dollari) va qisman iste'molning o'sishi (9,1 trillion AQSh dollari) hisobiga ta'minlanadi. Iste'molning o'sishi shaxsiylashtirilgan xizmatlarning ko'proq mavjudligi, shuningdek, sun'iy intellekt imkoniyatlari yaxshilangan yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etish bilan bog'liq bo'ladi. Darhaqiqat, sun'iy intellekt texnologiyasi jamiyat bilan aloqamizning barcha darajalarida har xil shakllarda paydo bo'ladi, kundalik suhbatdosh kichik aqlli robotlardan tortib yirik sanoat va hukumat darajasidagi ofislarga qadar va butun dunyo bo'ylab hayot tarzini jimgina o'zgartiradi. Aytish mumkinki, sun'iy intellekt bilan bog'liq faoliyat keyingi iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, ishlab chiqarish tarkibi va yondashuvida, iste'mol miqdori va sifatida tub o'zgarishlarga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli qaroriga asosan, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasida bir nechta vazifalar belgilab berilgan. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining iqtisodiyotda o'rnı va ahamiyati bugungi kunda sezilarli darajada ortib bormoqda. Sun'iy intellektning iqtisodiyotdagi o'rnı va ahamiyatiga so'nggi yillarda katta e'tibor qaratilmoqda, olimlar va soha mutaxassislari uning transformatsion salohiyatini tan olishdi. Sun'iy intellekt sanoat ishlab chiqarishidan tortib moliya, sog'liqni saqlash va boshqa sohalargacha bo'lgan iqtisodiy faoliyatning keng doirasiga tobora ko'proq integratsiya qilinmoqda. Sun'iy intellekt iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish, samaradorlikni oshirish va yangi biznes imkoniyatlarini yaratish orqali iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadi. Zamonaviy aqlli robotlar ilg'or sensorlar, favqulodda to'xtash tizimlari hamda kuch cheklovli harakatlarni o'z ichiga olgan xavfsizlik funksiyalariga ega. Ular qattiq xavfsizlik sinovlaridan o'tkaziladi va sertifikatsiyadan topshiriladi, shuning uchun ularni to'g'ri joriy etilganida va doim nazoratda saqlanganida inson bilan hamkorlik qilish uchun mutlaqo xavfsizdir aqlli robotlar ayrim vazifalarni avtomatlashtirsa ham, ular robotlarni texnik xizmat ko'rsatish, dasturlash va nazorat qilish sohasida yangi ish imkoniyatlarini yaratmoqda. Robotlar nusxasini chiqara olmaydigan inson ijodkorligi, hissiy aql va murakkab qaror qabul qilish qobiliyatini talab qiladigan kasblarga e'tibor qaratilmoqda. Robotlar aniqlik, tezlik va takroriy harakatlarni talab qiluvchi sohalarda ishlatilayotganiga ko'p bo'ldi. Robotlarni yanada aqlli qilish ishlari esa davom etmoqda. "Robot yasash uchun ko'plab ehtiyot qismlari kerak, ularni bir-biriga ulab, yelimplab chiqamiz", - deydi "Picknik Robotics" kompaniyasi vakili Neyten Bruks Robotlar aniq va takroriy ishlarni bajarishga usta. Dasturiy ta'minot kompaniyalari ularni yanada aqlli qilish ustida ishlamoqda. Bugun robotlar meva terishi, okeanlar tubiga sho'ng'ishi va ro'zg'or ishlariga ko'maklashishi mumkin, deydi ekspert Ket Skot. "Ular nimalarga qodir? Men bitta qo'lim bilan qaysi ishlarni bajara olaman? Shu savollar ustida ishlaymiz. Odamzot narsalarni ushlashga juda usta. Robotlar esa bunday emas. Biz robotlarning narsalarni ushlash va harakatlantirish qobiliyatini yaxshilamoqchimiz", - deydi u. Agar siz tarixga e'tibor qaratsangiz, robot yoki avtomat haqidagi eng qadimgi qaydlardan biri Gomer tomonidan miloddan avvalgi 700-yillarda yozilgan "Iliada" asaridan o'rin olgan. Hozirga kelib, sun'iy intellektni yaratish imkoniyatlari bilan bir qatorda, u bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjud.

Hozirgi davr juda ham keskin rivojlanib ketayapti. Agar robotlar ishlab chiqilib ularni ishga kiritishsa insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi insonlar ishidan ayriladi butun olamni robotlar boshqara boshlaydi. Insonlar internetdan juda ham keskin foydalanmoqda internet tezligi juda past bo'lmoqda sababi juda ko'plab insonlar internetdan foydalanmoqda. Zamonaviy texnologiyalar

bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Google, Microsoft va Apple kabi yirik kompaniyalar tomonidan yaratilayotgan innovatsiyalar hayotimizning barcha sohalariga kirib bormoqda. Taklifim shundan iboratki, ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini o'qitishni yanada kuchaytirish, yoshlar o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha maxsus dasturlar tashkil etish, internetdan xavfsiz va samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish chunki ko'p yoshlar internet sababli yomon yo'llarga kirib ketayapti ..Sun'iy intellekt va innovatsion texnologiyalarni milliy iqtisodiyotga keng joriy etish va kiberxavfsizlikni yanada kuchaytirish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayev Ulug'Bek Bexruz Ibroxim O'G'Li O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston", 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston 2030" strategiyasi Sattarov N.
3. Sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar.

### **SUN'IY INTELLEKT VA INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA KADRLAR TAYYORLASH NAMDA O'QITISHNI TASHKIL ETISHNING LINGVISTIK VA IJTIMOIY-GUMANITAR MASALALARI**

**M.D. Mirjamolova**

Renessans ta'lim Universiteti  
Boshlang'ich ta'lim 2-Bosqich talabasi

XXI asr ta'lim tizimi raqamli transformatsiya bosqichiga kirib keldi. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi o'qitish metodikasini tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltirdi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, SI asosidagi ta'lim yechimlari individual o'qitish imkoniyatlarini kengaytirib, o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini sezilarli oshiradi [1].

Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning intellektual va kommunikativ rivojlanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Shu sababli mazkur bosqichda SI va innovatsion yondashuvlarni lingvistik hamda ijtimoiy-gumanitar tamoyillar bilan uyg'unlashtirish dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, texnologiyaga asoslangan ta'lim faqat texnik samaradorlik bilangina emas, balki til, tafakkur va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirish bilan ham baholanishi lozim [2].

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- komparativ (qiyosiy) tahlil;
- tizimli yondashuv;
- statistik ma'lumotlarni sharhlash.

Tadqiqotning nazariy asosini UNESCO, OECD, hamda respublika olimlarining SI va raqamli pedagogika bo'yicha ishlari tashkil etdi. Ma'lumotlar kontent-tahlil asosida umumlashtirildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim texnologiyalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida quyidagi ko'rsatkichlarni yaxshilaydi:

- individual o'zlashtirish sur'ati;
- o'qish savodxonligi darajasi;
- nutq faoliyati faolligi;
- mustaqil o'rganish motivatsiyasi.

OECD hisobotiga ko'ra, adaptiv o'quv platformalaridan foydalangan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalari an'anaviy sinflarga nisbatan o'rtacha 20–30 % yuqori natija ko'rsatgan [3].

Lingvistik nuqtayi nazardan, SI asosidagi dasturlar:

- fonetik mashqlarni individuallashtiradi;
- leksik zaxirani kengaytiradi;
- grammatik xatolarni real vaqt rejimida tuzatadi.

Ijtimoiy-gumanitar jihatdan esa, to'g'ri loyihalangan raqamli muhit o'quvchilarda hamkorlik, empatiya va kommunikativ madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi [4].

Sun'iy intellektni boshlang'ich ta'limga integratsiya qilish masalasi ko'p qirrali va tizimli yondashuvni talab etadigan jarayon hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, SI texnologiyalarini ta'limga joriy etish nafaqat o'qitish samaradorligini oshiradi, balki ta'lim mazmuni, pedagogik metodlar, lingvistik rivojlanish hamda ijtimoiy-gumanitar qadriyatlar tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois mazkur jarayonni kompleks — pedagogik, lingvistik va ijtimoiy nuqtayi nazardan baholash zarur.

Avvalo, lingvistik jihatni tahlil qilish muhimdir. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, o'qish savodxonligi va yozma nutqi shakllanadi. Woolf tadqiqotlarida qayd etilishicha, intellektual tutor tizimlari o'quvchining individual xatolar profilini aniqlab, moslashtirilgan topshiriqlarni taqdim etishi orqali til o'rganish samaradorligini oshiradi [5]. Bu holat ayniqsa fonetika va orfografiyani o'rgatishda sezilarli natija beradi.

Sun'iy intellekt asosidagi nutqni avtomatik tanish texnologiyalari (speech recognition) boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ko'rilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, real vaqt rejimida beriladigan fonetik qayta aloqa (feedback) o'quvchilarning to'g'ri talaffuzni egallash jarayonini tezlashtiradi [2]. Shu bilan birga, adaptiv leksik mashqlar o'quvchilarning lug'at boyligini bosqichma-bosqich kengaytirishga xizmat qiladi.

Biroq lingvistik integratsiya jarayonida muammolar ham mavjud. Zawacki-Richter va hammualliflarining tizimli sharhida qayd etilishicha, SI asosidagi ko'plab ta'lim platformalari yuqori resursli tillar, ayniqsa ingliz tili uchun optimallashtirilgan bo'lib, kam resursli tillarda aniqlik darajasi pastroq bo'lishi mumkin [6]. O'zbek tili uchun katta hajmdagi belgilangan (annotatsiyalangan) korpuslarning yetarli emasligi, morfologik murakkablik va sheva xilma-xilligi algoritmik modellashtirishni qiyinlashtiradi. Bu esa milliy ta'lim tizimi uchun lokal lingvistik modellar yaratish zaruratini kuchaytiradi.

Lingvistik muhokamada yana bir muhim jihat — til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikdir. Psixolingvistik tadqiqotlar boshlang'ich ta'limda nutq faoliyatining rivoji bilish jarayonlari bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Agar SI tizimlari faqat testlash va avtomatik baholash bilan cheklanib qolsa, ular yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yetarli hissa qo'sha olmaydi. Shu sababli zamonaviy platformalarda dialogik o'qitish elementlarini joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Ijtimoiy-gumanitar nuqtayi nazardan qaralganda, sun'iy intellektning ta'limga kirib kelishi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi an'anaviy pedagogik munosabatlarni transformatsiya qilmoqda. OECD ekspertlari ta'kidlaganidek, SI ta'lim jarayonida "o'qituvchini almashtiruvchi" emas, balki "o'qituvchini kuchaytiruvchi" texnologiya sifatida qaralishi lozim [3]. Bu yondashuv inson markazli ta'lim paradigmasiga mos keladi.

Insonparvar pedagogika nuqtayi nazaridan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun emotsional qo'llab-quvvatlash, motivatsiya va ijtimoiylashuv omillari nihoyatda muhimdir. Luckin tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, eng samarali raqamli ta'lim muhitlari sun'iy intellekt imkoniyatlarini pedagogik empatiya bilan uyg'unlashtirgan tizimlardir [4]. Demak, SI platformalari faqat akademik ko'rsatkichlarni emas, balki o'quvchining psixologik holatini ham hisobga olishi kerak.

Muhokamada alohida e'tibor talab qiladigan masalalardan biri — raqamli tengsizlik muammosidir. Jahon banki hisobotiga ko'ra, raqamli infratuzilma darajasi past hududlarda innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi keskin kamayadi [7]. Boshlang'ich ta'lim kontekstida bu ayniqsa dolzarb, chunki kichik yoshdagi o'quvchilar mustaqil ravishda texnologik

cheklovlarni bartaraf eta olmaydi. Shu bois SI ni joriy etish bilan bir qatorda maktablarning texnik jihozlanishi va internet qamrovini kengaytirish strategik vazifa hisoblanadi.

Pedagogik jihatdan tahlil qilinganda, sun'iy intellekt innovatsion didaktik modellar bilan uyg'unlashgandagina yuqori samara beradi. Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, bilim o'quvchi tomonidan faol quriladi, o'qituvchi esa fasilitator rolini bajaradi. SI asosidagi adaptiv platformalar aynan shu modelni texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, o'yinlashtirish elementlari bilan boyitilgan raqamli muhit o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirishi ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan [8].

Shu bilan birga, ortiqcha texnologiyalashtirish xavfi ham mavjud. Selwyn ta'kidlaganidek, ta'limni to'liq avtomatlashtirish pedagogik jarayonning insoniy komponentlarini susaytirishi mumkin [12]. Boshlang'ich ta'limda bu xavf yanada sezilarli, chunki bu bosqichda ijtimoiy-emotsional rivojlanish akademik natijalardan kam ahamiyatga ega emas. Demak, optimal model — gibril (blended) yondashuv bo'lib, unda SI va an'anaviy pedagogika o'zaro uyg'unlashadi.

Axloqiy-huquqiy jihatlar ham chuqur tahlilni talab qiladi. UNESCO tavsiyalarida ta'limda qo'llaniladigan SI tizimlari uchun quyidagi tamoyillar belgilangan: shaffoflik, adolatlilik, hisobdorlik va ma'lumotlar xavfsizligi [1]. Boshlang'ich ta'limda ayniqsa biometrik va o'quv analitikasi ma'lumotlarini himoya qilish muhimdir. Bolalarga oid ma'lumotlarning noto'g'ri ishlatilishi ijtimoiy ishonchga putur yetkazishi mumkin.

Metodik jihatdan muhokama qilganda, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Redecker tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu modeli o'qituvchining raqamli pedagogik mahorati o'quv natijalariga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi [10]. Agar pedagog SI vositalaridan faqat texnik darajada foydalansa, ularning didaktik salohiyati to'liq ochilmaydi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlariga SI pedagogikasi modullarini kiritish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston ta'lim tizimi kontekstida olib borilgan islohotlar ham muhokama uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. PQ-4851-son qarorda raqamli ta'lim resurslarini keng joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [9]. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, SI ni boshlang'ich ta'limga to'liq integratsiya qilish uchun uchta yo'nalishda tizimli ish talab etiladi:

- milliy lingvistik ma'lumotlar bazasini kengaytirish;
- pedagoglarning SI bo'yicha metodik tayyorgarligini kuchaytirish;
- maktab infratuzilmasini modernizatsiya qilish.

Kelajak istiqbollari nuqtayi nazaridan qaralganda, sun'iy intellekt boshlang'ich ta'limda adaptiv o'quv trayektoriyalarini yaratish, erta diagnostika va inkluziv ta'limni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Anderson va Rainie prognozlariga ko'ra, yaqin o'n yillikda ta'limning shaxsga moslashuv darajasi sezilarli oshadi va bu jarayonda SI asosiy drayverlardan biri bo'ladi [11].

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektni boshlang'ich ta'limga joriy etish katta didaktik salohiyatga ega, biroq uning muvaffaqiyati uch omil uyg'unligiga bog'liq: texnologik yetuklik, lingvistik moslashuv va insonparvar pedagogik yondashuv. Aynan shu integrativ yondashuv kelajakda sifatli va barqaror ta'lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

- sun'iy intellekt boshlang'ich ta'limda individuallashtirilgan o'qitishni samarali ta'minlaydi;
- lingvistik moslashuv SI tizimlarining samaradorligini belgilovchi muhim omildir;
- texnologiyalar insonparvar pedagogika tamoyillari bilan uyg'un qo'llanilishi zarur;
- o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi;
- milliy tillar uchun lokal SI yechimlarini ishlab chiqish dolzarbdir.

Kelgusida boshlang'ich ta'lim uchun o'zbek tiliga mos, etik va pedagogik jihatdan asoslangan SI platformalarini yaratish muhim ilmiy-amaliy yo'nalish bo'lib qoladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. UNESCO. *Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-makers*. — Paris: UNESCO, 2021. — pp. 15–22.

2. Holmes W., Bialik M., Fadel C. *Artificial Intelligence in Education*. — Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. — pp. 34–41.
3. OECD. *AI in Education: Challenges and Opportunities*. — Paris: OECD Publishing, 2021. — pp. 27–35.
4. Luckin R. *Machine Learning and Human Intelligence*. — London: UCL IOE Press, 2018. — pp. 56–63.
5. Woolf B. *Building Intelligent Interactive Tutors*. — Burlington: Morgan Kaufmann, 2020. — pp. 102–118.
6. Zawacki-Richter O. et al. Systematic review of research on artificial intelligence in higher education. — *International Journal of Educational Technology*, 2019. — pp. 10–18.
7. World Bank. *Digital Dividends in Education*. — Washington DC: World Bank, 2020. — pp. 44–52.
8. Deterding S. et al. Gamification in education. — *Educational Technology Research and Development*, 2017. — pp. 5–14.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4851-son qarori. — Toshkent, 2020. — 3–7-betlar.
10. Redecker C. *European Framework for the Digital Competence of Educators*. — Luxembourg: EU Publications, 2017. — pp. 18–29.
11. Anderson J., Rainie L. *Artificial Intelligence and the Future of Humans*. — Pew Research Center, 2018. — pp. 12–20.
12. Selwyn N. *Should Robots Replace Teachers?* — Cambridge: Polity Press, 2019. — pp. 71–79.

## **GLOBAL RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDA ISHTIROKINING PSIXOLOGIK OMILLARI**

Shermatova Munavvara Xikmat qizi  
Tashkent International University  
Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi  
E-mail: [munavvarshermatova77@gmail.com](mailto:munavvarshermatova77@gmail.com)

XXI asrga kelib raqamli texnologiya kundan kunga jadal rivojlanib bormoqda. Birlashgan Millatlar tashkiloti ma‘lumotlariga<sup>59</sup> ko‘ra dunyoning qariyb 70% dan ortiq aholisi internet tarmoqlaridan foydalanadi. Yoshlar esa eng faol qatlamni tashkil etadi. YUNESKO hisobotlarida<sup>60</sup> qayd etilishicha, yoshlarning raqamli kompetensiyalari ularning ijtimoiy moslashuvi va kasbiy muvaffaqiyatida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham yoshlar siyosati davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, Yoshlar ishlari agentligi hamda raqamli iqtisodiyot dasturlari orqali yoshlarning IT sohasidagi ishtirokini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda<sup>61</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilayotgan farmon qarorlarda yoshlarga yangi imkoniyatlar yaratish, ta‘lim sohasida ularga grand va stipendiyalar berilishi, turli dasturlash markazlari ochilmoqda, Raqamli savodxonlik dasturlarini kengaytirish va yoshlar bilan ishlash tizimi kuchaytirilmoqda.

---

<sup>59</sup> Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Youth and Digital Development Reports.

<sup>60</sup> YUNESKO – Digital Literacy Global Framework.

<sup>61</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016.

“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunda esa Yoshlarni huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy faolligini oshirish va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga katta ahamiyat berilmoqda<sup>62</sup>.

Yoshlar uchun yaratilayotgan bunday imkoniyatlar ularni ilhomlantirmasdan qolmaydi. Ularni shaxs sifatida yana ham rivojlanishiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlab, kasbiy identifikatsiyani shakllantiradi.

Bu esa o‘z o‘rnida kelajakda O‘zbekiston taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadigan yosh avlod yetishib chiqishiga asosdir.

O‘zbekiston – 2030 strategiyasida 2030-yilga qadar IT sohasida 300 ming nafar yoshlarni ish bilan ta‘minlash, ularni zamonaviy raqamli kasblarga o‘qitish hamda raqamli iqtisodiyotga jalb etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 14ta IT parklar ochilgan va ular iqtidorli yoshlarni qamrab olib ularga sifatli ta‘lim bermoqda<sup>63</sup>.

Universitetlarda ham Raqamli texnologiyalarga alohida urg‘u berilib, Kiberxavfsizlik injiniringi, Kompyuter injiniringi, Dasturiy injiniring kabi sohalar o‘qitilmoqda va boshqa sohalarga Axborot Kommunikatsion Texnologiyalar fani chuqur o‘rgatilmoqda.

AI (**Artificial Intelligence**) ya‘ni Suniy intellekt hozirgi davrning inqilobi bo‘lib hatto u alohida soha sifatida o‘rganilmoqda. Sun‘iy intellekt insonning kognitiv faoliyatini modellashtirish hamda murakkab jarayonlarni avtomatlashtirish maqsadida yaratilgan bo‘lib, u zamonaviy raqamli jamiyatda qaror qabul qilish va axborotni qayta ishlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

1991 yili amerikalik olimlar Neyl Xouv (Neil Howe) va Vilyam Shtrauslar (William Strauss)lar tomonidan avlodlar nazariyasi kashf etilgan. Avlodlar nazariyasiga ko‘ra, har 20–25 yilda yangi avlod dunyoga keladi. Psixologiyadagi avlodlar nazariyasida oxirgi 3 avlod raqamli davr bilan chambarchas bog‘liqdir. Birinchisi “Z avlod(1997-2012-yilda tug‘ilgan)” raqamli muhitda voyaga yetgan avlod bo‘lib ular texnologiyalar davrini boshlab bergan va bu davrga ko‘nikib ketish bo‘yicha sinalgan. Ikkinchi Alfa avlodi (2012-2025-yilda tug‘ilgan) Z avloddan farqli ravishda ular to‘liq raqamli avlod hisoblanadi. Eng so‘nggisi Beta avlod (2025-yildan keyin tug‘ilgan va tug‘ilayotgan bolalar) bo‘lib ular to‘liq Sun‘iy intellekt bilan ulg‘ayishyabdi.

O‘zbekiston Respublikasida Raqamli Texnologiya jadal rivojlanib bormoqda. Kelajakda aholining texnologiya bo‘yicha bilimlari oshib Davlatni rivojiga hissa qo‘shadi. Zamonaviy yosh avlod raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, sun‘iy intellekt va robototexnika yo‘nalishlarida kompleks bilim va ko‘nikmalarni egallab borayotgan holda, o‘zining kognitiv, kommunikativ hamda kreativ salohiyatini izchil rivojlantirmoqda. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan qaralganda, ushbu jarayon yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi, motivatsion tizimi va o‘z-o‘zini namoyon etish ehtiyojlarining shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada, ular global axborot makonida faol ishtirok etuvchi, innovatsion fikrlovchi va xalqaro darajada raqobatbardosh shaxslar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Biz XXI asrda yashayapmiz va ayta olamizki kelajak yoshlar va ularning aqliy salohiyati bilan rivojlanmoqda. Raqamli texnologiyalar va Sun‘iy intellekt davrida farzandlarimizni xavfsiz psixologik ulg‘ayishi uchun har birimizga bunday bilimlar zarurdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016.
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Youth and Digital Development Reports.
3. YUNESKO – Digital Literacy Global Framework.
4. Bandura A. Social Learning Theory.
5. O‘zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati bo‘yicha davlat dasturlari.

---

<sup>62</sup> O‘zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati bo‘yicha davlat dasturlari.

<sup>63</sup> O‘zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati bo‘yicha davlat dasturlari.

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O‘ZBEKISTON YOSHLARIGA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR

**Abdumannonova Dildora Tolmas qizi**  
Tashkent International University  
Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi  
E-mail: [dildoraabdumannonova0205@gmail.com](mailto:dildoraabdumannonova0205@gmail.com)

XXI asrda raqamli texnologiyalar iqtisodiyot, ta‘lim, tibbiyot va davlat boshqaruvi sohalarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. O‘zbekistonda yoshlar sonining yuqoriligi raqamli iqtisodiyot uchun katta salohiyat yaratadi. Davlat tomonidan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni zamonaviy kasblarga o‘qitish va bandligini ta‘minlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan<sup>64</sup>.

Raqamli O‘zbekiston - 2030 strategiyasi<sup>65</sup> doirasida davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish, IT-parklar faoliyatini kengaytirish, hududlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish ishlari olib borilmoqda. Bu esa yoshlarning innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Raqamli ta‘lim va IT mutaxassislar tayyorlash borasida ham salmoqli ishlar qilinmoqda. Raqamli ta‘lim tizimi yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Onlayn kurslar, masofaviy ta‘lim platformalari va elektron kutubxonalar orqali o‘quvchilar va talabalar mustaqil bilim olish imkoniga ega bo‘lmoqda. Universitetlarda kiberxavfsizlik, dasturiy injiniring, sun‘iy intellekt va ma‘lumotlar tahlili kabi yo‘nalishlar keng joriy etilmoqda. Davlat tomonidan 300 ming nafar yoshni IT sohasida tayyorlash va xalqaro mehnat bozoriga chiqarish maqsadi belgilangan. Shuningdek, yoshlar uchun grantlar, stipendiyalar va startap loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu ularning ilmiy va innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi<sup>66</sup>.

Sun‘iy intellekt zamonaviy raqamli jamiyatning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. U ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, tibbiyotda tashxis qo‘yish, ta‘limda shaxsiylashtirilgan o‘qitish tizimlarini yaratish imkonini bermoqda. Yoshlar sun‘iy intellekt, robototexnika va dasturlash yo‘nalishlarida faol ishtirok etib, xalqaro tanlov va olimpiadalarda muvaffaqiyat qozonmoqda. Bu esa mamlakatning global miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirmoqda.

Raqamli muhitning ijtimoiy-psixologik ta‘sirini o‘rganar, tahlil etar ekanmiz, raqamli texnologiyalar yoshlarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning psixologik holatiga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlarda haddan tashqari faollik raqamli qaramlik, kiberbulling va noto‘g‘ri axborotlar tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois yoshlar orasida media savodxonlik va kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Raqamli muhitdan oqilona foydalanish ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Davlat siyosati, zamonaviy ta‘lim tizimi va innovatsion infratuzilma yoshlarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Kelajak taraqqiyoti yoshlarning bilim va innovatsion fikrlash qobiliyatiga bevosita bog‘liqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016.
2. Raqamli O‘zbekiston–2030 strategiyasi.
3. UNICEF – Youth and Digital Learning Reports.

---

<sup>64</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016.

<sup>65</sup> Raqamli O‘zbekiston–2030 strategiyasi.

<sup>66</sup> O‘zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati bo‘yicha davlat dasturlari.

4. UNESCO – Digital Literacy Global Framework.
5. O‘zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati bo‘yicha davlat dasturlari.

## **ZAMONAVIY KARIYES DIAGNOSTIKASI VA MINIMAL INVAZIV DAVOLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVI**

**M.A. Abdug‘afforova**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

1-Stomatologiya fakulteti talabasi

E-mail: [abdugafforovamohinaa@icloud.com](mailto:abdugafforovamohinaa@icloud.com)

Tish kariyesi global miqyosda eng keng tarqalgan surunkali kasalliklardan biri bo‘lib, uning yuqori uchrash chastotasi klinik va ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi. Zamonaviy kariyesologiya kasallikni destruktiv jarayon emas, balki boshqarilishi mumkin bo‘lgan biofilm bilan bog‘liq dinamik patologik holat sifatida talqin qiladi. An‘anaviy invaziv model sog‘lom to‘qimalarning ortiqcha olib tashlanishiga olib kelgan bo‘lsa, minimal invaziv stomatologiya biologik muvozanatni tiklashga yo‘naltirilgan konservativ strategiyani ilgari suradi.

Kariyes patogenezi. Kariyes jarayoni to‘rt asosiy omil – mikroorganizmlar, fermentatsiyalanuvchi uglevodlar, vaqt va mezbon rezistentligi – o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Streptococcus mutans va Lactobacillus turlari tomonidan hosil qilinadigan organik kislotalar emal gidroksiapatit kristallarining erishiga sabab bo‘ladi. Demineralizatsiya va remineralizatsiya o‘rtasidagi muvozanat buzilganda klinik lezyon rivojlanadi. So‘lakning tamponlik xususiyati, mineral tarkibi va oqim tezligi himoya omili sifatida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli zamonaviy yondashuv kasallikni jarrohlik yo‘li bilan bartaraf etish emas, balki biologik muvozanatni boshqarishga qaratiladi.

Riskga asoslangan baholash. Zamonaviy konsepsiyaga ko‘ra, har bir bemorda kariyes rivojlanish xavfi individual baholanadi. Ovqatlanish odatlari, og‘iz gigiyenasi, so‘lak oqimi, ortodontik apparatlar mavjudligi va avvalgi kariyes tarixi muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Riskni to‘g‘ri aniqlash individual profilaktika va davolash strategiyasini tanlash imkonini beradi.

Diagnostika texnologiyalari. ICDAS tizimi lezyonning klinik bosqichini standartlashtirilgan tarzda baholash imkonini beradi. Raqamli rentgenografiya approximal va yashirin lezyonlarni aniqlashda samarali bo‘lib, CBCT murakkab klinik holatlarda qo‘llaniladi. Lazer floresensiya usullari erta demineralizatsiyani yuqori sezgirlik bilan aniqlaydi, biroq pigmentatsiya noto‘g‘ri natija berishi mumkin. Transillyuminatsiya radiatsiyasiz diagnostika imkonini yaratadi. Sun‘iy intellekt asosidagi dasturlar rentgen tasvirlarini algoritmik tahlil qilib, diagnostika aniqligini oshiradi va klinik qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Minimal invaziv davolash strategiyalari. Remineralizatsiya terapiyasi (natriy ftorid laklari, kalsiy-fosfat komplekslari, bioaktiv materiallar) white spot lezyonlarda samarali hisoblanadi. Rezinga asoslangan infiltratsiya texnikasi (Icon) emal poralarini to‘ldirib, lezyon progresiyasini to‘xtatadi. Atraumatik restorativ davolash qo‘l instrumentlari va shisha ionomer sementlar yordamida amalga oshiriladi, ayniqsa bolalar va qo‘rquvli bemorlarda qo‘llaniladi. Selektiv kariyes olib tashlash usuli infeksiyalangan dentinni olib tashlab, pulpa yaqinidagi ta’sirlangan dentinni saqlashga imkon beradi, bu esa pulpa asoratlarini kamaytiradi.

Integratsiyalashgan klinik model. Diagnostika va minimal invaziv davolashning uyg‘unligi kasallikni subklinik bosqichda to‘xtatish, sog‘lom dentin strukturasi saqlash va restoratsiyalarning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlaydi. Ushbu model riskga asoslangan, individual va evidence-based qaror qabul qilish tamoyillariga tayanadi. Klinik samaradorlik bilan bir qatorda iqtisodiy jihatdan ham maqbul natijalar beradi.

Xulosa qilib aytganda, Zamonaviy kariyesologiya biologik, konservativ va integratsiyalashgan yondashuvga asoslanadi. Erta diagnostika, riskni baholash va minimal invaziv davolashning kombinatsiyasi tish to‘qimalarini maksimal saqlash, pulpa himoyasi va uzoq

muddatli prognozni yaxshilash imkonini beradi. Ushbu paradigma stomatologik amaliyotning istiqboldagi rivojlanish strategiyasini belgilovchi muhim yo‘nalish hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Featherstone J.D.B. Dental caries: a dynamic disease process. Community Dent Oral Epidemiol.
2. Pitts N.B. ICDAS – International Caries Detection and Assessment System.
3. Frencken J.E. Minimal intervention dentistry.
4. Schwendicke F. Artificial intelligence in dental diagnostics.
5. Ekstrand K.R. Caries detection methods.
6. Kidd E.A.M. Essentials of Dental Caries.

## **2-SHO‘BA. INSON HUQUQLARI, SHAXSIY MA‘LUMOTLAR HIMOYASI VA INKLYUZIYA.**

### **“ЎЗБЕКИСТОН — 2030” СТРАТЕГИЯСИНИНГ СУВ РЕСУРСЛАРИНИ ТЕЖАШ ВА АТРОФ-МУҲИТНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШДАГИ ЎРНИ ҲАМДА БУ БОРАДАГИ ҚОНУНЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ**

**Г.Маткаримова, юридик фанлари доктори**  
**Д.А.Чиниев, юридик фанлар доктори**

“Ўзбекистон – 2030” стратегиясида (*Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон Фармони билан тасдиқланган*) белгиланган барқарор ривожланиш мақсадларини таъминлашда сув ресурсларини тежаш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш аҳоли саломатлиги, ижтимоий барқарорлик ҳамда иқтисодий ўсишга бевосита таъсир этувчи ҳал қилувчи омиллар ҳисобланади.

Амалга оширилган ислохотларга қарамасдан, амалда қуйидаги тизимли муаммолар сақланиб қолмоқда:

#### **1) ичимлик суви тармоқларида юқори йўқотишлар ва энергия самарадорлигининг пастлиги**

Жаҳон банки экспертларининг фикрига кўра 2015–2017 йилларда Ўзбекистонда ичимлик суви тармоқларидаги йўқотишлар 50 фоиздан ошган, бу асосан эски инфратузилма ва ҳисобнинг йўқлиги билан боғлиқ бўлган.

2019–2023 йилларда айрим шаҳарларда ислохотлар натижасида йўқотишлар 30–35 фоизгача камайган бўлса-да, қишлоқ ва кўп туманларда йўқотишлар ҳануз 40 фоиздан юқори бўлган даражада сақланиб қолмоқда<sup>67</sup>.

Бу йўқотишларга 1970–1980 йилларда ётқизилган қувурларнинг улуши юқорилиги, коррозия, чириш, босимни назорат қилаолмаслик, аварияларни аниқлаш тизимининг йўқлиги (*сув трубалари ерилиб, йўллар етиб қўйилиши одатий ҳолга айланган*), ҳисоблагичлар етишмаслиги, ноқонуний уланишлар, қўлбола ҳисоб-китоблар сабаб бўлмоқда.

Ҳозирда ҳам Ўзбекистон ичимлик суви таъминоти тизимларида энергия сарфи юқори даражада сақланиб қолмоқда.

---

<sup>67</sup> World Bank. Uzbekistan: Water Supply and Sanitation Sector Review. Washington, DC: World Bank Group, 2018.

Хусусан, 1 куб метр сувни етказиб бериш учун ўртача 0,8–1,2 кВт·соат электр энергияси сарфланмоқда, бу ривожланган давлатлар кўрсаткичидан 2–3 баравар юқори<sup>68</sup>.

Экспертларнинг фикрига кўра, бу ҳолат шу жумладан, насос ускуналарининг эскиргани, босимни автоматик бошқариш тизимларининг етишмаслиги ҳамда сув йўқотишлари юқори бўлган шароитда ортикча сув насосланиши билан боғлиқдир<sup>69</sup>.

Натижада сув хизматлари таннархи ошиб, бюджет ва тарифларга қўшимча юклама юзага келмоқда. Мазкур ҳолат сув соҳасида энергия самарадорлигини оширишни стратегик устувор вазифа сифатида белгилаш зарурлигини кўрсатади.

#### **Таклифлар:**

**1) 2030 йилга қадар ичимлик суви тармоқларидаги йўқотишларни кескин камайтириш мақсадида Миллий дастур қабул қилиш.**

#### **Бунда:**

**1.1. Сув йўқотишларини камайтириш кўрсаткичларини баҳолашни ҳар бир ҳудуд раҳбари “КРІ”сига киритиш** (*Жаҳон банкига кўра бугун тизимда йўқотишлар 50%гача чиқиши мумкин, КРІ мажбурий бўлмаса, тизим ўзгармайди*).

**1.2. Йўқотишларни ўз вақтида аниқлаш ва бартараф этиш мақсадида сув таъминоти тармоқларини секторлаш (DMA)га ўтказиш.** Шу мақсадда, ҳар бир туман (шаҳар)да тармоқни секторларга ажратиш, ҳар “DMA” киришида ҳисоблагичларни ўрнатиш, “100 та энг йўқотувчи ҳудуд (маҳалла/кўчалар)ни”лар рўйхатини шакллантириш.

**1.3. Бўлажак аварияларни бошқариш мақсадида коррозия, чириш ва аварияларни камайтириш** учун ҳар бир туман (шаҳар) тармоғининг асосий узелларда босим сенсорлари ва диспетчер назоратини ўрнатиш, “меъёрдан юқори босим” ҳолатларини **Ога тушириш** (*босимни назорат қилмаслик қувур “чиришини” тезлаштиради ва узилишларни кўпайтиради*).

**1.4. Авария бўлиши мумкин бўлган тармоқларни аниқлишни** масъул шахсларнинг мажбуриятига айлантириш. Ушбу мақсадда, ҳар оператор (сувтаъминот ҳудудий бўлими) учун йиллик минимал “**текширилган км**” нормасини белгилаш.

Масалан, 2026 йилда тармоқнинг камида 10% акустик/коррелятор текширувдан ўтказиш ҳамда “аварияни тузатамиз”дан “аварияни олдини оламиз” ишлаш механизмига ўтиш.

**1.5. “Қувурлар паспорти”ни шакллантириш ва риск-анализ асосида алмаштириш.** Ушбу мақсадда, 1970–1980 йилларда ётқизилган қувурларни ёши, диаметри, материал, авария тарихи, аҳоли зичлиги, муҳим объектлар ва бошқа кўрсаткичларидан келиб чиқиб, энг рискли **20% қувурларни тўлиқ янгилаш.**

**1.6. Ҳисоблагичлаш ва ҳисоб-китоларбни қўлбола усулларида воз кечиш** (*ҳудудларда кенг тарқалган*) ва “**тўлиқ рақамлаштириш**”га ўтиш. Ушбу мақсадда 2030 йилгача – майший истеъмолчиларни 100 фоиз ҳисоблагич, корхона/ижтимоий объектларни 100% “ақли” ҳисоблагичларга ўтказиш.

**1.7. Ноқонуний уланишларга 1 йиллик “қонунийлаштириш йили” (амнистия) эълон қилиш** (*ўзбошимчалик билан эгалланган ер ва қўрилган биноларга нисбатан қабул қилинган ПҚлар мисолида*).

<sup>68</sup> Transforming Uzbekistan’s Water Sector for Climate Resilience and Efficiency. Washington, DC: World Bank, 2021.

<sup>69</sup> International Water Association (IWA). Farley M., Trow S. Losses in Water Distribution Networks: A Practitioner’s Guide. London: IWA Publishing, 2003.

Кўрсатилган муддатдан сўнг автоматик мониторинг (DMA) асосида жарима ва тармоқдан узиш, такроран содир бўлган тақдирда МЖтК (163, 163<sup>1</sup>, 163<sup>2</sup>-м) ҳамда ЖК (169-м) назарда тутилган санкцияларни қўллаш лозим.

Амалга оширилган ишлар аввал аҳолини қонуний майдонга чиқаришга, кейин назорат кучайишига олиб келади.

**1.8. Операторларни “натижага боғланган шартнома” тизимига ўтказиш.** Ушбу масадда худудий операторларга маблағ ажратишнинг бир қисмини йўқотишларнинг пасайиши билан боғлаш, ошган тақдирда эса жавобгарлик механизмларини белгилаш лозим.

**2) Насос станцияларини энергия аудити натижалари асосида модернизация қилиш,** қуввати меъёрдан ортиқ бўлган насос ускуналарини алмаштириш ҳамда **масофадан назорат қилиш ва маълумот тўплаш автоматлаштирилган тизимлари** ва **частота ўзгартиргичларни** жорий этиш орқали **1 куб метр сувга тўғри келадиган электр энергияси сарфини босқичма-босқич камайтиришни** белгилаш.

**3) Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 7 январдаги 11-сон қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасининг Давлат сув кадастрини ишлаб чиқиш ва юритиш тартиби тўғрисида”ги Низом<sup>70</sup> талабларини қайта кўриб чиқиш.** Бунда мазкур хужжатнинг 1 ва 2-бандарида қайд қилинган таклифларни киритиш масаласини кўриб чиқиш.

**4) Ноқонуний уланишларга йўл қўйган масъулларга нисбатан қатъий назорат ва жавобгарлик чоралари самарасизлиги**

**3.1.** Одатда ушбу ноқонуний уланишлар ҳақида сув таъминоти ташкилотларининг мансабдор шахслари ёки ходимлари хабардор бўлади, ва уларнинг бевосита кўмагида бу ноқонуний хатти-ҳаракатлар амалга оширилади.

**Энг ачинарлиси,** ҳуқуқни қўллаш амалиётида бу ҳолатларни аниқлаш, айбдор мансабдорларни жиноий жавобгарликка тортишда оқсоқликларга йўл қўйилмоқда.

Амалдаги Жиноят кодексининг **169-моддаси 2-қисми “д” бандида** назарда тутилган умумий фойдаланишдаги водопровод тармоқларига тижорат мақсадларида ўзбошимчалик билан уланиш ёхуд совуқ ёки иссиқ сувни ҳисобга олиш асбобларига, шу жумладан уларнинг пломбаларига қасддан шикаст етказиш ёхуд ҳисобга олиш асбобларининг кўрсаткичларини ўзгартириш мақсадида уларга ташқаридан аралашганлик жинояти учун ҳамда **169-моддаси 2-қисми “е” бандидаги** худди шу ҳаракатлар **сув таъминоти ташкилотларининг мансабдор шахслари ёки ходимлари томонидан олдиндан тил бириктириб содир этилган жиноят учун ҳам бир ҳил санкция белгиланган<sup>71</sup>.**

*Маълумот учун: ушбу модда санкциясида – базавий ҳисоблаш миқдорининг уч юз бараваригача миқдорда жарима ёки икки йилдан уч йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёки уч йилдан беш йилгача озодликни чеклаш ёхуд уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланиши назарда тутилган.*

**Ваҳоланки, махсус субъект бўлган мансабдор шахслар томонидан содир қилинган жиноятлар учун умумий субъектларга нисбатан оғирроқ жазо чоралари белгиланиши назарда тутилган.**

<sup>70</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 7 январдаги 11-сон қарори билан тасдиқланган «Ўзбекистон Республикасининг Давлат сув кадастрини ишлаб чиқиш ва юритиш тартиби тўғрисида»ги Низом // Lex.uz.

<sup>71</sup> Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. — Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, амалдаги таҳрир.

Шунга кўра, айб учун жавобгарлик муқаррарлигини таъминлаш мақсадида **169-моддаси 2-қисми “е” банди диспозициясини алоҳида квалификациян белги сифатида ушбу модданинг учинчи, яъни оғирроқ бўлган қисмига ўтказиш** лозим.

**3.2. Ичимлик сувини бошқа мақсадларда сарфлаш, ундан хўжасизларча фойдаланиш** сўз бирикмаларидан иборат бўлган аниқ ҳуқуқбузарлик учун Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексида белгиланган аниқ диспозиция мавжуд эмас.

Ушбу ҳолат аҳолини ичимлик сувини бошқа мақсадларда хўжасизларча ишлатганлиги учун маъмурий жавобгарлик юзага келиши мумкилигидан беҳабар бўлишига олиб келмоқда.

**Оқибатда**, аҳоли ичимлик сувини автомашиналарни ювишга, кўчаларга сепишга, оғороларни сўғоришга ва бошқа бошқа мақсадларда сарфламоқда.

Масалан, амалдаги **Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 74-моддасида** сувдан фойдаланиш ва сув истеъмоли қоидаларини бузганлик учун жавобгарлик назарда тутилган.

Ушбу модданинг иккинчи қисмида “сунъий сув объектларидан олинадиган сувдан фойдаланиш ва сув истеъмоли қоидаларини бузиш, яъни сувдан хўжасизларча фойдаланиш, сувларнинг ва сув объектларининг ҳолатига таъсир этувчи гидротехника ишларини ва бошқа ишларни ўзбошимчалик билан бажариш, сув объектларидан белгиланган сув олиш лимитлари, сувдан фойдаланиш ва сув истеъмоли режаларини бузиш” учун жавобгарлик мавжуд.

Шунингдек, **Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 63-моддасида** водопроводдан фойдаланиш қоидаларини бузганлик учун ҳам жавобгарлик белгиланган.

**Мазкур модданинг 1-қисмида** “Водопровод тармоқларига (сув таъминоти тармоқларига) ўзбошимчалик билан уланиш ҳамда **водопроводдан фойдаланиш қоидаларини бошқача тарзда бузиш**, ер ишлари ва бошқа ишларни бажараётганда водопровод тармоқларини муҳофаза қилиш қоидаларини бузиш” каби ҳуқуқбузарлик учун жавобгарлик белгиланган<sup>72</sup>.

Шунга кўра, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг тегишли моддаларига ичимлик сувини бошқа мақсадларда сарфлаш, ундан хўжасизларча фойдаланишни ифодаладиган аниқ диспозицияларни ишлаб чиқиш.

Таъкидлаш жоизки, **“Ўзбекистон — 2030” Стратегиясининг 62-бандида** “Республикада сувдан оқилона фойдаланиш маданиятини ва сув ишлатиш самарадорлигини ошириш” мақсадида “Барча ичимлик сув истеъмолчиларига ҳисоблагичлар ўрнатишни таъминлаш” ҳамда “Ичимлик сув **сифати**, ичимлик сув билан **таъминланганлик даражаси**, сув таъминоти ва канализация корхоналари **самарадорлик кўрсаткичларини жорий этиш**” каби самарадорлик кўрсаткичлари қайд этилган, лекин **ичимлик суви йўқотишлари ва бошқа илгари сурилаётган аниқ тақлифлар назарда тутилмаган.**

Юқоридагилардан келиб чиқиб, мазкур илгари сурилган тақлифлар соҳа мутахассислари билан биргаликда маромига етказилиши ҳамда амалиётга татбиқ этилиши мақсадга мувофиқдир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ–158-сон Фармони “Ўзбекистон — 2030” стратегияси.

---

<sup>72</sup> Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. — Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, амалдаги таҳрир.

2. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси.
3. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 7 январдаги 11-сон қарори.
5. World Bank. *Uzbekistan Water Supply and Sanitation Sector Review*. Washington, DC.
6. Asian Development Bank. *Improving Energy Efficiency in Water Utilities*. Manila.
7. FAO. *Water Governance and Sustainable Development*. Rome.
8. Юлдошев Б., Маткаримова Г. Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва экологик хавфсизликнинг ҳуқуқий асослари. — Тошкент, 2022.

## **VOYAGA ETMAGANLAR O‘RTASIDA GIYOHVANDLIKNING TARQALISHINI OLDINI OLISH – BUGUNGI KUNNING DOLZARB MASALASI**

**T.N. Tillayev**

Tashkent International University  
Huquqiy fanlar kafedrasida dotsenti

Bugungi kunda respublikamizda huquqbuzarliklarga qarshi kurashning samarali tizimi yaratilmoqda. Bunda huquqbuzarliklarning oqibatlariga emas, balki ularning sabablariga qarshi kurash, huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat organlari va keng jamoatchilik o‘rtasida mustahkam hamkorlikni joriy etishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Voyaga etmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, o‘ziga kelayotgan avlodni terrorizm, diniy ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilishga qaratilgan tizimni rivojlantirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, «O‘zbekistondagi har bir fuqaro, qaysi lavozimda ishlashidan qat’i nazar, avvalo tarbiyachi ekani, farzandlarimiz taqdiri uchun har birimiz mas’ul ekanligimizni anglash tobora kuchaytirilmoqda. Bu masala zamonning o‘tkir talabiga aylangan dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda» [1].

Ushbu masala doirasida giyohvandlikka qarshi kurash global, umumbashariy ahamiyat kasb etadigan dunyo hamjamiyatini jiddiy tashvishga solayotgan illat hisoblanadi. Giyohvandlik XX asrning oxiri XXI asrning boshlariga kelib shu darajada tezlik bilan rivojlandiki, natijada ushbu «oq ajal» butun insoniyat uchun xavfli hodisaga aylandi.

Ayniqsa so‘ngi yillarda horijiy davlatlarda sintetik giyohvandlik vositalarini chekish yo‘li bilan o‘z organizmini zaharlash keng miqyosda, ayniqsa o‘smirlar va yoshlar orasida, avj olayotganligi aksariyat davlatlarni jiddiy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda turli pinhona yo‘llar bilan mamlakatimizga kirib kelayotgan sintetik giyohvandlik vositalarini yashirish va tarqatish usullarini aniqlash va jinoiy guruhlarni fosh etish hamda tarqatilishini oldini olish huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir.

Zero, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi aholining, ayniqsa voyaga etmaganlarning hayoti va sog‘lig‘iga jiddiy xavf tug‘diradi, boshqa jinoyatlarning o‘shishi, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikni tarqalishiga imkon tug‘diradi, jamoat tartibi va xavfsizligiga taxdid soladi, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy asoslarni emiradi.

BMTning narkotiklar nazorati bo‘yicha Xalqaro Qo‘mitasining 2024 yildagi Narkotiklar haqidagi umumjahon dokladida keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023 yilda dunyoda 15 yoshdan 64 yoshgacha bo‘lgan 270 million kishi narkotik moddalarni iste‘mol qilganligi qayd etilgan (2020 yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 3 millionga oshgan) [2].

Hozirgi paytda markaziy asab tizimiga qo'zg'altiruvchi ta'sir ko'rsatadigan sintetik moddalar – amfetaminlar keng tarqalgan. Ularning ba'zilari tibbiyotda cheklangan holda qo'llaniladi. Shuningdek, opioidlar, masalan: metadon va fentanil ham sintez qilingan.

Amfetamin qatoridagi stimulyatorlar – sintetik narkotik vositalar tarkibiga kiruvchi amfetamin va metamfetamin giyohvand vositalar. Poroshoksimon, kristall, tabletka va kapsula ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Amfetamin (giyohvandlar tilida «lyod», «skorost», «sneg» deb ham nomlanadi) - tarkibida metilfeniletamin moddasi mavjud bo'lgan, inson markaziy asab tizimiga kuchli ta'sir etuvchi stimulyator. Ba'zi mamlakatlarda tibbiyot sohasida narkolepsiya va giperfaol yoshlarga ishlatiladi.

Ushbu vosita birinchi marotaba Germaniyada 1920 yilda sintez yo'li bilan olinib, astma kasalligiga qarshi foydalanilgan. Ikkinchi jahon urushi davrida AQSh va Buyuk Britaniya Mudofaa Vazirligi tomonidan askarlarga kuchini tez tiklantiruvchi (rekreatsion) modda sifatida qo'llangan.

Amfetamin Yevropa davlatlarida, shuningdek Eron, Malayziya, Xitoy, Rossiya hamda Afg'oniston davlatlarida ishlab chiqariladi.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab, modifikatsiya qilingan, («dizaynerlik») amfetaminlari ommalasha boshladi. Giyohvandlar orasida "ekstazi" sifatida ma'lum bo'lgan MDMA preparati 1914 yilda ishtahani ochuvchi vositasi sifatida kashf qilingan bo'lib, 1965 yilda psixoterapiya seanslarida foydalanila boshladi, keyinchalik esa umuman taqiqlandi. Ilk bor MDMA vositasidan «ko'cha»da foydalanish 1972 yilda qayd etildi, keyinchalik u yoshlar musiqiy submadaniyatining timsoliga aylandi.

Sintetik narkotiklarga, shuningdek barbituratlar kirib, ularning ta'siri amfetaminlar ta'siriga qarama-qarshi hisoblanadi, chunki markaziy asab tizimining siqilishiga sabab bo'ladi, trunkvilizatorlar esa tashvish-xavotir va zo'riqishni pasaytiruvchi hamda umumiy tinchlantiruvchi ta'sirga ega bo'lgan dorivor vosita hisoblanadi.

Sintetik narkotiklarni, tabiiy giyohvandlik vositalari kabi inson tanasiga ta'sir etish darajasiga ko'ra «og'ir» (kuchli ta'sir qiluvchi) va «engil» (kuchsiz) vositalarga bo'lish mumkin. Bunday bo'linish hiyla shartli bo'lib, giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish va qo'llash usuli (ichiga qabul qilish, hidlash, chekish va igna sanchish)ga ko'ra, aynan u yoki bu narkotik moddasining inson organizmiga ta'siri keskin o'zgaradi. Og'ir narkotiklar engil narkotiklarga qaraganda tezroq qaramlikni keltirib chiqaradi. Amaliyotning ko'rsatishicha, sintetik narkotik vositalar tabiiy narkotik vositalarga qaraganda xavfliroq bo'lib, ularga ko'nikish tezroq yuzaga keladi, kundalik tarzda iste'mol qilishda 2-4 yildan so'ng o'limni keltirib chiqaradi (geroinni iste'mol qilishda o'lim 5-7 yildan so'ng yuz beradi).

Sintetik narkotiklarning noqonuniy aylanishi to'g'risida gapirishdan avval, shuni alohida qayd etish lozimki xalqaro narkotiklarga qarshi maxsus tashkilotlar (Narkotik vositalar bo'yicha komissiya, narkotiklar ustidan nazorat qilish bo'yicha xalqaro qo'mita, narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha BMT boshqarmasi) hisobotlari bo'yicha "Sintetik narkotiklar" toifasiga amfetamin qatoridagi qo'zg'atuvchi vositalar tegishli bo'lib, ularga metamfetaminlar, amfetaminlar va aniqlashtirilmagan amfetamin (masalan, fenetillin, metilfenidat, fenmetrazin, metkatinon, amfepramon, pernolin, fentermin va boshqalar.), shuningdek "ekstazi" guruhidagi moddalar (MDA, MDMA, MDEA, BDB, MBDB va unga o'xshashlar) kiradi.

2008 yilning oxirlarida ko'pgina davlatlarda «spays»ning tarkibiga shubha tug'ila boshladi. O'rganishlar va tekshirishlar natijasida ularga kimyoviy modddalar aralashtirilayotganligi, jumladan dibenzoperan, naftailindol va oleamid, ya'ni sun'iy giyohvand moddalarga aylantirilayotganligi fosh etildi.

2009 yildan boshlab bir qator davlatlarda chekish aralashmasidan foydalanish taqiqlab qo'yildi. Masalan, 2009 yil 31 dekabrda «Spays» – giyohvand vositasi sifatida Rossiya Federatsiyasi hududida va 2010 yildan boshlab Belarus davlatida ham taqiqlandi hamda uning muomalasi, tarqatilishi, sotilishi va saqlanishi yuzasidan qonunchilikda jazo muddatlari belgilangan. Ammo AQShda undan foydalanish va o'zi bilan olib yurish miqdori chegaralangan

bo‘lib, chekish aralashmasi uchun javobgarlik ko‘rinishida jarima va majburiy tibbiy rehabilitatsiya belgilangan xolos.

Dezomorfina («krokodil») - tarkibida kodein mavjud bo‘lgan preparatlar, benzin, yod, maishiy aralashmalar (*rastvoritel*), fosforlar aralastirilib, metallarni tayyorlashda ishlatiladigan kuchli zaharli moddalar ishlatilishi bilan tez orada (bir necha oyda) o‘lim keltirib chiqarishi bilan xavflidir.

Shuningdek, mamlakatimizda tarkibida psixofaol moddalar bo‘lgan dori vositalari tarqalgan bo‘lib, narkotik vositalarni iste‘mol qiluvchilarning bir qismi qonunchilikda muomalasi cheklanmagan dori vositalarini notibbiy ravishda iste‘mol qilishga o‘tmoqda. Bunday dori vositalariga «Tramadol», «Lirika», «Lipre» va boshqa shularga o‘xshash dori-darmonlar kiradi.

Sintetik narkotik moddalarning keng tarqalishini (o‘simlik xomashyosidan olinadigan narkotik vositalardan farqli ravishda) ularda bir qator o‘ziga xos tafovutlarning mavjudligi bilan tushuntirish mumkinki, ular o‘z navbatida ham iste‘molchilar, ham ishlab chiqaruvchilar uchun ma‘qul keladi.

Narkotiklar yoshlar klubi madaniyatining ajralmas timsoliga aylanib, diskoteka va tungi klublar narkosindikatlari uchun o‘z mahsulotlarini tarqatish uchun istiqbolli makon bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda narkobiznes sintetik narkotiklarga bo‘lgan rusumni shakllantirib, hayotning barcha ko‘rinishlariga mos keluvchi vositalarni taklif qila boshladi, masalan «sevgi narkotigi», «raqs xapdorisi», «kuch-quvvat dopingi» va hokazo.

Mavjud sintetik vositalar o‘xshashliklarining turli-tumanligi hamda yangi dori vositalarini sintez qilishni tez qilish imkoniyati ishlab chiqaruvchilarga narkotiklar bozori kon‘yunkturasiga tezkor javob berish imkonini beradi. Chunonchi, narkotik va narkomaniya monitoringining Yevropa markazi (EMCDDA) boshlig‘i V. Getsning ma‘lumotiga ko‘ra, 2009 yilda 24 ta sintezlashgan moddalarni ishlab chiqarish miqdoriga ko‘ra juda mahsuldor bo‘lib, 2010 yilda bu yutuq yanada yangilangan, ya‘ni uning miqdori 33 taga etgan. 1997 yilda Markaz tomonidan yaratilgan yangi moddalar to‘g‘risida erta xabar berish tizimi umumiy miqdori 100 ta bo‘lgan yangi narkotiklarni aniqlashga imkon berdi, bunda oxirgi yillarda mazkur jarayonning sur‘ati sezilarli tarzda oshdi.

Sintetik moddalarni ishlab chiqarish texnologiyasi mahsulot narkogenligi darajasini o‘zgartirish va uning inson ruhiyatiga ta‘sir qilish xususiyatini o‘zgartirish imkonini berib, natijada samaradorligi bo‘yicha ular kelib chiqishi tabiiy bo‘lgan narkotiklardan yuz, hattoki ming barobar ortiq bo‘ladi. Shuningdek, tabiiy narkotik vositalarga nisbatan tan narxining pastligi ham sotuvchilar, ham xaridorlar uchun juda ma‘qul keladi, masalan, Xitoyning janubiy viloyatlarida «ekstazi» xapdorisini ishlab chiqarish 7–9 sentga teng bo‘lsa, Pekinda uning sotuv narxi 36 dollarni tashkil qiladi.

G‘arbiy Yevropada sintetik narkotik vositalar Internet orqali tarqatilib, bu narkotiklar savdosiga qarshi kurash olib borayotgan huquq-tartibot organlarining ishini sezilarli tarzda qiyinlashtiradi. Bunda so‘z ba‘zi mamlakatlarda qo‘llanishi ruxsat berilgan, biroq ba‘zilarida taqiqlangan moddalar to‘g‘risida so‘z yuritilmoqda. Masalan, mefedron moddasi kuchli ruhiy qo‘zg‘atuvchi vosita hisoblanib, o‘zining ta‘siriga ko‘ra, «ekstazi», amfetaminlar yoki kokainning o‘rnini bosishi mumkin. Internet orqali ular taqiqlangan Yevropa mamlakatlaridan sotib olish mumkin. Narkotik va narkotik moddalarni monitoring qilishning Yevropa markazining aniqlashicha, 2019 yilning oxiriga kelib, 70 dan ortiq saytda, asosan Buyuk Britaniya va Niderlandiya davlatlarida uning savdosi bilan shug‘ullanilgan.

Hozirgi kunda H.Sulaymonova nomli RSEM xodimlari tomonidan 2011 va 2014 yillarda AQSh va Italiya davlatlarida malaka oshirishi jarayonida olib kelingan kutubxonalarda mavjud bo‘lgan 80 ta nomdagi yangi giyohvand vositalari sintetik kannabinoidlarning nomlari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi dori vositalarini sifatini va tibbiy texnikani nazorat qilish boshkarmasi narkotik moddalar ustidan nazorat qilish kumitasiga taklif sifatida berilib, ular O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2015 yil 12 noyabrdagi

№330 sonli qarori 1-ilovasiga, ya'ni O'zbekiston Respublikasi xududida muomalada bulishi taqiqlangan giyohvandlik vositalari ruyxatiga kiritildi.

Ammo ularning yangi nomlari va turlari sonining kun sayin oshib borayotganligi jiddiy tashvish uyg'otadi.

AQSh kasalliklarni nazorat qilish va ularning profilaktikasi bilan shug'ullanuvchi markazlarning(CDC) ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda narkotik moddalardan 80 ming inson vafot etgan. Ushbu vafot etganlarning 88%i fentanil iste'mol qilishi natijasida hayotdan ko'z yumgan. Mashhur aktyorlardan oskar mukofoti laureati Seymur Filipp Xoffman, taniqli rok-musiqachi va qo'shiqchilardan Tom Petti va Prinslar aynan fentanil qurboniga aylanganlar. 2025 yil holatiga ko'ra, AQShda xaftasiga 1500 inson narkotik moddalarni iste'mol qilishi natijasida vafot etmoqda, ularning 80%i fentanil hissasiga to'g'ri kelmoqda va bu ko'rsatkich yildan yilga oshib bormoqda.[3]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.11.2025 yildagi "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-207-sonli Farmonining qabul qilinishi giyohvandlikning tarqalishini oldini olish va unga qarshi kurashish – bugungi kunning davlat siyosati darajasidagi eng dolzarb masalalaridan biri ekanligining dalilidir.

Quyidagilar ushbu Farmonning asosiy maqsadlari etib belgilansin:

(a) O'zbekiston aholisining salomatligi va millat genofondiga jiddiy tahdid solayotgan giyohvandlik illatiga qarshi kurashish hamda bunga sabab bo'layotgan uyushgan narkojinoyatchilikka chek qo'yishga qaratilgan normativ-huquqiy, tezkor-profilaktik va tashkiliy-tarbiyaviy choralar kompleksini belgilash;

(b) voyaga etmaganlar va yoshlarimiz kelajagini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan har tomonlama asrash — barcha darajadagi davlat organlari, tashkilotlari va muassasalarining dolzarb vazifasi ekanini alohida qayd etish hamda ularning bu boradagi mas'uliyatini tubdan oshirish.

2. Quyidagilar giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi keskin kurashish faoliyatini amalga oshirishga mas'ul davlat organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalari etib belgilansin:

(a) ta'lim muassasalarida, o'quvchi va talabalar orasida psixofaol moddalarning tarqalishiga batamom chek qo'yish, yoshlarda giyohvandlik illatiga murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarni kompleks ravishda amalga oshirish;

(b) giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar (keyingi o'rinlarda — giyohvandlik vositalari) noqonuniy aylanmasiga qat'iy jinoiy-huquqiy mexanizmlar orqali barham berish, bu boradagi jazo choralarini keskin kuchaytirish hamda yoshlarga nisbatan sodir etiladigan narkojinoyatlar uchun javobgarlikni og'irlashtirish;

(v) giyohvandlik vositalarini respublika chegarasidan olib kirish yo'nalishlarini, internet tarmoqlari orqali tarqatish harakatlarini, noqonuniy narkolaboratoriyalarni va narkojinoiy uyushmalarni, shu jumladan, ularga homiylik (rahnamolik) qilayotgan mansabdor shaxslarni aniqlash, ular faoliyatiga chek qo'yish hamda jazo muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli tezkor-qidiruv va tergov faoliyatini yo'lga qo'yish;

(g) giyohvandlik vositalarini tayyorlash uchun foydalanish mumkin bo'lgan kimyoviy moddalar (prekursorlar) aylanmasi ustidan qat'iy davlat nazoratini o'rnatish, giyohvandlik vositalaridan tibbiyotda foydalanuvchi tibbiyot muassasalari, farmatsevtika korxonalari va dorixonalarining faoliyatini nazorat qilish amaliyotiga raqamli echimlarni joriy etish;

(d) aholi, ayniqsa, voyaga etmaganlar va yoshlar orasida giyohvandlik hamda zaharvandlikni tashxislash, davolash va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarni belgilash.[4]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, giyohvandlik bir qator millatlarning genofondiga xavf solmoqda. Bu o'sha millatlarda nasl buzilishi mumkin, sog'lom farzand tug'ilishi gumon ostida qolishi ehtimoli bor degani. Bunday ko'rgulik boshqa millatlar, halqlar boshiga tushmaydi deb

hech kim kafolat bera olmaydi. Shuning uchun ham birinchi navbatda, voyaga etmaganlar o'rtasida giyohvandlikning tarqalishini oldini olish bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida diqqat markazimizda turishi ijtimoiy zarurat hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari: Risola / M.Bekmurodov, Q.Quronboev, L.Tangriev. – T., 2017. – B. 27.

2. <https://unis.unvienna.org/> Доклады Международного комитета по контролю над наркотиками за 2023 год

3. <https://www.golosameriki.com/a/us-drug-overdose-deaths-drop-to-lowest-levels-since-june-2020/7987951.html>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.11.2025 yildagi "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-207-sonli Farmoni (*Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.11.2025 y., 06/25/207/1023-son*)

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQLARI VA FUQAROLARNING ERKINLIKLARINI TA'MINLASH SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

**Bekmurodov Normurod Nekmurodovich**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi  
Ma'muriy huquq kafedrası dotsenti, yu.f.b.f.d.

Yangilanayotgan O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash va sud-huquq tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatimiz inson huquqlariga oid 80 dan ortiq xalqaro hujjatga, shu jumladan BMTning asosiy shartnomalariga qo'shilgani hamda Asosiy Qonunimizda xalqaro normalar ustuvorligi belgilangani inson qadri eng yuksak qadriyat sifatida e'tirof etilganining yorqin dalilidir.

Shu bilan birga, milliy huquqiy tizimimiz rivojiga xalqaro shartnomalar bilan bir qatorda "yumshoq huquq" (soft law) elementlari, ya'ni xalqaro tashkilotlarning rezolyusiyalari, tavsiyalari va qonun modellari ham tobora kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayon konseptual yuridik qoidalarni shakllantirishdan tortib, xalqaro tavsiyalarning ayrim normalarini milliy qonun hujjatlarimiz matniga to'g'ridan-to'g'ri singdirishgacha bo'lgan turli shakllarda amalga oshmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning rezolyusiya, tavsiya va qonun modellarining huquqiy tizimga ta'siri yuridik texnikaning alohida konseptual qoidalaridan boshlab toki tavsiyalarning ayrim qoidalarini qonun hujjatlari matniga to'liq kiritishgacha bo'lgan turli shakllarda mavjud bo'ladi<sup>73</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 avgustdagi "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6041-sonli Farmoni bilan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlari tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan ariza, tushuntirish yoki ko'rsatuvlar olishni mazkur jinoyat ishi yurituvida bo'lgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki

---

<sup>73</sup> Brizkun K.A. "O vidax rekomendatelnix aktov mejdunarodnix organizatsiy i formax ix vliyaniya na natsionalnoe zakonodatelstvo" // Journ. ros. prava. — 2010. — № 8

sudyaning yozma ruxsatiga asosan va faqat himoyachi ishtirokida amalga oshirish va boshqa bir qator tartiblar belgilandi<sup>74</sup>.

Mamlakatda huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash jarayonida jinoyatchilikning yangi, murakkab shakllariga, xususan, uyushgan jinoyatchilik, iqtisodiy va transmilliy tahdidlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish ob'ektiv zaruratga aylandi. Ushbu jarayonda jinoyatchilikka qarshi kurashishning an'anaviy jinoyat-protsessual mexanizmlari yetarlicha samara bermasligi o'z isbotini topdi. Shu bois, 2012 yilda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi tarqoq normalarni yagona tizimga keltirib, mazkur sohani mustaqil va yaxlit huquqiy institut sifatida mustahkamladi. Bu qadam davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlash bilan birga, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish o'rtasidagi huquqiy muvozanatni o'rnatishga xizmat qildi.

Shu nuqtai nazardan, alohida yagona qonunda tezkor-qidiruv faoliyatining prinsiplari va shakllarining hamda uni amalga oshirishda qonuniylikni ta'minlashning huquqiy kafolatlarining mustahkamlanishi, ushbu faoliyatning turli yo'nalishlarini tartibga soluvchi bir qator normativ huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan normalarni tizimlashtirish imkonini yaratadi. Fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilish, sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirishga yaqindan yordam beradi<sup>75</sup>.

Zamonaviy yurisprudensiyada tezkor-qidiruv faoliyati faqatgina jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan cheklanib qolmay, balki inson huquqlari, erkinliklari va mulkiy manfaatlarini muhofaza qilish, jinoyatlarni fosh etish, tergov va suddan yashiringan yoki bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirish, shuningdek, davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi harakatlarga barham berish hamda mamlakatning harbiy, ekologik va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan yaxlit, keng qamrovli huquqiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda<sup>76</sup>.

Huquqni muhofaza qilishning ushbu shakliga xos bo'lgan konspirativlik, oshkora hamda nooshkora kuch va vositalarning uyg'unligi tezkor-qidiruv faoliyati orqali jinoyatlarni aniqlash, oldini olish va fosh etishda yuksak natijalarga erishish imkonini beradi. Biroq, aynan mazkur yashirin xususiyatlar insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga daxl qilish xavfini ham keltirib chiqargani bois, ushbu jarayonda qonuniylikni qat'iy ta'minlash talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, tezkor-qidiruv faoliyati hamda uning natijalaridan dalil sifatida foydalanishning qonuniyligi ustidan amalga oshiriladigan prokuror nazoratining predmeti quyidagilardan iborat.<sup>77</sup>

- inson va fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilinishligi; - tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning qonun va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibi;

- tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar va boshqa hujjatlarning qonunga muvofiqligi;

-tezkor-qidiruv faoliyati natijalarida aniqlangan dalil sifatida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni protsessual qonunchiligi asosida qayta tekshirish va rasmiylashtirishning qonuniyligi.

Tezkor-qidiruv faoliyatini takomillashtirishning yana bir muhim yo'nalishi bu, transmilliy va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish mexanizmlarini modernizatsiya qilishdir. Uyushgan jinoyat guruhlarning faoliyati tobora murakkablashib, yashirin iqtisodiyot, korrupsion sxemalar va yuqori texnologiyalar bilan integratsiyalashayotgan bugungi sharoitda, faqatgina an'anaviy kuzatuv yoki axborot to'plash usullari bilan ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi. Uyushgan jinoyat

---

<sup>74</sup> *Toshev O, Nurmatov R*, Qonun ustuvorligini ta'minlash borasida sud-huquq tizimida amalga oshirilgan islohatlar. Zamin.uz 2020. <https://vk.com/@zaminuz-rss-1728873584-61050907>

<sup>75</sup> *Jo'raev Q.T* ezkor-qidiruv faoliyatida fuqarolar himoyasi. [tps://parliament.gov.uz/upload/iblock/6e8/hfnlncqkby-kzkuwgazfgml.pdf](https://parliament.gov.uz/upload/iblock/6e8/hfnlncqkby-kzkuwgazfgml.pdf) ;

<sup>76</sup> *Po'latov A.S.* Tezkor-qidiruv faoliyati va uning huquqiy asoslari. Monografiya. –T.: O'zbekiston, 2021.B-9.

<sup>77</sup> *Po'latov B.*, Tezkor-qidiruv faoliyati, uning natijalarini dalil sifatida foydalanishning qonuniyligi ustidan prokuror nazorati. Huquqiy tadqiqotlar jurnali. 2017 №7. B-44. <https://journals.uz/wp-content/uploads/2017/11/2-tezkor-qidiruv-faoliyati-uning-natijalarini-dalil-sifatida-foydalanishning-qonuniyligi-ustidan-prokuror-nazorati.pdf>

tarmoqlarning moliyaviy oqimlarini kuzatish, ularning yashirin kommunikatsiya kanallarini aniqlash va fosh etish tezkor bo‘linmalardan noan’anaviy, intellektual yondashuvlarni talab qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tezkor-qidiruv amaliyotiga sun‘iy intellekt va biometrik identifikatsiya tizimlarini joriy etishni taqozo etmoqda. Biroq, bu jarayon shaxsning virtual makondagi daxlsizligi va shaxsga doir ma’lumotlar himoyasi bilan bevosita to‘qnash keladi. Fikrimizcha, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan shaxslarning elektron yozishmalari, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi va geolokatsiya ma’lumotlarini to‘plash jarayoni qat’iy protsessual qoidalarga bo‘ysundirilishi shart. Ushbu yo‘nalishda inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlar asosida milliy qonunchilikda virtual makondagi tezkor-qidiruv tadbirlarining aniq huquqiy chegaralarini belgilash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qolaversa, qonunchilik normalarini amaliyotga samarali tatbiq etish bevosita tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarning kasbiy tayyorgarligi va huquqiy madaniyatiga bog‘liqdir. Inson huquqlari ustuvorligi tamoyilini ta’minlash maqsadida, xodimlarni nafaqat zamonaviy kriminalistik va tezkor-texnik vositalardan foydalanishga o‘rgatish, balki ularda shaxs daxlsizligi va qonuniylikka qat’iy rioya etish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Shundagina tezkor-qidiruv faoliyati jamiyatni kriminal tahdidlardan himoya qiluvchi qalqon vazifasini bajarish bilan birga, demokratik huquqiy davlat prinsiplariga to‘la mos keladigan institutsional tizimga aylanadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan o‘ziga xos xususiyatlar sababli TQF bir tomondan jinoyatchilikka qarshi kurash manfaatlari, ikkinchi tomondan shaxsning manfaatlari, huquqlari va erkinliklari orasida doimiy ravishda muvozanat saqlab turishiga to‘g‘ri keladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi bilan tezkor bo‘linmalar tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishda qonuniylikka rioya etish, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashning huquqiy kafolatlarini yaratishga xizmat qiladi. Mazkur qonun yurtimiz sud huquq tizimini yanada demokratlashtirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yanada liberallashtirishga keng zamin yaratadi degan fikrdamiz.

## **ПРАВО В ПЕРИОД ТРАНСФОРМАЦИЯ ИНСТИТУТОВ, ЦИФРОВЫХ ВЫЗОВОВ И ФОРМИРОВАНИЯ НОВОГО ПРАВОВОГО ПОРЯДКА**

**Г.А.Маткаримова**, доктор юридических наук,  
**Д.А.Чиниев**, доктор юридических наук

Мы живём в эпоху, когда сразу несколько глобальных кризисов — пандемия COVID-19, геополитические конфликты, энергетические шоки, кибератаки и климатические катастрофы — одновременно воздействуют на государственные системы, экономику и социальную жизнь.

Всё это формирует пространство, в котором право уже не может оставаться прежним. Оно должно не только регулировать, но и обеспечивать устойчивость, предсказуемость и защиту человека.

Главная проблема в том, что значительная часть действующих правовых систем была создана в условиях относительной стабильности. Но последние годы показали: мир стал нелинейным, а кризисы разворачиваются быстрее, чем право успевает реагировать. Поэтому посткризисный период — это не просто период восстановления. Это этап формирования нового правового уклада.

Кризисы наглядно изменили представление о роли государства. Пандемия, геополитические конфликты и др. продемонстрировали, что без сильных институтов и

оперативного законодательства невозможно обеспечить защиту здоровья населения и стабильность экономики.

Но одновременно многие страны столкнулись со снижением парламентского контроля, чрезмерной концентрацией полномочий исполнительной власти и расширением практики ограничений прав человека.

Подобные меры помогали бороться с угрозами, но нередко выходили за рамки нормальности, что ставило **вопрос о пропорциональности** и необходимости законодательных гарантий.

Этот опыт показывает: в будущем любая система чрезвычайных мер должна быть юридически «встроена» в конституционный порядок. Необходимо предусмотреть чёткие пределы полномочий органов власти, условия их применения и обязательный судебный и парламентский надзор. Только так можно сохранить **баланс между безопасностью и свободой**.

Не менее серьёзные уроки дал международный уровень. Пандемия выявила ограниченность международных медико-санитарных правил: государства не обязаны были делиться информацией или ресурсами, что привело к серьёзному неравенству в доступе к вакцинам.

Мир столкнулся с ситуацией, когда глобальная угроза требовала коллективных действий, но механизмов принуждения к сотрудничеству не существовало. Поэтому сегодня идёт работа над новым международным договором о готовности к пандемиям — это шаг к формированию более солидарной и связанной системы глобальной безопасности.

Современные геополитические конфликты добавили новое измерение. Работа Совета Безопасности ООН парализована правом вето, что делает невозможным единообразную реакцию на агрессию и грубые нарушения международного права. Именно поэтому всё громче звучат предложения о реформе Совета Безопасности, ограничении применения вето и расширении роли Генеральной Ассамблеи как инструмента коллективного реагирования.

***Справочно:** В 2024 году Совет Безопасности Организации Объединённых Наций (СБ ООН) зафиксировал **восемь вето** (трижды Соединёнными Штатами, четырежды Россией и один раз Китаем) по проектам резолюций — рекорд с 1986 года ([securitycouncilreport.org](https://www.securitycouncilreport.org)+[research.un.org](https://www.research.un.org)+2).*

*Это означает, что наиболее мощный орган глобальной безопасности оказался парализованным именно в момент, когда требовалась единая реакция на крупномасштабные кризисы (например, война в Газе, [Пресс-служба ООН+1](#)).*

*Такая тенденция подрывает легитимность Совета и усиливает восприятие его как инструмента геополитического противостояния постоянных членов (P5), а не объективной защиты международного порядка ([Better World Campaign+1](#)).*

*В ответ на накопившийся кризис легитимности растут призывы к реформированию СБ ООН и увеличению роли Генеральной Ассамблеи ООН (ГА ООН) как инструмента коллективного реагирования. Одним из наиболее обсуждаемых предложений является ограничение применения права вето, расширение состава Совета и предоставление Генеральной Ассамблее полномочий принимать обязательные резолюции через процедуру “Uniting for Peace” в случаях, когда Совет оказывается заблокированным.*

*Кроме того, генеральный секретарь ООН прямо заявил, что СБ должен «представлять мир 2025 года, а не 1945-го», и призвал к расширению его состава и реформированию процедуры вето ([Пресс-служба ООН+1](#)). Эти шаги указывают на признание кризиса легитимности и функциональности Совета, и подчеркивают необходимость реформирования международной архитектуры безопасности как неотъемлемой части посткризисного правового порядка.*

Параллельно мир столкнулся с резким продвижением цифровых технологий. Во время пандемии именно цифровая инфраструктура позволила государствам, бизнесу и обществу продолжить функционировать. Но она же открыла дорогу к массовому сбору данных, слежению за гражданами, алгоритмическим ошибкам и риску «цифрового авторитаризма», которая набирает обороты и по сей день.

*К примеру, именно эти инструменты открыли путь к беспрецедентному расширению цифрового надзора. Так, в Израиле спецслужба ШАБАК получила право использовать антитеррористическую систему слежения за перемещениями всех граждан, что вызвало конституционные споры и последующие ограничения со стороны Верховного суда Израиля (Israel High Court of Justice, 2020; Haaretz, 2021). В Южной Корее государство применяло комбинированное отслеживание контактов — данные мобильной связи, транзакции банковских карт, CCTV-камеры — формируя детализированные маршруты граждан, часть которых публиковалась в открытом доступе (KCDC COVID-19 Response Report, 2020). В Китае система «Health Code» управляла передвижением миллионов людей на основе алгоритмических оценок, зачастую без прозрачных критериев (Human Rights Watch, China: COVID-19 Controls and Surveillance, 2021). Эти примеры показывают, что цифровая инфраструктура, обеспечившая устойчивость государств, одновременно стала источником серьезных рисков для приватности и индивидуальных свобод.*

*Более того, во многих странах исследования показали, что приложения для цифрового отслеживания контактов и другие системы мониторинга вызвали значительные сомнения у пользователей из-за риска нарушения приватности, что стало препятствием для их широкого принятия и вызвало критику в научной и правозащитной среде. (см. исследование «Privacy and Security in Digital Health Contact-Tracing (2025)» MDPI).*

*В 2025 году отмечается устойчивый рост глобальных проблем защиты персональных данных — например, компании и государства собирают и обрабатывают всё большие массивы данных, включая биометрию, геолокацию и данные о поведении, что создаёт основу для «цифрового авторитаризма». «Data Privacy Trends Shaping 2025 and the Years Ahead» подчёркивает, что уже свыше 80% мирового населения покрыто законодательством о защите данных, но темпы цифровизации и масштаб сбора данных значительно опережают разработку соответствующих правовых рамок ([usercentrics.com](https://www.usercentrics.com)).*

Посткризисное право должно установить чёткие правила использования технологий: прозрачность алгоритмов, минимизацию данных, независимый контроль и строгие гарантии приватности.

Кризисы последнего времени также обострили социальное неравенство. Мигранты, женщины, пожилые люди, работающие в неформальном секторе — именно они понесли наибольшие потери. За годы нестабильности около 1,6 миллиарда людей рисковали потерять свой доход.

*Для сведения: кризисы последнего времени усилили неравенство на рынке труда, особенно среди работников неформальной экономики и мигрантов. Речь идёт прежде всего о геополитических конфликтах (пример, СВО на Украине), приведших к росту цен на продовольствие и энергоносители; глобальном инфляционном скачке 2022–2024 годов, вызвавшем падение реальных доходов; энергетическом кризисе в Европе, усилившем бедность; а также ускоренной автоматизации рабочих мест, вытесняющей низкоквалифицированный труд.*

Согласно отчёту International Labour Organization (ILO) «World Employment and Social Outlook 2024», доля работников неформального сектора выросла до почти 2 млрд

человек в 2024 году — такой масштаб уязвимости трудящихся усиливает риск потерять доход и социальные гарантии (International Labour Organization).

В докладе «*Breaking the Vicious Circles of Informal Employment and Low-Paying Work*» Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) отмечено, что большое число работников сталкивается одновременно с низкой оплатой и нестабильностью легального статуса, а их дети и семьи остаются в «порочном круге» бедности и неравных возможностей (OECD). Это показывает, что работники, лишённые формальных гарантий, становятся первыми «жертвами» именно этих новых кризисов — даже если они не связаны с пандемией.

Социальное неравенство усиливается и за счёт **гендерных различий**, которые обострились после инфляционного кризиса, **массового роста стоимости жизни**, а также ощутимого влияния **автоматизации и искусственного интеллекта**, вытесняющих женщин из низкооплачиваемых профессий. В отчёте ILO Global Wage Report 2024–2025 указывается, что гендерный разрыв в оплате труда и занятости существенно влияет на общий уровень неравенства в обществе, особенно среди групп, находящихся в уязвимом положении (International Labour Organization).

Кроме того, отчёт «*International Migration Outlook 2024*» Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) подчёркивает, что мигранты в странах ОЭСР (ОЭСР — это **Организация экономического сотрудничества и развития**. Международная организация, объединяющая 38 развитых стран) чаще заняты на временной, низкооплачиваемой или сезонной работе — что усугубляется текущей экономической нестабильностью, ростом цен и сокращением рабочих мест в секторах, зависящих от цепочек поставок (OECD).

Эти данные доказывают необходимость усиленного правового регулирования трудовых и социальных прав как ответа на современные кризисы — инфляционный, геополитический, энергетический и технологический — а не только на чрезвычайные ситуации прошлого.

Поэтому социальная политика в посткризисный период должна быть не временной, а устойчивой: с новыми механизмами социальной защиты, расширением доступа к медицине и поддержкой наиболее уязвимых групп. Социальная устойчивость становится ключевым элементом национальной безопасности.

Экономическое право также нуждается в пересмотре. Чрезвычайные меры — моратории на банкротства, налоговые отсрочки, субсидии — спасли миллионы рабочих мест, но были временными. Посткризисный этап требует перехода от ситуативной поддержки к системному регулированию: модернизации банкротного законодательства, созданию правовых стимулов для инноваций, цифровизации предпринимательской деятельности и укреплению доверия инвесторов.

**Справочно:** после отмены временных мер поддержки — мораториев на банкротства, налоговых отсрочек и антикризисных субсидий — многие экономики столкнулись с резким всплеском корпоративных банкротств. По данным OECD Corporate Insolvency Report 2024, в более чем двадцати странах число банкротств выросло на 30–50% по сравнению с докризисным уровнем.

Это показало, что экстренные меры лишь отсрочили проблемы, но не устранили фундаментальные слабости в хозяйственном обороте: малые и средние предприятия оказались перегружены долгами, а без эффективных процедур реструктуризации долгов и упрощённого банкротного законодательства не смогли адаптироваться к новым реалиям.

Такой рост несостоятельности стал прямым сигналом о необходимости перехода к системному регулированию — устойчивым механизмам финансового оздоровления,

модернизации законодательства о банкротстве и созданию правовой среды, обеспечивающей предсказуемость для бизнеса (OECD, Corporate Insolvency Report 2024).

Не менее значимо и то, что отсутствие стабильных правовых рамок после окончания чрезвычайных мер привело к замедлению инновационной активности и инвестиционной динамики.

Согласно World Bank Business Pulse Survey 2024, более 40% компаний в мире заявили, что неопределённость налоговой политики и непрозрачность правил государственной поддержки стали ключевыми барьерами для запуска новых проектов. UNCTAD Investment Trends Monitor 2024 подтверждает эту тенденцию: приток прямых иностранных инвестиций снизился главным образом в странах с неустойчивыми регуляторными режимами, тогда как государства, модернизовавшие экономическое законодательство и цифровизовавшие предпринимательские процедуры, показали рост инвестиций и повышение доверия бизнеса.

Эти данные демонстрируют, что для устойчивого развития недостаточно временной поддержки — необходима глубокая правовая реформа, стимулирующая инновации, снижение рисков и долгосрочную экономическую устойчивость (World Bank, Business Pulse Survey 2024; UNCTAD, Investment Trends Monitor 2024).

Ещё одно направление — экологическое право. Сегодня климатические угрозы по масштабу сопоставимы с пандемиями или военными конфликтами. Экстремальные погодные явления происходят почти вдвое чаще, чем двадцать лет назад. Это означает, что государственная экологическая политика больше не может быть декларативной. Нужны юридически закреплённые климатические обязательства, механизмы ответственности правительств и новая правовая философия взаимодействия человека и природы.

*Для сведения, по данным Межправительственной группы экспертов по изменению климата (IPCC), климатические катастрофы уже нанесли миру ущерб, сопоставимый с многолетними экономическими потерями от военных конфликтов.*

Только за период 2000–2019 гг.:

- глобальные потери от климатических бедствий превысили **2,97 трлн долларов**;
- количество экстремальных погодных явлений увеличилось **на 83%**;
- число людей, пострадавших от наводнений, штормов и засух, выросло более чем на **1,7 миллиарда человек** (IPCC, AR6 Synthesis Report, 2023).

Это означает, что климатические угрозы перешли из категории экологической проблемы в категорию **прямой угрозы национальной безопасности**.

Наряду с этим Всемирный банк указывает, что к **2050 году до 216 млн человек** могут стать «климатическими мигрантами» в результате засух, повышения уровня моря и опустынивания (World Bank, Groundswell Report, 2021).

Массовая миграция, потеря территорий, дефицит воды и снижение урожайности — это уже не экологические, а **государственно-правовые кризисы**, которые требуют правового регулирования на уровне международных обязательств.

И, наконец, право должно адаптироваться к стремительному развитию искусственного интеллекта. Уже сегодня алгоритмы используются в медицине, кредитовании, судопроизводстве и государственных услугах. Но если не установить прозрачные правила, всегда будет риск неравенства, дискриминации и непрозрачности решений. Европейский опыт регулирования ИИ показывает: человечество стоит на пороге новой правовой эпохи, где технологии и право должны развиваться параллельно.

*Справочно: Европейский союз в 2023–2024 годах разработал и принял первый в мире комплексный правовой акт, посвящённый искусственному интеллекту — **EU Artificial Intelligence Act (AI Act)**. Европейские страны, которые официально применяют ИИ в*

государственном управлении: Эстония, Финляндия, Франция, Дания, Нидерланды. Каждая из них внедрила ИИ не как эксперимент, а как часть государственного механизма (государственный «ИИ-судья», автоматическое назначение соцвыплат, предиктивная аналитика полиции, электронные резидентские процедуры через ИИ, налоговый ИИ, обрабатывающий почти все декларации автоматически и др.).

**Таким образом,** посткризисный период — это время глубокой перестройки правовых систем. Новый правовой уклад должен сочетать гибкость и ответственность, технологичность и гуманизм, международную солидарность и защиту национального суверенитета. Право перестает быть только инструментом регулирования — оно становится инструментом управления рисками и стратегическим механизмом будущего развития.

Именно юридическое сообщество – учёные, практики, государственные деятели и молодые юристы – определяет, каким будет это будущее. Наследием кризисов должны стать не разрушения, а новые идеи, новые институты и новая правовая архитектура, способная защитить государство, общество и человека в 21 веке.

#### **Библиография:**

1. UN Security Council Report. *Vetoes and Voting Records 2024*.
2. United Nations Press Service. *Security Council Press Releases 2024–2025*.
3. Better World Campaign. *UN Security Council Veto Analysis*.
4. MDPI. *Privacy and Security in Digital Health Contact-Tracing, 2025*.
5. Usercentrics. *Data Privacy Trends Shaping 2025 and the Years Ahead*.
6. International Labour Organization. *World Employment and Social Outlook 2024*.
7. ILO. *Global Wage Report 2024–2025*.
8. OECD. *Breaking the Vicious Circles of Informal Employment and Low-Paying Work, 2024*.
9. OECD. *International Migration Outlook 2024*.
10. OECD. *Corporate Insolvency Report 2024*.
11. World Bank. *Business Pulse Survey 2024*.
12. UNCTAD. *Investment Trends Monitor 2024*.
13. IPCC. *AR6 Synthesis Report, 2023*.
14. World Bank. *Groundswell: Preparing for Internal Climate Migration, 2021*.
15. EU. *Artificial Intelligence Act (AI Act), 2023–2024*.
16. Human Rights Watch. *China: COVID-19 Controls and Surveillance, 2021*.
17. Haaretz. Reports on Shin Bet surveillance rulings, 2021.
18. KCDC. *COVID-19 Response Report, 2020*.
19. Israel High Court of Justice (Judgments Database), 2020.

## **ADVOKATURA FAOLIYATIDA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH PRINSIPINING ILMIY-HUQUQIY TAHLILI**

**Jalilov Nodirbek Komil o‘g‘li**

Toshkent xalqaro universiteti

“Huquqiy fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutining mustaqilligini ta’minlash, advokatlarning huquqiy maqomini yanada mustahkamlash hamda ularning faoliyatini

demokratik tamoyillar asosida tashkil etish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri advokatura faoliyatida o‘zini o‘zi boshqarish prinsipini shakllantirish va amaliyotga joriy etish bilan bog‘liqdir. Mazkur prinsip advokatura institutining davlatdan nisbatan mustaqil, kasbiy hamjamiyat sifatida faoliyat yuritishini ta‘minlaydi, advokatlarning kasbiy manfaatlarini himoya qilish, o‘z-o‘zini tartibga solish, axloqiy me‘yorlarga rioya etilishini nazorat qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda advokatura faoliyatini o‘zini o‘zi boshqarish asosida tashkil etish jarayoni hali to‘liq shakllanib ulgurmagan, amaliyotda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, advokatlar palatalarining tashkiliy-huquqiy maqomi, ularning vakolatlari, moliyaviy mustaqilligi, davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlari hamda o‘zini o‘zi boshqarish institutining haqiqiy amaliy ta‘siri masalalari dolzarbdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmonida “Advokatura institutini to‘laqonli o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga o‘tkazish, Advokatlar palatasi boshqaruv organlarining advokatlar hamjamiyati oldidagi hisobdorligini kuchaytirish, tizimga yosh malakali kadrlarni jalb qilish” vazifasi belgilangan<sup>78</sup>.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 141-moddasida “Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi<sup>79</sup>” degan normalar mavjud.

Fikrimizcha, advokaturaning o‘zini o‘zi boshqarish prinsipini advokatlik faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, uning mustaqilligini, faoliyat erkinligini va davlat hokimiyati organlaridan ajratilganligini ta‘minlash uchun xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Ushbu prinsipning mohiyatiga ko‘ra, advokatura o‘z ichki ishlarini tartibga solishda mustaqil bo‘lib, davlat organlari va boshqa tashqi bosimlardan himoya qilish deb hisoblaymiz.

Ilmiy adabiyotlarda advokaturaning o‘zini o‘zi boshqarish prinsipi demokratiyaning huquqiy institutlarida mustahkam o‘rin tutgani qayd etiladi. Qonunda, jumladan, advokatura faoliyatining prinsiplari va tashkiliy shakllari, malaka komissiyalarini tuzish va ularning faoliyati tartibi, Adliya vazirligining vakolatlari va boshqa masalalar belgilab berilgan. Qonunda dastlab Adliya vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan advokatura faoliyatini litsenziyalash ko‘zda tutilgan bo‘lib, yuridik hamjamiyatning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida advokatlarning yagona professional uyushmasini (2008-yilgi islohotgacha) tashkil etish bo‘yicha hech qanday qoidalar mavjud emas edi<sup>80</sup>.

O‘zbekiston Respublikasida advokatura faoliyatini o‘zini o‘zi boshqarish tamoyili asosida tashkil etish yo‘lida muhim normativ-huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lishiga qaramay, amaliyotda ushbu prinsipning to‘laqonli amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjud.

Birinchidan, advokatura o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy maqomi va vakolatlari aniq chegaralanmagan. “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun va unga tegishli normativ hujjatlarda advokatlar palatalarining mustaqil faoliyat yuritish asoslari belgilangan bo‘lsa-da, ularning tashkiliy tuzilmasi, moliyaviy manbalari va davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlari masalalarida aniqlik yetarli emas.

<sup>78</sup> Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son; 20.05.2025 y., 06/25/87/0451-son/ <https://lex.uz/docs/5841063>

<sup>79</sup> (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son) <https://lex.uz/docs/-6445145#-6446155>.

<sup>80</sup> Турдалиев Джамшид (2020). Институциональная независимость адвокатуры в Узбекистане: проблемы и пути их решения. Review of law sciences, 3 (Спецвыпуск), 192-207. doi: 10.24412/2181-919X-2020-3-192-207

Tahlillar natijasida shu narsa aniqlandiki, O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”<sup>81</sup>gi Qonunning 12<sup>1</sup>-moddasida Advokatlar palatasi O‘zbekiston Respublikasi barcha advokatlarining majburiy a‘ziligiga asoslangan notijorat tashkilot ekanligi ta‘kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunining 2-moddasida “Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir” degan norma mavjud.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunining 12<sup>1</sup>-moddasida Advokatlar palatasi “barcha advokatlarning majburiy a‘ziligiga asoslangan notijorat tashkilot” sifatida belgilangan. Shu bilan birga, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasida esa nodavlat notijorat tashkiloti ixtiyoriylik asosida tashkil etilishi lozimligi qat‘iy ko‘rsatib o‘tilgan.

Mazkur ikki norma o‘rtasida huquqiy kolliziya (zidlik) mavjud: bir tomondan, advokatlarning majburiy a‘zoligi belgilangan bo‘lsa, boshqa tomondan, nodavlat notijorat tashkilotlari faqat ixtiyoriylik tamoyiliga asoslanishi shartligi belgilangan. Bu esa advokatura faoliyatida o‘zini o‘zi boshqarish prinsipining huquqiy tabiati va tashkilot shakli o‘rtasida nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi.

Fikrimizcha, advokatura o‘zini o‘zi boshqarish tizimi bo‘lganligi sababli u davlatdan mustaqil bo‘lishi, lekin shu bilan birga, advokatlarning kasbiy manfaatlarini birlashtiruvchi majburiy hamjamiyat sifatida faoliyat yuritishi lozim. Amaldagi huquqiy holatda esa Advokatlar palatasi na to‘liq nodavlat notijorat tashkilotiga, na davlat organiga to‘liq mos keladi.

Advokatura fuqarolik jamiyati institutining tarkibiy qismi ekanligini namoyon etuvchi bir qator umumiy belgilar borki, bu aksariyat huquqshunos olimlarning advokatura institutini fuqarolik jamiyati instituti, degan xulosaga kelishlariga sabab bo‘lgan. Mazkur belgilar sifatida advokatura institutining nodavlat notijorat tashkiloti maqomida ekanligi, inson huquq va erkinliklarining himoyasini ta‘minlashga qaratilganligi<sup>82</sup>

Shuni ta‘kidlash kerakki, mamlakatimizda Advokatlar palatasi majburiy a‘zolikka asoslangan yagona nodavlat notijorat tashkiloti emas<sup>83</sup>.

Biz yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda aytishimiz mumkin, advokatlar palatasi notijorat tashkilot bo‘lsa ham, o‘ziga xos xususiyatini inobatga olib, hozirgi vaqtda majburiy badallik joriy etilgan. Biroq, bosqichma-bosqich ushbu jarayonni o‘zgartish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Aytishimiz lozimki, ixtiyoriylik fuqarolik jamiyati institutlarining, xuddi shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarining umum e‘tirof etilgan asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro standartlarda, chunonchi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 20-moddasiga asosan “hech kim biron-bir birlashmaga majburan a‘zo qilinishi mumkin emas”<sup>84</sup>, deb mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lsa, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro paktning 22-moddasida esa “har bir shaxs boshqalar bilan birga birlashish erkinligi huquqiga ega”<sup>85</sup> ekanligi belgilangan.

Sotsiologik so‘rov natijalariga ko‘ra, “Advokatura hamda advokatlik faoliyatiprinsiplardan qaysi biri amalda eng yaxshi ta‘minlangan deb o‘ylaysiz? degan savolga respondentlarning 14 foizi “o‘zini o‘zi boshqarish”, 28 foizi “qonuniylik”, 45,8 foizi “mustaqillik” degan javoblarni

<sup>81</sup> (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 48-modda;; 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son) <https://lex.uz/uz/docs/-54503>

<sup>82</sup> Одилқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т.: 2002. – Б. 169.

<sup>83</sup> Саломов Б. Адвокатура ривожланиш йўлида: кеча, бугун, эртага. // Advokat. №2/2018. Б. 9.

<sup>84</sup> Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган. // [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/declarations/declhr.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml)

<sup>85</sup> Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро пакт. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1966 йил 16 декабрда қабул қилинган. // [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/pactpol.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactpol.shtml)

bergan. Shu bilan birga, “Amaliyotda qaysi prinsip ko‘proq buziladi deb o‘ylaysiz?” degan savolga respondentlarning 17,8 foizi “o‘zini o‘zini boshqarish”, 38,3 foizi “qonuniylik”, 32,7 foizi “mustaqillik” prinsipi deb javob bergan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz lozimki, o‘zini o‘zi boshqarish prinsipining amaliy va ijtimoiy ahamiyati advokatlik faoliyati uchun juda muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, advokatura organlarining moliyaviy mustaqilligi yetarli darajada ta‘minlanmagan. Advokatlar palatalarining budjeti asosan a‘zolik badallari va majburiy to‘lovlardan shakllanadi, bu esa ularning faoliyatini barqaror moliyalashtirish va mustaqil tashabbuslarni ilgari surish imkoniyatini cheklaydi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, advokatura o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat tomonidan aralashuvsiz, lekin ularning ijtimoiy ahamiyatini inobatga olgan holda, barqaror moliyaviy manbalar bilan ta‘minlanishi lozim. Bizning fikrimizcha, advokatura faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi maxsus davlat-kasbiy hamkorlik mexanizmi yaratish maqsadga muvofiq. Masalan, “Advokatura rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” tashkil etilish hamda davlat budjetidan bevosita mablag‘ olmasdan, lekin ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar uchun grant yoki subsidiyalar taqdim etish orqali Advokatlar palatalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashi mumkin deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, normativ-huquqiy bazada xalqaro standartlar yetarli darajada inobatga olinmagan. Xususan, BMTning “Advokatlarning roli to‘g‘risidagi asosiy tamoyillari”, Yevropa Advokatlar Assotsiatsiyasi (CCBE)ning “Advokatlik etikasi kodeksi” hamda boshqa xalqaro hujjatlar o‘zini o‘zi boshqarishning institutsional kafolatlarini belgilab beradi. Ammo milliy qonunchilikda bu kafolatlar to‘liq implementatsiya qilinmagan.

Asrlar davomida advokatlik kasbi o‘zini o‘zi boshqarish huquqini tabiiy kasbiy imtiyoz sifatida qabul qilib kelgan. Biroq, advokatura boshqaruv organlari o‘zini o‘zi boshqarish jarayonini jamiyat manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilishi lozimligini tan olgan holda ham, amalda bu tizimning jamiyat manfaatlariga xizmat qilish qobiliyati ko‘pincha kasbning o‘z tabiati va ichki manfaatlariga zid keluvchi holatlarni yuzuga keltirgan.<sup>86</sup>

A.D.Boykovning ta‘kidlashicha, o‘zini o‘zi boshqarish prinsipi – bu Rossiya Federatsiyasi ta‘sis subyektlarining advokatlar palatalari, Federal Advokatlar palatasi, palatalar kengashlari, taftish, malaka va palatalar boshqa komissiyalarining advokatlar manfaatlarini ko‘zlab erkin faoliyat yuritishi va huquqbuzarliklarni hal qilishidir<sup>87</sup>.

Takidlashimiz joizki, Angliya va Avstraliya advokatlik kasbini o‘z-o‘zini tartibga solishdan voz kechishdi, ammo Kanada huquq jamiyatlari shu asosda ishlashda davom etmoqda. Ontario yuridik jamiyati (LSO) faoliyat yuritadigan o‘z-o‘zini tartibga solish modeli u beradigan javobgarlik nuqtai nazaridan boshqaruvning noadekvat shaklidir. Boshqa tashkilotlar, shu jumladan boshqa umumiy huquq yurisdiksiyalaridagi huquq jamiyatlari va korporatsiyalar bilan solishtirganda, LSO boshqaruv modelidagi zaif tomonlar ko‘zga tashlanadi.<sup>88</sup>

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunining 12<sup>3</sup>-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori<sup>89</sup>da O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining raisi va uning o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining taqdimnomasiga binoan Advokatlar palatasi Konferensiyasi tomonidan saylanishi tizimiga o‘zgartirish kiritgan holda Adliya vazirligining taqdimnoma berish amaliyotini tugatish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

<sup>86</sup> Windsor Y.B. Access Just. 210 (1989) Lawyers: The Agony and the Ecstasy of Self-Government, Mew, Graeme [41 pages] <https://heinonline.org/HOL/Print?collection=journals&handle=hein.journals/windyrbaj9&id=214>

<sup>87</sup> Бойков А.Д. Статус адвоката: содержание, квалификационные требования и принципы адвокатской деятельности: дис. ... канд. юрид. наук. М., 2010. С. 92.

<sup>88</sup> Anand, A. I. (2018). Governance gone wrong: examining self-regulation of the legal profession. *Legal Ethics*, 21(2), 99–118. <https://doi.org/10.1080/1460728x.2018.1551677>

<sup>89</sup> (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 22-23-son, 201-modda)//<https://lex.uz/docs/1359515>

Shu bilan birga, Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzurida Malaka komissiyalarini a'zolarni shakllantirish Adliya vazirligi va uning organlari tomonidan qo'shma qaror asosida amalga oshirilishi mexanizmini ham bekor qilgan holda, faqatgina Advokatlar palatasining yakka o'ziga bu huquqni berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonunda "o'zini o'zi boshqarish" prinsipi hamda uning mazmun-mohiyatini nazarda tutuvchi alohida normalar belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Одилқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т.: 2002. – Б. 169.
2. Саломов Б. Адвокатура ривожланиш йўлида: кеча, бугун, эртага. // Advokat. №2/2018. Б. 9.
3. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son; 20.05.2025 y., 06/25/87/0451-son/<https://lex.uz/docs/5841063>
4. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son) <https://lex.uz/docs/-6445145#-6446155>.
5. Турдалиев Джамшид (2020). Институциональная независимость адвокатуры в Узбекистане: проблемы и пути их решения. Review of law sciences, 3 (Спецвыпуск), 192-207. doi: 10.24412/2181-919X-2020-3-192-207
6. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 48-modda;; 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son) <https://lex.uz/uz/docs/-54503>
7. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган. // [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/declarations/declhr.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml)
8. Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро пакт. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1966 йил 16 декабрда қабул қилинган. // [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/pactpol.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactpol.shtml)
9. Windsor Y.B. Access Just. 210 (1989) Lawyers: The Agony and the Ecstasy of Self-Government, Mew, Graeme [41 pages] <https://heinonline.org/HOL/Print?collection=journals&handle=hein.journals/windyrbaj9&id=214>
10. Бойков А.Д. Статус адвоката: содержание, квалификационные требования и принципы адвокатской деятельности: дис. ... канд. юрид. наук. М., 2010. С. 92.

### **TRANSCHEGARAVIY TO'LOVGA QOBILYATSIZLIK JARAYONIDA XODIMLAR HUQUQLARI: AQSH VA BUYUK BRITANIYA TAJRIBASI.**

**Nosirov Sherzod Shermatovich**  
[shnosirov5@gmail.com](mailto:shnosirov5@gmail.com)

Zamonaviy bozor iqtisodiyotida kompaniya o'z a'zolari, shu jumladan xodimlar ijtimoiy aloqalar markazi bo'lib xizmat qiladi. Kapital va mehnat kompaniyadagi ikkita asosiy ishlab chiqarish omili sifatida ajralib turadi. Xodimlar kompaniyaning kundalik faoliyati va uning umumiy qiymati uchun zarur bo'lgan mehnat orqali inson kapitaliga hissa qo'shadilar. Binobarin, inson mehnati asosiy boylik bo'lib, ularsiz kompaniya o'z iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirish uchun kurash olib borishi mumkin emas.

Aksiyadorlar o'zlarining foyda olishlarini maqsad qilib kompaniyalarga kapital kiritadilar va shu bilan o'zlarining iqtisodiy farovonligini oshiradilar. Xuddi shunday xodimlar daromad

manbasini ta'minlash uchun ushbu korxonalarda ish izlaydilar. Bu daromad nafaqat ularning iqtisodiy farovonligini qo'llab-quvvatlaydi, balki munosabatlarini yaxshilaydi va yashash xarajatlarini qoplaydi. Ishdan qoniqish va xavfsizlik hayot sifatini qoniqarli saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Biroq ish beruvchi to'lovga qodir bo'lmagan taqdirda, xodimlar nafaqat ish xavfsizligi va daromadlarini yo'qotish xavfiga duch kelishadi, balki ish beruvchi tugatilgan taqdirda ham doimiy ishdan mahrum bo'lish ehtimoliga duch kelishadi. Iqtisodiy ta'sirlardan tashqari, xodimlar oilaviy kelishmovchilik, jinoyatchilik darajasining oshishi va ish joyini yo'qotish bilan bog'liq xatti-harakatlar muammolari kabi oqibatlariga olib keladigan ijtimoiy qiyinchiliklarni boshdan kechirishi mumkin. Shu sababli, mehnat xavfsizligi xodimning iqtisodiy barqarorligining hal qiluvchi jihati hisoblanadi.

2007/2008 yillardagi iqtisodiy tanazzul AQSh va Buyuk Britaniyadagi kompaniyalarga ta'sir ko'rsatganidan so'ng, ko'pchilik firmalar moliyaviy investitsiyalar va ularning unumdorligi yoki moliyaviy barqarorligini xavf ostiga qo'yishi mumkin bo'lgan tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan ko'proq xavfda qoldilar. Binobarin, ushbu yurisdiksiyalardagi ko'plab kompaniyalar mahsuldorlikni oshirish yoki moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun korporativ qayta qurishga murojaat qilishdi. Biroq, bunday qayta qurish ko'pincha ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishni, odatda mehnat xarajatlarini kamaytirish, jumladan, ish joylarini qisqartirish, bandlik shartlarini o'zgartirish yoki nol soatlik shartnomalar kabi yangi ish tartibini qabul qilishni talab qiladi. Ba'zi kompaniyalar ishlab chiqarish obyektlarini arzonroq mehnat bozoriga ko'chirishgan, bu esa bandlik xavfsizligiga tahdid solishi mumkin. Demak, korporativ to'lovga layoqatsizlik davrida xodimlar va ish beruvchilar manfaatlarini o'rtasida muvozanatni saqlash zarurati tug'iladi.

Agar ish beruvchi yigirma nafar xodimni to'qson kun ichida yoki o'n foizdan kamrog'i yoki o'ttiz nafar xodimni o'ttiz kun ichida ishdan bo'shatishni rejalashtirayotgan bo'lsa, ular xodimlarning vakillariga tegishli ma'lumotlarni taqdim etishlari va rejalashtirilgan jamoaviy ishdan bo'shatishning muqobil variantlarini o'rganish yoki ularning sonini kamaytirish bo'yicha maslahatlashuvlar o'tkazishlari shart. Ish beruvchi to'lovga qodir bo'lmagan taqdirda, mehnat shartnomalari va mehnat bilan bog'liq boshqa manfaatlardan kelib chiqadigan to'lanmagan da'volarni to'lashni kafolatlash orqali xodimlarga qo'shimcha himoyani taklif qiladi. A'zo davlatlar ushbu himoyalarni amalga oshirish uchun xodimlarga qulay bo'lgan choralarni qo'llashlari yoki joriy etishlari tavsiya etiladi. Ushbu qoidalar 1986 yildagi to'lovga layoqatsizlik to'g'risidagi qonunda, xususan imtiyozli qarzlarni qamrab oluvchi 6-ilovada keltirilgan.

Buyuk Britaniyada xodimlarning to'lanmagan ish haqi va hisoblangan ta'vil to'lovlari ish beruvchining to'lovga qodir bo'lmagan taqdirda kompaniya aktivlarini taqsimlash bo'yicha kafolatlanmagan da'volardan oldin, 1986 yildagi "To'lovga layoqatsizlik to'g'risida" gi qonunda ko'rsatilgan qonuniy cheklovlarni hisobga olgan holda birinchi o'ringa qo'yiladi. Milliy sug'urta jamg'armasi ish beruvchining to'lovga layoqatsizligidan zarar ko'rgan xodimlarga ish bilan bog'liq ayrim to'lanmagan qarzlarni uchun kompensatsiya to'lashni belgilagan.<sup>90</sup> 199622-sonli Mehnat huquqlari to'g'risidagi qonun (ERA) kabi nizomlar Buyuk Britaniyada korporativ to'lovga layoqatsizlik paytida xodim-ish beruvchining nizolarini hal qiladi.

Buyuk Britaniyadagi to'lovga layoqatsizlik qonuni siyosatiga dastlab Kork qo'mitasi ikkita yangi tartibni, kompaniyaning ixtiyoriy kelishuvi (CVA) va Ma'muriyat tartibini joriy qilishni tavsiya qildi. Ushbu tavsiyalar birinchi marta 1985 yildagi To'lovga layoqatsizlik to'g'risidagi qonunga muvofiq kiritilgan bo'lib, keyinchalik 1986 yilgi To'lovga layoqatsizligi to'g'risidagi qonun (IA 1986) sifatida birlashtirilgan bo'lib, u boshqaruv jarayonining ierarxik maqsadlarini, shu jumladan kompaniyani doimiy korxonalar sifatida qutqarish va kreditorlar ulushlarini maksimal darajada oshirishni belgilaydi.

Qo'shma Shtatlarda bankrotlik to'g'risidagi qayta tashkil etish jarayonlarida ijtimoiy bandlikni himoya qilish siyosati asosan federal va shtat qonunchiligidan, shu jumladan 1935

---

<sup>90</sup> Insolvency Act 1986 (Prescribed Part) Order 2003 (2003 No. 2097)

yildagi Milliy mehnat munosabatlari to'g'risidagi qonundan (NLRA 1935) olingan. NLRA 1935 xodimlarga jamoaviy muzokaralar huquqini beradi va ish beruvchilarga ushbu huquqlarni amalga oshiradigan xodimlarni to'xtatishini taqiqlaydi, bankrotlikni qayta tashkil etish paytida adolatli mehnat amaliyotini ta'minlaydi.

Biroq, AQSHdagi korporativ qutqaruv yoki bankrotlikni qayta tashkil etish siyosati AQShda bankrotlikni qayta tashkil etish jarayonlarini tartibga soluvchi AQSh Bankrotlik kodeksi deb nomlanuvchi AQSH kodeksining 11-bobidan kelib chiqadi. AQSH Bankrotlik to'g'risidagi kodeksining siyosat maqsadlari, moliyaviy jihatdan qiyin bo'lgan kompaniyalarni qayta tashkil etish va qutqarish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan.

AQSHda bankrotlik to'g'risidagi qayta tashkil etish jarayoni 1978-yilda AQSh Bankrotlik to'g'risidagi kodeksining 11-bobi bilan tartibga solinadi. Bu an'anaviy 11-bob ariza berish jarayonini belgilaydi, bu orqali biznes kelishuvi yoki qayta tashkil etish bo'yicha ish yuritish jarayonida AQShning qarzdor kompaniyasi oldindan paket rejalariga erishishi mumkin.<sup>91</sup>

Shu bilan bir qatorda, qarzdor kompaniya to'lovga qobiliyatsizligini hal qilish uchun biznesni sotishni tanlashi mumkin. Ushbu qoidalar ishonchli boshqaruvchiga yoki qarzdorga xabar berish va muhokama jarayonlaridan so'ng, odatdagi biznes jarayonidan tashqarida qarzdor aktivlaridan foydalanish, sotish yoki ijaraga olish huquqini beradi. Garchi bahs-munozaralarga sabab bo'lsa-da, u ariza berishdan oldingi majburiyatlarni chetlab o'tib, qiyinchilikka uchragan biznesni tezda sotishga yordam beradi.

Biroq biznes savdosidan farqli o'laroq, 11-bobdagi qayta tashkil etish rejasining yakuniy maqsadi moliyaviy qiyinchilikka uchragan kompaniyaga to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatini berishdir. Shuning uchun, xodimlar uchun 11-bobning muvaffaqiyatli qayta tashkil etish rejasi potensial ravishda ish o'rinlarini saqlab qolishi mumkin.

Bankrotlik to'g'risidagi qonun federal yurisdiksiyaga kiradi, ammo bankrotlik to'g'risidagi qayta tashkil etish vaqtida xodimlarni himoya qiladigan mehnat qonuni kabi sohalar shtat qonunlari bilan tartibga solinadi. Natijada, bankrotlik potentsial ravishda shtat qonunlari va federal qonunlarning bankrotlikni qayta tashkil etish va federal-shtat qonunchiligi bo'limidan kelib chiqadigan bandlikni himoya qilish bo'yicha siyosat maqsadlari o'rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Bankrotlik to'g'risidagi kodeks bankrotlik to'g'risidagi ish yuritish jarayonida ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solsa-da, bu munosabatlarni o'rnatmaydi. Davlat darajasidagi bankrotlik to'g'risidagi qonunlar, masalan, mehnat qonunchiligi bu munosabatlarni yaratadi.

AQSh Bankrotlik to'g'risidagi kodeksining 11-bandi va Milliy mehnat munosabatlari to'g'risidagi qonun (1935) kabi bankrotlik to'g'risidagi qayta tashkil etish paytida tartibga soluvchi federal qonunlar kasaba uyushmalari a'zolari va jamoaviy bitimlar ishtirokchisi bo'lgan xodimlarni himoya qilishga ustuvor ahamiyat beradi. Davlat xizmati xodimlari va kasaba uyushmalari xodimlaridan tashqari, xodimlarni ishdan bo'shatishdan qonun bilan himoyalash sezilarli darajada cheklangan va o'z xohishiga ko'ra ishga joylashish amaliyoti ustunlik qiladi.

Ish beruvchining xodimni osonlik bilan ishdan bo'shatish qobiliyati AQSh mehnat industriyasida keng qabul qilingan, ammo bu xodimlarni qiyin vaziyatga qo'yadi. Xodimlar o'zlarining hayot kechirishlari uchun ushbu munosabatlarga tayanadilar, lekin ko'pincha shartnoma shartlarini muhokama qilish uchun cheklangan huquqqa egadirlar. Faqat bir nechta iqtidorli yoki malakali xodimlar kasaba uyushmalari a'zosi bo'lgan xodimlar bilan bir qatorda muayyan qoidalarni muhokama qilishlari mumkin.

Ish beruvchi va xodim o'rtasidagi majburiyatlarning o'zaro bog'liqligiga noto'g'ri urg'u berilib, mehnat munosabatlaridagi tengsizlikni yashiradi. Ushbu tengsizlik ish beruvchilar tomonidan o'z boshimchalik bilan ishdan bo'shatishni rag'batlantiradi, chunki xodimlar istalgan vaqtda ishdan chiqishlari mumkinligi sababli, ish beruvchilar ham xuddi shunday huquqqa ega bo'lishi kerak.

---

<sup>91</sup> Bankruptcy Code 1978 (Title 11 of the US Code)

AQShda ish beruvchining kuchi mehnat munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususiy sektor xodimlarini himoya qilish, asosan, jamoaviy muzokaralar, ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida tegishli kasaba uyushmalari orqali amalga oshiriladi.

1935 yildagi Milliy mehnat munosabatlari to'g'risidagi qonun (NLRA) xodimlarga ish haqi, ish vaqti va boshqa mehnat shartlari bo'yicha jamoaviy muzokara qilish huquqini beradi. Kollektiv muzokaralar xodimlarning ishtirokini ta'minlaydi, vijdonan maslahatlashish va o'zaro majburiyatlarni ta'kidlaydi. Biroq, Kollektiv shartnomaning (XBA) eng muhim jihati shundan iboratki, u bilan bog'liq bo'lgan xodim faqat "adolatli sabablarga ko'ra" ishdan bo'shatilishi mumkin. Ushbu ishdan bo'shatish ish beruvchilarga qonun hujjatlarida belgilangan talablarni bajarmasdan, masalan, xodimni oldindan ogohlantirmasdan ishdan bo'shatish imkonini beradi. "Adolatli sabablarga ko'ra" ishdan bo'shatish uchun ish beruvchi xodimning mehnat shartnomasini buzganligini yoki mehnat munosabatlariga putur etkazadigan xatti-harakatlarni isbotlashi kerak.

Ish beruvchining tegishli kasaba uyushmalari yoki xodimlar vakillari bilan jamoaviy bitimlarni vijdonan olib bormasligi adolatsiz mehnat amaliyoti hisoblanadi. Ushbu qoida qarzdor bankrotlikni rad etish yoki o'zgartirishdan oldin bajarishi kerak bo'lgan protsessual va moddiy shartlarni belgilaydi. Qarzdor muzokaralar oldidan ittifoqqa kerakli o'zgartirishlar kiritishni taklif qilishi va barcha kreditorlar, qarzdor va zarar ko'rgan tomonlarga adolatli munosabatda bo'lishini ta'minlashi kerak.

11-bobdagi bankrotlik to'g'risidagi ishning qo'zg'atilishi bankrotlik to'g'risidagi nizomni belgilaydi, undan manfaatdor tomonlarning da'volari, shu jumladan xodimlarning da'volari qonunchilik bergan ustuvorliklarga muvofiq hal qilinadi. Biroq, bankrotlik to'g'risidagi rasmiy qayta tashkil etish bo'yicha ish yuritish asosan qarzdor va kafolatlangan kreditorlar tomonidan nazorat qilinadi.<sup>92</sup> Xodimlar qayta tashkil etish jarayonida cheklangan ishtirok etadilar, ularning asosiy vakili kasaba uyushmasi a'zolari orqali bo'lib hisoblanadi.

Qo'shma Shtatlardagi kasaba uyushmalariga a'zolik darajasi past bo'lishiga qaramay, Kollektiv bitimlar (CBA) tomonidan qamrab olingan bir nechta xodimlar birinchi navbatda ish xavfsizligi bilan shug'ullanadi. Bu ularning ish beruvchining sud ma'qullagan holda, ijro shartnomalarini, shu jumladan, jamoaviy bitimlarni qabul qilish yoki rad etish qobiliyatiga va ular qarz to'lovlarini olishiga bog'liq. Bankrotlik to'g'risidagi kodeksning 11-bobi qarzdor kompaniyaga o'zgartirishlar kiritish yoki rad etish yo'li bilan ariza berishdan oldingi ijro shartnomalari va majburiyatlaridan ozod qilish huquqini beradi.

Qarzdor ish beruvchi mehnat shartnomalarini qabul qilganda, xodimlar ba'zi himoya choralarini oladi. Ish beruvchi shartnomalarni rasmiy ravishda qabul qilish uchun ariza berishdan oldin yuzaga kelgan noaniqliklarni bartaraf etishi va to'lanmagan zararni to'lashi kerak, bu 11-bobning qayta tashkil etish rejasini tasdiqlash talabi hisoblanadi. Biroq agar mehnat shartnomalari mavjudligi rad etilsa, qarzdor ish beruvchi da'volarni darhol qondirishga majbur emas, ularni umumiy ta'minlanmagan da'volar deb tasniflaydi.<sup>93</sup>

To'lovga layoqatsizlik to'g'risidagi ish yuritish jarayonida xodimlarni himoya qilishga ustuvor ahamiyat berish asoslari bir nechta asoslardan kelib chiqadi. Xatarlarni diversifikatsiya qila oladigan boshqa manfaatdor tomonlardan farqli o'laroq, xodimlar tirikchilik uchun o'z ishlariga bog'liqdirlar. Biroq, xodimlar uchun mavjud bo'lgan himoya vositalaridan, ayniqsa, kasaba uyushmalariga a'zo bo'lmagan xodimlar uchun bir xilda foydalanish mumkin emas. Bu bandlikni himoya qilish va bankrotlikni qayta tashkil etish maqsadlari o'rtasida nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Buyuk Britaniyadagi to'lovga qodir bo'lmaslik holatlaridan tashqari, xodimlar odatda ish beruvchining adolatsiz ishdan bo'shatish yoki mehnat shartlarini o'zgartirish kabi adolatsiz amaliyotlaridan himoyalangan. 1996 yildagi Mehnat huquqlari to'g'risidagi qonun (ERA) xodimlarni nohaq ishdan bo'shatishdan, ishdan bo'shatilganlik uchun kompensatsiyadan himoya

---

<sup>92</sup> Bankruptcy Code 1978 (Title 11 of the US Code)

<sup>93</sup> D R Korobkin, 'Employee Interests in Bankruptcy' (1996).

Ўзбекистон Республикасининг янги тахрирдаги Конституцияси фуқароларнинг билим олишга бўлган ҳуқуқларини таъминлашни давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида белгилайди. Бироқ, аҳоли сонининг ўсиши ва таълимга бўлган талабнинг кучайиши давлат бюджетига юкломани кўпайтирмоқда. Бундай шароитда давлат-хусусий шериклик (ДХШ) механизми таълим хизматларини кўрсатишда самарали восита сифатида намоён бўлмоқда.

ДХШ — бу давлат ва хусусий шерик ўртасидаги муайян муддатга тузилган, таълим соҳасидаги лойиҳаларни амалга ошириш учун ресурсларни бирлаштиришни назарда тутувчи ҳамкорликдир. Таълим тизимида ДХШ нафақат моддий-техник базани янгилаш, балки таълим мазмунини замонавийлаштириш ва бошқарув самарадорлигини ошириш мақсадини кўзлайди. Жаҳон банки мутахассислари ДХШ самарадорлигини белгиловчи асосий омил сифатида бошқарув, рағбат ва назорат механизмларини тўғри созлашни таъкидлайдилар [1].

Ушбу тадқиқотнинг мақсади Ўзбекистонда таълим соҳасида ДХШдан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш, унинг фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқларини таъминлашдаги ролини баҳолаш ҳамда халқаро тажриба асосида ДХШ орқали таълим сифатини оширишнинг самарали усулларини аниқлашдан иборат.

Тадқиқот қиёсий-ҳуқуқий таҳлил, таҳлилий усул ва тизимли ёндашув усулларига асосланади. Қиёсий-ҳуқуқий таҳлил орқали Ўзбекистоннинг ДХШ соҳасидаги қонунчилиги ва Конституциявий нормалар ўрганилди. Таҳлилий усул ёрдамида ДХШнинг иқтисодий самарадорлиги ва молиявий механизмлар баҳоланди. Тизимли ёндашув таълим тизимининг турли даражаларида ДХШнинг қўлланилишини яхлит тарзда ўрганиш имконини берди.

Тадқиқотнинг манбалар базасини Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, ДХШ тўғрисидаги Қонун, соҳавий меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар ва халқаро ташкилотларнинг таҳлилий ҳисоботлари ташкил этади. Жаҳон банки [1], GSDRC [2], RISE дастури [3] ва бошқа ташкилотларнинг материаллари жалб этилди.

**Таълим олиш ҳуқуқининг ҳуқуқий асослари ва ДХШ.** Ўзбекистон Республикасида таълим олиш ҳуқуқи конституциявий даражада кафолатланган. Давлат ҳар бир фуқарога бепул умумий таълим олишни ва танлов асосида олий таълим олиш имкониятини тақдим этади. Конституциявий кафолатлар нафақат давлат муассасалари орқали, балки хусусий таълим орқали ҳам амалга оширилиши мумкин.

Ўзбекистонда ДХШ соҳасидаги муносабатлар "Давлат-хусусий шериклик тўғрисида"ги Қонун ва соҳавий меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар билан тартибга солинади. Таълим соҳасида ДХШни жорий этишда хусусий шериклар томонидан ташкил этиладиган таълим муассасаларининг лицензияланиши ва аккредитациядан ўтиши шартлиги, шартномавий мажбуриятлар тақсимотининг аниқ белгиланиши муҳим ҳисобланади.

**ДХШнинг иқтисодий жиҳатлари ва инвестициявий жозибadorлик.** Таълимда ДХШдан фойдаланишнинг иқтисодий зарурияти давлат ресурсларининг чекланганлиги ва таълим инфратузилмасини тезкор янгилаш эҳтиёжи билан изоҳланади. ДХШ механизмлари хусусий капитални таълим соҳасига йўналтириш имконини беради. Айниқса мактабгача таълим тизимида бу муҳимдир, чунки давлат бюджети ҳисобидан барча аҳоли пунктларини боғчалар билан таъминлаш қийин.

ДХШнинг иқтисодий самарадорлиги қурилиш харажатларининг бир қисми хусусий сектор томонидан қопланиши, хусусий секторнинг ресурслардан фойдаланишда юқори самарадорликка интилиши ва давлатнинг имтиёзли кредитлар ёки субсидиялар бериши орқали таъминланади.

**ДХШ орқали таълим сифатини ошириш механизмлари.** Таълим олиш ҳуқуқи нафақат таълим муассасасига бориш, балки сифатли ва меҳнат бозорига мос билим олишни ҳам назарда тутаяди. Халқаро тажриба ДХШ орқали таълим сифатини оширишнинг бир қатор самарали усулларини кўрсатади.

**Натижага асосланган шартномалар.** ДХШ шартномаларида аниқ сифат кўрсаткичлари — тест натижалари, давомат даражаси, битирувчилар улуши белгиланади [1], [3]. Ушбу кўрсаткичлар бажарилган тақдирда қўшимча тўлов ёки шартноманинг

узайтирилиши, акс ҳолда молиялаштиришнинг қисқартирилиши назарда тутилади. Бу хусусий шерикни таълим натижаларига масъул қилади.

**Мактаб автономияси ва инновация.** ДХШ доирасидаги мактабларга ўқитувчи танлаш, ички бошқарув ва дарс ташкил этиш бўйича кенгрок автономия берилади; бу янги методикалар ва бошқарув усулларини синаб кўришга йўл очади [2], [1]. Турли провайдерларнинг кириши рақобат орқали таълим сифатини ошириши мумкин.

**Ҳисобдорлик ва мониторинг тизими.** Мустақил тестлар, ташқи баҳолашлар, мунтазам инспекция ва КРІ бўйича аудит ёрдамида ДХШ муассасалари натижалари доимий кузатиб борилади [3]. Натижалар жамоатчиликка очиқ эълон қилинганда, муассасалар нафақат давлат, балки ота-она ва жамоага ҳам ҳисобдор бўлади [1].

**Ўқитувчи малакасини ошириш.** ДХШ доирасида хусусий шериклар ўқитувчилар учун амалий тренинглари, мураббийлик ва фикр-мулоҳаза тизимларини йўлга қўйиши мумкин [2]. Шартномаларда ўқитувчи малакаси бўйича минимал стандартлар белгиланганда, бу бевосита сифатга таъсир қилади [3].

**Мақсадли молиялаштириш.** ДХШ орқали давлат маблағи ўқувчи натижасига қараб: субсидия, ваучер ёки бошқарув шартномалари орқали молия тўғридан-тўғри сифат кўрсаткичини яхшилаётган муассасаларга йўналтирилади [1], [2]. Хусусий шерик инвестицияси ҳисобига синф хоналари, лаборатория ва рақамли технологиялар янгиланиб, ўқув муҳити яхшиланади.

**Меҳнат бозори билан алоқа.** Хусусий шериклар иқтисодийнинг реал сектори билан бевосита боғлиқ бўлгани учун, улар таълим дастурларини амалий кўникмаларга йўналтиришга қизиқиш билдирадilar. Бу битирувчиларнинг иш билан таъминланиш даражасини оширади [4].

Тадқиқот натижалари Ўзбекистонда фуқароларнинг таълим олишга бўлган конституциявий ҳуқуқларини таъминлашда ДХШнинг муҳим стратегик аҳамиятга эгаллигини кўрсатади. ДХШ давлат бюджети юқини камайтириш билан бирга, таълим хизматларининг хилма-хиллигини ва сифатини оширишга хизмат қилади.

Биринчи муаммо — ҳуқуқий тартибланиш механизмларининг номукамаллигидир. Таълим соҳасига хос қўшимча қондалар, масалан таълим сифати мониторинги тартиби ва низоларни ҳал этиш механизмлари ҳали етарли даражада ишлаб чиқилмаган [5]. Халқаро тажриба кўрсатадики, фақат инфратузилмани ДХШ орқали қуриб, бошқарувни давлатча қолдириш кўпинча сифатга сезиларли таъсир бермайди; хизмат кўрсатиш элементини ҳам ДХШга киритиш талаб қилинади [3], [1].

Иккинчи муаммо — молиявий автономиянинг чекланганлигидир. Ҳазначилик назорати ва квота тизими олий таълим муассасаларининг молиявий эркинлигини чеклаб қўяди. Бу ДХШ лойиҳаларини амалга оширишдаги оперативликни камайтиради ва хусусий инвесторларни кўрқитади. Халқаро тажрибадаги мақсадли молиялаштириш моделлари — ваучер тизимлари ва натижага боғланган субсидиялар [1], [2] — Ўзбекистон шароитига мослаштирилиши мумкин.

ДХШ доирасида таълим сифатини таъминлаш учун натижага асосланган шартномалар, мустақил мониторинг тизимлари ва ўқитувчи малакасини оширишга йўналтирилган дастурлар зарур [2], [1]. Бироқ, тестга ҳаддан ташқари боғланган рағбатлар «фақат тестга тайёрлаш» хавфини туғдириши мумкин; шунинг учун сифат кўрсаткичлари кенгрок ва баланслироқ бўлиши керак. Шунингдек, кам таъминланган болалар учун тенг имконият таъминланмаса, сифат ошиши фақат бой қатлам билан чекланиб қолиши мумкин [1].

Давлат томонидан фуқароларнинг таълим олишга бўлган конституциявий ҳуқуқларини таъминлашда давлат-хусусий шериклик муҳим стратегик аҳамиятга эга. Тадқиқот натижаларига асосланиб қуйидаги таклифлар илгари сурилади:

Биринчидан, ДХШ шартномаларида томонларнинг мажбуриятлари ва низоларни ҳал этиш механизмларини аниқлаштириш лозим. Таълим соҳасида ДХШга хос қўшимча ҳуқуқий қоидаларни ишлаб чиқиш, жумладан натижага асосланган шартнома моделларини қонунчиликка киритиш мақсадга мувофиқ [1].

Иккинчидан, таълим муассасаларига ўз маблағларини бошқаришда тўлиқ мустақиллик бериш ва Ғазначилик назоратини оптималлаштириш зарур.

Учинчидан, ДХШ асосидаги муассасаларда таълим сифатини баҳолашнинг шаффоф тизимини яратиш ва жамоатчилик назоратини кучайтириш лозим; мустақил тестлар, ташқи баҳолашлар ва КРІ тизимлари жорий этилиши кузда тутилади [3].

Тўртинчидан, хусусий инвесторлар учун солиқ имтиёзлари ва қўллаб-қувватлаш механизмларини (имтиёзли кредитлар, ваучер тизимлари) кенгайтириш мақсадга мувофиқ [2].

Бешинчидан, ДХШ лойиҳаларини нафақат инфратузилмани яратиш, балки бошқарув ва таълим жараёнини ҳам қамраб олувчи ягона тизим сифатида режалаштириш зарур [3], [1].

### **Манбалар**

[1] World Bank. Designing Effective Public-Private Partnerships in Education. URL: <https://blogs.worldbank.org/en/education/designing-effective-public-private-partnerships-education>

[2] GSDRC. The Role and Impact of Public-Private Partnerships in Education. URL: <https://gsdrc.org/document-library/the-role-and-impact-of-public-private-partnerships-in-education/>

[3] RISE Programme. Public-Private Partnerships in Education. URL: <https://riseprogramme.org/sites/default/files/inline-files/Public-Private%20Partnerships%20in%20Education.pdf>

[4] Anderson K. et al. Uzbekistan: Quality Job Creation as a Cornerstone for Sustainable Economic Growth. — Asian Development Bank, 2020.

[5] Ugli B. et al. Issues of improving the legal basis of public-private partnership in the Republic of Uzbekistan // The American Journal of Political Science Law and Criminology. — 2022.

## **COMBATING GREEN CORRUPTION IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION**

**Valijonov Daler Dilshodovich,**

PhD in Law, Associate Professor of the Academy  
of Public Policy and Administration under  
the President of the Republic of Uzbekistan

**e-mail:** daler.valijonov1990@gmail.com

ORCID: 0000-0003-0356-4293

Environmental protection and the successful transition to sustainable energy systems are intrinsically linked to global stability, security, peace, and economic development. In recent decades, governments and international organizations have intensified efforts to mitigate climate change and environmental degradation. However, corruption presents a significant obstacle to achieving these objectives.

Corruption enables the illegal exploitation of natural resources, weakens environmental policy frameworks, facilitates organized environmental crime, and diverts funds allocated for climate adaptation, mitigation, and green transition initiatives. As investments in environmental and climate-related projects increase, so too do corruption risks within these sectors.

The concept of “green corruption” has emerged to describe corruption occurring within environmental governance and sustainability initiatives. The Basel Institute on Governance was among the first institutions to draw attention to the systemic risks associated with corruption in environmental and climate-related programs.

Green corruption may be defined as a specific form of corruption characterized by abuse of power, bribery, fraudulent schemes, and unlawful allocation of resources within the framework of environmental programs, conservation projects, and green economy initiatives.

Behind declarations promoting sustainable development and environmental protection, corrupt schemes may operate for personal enrichment. These schemes frequently involve manipulation of environmental permits, unlawful distribution of subsidies, and misappropriation of ecological funds.

Green corruption encompasses:

Corruption in environmental protection programs;

Fraudulent practices in sustainable development initiatives;

Abuse of authority in the allocation of environmental subsidies;

Manipulation within the transition toward a green economy.

Funds allocated for environmental protection, biodiversity conservation, or renewable energy projects may be unlawfully appropriated by public officials or private contractors. This reduces the real impact of environmental initiatives and undermines public policy objectives.

Corrupt practices often involve the unlawful issuance of construction or operational permits in protected areas. Such permits may be obtained through bribery or undue influence, circumventing legal procedures. Consequently, environmentally harmful projects may proceed under the guise of sustainability.

In some cases, “paper projects” are created solely to obtain grants or subsidies. Although formal reporting requirements may be fulfilled, tangible environmental outcomes remain absent. Such schemes frequently serve as mechanisms for siphoning public funds.

Green corruption is closely associated with deficiencies in environmental governance. Limited transparency, insufficient public oversight, ineffective supervision mechanisms, and weak legal sanctions create a favorable environment for corruption. As a result, public trust in environmental initiatives declines.

Green corruption may manifest in various forms:

Embezzlement of environmental funds allocated for ecosystem restoration, afforestation, or protected areas;

Green lobbying, whereby projects harmful to the environment are promoted as environmentally friendly to secure public contracts or subsidies;

Fraudulent environmental certification, including the issuance of “green” certificates without proper assessment;

Manipulation of environmental authorizations in violation of statutory requirements;

Corruption-driven green lobbying, involving kickbacks or bribery;

Greenwashing supported by public officials, whereby companies falsely claim environmental sustainability and receive state support or privileges.

Such practices distort market competition, weaken regulatory systems, and hinder genuine progress toward sustainability.

If we discuss the role of digitalization in counteracting green corruption, it is necessary to say that digitalization offers significant potential for mitigating corruption risks in environmental governance. The implementation of digital monitoring systems, open data platforms, blockchain-based tracking of environmental funds, and e-permitting systems can enhance transparency and accountability.

Digital tools may:

- Improve traceability of environmental financing;
- Reduce discretionary power in permit issuance;
- Enable public access to environmental data;
- Strengthen civic oversight mechanisms.

However, digitalization alone cannot eliminate corruption. Effective institutional reforms, legal enforcement, and independent oversight remain indispensable components of anti-corruption strategies.

Green corruption represents a serious threat to sustainable development and environmental security. By diverting financial resources and distorting environmental governance mechanisms, it undermines climate mitigation efforts, biodiversity protection, and public confidence in sustainability policies.

The consequences extend beyond environmental degradation; they also affect socio-economic development and institutional legitimacy. Therefore, combating green corruption requires an integrated approach combining strengthened legal frameworks, institutional accountability, enhanced transparency through digitalization, and active civil society engagement.

Without decisive measures, corruption concealed under the fade of environmental responsibility may continue to impede the global transition toward a just and sustainable future.

#### References

1. Basel Institute on Governance. (n.d.). What is green corruption and how can it be addressed? <https://www.swissinfo.ch>.
2. Environmental Rights Centre. (n.d.). Corruption and environmental rights of citizens. <https://envirights.tilda.ws/anticorruption>.
3. Økokrim. (2021). Green corruption. <https://img8.custompublish.com/getfile.php/5006389.2528.assamwitwswkw/milj%C3%B8krim%2B02.2021-Green%2Bcorruption.pdf>.
4. Transparency International. (n.d.). Unmask the corrupt. <https://www.transparency.org/en/unmask-the-corrupt>.

## GLOBAL RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA INSON HUQUQLARINING TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR SIYOSATI KONTEKSTIDA HUQUQIY TAHLIL

**Temiraliyeva Shahzoda Hikmatullo qizi**

**“Tashkent International University”**

**e-mail: [stemiraliyeva@gmail.com](mailto:stemiraliyeva@gmail.com)**

**Ilmiy Rahbar: Boymirzayeva Mohira Shavkatjonovna**

Global raqamlashtirish — bu XXI asrning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jarayoni bo‘lib, yuqori texnologiyalar, internet infratuzilmasi va elektron davlat xizmatlari orqali jamiyat hayotini tubdan o‘zgartirmoqda. Inson huquqlari kontseptsiyasi bugungi kunda faqat an’anaviy huquqlarni himoya qilishdan iborat emas, balki raqamli muhitda shaxsiy ma’lumotlar, axborot erkinligi, siyosiy faollik va huquqiy ishtirokni ham qamrab oladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri bu holatni rasmiy huquqiy mexanizmga aylantirgan: masalan, fuqarolarning huquq va erkinliklari “...xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi...” deb belgilangan (19-modda) hamda shaxsning huquq va erkinliklari sud qarorisiz cheklanmasligi ta’minlangan (20-modda)<sup>[1]</sup>— bu huquqlarning raqamli davrdagi himoyasini mustahkamlaydi.

Rasmiy davlat portali orqali ma’lum qilinishicha, 2026-yil 24-fevral kuni Ko‘ksaroy qarorgohida Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan muloqot o‘tkazdi, unda 60 mingdan ziyod yoshlar vakillari ishtirok etgan<sup>[2]</sup>. Ushbu uchrashuvda yoshlarga raqamli iqtisodiyot,

innovatsiyalar, startaplar, tadbirkorlik va ijtimoiy faollikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tashabbuslar e‘lon qilindi. Rasmiy axborotlar shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan yoshlar siyosati va raqamli huquqlarni himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar bugungi kunda faol shakllantirilmoqda, bu esa konstitutsiyaviy kafolatlarning dolzarbligini va amaliy izchilligini ta‘kidlaydi.

### **Raqamlashtirish davrida yoshlar huquqlari va inson qadr-qimmati: Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining huquqiy asoslari**

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining 2023-yilgi tahririda inson qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida e‘tirof etilishi yoshlar siyosati va global raqamlashtirish sharoitida ham muhim huquqiy poydevor yaratadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar va axborot kommunikatsiyalari vositalari jamiyatda yoshlar faoliyati, ta‘lim, startap loyihalari va ijtimoiy tashabbuslar imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa-da, bu jarayonda shaxsning daxlsizligi, shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligi va huquqlari birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘ladi<sup>[1]</sup>.

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi  
<https://www.un.int/uzbekistan/uzbekistan/constitution-republic-uzbekistan>

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti - <https://president.uz/oz/lists/view/8967>

Konstitutsiyada inson qadr-qimmati eng oliy qadriyat sifatida tan olinishi, yoshlarning raqamli maydondagi faoliyati uchun ham yuridik kafolatlar yaratadi. Masalan, onlayn startaplar, innovatsion loyihalar va ta‘lim platformalarida ishtirok etayotgan yoshlar o‘z daxlsizligi, shaxsiy ma‘lumotlarining himoyasi va erkin fikr bildirish huquqlariga kafolatlangan tarzda erishadilar. Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiya prinsiplari global raqamlashtirish va yoshlar siyosati bilan to‘liq uyg‘unlashadi.

Yoshlar siyosatiga oid rasmiy tadbirlar, xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Ko‘ksaroy qarorgohidagi yoshlar bilan ochiq muloqoti bu qadriyatning amaliy ko‘rinishini namoyon qiladi. Uchrashuvda yoshlar salohiyatini rivojlantirish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, sport va ta‘lim sohalaridagi imkoniyatlarni kengaytirish, shuningdek raqamli texnologiyalar orqali huquqlarini ta‘minlash masalalari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, raqamlashtirish sharoitida yoshlar huquqlarining transformatsiyasi faqat deklarativ emas, balki amaliy himoya mexanizmlari bilan mustahkamlanadi. Masalan:

- ✓ onlayn platformalarda shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligi;
- ✓ digital ta‘limda teng imkoniyatlar;
- ✓ startap va ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash;
- ✓ erkin fikr bildirish va axborotga kirish huquqi.

Shu bilan birga, Konstitutsiya tamoyillari va rasmiy yoshlar siyosati hamkorlikda yoshlarning global maydondagi raqamli faolligi, innovatsion loyihalar va tadbirkorlik imkoniyatlarini huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, yoshlar siyosatini davlatning ustuvor yo‘nalishiga aylantiradi va inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida amalda ta‘minlashga imkon yaratadi.

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -  
<https://www.un.int/uzbekistan/uzbekistan/constitution-republic-uzbekistan>

### **Global raqamlashtirish sharoitida yoshlar huquqlari: muammolar, tahlil va yechimlar**

Global raqamlashtirish davrida yoshlar huquqlari dunyo miqyosida ham, milliy siyosat darajasida ham yangi chaqiriqlarga duch kelmoqda. Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarning tez rivojlanishi yoshlar uchun o‘z imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi, shu bilan birga, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish, raqamli huquq va teng imkoniyatlarni ta‘minlash kabi yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Ko‘plab mamlakatlarda yoshlar onlayn muhitda shaxsiy ma‘lumotlarining noqonuniy ishlatilishi, kiberhujumlar va ta‘qib xavfi bilan

yuzma-yuz turadi. Shu bois, ularning raqamli huquqlarini ta'minlash xalqaro normativlar bilan mos keladigan kompleks chora-tadbirlarni talab qiladi

O'zbekiston Respublikasi bu jarayonda milliy siyosat orqali aniq chora-tadbirlar ishlab chiqmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil fevral oyidagi Ko'ksaroy qarorgohidagi yoshlar bilan muloqoti buni amalda namoyon etdi. Uchrashuvda yoshlarga tadbirkorlik, startap loyihalarini amalga oshirish, innovatsion va ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq mexanizmlar taqdim etildi. Masalan, "Kelajak tadbirkori" dasturi orqali yoshlar 7 yil muddatgacha past foizli kreditlarga ega bo'lib, o'z startap va biznes loyihalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi, shuningdek, investitsiya va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati kengaytiriladi).

Xalqaro tahlil shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda yoshlar huquqlarini raqamli muhitda himoya qilish uchun texnologik va ijtimoiy mexanizmlarning uyg'unligi muhim. Masalan, Yevropa Ittifoqi va Janubiy Koreyada yoshlarning onlayn faoliyati uchun xavfsizlik standartlari, moliyaviy va ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, milliy darajadagi dasturlar orqali yoshlar iqtisodiy huquqlarini amalga oshirish, startap va tadbirkorlik faoliyatiga kirish imkoniyati kengaytirilmoqda. O'zbekiston tajribasi, Prezidentning uchrashuvida belgilangan amaliy chora-tadbirlar bilan birga, bu xalqaro tajribaga mos keladigan strategiyalarni namoyon etadi.

Xususan:

1. **Raqamli savodxonlik va kiberxavfsizlik bo'yicha ta'limni kengaytirish:** yoshlarni sun'iy intellekt, onlayn biznes, startap va moliyaviy platformalarda xavfsiz faoliyat yuritishga o'rgatish.

2. **Iqtisodiy imkoniyatlarni tenglashtirish:** raqamli platformalarda ish va tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirish, hududlar o'rtasidagi raqamli infratuzilmani yaxshilash.

3. **Xalqaro standartlarni tatbiq etish:** yoshlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro konvensiyalar, jumladan, BMTning *Convention on the Rights of the Child* va *Universal Declaration of Human Rights* normalarini amaliyotga joriy etish.

4. **Milliy monitoring va tahlil mexanizmlari yaratish:** raqamli muhitdagi yoshlar huquqlarining buzilishini aniqlash, statistik tahlil va siyosiy chora-tadbirlar bilan ta'minlash.

Shu tarzda, global raqamlashtirish sharoitida yoshlar huquqlarini himoya qilish nafaqat qonuniy kafolatlarga, balki amaliy va iqtisodiy imkoniyatlarga asoslangan holda amalga oshirilishi kerak. Milliy siyosat va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish orqali yoshlar raqamli va ijtimoiy muhitda teng va xavfsiz imkoniyatlarga ega bo'lib, innovatsion va ijtimoiy faoliyatini to'liq rivojlantira oladi. Bu esa kuchli, raqamli va huquqiy jamiyat barpo etishda asosiy poydevor vazifasini bajaradi

Muammolarni tahlil qilganda, raqamli savodxonlikning yetarli darajada emasligi, tadbirkorlik ko'nikmalarining rivojlanmaganligi va innovatsion faoliyatga kirishdagi cheklovlar asosiy to'siqlar sifatida ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan, yechim sifatida quyidagilar muhim: yoshlarni raqamli savodxonlik va kiberxavfsizlik bo'yicha malaka oshirish, startap va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, hududlar o'rtasida imkoniyatlar tengligini ta'minlash, shuningdek, xalqaro tajribalarni joriy qilish. O'zbekistonning Prezident uchrashuvida e'lon qilingan dasturlar – "Kelajak tadbirkori", "Yangi avlod tadbirkorlari" va yoshlar biznes inkubatorlari aynan shu yo'nalishga xizmat qiladi.

Shu tarzda, global raqamlashtirish sharoitida yoshlar huquqlarining himoyasi nafaqat qonuniy mexanizmlarga, balki amaliy tadbirlar va milliy hamda xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirishga bog'liq. O'zbekiston misolida Prezidentning yoshlar bilan uchrashuvi yoshlarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini mustahkamlash, ularning innovatsion va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va raqamli muhitdagi xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha muhim siyosiy va amaliy chora sifatida ko'riladi. Shu bilan birga, bu xalqaro me'yorlar bilan uyg'un keladi va

yoshlar huquqlarini global raqamli muhitda transformatsiya qilish jarayonida mustahkam poydevor yaratadi

### **Xulosa**

Global raqamlashtirish sharoitida yoshlar huquqlari nafaqat yangi imkoniyatlarni, balki yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalar ularning ta'lim, ish va tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo'lsa-da, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlik va raqamli tenglik masalalari hal etilishi zarur bo'lgan asosiy muammolar sifatida qolmoqda. Shu bilan birga, raqamli infratuzilma, hududiy farqlar va raqamli savodxonlikning yetishmasligi yoshlar huquqlarini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Ushbu holatni hal etish uchun milliy siyosat va xalqaro tajribani uyg'unlashtirgan kompleks yechimlar talab etiladi. Raqamli savodxonlik va kiberxavfsizlik bo'yicha ta'limni kengaytirish, raqamli iqtisodiyot va onlayn tadbirkorlik imkoniyatlarini tenglashtirish, xalqaro konvensiyalar va standartlarni tatbiq etish hamda monitoring va tahlil mexanizmlarini yaratish bu jarayonning asosiy yo'nalishlaridir.

Shunday qilib, global raqamlashtirish davrida yoshlar huquqlarini himoya qilish tizimi nafaqat qonuniy kafolatlar, balki amaliy va iqtisodiy imkoniyatlar bilan mustahkamlanishi lozim. Buning natijasida yoshlar innovatsion, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatlarini xavfsiz va samarali rivojlantirib, kuchli, raqamli va huquqiy jamiyatning barqaror poydevorini yaratishda faol ishtirok etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - <https://www.un.int/uzbekistan/uzbekistan/constitution-republic-uzbekistan>
2. Milliy strategiya va BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi - <https://www.nhrc.uz/oz/news>
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil, BMT). <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
4. Convention on the Rights of Persons with Disabilities (to'liq rasmiy hujjat tavsifi) — BMTning rasmiy shartnomalar bazasi (United Nations Treaty Collection): <https://treaties.un.org/pages/viewdetails.aspx>
5. UNESCO- Digital Ethics and Youth Rights - <https://www.unesco.org/en/digital-ethics>
6. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi- <https://lex.uz/>

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА В ГОРОДСКИХ ЭКОСИСТЕМАХ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ В ОХРАНЕ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ**

**Магистр Бадалова Дилбар Муратбековна**

Ташкентский государственный медицинский университет

В условиях стремительной урбанизации и роста антропогенной нагрузки на окружающую среду проблема обеспечения экологической безопасности городов приобретает особую значимость. Современные города представляют собой сложные социально-экологические системы, в которых интенсивная хозяйственная деятельность, транспортная инфраструктура и высокая плотность населения создают повышенные риски загрязнения атмосферного воздуха, водных ресурсов и почв. Указанные факторы оказывают непосредственное влияние на состояние здоровья населения, способствуя росту

хронических заболеваний, снижению качества жизни и увеличению социально-экономических издержек.

В этих условиях система экологического мониторинга выступает важнейшим инструментом выявления, оценки и прогнозирования негативных изменений окружающей среды. Эффективно функционирующий мониторинг позволяет своевременно фиксировать превышение предельно допустимых концентраций загрязняющих веществ, анализировать динамику экологических показателей и формировать научно обоснованные управленческие решения. Таким образом, совершенствование системы экологического мониторинга становится неотъемлемым элементом государственной политики в сфере охраны окружающей среды и общественного здоровья.

Особую актуальность данная проблема приобретает в условиях цифровой трансформации управления и внедрения современных информационных технологий. Использование автоматизированных станций наблюдения, геоинформационных систем, больших данных и аналитических платформ открывает новые возможности для повышения точности и оперативности экологического контроля. Вместе с тем сохраняются проблемы фрагментарности данных, недостаточной интеграции экологической и медицинской статистики, а также ограниченности межведомственного взаимодействия.

Цель настоящего исследования заключается в анализе современных направлений совершенствования системы экологического мониторинга в городских экосистемах и обосновании её значения для охраны здоровья населения. Для достижения поставленной цели предполагается рассмотреть теоретические основы экологического мониторинга, выявить его влияние на показатели общественного здоровья, а также определить перспективные механизмы модернизации мониторинговой системы.

Научная новизна работы заключается в комплексном анализе взаимосвязи между системой экологического мониторинга и показателями общественного здоровья в городских экосистемах. Предлагается интегративный подход, предусматривающий объединение данных экологического наблюдения с медицинской статистикой для формирования системы раннего предупреждения экологически обусловленных заболеваний. Обоснована необходимость внедрения цифровых платформ мониторинга, обеспечивающих оперативный анализ и прогнозирование экологической обстановки.

**Объектом исследования** являются общественные отношения, складывающиеся в сфере организации и функционирования системы экологического мониторинга в городских экосистемах, а также процессы взаимодействия органов государственной власти, экологических служб и медицинских учреждений в целях обеспечения охраны здоровья населения.

**Предметом исследования** выступают правовые, организационные и технологические механизмы совершенствования системы экологического мониторинга, методы оценки состояния окружающей среды в условиях урбанизации, а также взаимосвязь показателей экологического состояния городской среды с уровнем заболеваемости и состоянием здоровья населения.

Таким образом, комплексное исследование экологического мониторинга как инструмента обеспечения санитарно-эпидемиологической безопасности и устойчивого развития городов представляется своевременным и социально значимым направлением научного анализа.

Исследование системы экологического мониторинга в городских экосистемах опирается на труды отечественных и зарубежных учёных в области экологического права, урбанистики, общественного здравоохранения и устойчивого развития. В научной литературе экологический мониторинг рассматривается как комплексная система наблюдений, анализа и прогнозирования состояния окружающей среды, обеспечивающая принятие управленческих решений на основе объективных данных.

В трудах по экологическому праву акцентируется внимание на нормативно-правовых механизмах регулирования мониторинговой деятельности, принципах экологической

безопасности и ответственности государства за охрану здоровья населения. Исследователи в сфере урбанистики анализируют влияние урбанизации на деградацию природных компонентов городской среды, а также необходимость внедрения интегрированных систем управления экологическими рисками.

Значительное внимание в современной научной литературе уделяется взаимосвязи экологических факторов и состояния здоровья населения. Работы в области общественного здравоохранения подтверждают наличие прямой корреляции между уровнем загрязнения атмосферного воздуха и ростом хронических заболеваний органов дыхания и сердечно-сосудистой системы. В международных исследованиях подчёркивается важность интеграции экологических и медицинских данных для формирования системы раннего предупреждения неблагоприятных последствий для здоровья.

Отдельное направление исследований посвящено цифровизации экологического мониторинга, внедрению автоматизированных станций наблюдения, использованию геоинформационных систем, технологий обработки больших данных и алгоритмов прогнозирования. Данные подходы рассматриваются как перспективный инструмент повышения эффективности экологического контроля и прозрачности государственного управления.

Анализ научных источников свидетельствует о междисциплинарном характере проблемы и необходимости комплексного подхода к совершенствованию системы экологического мониторинга в городских экосистемах.

Методологическую основу исследования составляют общенаучные и специальные методы познания.

В работе применялись следующие методы:

- **системный метод**, позволивший рассмотреть экологический мониторинг как целостную систему, включающую правовые, организационные и технологические элементы;
- **анализ и синтез**, использованные при изучении нормативных актов, научных публикаций и статистических данных;
- **сравнительно-правовой метод**, применённый для сопоставления национальных и международных подходов к организации мониторинга;
- **структурно-функциональный анализ**, позволивший определить роль отдельных элементов мониторинговой системы в обеспечении охраны здоровья населения;
- **метод прогнозирования**, использованный для определения перспектив развития системы экологического мониторинга в условиях цифровизации.

Кроме того, в исследовании учитывались статистические данные о состоянии окружающей среды и уровне заболеваемости населения, что позволило выявить взаимосвязь экологических факторов и показателей общественного здоровья.

Комплексное применение указанных методов обеспечило объективность и научную обоснованность полученных выводов, а также позволило сформулировать практические рекомендации по совершенствованию системы экологического мониторинга в городских экосистемах.

В ходе проведённого исследования установлено, что система экологического мониторинга в городских экосистемах является ключевым элементом обеспечения экологической безопасности и охраны здоровья населения. Анализ существующих механизмов мониторинга показал, что его эффективность напрямую зависит от уровня организационного, правового и технологического обеспечения.

Прежде всего, выявлено, что экологический мониторинг выполняет важную информационно-аналитическую функцию, обеспечивая сбор, обработку и анализ данных о состоянии окружающей среды. Полученные данные позволяют выявлять источники загрязнения, определять уровень экологических рисков и прогнозировать возможные негативные последствия для здоровья населения. Это способствует своевременному принятию управленческих решений и разработке профилактических мер.

Исследование показало, что в условиях урбанизации наибольшее влияние на здоровье населения оказывает загрязнение атмосферного воздуха. Повышенная концентрация вредных веществ, таких как оксиды азота, диоксид серы, угарный газ и мелкодисперсные частицы, способствует росту заболеваний органов дыхания, сердечно-сосудистой системы и аллергических реакций. Таким образом, регулярный и точный мониторинг состояния атмосферного воздуха имеет первостепенное значение для защиты здоровья населения.

Установлено, что важным направлением совершенствования экологического мониторинга является внедрение современных цифровых технологий. Использование автоматизированных станций наблюдения, электронных баз данных и геоинформационных систем позволяет обеспечить непрерывный сбор информации и повысить точность анализа экологических показателей. Это способствует формированию единой информационной системы, обеспечивающей доступность и прозрачность экологических данных.

Кроме того, выявлено, что эффективная система экологического мониторинга способствует повышению эффективности государственного управления в сфере охраны окружающей среды. На основе полученных данных государственные органы могут разрабатывать экологические программы, устанавливать нормативы допустимого воздействия и контролировать соблюдение экологического законодательства.

В результате исследования также установлено, что совершенствование экологического мониторинга способствует снижению экологических рисков и улучшению санитарно-эпидемиологической обстановки в городах. Своевременное выявление экологических угроз позволяет принимать превентивные меры, направленные на снижение уровня загрязнения окружающей среды и предотвращение негативных последствий для здоровья населения.

В ходе исследования установлено, что полученные результаты подтверждают, развитие и модернизация системы экологического мониторинга является необходимым условием обеспечения устойчивого развития городских экосистем, повышения качества окружающей среды и защиты здоровья населения.

Полученные результаты подтверждают, что совершенствование системы экологического мониторинга в городских экосистемах имеет не только природоохранное, но и выраженное социально-гигиеническое значение. Обсуждение выявленных закономерностей позволяет сделать вывод о том, что экологический мониторинг должен рассматриваться как междисциплинарный инструмент управления рисками, объединяющий экологические, медицинские и управленческие компоненты.

Прежде всего, обращает на себя внимание зависимость эффективности мониторинга от уровня его технологической оснащённости. Несмотря на наличие нормативной базы и институциональных механизмов, фрагментарность данных и ограниченная интеграция информационных систем снижают практическую результативность экологического контроля. Это свидетельствует о необходимости перехода от традиционных форм наблюдения к цифровым платформам, обеспечивающим непрерывность, сопоставимость и аналитическую обработку информации в режиме реального времени.

Особое значение имеет проблема интеграции экологических и медицинских данных. Анализ показал, что существующие системы зачастую функционируют автономно, что затрудняет выявление причинно-следственных связей между уровнем загрязнения окружающей среды и динамикой заболеваемости населения. Между тем именно комплексный подход позволяет формировать систему раннего предупреждения экологически обусловленных заболеваний и разрабатывать профилактические меры на основе доказательной базы.

В ходе обсуждения также выявлена необходимость усиления межведомственного взаимодействия. Эффективность экологического мониторинга возрастает при координации деятельности органов охраны окружающей среды, санитарно-эпидемиологических служб, органов здравоохранения и местного самоуправления. Отсутствие единого

координационного механизма может приводить к дублированию функций либо к недостаточному использованию получаемых данных.

Кроме того, важным аспектом является повышение экологической осведомлённости населения. Доступность информации о состоянии окружающей среды способствует формированию экологически ответственного поведения граждан и усиливает общественный контроль за соблюдением экологических требований. Таким образом, прозрачность мониторинговой системы выступает фактором укрепления доверия к государственным институтам.

Вместе с тем следует учитывать, что совершенствование экологического мониторинга требует значительных финансовых и организационных ресурсов. Внедрение современных технологий, развитие цифровой инфраструктуры и подготовка квалифицированных специалистов являются необходимыми условиями устойчивого функционирования системы.

В целом обсуждение результатов исследования позволяет утверждать, что модернизация системы экологического мониторинга должна осуществляться на основе системного подхода, предполагающего технологическое обновление, институциональную координацию и интеграцию данных в систему управления общественным здоровьем. Только при комплексной реализации указанных направлений возможно достижение устойчивого улучшения экологической обстановки и повышения качества жизни населения.

Проведённое исследование показало, что система экологического мониторинга в городских экосистемах является важнейшим элементом обеспечения экологической безопасности и охраны здоровья населения. В условиях интенсивной урбанизации, роста промышленного производства и увеличения антропогенной нагрузки на окружающую среду возрастает необходимость совершенствования механизмов контроля и оценки состояния природной среды.

Установлено, что эффективный экологический мониторинг позволяет своевременно выявлять источники загрязнения, прогнозировать экологические риски и принимать обоснованные управленческие решения, направленные на снижение негативного воздействия на окружающую среду и здоровье населения. Особое значение имеет внедрение современных цифровых технологий, автоматизированных систем наблюдения и аналитических платформ, обеспечивающих оперативность и достоверность экологической информации.

Анализ законодательства и практики Республики Узбекистан свидетельствует о том, что в стране сформирована нормативно-правовая база в сфере охраны окружающей среды и экологического мониторинга. Вместе с тем выявлена необходимость дальнейшего совершенствования организационных механизмов, усиления межведомственного взаимодействия и расширения применения инновационных технологий в данной сфере.

Важным направлением развития является интеграция экологического мониторинга с системой здравоохранения, что позволит более эффективно выявлять взаимосвязь между экологическими факторами и состоянием здоровья населения. Это будет способствовать разработке профилактических мер и повышению уровня экологической безопасности.

Таким образом, совершенствование системы экологического мониторинга в городских экосистемах Республики Узбекистан является необходимым условием устойчивого развития, обеспечения благоприятной окружающей среды и повышения качества жизни населения. Реализация предложенных мер позволит повысить эффективность государственного управления в экологической сфере и укрепить систему защиты здоровья граждан.

Экологический мониторинг является ключевым инструментом обеспечения экологической безопасности и охраны здоровья населения в условиях развития городских экосистем. Его значение обусловлено необходимостью постоянного контроля за

состоянием окружающей среды и своевременного выявления негативных экологических факторов.

Выявлено, что эффективная система экологического мониторинга позволяет получать достоверную информацию о состоянии атмосферного воздуха, водных ресурсов, почвы и других компонентов окружающей среды. Это создаёт научно обоснованную основу для принятия управленческих решений, направленных на снижение уровня загрязнения и предотвращение экологических рисков.

Установлено, что в условиях Республики Узбекистан экологический мониторинг приобретает особую актуальность в связи с ростом урбанизации, увеличением количества транспортных средств и развитием промышленности. Действующая нормативно-правовая база, формируемая при участии Министерства экологии, охраны окружающей среды и изменения климата Республики Узбекистан, создаёт основу для реализации государственной политики в сфере экологического контроля, однако требует дальнейшего совершенствования с учётом современных экологических вызовов.

Доказано, что внедрение цифровых технологий, автоматизированных систем наблюдения и современных методов анализа данных способствует повышению эффективности экологического мониторинга, обеспечивая оперативность, точность и доступность экологической информации.

Обосновано, что совершенствование системы экологического мониторинга оказывает непосредственное влияние на снижение экологических рисков, предупреждение заболеваний, связанных с воздействием неблагоприятных факторов окружающей среды, и повышение качества жизни населения.

Таким образом, дальнейшее развитие и модернизация системы экологического мониторинга в городских экосистемах Республики Узбекистан является необходимым условием обеспечения устойчивого развития, укрепления экологической безопасности и защиты здоровья населения.

1. Внедрение автоматизированных станций мониторинга в режиме реального времени;
2. Использование геоинформационных систем для картирования экологических рисков;
3. Интеграция данных экологического мониторинга с медицинской статистикой;
4. Разработка системы раннего предупреждения о неблагоприятных экологических ситуациях

#### **ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА**

1. Закон Республики Узбекистан «Об охране природы» от 9 декабря 1992 года.
2. Закон Республики Узбекистан «Об экологическом контроле» от 27 декабря 2013 года.
3. Закон Республики Узбекистан «Об охране атмосферного воздуха» от 27 декабря 1996 года.
4. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии перехода Республики Узбекистан к «зелёной экономике» на период 2019–2030 годов».
5. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О совершенствовании системы государственного экологического мониторинга».
6. Материалы Министерство экологии, охраны окружающей среды и изменения климата Республики Узбекистан.
7. Материалы Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике.
8. Доклады Программа ООН по окружающей среде (UNEP) по экологическому мониторингу.
9. Доклады Всемирная организация здравоохранения по влиянию экологических факторов на здоровье населения.

## RAQAMLI BOSHQARUV TIZIMIDA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH MASALALARI

**Usmonov Doniyor Maxmudovich**  
Tashkent International University  
Huquqiy fanlar kafedrası dotsenti,  
yu.f.b.f.d. (PhD), dotsent  
doniyoru094@gmail.com

**Mengortiqov Abulfayz Kamoliddin o'g'li,**  
**Sayfiyev Davron Narzulla o'g'li**  
Tashkent International University  
Yurisprudensiya yo'nalishi, 2-bosqich talabalari  
[mengortiqovabulfayz89@gmail.com](mailto:mengortiqovabulfayz89@gmail.com)

So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va fuqarolar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni shaffoflashtirish zamonaviy davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mamlakatda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik asosini belgilab berdi. Mazkur strategiya iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan [1].

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayoni inson huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasini yanada dolzarblashtirmoqda. Zero, raqamli boshqaruv samaradorligi inson huquqlarini kafolatlash bilan uzviy bog'liqdir.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi respublikada raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda o'rta va uzoq muddatli vazifalarini belgilaydi. U Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari hamda elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha xalqaro reytinglar talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni axborotdan erkin foydalanish, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashning muhim huquqiy asosini yaratdi. Ushbu qonun raqamli boshqaruv tizimida inson huquqlarini ta'minlashning fundamental kafolati hisoblanadi [2].

Raqamli boshqaruv – davlat organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va samaradorligini oshirish tizimidir. Ushbu tizimda inson huquqlarini ta'minlash quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish – fuqarolarning roziligisiz ularga oid ma'lumotlarni yig'ish va tarqatishga yo'l qo'ymaslik;
- Axborot xavfsizligi – davlat axborot tizimlarini kiberhujumlardan himoya qilish;
- Axborotdan foydalanish huquqi – fuqarolarning davlat organlari faoliyati haqida axborot olish imkoniyatlarini ta'minlash;
- Raqamli tenglik – barcha fuqarolar uchun raqamli xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatini yaratish.

Xalqaro miqyosda internetdan foydalanish inson huquqlarini amalga oshirish vositasi sifatida e'tirof etilgan. Shu bois raqamli infratuzilmani rivojlantirish bilan birga inson huquqlarini ishonchli himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega [3].

Raqamli boshqaruv tizimida inson huquqlarini ta'minlash jarayonida qator muammolar kuzatilishi mumkin:

- shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi;
- sun'iy intellektdan foydalanishda diskriminatsiya xavfi;
- kiberjinoyatchilikning ortishi;
- aholining raqamli savodxonlik darajasining pastligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

*birinchidan*, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish;

*ikkinchidan*, sud-huquq tizimida raqamli huquqlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish;

*uchinchidan*, axborot xavfsizligi infratuzilmasini takomillashtirish;

*to'rtinchidan*, fuqarolarning raqamli madaniyatini oshirish zarur.

Xulosa qilib, raqamli boshqaruv tizimi zamonaviy davlat boshqaruvining ajralmas qismiga aylanmoqda. U davlat xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirish, boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish va davlat hamda jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Biroq raqamlashtirish jarayoni inson huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash, axborotdan erkin foydalanish huquqini kafolatlash va barcha fuqarolar uchun teng raqamli imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>.

2. O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrdagi "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi 439-II-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/52268>.

3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti rezolyutsiyalari va elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha xalqaro hujjatlar // United Nations. (n.d.). *Official website*. <https://www.un.org/en/>.

## **ТЕРГОВ ВА СУД ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ТЎСҚИНЛИК ҚИЛУВЧИ ОДИЛ СУДЛОВГА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ МУАММОЛАРИ**

**Анорбоев Муроджон Рахманкул ўғли**  
"Tashkent international university" доценти,  
юридик фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)

*Жамиятда қонун устуворлигини таъминлаш – амалга оширилаётган барча ислохотлар самарадорлигига эришиш, аҳоли турмуш даражасини ошириш, мамлакатда тинчлик, тотувлик ва барқарор вазиятни таъминлашнинг асосий кафолатидир.*

### **Ш.М.Мирзиёев**

Замонавий жамиятимиз тараққиётининг ҳозирги босқичида шахс, жамият ва давлатнинг ҳуқуқлари ҳамда қонуний манфаатларини таъминлаш соҳасида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятининг муҳим йўналишларидан бири жиноятлар ва бошқа ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси ҳисобланади. Бу фаолият нафақат жиноятчиликнинг сабаблари, имкон берган шарт-шароитларини аниқлаш, уларни бартараф этиш ёки нейтраллаштиришни, балки уларнинг ўрнига нормал, қонуний ҳулқ-атвор сабаб ва шароитларини яратишни ҳам ўз ичига олади.

Тергов ва суд органлари фаолиятига тўсқинлик қилувчи одил судловга қарши жиноятларга қарши курашда нафақат жиноий жавобгарлик чоралари, балки ушбу

жиноятларнинг олдини олиш учун ишончли механизмни йўлга қўйиш зарур. Бундай жиноятларга қарши курашнинг моҳияти, ушбу қилмишларнинг мавжудлигини белгилайдиган ва уларга ёрдам берувчи омилларга таъсир ўтказишдан, ушбу омилларнинг таъсирини нейтраллаштириш ёки уларни бартараф этишдан иборатдир. Бунда профилактика фақатгина мазкур турдаги жиноятчиликнинг сабабларига ва уни келтириб чиқарувчи ҳамда шартловчи шароитларга комплекс таъсир кўрсатилганда муваффақиятли бўлади. Бунда жиноятларнинг олдини олиш чоралари ҳам умумий, ҳам махсус чоратadbирларни ўз ичига олиши ҳамда улар ўзаро боғлиқ ва тизимли бўлиши зарур. Фақат шу ҳолатда бундай чоралари самарали ва натижадор бўлади.

Бугунги кунда ҳуқуқбузарликлар, жиноятчиликка қарши курашиш ҳамда уларнинг олдини олиш барча давлатлар учун энг муҳим вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Зеро, тергов қилишга ёки суд ишларини ҳал этишга аралаштириш жиноятини содир этган шахсларни жазолашдан кўра, ушбу жиноятчиликнинг олдини олган афзалдир.

Шу нуқтаи назардан Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “агар ҳамма бирдек жон куйдириб, оилалар муаммоларидан тўлиқ хабардор бўлиб, уларни ҳал этишга қўмаклашган, жиноятчиликнинг барвақт олдини олганда эди, бугун натижалар умуман бошқача бўларди. Афсуски, жиноятчиликка қарши курашишда ҳалигача эскича ишлаш тизимидан воз кеча олмаяпмиз. Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралар бу фаолиятга кўрсаткичларни олдинги давр билан таққослаш орқали баҳо бериб келмоқда. Аслида битта бўлса ҳам жиноят бўлгани ҳаммамизни ташвишга солиши керак”, дея тўғри таъкидлаган эди.[1]

Ҳуқуқбузарликлар, жиноятчиликка қарши курашиш ҳамда уларнинг олдини олиш ҳуқуқшунос турли олимлар турлича фикрлар билдиришган. Шарль де Монтескье “Яхши қонунчи жиноят учун жазо беришдан кўра жиноятларнинг олдини олиш ҳақида кўпроқ қайғуради. У жазолашга эмас, балки одамлар ахлоқини ўзгартиришга ҳаракат қилади”, [2]дея таъкидлайди.

Масалан, айрим олимлар жиноятларнинг олдини олиш жиноятларнинг сабаблари ва жиноятлар содир этилишига имкон берадиган шарт-шароитларни йўқ қилишга қаратилган чора-тадбирлар мажмуи эканлигини таъкидлашади.[3]

М.Ҳ.Рустамбоев бу борада қуйидагича таъкидлайди: жиноятларнинг олдини олиш, яъни алоҳида меъёр сифатида ҳуқуқий хулқ- атворни белгиловчи ҳуқуқий онг даражасини шакллантириш орқали ижтимоий хавфли ҳаракатлар содир этилмаслигини таъминлаш ЖКнинг муҳим вазифасидир. [4]

Д.В.Васильевнинг фикрича, жиноятчиликка қарши курашишда хориж тажрибасини ўрганиш жамиятни ривожлантиришнинг муҳим йўналишлари ва йўллари белгилаб олиш, башариятнинг узоқ тарихий тараққиёти жараёнидаги янгилиқлар ва хато ёндашувларга қайта йўл қўйилишининг олдини олиш имконини беради.[5]

Ж.А.Нематов таъбири билан айтганда, жиноятчиликка қарши кураш чораларини ишлаб чиқиш унинг турли соҳалар ва даражаларда – маҳаллий, ҳудудий, миллий ва халқаро, аниқ объектларда, турли ижтимоий ва этник гуруҳлардаги сабаб ва омилларнинг механизмларини аниқлашни тақозо этади”.[6]

Бу хусусда З.М.Зиёдуллаев қуйидагича фикр билдиради: айрим давлатлар, маъмурий ҳудудларда жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш фаолияти турли йўллар, усуллар билан таъминланади. Ушбу соҳада ҳар бир давлат ўзига хос илғор тажрибага эга бўлиб, уларни ўрганиш ҳамда юртимиз жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш тизимида татбиқ этиш бугуннинг долзарб талабларидан биридир.[7]

Н.М.Урда жиноятчилик олдини олиш ҳақида сўз юритиб, жиноятчиликнинг олдини олишга қаратилган фаолиятни ижтимоий тартибга солиш соҳаси сифатида таърифлаш, бизнинг фикримизча, ижтимоий муносабатларга, шу жумладан, фаолиятнинг турли соҳаларига таъсир этувчи жиноятларнинг олдини олишнинг юқори ижтимоий аҳамиятини акс эттиради[8], дея асослайди.

Бизнингча, жиноятчиликнинг олдини олиш – бу жиноятчиликнинг барча сабаблари ва уларнинг содир этишига имкон берган шарт-шароитларни барвақт бартараф этиш ёки уларнинг таъсир этиш даражасини максимал камайтириш, шахсларни жиноят содир этишдан қатъий тийиб туриш ва ҳуқуқбузарларнинг хулқ-атворини ҳамда психологиясини яхши томонга ўзгартиришга қаратилган давлат органлари, жамоатчилик ва фуқаролар томонидан амалга ошириладиган махсус чоралар мажмуидир.

Хусусан, Республикамизда ушбу вазифани амалга ошириш мақсадида жиноятчиликнинг олдини олишга қаратилган мавжуд ижтимоий муносабатларни мувофиқлаштириш ҳамда жиноятларнинг сабаб ва шароитларини тугатишда ижтимоий, иқтисодий, сиёсий йўналишларда зарур чоралар кўришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Қайд этиш жоизки, ўтган вақт давомида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг бевосита раҳбарлиги ва ташаббуслари асосида фуқароларнинг тинч ва фаровон ҳаёт кечиришини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш, жиноятчиликка қарши курашиш борасида салмоқли ишлар амалга оширилди. Амалдаги барча қонун ҳужжатларини ҳар жиҳатдан мустаҳкамлаш ва замон талабига мос норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилишга ҳамда ижросини таъминлашга жиддий эътибор берилди. Хусусан, сўнги йилларда жиноятчиликка қарши курашиш ва содир этилаётган ҳуқуқбузарликларни олдини олиш борасида қатор қонун ҳужжатлари қабул қилинди. Ушбу ислохотлар замирида тергов қилишга ёки суд ишларини ҳал этишга аралаштириш жиноятининг олдини олиш масаласи долзарблигини йўқотмади.

Хусусан, Давлат Раҳбарининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ–4947-сон Фармони билан “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси қабул қилиниб унинг иккинчи йўналиши, яъни қонун устуворлигини таъминлаш ва суд-ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари бўйича қуйидагилар белгиланди[9]:

*ҳокимиятининг чинакам мустақиллигини таъминлаш, суднинг нуфузини ошириш, суд тизимини демократлаштириш ва такомиллаштириш:*

*судьялар ва суд аппарати ходимларининг мавқеини, моддий рағбатлантириш ва ижтимоий таъминот даражасини ошириш, судларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш;*

*судьяларга гайриқонуний тарзда таъсир ўтказишга йўл қўймаслик бўйича таъсирчан чоралар кўриш;*

*суднинг мустақиллиги ва бегаразлиги, суд процессида томонларининг тортишуви ва тенг ҳуқуқлилиги тамойилларини ҳар томонлама татбиқ этиш.*

Мазкур вазифалар ижроси юзасидан Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги (2017 й.), “Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги (2017 й.) қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги (2019 й.), “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги (2021 й.), “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” (2021 й.), “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги (2022 й.) фармонлари, “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги (2017 й.), “Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги (2017 й.) қарорлари қабул қилинди, Вазирлар Маҳкамаси томонидан Фуқаролар ва жамоат ташкилотларини ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашишдаги фаол иштироки учун рағбатлантириш тартиби тўғрисидаги низом (2018 й.), Жиноятларнинг сабаблари ва уларнинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни муҳокама қилиш тартиби тўғрисида низом (2021 й.)

тасдиқланди, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Жиноят сабаблари ва улар содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни аниқлаш бўйича судлар ролини ошириш тўғрисида”ги қарори (2020 й.) қабул қилинди ҳамда Давлат раҳбари томонидан ўтказилган йиғилишларда турли давлат органлари ва кенг жамоатчилик олдида турган муҳим вазифалар аниқ ва равшан белгилаб берилди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев бу борада қуйидагиларни таъкидлайди: “... ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш соҳасидаги ислоҳотларни янги босқичга кўтариш зарур”, деб катта вазифа қўйган эди.[10] Ушбу ҳужжатларнинг асл мақсадлари ҳам ҳуқуқбузарликлар ва содир этилиши мумкин бўлган жиноятларнинг олдини олиш ва содир этилиш ҳолатларининг камайтирилишига, барвақт олдини олишга эришишдир. “Биз, дейди Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев, “Адолат-қонун устуворлигида” деган тамойил асосида жамиятимизда қонунга ҳурмат, ҳуқуқбузарлик ҳолатларига муросасизлик ҳиссини кучайтиришга қаратилган ишлар яна давом эттирилади. Бу борада ҳуқуқбузарлик ҳолатларининг олдини олишга алоҳида эътибор қаратилади. Бунинг учун аввало, маҳалла имкониятларидан кенг фойдаланиш, профилактика инспекторларининг иш самараси ва масъулиятини ошириш, улар учун муносиб хизмат ва турмуш шароитини яратиб бериш чораларини кўришимиз даркор”.

Тергов ва суд органлари фаолиятига тўсқинлик қилувчи одил судловга қарши жиноятларнинг умумий профилактика чоралари махсус профилактика чоралари билан узвий алоқада амалга оширилиши керак бўлса-да, улар ўртасида қатъий чегара қўйиш қийин ва амалий жиҳатдан самарасиздир. Бироқ, умумий ижтимоий ва махсус профилактика ўртасидаги муайян боғлиқликни ажратиб кўрсатиш мумкин, уларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

а) умумий ижтимоий профилактика кўриб чиқиладиган ижтимоий муносабатларга махсус криминологик таъсир кўрсатишнинг шарти ва асоси ҳисобланади;

б) умумий ижтимоий чора-тадбирлар, аввало, режалаштирилиши ва амалга оширилиши керак, бу эса, махсус профилактика самарадорлиги учун қулай замин яратади, ўз навбатида, махсус профилактика умумий ижтимоий чора-тадбирлар самарадорлигига муайян таъсир кўрсатади;

в) умумий ва махсус профилактика чораларини комплекс қўллаш интенсивлигининг мувозанатини белгилаш ва амалга ошириш зарурати мавжуд, чунки фақат мазкур чораларнинг биронтасига афзаллик бериш мақсадга мувофиқ эмас;

г) профилактика чораларининг кўлами кўпинча одил судлов соҳаси билан чекланиб қолмайди, балки давлат мансабдор шахсларининг ваколатли шахс сифатидаги функцияларини, шунингдек, давлат органлари бошқарув вазифаларини амалга ошириш соҳаларига тааллуқлидир;

д) профилактика чоралари барча давлат органлари томонидан, қонунчилик, ижро ва суд ҳокимиятининг ваколатларига мувофиқ равишда амалга оширилади ва улар умумий ижтимоий йўналишдаги чоралар ҳамда адолат соҳасида жиноятчиликни махсус профилактика қилишни ўз ичига олади;

е) режалаштирилган чораларнинг сифатли мезони сифатида уларнинг мақсадли йўналтирилганлиги хизмат қилади, бунда умумий ижтимоий профилактика ўзига хос максимал дастур сифатида, махсус криминологик чора-тадбирлар эса минимал дастур сифатида, таъсир кўрсатиш объектлари ва муддатлари бўйича кўпроқ аниқ вазифаларни ҳал қилади;

ж) ушбу чораларни самарали қўллашнинг асоси уларнинг назарий асосланганлигидир.

#### ***Фойдаланилган адабиётлар:***

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2018 йил 27 июль кунидаги жиноятчиликнинг олдини олиш, давлат идоралари ва жамиятнинг бу

борадаги масъулиятини ошириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши. // [www.uzlidep.uz/news-of-uzbekistan/2565](http://www.uzlidep.uz/news-of-uzbekistan/2565)

2. Мотескье Ш. Избранные произведения. – М., 1955. – С. 231.

3. Никитенко И.В. Криминологическая характеристика миграционной преступности в приграничных территориях дальневосточного Федерального округа России. // Вестник Московского университета МВД России. – 2009. – №5. – С. 136.

4. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексида шарҳлар. Махсус қисм. – Тошкент: Илм зиё, 2006. – Б. 18.

5. Васильев В.Д. Концепции организации деятельности полиции и возможности их использования в отечественной практике: По материалам США и некоторых стран Западной Европы: Автореф. дисс... канд. юрид. наук. – М., 2005.

6. Нематов Ж.А. Уголовно-правовые и криминологические проблемы борьбы с транснациональной организованной преступностью: Дисс... докт. юрид. наук. – Ташкент: ТГЮИ, 2008. – С. 220.

7. Зиёдуллаев М.З. Ички ишлар органларининг таянч пунктларини бошқаришни такомиллаштириш. Юрид. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2019. – Б. 217.

8. Урда М.Н. Противодействия незаконной миграции как направление российской уголовной политики. // Актуальные проблемы российского права. – 2018. – № 4 (89). – С. 150.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ–4947-сон Фармони. // [www.lex.uz/docs/3107036](http://www.lex.uz/docs/3107036)

10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаати. // Халқ сўзи, 2020 йил, 25 январь.

## YOUTH POLICY AND YOUTH PARTICIPATION IN DIGITAL TECHNOLOGIES

Bukhara Technical University, Associate Professor,  
Department of Uzbek and Foreign Languages.  
**Tillayeva Shakhlo Maksudovna**

Youth is the most active and creative stratum of society; they form the basis of future politics, economy, and cultural life. Today's globalization and the rapid development of digital technologies require the broad involvement of young people not only in traditional social activities, but also in the digital environment<sup>1</sup>. Digital platforms, social networks, online education, and communication tools are creating new opportunities in youth policy. At the same time, the participation of young people in digital technologies plays an important role in increasing their civic engagement, ability to implement innovative ideas, and social activity<sup>2</sup>.

<sup>1</sup>Rasulova, G. (2021). *Youth policy and its role in society*. Tashkent: Science.

1. Youth policy and its importance Youth policy is a systematic activity of the state and society aimed at protecting the interests of young people, involving them in social, economic, and cultural life. In this regard, government agencies, non-governmental organizations, and educational institutions develop mechanisms to involve young people in political and social processes. Research shows that the political activity of young people determines their future role in society<sup>3</sup>.

2. Digital technologies and youth Digital technologies are emerging as the main means of communication, learning, creative, and social activities in the lives of young people. On digital platforms, young people have the opportunity to implement innovative ideas, increase civic engagement through social networks, and exchange knowledge. At the same time, digital literacy ensures that young people can function effectively and safely in the digital environment.

3. Ways to increase the participation of young people in digital technologies

1. Digital education and training: Engaging young people in learning digital technologies through online platforms, webinars, and courses.

2. Social projects and hackathons: Encouraging young people to actively participate in innovative projects.

3. Political and social platforms: Taking into account the opinions of young people through online consulting, political forums, and e-democracy tools.

4. Cultural and creative integration: Supporting creative and cultural projects of young people through digital media and interactive platforms.

<sup>2</sup>Karimov, A. (2020). *Digital technologies and youth participation*. Tashkent: Science.

### **Practical recommendations**

- Organize special trainings to familiarize young people with digital technologies and ensure their competent use.
- State and non-governmental organizations should develop programs for young people that increase social and political activity on digital platforms.
- Ensure that young people's online activities are safe and effective by increasing digital literacy.
- Encourage innovative and creative decision-making in society by integrating youth policy and digital technologies.

Youth participation in youth policy and digital technologies plays a crucial role in shaping the future of society, fostering innovation, and ensuring sustainable development. Engaging young people in political, social, and cultural processes through both traditional mechanisms and digital platforms strengthens civic responsibility, encourages social activism, and promotes creative problem-solving. The study demonstrates that digital technologies provide young people with unprecedented opportunities for communication, collaboration, and knowledge exchange, thereby enhancing their capacity to contribute meaningfully to society. Effective participation in these platforms increases awareness of public issues, supports the development of leadership skills, and nurtures a sense of ownership over community initiatives. Furthermore, the integration of youth policy with digital tools enables governments, educational institutions, and non-governmental organizations to tailor programs that align with the needs and aspirations of the younger generation.

<sup>3</sup>Maksudovna, T. Sh. (2021). *Co-Study Of Language And Culture In Mastering A Foreign Language*. Web of Scientist.

### **List of Sources**

1. Rasulova, G. (2021). *Youth policy and its role in society*. Tashkent: Science.
2. Karimov, A. (2020). *Digital technologies and youth participation*. Tashkent: Science.
3. Maksudovna, T. Sh. (2021). *Co-Study Of Language And Culture In Mastering A Foreign Language*. Web of scientist:
4. Maqsudovna, T. S. (2023). *Use Of Effective Methods In Teaching Foreign Languages*. *Journal Of Innovation, Creativity And Art*, 2(4), 87-89.
5. Johnson, L. (2021). *Digital platforms and civic participation*. New York: Springer.

## **ЖИНОЯТ ҚОНУНЧИЛИГИНИ ҚЎЛЛАШДА АЙБСИЗЛИК**

### **ПРЕЗУМПЦИЯСИ ПРИНЦИПИ: ЖИНОЯТНИ ЯШИРИШ НОРМАСИНИ**

### **ТАЛҚИН ҚИЛИШ МУАММОЛАРИ**

**Бахтиёржон Муродов,**

юридик фанлар доктори, профессор

Ҳуқуқий давлатнинг энг муҳим тамойилларидан бири – бу қонунларнинг аниқ ва равшанлигидир. Қонун матни ҳар қандай шахс учун тушунарли бўлиши, унда икки хил

маъно чиқариш имконияти бўлмаслиги керак. Бу, айниқса, жиноят қонунчилигида жуда муҳим, чунки жиноий жавобгарлик инсоннинг энг асосий ҳуқуқлари – эркинлик, шаън, қадр-қиммат билан боғлиқ.

Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституциясида айбсизлик презумпцияси принципи мустаҳкамланган. Унга кўра, "Жиноят содир этганликда айбланаётган шахс унинг айби қонунда назарда тутилган тартибда ошқора суд муҳокамаси йўли билан исботланмагунча ва суднинг қонуний кучга кирган ҳукми билан аниқланмагунча айбсиз деб ҳисобланади". Бу конституциявий норма Жиноят-процессуал кодексининг (ЖПК) 23-моддасида янада ривожлантирилган: "... қонун қўлланилаётганда келиб чиқадиган шубҳалар ҳам гумон қилинувчининг, айбланувчининг, судланувчининг ёки маҳкумнинг фойдасига ҳал қилиниши керак".

Бироқ, Жиноят кодексининг (ЖК) 241-моддасида жиноятларни яшириш учун жавобгарлик белгиланган. Модда матнида фақат "жиноятларни яшириш" деб ёзилган, "жиноятчини яшириш" ҳақида ҳеч нарса дейилмаган. Айнан мазкур ҳолатда "жиноят" ва "жиноятчи" тушунчалари бир хил маънони англатадими?, деган саволлар юзага келади. Агар шахс жиноят содир этган бошқа шахсни (масалан, гумон қилинувчини) яширса, бу "жиноятни яшириш" ҳисобланадими? Қонунда фақат "жиноят" деб ёзилган, "жиноятчи" эслаб ўтилмаган. ЖПКнинг 23-моддаси бўйича эса, агар қонунда ноаниқлик бўлса, у айбланувчи фойдасига ҳал қилиниши керак.

Фикримизча, ушбу нормалар ўртасидаги зиддиятни (коллизияни) таҳлил қилиш ва бу муаммони ҳал қилиш йўллари кўрсатиш, нафақат назарий, балки амалий жиҳатдан ҳам муҳим аҳамият касб этади. Ҳуқуқни қўллаш амалиёти таҳлилидан маълум бўладики, айрим ҳолларда шахс гумон қилинувчи, айбланувчини яширганлиги учун ЖК 241-моддаси бўйича жавобгарликка тортилмоқда. Ваҳоланки, қонунда фақат "жиноятни яшириш" деб ёзилган. Бу ҳолатда қонунни кенг маънода талқин қилиш (яъни, "жиноят" деганда "жиноятчи"ни ҳам тушуниш) содир бўляпти. Лекин, жиноят ҳуқуқида қонунни кенг талқин қилиш, уни шахс зарарига "кенгайтириш" мумкин эмас.

Назаримизда, мазкур масалаларга ойдинлик киритиш учун аввало, "жиноят" ва "жиноятчи" сўзларининг маъносини аниқлаб олишимиз лозим. "Жиноят" нима? Жиноят кодексининг 14-моддасига кўра, жиноят – Жиноят кодекси билан тақиқланган, айбли, ижтимоий хавфли қилмиш (ҳаракат ёки ҳаракатсизлик), жазо қўллаш таҳдиди билан жиноят деб топилади. Масалан, ўғрилик, одам ўлдириш, пора олиш – буларнинг барчаси жиноят, яъни ижтимоий хавфли қилмиш. "Жиноятчи" эса – ана шу жиноятни содир этган шахс. Бу тирик одам, инсон.

Эътиборлиси, ЖКнинг 31-моддасида "Жиноятчини, жиноят содир этиш қуроли ва воситаларини, жиноят изларини ёки жиноий йўл билан қўлга киритилган нарсаларни олдиндан ваъда бермаган ҳолда яширганлик ушбу Кодекснинг 241-моддасида назарда тутилган ҳоллардагина жавобгарликка сабаб бўлади. Олдиндан ваъда бермаган ҳолда жиноят ҳақида хабар бермаганлик ёки жиноятни яширганлик учун гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчининг яқин қариндошлари жавобгарликка тортилмайди", дея қайд этилган. Маълум бўладики, қонун чиқарувчи мазкур нормада "жиноятни яшириш" ва "жиноятчини яшириш" тушунчалари алоҳида-алоҳида келтирилган. Яъни, қонун чиқарувчининг ўзи бу билан икки тушунчани бир-биридан фарқ қилишини кўрсатган. Лекин, 241-модданинг ўзида эса фақат жиноятларни яшириш ҳолати қайд этилиб, жиноятчини яшириш ҳақида ҳеч нарса баён этилмаган. Мазкур ҳолатда табиий савол туғилади, яъни агар 31-моддада икки тушунча бир-биридан ажратилган бўлса, нега 241-моддада фақат биттаси келтирилган? Бу қонун чиқарувчининг хатосими ёки атайин шундай қилинганми?

Ушбу саволларга жавоб бериш учун 241-моддада ўз ифодасини топган "жиноятларни яшириш" иборасининг маъносини лингвистик жиҳатдан чуқурроқ таҳлил қилим. Эътибор берсак "Жиноятлар" сўзи кўпликда келган. Ўзбек тилида кўплик сони умумийликни (масалан, "китобларни севаман" деганда ҳамма китоблар назарда тутилади) ёки бир нечта

аниқ объектни англатиши мумкин. Қизиғи, бу модданинг рус тилидаги матнида "жиноят" сўзи бирлик шаклида ("преступление") ишлатилган. Бу ҳам бир ноаниқлик.

"Яшириш" сўзи эса ҳаракат номи. Узоқ давом этадиган ёки такрорланадиган ҳаракатни англатади. Масалан, агар бир одам жиноятчига бир кеча бошпана берса, буни "яшириш" дейиш мумкинми? Луғавий жиҳатдан мумкин, чунки ҳаракат номи бир марталик ҳаракатни ҳам қамраб олади. Аммо бу ҳам аниқлик талаб қилади.

Энди "яшириш" сўзининг луғавий маъносига қарайлик. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида "яширмақ" – беркитмақ, пинҳон тутмақ, ошкор қилмаслик деган маънони билдиради. "Жиноят" эса – жамият учун хавfli бўлган қилмиш.

Демак, "жиноятни яшириш" ибораси тўғридан-тўғри маънода "жиноят деб аталмиш ҳодисани беркитиш, ошкор қилмаслик"ни англатади. Бу эса фақатгина бирор воқеа-ҳодисага нисбатан ишлатилиб, шахсга нисбатан қўллаб бўлмайди.

Энди мантикий таҳлил ўтказамиз. Бу ерда "жиноят факти" ва "жиноят далиллари" тушунчаларини фарқлаш жуда муҳим.

Тасаввур қилинг, бирор жиноят содир бўлди (масалан, ўғрилиқ). Тергов органлари бу ҳақда билиб, жиноят иши қўзғатди. Энди бу жиноят факти (воқеанинг ўзи) расман маълум бўлди, тергов ҳужжатларида қайд этилди. Шундан кейин бу фактни "яшириш"нинг имкони борми? Йўқ, албатта. Чунки у расман маълум, ҳужжатларда бор. Демак, жиноят иши қўзғатилгандан кейин "жиноят фактини яшириш" мантиқан имконсиз.

Аммо жиноятнинг далилларини (жиноят қуроли, жиноят излари, жиноят йўли билан топилган нарсалар, ҳужжатлар, видеотасмалар ва ҳоказолар) яшириш мумкин. Терговчиларга маълум бўлмаган пичокни ёки компьютердаги маълумотларни ўчириш ёки жиноятчининг кийимидаги қон изларини ювиб юбориш мумкин. Булар "далилларни яшириш"дир.

Яна бир нарса – жиноятчини яшириш. Жиноят содир этган одамни беркитиш, унга бошпана бериш, уни бошқа шаҳарга олиб кетиш ва ҳоказо.

Шундай қилиб, биз уч хил нарсани фарқлашимиз керак:

1. Жиноят факти – содир бўлган воқеанинг ўзи (тергов қўзғатилгандан кейин уни яшириб бўлмайди);

2. Жиноят далиллари – воқеани исботловчи нарсалар, излар, ҳужжатлар (буларни яшириш мумкин);

3. Жиноятчи – жиноят содир этган шахс (уни яшириш мумкин).

ЖК 241-моддасида эса фақат "жиноятларни яшириш" кўрсатилган. Демак, маълум бўладигани, ЖКнинг 241-модда бўйича шахсни жавобгарликка тортиш учун фақат шахс жиноятни, яъни жинойий фактни яширган бўлиши лозим. ЖК 23-моддасига кўра эса, қонун қўлланилаётганда келиб чиқадиган шубҳалар ҳам гумон қилинувчининг, айбланувчининг, судланувчининг ёки маҳкумнинг фойдасига ҳал қилиниши керак.

Бу масала юзасидан олимлар ўртасида турли фикрлар мавжуд. М.Ҳ.Рустамбаев ва А.С.Якубов каби анъанавий мактаб вакиллари "жиноятни яшириш" тушунчасини кенг маънода талқин қилиб, унинг таркибига "жиноятчини яшириш"ни ҳам киритадилар. Уларнинг фикрича, амалиётда жиноятни яшириш деб баҳоланаётган ҳаракатларнинг аксарияти аслида жиноятчини яширишдир. Судлар эса ЖК 241-моддасини кенг талқин қилиб, бу икки тушунчани тенглаштирмақда.

Б.Х. Пулатов эса бу фикрга қўшилмайди. Унинг таъкидлашича, жиноят қонунчилиги нормаларини талқин қилишда қонун чиқарувчининг иродаси, қонуннинг матни ва ундаги тушунчаларнинг аниқ маъноси асос қилиб олиниши керак. Қонуннинг матнида мавжуд бўлмаган маънони унга "киритиш" аналогиянинг бир кўринишидир ва бу жиноят ҳуқуқида мумкин эмас.

Ҳақиқатан ҳам, агар қонун чиқарувчи ЖК 31-моддасида "жиноятни яшириш" ва "жиноятчини яшириш" тушунчаларини ажратган бўлса, демак у бу икки тушунчани фарқлайди. Агар у 241-моддада фақат "жиноятни яшириш"ни кўрсатган бўлса, демак "жиноятчини яшириш"ни жазолашни истамаган (ёки буни алоҳида моддада кўрсатишни

режалаштирган, аммо кейин унутиб қолдирилган бўлиши мумкин). Ҳар икки ҳолда ҳам, судлар "жиноятчини яшириш"ни ҳам 241-модда билан қамраб олишга ҳақли эмас.

Қонуннинг мақсади нуқтаи назаридан қарайдиган бўлсак, ЖК 241-моддасининг ижтимоий мақсади – одил судлов органларининг жиноятларни очиш ва жиноятчиларни жавобгарликка тортиш фаолиятига тўсқинлик қилишнинг олдини олиш. Бу мақсад нуқтаи назаридан, жиноят фактини яшириш (агар имкон бўлса), жиноят далилларини яшириш ва жиноятчини яшириш – уччаласи ҳам бир мақсадга – одил судловга тўсқинлик қилишга қаратилган. Демак, назарий талқин бўйича, уч ҳолат ҳам бир хил баҳоланиши керак. Аммо муаммо шундаки, қонунийлик принципига кўра, қонуннинг мақсади унинг матнида аниқ ифодаланган бўлиши керак. Қонун матнида фақат биринчи ҳолат кўрсатилган бўлса, қолган икки ҳолатни унга "кўшиб" тушуниш хато ҳисобланади.

Бизнинг назаримизда, мазкур муаммони ҳал этишда айрим хорижий давлатлар жиноят қонунчилиги тажрибасини таҳлил қилиш муҳим аҳамият касб этади.

Германия Жиноят кодексининг 258-моддаси ("Strafvereitelung" – жазодан қочишга ёрдам бериш)га мувофиқ, кимки ўзи ёки бошқа шахс учун жиноий жазодан қочиш имкониятини яратса, жиноий жавобгарликка тортилади. Мазкур нормага хос жиҳат шундаки, модданинг 6-қисмида жиноятчининг яқин қариндоши бўлган шахс жазодан қочишга ёрдам берганлик учун жавобгарликка тортилмаслиги белгиланган. Германия модели функционал ёндашувга асосланган бўлиб, унда "жазодан қочишга ёрдам бериш" тушунчаси қўлланилади. Бу ерда муҳофаза қилинаётган объект сифатида нафақат шахс, балки унинг жазодан қочиш имконияти ҳам назарда тутилади.

Франция Жиноят кодексининг 434-6-моддасида эса "recel de criminel" (жиноятчини яшириш) мустақил жиноий таркиб сифатида белгиланган. Унга кўра, жиноятчини яшириш ёки унинг жазони ўташдан қочишига ёрдам бериш билан боғлиқ ҳаракатлар жиноий жавобгарликка сабаб бўлади. Шу билан бирга, Франция қонунчилигида ҳам яқин қариндошлар учун жиноий жавобгарликдан озод қилишга оид нормалар кенг қўлланилади.

Қозоғистон Республикаси Жиноят кодексининг 432-моддасида аралаш ёндашув қўлланилган. Унда "жиноятни яшириш" ва "жиноятчини яшириш" тушунчалари алоҳида фарқланади. Шунингдек, гумон қилинувчини яшириш ҳам жиноий жавобгарликка сабаб бўлиши мумкинлиги назарда тутилган. Мазкур нормаларда процессуал мақомлар — гумон қилинувчи, айбланувчи ва судланган шахс тушунчалари аниқ ажратилган. Бундан ташқари, яқин қариндошлар иммунитетини ҳам мустаҳкамланган.

Россия Федерацияси Жиноят кодексининг 175-моддаси ("Ўғирлик йўли билан қўлга киритилган мол-мулкни сотиб олиш ёки реализация қилиш") ва 316-моддаси ("Жиноят ҳақида хабар бермаслик")да жиноятчини яшириш алоҳида жиноий таркиб сифатида ажратилмаган, балки жиноятга дахлдорликнинг бир кўриниши сифатида баҳоланади. Суд амалиётида "жиноятни яшириш" тушунчасига нисбатан кенг талқин қўлланилиб, унинг таркибига жиноятчини яшириш ҳолатлари ҳам киритилади. Бу эса айрим ҳолларда жиноят қонунининг аналогия бўйича қўлланилишига олиб келиши мумкин.

Фикримизча, хорижий тажрибанинг таҳлили асосида Ўзбекистон учун мақбул модель сифатида Қозоғистон модели (аралаш ёндашув) энг мос келади деган хулосага келиш мумкин. Бунинг сабабларини куйидагиларда кўриш мумкин: ҳуқуқий тизимларнинг яқинлиги – Қозоғистон ҳуқуқий тизими постсовет маконида шаклланган ва Ўзбекистон тизими билан кўп ўхшашликларга эга; тушунчаларнинг аниқ фарқлангани – Қозоғистон ЖК 432-моддасида "жиноятни яшириш", "жиноятчини яшириш" ва "гумон қилинувчини яшириш" тушунчалари аниқ фарқланган; процессуал мақомларнинг ҳисобга олинганлиги – гумон қилинувчи, айбланувчи ва судланган шахс тушунчаларининг фарқланиши айбсизлик презумпциясига тўлиқ мос келади; яқин қариндошлар иммунитетининг мустаҳкамлангани – бу Конституциянинг 27-моддаси ва ЖПКнинг 74-моддаси билан уйғунлашади.

Германия моделининг элементлари (айниқса, "жазодан қочишга ёрдам бериш" функционал ёндашуви) Қозоғистон моделига кўшиб олиниши мумкин. Франция модели эса яқин қариндошлар иммунитетининг янада кенгайтирилиши борасида ибратлидир.

Хуқукни қўллаш амалиётининг таҳлил қиладиган бўлсак, 2022-2024 йилларда Ўзбекистон судлари томонидан ЖК 241-моддаси бўйича кўрилган биз ўрганган ишларнинг: 78 фоиз ҳолларда жиноят ҳақидаги маълумотларни яширган; 15 фоиз ҳолларда шахс жиноятчини (яъни шахсни) яширган; 7 фоиз ҳолларда жиноят далилларини яширган.

Бу рақамлар шуни кўрсатадики, ЖК 241-моддасидаги ноаниқлик натижасида фуқароларнинг ҳуқуқлари бузилишига сабаб бўлмоқда. Юқоридаги таҳлиллар асосида куйидаги таклифларни илгари суриш мумкин:

**Биринчи таклиф:** ЖК 241-моддасини янги таҳрирда қабул қилиб, унда “жиноятни яшириш”, балки "далилларини яшириш" ва "жиноятчини яшириш" тушунчалари аниқ фарқланиши, рақамли далиллар ҳисобга олинishi, процессуал мақомлар (гумон қилинувчи, айбланувчи, судланган шахс) аниқ белгиланиши, яқин қариндошлар иммунитетини мустаҳкамланиши керак. Хусусан, куйидаги мазмундаги таҳрир таклиф этилади:

#### **241-модда. Жиноятни ёки жиноятчини яшириш**

Олдиндан ваъда қилинмаган жиноят далилларини (жиноят изларини, жиноят қуролларини ва воситаларини, жиноят йўли билан топилган нарсаларни, электрон ва рақамли далилларни) яшириш – базавий ҳисоблаш миқдорининг эллик бараваридан юз бараваригача миқдорда жарима ёки уч йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёхуд уч йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Жиноят содир этишда гумон қилинаётган, айбланаётган ёхуд жиноят содир этганликда судланган шахсни унинг жинойий жавобгарликдан ёки жазони ўташдан қочишига ёрдам бериш мақсадида яшириш – базавий ҳисоблаш миқдорининг юз бараваридан икки юз бараваригача миқдорда жарима ёки уч йилдан беш йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёхуд уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Ушбу модданинг биринчи ва иккинчи қисмларида назарда тутилган жиноятларни содир этган шахс, агар у жиноят содир этган эри (хотини), ота-онаси, фарзанди, ака-укаси, опа-сингили, бобо-бувиси ёки набирасини яширган бўлса, жинойий жавобгарликка тортилмайди.

**Иккинчи таклиф:** ЖПК 23-моддасини қўллаш механизмини такомиллаштириш. Жумладан, қонунни қўллашда юзага келадиган шубҳаларнинг турлари (лингвистик шубҳалар, мантиқий шубҳалар, коллизион шубҳалар) аниқ белгиланиши ва уларнинг барчаси айбланувчи фойдасига ҳал этилиши лозимлиги кўрсатилиши керак.

Хулоса қилиб айтганда, бу таклифларнинг амалга оширилиши жиноят қонунчилигидаги лингвистик ноаниқликларни бартараф этиш, фуқароларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва одил судлов самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

## **ENERGETIKA SOHASIDA EKOLOGIK TALABLARNI BUZGANLIK UCHUN YURIDIK JAVOBGARLIKNING HUQUQIY MEXANIZMLARI**

**Xayitov panji buxarovich,**

Toshkent xalqaro universiteti “huquqiy fanlar”  
kafedrasi dotsenti, yu .f.f.d (phd)

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi turmush darajasi va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizning turli hududlarida yirik bunyodkorlik ishlari olib borilib, ishlab chiqarish va infratuzilma tizimlari modernizatsiya qilinmoqda. Mazkur jarayonlarda energetika tizimining barqaror va samarali faoliyat yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda fuqarolar duch kelayotgan dolzarb muammolardan biri energiya resurslari bilan bog‘liq masalalardir. Jahon miqyosida iqlim o‘zgarishi, aholi sonining ortib borishi hamda sanoat ishlab chiqarishining kengayishi yoqilg‘i-energiya resurslariga bo‘lgan talabning sezilarli darajada oshishiga olib kelmoqda. Ayniqsa kuz-qish mavsumida elektr energiyasi va issiqlik resurslariga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchayadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham energetika tizimini rivojlantirish va energiya xavfsizligini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “**O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida**”gi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida yangi elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, elektr tarmoqlarini yangilash hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan.

Rivojlanayotgan davlatlarda sanoatning kengayishi bilan birga ishonchli energiya ta‘minotiga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Energiya iste‘molining oshishi aholining daromadlari ortishi, o‘rta sinf shakllanishi va turmush darajasining yaxshilanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Hozirgi kunda jahonda iste‘mol qilinadigan birlamchi energiya resurslarining muayyan qismi shamol, quyosh, gidro va geotermal kabi qayta tiklanuvchi manbalar hisobiga ta‘minlanmoqda hamda ushbu sektor kelgusi yillarda ham barqaror o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lishi kutilmoqda.

Mazkur sharoitda energetika sohasida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik-huquqiy talablarni buzilishining oldini olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Energetika sohasida ekologik-huquqiy talablarni buzganlik uchun javobgarlik masalasi huquqiy javobgarlikning umumiy nazariyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mazkur institutni chuqur o‘rganish huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning mazmunini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, energetika sohasida ekologik-huquqiy talablarni buzganlik uchun yuridik javobgarlik masalalari yetarli darajada ilmiy tadqiq etilmaganligi kuzatiladi. Mazkur holat ushbu sohada mavjud huquqiy mexanizmlarni chuqur tahlil qilish, ularni takomillashtirish hamda ekologik xavfsizlikni ta‘minlashning samarali usullarini ishlab chiqishni talab etadi.

Mamlakatimizda elektr energetika sohasida mavjud muammolar, energetika xavfsizligini ta‘minlash jarayonida ekologik-huquqiy talablarni buzganlik uchun yuridik javobgarlik masalalari hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha olimlarning ilmiy qarashlari va tadqiqotlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanildi.

Energetika tizimida ekologik-huquqiy talablarni buzganlik uchun yuridik javobgarlik institutining mohiyati, avvalo, yuridik javobgarlikning umumiy nazariyasi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Mazkur sohada javobgarlik normalari tegishli huquqiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yuridik javobgarlik funksiyalarini tahlil qilish zarurati, birinchi navbatda, energetika sohasida amal qilayotgan qonunchilikning samaradorligini oshirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Energetika sohasidagi huquqiy javobgarlikni o‘rganishda quyidagi asosiy tushunchalar muhim ahamiyatga ega.

**G‘ayriijtimoiy xulq-atvor** — bu shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga zid ravishda namoyon bo‘ladigan harakati yoki harakatsizligidir.

**Huquqbuzarlik** — huquq normalari talablariga zid ravishda sodir etiladigan hamda shaxs, jamiyat yoki davlat manfaatlariga zarar yetkazuvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir.

**Huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi** — huquqbuzarlik oqibatida jismoniy, ma‘naviy yoki mulkiy zarar ko‘rgan shaxsdir.

**Huquqbuzarliklar profilaktikasi** — huquq-tartibotni ta‘minlash, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularning oldini olish, shuningdek ularning sodir etilishiga sabab bo‘layotgan omillarni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy chora-tadbirlar tizimidir.

**Huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxs** — g‘ayriijtimoiy xulq-atvori tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli mavjud bo‘lgan jismoniy shaxs hisoblanadi.

Energiya sohasidagi qonun talablarini buzganlik uchun javobgarlikning muhim turlaridan biri iqtisodiy javobgarlik hisoblanadi. Ushbu javobgarlik turi energiya resurslaridan foydalanish

jarayonida atrof muhitga yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq bo'lib, zarar pul shaklida undirilishi orqali namoyon bo'ladi. Mazkur javobgarlik quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- energiya resurslaridan belgilangan meyorlar asosida foydalanish;
- energiya resurslaridan nooqilona foydalanish natijasida yetkazilgan zararni qoplash;
- energiya resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan to'lovlar;
- energiya ishlab chiqarish jarayonida atrof muhitni ifloslantirganlik uchun to'lovlar.

Energiya sohasidagi qonun talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik esa energetika faoliyati bilan bog'liq qonun normalari va talablarini buzish, energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish yoki ularni muhofaza qilish qoidalariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq energetika sohasidagi huquqbuzarliklar uchun quyidagi yuridik javobgarlik turlari nazarda tutilgan:

- intizomiy javobgarlik;
- ma'muriy javobgarlik;
- fuqarolik-huquqiy javobgarlik;
- jinoiy javobgarlik.

Shu bois, bugungi kunda energetika sohasidagi huquqbuzarliklar hamda ushbu sohada sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish va samarali huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur muammoning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ko'rib chiqilib, kelgusi yildan elektr energiyasi sotishdan tushadigan mablag'larning 15 foizini investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kreditlarni qaytarish uchun yo'naltirish lozimligi ta'kidlandi. Shuningdek, Yurtboshimiz qo'shni davlatlar energiya tizimlariga tranzit xizmati ko'rsatish, buning uchun qo'shni davlatlar bilan muzokaralarni yo'lga qo'yib, respublikaning tranzit va eksport salohiyatidan ununli foydalanish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqilishi bo'yicha tegishli vazirlik va mutasaddilarga topshiriq berdi. Energiya ishlab chiqaruvchi yangi quvvatlarni yaratish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish "O'zbekenergo" jamiyatining asosiy vazifasi bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

Shu bois, har bir fuqaro, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar energiya resurslaridan oqilona foydalanish, energetika sohasiga oid qonun talablarini puxta bilish hamda ularga qat'iy rioya etishlari zarur. Ayniqsa, kundalik hayot faoliyatida energiya resurslaridan samarali va tejamkor foydalanish, ularni belgilangan tartib va qoidalar asosida qo'llash hamda qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, energetika sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning o'ziga xos belgilari mavjud bo'lib, aynan shu belgilar ushbu huquqbuzarliklarning mazmun-mohiyatini tavsiflaydi. Energetika sohasidagi huquqbuzarliklarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

**Birinchi**dan, ayblilik belgisi. Energetika sohasidagi huquqbuzarlik, odatda, yuridik javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan shaxs tomonidan sodir etiladi. Bunda shaxs energetika huquqi normalarini qasddan yoki ehtiyotsizlik natijasida buzadi. Ayblilik deganda, shaxsning sodir etilgan noqonuniy harakatga hamda uning zararli oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabati tushuniladi. Tasodifiy holatlar yoki baxtsiz hodisalar natijasida aybsiz tarzda zarar yetkazilishi esa energetika sohasidagi huquqbuzarlik sifatida baholanmaydi.

**Ikkinchi**dan, ijtimoiy xavflilik darajasi. Energetika sohasidagi huquqbuzarliklar jamiyat va davlatning energetika tizimi, energetika sohasidagi boshqaruv hamda davlat energetika siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, bunday huquqbuzarliklar energiya iste'molchilarining huquq va qonuniy manfaatlariga ham zarar yetkazishi ehtimoli mavjud.

Huquqiy adabiyotlarda javobgarlikning u yoki bu turlari funksiyalari yoxud yuridik javobgarlikning butun boshli tizimi funksiyalari masalalariga ancha-muncha e'tibor qaratilgan. Ammo bunday yuridik javobgarlik funksiyalari soni va mohiyati turlicha talqin qilinadi.

Masalan, I.A.Talagan ma'muriy javobgarlikning quyidagi maxsus funksiyalari mavjudligini ta'kidlab o'tadi: jarima, jazo va tuzatish funksiyasi, huquqbuzarlarni qayta tarbiyalash.

U.T.Ayubovning fikricha "ekologiyaga doir qonunchilikni buzganlik uchun yuridik javobgarlik o'zining asosiy maqsadi va tamoyillari bilan bog'liq qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikdan farq qilmaydi, ammo ima'lum bir o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ushbu xususiyatlar yetkazilgan zararni taksa uslubi asosida undirish va ekologik qonun hujjatlarini buzganlik uchun maxsus jazo choralari, ya'ni tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, tuxtatib turish va undan mahrum qilish choralari qo'llashdan iboratdir".

Shunday qilib Energetika sohasida ekologik huquqiy talablarni buzganlik uchun javobgarlik masalalari energetika sohasidagi buzilgan ijtimoiy munosabatlarni tiklashni, ijtimoiy hayotning ushbu sohasida o'rnatilgan huquq-tartibotni saqlab qolishni ta'minlashga yo'naltirilgan javobgarlik choralari kompleksini majmuasini anglatadi.

Bu qoidalar Y.S.Shemshuchenkning fikrlarida ham ifoda etilgan. U shunday deb yozadi: "Yuridik javobgarlik atrof-muhit muhofazasi sohasida keng qo'llaniladigan yuridik javobgarlik, ya'ni ma'muriy, moddiy, intizomiy va jinoiy javobgarlik turlari majmuasidan bo'lak narsa emas".

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22-son qarori bilan tasdiqlangan «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari»ning 12-bobi. Tarmoqlar, asbob va uskunalarni saqlash va ishlatish bo'yicha abonentning majburiyatlari Abonent ishlatilayotgan energetika tarmoqlari, asbob va uskunalarning zarur texnikaviy holati va xavfsizligini ta'minlashi, energiya ishlatishning belgilangan tartibiga amal qilishi, shuningdek avariylar, yong'inlar, energiyani o'lchash asboblaridagi nosozliklar va energiyadan foydalanish paytida kelib chiqadigan boshqa buzilishlar to'g'risida energiya bilan ta'minlovchi tashkilotga darhol xabar berishi lozim. Energetika tarmoqlari, asbob va uskunalarning texnik holatiga va ularni ishlatishga qo'yiladigan talablar, shuningdek ularga rioya etilishini nazorat qilish tartibi qonun hujjatlariga bilan belgilanadi. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22-son qarori bilan tasdiqlangan "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari" va "Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari".

Amaldagi qonunchilikka muvofiq iste'molchilarga elektr energiyasi hamda tabiiy gaz shartnoma asosida, ulardan foydalanish qoidalariga rioya qilingan holda yetkazib beriladi. Mazkur shartnomalarda taraflarning huquq va majburiyatlari, energiya resurslarini hisobga olish asboblarini o'rnatish tartibi, elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari hamda boshqa muhim masalalar kelishib olinadi. Ushbu qoidalarga rioya etilmagan taqdirda tomonlar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va energetika tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. yoqilg'i-energetika sohasidagi mavjud eskirgan infratuzilmani modernizatsiya qilish va bosqichma-bosqich yangilash;
2. faoliyat yuritayotgan elektr stansiyalarini kapital ta'mirlash hamda zamonaviy texnologiyalar asosida yangi elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish;
3. qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan qurilmalarni joriy etish uchun xorijiy va mahalliy investorlarni keng jalb qilish hamda investitsiya muhitini yanada takomillashtirish;
4. quyosh, shamol va gidroenergetika kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish orqali energetika tizimining barqarorligini ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda energetika barqarorligini ta'minlash hamda ekologik xavfsizlikni mustahkamlashda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, quyosh, shamol va suv energiyasi imkoniyatlaridan oqilona foydalanish O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini ta'minlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda aholi salomatligini asrashga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 3 oktabr kuni elektr energetikasidagi ishlar ahvolini chuqur tahlil qilish, sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni belgilashga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi. Elektr energetika sohasini rivojlantirish masalalari tahlil so‘zi 2018 yil 4 oktabr.

2. Xolmo‘minov J.T Energetika huquqi. O‘quv qo‘llanma Termiz davlat universiteti 2022 y 291-292 betlar.

3. Ekologiya huquqi. – T.: Yozuvchi, 2001. 92-bet.

4. Й.С.Шемшученко “Экологическая права”, -М.: Издательство “Юрист”, 2004 г.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22-son qarori bilan tasdiqlangan “Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari”ning 12-bobi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22-son qarori bilan tasdiqlangan «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari» va «Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari».

## ХАР БИР ИНСОННИНГ АЖРАЛМАС ХУКУКИ - ЯШАШ ХУҚУҚИДИР

Юриспруденция факультети  
“Хуқуқий фанлар” кафедраси  
ю.ф.н., доц. Г.С. Шарипова

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлис Сенати ва Қонунчилик палатасига Мурожаатномасида мамлакатимиз иқтисодиётини ривожлантириш масалаларига энг муҳим вазифалар сифатида қараб, инсон манфаати ва яна бир бор инсон манфаати ислохотларнинг бош мақсади этиб белгиланганлиги аҳоли турмуш даражаси ошишига давлат сиёсати даражасида аҳамият берилаётганлигидан далолатди<sup>162163</sup>. Ўзбекистон Республикаси Конституциянинг «Шахсий ҳуқуқ ва эркинликлар», «Сиёсий ҳуқуқлар», «Иқтисодий ва ижтимоий ҳуқуқлар» деб номланган бўлимларида шахснинг ҳуқуқва эркинликларини ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий базаси ўз аксини топган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлис Сенати ва Қонунчилик палатасига Мурожаатномасида мамлакатимиз иқтисодиётини ривожлантириш масалаларига энг муҳим вазифалар сифатида қараб, инсон манфаати ва яна бир бор инсон манфаати ислохотларнинг бош мақсади этиб белгиланганлиги аҳоли турмуш даражаси ошишига давлат сиёсати даражасида аҳамият берилаётганлигидан далолатди<sup>164165</sup>. Ўзбекистон Республикаси Конституциянинг «Шахсий ҳуқуқ ва эркинликлар», «Сиёсий ҳуқуқлар», «Иқтисодий ва ижтимоий ҳуқуқлар» деб номланган бўлимларида шахснинг ҳуқуқва эркинликларини ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий базаси ўз аксини топган.

Ўзбекистон Республикасида демократик ҳуқуқий давлат ва унинг энг муҳим мақсадли вазифалардан бири фуқаролик жамиятни куриш булиб, у Ўзбекистон

1. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида. –Т.: «Адолат» нашриёти, 2015.
2. Инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари —олий қадрият. Акмал Саидов. <https://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/8638-inson-u-u-lari-va-erkinliklari-olij-adriyat>
3. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
4. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.10.2020 й., 06/20/6079/1349-сон.
5. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.12.2022 й., 07/22/447/1118-сон.
6. Yangi tahrirlagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘quv qo‘llanma. –Т.:«Yuridik adabiyotlar publish» нашриёти, 2024. –Б.137.
7. Янгиланаётган Конституция 100 саволга 100 жавоб. –Т.: «Адолат» нашриёти, 2023. –Б.67-68.

8. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 25.05.2023 й., 07/23/162/0295-сон.
9. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 37-сон, 977-модда.
10. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2018.

## YASHASH HUQUQIGA O‘LIM JAZOSINING TA’SIRI

**Qo‘z xaydarov Ro‘zinbek Abduqaxor o‘g‘li**

Tashkent International University  
Yurisprudensiya fakulteteti 2 – bosqich talabasi  
[rozinbekqozxaydarov@gmail.com](mailto:rozinbekqozxaydarov@gmail.com)

Bugungi globallashtirish davrida inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish xalqaro hamjamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, yashash huquqi barcha huquqlarning asosi bo‘lib, uning buzilishi inson qadr-qimmatini va adolat tamoyillariga jiddiy zarar yetkazadi. Shunga qaramay, dunyoning ayrim davlatlarida o‘lim jazosi hanuzgacha qo‘llanilmoqda. Bu holat yashash huquqining universalligi va daxlsizligi masalasida keskin bahs-munozaralarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli o‘lim jazosining yashash huquqiga ta’sirini ilmiy-huquqiy jihatdan o‘rganish va uni zamonaviy inson huquqlari standartlari nuqtai nazaridan baholash mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Uning asosiy maqsadi — o‘lim jazosining yashash huquqiga ta’sirini xalqaro va milliy huquq normalari asosida tahlil qilish, uning inson huquqlari tizimidagi o‘rnini aniqlash hamda o‘lim jazosini bekor qilishning huquqiy va ijtimoiy ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Annan “Inson huquqlari hammaning va har kimning qadr-qimmatini hamda inson shaxsi huquqlari daxlsizligini tasdiqlaydi. Inson huquqlari har bir kishiga, har bir shaxsga xos bo‘lib, davlat hokimiyatining biron bir organi tomonidan in’om etilmaydi va bunday organlarga bog‘liq bo‘lmaydi ham” deb ta’kidlagan.<sup>170</sup>

Inson huquqlarini shakllanish tarixini kuzatadigan bo‘lsak, Odamlar birinchi oila bo‘lib yashaganliklar bois o‘z huquqlariga ega edi. Millodan avvalgi 539 yilda Buyuk Kir Bobil shahrini egalab bir ish qilgan yani bor qullarni ozod qilib ularga o‘z diniga ega bo‘lish haqida takidlagan bu bayonotni o‘z ichiga olgan Cyurs Cyulinder – bu tarixdagi birinchi deklaratsiya tuzilgan bo‘lib u tezlik bilan Hindiston va Gretsiya va so‘ngida Rim hududlariga tarqalgan hisoblanadi<sup>171</sup>.

Shaxsning yashash huquqi – Insoning tug‘ilishi bilan vujudga keluvchi, uning biologik mavjudligini ta’minlovchi hamda davlat tomonidan albatta muhofaza etiluvchi huquq. Yashash huquqi eng asosiy huquq hisoblanib, hattoki urush yoki favqulodda holat e’lon qilingan taqdirida ham hech qanday tarzda cheklanishi mumkin emas<sup>172</sup>. Yashash huquqi quyidagi normalar orqali ta’minlanadi: Inson Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiyaning 3 – moddasida, 1999-yil 39-sonli Inson huquqlari to‘g‘risidagi qonunda shuningdek, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktda Yevropa Ittifoqining Asosiy huquqlar xartiyasi, Amerika konvensiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 moddasida alohida e’tiborga olingan. Shaxsning yashash huquqi tug‘ilgan paytdan boshlab yuzaga keladigan tabiiy va daxlsiz huquq sifatida tan olinadi va u hukumat va qonunlar mavjudligidan qat’i nazar, shaxsga tegishli<sup>173</sup>.

Platon, o‘z navbatida, o‘lim jazosini poklanish vositasi sifatida ko‘rdi, chunki jinoyatlar „ifloslanish“dir. Shunday qilib, qonunlarda u tasodifan odamning o‘limiga sabab bo‘lgan hayvonni yoki obyektini yo‘q qilishni zarur deb hisoblaydi. Shunday qilib, qotillik ruhning kasalligi

---

<sup>170</sup>../282-286.pdf

<sup>171</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/inson-huquqlari-tushunchasi-va-uning-amaliyotda-qo'llanilayotgan-tamoyillari/viewer>

<sup>172</sup>Konstitutsiyaviy huquq [Matn]: darslik / Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 800 b.

<sup>173</sup><https://yuz.uz/news/yashash--insonning-tabiiy-huquqi>

bo'lib, uni iloji boricha qayta tarbiyalash kerak va agar rehabilitatsiya imkoni bo'lmasa, oxirgi chora sifatida o'limga hukm qilish kerak.<sup>174</sup>

Huquqshunos Farhod Primovning ta'kidlashicha, o'lim jazosini qo'llash jinoyatchilikka qarshi kurashishda malakali yoki samarali yechim hisoblanmaydi. "O'lim jazosi bekor qilinganidan keyin jinoyatchilik soni ko'payganmi, degan masalani tahlil qilib ko'rdik. Bilamizki, 2008-yilgacha qasddan odam o'ldirgan shaxs uchun o'lim jazosi belgilangan edi. Hozir qasddan odam o'ldirish holatlari ko'paydimi? 2008—2021-yilgacha qasddan odam o'ldirish va qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilish holatlari 2 baravar kamaygan. Ha, jazo bekor qilingandan keyin ham kamayish kuzatilgan. Ya'ni o'lim jazosi oxirgi, malakali yoki samarali yechim hisoblanmaydi. Yana bir jihati, ko'plab davlatlarda o'lim jazosi belgilangan. Ammo jinoyatchilik kamayib qolgani yo'q. Aksincha, ko'paygan holatlar ham bo'ladi. Masalan, ba'zi davlatlarda korrupsiya uchun o'lim jazosi belgilangan. Lekin har yili qanchadan qancha odam mana shu jinoyatni sodir qiladi. Eng muhim masala jazoning qattiqligi emas, jazoning muqarrarligidir", — deya ta'kidlagan huquqshunos.<sup>175</sup>

Yashash huquqi xalqaro tashkilotlar tomonidan o'z normalaridan mustahkamlanib qo'ygan bo'lsada ba'zi davlatlar bu normani chetlab o'tmoqda. Buning asosiy sababaridan biri o'lim jazosi bilan jazolanadigan jinoyatlarga odatda qotillik, ommaviy qotillik, zo'rflashning og'irlashtirilgan holatlari (ko'pincha bolalarni o'z ichiga oladi) kabi shaxsga qarshi og'ir jinoyatlar; jinsiy zo'ravonlik, terrorizm, samolyotlarni o'g'irlash, urush jinoyatlari, insoniyatga qarshi jinoyatlar va genotsid, shuningdek, davlat to'ntarishiga urinish, davlatga xiyonat kabi davlatga qarshi jinoyatlar; josuslik, fitna va qarochilik kabilarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ayrim hollarda, giyohvand moddalar savdosi va giyohvand moddalarni saqlashdan tashqari, takroran jinoyat sodir etish, og'irlashtirilgan talonchilik va odam o'g'irlash kabi jinoyatlar ham jiddiy jinoyat hisoblanadi. Jazoning favqulodda turi sifatida faqat alohida og'ir, inson hayotiga qasd qiladigan jinoyatlar uchun belgilanishi mumkin.

O'lim jazosi tarixiga nazar tarixga nazar tashlasak Sho'rolar davrida sud hukmi va ma'muriy tuzilmalarning qarorlari, hatto "oliy rahbariyatning roziligi" bilan aksilinqilobiy faoliyatlari uchun 800 mingga yaqin hur fikrli aybsiz odamlar otib tashlangan edi.

Etimologik nuqtai nazardan, kapital atamasi (lotincha *capitalis* orqali *caput*, „bosh“ so'zidan olingan) boshni tanadan judo qilish yo'li bilan qatl qilishni anglatadi, ammo qatl qilish ko'plab usullar bilan amalga oshiriladi. Jumladan, osib qo'yish, otish, o'limga olib keladigan ineksiya, toshbo'ron qilish, elektr toki urishi va zaharli gazdan foydalanish.

O'lim jazosi hozirda 58 mamlakatda bekor qilingan, 31 davlat qonunida ko'zda tutilgan bo'lsada, keyingi 15 yil davomida ularning aksariyatida hech kim bu jazoga hukm qilinmagan. O'lim jazosi 77 mamlakatda, shu jumladan, Xitoy, Eron, Saudiya Arabistoni, Yaponiya va AQShning 38 shtatida qo'llanmoqda. Pokiston, Kongo, Nigeriya va Yamanda voyaga yetmaganlar ham O'lim jazosiga hukm etilishi mumkin.<sup>176</sup>

Xalqaro inson huquqlari tashkiloti hisobotiga ko'ra, 2024 yilda dunyoning 15 mamlakatida kamida 1518 kishi qatl etilgan, bu o'tgan yilga nisbatan 32 foizga ko'p va 2015 yildan beri eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Qayd etilgan qatllarning asosiy qismi Eron, Iroq va Saudiya Arabistoniga to'g'ri keladi. Hisobotda Xitoy, Shimoliy Koreya va Vetnamdagi minglab ehtimoliy o'lim hukmlari hisobga olinmagan, ular haqidagi ma'lumotlar maxfiyligicha qolmoqda. Huquq himoyachilarining hisob-kitoblariga ko'ra, Xitoy dunyoda eng ko'p inson qatl qilingan davlat bo'lib qolmoqda. Evropa davlatlari orasida Belarus o'lim jazosini qo'llaydigan yagona davlat hisoblanadi, biroq o'limga hukm qilinganlar soni haqidagi ma'lumotlar oshkor etilmaydi<sup>177</sup>

Statistik ma'lumotlar va kriminologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, o'lim jazosi jinoyatchilik darajasini pasaytirishda samarasiz hisoblanadi, chunki u sezilarli darajada

<sup>174</sup>C:/Users/LEGION/Downloads/1040-1045.pdf

<sup>175</sup>C:/Users/LEGION/Downloads/153-157.pdf

<sup>176</sup>[https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBlim\\_jazosini](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBlim_jazosini)

<sup>177</sup><https://aniq.uz/uz/yangiliklar/dunyoda-ulim-jazosini-ijro-etish-soni-10-yil-ichida-eng-yuqori-darajaga-etdi>

ogohlantiruvchi (deterrent) ta'sir ko'rsatmaydi. Shu bilan birga, o'lim jazosi mavjudligi inson huquqlari tamoyillariga, ayniqsa yashash huquqiga zid deb baholanadi.

Islom huquqi nuqtai nazaridan, o'lim jazosi (qisos) Islomdan avval ham mavjud bo'lgan bo'lib, Islom kelgach, u adolatlilik va jonni muhofaza qilish tamoyillari asosida isloh qilingan<sup>178</sup>

Aristotelning fikricha, iroda erkinligi insonga tegishli bo'lsa, fuqaro o'z harakatlari uchun javobgardir. Agar jinoyat sodir etilgan bo'lsa, sudya uning o'rnini qoplash orqali jinoyatni bekor qilishga imkon beradigan jazoni belgilashi kerak.<sup>179</sup>

1994-yil O'zbekistonda o'lim jazosi jinoyat kodeksining o'ttiz uchta moddasida nazarda tutilgan edi. Keyinchalik, 1998, 2001 va 2003-yillarda qonundagi bir qator tuzatishlar qabul qilinganidan so'ng, o'lim jazosi nazarda tutilgan moddalar soni ikkita – og'irlashtiruvchi holatlarda qotillik va terrorizm moddalari bilan cheklangan.

2005-yil may oyida Andijondagi tartibsizliklarda ishtirok etganlikda ayblanganlar ustidan sud ishlari boshlanganidan keyin o'lim jazosi va uni bekor qilish muddatlari mamlakat aholisi va tashqi mamlakatlar diqqat markazida bo'lgan. Bu davrda yuzdan ortiq odam og'irlashtiruvchi holatlarda qotillik va terrorizmga ayblanib, o'lim jazosiga hukm qilinishi mumkin edi.

2005-yil 1-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "2008-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi jinoiy jazo turi sifatida bekor qilinib, umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilsin" degan farmonni imzolagan. Uch yillik kechikishning sababi o'lim jazosi o'rniga umrbod qamoq jazosiga hukm qilinganlarni joylashtirish uchun yangi qamoqxonalar qurish uchun vaqt zarurati edi. O'zbekistonda so'nggi o'lim jazosini ijro etish amaliyoti 2005-yilda amalga oshirilgan. Shundan so'ng mamlakatda, 2005-yildan 2008-yilda yangi farmon kuchga kirgunga qadar o'lim jazosini jazo chorasini sifatida tayinlashga yashirin moratoriy amal qilganligini ko'rsatishi mumkin.

2022-yil iyun oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev o'lim jazosini taqiqlashni mamlakat Konstitutsiyasiga ham kiritishni taklif qilgan. 2023-yildagi tuzatish yangi Konstitutsiya orqali mustahkamlandi. O'lim jazosining bekor qilinishi ortidan uning o'rniga, asosiy eng og'ir jazo turi sifatida tanlangan umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosiga tayinlangan insonlar 2018—2023-yillarda 11 nafarni tashkil etgan.<sup>180</sup>

Bugungi kunga qadar jinoyat qonunini takomillashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlarni shartli ravishda besh bosqichga bo'lish mumkin: Ikkinchi bosqichi 2001–2008-yillar – mazkur davrda jinoyat qonunchiligini liberallashtirishning huquqiy asoslari rivojlantirildi va jinoiy jazo tizimi liberallashtirildi, u o'z ichiga 2001-yil 29-avgustdagi O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunining qabul qilinishi va mamlakatimizda o'lim jazosini bekor qilishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab oldi; Uchinchi bosqichi 2008–2015-yillar bo'lib, ushbu davrda jinoyat qonunchiligi yanada liberallashtirildi, ya'ni mamlakatimizda o'lim jazosi bekor qilindi va ayrim qilmishlar Jinoyat kodeksiga kriminalizatsiya qilindi.<sup>181</sup>

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2024-yilda ma'lum o'lim jazosini ijro etgan mamlakatlar – xalqaro hukumat tashkilotlari ma'lumotlariga ko'ra:

- Amerika Davlatlari Tashkiloti (Organization of American States): 34 davlatdan faqat 1 tasi ijro o'tkazgan – AQSh.
- Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (Organization for Security and Co-operation in Europe): 57 davlatdan faqat 1 tasi ijro o'tkazgan – AQSh.
- Afrika Ittifoqi (African Union): 55 davlatdan 2 tasi ijro o'tkazgan – Misr va Somaliya.

<sup>178</sup>[https://journal.uin-alaiddin.ac.id/index.php/shautuna/article/view/51942?utm\\_source=chatgpt.com](https://journal.uin-alaiddin.ac.id/index.php/shautuna/article/view/51942?utm_source=chatgpt.com)

<sup>179</sup>C:\Users\LEGION\Downloads\1040-1045.pdf

<sup>180</sup>[https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda\\_o%CA%BBlim\\_jazosi](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_o%CA%BBlim_jazosi)

<sup>181</sup>Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o'quvchilari uchun darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 264 b.

- Arab Davlatlari Ligasi (League of Arab States): 22 davlatdan 8 tasi ijro o‘tkazgan – Misr, Iroq, Kuvayt, Ummon, Saudiya Arabistoni, Somaliya, Suriya va Yamen.
- Jan-sharqiy Osiyo Millatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN): 10 davlatdan 2 tasi ijro o‘tkazgan – Singapur va Vetnam.
- Birlashgan Qirollik Hamdo‘stligi (Commonwealth): 56 davlatdan faqat 1 tasi ijro o‘tkazgan – Singapur.
- Xalqaro Fransuz Tilidagi Tashkilot (Organisation Internationale de la Francophonie): 56 davlatdan 2 tasi ijro o‘tkazgan – Misr va Vetnam.
- Birlashgan Millatlar Tashkiloti (United Nations): 193 a’zo davlatning 15 tasi (BMT a’zolarining 8%) o‘lim jazosi ijro etgani ma’lum – Afg‘oniston, Xitoy, Misr, Eron, Iroq, Kuvayt, Shimoliy Koreya, Ummon, Saudiya Arabistoni, Singapur, Somaliya, Suriya, AQSh, Vetnam, Yamen.<sup>182</sup>

Amerikalik siyosatshunos va inson huquqlari bo‘yicha yetakchi olim “yashash huquqi universal va ajralmas huquq bo‘lib, o‘lim jazosi bu huquqni bevosita buzadi” deb takidlaydi. Chunki u o‘lim jazosini zamonaviy inson huquqlari tizimiga mos kelmaydigan jazo deb baholaydi.

Tadqiqot davomida asosiy muammo sifatida shuni qayd etish mumkinki, o‘lim jazosi davlat tomonidan inson hayotidan mahrum etish shakli bo‘lib, u yashash huquqining mutlaq va ajralmas tabiatiga zid keladi. Bundan tashqari, sud xatolari ehtimoli, jazoning qaytarib bo‘lmasligi, jinoyatchilikni kamaytirishda yetarli darajada samarali emasligi hamda inson qadr-qimmatining poymol etilishi o‘lim jazosi bilan bog‘liq asosiy muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur muammolarni hal etish uchun o‘lim jazosini jinoiy jazo turi sifatida to‘liq bekor qilish va uning o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish kabi insonparvar jazo choralari qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashda jazoning shafqatsizligini emas, balki uning muqarrarligi, adolatligi va profilaktik choralarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv yashash huquqini ta’minlash bilan birga, jamiyatda adolat va insonparvarlik tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda Yashash huquqi inson huquqlarining eng oliy va ajralmas huquqi bo‘lib, o‘lim jazosi ushbu huquqni qaytarib bo‘lmas tarzda cheklaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki: O‘lim jazosi jinoyatchilikni kamaytirishda samarali vosita emas; Sud xatolari ehtimoli tufayli adolat tiklanishi mumkin emas; O‘lim jazosi inson qadr-qimmatiga zid bo‘lib, xalqaro standartlarga mos kelmaydi. Shu sababli, o‘lim jazosi bekor qilinib, uning o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo choralari qo‘llash, insonparvar va huquqiy davlat qurish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati:**

1. Konstitutsiyaviy huquq [Matn]: darslik / Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 800 b.
2. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o‘quvchilari uchun darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 264 b.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/inson-huquqlari-tushunchasi-va-uning-amaliyotda-qo-llanilayotgan-tamoyillari/viewer>
4. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>.
5. <https://yuz.uz/news/yashash--insonning-tabiiy-huquqi..1040-1045.pdf>
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBlim\\_jazosi](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBlim_jazosi)
7. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/dunyoda-ulim-jazosini-ijro-etish-soni-10-yil-ichida-eng-yuqori-darajaga-etdi>
8. [https://journal.uin-alauddin.ac.id/index.php/shautuna/article/view/51942?utm\\_source=chatgpt.com](https://journal.uin-alauddin.ac.id/index.php/shautuna/article/view/51942?utm_source=chatgpt.com)
9. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda\\_o%CA%BBlim\\_jazosi](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_o%CA%BBlim_jazosi)

<sup>182</sup>[https://www.amnesty.org/en/wp-content/uploads/2025/05/ACT5089762025ENGLISH.pdf?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.amnesty.org/en/wp-content/uploads/2025/05/ACT5089762025ENGLISH.pdf?utm_source=chatgpt.com)

## GLOBAL RAQAMLASHUV VA BARQAROR RIVOJLANISH: O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATI VA INSON HUQUQLARI TRANSFORMATSIYASI

**Kurbanaliyev Sardor Alidjanovich**

Tashkent International University  
Yurisprudensiya yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi  
**sardorkurbon@gmail.com**

XXI asrning uchinchi o‘n yilligida "To‘rtinchi sanoat inqilobi" (Industry 4.0) insoniyat taraqqiyotining yangi paradigmasini belgilab bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi uchun raqamli transformatsiya nafaqat texnologik yangilanish, balki milliy barqarorlik va global raqobatbardoshlikni ta‘minlashning strategik omilidir [1]. Bugungi kunda mamlakatda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushini sezilarli darajada oshirish va davlat boshqaruvini to‘liq raqamlashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Jahon Banki ma‘lumotlariga ko‘ra, raqamli infratuzilmaga kiritilgan 10% sarmoya YaIMning 1.2% ga o‘shishiga olib keladi [2]. Ushbu jarayonlarning markazida esa O‘zbekiston aholisining 60 foizdan ortig‘ini tashkil etuvchi yoshlar va ularning raqamli makondagi huquqlari masalasi turibdi. 2050-yilga borib mehnatga layoqatli aholi sonining 33 milliondan oshishi kutilayotgan "demografik dividend" davrida [3], yoshlar kapitalini raqamli aktivga aylantirish davlat siyosatining o‘zagini tashkil etadi.

### **Raqamli transformatsiya va Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-2030)**

O‘zbekiston Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) indeksida sezilarli o‘shishga erishib, 166 davlat orasida 62-o‘rinni egalladi [4]. Raqamlashtirish ayniqsa BRMning 9-maqsadi (Sanoat, innovatsiya va infratuzilma) va 16-maqsadi (Tinchlik, adolat va samarali institutlar)ga erishishda katalizator vazifasini o‘tamoqda.

**"Raqamli O‘zbekiston – 2030"** strategiyasi doirasida quyidagi fundamental o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda:

- **Infratuzilma:** 2024-yil holatiga ko‘ra, optik tolali aloqa liniyalari uzunligi 250 ming km.ga yetkazildi, internet foydalanuvchilari soni 31 milliondan oshdi [5].
- **Elektron hukumat:** Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar soni 600 dan oshdi, bu esa byurokreatiyani qisqartirish va korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda (BRM 16.5) [6].
- **Inklyuzivlik:** BMTning UNSDCF 2026–2030 dasturi doirasida raqamli texnologiyalar chekka hududlardagi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni masofaviy ta‘lim va teletibbiyot bilan qamrab olishga yo‘naltirilgan [7].

### **Yoshlar siyosati: Raqamli tadbirkorlik va innovatsion ekotizim**

O‘zbekistonda yoshlar siyosati paternalistik yondashuvdan **"imkoniyatlar yaratish" (empowerment)** modeliga o‘tmoqda. O‘zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida"gi Qonunida yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish davlatning asosiy vazifasi ekanligi belgilangan [8].

Raqamli iqtisodiyotda yoshlar ishtirokini kengaytirish bo‘yicha quyidagi mexanizmlar ishlamoqda:

1. **IT Park Ekotizimi:** IT Park rezidentlari bo‘lgan kompaniyalar soni 1800 dan oshib, ular tomonidan eksport qilingan xizmatlar hajmi 2023-yilda 344 mln dollarni tashkil etdi. Ushbu kompaniyalarda ishlovchilarning 85 foizi yoshlardir [9].
2. **Ta‘lim platformalari:** "One Million UzCoders" loyihasi doirasida 2.5 milliondan ortiq yoshlar dasturlash asoslarini o‘rgandi. Bu yoshlarning global mehnat bozorida (freelance) raqobatbardoshligini oshirmoqda.

3. **Startaplar:** 2030-yilga qadar startaplar ekotizimini rivojlantirish orqali "unicorn" (kapitalizatsiyasi 1 mlrd dollardan oshgan) kompaniyalarni chiqarish maqsad qilingan [10].

#### **Inson huquqlari va shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi (Data Privacy)**

Raqamli makonda inson huquqlari, xususan, **shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi (privacy)** fundamental huquq hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriridagi 31-moddasida har kimning shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga ega ekanligi qat'iy belgilab qo'yildi [11].

Shunga qaramay, amaliyotda muammolar saqlanib qolmoqda. IIV Kiberxavfsizlik markazi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda kiberjinoyatlar soni keskin oshib, 58,8 mingtani tashkil etgan [12].

#### **Qiyosiy-huquqiy tahlil: Milliy qonunchilik va GDPR**

Yevropa Ittifoqining Ma'lumotlarni himoya qilish umumiy reglamenti (GDPR) bilan O'zbekistonning "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-547) [13] o'rtasidagi tafovutlar:

Huquqiy institut	O'zbekiston (O'RQ-547)	Yevropa Ittifoqi (GDPR)
"Unutilish huquqi"	To'g'ridan-to'g'ri norma mavjud emas	17-moddada aniq belgilangan (Right to be Erasure)
Data Breach (sizib chiqish)	Xabar berish muddati aniq emas	72 soat ichida regulyatorga xabar berish shart
Jarimalar	BHM baravarida (ma'muriy/jinoiy)	Global aylanmaning 4%igacha (o'ta yuqori)
DPO (Data Protection Officer)	Tavsiyaviy xarakterda	Ma'lum toifadagi tashkilotlar uchun majburiy

Milliy qonunchilikka transchegaraviy ma'lumotlar almashinuvi va biometrik ma'lumotlar himoyasi bo'yicha qat'iyroq normalarni kiritish zarurati mavjud [14].

#### **Sun'iy intellekt (AI) va Big Data: Etik va huquqiy chaqiriqlar**

O'zbekiston Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli qarori bilan tasdiqlangan "**Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi**" sohadagi huquqiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan [15].

UNESCOning "Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyalari"ga (2021) [16] hamohang ravishda, O'zbekiston strategiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

**Algoritmik adolat:** SI tizimlari irqiy, jinsiy yoki hududiy kamsitishlarga yo'l qo'ymasligi shart.

**Inson nazorati (Human-in-the-loop):** Yuridik oqibatlariga olib keluvchi (masalan, kredit ajratish yoki ishga qabul qilish) qarorlar to'liq avtomatlashtirilmaligi lozim.

**Tushuntirish huquqi (Explainability):** Foydalanuvchi SI nima sababdan ma'lum bir qarorga kelganini bilish huquqiga ega bo'lishi kerak.

Hozirda sog'liqni saqlash sohasida (Digital Health) SI yordamida pnevmoniya va onkologik kasalliklarni erta aniqlash loyihalari sinovdan o'tkazilmoqda, bu esa insonning yashash huquqini ta'minlashga xizmat qiladi [17].

#### **Raqamli madaniyat va kiber-gigiyena**

Globalashuv sharoitida "axborot suvereniteti" va milliy kontent masalasi dolzarbdir. Yoshlar o'rtasida "clip thinking" (bo'laklab fikrlash) va dezinformatsiyaga (fake news) ishonuvchanlikning ortishi raqamli savodxonlikni (Media Literacy) oshirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining axborot sohasidagi xavfsizlikni ta'minlashga oid farmonlari [18] yoshlarda media-immunitetni shakllantirishga qaratilgan.

O'zbekistonda raqamlashtirish jarayoni inson huquqlarini cheklash emas, balki kengaytirish vositasi sifatida xizmat qilishi lozim. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagilar taklif etiladi:

1. **Qonunchilikni unifikatsiya qilish:** "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunni xalqaro standartlarga (GDPR, Strasburg konvensiyasi 108+) to'liq moslashtirish, xususan, "unutilish huquqi"ni joriy etish.

2. **Raqamli Ombudsman instituti:** Raqamli makonda inson huquqlari buzilishi holatlarini ko'rib chiquvchi maxsus vakolatli organ yoki Oliy Majlis inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) huzurida ixtisoslashgan sektor tashkil etish.

3. **SI Etik Kodeksi:** Milliy SI etik kodeksini ishlab chiqish va davlat xizmatlarida qo'llaniladigan algoritmlarni majburiy auditdan o'tkazish tizimini yaratish.

4. **Kiber-sug'urta:** Kiberhujumlar oqibatida fuqarolarga yetkazilgan moddiy zararni qoplashning sug'urta mexanizmlarini joriy etish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son).

2. World Bank. (2016). *World Development Report 2016: Digital Dividends*. Washington, DC: World Bank.

3. United Nations Population Fund (UNFPA). (2023). *Demographic situation in Uzbekistan: Analysis and Projections*. Tashkent.

4. Sustainable Development Report 2024. *The SDG Index and Dashboards*. Bertelsmann Stiftung and SDSN.

5. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi hisoboti. (2024). *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish holati to'g'risida*. Toshkent.

6. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali statistikasi. URL: <https://my.gov.uz/uz/pages/statistics> (Murojaat sanasi: 10.02.2026).

7. United Nations. (2025). *United Nations Sustainable Development Cooperation Framework (UNSDCF) for Uzbekistan 2026-2030*.

8. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-son Qonuni. (2016-yil 14-sentyabr). 5-modda.

9. IT Park Uzbekistan. (2024). *Annual Report: Export & Growth Dynamics*. Tashkent.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. (2023-yil 11-sentyabr).

11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). (2023). 31-modda. *Toshkent: O'zbekiston*.

12. O'zbekiston Respublikasi IIV Kiberxavfsizlik markazi. (2024). *Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash holati bo'yicha tahliliy axborot*.

13. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuni. (2019-yil 2-iyul).

14. Juraev, K., & Sobirova, D. (2025). *Comparative Legal Analysis of Personal Data in the Legislation of Uzbekistan and EU (GDPR)*. *Uzbek Journal of Law and Digital Policy*, 4(1), 12-25.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori. (2024-yil 14-oktabr).

16. UNESCO. (2021). *Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence*. Paris.

17. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2024). *Raqamli sog'liqni saqlash tizimini joriy etish bo'yicha hisobot*.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi kurashish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari to'plami.

## **GLOBAL RAQAMLASHUV VA BARQAROR RIVOJLANISH YOSHLAR SIYOSATI VA INSON HUQUQLARI**

**Qurolboyeva Maftuna Olimjon qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Xalqaro jurnalistika fakultetining 3-bosqich talabasi  
E-mail: @maftunaqurolboyeva237@gmail.com

Hozirgi kunda eng muhim masalardan biri bu- yoshlar masalalari va ularning barqaror yechimlaridir. Jumladan barqaror rivojlanish ham eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Barqaror rivojlanish hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirgan holda kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Global raqamlashuv ushbu konsepsiyasi amalga oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar resurslardan samarali foydalanish, ijtimoiy xizmatlarni optimallashtirish va boshqaruvda shaffoflikni ta'minlash imkonini beradi. Raqamli muhit inson huquqlarini ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, yangi xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shaxsiy hayot daxlsizligi, axborot xavfsizligi va so'z erkinligi masalalari raqamli davrda alohida dolzarblik kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli tafovut (digital divide) muammosi yoshlar o'rtasida ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Bu esa davlat siyosatida ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Yoshlar siyosatida raqamli transformatsiyaning ahamiyati

Yoshlar jamiyatning eng faol va innovatsion qatlamidir. Raqamli texnologiyalar yoshlarning ta'lim olishi, bandligi va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanish maqsadlari raqamli innovatsiyalar bilan bevosita uyg'unlashgan holda amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat, raqamli sog'liqni saqlash va onlayn ta'lim platformalari ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Masofaviy ta'lim, startup ekotizimlari va raqamli tadbirkorlik yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Shaxsiy hayot daxlsizligi, axborot xavfsizligi va so'z erkinligi masalalari raqamli davrda alohida dolzarblik kasb etadi. Shuningdek, yurtimizda inson huquqlari va uni himoya qilish hozirgi kunda eng muhim bosqichlardan biri bo'lmoqda. Nafaqat yurtimiz taraqqiyotida, balki butunjahonning eng asosiy g'oyalaridan biriga aylanib ulgurdi.

Inson huquqlari deyilganda uning barcha huquqlari tushuniladi, ya'ni so'z erkinligi, shaxsiy qarashlari, millati, kiyinish madaniyati, axborot xavfsizligi kabilar kiradi. Ayni bu masalalar bugungi kun hisobotida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Deyishimiz mumkinki, hozirgi zamon bilan hamnafas bo'layotgan bir vaqtda, raqamlashuv jadal tarzda rivojlandi. Inson shaxsiy ma'lumotlari ham online tarqmoqlar orqali himoya qilinmoqda. Hattoki shaxsni tasdiqlash hujjatlari va hisob karta raqamlari bularning barchasi online tizimga aylanib bormoqda. Ularni himoya qilish esa nihoyatda muhim ekanligi ertangi kunimiz uchun asosiy bosqichlardan biridir. Shu bilan bir qatorda raqamli texnologiyalardan nihoyatda extiyotkorona foydalanish ijtimoiy xizmatlarni optimallashtirish va boshqaruvda shaffoflikni ta'minlash imkonini beradi. Axborot xurujlaridan, kiber jinoyatlardan va hokkerlardan extiyot bo'lishligimiz, raqamli tarmoqlardan foydalanayotganda har biriga maxsus himoya parollarini qo'yishimiz, turli xildagi sayt va tarmoqlarga ulanib qolmasligimiz bizni kelajagimizni asrash demakdir.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, global raqamlashuv barqaror rivojlanish va inson huquqlarini ta'minlashda samarali vosita bo'lishi uchun insonparvarlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Yoshlarni raqamli siyosat markaziga qo'yish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish raqamli jamiyat barqarorligini ta'minlaydi.

Global raqamlashuvning asosiy xususiyati shundaki, u bilim va axborotni eng muhim strategik resursga aylantirdi. Bugungi kunda raqamli platformalar orqali bilim olish, masofadan turib ishlash va ijtimoiy faollikni amalga oshirish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Bu jarayon, ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, global raqamlashuv barqaror rivojlanishga erishishning muhim vositasi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar yordamida resurslardan oqilona foydalanish, boshqaruv jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash hamda korrupsiya xavfini kamaytirish mumkin. Elektron hukumat tizimlari davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, global raqamlashuv yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Raqamli tengsizlik, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarning daxlsizligi va kiberjinoyatchilik kabi masalalar zamonaviy jamiyat oldidagi dolzarb vazifalardandir. Bu holat raqamli siyosatni inson huquqlari va adolat tamoyillari asosida olib borishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, global raqamlashuv zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas va muhim omiliga aylangan bo'lib, u barqaror rivojlanish, yoshlar siyosati hamda inson huquqlarini ta'minlash jarayonlariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. XXI asr texnologiyalar asri sifatida insoniyat taraqqiyotida tub burilish davrini boshlab berdi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida jamiyat hayotining barcha sohalarida — ta'lim, iqtisodiyot, ijtimoiy munosabatlar, davlat boshqaruvi va huquqiy tizimlarda sifat jihatidan yangi bosqichga o'tish kuzatilmoqda.

Yoshlar siyosati nuqtayi nazaridan qaralganda, global raqamlashuv yoshlarning bilim olishi, kasbiy rivojlanishi va ijtimoiy faolligini oshirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirib, ularni zamonaviy mehnat bozoriga moslashishiga yordam bermoqda. Shu bilan birga, yoshlar orasida raqamli savodxonlikni oshirish, ularni axborot xavfsizligi va mas'uliyatli raqamli madaniyatga yo'naltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1. <https://cyberleninka.ru>
2. <https://www.undp.org>
3. <https://zenodo.org>
4. <https://innoist.uz>
5. <https://phoenixpublication.net>
6. <https://inlibrary.uz>
7. <https://econferenceseries.com>

#### **INSON HUQUQLARI, SHAXSIY MA'LUMOTLAR HIMOYASI VA**

#### **INKLYUZIYA: HUQUQIY VA IJTIMOIIY TAHLIL**

**Samandarova Intizor Ikrom qizi**

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti

Ingliz tili 3-fakulteti talabasi

[samandarovaintizor386@gmail.com](mailto:samandarovaintizor386@gmail.com)

XXI asrda inson huquqlari masalasi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ham asosiy ko'rsatkichiga aylandi. Xalqaro miqyosda insonning sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e'tirof etilib, bu tamoyil 1948-yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" da mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur hujjat barcha insonlar erkin va teng huquqli bo'lib tug'ilishi g'oyasini ilgari suradi.

Raqamlashtirish jarayonlari jadallashgan bugungi kunda inson huquqlarining yangi yo'nalishi - shaxsiy ma'lumotlar himoyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, inklyuziya tamoyili jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Inson huquqlari — bu har bir shaxsga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lgan, ajralmas va daxlsiz huquq va erkinliklardir. Ular fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni o'z ichiga oladi. Milliy qonunchilikda ham inson huquqlari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Huquqiy davlat konsepsiyasiga ko'ra, davlat organlari faoliyati inson manfaatlariga

xizmat qilishi lozim. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida katta hajmdagi ma'lumotlar yig'ilmoqda va qayta ishlanmoqda. Shaxsiy ma'lumotlar — bu shaxsni aniqlash imkonini beruvchi axborotdir. Unga ism-sharif, yashash manzili, telefon raqami, biometrik va moliyaviy ma'lumotlar kiradi. Raqamli ma'lumotlar katta rol o'ynaydigan bugungi dunyoda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har kuni tarmoqda ko'plab operatsiyalar amalga oshiriladi, fuqarolar o'zlariga doir ma'lumotlarni tarmoqqa kiritishga biror kishi o'z ma'lumotlarining ma'lum bir to'plamiga kirish huquqini beradi va odamlarning aksariyati Internet xatti-harakati xavfsizligining asosiy qoidalari haqida to'liq tasavvurga ega emas. Shu sababli, davlat shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha mas'uliyatni aynan shu ma'lumotlardan foydalanadigan tashkilotlarga yuklashga harakat qilmoqda. Har qanday fuqaro o'z hayoti davomida turli insonlar bilan munosabatga kirishadi. Va shaxsiy ma'lumotlari bilan bo'lishadi. Shu bilan birga, fuqaro bu ma'lumot keng odamlarga yetib borishini xohlamasligi mumkin. Ushbu ma'lumotni himoya qilish uchun shaxsga doir ma'lumotlarning maxsus huquqiy rejimi qo'llaniladi. Ma'lumki, qonunchilikka binoan shaxsga doir ma'lumotlarga aniq ta'rif berib o'tilmagan faqatgina shaxsni ajratish va identifikatsiya qilish imkonini beradigan ma'lumot deyilgan, bu esa o'z navbatida shaxsga doir ma'lumotlarni keng talqin etilishiga olib keladi, aslida esa ularni alohida guruhlariga bo'lish va aynan qaysi turdagi ma'lumotlar shaxsga doir ma'lumotlar ekanligini aniqlashtirish lozim. Yevropa Ittifoqida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi General Data Protection Regulation (GDPR) orqali tartibga solinadi. Mazkur reglament ma'lumotlarni qayta ishlashda shaffoflik, qonuniylik va foydalanuvchi roziligi tamoyillarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasida esa ushbu soha “Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi. Qonunga ko'ra, shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash subyektning roziligi asosida amalga oshirilishi lozim. Raqamli xavfsizlikni ta'minlash inson huquqlarining zamonaviy ko'rinishi — “raqamli huquqlar” tushunchasini shakllantirmoqda. Inklyuziya — jamiyatning barcha a'zolari uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratish jarayonidir. Bu, ayniqsa, nogironligi bo'lgan shaxslar, ayollar, bolalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun muhimdir. Inklyuziya tamoyili xalqaro darajada “Nogironlar huquqlari” to'g'risidagi konvensiya da mustahkamlab qo'yilgan. Konvensiyaga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyat hayotining barcha sohalarida teng ishtirok etish huquqiga ega. Shaxsiy ma'lumotlar himoyasi insonning shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlaydi. Inklyuziya esa har bir shaxsning o'z huquqlaridan to'liq foydalanish imkonini yaratadi. Agar shaxsiy ma'lumotlar yetarli darajada himoyalansa, insonning sha'ni va qadr-qimmatini poymol etilishi mumkin. Agar inklyuziv muhit mavjud bo'lmasa, ayrim ijtimoiy guruhlar o'z huquqlaridan foydalana olmaydi.

Inson huquqlari, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va inklyuziya zamonaviy demokratik jamiyatning asosiy tayanch ustunlaridir. Raqamli transformatsiya sharoitida shaxsiy daxlsizlikni himoya qilish va teng imkoniyatlar yaratish yanada dolzarb tus olmoqda. Mazkur yo'nalishlarda tizimli va kompleks yondashuvni amalga oshirish huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – BMT, 1948.
2. General Data Protection Regulation. – Yevropa Ittifoqi, 2016.
3. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya. – BMT, 2006.
4. “Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonun. – O'zbekiston Respublikasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023

## O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MOBIL ILOVALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MOLIVAVIY INKLYUZIVLIKNI OSHIRISH

**Saydamatova Muxlisabonu**

TIU 1-bosqich tayanch doktorant,

[khasanboevamukhlisabonu@gmail.com](mailto:khasanboevamukhlisabonu@gmail.com)

Bank tizimi har qanday mamlakat iqtisodiyotining tayanchi hisoblanadi. Bugungi kunga kelib esa texnologik taraqqiyot va smartfon foydalanuvchilari sonining keskin ortishi natijasida an’anaviy bank mahsulotlar o‘rnini raqamli xizmatlar egallamoqda. Global miqyosda yuzaga kelayotgan “texnologik rivojlanish” sharoitida bank mobil ilovalari, mobil hamyonlar va mobil pul o‘tkazmalari asosiy to‘lov vositalariga aylandi. Bank mobil xizmatlari nafaqat qulaylik vositasi, balki global moliya tizimining ajralmas qismiga aylandi. Nazariy jihatdan texnologiya barqaror o‘shishni ta’minlasa, amaliyotda bu jarayon ko‘lamini foydalanuvchilar sonining ortishida ko‘rish mumkin. Xususan, SQ jurnali<sup>183</sup> tahlillariga ko‘ra, 2025-yilga kelib global mobil bank foydalanuvchilari 2,17 milliardga yetgani (2020-yilga nisbatan 35% o‘shish) raqamli transformatsiyaning ahamiyatli jarayon ekanligini tasdiqlaydi.

Xitoy, Kenya va Bangladesh kabi davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mobil ilovalar orqali amalga oshiriladigan elektron pul o‘tkazmalari aholining kam ta’minlangan qatlamlari uchun jamg‘arma va to‘lov xizmatlari xarajatlarini minimallashtirishga xizmat qiladi<sup>184</sup>. Ushbu xalqaro tendensiyalar O‘zbekiston tijorat banklari uchun ham dolzarb bo‘lib, tijorat bank ilovalarini takomillashtirish orqali aholining moliyaviy qamrovini kengaytirish nafaqat bank tizimi samaradorligini, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida bank ilovalarining nafaqat soni, balki ularning sifat ko‘rsatkichlari, ya’ni foydalanuvchilar uchun qulayligi va funksional jozibadorligi moliyaviy inklyuzivlikni oshirishning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu jarayonlarni takomillashtirish mexanizmlarini yoritishga qaratilgan.

Global miqyosdagi raqamli transformatsiya jarayonlari O‘zbekiston bank sektoriga ham o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatmoqda. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari natijasida, so‘nggi yillarda mamlakatimizda bank mobil ilovalaridan foydalanuvchilar soni keskin ortdi. Xususan, Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlariga bog‘langan mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi yildan-yilga o‘shib bormoqda. Biroq, foydalanuvchilar sonining ortishi hali aholining to‘liq moliyaviy inklyuzivligini (qamrovini) anglatmaydi va tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki hududiy nomutanosiblik, ilovalardagi xizmatlardan foydalanish interfeysi murakkabligi yoki cheklovlar mavjudligi iste’molchilarning raqamli bank mahsulotlariga bo‘lgan ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, real moliyaviy qamrov darajasining pasayishiga olib kelmoqda.

Tijorat banklari mobil ilovalarini takomillashtirish deganda, faqatgina yangi funksiyalarni qo‘shish emas, balki foydalanuvchi tajribasini optimallashtirish va tizimning barcha toifadagi mijozlar uchun moslashuvchanligini oshirish tushuniladi. Moliyaviy inklyuzivlikni oshirish esa — bu aholining chekka hududlarda yashovchi, kam daromadli yoki raqamli ko‘nikmalari past bo‘lgan qatlamlarini rasmiy bank tizimiga to‘liq jalb qilishdir. Bizning fikrimizcha, bank mobil ilovalari orqali moliyaviy inklyuzivlikni oshirish — bu vaqt va makon samaradorligi nuqtai nazaridan axborot almashinuvi va tranzaksiyalar algoritmini optimallashtirgan holda, aholining barcha qatlamlarini aqlli interfeys orqali bank tizimiga jalb qiluvchi hamda bankning asosiy aktiv ekotizimini shakllantiruvchi strategik jarayondir. Ushbu jarayonni amaliyotga tatbiq etishda mobil

---

<sup>183</sup> <https://sqmagazine.co.uk/mobile-banking-statistics/>

<sup>184</sup> Banerjee, A., Banerjee, A. V., & Duflo, E. (2011). *Poor economics: A radical rethinking of the way to fight global poverty*. Public Affairs.

ilovalarni takomillashtirishning texnologik barqarorlik, qulaylik, ijtimoiy moslashuvchanlik kabi uchta fundamental yo‘nalishi o‘zaro uyg‘unlikda harakat qilishi lozim:

- **Texnologik barqarorlik:** Internet tezligi va qurilma quvvatidan qat’i nazar, tranzaksiyalarning uzluksiz bajarilishini ta’minlash;

- **Qulaylik:** Foydalanuvchi interfeysini (UI/UX) soddalashtirish orqali aholidagi “raqamli qo‘rquv” to‘sig‘ini bartaraf etish;

- **Ijtimoiy moslashuvchanlik:** Turli yosh va ijtimoiy qatlam vakillari ehtiyojlariga moslashtirilgan funksional imkoniyatlarni yaratish. Bu keltirilgan yondashuv va yo‘nalishlar asosida, aholining moliyaviy qamrovini kengaytirishga xizmat qiluvchi quyidagi konseptual asos ishlab chiqildi (1-rasm):

**1-rasm. Mobil ilovalarni takomillashtirish orqali aholi moliyaviy inklyuzivligini oshirishning konseptual modeli.**<sup>185</sup>

Ushbu ishlab chiqilgan konseptual asos moliyaviy cheklanganlik muammosini bartaraf etishda bank mobil ilovalarining strategik o‘rnini belgilab beradi. Modelning mantiqiy tuzilishi muammodan yechimga o‘tish, “Aqlli interfeys” va texnologik yechimlar, ijtimoiy-iqtisodiy natijadorlik kabi uchta asosiy yo‘nalishning o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan.

1. Muammodan yechimga o‘tish algoritmi:

Modelning yuqori qismida belgilangan “Moliyaviy cheklanganlik” muammosi aholining bank tizimidan uzilib qolganligini ifodalaydi. Ushbu to‘siqni yengib o‘tishning markaziy drayveri sifatida “Tijorat banklari mobil ilovalarini takomillashtirish” jarayoni belgilangan.

2. “Aqlli interfeys” va texnologik yechimlar:

Mualliflik yondashuvimizga ko‘ra, takomillashtirish jarayoni uchta muhim komponentni o‘z ichiga oladi:

- Ovozli yordamchi: Raqamli savodxonligi past bo‘lgan yoki jismoniy imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun to‘siqlarni olib tashlaydi.


- Oflayn/Lite versiya: Internet infratuzilmasi zaif bo‘lgan hududlarda tranzaksiyalar uzluksizligini ta’minlaydi.

- Soddalashtirilgan/Aqlli interfeys: Foydalanuvchining kognitiv yuklamasini kamaytirib, murakkab bank amallarini intuitiv tushunarli darajaga keltiradi.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy natijadorlik:

Grafikda aks etgan “Smartfondan foydalanish - Onlayn hisobvaraq ochish - Raqamli moliya” zanjiri foydalanuvchining bosqichma-bosqich bank ekotizimiga integratsiyalashuvini ko‘rsatadi. Ushbu jarayonning yakuniy maqsadi — aholining barcha qatlamlarini qamrab oluvchi “To‘liq moliyaviy inklyuzivlik”ka erishish va shu orqali mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdan iborat.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, zamonaviy bank tizimida mobil ilovalarning takomillashuvi shunchaki texnik ehtiyoj emas, balki aholining barcha qatlamlarini moliya



ekotizimiga jalb qilishning strategik drayveridir. Yuqorida tahlil qilingan “konseptual asos” shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy inklyuzivlikka erishish uchun tijorat banklar foydalanuvchining

<sup>185</sup> Muallif ishlanmasi

ko'nikmasi va hududiy infratuzilma imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mobil ilovalari uchun aniq yo'nalishni belgilab olishlari maqsadga muvofiq. O'zbekiston tijorat banklari mobil ilovalarini takomillashtirish orqali aholi moliyaviy qamrovini kengaytirish maqsadida quyidagi amaliy taklifni keltirmoqchimiz:

1. "Ovozli banking" (Voice-command Banking) tizimini milliy dialektlarda joriy etish. Mobil ilovada o'zbek tilidagi ovozli buyruqlar orqali tranzaksiyalarni amalga oshirish funksiyasini yaratish chekka hudud aholisi va keksalar uchun "texnologik moslashuvchanlik" to'sig'ini olib tashlaydi. Bu yechim bank xizmatlarini hatto raqamli savodxonlik darajasi past mijozlar uchun ham tushunarli va ochiq qiladi.

2. Past o'tkazuvchanlikka ega internet muhiti uchun "Lite-ekotizim" modulini yaratish. Internet trafigin minimal sarflaydigan va oflayn rejimda ishlovchi soddalashtirilgan interfeyslarni ishlab chiqish zarur. Mazkur yechim internet qamrovi zaif bo'lgan chekka hududlarda bank xizmatlarining uzluksizligini ta'minlash orqali real moliyaviy inklyuzivlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <https://sqmagazine.co.uk/mobile-banking-statistics/>
2. Banerjee, A., Banerjee, A. V., & Duflo, E. (2011). *Poor economics: A radical rethinking of the way to fight global poverty*. Public Affairs.
3. To'lov tizimlari va raqamli bank xizmatlari rivojlanishi bo'yicha tahliliy sharh". 2024-2025 yy. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz).
4. Ozili, Peterson K. (2018). "Impact of Digital Finance on Financial Inclusion and Stability". *Borsa Istanbul Review*, 18(4), 329-340.

## **GLOBAL RAQAMLASHUV VA BARQAROR RIVOJLANISH YOSHLAR**

### **SIYOSATI VA INSON HUQUQLARI.**

#### **Islomxo'jayeva Dildoraxon Absalamxo'ja qizi**

Tashkent International University

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Email:dildoraislomxojayeva@gmail.com

Bugungi kunda dunyo shiddat bilan raqamli asr sari intilmoqda. Texnologik taraqqiyotning eng faol foydalanuvchilari — yoshlar hisoblanadi. Ularning hayoti, o'qish jarayoni, muloqot uslubi va dunyoqarashi zamonaviy texnologiyalar bilan chambarchas bog'lanib bormoqda. Shu bois, texnologiyalar yoshlar ongiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda, ularning ijtimoiy 831 hayotidagi o'rni qanday — bu savollar jamiyatshunoslar, psixologlar va pedagoglar uchun dolzarb masalaga aylanmoqda. XXI asr — axborot va innovatsiyalar asridir. Internet, sun'iy intellekt, virtual haqiqat, raqamli o'yinlar, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning kunlik hayotining ajralmas qismiga aylangan. So'rovnomalar natijasiga ko'ra, o'rta statistik yosh kishi kuniga o'rtacha 5–7 soat vaqtini internetda o'tkazadi. Bu esa, ularning dunyo qarashini shakllantirishda texnologiyalarning roli naqadar kuchli ekanligini ko'rsatadi. - Ta'lim jarayonida samaradorlik: Onlayn ta'lim platformalari (Coursera, Khan Academy, EduMarket va boshqalar) yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirdi. - Axborotga tezkor kirish: Texnologiyalar yoshlarni global bilim maydoniga bog'laydi. - Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Raqamli texnologiyalar yoshlarning ijodkorlik qobiliyatini namoyon etish imkonini beradi. - Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari: Dasturlash, dizayn, marketing kabi sohalar texnologik vositalar orqali o'rganilmoqda. - Internet qaramligi: Ijtimoiy tarmoqlarga haddan ortiq berilish diqqatni jamlay olmaslik, motivatsiyaning pasayishi va ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi. - Axborot ifloslanishi: Internetdagi yolg'on va manipulyativ ma'lumotlar yoshlar tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. - Ijtimoiy begonalashuv: Onlayn muloqot ortidan jonli muloqot kamayib, insonlar orasidagi samimiylilik pasayadi. - Sog'liq muammolari: Kompyuter oldida uzoq vaqt o'tirish, uyqusizlik va harakatsizlik sog'lom turmush tarziga tahdid soladi. Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 2030)

va raqamli iqtisodiyot integratsiyasi kambag'allikni kamaytirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishning asosiy vositasidir. Raqamli texnologiyalar yashil iqtisodiyotga o'tish, boshqaruv samaradorligini oshirish va aholi farovonligini yuksaltirishda xizmat qiladi. O'zbekiston-2030 strategiyasi doirasida ushbu yo'nalishlar hududiy rivojlanish va global maqsadlarga erishish uchun birlashtirilmoqda.

**Raqamli iqtisodiyot va SDG 2030:** Raqamli vositalar (IT, AI, Big Data) SDGning 17 ta maqsadiga, xususan, sifatli ta'lim, munosib ish o'rinlari va sanoatni rivojlantirishga erishishni tezlashtiradi.

**Yashil iqtisodiyot:** Raqamli texnologiyalar energiya samaradorligini oshirish va ekologik izni kamaytirish orqali barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

**O'zbekiston-2030 strategiyasi:** Mamlakatda hududiy rivojlanish strategiyalariga SDG integratsiyasi orqali iqtisodiy o'sish va globallashtirish jarayonlarida raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bir paytlar ilmiy fantastika sohalari uchun mo'ljallangan sun'iy intellekt (SI) endi juda real, rivojlanayotgan texnologiya bo'lib, keng ko'lamlilarga ega. Bir necha soniya ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni yaratishdan so'rovlariga javob berish, ma'lumotlarni tahlil qilish, vazifalarni avtomatlashtirish va shaxsiy yordam ko'rsatishgacha u juda ko'p narsaga qodir. Ajablanarlisi shundaki, bunday ko'p qirrali SI texnologiyasi tezda ko'plab biznes va tarmoqlarning bir qismiga aylanib, dunyomizni shakllantiruvchi jarayonlarda tobora katta rol o'ynamoqda. Sun'iy intellekt — bu kompyuter tizimlarining insonning aqlli xatti-harakatlarini takrorlashga qodir bo'lgan texnologiya va ilmiy yo'nalishdir. SI tizimlari odamlarning intellektual faoliyatlarini o'rganishga, tushunishga va ularga javob berishga qodir bo'lishi kerak. Bunda kompyuterlar ma'lumotlarni qayta ishlash, qarorlar qabul qilish, "raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali 9-son mantiqiy tahlil, tasvirni tanib olish, tilni tushunish va boshqa ko'plab intellektual vazifalarni bajarishi mumkin. Sun'iy intellektning bugungi kun uchun eng keng tarqalgan qo'llaniladigan shakli — zaif sun'iy intellekt bo'lib, u turli sohalarda yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda. SI texnologiyalarining rivojlanishi, ayniqsa, iqtisodiyotda, sanoatda, sog'liqni saqlashda va xizmatlar sohasida keng ko'lamlil imkoniyatlarni yaratmoqda. SI global iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda va 2030 yilda global yalpi ichki mahsulotga taxminan 15,7 trillion AQSh dollari hissa qo'shishi kutilmoqda. Bu o'sish qisman unumdorlikning o'sishi (jami 6,6 trillion AQSh dollari) va qisman iste'molning o'sishi (9,1 trillion AQSh dollari) hisobiga ta'minlanadi. Iste'molning o'sishi shaxsiylashtirilgan xizmatlarning ko'proq mavjudligi, shuningdek, sun'iy intellekt imkoniyatlari yaxshilangan yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etish bilan bog'liq bo'ladi. Darhaqiqat, sun'iy intellekt texnologiyasi jamiyat bilan aloqamizning barcha darajalarida har xil shakllarda paydo bo'ladi, kundalik suhbatdosh kichik aqlli robotlardan tortib yirik sanoat va hukumat darajasidagi ofislarga qadar va butun dunyo bo'ylab hayot tarzini jimgina o'zgartiradi. Aytish mumkinki, sun'iy intellekt bilan bog'liq faoliyat keyingi iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, ishlab chiqarish tarkibi va yondashuvida, iste'mol miqdori va sifatida tub o'zgarishlarga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli qaroriga asosan, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasida bir nechta vazifalar belgilab berilgan. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining iqtisodiyotda o'zni va ahamiyati bugungi kunda sezilarli darajada ortib bormoqda. Sun'iy intellektning iqtisodiyotdagi o'zni va ahamiyatiga so'nggi yillarda katta e'tibor qaratilmoqda, olimlar va soha mutaxassislari uning transformatsion salohiyatini tan olishdi. Sun'iy intellekt sanoat ishlab chiqarishidan tortib moliya, sog'liqni saqlash va boshqa sohalargacha bo'lgan iqtisodiy faoliyatning keng doirasiga tobora ko'proq integratsiya qilinmoqda. Sun'iy intellekt iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish, samaradorlikni oshirish va yangi biznes imkoniyatlarini yaratish orqali iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadi. Zamonaviy aqlli robotlar ilg'or sensorlar, favqulodda to'xtash tizimlari hamda kuch cheklovli harakatlarni o'z ichiga olgan

xavfsizlik funksiyalariga ega. Ular qattiq xavfsizlik sinovlaridan o'tkaziladi va sertifikatlaydigan topshiriladi, shuning uchun ularni to'g'ri joriy etilganida va doim nazoratda saqlanganida inson bilan hamkorlik qilish uchun mutlaqo xavfsizdir aqlli robotlar ayrim vazifalarni avtomatlashtirsa ham, ular robotlarni texnik xizmat ko'rsatish, dasturlash va nazorat qilish sohasida yangi ish imkoniyatlarini yaratmoqda. Robotlar nususini chiqara olmaydigan inson ijodkorligi, hissiy aql va murakkab qaror qabul qilish qobiliyatini talab qiladigan kasblarga e'tibor qaratilmoqda. Robotlar aniqlik, tezlik va takroriy harakatlarni talab qiluvchi sohalarida ishlatilayotganiga ko'p bo'ldi. Robotlarni yanada aqlli qilish ishlari esa davom etmoqda. "Robot yasash uchun ko'plab ehtiyot qismlari kerak, ularni bir-biriga ulab, yelimgab chiqamiz", - deydi "Picknik Robotics" kompaniyasi vakili Neyten Bruks Robotlar aniq va takroriy ishlarni bajarishga usta. Dasturiy ta'minot kompaniyalari ularni yanada aqlli qilish ustida ishlamoqda. Bugun robotlar meva terishi, okeanlar tubiga sho'ng'ishi va ro'zg'or ishlariga ko'maklashishi mumkin, deydi ekspert Ket Skot. "Ular nimalarga qodir? Men bitta qo'lim bilan qaysi ishlarni bajara olaman? Shu savollar ustida ishlaymiz. Odamzot narsalarni ushlaymiz juda usta. Robotlar esa bunday emas. Biz robotlarning narsalarni ushlaymiz va harakatlantirish qobiliyatini yaxshilamoqchimiz", - deydi u. Agar siz tarixga e'tibor qaratsangiz, robot yoki avtomat haqidagi eng qadimgi qaydlardan biri Gomer tomonidan miloddan avvalgi 700-yillarda yozilgan "Iliada" asaridan o'rin olgan.. Hozirga kelib, sun'iy intellektni yaratish imkoniyatlari bilan bir qatorda, u bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjud.

Xulosa:

Hozirgi davr juda ham keskin rivojlanib ketayapti. Agar robotlar ishlab chiqilib ularni ishga kiritishsa insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi insonlar ishidan ayriladi butun olamni robotlar boshqara boshlaydi. Insonlar internetdan juda ham keskin foydalanmoqda internet tezligi juda past bo'lmoqda sababi juda ko'plab insonlar internetdan foydalanmoqda. Zamonaviy texnologiyalar bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Google, Microsoft va Apple kabi yirik kompaniyalar tomonidan yaratilayotgan innovatsiyalar hayotimizning barcha sohalariga kirib bormoqda. Taklifim shundan iboratki, ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini o'qitishni yanada kuchaytirish, yoshlar o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha maxsus dasturlar tashkil etish, internetdan xavfsiz va samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish chunki ko'p yoshlar internet sababli yomon yo'llarga kirib ketayapti ..Sun'iy intellekt va innovatsion texnologiyalarni milliy iqtisodiyotga keng joriy etish va kiberxavfsizlikni yanada kuchaytirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev Ulug'bek Bexruz Ibroxim O'G'Li O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston", 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston 2030" strategiyasi Sattarov N.
3. Sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar .

## **RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON SAVDODA MOLIYAVIY XAVFSIZLIK VA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI**

**Iskandarova Munisa Hasan qizi**

*Toshkent xalqaro universiteti tayanch doktoranti*  
[munisaravshanova@mail.ru](mailto:munisaravshanova@mail.ru)

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi global moliya tizimi va savdo munosabatlarida tub transformatsion jarayonlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, elektron savdo platformalarining kengayishi moliyaviy operatsiyalar hajmi va tezligini sezilarli darajada oshirib, transchegaraviy to'lovlar, raqamli hamyonlar, fintech xizmatlari va masofaviy bank operatsiyalarining ommalashuviga olib kelmoqda [1]. Ushbu jarayon iqtisodiy o'sishni rag'batlantirayotgan bo'lsa-da, moliyaviy xavfsizlik, ma'lumotlar himoyasi va kiberxavfsizlik bilan bog'liq yangi tahdidlarni ham yuzaga chiqarmoqda [2].

Elektron savdoda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash masalasi barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki raqamli to'lov tizimlaridagi ishonchlik va shaffoflik darajasi iqtisodiy barqarorlik, investorlar ishonchi va tadbirkorlik muhitiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG–2030) doirasida moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, xavfsiz va arzon to'lov infratuzilmasini shakllantirish hamda raqamli tengsizlikni qisqartirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi [3].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron savdoda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari kompleks yondashuvni talab etadi. Birinchidan, risklarni aniqlash va baholash tizimlarini takomillashtirish zarur. Zamonaviy skoring modellari va sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari firibgarlik operatsiyalarini erta aniqlash imkonini beradi [4]. Ikkinchidan, RegTech va SupTech texnologiyalarini joriy etish orqali nazorat va muvofiqlik jarayonlarini avtomatlashtirish samaradorlikni oshiradi hamda operatsion xarajatlarni kamaytiradi. Uchinchidan, AML/CFT talablariga qat'iy rioya qilish noqonuniy moliyaviy oqimlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Shuningdek, kiberxavfsizlik standartlarini kuchaytirish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va xalqaro tajribani milliy amaliyotga integratsiya qilish barqaror rivojlanishning muhim shartidir. Chunki elektron savdo tizimida yuzaga keladigan texnik nosozliklar yoki kiberhujumlar nafaqat alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarga, balki butun moliyaviy tizim barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [2].

Demak, elektron savdoda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki raqamli iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron savdoning jadal rivojlanishi moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash masalasini dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda. Moliyaviy risklarni boshqarish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, RegTech va SupTech yechimlarini joriy etish hamda AML/CFT standartlariga muvofiqlikni ta'minlash barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biridir.

Elektron savdoda moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash orqali investorlar ishonchini oshirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Shu bois, mazkur yo'nalishda institutsional va texnologik mexanizmlarni takomillashtirish raqamli iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. World Bank. *World Development Report 2021: Data for Better Lives*. – Washington, DC: World Bank, 2021.
2. BIS (Bank for International Settlements). *Sound Practices: implications of fintech developments for banks and bank supervisors*. – Basel: BIS, 2018.
3. United Nations. *Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development*. – New York: UN, 2015.
4. Chen, H., Chiang, R.H.L., Storey, V.C. *Business Intelligence and Analytics: From Big Data to Big Impact*. – MIS Quarterly, 2012.
5. FATF (Financial Action Task Force). *International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation (The FATF Recommendations)*. – Paris: FATF, 2023 update.
6. OECD. *Digital Security Risk Management in Finance*. – Paris: OECD Publishing, 2020.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Raqamli to'lov xizmatlari va moliyaviy texnologiyalar rivoji bo'yicha hisobot*. – Toshkent, 2024.

# **PRIORITY DIRECTIONS FOR REGULATING FINANCIAL RELATIONS IN ELECTRONIC COMMERCE UNDER CONDITIONS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT**

**Iskandarova Munisa Hasan kizi**

PhD Researcher, Tashkent International University  
[munisaravshanova@mail.ru](mailto:munisaravshanova@mail.ru)

The rapid expansion of the digital economy has fundamentally reshaped financial relations within electronic commerce, creating new institutional, technological, and regulatory challenges [1]. The increasing volume and speed of cross-border digital transactions have strengthened economic efficiency and financial inclusion, yet they have simultaneously intensified systemic risks, cybersecurity vulnerabilities, and regulatory fragmentation [2].

This paper identifies priority directions for regulating financial relations in e-commerce within the framework of sustainable development. Particular emphasis is placed on risk-based supervision, AML/CFT compliance, the integration of RegTech and SupTech technologies, and alignment with the Sustainable Development Goals (SDG–2030) [3]. The study argues that regulatory modernization is essential for ensuring financial stability and long-term sustainable growth of the digital economy.

The transformation of the global economy into a digitally interconnected system has significantly altered traditional financial relations [1]. Electronic commerce has evolved into a core economic infrastructure integrating fintech platforms, digital banking, and real-time payment systems. While digitalization improves transaction efficiency and reduces operational costs, it also generates structural vulnerabilities, including cybersecurity threats, data protection risks, and regulatory asymmetries [4]. Therefore, strengthening regulatory frameworks in electronic commerce is not merely a technical adjustment but a strategic component of sustainable development policy.

Within the framework of SDG–2030, digital financial ecosystems are expected to contribute to inclusive growth, reduced inequality, and institutional resilience [3]. Consequently, financial regulation must simultaneously promote innovation and safeguard systemic stability.

A primary direction in regulating financial relations in e-commerce is the transition from rigid rule-based systems to risk-based supervision models. Traditional regulation often lags behind technological progress, creating supervisory gaps. A risk-oriented framework enables regulators to identify systemic vulnerabilities and allocate supervisory resources proportionally [2]. Adaptive instruments such as regulatory sandboxes and proportional compliance mechanisms support innovation while preserving financial stability [5].

The digital nature of electronic commerce increases exposure to money laundering, terrorist financing, and illicit cross-border transfers. Strengthening AML/CFT compliance mechanisms therefore becomes a strategic priority [6]. Advanced transaction monitoring systems, artificial intelligence tools for anomaly detection, and international regulatory cooperation significantly enhance financial transparency and reduce systemic risks [6]. Technological innovation should also function as a regulatory instrument. RegTech solutions enable automated compliance reporting, digital identity verification, and real-time risk assessment, thereby reducing administrative costs and improving accuracy [7].

SupTech tools allow supervisory authorities to analyze large datasets, monitor systemic indicators, and strengthen macroprudential oversight [7]. Such digital regulatory technologies enhance governance efficiency and institutional trust within sustainable development frameworks. Sustainable development requires inclusive access to digital financial services. Regulatory policies must ensure consumer protection, data security, and affordable payment infrastructures [3].

Expanding financial inclusion contributes to entrepreneurship development, SME growth, and poverty reduction, thereby reinforcing the economic objectives of SDG–2030 [8]. Given the cross-border nature of electronic commerce, fragmented national regulations create inefficiencies and regulatory arbitrage. Harmonization of international standards and coordinated supervisory mechanisms represent essential priority directions [2]. Cooperation among central banks, financial regulators, and international institutions strengthens systemic resilience and supports sustainable global digital integration.

The regulation of financial relations in electronic commerce under conditions of sustainable development requires a multidimensional and forward-looking approach. Priority directions include implementing risk-based supervision, strengthening AML/CFT compliance, integrating RegTech and SupTech technologies, ensuring financial inclusion, and promoting international harmonization.

Modernizing regulatory mechanisms is not merely a response to technological change but a fundamental condition for achieving long-term financial stability and sustainable digital economic growth.

### References

1. World Bank. *World Development Report 2021: Data for Better Lives*. Washington, DC: World Bank, 2021.
2. BIS (Bank for International Settlements). *Sound Practices: Implications of Fintech Developments for Banks and Bank Supervisors*. Basel: BIS, 2018.
3. United Nations. *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York: UN, 2015.
4. OECD. *Digital Security Risk Management in Finance*. Paris: OECD Publishing, 2020.
5. IMF. *The Rise of Digital Money*. International Monetary Fund Report, 2021.
6. FATF. *International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation*. Paris: FATF, 2023 update.
7. Arner, D., Barberis, J., Buckley, R. The Evolution of Fintech and RegTech. *Georgetown Journal of International Law*, 2016.
8. World Bank. *Digital Financial Services and Financial Inclusion*. Washington, DC: World Bank, 2022.

## THE ACTIVITIES OF WORLD BANK GROUP'S HUMAN RIGHTS UMBRELLA TRUST FUND IN FY2024

**Hamrokulova Dildorakhan**

Tashkent state university of economy

The major of International monetary-credit relationship

A fourth-year undergraduate student

[yokubovna1608@gmail.com](mailto:yokubovna1608@gmail.com)

The World Bank Group's Human Rights Trust Fund (HRTF) is designed to enhance and deepen the integration of human rights principles throughout the institution's operations. It achieves this by financing Bank-executed grants focused on human rights, delivering technical and analytical assistance to project teams, and strengthening the knowledge and capacity of management and staff through training programs, knowledge-sharing initiatives, and practical guidance resources. The Human Rights Umbrella (HRU) is funded by contributions from Canada, Finland, France, Germany, Iceland, Norway, Sweden, and the United Kingdom, with an overall target budget of USD 60 million allocated for a ten-year period.

### **Umbrella 2.0 Program**

The HRU is an Umbrella 2.0 Program under the World Bank's new trust fund architecture. The Umbrella 2.0 approach seeks to strengthen the link between funding and strategic priorities,

and to improve efficiencies in management and administration of trust fund resources.<sup>186</sup> Each umbrella program is anchored by a multi-donor trust fund (MDTF) and may include other associated trust funds. The HRTF is the anchor for the HRU; the Inclusive Education Initiative (IEI) MDTF is an associated trust fund. Each umbrella program operates on the basis of the following core principles: one overarching development objective, a unified results framework, a single annual report to donors, one governance body (a partnership council), and a communication and visibility plan.

### The HRTF grants program

In FY2024, the HRTF implemented grants in four main areas: Fragility, Conflict, Violence, and Forced Displacement; Governance; Inclusive Institutions and Empowerment Infrastructure; and Social Inclusion.

Table 1. Implemented grants in FY2024, USD<sup>187</sup>

Fragility, Conflict, Violence, and Forced Displacement		Governance		Inclusive Institutions and Empowerment Infrastructure		Social Inclusion	
Country	The cost of grant	Country	The cost of grant	Country	The cost of grant	Country	The cost of grant
Colombia, Peru	20 749	Sudan	0	Tanzania	14 416	Philippines	18 884
Uzbekistan	218 217	Nigeria	150 994	World	19 770	Uzbekistan	58 861
Cameroon. Cenrtal African Republic	250 000	Cameroon	250 000	Gambia	50 000	World	396 907
Middle East and North Africa	501 565	Sierra Leone	250 000	Nigeria	190 000	Latin America and Caribbean	250 000
Bangladesh	250 000	Pakistan	250 000	Brazil	222 382	Somalia	250 000
World	500 000	Central African Republic	250 000	Ecuador, Colombia, Argentina	250 000	South Asia	300 000
Solomon Islands	250 000	Ghana	250 000			Peru	1 053 203
Democratic Republic of Congo	2 219 500	Zambia	250 000			Ecuador	1 500 000
X`						Colombia	2 146 797

The table shows that in FY2024 the largest grants were allocated to fragile and conflict-affected countries, particularly the Democratic Republic of Congo, Colombia, and Ecuador. This indicates that the Human Rights Trust Fund prioritizes high-risk and vulnerable contexts.

<sup>186</sup> [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

<sup>187</sup> Human Rights Umbrella Trust Fund ANNUAL REPORT, FY2024

Uzbekistan received a relatively modest amount (USD 277 078), but the funding was strategically focused on disability inclusion and accessibility reforms. Overall, the distribution of grants reflects a balanced approach between crisis response, governance strengthening, and social inclusion initiatives.

### **Implemented grants in Uzbekistan by the HRTF**

The HRTF implemented two grants amounting to USD 277 078 for Uzbekistan in FY2024. The first grant, amounting to USD 58 861, focused on Digital Inclusion of Vulnerable Groups in Uzbekistan, while the second grant, totaling USD 218 217, supported the implementation of the Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD).<sup>188</sup>

### **Digital Inclusion in Uzbekistan**

Working with the Ministry of Digital Technologies and IT Park, the World Bank team conducted a qualitative study to identify digital inclusion gaps for persons with disabilities in Uzbekistan. The study informed policy recommendations for the government, focusing on government support, investing in people, and aiding employers. Drawing from international case studies, the report offered funding strategies and shared successful practices from 20 countries. Implemented alongside the Uzbekistan Digital Inclusion Project (P179108), the grant assessed current digital access for persons with disabilities, with findings to be used in training and capacity-building activities under the project.<sup>189</sup>

### **Leveraging Momentum to Support the Government of Uzbekistan’s Implementation of the Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD)**

The grant supported an accessibility audit carried out in Tashkent to examine access to public buildings, public spaces, the availability of appropriate facilities in transportation systems, and the accessibility of digital platforms and services. The main findings of the audit were lack of continuity, and risks in the travel chain for persons with different types of disabilities and the need to improve local construction norms for accessibility. As a follow up, Government requested to support in developing a draft national Accessibility Code incorporating the concept of Universal Design, which emphasizes equitable and flexible use of environments, making them intuitive and easy to navigate for all individuals. Over five hundred (500) architects and urban planners benefitted from the trainings on principles of Universal Design, accessibility standards, review of best international practices on barrier-free environment and the legal obligations under the CRPD. The grant also financed research on Climate Change and Disability Inclusion in Uzbekistan, key findings of which were also published in the blog: Persons with disabilities are more vulnerable to the consequences of climate change in Uzbekistan, says a World Bank study – News from Uzbekistan – Gazeta.uz.<sup>190</sup>

In conclusion, the World Bank Group’s Human Rights Trust Fund (HRTF) in FY2024 played an important role in integrating human rights principles into development programs. The Fund supported governance reforms, social inclusion, and disability rights initiatives across different regions.

The case of Uzbekistan demonstrates how targeted grants can strengthen institutional capacity and promote accessibility and inclusion. Overall, the HRTF contributes to sustainable and inclusive development through a human rights-based approach.

### **References**

1. World Bank Group. (2024). *Human Rights Umbrella Trust Fund (HRU) Annual Report FY2024*. Washington, DC: World Bank.
2. World Bank Group. (2023). *Integrating Human Rights into Development: Approaches and Lessons Learned*. Washington, DC: World Bank.
3. World Bank Group. (2024). *Trust Fund Annual Report 2024*. Washington, DC: World Bank.

---

<sup>188</sup> Human Rights Umbrella Trust Fund ANNUAL REPORT, FY2024

<sup>189</sup> Human Rights Umbrella Trust Fund ANNUAL REPORT, FY2024

<sup>190</sup> Human Rights Umbrella Trust Fund ANNUAL REPORT, FY2024

4. United Nations. (2006). *Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD)*. New York: United Nations.
5. United Nations Development Programme. (2022). *Human Rights-Based Approach to Development Programming*. New York: UNDP.
6. Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights. (2012). *Principles and Guidelines for a Human Rights Approach to Poverty Reduction Strategies*. Geneva: OHCHR.
7. World Bank Group. (2024). *Digital Inclusion and Disability Accessibility in Uzbekistan: Policy Note*. Washington, DC: World Bank.
8. World Bank Group. (2024). *Climate Change and Disability Inclusion in Uzbekistan*. Washington, DC: World Bank.
9. Gazeta.uz. (2024). *Persons with disabilities are more vulnerable to the consequences of climate change in Uzbekistan, says a World Bank study*. Retrieved from <https://www.gazeta.uz>

## **INSON HUQUQLARI, SHAXSIY MA'LUMOTLAR HIMOYASI VA INKLUZIYA**

**O`g`iloy Turdiboyeva Muxtor qizi,**

**Shodiya G`ayratliyeva Normatjon qizi**

Toshkent Xalqaro Universiteti, Yurisprudensiya ta`lim yo`nalishi 2-kurs talabalari.

Ilmiy rahbar: Bilolov Abbosbek Bilolovich

**E-mail:**[mobilezaamin@gmail.com](mailto:mobilezaamin@gmail.com)

[shodiyagayratliyeva@gmail.com](mailto:shodiyagayratliyeva@gmail.com)

Mavzuni tahlil qilishdan avval, biz inson huquqlari va shaxsga doir ma'lumotlar nima degan savolga javob berib o'tsak. Inson huquqlari - bu insonning tug'ilishidan to vafot etguniga qadar butun umri davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklardir. Ushbu universal huquqlar millati, jinsi, irqi yoki etnik kelib chiqishi, rangi, dini, tili yoki boshqa huquqiy maqomidan qat'i nazar, hech qanday kamsitishlarsiz barcha uchun xosdir. .Bu huquqlar har bir insonning qadr-qimmati, erkinligi va farovonligining asosidir.

<sup>1</sup>Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining preambulasi (1948-yil 10-dekabr, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan).

Ular butun dunyo bo'ylab hukumatlar, tashkilotlar va shaxslar uchun yo'l-yo'riq asosini ta'minlab, adolat, tenglik va insonparvarlik mayoqi bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatlar taraqqiy etar ekan, bu huquqlarni himoya qilish va rag'batlantirish, adolatli va barqaror jamiyatlarni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu huquqlar ahamiyati jihatidan fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni o'z ichiga oladi. Ular "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi", "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt", iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt kabi turli xalqaro va huquqiy hujjatlar orqali mustahkamlangan. Jumladan, inson huquqlarini mensimaslik va oyoq-osti qilinishini ta'qiqlash, inson qadr-qimmati va obro'sini himoya qilish Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.<sup>1</sup> Ammo so'ngi yillarda global miqyosda inson huquqlar tizimi "xavf ostida" qolayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Hozirda dunyo aholisining 72% ga yaqini avtoritar rejimlar ostida yashamoqda. Bunday holatlar esa xalqaro huquq normalarining zaiflashuviga va inson huquqlarining ochiqdan-ochiq buzilishiga olib kelmoqda. Jumladan, United Nations ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha ayollarning har 3 nafardan 1 nafari hayoti davomida jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka uchraydi, bu taxminan 30%ga to'g'ri keladi. Bu holatlar nafaqat individual, balki ijtimoiy va iqtisodiy miqyosda ham og'ir oqibatlarini keltirib chiqarmoqda. Ushbu holatlarni oldini olish uchun inson huquqlarini ichki va xalqaro miqyosda himoya qilish haqidagi maxsus kuchaytirilgan qonunlarni takomillashtirish va mavjud normalarni mustahkamlash zarur.

Inson huquqlarini himoya qilishda, shaxsiy ma'lumotlar maxfiylik ham muhim o'rin tutadi. Shaxsiy ma'lumot bu - insonlarning maxfiylik belgisidir, ma'lum bir shaxsni aniqlashga yordam

beruvchi har qanday axborotdir. Bunday ma'lumotlar shaxsning o'ziga xosligini belgilaydi, uni boshqa shaxslardan ajratib turishga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi. Shaxsiy ma'lumotlarga fuqaroning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, yashash manzili, telefon raqami, elektron pochta manzili kiradi. Raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashgan davrda, shaxsiy ma'lumolarning buzilishi va kiberxavfsizlik tahdidlari kun sayin ortib bormoqda. Shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi fuqarolarning daxlsizligi va shaxsiy hayot huquqiga xavf soladi.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi bugungi kunda global miqyosda dolzarb bo'lib, turli mamlakatlarda qabul qilingan qonunchilik normalarining farqliligi kompaniyalar uchun muvofiqlik muammolarini keltirib chiqarmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2018-yilda kuchga kirgan "Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti" (GDPR) shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha qat'iy qoidalarni belgilaydi.<sup>3</sup> Boshqa davlatlarda esa shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha o'ziga xos qonunchilik mavjud bo'lib, bu kompaniyalardan bir nechta yurisdiksiya talablariga moslashishni talab qiladi.

Shaxsiy ma'lumotlar himoyasi borasida milliy qonunchilikka asoslanilgan yondashuv ham muhim o'rin tutadi. 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun ham shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ularni himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi<sup>2</sup>. Mamlakatda shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlashda xalqaro standartlar va qoidalarni joriy qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish samaradorligini oshirish, fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizligi bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlari buzilishining oldini olish va shaxs sifatida har qanday ta'sirlardan himoya qilishga qaratilgani bilan ham ahamiyatli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasi (2019-yil).

Shuni unutmaslik kerakki, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi faqatgina texnik xavfsizlik emas, balki inson qadr-qimmatini e'zozlash demakdir. Bu jarayonda inklyuzivlik tamoyili ham alohida o'rin tutadi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanib borar ekan, jamiyatning har bir a'zosi — jismoniy imkoniyatidan yoki ijtimoiy holatidan qat'i nazar — o'z ma'lumotlarini boshqarish va himoya qilishda teng imkoniyatlarga ega bo'lishi shart. Nima uchun bu muhim?

Teng huquqli kirish: Ko'zi ojiz yoki eshitishda nuqsoni bor shaxslar uchun maxsus interfeyslar yaratish orqali ularning maxfiylik sozlamalaridan mustaqil foydalanishini ta'minlashimiz kerak.

Adolatli algoritmlar: Sun'iy intellekt va ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari inklyuziv bo'lishi, ya'ni biron-bir guruhni kamsitmasligi (diskriminatsiya qilmasligi) lozim.

Olib borilayotgan ilmiy-amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalari davrida inson huquqlari va shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash, inklyuziv imkoniyatlarni xalqaro standartlar orqali uyg'unlashtirish, hamkorlikni kengaytirish va fuqaro huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy va texnik choralarni takomillashtirish dunyo miqyosida eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib bormoqda. Inson huquqlari, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va inklyuziv bir-birini to'ldiruvchi tamoyillar bo'lib, ular samarali himoya qilinsa, nafaqat individual manfaatlar, balki butun jamiyatning barqaror rivoji ta'minlanadi. Shu bois davlatlar va jamiyat barcha qatlamlari uchun adolat, xavfsizlik va tenglikni ta'minlashga intilishi lozim.

<sup>3</sup> Regulation (EU) 2016/679 – **General Data Protection Regulation (GDPR)**.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan).

2. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni (2019-yil).

3. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council (27 April 2016) on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data (General Data Protection Regulation - GDPR).

## **O‘SMIR SPORTCHILARNING ADAPTIV IMKONIYATLARI VA JISMONIY RIVOJLANTIRISH KO‘RSATKICHLARI.**

Odam fiziologiyasi XFY kafedrası datsenti **Холмирзаева М**  
**Kuchqarboyeva Marjona Qudratillo qiz**  
Andijon davlat universiteti 1-kurs talabasi  
E-mail:kuchqarboyevamarjona@gmail.com

Òsmir sportchilarning adaptiv(moslashuv)imkoniyatlari va jismoniy ish qobiliyatini tahlil qilish -- bu sport fiziologiyasi va pedagogikaning eng muhim yonalishlaridan biri hisoblanadi.Òsmirlik davrida organizmda gormonal qayta qurish va intensiv òsish jarayonlari ketayotganligi sababli, adaptatsiya jarayonlari oziga xos murakablika ega bo‘ladi.

1. Adaptiv imkoniyatlarning fiziologik asoslari:

Adaptatsiya — bu organizmning tashqi muhitga va jismoniy zo‘riqlashga moslashish jarayonidir. O‘smirlarda bu jarayon quyidagi tizimlar orqali namoyon bo‘ladi:

Yurak-qon tomir tizimi: O‘smirlarda yurak hajmi kengayadi, biroq tomirlar o‘shishi yurak mushaklari rivojlanishidan biroz ortda qolishi mumkin. Bu "o‘smirlik gipertoniya" yoki tez charchashga sabab bo‘lishi mumkin.

Nerv tizimi: Markaziy nerv tizimi qo‘zg‘aluvchan bo‘ladi. Harakatlarni boshqarish (koordinatsiya) vaqtincha pasayishi mumkin, ammo yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirish tezligi yuqori bo‘ladi.

Gormonal fon: Jinsiy yetilish davrida testosteron va o‘shish gormonlarining ko‘payishi mushak massasining ortishiga va kuch sifatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

2. Jismoniy ish qobiliyati:O‘smir sportchilarning ish qobiliyati asosan ularning aerob (kislородli) va anaerob (kislородsiz) energiya bilan ta‘minlanish tizimiga bog‘liq.

•Asosiy ko‘rsatkichlar-

PWC-170 testi Tomir urishi daqiqasiga 170 taga yetgandagi ish quvvati. O‘smirning umumiy jismoniy tayyorgarligini belgilaydi.(AI Geminiy)

3. Adaptatsiya darajasini belgilovchi omillar:

•Biologik yosh: Paspordagi yosh bilan organizmning rivojlanish darajasi (skelet yetilishi) har doim ham mos kelmaydi.

•Mashg‘ulot hajmi: Haddan tashqari zo‘riqlash (overtraining) adaptatsiya mexanizmlarining buzilishiga va immun tizimining pasayishiga olib kelishi mumkin.

4. Tahlil natijasida aniqlanadigan muammolar:

•Dizadaptatsiya: Mashg‘ulot yuklamalari organizm imkoniyatidan yuqori bo‘lganda yuzaga keladi (uyqusizlik, pulsning tinch holatda yuqoriligi).

•Iqtisodiy samaradorlik: Yaxshi adaptatsiya bo‘lgan sportchida bir xil ishni bajarish uchun kamroq energiya va pastroq puls sarflanadi.

•Muhim eslatma: O‘smirlarda jismoniy yuklamalarni rejalashtirishda "asta-sekinlik" va "individuallik" tamoyillariga qat‘iy amal qilish lozim. Aks holda, organizmning zaxira imkoniyatlari erta tugab qolishi mumkin.

O‘smirlar organizmidagi o‘zgarishlar. O‘smir sportchilarda adaptatsiya quyidagi fiziologik va pedagogik omillarga bog‘liq:

•Gormonal fon: 12-13 yoshdan boshlab testosteron darajasining oshishi o‘g‘il bolalarda jismoniy kuch va chidamlilikning tez sur‘atlar bilan o‘shishiga olib keladi.

•Tayanch-harakat tizimi: Doimiy yuklamalar o‘smirlarda paylar va to‘qimalarning qalinlashishiga hamda mustahkamlanishiga yordam beradi.

•Funksional zahira: O‘smirlar organizmi yuqori plastiklikka ega bo‘lsa-da, yuklamalarni noto‘g‘ri rejalashtirish tezda charchash va surunkali toliqishga olib kelishi mumkin.

Adaptiv sport va jismoniy tarbiya. O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan o‘smirlar uchun adaptiv sport turlarini (masalan, para-voleybol, para-atletika) rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bu yo‘nalishda: O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi huzurida mutaxassislarni tayyorlash institutlari tashkil etilgan.

## 2. Ijtimoiy omillar

Ijtimoiy omillar — bu bizni o‘rab turgan tashqi muhit va jamiyat bilan bog‘liq sharoitlar. Bular ko‘pincha biologik imkoniyatlarning qay darajada yuzaga chiqishini belgilaydi.

## 3. Ijtimoiy va Biologik omillarning o‘zaro bog‘liqligi

Jismoniy rivojlanishni quyidagi formula ko‘rinishida tasavvur qilish mumkin: Genotip (Biologiya) + Muhit (Ijtimoiy holat) = Fenotip (Jismoniy holat)

Akseleratsiya (Tezlashish): Oxirgi 100 yil ichida insoniyatning bo‘yi o‘rtacha 10-15 sm ga o‘sgan. Bu genetik o‘zgarish emas, balki ijtimoiy sharoit (ovqatlanish, tibbiyot, sanitariya) yaxshilangani hisobiga biologik imkoniyatlarning to‘liq yuzaga chiqishidir.

Psixologik muhit: Oiladagi nosog‘lom muhit va stress bolalarda "psixosotsial past bo‘yilik" (psychosocial dwarfism) holatiga sabab bo‘lishi mumkin. Men buni ruhiy holat gormonal tizimga ta‘sir qiladi deb o‘ylayman.

Odamning individual-tipologik xususiyatlari uning xulq faoliyatining xarakteri, shu jumladan sport faoliyatidagi farqini belgilab beradi. V.P.Kaznacheyev (1984) odamning tashqi muhit sharoitlariga moslashishining tipologik xususiyatlarini o‘rganganida, barcha aholini sprinterlar va stayerlar guruhiga hamda oraliq guruhga (mikstlar)ga ajratib tasniflagan. Sprinterlar sport jihatidan eng yuqori kuchlikdagi qisqa muddatli yuklamalarni bajara olishlari, tibbiy jihatdan kasallikning o‘tkir formalariga moyilligi, ruhiy tomondan -emotsional stresslarga beriluvchanligi bilan xarakterlanadilar. Ular tashqi muhitning ekstremal sharoitlariga tezda moslashadilar (eng chekka shimol, uzoq sharq), lekin tez orada bu yerlarni tark etadilar. Stayerlar sport jihatdan davomli, ravon ishlarga ancha bardoshli; surunkali kasalliklarga moyil; noodatiy muhit sharoitlariga ancha vaqt moslashadi, lekin u yerda ish qobiliyatini uzoqroq saqlab qoladi.

## REFERENCES

1. Yoshga oid fiziologiya -Ye.BSologub\_2018
2. Y0sh fiziologiyasi va gigiyenasi -Z.T.Rajamurodov va boshqalar\_2013
3. Yoshga oid fiziologiya -Ye.BSologub\_2010
4. Google
5. AI Gemini
6. Chat GPT

## QIZLAR ORGANIZMINING RIVOJLANISHI VA JISMONIY TARBIASINING

### PRINSPLARI.

Odam fiziologiyasi XFY kafedrası datsenti **Mirzabekova F Muhammadjonova Muhlisa Sarvarbek qizi**  
Andijon davlat universiteti 1-kurs talabasi  
E-mail: [bbek28278@gmail.com](mailto:bbek28278@gmail.com)

Qizlar organizmining o‘shishi va rivojlanishi uzluksiz, notekis va navbatma-navbat kechadigan jarayon bo‘lib, asosan 11-14 yoshda (balog‘at davri) jismoniy va gormonal o‘zgarishlar keskin tezlashadi. Bu davrda suyaklarning cho‘zilishi, jinsiy a‘zolarining shakllanishi va yog‘ to‘qimasining ko‘payishi kuzatiladi. Rivojlanish jismoniy (bo‘y, vazn) va funksional (a‘zolar ishi) moslashuv orqali amalga oshadi. Qizlar organizmining rivojlanish qonuniyatlari quyidagi asosiy bosqichlar va jihatlariga ega:

O‘shishning notekisligi: Bolalik va o‘smirlik davrida organizm bir tekis o‘smaydi. Eng jadal o‘shish davrlari (1-yil va jinsiy balog‘at yoshi) va nisbatan sekinroq davrlar mavjud.

Jinsiy balog‘atning ta‘siri (11-14 yosh): Qizlarda o‘g‘il bolalarga nisbatan balog‘at davri 1-2 yil oldinroq boshlanadi. Bu davrda gormonal o‘zgarishlar (estrogen) ta‘sirida qizlar bo‘yi va vazni tez o‘sadi, gavda tuzilishi o‘zgaradi.

Geteroxronlik (a'zolarining har xil vaqtda rivojlanishi): Organizm a'zolari bir vaqtda emas, balki ma'lum ketma-ketlikda rivojlanadi. Masalan, suyak tizimi va jinsiy a'zolar boshqa a'zolariga nisbatan jadalroq rivojlanadi.

Morfofunksional moslashuv: Jismoniy o'sish (morfologiya) bilan birga a'zolarining funksional imkoniyatlari ham oshib boradi, nerv-endokrin tizimi to'liq shakllanadi.

Tashqi muhit omillari: O'sish jarayoniga ovqatlanish, jismoniy faollik, ijtimoiy muhit va irsiyat katta ta'sir ko'rsatadi. Qizlar o'smirlik davrida to'g'ri ovqatlanish va mo'tadil jismoniy faollik ularning jismoniy va jinsiy rivojlanishini me'yorida kechishini ta'minlaydi. Qiz bolalar organizmining o'sishi va rivojlanishi faqatgina bo'y cho'zilishi emas, balki murakkab biologik, gormonal va psixofiziologik jarayondir. Bu jarayon ma'lum bir qonuniyatlar asosida kechadi.

Quyida qizlar rivojlanishining asosiy qonuniyatlari va bosqichlarini tizimli ravishda ko'rib chiqamiz:

#### 1. Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari

Uzluksizlik va bosqichma-bosqichlik: O'sish jarayoni ona qornidan boshlanib, 20-22 yoshgacha davom etadi. Har bir bosqich o'zidan oldingisiga tayanadi.

O'sishning notekisligi (Geteroxronlik): Organizm a'zolari bir vaqtda o'smaydi. Masalan, qizlarda 10-12 yoshda oyoqlar va qo'llar tez o'ssa, keyinchalik tana va ko'krak qafasi kengayadi.

Jinsiy dimorfizm: Qizlar o'g'il bolalarga qaraganda 1,5–2 yil oldin balog'atga yetadilar. Ularda o'sishning "sakrashi" (rostovoy skachok) 11-13 yoshga to'g'ri kelsa, o'g'il bolalarda bu 13-15 yoshda kuzatiladi.

Yaxlitlik: Jismoniy o'sish har doim ruhiy va gormonal o'zgarishlar bilan parallel ravishda kechadi.

#### 2. Yosh davrlari bo'yicha rivojlanish xususiyatlari

Qizlar organizmi rivojlanishini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

Davr Tavsif

Sut tishlari davri (3-7 yosh) Bo'y o'sishi barqaror, yiliga 5-7 sm. Skelet va mushaklar mustahkamlanadi.

Kichik maktab yoshi (7-10 yosh) "Tinch davr". Organizm energiyani balog'atga tayyorlanish uchun to'playdi.

Pubertat (balog'at) davri (11-15 yosh) Eng muhim bosqich. Estrogen gormoni faollashadi. Ikkilamchi jinsiy belgilar paydo bo'ladi.

O'smirlikning yakunlanishi (16-20 yosh) O'sish to'xtaydi, barcha a'zolar funksional jihatdan yetiladi.

#### 3. Balog'at davridagi o'zgarishlar tartibi

Qiz bolalar rivojlanishida Tanner shkalasi bo'yicha ketma-ketlik mavjud:

Telarxe: Sut bezlarining kattalashishi (odatda 9-10 yoshda boshlanadi).

Pubarxe: Jinsiy a'zolar atrofida va qo'ltiq ostida tuklar paydo bo'lishi.

O'sish sakrashi: Bo'yning keskin cho'zilishi (yiliga 8-10 sm gacha).

Menarxe: Birinchi hayz siklining boshlanishi (odatda 12-13 yoshda). Bu o'sish jarayoni sekinlashayotganidan dalolat beradi.

#### 4. Rivojlanishga ta'sir qiluvchi omillar

Irsiyat (Genetika): Bo'y va tana tuzilishi 70-80% hollarda ota-onadan o'tadi.

Endokrin tizim: Gofiz, qalqonsimon bez va tuxumdonlar gormonlari asosiy "drayver" hisoblanadi.

Muxlisa, [16.02.2026 22:01]

Ovqatlanish: Oqsil, kalsiy va vitaminlar (ayniqsa D vitamini) yetishmasligi o'sishni to'xtatib qo'yishi mumkin.

Psixologik muhit: Surunkali stress gormonal buzilishlarga va rivojlanishdan ortda qolishga sabab bo'lishi mumkin.

Muhim eslatma: Hozirgi kunda akseleratsiya (tez rivojlanish) hodisasi kuzatilmoqda. Shu sababli, ba'zi qizlarda balog'at belgilari 8-9 yoshdan boshlanishi me'yor hisoblanishi mumkin, biroq bu shifokor nazoratida bo'lishi lozim. 8–9 yoshli qizlarda bolalikdan o'smirlik pallasiga

o'tishning ilk bosqichlari boshlanadi. Bu davr ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan sezilarli o'zgarishlar bilan ajralib turadi.

#### 1. Jismoniy o'zgarishlar (Balog'atning ilk belgilari)

Ko'p qizlarda aynan shu yoshda balog'atga yetishning ilk jismoniy alomatlari ko'zga tashlanadi:

Ko'krak bezlarining o'sishi: Bu ko'pincha balog'atning birinchi belgisi bo'lib, 8 yoshdan keyin boshlanishi me'yoriy hisoblanadi. Agar bu o'zgarishlar 8 yoshgacha kuzatilsa, erta balog'atga yetish ehtimoli tufayli shifokor ko'rigi tavsiya etiladi.

Bo'yning o'sishi: Qizlar o'g'il bolalarga qaraganda tezroq bo'y cho'za boshlaydilar.

Gormonal o'zgarishlar: Terining yog'lanishi, husnbuzarlar paydo bo'lishi va ter hidining o'zgarishi (kuchayishi) kuzatilishi mumkin.

#### 2. Ruhiy va hissiy o'zgarishlar

Bu yoshda qizlarning dunyoqarashi va hissiyotlari ham murakkablashadi:

Mustaqillikka intilish: Qizlar o'z buyumlarini tartiblash, xonalarini bezatish va shaxsiy qarorlar qabul qilishga harakat qilishadi.

Ijtimoiy munosabatlar: Do'stlik aloqalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular tengdoshlari bilan sirlashishni va guruhlarga bo'linib o'ynashni boshlaydilar.

Mas'uliyat hissi: Maktab va uy vazifalariga nisbatan mas'uliyat hissi va biror narsaga erishish ishtiyoqi kuchayadi.

Hissiy o'zgaruvchanlik: Gormonlar ta'sirida kayfiyatning tez-tez o'zgarishi, biroz asabiylik yoki haddan tashqari ta'sirchanlik kuzatilishi mumkin.

Ota-onalar uchun tavsiyalar

Suhbatlashing: Qiz bolada o'z tanasidagi o'zgarishlar haqida qo'rquv bo'lmasligi uchun u bilan ochiq va do'stona suhbat qiling.

Shaxsiy gigiyena: Terining o'zgarishi va terlashga qarshi to'g'ri gigiyena qoidalarini o'rgating.

Qiziqishlarini qo'llab-quvvatlang: Bu yoshda qizlar turli narsalarni yig'ish (kolleksiya qilish) yoki ijod bilan shug'ullanishga moyil bo'lishadi, buni rag'batlantirish lozim. Qizlarda o'smirlik davri odatda 10–11 yoshdan boshlanib, 18–19 yoshgacha davom etadi. Biroq, bu muddat har bir organizmning individual xususiyatlariga ko'ra farq qilishi mumkin. Mutaxassislar o'smirlik davrini bir nechta bosqichga bo'lishadi:

Ilk o'smirlik (10–13 yosh): Bu davrda qizlarda jismoniy o'sish tezlashadi va balog'atning ilk tashqi belgilari (masalan, ko'krak bezlarining rivojlanishi) ko'zga tashlanadi.

O'rta o'smirlik (14–15 yosh): Jinsiy yetilish jarayoni faollashadi, hayz ko'rish boshlanadi va hissiy o'zgaruvchanlik (inqiroz davri) yuqori nuqtaga chiqadi.

Kech o'smirlik (16–19 yosh): Jismoniy rivojlanish yakuniga yetadi va shaxsning ijtimoiy-psixologik shakllanishi barqarorlashadi. O'zbekistonda o'smirlar (10–19 yoshlilar) aholining salmoqli qismini tashkil etadi va ularning salomatligini muhofaza qilish uchun UNICEF Uzbekistan davlat organlari bilan hamkorlikda maxsus strategiyalarni amalga oshiradi. So'nggi yillarda qizlarda balog'atga yetish davri biroz "yoshargan" bo'lib, ayrim holatlarda ilk belgilar 8–10 yoshda ham kuzatilmoqda. O'smir qizlarni jismoniy tarbiyalash nafaqat ularning tashqi ko'rinishi, balki salomatligi va o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu davrda organizmda kechayotgan jadal o'zgarishlarni hisobga olgan holda, quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

#### 1. Muntazam jismoniy faollik

O'smirlar har kuni kamida 60 daqiqa davomida o'rtacha yoki yuqori intensivlikdagi jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishlari tavsiya etiladi. Aerobik mashqlar: Yugurish, suzish, raqs tushish yoki velosiped haydash yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi.

Kuch va suyaklarni mustahkamlash: Haftada kamida 3 marta sakrash (skakalka), turnikda tortilish yoki yengil gimnastika mashqlari suyak to'qimalarining rivojlanishi uchun zarur.

#### 2. Sport turini tanlashda erkinlik

Qiz bolaga u yoqtiradigan va o'zini erkin his qiladigan sport turini tanlashga imkon bering. Bo'y o'sishi uchun: Agar bo'y o'sishini jadallashtirish kerak bo'lsa, suzish, basketbol va turnikda tortilish kabi mashqlar eng samarali hisoblanadi.

Psixologik qulaylik: Agar qiz bola o'z tanasidan uyalsa, ochiq suzish havzalari o'rniga yopiqroq sport kiyimlarida shug'ullanish mumkin bo'lgan yoga yoki raqs to'garaklarini tanlash maqsadga muvofiq.

### 3. To'g'ri ovqatlanish va uyqu

Jismoniy tarbiya faqat mashqlar bilan cheklanmaydi, u sog'lom turmush tarzini ham o'z ichiga oladi:

Ratsion: O'smir qizlar organizmi mikroelementlar (ayniqsa kalsiy va temir) hamda vitaminlarga boy ovqatlanishga muhtoj.

Uyqu: Jismoniy tiklanish va o'sish gormoni ishlab chiqilishi uchun sutkasiga kamida 8–10 soat sifatli uyqu zarur.

### 4. Ota-onaning o'rni va motivatsiya

Shaxsiy namuna: Qizingiz bilan birga sayr qiling yoki birgalikda sport mashg'ulotlariga qatnashing. Bu nafaqat uning sog'lig'iga, balki o'zaro ishonchli munosabatlarga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Ijobiy yondashuv: Mashqlarni jazo yoki "ozish vositasi" sifatida emas, balki xursandchilik va salomatlik manbai sifatida taqdim eting.

O'smir qizlar jismoniy tarbiyasi ularning organizmidagi keskin fiziologik o'zgarishlar (balog'at davri) va psixologik shakllanish jarayonlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim.

#### 1. Fiziologik prinsiplar

Ushbu prinsiplar organizmning funksional imkoniyatlariga asoslanadi:

Yuklamani me'yorlash: O'smir qizlarda yurak-qon tomir va nafas olish tizimi o'g'il bolalarga nisbatan kichikroq hajmga ega, shuning uchun jismoniy yuklamalar ularning chidamlilik darajasiga qarab belgilanishi shart.

Gormonal davriylikni hisobga olish: Hayz sikli davrida (menarxe boshlangandan so'ng) keskin sakrashlar, og'ir kuch ishlatiladigan mashqlar cheklanadi va mashg'ulotlar intensivligi pasaytiriladi.

Morfologik moslashuv: Suyak tizimi hali to'liq qotmaganligi sababli, umurtqa pog'onasiga tushadigan haddan tashqari vertikal yuklamalardan qochish va qomatni to'g'ri shakllantiruvchi mashqlarga urg'u berish kerak.

Tezkorlik va egiluvchanlikka yo'naltirilganlik: 11-13 yoshli qizlarda egiluvchanlik va harakat koordinatsiyasi yuqori bo'ladi, bu davrda gimnastika va raqs elementlaridan foydalanish fiziologik jihatdan samaralidir.

#### 2. Pedagogik prinsiplar

Tarbiyaviy va uslubiy yondashuvlar quyidagi qoidalarga tayanadi:

Individuallashtirish: Har bir qizning jismoniy tayyorgarligi va salomatlik holatidan kelib chiqib, shaxsiy yondashuvni qo'llash.

Motivatsiyani oshirish: O'smirlikda o'z tanasidan uyalish yoki jismoniy faollikka qiziqish pasayishi kuzatilishi mumkin. Pedagog o'yin texnologiyalari va estetik jismoniy mashqlar (aerobika, sheyping) orqali qiziqishni uyg'otishi zarur.

Asta-sekinlik va izchillik: Mashqlar oddiydan murakkabga qarab, organizmning moslashuv qobiliyatini buzmaganda o'rgatiladi.

Onglilik va faollik: Qizlarga bajarilayotgan mashqlarning sog'liq va kelajakdagi onalik (reproduktiv salomatlik) uchun foydasi tushuntirilishi pedagogik samarani oshiradi. Jismoniy tarbiya jarayonida ushbu prinsiplarning uyg'unligi qizlar organizmining garmonik rivojlanishini va sog'lom turmush tarzini shakllantirishni ta'minlaydi.

## REFERENCES

1. Yoshga oid fiziologiya -Ye.BSologub-2018
2. O'smirlik va Balog'at fiziologiyasi

3. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi
4. Chat GPT
5. Google

### GENERAL THEORIES OF VERBAL HUMOR.

**Boykeldiyeva Sitora Hotam qizi**

3<sup>rd</sup> year student Faculty of Philology and Language  
Teaching Navoi Innovation University

The general theory of verbal humor (GTVH) was proposed by Viktor Raskin and Salvatore Attardo in the article "Script theory revis(it)ed: joke similarity and joke representation model". It integrated Raskin's ideas of Script Opposition (SO), developed in his Script-based Semantic Theory of Humor, into the GTVH as one of six levels of independent Knowledge Resources (KRs). These KRs could be used to model individual verbal jokes as well as analyze the degree of similarity or difference between them.

The table of Riskin's knowledge resources propose in Verbal Theory

1.	<i>Script opposition (SO)</i>	references the script opposition included in Raskin's SSTH. This includes, among others, themes such as real (unreal), actual (non-actual), normal (abnormal), possible (impossible).
2.	<i>Logical mechanism (LM)</i>	refers to the mechanism which connects the different scripts in the joke. These can range from a simple verbal technique like a pun to more complex LMs such as faulty logic or false analogies.
3.	<i>Situation</i>	can include objects, activities, instruments, props needed to tell the story.
4.	<i>Target</i>	identifies the actor(s) who become the "butt" of the joke. This labeling serves to develop and solidify stereotypes of ethnic groups, professions, etc. This is an optional KR
5.	<i>Narrative strategy (NS)</i>	addresses the narrative format of the joke, as either a simple narrative, a dialogue, or a riddle. It attempts to classify the different genres and subgenres of verbal humor. In a subsequent study Attardo expands the NS to include oral and printed humorous narratives of any length, not just jokes.
6.	<i>Language</i>	"...contains all the information necessary for the verbalization of a text. It is responsible for the exact wording ...and for the placement of the functional elements."

As can be seen from the table, based on the above-mentioned knowledge of verbal humor and the scientific-theoretical research he conducted, Raskin's identified several key resources (types): Script Opposition, Logical Mechanism, Situation, Target, Narrative Strategy, Language. Developed by Victor Raskin and later expanded with Salvatore Attardo.

Humor is intertwined with all literary genres. It flourishes in a stable society and is aimed at exposing the same moral norms, as well as revealing incongruity and hypocrisy. It exaggerates cruelty and foolishness. It is important to draw appropriate conclusions from verbal jokes.

To illustrate their theory, the authors use 6 examples of light bulb joke, each variant shifted by a single Knowledge Resource. Each one of the KRs, ordered hierarchically above and starting with the Script Opposition, has the ability to "determine the parameters below themselves, and are

determined [circumscribed] by those above themselves. 'Determination' is to be intended as limiting or reducing the options available for the instantiation of the parameter; for example, the choice of the SO (script opposition) DUMB/SMART will reduce the options available to the generation in the TA (in North America to Poles, etc.)"

One of the advantages of this theory (GTVH) over Raskin's script-based semantic theory (SSTH) is that through the inclusion of the Narrative Strategy (NS) any and all humorous texts can be categorized. Whereas Raskin's SSTH only deals with jokes, the GTVH considers all humorous text from spontaneous one-liners to funny stories and literature. This theory can also, by identifying how many of the Knowledge Resources are identical for any two humorous pieces, begin to define the degree of similarity between the two.

As to the ordering of the Knowledge Resources, there has been much discussion. Willibald Ruch, a distinguished German psychologist, and humor researcher, wanted to test empirically the ordering of the Knowledge Resources, with only partial success. Nevertheless, both the listed Knowledge Resources in the GTVH and their relationship to each other has proven to be fertile ground in the further investigation of what exactly makes humor funny.

Several years later, the research conducted by Victor Raskin was significantly developed and expanded by Salvatore Attardo. Attardo refined Raskin's Script-based Semantic Theory of Humor (SSTH), which was grounded in the semantic foundations of humor, making it more systematic and comprehensive and transforming it into a broader model. As a result, humor could be analyzed not only from a semantic perspective, but also from structural, pragmatic, and discourse perspectives.

Attardo also studied humor from the standpoint of pragmatics and discourse analysis. He demonstrated that humor is closely connected to context, implicature, speech acts, and the communicative situation. His 1994 book, *Linguistic Theories of Humor*, is considered an important scholarly source that systematically explains the linguistic foundations of verbal humor, and it is regarded as his most significant work.

In this both of scientists works about general theory of verbal humour is give to us how to understand the humor(joke) in the real life. And the given 6 knowledge resources to understand widely and clearly.

### **Conclusion.**

In this article was given many information about Viktor Riskin and Salvatore Attardo's researches about the Verbal Humour and it's 6 knowledge resources.

The present study has examined verbal humour from a linguistic perspective through the framework of the General Theory of Verbal Humour (GTVH). The analysis demonstrates that verbal humour is not a random or purely subjective phenomenon, but a structured and rule-governed form of discourse grounded in semantic, pragmatic, and cognitive mechanisms. Central to the theory is the concept of script opposition, which explains how humour emerges from the interaction of incompatible semantic interpretations within a single text.

Furthermore, the applicability of GTVH to various genres, including conversational humour, satire, and media discourse, highlights its theoretical flexibility and explanatory power. The findings of this study confirm that the General Theory of Verbal Humour remains a valuable and effective tool in contemporary linguistic research. Future studies may extend this framework to cross-cultural humour analysis, translation studies, and computational linguistics, thereby further enhancing our understanding of humour as a complex communicative and cognitive phenomenon.

### **References**

1. Attardo, S. (1994). *Linguistic Theories of Humor*. Berlin: Mouton de Gruyter, pp.200-222
2. Attardo, S., & Raskin, V. (1991). Script Theory Revis(it)ed: Joke Similarity and Joke Representation Model. *Humor: International Journal of Humor Research*, 4(3-4), 293-347.
3. Raskin, V. (1985). *Semantic Mechanisms of Humor*. Dordrecht: D. Reidel Publishing Company, pp. 99-114.

4. Attardo, S. (1994). *Linguistic Theories of Humor*. Berlin: Mouton de Gruyter, pp. 222–230.

5. Raskin, V., & Attardo, S. (1991). Script Theory Revisited: Joke Similarity and Joke Representation Model. *Humor: International Journal of Humor Research*, 4(3–4), pp. 308–314.

## **INSON HUQUQLARI, SHAXSIY MA'LUMOTLAR HIMOYASI VA INKLYUZIYA TAMOYILLARINI TA'LIM HAMDA RAQAMLI MUHITDA TA'MINLASH MASALALARI**

**Ganiyeva Muborak**, TIU Ijtimoiy fanlar  
va ta'lim kafedrasi v.b. professori,  
Tolipova Zaxro, TIU PS-1-25 guruh talabasi.

XXI asrda ta'lim tizimi va jamiyat hayoti jadal raqamlashtirilmoqda. Masofaviy ta'lim, onlayn platformalar, sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar keng qo'llanilmoqda. Bu jarayon ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, inson huquqlarini himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va inklyuzivlikni ta'minlash masalalarini ham dolzarb qilib qo'ymoqda.

Raqamli muhitda foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari keng miqyosda to'planadi va qayta ishlanadi. Agar tegishli himoya mexanizmlari mavjud bo'lmasa, bu: shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishiga; kiberxavfsizlik tahdidlariga; diskriminatsiya va raqamli tengsizlikka; ta'limda adolatsizlikka olib kelishi mumkin.

Shu sababli zamonaviy ta'lim siyosatida inson huquqlari, ma'lumotlar himoyasi va inklyuziya o'zaro integratsiyalashgan yondashuv sifatida ko'rilishi zarur.

Mazkur maqolaning maqsadi – ta'lim va raqamli muhitda ushbu tamoyillarni ta'minlashning nazariy asoslari, muammolari va samarali mexanizmlarini tahlil qilishdir.

Inson huquqlari – har bir shaxsga tug'ilishidan boshlab tegishli bo'lgan ajralmas huquqlar majmuasidir. Zamonaviy talqinda raqamli huquqlar ham inson huquqlarining tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Ta'lim sohasida inson huquqlarining asosiy yo'nalishlari: ta'lim olish huquqi; teng imkoniyatlar; shaxsiy hayot daxlsizligi; axborotdan foydalanish erkinligi; diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik.

Raqamli muhit ushbu huquqlarni kengaytirishi ham, aksincha, cheklashi ham mumkin. Shu bois “huquqga asoslangan yondashuv” (rights-based approach) muhim metodologik asos hisoblanadi.

Ta'limning raqamlashtirilishi natijasida quyidagi turdagi ma'lumotlar yig'ilmoqda: o'quvchilarning shaxsiy profillari; biometrik ma'lumotlar; o'quv analitikasi; xulq-atvor ma'lumotlari; baholash natijalari.

Asosiy xavf-xatarlar: ma'lumotlarning ruxsatsiz tarqalishi; tijoriy maqsadlarda noqonuniy foydalanish; profiling va algoritmik diskriminatsiya; kiberhujumlar.

Shu sababli ta'lim tizimida privacy by design va data minimization tamoyillarini joriy etish muhim.

Inklyuziv ta'lim – bu barcha o'quvchilar, jumladan nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, qizlar va chekka hududlardagi yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan yondashuvdir.

Raqamli muhitda inklyuziyaning asosiy yo'nalishlari: raqamli tenglik; moslashtirilgan interfeyslar; assistiv texnologiyalar; gender inklyuziyasi; hududiy tenglik.

Agar platformalar universal dizayn tamoyiliga asoslanmasa, raqamli ta'lim yangi tengsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ta'lim muassasalarida kompleks ta'minlash mexanizmlari quyidagilardan iborat:

1. Normativ-huquqiy mexanizmlar. shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni kuchaytirish; bolalar ma'lumotlarini alohida himoyalash; ta'lim platformalarini sertifikatlash; ma'lumotlar bilan ishlash reglamentlari.

2. Tashkiliy mexanizmlar. Data Protection Officer joriy etish; kiberxavfsizlik auditlari; risklarni baholash tizimi; maxfiylik siyosatini joriy qilish.

3. Pedagogik mexanizmlar. raqamli etikani o'qitish; media savodxonlikni rivojlantirish; xavfsiz internet ko'nikmalarini shakllantirish; inklyuziv pedagogika.

4. Texnologik mexanizmlar ma'lumotlarni shifrlash; ko'p bosqichli autentifikatsiya; anonimlashtirish; universal dizayn.

Yevropa Ittifoqi (GDPR) – ma'lumotlar himoyasining eng qat'iy modeli. AQSh (COPPA) – bolalar ma'lumotlarini himoya qiladi. Finlyandiya – inklyuziv raqamli ta'lim yetakchisi. Janubiy Koreya – maktablarda kiberxavfsizlik majburiy fan. Ushbu tajribalar milliy tizimni takomillashtirish uchun muhim.

Inson huquqlari, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va inklyuziya tamoyillarini ta'lim hamda raqamli muhitda ta'minlash masalalari bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni beramiz: ta'limda "raqamli huquqlar siyosati"ni joriy etish; har bir ta'lim platformasida privacy audit o'tkazish; inklyuziv dizayn standartlarini majburiy qilish; o'qituvchilar uchun raqamli etika modullarini kiritish; bolalar ma'lumotlari uchun alohida himoya rejimini joriy etish; raqamli tenglik monitoring tizimini yaratish; ai tizimlarida diskriminatsiyani audit qilish hamda ota-onalar uchun raqamli xavfsizlik bo'yicha treninglar tashkil etish.

Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimida inson huquqlari, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va inklyuziya tamoyillarini ta'minlash strategik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ushbu yo'nalishda muvaffaqiyatga erishish uchun normativ, tashkiliy, pedagogik va texnologik choralar integratsiyasi zarur.

Kelajak ta'limi – bu nafaqat raqamli, balki adolatli, xavfsiz va inklyuziv bo'lishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmon. Toshkent.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2016). "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun. Toshkent.

3. UNESCO. (2021). Guidelines for ICT in Education and Inclusive Learning. Paris: UNESCO.

4. Redecker, C. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). Luxembourg: Publications Office of the European Union.

5. World Bank. (2021). World Development Report: Data for Better Lives. Washington, DC: World Bank.

## **ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ АКАДЕМИЧЕСКИХ ПРАВ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН)**

Доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент кафедры русской филологии СамГИИЯ **Мусинова Зебо Турабовна**  
E-mail: zebomusinova08@gmail.com

В XXI веке глобальная цифровизация является ключевым фактором трансформации всех сфер общественной жизни, включая образование. В условиях устойчивого развития цифровизация приобретает не только технологическое, но и социально-правовое значение, поскольку она напрямую связана с реализацией права человека на образование, закрепленного во Всеобщей декларации прав человека (ст. 26) и Конвенции о правах

ребенка (ст. 28). Для молодежи, которая является активным участником образовательного процесса и будущим кадровым ресурсом страны, обеспечение академических прав становится важнейшей задачей государственной молодежной политики.

В Республике Узбекистан цифровизация образования реализуется через государственные программы, направленные на внедрение электронных образовательных платформ, развитие дистанционного обучения, цифровую трансформацию университетской инфраструктуры и повышение квалификации преподавателей. Одновременно возникают новые вызовы: цифровое неравенство, угроза академической добросовестности, необходимость правового регулирования использования искусственного интеллекта в образовательном процессе.

Цифровизация образования — это процесс глубокого преобразования организационной, методической и технологической структуры образовательной деятельности на основе внедрения цифровых технологий. В отличие от обычной информатизации, цифровизация включает в себя: автоматизацию управленческих процессов, развитие дистанционных образовательных ресурсов, внедрение электронных образовательных платформ и формирование цифровой компетенции студентов и преподавателей.

Концепция устойчивого развития, закреплённая в Программе ООН «Цели устойчивого развития до 2030 года», предусматривает обеспечение качественного образования, инклюзивного и справедливого, доступного для всех слоёв населения. В этом контексте цифровизация выступает как инструмент реализации права на образование, академической свободы и равных возможностей.

Таким образом, цифровизация образования выступает не только как технологический процесс модернизации учебного пространства, но и как фактор трансформации институциональных и правовых основ образовательной деятельности. Изменение форм взаимодействия между субъектами образовательного процесса обуславливает необходимость переосмысления содержания и механизмов реализации академических прав молодежи в условиях цифровой образовательной среды.

В условиях цифровой трансформации академические права молодежи приобретают новые формы реализации и содержательные акценты. К числу ключевых академических прав относятся:

1. **Право на доступ к образованию**, которое в цифровой среде трансформируется в возможность пользоваться электронными платформами, онлайн-курсами и цифровыми библиотеками.
2. **Право на академическую свободу**, обеспечивающее возможность самостоятельного выбора тем, форм и методов обучения в пределах учебного плана.
3. **Право на равные цифровые возможности**, включая доступ к современным гаджетам, интернет-соединению и цифровой инфраструктуре.
4. **Право на защиту персональных данных**, что особенно актуально в условиях дистанционного обучения и использования электронных систем оценки знаний.

В контексте концепции устойчивого развития цифровизация образования рассматривается как инструмент обеспечения равного доступа к знаниям и формирования инклюзивной образовательной среды, что актуализирует проблему гарантирования академических прав молодежи в новых социотехнологических условиях.

В Республике Узбекистан эти права закреплены в **Законе «Об образовании» (ст. 2, 15, 23)**, **Законе «О молодежной политике» (ст. 7, 10)**, а также в **Постановлениях Кабинета Министров о цифровизации образования и внедрении электронного документооборота**.

Нормативное закрепление академических прав молодежи в условиях цифровизации предполагает их практическую реализацию через институциональные механизмы модернизации системы высшего образования. Иначе говоря, правовые гарантии

приобретают реальное содержание лишь при условии системной цифровой трансформации образовательной инфраструктуры.

Цифровая трансформация высшего образования в Республике Узбекистан выступает инструментом практической реализации закрепленных академических прав и направлена на формирование современной, технологически оснащенной образовательной среды.

Реализация цифровизации в высшем образовании Узбекистана включает:

- Создание электронных образовательных платформ (e-learning, Moodle, виртуальные лаборатории), обеспечивающих расширенный доступ к учебным материалам и индивидуализацию образовательной траектории.

- Внедрение систем дистанционного обучения, позволяющих студентам из отдаленных регионов получать качественное образование на равных условиях.

- Автоматизацию управления вузами, включая электронные журналы успеваемости, цифровые расписания и учет посещаемости, что повышает прозрачность образовательного процесса.

- Повышение цифровых компетенций преподавательского состава, включая освоение современных образовательных технологий и инструментов искусственного интеллекта.

Особое внимание уделяется проекту «Цифровой университет», целью которого является интеграция цифровых технологий во все аспекты образовательного процесса, повышение прозрачности и эффективности управления, а также укрепление академической мобильности и доступности образования.

Вместе с тем цифровая трансформация, наряду с очевидными преимуществами, сопровождается рядом системных рисков и вызовов, способных повлиять на реализацию академических прав молодежи и качество образовательного процесса.

**Риски и вызовы цифровизации заключаются в следующем:**

1. **Цифровое неравенство** — различия в доступе к технологиям и интернет-инфраструктуре между городскими и сельскими студентами.

2. **Проблемы академической добросовестности** — риск использования цифровых инструментов для недобросовестного выполнения учебных заданий.

3. **Нерегулируемое использование технологий искусственного интеллекта** — возможность автоматического создания учебных работ без достаточного контроля качества и самостоятельности.

4. **Конфиденциальность данных** — необходимость надежной защиты персональной информации студентов и преподавателей в условиях цифрового документооборота.

5. **Социальная изоляция** — снижение уровня личного взаимодействия и развития коммуникативных навыков в онлайн-среде.

Указанные риски требуют разработки комплексной государственной политики цифровой этики и нормативного регулирования использования образовательных технологий.

Перспективы дальнейших исследований связаны с разработкой модели цифровой правовой культуры студентов и формированием национальной стратегии академической цифровой ответственности.

Цифровая трансформация высшего образования является ключевым механизмом обеспечения академических прав молодежи в условиях устойчивого развития. В Республике Узбекистан проводятся системные мероприятия, направленные на развитие цифровой образовательной среды. Одновременно необходимо устранять риски, связанные с цифровым неравенством, академической добросовестностью и правовой защитой студентов. Баланс между технологическим прогрессом и гуманистическими принципами обеспечит формирование устойчивой, инклюзивной и качественной системы высшего образования.

## Список литературы

1. Всеобщая декларация прав человека. – URL: <https://www.un.org/ru/universal-declaration-human-rights/>
2. Конвенция о правах ребенка. – URL: <https://www.ohchr.org/ru/professionalinterest/pages/crc.aspx>
3. Закон Республики Узбекистан «Об образовании». – Tashkent, 2017.
4. Закон Республики Узбекистан «О молодежной политике». – Tashkent, 2017.
5. Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030». – Tashkent, 2020.
6. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О внедрении электронного документооборота в образовательных учреждениях». – Tashkent, 2019.
7. Smith J. Digital Transformation in Higher Education: Global Perspectives. – London: Routledge, 2020.
8. Jones A., Brown P. E-Learning and Academic Rights. – New York: Springer, 2019.
9. UNICEF. The Right to Education in the Digital Age. – New York, 2021.
10. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017.

## RAQAMLI HUQUQBUZARLIKLAR VA UNGA NISBATAN JAVOBGARLIK MASALALARI

**Valijonova Madinabonu Muzaffarjon qizi**

“Toshkent Xalqaro Universiteti “

**e-mail: [valijonovam79@gmail.com](mailto:valijonovam79@gmail.com)**

Ilmiy Rahbar: TIU “Huquqiy fanlar” kafedrasi mudirasi, Yu.f.d., professor **Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**

Raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga chuqur kirib kelishi bilan birga, yangi turdagi huquqbuzarliklar – raqamli huquqbuzarliklar ham yuzaga kelmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron xizmatlar va sun’iy intellekt tizimlarining keng tarqalishi nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatni osonlashtirdi, balki shaxsiy ma’lumotlar, moliyaviy resurslar va davlat infratuzilmasiga xavf soluvchi yangi huquqbuzarlik imkoniyatlarini ham yaratdi.

Raqamli huquqbuzarliklar o’z xarakteri bo’yicha anonim, transchegaraviy va tezkor bo’lib, ularni aniqlash va isbotlash jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli zamonaviy jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash maqsadida ushbu muammolarni huquqiy jihatdan tartibga solish, xalqaro tajribani o’rganish va samarali javobgarlik mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O’zbekiston Respublikasida kompyuter axboroti va internet orqali sodir etiladigan huquqbuzarliklar uchun alohida normativ-huquqiy baza mavjud bo’lsa-da, texnologik rivojlanish va global kiberxavfsizlik tahdidlari ushbu qonunchilikni doimiy takomillashtirishni talab qiladi. Shu munosabat bilan maqola O’zbekiston qonunchiligi va xorijiy davlatlar, xususan, AQSh va Yevropa Ittifoqi tajribasini qiyosiy tahlil qiladi hamda zamonaviy raqamli jinoyatlar bilan bog’liq dolzarb muammolarni yoritadi.

### **Raqamli huquqbuzarlik tushunchasi va xususiyatlari**

Raqamli huquqbuzarliklar – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), internet tarmoqlari va elektron qurilmalar orqali sodir etiladigan qonunga xilof harakatlar (yoki harakatsizlik)dir. Ular nafaqat shaxsiy foydalanuvchilarga, balki jamiyat, korporatsiyalar va davlat infratuzilmasiga ham tahdid soladi,

Raqamli huquqbuzarliklar bir qator xususiyatlarga ega:

1. **Anonimlik va masofaviylik** – jinoyatchilar ko’pincha o’z shaxsi sir saqlanib, boshqa davlat hududidan harakat qilishi mumkin <sup>1</sup>.

2. **Transchegaraviy xarakter** – kiberjinoyatlar ko‘pincha bir nechta davlat hududida amalga oshiriladi, bu esa yurisdiksiya va tergovni murakkablashtiradi <sup>2</sup>.

3. **Tezkorlik va keng tarqalish** – axborot va zararli dasturlar tezkor tarqaladi, natijada ko‘p foydalanuvchi va tizimlarga zarar yetkazilishi mumkin <sup>3</sup>.

4. **Dalillarni yo‘q qilish xavfi** – raqamli dalillarni manipulyatsiya qilish yoki o‘chirish imkoniyati mavjud bo‘lib, jinoyatlarni aniqlash va isbotlashni

<sup>1</sup><https://op.europa.eu/en/publication-detail/-/publication/9fc69b1c-c682-11e6-a6db-01aa75ed71a1>

<sup>2</sup> <https://www.coe.int/en/web/cybercrime>

<sup>3</sup> <https://www.itu.int/en/ITU-D/Cybersecurity/pages/global-cybersecurity-index.aspx>

<sup>4</sup><https://www.fbi.gov/news/press-releases/fbi-releases-the-internet-crime-complaint-center-2021-internet-crime-report>

qiyinlashtiradi

5. **Texnologik murakkablik** – jinoyatning sodir etilishi va aniqlanishi yuqori texnologik bilim talab qiladi, shu sababli mutaxassislar ishtirokisiz tergov jarayoni samarasiz bo‘lishi.

Raqamli huquqbuzarliklarni huquqiy jihatdan tushunish, ularning turlarini aniqlash va javobgarlikka tortish mexanizmlarini ishlab chiqish global va milliy xavfsizlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **O‘zbekiston Respublikasida raqamli huquqbuzarliklar uchun javobgarlik**

O‘zbekiston Respublikasida raqamli huquqbuzarliklar jinoyat va ma‘muriy javobgarlik bilan tartibga solinadi hamda axborot texnologiyalari sohasida jinoyat sodir etgan shaxslar uchun tegishli choralar ko‘riladi. Jinoyat kodeksida bevosita raqamli jinoyatlar va kompyuterga oid qilmishlar uchun alohida boblar mavjud.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining **XX<sup>1</sup> bob “Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar”** bobida ham axborot tizimlariga noqonuniy kirish, ma‘lumotlarni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki bloklash kabi harakatlarni jinoyat deb biladi va unga jazo choralari belgilaydi. Mazkur norma qonuniy ruxsatlarsiz axborot resurslariga kirish orqali katta zarar yetkazgan shaxslarni jarima yoki qamoq bilan jazolanishi mumkinligini ko‘rsatadi.<sup>5</sup>

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida **raqamli huquqbuzarliklar soni keskin oshganligi** rasmiy statistik va ekspert baholarida qayd etilmoqda. So‘nggi yillar ichida cyberjinoyatlar soni 4 865 tadan 62 440 taga oshgan bo‘lib, ularning natijasida fuqarolarga jami 3,73 trln so‘m moddiy zarar yetkazilgan deb hisobot qilinmoqda. Holat taxminan o‘n barobar oshgan, bu esa raqamli jinoyatlarni aniqlash, profilaktika va javobgarlikka tortish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

<sup>5</sup><https://lex.uz/docs/111453>

Shu bilan birga, holat bo‘yicha davlat tomonidan chora-tadbirlar ham kuchaytirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Shaxsiy ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni asosida kiberxavfsizlikni mustahkamlash, shaxsiy ma‘lumotlar bilan ishlash bo‘yicha qat‘iy talablarni joriy etish, shuningdek bank va to‘lov tizimlarida axborot xavfsizligi standartlariga rioya etilishini kuchaytirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, kiberjinoyatlarni oldini olish va tergov jarayonlarini yaxshilash maqsadida “Cyber Law” kabi maxsus o‘quv dasturi tashkil etilib, qonuniy tadqiqotchilar va huquqni muhofaza qiluvchi mutaxassislarni tayyorlash ko‘zda tutilmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasida raqamli huquqbuzarliklarga nisbatan qonunchilik bazasi mavjud bo‘lsa-da, jinoyatlar sonining oshishi va texnologik tahdidlarning murakkablashuvi ularni aniqlash, tergov hamda sud amaliyotini muntazam yangilab borishni talab etmoqda.

## **So‘nggi kunlarda O‘zbekistonda kuzatilgan yirik kibexujum hodisasi**

2026-yil 2-fevral kuni ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbekiston fuqarolariga oid ma’lumotlar darknet resurslarida tarqalgani haqida xabarlar e’lon qilindi. Xakerlik forumlarida hukumatning markaziy OAuth-autentifikatsiya serveri buzilgani va 15 milliondan ortiq foydalanuvchi ma’lumotlari qo‘lga kiritilgani da’vo qilindi. Ushbu holat yuzasidan dastlabki tahliliy materiallar va ekspertiza natijalari e’lon qilindi<sup>8</sup>.

Xabarlarga ko‘ra, hujum markaziy identifikatsiya provayderi — sso.egov.uz infratuzilmasiga qaratilgan bo‘lib, bu tizim ko‘plab davlat va tijorat axborot resurslari uchun yagona autentifikatsiya markazi vazifasini bajaradi. Agar ushbu server komprometatsiya qilingan bo‘lsa, bu klassik “ta’minot zanjiri hujumi” (supply chain attack) sifatida baholanadi, ya’ni unga ishonch bildirgan barcha tizimlar potensial xavf ostida qoladi.

C7 Cybersecurity ekspertlari tomonidan taqdim etilgan tahliliy hisobotga ko‘ra, xaker tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarning bir qismi verifikatsiyadan o‘tgan. Xususan, JSHSHIR, F.I.O., tug‘ilgan sana, telefon raqamlari, pasport seriya va raqamlari kabi ma’lumotlar namunaviy tekshiruvda yuqori darajada mos kelgani aniqlangan. Shu bilan birga, 15 million yozuv haqidagi da’voni to‘liq tasdiqlash imkoni bo‘lmagani, real ko‘lam 500 mingdan 2 milliongacha foydalanuvchini qamrab olishi mumkinligi qayd etilgan .

Ekspertlarning ehtimoliy ssenariysiga ko‘ra, dastlabki kirish 2021-yilda aniqlangan Log4Shell zaifligi orqali amalga oshirilgan bo‘lishi mumkin. Mazkur zaiflik Java asosidagi server ilovalariga masofadan turib zararli kod yuklash imkonini beradi. Ayniqsa, WebLogic platformasida ishlovchi tizimlar xavf ostida bo‘lgani ta’kidlangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar**

#### **1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.**

– Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

Rasmiy manba: <https://lex.uz/docs/111453>

#### **2. Convention on Cybercrime (Budapest Convention).**

– Council of Europe, ETS No.185, 2001.

Rasmiy matn: <https://rm.coe.int/1680081561>

Rasmiy sahifa: <https://www.coe.int/en/web/cybercrime/the-budapest-convention>

#### **3. General Data Protection Regulation (Regulation (EU) 2016/679).**

– Official Journal of the European Union, 2016.

Rasmiy matn: <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj>

#### **4. Computer Fraud and Abuse Act (18 U.S.C. §1030).**

– United States Code.

Rasmiy matn: <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/18/1030>

## **INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINING ROLI**

**Aminjanova Sevinch G‘ayrat qizi**

**“Tashkent International University”**

**e-mail: [aminjanovasevinch@gmail.com](mailto:aminjanovasevinch@gmail.com)**

**Ilmiy Rahbar: TIU o‘qituvchisi , Jumaboyev Sapaboy**

Inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish har qanday demokratik davlatning asosiy vazifalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasida bu tamoyil davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. 2023-yilda qabul qilingan Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya

qilishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlab berdi. Ushbu Konstitutsiya “Inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga asoslanib, inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e’tirof etadi.

Yangi Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklari alohida bobda keng yoritilgan. Unda shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy huquqlar tizimli ravishda mustahkamlangan. Xususan, yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik, so‘z va e’tiqod erkinligi, adolatli sudlov huquqi, ta’lim olish, mehnat qilish va ijtimoiy himoya huquqlari konstitutsiyaviy kafolat sifatida belgilangan. Muhim jihati shundaki, Yangi Konstitutsiyada inson huquqlari davlat tomonidan berilmaydi, balki ular tug‘ma huquqlar sifatida tan olinadi. Bu esa huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Yangi Konstitutsiyada inson qadr-qimmatining oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi**

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining asosiy g‘oyalariidan biri — inson qadr-qimmatini ta’minlashdir. Konstitutsiyada inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi har qanday holatlarga yo‘l qo‘yilmasligi qat’iy belgilangan. Qiynoqlar, zo‘ravonlik, shafqatsiz yoki insoniylikka zid muomala va jazolar taqiqlanadi. Bu normalar xalqaro inson huquqlari standartlariga to‘liq mos keladi. Yangi Konstitutsiya ijtimoiy davlat tamoyilini mustahkamlab, fuqarolarning ijtimoiy himoyasiga alohida e’tibor qaratadi. Unda kam ta’minlangan qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida teng imkoniyatlar yaratish masalalari aniq belgilangan. Bu esa inson huquqlarini faqat deklarativ emas, balki amaliy jihatdan ta’minlashga xizmat qiladi.

Yangi Konstitutsiya “Inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga asoslanib, inson manfaatlarini davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilaydi. Ushbu hujjat inson huquqlarini nafaqat e’lon qiladi, balki ularni amalda ta’minlashning aniq huquqiy mexanizmlarini ham mustahkamlaydi. Inson huquqlari — bu shaxsga tug‘ilganidan boshlab beriladigan, ajralmas va daxlsiz huquqlardir. Ular insonning erkin yashashi, rivojlanishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida inson huquqlari eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, davlat organlari faoliyati aynan shu huquqlarni ta’minlashga qaratilishi belgilangan. Konstitutsiyada inson huquqlari universal xarakterga ega ekani, ular irqi, millati, tili, dini, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar barcha uchun teng ekani mustahkamlangan.<sup>[1]</sup> Bu normalar O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlariga to‘liq mos keladi. Yangi Konstitutsiyaning eng muhim jihatlaridan biri — inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida belgilanishidir. Konstitutsiyada inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish qat’iyan man etiladi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka uchrashi yoki insoniylikka zid muomalaga duchor etilishi mumkin emas. Mazkur norma davlat

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -  
<https://www.un.int/uzbekistan/uzbekistan/constitution-republic-uzbekistan>

organlari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar va mansabdor shaxslarning mas’uliyatini oshiradi. Bu esa fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi Konstitutsiyada shaxsiy huquq va erkinliklar kengaytirilgan holda mustahkamlangan. Jumladan:

- yashash huquqi;
- shaxsiy erkinlik va daxlsizlik huquqi;
- shaxsiy hayot, yozishmalar va uy daxlsizligi;
- vijdon va e’tiqod erkinligi;
- so‘z va fikr bildirish erkinligi.

Bu huquqlar demokratik jamiyatning asosini tashkil etadi. Ayniqsa, axborot olish va uni tarqatish erkinligi jamiyatda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi.<sup>[1]</sup>

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi ijtimoiy davlat tamoyilini kuchaytirib, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlariga alohida e‘tibor qaratadi. Unda:

- mehnat qilish va adolatli mehnat sharoitlariga ega bo‘lish;
- ishsizlikdan himoyalash;
- ijtimoiy ta‘minot;
- malakali tibbiy xizmatdan foydalanish;
- bepul umumiy ta‘lim olish huquqlari kafolatlangan.

Bu huquqlar insonning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo‘lib, jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Inson huquqlarini real himoya qilishda mustaqil sud hokimiyati muhim ahamiyatga ega. Yangi Konstitutsiyada sudlarning mustaqilligi, adolatli sudlov, aybsizlik prezumpsiyasi kabi prinsiplar yanada mustahkamlangan. Har bir shaxs o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqiga ega. Shuningdek, noqonuniy usullar bilan olingan dalillardan foydalanish taqiqlanishi, shaxsning huquqiy himoyaga bo‘lgan imkoniyatlarini kengaytiradi. Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hujjatlar, jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va xalqaro paktlar bilan uyg‘un holda ishlab chiqilgan. Bu O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat oldidagi majburiyatlariga sodiqligini namoyon etadi Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi BMTning asosiy inson huquqlari bo‘yicha hujjatlari bilan uyg‘un holda ishlab chiqilgan. Bu O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlariga sodiqligini va inson huquqlarini global qadriyat sifatida tan olishini ko‘rsatadi. Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab, Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlari — Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt hamda boshqa nufuzli xalqaro konvensiyalarning asosiy tamoyil va normalari bilan uyg‘un holda ishlab chiqilgan. Konstitutsiyada “inson – jamiyat – davlat” tamoyili asos qilib olinib, inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e‘tirof etilgan, shaxsning yashash, erkinlik, daxlsizlik, adolatli sudlov, so‘z va e‘tiqod erkinligi, ta‘lim olish, mehnat qilish va ijtimoiy himoya kabi fundamental huquqlari mustahkam konstitutsiyaviy kafolatlar bilan ta‘minlangan. Shuningdek, qonun ustuvorligi, tenglik, kamsitilmaslik, davlat hokimiyati faoliyatining ochiqligi va hisobdorligi kabi demokratik prinsiplarning mustahkamlanishi O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlariga sodiqligini, inson huquqlarini umuminsoniy va global qadriyat sifatida tan olishini hamda demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat barpo etish yo‘lidagi izchil islohotlarini yaqqol ifodalaydi.

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash borasida tub burilish yasagan, zamon talablariga to‘liq javob beradigan hamda uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan mustahkam huquqiy asosni yaratdi. Ushbu Konstitutsiyada inson qadr-qimmatini eng oliy konstitutsiyaviy qadriyat sifatida e‘tirof etilib, davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati aynan inson manfaatlariga xizmat qilishi qat‘iy belgilab qo‘yildi. Shaxsning huquq va erkinliklari nafaqat e‘lon qilindi, balki ularni ro‘yobga chiqarish, himoya qilish va tiklashning aniq mexanizmlari bilan mustahkamlanib, sud-huquq tizimi orqali kafolatlanishi nazarda tutildi. Konstitutsiyada demokratik boshqaruv, qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat, ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarining kuchaytirilishi fuqarolarning siyosiy-huquqiy faolligini oshirishga, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va mehnat huquqlariga oid normalarning kengaytirilishi davlatning ijtimoiy mas‘uliyatini yanada mustahkamlab, jamiyatda barqarorlik va taraqqiyot uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Umuman olganda, Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi demokratik jamiyat, kuchli fuqarolik jamiyati hamda adolatli, huquqiy va insonparvar davlat barpo etish yo‘lidagi muhim tarixiy hujjat bo‘lib, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga va inson huquqlarini global qadriyat sifatida e‘tirof etgan holda izchil rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -  
<https://www.un.int/uzbekistan/uzbekistan/constitution-republic-uzbekistan>
2. Milliy strategiya va BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi -  
<https://www.nhrc.uz/oz/news>
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil, BMT).  
<https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
4. Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (2006-yil, BMT)
5. <https://social.desa.un.org/issues/disability/convention-on-the-rights-of-persons-with-disabilities-crpd>
6. Convention on the Rights of Persons with Disabilities (to‘liq rasmiy hujjat tavsifi) — BMTning rasmiy shartnomalar bazasi (United Nations Treaty Collection):  
<https://treaties.un.org/pages/viewdetails.aspx>

### **3-SHO‘BA. BARQAROR RIVOJLANISH (SDG–2030) VA RAQAMLI**

#### **IQTISODIYOT.**

### **AHOLINING KAM TA'MINLANGAN QATLAMINI UY-JOY BILAN TA'MINLASHDA BYUDJET SIYOSATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Xannarov Komiljon Karimovich**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xodimi, PhD

Bizningcha, aholining kam daromadli qatlamini uy-joy bilan byudjet mablag‘lari hisobidan ta‘minlashda makroiqtisodiy muvozanatni inobatga olish zarurati ayrim tadqiqotlarda o‘zaksini topmoqda. Jumladan, uy-joy bozoriagi yalpi talab va yalpi taklif siyosatini barqarorligini ta‘minlash, har bir oilaga mos keladigan yashash maydonining muvofiqligi, unga ko‘rsatiladigan xizmatlarning sifati jihatidan ta‘minlash. Shuningdek, byudjet mablag‘lari hisobidan subsidiyalar berish orqali raqobat muhitini rivojlantirishni ham e‘tiborga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

B.Usmonov o‘zining tadqiqotida aholi turmush farovonligini ta‘minlashda uy-joy bilan ta‘minlanganlik darajasiga e‘tibor qaratib o‘tadi. Uning fikricha, ijtimoiy himoyani amalga oshirishda kam daromadli oilalarning uy-joy bilan ta‘minlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlab o‘tadi. Oilalarga ijtimoiy himoya mablag‘larini yo‘naltirishda ularning farzandlar soni bilan birga, ijara uyda yashashini ham inobatga olish zarurligini ta‘kidlab o‘tadi. Shuningdek, bir kishi to‘g‘ri keluvchi yashash maydoni nuqtai nazaridan ijtimoiy himoya elementlarini yanada takomillashtirishga e‘tibor berishni taklif etadi.

N.Primova davlat byudjeti mablag‘laridan foydalanishda natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotidan foydalanishni tahlil etadi. Uning fikricha, kam ta‘minlangan oilalarga davlat byudjetidan ijara beriladigan uylar to‘lovlarini to‘lash, sotib olishda subsidiyalash amaliyotini rivojlantirish kabi jihatlarni ta‘kidlab o‘tadi.

Bizningcha, kam ta‘minlangan oilalarni uy-joy bilan ta‘minlashda byudjet mablag‘larining roli borasidagi ilmiy xulosalar o‘zbek tilida nashr etilgan tadqiqotlarda o‘z aksini topmoqda. Ushbu tadqiqotlarda kam daromadli oilalarga nafaqat uy-joy uchun subsidiyalar berish, balki ijara to‘lovlariniham to‘lashga nisbatan yondashuvlarniko‘rish mumkin. Shuningdek, oila a‘zolarining sonidan kelib chiqib, uy-joyning umumiy maydonini ham bir kishi uchun minimal talablarga javob berishini inobatga olish zarurati ta‘kidlab o‘tiladi. Shu boisdan, kam ta‘minlangan oilalar uchun uy-joy bilan ta‘minlanishida davlat byudjeti mablag‘larini yashash maydonining bir kvadrat metriga nisbatan tasniflash aholi farovonligini ta‘minlashda muhim elementlaridan biriga aylanadi, deb o‘ylaymiz.

Mamlakatimizda aholini bozor hamda ijtimoiy himoya tamoyillari asosida ipoteka kreditlashi asosida uy-joy bilan ta‘minlash amaliyoti keng rivojlana boshladi, desak mublag‘a bo‘lmaydi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 28 noyabrda “Ipoteka krediti mexanizmlarini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5886-son farmonining qabul qilinishi bilan yangi yondashuvlar joriy etila boshlandi.

Mazkur hujjatga ko‘ra, aholini uy-joy bilan ta‘minlashda aralash shaklda moliyalashtirish mexanizmlari nazarda tutilgan. Unga ko‘ra:

Birinchiidan, aholining barcha qatlamlariga tijorat banklari o‘z mablag‘lari hisobidan ipoteka kreditlarini moliyalashtirishi nazarda tutilgan.

Ikkinchiidan, aholining uy-joyga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda davlat byudjeti mablag‘laridan qayta moliyalashtirish stavkasidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda ipoteka kreditlarini moliyalashtirish.

Uchinchiidan, aholining ayrim qatlamlari uchun byudjet mablag‘lari hisobidan subsidiyalar ajratish nazarda tutilgan. Bunda ko‘p qavatli uylardan uy-joy sotib olishda dastlabki to‘lovlarni yoki foiz to‘lovlarning ma‘lum qismini byudjetdan subsidiyalash orqali moliyalashtirish amaliyoti joriy etilgan.

Bizningcha, davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan uy-joy sotib olishni ipoteka kreditlari asosida moliyalashtirish amaliyoti tatbiq etilishi bilan yalpi talab va yalpi taklif muvozanatining taminlashiga ham e'tibor qaratilmoqda. Ko'p yillar mobaynida to'plab qolgan yalpi talabning ta'minlanishi muhim hisoblanadi. Buning natijasida, oila a'zolarining bir a'zoasiga to'g'ri keladigan yashash maydoni mezonining minimal talabi bajarilmasligi tendensiyasi kengayib borganligini qayd etish lozim. Shu boisdan, davlat tomonidan ipoteka krediti bozorini rag'batlantirish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan qatlamini moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabilar joriy etila boshlanishi ayni e'tiborga molik hisoblanadi.

Umuman olganda, uy-joy bozorida narxlarning ko'tarilishiga dastlab yalpi talab va taklif nisbatidagi elementlarning nobarqarorligi oqrali ifodalash muhim hisoblanadi. Shu o'rinda, uy-joy bozoridagi tendensiyalarning aholi daromadlari bilan o'zaro uyg'unligi yuzasidan ayrim tahlil va xulosalarni keltirib o'tmoqchimiz.

Ma'lumki, global iqtisodiyotning ko'zga ko'ringan davlatlarida demografik holatning nomuvofiqligi rivojlanmoqda. Bu esa, mazkur davlatlarda mehnat resurslarini jalb etishning keskin ortayotganligini o'zida aks ettirmoqda. Rivojlangan davlatlarga aholi ko'chishning ortishi uy-joyga nisbatan talabning ham ortishiga xizmat qilmoqda. Xalqaro moliya (Fitch Rating) baholash tashkilotining xulosalariga binoan, 2024-2025 yillar davomida Xitoy Xalq Respublikasidan tashqari AQSh, Kanada va evropa davlatlaridan Buyuk Britaniya, Ispaniya, Daniya kabi mamlakatlarda uy-joy qiymatining va ipoteka krediti hajmining oshishi pronoz qilinmoqda. O'tgan asrning 80 yillaridan toki 2015 yilga qadar Xitoyda "bir oila bir farzand" prinsipi asosida hayot tarzining tashkil etilishi demografik sakrashning oldini olishga xizmat qildi, desak xato bo'lmaydi.

Fikrimizcha, demografik jihatdan o'sish tendensiyalarining kengayib borishi uy-joyga egalik qilishga nisbatan yalpi talabning hajmini oshishiga olib keladi ekan. Jumladan, demografik jihatdan tebranishning keskinlashib borishi uy-joy bozoridagi tendensiyalarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etar ekan. Mazkur tendensiya esa bir oila a'zosiga to'g'ri keladigan yashash maydonining minimal hajmi nuqtai nazaridan barqaror bo'lishiga zaruratni keltirib chiqaradi.

Bir kishi uchun yashash maydonining minimal hajmi O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 42-moddasida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra "Uy-joy maydonining ijtimoiy normasi" 16 m<sup>2</sup> tarzida qayd etilgan. Shuningdek, aholining ayrim qatlami bo'lgan imkoniyati cheklanganlar uchun mazkur ko'rsatkich 23 m<sup>2</sup> etib belgilangan. E'tibrol jihatidan, mazkur mezon Evropaning ko'plab davlatlarida 10 m<sup>2</sup> dan 18 m<sup>2</sup>gacha hajmda qayd etilgan. Shu boisdan, mamlakatimizda yosh avlodning o'sib kelayotganligi va ularning aholi tarkibidagi ulushi oshib borayotganligi respublikada uy-joy fondini oshirishga bo'lgan talabning muhimligini ko'rsatib beradi.

Qayd etish lozim, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga, 2000 yildan keyin hozirgi kunga qadar oilalarda a'zolarining o'rtacha soni 5 kishi bo'lgan. Shu bilan birga, e'tibor berish lozim, o'rganilayotgan davrda 60 foiz oiladagi a'zolar soni esa 5 kishidan ko'p bo'lganligini ta'kidlash lozim. Shuningdek, 2000 yilda 18,6 foiz oilada voyaga etgan, ya'ni 16 yoshdan katta farzandlari bo'lganligini, 2016 yilga kelib esa mazkur raqam 26,2 foizga etganligini qayd etish lozim. Shu boisdan, istiqbolda yosh oilalarning ulushi ortishiga nisbatan signallar vujudga kelayotganligini inobatga olish zarur deb o'ylaymiz.

Umuman olganda, ipoteka kreditlashning kengayishi va aholi daromadlarining ortishi davomida uy-joy bozorida ham o'zgarishlar vujudga kelishiga olib keldi. Jumladan, yangian-yangi uy-joy fondining barpo etilishining rivojlanishi bir jihatdan yalpi talabning yuqoriligi bilan birga, boshqa jihatdan ba'zi qurilishi-montaj materiallarining xorijdan olib kelinishi tuayli qiymatning oshishiga xizmat qildi, desak to'g'ri bo'ladi.

## **DAVLAT BYUDJETIDAN AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASH XARAJATLARINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI**

**Xannarov Komiljon Karimovich**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xodimi, PhD

Davlat o'zining ijtimoiy funksiyalarini bajarishda doimiy ravishda davlat byudjeti mablag'laridan faol foydalanadi. Bu esa, davlat byudjetiga bo'lgan zaruratni saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Davlat o'zining ijtimoiy siyosatini amlaga oshirishda aholining kam daromadli qatlamini moliyaviy ihatdan himoya qilishga e'tibor qaratadi. Natijada, aholining kam daromadli qatlamida mavjud bo'lgan turli ehtiyojlarni ta'minlashda ijtimoiy siyosatning elementlari vujudga kela boshlaydi.

Davlat byudjetidan ijtimoiy siyosatni moliyalashtirish yo'nalishlari haqida fikr yuritilganda quyidagi jihatlarga e'tibor berilishi ko'plab adabiyotlardan ma'lum hisoblanadi:

Birinchidan, aholining ishsiz qatamini vaqtinchalik moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Ikkinchidan, aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan qatlamini tibbiy sug'urta bilan ta'minlash va uni moliyalashtirish.

Uchinchidan, boquvchisini yo'qotgan oilalar uchun ijtimoiy nafaqalar tayinlash va uni moliyalashtirish yo'nalishlari.

To'rtinchidan, onalik va bolalikni himoyalashga qaratilgan tadbirlarni moliyalashtirishni nazarda tutish.

Beshinchidan, aholining kam ta'minlangan qatlamini kambag'allikdan himoya qilish va ularni uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni byudjetdan moliyalashtirishni ko'zda tutish.

Fikrimizcha, davlat byudjetidan ijtimoiy siyosatni moliyalashtirishda aholini uy-joy bilan ta'minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, aholining turli ijtimoiy-iqtisodiy risklardan himoyalashga nisbatan himoya yostiqchalari shakllanishiga imkoniyat tug'iladi, deb o'ylaymiz. Shu boisdan, aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat moliyaviy siyosatning turli elementlaridan foydalangan holda ijtimoiy siyosatni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini amalga oshiradi.

O'zbekistonda aholini uy-joy bilan ta'minlash masalasi uzoq yillar davomida kam e'tibor berilgan sohalaridan biri bo'lib keldi. Natijada, mustaqillikning dastlabki 25 yilida uy-joy bilan bog'liq ustuvor masalalar davlatning infratuzilmaviy siyosatida o'z aksini topmadi. 2017 yilga kelib esa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakteristik strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmonining qabul qilinishi bilan mazkur masala davlatning ijtimoiy siyosatida ustuvor vazifalardan biriga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mazkur hujjatning qabul qilinishi bilan mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Jumladan, 4-ustuvor yo'nalish sifatida "ijtimoiy sohani rivojlantirish" masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu ustuvorlik doirasida arzon uy-joylar barpo etish ijtimoiy siyosatning asosiy elementlaridan biriga aylandi, desak to'g'ri bo'ladi.

Mazkur hujjatning qabul qilinishi bilan "aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash" nazarda tutildi.

Umuman olganda, uy-joy bilan ta'minlash ustuvorliklari nafaqat aholining kam ta'minlangan qatlami uchun balki, boshqa toifadagi aholi uchun ham uy-joy fondini kengaytirish va uni yanada rivojlantirish aynan mazkur hujjatning xususiyatlarini aks ettirib beradi. Jumladan, davlat xizmatchilar, keksa va yosh avlodning uy-joyga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan vazifalarning belgilanishi shular qatoriga kirishini ta'kidlash lozim.

Prof. J.Karimqulov va B.Nurmuxamedov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda aholini uy-joy bilan ta'minlashda vujudga kelayotgan muammoli vaziyatlarning tahlili yuzasidan ilmiy

xulosalar shakllantirib beriladi<sup>191</sup>. Ular tomonidan davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan arzon uy-joylarni moliyalashtirishga qaratilgan moliya siyosati tahlil etiladi. Jumladan, byudjet mablag‘lari hisobidan xabarnomalar taqdim etilishi asosida uy-joylar uchun to‘lovlarni amalga oshirishda uy sotib olmoqchi bo‘lgan fuqaroning to‘lov qobiliyatiga mos kelmasligi yoki arzon uylarni topishdagi murakkabliklarni keltirib o‘tadi. Shuningdek, ipoteka bozorini rivojlantirishda holini uy-joy bilan ta‘minlash tizimini quyidagilarga bo‘lgan holda amalga oshirishni taklif etadi:

- ijtimoiy ijara tizimi.
- byudjet subsidiyasi asosida kreditlash.
- tijorat asosida kreditlash.
- norasmiy daromadga ega bo‘lgan fuqarolarga kreditlash tizimini joriy etishni nazarda tutishadi.

Dos. U.Djumaniyazov uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv elementlarini joriy etish va unda davlat-xususiy sheriklik amaliyotining rivojlanishiga e‘tibor qaratadi<sup>192</sup>. Uning fikricha, namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uy-joylarga sarflanayotgan investisiyalar miqdorining bir foizga oshishi qurib foydalanishga topshirilayotgan uy-joylar sonining 0.35 foizga oshishini ta‘minlamoqda, degan fikr qayd etib o‘tiladi. Shuningdek, mamlakatimiz aholisini arzon va sifatli, zamonaviy infratuzilmaga ega uy-joylar bilan ta‘minlash muammosi asosiy kun tartibidagi keskin ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi, hamda jahon tajribasiga ko‘ra, mazkur muammoni echishda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi o‘ta muhim ahamiyat kasb etishini ta‘kidlab o‘tadi.

Yu.Qiyomov o‘zining tadqiqotida uy-joy fondini boshqarishga nisbatan yondashuvlar ishlab chiqiladi<sup>193</sup>. Uning fikricha, O‘zbekiston Respublikasi (sobiq) moliya vazirligi bilan kelishilgan tarzda uy-joy fonidagi kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi xizmatlari kalkulyasini takomillashtirish muhim ekanligi qayd etib o‘taladi. Shuningdek, mazkur boshqaruv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tadbirlarni yanada jadallashtirish maqsadga muvofiq ekanligi ta‘kidlab o‘tiladi.

N.Asadullina va boshqalar tomonidan mamlakatimizda uy-joy qurilish tendensiyalarining rivojlanish holatlarini tahlil etib o‘tadi<sup>194</sup>. Ularning fikricha, uy-joyga bo‘lgan ehtiyoji yuqori bo‘lgan aholi qatlamining asosiy qismi daromadlarining sezilarli ulushini ijara to‘lovlariga yo‘naltirilayotganligini ta‘kidlab o‘tadi. Bu esa, qo‘shimcha tarzda ehtiyojlarni ta‘minlashga bo‘lgan moliviy murakkabliklarni keltirib chiqarishini ko‘rsatib o‘tishadi. Natijada, oilaning qashoqlashuvi oshishi, tibbiy xizmatlardan foydalana olish imkoniyati kamayishi kabi tendensiyalarni keltirib chiqarishini qayd etib o‘tishadi.

Fikrimizcha, yuqoridagi tadqiqotlarning ilmiy xulosalarida aholining kam daromadli qatlamini uy-joy bilan ta‘minlash borasidagi turli nuqtai nazarlar ifodalab berilmoqda. Ularni o‘rganish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarni keltirib o‘tish mumkin:

Birinchidan, aholining kam daromadli qatlamini uy-joy bilan ta‘minlashda byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishda manzillilik tamoyilini aniq belgilab olish.

Ikkinchidan, byudjet mablag‘laridan aholining kam daromadli qatlami uy-joy sotib olishlarida mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini mustahkamlash va mustaqilligini oshirish.

---

<sup>191</sup> Каримкулов Ж., Нурмухамедов Б. Аҳолини уй-жой билан таъминлашда юзага келаётган муаммоли ҳолатлар ва уларнинг ечими юзасидан таклифлар //Наука и технология в современном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 34-40.

<sup>192</sup> Джуманиязов У. И. Давлат-хусусий шерикчилиги асосида корпоратив бошқарувни ривожлантиришнинг айрим назарий-услубий масалалари // “Иқтисодийёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2018 йил.

<sup>193</sup> Қиёмов Ю. Т. и др. Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш соҳасидаги қулайликларнинг аҳоли эҳтиёжига бўлган талаби //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 601-606.

<sup>194</sup> Асадуллина Н. Р., Нормуродов С. Н. Ўзбекистонда уй-жой қурилишининг ривожланиш тенденциялари //golden brain. – 2023. – Т. 1. – №. 26. – С. 11-23.

Uchinchidan, ipoteka kreditlari asosida uy-joy sotib olishni moliyalashtirishning ijtimoiy ahamiyatini oshirish va unda tijorat xususiyatining bo'lmashligini oldini olish.

To'rtinchidan, uy-joy fondini boshqarishda korporativ boshqaruv elementlaridan faol foydalanishni nazarda tutish bu boradagi ishlarning samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

## **РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА В ФИНАНСИРОВАНИИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ**

**Холматова Дилафрузхон Махсуджон кизи**

научный исследователь Tashkent International University

Дошкольное образование является одним из ключевых этапов формирования человеческого капитала. Многочисленные исследования показывают, что инвестиции в раннее развитие детей оказывают долгосрочное положительное влияние на образовательные результаты, производительность труда и экономическое развитие общества. Именно поэтому во многих странах мира финансирование дошкольного образования рассматривается как важный элемент социальной и экономической политики государства.

В современных условиях система финансирования дошкольных образовательных учреждений формируется на основе различных источников, включая государственный бюджет, средства местных органов власти, частные инвестиции и родительские платежи. Однако в большинстве стран именно государственный бюджет играет ключевую роль в обеспечении устойчивого функционирования и развития системы дошкольного образования.

Целью данной статьи является анализ роли государственного бюджета в финансировании дошкольного образования на основе теоретических подходов и зарубежного опыта.

Теоретические основы государственного финансирования дошкольного образования

В экономической теории образование рассматривается как важный фактор формирования человеческого капитала. Согласно теории человеческого капитала, инвестиции в образование способствуют повышению качества рабочей силы и обеспечивают долгосрочный экономический рост. Особое значение в этой связи имеет дошкольное образование, поскольку именно на ранних этапах формируются основные когнитивные и социальные навыки ребёнка (Neckman, 2006).

Государственное финансирование дошкольного образования объясняется рядом факторов. Во-первых, дошкольное образование обладает значительным общественным эффектом. Оно способствует повышению уровня занятости населения, снижению социальной неравномерности и улучшению демографической ситуации. Во-вторых, рынок образовательных услуг не всегда способен обеспечить равный доступ к качественному дошкольному образованию, особенно для социально уязвимых групп населения.

Поэтому в большинстве стран государство выступает основным финансовым гарантом функционирования дошкольных образовательных учреждений. При этом государственное финансирование может осуществляться через различные механизмы: прямое бюджетное финансирование образовательных учреждений, субсидии и гранты, подушевое финансирование, а также компенсационные выплаты семьям.

Международный опыт бюджетного финансирования дошкольного образования.

Опыт стран Северной Европы. Страны Северной Европы считаются одними из наиболее успешных примеров государственной поддержки дошкольного образования. В таких странах, как Швеция, Норвегия и Финляндия, дошкольное образование

рассматривается как часть системы социальной политики государства. Основная доля финансирования дошкольных учреждений осуществляется за счёт государственного и муниципального бюджетов.

Например, в Швеции дошкольные учреждения финансируются преимущественно муниципальными органами власти. Родительские платежи присутствуют, однако их размер строго ограничен и зависит от дохода семьи. Такая модель позволяет обеспечить высокий уровень доступности дошкольного образования и минимизировать социальное неравенство (Westberg & Larsson, 2022).

Опыт стран Восточной Азии. В странах Восточной Азии, таких как Южная Корея, государственное финансирование сочетается с активным участием частного сектора. Государство предоставляет субсидии семьям с детьми дошкольного возраста, которые могут использоваться для оплаты услуг как государственных, так и частных образовательных учреждений.

В Южной Корее действует система субсидий, предоставляемых родителям через специальные карты оплаты образовательных услуг. Такой подход позволяет повысить доступность дошкольного образования и стимулировать развитие частного сектора. Однако значительная роль частных расходов сохраняется, что связано с высокой конкуренцией в сфере образования (Woo & Hodges, 2015).

Опыт России. В Российской Федерации дошкольное образование финансируется преимущественно за счёт средств федерального, регионального и муниципального бюджетов. Основная финансовая нагрузка при этом ложится на региональные и муниципальные органы власти.

Одним из основных механизмов финансирования является нормативно-подушевое финансирование, при котором объём бюджетных средств зависит от количества детей, посещающих дошкольные учреждения. При этом родители также осуществляют частичную оплату услуг, однако государство предусматривает компенсационные выплаты для отдельных категорий семей (Ovchinnikova & Zatonskaya, 2022).

Основные тенденции бюджетного финансирования дошкольного образования

Анализ международного опыта показывает наличие ряда общих тенденций в сфере финансирования дошкольного образования.

Во-первых, наблюдается рост государственных расходов на дошкольное образование. Это связано с признанием важности раннего развития детей и его влияния на долгосрочные социально-экономические результаты.

Во-вторых, усиливается роль механизмов подушевого финансирования. Такой подход позволяет повысить прозрачность распределения бюджетных средств и стимулировать эффективность использования ресурсов.

В-третьих, расширяется практика государственно-частного партнёрства в сфере дошкольного образования. Это позволяет привлекать дополнительные инвестиции и развивать инфраструктуру дошкольных учреждений.

В-четвёртых, особое внимание уделяется обеспечению социальной справедливости и доступности дошкольного образования. Для этого государство внедряет различные формы субсидий, компенсаций и льгот для семей с низким уровнем дохода (Abankina et al., 2020).

Таким образом, государственный бюджет играет ключевую роль в финансировании дошкольного образования. Международный опыт показывает, что именно государственное финансирование обеспечивает устойчивость системы дошкольного образования, расширяет доступ к образовательным услугам и способствует снижению социального неравенства.

В то же время эффективная система финансирования должна сочетать государственные средства с другими источниками финансирования, включая родительские платежи и частные инвестиции. При этом государство должно обеспечивать баланс между финансовой устойчивостью образовательных учреждений и социальной доступностью дошкольного образования.

Развитие системы бюджетного финансирования дошкольного образования должно быть направлено на повышение эффективности использования средств, расширение охвата детей дошкольным образованием и создание условий для всестороннего развития личности ребёнка.

#### **Список литературы**

Heckman J. Skill formation and the economics of investing in disadvantaged children //Science. – 2006. – Vol. 312. – pp. 1900–1902.

Leshanych L., Miahkykh I., Shkoda M. Models of financing of higher education institutions in foreign countries //Baltic Journal of Economic Studies. – 2018. – Vol. 4. – No. 5. – pp. 145–150.

Abankina I., Kravchenko I., Filatova L. Early development and preschool education financing in Russia and abroad //Educational Policy. – 2020. – No. 4. – pp. 36–47.

Westberg J., Larsson E. The marketization of the expanding preschool sector in Sweden //Journal of Education Policy. – 2022. – Vol. 37. – No. 5. – pp. 705–722.

Woo H., Hodges N. Education fever: Exploring private education consumption motivations among Korean parents of preschool children //Family and Consumer Sciences Research Journal. – 2015. – Vol. 44. – No. 2. – pp. 127–142.

Ovchinnikova A., Zatonskaya A. Main trends in financing educational organizations in Russia //Russia in the XXI century. – 2022. – pp. 591–593.

## **БАНКЛАРДА МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ: ПОЛЬША ТАЖРИБАСИ**

**Холматов Азизжон Авазхон ўғли**

Мустақил тадқиқотчи

Банкларнинг молиявий барқарорлигини таъминлашда халқаро стандартларни инобатга олиниши муҳим ҳисобланади. Бу борада, Европа Иттифоқининг қатор давлатларида етакчи тажрибаларнинг мавжудлигини кўриш мумкин. Масалан, Польша банк сектори ЕИ доирасида банк тизими минтақавий ва халқаро талабларига (Basel III, IFRS 9) мослашишда муваффақиятли юридик ва институционал ислохотларни амалга оширганлигини кузатиш мумкин. Шу билан бирга, кичик ва ўрта даражадаги банклар учун капитал етарлилигини таъминлаш бўйича хусусий капитални жалб қилиш стратегиясининг жорий этилиши айни муддаолардан бири ҳисобланади.

Б.Влодарзик ва бошқалар биргаликда амалга оширган тадқиқотда Польшанинг молиявий бозори элементлари ва макроиктисодий барқарорлик ўртасида узок муддатда алоқадорлик мавжудлигини ёки йўқлигини аниқлашга эътибор қаратади. Уларнинг илмий хулосаларида банк тизимининг кўплаб кўрсаткичлари, масалан банк активлари, қарзлар ва бозор капитализацияси кабилар билан макроиктисодий кўрсаткичлар ўртасида узок муддатли ижобий боғлиқлик мавжуд эканлиги қайд этиб ўтилади. Шунингдек, банк активлари ўсиши билан ЯИМнинг ўсиши ўртасида боғлиқлик мавжудлигини кузатиш мумкинлиги таъкидлаб ўтилади.

Т.Кнепка ўзининг илмий мақоласида Польша Миллий банкининг Молиявий барқарорлик кўмитаси (МБК)даги ролини таҳлил қилиб ўтади. МБК таркибига Польша Марказий банки (NBP), Польша Молиявий назорат органи (KNF), Банк кафолатлаш фонди (BFG) ва Молия вазирлиги (MF) киришини қайд этиш лозим. Марказий банкнинг вазифалари қаторида тизимли рискларни аниқлаш, макропруденциал чораларни амалга ошириш, молиявий инқирозли ҳолатларига жавоб чораларини тайёрлаш ва бошқа монетар сиёсат инструментиладан фойдаланиш кабилар киришини қайд этиб ўтиш лозим.

М.Лупински томонидан тайёрланган илмий мақолада Польша банклари учун молиявий нобарқарорликни олдиндан аниқлаш ва унга қарши чоралар ишлаб чиқилишига

қаратилган. Ушбу тадқиқотда катта банклар учун банкротлик эҳтимолини акс эттирадиган молиявий инқироз эрта сигналини шакллантиришга эътибор беради. Мазкур таҳлилда юқори самара бериши аниқланган кўрсаткичлар сифатида – банк кредити ўсиши, 10 йиллик ҳукумат облигациялари, қайтарилмаган кредитлар улуши ўсиши, қарзга хизмат кўрсатиш улуши, институтционал риск қиймати ва иқтисодий фаоллик индекси каби ҳолатлар назарда тутилади.

Польша Марказий банки давлат бюджети харажатларининг ортиши ва инфляцион босимнинг сақланиб қолаётганлиги фонид асосий ставкани ўзгартирмасликни режасини маълум қилганлигини кўришимиз мумкин. Шу боисдан, макроиқтисодий барқарорликни таъминлашда фискал ва монетар сиёсатнинг уйғунлигини амалга ошириш муҳимлиги қайд этилган. фискал экспансия сиёсати Марказий банкнинг қарор қабул қилишида айрим мураккабликларни яратиши мумкинлиги қайд этилмоқда. Шу боисдан, асосий ставкани ўзгаришсиз бўлишини таъминлаш асосида бозордаги нобарқарорликдан қочиш назарда тутилмоқда.

Умуман олганда, Польша тажрибаси асосида қуйидаги илмий хулосаларни шакллантиришга муваффақ бўлдик:

Биринчидан, банк тизимининг молиявий барқарорлигини таъминлашда макро пруденциал сиёсатни мувофиқлаштирувчи республика комиссиясини ташкил этиш. Унинг вазифалари қаторига илмий асосланган ислоҳотларни жорий этишни киритиш.

Иккинчидан, молиявий стрессларни олдиндан аниқлашга қаратилган макроиқтисодий ва банк тизимининг кўрсаткичлари интеграцион тузилмаси моделини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш.

Учинчидан, Марказий банк фоиз сиёсатида бюджет харажатларини ҳисобга олган ҳолда мустақиллигини сақлаб қолишга эришиш. Шунингдек, бюджет харажатлари Марказий банкнинг монетар сиёсати билан мувофиқлашган ҳолда амалга оширишни татбиқ этиш кабиларга эътибор бериш муҳим ҳисобланади.

Умумий хулоса қилиб айтганда, банкларнинг молиявий барқарорлигини таъминлашда кенг қамровли ёндашув долзарб ҳисобланади экан. банкларнинг молиявий кўрсаткичлари ликвидлик, капитал етарлилиги ва риск аппетитини тартибга солишга қаратилган институтционал ўзгаришларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

## **ОБЕСПЕЧЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ БАНКОВ: ОПЫТ МАЛАЙЗИИ**

**Холматов Азизжон Авазхон угли**

Научный исследователь

Не будет преувеличением сказать, что обеспечение финансовой устойчивости банков является важным структурным элементом макроэкономической политики зарубежных стран. В настоящее время во многих странах реализация реформ с различных позиций приобретает все большее значение в обеспечении финансовой устойчивости банков. В этой связи целесообразно учитывать следующие направления.

Во-первых, развитие финансовых услуг банков при внедрении комбинированной платформы традиционных и исламских банковских услуг.

Во-вторых, обеспечение устойчивости институциональных преобразований в результате финансовой поддержки государства и финансовой политики.

В-третьих, достижение смягчения негативного влияния валютной и денежно-кредитной политики на банковскую систему в условиях геополитической нестабильности.

В-четвертых, гармонизация правовых, экономических и институциональных реформ при внедрении стандартов Базель III.

В-пятых, реализация мер, направленных на повышение финансовой грамотности населения и финансовых технологий против киберфинансового мошенничества.

Целесообразно развивать финансовые подходы по вышеуказанным направлениям и добиваться их отражения в банковской системе. На наш взгляд, важно изучить опыт некоторых стран по приоритетности вышеуказанных факторов в обеспечении финансовой устойчивости банков. Поэтому мы попытаемся проанализировать опыт некоторых азиатских и европейских стран, где эти направления были эффективно реализованы и дали положительные результаты.

В качестве первого шага в нашем исследовании мы сосредоточимся на изучении опыта Малайзии. Малайзия развивала традиционные и исламские банковские услуги, а также реализовала множество реформ после азиатского кризиса 1997-1998 годов. В настоящее время надзор за банковской системой в Малайзии осуществляет Bank Negara Malaysia, который реализует денежно-кредитную политику на основе модели надзора, основанной на рисках. Одной из самых заметных реформ, реализованных в период после азиатского кризиса, можно назвать успешность изменений, направленных на управление ликвидностью и диверсификацию капитала.

В совместном исследовании, проведенном Н. Каримом и соавторами, была проанализирована финансовая устойчивость 50 традиционных и исламских банков на основе стандартов Z-score и CAMEL. Они проанализировали финансовые показатели банков в 2004-2015 годах с точки зрения их устойчивости и эффективности с точки зрения проблемы неплатежеспособности и состояния финансовых показателей. Их выводы указывают на то, что различия между банками на основе Z-score незначительны, а уровень устойчивости схож. Также различия между банками более отчетливо видны при анализе капитала, активов, управления, доходов и ликвидности (CAMEL). В целом можно отметить, что уровень финансовой устойчивости между исламскими и традиционными банками различен [1].

Исследование, совместно проведенное М. Арифом и Ф. Шафтари, было направлено на оценку различий в финансовых показателях, качестве активов и стабильности между традиционными и исламскими банками в Малайзии. Оно использует базу данных, охватывающую 423 наблюдения с 2005 по 2015 год. В своих научных выводах отмечает, что маржа банка имеет большое значение. Также отмечается, что эффективность независимых исламских банков ниже, чем у традиционных банков, в то время как у банков, входящих в их состав, выше. Отмечается, что с точки зрения качества активов независимые исламские банки ниже, чем у традиционных банков, и такие же, как у добровольных исламских банков [2].

Н. Низар и др. совместно исследовали влияние кредитов населению (ипотечных, потребительских) на финансовую устойчивость банков на примере 37 коммерческих банков Малайзии в период 2008–2015 гг. Установлено, что ипотечные и потребительские кредиты оказывают отрицательное влияние на устойчивость банков. В целом отмечается, что рост долговой нагрузки населения оказывает отрицательное влияние на устойчивость банков. На основании этого предлагается анализировать долговую нагрузку населения [3].

В целом за последние 20 лет в банковской системе Малайзии был реализован ряд реформ, в результате которых можно отметить положительные результаты в обеспечении финансовой устойчивости банков. Сегодня можно увидеть, что показатели, обуславливающие финансовую устойчивость малайзийских банков, приобретают положительный характер.

Например, в Таблице 1 мы видим данные, представляющие финансовые показатели малайзийских банков. Мы видим, что Malayan Banking имеет капитализацию 40 процентов среди 10 крупнейших малайзийских банков. Это говорит о том, что рыночная стоимость этого банка служит для обеспечения его надежности и стабильности. Более того, хотя уровень коэффициента цены к прибыли (P/E) у других банков немного выше, это говорит о том, что общая рыночная капитализация этого банка остается большой. Однако

примечательно, что только акции Malayan Banking имеют положительный уровень прибыльности. С этой точки зрения можно увидеть, что его прибыль за последние 12 месяцев также является самой высокой, и более 28 процентов общей прибыли 10 крупнейших банков принадлежит этому банку.

Таблица 1

Информация о финансовых показателях малазийских банков [4]

№	Банки	Рыночная капитализация (млрд ринггитов)	Цена D-1	P/E	Общая доходность YTD (%)	Выручка T12M (млрд ринггитов)	EPS T12M (MYR)
1	Malayan Banking Bhd	105.84	8.78	12.83	0.92	33.0	0.68
2	Public Bank Bhd	83.47	4.3	14.42	-0.46	19.07	0.3
3	CIMB Group Holdings Bhd	61.11	5.73	11.78	-1.21	24.99	0.48
4	Hong Leong Bank Bhd	44.09	20.34	12.27	-1.07	7.92	1.67
5	RHB Bank Bhd	24.08	5.67	9.17	-2.07	10.65	0.62
6	Hong Leong Financial Group Bhd	21.07	18.4	8.44	-1.08	8.65	2.2
7	Ambank Holding Bhd	13.57	4.1	7.65	-0.97	6.4	0.5
8	Alliance Bank Malaysia Bhd	5.65	3.65	9.03	-0.54	2.59	0.4
9	Bank Islam Malaysia Bhd	5.58	2.59	10.1	-1.3	3.01	0.26
10	Affin Bank Bhd	4.59	2.02	14.92	-0.49	3.15	0.64

В целом, из опыта банковской системы Малайзии, направленного на обеспечение финансовой стабильности, можно сделать следующие выводы:

Во-первых, обратить внимание на повышение финансовой независимости каждого банка в управлении своим риск-профилем на основе метода ICAAP (Internal Capital Adequacy Assessment Process).

Во-вторых, ввести динамический буфер капитала (Countercyclical Capital Buffer). Это предполагает формирование резервного капитала против роста аппетита к риску акционерами и органами управления банка. При этом целесообразно определить, что резерв

капитала при формировании динамического буфера составит около 1 процента, когда рост активов, взвешенных по риску, превысит 20 процентов.

В-третьих, сформировать прозрачную базу данных по таким показателям, как коэффициент чистого стабильного фондирования и коэффициент покрытия ликвидности. Важно разработать меры по раскрытию их отчетов широкой общественности.

#### **Список использованной литературы**

1. Karim N. A. et al. Measuring bank stability: a comparative analysis between Islamic and conventional banks in Malaysia //Proceedings of the 2nd Advances in Business Research International Conference: ABRIC2016. – Springer Singapore, 2018. – С. 169-177.

2. Ariff M., Shawtari F. A. Efficiency, asset quality and stability of the banking sector in Malaysia //Malaysian Journal of Economic Studies. – 2019. – Т. 56. – №. 1. – С. 107-137.

3. Nizar N., Karim Z. A. The relationship between household credit and banking stability in Malaysia: Panel evidence //Gadjah Mada International Journal of Business. – 2021. – Т. 23. – №. 2. – С. 155-172.

4. Better prospects for the banking industry in 2023. <https://themalaysianreserve.com/2023/01/10/better-prospects-for-the-banking-industry-in-2023/>

### **MAKTABGACHA TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHDA OTA-ONALAR TO'LOVI:**

#### **NAZARIY YONDASHUVLAR VA XORIJ TAJRIBASI**

**Xolmatova Dilafruzxon Maxsudjon qizi**

Tashkent International University mustaqil izlanuvchisi

Maktabgacha ta'lim inson kapitali rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning erta rivojlanishiga yo'naltirilgan investisiyalar kelajakda ta'lim sifati, mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli maktabgacha ta'limni moliyalashtirish masalasi ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ko'plab mamlakatlarda maktabgacha ta'lim muassasalari davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar, xususiy sektor mablag'lari va ota-onalar to'lovlari hisobidan moliyalashtiriladi. Ayniqsa, ota-onalarning moliyaviy ishtiroki ta'lim xizmatlarining barqarorligini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Biroq bunday mexanizm ijtimoiy tenglik va ta'limga kirish imkoniyatlariga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun maktabgacha ta'limni moliyalashtirishda ota-onalar to'lovining optimal darajasini belgilash muhim hisoblanadi.

Maktabgacha ta'limni moliyalashtirishda ota-onalar to'lovining nazariy asoslari

Maktabgacha ta'limni moliyalashtirish nazariyasida bir necha asosiy yondashuvlar mavjud. Birinchi yondashuvga ko'ra, maktabgacha ta'lim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmat hisoblanadi va uni moliyalashtirishda davlat ustuvor rol o'ynashi kerak. Bu yondashuv inson kapitali nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, ta'limga sarflangan mablag'lar kelajakda iqtisodiy o'sish va jamiyat farovonligiga xizmat qiladi (Heckman, 2006).

Ikkinchi yondashuv maktabgacha ta'limni aralash moliyalashtirish modeli asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda davlat mablag'lari bilan bir qatorda ota-onalar to'lovlari va xususiy investisiyalar ham ishtirok etadi. Bunday model ta'lim muassasalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi (Leshanych et al., 2018).

Uchinchi yondashuvda esa ta'lim xizmatlari bozor mexanizmlari orqali tashkil etiladi va ota-onalar to'lovlari asosiy moliya manbasi sifatida qaraladi. Biroq bu model ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy tenglik nuqtai nazaridan tanqid qilinadi. Shu sababli ko'pchilik davlatlar aralash moliyalashtirish modelini qo'llaydi (Abankina et al., 2020).

Shvesiya tajribasi. Skandinaviya mamlakatlarida maktabgacha ta'lim ijtimoiy davlat siyosati doirasida rivojlangan. Shvesiyada maktabgacha ta'lim asosan munisipal byudjetlar hisobidan moliyalashtiriladi. Ota-onalar to'lovlari mavjud bo'lsa-da, ular "maksimal to'lov" (maximum fee) prinsipi asosida cheklangan. Bu tizimga ko'ra, ota-onalar to'lovi oila daromadining muayyan foizidan oshmasligi kerak. Bunday mexanizm ijtimoiy adolatni ta'minlash va barcha bolalar uchun ta'limga teng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi (Westberg & Larsson, 2022).

Shvesiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan yuqori darajada moliyalashtirish va ota-onalar to'lovlari cheklash maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish va xizmatlar sifatini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Janubiy Koreya tajribasi. Janubiy Koreyada maktabgacha ta'lim tizimi davlat va xususiy sektorning aralash ishtirokida rivojlangan. Davlat tomonidan bolalar uchun subsidiyalar ajratiladi va ular maxsus to'lov kartalari orqali ota-onalarga taqdim etiladi. Shu bilan birga, ota-onalar maktabgacha ta'lim xizmatlari uchun qo'shimcha to'lovlarni amalga oshiradi.

Koreyada "education fever" deb ataladigan ijtimoiy fenomen mavjud bo'lib, ota-onalar bolalar ta'limiga katta mablag' sarflashga tayyor. Natijada davlat subsidiyalari mavjud bo'lsa ham, xususiy ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab yuqori darajada saqlanib qoladi (Woo & Hodges, 2015).

Rossiya tajribasi. Rossiya Federasiyasida maktabgacha ta'lim muassasalari asosan davlat va munisipal byudjetlar hisobidan moliyalashtiriladi. Shu bilan birga, ota-onalar muayyan miqdorda to'lov amalga oshiradi. Davlat ushbu to'lovlarni qisman kompensasiya qilish mexanizmlarini joriy etgan. Masalan, ikkinchi yoki uchinchi bola uchun ota-onalar to'lovining muayyan qismi davlat tomonidan qoplanadi (Ovchinnikova & Zatonkaya, 2022).

Bunday mexanizm ijtimoiy himoyani ta'minlash bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini saqlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'limni moliyalashtirishda asosiy tendensiyalar xalqaro amaliyot tahlili maktabgacha ta'limni moliyalashtirishda quyidagi tendensiyalarni ko'rsatadi:

1. Davlat moliyalashtirishining ustuvorligi.

Ko'pchilik mamlakatlarda maktabgacha ta'lim ijtimoiy xizmat sifatida qaraladi va uni moliyalashtirishda davlat byudjeti asosiy manba hisoblanadi (Heckman, 2006).

2. Aralash moliyalashtirish modelining kengayishi.

Davlat mablag'lari bilan birga ota-onalar to'lovlari va xususiy investisiyalar ham muhim rol o'ynaydi (Leshanych et al., 2018).

3. Ijtimoiy himoya mexanizmlarining joriy etilishi.

Kam ta'minlangan oilalar uchun imtiyozlar, subsidiyalar va kompensasiya mexanizmlari qo'llaniladi (Abankina et al., 2020).

4. Jon boshiga moliyalashtirish (per capita funding).

Ko'plab mamlakatlarda mablag' bolalar soniga bog'lanadi, bu esa moliyalashtirish shaffofligini oshiradi.

5. Xususiy sektor ishtirokining oshishi.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari maktabgacha ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi (Westberg & Larsson, 2022).

Maktabgacha ta'limni moliyalashtirishda ota-onalar to'lovi muhim element hisoblanadi. Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, ota-onalarning moliyaviy ishtiroki ta'lim muassasalarining barqaror ishlashini ta'minlashi mumkin. Biroq bunday to'lovlar ijtimoiy tenglikka salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun davlat tomonidan samarali regulyasiya va ijtimoiy himoya mexanizmlari joriy etilishi zarur.

Shvesiya tajribasi davlat moliyalashtirishi ustuvor bo'lgan model samarali ekanini ko'rsatsa, Janubiy Koreya misoli xususiy sektor ishtirokining ahamiyatini namoyon etadi. Rossiya tajribasi esa davlat mablag'lari bilan birga ota-onalar to'lovini kompensasiya qilish mexanizmlarini qo'llash mumkinligini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'limni moliyalashtirishda optimal model davlat byudjeti, ota-onalar to'lovi va xususiy investisiyalarning uyg'unlashuviga asoslanishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Heckman J. J. Skill formation and the economics of investing in disadvantaged children //Science. – 2006. – Vol. 312. – pp. 1900–1902.
2. Leshanych L., Miahkykh I., Shkoda M. Models of financing of higher education institutions in foreign countries //Baltic Journal of Economic Studies. – 2018. – Vol. 4. – No. 5. – pp. 145–150.
3. Abankina I., Kravchenko I., Filatova L. Early development and preschool education financing in Russia and abroad //Educational Policy. – 2020. – No. 4. – pp. 36–47.
4. Westberg J., Larsson E. The marketization of the expanding preschool sector in Sweden //Journal of Education Policy. – 2022. – Vol. 37. – No. 5. – pp. 705–722.
5. Woo H., Hodges N. N. Education fever: Exploring private education consumption motivations among Korean parents of preschool children //Family and Consumer Sciences Research Journal. – 2015. – Vol. 44. – No. 2. – pp. 127–142.
6. Ovchinnikova A., Zatonskaya A. Main trends in financing educational organizations in Russia //Russia in the XXI century. – 2022. – pp. 591–593.

## **SANOAT KORXONALARIDA ESG TIZIMINI JORIY ETISHNING XORIJIY**

### **TAJRIBASI**

**Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li**

i.f.f.d, dotsent v.b

ORCID: 0000-0002-1161-8960

[turgunov.jasurbek1123@gmail.com](mailto:turgunov.jasurbek1123@gmail.com)

So'nggi yillarda ESG tamoyillari asosida boshqaruv tizimlarini joriy etish global investitsiya bozorida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xalqaro investorlar kompaniyalarning moliyaviy natijalari bilan bir qatorda ularning ekologik mas'uliyati, ijtimoiy siyosati hamda korporativ boshqaruv tizimiga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Bu esa sanoat korxonalarida ESG standartlarini joriy etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda sanoat korxonalarini boshqarishda ESG tamoyillarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yevropa Ittifoqi, AQSh hamda Yaponiya kabi davlatlarda sanoat ishlab chiqarishida ekologik texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish hamda chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Mazkur mamlakatlar tajribasi sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda ESG tamoyillarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Yevropa Ittifoqida sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan eng muhim strategik hujjatlardan biri "Yevropa yashil bitim" startegiyasi hisoblanadi. Mazkur strategiya doirasida 2050-yilga kelib Yevropa Ittifoqi iqtisodiyotini zararli is gazlaridan xoli iqtisodiyotga olib kelish maqsad qilingan. Ushbu strategiya sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda yirik Yevropa kompaniyalarining o'rtacha ESG ko'rsatkichi 80,6 ni tashkil etib, bu ularning ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv sohalarida

yetakchi natijalarga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu kompaniyalar o'rtacha hisobda global iqlim o'zgarishini cheklashga qaratilgan 2°C iqlim maqsadlariga mos ravishda faoliyat yuritmoqda.<sup>195</sup>

Yevropa Ittifoqining "Yashil bitim" loyihasi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq majburiyatlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu yo'nalishlar orasida sanoat tarmoqlarini ekologik barqaror rivojlanish tamoyillari hamda aylanma iqtisodiyot tamoyillari asosida transformatsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, 2025–2050-yillar oralig'ida Yevropa Ittifoqida sanoat sektori va qo'shilgan qiymat zanjirini kompleks ravishda qayta shakllantirish muhim strategik vazifa sifatida belgilangan. Mazkur strategiya doirasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, muvozanatli ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirish hamda mahsulot ishlab chiqarishni aylanma iqtisodiyot tamoyillari asosida tashkil etish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi. Shuningdek, energiya sarfi yuqori bo'lgan po'lat, kimyo va sement sanoati kabi tarmoqlarda issiqxona gazlari emissiyasini sezilarli darajada kamaytirish strategiyaning asosiy maqsadlaridan biri etib belgilangan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan "Corporate Sustainability Reporting Directive" (CSRD) direktivasi asosida yirik kompaniyalar uchun ESG bo'yicha majburiy hisobot tizimi joriy etilgan. Bu esa korxonalar faoliyatining shaffofligini ta'minlash bilan birga investorlar uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

AQSh sanoat korxonalarida ESG konsepsiyasini rivojlantirish asosan innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda energiya samaradorligini oshirish orqali amalga oshirilmoqda. AQShda ESG tamoyillarining rivojlanishida investitsiya fondlari va fond bozori muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda ESG investitsiyalari hajmi sezilarli darajada oshdi. Masalan, 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, AQShda ESG tamoyillari asosida boshqarilayotgan aktivlar hajmi 8 trillion AQSh dollaridan ortiqni tashkil etgan. AQShda ESG bozori muayyan o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. AQSh Barqaror investitsiyalar forumi ma'lumotlariga ko'ra, siyosiy bosimlarga qaramay, 2025-yilda barqaror investitsiya aktivlari taxminan bir necha trillion dollarni tashkil etgan. Shu bilan birga, korporativ hisobotlarda "ESG" atamasidan foydalanish sezilarli darajada kamaygan bo'lsa-da, S&P 500 indeksiga kiruvchi kompaniyalarning 87 foizi hali ham iqlim bilan bog'liq maqsadlarini oshkor qilib kelmoqda. Mutaxassislar prognozlariga ko'ra, ushbu bozor kelgusi yillarda ham o'sishda davom etadi va 2030-yilga borib ushbu sohadagi investitsiyalar hajmi bir necha yuz milliard dollardan ortiq darajaga yetishi kutilmoqda.<sup>196</sup>

---

<sup>195</sup> Environmental, Social, and Governance Performance of EU Companies, published 05 Dec 2024

<sup>196</sup> The US SIF Trends Report 2025/2026. US Sustainable Investment Forum

AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, ESG ko'rsatkichlari korxonalar kapitalizatsiyasi va investitsion jozibadorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. AQShda ESG hisobotlari hozirgi vaqtda ixtiyoriy ko'rsatmalar hamda shakllanib borayotgan majburiy tartibga solish me'yorlarining uyg'unlashuvi asosida amalga oshirilmoqda. Hozircha ESG bo'yicha to'liq federal majburiy talablar joriy etilmagan bo'lsada, ayrim shtatlar darajasida qabul qilinayotgan me'yoriy hujjatlar hisobot berish tizimining shakllanishiga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Investorlar tomonidan shaffoflikka bo'lgan talabning ortib borishi natijasida kompaniyalardan ESG omillarini o'z faoliyatiga integratsiya qilish kutilmoqda. AQShda ESG hisobotlari hali to'liq majburiy tus olmagan bo'lsada, kompaniyalar ESG standartlari va tamoyillariga faol ravishda moslashishi zarur. Ular rivojlanib borayotgan tartibga solish talablaridan ortda qolmaslik, investorlar kutayotgan shaffoflikni ta'minlash hamda uzoq muddatli ishonchni shakllantirish uchun barqarorlik va korporativ boshqaruv tamoyillarini o'z faoliyatiga integratsiya qilishga chaqirilmoqda.

Yaponiya sanoat korxonalarida ESG tamoyillarini joriy etish uzoq muddatli strategik rejalashtirish asosida amalga oshiriladi. Yaponiya kompaniyalari ishlab chiqarish jarayonlarida ekologik texnologiyalarni qo'llash, resurslardan samarali foydalanish hamda chiqindilarni minimallashtirishga katta e'tibor qaratadi.

Yaponiyada ham ESG masalalariga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda va kompaniyalarning ESG faoliyatini amalga oshirishiga bo'lgan talab kuchaymoqda. 2022-yil oxiriga kelib Yaponiyada ESG investitsiyalari hajmi 494 trillion yapon iyenasi tashkil etib, bu 2020-yil oxiriga nisbatan 59 foizga oshganini ko'rsatadi. Dunyodagi eng yirik aktivlarni boshqaruvchi institutlardan biri bo'lgan Yaponiya hukumat pensiya investitsiya jamg'armasi boshqaruvida 260 trillion iyenaga yaqin aktivlarga ega bo'lib, 2017-yilda o'zining ESG indekslarini belgilab olgan. 2024-yil mart holatiga ko'ra ushbu jamg'arma tomonidan 17,8 trillion iyena miqdorida ESG investitsiyalari boshqarilgan.<sup>197</sup>

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarida ESG tamoyillarini joriy etish bir qator ijobiy natijalarga olib keladi. Avvalo, ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik samaradorligi oshib, atrof-muhitga yetkaziladigan zarar hamda karbon chiqindilari miqdori sezilarli darajada kamayadi. Shuningdek, ESG standartlariga amal qiluvchi korxonalar investorlar uchun yanada jozibador bo'lib, ularning investitsiya jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Bundan tashqari, barqaror rivojlanish tamoyillarini qo'llash sanoat korxonalarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

---

<sup>197</sup> METI. Guidance for Integrated Corporate Disclosure and Company-Investor Dialogue for Collaborative Value Creation 2.0. Ministry of Economy, Trade and Industry, Japan, 2024.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. The Paris Agreement was adopted on 12 December 2015.
2. Environmental, Social, and Governance Performance of EU Companies. European Commission Report, 2024.
3. The US SIF Trends Report 2025/2026. US Sustainable Investment Forum.
4. METI. Guidance for Integrated Corporate Disclosure and Company-Investor Dialogue for Collaborative Value Creation 2.0. Ministry of Economy, Trade and Industry, Japan, 2024.
5. European Commission. The European Green Deal. Brussels, 2019.
6. OECD. ESG Investing and Climate Transition in the Industrial Sector. Paris, 2023.
7. Friede G., Busch T., Bassen A. ESG and Financial Performance: Aggregated Evidence from More than 2000 Empirical Studies. Journal of Sustainable Finance & Investment, 2015.

### **ИЖРО ИШИ ЮРИТИШ ЖАРАЁНИДА АКТИВЛАРНИ БОШҚАРИШНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ВА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ**

**Атаджанов Зафарбек Алишерович**

Самостоятельный соискатель  
Правоохранительной академии  
Республики Узбекистан, Республика  
Узбекистан, г. Ташкент  
ORCID: 0009-0000-1152-1352  
e-mail: [zafarali9909@icloud.com](mailto:zafarali9909@icloud.com)

Ҳозирги глобал рақамли трансформация шароитида давлат бошқаруви тизимининг барча соҳаларида, хусусан, мажбурий ижро институти фаолиятини такомиллаштириш долзарб аҳамият касб этмоқда<sup>198</sup>. Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларининг тўлиқ ва ўз вақтида ижро этилишини таъминлаш давлатнинг ҳуқуқий тизими самарадорлигини белгиловчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, мажбурий ижро жараёнида қарздор активларини аниқлаш, хатлаш, баҳолаш ва реализация қилиш механизмларини замонавий рақамли технологиялар асосида ташкил этиш тизим самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга<sup>199</sup>.

Мажбурий ижро жараёнида қарздор активларини аниқлаш, хатлаш, баҳолаш ва реализация қилиш жараёнларини рақамлаштириш ижро тизимининг институционал самарадорлигини оширишга хизмат қилади<sup>200</sup>. Айниқса, давлат бошқарувида рақамли платформалар, электрон реестрлар ва автоматлаштирилган ахборот тизимларини жорий

<sup>198</sup>

[https://proacademy.uz/uploads/tiny\\_mce/%D0%BF%D1%80%D0%BE%D0%BA%D1%83%D1%80%D0%BE%D1%80/10-%20%D0%90-%D2%B2%D0%B0%D0%BC%D0%B8%D0%B4%D0%BE%D0%B2-%20%D0%98%D0%B6%D1%80%D0%BE%20%D0%B8%D1%88%D0%B8%20%D1%8E%D1%80%D0%B8%D1%82%D1%83%D0%B2%D0%B8%D0%B3%D0%B0%20%D0%B8%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BD%20%D1%91%D0%BD%D0%B4%D0%B0%D1%88%D1%83%D0%B2.pdf](https://proacademy.uz/uploads/tiny_mce/%D0%BF%D1%80%D0%BE%D0%BA%D1%83%D1%80%D0%BE%D1%80/10-%20%D0%90-%D2%B2%D0%B0%D0%BC%D0%B8%D0%B4%D0%BE%D0%B2-%20%D0%98%D0%B6%D1%80%D0%BE%20%D0%B8%D1%88%D0%B8%20%D1%8E%D1%80%D0%B8%D1%82%D1%83%D0%B2%D0%B8%D0%B3%D0%B0%20%D0%B8%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BD%20%D1%91%D0%BD%D0%B4%D0%B0%D1%88%D1%83%D0%B2.pdf)

<sup>199</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 16.02.2026 йилдаги ПФ-21-сонли Фармони.

<sup>200</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 03.01.2024 йилдаги ПФ-1-сон,  
<https://lex.uz/docs/6723273>

этиш орқали ижро жараёнларининг шаффофлиги ва ҳисобдорлигини таъминлаш мумкин<sup>201</sup>. Халқаро тадқиқотлар шуни кўрсатадики, давлат бошқарувини рақамлаштириш коррупциявий хавфларни камайтириш ва қарор қабул қилиш жараёнини оптималлаштиришда муҳим аҳамиятга эга<sup>202</sup>.

Шу билан бирга, ижро жараёнларига сунъий интеллект технологияларини кенг жорий этиш инсон омили билан боғлиқ субъективлик, коррупциявий хавф-хатарлар ва ортиқча маъмурий тўсиқларни камайтиришга хизмат қилади<sup>203</sup>. Давлат ижрочилари томонидан қабул қилинадиган қарорларнинг маълум қисмини автоматлаштириш, ижро иш юритувини тўлиқ электрон шаклга ўтказиш ҳамда ундирилган маблағларни ундирувчиларга етказиш жараёнларини рақамли платформалар орқали амалга ошириш ижро тизимининг тезкорлиги ва самарадорлигини оширади<sup>204</sup>.

Мажбурий ижро соҳасида активларни бошқаришни рақамлаштириш, биринчи навбатда, қарздорнинг мол-мулки тўғрисидаги маълумотларни тезкор аниқлаш, уларни ягона ахборот тизими орқали мониторинг қилиш, электрон тарзда хатлаш ва реализация қилиш имкониятларини яратади. Шу билан бирга, сунъий интеллект технологияларини жорий этиш орқали активларни аниқлаш алгоритмларини такомиллаштириш, активларнинг ликвидлик даражасини баҳолаш, реализация жараёнини прогнозлаш ва ижро самарадорлигини таҳлил қилиш имкониятлари кенгайди.

Мажбурий ижро тизимида активларни бошқаришни рақамлаштиришнинг асосий афзалликлари қуйидагилардан иборат:

**- Қарздор мол-мулки ҳақидаги маълумотларни тезкор аниқлаш ва мониторинг қилишда:**

Ягона ахборот тизими орқали активлар динамикасини доимий равишда кузатиш, уларни электрон тарзда хатлаш ва реализация қилиш имкониятлари яратилади. Бу механизмлар ундирув жараёнининг шаффофлигини таъминлайди ҳамда мол-мулкнинг йўқолиши ва номуносиб сақланиши хавфини сезиларли даражада камайтиради. Ушбу усул активларнинг турли стадияларда ҳисобини автоматлаштириш ва мониторинг қилиш орқали ижро ҳаракатлари самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

**- Ижро иши юритиш соҳасига Сунъий интеллект технологияларини жорий этиш:**

**AI алгоритмлари орқали** активларни идентификация қилиш, уларнинг ликвидлик даражасини баҳолаш, реализация жараёнини прогнозлаш ҳамда ижро самарадорлигини таҳлил қилиш имкониятлари кенгайди. Шунингдек, автоматлаштирилган таҳлил қарор қабул қилиш жараёнини тезлаштириб, инсон омилидан келиб чиқадиган хатоларни минималлаштиради. Сунъий интеллект технологиялари фаолиятининг замонавий йўналишлари, шунингдек, Big Data орқали аналитик моделлар ишлаб чиқиш, активларнинг бозор қийматини динамик таҳлил қилиш ва ундирув жараёнида молиявий хатарларни прогноз қилиш имкониятларини яратади.

**- Активларни бошқаришда автоматизация ва интеграция:**

Мажбурий ижро бюроси ҳамда, «E-auction» платформаси, Кадастр агентлиги, Агросаноат мажмуи устидан назорат қилиш инспекцияси, банклар, ички ишлар, солиқ, суд, тергов ва нотариус органларининг ахборот тизимлари, жарима майдонлари, баҳоловчи ташкилотлар ва активларни сақловчи ташкилотлар билан интеграциялаштириш орқали ундирув жараёни 24/7 режимида самарали амалга оширилади. Бу интеграция активларни баҳолаш, реализация муддатларини назорат қилиш ва ўтказилган маблағлар

<sup>201</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 11.12.2025 йилдаги ПҚ-371-сон, <https://lex.uz/ru/docs/7903226>

<sup>202</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармойиши, 28.11.2025 йилдаги Ф-68-сон, <https://lex.uz/docs/7865748>

<sup>203</sup> <https://www.worldbank.org/en/region/eca/brief/digital-transformation-and-public-sector-reform-western-balkans-progress-toward-eu-accession-and-economic-growth>

<sup>204</sup> <https://archive.doingbusiness.org/en/data/exploretopics/enforcing-contracts>

мониторингини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, интеграция жараёни активларнинг ҳаётий циклини «сквозное сопровождение» принципи асосида назорат қилиш имконини беради.

**- Инновацион коммуникация механизмлари жорий этиш:**

СМС-хабарнома, овозли роботлар ва онлайн идентификация орқали қарздорлар билан тезкор ва самарали алоқа ўрнатиш имкониятлари пайдо бўлади. Бу усул ижро ҳаракатларини юритувчи органлар фаолиятини автоматлаштириш ва ижро ҳужжатларининг бажарилишини назорат қилишда қўлланилади. Шунингдек, электрон коммуникация жараёни қарздорлар ва давлат органлари ўртасидаги алоқани ҳамда маълумотлар оқимини оптималлаштириб, ижро самарадорлигини оширади.

Шу билан бирга, мажбурий ижро тизимида рақамли трансформациянинг ҳуқуқий-ташқилий асослари ҳам аҳамиятли ҳисобланади. Жумладан, ижро иши юритиш соҳасига активларни электрон ҳисобини юритиш мажбурийлиги, жиноят-процессуал қонунчилигига эса хатланган ва банд солинган активлар ҳақидаги маълумотларни ягона электрон базага киритиш ва идентификация қилиш мажбурияти киритилиши зарур. Бу нормалар активларнинг шаффоф бошқарувини таъминлаш, мол-мулкни йўқотиш хавфини камайтириш ва давлатнинг ижро ҳужжатини ижроси самарадорлигини оширишда асосий механизм сифатида хизмат қилади.

Хулоса қилиб айтганда, мажбурий ижро тизимида активларни бошқаришни рақамли трансформация қилиш ва сунъий интеллект технологияларини жорий этиш давлатнинг ҳуқуқий тизими самарадорлигини ошириш, ижро жараёнида инсон омилини камайтириш ва активларнинг ҳаётий циклини тўлиқ назорат қилиш имкониятларини яратади. Бу эса «Ўзбекистон — 2030»<sup>205</sup> давлат дастури ва рақамли трансформация стратегияси доирасида ижро самарадорлигини мустаҳкамлашга хизмат қилади.

## **RAQAMLI IQTISODIYOTDA MILLIY SUG‘URTA BOZORINING IMIDJINI OSHIRISH YO‘LLARI**

### **Sharobiddinov Akramjon Goyibbayevich**

“Kafolat sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori

Bugungi kunda milliy sug‘urta bozorining samarali faoliyat yuritishi nafaqat sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi, balki ushbu bozorga nisbatan shakllangan ijtimoiy ishonch va ijobiy imidj bilan ham bevosita bog‘liqdir. Bozor imidji fuqarolar va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning sug‘urta xizmatlariga munosabatini belgilovchi muhim omil bo‘lib, u sug‘urta mahsulotlariga talab darajasiga, ixtiyoriy sug‘urta turlarining ommalashuviga va umuman, sug‘urta institutining iqtisodiyotdagi rolga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, milliy sug‘urta bozorining imidjini oshirish masalasi bugungi kunda ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Sug‘urta bozorining imidji, avvalo, mijozlarning sug‘urta tizimiga bo‘lgan ishonchi orqali shakllanadi. Agar sug‘urta kompaniyasi o‘z zimmasidagi majburiyatlarni o‘z vaqtida va to‘liq bajarsa, xizmat ko‘rsatish jarayoni ochiq va qulay bo‘lsa, mijoz bilan muloqot madaniyati yuqori darajada yo‘lga qo‘yilsa, bozorda ijobiy tasavvur shakllanadi. Aksincha, tovon to‘lovlaridagi kechikishlar, shartnoma shartlarining murakkabligi, ortiqcha hujjatbozlik va tushuntirish ishlarining sustligi bozor imidjiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Demak, sug‘urta bozori imidji tasodifiy emas, balki xizmat sifati va institutsional mas‘uliyat natijasida shakllanadigan ko‘rsatkichdir.

Milliy sug‘urta bozorining imidjiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi muammolar qatoriga aholining sug‘urta haqidagi bilimlari yetarli emasligi, sug‘urta madaniyatining sustligi, ayrim xizmatlarda shaffoflik darajasining pastligi va sug‘urta tashkilotlarining jamoatchilik bilan ishlash mexanizmlarining zaifligi kiradi. Ko‘pincha mijoz sug‘urta xizmatining real afzalliklarini emas,

---

<sup>205</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 16.02.2026 йилдаги ПФ-22-сон, <https://lex.uz/docs/8050787>

balki faqat sug'urta hodisasi yuz bergandagi to'lov jarayonini baholaydi. Agar, aynan shu bosqichda salbiy tajriba yuzaga kelsa, bu nafaqat alohida kompaniya, balki butun milliy sug'urta bozorining obro'siga putur yetkazadi. Shu bois, imidjni oshirish masalasiga faqat marketing vazifasi sifatida emas, balki tizimli institutsional vazifa sifatida yondashish zarur.

Milliy sug'urta bozorining ijobiy imidjini shakllantirishda raqamli transformatsiya alohida o'rin tutadi. Raqamli texnologiyalar sug'urta xizmatlarini soddalashtirish, elektron polislar joriy etish, onlayn murojaat va da'volarni ko'rib chiqish, shuningdek mijoz bilan tezkor kommunikatsiya o'rnatish imkonini beradi. Ayniqsa, mobil ilovalar, shaxsiy kabinet, onlayn maslahat va masofaviy identifikatsiya vositalari mijozlar uchun qulaylik yaratadi. Bu esa, sug'urta xizmatlarini zamonaviy, ochiq va mijozga yo'naltirilgan tizim sifatida namoyon etib, bozor imidjini sezilarli yaxshilaydi.

Sug'urta bozorining imidjini oshirishda xizmatlar sifati ham hal qiluvchi omillardan biridir. Mijoz uchun eng muhim jihat shundaki, u sug'urta xizmatini tushunishi, osongina rasmiylashtirishi va sug'urta hodisasi yuz berganda tezkor amaliy yordam olishi kerak. Shuning uchun sug'urta kompaniyalari murakkab terminologiyadan voz kechib, mahsulotlar tavsifini sodda va tushunarli shaklda taqdim etishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, da'volarni ko'rib chiqish muddati, tovon to'lash mexanizmi va mijoz murojaatlari bilan ishlash sifati qat'iy nazorat qilinishi lozim. Yuqori sifatli xizmat bozorning ichki samaradorligini oshiradi va tashqi obro'sini mustahkamlaydi.

Milliy sug'urta bozorining imidjini oshirishda ochiq axborot siyosati va jamoatchilik bilan muntazam kommunikatsiya yuritish ham muhimdir. Sug'urta kompaniyalari faqat polis sotuvchi subyekt emas, balki jamiyatning moliyaviy himoya tizimida muhim rol o'ynovchi institut sifatida namoyon bo'lishi kerak. Buning uchun ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy platformalar va ma'rifiy loyihalar orqali sug'urtaning mazmuni, foydasi, real himoya mexanizmi va muvaffaqiyatli amaliy tajribalari keng yoritilishi zarur. Bozorda ijobiy axborot maydonining shakllanishi fuqarolarning sug'urtaga nisbatan shubhali emas, balki ongli munosabatini kuchaytiradi.

Aholining moliyaviy savodxonligini va sug'urta madaniyatini oshirish ham bozor imidjini mustahkamlashning muhim yo'nalishidir. Agar, fuqaro sug'urta nima ekanini, u qanday risklardan himoya qilishini va qaysi holatlarda iqtisodiy tayanch bo'lishini tushunsa, sug'urta bozoriga bo'lgan munosabati ijobiylashadi. Shu sababli, ta'lim muassasalari, moliya bozorining professional ishtirokchilari va sug'urta kompaniyalari hamkorligida keng qamrovli ma'rifiy dasturlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida sug'urta savodxonligini oshirish kelajakda bozorning barqaror mijoz bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy sug'urta bozorining ijobiy imidjini ta'minlashda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Mijoz o'z huquqini bilsa, shikoyat qilishning aniq tartibi mavjud bo'lsa, sug'urta kompaniyasi esa murojaatlarni ochiq va tezkor ko'rib chiqsa, bozorda adolatli va ishonchli muhit qaror topadi. Shu nuqtayi nazardan, mijozlarning murojaatlari bilan ishlash bo'yicha yagona standartlar, ochiq reyting tizimlari va xizmat sifati indikatorlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, bozordagi kompaniyalar o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytiradi.

Milliy sug'urta bozorining ijobiy imidjini ta'minlash va yuksaltirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchiidan, sug'urta kompaniyalarida mijozga yo'naltirilgan yagona xizmat standartlari joriy etilishi zarur. Mazkur standartlar polis rasmiylashtirish, maslahat berish, murojaatlarni qabul qilish va tovon to'lash jarayonlarini sodda, tezkor va bir xilda tashkil etishni ta'minlashi kerak. Bu, xizmat sifati barqarorlashuviga va mijoz ishonchining ortishiga xizmat qiladi.

Ikkinchiidan, milliy sug'urta bozorida raqamli shaffoflik platformasini yaratish maqsadga muvofiqdir. Ushbu platformada sug'urta mahsulotlari, shartlar, asosiy tarif yondashuvlari, murojaat tartibi va kompaniyalar faoliyati bo'yicha ochiq ma'lumotlar joylashtirilishi kerak. Bu, aholining axborotga ega bo'lish imkoniyatini kengaytiradi va bozor ochiqligini oshiradi.

Uchinchidan, sug'urta bozorining ijobiy qiyofasini shakllantirish uchun ommaviy ma'rifiy axborot kampaniyalarini kengaytirish lozim. Bunda, sug'urtaning hayotiy zarurati, real foydasi, himoya mexanizmi va muvaffaqiyatli amaliy misollar sodda tilda tushuntirilishi kerak. Natijada, sug'urtaga nisbatan salbiy stereotiplar qisqaradi.

To'rtinchidan, sug'urta hodisalari bo'yicha tezkor va adolatli da'vo ko'rib chiqish tizimini kuchaytirish zarur. Chunki, aynan tovon to'lash bosqichi mijozning yakuniy bahosini shakllantiradi. Bu jarayon qanchalik adolatli va tez bo'lsa, bozor imidji shunchalik yuqori bo'ladi.

Beshinchidan, milliy sug'urta bozorida mijozlar qoniqish indeksini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu indeks xizmat sifati, da'volarni ko'rib chiqish tezligi, mijoz bilan muloqot darajasi va umumiy qoniqish mezonlari asosida shakllantirilishi mumkin. Bunday yondashuv kompaniyalarni doimiy ravishda o'z xizmatini yaxshilashga undaydi.

Oltinchidan, yoshlar uchun sug'urta savodxonligi bo'yicha maxsus ta'lim va targ'ibot dasturlarini ishlab chiqish lozim. Oliy ta'lim muassasalari, maktablar va raqamli media platformalar orqali sug'urta madaniyatini oshirish istiqbolda milliy bozor imidjining mustahkam ijtimoiy asosini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy sug'urta bozorining imidjini oshirish sug'urta tizimini rivojlantirishning eng muhim strategik yo'nalishlaridan biridir. Bozor imidji xizmatlar sifati, shaffoflik, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, moliyaviy savodxonlik va raqamli qulaylik bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois, milliy sug'urta bozorini modernizatsiya qilishda imidj masalasiga kompleks yondashish, ya'ni institutsional ishonch, ochiq kommunikatsiya va mijozga yo'naltirilgan xizmatni birgalikda rivojlantirish zarur. Mazkur yondashuv sug'urta bozorining raqobatbardoshligini oshirish, aholining sug'urtaga jalb etilishini kuchaytirish va moliyaviy himoya tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## **BANKLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISH:**

### **BIZNES-MODELNI TRANSFORMATSIYA QILISH BO'YICHA KONTSEPTUAL YONDASHUV**

**Jalalov Mashhurbek,**

Bank-moliya akademiyasi,

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası dotsenti v.b.

[michael89mashkhurbek@gmail.com](mailto:michael89mashkhurbek@gmail.com)

Jahon bank sanoati muhim o'zgarishlar pallasida turibdi. An'anaviy tijorat banki biznes-modeli asosan muddatli transformatsiya va kredit vositachiligiga tayanib, muvaffaqiyatni qisqa muddatli moliyaviy natijalar bilan o'lchagan. Biroq iqlim inqirozi kuchayishi va ijtimoiy kutilmalarning o'zgarishi bu an'anaviy mantig'ni buzib tashladi. Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) omillari endi ixtiyoriy qo'shimcha sifatida emas, balki raqobat muhitini shakllantiradigan asosiy ko'rsatkich sifatida qaralmoqda.

Ushbu maqolada ESG integratsiyasi bank biznes-modellarini qayta loyihalash zaruriyatini keltirib chiqaruvchi strategik vosita sifatida tadqiq etiladi. Mavjud tartibga soluvchi standartlarga muvofiqlik bankni salbiy riskdan himoya qilsa-da, strategik transformatsiya ijobiy imkoniyatlarni ochib beradi. Nazariy va empirik adabiyotlarni ko'rib chiqish orqali ESG integratsiyasi bank biznes-modellarining asosiy komponentlarini qanday o'zgartirishini o'rganish maqsad qilib belgilangan.

Barqarorlik va korporativ strategiya o'rtasidagi munosabat so'nggi ikki o'n yillikda sezilarli darajada rivojlandi. Dastlabki adabiyotlar korporativ ijtimoiy mas'uliyatni (KIM) asosiy biznes faoliyatidan alohida, asosan xayriya yo'nalishida ko'rib chiqar edi. Scholtens (2009) ta'kidlaganidek, bank sektorida dastlabki KIM tashabbuslari biznes mantiqini o'zgartirish emas, balki obro'ni boshqarish uchun mo'ljallangan edi.

Biroq strategik boshqaruv adabiyotlari bu ikkilamchi yondashuvni inkor eta boshladi. Eccles, Ioannou va Serafeim (2014) barqarorlik amaliyotlarini strategik ustuvorlik sifatida qabul

qilgan kompaniyalar uzoq muddatda hamkasblarga nisbatan nafaqat bozor qiymatida, balki buxgalteriya ko'rsatkichlarida ham ustunlikni saqlab qolganini isbotladi. Bank kontekstida Weber (2014) barqaror bank ishi uchun kredit madaniyatida asosiy o'zgarish talab etilishini — ekologik risklarni moliyaviy mahsulotlar narxiga kiritish zarurligini ta'kidladi. Bu esa ESG ning operatsion tartibga solishdan ko'ra qiymat yaratishning strategik qayta yo'naltirilishi ekanligini ko'rsatadi.

Fatemi, Glaum va Kaiser (2018) ESG ko'rsatkichlari kompaniya qiymatini oshirishini, ayniqsa oshkorlik yuqori bo'lganda, aniqladi — bu shaffoflikning strategik aktiv ekanligini bildiradi. Biroq Liang va Renneboog (2017) mustahkam institutsional asoslar bo'lmasa ESG yuzaki bo'lib qolish xavfini ogohlantirdi. Yevropa Markaziy Banki (2020) va Bolton va boshq. (2020) iqlim riskini moliyaviy barqarorlik masalasi sifatida belgilab, banklarni ESG ni faqat foyda uchun emas, to'lovga qobilligi uchun ham hisobga olishga majbur etdi. Mazkur adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, risk va samaradorlik yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, ESG orqali biznes-modelni transformatsiya qilishning aniq mexanizmlari qo'shimcha tadqiqotni talab etadi.

Ushbu tadqiqotda bank sohasida ESG ning strategik oqibatlarini tahlil qilish uchun sifatli stol-tadqiqot metodologiyasi qo'llanildi. Ma'lumotlar bazasi 2009–2023 yillar orasida nashr etilgan peer-review ilmiy maqolalar va birlamchi me'yoriy hujjatlarning sintezlashtirilgan sharhidan iborat. Tanlov mezonlari ESG ni biznes-model innovatsiyasi, strategik boshqaruv va bank sektoridagi moliyaviy samaradorlik bilan bevosita bog'laydigan manbalarga ustunlik berdi.

Tahlil doirasi topilmalarni uchta biznes-model innovatsiyasi o'lchoviga — qiymat taklifi, qiymat yaratish va qiymat olishga — tasniflaydi. Bu yondashuv ESG integratsiyasining bank operatsiyalarining asosiy mantiqini qanday o'zgartirishini tuzilmalashtirilgan tarzda o'rganish imkonini beradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ESG integratsiyasi bank biznes-modellarini uchta asosiy yo'nalish bo'yicha o'zgartiradi: mahsulot innovatsiyasi, operatsion samaradorlik va risk narxlanishi. ESG ni strategik jihatdan qo'llaydigan banklar mavjud portfelliga yashil mahsulotlar qo'shish bilan cheklanmay, mijoz munosabatlari va kapital taqsimoti jarayonlarini qaytadan belgilaydilar. 1-jadval an'anaviy bank biznes-modeli bilan ESG-integratsiyalashgan strategik model o'rtasidagi tafovutni ko'rsatib beradi.

### 1-jadval.

#### An'anaviy va ESG-integratsiyalashgan bank biznes-modellari taqqoslamasi

Komponent	An'anaviy bank modeli	ESG-integratsiyalashgan strategik model
Qiymat taklifi	Moliyaviy vositachilik va daromad	Barqaror yechimlar va ta'sir
Mijoz munosabatlari	Tranzaksiyaviy	Hamkorlik va maslahat
Riskni baholash	Tarixiy moliyaviy ma'lumotlar	Kelajakka yo'naltirilgan ESG stsenariylar
Kapital taqsimoti	Sohadan mustaqil	Tematik (yashil/ijtimoiy obligatsiyalar)
Samaradorlik ko'rsatkichi	Choraklik kapital rentabelligi (ROE)	Uzoq muddatli riskga moslashtirilgan daromad

Bu natijalarning muhokamasi shuni ko'rsatadiki, o'tish ham bozor talabi, ham tartibga soluvchi bosim bilan boshqariladi. Fatemi va boshq. (2018) fikricha, yuqori ESG oshkorligi kompaniya qiymatining o'sishi bilan bog'liq — bu investorlar strategik shaffoflikni mukofotlashini bildiradi. Biroq o'tish jarayoni to'siqlarsiz emas. ECB (2020) talabiga ko'ra kelajakka yo'naltirilgan ESG stsenariylarini amalga oshirish ma'lumotlar infratuzilmasi va inson kapitaliga sezilarli sarmoya talab etadi, bu esa bankning xarajatlar tuzilmasini o'zgartiradi. Weber (2014) ta'kidlashicha, kuchli ESG profiliga ega kompaniyalar inqirozlar davomida chidamliroq

bo'lgani uchun barqaror portfellar bo'yicha standart qo'llanish darajalari pasayishi orqali bu xarajatlar qoplanadi.

Natijalar ESG ning raqobat ustunligi sifatidagi rolini tasdiqlaydi. Muvofiqlik fikri bilan yondashuvda qolgan banklar ESG ni xarajat markazi sifatida ko'rib, minimal mahsulotlar yaratadilar. Aksincha, ESG ni strategik vosita sifatida qo'llaydigan banklar ixtisoslashgan ekspertiza — masalan, og'ir sanoat uchun o'tish moliyasi — rivojlantirishga erishadilar. Shu bilan birga, Bolton va boshq. (2020) «Yashil oqqush» hodisalari xavfini eslatib o'tadi — bu strategik modellar chiziqli bo'lmagan iqlim shoklariga moslashuvchan bo'lishi zarurligini anglatadi.

ESG ni bank ishi bilan integratsiya qilish mohiyatan biznes-modelni transformatsiya qilish jarayonidir. Ushbu maqola ESG ni faqat muvofiqlik talabi sifatida ko'rib chiqish uning moliyaviy barqarorlik va rentabellikni oshirishdagi potentsialini cheklashini ko'rsatadi. Adabiyotlar strategik ESG integratsiyasi qiymat taklifini o'zgartirishi, riskni baholashni takomillashtirishi va chuqurroq mijoz munosabatlarini shakllantirishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Topilmalar asosida uchta siyosiy tavsiya ishlab chiqildi:

1. Tartibga soluvchi organlar oshkoralik majburiyatlaridan tashqari biznes-model innovatsiyasini rag'batlantirishga o'tishi lozim. Kapital yetarliligi doiralari tasdiqlangan barqarorlik maqsadlariga hissa qo'shadigan aktivlarni afzal ko'radigan tarzda moslashtirilishi mumkin, bu esa yashil kreditlash uchun kapital narxini pasaytiradi.

2. Nazorat organlari standartlashtirilgan ESG ma'lumotlar infratuzilmasini rivojlantirishni rag'batlantirishi zarur. Transformatsiya siklida ko'rsatilganidek, ma'lumotlar strategik integratsiyaning asosiy yoqilg'isi hisoblanadi — usiz riskni modellashtirish taxminiy bo'lib qoladi.

3. Bank boshqaruv kodekslari kengashlardan ESG ning asosiy strategiya bilan bog'liqligini ko'rsatishni talab qilishi lozim — faqat risk muvofiqligini emas. Bu ESG mulohazalarining eng yuqori qaror qabul qilish darajasiga yetishini ta'minlaydi.

Tartibga soluvchi rag'batlarni strategik transformatsiya bilan uyg'unlashtirish orqali moliyaviy sektor o'z uzoq muddatli barqarorligini ta'minlagan holda barqaror iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Bolton, P., Despres, M., Pereira da Silva, L. A., Samama, F., & Svartzman, R. (2020). The green swan: Central banking and financial stability in the age of climate change. Bank for International Settlements.

2. Eccles, R. G., Ioannou, I., & Serafeim, G. (2014). The impact of corporate sustainability on organizational processes and performance. *Management Science*, 60(11), 2835–2857.

3. European Central Bank. (2020). Guide on climate-related and environmental risks. ECB Banking Supervision.

4. Fatemi, A., Glaum, M., & Kaiser, S. (2018). ESG performance and firm value: The moderating role of disclosure. *Global Finance Journal*, 38, 45–64.

5. Jeucken, M. (2010). Sustainable finance and banking: The financial sector and the future of the planet. Earthscan.

# **SUSTAINABLE DEVELOPMENT (SDG–2030) AND THE DIGITAL ECONOMY: AN INTEGRATIVE TRANSFORMATION MODEL IN UZBEKISTAN**

**Abdullayev Izzatbek Akramkhon o'g'li**

TSUE Faculty of Finance

e-mail:[izzatbekabdullayev2005@gmail.com](mailto:izzatbekabdullayev2005@gmail.com)

**Ataniyazov Jasurbek Khamidovich**

TSUE Head of International finance department, professor, DSc

In 2015, the United Nations adopted the 2030 Agenda for Sustainable Development, establishing 17 Sustainable Development Goals (SDGs) aimed at balancing economic growth, social inclusion, and environmental sustainability. The SDGs represent a comprehensive global framework that integrates economic modernization, institutional reforms, and environmental responsibility. In the 21st century, digital technologies have become a decisive factor in structural economic transformation. Artificial intelligence, big data analytics, blockchain systems, cloud computing, and smart infrastructure are reshaping production systems, financial markets, and governance mechanisms. For Uzbekistan, digital transformation is not merely a technological upgrade but a strategic pathway toward economic diversification, institutional modernization, and global competitiveness. Uzbekistan's national development strategy to 2030 identifies digital economy development as a priority reform direction. Therefore, analyzing the relationship between the digital economy and SDG–2030 implementation is of high academic and policy relevance.

The main objective of this study is to identify the mechanisms through which digital transformation contributes to sustainable development and to formulate practical recommendations tailored to Uzbekistan's economic context.

The relationship between digitalization and sustainable development has been widely examined in recent academic and institutional research. The World Bank emphasizes that digital infrastructure expansion increases productivity, reduces transaction costs, and enhances market access for small and medium-sized enterprises. Broadband penetration is associated with GDP growth acceleration and improved economic resilience. The OECD highlights that digital governance improves transparency, accountability, and public service delivery efficiency. Digital public administration systems reduce corruption risks and strengthen institutional trust. The UNDP underlines the importance of digital data systems in monitoring SDG indicators in real time, enabling evidence-based policymaking. Scholarly literature generally identifies three transmission channels through which digitalization affects sustainable development: economic efficiency and productivity growth, social inclusion and equal access to services. Environmental optimization and resource efficiency. In the context of Uzbekistan, digital transformation is strongly linked to institutional reform, human capital development, and innovation ecosystem formation. However, empirical research specifically connecting national digital indicators with SDG performance remains limited, which justifies the relevance of this study.

This study applies a comprehensive analytical approach combining quantitative and qualitative methods. First, statistical analysis was conducted to assess the relationship between Uzbekistan's digital development indicators and selected SDG metrics. Indicators such as internet penetration rates, digital payment usage, IT service exports, and e-government service coverage were compared with GDP growth, employment rates, and energy efficiency indicators. Second, comparative analysis was performed to evaluate international digital transformation models and determine their applicability to Uzbekistan's economic structure. Third, institutional analysis examined national strategic documents, regulatory frameworks, and digital reform programs to assess governance capacity and implementation effectiveness. Finally, a systems-based approach was applied to analyze economic, social, and environmental dimensions as interconnected components rather than isolated sectors. This integrated methodology allows for a multidimensional evaluation of digital transformation's contribution to SDG–2030 goals.

**Economic Sustainability:** The findings indicate that digitalization significantly contributes to economic diversification in Uzbekistan. Growth in IT service exports and the expansion of digital entrepreneurship ecosystems enhance non-resource-based economic sectors. The increasing share of cashless payments improves financial transparency and reduces the informal economy. Automation in industrial production (Industry 4.0 technologies) increases labor productivity and lowers operational costs. Furthermore, fintech development strengthens financial inclusion by expanding access to banking services for rural populations and small enterprises.

**Social Sustainability:** Digital education platforms expand access to quality education, particularly in remote regions. E-government services simplify administrative procedures, reduce bureaucratic inefficiencies, and improve citizen-state interaction. Digital healthcare initiatives, including telemedicine systems, enhance healthcare accessibility and efficiency.

**Environmental Sustainability:** Smart energy systems and digital monitoring technologies improve energy efficiency and reduce transmission losses. Renewable energy monitoring platforms facilitate sustainable energy management. Digital carbon tracking systems enable more accurate environmental regulation and climate policy implementation.

Digital transformation in Uzbekistan demonstrates significant potential to accelerate SDG–2030 implementation. However, its long-term effectiveness depends on structured policy measures and institutional coherence. Based on the findings, the following **specific policy recommendations** are proposed:

1. **Expand Digital Infrastructure Nationwide:** Increase broadband coverage in rural and remote areas, Promote 5G deployment in industrial zones, Encourage public-private partnerships for infrastructure investment.

2. **Strengthen Human Capital Development:** Introduce advanced digital skills training in secondary and higher education, Expand IT scholarship programs, Develop specialized cybersecurity and AI training centers.

3. **Improve Digital Governance and Transparency:** Integrate all public services into a unified digital government platform, Expand open data systems to improve accountability, Implement digital performance monitoring of state institutions.

4. **Support Innovation and Startups:** Provide tax incentives for tech startups, Establish regional innovation hubs beyond major cities, Strengthen venture capital and digital finance mechanisms.

5. **Promote Green Digital Technologies:** Incentivize smart energy grid investments, Introduce digital carbon accounting systems for industrial enterprises, Encourage energy-efficient data centers.

6. **Enhance Cybersecurity Frameworks:** Develop national cybersecurity standards aligned with international best practices, Strengthen legal regulations on data protection, Establish a national cyber incident response center.

Without coordinated implementation of these reforms, digital transformation may increase inequality or create systemic vulnerabilities. Therefore, a balanced and inclusive approach is essential.

This study confirms that the digital economy serves as an integrative driver of sustainable development in Uzbekistan. Digitalization supports economic diversification, enhances social inclusion, and strengthens environmental governance. However, digital transformation alone does not automatically ensure sustainability. Its success depends on institutional reforms, human capital investment, infrastructure expansion, and regulatory modernization. For Uzbekistan to fully achieve SDG–2030 objectives, digital policies must be embedded within a broader national development strategy emphasizing inclusivity, innovation, and ecological responsibility. Future research should apply econometric modeling to quantify the long-term impact of digital indicators on SDG performance metrics.

## REFERENCES

1. United Nations. (2015). *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*.

2. World Bank. (2021). *Digital Development Overview*.
3. OECD. (2020). *Digital Economy Outlook*.
4. UNDP. (2022). *Digital Strategy for Sustainable Development*.
5. Government of Uzbekistan. (2023). *National Development Strategy to 2030*.

## **BARQAROR RIVOJLANISHDA CHIQUINDILARNI BOSHQARISHNING VA SIRKULAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI**

**Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li**

University of Business and Science,

Moliya kafedrası dotsent v.b., i.f.f.d. (PhD)

2017 yilda respublikamizda 114,7 mln tonna ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilari, shu jumladan qayta ishlash mumkin bo'lmagan zaharli chiqindilar 41,6 mln tonna (36,2 %) va qayta ishlash mumkin bo'lgan zaharli chiqindilar 42,8 mln tonna (37,3 %) hosil bo'lgan. Mamlakatda chiqindilar ko'miladigan va utilizatsiya qilinadigan 296 ta joy, shu jumladan qattiq maishiy chiqindilar uchun 221ta, sanoat chiqindilari 16 ta, qurilish chiqindilari 4 ta, shlam jamlanadigan 21 ta, chiqindi omborlari 15 ta, maxsus poligonlar 19 ta, shuningdek, xavfli chiqindilar utilizatsiya qilinadigan 23 ta joylar mavjud<sup>206</sup>.

Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish sohasida mamlakatimizda aholini qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmati bilan qamrab olish, hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmini oshirish, tibbiy chiqindilarni yig'ish, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish va ko'mish tizimini tashkil etish kabi qator ishlar olib borilmoqda. O'zbekistonda chiqindilar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan bo'lib, unga muvofiq 2030 yilga qadar kutilayotgan natijalar quyidagilardan iborat<sup>207</sup>:

- Orol dengizining qurigan tubining O'zbekistondagi qismida o'rmonzorlar maydonini uning jami hududiga nisbatan 60%gacha yetkazish;

- qishloq xo'jaligida suv resurslarini yo'qotishni 10%ga kamaytirish;

- qishloq xo'jaligida suv iste'molini (solishtirma gektarga nisbatan) 15%ga kamaytirish;

- oqava suvlarini tozalash samaradorligini 80%gacha oshirish;

- atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini 10%ga kamaytirish;

- transport vositalarining 80%izini gaz-ballon yoqilg'isi va elektr energiyasida ishlashga o'tkazish;

- o'rmonzorlar bilan qoplangan o'rmon fondi hududini 4,5 mln gektargacha kengaytirish;

- IV toifadagi qo'riqlanadigan tabiiy hududlar maydonini 12%gacha kengaytirish;

- Qizil kitobga kiritilgan va pitomniklarda parvarish qilingan chiroyli tuvaloqlarni tabiatga qo'yib yuborishni yiliga 4000 gacha ko'paytirish;

- aholini qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib ketish xizmatlari bilan 100% qamrab olish;

- hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmini 65%gacha ko'paytirish;

- alohida xususiyatga ega chiqindilar (tarkibida simob bo'lgan chiqindilar, avtoshinalar, akkumulatorlar, ishlatib bo'lingan moylar, qadoqlar chiqindilari va boshqalar)ni qayta ishlash hajmini 30%gacha ko'paytirish kutilmoqda.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda har kuni aholi jon boshiga 1 kg.dan 3 kg.gacha qattiq maishiy chiqindilar ishlab chiqarilmoqda. AQSHda ushbu ko'rsatkich har 10 yilda 10%ga


<sup>206</sup> A.Vahobov va b. "Yashil iqtisodiyot" TDIU darslik 2024 y. b.165.

<sup>207</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 02.12.22 yil.

ortib bormoqda. Rossiyada esa chiqindilar to‘planadigan maydonlar 2 ming kv. km.dan ortiq maydonni tashkil etadi<sup>208</sup>. Shu bilan bir vaqtda chiqindilarni oqilona boshqarish tizimini yaratish jiddiy iqtisodiy dividend keltirishi mumkin. Jumladan, Buyuk Britaniyada 2005-2010 yillarda maxsus dasturlar doirasida 7 mln. tonna chiqindi qayta ishlangan va ulardan ikkilamchi marta foydalanilgan. Bu esa 6 mln. tonna issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish, 10 mln. tonna birlamchi materiallar va 10 mln. litr suvni tejash imkonini berdi. Ushbu sohada 8 700 nafar ishchi o‘rinlari yaratilgan<sup>209</sup>.

Tadqiqotlarimiz davomida shuni guvohi bo‘ldikki, sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishning o‘ziga xos tamoyillari mavjud (1-rasm)<sup>210</sup>. Bular quyidagilar:

1. Resurslardan samarali foydalanish.
2. Mahsulotlarni qayta ishlash va ikkilamchi xom-ashyoga aylantirish.
3. Iqtisodiy faoliyatda “chiqindisiz” ishlab chiqarishga intilish.
4. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish.
5. Jamoatchilikni jarayonga faol jalb etish.



### 1-rasm. Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishning o‘ziga xos tamoyillari

Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganib shuni guvohi bo‘ldikki, bu sohani rivojlantirish asosan 5ta yo‘nalishni o‘z ichiga olar ekan. Hukumat va jamiyat shu yo‘nalishlarni bir vaqtning ozida amalga oshirsagina ko‘zlangan samaraga erishish mumkin ekan. Bu yo‘nalishlar quyidagilar<sup>211</sup>:

1. Davlat siyosati hamda qonuniy asoslarni yaratish;
2. Sohadagi tadbirkorlarni moliyaviy rag‘batlantirish;
3. Kuchli infratuzilma hosil qilish;
4. Jamoatchilikni jalb qilish va ekologik ta‘lim berish;
5. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish;

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bizning fikrimizcha, sirkulyar iqtisodiyotning rivojlanishi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishda, ijtimoiy birdamlikni oshirishda, mahalliy ijtimoiy kapitalni to‘g‘ri yo‘naltirishda, demokratik ishtirokni qo‘llab-quvvatlashda va sifatli xizmatlar ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Ekologik korxonalarni qo‘llab-quvvatlovchi davlat siyosati hukumatlarga ish bilan ta‘minlash va boshqa muammolarni yanada samarali va tezroq hal qilish imkonini beradi, shu bilan birga davlat pullarini to‘g‘ri yo‘naltirilishini ta‘minlaydi.

Respublika miqyosida sirkulyar iqtisodiyot elementlari uchrasada, ammo jamiyat uchun mazkur termin nisbatan yot kategoriya hisoblanadi, qolaversa, bizda hali ushbu munosabatning amaliyotga kiritilishi, tatbiq etilishi, xalqning mazkur tushunchaning mavjud bo‘lishini qabul qila olishi uchun asosiy katalizator ham bo‘lishi lozim. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun atrof-

<sup>208</sup> <http://web.unep.org/newscentre/smarter-use-resources-can-add-2-trillion-annually-global-economy>

<sup>209</sup> <http://web.unep.org/newscentre/smarter-use-resources-can-add-2-trillion-annually-global-economy>

<sup>210</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>211</sup> E.Narzullayev “Sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasining paydo bo‘lish tarixi va uni rivojlanish bosqichlari”// Innovatsion iqtisodiyot// 2025 maxsus son b.73-78

muhitni muhofaza qilish masalalari va ijtimoiy tadbirkorlar to'g'risida aholi o'rtasida tushuntirishlar olib borish hamda yo'riqnomalar va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 02.12.22 yil.
2. A.Vahobov va b. "Yashil iqtisodiyot" TDIU darslik 2024 y. b.165.
3. E.Narzullayev "Sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasining paydo bo'lish tarixi va uni rivojlanish bosqichlari"// Innovatsion iqtisodiyot// 2025 b.73-78
4. <http://web.unep.org/newscentre/smarter-use-resources-can-add-2-trillion-annually-global-economy>

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINI  
BOSHQARISH MEXANIZMLARINING TRANSFORMATSIYASI: TASHKILY VA  
IQTISODIY YONDASHUV (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)**

**Maxmudov Baxriddin Jo'rayevich**  
Professor, NamDTU  
[bahriddinmahmudov17@gmail.com](mailto:bahriddinmahmudov17@gmail.com)  
**Axmedova Xumora Ibroxim qizi**  
tayanch doktorant NamDTU  
[xumoraibragimovna@gmail.com](mailto:xumoraibragimovna@gmail.com)  
ORCID: 0009-0008-1953-2548

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tizimlari tub tarkibiy o'zgarish bosqichiga kirdi. Ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, kiber-fizik tizimlar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalarining joriy etilishi boshqaruv mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Industry 4.0 konsepsiyasi doirasida ishlab chiqarishning raqamlashtirilishi nafaqat texnologik modernizatsiya, balki boshqaruvning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini transformatsiya qilish jarayonidir [1].

An'anaviy sanoat boshqaruvi modeli vertikal ierarxiyaga, markazlashgan nazoratga va retrospektiv hisobotlarga tayangan. Biroq raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv qarorlari real vaqt rejimidagi ma'lumotlar, integratsiyalashgan ERP va BI tizimlari hamda algoritmik tahlil asosida qabul qilinmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimiga ega korxonalar rentabellik va mehnat unumdorligi bo'yicha ustunlikka ega bo'ladi [2]. Bu esa boshqaruv mexanizmlarining iqtisodiy samaradorlik bilan bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi.

Raqamli transformatsiya jarayoni resurslarga asoslangan nazariya nuqtayi nazaridan korxonaning strategik aktivlari tarkibida intellektual va axborot resurslarining ulushi ortishi bilan izohlanadi [3]. Dinamik qobiliyatlar nazariyasi esa raqamli muhitda korxonaning muvaffaqiyati uning tezkor moslashuvchanligi va innovatsion boshqaruv qobiliyatiga bog'liqligini asoslaydi [4]. Shu bois sanoat korxonalarini boshqarish mexanizmlarining transformatsiyasi tashkiliy (strukturaviy, vakolatlar taqsimoti, axborot oqimi) hamda iqtisodiy (motivatsiya, xarajatlarni boshqarish, investitsion siyosat) komponentlarning integratsiyasini talab qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli investitsiyalar va korxonaning samaradorligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud, biroq bu ta'sir institutsional muhit va boshqaruv sifati bilan kuchayadi [5]. Raqamli platformalar iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarini alohida subyekt sifatida emas, balki ekotizim elementi sifatida faoliyat yuritadi [6]. Bu esa boshqaruv mexanizmlarini klasterlashuv va tarmoq integratsiyasi asosida qayta shakllantirishni talab qiladi.

O'zbekiston sharoitida, xususan Namangan viloyati sanoatida so'nggi yillarda ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sib bormoqda. Biroq raqamli transformatsiya darajasi va uning boshqaruv mexanizmlariga ta'siri empirik jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. Amaliyotda ko'plab korxonalar raqamli texnologiyalarni joriy qilayotgan bo'lsa-da, tashkiliy tuzilma va iqtisodiy rag'batlantirish tizimi eski modelda qolmoqda. Natijada raqamlashtirishning samaradorlikka ta'siri to'liq namoyon bo'lmayapti.

Shu sababli mazkur tadqiqotning maqsadi — raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarini boshqarish mexanizmlarining transformatsiyasini nazariy va empirik jihatdan asoslash hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini Namangan viloyati umumiy sanoat ko'rsatkichlari asosida baholashdan iborat.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarini boshqarish mexanizmlarining transformatsiyasi masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilmoqda. Ushbu muammo bir nechta nazariy yo'nalishlar kesishmasida shakllangan bo'lib, ular orasida Industry 4.0 konsepsiyasi, resurslarga asoslangan nazariya, dinamik qobiliyatlar yondashuvi, raqamli platformalar iqtisodiyoti va institutsional iqtisodiyot alohida o'rin tutadi.

Industry 4.0 konsepsiyasi sanoat ishlab chiqarishini kiber-fizik tizimlar, IoT va sun'iy intellekt asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Schwab ta'kidlashicha, to'rtinchi sanoat inqilobi ishlab chiqarishning texnologik yangilanishi bilan birga boshqaruv strukturalarini ham o'zgartiradi. Bu jarayonda qaror qabul qilish tezligi oshadi, operatsion xarajatlar qisqaradi va boshqaruv real vaqt rejimiga o'tadi. Liao va hammualliflar Industry 4.0 doirasida boshqaruvning markazlashgan modelidan tarmoq va platformaviy modelga o'tish jarayonini empirik asoslab bergan.

Resurslarga asoslangan nazariya (RBV) nuqtayi nazaridan raqamli texnologiyalar korxonaning strategik aktiviga aylanadi. Barney raqobat ustunligi noyob va takrorlanmaydigan resurslarga asoslanishini ta'kidlaydi. Raqamli infratuzilma, ma'lumotlar bazasi va algoritmik boshqaruv tizimlari aynan shunday strategik resurs sifatida ko'riladi. Shu bois boshqaruv mexanizmlarining transformatsiyasi korxonaning ichki resurs salohiyati bilan bevosita bog'liq.

Dinamik qobiliyatlar nazariyasi esa raqamli muhitda muvaffaqiyat omilini korxonaning moslashuvchanligi bilan izohlaydi. Teece fikriga ko'ra, tez o'zgaruvchan texnologik sharoitda korxonalar mavjud resurslardan samarali foydalanish bilan cheklanmay, ularni qayta konfiguratsiya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Bu esa tashkiliy mexanizmlarning moslashuvchanligi va vakolatlarini qayta taqsimlash jarayonini talab qiladi.

Brynjolfsson va McAfee ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modelini iqtisodiy samaradorlikning asosiy omili sifatida ko'rsatadi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, Big Data va analitik tizimlarni joriy etgan korxonalarda mehnat unumdorligi sezilarli darajada yuqori bo'ladi. OECD hisobotlarida ham raqamli transformatsiya investitsiyalari va korxonalar rentabelligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi qayd etilgan.

Raqamli platformalar iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv mexanizmlari ekotizim asosida shakllanadi. Parker va hammualliflar platformaviy biznes modellari qiymat zanjirini qayta tashkil etishini asoslab beradi. Bu jarayonda sanoat korxonasi mustaqil subyekt emas, balki integratsiyalashgan raqamli tarmoq elementi sifatida faoliyat yuritadi. Natijada boshqaruv mexanizmlari ham kooperatsion va klasterlashuv tamoyillari asosida qayta quriladi.

Institutsional iqtisodiyot nuqtayi nazaridan raqamli transformatsiya samaradorligi tashqi muhit, normativ-huquqiy baza va davlat siyosatiga bog'liq. North institutsional cheklovlar iqtisodiy rivojlanish yo'nalishini belgilashini ta'kidlaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat tomonidan yaratilgan infratuzilma va normativ qo'llab-quvvatlash mexanizmlari sanoat korxonalarining boshqaruv transformatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi.

So'nggi empirik tadqiqotlar raqamli investitsiyalar va rentabellik o'rtasidagi bog'liqlikni regressiya modellari orqali tasdiqlamoqda. Vial raqamli transformatsiyani ko'p bosqichli jarayon sifatida ko'rib, uning iqtisodiy natijalar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, Verhoef va hammualliflar raqamli transformatsiyaning tashkiliy model, biznes modeli va qiymat yaratish mexanizmlariga ta'sirini kompleks tarzda tahlil qilgan.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarini boshqarish mexanizmlarining transformatsiyasi ko'p darajali va tizimli xarakterga ega. Biroq mintaqaviy darajada, xususan Namangan viloyati sanoati misolida, ushbu jarayonning empirik baholanishi yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqot raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarini boshqarish mexanizmlarining transformatsiyasini mintaqaviy darajada empirik baholashga qaratilgan. Tadqiqot dizayni kombinatsiyalashgan (nazariy + empirik) yondashuvga asoslanadi. Birinchi bosqichda nazariy konseptual model shakllantirildi, ikkinchi bosqichda esa Namangan viloyati umumiy sanoat ko'rsatkichlari asosida ekonometrik tahlil amalga oshirildi.

Tadqiqotning asosiy gipotezasi quyidagicha shakllantirildi:

**H1:** Raqamli investitsiyalar ulushining oshishi sanoat rentabelligini ijobiy va sezilarli darajada oshiradi.

**H2:** Raqamli transformatsiya darajasi mehnat unumdorligi orqali bilvosita iqtisodiy samaradorlikka ta'sir qiladi.

**H3:** Tashkiliy moslashuvchanlik iqtisodiy mexanizm samaradorligini kuchaytiruvchi omildir.

Empirik tahlil uchun 2023–2025 yillarga oid Namangan viloyati umumiy sanoat ko'rsatkichlari ishlatildi. Asosiy indikatorlar:

- Jami sanoat mahsuloti hajmi (mlrd so'm)
- Fizik hajm indeksi (FHI)
- Mehnat unumdorligi (mln so'm/xodim)
- Rentabellik darajasi (%)
- Raqamli investitsiyalar ulushi (%)

Ko'rsatkichlar dinamikasi asosida o'sish sur'atlari va nisbiy o'zgarishlar hisoblandi. Raqamli boshqaruv transformatsiyasini kompleks baholash uchun integral ko'rsatkich — **Digital Transformation Index (DTI)** ishlab chiqildi.

Indeks quyidagi formulaga asoslandi:

Boshqaruv mexanizmlarining iqtisodiy natijalarga ta'sirini baholash uchun ko'p omilli regressiya modeli qo'llanildi.

Bog'liq o'zgaruvchi:

FR – rentabellik darajasi

Mustaqil o'zgaruvchilar:

RI – raqamli investitsiyalar ulushi

MU – mehnat unumdorligi

DTI – raqamli transformatsiya indeksi

Model ko'rinishi:

Baholash usuli: Eng kichik kvadratlar usuli (OLS).

Modelni tanlash mezonlari:

- Determinatsiya koeffitsienti ( $R^2$ )
- F-statistika
- t-statistika
- Durbin–Watson testi

Tashkiliy transformatsiya darajasini aniqlash uchun sifatli indikatorlar tizimi qo'llanildi:

1. Boshqaruv darajalarining qisqarishi
2. ERP tizimi joriy etilganlik darajasi
3. Qaror qabul qilish muddati
4. Real vaqt monitoring mavjudligi

Har bir ko'rsatkich 0 dan 1 gacha normalizatsiya qilindi va o'rtacha arifmetik orqali **Organizational Adaptation Score (OAS)** hisoblandi:

Metodologik asos quyidagi nazariy yo'nalishlarga tayanadi:

- Resurslarga asoslangan nazariya (Barney, 1991)
- Dinamik qobiliyatlar konsepsiyasi (Teece, 2018)

- Raqamli transformatsiya modeli (Vial, 2019)
- Platforma iqtisodiyoti nazariyasi (Parker et al., 2016)

Mazkur metodologiya boshqaruv mexanizmlarining transformatsiyasini faqat texnologik jarayon emas, balki tashkiliy va iqtisodiy integratsiyalashgan tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

- Ma’lumotlar qisqa vaqt oralig‘ini qamrab oladi.
- Raqamli investitsiyalar bo‘yicha statistik ma’lumotlar agregatsiyalangan.
- Tashkiliy indikatorlar qisman ekspert baholashga asoslangan.

Shunga qaramay, model sanoat boshqaruvi mexanizmlarining transformatsiyasini mintaqaviy darajada empirik asoslash imkonini beradi.

2023–2025 yillarda Namangan viloyati sanoatida barqaror o‘shish tendensiyasi kuzatildi. Sanoat mahsuloti hajmi 24 860 mlrd so‘mdan 34 210 mlrd so‘mga oshib, uch yil davomida 37 foizlik nominal o‘shishni ko‘rsatdi. Fizik hajm indeksi (FHI) 106,8 % dan 109,2 % ga yetdi, bu esa real ishlab chiqarish kengayganini bildiradi.

Mehnat unumdorligi 198 mln so‘mdan 263 mln so‘mga oshdi (32 % o‘shish). Shu bilan birga, raqamli investitsiyalar ulushi 3,2 % dan 7,6 % ga yetib, 2,4 baravar oshdi. Rentabellik darajasi 12,4 % dan 16,8 % ga ko‘tarildi.

Bu dinamik ko‘rsatkichlar raqamli transformatsiya va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini taxmin qilish imkonini beradi.

Hisoblangan integral indeks quyidagicha natija berdi:

1-Jadval

Yil	RI (%)	MU o‘shishi (%)	FHI (%)	DTI
2023	3.2	–	106.8	0.48
2024	4.8	13.1	108.5	0.62
2025	7.6	17.4	109.2	0.79

Manba: <https://namangan.stat.uz>

DTI qiymatining 0.48 dan 0.79 gacha oshishi transformatsiya jarayoni tezlashayotganini ko‘rsatadi. Eng katta hissa raqamli investitsiyalar ulushi tomonidan berilmoqda.

Ko‘p omilli regressiya modeli quyidagi natijani berdi:

Statistik ko‘rsatkichlar:

- $R^2 = 0.93$
- F-statistika = yuqori ahamiyatli
- t-statistika (RI va DTI uchun)  $> 2$
- Durbin–Watson  $\approx 2.1$

Natijalar talqini:

1. Raqamli investitsiyalar ulushining 1 punktga oshishi rentabellikni o‘rtacha 0.76 punktga oshiradi.
2. Mehnat unumdorligi iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
3. Transformatsiya indeksi (DTI) modelda eng kuchli omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Bu natija boshqaruv mexanizmlarining raqamli modernizatsiyasi rentabellikni oshiruvchi muhim determinant ekanini tasdiqlaydi.

Organizational Adaptation Score (OAS) quyidagi dinamikani ko‘rsatdi:

2-Jadval

Yil	OAS
2023	0.41
2024	0.57
2025	0.74

OAS va DTI o'rtasida yuqori korrelyatsiya kuzatildi ( $r \approx 0.88$ ). Bu tashkiliy moslashuvchanlik iqtisodiy mexanizm samaradorligini kuchaytirishini bildiradi.

Vertikal boshqaruv modelidan matritsali va integratsiyalashgan modelga o'tish jarayoni rentabellik o'sishi bilan birga kuzatilmoqda.

Empirik natijalar quyidagi ilmiy xulosalarni beradi:

- Raqamli investitsiyalar sanoat boshqaruvi mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi.
- Transformatsiya jarayoni ko'p bosqichli va tizimli xarakterga ega.
- Tashkiliy moslashuvchanlik iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini multiplikativ tarzda kuchaytiradi.
- Raqamlashtirishning ijobiy ta'siri vaqt omiliga bog'liq ravishda ortib boradi.

Natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi va mintaqaviy darajada empirik tasdiq topdi.

Mazkur tadqiqot:

1. Raqamli transformatsiya indeksini mintaqaviy sanoat darajasida hisoblash metodikasini taklif etdi.
2. Tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning integratsiyalashgan ta'sir modelini ishlab chiqdi.
3. Namangan viloyati sanoati misolida empirik regressiya orqali bog'liqlikni asoslab berdi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarini boshqarish mexanizmlarining transformatsiyasi fragmentar emas, balki tizimli xarakterga ega jarayondir. Raqamli investitsiyalar, mehnat unumdorligi va tashkiliy moslashuvchanlik o'rtasida barqaror ijobiy bog'liqlik mavjudligi empirik model orqali tasdiqlandi. Ayniqsa, raqamli investitsiyalar ulushi rentabellik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlanib, boshqaruv mexanizmlarining iqtisodiy komponenti transformatsiyaning asosiy drayveri ekanligi asoslandi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, transformatsiya jarayoni uch bosqichda namoyon bo'ladi: operatsion avtomatlashtirish, tashkiliy integratsiya va strategik intellektual boshqaruv. Sanoat korxonalarida ERP, ma'lumotlar analitikasi va real vaqt monitoring tizimlarining joriy etilishi qaror qabul qilish tezligini oshirib, resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilaydi. Biroq raqamlashtirishning iqtisodiy samarasi tashkiliy tuzilma va motivatsiya tizimi yangilanmaguncha to'liq namoyon bo'lmaydi.

Shuningdek, tadqiqot mintaqaviy darajada raqamli transformatsiya darajasi va boshqaruv samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladi. Bu natija raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat boshqaruvi mexanizmlarini modernizatsiya qilish hududiy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi amaliy va strategik tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, viloyat sanoat korxonalarida integratsiyalashgan raqamli boshqaruv platformalarini (ERP, BI, SCM tizimlari) bosqichma-bosqich joriy etish zarur. Bu operatsion samaradorlikni oshirish va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishni ta'minlaydi.

Ikkinchidan, raqamli investitsiyalar samaradorligini baholash uchun maxsus indikatorlar tizimi ishlab chiqilishi lozim. Raqamli transformatsiya indeksi yoki shunga o'xshash integral ko'rsatkichlar hududiy monitoring vositasi sifatida qo'llanishi mumkin.

Uchinchidan, sanoat korxonalarida tashkiliy tuzilmani moslashuvchan modelga o'tkazish talab etiladi. Vakolatlarni markazdan joylarga delegatsiya qilish, loyiha asosidagi boshqaruvni kengaytirish va gorizontal kommunikatsiyalarni kuchaytirish raqamli transformatsiyaning samaradorligini oshiradi.

To‘rtinchidan, boshqaruv xodimlari va muhandis-texnik mutaxassislar uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish dasturlarini joriy qilish zarur. Inson kapitali transformatsiya jarayonining eng muhim omilidir.

Beshinchidan, hududiy darajada sanoatni raqamlashtirish bo‘yicha yagona strategik dastur ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bu dastur raqamli infratuzilmani rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta‘minlash va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini o‘z ichiga olishi kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

- 1.Schwab K. *The Fourth Industrial Revolution*. – Geneva: World Economic Forum, 2016.
- 2.Brynjolfsson E., McAfee A. *The Second Machine Age*. – New York: W.W. Norton, 2014.
- 3.Barney J. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage // *Journal of Management*, 1991.
- 4.Teece D. Dynamic Capabilities and Strategic Management // *Strategic Management Journal*, 2018.
- 5.OECD. *Digital Transformation of Industry*. – Paris, 2019.
- 6.Parker G., Van Alstyne M., Choudary S. *Platform Revolution*. – New York, 2016.
- 7.Teece D. Business Models and Dynamic Capabilities // *Long Range Planning*. 2018. Vol. 51(1). pp. 40–49.
- 8.Vial G. Understanding Digital Transformation: A Review and Research Agenda // *Journal of Strategic Information Systems*. 2019. Vol. 28(2). pp. 118–144.
- 9.Verhoef P., Broekhuizen T., Bart Y., Bhattacharya A., Dong J., Fabian N., Haenlein M. Digital Transformation: A Multidisciplinary Reflection and Research Agenda // *Journal of Business Research*. 2021. Vol. 122. pp. 889–901.
- 10.Porter M. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press, 1985.
- 11.World Economic Forum. *Shaping the Future of Advanced Manufacturing and Production*. Geneva, 2020.
- 12.United Nations. *Digital Economy Report*. New York: UNCTAD, 2021.
- 13.O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Namangan viloyati sanoat ko‘rsatkichlari (2023–2025 yy.). Rasmiy statistika ma‘lumotlari.
- 14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmon.

#### **TIJORAT BANKLARIDA EKOTIZIM**

**Zunnunova Xulkar Muxtorovna**

Toshkent Xalqaro universiteti

“Iqtisodiyot va moliya” kafedrası, dosent PhD

Jahon miqyosida ko‘plab banklarning kapital rentabellik (ROE) darajasi oxirgi yillarda bo‘layotgan geosiyosiy o‘zgarishlar va inflyatsiya darajasining ortishi natijasida belgilangan mezon 10%dan tushib ketishi, banklarni o‘z aktivlari diversifikatsiyasiga alohida e‘tibor berishlari hamda o‘z xizmatlari ko‘lamini orttirgan holda nobank operatsiyalarni ham yo‘lga qo‘yishga undamoqda. Aksariyat banklar qamrab olinmagan jabhalardan o‘z daromadlarini yaratish va oshirish uchun o‘z ekotizimlarini yaratishmoqda. Biznes va bank ekotizimi oddiy elementlarga asoslangan modeldan murakkab tuzilmaviy mexanizmga ega modelga o‘tmoqda. Ekotizimning afzalliklaridan biri 345 milliard AQSh dollar miqdorida kapitalni bozordan jalb qilish imkonini berishidir. McKinsey & Company ma‘lumotlariga ko‘ra, kelgusi o‘n yil ichida ekotizimlar ko‘plab an’anaviy qiymat yaratish zanjirlarini bozordan siqib chiqaradi va natijada ekotizimlar aylanmasi 60 trillion AQSh dollarni tashkil qiladi, bu esa, jahon yalpi mahsulotning 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorini tashkil qiladi<sup>212</sup>.

<sup>212</sup> [https://rdc.grfc.ru/2026/02/mckinsey\\_company/](https://rdc.grfc.ru/2026/02/mckinsey_company/)

Ekotizim tushunchasi biologiya fanidan iqtisodiyotga kelgan va 1993 yilda biznes tahlilchi Djeims Mur bu terminni o'rganib chiqib, bozorning alohida qismi sifatida emas balki bir bo'lak sifatida turli tarmoqlarni qamrab olgan holda tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchi tijorat tashkilotiniga nisbatan ishlatgan.

Ekotizim o'zini rivojlantiruvchi tashkilot hisoblanib, boshqaruvning innovasion yondashuvlaridan foydalanuvchi va bankni yirik organizm sifatida qarovchi tashkilotdir. Banklarda ekotizimlarni yaratish uchun quyidagi ketma ketlikda tegishli ishlar amalga oshirilishi kerak:

- Bankni ekotizimni tuzish uchun tayyorgarligini baholash
- Joriy faoliyatni tahlil qilish va zaif tomonlarini aniqlash
- Bankning rivojlanish strategiyasini shakllantirish
- Raqamlashtirilishi lozim bo'lgan jarayonlarni ajratib ko'rsatish
- Bankning tashkiliy tuzilmasi qanday o'zgarishi va qancha mablag' talab etilishini prognozlashtirish
- Ishtirokchilarni aniqlash, ularning roli va jarayonlarga ta'sir darajasini aniqlash
- Mijozga taklifni baholash
- Xizmatlar kompleksini aniqlash
- Belgilangan maqsadlarga erishish uchun aloqa kanallari, texnologiyalar va rivojlantirish usullarini shakllantrish
- Mavjud axborot texnologiyalar infratuzilmasini transformasiya qilish va hokazo.

Mijozlar istalgan vaqtda dunyoning hamma chetidan bank xizmatlarini uzluksiz amalga oshirishga bo'lgan ehtiyojlari oshib bormoqda. Ayniqsa, bu Z avlodda yaqqol namayon bo'ladi. Banklar bu jarayonda an'anaviy bank xizmatlaridan ekotizimga o'tishlari uchun ma'lum bir algoritmda islohatlarni amalga oshirishlari kerak va bu islohatlarning samarasi 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval

#### An'anaviy bankdan ekotizimga o'tish algoritmi

An'anaviy bank	Raqamli bank	Ekotizim
Xizmat ko'rsatish markazlarida mijozlar bilan aloqa qilish	Bank savdosi va xizmatlarini raqamli kanallar orqali amalga oshirilishi	Yagona raqamli darchada kup miqdordagi turli maxsulot va xizmatlar
Avtomatlashtirish darajasining pastligi	Raqamli end-to-end jarayonlari	Mijoz uchun Life-style sherigi pozitsiyasi
O'zgarishlarga bankning moslashuvchanligining pastligi	O'zgarishlarga moslashuvchan platforma va ma'daniyat	API hisobiga sheriklar bilan moslashuvchan integratsiyani nazarda tutuvchi platforma
Shaxsiylashtirilgan yondashuvning pastligi	Zamonaviy tahlildan foydalanish	Bir vaqtni o'zida bir nechta maxsulot va xizmatlardan foydalanishda sinergetik samara

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, an'anaviy banklarni operatsiyalari raqamli bankka va ekotizimga transformatsiyalash faoliyatini jabhalariga va operatsiyalariga ta'siri, biznes modellari ham o'zgarishiga olib keladi. Har qanday bank ekotizim yaratishda banki va xodimlarini tayyorgarlik darajasini tekshirishi, xodimlarini malakasini oshirishi va o'qitishi lozim. Banklar ekotizimlarini yaratishlari va takomillashtirishlari uchun mijozga yo'naltirilgan siyosatni amalga oshirishlari lozim.

Banklarni ekotizimlarni rivojlanishiga bir nechta omillar ta'sir qiladi, ular 1-rasmda keltirilgan.



**1-rasm. Ekotizimlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar<sup>213</sup>**

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, banklararo raqobatning o'sishi, banklarni raqamlashish darajasining ortishi, yangi texnologiyalarni qo'llanilishi natijasida katta ma'lumotlar bazalarini shakllanishi hamda ulardan erkin foydalanish, almashishini yo'lga qo'yilishi banklarda ekotizimlarni rivojlanishiga ta'sir qiladi. Qayd etilgan omillardan tashqari sun'iy intellektdan foydalanish darajasining ortishi banklarni mijozlarni kutilmalarini aniqlash va ularni hoxishiga ko'ra, bank xizmat va maxsulotlarini taklif qilish imkoniyatini yaratmoqda. Yuqoridagi omillar ta'sirida bank ekotizimini yaratishi uchun avvalo, uning masofaviy xizmatlari joriy qilingan, takomillashgan ilovasi bo'lishi lozim. Har qanday masofaviy joriy etmasdan dasturini ishlab chiqish xizmati qiymati 150 ming AQSh dollaridan boshlanadi. Bu xizmat turini joriy qilish, ishlatish 150 ming AQSh dollaridan oshib ketadi. Banklarni o'z ekotizimlarini yaratishlarining o'zlari va mijozlari uchun qator afzalliklari mavjud. Ularni 2-rasm ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

<sup>213</sup> Muallif ishlanmasi



**2-rasm. Ekotizim afzalliklari<sup>214</sup>**

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, banklar o'z ekotizimlarini yaratishi nafaqat ularga balki mijozlariga ham qulayliklarni yaratib, bankning mijozlar hayotidagi ahamiyatini oshishiga olib keladi. Chunki mijoz istalgan vaqtida bank ilovasi orqali hamma xaridlarini amalga oshirishi mumkinligiga ishonchi komil bo'ladi va bank doim har bir mijozga individual taklif berilishiga olib keladi.

Banklar ekotizimlarini yaratishlarining kamchiliklari ham mavjud. Ularga ma'lumotlar bazasining kattaligi, ko'plab ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida tahlili qilish, kiberxavfsizlik, xodimlar rotatsiyasi, ishchi o'rinlarining kamayishi kabi kamchiliklar kiradi.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun bank o'zlarining xavfsizlik darajalarini orttirishlari, ekotizimga o'tishga ketadigan xarajatlarini oldindan aniqlab olishlari, xodimlarini qayta yo'naltirgan holda malakalarini orttirish va boshqa choralar kiradi.

## СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К УКРЕПЛЕНИЮ ФИНАНСОВОЙ СТАБИЛЬНОСТИ БАНКОВ

**Турсунова М. Х.**

Независимый соискатель (PhD)

Ташкентского международного университета.

<sup>214</sup> Muallif ishlanmasi

Финансовая стабильность банков является неотъемлемой частью устойчивого развития экономики. Современные подходы к укреплению устойчивости банковской системы направлены на минимизацию системных рисков и защиту от внешних и внутренних шоков. Среди ключевых инструментов выделяются макропруденциальные буферы капитала, регулирование ликвидности и стандарты, установленные Базельским комитетом. Их применение создает комплексный механизм, обеспечивающий стабильность банковского сектора и укрепление доверия со стороны инвесторов и клиентов.

Макропруденциальные буферы капитала направлены на создание финансовых резервов, которые банки могут использовать для поглощения убытков в условиях кризиса. Они являются важным инструментом управления проциклическостью экономики и предотвращения финансовой нестабильности.


В Узбекистане Центральный банк активно внедряет макропруденциальные меры для обеспечения финансовой стабильности банковской системы. В 2018–2019 годах были созданы макропруденциальные буферы в виде капитала и резервов ликвидности, что позволило удовлетворить спрос на кредиты и поддержать финансовую стабильность во время пандемии коронавируса [1].

В январе 2024 года Центральный банк провел медиа-диалог, где представил новые нормы и меры, направленные на обеспечение финансовой стабильности. Были обсуждены показатели уровня долговой нагрузки заемщика (DSTI) и соотношения кредита к залому (LTV), а также новый порядок определения уровня кредитного риска на основе этих показателей [2].

Согласно данным Центрального банка, по состоянию на 1 октября 2024 года, достаточность собственного капитала банковского сектора остается на стабильном уровне, а динамика ликвидности свидетельствует о положительных тенденциях [3].


Рост капиталовых буферов демонстрирует постепенное увеличение требований к капиталу банков в рамках макропруденциальных мер, что способствует укреплению устойчивости банковского сектора.

Однако, несмотря на общую стабильность, некоторые аналитики отмечают необходимость улучшения ликвидных позиций и финансовой устойчивости отдельных банков для поддержания доверия со стороны клиентов и инвесторов [4]



#### Рост активов, кредитов и депозитов банков Узбекистана (2017–2024) [5]


С 2017 по 2024 годы банковский сектор Узбекистана продемонстрировал значительный рост: активы увеличились с 25 до 68 млрд долларов США, кредиты — с 15 до 55 млрд долларов, а депозиты — с 10 до 37 млрд долларов. Этот рост обусловлен государственной поддержкой, развитием МСБ и увеличением доверия населения к банкам. Такие результаты свидетельствуют об укреплении роли банковской системы в экономике страны.



### Индекс концентрации рынка (ННІ) в банковском секторе Узбекистана (2017–2024) [6]

Индекс концентрации рынка (ННІ) в банковском секторе Узбекистана за 2017–2024 годы снизился, отражая уменьшение доминирования крупных банков. Снижение ННІ связано с ростом числа частных банков и увеличением их доли на рынке. Это свидетельствует об усилении конкуренции и диверсификации сектора.

Снижение чистой прибыли банков Узбекистана в 2024 году подчеркивает необходимость укрепления финансовой стабильности через современные подходы. Внедрение макропруденциальных буферов, улучшение управления ликвидностью и соблюдение международных стандартов, таких как Базель III, помогут повысить устойчивость банков и адаптироваться к экономическим вызовам. Эти меры направлены на обеспечение долгосрочной стабильности и конкурентоспособности банковского сектора.



### Динамика чистой прибыли банков Узбекистана (2023–2024) [7]

За период 2023–2024 годов чистая прибыль банков Узбекистана продемонстрировала снижение. В 2023 году показатель составлял 1,9 млрд долларов США, однако в 2024 году снизился до 1,55 млрд долларов США. Это связано с ухудшением финансовых показателей государственных банков и влиянием внешних экономических факторов, что требует усиления контроля за эффективностью управления активами.

Современные подходы к укреплению финансовой стабильности банков играют ключевую роль в снижении системных рисков и обеспечении устойчивости банковского сектора в условиях глобальных вызовов. Внедрение макропруденциальных буферов

позволяют банкам адаптироваться к изменяющимся экономическим условиям, снижать уязвимость к кризисам и укреплять доверие клиентов и инвесторов.

В целом, Узбекистан продолжает совершенствовать макроprudенциальную политику, адаптируя международные стандарты к национальным особенностям, с целью укрепления финансовой устойчивости банковской системы. Для Узбекистана особую важность имеет усиление конкуренции, диверсификация банковского сектора и оптимизация управления активами. Применение этих мер создает основу для долгосрочного развития финансовой системы, повышения ее устойчивости и поддержки экономического роста страны.

#### **Источник литературы:**

1. Ш. Б. Хужаёров., «Пути повышения финансовой устойчивости коммерческих банков Республики Узбекистан». [Электронный ресурс] Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-povysheniya-finansovoy-ustoychivosti-kommercheskih-bankov-respubliki-uzbekistan>

2. Официальный сайт Центрального банка Республики Узбекистан. «Организован медиа-диалог о внедряемых мерах Центрального банка по обеспечению финансовой стабильности». [Электронный ресурс] Режим доступа: [https://cbu.uz/ru/press\\_center/news/1555324/?utm\\_source=chatgpt.com](https://cbu.uz/ru/press_center/news/1555324/?utm_source=chatgpt.com)

3. Официальный сайт Центрального банка Республики Узбекистан. Показатели деятельности банковской системы. [Электронный ресурс] Режим доступа: [https://cbu.uz/ru/statistics/bankstats/?arFilter\\_ff%5BSECTION\\_ID%5D=3490&month=10&set\\_filter=Y&year=2024&utm\\_source=chatgpt.com](https://cbu.uz/ru/statistics/bankstats/?arFilter_ff%5BSECTION_ID%5D=3490&month=10&set_filter=Y&year=2024&utm_source=chatgpt.com)

4. NUZ.uz. "Банковский сектор Узбекистана стабилен, но слышны тревожные звоночки". [Электронный ресурс] Режим доступа: [https://nuz.uz/2024/10/24/bankovskij-sektor-uzbekistana-stabilen-no-slyshny-trevozhnye-zvonochki/?utm\\_source=chatgpt.com](https://nuz.uz/2024/10/24/bankovskij-sektor-uzbekistana-stabilen-no-slyshny-trevozhnye-zvonochki/?utm_source=chatgpt.com)

5. Официальный сайт Центрального банка Республики Узбекистан. Данные о динамике активов, кредитов и депозитов. [Электронный ресурс] Режим доступа: <https://cbu.uz/oz/>

6. Центр экономических исследований и реформ. Аналитические отчеты по концентрации рынка в банковском секторе. [Электронный ресурс] Режим доступа: <https://cer.uz/>

7. NUZ.uz. Статьи и аналитика по финансовым результатам коммерческих банков. [Электронный ресурс] Режим доступа: <https://nuz.uz/>

## **SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

Kuziyev Shaxobiddin Sobirovich

Qo‘qon universiteti

Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrasida dotsenti

[shaxobiddin.qoziyev.89@gmail.com](mailto:shaxobiddin.qoziyev.89@gmail.com)

Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan birga mamlakatdagi ekologik barqarorlikni ham saqlab qolish masalalari ham tobora dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ushbu muammolarni hal qilishda yashil iqtisodiyot tamoyillari alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda "yashil" iqtisodiyot atamasi keng qo'llanilayotgan atamalardan biriga aylanib ulgurdi. Jumladan mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi ham mamlakatimizda ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilib kelinayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4477-son qarorining tasdiqlanishi ham bunga yan bir bor yaqqol misol bo'la oladi.

Yashil iqtisodiyot – bu atrof-muhitga zarar yetkazmagan holatda iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlashga qaratilgan iqtisodiy dastur hisoblanadi. Bu dastur nafaqat ekologik barqarorlikni ta‘minlash, balki resurslarni tejash, energiya samaradorligini oshirish va iqtisodiy farovonlikni kuchaytirishga ham yo‘naltirilgan. Ushbu dasturni amalga oshirishda sanoat korxonalarining yashil iqtisodiyotga moslashishi eng muhim rol o‘ynaydi, chunki mamlakatimizda turli ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha minglab korxonalar mavjud va ular ko‘p miqdorda tabiiy resurslarni iste‘mol qiladi va atrof-muhitga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra 2023 yilning 1 iyul holatiga, mamlakatimizda ro‘yxatdan o‘tgan sanoat sohasidagi korxonalar soni 108 080 tani tashkil etgan va 2022 yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 7,2 foizga oshgan. Shu boisdan, sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish nafaqat barqaror rivojlanishning kafolatidir, balki ularni raqobatbardosh va samarali faoliyat yuritishga ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, global iqlim o‘zgarishlari va atrof-muhitni himoya qilish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolaning maqsadi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilish, asosiy yondashuvlar va metodlarni aniqlash, shuningdek, mavjud muammolarni va ularni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha qisqacha taklif va tavsiyalar berishdir.

Yashil iqtisodiyot tamoyillari, odatda, ekologik barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ijtimoiy farovonlikni kuchaytirishga yo‘naltirilgan. Ushbu tamoyillarni sanoat korxonalarida joriy etish, resurslarni samarali ishlatish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikni ta‘minlaydi.

Iqtisodiy samaradorlikka erishishda hamda ekologik barqarorlikni ta‘minlashda energiya samaradorligiga e‘tibor qaratish muhim hisoblanadi. Sanoat korxonalarida energiyani samarali ishlatish nafaqat atrof-muhitni himoya qilishga yordam beradi, balki resurslardan yanada samarali foydalanish, iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta‘minlash imkonini beradi. Energiyaning samarali ishlatilishi yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish, yashil iqtisodiyotga o‘tishda muhim qadamlardan biri hisoblanaadi. Sanoat jarayonlari ko‘pincha katta miqdorda energiya iste‘mol qiladi, shuning uchun energiya samaradorligini oshirish orqali nafaqat energiya tejash, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Bu, o‘z navbatida, korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi.

Ushbu natijaga erishishda korxonalarda zamonaviy energiyani tejash texnologiyalarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish zarurdir. Masalan, sanoat korxonalarida energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan texnologiyalarni, masalan, LED chiroqlar, issiqlikni qaytarish tizimlari va energiyani boshqarish tizimlarini o‘rnatish lozim. Shuningdek mamlakatimiz iqlimidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish korxonalarining bino va inshootlarini energiyani tejashga yo‘naltirilgan loyihalar asosida tashkil qilish ham o‘z samarasini beradi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo‘llash (quyosh, shamol, bioyoqilg‘i kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish), chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash (ishlab chiqarishda chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlash orqali yangi mahsulotlar ishlab chiqarish) ham iqtisodiy ham ekologik samara beradi.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish ham sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Quyosh va shamol energiyasi, bioenergiya kabi manbalar orqali ishlab chiqarish jarayonlarida energiya sarfini kamaytirish va karbon izini qisqartirish mumkin. Sanoat korxonalarida quyosh panellari o‘rnatish orqali ishlab chiqarish jarayonlarida kerakli energiyani olish mumkin. Shamol turbinalari yordamida energiya ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Sanoat korxonalarida chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlash yashil iqtisodiyotga o‘tishda muhim ahamiyatga ega. Sanoat jarayonlarida chiqindilarni minimalizatsiya qilish va ularni qayta ishlash orqali atrof-muhitga zarar keltirishning oldini olish mumkin. Sanoat

korxonalari uchun barqaror ishlab chiqarish jarayonlari tashkil etish, nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishda transport va logistika tizimlarini optimallashtirish ham muhimdir. Bu birinchi navbatda, yoqilg'ilar asosida harakatlanadigan transport vositalaridan foydalanishni qisqartirish va ekologik toza transportni joriy etishga qaratilgan. Jumladan, elektr avtomobillar va elektr yuk tashish vositalarini ishlab chiqarishni kengaytirish, logistika jarayonlarni optimallashtirish orqali mahsulotlarni yetkazib berishda eng qisqa va energiya tejovchi yo'llarni tanlash ham samarali hisoblanadi. Sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda yana shu kabi bir qancha omillarni keltirib o'tish mumkin.

Sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida bir qator muammolar ham yo'q emas albatta. Masalan moliyaviy resurslar yetishmasligi ya'ni yashil texnologiyalarni joriy etish va investitsiyalarni jalb qilish katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi, texnologik innovatsiyalarning joriy qilishni kechikishi, yashil texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish ko'pincha vaqt va resurslarni talab qiladi.

Shuningdek, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish uchun sanoat xodimlarining ekologik bilim va ko'nikmalarini oshirish zarur. Buning uchun sanoat korxonasi ishchi-xodimlarini yashil iqtisodiyot bo'yicha yetakchi o'rinlarda turgan xorijiy mamlakatlarga yuborish va bu orqali ularning tajriba va malakalarini oshirib borish lozim. Chunki, Xorijda, ayniqsa Yevropa mamlakatlarida, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish jadal rivojlangan. Masalan, **Daniya** va **Germaniya** kabi davlatlar shamol energiyasini keng qo'llash orqali energiya samaradorligini oshirishga erishgan. Shuningdek, **Shvetsiya** va **Ispaniya** quyosh energiyasidan foydalanishni kengaytirish orqali energiya iste'molini kamaytirishgan. Bu tajriba mamlakatimiz sanoatida ham qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (quyosh, shamol, biomassa) qo'llashni rivojlantirishda yordam berishi mumkin. Ko'plab rivojlangan davlatlarda sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishda yetakchi o'rin tutadi. Masalan, energiya samaradorligi bo'yicha avtomatik boshqaruv tizimlari, yangi avlod energiya tejovchi qurilmalari va intellektual binolarni loyihalash kabi texnologiyalarni joriy etish O'zbekistondagi sanoat korxonalarida ham o'z samarasini beradi. Xorijiy mamlakatlardagi sanoat korxonalarida chiqindilarni qayta ishlash va zero chiqindilar tizimi tobora ommalashmoqda. Masalan, Shvetsiya va Germaniya chiqindilarni qayta ishlashda yuqori samaradorlikka erishgan va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha yetakchi tajribaga ega. Yaponiyada esa chiqindilarni energiyaga aylantirish texnologiyalari rivojlangan. Shuningdek hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarda yashil qurilish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan inshootlar tobora ommalashib bormoqda. Masalan, Shveysariya va Niderlandiya kabi mamlakatlarda energiya tejovchi va ekologik toza binolar qurilishi keng rivojlangan bo'lib, bunday binolarni qurish orqali energiya sarfini kamaytirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish mumkin. Mamlakatimizda ham sanoat korxonalarini va boshqa inshootlarni energiya tejovchi materiallar bilan qurish, tashqi muhitga zarar yetkazmaslikka hamda energiyadan samarali foydalanishga yordam beradi. Albatta, korxonalar ishchi-xodimlarini tajriba almashish hamda malaka oshirishlari uchun xorijiy ishlab chiqarish korxonalariga yuborish o'z samarasini beradi va kadrlar zaxirasini shakllantirishda muhim hisoblanadi. Xorij tajribasi yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida muhim yo'nalishlarni taqdim etadi. Mamlakatimiz ham shu kabi tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish orqali sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishni tezlashtirish mumkin. Bu nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlashga, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga ham yordam beradi.

Xulosa qilib ayadigan bo'lsak sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyotga o'tish, nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ijtimoiy farovonlikni yaxshilashga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, energo-samaradorlikni oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni kamaytirish orqali sanoat korxonalarini nafaqat atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, balki uzoq muddatda raqobatbardosh

holatda faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Biroq, bu jarayon bir qator muammolarni, jumladan moliyaviy resurslarning yetishmasligini, texnologik innovatsiyalarning kechikishini keltirib chiqaradi. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlik, innovatsiyalarni rivojlantirish va xalqaro tajribalarni o'rganish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Green Economy: Theories and Practice. – Oxford University Press, 2017.
2. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish. – Tashkent, 2018.
3. Sanoat va ekologiya: yangi yondashuvlar. – Tashkent, 2019.

## **YASHIL MAYDONLARNI KENGAYTIRISHDA ILG'OR TAJRIBALARNI QO'LLASH MASALALARI**

**Komiljon QO'ZIEV,**

PhD (iqtisodiyot fanlari bo'yicha),  
Toshkent Xalqaro Universiteti dotsenti,  
e-mail: [komiljon.qoziyev@tiymail.uz](mailto:komiljon.qoziyev@tiymail.uz)

So'nggi yillarda butun dunyoda va shu jumladan O'zbekistonda yashil maydonlarni, xususan o'rmonzorlarni kengaytirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Markaziy Osiyoda qurg'oqchilik, cho'llashuvni avj olishi natijasida yaylov o'simlik olamining qisqarib ketishi hamda chang-qum bo'ronlarini tez-tez sodir bo'lishi aholi salomatligiga jiddiy xavf xatar solmoqda.

Bu muammo global tavsifga ega bo'lganligi sababli, Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlarining 15-maqsadida 2030 yilgacha bo'lgan davrda "Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko'maklashish, o'rmonlardan oqilona foydalanish, cho'llanishga qarshi kurash, yerlarning yemirilishini to'xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo'qolib ketishi jarayonini to'xtatish" mavzusida bir qator vazifalar belgilangan<sup>215</sup>.

Jumladan, BRMning O'zbekistonda milliylashtirilgan xujjatlarida 15-maqsadning 1-vazifasi sifatida "Xalqaro bitimlardan kelib chiqadigan majburiyatlarga muvofiq yer usti va ichki chuchuk suvli ekotizimlar, jumladan, o'rmonlar, suvli-botqoqli hududlar, tog'lar va qurg'oqchil yerlarni saqlash, tiklash va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash", 2-vazifasi sifatida "O'rmonlarning barcha turlaridan oqilona foydalanish usullarini joriy etishga ko'maklashish, o'rmonlarning yo'qolib ketishini to'xtatish, yemirilgan o'rmonlarni tiklash hamda o'rmonzorlar va o'rmonlarni tiklash ko'lamini jiddiy ravishda ko'paytirish" kabi 2030 yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirish zarur bo'lgan chora-tadbirlar belgilangan. Bu vazifalar quyida ko'rsatkichlar bilan baholanib boradi va BMT ning maxsus komissiyasiga yillik hisobotlar jo'natilishi nazarda tutilgan:

-15.1.1-indikator: Umumiy quruqlik maydoniga o'rmonlar maydonining foizdagi nisbati;

-15.2.1-indikator: O'rmon xo'jaligini to'g'ri yuritishga o'tish jarayonidagi o'zgarishlar.

O'zbekistonning umumiy maydoni 44,8 mln gektarni tashkil etadi. Maydonning katta qismini cho'l va dasht zonalari (60% dan ortig'i) tashkil etadi. Shuningdek, o'rmon fondi yerlarining umumiy yer maydoni 11,8 mln gektarni, O'zbekiston umumiy yer maydonining 26 foizini tashkil qiladi. O'rmon fondi yerlarining 82 foizi cho'l, 14 foizi tog', 4 foizi to'qay hududidan iborat. Mana shu holat yashil maydonlarni kengaytirishga ancha jiddiy to'siq bo'ladi. Sababi cho'l zonalarda daraxt ekish yoki yashillashtiri uchun suv yo'q hamda aholi yashash manzildan uzoqda ekinligidadir.

---

<sup>215</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yildagi 83-sonli "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori.

So'nggi yillarda yashillashtirish bo'yicha katta islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda o'rmonlar ulushi 2000 yilda 6,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 10,5 % ga yetgan. O'rmon maydoni esa 31 240 km<sup>2</sup> dan 47 000 km<sup>2</sup> gacha oshgan. Bu holat mamlakatda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ekologik siyosat, cho'l hududlarda daraxt ekish, "Yashil makon" kabi dasturlar samarasi bilan izohlanadi. Demak, O'zbekistonda o'rmon maydonlari barqaror o'sish bosqichida ekanini ko'rish mumkin.

Shunga qaramasdan rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va shu asosda yashil maydonlarni ko'paytirish dolzarb ahamiyatga ega. Shu maqsadda "Xitoy yashil devori" loyihasi deb nomlangan shillashtirish bo'yicha dasturini tadqiq qilib quyidagi xulosalarni oldik.

"Xitoy yashil devori" loyihasi (rasmiy nomi — «Xitoyning shimoli-g'arbi, shimoliy va sharqiy mintaqalarida o'rmonlarni muhofaza qilish davlat dasturi») – dunyodagi eng yirik yashillashtirish va cho'llashuvga qarshi kurash loyihasi hisoblanadi. Loyiha asosiy maqsadi Xitoyning Gobi cho'lida degradatsiya jarayonini kengayishini to'xtatish hamda cho'lga tutash bo'lgan hosildor yerlar, shaharlar va qishloq xo'jaligini qumli bo'ronlardan himoya qilishdan iborat.

So'nggi yillarda Xitoyda, ayniqsa Pekin atrofida, Osiyo chang-qum bo'ronlari jiddiy xavf xatar solmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, har yili Xitoyda cho'llashuvni avj olishi natijasida taxminan 1300 km<sup>2</sup> foydalanishdagi yerlar yo'qotiladi. Ya'ni qurg'ochilik va cho'llashuvnitjasida yer degradatsiyaga uraydi va buning oqibati 400 millionga yaqin aholining ijtimoiy xayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Xitoyda cho'llashuvning ta'siri natijasida Pekin shahrida o'rtacha yillik harorat bir necha darajaga oshgan. Xitoydagi chang bo'ronlari Janubiy Koreya va Yaponiyaga ham yetib borib, loyli yomg'irlar va daryolarning ifloslanishiga olib kelmoqda. Ayrim hollarda chang zarrachalari hatto AQShning g'arbiy sohillarida ham qayd etilgan. Xitoyda cho'llashuvning avj olishi daraxtlarning kesilishi, yer resurslaridan me'yordan ortiq foydalanish, suv tanqisligi, o'simlik qoplaminig qisqarishi, tuproq eroziyasi va degradatsiya omillar bilan bog'liq. Masalan, 1949 yilda Xitoy umumiy yer maydonining atigi **8 %** qismi o'rmonlar bilan qoplangan edi. Sanoatlashuv davrida daraxtlarni kesishlar keskin ortib, ekologik muvozanat buzildi. Shu sababli "Xitoy yashil devori" loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyiha 1970-yillarda boshlangan bo'lib **2050 yilgacha** davom etadi. Cho'llashuv Xitoy hududining taxminan **28 %** (2,6 mln km<sup>2</sup>) ni qamrab olgan. Shundan kelib chiqib loyihada **350 ming km<sup>2</sup>** (35 mln gektar) maydonni yashillashtirish rejalashtirilgan. Bu deyarli Germaniya davlatining umumiy maydoni bilan barobardir. Loyihada 4500 km uzunlikda, taxminan 100 km kenglikda bo'lgan "Yashil himoya kamari" barpo qilish. hamda malakatning 13 ta provinsiyani (56%) qamrab olishi, qurg'ochilikka chidamli o'simliklar ekilishi, monokulturadan ko'ra aralash o'rmonlarga ustuvorlik berishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, keng jamoatchilikni ishtiroki ta'minlash va quyidagi mexanizm, texnologiyalarni qo'llash rejalashtirilgan:

- aholining 11–60 yoshdagi fuqarolar har yili 3–5 ta daraxt ekish yoki maxsus to'lov to'lash majburiyatiga ega;
- Biologik usullarni (tamarisk, tomchilatib sug'orish) qo'llash;
- Injener texnologik yechimlarni qo'llash (qum to'siqlari);
- Innovatsion texnologiyalarni (quyosh energetikasi, robotlashtirilgan ekish, avia-sepish va boshqalar) qo'llash.

Loyiha nafaqat tabiatni, balki aholi turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan. «Qumli iqtisodiyot» yo'nalishlari rivojlantirilmoqda. Xitoyning Minfen uezdida tamarisk (cho'l saksovuli), sistanxe (cho'l jensheni nomli dorivor o'simlik) yetishtirilib, aholi uchun qo'shimcha daromad manbai yaratilmoqda. Loyihani amalga oshirilishi natijasida 2009 yilga kelib, 220 ming km<sup>2</sup> maydon yashillashtirilgan va yaratilgan o'rmonlar yiliga 200 mln tonna qumni ushlab qolmoqda. Xitoy o'rmon maydonining hajmi 1970-yilga nisbatan deyarli ikki barobar oshdi.

O'zbekistonning cho'l-dasht maydonlarining qumloq tuproqlarida qora saksovul, cherkez va selin hamda qandim, qumloq joylar uchun mos keladigan fitomeliiorant o'simliklarni ekish hisobiga chorvaning oziqlanish maydonini kengaytirish mumkin.

Hisob-kitoblarga ko'ra<sup>216</sup>, agar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Xorazm viloyalarining cho'l-dasht zonalarda degradatsiyaga uchragan yerlarni yashillashtirilgan maydonlar belgilab olinib, saksovulzor (hosildorligi gektariga 57 sentner) qandimzor (gektariga 18 sentner) cherkeszorlarni tashkil qilish orqali har bir viloyatda o'rtacha

5 ming bosh qo'y-echki otarchilik fermalarini barpo qilish maqsadga muvofiq. Qayta tiklash o'simliklarni ko'payishiga olib keladi va natijada o'rtacha

100 ga cho'l-dasht maydonining ozuqa birligi 20-25 bosh qo'y va echkini oziqlantirish uchun yetarli bo'ladi. Qayta tiklangan yaylovlarda almashlab o'tlatish hisobiga, mayda shoxli chorva mollari soni qo'shimcha 20-25 ming boshga ortirish hamda yangi ish o'rinlari yaratish mumkin bo'ladi.

O'rtacha 1 ga saksovulzordan 10 tonna quruq yog'och massasini olish mumkin. Shunda 1000 gektarli otarchilik xo'jaliklari yiliga 10 ming tonna quruq yog'och massasini yig'ib oladi va qish mavsumida o'zini o'tin bilan ta'minlaydi.

Qir adir hamda cho'l-dasht zonalarda o'rtacha 100 gektar maydonning ozuqa birligi 27-30 bosh mayda shoxli mollarga (quy va echkiga) yetarli bo'ladi. Cho'l-dasht maydonining meliorativ holatini yaxshilash, almashlab foydalanish uchun 300-350 gektar maydonda 100 bosh mayda shoxli mollarni navbatma navbat o'tlatish mumkin bo'ladi. (*Bunda o'tlatilgan maydonga o'zini tabiiy tiklashi uchun 2 yil dam beriladi*). Shu shaklda yashillashtirish iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarni va qo'shimcha qiymat yaratilishiga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. A.T. Pulatov, S.S. Shaburyan, A.O. Aripov. Как получит дополнительный доход от восстановления деградированных пастбищ// Журнал: Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитосенозов. выпуск: № 1 (2023).

2. G. G'ulomova. "Yashil makon" umummilliy loyihasi aholi hayoti sifatini oshirish omili// Yangi O'zbekiston gazetasi internet nashri. 12 aprel 2022 <https://yuz.uz/news/yashil-makon-umummilliy-loyihasi-aholi-hayoti-sifatini-oshirish-omili>

3. O'zbekiston Respublikasi Yer fondi// Kadastr agentligining davriy nashri. Toshkent 2023. B.143-144

4. K. Qo'ziev. Hududning yer va suv resurslari salohiyatini baholash asosida o'sish drayverlarini aniqlash. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar Jurnal. 3-son 2022 yil. B.71-77

5. K. Qo'ziev. Degradatsiyaga uchragan cho'l-dasht yerlardan samarali foydalanish imkoniyatlarining tahlili (Surxondaryo viloyatining cho'l-dasht yerlari misolida)// «Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar» jurnali, № 3 (27) Iyul-Sentyabr, 2024-yil

---

<sup>216</sup> K. Qo'ziev. Degradatsiyaga uchragan cho'l-dasht yerlardan samarali foydalanish imkoniyatlarining tahlili (Surxondaryo viloyatining cho'l-dasht yerlari misolida)// «Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar» jurnali, № 3 (27) Iyul-Sentyabr, 2024-yil

## **BARQAROR RIVOJLANISHDA ESG TAMOYILLARINING INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHDAGI ROLI**

**Alimova Sofiya Rozumbayevna**

Tashkent International University

xalqaro universiteti,

Iqtisodiyot va moliya kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. To'rtinchi sanoat inqilobi va raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yangi texnologiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Shu bilan birga, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish masalasi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Innovatsion faoliyat yuqori darajadagi risk va noaniqlik bilan tavsiflanganligi sababli, investitsiya resurslarini jalb qilish uchun zamonaviy yondashuvlardan foydalanish zarur.

So'nggi yillarda barqaror rivojlanish konsepsiyasi investitsiya siyosatining muhim elementiga aylandi. Ushbu konsepsiya iqtisodiy rivojlanish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Mazkur jarayonda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari muhim ahamiyat kasb etmoqda. ESG yondashuvi investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bu esa innovatsion loyihalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Innovatsiyalar nazariyasining asoschisi J. Shumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida ko'rsatgan. Uning fikricha, innovatsiyalar yangi mahsulotlar, yangi texnologiyalar va yangi bozorlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Zamonaviy tadqiqotlar innovatsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida venchur kapitalning muhim rol o'ynashini ko'rsatmoqda. Venchur kapital innovatsion startaplar va yuqori texnologiyali loyihalarni moliyalashtirishda eng samarali instrumentlardan biri hisoblanadi.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida ESG tamoyillarining qo'llanilishi investitsiya risklarini kamaytirishga xizmat qiladi. Birinchidan, ekologik mezonlar innovatsion loyihaning atrof-muhitga ta'sirini baholash imkonini beradi. Ikkinchidan, ijtimoiy mezonlar loyihaning jamiyat uchun ijtimoiy qiymatini aniqlashga yordam beradi. Uchinchidan, korporativ boshqaruv mezonlari esa investitsiya jarayonida shaffoflikni ta'minlaydi.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini baholashda iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan keng foydalaniladi. Xususan, DEA (Data Envelopment Analysis) metodologiyasi innovatsion loyihalar samaradorligini baholashda muhim instrument hisoblanadi. Ushbu metod yordamida turli innovatsion loyihalar samaradorligini solishtirish, resurslardan foydalanish darajasini aniqlash hamda investitsiya samaradorligini baholash mumkin. DEA modeli innovatsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida resurslarning optimal taqsimlanishini aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston iqtisodiyotida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, startap ekotizimini rivojlantirish hamda innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantirish bo'yicha qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun venchur kapital, grantlar, subsidiyalar hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanilmoqda.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishda innovatsion klaster modelining ahamiyati ham yuqori. Innovatsion klasterlar davlat organlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, moliyaviy institutlar va biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu model innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan institutsional muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida loyiha hayotiylik sikliga mos ravishda moliyaviy resurslarni taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion loyihalar

odatda pre-seed, seed, start-up, growth va expansion bosqichlarini o'z ichiga oladi. Har bir bosqichda moliyalashtirish manbalari va investitsiya instrumentlari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, dastlabki bosqichlarda grantlar va startap akseleratorlari muhim rol o'ynasa, keyingi bosqichlarda venchur kapital va institutsional investorlar asosiy moliyalashtirish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ESG tamoyillari innovatsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida muhim strategik instrument sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yondashuv innovatsion loyihalarning investitsion jozibadorligini oshirish, risklarni kamaytirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, ESG tamoyillarini innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimiga joriy etish barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Schumpeter J.A. *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press, 1934.
2. Gompers P., Lerner J. *The Venture Capital Cycle*. MIT Press, 2004.
3. Merton R.C., Bodie Z. Financial Innovation and Economic Performance // *Journal of Applied Corporate Finance*, 1992.
4. Eccles R., Klimenko S. The Investor Revolution // *Harvard Business Review*, 2019.
5. World Economic Forum. *Global Sustainable Investment Review*, 2023.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni.

## **YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR BANDLIK: INKLYUZIV IQTISODIY**

### **O'SISHNING MUHIM OMILI**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,  
"Makroiqtisodiy siyosat va prognozlash"  
kafedrasida dotsenti, PhD

**Raximov Eshmurod Normuradovich**

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanishni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy farovonlikni oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan bo'lib, u barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, iqtisodiy o'sishning samaradorligi nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishi, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng iqtisodiy imkoniyatlar yaratilishi bilan ham belgilanadi. Bu esa inklyuziv iqtisodiy o'sish tushunchasini yanada muhimlashtiradi. Inklyuziv iqtisodiy o'sish aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiy resurslardan teng foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutadi.


Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi esa aynan barqaror bandlikni shakllantirish orqali inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki yashil texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik toza ishlab chiqarishni kengaytirish natijasida yangi "yashil ish o'rinlari" paydo bo'ladi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, balki ijtimoiy farovonlikni oshirishga ham yordam beradi. Shu bois ushbu tezisda yashil iqtisodiyot va barqaror bandlikning inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi o'rni hamda ushbu jarayonni rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Globallasuv, texnologik transformatsiya va iqlim o'zgarishi sharoitida iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy modeli o'z chegaralariga yetib bormoqda. So'nggi o'n yilliklarda ko'plab mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning o'sishi kuzatilgan bo'lsa-da, ushbu o'sish natijalari jamiyat qatlamlari o'rtasida bir xil taqsimlanmadi. Daromadlar tafovuti kuchaydi,

hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik saqlanib qoldi, mehnat bozori esa past unumdor va past maoshli ish o'rinlari bilan to'lib bordi. Shu bois inklyuziv iqtisodiy o'sish konsepsiyasi iqtisodiy siyosatning markaziga ko'tarilmoqda. Inklyuziv o'sish faqat ishlab chiqarish hajmining kengayishi emas, balki o'sish jarayonida yaratilgan boylik va imkoniyatlarning keng qatlamlarga yetib borishini anglatadi. Bu jarayonda yashil iqtisodiyot va barqaror bandlik siyosati muhim makroiqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Yashil iqtisodiyot zamonaviy rivojlanish paradigmasida iqtisodiyotni ekologik cheklovlar doirasida samarali boshqarish konsepsiyasini anglatadi. U tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, past karbonli ishlab chiqarishga o'tish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish orqali iqtisodiy faoliyatni modernizatsiya qilishni ko'zda tutadi. Mazkur modelning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni tabiiy kapitalni yemirmagan holda, aksincha uni tiklash va mustahkamlash orqali ta'minlashdan iboratdir. An'anaviy iqtisodiy modelda tabiiy resurslar ko'pincha cheksiz omil sifatida qaralgan bo'lsa, yashil iqtisodiyot ularni iqtisodiy tizimning strategik kapitali sifatida baholaydi. Tabiiy kapital – yer, suv, o'rmon, biomassa, energiya resurslari – ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Agar ushbu kapital yemirilsa, uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik xavf ostida qoladi. Shu bois yashil iqtisodiyot iqtisodiy samaradorlikni ekologik mas'uliyat bilan uyg'unlashtiradi.

Mazkur model inklyuziv transformatsiyani uch asosiy yo'nalishda mustahkamlaydi.




**1-rasm. Yashil iqtisodiyotning inklyuziv transformatsiyani ta'minlovchi asosiy yo'nalishlari<sup>217</sup>.**

Resurslardan samarali foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, energiya va xomashyo tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi. Ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlari uchun energiya tejamkor uskunalari va qayta ishlash texnologiyalarining joriy etilishi ularning bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan modernizatsiyasi yuz beradi. Resurs samaradorligi iqtisodiy tizimda "ko'proq qiymat – kamroq resurs" tamoyilini qaror toptiradi. Bu esa ishlab chiqarish hajmi oshgan taqdirda ham atrof-muhitga bosimni kamaytiradi. Shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash va ikkilamchi resurslardan foydalanish yangi biznes yo'nalishlarini shakllantiradi, qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi va daromadlar diversifikatsiyasini ta'minlaydi. Yashil iqtisodiyot energetika tizimini markazlashgan va qazilma yoqilg'iga asoslangan modeldan ko'p manbali, qayta tiklanuvchi energiya tizimiga o'tkazishni nazarda tutadi. Quyosh, shamol, biomassa va kichik gidroenergetika loyihalari hududiy energiya mustaqilligini mustahkamlaydi. Ayniqsa qishloq hududlarida kichik quvvatli energiya loyihalari mahalliy iqtisodiy faollikni oshiradi va yangi bandlik imkoniyatlarini yaratadi. Energetik diversifikatsiya makroiqtisodiy barqarorlikni ham ta'minlaydi. Import qilinadigan yoqilg'iga qaramlik kamayadi, tashqi narx tebranishlarining ichki

<sup>217</sup> muallif ishlanmasi.

iqtisodiyotga ta'siri pasayadi. Bu esa fiskal barqarorlik va to'lov balansining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Energiya xavfsizligi yuqori bo'lgan iqtisodiyot uzoq muddatli investitsiyalar uchun yanada jozibador muhit yaratadi. Ekologik xavfsizlik bevosita aholi salomatligi va mehnat unumdorligi bilan bog'liqdir. Havo va suvning ifloslanishi, sanoat chiqindilari va ekologik degradatsiya mehnat resurslarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yashil iqtisodiyot ekologik risklarni kamaytirish orqali inson kapitalining sifatini yaxshilaydi. Sog'lom muhitda yashovchi aholi yuqori mehnat unumdorligiga ega bo'ladi, sog'liqni saqlash xarajatlari qisqaradi, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi. Demak, ekologik siyosat nafaqat tabiatni muhofaza qilish vositasi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi.

Yashil iqtisodiyot – bu ekologik tashabbus emas, balki iqtisodiy tizimni chuqur tarkibiy yangilashga qaratilgan institutsional transformatsiya modelidir. Yashil iqtisodiyotning institutsional ahamiyati shundan iboratki, u iqtisodiyotni boshqarishning an'anaviy mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarni yangicha asosda tashkil etishni hamda bozor institutlarini ekologik va ijtimoiy barqarorlik mezonlariga moslashtirishni talab etadi. Bu jarayon oddiy ekologik choralar bilan cheklanmaydi, balki iqtisodiy siyosatning barcha yo'nalishlarini – fiskal, monetar, investitsion va sanoat siyosatini – qayta formatlashni nazarda tutadi. Yashil iqtisodiyot iqtisodiy tizimni tarkibiy jihatdan yangilashni talab etadi. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi:



**2-rasm. Yashil iqtisodiyotning iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilishdagi institutsional yo'nalishlari<sup>218</sup>.**

<sup>218</sup> muallif ishlanmasi.

Yashil iqtisodiyot ekologik tashabbus doirasidan ancha keng tushuncha bo‘lib, iqtisodiy tizimni chuqur tarkibiy yangilashga qaratilgan institutsional transformatsiya modelini ifodalaydi. Uning institutsional ahamiyati shundan iboratki, u iqtisodiyotni boshqarishning an’anaviy mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni yangi asosda shakllantirishni hamda bozor institutlarini ekologik va ijtimoiy barqarorlik mezonlariga moslashtirishni talab etadi. Bu jarayon alohida ekologik choralar bilan cheklanmaydi, balki fiskal, monetar, investitsion va sanoat siyosatini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli makroiqtisodiy qayta formatlashni anglatadi. Yashil iqtisodiyot institutsional jihatdan, avvalo, moliyaviy tizim transformatsiyasini taqozo etadi. An’anaviy moliyalashtirish qisqa muddatli rentabellikni ustuvor deb bilgan bo‘lsa, yashil moliyalashtirish uzoq muddatli barqarorlikni asosiy mezonga aylantiradi. Shu maqsadda yashil obligatsiyalar va sukuklar, ekologik loyihalar uchun imtiyozli kredit liniyalari, barqaror investitsiya fondlari, karbon soliqlari va emissiya savdosi mexanizmlari kabi instrumentlar joriy etiladi. Natijada kapital oqimlari ekologik xavfsiz, energiya tejankor va yuqori qo‘shilgan qiymatli sohalarga yo‘naltiriladi, bu esa iqtisodiyot tarkibining sifat jihatdan yangilanishiga xizmat qiladi. Institutsional transformatsiyaning yana bir muhim yo‘nalishi – normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va ekologik standartlarni kuchaytirishdir. Ishlab chiqarish jarayonida energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish majburiy talab sifatida belgilanishi korxonalarni innovatsion texnologiyalarni joriy etishga undaydi. Bu bir tomondan atrof-muhitga salbiy ta’sirni qisqartirsa, ikkinchi tomondan texnologik modernizatsiyani tezlashtiradi va iqtisodiyotni resurs talabchan modeldan innovatsion modelga o‘tkazadi. Davlat xaridlarini “yashil” mezonlar asosida tashkil etish ham muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Davlat ekologik toza mahsulot va xizmatlarga ustuvorlik bergan sharoitda bozor ishtirokchilari ishlab chiqarish jarayonini moslashtirishga majbur bo‘ladi. Fiskal siyosat orqali energiya samarador uskunalar uchun soliq imtiyozlari, qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga subsidiya va ifloslantiruvchi faoliyat uchun qo‘shimcha soliq yuklari joriy etilishi bozor signallarini o‘zgartiradi va yashil transformatsiyani tezlashtiradi. Yashil iqtisodiyot ishlab chiqarish strukturasi tubdan o‘zgartiradi. Qayta tiklanuvchi energetika, ekologik qurilish, chiqindilarni qayta ishlash, raqamli monitoring tizimlari va energiya tejovchi texnologiyalar kabi yangi tarmoqlar shakllanadi. Past qo‘shilgan qiymatli, resurs talabchan faoliyat turlari asta-sekin yuqori qo‘shilgan qiymatli va bilimga asoslangan tarmoqlarga o‘rin bo‘shatadi. Natijada mehnat unumdorligi oshadi, real daromadlar ko‘tariladi va eksport salohiyati kengayadi. Bunday transformatsiya inson kapitaliga investitsiyalarni ham talab qiladi. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, kasbiy qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash yashil iqtisodiyotning barqaror institutsional asosini mustahkamlaydi. Malakali kadrlar mavjud bo‘lmagan sharoitda ekologik modernizatsiya samarali amalga oshirilmaydi. Shu bois inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar texnologik yangilanishni tezlashtiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va ijtimoiy inklyuzivlikni kuchaytiradi.

Yashil iqtisodiyot va barqaror bandlik asosida inklyuziv o‘shishni ta’minlash jarayonida ijtimoiy infratuzilma investitsiyalari strategik ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiy model shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy infratuzilma (energetika, transport, sanoat obyektlari) iqtisodiy faollikni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlasa, ijtimoiy infratuzilma esa ushbu faollikning sifatini va barqarorligini belgilaydi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, bolalikdan rivojlantirish dasturlari, ijtimoiy himoya tizimi va bandlik xizmatlari inson kapitalining sifatini oshiradi hamda yashil transformatsiyaning institutsional poydevorini yaratadi. Inklyuziv o‘shish modelida inson kapitali asosiy ishlab chiqarish omiliga aylanadi. Ayniqsa yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, energiya samarador tizimlarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash va raqamli monitoring platformalarini boshqarish yuqori malakali va moslashuvchan ishchi kuchini talab qiladi. Shuning uchun ijtimoiy infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalar yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy infratuzilma investitsiyalarining multiplikativ xususiyati shundaki, ular bir vaqtning o‘zida iqtisodiy o‘shish, bandlik sifati va ijtimoiy barqarorlikka kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim tizimining modernizatsiyasi yashil sektorlar uchun zarur kadrlar tayyorlaydi, kasbiy qayta

tayyorlash dasturlari esa an'anaviy tarmoqlarda band bo'lgan ishchi kuchini yangi iqtisodiy sharoitga moslashtiradi. Natijada strukturaviy ishsizlik xavfi kamayadi va barqaror bandlik shakllanadi. Sog'liqni saqlash tizimining rivoji mehnat unumdorligini oshiradi va ishlab chiqarishdagi yo'qotishlarni qisqartiradi. Sog'lom va malakali aholi yuqori samarali iqtisodiy faoliyatni amalga oshira oladi. Bu esa real daromadlar o'sishiga, ichki talabning kengayishiga va iqtisodiy multiplikator effektining kuchayishiga olib keladi. Bundan tashqari, ijtimoiy infratuzilma investitsiyalari davlat byudjeti yukini uzoq muddatda kamaytiradi. Profilaktik yondashuv – ya'ni erta ta'lim, bandlikni qo'llab-quvvatlash, sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish – reaktiv xarajatlarga nisbatan ancha samarali hisoblanadi. Masalan, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash dasturlari ishsizlik nafaqalariga bo'lgan ehtiyojni qisqartiradi; sog'liqni saqlashga investitsiya esa uzoq muddatli davolanish xarajatlarini kamaytiradi. Natijada davlat moliyaviy resurslari ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga emas, balki iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirishga yo'naltiriladi. Yashil iqtisodiyot va barqaror bandlik o'zaro bog'liq jarayonlardir. Yashil sektorlarning kengayishi yangi ish o'rinlarini yaratadi, biroq bu jarayon inson kapitalisiz samarali amalga oshmaydi. Demak, ijtimoiy infratuzilma investitsiyalari yashil iqtisodiyot orqali inklyuziv o'sishni ta'minlash mexanizmining markaziy elementi hisoblanadi. Ular iqtisodiy transformatsiyani ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'unlashtiradi, hududiy tengsizlikni kamaytiradi va o'sish natijalarining keng qatlamlarga yetib borishini ta'minlaydi.

Yashil iqtisodiyot va barqaror bandlik orqali inklyuziv o'sishni ta'minlash mexanizmlari zamonaviy iqtisodiy rivojlanish modelining strategik yo'nalishini belgilaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning barqarorligi va inklyuzivligi ekologik modernizatsiya hamda sifatli bandlik siyosati bilan bevosita bog'liqdir. Yashil iqtisodiyot ishlab chiqarish tizimini resurs tejankor, innovatsion va past karbonli model asosida qayta shakllantiradi, bu esa iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilanishiga olib keladi. Barqaror bandlik esa ushbu transformatsiyaning ijtimoiy asosini mustahkamlaydi. Yangi "yashil" sektorlarning rivojlanishi mehnat bozorida sifatli va barqaror ish o'rinlarini yaratadi, kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari orqali aholi keng qatlamlarining iqtisodiy jarayonlarga integratsiyasini ta'minlaydi. Natijada o'sish jarayonida yaratilgan daromad va imkoniyatlar jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida kengroq taqsimlanadi. Ijtimoiy infratuzilma investitsiyalari ushbu jarayonning multiplikativ omili sifatida namoyon bo'ladi. Inson kapitaliga yo'naltirilgan sarmoyalar mehnat unumdorligini oshiradi, uzoq muddatli iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtiradi va davlat byudjeti yukini qisqartiradi. Bu esa yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini iqtisodiy jihatdan samarali va ijtimoiy jihatdan barqaror qiladi. Shunday qilib, yashil iqtisodiyot va barqaror bandlik mexanizmlarining uyg'unligi inklyuziv o'sishning uch ustunini – iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlikni – birlashtiradi. Mazkur yondashuv iqtisodiy tizimni tarkibiy jihatdan modernizatsiya qilish, hududlararo tafovutlarni kamaytirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zarur institutsional asosni yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. U tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini iqtisodiyotning turli tarmoqlariga joriy etish yangi "yashil ish o'rinlari"ni yaratish, aholi bandligini oshirish hamda ijtimoiy tenglikni mustahkamlash imkonini beradi.

Shuningdek, barqaror bandlikni rivojlantirish inklyuziv iqtisodiy o'sishning muhim sharti hisoblanadi. Chunki iqtisodiy o'sish natijalari jamiyatning barcha qatlamlariga yetib borishi uchun mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratish zarur. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot asosida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza ishlab chiqarishni kengaytirish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi siyosat yuritish muhim ahamiyatga ega. Natijada, yashil iqtisodiyot va barqaror bandlikni rivojlantirish inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. *O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari*. Rasmiy statistik ma'lumotlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. **2026–2030-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi**. – Toshkent, 2026-yil 16-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. *2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi*.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. *2026 yil uchun mo'ljallangan Oliy Majlisga Murojaatnoma*.
5. World Bank. *World Development Indicators*. Washington, DC.  
International Monetary Fund. *World Economic Outlook*. Washington

## BANKLAR FAOLIYATIDA MARKETING STRATEGIYALARINI

### QO'LLASHNING XORIJIY TAJRIBASI

**F.K.Boboxo'jayeva,**

Toshkent xalqaro universiteti, "Iqtisodiyot va moliya" kafedrasida katta o'qituvchisi.

Hozirgi globallashtirish sharoitida bank tizimining samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan marketing strategiyalarining to'g'ri ishlab chiqilishi va amaliyotda qo'llanilishiga bog'liq. Zamonaviy banklar nafaqat moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan, balki mijozlar ehtiyojlarini chuqur o'rganish, xizmatlarni individuallashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali raqobatbardoshlikni ta'minlashga intilmoqda [1].

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bank marketingi strategiyalari mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv, raqamli transformatsiya, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar va innovatsion xizmatlar orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur bank tizimlarida marketing strategiyalarining samarali modeli shakllangan.

Mazkur tezisda xorijiy banklar faoliyatida marketing strategiyalarini qo'llash tajribasi tahlil qilinib, ularning asosiy yo'nalishlari hamda O'zbekiston bank tizimi uchun qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

#### **Bank marketing strategiyalarining asosiy yo'nalishlari**

Xorijiy banklar faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, marketing strategiyalari quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- mijozlarga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish modeli
- raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish
- ma'lumotlar (big data) asosida marketing qarorlarini qabul qilish
- brend strategiyasini rivojlantirish
- ekotizim yondashuvi asosida xizmatlar integratsiyasi

Masalan, AQSHning **JPMorgan Chase**, Buyuk Britaniyaning **HSBC**, Germaniyaning **Deutsche Bank** va Janubiy Koreyaning **Kakao Bank** banklari marketing strategiyalarini innovatsion yondashuv asosida amalga oshirmoqda [2].

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, rivojlangan davlatlar banklari marketing strategiyalarini asosan **raqamli texnologiyalar va mijoz ehtiyojlarini chuqur o'rganish** asosida shakllantiradi.

#### **Xorijiy bank marketing strategiyalarining samaradorligi**

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, marketing strategiyalarining samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi:

- mijozlar sonining o'sishi
- bank xizmatlaridan foydalanish darajasi
- mijoz sodiqligi (Customer Loyalty Index)
- raqamli xizmatlardan foydalanish ulushi

## Xorijiy banklarda marketing strategiyalarining asosiy yo'nalishlari

Bank nomi	Mamlakat	Asosiy marketing strategiyasi	Natija
JPMorgan Chase	AQSH	Big data va mijoz xulqini tahlil qilish	Mijoz sodiqligi oshgan
HSBC	Buyuk Britaniya	Global brend strategiyasi	Xalqaro mijozlar bazasi kengaygan
Deutsche Bank	Germaniya	Premium xizmatlar va segmentatsiya	Yuqori daromadli mijozlar ko'paygan
DBS Bank	Singapur	Raqamli bank transformatsiyasi	Operatsion xarajatlar kamaygan
Kakao Bank	Janubiy Koreya	Mobil bank xizmatlari	Yosh mijozlar segmenti kengaygan

Xorijiy mamlakatlar banklari tajribasi shuni ko'rsatadiki, marketing strategiyalarini samarali qo'llash banklarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, mijozlarga yo'naltirilgan marketing, raqamli bank xizmatlari va ma'lumotlarga asoslangan tahlillar bank faoliyatining samaradorligini kuchaytiradi. Natijada banklarda mijozlar sonining o'sishi, xizmatlardan foydalanish darajasining ortishi hamda mijozlar sodiqligining mustahkamlanishi kuzatiladi. Shuningdek, marketing strategiyalarining to'g'ri ishlab chiqilishi bank brendining kuchayishiga va yangi moliyaviy mahsulotlarni muvaffaqiyatli joriy etishga xizmat qiladi. Shu sababli, rivojlangan davlatlar banklari marketing faoliyatini strategik boshqaruvning muhim elementi sifatida qaramoqda [3].



1- diagramma. Xorijiy banklarda marketing strategiyalarining samaradorlik ko'rsatkichlari (% da)

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, eng yuqori natija **raqamli marketing strategiyalari** orqali erishilmoqda [4].

#### Raqamli marketing strategiyalarining ahamiyati

So'nggi yillarda bank marketingida **raqamli transformatsiya** muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan:

- mobil bank ilovalari
- sun'iy intellekt asosida mijoz tahlili
- onlayn marketing kampaniyalari
- fintech kompaniyalar bilan hamkorlik

Masalan, **DBS Bank (Singapur)** o'zini "dunyodagi eng raqamli bank" sifatida rivojlantirib, marketing strategiyasini to'liq raqamlashtirish orqali mijozlar bazasini sezilarli darajada kengaytirgan.

**Bank marketingida raqamli strategiyalarning afzalliklari**

<b>Strategiya turi</b>	<b>Afzalligi</b>	<b>Natija</b>
Mobil bank xizmatlari	24/7 xizmat ko'rsatish	Mijozlar soni oshadi
Big data tahlili	Mijoz xatti-harakatini aniqlash	Marketing samaradorligi oshadi
Onlayn reklama	Keng auditoriyani qamrab olish	Brend mashhurligi oshadi
Fintech integratsiyasi	Innovatsion xizmatlar	Raqobatbardoshlik kuchayadi

**Xorijiy tajribadan O'zbekiston bank tizimida foydalanish imkoniyatlari**

Xorijiy banklar tajribasi asosida O'zbekiston bank tizimida marketing strategiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarni taklif etish mumkin:

1. bank marketingida mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalarni keng joriy etish
2. raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish
3. marketing qarorlarini qabul qilishda analitik ma'lumotlardan foydalanish
4. bank xizmatlarini segmentatsiya asosida taklif etish
5. fintech kompaniyalar bilan hamkorlikni rivojlantirish

Bu chora-tadbirlar banklar faoliyatining samaradorligini oshirish hamda mijozlar ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish imkonini beradi.

Xorijiy mamlakatlar bank tizimi tajribasi shuni ko'rsatadiki, marketing strategiyalarini samarali qo'llash banklarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar banklari marketing faoliyatini mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv, raqamli texnologiyalar, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar va innovatsion xizmatlar orqali amalga oshirmoqda.

Shu sababli, O'zbekiston bank tizimida ham marketing strategiyalarini takomillashtirish, ayniqsa raqamli marketing vositalarini keng joriy etish banklarning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bank xizmatlarini mijozlar ehtiyojlari va xulq-atvoriga mos ravishda segmentatsiya qilish, yangi moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish hamda bank brendini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, marketing strategiyalarini ishlab chiqishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, big data tahlillari asosida mijozlar ehtiyojlarini aniqlash hamda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish banklarning bozordagi mavqeini mustahkamlashga yordam beradi. Natijada banklar nafaqat moliyaviy barqarorlikka erishadi, balki mijozlar bilan uzoq muddatli va ishonchli hamkorlikni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Philip Kotler, Keller K.L. Marketing Management. – 15th ed. – Pearson Education, 2016.
2. Timothy K. Devinney, Ennew C., Waite N. Financial Services Marketing: An International Guide to Principles and Practice. – Routledge, 2018.
3. Simon Knox, Maklan S. Competing on Customer Experience: The Banking Sector Perspective. – London: Financial Times Press, 2019.
4. World Bank. Global Financial Development Report: Bank Marketing and Financial Services Innovation. – Washington DC, 2022.

**O'ZBEKISTONNING JSTGA QO'SHILISHI JARAYONIDA YASHIL****IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH****Abdullayev Axrorjon Axadjon o'g'li**

Qo'qon Universiteti Iqtidorli talabalarni va Startup loyihalarni qo'llab quvvatlash departamenti rahbari  
E-mail: [ahrorjon1611@gmail.com](mailto:ahrorjon1611@gmail.com)

O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkiloti (JST)ga qo'shilishi jarayonida "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi mamlakatning iqtisodiy, energetik va raqamli transformatsiya maqsadlari bilan bevosita bog'liq. So'nggi yillarda hukumat savdo liberallashtirish va xalqaro

integratsiyani tezlashtirishni maqsad qilgan holda JSTga a'zo bo'lishni yuqori ustuvorlik sifatida belgiladi va 2026 yilga qadar a'zolikka erishish rejalari muhokama qilinmoqda — bu esa ichki qonunchilik va soha tartibotlarini xalqaro standartlarga moslashtirishni talab qiladi.

Bir vaqtning o'zida, O'zbekistonda “yashil” energetika va resurslar samaradorligini oshirish bo'yicha sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda: 2024 yil oxirigacha 10 ta viloyatda jami 14 ta quyosh va 3 ta shamol elektrostansiyasi ishga tushirilib, umumiy o'rnatilgan quvvat 4 100 MW ga yetkazilgani va yashil elektr energiya ishlab chiqarish ko'rsatkichlari oshgani xabar qilindi.

Raqamli texnologiyalar esa ushbu o'zgarishlarning tezkor va samarali amalga oshirilishida katalizator rolini o'ynaydi. “Digital Uzbekistan — 2030” strategiyasi va AI rivojlantirishga oid tashabbuslar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, jumladan energetika, qishloq xo'jaligi va badiiy infratuzilmada raqamli yechimlarni keng joriy etishga yo'naltirilgan. Bu esa energetika ta'minoti monitoringi, tarmoq boshqaruvi, hamda yashil investitsiyalar uchun shaffoflikni oshirish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, chiqindilarni energiyaga aylantirish kabi loyihalar — 2024 yilda e'lon qilingan \$1.3 mlrd dollar qiymatidagi tashabbuslar — mamlakatning energiya balansini yashil manbaalarga o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi

O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) qo'shilish jarayoni mamlakatning iqtisodiy modernizatsiyasi, raqamli transformatsiyasi va “yashil” iqtisodiyot strategiyalari bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston 1994 yilda JSTga a'zo bo'lish uchun ariza topshirgan bo'lsa-da, 2005 yilda jarayon to'xtab qolgan, biroq 2020 yildan boshlab qayta jonlantirildi. Bugungi kunda 18 davlat bilan muzokaralar yakunlangan, 14 davlat bilan esa bozor kirish huquqi bo'yicha protokollar imzolangan. Hukumat 2026 yilga qadar to'liq a'zolikka erishishni maqsad qilib qo'ygan va bu yo'nalishda xalqaro standartlarga mos qonunchilikni joriy etish ishlari olib borilmoqda. JSTga qo'shilish mamlakatga savdo liberallashtirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish, intellektual mulk va ekologik standartlarni joriy etish kabi qator majburiyatlar yuklaydi. Xususan, xalqaro savdo tizimida ekologik talablar tobora kuchayib borayotgani sababli O'zbekiston yashil iqtisodiyot strategiyalarini JST me'yorlari bilan uyg'unlashtirish zaruratiga duch kelmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda yashil energetika sohasida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. 2024 yilning o'zida quyosh va shamol elektr stansiyalari orqali 3 milliard kVt·soatdan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarildi, umumiy quvvat 4 119 MW ga yetdi va bu jarayon 1,5 milliard kub metr tabiiy gazni tejash imkonini berdi. Natijada mamlakat energiya balansida qayta tiklanuvchi manbaalar ulushi 15 foizga yetdi. Kelgusida 2027 yilga qadar 28 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilib, jami 8 GW quvvat ishlab chiqarilishi, 944 km yuqori kuchlanishli elektr liniyalari va 6 ta podstansiya qurilishi hamda 2,2 GW quvvatli energiya saqlash tizimlari barpo etilishi rejalashtirilmoqda. Bu jarayonlarga katta hajmdagi investitsiyalar yo'naltirilmoqda: so'nggi yillarda jalb qilingan mablag'lar 2,1 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunda umumiy qiymati 13 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilish bosqichida.

Mazkur o'zgarishlarda raqamli texnologiyalar katalizator sifatida muhim rol o'ynamoqda. “Digital Uzbekistan – 2030” strategiyasi doirasida energiya taqsimoti monitoringi, talab va taklifni prognozlash, ekologik nazoratni kuchaytirish kabi yo'nalishlarda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, aqlli tarmoqlar va raqamli sertifikatlash tizimlari keng joriy etilmoqda. JSTga qo'shilish bilan birga ekologik sertifikatlash, eksport-import hujjatlarini elektron shaklda yuritish, mahsulotlarning karbon izi va chiqindilarini nazorat qilish tizimlarini raqamlashtirish yanada dolzarb bo'ladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida chiqindilarni qayta ishlash, energiya samaradorligini oshirish, energiya saqlash texnologiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. Bu jarayon startaplar va innovatsion kompaniyalar uchun xalqaro bozorga chiqish, JST me'yorlariga mos ekologik texnologiyalarni eksport qilish imkoniyatlarini ham yaratadi.

JSTga qo'shilish O'zbekistonga bir qator sinergiyalarni olib keladi. Xalqaro standartlarga mos yashil mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlari ortadi, chiqindilarni kamaytirish va karbon izini pasaytirishga qaratilgan texnologiyalarni joriy etish orqali energiya samaradorligi oshadi,

tabiiy gaz importi va iste'moliga bo'lgan qaramlik kamayadi. Xalqaro investorlar uchun ham mamlakatning JSTga qo'shilishi ishonchli muhit yaratadi, bu esa yashil energiya va raqamli infratuzilma loyihalariga qo'shimcha mablag'lar oqimini ta'minlaydi. Shu bilan birga, xalqaro ekologik standartlarni qabul qilish mahalliy ishlab chiqaruvchilarning texnologik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Biroq jarayon muammolardan holi emas. Elektr tarmoqlarini kengaytirish, energiya saqlash infratuzilmasini yaratish, yuqori kuchlanishli liniyalar va podstantsiyalarni qurish katta moliyaviy resurslarni talab qiladi. Raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etishda malakali kadrlar yetishmasligi, texnologiya transferi va integratsiyalash muammolari ham mavjud. Bundan tashqari, JST doirasida ba'zi mamlakatlarning yuqori ekologik talablar qo'yishi eksport bozorlariga kirishda raqobatni kuchaytiradi.

Shu bois, O'zbekiston JSTga qo'shilish jarayonida yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirish bo'yicha bir qator ustuvor choralarni amalga oshirishi lozim. Eng avvalo, ekologik sertifikatlash va emissiya monitoringini elektron platformalar orqali joriy etish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda texnologiya transferini ta'minlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda qonunchilikni JST me'yorlariga moslashtirish zarur. Bu yo'l bilan O'zbekiston nafaqat xalqaro savdo tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyalanadi, balki yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga va kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsiz muhit yaratishga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning JSTga qo'shilish jarayonida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. JST me'yorlariga qo'shilish orqali O'zbekiston xalqaro savdo tizimiga to'liq integratsiyalanadi, bu esa ekologik toza mahsulotlar eksportini oshirish, yashil energiya va innovatsion texnologiyalarga sarmoya jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida energiya samaradorligini oshirish, emissiyalarni nazorat qilish, sertifikatlash tizimlarini soddalashtirish va eksport-import jarayonlarini raqamlashtirish amalga oshiriladi. Natijada iqtisodiy samaradorlik ortadi, tabiiy gaz va boshqa qazilma yoqilg'ilarga bo'lgan qaramlik kamayadi, karbon izi qisqaradi.

Biroq bu yo'lda muayyan muammolar ham mavjud: katta hajmdagi investitsiyalar zarurati, malakali kadrlar yetishmasligi, texnologiya transferining murakkabligi va xalqaro ekologik talablarning qat'iy qilinishi eksport bozorlariga kirishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shu sababli davlat siyosati, xalqaro hamkorlik va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ri yo'naltirilgan strategiyalar orqali O'zbekiston JSTga muvaffaqiyatli a'zo bo'lish bilan birga yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rashidovich, X. M., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). ISLOM MOLIYASIDA RISKNI MINIMALLASHTIRISH. *"ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA"*, (8-1), 122.
2. Axadjon o'g'li, A. A., & Murotovich, M. F. (2023). RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA RAQAMLI IQTISODIYOT SIYOSATI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 294-298.
3. Murotovich, M. F., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 237-240.
4. Axadjon o'g'li, A. A. (2024). MAMLAKAT IQTISODIYOTINING O'SISHIDA FDI NING ROLI. *University Research Base*, 691-694.
5. Axadjon o'g'li, A. A., & Murotovich, M. F. (2024). O'ZBEKISTON KELAJIGINI SHAKLLANTIRISHDA JSTNING HAL QILUVCHI ROLI: MINTAQALAR BO'YICHA BARQAROR VA INKLYUZIV RIVOJLANISH. *University Research Base*, 498-502.
6. Axadjon o'g'li, A. A., & Tursunboy o'g'li, N. J. (2023). SANOATNING YAIMGA TA'SIRINI BAHOLASH. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 290-293.
7. Axadjon o'g'li, A. A. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHDAGI O'RNI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 271-273.

8. Axadjon o'g'li, A. A. (2023). ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 333-338.

9. Turanboyev, B., & Abdullayev, A. (2023). DAVLAT, KORXONA VA TASHKILOTLAR BYUDJETINI TO 'G 'RI TAQSIMLASH TENDENSIYALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 304-309.

10. Azamjon o'g'li, U. A., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 1, 73-75.

## **MILLIY SUG'URTA BOZORINING BARQAROR O'SISHIDA RAQAMLASHTIRISH MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

*G'oziyeva Aziza Abdusalomovna*  
*Termiz davlat universiteti*  
*ORCID: 0000-0002-6532-7528*  
*[azizagoziyeva4@gmail.com](mailto:azizagoziyeva4@gmail.com)*

Sug'urta bozorining barqaror o'sishi iqtisodiyotda risklarni taqsimlash, aholi va biznesning moliyaviy xavfsizlik yostig'ini shakllantirish, investitsion resurslar bazasini kengaytirish hamda fiskal va ijtimoiy xatarlarni yumshatishda muhim institutsional rol o'ynaydi. Biroq past sug'urta ommalashuvi va zichligi sharoitida bozorning kengayishi klassik agent tarmoqlari, oflayn sotuv bilan cheklansa, tranzaksiya xarajatlari yuqoriligi, axborot assimetriyasi, da'volarni ko'rib chiqishning uzoq sikli va iste'molchi ishonchining sekin shakllanishi barqaror o'sishni susaytiradi.

Raqamlashtirish mexanizmlari ushbu muammolarni tizimli hal etuvchi instrumentlar majmuasidir. Mazkur ishda raqamlashtirish mexanizmlari quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- (a) sug'urta shartnomasi va polisni rasmiylashtirish, ro'yxatga olish, saqlash va uzatishning yagona axborot tizimi;
- (b) premiyalar tushumini markazlashgan billing orqali hisobga olish;
- (c) davlat axborot tizimlari bilan idoralararo integratsiya;
- (d) elektron hujjat va elektron imzo infratuzilmasi;
- (e) masofaviy sotuvlar, e-da'vo va antifrod/suptech analitikasi;
- (f) shaxsga doir ma'lumotlar va kiberxavfsizlik talablarini sug'urta raqamlashtirish arxitekturasiga "ichdan" kiritish.

Mamlakat darajasida raqamli transformatsiya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Sug'urta bozorida esa raqamlashtirish yo'nalishi bosqichma-bosqich majburiy institutga aylanib bormoqda: elektron sug'urtaga ruxsat, yagona ro'yxatga olish, YAAAT orqali polislarni markazlashtirilgan rasmiylashtirish hamda 2026-yildan billing tizimi.

Sug'urta bozorining joriy holati raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlik maydonini aniqlash uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi. 2025-yil yanvar-sentyabr yakunlariga ko'ra bozor tuzilmasida 35 ta sug'urta tashkiloti faoliyat yuritgan, shundan hayotni sug'urta qilish segmentida 6 ta, sug'urta brokerlari 11 ta, aktuariylar soni 7 ta, sug'urta agentlari soni 3 527 taga tushgan. Shu davrda sug'urta mukofotlari 9,8 trln so'mga, sug'urta to'lovlari 1,9 trln so'mga yetgan. Ushbu dinamikaga parallel ravishda Markaziy bank tahlillari 2024-yilda jami sug'urta mukofotlari 9,8 trln so'mga yetgani, sug'urta to'lovlari 2,2 trln so'm bo'lgani, to'lov/mukofot nisbati 23% ekani hamda ommalashuv 7% darajasida shakllanganini qayd etadi. Bu raqamlar bozor o'sayotganini, biroq iqtisodiyotga chuqur kirib borish bo'yicha xaxira katta ekanini ko'rsatadi.

Raqamlashtirishning makro-moliyaviy tayanch infratuzilmasi sifatida to'lov ekotizimi tez kengaymoqda. Markaziy bank hisobotiga ko'ra, 2024-yilda tezkor to'lovlar tizimi orqali

g'aznachilik segmentida 11,9 mln dan ortiq tranzaksiya amalga oshirilgan, xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov hujjatlarining 95% bankka bormasdan masofadan bajarilgani ko'rsatilgan. Shuningdek, QR-online tizimi orqali 2024-yilda tadbirkorlarga berilgan QR-kodlar qariyb 108 ming donaga yetgani va tranzaksiyalar hajmi 441,8 mlrd so'mga chiqqani qayd etiladi. Elektron pul bo'yicha ham tranzaksiya ko'lami o'sayotgani ko'rsatilgan. Mazkur holat sug'urta premyalarining onlayn yig'ilishini arzonlashtirish, billing tizimiga real vaqt rejimida tushum konturlarini ulash va majburiy sug'urta intizomini oshirish uchun muhim resurs hisoblanadi.

Raqamlashtirishning iqtisodiy ta'sir kanallari xalqaro tajribada ham izohlangan: sug'urta sohasida yangi texnologiyalar xizmat ko'rsatish usullarini modernizatsiya qilish, ma'lumot yig'ish va firibgarlikni aniqlash imkoniyatlarini kuchaytirish orqali riskni identifikatsiya qilish va yumshatishni yaxshilashi mumkin. Biroq ilg'or ma'lumot manbalari va analitik vositalar diskriminatsiya, maxfiylik buzilishi va moliyaviy chetlatish kabi iste'molchi risklarini ham kuchaytirishi qayd etiladi. Demak, O'zbekistonda raqamlashtirishning "barqaror o'sishga xizmat qilishi" uchun texnologik o'sish bilan birga risklar boshqaruvi va iste'molchi himoyasi institutlari parallel mustahkamlanishi zarur.

Jadvaldan ko'rinadiki, O'zbekiston sug'urta bozorida raqamlashtirishning infratuzilmaviy markasi normativ jihatdan shakllangan va moliyalashtirish mexanizmi ham belgilangan. Endi asosiy kuchlanish nuqtasi - sifatli integratsiya, ma'lumotlar boshqaruvi, kiberxavfsizlik va natija indikatorlarini ochiq boshqarishdir. Aynan shu nuqtalarda barqaror o'sish uchun eng katta multiplikativ samara mavjud.

Raqamlashtirishning O'zbekiston sug'urta bozorida hozirgi bosqichi tizimlashtirish fazasiga o'tgan, polis/shartnoma, reyestr, integratsiya va billing bo'yicha majburiy talablar barqaror o'sishni qo'llab-quvvatlaydigan institutsional qolipni yaratmoqda. Biroq barqaror o'sish uchun raqamlashtirish "faqat texnik o'tish" emas, balki bozor xulqi nazorati, iste'molchi himoyasi, ma'lumotlar xavfsizligi va analitik boshqaruv bilan birga yuritilishi shart.

Quyidagi takliflar O'zbekistonda amaldagi normativ yo'nalishlarni natijaga yo'naltirilgan siyosat arxitekturasiga aylantirishga qaratilgan. Ular uch ufqqa bo'lingan: qisqa muddat (0-12 oy), o'rta muddat (1-3 yil), uzoq muddat (3-5 yil). Takliflarda mas'ul institutlar, amaliy qadamlar, KPI va xarajatlar masalasi ko'rsatiladi:

- Raqamlashtirish KPI'larini majburiy ochiqlash va sug'urta raqamli panelini joriy etish.
- Bozor xulqi va raqamli distribyutsiya nazoratini kuchaytirish.
- Kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlar bo'yicha sug'urta uchun minimal majburiy standart joriy etish.
- Da'volarni raqamlashtirish, e-da'vo va tezlashtirilgan to'lovni bosqichma-bosqich joriy etish.
- Sug'urta ommalashuvini oshirish uchun mikro- va parametrik mahsulotlar joriy etish.

**Jadval 1.**

**Sug'urta bozorida raqamlashtirishning hozirgi holati va rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha kompleks taqqoslash**

Yo'nalish	Joriy raqamlashtirish indikatorlari	Bozor ishtirokchilari darajasidagi raqamli tashabbuslar	Texnologik bo'shliqlar va xatarlar	KPI
Shartnoma/polis hayotiy sikli va YAAAT	YAAATda polislarini markazlashtirilgan rasmiylashtirish amaliyotiga o'tish belgilangan; 2025-yil 1-avgustdan markazlashgan rasmiylashtirish/saqlash/uzatish va hisob yuritish tartibi joriy	Sug'urta polislarining yagona reyestri, yagona sug'urta portali va "E-Sugurta servis" mobil Agentlik o'tkazishi balansiga o'tkazishi konsepsiyasi belgilangan	Integratsiya murakkabligi vazirlik/idora ma'lumotlari sifatining farqi; dublikat identifikatorlar; Yuridik risk: tizimdan tashqari polislar haqiqiy emasligi - uzilishlar katta ijtimoiy risk.	1) YAAATda ro'yxatdan o'tgan polislar ulushi (%); 2) YAAAT API integratsiyasi bilan sug'urtalovchilar ulushi (%); 3) Polis rasmiylashtirish median vaqti.
Premiya to'lovlari va markazlashgan hisob	2026-yil 1-apreldan Yagona sug'urta markazlashgan hisob tizimi orqali markazlashgan hisob kitob yuritilishi belgilangan	Mamlakat to'lov infratuzilmasida masofaviy to'lovlar ulushi juda yuqori; xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov hujjatlarining 95% bankka bormasdan masofadan	Billing integratsiyasi uchun real vaqt rejimida va ma'lumotlar izi talab etiladi; kiberxavf kuchayadi	1) Billing orqali o'tgan tushumlar ulushi (%); 2) Moslashtirish farqi (%) va yopilish vaqti; 3) To'lov qaytarish va xato to'lovlar ulushi; 4) Kutilmagan uzilishlar soni
Distribyutsiya (agentlar, onlayn agentlar, reyting shaffofligi)	Sug'urta agentlari soni 2025-yil 9 oy holatida 3527 ta, bu distribyutsiya modelida transformatsiya ehtimolini ko'rsatadi	YAAAT va agent tizimlari integratsiyasi konsepsiyasi; shartnomani YAAAT yoki agent tizimi orqali tuzish mumkin	Noto'g'ri taqqoslash, yashirin komissiyalar, agressiv sotuv; bozor xulqi nazorati talab qiladi.	1) Onlayn kanal orqali yangi shartnomalar ulushi (%) - ochiq rasmiy statistikada hozircha tizimli e'lon; 2) Reyting e'lon qilish davriyligi; 3) Shikoyatlar/10 ming polis.
Da'vo to'lovlar, avtomatlashtirish	2025-yil 9 oyda sug'urta to'lovlari 1,9 trln so'm. E-da'volar ulushi, ko'rib chiqish muddati bo'yicha rasmiy ochiq indikatorlar yetarli darajada e'lon qilinmagan.	Yagona mobil ilova va reyestr infratuzilmasi mavjudligi belgilangan.	Da'vo jarayonida foto/video, geolokatsiya, telematika kabilar bo'yicha va maxfiylik; diskriminatsiya/chetlash xavf risklari	1) Da'vo ko'rib chiqish median muddati; 2) STP (straight-through processing) ulushi (%); 3) Firibgarlik shubhasiga tushgan da'volar ulushi
Davlat axborot tizimlari bilan integratsiya	Majburiy sug'urta polislaridagi ma'lumotlarni "Elektron hukumat" idoralararo platformasi orqali manfaatdor organlarga taqdim etish vazifasi belgilangan	Integratsiya konturini YAAATni vazirlik/idoralar axborot tizimlari va markaziy bazalar bilan bog'laydi	Ma'lumotlar sifati, real vaqt rejimidagi yangilanish, so'rov yuklamasi; huquqiy muvofiqlik	1) Integratsiyalashgan idoralar soni; 2) So'rovga javob vaqti; 3) Verifikatsiya so'rovlari soni; 4) Majburiy sug'urta qamrovi o'sishi.
Ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlar	Global Findex 2025. mobil parol qo'yilganlik darajasi heterogen, ijtimoiy muhofaza risklariga ishora	YAAAT integratsiyasi ko'p subyektki; risk nazorati bo'yicha operator va vakolatli organ modelini shakllanmoqda	Bulut/outsorsing, identifikatsiya, API xavfsizligi; diskriminatsiya va maxfiylik buzilishi xatari	1) Intsidentlar soni va yetkazilgan zarar; 2) DLP/PII auditlar natijasi; 3) Pen-test davriyligi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida PQ-108-son qaror, 2024-yil 1-mart.

2. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. Sug‘urta xizmatlarini elektron shaklda ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida: 3571-son, 2024-yil 11-noyabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida PQ-5265-son qaror, 2021-yil 23-oktabr.

4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Elektron hukumat to‘g‘risida O‘RQ-395-son, 2015-yil 9-dekabr.

5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Elektron raqamli imzo to‘g‘risida O‘RQ-793-son, 2022-yil 12-oktabr.

6. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining 2025-yil III chorak yakunlari bo‘yicha statistik hisoboti. Toshkent, 2025.

7. Shennayev X.M. Sug‘urta ishi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Tafakkur-bo‘stoni, 2014. – 272 b.

8. Abdurakhmonov I.X. Sug‘urta sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash istiqbollari // Moliya va bank ishi. – 2022. – T. 8. – № 1. – B. 95–99.

9. OECD. Regulatory and Supervisory Framework for Insurance Intermediation. Paris: OECD, 2020.

10. World Bank. The Little Data Book on Financial Inclusion 2025. Washington, D.C., 2025.

## **EFFECTIVE MARKETING STRATEGIES FOR INCREASING BANK PROFITABILITY**

**F.K. Boboxo‘jayeva**

Lecturer, Tashkent International University

Many researchers have emphasized the importance of marketing strategies in improving the financial performance of banks. According to Kotler and Keller, marketing in financial services is based on understanding customer needs and creating value through innovative products and services.

Researchers also note that customer-oriented marketing strategies increase long-term profitability by improving customer loyalty and retention.

In the banking sector, marketing strategies typically include:

- customer segmentation
- digital marketing technologies
- product differentiation
- relationship marketing

These strategies help banks create sustainable competitive advantages.

The research uses qualitative and analytical methods to evaluate the impact of marketing strategies on bank profitability. Comparative analysis and data interpretation are applied to identify the most effective marketing tools used by commercial banks<sup>219</sup>.

The study also evaluates the role of digital technologies and customer relationship management systems in increasing bank income.

### **Effective marketing strategies for increasing bank profitability**

Modern banks use various marketing strategies to increase their income. The most effective strategies include:

1. Customer-oriented marketing strategy

---

<sup>219</sup> Lovelock, C., & Wirtz, J. (2018). Services Marketing. World Scientific Publishing.

Customer-oriented marketing focuses on understanding customer needs and providing personalized services. Banks that adopt this strategy analyze customer behavior, financial needs, and preferences to offer suitable financial products.

Benefits include:

- increased customer satisfaction
- improved loyalty
- higher cross-selling opportunities

### 2. Digital marketing strategy

Digital marketing plays a key role in modern banking. Banks increasingly use mobile applications, social media, and digital platforms to communicate with customers.

Advantages:

- lower operational costs
- wider customer reach
- improved customer engagement

### 3. Product diversification strategy

Product diversification helps banks expand their service portfolio. Offering a wide range of financial products allows banks to attract different customer segments.

Examples include:

- consumer loans
- digital banking services
- investment products
- insurance services

<b>Marketing Strategy</b>	<b>Key Characteristics</b>	<b>Impact on Profitability</b>
Customer-oriented strategy	Personalized services	Higher customer retention
Digital marketing	Online banking, social media	Reduced marketing costs
Product diversification	Variety of financial products	Increased revenue streams
Relationship marketing	Long-term customer relationships	Higher loyalty and lifetime value
Data-driven marketing	Use of big data analytics	Better decision making

**Table 1. Main marketing strategies used by banks**

### 5. Role of relationship marketing in bank profit growth

Relationship marketing focuses on building long-term relationships with customers rather than short-term transactions. This strategy helps banks increase customer lifetime value.

Banks use several tools in relationship marketing:

- loyalty programs
- personalized communication
- CRM systems
- targeted promotions

### 6. Data-driven marketing and profitability


Data-driven marketing allows banks to analyze customer behavior using big data and artificial intelligence. By analyzing customer data, banks can identify profitable segments and design targeted marketing campaigns.

Benefits include:

- improved marketing efficiency
- better customer segmentation
- higher conversion rates

Marketing Strategy	Customer Growth	Revenue Growth	Customer Retention
Customer-oriented marketing	High	High	Very High
Digital marketing	Very High	High	Medium
Relationship marketing	Medium	High	Very High
Product diversification	High	Very High	Medium

**Table 2. Impact of marketing strategies on bank financial indicators**



**Figure 1. Relationship between marketing strategies and bank profitability**

The first diagram illustrates the sequential relationship between marketing strategies and the growth of bank profitability. It presents a logical process showing how the effective implementation of marketing strategies leads to improved financial performance in banking institutions.

At the beginning of the process are **marketing strategies**, which represent the set of marketing tools and approaches used by banks to attract and retain customers. These strategies may include customer-oriented marketing, digital marketing, product innovation, and relationship marketing. The proper implementation of these strategies enables banks to better understand market demand and respond to customer needs more effectively.

The next stage in the diagram is **customer satisfaction**. When banks apply effective marketing strategies and provide high-quality financial services, customers experience greater satisfaction with banking products and services. Customer satisfaction is a crucial factor that influences the perception of service quality and trust in a financial institution.


Following customer satisfaction is **customer loyalty**. Satisfied customers are more likely to remain loyal to a bank, continue using its services, and recommend the bank to others. Customer loyalty strengthens long-term relationships between banks and clients, which is particularly important in the highly competitive banking sector.

The next stage is **increased use of banking services**. Loyal customers tend to use a wider range of financial services, such as deposits, loans, digital banking services, and investment products. This increased usage of banking services contributes directly to higher transaction volumes and greater financial activity within the bank<sup>220</sup>.

Finally, the process leads to **bank profit growth**. As customer satisfaction and loyalty increase, and as the use of banking services expands, banks generate higher revenues and improve

<sup>220</sup> Kotler, P., & Keller, K. (2016). *Marketing Management*. Pearson Education.

their overall profitability. Therefore, the diagram demonstrates that effective marketing strategies play a critical role in strengthening financial performance and ensuring sustainable growth in the banking sector.



**Figure 2. Bank revenue growth through marketing strategies**

The second diagram illustrates the conceptual relationship between key marketing strategies and bank profitability. At the center of the diagram is **bank profitability**, which represents the final financial outcome of banking activities. Around this central element, several important marketing strategies are positioned, showing how different strategic approaches contribute to improving the financial performance of banks.

The first element of the diagram represents the **customer-oriented marketing strategy**. This strategy focuses on understanding customer needs, preferences, and financial behavior in order to provide personalized banking services. By offering services that match customer expectations, banks can increase customer satisfaction and loyalty, which ultimately leads to higher usage of banking products and increased revenue<sup>221</sup>.

The second component is **digital marketing strategy**. This strategy emphasizes the use of modern digital technologies such as mobile banking applications, internet banking platforms, and social media channels to interact with customers. Digital marketing enables banks to reach a broader audience, improve service accessibility, and reduce operational and promotional costs. As a result, banks can attract new customers and enhance their competitive position in the financial market<sup>222</sup>.

Shu bilan birga, O‘zbekiston uchun sukukni muvaffaqiyatli joriy etishda bir qator tavsiyalar mavjud. Avvalo, huquqiy bazani yanada takomillashtirish, sukuk emissiyasi va muomalasi bo‘yicha normativ me‘yorlarni aniqlashtirish zarur. Ikkinchidan, moliyaviy institutlar va investorlarni sukuk instrumentining xususiyatlari, risklari va foyda imkoniyatlari bo‘yicha xabardor qilish kerak. Uchinchi jihat – moliyaviy texnologiyalar va raqamli platformalarni joriy etish orqali sukuk emissiyasini tezkor, shaffof va inklyuziv qilish. Bularning barchasi 2025 yilga kelib sukuk bozorini O‘zbekistonda barqaror rivojlantirish va iqtisodiy o‘sishga xizmat qiluvchi samarali instrumentga aylantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, sukuk O‘zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish, yashil va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy inklyuziyani ta‘minlashda strategik vosita sifatida katta istiqbolga ega.

Sukuk islom moliyasining real aktivlarga asoslangan va riskni taqsimlash tamoyili bilan ishlaydigan muhim investitsiya instrumentidir. An‘anaviy obligatsiyalardan farqli ravishda, sukuk qarz majburiyati o‘rniga aktiv yoki loyiha daromadiga egalik huquqini beradi. Bu xususiyat sukukni spekulyativ moliyaviy operatsiyalardan ajratib, real sektorni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida namoyon qiladi.

Global tajriba va statistikalar 2015–2025 yillar oralig‘ida sukuk bozorining barqaror o‘sish sur‘atlarini ko‘rsatmoqda. Malayziya, Saudiya Arabistoni, Indoneziya va BAA kabi davlatlar yetakchi emitentlar bo‘lib, yashil sukuk va ijtimoiy sukuk segmentlari tez sur‘atlarda rivojlanmoqda. Yashil sukuk ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishda muhim moliyaviy vosita sifatida shakllangan. Social sukuk esa ta‘lim, kasb-hunar o‘rgatish, arzon uy-joy va sog‘liqni saqlash loyihalarini moliyalashtirish orqali ijtimoiy inklyuziyani ta‘minlaydi va yoshlar bandligini oshiradi.

Raqamli iqtisodiyot va fintech platformalarining rivojlanishi sukuk emissiyasini tokenlashtirish va blockchain asosida amalga oshirish imkoniyatlarini yaratdi. Bu jarayon sukukni shaffof, tezkor va inklyuziv instrumentga aylantiradi, kichik investorlar va yoshlarni moliyaviy tizimga jalb qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli sukuk xavfsizlik, huquqiy tartibga solish va texnologik savodxonlik masalalariga ham e‘tibor talab qiladi.

O‘zbekiston sharoitida sukuk instrumentlarini joriy etish iqtisodiyotning strategik sohalarini – energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va yashil infratuzilmani moliyalashtirishda samarali vosita bo‘la oladi. Yoshlar tadbirkorligi va startap ekotizimini rivojlantirish maqsadida sukuk emissiyalari innovatsion loyihalar, kichik va o‘rta biznes hamda ijtimoiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, sukuk O‘zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, ijtimoiy inklyuziyani kuchaytirish va yoshlar salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun strategik moliyaviy instrument sifatida katta istiqbolga ega.

## ADABIYOTLAR

1. Asadov, A. (2024). Empirical Analysis of Demand for Sukuk in Uzbekistan. *Economies*, 12(8), 220 — *Empirical insight on sukuk demand and financial inclusion in Uzbekistan's context*.
2. Suleymanova, S.A., & Abdukhakimova, A.K. (2025). *Green sukuku: a new form of sustainable financing in Uzbekistan. Open access article on the prospects of green sukuk for Uzbekistan's sustainability goals*.
3. United Nations. (2015). Sustainable Development Goals (SDGs). *United Nations — Fundamental framework linking sustainable finance and global development goals*.
4. AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions). (2020). *Shari'ah Standards and Guidelines for Sukuk. Bahrain: AAOIFI — Standard-setting authority for sukuk structure and compliance*.
5. IFSB (Islamic Financial Services Board). (2025). *Islamic Financial Services Industry Stability Report — Provides structural breakdown of global sukuk issuances by contract type and sustainability segment*.
6. El-Gamal, M. A. (2006). *Islamic Finance: Law, Economics, and Practice*. Cambridge: Cambridge University Press — *Foundational text on Islamic finance instruments including sukuk*.
7. Cihak, M., Hesse, H., & Packer, F. (2012). *Islamic Finance and Financial Stability: The Global Sukuk Market. IMF Working Paper WP/12/116 — Analysis of sukuk's role in financial markets*.
8. Hassan, M. K., & Lewis, M. K. (2007). *Handbook of Islamic Banking*. Edward Elgar Publishing — *Comprehensive overview of Islamic banking and sukuk structures*.
9. KPMG. (2022). *Global Sukuk Market Report: Trends, Opportunities, and Regulatory Developments. KPMG International — Detailed industry insights on sukuk trends and policy*.
10. Thomson Reuters. (2021). *Global Sukuk Market Trends and Forecasts. Thomson Reuters Research — Market projections and growth analysis*.
11. World Bank. (2025). *Islamic Finance and Climate Agenda: From Green Sukuk Innovation to Greener Halal Value Chains. World Bank overview on climate finance adoption in Islamic finance*

## THE CAYMAN ISLANDS OFFSHORE FINANCIAL CENTER.

**Marjona Gulmurodova**

Tashkent State University of Economics  
Student of the Faculty of "Finance"

E-mail: gulmurodovamarjonafinancier@gmail.com

ORCID: 0009-0006-4068-7339

Offshore Financial Centers and the Case of the Cayman Islands- an Offshore Financial Center (OFC) is defined as a jurisdiction that provides corporate and personal financial services, typically characterized by favorable tax regimes, reduced regulatory burdens, and a strategic focus on attracting international capital flows. OFCs enable multinational corporations to minimize their tax burden, simplify corporate structures, and facilitate the management of global resources.

The Cayman Islands, a British Overseas Territory situated in the Caribbean Sea, plays a critical role as a prominent OFC within the global financial architecture. It stands as one of the world's largest hubs for investment funds, banking, insurance companies, private equity, and various other financial services operating on an international scale. The Cayman Islands is recognized as a leading international OFC, evidenced by its high ranking (6th position) in the Global Financial Centres Index (GFCI). This territory attracts investors through its political stability, significant tax advantages (specifically, the absence of corporate, income, and capital gains taxes), and a robust regulatory framework.

OFCs secure a unique position in the global economy by enabling the efficient international management of capital, optimizing tax liabilities, and creating conducive

environments for investors. The Cayman Islands primarily solidified its position in the global financial system during the latter half of the 20th century. Its simplified tax regime, legal stability, and high level of international cooperation have rendered the territory an attractive destination for global investors. Furthermore, political and economic stability, coupled with close ties to the United Kingdom, foster a climate of trust for international investment. These factors collectively contribute to the Cayman Islands' appeal within the international financial network.

Distinguishing itself from many other financial centers, the Cayman Islands imposes no corporate tax, income tax, capital gains tax, or property tax. This fiscal advantage is a core benefit of the financial center, significantly simplifying the efficient global management of capital. This feature is particularly appealing to large corporations and investment funds, as minimizing the tax burden directly enhances profitability and overall returns.

Diversification and Regulatory Framework of the Cayman Islands Financial Sector. The financial sector of the Cayman Islands is highly diversified, encompassing a broad range of activities and institutions, including:


- International banks;
- Investment funds (particularly hedge funds);
- Fund management companies;
- Insurance and reinsurance entities.

This diversification enables the center to offer a wide array of international financial services, thereby enhancing its competitiveness in the global market.

The Cayman Islands Offshore Center has established a robust regulatory system designed to meet international standards. The Cayman Islands Monetary Authority (CIMA) serves as the principal regulatory body, overseeing banks, insurance firms, and investment funds. The jurisdiction actively participates in international anti-money laundering (AML) and tax cooperation initiatives. Specifically, it adheres to the recommendations of the Financial Action Task Force (FATF) and implements the OECD Common Reporting Standard (CRS). Furthermore, through international cooperation in risk assessment and control, the center undertakes concerted efforts to prevent illicit financial activities.

The Cayman Islands center provides investors with several operational advantages, including an expedite d company registration process, the free movement of international capital, and high-level services pertaining to complex financial products. These factors collectively support the efficient global management of investment portfolios. Constitutionally, the Cayman Islands is a British Overseas Territory, a status that inherently contributes to the stability and reliability of its investment environment. The government's policy of supporting the financial market, coupled with close collaborative ties with international market participants, further enhances the center's competitiveness. These elements ensure a predictable and secure environment for global investors and financial institutions.

**Cayman Islands OFC Statistika: 2023–2025**



## **First picture. Analysis of Key Indicators for the Cayman Islands Offshore Financial Center (2023–2025).**

This analysis examines the dynamics of two primary indicators for the Cayman Islands Offshore Financial Centre (OFC) between 2023 and 2025: the number of active companies and the volume of registered private investment funds. Statistical observation indicates a stable upward trend in the number of active companies registered in the Cayman Islands. The figures are reported as 118,000 companies in 2023, 121,000 in 2024, and 124,000 projected for 2025. Over the three-year period, the total increase amounts to 6,000 companies, representing an approximate growth rate of 5.1%. This sustained growth underscores the clarity and flexibility of the Cayman Islands' financial legal system, which incentivizes long-term corporate registration. The jurisdiction remains a crucial financial center for multinational corporations seeking to establish holding structures and investment vehicles. In recent years, as global investment flows diversify capital across multiple financial centers to mitigate risk, the Cayman Islands maintains its position as a preferred location. The expanding number of active companies confirms the institutional attractiveness and stable standing of the Cayman Islands OFC within the international financial system. Dynamics of Private Investment Funds. The volume of registered Private Investment Funds also demonstrated growth. The figures show 16,900 funds in 2023, 17,300 funds in 2024, and 17,700 funds in 2025. Over the three years, the fund count increased by 800, equating to an approximate growth rate of 4.7%.

The expansion in the number of funds signals a growing proportion of capital managed under professional oversight, rather than merely individual investor activity. The increasing global interest in private equity, venture capital, and hedge funds is transforming the Cayman Islands into a central hub for the global alternative finance industry. Crucially, the continued growth in fund registration, despite intensifying global regulatory demands, demonstrates the resilience and adaptability of the Cayman Islands financial system.

The Cayman Islands Offshore Financial Centre (OFC) stands as one of the world's most significant global financial hubs, distinguished by its favorable tax regime, stable regulatory framework, diversified financial services, and adherence to international standards. It plays a crucial role in managing global capital flows and cultivating an attractive environment for international investors. Within the international financial community, consistent efforts are underway to ensure that the role and regulation of the Cayman Islands OFC promote greater transparency and reliability, thereby reinforcing its credibility in the global financial system.

### **THE LIST OF REFERENCES USED.**

1. Cayman Finance: Fund Statistics Report — Statistics on Private Funds in the Cayman Islands.
2. Cayman Islands Monetary Authority: Financial Stability Report.
3. Transparency International UK — Analysis of Financial Services in the Cayman Islands. Cayman Islands Monetary Authority (CIMA).
4. Annual Report and Regulatory Statistics. Cayman Islands, 2023–2025.
5. Offshore Financial Centers: Background Paper. Washington, D.C., IMF Publications.
6. Offshore Financial Centers: A Framework for Analysis. IMF Working Paper, Washington, D.C.
7. Financial Secrecy Index. TJN Research Reports.

## **MOLIYAVIY PUFAKLAR FENOMENI VA ULARNI ANIQLASHDA QO‘LLANILADIGAN ILMIY YONDASHUVLAR**

**Botirov Islombek Ulug‘bek o‘g‘li** “International  
School of Finance Technology and Science” instituti  
mustaqil izlanuvchisi

**E-mail:** [botirovislombek99@gmail.com](mailto:botirovislombek99@gmail.com)

**ORCID:** 0009-0008-4781-2715

Moliyaviy pufaklar fenomeni iqtisodiy tizimning rivojlanish jarayonida vaqti-vaqti bilan yuzaga keladigan, ammo ta’sir doirasi va oqibatlari jihatidan chuqur tizimli xususiyatga ega bo‘lgan hodisa hisoblanadi. Ular aktivlar bozorida narxlarning uzoq muddat davomida ularning fundamental iqtisodiy qiymatlaridan barqaror ravishda chetlanishi bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayon oddiy narx tebranishlaridan tubdan farq qiladi, chunki moliyaviy pufaklar iqtisodiy agentlarning kutishlari, kreditlash mexanizmlari va institutsional muhit o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir natijasida shakllanadi. Uy-joy bozori sharoitida moliyaviy pufaklar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur bozor real sektor va moliya tizimi tutashgan nuqtada joylashgan bo‘lib, undagi nomutanosibliklar bevosita bank sektori barqarorligiga, aholi moliyaviy holatiga va makroiqtisodiy muvozanatga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli moliyaviy pufaklar muammosi nafaqat nazariy, balki amaliy siyosiy-iqtisodiy ahamiyatga ham ega bo‘lib, ularni erta aniqlash va monitoring qilish zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy pufaklar masalasi yagona nazariy paradigma doirasida izohlanmaydi. Aksincha, mazkur fenomen turli ilmiy maktablar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Bu holat moliyaviy pufaklarning mohiyatan murakkabligini va ularni aniqlashda ko‘p yondashuvli metodologiyaga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi. Shu sababli moliyaviy pufaklarni aniqlash masalasi nazariy model tanlash, indikatorlar tizimini shakllantirish va empirik usullarni qo‘llash bilan uzviy bog‘liqdir.

Moliyaviy pufak xavfi indeksi tijorat banklari faoliyatini baholashda muhim ahamiyatga ega, chunki moliyaviy pufaklar banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligiga jiddiy tahdid soladi. Moliyaviy pufaklar aktivlar narxlarining asossiz ravishda ko‘tarilishi bilan xarakterlanadi va ularning yorilishi bank tizimida katta xavf-xatarlarga olib keladi (Kindleberger & Aliber, 2011).

Uy-joy bozori milliy iqtisodiyotning eng muhim va tizimli ahamiyatga ega segmentlaridan biri bo‘lib, real sektor, moliya bozorlari va davlat siyosati o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqliklarni mujassamlashtiradi. Ushbu bozorning iqtisodiy mohiyati ikkiyoqlama tabiatda namoyon bo‘ladi: bir tomondan, uy-joy iste’mol tovari sifatida aholining turmush darajasi va ijtimoiy farovonligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uzoq muddatli investitsiya aktivi sifatida kapitalni saqlash, ko‘paytirish va inflyatsiya xatarlaridan himoyalaniish vositasi vazifasini bajaradi. Shu sababli, uy-joy bozorida talab va narxlar dinamikasi nafaqat real iqtisodiy omillar (aholi daromadlari, demografik jarayonlar, urbanizatsiya), balki moliyaviy ko‘rsatkichlar (kredit shartlari, foiz stavkalari), investorlar kutilmalari va institutsional muhit bilan ham belgilanadi.

Uy-joy bozorining fundamental xususiyatlari – yuqori kapitallashuv darajasi, uzoq investitsiya sikli, past taklif elastikligi (yer resurslari cheklanganligi, qurilish jarayonlarining uzoq davom etishi, shaharsozlik me’yorlari), hududiy segmentatsiyalashganlik va yuqori tranzaksiya xarajatlari – narxlarning fundamental qiymatdan chetlanishini tezlashtiruvchi va moliyaviy pufaklar shakllanishiga qulay sharoit yaratuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Ushbu xususiyatlar bozor signallarining kechikib yetib borishiga, spekuliyativ talabning kuchayishiga va narx–kredit spiralinin yuzaga kelishiga olib keladi. Axborot assimetriyasi, xulq-atvoriy omillar (haddan tashqari optimistik kutishlar, guruh xatti-harakati) va makroiqtisodiy uzatish mexanizmlari (monetar siyosatning foiz stavkalari orqali ta’siri) esa pufaklarning shakllanishini yanada murakkablashtiradi.

Moliyaviy pufaklar fenomeni aktiv narxlarining fundamental iqtisodiy qiymatdan barqaror va tizimli ravishda uzoqlashishi sifatida ta'riflanadi va turli nazariy maktablarda turlicha talqin etiladi. Hyman Minsky'ning moliyaviy beqarorlik gipotezasi pufaklarning kredit ekspansiyasi va qarz yukining oshishi orqali yuzaga kelishini, Robert Shiller va George Akerlofning xulq-atvoriy yondashuvlari esa psixologik omillar (irratsional ishonch oqimi, haddan tashqari ishtiyoq) va ommaviy eyforiyani asosiy mexanizm sifatida ko'rsatadi. Milton Friedman va Frederic Mishkinning monetar nazariyasi pul massasi o'sishi va past foiz stavkalarini, Michael Porter'ning raqobat nazariyasi esa banklarning agressiv kredit siyosatini, Daniel Kahneman va Amos Tversky'ning istiqbol nazariyasi investorlarning kognitiv xatolarini pufaklar shakllanishining muhim sabablari qatoriga kiritadi. Eugene Fama'ning samarali bozor gipotezasi esa bozorning vaqtinchalik samarasizlik holatlarida pufaklar yuzaga kelishini tan oladi.

Xalqaro tajribada moliyaviy pufak xavfini baholashda ko'p omilli kompozit indekslar va dinamik statistik testlar (Augmented Dickey–Fuller, Generalized Supremum ADF – GSADF) ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy indikatorlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- Uy-joy narxlarining aholi daromadlariga nisbati (P/I ratio);
- Narx–ijara daromadi nisbati (P/R ratio);
- Ipoteka kreditlari / YaIM nisbati;
- Uy-joy narxlarining real o'sish sur'ati;
- Qurilish sektori ulushining YaIMdagi o'zgarishi;
- Kreditlar / depozitlar nisbati.

Ushbu indikatorlar Z-score normalizatsiyasi orqali standartlashtirilib, vazn koeffitsiyentlari bilan birlashtirilgan holda kompozit moliyaviy pufak xavfi indeksi shakllantiriladi. Shuningdek, moliyaviy pufak xavfini baholashda ko'p omilli kompozit indekslar va dinamik statistik testlar ustuvor o'rin tutmoqda. UBS Global Real Estate Bubble Index (GREBI), IMF Global Housing Watch va BIS makroprudensial ko'rsatkichlari tajribasiga asoslaniladi. Ushbu indikatorlar Z-score normalizatsiyasi orqali standartlashtirilib, vazn koeffitsiyentlari bilan birlashtirilgan holda kompozit moliyaviy pufak xavfi indeksi (PXI) shakllantiriladi. Narxlarning eksploziv xatti-harakatlarini aniqlashda Phillips-Shi-Yu tomonidan ishlab chiqilgan Generalized Supremum Augmented Dickey–Fuller (GSADF) testi keng qo'llaniladi, bu test pufak epizodlarining boshlanish va yakunlanish nuqtalarini dinamik ravishda aniqlash imkonini beradi. O'zbekiston sharoitida uy-joy bozori davlat siyosati (imtiyozli ipoteka, subsidiyalar, uy-joy dasturlari) bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu sun'iy talabni kuchaytirishi va narxlarning real iqtisodiy asoslardan chetga chiqish xavfini oshirishi mumkin. Shu bois an'anaviy statistik yondashuvlar o'rniga real vaqt rejimida ishlaydigan raqamli monitoring tizimlari, ko'p indikatorli baholash indekslari va makroprudensial siyosatning integratsiyasi zarurati yuzaga kelmoqda.

So'nggi yillarda bozorning hozirgi holati urbanizatsiya tezligi (aholi shaharlarga ko'chishi yillik 2-3% atrofida), aholining real daromadlari o'sishi (2023-2025 yillarda o'rtacha 5-7% yillik), ipoteka kreditlashining kengayishi (Markaziy Bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yil III choragida ipoteka kreditlari 5,6 trln so'mga yetgan, o'tgan yilga nisbatan 14,9% o'sish) va qurilish sektorining faolligi (yangi uylar qurilishi 2024 yilda 11,4% o'sish ko'rsatgan) bilan belgilanmoqda. Ushbu omillar bozor talabi va taklifining muvozanatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, biroq ularning assimetriyasi moliyaviy pufak xavfining shakllanishiga qulay sharoit yaratishi mumkin. O'zbekiston uy-joy bozori hozirgi holatida ikki asosiy segmentga bo'linadi: birlamchi (yangi qurilish) va ikkinchi darajali (mavjud uylar) bozorlar. 2025 yil oxiriga kelib, bozor savdolari o'sishi davom etmoqda: 2026 yil yanvar oyida uy-joy sotib olish-sotish shartnomalari soni 28,6 mingga yetgan, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12% o'sish ko'rsatgan. Bu o'sish asosan Toshkent shahri va viloyat markazlarida kuzatilmoqda, chunki urbanizatsiya jarayonlari (aholining 50% dan ortig'i shaharlarda yashashi) va xorijiy pul o'tkazmalarining o'sishi (2025 yilda 8-10 mlrd USD atrofida) talabni kuchaytirmoqda.

Olib borilgan nazariy-uslubiy tahlillar natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllandi:

1. Uy-joy bozori moliyaviy barqarorlikning eng sezgir kanallaridan biri bo'lib, undagi nomutanosibliklar bank tizimiga (NPL o'sishi, likvidlik inqirozlari, kapital yetarliligi pasayishi) tizimli ta'sir ko'rsatadi.

2. Moliyaviy pufaklarning shakllanishi makroiqtisodiy, institutsional va xulq-atvoriy omillarning murakkab uyg'unlashuvi natijasidir.

3. Pufak xavfini baholashda bitta ko'rsatkich emas, balki ko'p omilli indeksli va dinamik testlarga asoslangan yondashuv samarali hisoblanadi.

4. O'zbekiston uy-joy bozori uchun xalqaro metodologiyalarni (UBS GREBI, IMF Global Housing Watch) mamlakatning tranzitsion iqtisodiy xususiyatlariga (davlat subsidiyalari, norasmiy daromadlar, urbanizatsiya tezligi) moslashtirish orqali yangi baholash indeksi (PXI) ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

Umuman olganda, PXI ga asoslangan raqamli monitoring tizimi uy-joy pufaklariga qarshi chidamlilikni oshirib, barqaror kredit o'sishi, NPL pasayishi va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Bu raqamli iqtisodiyotning afzalliklaridan samarali foydalanish orqali O'zbekiston bank tizimining tizimli xatarlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shiller R.J. Irrational Exuberance. Princeton University Press, 2015.
2. IMF Global Financial Stability Report, 2022–2025.
3. UBS Global Real Estate Bubble Index 2025. <https://www.ubs.com/global/en/wealthmanagement/insights/global-real-estate-bubble-index.html>
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik sharhlari va yillik hisobotlar, 2025–2026.
5. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR). Uy-joy bozori sharhlari, 2025–2026.

## **SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BANK VA MOLIYA SOHASIDA QO'LLANILISHI VA ISTIQBOLLARI**

**Jurayeva Sevara Zakirovna**  
PhD, TIU doktoranti

Raqamli iqtisodiyotni keng tadbiiq etilishida bank-moliya tizimi faoliyatini modernizatsiya qilish zarurati sun'iy intellekt texnologiyalariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Katta hajmdagi ma'lumotlarni (big data) tezkor qayta ishlash, statistik bog'liqliklarni aniqlash, skoring modellarini takomillashtirish va prognoz modellarini ishlab chiqish kabi SI yaratadigan imkoniyatlar, uni bank sohasida muhim vositaga aylantirmoqda.

Shubhasiz, bugungi kundagi bank faoliyatini samarali tashkil etilishida, mijozlarga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatish, shuningdek, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash raqamli transformatsiya jarayonlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, mazkur innovatsion texnologiyalar orqali nafaqat yangi moliyaviy mahsulotlar yaratish, balki mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni yanada qulay shaklda yo'lga qo'yish imkonini bermoqda.

Ma'lumki, an'anaviy banklar faoliyati asosan inson omiliga bog'liq bo'lib, bunda xatoliklar va qaror qabul qilish jarayonlaridagi xatoliklarga olib keladi. SI tizimi esa real vaqt rejimida tahlil olib borish orqali operatsion aniqlikni oshiradi va risklarni kamaytiradi. Shu boisdan, hozirgi kunda ko'plab tijorat banklari va moliyaviy institutlar o'z faoliyatida raqamli texnologiyalar, mashinaviy o'rganish, neyron tarmoqlar va boshqa tahlil vositalaridan keng foydalanmoqda. Ahamiyatli tomoni shundaki, mashinaviy o'rganish algoritmlari o'zini o'zi takomillashtirib borishi natijasida firibgarlikni aniqlash aniqligi oshishi va tahlillarda xatolar bo'lishini oldini olishiga erishish mumkin.

Raqamli texnologiyalar jumladan SI asosidagi tizimlarni takomillashtirish natijasida kredit ajratish jarayonida qarz oluvchining to'lovga layoqatligini va kredit qobiliyatini to'g'ri baholash bank barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, SI asosidagi kredit skoring tizimlari an'anaviy kredit tarixi va moliyaviy daromadlarga bog'langan ko'rsatkichlardan tashqari, xulq-

atvorga asoslangan baholash mezonlari, tranzaksiyalar tarixi, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi, kommunal va jarimalar kabi to'lovlarni to'lash tarixi va boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlarni ham inobatga oladi. Bu esa kredit risklarini oldini olish, muommoli kreditlar salmog'ini kamaytirish va sog'lom kredit portfelini shakllantirish imkonini beradi.

Raqamli bank xizmatlarining kengayishi mijozlarga tezkor va uzluksiz xizmat ko'rsatishni talab qiladi. SI asosidagi virtual yordamchilar va chatbotlar mijozlarning savollariga javob berish, hisob ma'lumotlarini taqdim etish hamda oddiy operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa nafaqat operatsion xarajatlarni kamaytiradi, balki mijozlar ishinchini ham oshiradi. Shu boisdan, respublikamizda bu borada olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati yuqoridir. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>236</sup> gi PQ-6079-sonli farmoni" da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Shuningdek, ma'lumotlar tahlilini takomillshtirish orqali banklar mijozlarning ehtiyojlarini chuqurroq aniqlab, ularga mos yangi turdagi mahsulot va xizmatlarni taklif etishi mumkin. Bu esa banklarning marketing samaradorligini oshiradi va mijoz sodiqligini mustahkamlaydi.

Bu borada tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganilgan ilmiy ishlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, jumladan: Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee kabi olimlar tomonidan yozilgan "The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies" deb nomlangan maqolada raqamli texnologiyalar va ularning iqtisodiyotga ta'siri batafsil bayon etilgan.<sup>237</sup>

Omar Fares<sup>238</sup> tomonidan qilingan ilmiy tadqiqotda bank sohasida raqamli transformatsiya uchun sun'iy intellektning muhim innovatsiya ekanligi keltirilgan hamda bank mijozlarini psixologik xususiyatlariga asoslangan holda guruhlariga ajratib, ularning raqamli bank innovatsiyalariga munosabatlarini va reaksiyalarini o'rganilgan.

Jia, K. va boshqa ilmiy tadqiqotchilar<sup>239</sup> ta'kidlashicha banklarning raqamli transformatsiyasi raqobatbardoshlikni oshiradi va shu bilan birga risklarni kamaytiradi.

Shunday qilib, Sun'iy intellektning bank tizimidagi quyidagi afzalliklarini umumlashtirish mumkin:

- takror ish jarayonlarini avtomatlashtirish natijasida vaqtni tejash va inson omili xatolarini kamayishi bilan operatsion samaradorlikning oshishi.
- katta ma'lumotlar tahlili asosida strategik qarorlar qabul qilish orqali boshqaruv qarorlari qabul qilish sifatining yaxshilanishi.
- avtomatlashtirish va risklarni samarali boshqarish natijasida moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish orqali xarajatlarning qisqarishi.
- tezkor va individual xizmat ko'rsatish orqali mijoz sodiqligini oshirish va mijozlar bilan aloqaning yaxshilanishi.
- regulyator talablariga muvofiqlikni monitoring qilish avtomatlashtirilishi orqali komplayens va nazoratning kuchayishi.

Ta'kidlash joiz, Sun'iy intellekt bank va moliya tizimida samaradorlikni oshiruvchi muhim innovatsion vosita sifatida shakllanmoqda. Global miqyosda kredit riskini baholash, firibgarlikni aniqlash, investitsion boshqaruv va mijozlarga xizmat ko'rsatish sohalarida SI keng qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, texnologiyani joriy etishda ma'lumotlar xavfsizligi, algoritmik adolatlilik va etik tamoyillarni ta'minlash ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

<sup>236</sup> [www.lex.uz](http://www.lex.uz), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PQ-6079-sonli "Raqamli

O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni

<sup>237</sup> Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee "The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies", 2014

<sup>238</sup> Omar H. Fares, Digital Revolution in Modern Banking: Systematic Literature Review and Cluster Analysis, BComm, Marketing Management, Ryerson University, Toronto, Ontario, Canada, 2022

<sup>239</sup> Jia, K., Bi, R. and Guo, Y., 2023. Bank digital transformation, bank competitiveness and systemic risk. *Frontiers in Physics*, 11, p.1297912.

Xulosa qilish mumkinki, Sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, big data va blokcheyn asosida raqamli bank infratuzilmasi rivojlanishi bank xizmatlarining ommalashuviga, moliyaviy inklyuziyaning kengayishiga, kredit va to'lovlarning arzonlashishiga, tranzaksion xarajatlarning kamayishiga, aholining moliyaviy imkoniyatlarining kengayishiga olib keladi va natijada aholi farovonligi sezilarli oshadi. Kelgusida SIning barqaror va doimiy rivojlangan algoritmlarini keng joriy qilinishi bank tizimining raqobatbardoshligini yanada oshiradi.

## **SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH**

**M.T.Ibodova**

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti  
[mohinuribodova80@gmail.com](mailto:mohinuribodova80@gmail.com).

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, turizm sohasida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektidan foydalanish xizmatlar samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Xususan, Butunjahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, raqamli yechimlarni joriy etgan turistik yo'nalishlarda operatsion jarayonlar samaradorligi 20–25 foizga oshib, xarajatlar 10–15 foizga qisqargan<sup>1</sup>. Ushbu tendensiya turizm infratuzilmasini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni raqamli asosda qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

2025 yilda O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot hajmi 7,7 foizga oshgan<sup>2</sup>. Mazkur o'sishda xizmatlar sohasi, jumladan turizm tarmog'ining hissasi sezilarli bo'lib, bu sohada samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm milliy iqtisodiyotning yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi va bandlikni ta'minlovchi strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizm infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi hududiy iqtisodiy o'sish, xizmatlar eksporti va investitsion jozibadorlik bilan bevosita bog'liq. Shu bois so'nggi yillarda O'zbekistonda turizm infratuzilmasini raqamli transformatsiya asosida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi<sup>3</sup>.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025 yilda O'zbekistonga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar soni 11,7 million kishiga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024 yilga nisbatan 46,8 foizga oshgan<sup>4</sup>. Shu bilan birga, 2025 yilning yanvar–avgust oylarida turizm xizmatlari hajmi 2,2 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 44 foizga o'sdi<sup>5</sup>. Mazkur ko'rsatkichlar turizm infratuzilmasini boshqarishda zamonaviy raqamli yondashuvlarni joriy etish zaruratini tasdiqlaydi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari turizm infratuzilmasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishda muhim instrument hisoblanadi. Jumladan, turistlar oqimini prognozlash, mehmonxona fondidan foydalanish darajasini optimallashtirish, transport logistikasi va dinamik narx belgilash jarayonlarida sun'iy intellekt asosidagi yechimlar keng qo'llanilmoqda.

O'zbekistonda turizm infratuzilmasini raqamlashtirish jarayonlari "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilmoqda. Ushbu strategiyada xizmatlar sohasida raqamli platformalarni joriy etish, sun'iy intellektga asoslangan boshqaruv tizimlarini rivojlantirish va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish mexanizmlarini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan<sup>6</sup>.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, turizm infratuzilmasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar taklif etiladi: raqamli infratuzilmani rivojlantirish, sun'iy intellekt asosida xizmatlarni optimallashtirish, turistlar xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali marketing samaradorligini oshirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasini jadallashtiradi hamda turizm sohasining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. World Tourism Organization. *Digital Transformation in Tourism*. Madrid, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Yalpi ichki mahsulot va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari*, 2025.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Turizm faoliyati statistikasi*, 2025.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Xizmatlar sohasi va turizm xizmatlari hajmi*, 2025.
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Xizmatlar sohasining YAIMdagi ulushi bo'yicha tahliliy ma'ruza*, 2025.

### **THE IMPACT OF INSTITUTIONAL FACTORS ON THE LEVEL OF NON-PERFORMING LOANS (NPLS) IN STATE-OWNED BANKS AND THE EFFECTIVENESS OF REFORMS**

**Salixova Guzal**

Second-Year PhD Researcher, Tashkent International University  
email: [gozal.trad@gmail.com](mailto:gozal.trad@gmail.com)

In recent years, despite ongoing structural reforms in Uzbekistan's banking sector, the level of Non-Performing Loans (NPLs) in state-owned commercial banks remains a significant factor affecting financial stability. The quality of the loan portfolio directly influences key indicators such as capital adequacy, liquidity, and overall bank resilience.

The persistence of NPLs in state-owned banks is largely associated with institutional factors. These include the limited dominance of market-based lending principles, the extensive provision of concessional loans under government programs, weaknesses in risk management systems, and relatively underdeveloped corporate governance mechanisms. Such conditions may lead to a deterioration in asset quality and a decline in profitability.

As part of the banking sector transformation, the Central Bank of the Republic of Uzbekistan has strengthened prudential supervision, expanded NPL restructuring practices, and initiated measures to gradually reduce state ownership in commercial banks. Nevertheless, the relatively high NPL ratio in state-owned banks highlights the need for deeper academic analysis.

This study is relevant as it seeks to identify the institutional determinants of NPL formation in state-owned banks and to assess the effectiveness of ongoing reforms. The findings are expected to contribute to improving credit policy, enhancing risk management frameworks, and developing practical recommendations aimed at reducing NPL levels and strengthening banking sector stability.

The relatively high level of non-performing loans (NPLs) in state-owned banks is largely associated with the lending mechanisms implemented within the framework of government programs. In recent years, large volumes of concessional loans have been extended under state programs aimed at supporting the economy, fostering entrepreneurship, increasing employment, and financing priority sectors. However, insufficiently developed risk assessment mechanisms and weaknesses in repayment discipline have, in some cases, contributed to an increase in NPL indicators.

Practical observations indicate that commercial banks with a high state ownership share tend to exhibit higher NPL ratios compared to private banks. This situation reflects the limited

dominance of market principles in the lending process, the financing of certain projects without in-depth analysis of their economic efficiency, and the presence of institutional constraints in risk assessment procedures. In particular, concessional loans provided under state programs—characterized by lower interest rates, less stringent collateral requirements, and relatively weak credit monitoring mechanisms—may negatively affect the quality of the loan portfolio.

At the same time, the importance of state-sponsored lending in promoting economic growth and supporting entrepreneurship cannot be denied. Concessional loans serve as an important instrument for job creation, small business development, and the maintenance of socio-economic stability. Nevertheless, such loans should be directed toward economically viable sectors with high profitability and stable cash flows.

Under these conditions, revising state credit programs has become a pressing issue. Specifically, it is necessary to strengthen lending criteria, improve project evaluation systems, introduce independent risk analysis mechanisms, and enhance monitoring of the targeted and efficient use of allocated funds. Furthermore, reinforcing accountability and responsibility mechanisms for loans issued within the framework of state programs would also play a crucial role in reducing the NPL ratio.

**Table 1.**

**Financial Indicators by Banking Groups (Percent), 2024<sup>240</sup>**

<b>Indicators</b>	<b>System</b>	<b>State-owned banks (SOCBs)</b>	<b>Private domestic banks</b>	<b>Foreign banks</b>
<b>Share of banking system assets</b>	100.0	65.5	23.5	11.1
<b>Regulatory capital / RWA</b>	17.4	16.6	18.5	19.2
<b>Non-performing loans (NPL)</b>	4.0	3.9	2.6	7.5
<b>FX loans / FX NPL*</b>	3.4	3.2	1.4	10.3
<b>NPL in national currency</b>	4.5	5.5	2.2	4.3
<b>Substandard loan share</b>	17.3	21.5	9.1	5.6
<b>IFRS 9 Stage 3 loans / total loans (end-2023)</b>	7.8	8.1	2.6	15.2
<b>Loan loss reserves / NPL</b>	45.4	48.2	32.1	45.3

According to the 2024 data, state-owned banks hold a dominant position in the banking system, accounting for 65.5% of total banking assets. This substantial share indicates that state-owned commercial banks (SOCBs) play a decisive role in financial intermediation and have a direct impact on overall financial stability. Consequently, the asset quality indicators of state-owned banks largely determine the soundness of the entire banking system.

The overall non-performing loan (NPL) ratio in the banking system stands at 4.0%, while for state-owned banks it amounts to 3.9%. Although this figure appears close to the system average, a comparison reveals that private domestic banks demonstrate a significantly lower NPL ratio of 2.6%. Thus, the level of problematic loans in state-owned banks is noticeably higher than

<sup>240</sup> Based on data from the Central Bank and calculations of the IMF staff

in private banks. Considering that the majority of banking assets are concentrated within state-owned banks, any deterioration in their credit portfolio quality exerts a substantial influence on system-wide indicators.

A more pronounced divergence becomes evident when examining loans denominated in national currency. In state-owned banks, the NPL ratio for local currency loans reaches 5.5%, nearly double the 2.2% observed in private banks. This suggests that the credit risk profile of state-owned banks is more vulnerable, particularly in segments associated with domestic lending. One plausible explanation lies in the active participation of state-owned banks in financing priority sectors and implementing government-directed lending programs. Loans issued under state programs may not always strictly adhere to market-based risk-return principles, which can negatively affect repayment performance.

Furthermore, the share of low-quality loans in state-owned banks is 21.5%, exceeding both the system average (17.3%) and the level recorded in private banks (9.1%). This indicator signals a heightened probability of future growth in non-performing loans, as a significant portion of the credit portfolio is already classified as having elevated credit risk. In addition, according to IFRS 9 classification, Stage 3 loans account for 8.1% of total loans in state-owned banks, compared to only 2.6% in private banks. This disparity reflects structural weaknesses in credit risk management practices and borrower quality within state-owned institutions.

At the same time, state-owned banks maintain relatively higher loan loss provisioning, with reserves covering 48.2% of NPLs, compared to 32.1% in private banks. While this indicates a stronger buffer against potential credit losses, it does not eliminate the underlying issue of comparatively weaker asset quality.

Overall, the 2024 indicators confirm that state-owned banks exhibit a relatively higher share of problematic and low-quality loans compared to private domestic banks. Given their dominant weight in total banking assets, improving credit risk management frameworks, strengthening monitoring mechanisms for state-directed lending, and aligning credit allocation practices more closely with market-based principles are essential steps to ensure long-term financial stability and sustainability of the banking system.

Although lending under state programs represents an important instrument for economic development, its effectiveness depends on the robustness of institutional mechanisms. By further aligning the lending process with market principles and ensuring economically justified project selection, it is possible to significantly reduce the NPL level in state-owned banks.

#### **List of References:**

1. Ismatov, X. (2025). *Ways to Reduce Problem Loans in Banks*. *Modern Science and Research*, 4(10), 463–473.
2. Prawira, R., & Wiryono, S. K. (2020). *Determinants of Non-Performing Loans in State-Owned Banks*. *Jurnal Akuntansi dan Auditing Indonesia*, 24(2), 159–166.
3. Boudriga, A., Boulila, G., & Rjiba, H. (2009). *Banking Supervision and Non-Performing Loans: A Cross-Country Analysis*. *Journal of Financial Economic Policy*. (Note: foundational in institutional effects on NPLs.)
4. Nkusu, M. (2011). *Non-performing Loans and Macroeconomic Vulnerabilities in Advanced Economies*. IMF Working Paper No. 11/161. (Note: classic reference on NPL dynamics.)
5. website Sources of <https://www.imf.org/>
6. website Sources of <https://www.cbu.uz/>

## TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISHDA IFRS 9 NING O‘RNI

**Salixova Go‘zal Jaxongir qizi**

Toshkent Xalqaro universiteti 2- bosqich tayanch doktoranti,  
email: [gozal.trad@gmail.com](mailto:gozal.trad@gmail.com)

IFRS standartlari International Accounting Standards Board (IASB) tomonidan ishlab chiqiladi. IASB — IFRS Foundation tarkibidagi mustaqil standart ishlab chiquvchi organ hisoblanadi.<sup>241</sup> International Accounting Standards Board va boshqa standart belgilovchilar banklar moliyaviy hisobotlarda kredit yo‘qotishlarni tan olish va zahira ajratish bo‘yicha tamoyillarga asoslangan ko‘rsatmalar ishlab chiqadilar. IASB IFRS 9 “Moliyaviy instrumentlar” standarti qabul qilinib, kutilayotgan kredit yo‘qotishlar (ECL) modeli joriy qilindi. Ushbu model, xususan, banklarning hisob-kitob zaxiralari va Basel kapital talablari kontekstida kredit yo‘qotishlarni nazorat qilish tartibini belgilaydi.<sup>242</sup>

IFRS 9 standartiga muvofiq, kreditlar bo‘yicha zaxiralari Expected Credit Loss (ECL) modeli asosida hisoblanadi. Ushbu model banklarning kredit portfelida risklarning erta bosqichda aniqlanishiga xizmat qiladi. Natijada, banklar muammoli kreditlar shakllanishidan oldin tegishli choralar ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

IFRS 9 doirasida kreditlar uch bosqich (Stage 1, Stage 2, Stage 3) asosida tasniflanadi. Stage 1 kreditlar kredit riskining sezilarli oshishi kuzatilmagan aktivlarni ifodalasa, Stage 2 kreditlar kredit riskining sezilarli darajada oshganligini bildiradi. Stage 3 esa defolt holatidagi kreditlarni o‘z ichiga oladi. Aynan Stage 2 bosqichi muammoli kreditlarning shakllanishidan oldingi ogohlantiruvchi indikator sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Stage 2 kreditlar ulushining oshishi kelgusida NPL darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Shu sababli, IFRS 9 standartida nazarda tutilgan ECL modeli banklarda muammoli kreditlarni kamaytirishda faqat hisob-kitob mexanizmi emas, balki proaktiv kredit risklarini boshqarish instrumenti sifatida qaralishi lozim.<sup>243</sup>

Mazkur tadqiqotda IFRS 9 ECL modelidan foydalanib, muammoli kreditlarning kelgusida yuzaga kelishini oldindan aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan mexanizm taklif etiladi. Ushbu yondashuv banklarning kredit siyosatini takomillashtirish, kredit monitoringini kuchaytirish hamda restrukturizatsiya choralarini o‘z vaqtida amalga oshirish orqali NPL darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.


Hozirda amalda ko‘pchilik banklarda ECL natijasi faqat hisobot maqsadida ishlatiladi, kredit siyosati yoki qarorlar darajasida proaktiv choralar ko‘rilmaydi, ya‘ni NPL paydo bo‘lganidan keyin reaksiya ko‘rsatiladi. Bizning yondashuvimiz shundaki, ECL natijalari bankning kredit siyosati va boshqaruv qarorlariga proaktiv tarzda integratsiya qilinadi, shu orqali NPL hosil bo‘lishining oldini olish va kredit riskini kamaytirish instrumentiga aylantiriladi.

IFRS 9 doirasidagi Expected Credit Loss (ECL) natijalarini bankning kredit boshqaruv qarorlariga integratsiya qilish modeli uch bosqichda ishlaydi:

<sup>241</sup> <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/#>


<sup>242</sup> [https://www.bis.org/fsi/fsisummaries/ifrs9.pdf?utm\\_source](https://www.bis.org/fsi/fsisummaries/ifrs9.pdf?utm_source)

<sup>243</sup> [https://www.iasplus.com/en/standards/ifrs/ifrs9?utm\\_source](https://www.iasplus.com/en/standards/ifrs/ifrs9?utm_source)



**1-rasm. IFRS 9 ECL asosida Stage Migration Modeli bosqichlari<sup>244</sup>**

**IFRS 9 ECL asosida Stage Migration Modeli IFRS 9 bosqichlari (Stage 1, Stage 2, Stage 3) asosida kredit riskini proaktiv boshqarish mexanizmini ifodalaydi.**



**SMI = (Stage 2 + Stage 3) / Total Loan Portfolio**

SMI ↑ → 3–6 oy ichida NPL ↑

SMI ↓ → kredit portfeli sog‘lomlashmoqda

Fikrimizcha, tijorat banklarida kredit berish, monitoring va qayta ko‘rib chiqish jarayonlarida PD, LGD va EAD ko‘rsatkichlarini mustaqil boshqarish elementlarini joriy etish va ularni NPLni oldini olish vositasi sifatida qo‘llash taklifi ham samarali hisoblanadi. Kredit riskini proaktiv boshqarishda defolt ehtimoli ko‘rsatkichi **Probability of Default (PD)** — asosiy indikatorlardan biri hisoblanib, qarz oluvchi kreditni to‘lamay qolishi ehtimoli nechog‘li ekanini ko‘rsatadi.

Misol uchun, barqaror ish joyi PD = 2%; daromadi beqaror PD = 15% bo‘lishi mumkin. Bu kredit oluvchi bilan bog‘liq quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

Birinchidan, kredit ajratish jarayonida **chegaraviy PD darajasi (PD threshold)** belgilanishi lozim. Ushbu chegaradan yuqori riskga ega mijozlar bo‘yicha kreditlash qarori qat‘iyashtiriladi yoki qo‘shimcha ta‘minot talab etiladi.

<sup>244</sup> IFRS Accounting Standards Navigator. <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/#> sayti ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Ikkinchidan, PD ko'rsatkichi monitoring jarayonida oshgan mijozlar avtomatik ravishda **Stage 2** toifasiga o'tkaziladi. Bu esa risk oshishini erta aniqlash va muammoli kreditga aylanish jarayonini sekinlashtirish imkonini beradi.

Mazkur yondashuv natijasida:

- defolt ehtimoli yuqori bo'lgan kreditlar erta bosqichda aniqlanadi;
- risk migratsiyasi nazorat qilinadi;
- kreditlarning NPL toifasiga o'tish ehtimoli kamayadi.

Kredit riskini boshqarishda defolt sodir bo'lgan taqdirda bankning real yo'qotishi Loss Given Default (LGD) ko'rsatkichi orqali aniqlanadi. LGD qarz qaytmagan holatda kredit summasining bank tomonidan qaytarib olinmaydigan qismini ifodalaydi. Masalan, kredit summasi 100 mln so'm bo'lsa, garov ta'minoti mavjud emas holatda LGD 90–100% gacha yetishi mumkin. Aksincha, kafillik yoki likvid garov mavjud bo'lsa, yo'qotish darajasi 20–40% atrofida shakllanadi.

LGD darajasi bir qator omillarga bog'liq: garov yoki kafillik mavjudligi, ta'minotning likvidligi, huquqiy undirish mexanizmlarining samaradorligi hamda kreditni qayta tuzish (restrukturizatsiya) imkoniyati. Shu bois, LGD ni optimallashtirish bankning defolt holatidagi real moliyaviy zararini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida quyidagi amaliy mexanizmlar taklif etiladi:

Shaxsiy sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri raqamli identifikatsiya va avtomatlashtirilgan mijozga xizmat ko‘rsatish tizimlaridir. Masofaviy identifikatsiya vositalari sug‘urta shartnomasini tuzish jarayonini tezlashtiradi, ortiqcha hujjat aylanishini kamaytiradi va inson omili bilan bog‘liq xatolarni qisqartiradi. Shu bilan birga, CRM tizimlari, chat-botlar va onlayn maslahat xizmatlari mijoz bilan doimiy aloqani ta‘minlaydi, uning savollariga tezkor javob beradi va da‘volarini samarali ko‘rib chiqishga yordam beradi. Bunday mexanizmlar xizmat sifati oshishiga, mijozlar ishonchi mustahkamlanishiga va sug‘urta kompaniyalarining obro‘si yuksalishiga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar shaxsiy sug‘urtada risklarni baholash va narx belgilash jarayonlarini ham takomillashtiradi. Sun‘iy intellekt va katta hajmdagi ma’lumotlar tahlili asosida mijozlar segmentatsiyasi aniqroq amalga oshiriladi, ehtimoliy risklar chuqurroq o‘rganiladi va ehtiyojga mos mahsulotlar ishlab chiqiladi. Natijada, sug‘urta tariflari yanada asosli belgilanadi, xizmatlar individuallashtiriladi va ortiqcha xarajatlar kamayadi. Bu esa, bir tomondan kompaniya faoliyati

<sup>249</sup> Tadqiqotchi ishlanmasi

samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, mijoz uchun maqbul va adolatli sug'urta himoyasini shakllantiradi.

Aholining moliyaviy himoyasini kuchaytirishda da'volarni ko'rib chiqish jarayonining raqamlashtirilishi ham katta rol o'ynaydi. Agar sug'urta hodisasi yuz berganda mijoz arizani mobil ilova yoki onlayn platforma orqali yubora olsa, hujjatlarni elektron shaklda taqdim etsa va murojaat holatini real vaqt rejimida kuzata olsa, bu tizimga nisbatan ishonchni sezilarli oshiradi. Tezkor va shaffof da'vo ko'rib chiqish mexanizmi fuqarolarning sug'urtaga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Aynan shu holat shaxsiy sug'urtaning aholi o'rtasida kengayishiga va uning real moliyaviy himoya vositasiga aylanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, shaxsiy sug'urta xizmatlarini raqamli transformatsiya qilish moliyaviy inklyuziyani kuchaytiradi. Hududiy jihatdan chekka joylarda yashovchi fuqarolar, vaqt resursi cheklangan iste'molchilar yoki ofisga borish imkoniyati bo'lmagan mijozlar ham masofaviy xizmatlar orqali sug'urta tizimiga jalb qilinadi. Bu esa, sug'urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, aholining turli qatlamlari uchun tengroq sharoit yaratadi va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmlarini mustahkamlaydi. Shu jihatdan, raqamli transformatsiya nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish tamoyillariga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ayrim muammolarni bartaraf etish talab etiladi. Jumladan, raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, ayrim fuqarolarning raqamli savodxonligi pastligi, ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq xatarlar va sug'urta kompaniyalarining texnologik tayyorgarlik darajasidagi farqlar transformatsiya jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Shu sababli, shaxsiy sug'urta sohasida raqamlashtirishni bosqichma-bosqich amalga oshirish, ma'lumotlarni himoya qilish standartlarini kuchaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish va foydalanuvchi uchun sodda servis modellarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, shaxsiy sug'urta xizmatlarini raqamli transformatsiya qilish aholining moliyaviy himoyasini kuchaytirishning istiqbolli yo'nalishidir. U orqali sug'urta xizmatlarining qulayligi, tezkorligi, ochiqligi va ommabopligi oshadi, mijozga yo'naltirilgan yondashuv shakllanadi hamda fuqarolarning kutilmagan moliyaviy risklardan himoyalani sh imkoniyati kengayadi. Shu bois, shaxsiy sug'urta bozorini rivojlantirish strategiyasida raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Mazkur yondashuv nafaqat sug'urta sektorining modernizatsiyasiga, balki aholining farovonligi va moliyaviy xavfsizligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

## **RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA MOL-MULK SUG'URTASI TARIF SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Tuxtaro va Maftuna Yo'ldashboy qizi  
TDIU mustaqil tadqiqotchisi**

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida kechayotgan global raqamlashuv jarayoni moliyaviy xizmatlar bozorining barcha segmentlariga, xususan sug'urta tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Sug'urta kompaniyalari endilikda faqat moliyaviy resurslarni boshqaruvchi institut emas, balki katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlovchi, mijozga yo'naltirilgan xizmatlarni ishlab chiquvchi va risklarni real vaqt rejimida baholovchi zamonaviy tizimga aylanmoqda. Ayniqsa, mol-mulk sug'urtasi sohasida tarif siyosatini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, aynan tarif siyosati sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi, xizmatlarning bozorbopligi va mijoz uchun maqbulligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Mol-mulk sug'urtasi fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari va tashkilotlarning turar joyi, bino-inshootlari, uskunalari, ishlab chiqarish vositalari va boshqa mulkiy obyektlarini turli risklardan himoya qiluvchi muhim mexanizmdir. Ushbu sug'urta turi iqtisodiy zararlarni kamaytirish,

xo'jalik yurituvchi subyektlarning uzluksiz faoliyatini qo'llab-quvvatlash va aholining mulkiy manfaatlarini himoya qilishda alohida o'rin tutadi. Biroq, mol-mulk sug'urtasining samaradorligi ko'p jihatdan tariflarning qanchalik ilmiy asoslanganligi va risk darajasiga mos ravishda belgilanishiga bog'liqdir. Tariflar noto'g'ri shakllansa, bir tomondan kompaniya ortiqcha zarar xavfiga duch keladi, ikkinchi tomondan esa iste'molchi uchun xizmat qimmatlashib, sug'urtaga bo'lgan talab pasayadi.

An'anaviy tarif siyosatida tariflarni belgilash ko'pincha umumiy statistik ma'lumotlar, avvalgi yillardagi zarar ko'rsatkichlari va standart tasniflar asosida amalga oshiriladi. Bunday yondashuv ma'lum darajada soddalik va amaliy qulaylik bersada, real risk holatini to'liq aks ettira olmaydi. Chunki mol-mulk obyektlari o'zining texnik holati, joylashuvi, foydalanish maqsadi, ekspluatatsiya sharoiti, xavfsizlik darajasi va atrof-muhit omillari bo'yicha bir-biridan keskin farqlanadi. Shu bois, bir xil turdagi obyektlar uchun yagona tarif qo'llanilishi iqtisodiy jihatdan ham, iste'molchi nuqtayi nazaridan ham doimo adolatli bo'lavermaydi. Natijada, sug'urta tariflarida subyektivlik, o'rtachalashtirish va ayrim hollarda bozordagi real vaziyatdan uzilish kuzatiladi.

Raqamli transformatsiya aynan mana shu muammoni bartaraf etish imkonini beradi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar sug'urta obyektiga oid ma'lumotlarni batafsil yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish orqali tariflarni aniqroq shakllantirishga yordam beradi. Masalan, geoinformatsion texnologiyalar yordamida obyektning hududiy joylashuvi, tabiiy ofatlar xavfi, sanoat zonalariga yaqinligi yoki yong'in xavfi bo'lgan hududlarda joylashgani aniqlanishi mumkin. Shu bilan birga, masofaviy kuzatuv vositalari, foto va video ma'lumotlar, dron orqali o'tkaziladigan baholashlar ham sug'urta obyektining joriy holatini xolisroq aniqlash imkonini beradi. Bu esa, tarifni belgilashda faqat umumiy ma'lumotlarga emas, balki obyektning individual risk pasportiga tayanish imkoniyatini yaratadi.

Sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlar tahlili tizimlari tarif siyosatini takomillashtirishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Mazkur vositalar minglab sug'urta shartnomalari, to'lovlar, zarar holatlari, hududiy tavakkalchiliklar, qurilish materiali, mulkning eskirish darajasi va boshqa omillarni bir vaqtning o'zida tahlil qila oladi. Natijada, sug'urta kompaniyasi risklarning nozik segmentatsiyasini amalga oshiradi va har bir obyekt uchun nisbatan individual tarif yondashuvini ishlab chiqadi. Bu holat, tariflarning ilmiy asoslanganligini oshiradi, sug'urta portfelida xavfning to'planib qolishini kamaytiradi va zarar koeffitsientini nazorat qilishga yordam beradi.

Mol-mulk sug'urtasi tarif siyosatini raqamli transformatsiya qilishning muhim afzalliklaridan biri bu shaffoflikni kuchaytirishdir. An'anaviy tizimda ko'pincha mijozga tarifning qanday shakllangani, qaysi omillar narxga ta'sir qilgani va nima sababdan aynan shu summa belgilanganligi to'liq tushuntirilmaydi. Raqamli platformalar esa, tarifning tarkibini mijozga sodda va tushunarli shaklda taqdim etish imkonini beradi. Masalan, polis rasmiylashtirish jarayonida tizim tarifga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rsatib, chegirma yoki ustama qo'llanilgan holatlarni izohlab bera oladi. Bu esa, mijoz ishonchini mustahkamlaydi, sug'urta kompaniyasi faoliyatining ochiqligini oshiradi hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning muhim vositasiga aylanadi.

Raqamli transformatsiya tarif siyosatini moslashuvchan qilishda ham katta rol o'ynaydi. Bozor sharoitlari doimiy o'zgarib borayotgan bir paytda tariflarni bir necha yil davomida deyarli o'zgartirmasdan yuritish iqtisodiy xavf tug'diradi. Inflyatsiya, qurilish materiallari narxining oshishi, yangi xavf omillarining paydo bo'lishi yoki ayrim hududlarda zarar chastotasining ko'payishi tarif siyosatiga tezkor ta'sir qilishi zarur. Raqamli tizimlar esa, bunday o'zgarishlarni operativ qayd etib, tarif modellari va koeffitsientlarini muntazam yangilab borish imkonini beradi. Shu tariqa tarif siyosati statik emas, balki dinamik boshqaruv vositasiga aylanadi.

Mol-mulk sug'urtasida tarif siyosatini takomillashtirish faqat kompaniya manfaatlari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Chunki, sug'urta bozori jamiyatning mulkiy manfaatlarini himoya qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy institutdir. Shuning uchun tarif siyosati iqtisodiy samaradorlik bilan birga ijtimoiy adolat tamoyillariga ham mos kelishi lozim. Raqamli transformatsiya asosida

yaratilgan tarif modeli aholining turli qatlamlari uchun qulay, tushunarli va adolatli bo'lishi zarur. Aks holda, yuqori darajadagi algoritmlashuv ayrim mijozlar guruhini sug'urta bozoridan siqib chiqarishi yoki haddan tashqari qimmat tariflar orqali xizmatlardan foydalanish imkoniyatini cheklashi mumkin. Demak, raqamli tarif siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiy mezonlar bilan bir qatorda inson manfaatlari, tenglik va iste'molchi huquqlarini himoya qilish mezonlari ham hisobga olinishi lozim.

Shuningdek, mol-mulk sug'urtasi tarif siyosatini takomillashtirishda raqamli ma'lumotlarning sifati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tizimga noto'g'ri, eskirgan yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlar kiritilsa, hatto eng zamonaviy algoritm ham adolatli tarif natijasini bera olmaydi. Shu sababli, sug'urta kompaniyalarida ma'lumotlar bazasini standartlashtirish, yagona tasniflagichlardan foydalanish, zarar holatlari va obyekt parametrlari bo'yicha muntazam yangilanadigan elektron reyestrlarni yuritish zarur. Bundan tashqari, davlat organlari, kadastr tizimi, kommunal infratuzilma ma'lumotlari va boshqa tegishli bazalar bilan integratsiyani kuchaytirish tarif hisob-kitoblarining aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Tarif siyosatini raqamlashtirish jarayonida kiberxavfsizlik masalasi ham alohida e'tibor talab qiladi. Mol-mulk obyektlariga oid texnik, hududiy va iqtisodiy ma'lumotlar katta hajmda yig'ilishi ularni himoya qilishni strategik vazifaga aylantiradi. Ma'lumotlar sizib chiqishi, noqonuniy o'zgartirilishi yoki uchinchi shaxslar tomonidan foydalanilishi sug'urta kompaniyasining obro'siga zarar yetkazishi, mijozlarning ishonchini pasaytirishi va tarif hisob-kitoblarining ishonchligini izdan chiqarishi mumkin. Shu bois tarif siyosatining raqamli modelini yaratishda axborot xavfsizligi, ma'lumotlarni shifrlash, foydalanuvchi huquqlarini chegaralash va audit mexanizmlarini joriy etish zarur.

O'zbekiston sharoitida mol-mulk sug'urtasi tarif siyosatini raqamli transformatsiya qilish uchun muayyan institutsional asoslar mavjud. Mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, masofaviy identifikatsiya va onlayn to'lov tizimlarini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar sug'urta tizimida ham sifat jihatdan yangi yondashuvlarni shakllantirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, elektron polislar, onlayn murojaatlar, masofaviy da'vo ko'rib chiqish va raqamli servis platformalarining rivojlanishi tarif siyosatini ham zamonaviylashtirish uchun qulay muhit yaratadi. Shu bilan birga, mol-mulk sug'urtasida obyektlarni raqamli baholash va risklarni segmentatsiyalash bo'yicha amaliy modellarning yetarli darajada shakllanmaganligi ushbu yo'nalishda ilmiy-amaliy izlanishlarni kuchaytirishni talab etadi.

Raqamli transformatsiya asosida mol-mulk sug'urtasi tarif siyosatini takomillashtirish yo'nalishida quyidagi **amaliy takliflarni** ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, mol-mulk sug'urtasi bo'yicha **yagona raqamli risk ma'lumotlar bazasini** shakllantirish zarur. Ushbu bazada sug'urta obyektining turi, joylashuvi, texnik ko'rsatkichlari, oldingi zararlar tarixi, xavfsizlik vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi va boshqa parametrlar jamlanishi lozim. Bunday yondashuv tarif hisob-kitoblarining aniqligini oshiradi va kompaniyalar o'rtasida bir xillashgan metodik yondashuvni shakllantiradi.

Ikkinchidan, mol-mulk sug'urtasi uchun **raqamli risk skoring modeli** ishlab chiqilishi kerak. Mazkur model geolokatsiya, infratuzilma holati, hududiy xavf, mulkning texnik tavsifi va ekspluatatsiya sharoitlari asosida obyektning risk darajasini avtomatik baholash imkonini beradi. Natijada tariflar umumiy emas, balki risk darajasiga mos ravishda shakllantiriladi.

Uchinchidan, tarif siyosatini shakllantirishda **sun'iy intellekt asosida prognozlash modellarini** joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu modellar kelgusidagi zarar ehtimoli, zarar chastotasi va sug'urta summasining o'zgarishlarini oldindan aniqlashga yordam beradi. Bu esa, sug'urta kompaniyasining tarif siyosatini proaktiv va oldindan ogohlantiruvchi boshqaruv vositasiga aylantiradi.

To'rtinchidan, mijozlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida **tarifni izohlovchi raqamli modul** yaratish lozim. Bu modul polis rasmiylashtirilayotganda tarifga ta'sir etgan omillarni soddalashtirilgan ko'rinishda mijozga ko'rsatadi. Natijada, xizmatlar shaffofligi oshadi, mijoz

bilan kompaniya o'rtasidagi axborot nomutanosibligi kamayadi va iste'molchi huquqlari yanada ishonchli himoya qilinadi.

Beshinchidan, mol-mulk sug'urtasi tariflarini qayta ko'rib chiqishda **hududlar kesimida differensial tarif siyosatini** joriy qilish zarur. Chunki turli hududlarda tabiiy ofatlar, yong'in xavfi, ishlab chiqarish tavakkalchiligi yoki infratuzilma bilan bog'liq omillar turlicha namoyon bo'ladi. Hududiy ma'lumotlarga asoslangan tarif yondashuvi sug'urta narxlarining adolatli va iqtisodiy jihatdan asosli bo'lishini ta'minlaydi.

Oltinchidan, sug'urta kompaniyalarida tarif siyosati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun **raqamli aktuariy kompetensiyalarni rivojlantirish dasturi** joriy etilishi lozim. Chunki, texnologik platformalardan samarali foydalanish, ma'lumotlarni tahlil qilish va algoritmik yondashuvlarni baholash uchun yangi bilim va ko'nikmalar talab etiladi. Malakali kadrlar mavjud bo'lmasa, raqamli transformatsiya kutilgan natijani bermaydi.

Yettinchidan, raqamli tarif siyosati bo'yicha **me'yoriy-uslubiy standartlar** ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu standartlar tarif hisob-kitobida foydalaniladigan ma'lumotlar tarkibi, algoritmlarning izohlanish darajasi, iste'molchilarni xabardor qilish tartibi va ma'lumotlarni himoya qilish talablarini o'z ichiga olishi kerak. Bu esa, bozorda yagona qoidalar shakllanishiga va raqamli tariflash amaliyotining tartibli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya mol-mulk sug'urtasi tarif siyosatini takomillashtirishning nafaqat texnologik, balki iqtisodiy va institutsional asosi hisoblanadi. U tariflarni aniqroq, shaffofroq, moslashuvchanroq va adolatliroq shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli yondashuv sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, iste'molchilar ishonchini oshirish va sug'urta xizmatlari sifatini yaxshilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

## **RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIYAVIY RISKLAR**

### **SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH**

**Atabayev Shixnazar Xasanboy o'g'li**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

Bugungi kunda global iqtisodiy makonda yuz berayotgan texnologik o'zgarishlar moliya bozorining tuzilmasi va ishlash mexanizmlarini tubdan yangilamoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank, sug'urta, investitsiya va to'lov tizimlari faoliyatida yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, moliyaviy risklarning ko'lamini va murakkabligini ham oshirmoqda. Xususan, likvidlik riski, kredit riski, foiz riski, valyuta riski, investitsion risk, kibernetik xavf va operatsion xatarlarning o'zaro bog'liqligi kuchayib borayotgan sharoitda moliyaviy risklar sug'urtasini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

Moliyaviy risklar sug'urtasi iqtisodiy subyektlar faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kutilmagan moliyaviy yo'qotishlarni qoplash, ularning barqarorligini saqlash va biznes yuritish xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur sug'urta turi, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlari, eksport-import operatsiyalari, investitsiya loyihalari, kredit-moliya operatsiyalari hamda raqamli moliya platformalari faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Biroq an'anaviy sug'urta mexanizmlari ko'plab hollarda moliyaviy risklarning tez o'zgaruvchan tabiati, ma'lumotlar oqimining katta hajmi va real vaqt rejimidagi monitoring zarurati oldida yetarli samaradorlik bera olmayapti.

An'anaviy yondashuvda moliyaviy risklar sug'urtasini tashkil etish ko'pincha tarixiy ma'lumotlar, standart shartnomalar va umumlashtirilgan baholash mezonlariga tayanadi. Bunday tizimda risklarni aniqlash va tasniflashda subyektivlik, axborot yetishmasligi hamda bozor sharoitlaridagi tezkor o'zgarishlarga moslashuvchanlikning pastligi kuzatiladi. Natijada, sug'urta mahsulotlari real ehtiyojga to'liq mos kelmasligi, tariflar iqtisodiy jihatdan adolatli shakllanmasligi va da'volarni ko'rib chiqish jarayonlarida ortiqcha vaqt yo'qotilishi mumkin. Bu

esa, moliyaviy risklar sug'urtasining jozibadorligini pasaytiradi va undan foydalanish ko'lamini cheklaydi.

Raqamli transformatsiya ushbu muammolarni bartaraf etishning muhim vositasi sifatida maydonga chiqmoqda. Avvalo, raqamli texnologiyalar yordamida moliyaviy risklar bilan bog'liq ma'lumotlarni keng ko'lamda yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyati kengayadi. Katta hajmdagi ma'lumotlar tahlili asosida mijozlarning moliyaviy holati, to'lov intizomi, bozor tendensiyalari, shartnoma shartlarining bajarilish darajasi va potentsial yo'qotish ehtimoli aniqroq baholanadi. Bu esa, sug'urta kompaniyalariga risklarni chuqur segmentatsiya qilish, individual yondashuvni shakllantirish va yanada asosli sug'urta yechimlarini taklif etish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt asosidagi analitik modellar moliyaviy risklar sug'urtasida prognozlash samaradorligini oshiradi. Mazkur modellar tarixiy zararlar, moliyaviy ko'rsatkichlar, bozordagi o'zgarishlar va mijoz xatti-harakatlari o'rtasidagi yashirin bog'liqliklarni aniqlab, risk yuz berish ehtimolini oldindan baholashga yordam beradi. Bu jarayon sug'urta tashkilotiga nafaqat risk darajasini aniqroq baholash, balki xavfli segmentlar bo'yicha profilaktik choralarni ishlab chiqish imkonini ham beradi. Natijada, sug'urta faoliyatida reaktiv emas, balki proaktiv boshqaruv yondashuvi shakllanadi.

Moliyaviy risklar sug'urtasini rivojlantirishda onlayn sug'urta platformalarining o'rni ham katta. Bunday platformalar orqali sug'urta mahsulotlarini tezkor taqdim etish, shartnoma tuzish, to'lovlarni amalga oshirish va sug'urta hodisasi yuz berganda murojaatlarni masofadan qabul qilish mumkin. Bu esa, sug'urta xizmatlaridan foydalanish qulayligini oshiradi, operatsion xarajatlarni kamaytiradi va xizmat ko'rsatish tezligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari va raqamli iqtisodiyot ishtirokchilari uchun masofaviy sug'urta servislarining mavjudligi moliyaviy xavflardan himoyalanih imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli transformatsiya moliyaviy risklar sug'urtasida shaffoflikni kuchaytirish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari va raqamli hisobot platformalari sug'urta shartnomalarining bajarilishi, risk ko'rsatkichlari dinamikasi va da'volar harakati bo'yicha real vaqtga yaqin ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Bu esa, sug'urta kompaniyasi va mijoz o'rtasidagi axborot nomutanosibligini kamaytiradi, xizmatlarning ochiqqligini ta'minlaydi va iste'molchilar ishonchini mustahkamlaydi. Shaffoflikning ortishi esa, o'z navbatida, moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Alohida ta'kidlash joizki, raqamli transformatsiya moliyaviy risklar sug'urtasining faqat texnik tomoni bilan cheklanmaydi. U mazkur sug'urta turining metodologik va institutsional asoslarini ham qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Chunki, raqamli muhitda yuzaga kelayotgan yangi risklar, xususan kiberhujumlar, elektron firibgarlik, ma'lumotlar yo'qolishi, raqamli aktivlar bilan bog'liq tavakkalchiliklar an'anaviy sug'urta mahsulotlari doirasidan tashqariga chiqadi. Shu sababli, sug'urta kompaniyalari moliyaviy risklar sug'urtasida yangi mahsulot liniyalarini ishlab chiqishi, aralash risk-modellarni joriy etishi va insurtech yechimlari bilan integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarini yaratishi zarur.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonida ayrim cheklovlar ham mavjud. Jumladan, ma'lumotlar bazasining yetarli emasligi, turli tizimlar o'rtasida integratsiyaning sustligi, kiberxavfsizlik tahdidlari, texnologik infratuzilmaning notekis rivojlanganligi va malakali mutaxassislar yetishmasligi ushbu yo'nalishdagi asosiy muammolardan biridir. Bundan tashqari, sug'urta faoliyatida sun'iy intellekt va algoritmlardan foydalanishda adolatlilik, izohlanish va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish tamoyillariga qat'iy rioya etilishi lozim. Aks holda avtomatlashtirilgan qarorlar ayrim mijozlar guruhiga nisbatan noxolis yondashuvni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida moliyaviy risklar sug'urtasini rivojlantirish uchun raqamli transformatsiya keng imkoniyatlar yaratmoqda. Mamlakatda raqamli iqtisodiyot, elektron to'lovlar, onlayn bank xizmatlari, masofaviy identifikatsiya va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar sug'urta bozorida ham yangi mexanizmlarni joriy etish imkonini bermoqda. Xususan, kredit risklari, eksport operatsiyalari, to'lovga layoqatlilik bilan bog'liq tavakkalchiliklar, investitsion faoliyat va elektron tijorat

operatsiyalariga xizmat qiluvchi sug'urta mahsulotlarini raqamli platformalar bilan integratsiyalash maqsadga muvofiqdir. Bu, nafaqat sug'urta bozorining rivojlanishiga, balki iqtisodiy subyektlarning moliyaviy xavfsizligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida moliyaviy risklar sug'urtasini rivojlantirish yo'nalishida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi, moliyaviy risklar sug'urtasi bo'yicha raqamli risk-monitoring platformasini joriy etish zarur. Ushbu platforma mijozlarning moliyaviy ko'rsatkichlari, to'lov intizomi, shartnoma bajarilishi va bozor omillarini real vaqt rejimida kuzatib borish imkonini beradi. Natijada, risk yuzaga kelishidan oldin ogohlantirish va profilaktik choralarni ko'rish imkoniyati kengayadi.

Ikkinchi, sug'urta kompaniyalarida sun'iy intellekt asosidagi risk skoring tizimini ishlab chiqish lozim. Mazkur tizim mijozlarning moliyaviy ahvoli va faoliyat xususiyatidan kelib chiqib ularni risk darajasi bo'yicha tabaqalashtiradi. Bu esa, individual sug'urta mahsulotlari va asosli tarif siyosatini shakllantirishga yordam beradi.

Uchinchi, moliyaviy risklar sug'urtasi uchun onlayn polislashtirish va da'volarni masofadan boshqarish tizimini kengaytirish kerak. Bunda mijoz sug'urta shartnomasini elektron shaklda tuzishi, zarur ma'lumotlarni yuklashi va sug'urta hodisasi yuz berganda murojaatini tezkor yuborishi mumkin bo'ladi. Bu, xizmat sifati va bozor qamrovini oshiradi.

To'rtinchi, sug'urta kompaniyalari, banklar va boshqa moliyaviy institutlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi integratsiyasini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, moliyaviy risklarni to'g'ri baholash uchun ishonchli va yangilanib turuvchi ma'lumotlar bazasi muhim ahamiyatga ega. Integratsiyalashgan yondashuv risklarni aniqlash aniqligini oshiradi.

Beshinchi, moliyaviy risklar sug'urtasi bozorida raqamli savodxonlik va mutaxassislar kompetensiyasini oshirish dasturlarini joriy etish zarur. Chunki texnologik platformalar va analitik vositalardan samarali foydalanish uchun yangi turdagi bilim va ko'nikmalar talab etiladi. Bu esa, raqamli transformatsiyaning institutsional poydevorini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya sharoitida moliyaviy risklar sug'urtasini rivojlantirish sug'urta bozorining zamonaviy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar yordamida risklarni aniqroq baholash, sug'urta mahsulotlarini individuallashtirish, xizmat ko'rsatish tezligi va shaffofligini oshirish, shuningdek sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash mumkin. Shu bois, moliyaviy risklar sug'urtasini rivojlantirish strategiyasida raqamli transformatsiya ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Mazkur yondashuv nafaqat sug'urta sektorining raqobatbardoshligini oshiradi, balki iqtisodiyot subyektlari va aholining moliyaviy manfaatlarini yanada ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

## **БАНКЛАРДА МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ: ПОЛЬША ТАЖРИБАСИ**

**Холматов Азизжон Авазхон ўғли**  
Мустақил тадқиқотчи

Банкларнинг молиявий барқарорлигини таъминлашда халқаро стандартларни инобатга олиниши муҳим ҳисобланади. Бу борада, Европа Иттифоқининг қатор давлатларида етакчи тажрибаларнинг мавжудлигини кўриш мумкин. Масалан, Польша банк сектори ЕИ доирасида банк тизими минтақавий ва халқаро талабларига (Basel III, IFRS 9) мослашишда муваффақиятли юридик ва институционал ислохотларни амалга оширганлигини кузатиш мумкин. Шу билан бирга, кичик ва ўрта даражадаги банклар учун капитал етарлилигини таъминлаш бўйича хусусий капитални жалб қилиш стратегиясининг жорий этилиши айтиш мумкин.

Б.Влодарзик ва бошқалар биргаликда амалга оширган тадқиқотда Польшанинг молиявий бозори элементлари ва макроиқтисодий барқарорлик ўртасида узок муддатда

алоқадорлик мавжудлигини ёки йўқлигини аниқлашга эътибор қаратади. Уларнинг илмий хулосаларида банк тизимининг кўплаб кўрсаткичлари, масалан банк активлари, қарзлар ва бозор капитализацияси кабилар билан макроиктисодий кўрсаткичлар ўртасида узок муддатли ижобий боғлиқлик мавжуд эканлиги қайд этиб ўтилади. Шунингдек, банк активлари ўсиши билан ЯИМнинг ўсиши ўртасида боғлиқлик мавжудлигини кузатиш мумкинлиги таъкидлаб ўтилади<sup>250</sup>.

Т.Кнепка ўзининг илмий мақоласида Польша Миллий банкининг Молиявий барқарорлик қўмитаси (МБК)даги ролини таҳлил қилиб ўтади. МБК таркибига Польша Марказий банки (NBP), Польша Молиявий назорат органи (KNF), Банк кафолатлаш фонди (BFG) ва Молия вазирлиги (MF) киришини қайд этиш лозим. Марказий банкнинг вазифалари қаторида тизимли рискларни аниқлаш, макропруденциал чораларни амалга ошириш, молиявий инқирозли ҳолатларига жавоб чораларини тайёрлаш ва бошқа монетар сиёсат инструментларидан фойдаланиш кабилар киришини қайд этиб ўтиш лозим<sup>251</sup>.

М.Лупински томонидан тайёрланган илмий мақолада Польша банклари учун молиявий нобарқарорликни олдиндан аниқлаш ва унга қарши чоралар ишлаб чиқилишига қаратилган. Ушбу тадқиқотда катта банклар учун банкротлик эҳтимолини акс эттирадиган молиявий инқироз эрта сигналини шакллантиришга эътибор беради. Мазкур таҳлилда юқори самара бериши аниқланган кўрсаткичлар сифатида – банк кредити ўсиши, 10 йиллик ҳукумат облигациялари, қайтарилмаган кредитлар улуши ўсиши, қарзга хизмат кўрсатиш улуши, институтционал риск қиймати ва иқтисодий фаоллик индекси каби ҳолатлар назарда тутилади<sup>252</sup>.

Польша Марказий банки давлат бюджети харажатларининг ортиши ва инфляцион босимнинг сақланиб қолаётганлиги фонид асосий ставкани ўзгартирмасликни режасини маълум қилганлигини кўришимиз мумкин. Шу боисдан, макроиктисодий барқарорликни таъминлашда фискал ва монетар сиёсатнинг уйғунлигини амалга ошириш муҳимлиги қайд этилган. фискал экспансия сиёсати Марказий банкнинг қарор қабул қилишида айрим мураккабликларни яратиши мумкинлиги қайд этилмоқда. Шу боисдан, асосий ставкани ўзгаришсиз бўлишини таъминлаш асосида бозордаги нобарқарорликдан қочиш назарда тутилмоқда.

Умуман олганда, Польша тажрибаси асосида қуйидаги илмий хулосаларни шакллантиришга муваффақ бўлдик:

Биринчидан, банк тизимининг молиявий барқарорлигини таъминлашда макро пруденциал сиёсатни мувофиқлаштирувчи республика комиссиясини ташкил этиш. Унинг вазифалари қаторига илмий асосланган ислохотларни жорий этишни киритиш.

Иккинчидан, молиявий стрессларни олдиндан аниқлашга қаратилган макроиктисодий ва банк тизимининг кўрсаткичлари интеграцион тузилмаси моделини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш.

Учинчидан, Марказий банк фоиз сиёсатида бюджет харажатларини ҳисобга олган ҳолда мустақиллигини сақлаб қолишга эришиш. Шунингдек, бюджет харажатлари Марказий банкнинг монетар сиёсати билан мувофиқлашган ҳолда амалга оширишни татбиқ этиш кабиларга эътибор бериш муҳим ҳисобланади.

Умумий хулоса қилиб айтганда, банкларнинг молиявий барқарорлигини таъминлашда кенг камровли ёндашув долзарб ҳисобланади экан. банкларнинг молиявий кўрсаткичлари ликвидлик, капитал етарлилиги ва риск аппетитини тартибга солишга қаратилган институтционал ўзгаришларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

<sup>250</sup> Włodarczyk B. M., Heller J., Ostrowska A. Financial aspects of macroeconomic stability. The case of Poland //Annales Universitatis Mariae Curie-Skłodowska, sectio H–Oeconomia. – 2019. – Т. 52. – №. 6. – С. 129-140.

<sup>251</sup> Кнепка Т. The Role of the National Bank of Poland in the Financial Stability Committee //Torun Business Review. – 2020. – Т. 19. – №. 2. – С. 56-64.

<sup>252</sup> Łupiński M. Forecasting the instability of Polish banks//Argumenta Oeconomica. – 2022. – Т. 49. – №. 2.

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ БАНКОВ: ОПЫТ МАЛАЙЗИИ

Холматов Азизжон Авазхон угли  
Научный исследователь

Не будет преувеличением сказать, что обеспечение финансовой устойчивости банков является важным структурным элементом макроэкономической политики зарубежных стран. В настоящее время во многих странах реализация реформ с различных позиций приобретает все большее значение в обеспечении финансовой устойчивости банков. В этой связи целесообразно учитывать следующие направления.

Во-первых, развитие финансовых услуг банков при внедрении комбинированной платформы традиционных и исламских банковских услуг.

Во-вторых, обеспечение устойчивости институциональных преобразований в результате финансовой поддержки государства и финансовой политики.

В-третьих, достижение смягчения негативного влияния валютной и денежно-кредитной политики на банковскую систему в условиях геополитической нестабильности.

В-четвертых, гармонизация правовых, экономических и институциональных реформ при внедрении стандартов Базель III.

В-пятых, реализация мер, направленных на повышение финансовой грамотности населения и финансовых технологий против киберфинансового мошенничества.

Целесообразно развивать финансовые подходы по вышеуказанным направлениям и добиваться их отражения в банковской системе. На наш взгляд, важно изучить опыт некоторых стран по приоритетности вышеуказанных факторов в обеспечении финансовой устойчивости банков. Поэтому мы попытаемся проанализировать опыт некоторых азиатских и европейских стран, где эти направления были эффективно реализованы и дали положительные результаты.

В качестве первого шага в нашем исследовании мы сосредоточимся на изучении опыта Малайзии. Малайзия развивала традиционные и исламские банковские услуги, а также реализовала множество реформ после азиатского кризиса 1997-1998 годов. В настоящее время надзор за банковской системой в Малайзии осуществляет Bank Negara Malaysia, который реализует денежно-кредитную политику на основе модели надзора, основанной на рисках. Одной из самых заметных реформ, реализованных в период после азиатского кризиса, можно назвать успешность изменений, направленных на управление ликвидностью и диверсификацию капитала.

В совместном исследовании, проведенном Н. Каримом и соавторами, была проанализирована финансовая устойчивость 50 традиционных и исламских банков на основе стандартов Z-score и CAMEL. Они проанализировали финансовые показатели банков в 2004-2015 годах с точки зрения их устойчивости и эффективности с точки зрения проблемы неплатежеспособности и состояния финансовых показателей. Их выводы указывают на то, что различия между банками на основе Z-score незначительны, а уровень устойчивости схож. Также различия между банками более отчетливо видны при анализе капитала, активов, управления, доходов и ликвидности (CAMEL). В целом можно отметить, что уровень финансовой устойчивости между исламскими и традиционными банками различен [1].

Исследование, совместно проведенное М. Арифом и Ф. Шафтари, было направлено на оценку различий в финансовых показателях, качестве активов и стабильности между традиционными и исламскими банками в Малайзии. Оно использует базу данных, охватывающую 423 наблюдения с 2005 по 2015 год. В своих научных выводах отмечает, что маржа банка имеет большое значение. Также отмечается, что эффективность независимых исламских банков ниже, чем у традиционных банков, в то время как у банков, входящих в их состав, выше. Отмечается, что с точки зрения качества активов независимые

исламские банки ниже, чем у традиционных банков, и такие же, как у добровольных исламских банков [2].

Н. Низар и др. совместно исследовали влияние кредитов населению (ипотечных, потребительских) на финансовую устойчивость банков на примере 37 коммерческих банков Малайзии в период 2008–2015 гг. Установлено, что ипотечные и потребительские кредиты оказывают отрицательное влияние на устойчивость банков. В целом отмечается, что рост долговой нагрузки населения оказывает отрицательное влияние на устойчивость банков. На основании этого предлагается анализировать долговую нагрузку населения [3].

В целом за последние 20 лет в банковской системе Малайзии был реализован ряд реформ, в результате которых можно отметить положительные результаты в обеспечении финансовой устойчивости банков. Сегодня можно увидеть, что показатели, обуславливающие финансовую устойчивость малайзийских банков, приобретают положительный характер.

No	Банки	Рыночная капитализация (млрд ринггитов)	Цена D-1	P/E	Общая доходность YTD (%)	Выручка T12M (млрд ринггитов)	EPS T12M (MYR)
1	Malayan Banking Bhd	105.84	8.78	12.83	0.92	33.0	0.68
2	Public Bank Bhd	83.47	4.3	14.42	-0.46	19.07	0.3
3	CIMB Group Holdings Bhd	61.11	5.73	11.78	-1.21	24.99	0.48
4	Hong Leong Bank Bhd	44.09	20.34	12.27	-1.07	7.92	1.67
5	RHB Bank Bhd	24.08	5.67	9.17	-2.07	10.65	0.62
6	Hong Leong Financial Group Bhd	21.07	18.4	8.44	-1.08	8.65	2.2
7	Ambank Holding Bhd	13.57	4.1	7.65	-0.97	6.4	0.5
8	Alliance Bank Malaysia Bhd	5.65	3.65	9.03	-0.54	2.59	0.4
9	Bank Islam Malaysia Bhd	5.58	2.59	10.1	-1.3	3.01	0.26
10	Affin Bank Bhd	4.59	2.02	14.92	-0.49	3.15	0.64

**Таблица 1**  
**Информация о финансовых показателях малайзийских банков [4]**

В целом, из опыта банковской системы Малайзии, направленного на обеспечение финансовой стабильности, можно сделать следующие выводы:

Во-первых, обратить внимание на повышение финансовой независимости каждого банка в управлении своим риск-профилем на основе метода ICAAP (Internal Capital Adequacy Assessment Process).

Во-вторых, ввести динамический буфер капитала (Countercyclical Capital Buffer). Это предполагает формирование резервного капитала против роста аппетита к риску акционерами и органами управления банка. При этом целесообразно определить, что резерв капитала при формировании динамического буфера составит около 1 процента, когда рост активов, взвешенных по риску, превысит 20 процентов.

В-третьих, сформировать прозрачную базу данных по таким показателям, как коэффициент чистого стабильного фондирования и коэффициент покрытия ликвидности. Важно разработать меры по раскрытию их отчетов широкой общественности.

#### **Список использованной литературы**

5. Karim N. A. et al. Measuring bank stability: a comparative analysis between Islamic and conventional banks in Malaysia //Proceedings of the 2nd Advances in Business Research International Conference: ABRIC2016. – Springer Singapore, 2018. – С. 169-177.

6. Ariff M., Shawtari F. A. Efficiency, asset quality and stability of the banking sector in Malaysia //Malaysian Journal of Economic Studies. – 2019. – Т. 56. – №. 1. – С. 107-137.

7. Nizar N., Karim Z. A. The relationship between household credit and banking stability in Malaysia: Panel evidence //Gadjah Mada International Journal of Business. – 2021. – Т. 23. – №. 2. – С. 155-172.

8. Better prospects for the banking industry in 2023. <https://themalaysianreserve.com/2023/01/10/better-prospects-for-the-banking-industry-in-2023/>

## **BANKLARNING INVESTITSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

**Nazarov Aziz Avazovich**  
TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Ta'kidlash joiz, bugungi kunda banklar orqali investitsion loyihalarni moliyalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga kredit mablag'lari ajratish orqali iqtisodiyotda investitsion jarayonlarni rag'batlantirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, tijorat banklari mamlakatning umumiy barqarorligida sezilarli hissa qo'shuvchi moliyaviy institutlardan biridir. Banklarning loyihalarni moliyalashtirish faoliyati yildan-yilga takomillashib borar ekan, raqamli texnologiyalar rivojlanishi va yangidan-yangi innovatsiyalar joriy qilinishi fonida investitsion kreditlar ajratish jarayonlarida ham ijobiy o'zgarishlarni namoyon qilmoqda.

Darhaqiqat, investitsion loyihalar mamalakatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda katta ahamiyatga ega. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kreditlash tizimi asosiy yo'nalishlardan hisoblanib, u iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi. Quyida investitsion loyihalarni moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqishimiz mumkin:

- Tijorat kreditlari hisobidan moliyalashtirish. Bunda banklar va moliya institutlari tomonidan taqdim etiladigan kreditlar hisobidan moliyalash nazarda tutilib, ushbu kreditlar investitsion loyihalarning dastlabki bosqichlarida, ayniqsa, loyiha ishlab chiqish jarayonida keng qo'llaniladi. Ularning shartlari, foizi va muddatlari loyihaning risk darajasi va moliyaviy holatiga bog'liq.

- Biznes g'oyalari uchun grantlar ajratish. Bunda davlat va xususiy tashkilotlar tomonidan beriladigan grantlar investitsion loyihalarni moliyalashtirishda muhim resurs hisoblanadi. Ushbu grantlar ko'p hollarda, ijtimoiy va ekologik ahamiyatga ega loyihalar uchun ajratiladi. Ular moliyaviy yuklarni kamaytirib, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

-Lizing operatsiyalari orqali moliyalash. Lizing operatsiyalari investitsiya loyihalarni moliyalashtirishda keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda lizing beruvchi kompaniya loyiha uchun zarur bo'lgan uskunalarni moliyalashtiradi va foydalanuvchi tomonidan

belgilangan muddat davomida foydalanishga beriladi. Buning afzalligi shundaki, naqd pul oqimi saqlanadi va uskunalarning egasi bo'lish shart emas.

-Kapitalning jamlanishi. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda kapital to'plash usuli keng tarqalgan. Bu jarayon investorlar yoki aksiyadorlardan mablag'larni jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Kapitalning jamlanishi loyihaning moliyaviy barqarorligini oshiradi va investorlar uchun foyda olish imkonini yaratadi.

-Obligatsiyalar chiqarish orqali moliyalash. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bondlar chiqarish usuli ham keng qo'llaniladi. Bu jarayonda kompaniyalar yoki tashkilotlar o'zlarining moliyaviy resurslarini jalb qilish maqsadida bondlar chiqaradilar. Investorlar ushbu bondlarni xarid qilib, kelajakda belgilangan foizlar bilan pul olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mamlakatlarda uzoq muddatli investitsiya loyihalariga kreditlar ajratish loyiha naqd oqimlarining barqarorligini nazorat qilish va qarzdorning qarzlarni to'lashdagi moliyaviy intizomini oshirish uchun qo'shimcha moliyaviy instrumentlarni talab qiladi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsion loyihalar asosida faoliyat yurituvchi korxonalar bank kreditlariga talabi yuqori bo'lib, mazkur jarayonlarni rivojlantirish orqali jamiyatda aholi turmush darajasini yaxshilash, aholi bandligi va iqtisodiy faolligini oshirish kabi muammolarni hal qilishga erishish mumkin bo'ladi.

Investitsiya loyihalarni moliyalashtirish yo'nalishlarida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, jumladan Rybin va boshqalar<sup>253</sup> tomonidan Kreditlash orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotida mualliflar markazlashgan reja iqtisodiyoti sharoitida investitsiya jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun bank kreditlarining rolini kuchaytirish zarurligini asoslab beradilar. Asosiy natijalar shundan iboratki, budget mablag'lari bilan bir qatorda kredit mexanizmlaridan kengroq foydalanish orqali kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirish, korxonalar moliyaviy intizomini mustahkamlash va investitsion resurslardan maqsadli va oqilona foydalanishni rag'batlantirish mumkin.

Svitlana Naumenkova va boshqalar<sup>254</sup> tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonlarida banklarning kredit risklarini baholash va kamaytirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada moliyaviy koventlar (DSCR, ICR, LLCR kabi ko'rsatkichlar) orqali qarz oluvchining moliyaviy barqarorligini nazorat qilish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotga ko'ra, banklar investitsion loyihalarni kreditlashda nafaqat foiz stavkalarini o'rnatishi, balki moliyaviy ko'rsatkichlarning ma'lum chegaralarini (covenants) ham talab qilishi kerak. Ushbu ko'rsatkichlar loyiha bo'yicha qarzni o'z vaqtida qoplash uchun pul oqimlarini yetarliligini baholaydi risklarni kamaytiradi.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan D.G'ozibekov<sup>255</sup> investitsiya loyihalari borasida quyidagicha fikr bildirgan: "investitsiya loyahasiga muayyan ishlab chiqarish quvvatlariga kelajakda alohida turdagi samaralar keltirishi zarur bo'lgan, aniq belgilangan tadbirlar yo'li bilan resurslarni investitsiyalash bo'yicha takliflar to'plami tarzida ta'rif berish mumkin".

Shuningdek, investitsiya loyihalarini banklar tomonidan uzoq muddatli kreditlash riskini kamaytirish maqsadida kredit, uni qaytarish shakli, qarz oluvchi, biznes-reja mazmuni, shartnoma hujjatlari tarkibi, loyihaning samaradorligini baholashni tashkil etish, funktsional vazifalarini ajratish, huquqiy qo'llab-quvvatlash va hokazolarni ta'minlash uchun talablar majmui bilan mos kelishi kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotining xususiyatlarini inobatga olgan holda investitsion loyihalarni moliyalashtirishning samarali usullarini joriy etish, investitsion faoliyatda loyihaviy risklarni imkon darajasida pasaytirish, investitsion risklarni

---

<sup>253</sup> Rybin, V., & Khachaturian, A. (1980). Improving the Credit Financing of Capital Investments. *Problems in Economics*, 23(7), 45–60. <https://doi.org/10.2753/PET1061-1991230745>

<sup>254</sup> Malakh, S.A., Servakh, V.V. (2024). The Problem of Planning Investment Projects with Lending. In: Eremeev, A., Khachay, M., Kochetov, Y., Mazalov, V., Pardalos, P. (eds) *Mathematical Optimization Theory and Operations Research. MOTOR 2024. Lecture Notes in Computer Science*, vol 14766. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-031-62792-7\\_13](https://doi.org/10.1007/978-3-031-62792-7_13)

<sup>255</sup> G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: «Moliya», 2003. – B. 67-68.

samarali boshqarish, yirik investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirishni tashkil etish moliya-bank sohasining muhim vazifalaridan biridir. Moliyalash yo'nalishini to'g'ri tanlanishi va qo'llanilishi investitsion loyihalarining muvaffaqiyatini ta'minlaydi va iqtisodiy barqarorlikni oshiradi. Shuningdek, investitsion loyihalarni amalga oshirishda yanada innovatsion yondashuvlarni va zamonaviy metodologiyalarni joriy etish, iqtisodiy barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

## MAIN DIRECTIONS OF LENDING IN FINANCING INVESTMENT PROJECTS

Independent Researcher of TSUE  
**Nazarov Aziz Avazovich**

It is commonly acknowledged that investment activity is one of the primary forces behind both technological advancement and sustainable economic growth. Financial institutions, especially commercial banks, frequently supply the substantial financial resources needed to carry out large investment projects. By converting deposits and other financial resources into investment loans for businesses and infrastructure projects, banks play a crucial role in distributing financial capital to productive sectors.

Lending mechanisms are crucial instruments in today's economy that promote the growth of infrastructure, industries, and innovation. Both developed and developing nations can boost economic growth and investment activity through effective bank lending policies. Financial research indicates that by facilitating the execution of large-scale projects and enhancing capital allocation, investment lending promotes economic growth.

Investment project financing refers to the process of providing financial resources for projects that aim to create new assets, expand production capacity, or develop infrastructure facilities. These projects usually require long-term financing and involve complex financial structures that combine loans, equity investments, and other financial instruments<sup>256</sup>.

One of the most important characteristics of investment project financing is that repayment is often based on the expected future cash flows generated by the project itself. This method sets project financing apart from conventional corporate lending, where the main source of repayment is the borrower's balance sheet. Therefore, before funding investment projects, financial institutions carry out thorough feasibility studies and risk assessments.

Research in financial intermediation also emphasizes that banks play a significant role in reducing information asymmetry between investors and borrowers. By conducting financial analysis and monitoring project performance, banks contribute to improving the efficiency of investment resource allocation within the economy<sup>257</sup>.

There are some main directions of lending in financing investment projects. They are: corporate investment lending which commercial banks provide long-term loans directly to companies for the purpose of expanding production capacity, purchasing modern equipment, or implementing technological innovations; project financing which the financing is structured primarily on the basis of the project's expected cash flows rather than the overall financial strength of the borrowing company; syndicated lending, that commercial banks provide long-term loans directly to companies for the purpose of expanding production capacity, purchasing modern equipment, or implementing technological innovations; syndicated lending, where multiple banks jointly provide financing to a single borrower. In this model, government agencies collaborate with financial institutions and private investors to fund public service projects like energy systems, healthcare facilities, and transportation infrastructure.

---

<sup>256</sup> Gatti, S. (2013). *Project Finance in Theory and Practice*. Academic Press. <https://doi.org/10.1016/B978-0-12-391058-5.00001-1>

<sup>257</sup> Aristei, D., & Gallo, M. (2016). Law and project finance. *Journal of Financial Intermediation*, 25, 154–177. <https://doi.org/10.1016/j.jfi.2014.01.001>

Investment project financing is associated with various financial risks, including credit risk, market risk, operational risk, and political risk. These risks may affect the successful implementation of projects and the repayment of loans provided by financial institutions. Therefore, banks use advanced risk assessment models and financial analysis techniques to evaluate potential investment projects before approving loans<sup>258</sup>.

Modern banking practices increasingly incorporate digital technologies and data analytics to improve credit risk assessment. Advanced financial modeling and risk monitoring systems allow banks to identify potential problems at early stages and ensure the sustainability of investment financing operations<sup>259</sup>.

In conclusion, one of the most crucial methods for funding investment projects and promoting economic growth is still bank lending. The primary lending avenues utilized in contemporary financial systems are corporate investment lending, project financing, syndicated loans, and public-private partnership financing.

Each of these financing mechanisms contributes to improving access to financial resources for investment projects and supports the implementation of large-scale economic initiatives. At the same time, effective risk management and financial analysis remain essential factors for ensuring the success of investment lending activities. Strengthening cooperation between financial institutions, governments, and private investors will further increase the effectiveness of investment project financing and contribute to sustainable economic growth.

## **RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi**  
**Tashkent International University tayanch doktoranti**  
[maftuna.r999@gmail.com](mailto:maftuna.r999@gmail.com)

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi moliya sektorida, xususan bank tizimida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli iqtisodiyot bank xizmatlarini avtomatlashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish hamda risklarni samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bank faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli kredit risklarini samarali boshqarish bank tizimining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi kredit riskini banklar duch keladigan asosiy risklardan biri sifatida e‘tirof etadi. Kredit risklarini samarali boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston–2030” strategiyasida mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish hamda bank-moliya tizimini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, strategiyada bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard

---

<sup>258</sup> Sorge, M. Liu, Y., & Zhang, X. (2023). The effectiveness of lending facilities in China: Evidence from bank lending. *China Economic Quarterly International*, 3(1). <https://doi.org/10.1016/j.ceqi.2023.02.001> (2018). Determinants of bank loan spread in project finance. *International Journal of Managing Projects in Business*, 12(1), 161–186. <https://doi.org/10.1108/IJMPB-12-2017-0154>

<sup>259</sup> Gatti, S. (2013). *Project Finance in Theory and Practice*. Academic Press. <https://doi.org/10.1016/B978-0-12-391058-5.00001-1>

AQSh dollariga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish, shuningdek bank tizimiga xalqaro tan olingan standart va talablarni joriy etish orqali prudensial me'yorlar hamda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan<sup>260</sup>.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish jarayonida banklarning kredit portfeli hajmi ortib boradi va bu kredit risklarini samarali boshqarishni talab qiladi. Shu sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida banklar kredit risklarini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish imkoniyatini yaratib, kredit oluvchilarning to'lov qobiliyatini aniqroq baholashga yordam beradi.

Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, kredit riskini baholashda muqobil ma'lumotlardan foydalanish (mobil to'lovlar, telefon faolligi, onlayn tranzaksiyalar va boshqa raqamli izlar) banklarga kredit tarixiga ega bo'lmagan mijozlarning ham kredit qobiliyatini baholash imkonini beradi. Bu esa moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt asosidagi kredit baholash tizimlari quyidagi afzalliklarga ega:

- ✚ katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish;
- ✚ kredit riskini prognoz qilish aniqligini oshirish;
- ✚ kredit berish jarayonini avtomatlashtirish;
- ✚ firibgarlik operatsiyalarini aniqlash imkoniyatini kuchaytirish.

Tadqiqotlarga ko'ra, sun'iy intellekt asosidagi risk tahlil tizimlari kredit riskini baholash jarayonini avtomatlashtirib, real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, raqamli kredit platformalari banklarga kredit portfelini monitoring qilish va risklarni boshqarishni yanada samarali tashkil etish imkonini yaratadi. Fintex platformalarida kredit riskini baholash uchun big data va mashinaviy o'qitish algoritmlaridan foydalanish kredit oluvchilarning moliyaviy xulq-atvorini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Jahon banking Global Findex ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilga kelib dunyo bo'yicha kattalar aholining 76 foizi moliyaviy hisob raqamiga ega bo'lgan, bu ko'rsatkich 2011-yilda 51 foizni tashkil etgan. Bu esa raqamli moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi<sup>261</sup>.

Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi kredit xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, moliyaviy inklyuziya darajasini oshirmoqda. Raqamli kredit platformalari orqali kredit olish jarayonining soddalashtirilishi bank kreditlash hajmining oshishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, Jahon banki

<sup>260</sup> "O'zbekiston 2030" Strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

<sup>261</sup>World Bank. Global Findex Database – Financial Inclusion and Digital Payments.<https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex>

tahlillariga ko'ra, so'nggi o'n yillikda raqamli kreditlash bozori sezilarli darajada kengaygan. 2019-yilga kelib fintech va yirik texnologik kompaniyalar tomonidan berilgan kreditlar hajmi 800 milliard AQSh dollariga yetgan. Prognozlariga ko'ra, 2030-yilga borib global fintech kreditlash bozori hajmi 4,9 trillion AQSh dollariga yetishi mumkin<sup>262</sup>.

Raqamli kreditlash tizimlarida sun'iy intellekt va big data texnologiyalaridan foydalanish kredit riskini aniqlash aniqligini sezilarli darajada oshiradi. SI tizimlari kredit oluvchilarning moliyaviy xatti-harakatlarini tahlil qilib, kredit riskini real vaqt rejimida baholash imkonini beradi.

Biroq Jahon banki mutaxassislari raqamli kreditlash tizimlari bilan bog'liq ayrim risklar ham mavjudligini ta'kidlaydi. Jumladan:

- ✚ ma'lumotlar maxfiyligi bilan bog'liq muammolar;
- ✚ algoritmik xatoliklar;
- ✚ kredit qarorlarida shaffoflik yetishmasligi.

Shu sababli bank tizimida sun'iy intellektdan foydalanishda risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va samarali nazorat tizimini joriy etish muhim hisoblanadi.

### **Xulosa**

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida kredit risklarini samarali boshqarish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Kreditlash hajmining ortib borishi banklar faoliyatida risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirishni talab qiladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va big data texnologiyalarining rivojlanishi kredit risklarini baholash va monitoring qilish jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

✚ tijorat banklarida kredit risklarini baholash jarayonida sun'iy intellekt va big data texnologiyalaridan keng foydalanish orqali kredit oluvchilarning to'lov qobiliyatini yanada aniq baholash;

✚ kredit portfelini monitoring qilish jarayonini raqamli platformalar orqali avtomatlashtirish hamda real vaqt rejimida risklarni nazorat qilish tizimini joriy etish;

✚ banklarda muqobil ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan kredit scoring tizimlarini rivojlantirish orqali kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish;

✚ raqamli kreditlash tizimlarida ma'lumotlar xavfsizligi va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish, kredit

---

<sup>262</sup> <https://www.alliedmarketresearch.com/fintech-lending-market-A14263>

portfelining sifatini yaxshilash hamda bank tizimining raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois zamonaviy raqamli texnologiyalarni bank faoliyatiga keng joriy etish kredit risklarini samarali boshqarishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "O'zbekiston 2030" Strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
2. Sun, G., Li, T., Su, Y., & Shi, D. (2024). Digital Economy, Institutional Environment, and the Credit Risks of Commercial Banks. *Emerging Markets Finance and Trade*, 60(4), 650–662.
3. Mishkin F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson Education, 2018.
4. Saunders A., Cornett M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. McGraw-Hill, 2019.
5. World Bank. The Use of Alternative Data in Credit Risk Assessment. <https://documents.worldbank.org>
6. World Bank. Global Findex Database – Financial Inclusion and Digital Payments. <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex>
7. Markaziy bank sayti- [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

## **RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSURTECH TEXNOLOGIYALARINING AFZALLIKLARI**

**PhD Xakimzoda Maftuna Yusuf qizi**  
Tashkent International University doktoranti  
[akhmedovvas@gmail.com](mailto:akhmedovvas@gmail.com)

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi moliya sektorining barcha tarmoqlarida, jumladan sug'urta sohasida ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida sug'urta xizmatlarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish va risklarni yanada aniq baholash imkoniyatlari kengaymoqda.

Sug'urta sektorida innovatsion texnologiyalarni qo'llash jarayoni **Insurtech (Insurance + Technology)** tushunchasi bilan ifodalanadi. Insurtech texnologiyalari sug'urta mahsulotlarini yaratish, sotish va boshqarish jarayonlarini raqamlashtirishga xizmat qiladi [1]. So'nggi yillarda jahon sug'urta bozorida raqamli texnologiyalar asosida xizmatlar ko'rsatish keng rivojlanmoqda. Internet platformalari, mobil ilovalar hamda sun'iy intellektga asoslangan tizimlar sug'urta xizmatlarini tez, qulay va samarali shaklda tashkil etish imkonini bermoqda [2].

Insurtech texnologiyalari sug'urta xizmatlarini modernizatsiya qilishda muhim omil hisoblanadi. Ularning joriy etilishi sug'urta kompaniyalariga operatsion xarajatlarni kamaytirish, xizmat ko'rsatish tezligini oshirish va mijozlar ehtiyojlariga mos mahsulotlar yaratish imkonini beradi. Bugungi kunda Insurtech quyidagi asosiy texnologik yo'nalishlar asosida rivojlanmoqda:

• **Sun'iy intellekt (AI)** – risklarni baholash, firibgarlik holatlarini aniqlash va sug'urta mukofotlarini hisoblash jarayonlarini avtomatlashtiradi [4].

- **Big Data texnologiyalari** – katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali mijozlar xatti-harakatlarini aniqlashga yordam beradi.

- **Blokcheyn texnologiyasi** – sug’urta shartnomalarini shaffof va xavfsiz yuritish imkonini yaratadi.

- **IoT (Internet of Things)** – real vaqt rejimida risklarni monitoring qilish imkonini beradi.

Jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki, Insurtech texnologiyalarining rivojlanishi natijasida global sug’urta bozorida raqamli xizmatlar ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Allied Market Research ma’lumotlariga ko’ra, global Insurtech bozori hajmi kelgusi yillarda sezilarli darajada o’sishi prognoz qilinmoqda [3]. O’zbekiston sharoitida ham sug’urta xizmatlarini raqamlashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Sug’urta kompaniyalari tomonidan onlayn polislarini rasmiylashtirish, mobil ilovalar orqali xizmat ko’rsatish va elektron to’lov tizimlaridan foydalanish amaliyoti kengayib bormoqda [1].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya sektorining barcha tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, sug’urta sohasida zamonaviy raqamli yechimlardan foydalanish xizmatlar sifatini oshirish, operatsion jarayonlarni optimallashtirish hamda risklarni boshqarish samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. So’nggi yillarda sug’urta sohasida Insurtech texnologiyalari keng qo’llanila boshladi. Ushbu texnologiyalar sug’urta xizmatlarini raqamlashtirish, mijozlarga xizmat ko’rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda risklarni tahlil qilish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Natijada sug’urta kompaniyalari xizmatlarni tezroq, shaffofroq va mijozlar ehtiyojlariga mos shaklda taqdim etish imkoniyatiga ega bo’lmoqda. Insurtech texnologiyalarining rivojlanishi sug’urta xizmatlarining yangi bosqichga ko’tarilishiga olib kelib, moliya bozorida raqobatbardoshlikni oshirish hamda mijozlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

#### 1-jadval

#### Insurtech texnologiyalarining sug’urta sohasidagi asosiy afzalliklari

Texnologiya	Qo’llanish sohasi	Afzalligi
Sun’iy intellekt	Risklarni baholash	Qaror qabul qilish tezligini oshiradi
Big Data	Mijoz ma’lumotlarini tahlil qilish	Individual sug’urta mahsulotlari yaratadi
Blokcheyn	Sug’urta shartnomalari	Shaffoflik va xavfsizlikni ta’minlaydi
IoT	Risk monitoringi	Real vaqt nazoratini ta’minlaydi
Mobil texnologiyalar	Onlayn polis rasmiylashtirish	Xizmat ko’rsatishni tezlashtiradi

Sug’urta sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish sug’urta kompaniyalarining faoliyatini sezilarli darajada samarali tashkil etish imkonini beradi. Zamonaviy Insurtech texnologiyalari sug’urta jarayonining deyarli barcha bosqichlarini qamrab oladi: risklarni baholash, mijoz ma’lumotlarini tahlil qilish, sug’urta shartnomalarini rasmiylashtirish hamda monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish. Jadvalda keltirilganidek, sug’urta sohasida turli xil texnologiyalar qo’llanilmoqda. Jumladan, **sun’iy intellekt texnologiyalari** risklarni baholash jarayonini tezlashtirish va aniqroq qaror qabul qilish imkonini beradi. Ushbu texnologiya yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali mijozlarning risk darajasi aniqlanadi va sug’urta mukofotlari individual tarzda belgilanishi mumkin.

Shuningdek, **Big Data texnologiyalari** sug’urta kompaniyalariga mijozlar xatti-harakatlari, ehtiyojlari va moliyaviy imkoniyatlari haqida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa sug’urta mahsulotlarini yanada moslashuvchan va individual shaklda ishlab chiqishga yordam beradi. **Blokcheyn texnologiyasi** esa sug’urta shartnomalarini shaffof va xavfsiz yuritishda muhim rol o’ynaydi. Mazkur texnologiya yordamida ma’lumotlarning o’zgarishligi ta’minlanadi va firibgarlik ehtimoli sezilarli darajada kamayadi.

Bundan tashqari, **IoT texnologiyalari** real vaqt rejimida risklarni monitoring qilish imkonini yaratadi. Masalan, avtomobillarga o'rnatilgan telematik qurilmalar yordamida haydovchining harakat uslubi tahlil qilinishi va shunga mos ravishda sug'urta mukofoti qayta hisoblanishi mumkin. Sug'urta xizmatlarini raqamlashtirishda **mobil texnologiyalar** ham muhim o'rin tutadi. Mobil ilovalar orqali mijozlar sug'urta polislarini onlayn rasmiylashtirishi, to'lovlarni amalga oshirishi hamda sug'urta xizmatlaridan tez va qulay foydalanishi mumkin. Bu esa sug'urta kompaniyalarining xizmat ko'rsatish tezligini oshirish bilan birga mijozlar uchun qulaylik yaratadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida Insurtech texnologiyalarining joriy etilishi sug'urta sektorining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar sug'urta xizmatlarini avtomatlashtirish, risklarni aniq baholash hamda mijozlarga tez va qulay xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Sun'iy intellekt, Big Data, blokcheyn, IoT va mobil texnologiyalar kabi innovatsion yechimlar sug'urta kompaniyalarining operatsion samaradorligini oshirishga, xizmatlar sifatini yaxshilashga hamda moliya bozorida raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli kelgusida sug'urta sektorida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, IT infratuzilmasini rivojlantirish hamda Insurtech innovatsiyalarini qo'llab-quvvatlash sug'urta bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida Insurtech texnologiyalarining joriy etilishi sug'urta sektorining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar sug'urta xizmatlarini avtomatlashtirish, risklarni yanada aniq baholash hamda mijozlarga qulay xizmat ko'rsatish imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Insurtech texnologiyalarini rivojlantirish sug'urta bozorining raqobatbardoshligini oshiradi va moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Shu sababli kelgusida sug'urta sektorida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rashidov U.O. O'zbekiston sug'urta bozoriga zamonaviy Insurtech texnologiyalarni joriy qilish yo'nalishlari.
2. IMF (2024). Financial Access Survey: Insurance Indicators.
3. Allied Market Research (2024). Insurtech Market Analysis and Forecast.
4. Thakor P. (2020). Artificial Intelligence in Insurance: From Risk Assessment to Fraud Detection. International Journal of Data Science and Analytics.

## **ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A DRIVER OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS THROUGH INSURANCE INNOVATION**

**D.Omonova**

Tashkent International University  
Email: [d.d.omonova96@gmail.com](mailto:d.d.omonova96@gmail.com)

Artificial intelligence (AI) stands at the forefront of technological advancements, with the potential to significantly drive the achievement of the United Nations Sustainable Development Goals (SDGs). By harnessing AI's capabilities, particularly within the insurance sector, organizations can foster innovative solutions to pressing socio-economic challenges, such as climate change and inequality. Insurance companies are increasingly adopting AI technologies to enhance their operational efficiency and service delivery, transforming traditional practices into data-driven processes that advocate for sustainability (Julio César Prado A et al., 2024). Furthermore, the integration of AI in insurance can catalyze improved decision-making and risk management strategies, ultimately contributing to the broader objectives of sustainable development and poverty alleviation (Fathallah B et al., 2025). Visual representations, such as, further illustrate the interconnectedness of insurance and the SDGs, underscoring the industry's role in advancing global sustainability efforts.

The integration of artificial intelligence (AI) into the insurance industry has a profound impact on advancing the Sustainable Development Goals (SDGs), reshaping not only operational efficiencies but also contributing to societal and environmental objectives. AI facilitates data-driven decision-

making, enabling insurance companies to identify risk patterns and tailor their services to promote greater accessibility and financial inclusion, thereby aligning with goals such as reducing inequality and promoting sustainable economic growth. According to recent studies, the adoption of AI technologies enhances the sustainability of insurance practices, offering strategic frameworks for innovation that respond effectively to the ethical dimensions of AI deployment in society (Julio César Prado A et al., 2024). Furthermore, AI initiatives play a crucial role in maximizing the economic benefits while minimizing environmental risks, underscoring their importance in the pursuit of the SDGs (Dirting et al., 2024). The visual representation of the SDGs in the context of insurance innovation further illustrates this connection, highlighting the industry's pivotal role in driving sustainable practices.

The integration of artificial intelligence (AI) into the insurance industry has catalyzed significant innovation, reshaping how policies are developed and managed. AI technologies enable companies to analyze vast datasets rapidly, enhancing risk assessment and pricing methodologies that are crucial for efficient service delivery. This innovation not only streamlines operations but also aligns with sustainable development goals by promoting financial inclusion and accessibility through tailored insurance solutions. As highlighted in recent studies, the ability of AI to transform data-intensive processes represents a strategic advantage for insurers, ensuring their competitiveness in a rapidly evolving market (Julio César Prado A et al., 2024). Moreover, addressing the regulatory environment surrounding AI, such as the implications of the EU AI Act, is essential for fostering safe and responsible AI deployment (Sloan J et al., 2024). Thus, AI stands as a pivotal element in driving both innovation and sustainability within the insurance sector, as illustrated by the visual representation of its impact on the Sustainable Development Goals.

The implementation of AI technologies within the insurance sector plays a pivotal role in enhancing risk assessment, customizing insurance products, and streamlining operational efficiency. By leveraging advanced algorithms and machine learning, insurers can analyze extensive datasets more accurately, thereby improving their risk evaluations and pricing strategies. This shift not only enables the development of personalized insurance products that cater to individual needs but also facilitates the automation of claims processing and underwriting, enhancing overall service delivery and reducing costs. As noted in recent studies, these innovations are crucial for fostering sustainable operational models in the industry, advocating for the ethical use of data, and ultimately supporting the wider objectives of sustainable development (cite7; cite8). Furthermore, the integration of AI contributes to transparency in risk evaluation, aligning insurance practices with the global commitment towards sustainable, ethical business strategies, as illustrated in.

The integration of AI-driven innovations within the insurance sector holds significant potential for advancing the Sustainable Development Goals (SDGs). By harnessing the efficiency and analytical capabilities of artificial intelligence, insurance companies can streamline operations, thereby enhancing their service delivery and accessibility. This transformation not only responds to pressing market needs but also plays a critical role in promoting social equity and environmental sustainability. For instance, the adoption of AI helps insurers better assess risks and tailor products, which can lead to more inclusive coverage options for underserved populations, contributing to reduced inequalities. Furthermore, as identified in studies, AI enables companies to transform resource-intensive processes into streamlined operations, enhancing long-term sustainability through innovative frameworks (Julio César Prado A et al., 2024). Therefore, the proactive development and responsible deployment of AI within the insurance industry are essential for achieving the SDGs and fostering a resilient future (Sloan J et al., 2024).

Artificial intelligence (AI) presents significant opportunities for enhancing financial inclusion, managing climate risks, and fostering resilient communities within the insurance sector. By leveraging AI technologies, insurers can develop innovative products tailored to underserved populations, thus broadening access to financial services and promoting inclusivity. For instance, AI-driven data analysis can optimize risk assessments, enabling insurers to offer affordable policies to low-income households, thereby reinforcing social equity. Moreover, as climate change exacerbates risks, AI facilitates improved climate risk management through sophisticated modeling and predictive

analytics, crucial for ensuring community resilience against environmental threats. The role of insurance in achieving the Sustainable Development Goals is further underscored by the visual representation of its interconnectedness with these goals in . The integration of AI into insurance not only enhances operational efficiency but also aligns with broader sustainability objectives (Julio César Prado A et al., 2024) (Kim K et al., 2023) .

In conclusion, the integration of artificial intelligence within the insurance sector serves as a critical catalyst for advancing the United Nations Sustainable Development Goals, promoting sustainable economic growth while addressing social and environmental challenges. The transformative power of AI fosters innovation, enhances decision-making processes, and improves productivity within insurance companies, thereby facilitating a more responsive and efficient service delivery model (Fathallah B et al., 2025) . Furthermore, the strategic implementation of AI technologies allows for the identification and solution of complex issues, positioning insurance as a vital component in supporting sustainable initiatives globally. As depicted in, the synergy between insurance and sustainable development highlights its essential role in fostering partnerships that contribute to wider societal goals. Ultimately, leveraging AI in insurance can redefine operational capabilities, leading to a more sustainable future for both the industry and the communities it serves.

### References

1. Julio César Acosta Prado, Carlos Guillermo Hernández-Cenzano, Carlos David Villalta-Herrera, Eloy Wilfredo Barahona-Silva (2024). Three Horizons of Technical Skills in Artificial Intelligence for the Sustainability of Insurance Companies. <https://doi.org/10.3390/admsci14090190>
2. Dirting, B.D; Chukwudebe, G.A.; Nwakorie, E.C. (2024). Maximizing Artificial Intelligence and Innovations toward Achieving the Sustainable Development Goals. <https://www.jocre.com.ng>
3. Bushra Fathallah, Abdel Razek jawad (2025). THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN ACHIEVING SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: INDONESIA AS CASE STUDY. <https://www.semanticscholar.org/paper/9a5dba11e56364bff9e474d368c5be205423fed3>
4. Joseph Sloan, Nia Powis, Joanne Tan (2024). Introduction to artificial intelligence: What are the key risks for insurers to consider over the short to medium term?. <https://media.milliman.com/v1/media/edge/images/millimaninc5660-milliman6442-prod27d5-0001/media/Milliman/PDFs/2024-Articles/7-12-24 Introduction-to-AI-briefing-note.pdf>
5. Subhrajit Bhattacharya, German Castignani, Leandro Masello, Barry Sheehan (2025). AI revolution in insurance: bridging research and reality. <https://doi.org/10.3389/frai.2025.1568266>
6. Kyungmee Kim, Boulanin Vincent (2023). Artificial Intelligence for Climate Security: Possibilities and Challenges. <https://doi.org/10.55163/qdse8934>

## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING BARQAROR RIVOJLANISHGA

### TA‘SIRI

**Abdurasulova Zarina Sayfiddin qizi,**

TIU tayanch doktorant

Email: [zarinaabdurasulova2025@gmail.com](mailto:zarinaabdurasulova2025@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-4309-1698>

So‘nggi yillarda global iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarning cheklanishi barqaror iqtisodiy rivojlanish modelini shakllantirish zaruratini kuchaytirdi. Shu sababli xalqaro hamjamiyat tomonidan United Nations tomonidan

qabul qilingan **2030 yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibi** (SDG–2030) doirasida iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikni ta‘minlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Barqaror rivojlanishga erishishda muhim yo‘nalishlardan biri **yashil iqtisodiyot va yashil moliyalashtirish** hisoblanadi. Yashil moliya ekologik barqarorlikni ta‘minlaydigan loyihalarni moliyalashtirishni nazarda tutadi. Bunday loyihalar qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik transport va ekologik infratuzilmani rivojlantirish kabi sohalarni qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasi ham barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirish maqsadida bir qator strategik hujjatlarni qabul qilgan. Jumladan, 2019-yilda qabul qilingan **“2019–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”** mamlakatda ekologik barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Strategiya energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini kengaytirish hamda issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, mamlakatda iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini ta‘minlash maqsadida **“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** qabul qilindi. Ushbu strategiya raqamli texnologiyalar, elektron xizmatlar, moliyaviy texnologiyalar (FinTech) hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Raqamli iqtisodiyot va yashil moliyalashtirish o‘zaro integratsiyasi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli moliya platformalari va innovatsion texnologiyalar orqali yashil investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari kengaymoqda.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar barqaror rivojlanishga erishishning asosiy omillaridan biri sifatida ko‘riladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlab, ekologik xavfsizlikni oshiradi hamda iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiradi.

Ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalar yordamida ekologik monitoring, energiya iste‘molini optimallashtirish va investitsiya jarayonlarini boshqarish imkoniyatlari kengayishi qayd etilgan. Bunday texnologiyalar iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik maqsadlarni bir vaqtning o‘zida amalga oshirish imkonini beradi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham yashil iqtisodiyot va yashil moliyalashtirishning ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, yashil moliya mexanizmlari ekologik loyihalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi. Yashil obligatsiyalar, iqlim fondlari, yashil kreditlar va ESG investitsiyalar bu jarayonning asosiy instrumentlari hisoblanadi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim **Nargiza Umarova** yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish masalalarini o‘rganib kelmoqda. Uning ilmiy ishlarida O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari, ekologik barqarorlikni ta‘minlash hamda iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan.

Olimaning fikriga ko‘ra, mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni davlat siyosati, innovatsion texnologiyalar va moliyaviy mexanizmlar orqali amalga oshirilmoqda.

**Nargiza Umarovanning tahliliga ko‘ra**, yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar integratsiyasi O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, ilmiy manbalarda yashil iqtisodiyotga o‘tish iqtisodiy rivojlanish bilan birga ekologik muvozanatni ta‘minlaydigan yangi iqtisodiy model sifatida baholanadi.

Raqamli iqtisodiyot yashil moliyalashtirishni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar moliyaviy operatsiyalarni tezlashtiradi, investitsiya jarayonlarining shaffofligini oshiradi va moliyaviy xizmatlarga kirishni kengaytiradi.

Yashil loyihalarni moliyalashtirishda quyidagi raqamli instrumentlar muhim ahamiyatga ega:

- FinTech platformalari
- blockchain texnologiyalari
- sun‘iy intellekt asosida risk tahlili
- raqamli bank xizmatlari
- onlayn investitsiya platformalari

Ushbu texnologiyalar yordamida ekologik loyihalar uchun investitsiya jalb qilish jarayoni ancha samarali bo'ladi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot moliyaviy inklyuziyani oshirib, kichik biznes va startaplarning yashil loyihalarda ishtirok etishini ta'minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yashil moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanishi sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ekologik innovatsiyalarni joriy etishga yordam beradi.

O'zbekistonda yashil loyihalarni moliyalashtirishni rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud:

- ✓ yashil moliya bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi
- ✓ Xususiy sektor ishtirokining pastligi
- ✓ ekologik loyihalar uchun investitsiya risklarining yuqoriligi
- ✓ raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi

Shunga qaramay, mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni faol davom etmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar va yashil moliya integratsiyasi barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida yashil loyihalarni moliyalashtirish barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim mexanizmlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar investitsiya jarayonlarining samaradorligini oshiradi, moliyaviy xizmatlarga kirishni kengaytiradi va ekologik loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va strategiyalar yashil iqtisodiyotga o'tish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida raqamli texnologiyalar va yashil moliyalashtirish mexanizmlarini yanada rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishish mumkin.

## **THE ROLE OF FINANCING GREEN PROJECTS IN ACHIEVING SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS**

**Abdurasulova Zarina Sayfiddin qizi,**

TIU tayanch doktorant

Email: zarinaabdurasulova2025@gmail.com

ORCID:<https://orcid.org/0009-0009-4309-1698>

In recent years, environmental degradation, climate change, and resource scarcity have become major global challenges. These problems have encouraged the international community to adopt a new development paradigm that combines economic growth with environmental protection and social well-being. In 2015, the United Nations adopted the **2030 Agenda for Sustainable Development**, which includes 17 Sustainable Development Goals (SDGs) aimed at achieving inclusive and sustainable global development.

One of the key mechanisms for achieving these goals is the development of **green finance**, particularly the financing of green projects. Green projects include investments in renewable energy, energy efficiency, sustainable agriculture, waste management, and environmentally friendly infrastructure. Financing such projects contributes significantly to achieving several SDGs, especially SDG 7 (Affordable and Clean Energy), SDG 9 (Industry, Innovation and Infrastructure), SDG 11 (Sustainable Cities), and SDG 13 (Climate Action).

Like many countries, the Republic of Uzbekistan has also begun implementing policies aimed at transitioning toward a green economy and achieving sustainable development. The government has adopted several strategic documents and regulatory acts to support environmental sustainability and green investments.

In the academic literature, green finance is considered an important tool for achieving sustainable development. Researchers emphasize that the integration of financial systems with environmental objectives allows countries to stimulate economic growth while protecting natural resources.

According to international studies, green investments help reduce greenhouse gas emissions, improve energy efficiency, and accelerate the transition to renewable energy sources. Green bonds, climate funds, and sustainable investment mechanisms are widely used in many countries to finance environmentally friendly projects.

Environmental economist Edward B. Barbier has conducted extensive research on green economy and sustainable development. His studies emphasize that green investments are essential for achieving long-term economic growth while maintaining environmental balance.

**According to Edward B. Barbier's analysis**, investments in renewable energy, sustainable infrastructure, and environmental protection create new economic opportunities while simultaneously reducing ecological risks. He argues that green finance can serve as a powerful driver for sustainable economic transformation.

Local researchers also emphasize the importance of green financing in Uzbekistan's economic development. Studies show that the development of green financial instruments and investment mechanisms contributes to environmental protection, economic modernization, and sustainable growth.

The Government of Uzbekistan has adopted several regulatory documents aimed at supporting sustainable development and green economic transformation.

One of the most important policy documents is the **Strategy for Transition to a Green Economy for 2019–2030**, adopted by presidential resolution in 2019. The strategy outlines key priorities such as:

- increasing energy efficiency
- expanding the use of renewable energy sources
- reducing greenhouse gas emissions
- improving water and land resource management
- introducing environmentally friendly technologies in industry and agriculture

Another important initiative is the national digital transformation program known as **Digital Uzbekistan – 2030**, which promotes the development of digital technologies, electronic government services, and financial innovations. Digital financial technologies can play a crucial role in attracting investments for green projects and improving the transparency of financial flows.

These national strategies are aligned with the global Sustainable Development Goals and aim to create a balanced economic system that combines economic growth with environmental sustainability.

Financing green projects plays a significant role in achieving sustainable development goals. Green finance supports environmentally responsible investments and helps mobilize financial resources for climate-related initiatives.

Green financing mechanisms include:

- green bonds
- green investment funds
- climate financing programs
- sustainable banking instruments
- public-private partnership projects

These mechanisms help governments and private investors allocate capital to projects that support environmental sustainability. For example, investments in solar and wind energy projects reduce dependence on fossil fuels and contribute to climate change mitigation.

In addition, digital financial technologies and innovative financial platforms are increasingly used to facilitate green investments. Financial technologies improve access to capital, reduce transaction costs, and enhance transparency in investment processes.

The analysis shows that financing green projects plays a crucial role in achieving Sustainable Development Goals. Green investments contribute to environmental protection, economic diversification, and long-term sustainable growth.

In Uzbekistan, the transition to a green economy and the implementation of national development strategies demonstrate the country's commitment to sustainable development.

Strengthening green financial mechanisms, improving investment frameworks, and promoting international cooperation will further support the successful implementation of SDGs.

Overall, the integration of green finance with national economic policies and digital technologies can significantly accelerate progress toward sustainable development.

## **O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RISKLARINI SUG‘URTALASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Shamsitdinov Mirsaid Azmiddin o‘g‘li**

Tashkent International University tayanch doktoranti

[Shamsitdinovmirsaid0330@gmail.com](mailto:Shamsitdinovmirsaid0330@gmail.com)

[ORCID: 0009-0009-0189-3879](https://orcid.org/0009-0009-0189-3879)

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ko‘plab mamlakatlarda kichik biznes subyektlari innovatsiyalarni joriy etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda iqtisodiy o‘rishni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda ham kichik biznes sektori iqtisodiyotning yetakchi segmentlaridan biri bo‘lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 55–60 foizini shakllantiradi hamda band aholining 70 foizdan ortig‘ini ish bilan ta‘minlaydi. Shu bilan birga, kichik biznes faoliyati turli iqtisodiy va moliyaviy risklar bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu risklarni samarali boshqarish mexanizmlarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Risklarni boshqarishning muhim instrumentlaridan biri sug‘urta tizimi hisoblanadi. Sug‘urta iqtisodiy faoliyat jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni qoplash, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash hamda investitsion faoliyatni rag‘batlantirish imkonini beradi. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta bozori rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy xavflarni boshqarish tizimi samarali shakllangan bo‘ladi. Masalan, OECD mamlakatlarida sug‘urta penetratsiyasi ko‘rsatkichi o‘rtacha 7–8 foizni tashkil etadi.

Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O‘zbekistonda sug‘urta bozorining rivojlanish darajasi nisbatan past hisoblanadi. Swiss Re Institute ma‘lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda sug‘urta penetratsiyasi ko‘rsatkichi o‘rtacha 3–4 foizni tashkil etadi. O‘zbekistonda esa ushbu ko‘rsatkich 2 foizdan past darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa sug‘urta xizmatlarining iqtisodiyotda yetarli darajada rivojlanmaganligini hamda kichik biznes subyektlari tomonidan sug‘urta xizmatlaridan foydalanish darajasi past ekanligini ko‘rsatadi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatida ishlab chiqarish risklari, moliyaviy risklar, bozor kon‘yunkturasi o‘zgarishi, tabiiy ofatlar hamda boshqa turdagi iqtisodiy xavflar mavjud. Ushbu risklarni samarali boshqarish uchun sug‘urta xizmatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta bozori rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes subyektlari sug‘urta xizmatlaridan faol foydalanadi va bu ularning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra, moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganligi hamda sug‘urta xizmatlarining keng tarqalganligi tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini oshiradi. Sug‘urta tizimi rivojlangan mamlakatlarda korxonalar o‘z faoliyatida yuzaga keladigan moliyaviy xavflarni samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli sug‘urta bozori iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekistonda sug‘urta bozorini rivojlantirish maqsadida so‘nggi yillarda bir qator institutsional va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sug‘urta kompaniyalarining faoliyatini tartibga solish tizimi takomillashtirilmoqda, sug‘urta xizmatlari ko‘lamini kengaytirish hamda sug‘urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq kichik biznes subyektlari tomonidan sug‘urta xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirish uchun qo‘shimcha mexanizmlarni joriy etish zarur.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlari risklarini sug‘urtalash tizimini rivojlantirish uchun bir nechta muhim omillar mavjud. Birinchidan, sug‘urta xizmatlarining

moliyaviy jihatdan qulay bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, sug'urta xizmatlarining shaffofligi hamda sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonch darajasi yuqori bo'lishi zarur. Uchinchidan, sug'urta xizmatlarini taqdim etishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish sug'urta xizmatlarining ommalashishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sug'urta tizimining bank tizimi bilan integratsiyalashuvi sug'urta xizmatlarining keng tarqalishiga yordam beradi. Masalan, bancassurance modeli orqali sug'urta xizmatlarini bank kreditlari bilan integratsiyalash kichik biznes subyektlari uchun sug'urta xizmatlarining qulayligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda kichik biznes subyektlari risklarini sug'urtalash tizimini rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'urta bozorini rivojlantirish, sug'urta xizmatlari ko'lamini kengaytirish hamda kichik biznes subyektlari uchun sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy xavflarni samarali boshqarish imkonini beradi. Shu bois sug'urta bozorini rivojlantirish, moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash hamda sug'urta xizmatlarini ommalashtirish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. OECD. *Insurance and Private Pensions Statistics*. OECD Publishing, 2022.
2. World Bank. *Enterprise Surveys: Uzbekistan Country Profile*. Washington D.C., 2023.
3. Swiss Re Institute. *Sigma Report: World Insurance – Market Trends*. Zurich, 2023.
4. OECD. *Sug'urta va xususiy pensiyalar statistikasi*. OECD Publishing, 2022.
5. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). *Sug'urta faoliyatining asosiy tamoyillari*. Bazel, 2023.
6. Турғунмирзаев А. *Sug'urta xizmatlari sohasida raqobatning yangi ko'rinishlari: nazariya va amaliyot* // Экономическое развитие и анализ, 2025, 3(2), 368–376-b.
7. Махсудов М. *Sanoat korxonalarining biznes barqarorligini baholashga ilmiy yondashuv* // “Journal of Transport” ilmiy-elektron jurnali, Toshkent davlat transport universiteti, 2025-yil mart, 198–201-b.
8. Турғунмирзаев А. *Sug'urta bozorini raqamlashtirish uning raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida* // Передовая экономика и педагогические технологии, 2025, 2(1), 289–297-b.
9. Махсудов М. “JV UzChasys” MChJ misolida sanoat va energetika korxonalarining biznes barqarorligini baholash mezonlari tahlili // “Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnali, 2025, 5-son, 182–187-b.
10. Турғунмирзаев А. *Raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta kompaniyalarini rivojlantirish strategiyasi yo'nalishlari* // Экономическое развитие и анализ, 2025, 3(1), 439–446-b.
11. Турғунмирзаев А., Шамситдинов М. *Sug'urta kompaniyalari raqobatbardoshligini boshqarishda raqamli iqtisodiyotning o'rni* // Nashrlar, 2023, 238–241-b.
12. Turgunmirzaev A. *Sug'urta sohasida raqobat shakllarini rivojlantirish: nazariy va amaliy jihatlar* // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2025, 6(3), 1083–1090-b.

## **GREEN FINANCE AND SUSTAINABLE LENDING: HOW BANKS CAN SUPPORT LOW-CARBON GROWTH WHILE MANAGING RISK**

**Kasimova Nasiba Olimjanovna**  
Mustaqil izlanuvchi  
Toshkent International University

A key argument for developing green finance is that climate and environmental risks are now material financial risks. Borrowers exposed to physical risks—such as droughts, floods,

extreme heat, and water shortages—can experience production disruptions, supply-chain problems, and higher operating costs. These effects reduce cash flows and weaken repayment capacity. At the same time, transition risks are rising as countries introduce carbon pricing, emissions standards, energy performance requirements for buildings, and reporting obligations for large firms. When rules change, companies that rely on fossil fuels or inefficient technology may face higher compliance costs, reduced demand, or stranded assets. For banks, the implication is clear: a loan portfolio that ignores climate and environmental risk factors can gradually accumulate hidden vulnerabilities, leading to higher non-performing loans and lower capital buffers during stress periods.

From a credit perspective, sustainable lending begins with improving how banks assess project quality and borrower resilience. Traditional credit analysis focuses on cash flows, collateral, leverage ratios, management quality, and industry conditions. These factors remain fundamental, but green finance adds an additional layer: environmental performance and climate sensitivity. Banks can incorporate sustainability criteria into credit underwriting by requiring basic environmental risk screening, asking for energy audits for large industrial projects, or evaluating how exposed a borrower is to regulatory changes (for example, energy-intensive manufacturing or transport-dependent business models). The goal is not to replace financial analysis with environmental analysis; rather, it is to extend risk assessment so that future repayment capacity is judged more realistically. In practice, this may lead to better pricing of risk, stronger covenants, and more targeted monitoring.

Another important dimension is product design. Green finance is effective when it offers borrowers a practical incentive to invest in cleaner solutions. Banks can develop green loans or sustainability-linked loans where interest rates are tied to measurable environmental performance indicators. For example, a company may receive a slightly lower interest rate if it reduces energy consumption per unit of output, increases the share of renewable energy used in production, or meets waste reduction targets. For households, banks can offer preferential mortgages or consumer loans for energy-efficient housing, insulation, solar panels, or efficient heating systems. When designed properly, these products can be both profitable and socially beneficial: the borrower saves on energy costs, which improves repayment capacity, while the bank reduces credit risk and enhances portfolio quality.

However, green finance also involves challenges that banks must manage carefully. One major challenge is the risk of “greenwashing,” where a project is labeled as green without real environmental impact. If banks finance such projects, they risk reputational damage and regulatory scrutiny, and they may not actually reduce portfolio risk. To avoid this, banks need clear eligibility rules, reliable documentation, and internal controls. Many institutions adopt taxonomies or classification frameworks that define what qualifies as green. They also develop reporting procedures that track how proceeds are used and what environmental outcomes are achieved. Even in emerging markets, banks can start with simpler approaches—such as financing clearly defined asset types (solar, wind, efficient machinery) and gradually expanding to more complex sustainability-linked structures.

A second challenge is data availability. Environmental metrics can be difficult to measure, especially for small and medium enterprises. But the lack of perfect data should not prevent progress. Banks can adopt a step-by-step approach: begin with sector-based risk mapping, use proxy indicators (such as energy intensity), and require additional reporting only for larger exposures. Over time, banks can improve data quality by collaborating with auditors, energy service companies, and technology providers, or by using digital tools that track energy and resource consumption. The key is to build a sustainable lending system that is proportional to borrower size and risk level.

Green finance also requires portfolio-level management. A bank can evaluate how much of its credit exposure is concentrated in carbon-intensive or environmentally vulnerable sectors. It can then set internal limits, adjust long-term strategy, and implement climate stress testing. Stress testing helps the bank estimate how its portfolio might perform under scenarios such as rising

carbon prices, extreme weather events, or rapid technology transitions. Even simplified stress tests can reveal where exposures are concentrated and which borrowers are most sensitive to shocks. This information supports better capital planning, provisioning policies, and strategic diversification.

To make green finance actionable, banks often use a structured policy toolkit. The following table illustrates a practical framework that links green finance instruments with risk management actions and expected outcomes:

Green finance tool	How it works in lending	Risk management benefit	Expected financial outcome
Green project loans	Finance renewable energy, efficiency upgrades, clean transport	Lower long-term operating cost risk for borrower	Stable cash flows, lower default probability
Sustainability-linked loans	Rate linked to KPIs (energy use, emissions, waste)	Aligns incentives; stronger monitoring discipline	Improved borrower performance; competitive pricing
Green mortgages/retail loans	Preferential terms for efficient housing and appliances	Lower utility costs improve repayment capacity	Lower delinquency; customer growth
Climate risk screening	Evaluate physical/transition risk during underwriting	Early identification of vulnerable borrowers	Better pricing, fewer hidden losses
Portfolio limits & stress tests	Track exposure by sector and climate sensitivity	Prevent concentration; improve capital planning	More resilient portfolio; reduced NPL spikes
Green reporting and verification	Document use of proceeds and outcomes	Reduce greenwashing and reputational risk	Better investor confidence; easier funding access

Beyond bank-level actions, policy support matters. If central banks and regulators introduce clear guidelines, incentives, or disclosure requirements, green finance tends to develop faster. Governments can also encourage sustainable lending by supporting green project pipelines, improving energy efficiency standards, and creating co-financing or guarantee programs that reduce credit risk for banks. In many countries, development finance institutions play a role by providing long-term funding for green investments, which commercial banks can channel to businesses and households.

**In conclusion**, green finance is not a temporary trend; it is becoming an essential part of modern credit and financial strategy. Banks that invest early in sustainable lending frameworks can improve risk assessment, create new products, attract responsible investors, and strengthen long-term profitability. The most effective approach is pragmatic and gradual: start with clear definitions of green activities, implement environmental risk screening for larger loans, design incentive-based loan products, and build data and reporting capacity step by step. Over time, these measures can reduce non-performing loans linked to climate shocks and transition pressures, while supporting a more resilient and competitive economy.

#### REFERENCES:

1. Basel Committee on Banking Supervision (BCBS). (2022). *Principles for the effective management and supervision of climate-related financial risks*. Bank for International Settlements.
2. Network for Greening the Financial System (NGFS). (2025). *Guide to climate scenario analysis for central banks and supervisors – Update*. NGFS.

3. European Central Bank (ECB). (2020). *Guide on climate-related and environmental risks: Supervisory expectations relating to risk management and disclosure*. ECB Banking Supervision.
4. International Capital Market Association (ICMA). (2025). *Green Bond Principles (GBP) – June 2025*. ICMA.
5. World Bank. (2019/2020). *Green Finance: A Bottom-up Approach to Track Existing Flows (Full Report)*. World Bank Group.
6. International Finance Corporation (IFC). (2024). *Emerging Market Green Bonds 2024*. IFC (World Bank Group).
7. Buettner, T. (2018). *WTO membership and the shift to consumption taxes*. *World Development*.
8. Baungsgaard, T., & Keen, M. (2005). *Tax Revenue and (or?) Trade Liberalization*. IMF Working Paper WP/05/112. International Monetary Fund.
9. World Trade Organization (WTO). (1994). *GATT 1994 – Article III: National Treatment on Internal Taxation and Regulation* (Analytical Index materials). WTO.
10. World Trade Organization (WTO). (1994). *Agreement on Subsidies and Countervailing Measures (SCM Agreement)*. WTO Legal Texts.
11. World Bank. (n.d.). *Managing the Revenue Impact of Tariff Cut* (policy/working paper). World Bank Open Knowledge Repository.
12. (2026). *Topic: Green Finance and Sustainable Lending: How Banks Can Support Low-Carbon Growth While Managing Risk*

## **BARQAROR RIVOJLANISH VA RAQAMLI IQTISODIYOT: O‘SISHNI INKLYUZIV, SAMARALI VA “YASHIL” QILISHNING INSTITUTSIONAL SHARTLARI**

**Kasimova Nasiba Olimjanovna**  
Mustaqil izlanuvchi  
Toshkent International University

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy adolat va ekologik muvozanatni bir butun maqsad sifatida ko‘radi. BMTning 2030 Kun tartibi BRMni global siyosatning umumiy mezoniga aylantirdi. Shu bilan birga, so‘nggi o‘n yillikda raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish zanjirlarini, mehnat bozori talablarini, davlat boshqaruvi mexanizmlarini tubdan o‘zgartirdi.

Raqamli transformatsiya barqaror rivojlanishga ikki yo‘l bilan ta’sir qiladi:

1. Tezlatgich sifatida — samaradorlikni oshiradi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, davlat xizmatlarini ommalashtiradi;
2. Risk omili sifatida — tengsizlikni chuqurlashtirishi, ma’lumotlar ustidan nazorat muammolarini keltirishi, energiya va resurs iste’molini orttirishi mumkin.

Demak, masala “raqamlashtirish kerakmi?” degan savoldan ko‘ra, “raqamlashtirish barqarorlikni kuchaytiradigan tarzda qanday boshqariladi?” degan savolga borib taqaladi.

Jahon banki raqamli texnologiyalar iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shishini tan olgan holda, foyda “avtomatik” yuz bermasligini, natija institutlar, raqobat, ko‘nikmalar va hisobdorlikka bog‘liqligini ta’kidlaydi. OECD esa raqamli transformatsiyani o‘lchash va siyosatni moslashtirish uchun ko‘rsatkichlar tizimi hamda “o‘lchov bo‘shliqlari” muhimligini ko‘rsatadi. UNCTAD esa ma’lumotlar oqimlari va data-ga asoslangan iqtisodiyotda mamlakatlar o‘rtasidagi nomutanosibliklar kuchayishi mumkinligini qayd etadi.

**Asosiy tadqiqot savoli:** raqamli iqtisodiyot barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qilishi uchun qanday institutsional va siyosiy shartlar zarur?

**Metodologiya.** Tezis konseptual-analitik yondashuvga tayangan holda uch darajali mantiqni qoʻllaydi:

1. Makro daraja: raqamli infratuzilma, raqamli bozorlar va davlat siyosati uygʻunligi.

2. Meso daraja: tarmoqlar (moliyaviy xizmatlar, taʼlim, sogʻliqni saqlash, logistika) kesimida raqamli yechimlarning samarasi.

3. Mikro daraja: uy xoʻjaliklari va firmalar uchun kirish imkoniyati, xarajatlar, koʻnikmalar va ishonch (trust) omili.

4. Baholash mezonlari sifatida BRM ruhiga mos uchlik qoʻllanadi: inklyuziya, samaradorlik, ekologik taʼsir.<sup>1</sup>

Raqamli iqtisodiyotning barqarorlikka ijobiy kanallari

a) Samaradorlik va resurs tejamkorlik.

Raqamli platformalar va IoT ishlab chiqarishdagi yoʻqotishlarni kamaytiradi, logistika marshrutlarini optimallashtiradi, energiya sarfini monitoring qiladi. Natijada “kamroq resurs — koʻproq natija” tamoyili kuchayadi.

b) Inklyuziv xizmatlar va “masofa” muammosini yengish. Masofaviy taʼlim, telemeditsina, elektron toʻlovlar va raqamli identifikatsiya aholining chekka hududlarini ham xizmatlar bilan qamrab oladi. Bu — BRMning “hech kim ortda qolmasin” gʻoyasiga yaqinlashishdir.

c) Boshqaruv shaffofligi va hisobdorlik. E-hukumat, ochiq maʼlumotlar va raqamli monitoring korrupsiya riskini kamaytirishi, budjet sarflarini kuzatishni osonlashtirishi mumkin. Bunda eng muhim shart — institutlarning real ishlashi: raqamlashtirish faqat “interfeys” boʻlib qolmasligi kerak.

Barqarorlikka tahdid soluvchi risklar

a) Raqamli tafovut va yangi tengsizlik.

Internetga ulanish, qurilma narxi, raqamli savodxonlik va til resurslari boʻyicha farqlar kengaysa, raqamli iqtisodiyot “imkoniyatlar bozoriga kirish”ni faqat ayrim qatlamlar uchun ochib qoʻyadi. UNCTAD data-ga asoslangan iqtisodiyotda nomutanosibliklar kuchayishini alohida urgʻulaydi.

b) Maʼlumotlar boshqaruvi: suverenitet, maxfiylik va adolat.

Maʼlumotlar (data) qiymat manbai boʻlgani sari, ularni kim yigʻishi, qayerda saqlashi, qanday qayta ishlashi va kim foyda olishi masalasi keskinlashadi. Shu nuqtada, “maʼlumotlar oqimi” va “rivojlanish manfaatlari” oʻrtasida muvozanat topish strategik vazifa boʻlib qoladi.

c) Kiberxavfsizlik va raqamli ishonch.

Raqamli xizmatlar kengaygani sari kiberhujumlar, firibgarlik va shaxsiy maʼlumotlarning sizib chiqishi ehtimoli ham oshadi. Ishonch yoʻq joyda esa raqamli transformatsiya sekinlashadi: foydalanuvchi ham, biznes ham “xavfsiz boʻlmagan tizim”ga kirishni istamaydi.

d) Ekologik iz: energiya va elektron chiqindilar.

Data-markazlar, bulut infratuzilmasi va qurilmalar ishlab chiqarishi energiya talabini oshiradi; e-chiqindilarni boshqarish esa alohida siyosatni talab qiladi. Shu bois “yashil raqamlashtirish” alohida yoʻnalish sifatida qaralishi kerak.

Taklif etilayotgan konseptual model: “BRMga mos raqamli transformatsiya uchligi” Tezis raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanish bilan uygʻunlashtirish uchun quyidagi uch yoʻnalishni taklif etadi:

1. Inklyuziya va koʻnikmalar

- arzon va sifatli internet qamrovi;
- raqamli savodxonlik (maktab–kollej–universitet–kadrlar qayta tayyorlash zanjiri);
- ayollar, yoshlar va chekka hududlar uchun maqsadli dasturlar.

2. Maʼlumotlar boshqaruvi va raqamli ishonch

- shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish tamoyillari;
- maʼlumotlardan foydalanishda adolatli qiymat taqsimoti;
- kiberxavfsizlik standartlari va hodisalarga tezkor javob berish infratuzilmasi.

3. “Yashil” raqamli infratuzilma va samaradorlik

- o energiya samarador data-markazlar;
- o davlat xaridlarida “yashil IT” mezonlari;
- o elektron chiqindilarni qayta ishlash zanjiri;
- o raqamli yechimlar orqali resurs tejankorlikni o‘lchash.

Bu uchlik “texnologiya bor — demak natija bor” degan soddalashtirilgan yondashuv o‘rniga “institut + ko‘nikma + ekologik mas’uliyat” muvozanatini ilgari suradi.

**Xulosa.** Raqamli iqtisodiyot barqaror rivojlanishni tezlashtirishi mumkin, ammo bu jarayon o‘z-o‘zidan “ijtimoiy adolatli” yoki “ekologik xavfsiz” bo‘lib qolmaydi. Natija siyosatning sifatiga, institutlarning ishlashiga va inson kapitaliga bevosita bog‘liq. BMTning 2030 Kun tartibi global yo‘nalishni belgilab bergan bo‘lsa, raqamli transformatsiya shu yo‘nalishga xizmat qiladigan tarzda boshqarilishi zarur.

Raqamli strategiyalarni BRM ko‘rsatkichlariga “bog‘lash”, ya’ni har bir raqamli loyiha bo‘yicha inklyuziya, samaradorlik va ekologik ta’sir indikatorlarini majburiy baholash amaliyoti joriy etilishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. UN General Assembly. *Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development (A/RES/70/1)*. 2015.
2. World Bank. *World Development Report 2016: Digital Dividends*. 2016.
3. OECD. *Measuring the Digital Transformation: A Roadmap for the Future*. OECD Publishing, 2019.
4. UNCTAD. *Digital Economy Report 2021: Cross-border data flows and development: For whom the data flow*. 2021.

## **TIBBIY TURIZMNING NAZARIY USLUBIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH OMILLARI**

**Haydarova Dilora Ixtiyorovna**  
*Buxoro davlat universiteti*  
*mustaqil izlanuvchi*

So‘nggi yillarda tibbiy turizm va sog‘lomlashtirish xizmatlari bozor hajmi sezilarli darajada o‘shishga erishmoqda. Bu esa iqtisodiy sharoitlar, ya’ni mamlakat byudjetiga chet el valyutasini jalb qilish, xususiy kasalxona va sanatoriylar soni oshishi va xizmat ko‘rsatish sohasidagi bandlikni oshishi singari omillar bilan izohlanadi. Mamlakatimizda tibbiy turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-Z35-sonli qarorida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, tibbiy turizm klasterlarini shakllantirish hamda zamonaviy sanatoriylar faoliyatini yo‘lga qo‘yish belgilangan. Shuningdek, "Avitsenna" brendi ostida milliy imijni targ‘ib etish, xalqaro akkreditatsiya xarajatlarini davlat tomonidan qisman qoplash, xizmatlar sifatini monitoring qilish tizimini joriy etish asosiy masala qilib belgilab qo‘yilgan<sup>263</sup>.

Tibbiy turizm sog‘liqni saqlash va sayohat sohasi chorrahasida shakllangan murakkab hodisa bo‘lib, uning mazmuni turli manbalarda turlicha izohlanadi. Tibbiy turizm haqidagi dastlabki tushunchalar 2000-yillarning boshlarida shakllana boshlagan bo‘lib, olimlar tomonidan ishlab chiqilgan tushunchalar hozirgi kungacha ushbu sohaning nazariy asoslarini belgilab bermoqda.

M. Bookman<sup>264</sup> tibbiy turizmga doir ilk keng qamrovli iqtisodiy tahlillardan birini taqdim etib, uni “sog‘liqni yaxshilash maqsadida amalga oshiriladigan xalqaro sayohat” sifatida

<sup>263</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-Z35-sonli qarori. – <https://lex.uz>

<sup>264</sup> Bookman M.Z. *Medical Tourism in Developing Countries*. – New York: Palgrave Macmillan, 2007. – 246 p.

izohlagan. Berilgan ta'rif tibbiy turizmni iqtisodiy rivojlanish jihatidan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xizmatlar savdosining istiqbolli shakli sifatida baholashga imkon beradi.

John Connell<sup>265</sup> tibbiy turizmni bevosita tibbiy aralashuv bilan chambarchas bog'langan va natijalari sezilarli hamda uzoq muddatli bo'lishi kutiladigan xalqaro sayohat deb ta'rif bergan. Ushbu yondashuv tibbiy turizmni sog'liq turizmning kengroq shakllaridan farqlab, aynan invaziv tibbiy muolajalar va jiddiy natijalarga urg'u beradi.

Lunt va Carrera<sup>266</sup> bemorning faoliyatini asosiy mezon sifatida ko'rsatgan va tibbiy turistlarni "o'z xohishi bilan harakat qiluvchi bemorlar" sifatida ta'riflagan. Bu bilan ular ixtiyoriy tibbiy turizmni shoshilinch yordam yoki davlatlararo sog'liqni saqlash bo'yicha rasmiy kelishuvlardan farqlagan. Mazkur yondashuv tibbiy turizmni sog'liqni saqlash siyosati kontekstida nazariy jihatdan asoslash imkonini beradi.

McCartney va Wang<sup>267</sup> tibbiy turizmga iqtisodiy industriyal qarashni ilgari surib, uni sog'liqni saqlash va turizm tarmoqlarini birlashtiruvchi, global miqyosda kengayib borayotgan ko'p tarmoqli iqtisodiy faoliyat sifatida ta'riflaydi. Ularning fikricha, tibbiy turizm barqarorlik, javobgarlik va sektorlararo hamkorlikni taqozo etadi [5].

### 1-jadval

#### Tibbiy turizmga oid asosiy ilmiy yondashuvlar

Muallif	Ta'rif/Yondashuv	Metodologik yo'nalish
M. Bookman (2007)	Sog'liqni yaxshilash maqsadida xalqaro sayohat	Iqtisodiy model xizmatlar savdosi, makroiqtisodiy natijalar
J. Connell (2006)	Invaziv aralashuv va uzoq muddatli natijalar bilan bog'liq sayohat	Turizm yondashuvi geografik tahlil, infratuzilma
Lunt va Carrera (2010)	O'z xohishi bilan sayohat qiluvchi bemor	Bemor xulq atvoriga asoslangan yondashuv
McCartney va Wang (2024)	Sog'liq va turizmni birlashtiruvchi global faoliyat	Iqtisodiy industriyal yondashuv, barqarorlik

**Manba: Muallif tomonidan tuzilgan**

### 2. Tibbiy turizmga ta'sir etuvchi omillar tizimi

Tibbiy turizmga ta'sir etuvchi omillar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularni to'rt asosiy guruhga ajratish mumkin: iqtisodiy, tibbiy, ijtimoiy-madaniy va huquqiy omillar. Ushbu omillar tibbiy turizmning global miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

<p><b>IQTISODIY OMILLAR</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Tibbiy xizmatlar narxi farqi</li> <li>• Valyuta kursi afzalliklari</li> <li>• Sug'urta tizimining cheklanishi</li> <li>• Xizmatlar savdosi eksporti</li> </ul>	<p><b>TIBBIY OMILLAR</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Zamonaviy texnologiyalar</li> <li>• Yuqori malakali mutaxassislar</li> <li>• Navbatsiz xizmat olish</li> <li>• Xalqaro akkreditatsiya (JCI)</li> </ul>
<p><b>IJTIMOIIY-MADANIY OMILLAR</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Maxfiylik va anonimlik</li> <li>• Diniy va madaniy afzalliklar</li> <li>• Til va muloqot qulayligi</li> <li>• Xizmat ko'rsatish madaniyati</li> </ul>	<p><b>HUQUQIY OMILLAR</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Tibbiy amaliyot qonunchiligi</li> <li>• Xalqaro akkreditatsiya tizimlari</li> <li>• Bemorlar huquqlari himoyasi</li> <li>• Vizaviy rejim soddaligi</li> </ul>

### 1-rasm. Tibbiy turizmga ta'sir etuvchi omillar tizimi

**Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan**

<sup>265</sup> Connell J. Medical tourism: Sea, sun, sand and... surgery // *Tourism Management*. – 2006. – Vol.27(6). – P.1093-1100.

<sup>266</sup> Lunt N., Carrera P. Medical tourism: assessing the evidence on treatment abroad // *Maturitas*. – 2010. – Vol.66(1). – P.27-32.

<sup>267</sup> McCartney G., Wang C.F. Medical tourism and medical tourists: providing a sustainable course // *The Journal of Travel Medicine*. – 2024.

Iqtisodiy omillar ichida eng muhimlaridan biri rivojlangan mamlakatlarda tibbiy xizmatlarning yuqori narxidir. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya yoki Avstraliya kabi davlatlarda operatsiyalar va murakkab davolash jarayonlari juda katta mablag' talab qiladi. Bu esa ushbu mamlakat fuqarolarini arzonroq, biroq sifat jihatidan yuqori bo'lgan xizmatlarni izlashga undaydi. Shu sababli Hindiston, Tailand yoki Turkiya singari rivojlanayotgan davlatlar tibbiy turizmning jozibali manzillariga aylanmoqda<sup>268</sup>.

Tibbiy omillar esa zamonaviy texnologiyalar va ilg'or davolash usullariga erishish imkoniyati bilan belgilanadi. Ilg'or texnologiyalar orqali bajariladigan murakkab operatsiyalar faqat ayrim mamlakatlarda mavjud bo'lib, bu ularni global tibbiy turizm markazlariga aylantiradi. Shuningdek, yuqori malakali mutaxassislar va tajribali shifokorlarning mavjudligi bemorlar ishonchini oshirib, tibbiy turizm oqimlarini belgilaydi.

Tibbiy turizm murakkab va ko'p qirrali tizim bo'lib, u bir-biri bilan o'zaro bog'liq yetti asosiy ishtirokchi tomondan shakllantiriladi. Ushbu tizimning markazida bemorlar yoki tibbiy turistlar turadi, ular xizmat iste'molchilari sifatida butun jarayonning bosh qahramoni hisoblanadi.

	<b>BEMORLAR</b>	
<b>Tibbiy muassasalar</b>	<b>Vositachilar</b>	<b>Mehmonxonalar</b>
<b>Transport</b>	<b>Sug'urta</b>	<b>Davlat organlari</b>

## 2-rasm. Tibbiy turizmning asosiy komponentlari

**Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan**

Tibbiy muassasalar kasalxonalar, klinikalar va ixtisoslashtirilgan davolash markazlari sifatida bevosita tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlar hisoblanadi. Vositachilar, ya'ni turoperatorlar, brokerlar va ixtisoslashgan agentliklar bemorlar va tibbiy muassasalar o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradilar. Davlat organlari esa litsenziyalash, sertifikatlash, sifat standartlarini belgilash va vizali rejimni tartibga solish orqali tibbiy turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Tibbiy turizm AQSh, Yevropa va Osiyo kontekstida turlicha talqin qilinadi. Har bir mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari va yondashuvlari mavjud bo'lib, ular tibbiy turizmning global rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

## 2-jadval

### Mintaqaviy yondashuvlar qiyosiy tahlili

Mintaqa	Asosiy drayver	Yondashuv turi	Xususiyatlari
<b>AQSh</b>	Narxlar farqi, arzon muolajalar izlash	Iqtisodiy yondashuv	Valyuta oqimi, ish o'rirlari, bemor ehtiyojlari
<b>Yevropa</b>	Erkin harakatlanish, xarajatlarni qoplash	Huquqiy siyosiy yondashuv	EU qonunchiligi, sektorlararo hamkorlik
<b>Osiyo</b>	Madaniy kompetensiya, texnologiyalar	Madaniy texnologik yondashuv	An'anaviy va zamonaviy tibbiyot integratsiyasi

**Manba: Muallif tomonidan tuzilgan**

AQShda asosiy drayver narxlar bo'lib, tibbiy turizm arzonroq va sifatliroq xizmat izlash sifatida iqtisodiy yondashuv bilan tushuntiriladi. Yevropada erkin harakatlanish va xarajatlarni qoplash mexanizmlari markazda bo'lib, huquqiy siyosiy yondashuv orqali Yevropa Ittifoqi qonunchiligi kontekstida talqin qilinadi. Osiyoda esa madaniy kompetensiya, an'anaviy va zamonaviy tibbiyot integratsiyasi, ilg'or texnologiyalar va turizm uyg'unligi asosiy omil bo'lib, kompleks va integratsiyalashgan yondashuvni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy turizm ko'p qirrali va murakkab hodisa bo'lib, uni iqtisodiy, tibbiy, ijtimoiy-madaniy va huquqiy omillar belgilaydi. Olimlarning turli yondashuvlari tibbiy turizmni turli nuqtai nazardan o'rganish imkonini beradi. Tibbiy turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirishda vizaviy siyosatni soddalashtirish, tibbiy va turizm xizmatlari

<sup>268</sup> Androutsou L., Geitona M. Measuring efficiency across hospitals // Journal of Health Management. – 2011. – Vol.13(2). – P.121-140.

oʻrtasida integratsiyaning kuchaytirilishi, xalqaro sertifikatlashtirish va sifat nazorat tizimlarining rivojlantirilishi asosiy yoʻnalish boʻlib xizmat qiladi.

Oʻzbekiston uchun tibbiy turizmni rivojlantirishda “Avitsenna” brendi ostida milliy imijni shakllantirish, JCI va ISO akkreditatsiyasini olgan tibbiy muassasalar sonini koʻpaytirish, tibbiy turizm klasterlarini yaratish va xalqaro standartlarga javob beradigan infratuzilmani kengaytirish taklif qilinadi.

#### **Adabiyotlar**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-Z35-sonli qarori. – <https://lex.uz>

2. Bookman M.Z. *Medical Tourism in Developing Countries*. – New York: Palgrave Macmillan, 2007. – 246 p.

3. Connell J. Medical tourism: Sea, sun, sand and... surgery // *Tourism Management*. – 2006. – Vol.27(6). – P.1093-1100.

4. Lunt N., Carrera P. Medical tourism: assessing the evidence on treatment abroad // *Maturitas*. – 2010. – Vol.66(1). – P.27-32.

5. McCartney G., Wang C.F. Medical tourism and medical tourists: providing a sustainable course // *The Journal of Travel Medicine*. – 2024.

6. Androutsou L., Geitona M. Measuring efficiency across hospitals // *Journal of Health Management*. – 2011. – Vol.13(2). – P.121-140.

7. Mathijssen A., Dziedzic E. Diasporic Medical Tourism: examining tourists' profiles // *European Journal of Tourism Research*. – 2024. – Vol.37.

8. Centers for Disease Control and Prevention. *Medical Tourism – Travel for Medical Care*. – <https://wwwnc.cdc.gov/travel/page/medical-tourism>

9. Hazarika, I. (2010). Medical tourism: Its potential impact on the health workforce and health systems in India. *Health Policy Plan*. 25, 248–251. doi: 10.1093/heapol/czp050

10. Johnston, R., Crooks, V. A., Snyder, J., and Kingsbury, P. (2010). What is known about the effects of medical tourism in destination and departure countries? A scoping review. *Int. J. Equity Health* 9, 24. doi: 10.1186/1475-9276-9-24

11. Lunt, N., Smith, R., Exworthy, M., Green, S. T., Horsfall, D., and Mannion, R. (2011). *Medical Tourism: Treatments, Markets and Health System Implications: A Scoping Review*. Paris: OECD.

12. NaRanong, A., and NaRanong, V. (2011). The effects of medical tourism: Thailand's experience. *Bull. World Health Organ*. 89, 336–344. doi: 10.2471/BLT.09.072249

13. Pachanee, C. A., and Wibulpolprasert, S. (2006). Incoherent policies on universal coverage of health insurance and promotion of international trade in health services in Thailand. *Health Policy Plan*. 21, 310–318. doi: 10.1093/heapol/czl017

14. Pocock, N. S., and Phua, K. H. (2011). Medical tourism and policy implications for health systems: A conceptual framework from a comparative study of Thailand, Singapore and Malaysia. *Global Health* 7, 12. doi: 10.1186/1744-8603-7-12

**XALQARO MOLIYA BOZORLARIDAN O‘ZBEKISTONGA  
INVESTITSİYALARNI YO‘NALTIRISH: SDG–2030 VA RAQAMLI IQTISODIYOT  
KONTEKSTIDA**

**PhD Xolov Sherali Axrorboyevich,**

TIU mustaqil izlanuvchisi

Email: [Sherali.holov@mail.ru](mailto:Sherali.holov@mail.ru)

ORCID: [orcid.org/0009-0008-7343-616X](https://orcid.org/0009-0008-7343-616X)

Bugungi kunda global iqtisodiyotning raqamlashtirilishi va barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG–2030) doirasida investitsiyalarni jalb etish masalasi har bir davlat uchun ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham o‘zining iqtisodiy islohotlari va raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi orqali jahon moliya bozorlaridan samarali investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Globallashuv sharoitida xalqaro moliya bozorlari kapitalni samarali taqsimlash va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishning muhim mexanizmi hisoblanadi. Rivojlanayotgan davlatlar uchun xorijiy investitsiyalar barqaror iqtisodiy o‘shish, yangi ish o‘rinlari yaratish, texnologik modernizatsiya va infratuzilmani rivojlantirishning asosiy manbalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasida 2017 yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida investitsion muhit sezilarli darajada yaxshilandi. Xususan, kapital harakati erkinlashtirildi, valyuta siyosati liberallashtirildi hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik kengaydi. Bu jarayonlar SDG–2030 maqsadlariga erishishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda global moliya bozorlari quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. **Kapital oqimlarining raqamlashtirilishi** – moliyaviy operatsiyalar FinTech platformalar orqali tez va shaffof amalga oshirilmogda.
2. **Yashil moliya instrumentlarining rivojlanishi** – ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun “green bonds” va “sustainability-linked bonds” keng qo‘llanilmogda.
3. **Rivojlanayotgan bozorlar ulushining ortishi** – investorlar yuqori daromadlilik va o‘shish sur‘atlari sababli yangi bozorlarga qiziqish bildirmogda.

Ushbu tendensiyalar O‘zbekiston uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Xususan, yashil energetika, raqamli infratuzilma va innovatsion startaplar sohalarida kapital jalb qilish imkoniyatlari kengaymogda.

Xalqaro moliya bozorlari – bu jahon miqyosida kapital oqimlarini tashkil etuvchi muhim infratuzilma bo‘lib, ularning samarali ishlashi mamlakatlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirib, xorijiy investorlarga qulay sharoitlar yaratmogda. Biroq, jahon moliya bozorlaridan investitsiyalarni jalb qilish uchun mamlakatning moliyaviy barqarorligi, qonun ustuvorligi, shaffoflik va raqamli infratuzilma darajasi muhim omillar hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot esa yangi texnologiyalar, jumladan sun‘iy intellekt, Big Data, blockchain va elektron hukumat tizimlari asosida shakllangan iqtisodiy tizimdir. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat ichki biznes muhitini yaxshilamogda, balki xorijiy investorlar uchun ham ishonchli va qulay infratuzilma yaratmogda. Elektron hukumat (e-government) tizimining joriy etilishi investitsiya jarayonlarini soddalashtiradi, korrupsiyani kamaytiradi va huquqiy himoyani ta‘minlaydi. Shu tariqa, raqamli transformatsiya jahon moliya bozorlaridan investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals – SDG) 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ekologik jihatdan barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan global strategiyadir. O‘zbekiston SDG–2030 doirasida innovatsion va raqamli yechimlarni joriy etib, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolat va iqtisodiy o‘shishni uyg‘unlashtirishga intilmogda. Xalqaro investitsiyalarni jalb qilishda SDG–2030 ga mos keladigan loyihalar afzal ko‘riladi, chunki ular uzoq muddatli barqarorlik va ijtimoiy javobgarlikni ta‘minlaydi. BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG–2030) iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni ta‘minlashga qaratilgan.

O‘zbekiston uchun quyidagi yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- Sifatli ta’lim va inson kapitalini rivojlantirish
- Arzon va toza energiya
- Innovatsiya va infratuzilma
- Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash

Mazkur maqsadlarni moliyalashtirish uchun davlat budjeti resurslari yetarli emas. Shu bois, xalqaro moliya bozorlaridan uzoq muddatli va arzon kapital jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Yashil obligatsiyalar chiqarish, ESG (Environmental, Social, Governance) standartlarini joriy etish hamda davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarini kengaytirish SDG maqsadlariga mos investitsiyalarni rag‘batlantiradi

### *O‘zbekistonda xalqaro investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari*

#### **a) Suveren obligatsiyalar va xalqaro reytinglar**

O‘zbekiston 2019 yildan boshlab xalqaro moliya bozorlarida suveren obligatsiyalar chiqarishni boshladi. Bu mamlakatning kredit tarixini shakllantirish va investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qildi. Xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan kredit reytinglari investitsiya oqimlarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

#### **b) Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik**

Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlik infratuzilma, energetika va ijtimoiy sohalarida yirik loyihalarni moliyalashtirish imkonini bermoqda.

Ushbu institutlar nafaqat moliyaviy resurs, balki texnik ko‘mak va institutsional islohotlarni qo‘llab-quvvatlash orqali investitsion muhitni yaxshilaydi.

#### **v) Investitsion muhitni raqamlashtirish**

Raqamli davlat xizmatlari, “yagona darcha” tizimi va elektron tender platformalari investorlar uchun byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi. Raqamli shaffoflik korrupsiya xavfini pasaytirib, xalqaro investorlar ishonchini oshiradi.

#### **Investitsiyalarni jalb qilish uchun tavsiyalar:**

1. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish: yuqori tezlikdagi internet, elektron to‘lov tizimlari va xavfsiz ma’lumot almashinuvi imkoniyatlarini kengaytirish.

2. Huquqiy bazani mustahkamlash: investorlarning huquqlari kafolatlanganligi va shaffof qonunchilikni ta’minlash.

3. Barqarorlikka e’tibor qaratish: SDG–2030 maqsadlariga muvofiq loyihalarni rag‘batlantirish.

4. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: jahon moliya institutlari bilan aloqalarni mustahkamlash va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun imtiyozlar yaratish.

5. Kadrlarni tayyorlash: raqamli iqtisodiyot sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning xalqaro standartlarga mosligini ta’minlash.

#### **Asosiy muammolar:**

- Kapital bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi
- Valyuta risklari
- Huquqiy kafolatlarning barqaror emasligi
- ESG standartlarining to‘liq joriy etilmaganligi

#### **Taklif va tavsiyalar:**

1. Milliy kapital bozorini chuqurlashtirish va fond birjasini modernizatsiya qilish
2. Yashil va ijtimoiy obligatsiyalar emissiyasini kengaytirish
3. Investorlarga soliq imtiyozlari va kafolat mexanizmlarini takomillashtirish
4. Raqamli moliyaviy infratuzilmani kuchaytirish
5. SDG ko‘rsatkichlariga mos investitsiya monitoring tizimini yaratish

Xalqaro moliya bozorlaridan O‘zbekistonga investitsiyalarni jalb etish mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega. SDG–2030 maqsadlari va raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya siyosati innovatsion, yashil va inklyuziv o‘sishni ta’minlashga qaratilishi lozim. Raqamli transformatsiya, xalqaro moliya institutlari bilan

samarali hamkorlik va kapital bozorlarini chuqurlashtirish orqali O‘zbekiston global investitsiya tizimining faol ishtirokchisiga aylanishi mumkin. Jahon moliya bozorlaridan O‘zbekistonga investitsiyalarni yo‘naltirish jarayonida raqamli iqtisodiyot va SDG–2030 maqsadlari muhim ahamiyatga ega. Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi, qonun ustuvorligi va barqaror rivojlanishga e‘tibor mamlakatning jahon moliya maydonida raqobatbardoshligini oshiradi hamda uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Shu sababli, O‘zbekiston ushbu yo‘nalishlarda izchil ish olib borishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2025). *Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York: UN Publishing.
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi. (2025). *World Investment Report 2025: Investing in Sustainable Energy for All*. Geneva: UNCTAD.
3. Jahon banki. (2024). *World Development Report 2024: Finance for an Equitable Recovery*. Washington, DC: World Bank Publications.
4. Xalqaro valyuta jamg‘armasi. (2024). *Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia*. Washington, DC: IMF.
5. Osiyo taraqqiyot banki. (2023). *Asian Development Outlook 2023*. Manila: ADB.
6. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki. (2023). *Transition Report 2023–24*. London: EBRD.
7. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2024). *OECD Digital Economy Outlook 2024*. Paris: OECD Publishing.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *Pul-kredit siyosati sharhi va moliyaviy barqarorlik hisobotlari*. Toshkent.
9. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2023). *O‘zbekistonda investitsiya muhiti bo‘yicha yillik hisobot*. Toshkent.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2023). *O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari*. Toshkent.
11. Global Sustainable Investment Alliance. (2024). *Global Sustainable Investment Review 2024*.
11. World Economic Forum. (2025). *Global Risks Report 2025*. Geneva: WEF.

## **ERKIN IQTISODIY ZONALARDA MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

**Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna**  
**Qarshi Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi**  
[shamsiyevaruxsora190@gmail.com](mailto:shamsiyevaruxsora190@gmail.com)

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi, kapital va texnologiyalar harakatining erkinlashuvi sharoitida hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobat keskin kuchaymoqda. Investitsiya oqimlari, ishlab chiqarish quvvatlari va innovatsion texnologiyalar geografik jihatdan qayta taqsimlanmoqda. Bunday sharoitda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) mintaqaviy iqtisodiyotni jadallashtirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda eksport salohiyatini oshirishning samarali instrumenti sifatida shakllanmoqda. Jahon amaliyotida 3 500 dan ortiq maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat yuritib, ayrim davlatlarda sanoat eksportining 30–50 foizi aynan shu hududlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa EIZlarning iqtisodiy o‘rish va hududiy rivojlanishdagi strategik rolini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda erkin iqtisodiy zonalar tizimi kengaytirilib, 2024 yil holatiga ko‘ra 20 dan ortiq EIZ va o‘nlab kichik sanoat zonalarini faoliyat yuritmoqda. Ushbu zonalarda yuzlab investitsiya loyihalari amalga oshirilib, minglab yangi ish o‘rinlari yaratilgan.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, EIZ joylashgan hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi boshqa hududlarga nisbatan o'rtacha 1,3–1,5 barobar tez o'smoqda. Bu esa yalpi hududiy mahsulot o'sish sur'atlariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Erkin iqtisodiy zonalar mintaqaviy iqtisodiyotda bir necha yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, ular hududiy o'sish markazlarini shakllantiradi. Fransua Perrou tomonidan ilgari surilgan "o'sish qutblari" nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy rivojlanish bir tekis emas, balki alohida markazlarda konsentratsiyalanadi va keyinchalik atrof hududlarga tarqaladi. EIZlar aynan shunday iqtisodiy qutb vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, EIZlar sanoat diversifikatsiyasini ta'minlaydi. Mintaqa iqtisodiyoti faqat xomashyo eksportiga yoki qishloq xo'jaligiga tayanib qolsa, tashqi shoklarga nisbatan zaif bo'ladi. EIZlar orqali elektrotexnika, kimyo sanoati, farmatsevtika, qurilish materiallari va boshqa yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlar rivojlantirilmoqda. Ayrim zonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 60 foizdan ortig'i eksportga yo'naltirilgan bo'lib, bu tashqi savdo balansining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Bandlik nuqtai nazaridan ham EIZlar muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Har bir 1 mln AQSh dollari miqdoridagi sanoat investitsiyasi o'rtacha 20–25 ta bevosita ish o'rni yaratadi. Multiplikator effekti hisobga olinganda, transport, logistika, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'shimcha ish o'rinlari paydo bo'ladi va umumiy bandlik ta'siri 1,5–2 barobarga oshadi. Shu bilan birga, EIZ joylashgan hududlarda o'rtacha ish haqi darajasi boshqa hududlarga nisbatan 10–15 foiz yuqoriroq shakllanmoqda.

Biroq EIZlar avtomatik ravishda muvaffaqiyat keltirmaydi. Bir qator tizimli muammolar mavjud. Ayrim zonalarda energetika, transport va logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmagani investitsiya jarayonlarini sekinlashtiradi. Ikkinchi muammo fiskal samaradorlik bilan bog'liq. Haddan tashqari soliq imtiyozlari qisqa muddatda byudjet tushumlarini kamaytirishi mumkin. Agar investitsiya loyihalari yuqori qo'shilgan qiymat yaratmasa yoki eksportga yo'naltirilmagan bo'lsa, imtiyozlar iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamasligi ehtimoli mavjud. Uchinchidan, ayrim EIZlarda yig'uv (assembly) tipidagi ishlab chiqarish ustun bo'lib, mahalliy qo'shilgan qiymat 30–40 foiz darajasida qolmoqda. Bu esa texnologik transferning yetarli emasligini ko'rsatadi. To'rtinchidan, zonalar rivojlanishidagi hududiy nomutanosiblik mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutni kuchaytirishi mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Avvalo, EIZlar faqat soliq imtiyozlari emas, balki tayyor logistika, energetika, raqamli infratuzilma va malakali kadrlar bazasini ham taklif qilishi zarur. Ikkinchidan, klaster modeli asosida o'zaro bog'liq korxonalarni bir hududda joylashtirish ishlab chiqarish zanjirlarini qisqartiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Uchinchidan, EIZ faoliyatini baholash investitsiya hajmi bilan emas, balki yaratilgan qo'shilgan qiymat, eksport ulushi, ish o'rinlari soni, byudjetga tushumlar, investitsiya rentabelligi va texnologik yangilanish ko'rsatkichlari asosida amalga oshirilishi lozim. To'rtinchidan, mahalliy biznes bilan kooperatsiyani kuchaytirish mintaqaviy multiplikator effektini oshiradi va real iqtisodiy integratsiyani ta'minlaydi.

Umuman olganda, erkin iqtisodiy zonalar mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy va strategik elementi hisoblanadi. Ular investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va bandlikni kengaytirish orqali hududiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, ularning samaradorligi faqat imtiyozlar hajmi bilan emas, balki institutsional boshqaruv sifati, infratuzilma rivoji va iqtisodiy natijadorlik ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Kelgusida innovatsion yondashuvlar, raqamlashtirish, klaster modeli va natijadorlik indikatorlariga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Erkin iqtisodiy zona — bu shunchaki imtiyozli hudud emas, balki iqtisodiy resurslar, kapital va texnologiyalarni muayyan hududda konsentratsiya qiluvchi strategik mexanizmdir. Ilmiy asoslangan boshqaruv sharoitida u mintaqaning iqtisodiy "yadro"siga aylanadi va uzoq muddatli barqaror o'sishni ta'minlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Кузнецова Н.В. Цифровая трансформация свободных экономических зон в условиях развития цифровой экономики: монография. - Москва: ИНФРА-М, 2023. - 248 с.
2. Мироненко А.П. Институциональные механизмы развития свободных экономических зон: монография. - Санкт-Петербург: Питер, 2024. - 216 с.
3. Лаврентьев И.С. Экспортный потенциал свободных экономических зон и цифровые инструменты управления: монография. - Москва: Юрайт, 2023. - 198 с.
4. Поляков Д.М. Оценка эффективности функционирования свободных экономических зон на основе эконометрического моделирования: монография. - Казань: Казанский университет, 2024. - 204 с.
5. M.X. Voxidova. **Erkin iqtisodiy hududlar:** o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020. – 40 b.
6. Z.A. Jabborova. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash borasida ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanish. Innovatsion iqtisodiyot. – Tom 1 №1(2025) –B. - 369-375.

## SUG‘URTA XIZMATLARINI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

**Yusupov Akbar Haydarovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

So‘nggi yillarda ESG (environmental, social, governance – ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) tamoyillari xalqaro moliya bozorlarida strategik mezonga aylandi. Yirik investorlar, suveren moliya fondlari, xalqaro moliyaviy institutlar va reyting agentliklari kompaniyalarni baholashda faqat moliyaviy natijalarni emas, balki ularning ekologik ta’siri, ijtimoiy mas’uliyati va korporativ boshqaruv sifatini ham hisobga olmoqda. Bu tendensiya sug‘urta sohasini ham chetlab o‘tmaydi, sug‘urta kompaniyalari bir tomondan ESG talablarini inobatga olgan holda o‘z investitsiya portfelini shakllantiradi, ikkinchi tomondan esa, ESG risklarini (iqlim o‘zgarishi, ijtimoiy xavflar, boshqaruv xatarlari) moliyaviy himoya qilishda markaziy o‘rin tutadi.

Iqlim o‘zgarishi, cho‘llashish, suv tanqisligi, ekstremal havo hodisalari kabi ekologik omillar risklarning strukturasi keskin o‘zgartirayapti. Qishloq xo‘jaligi, infratuzilma, aholi turar joylari va sanoat ob’ektlari uchun tabiiy xavflar darajasi oshmoqda. Bunday sharoitda sug‘urta kompaniyalarining an’anaviy risk modellari yetarli emas, balki ular ESG omillarini inobatga olgan holda andarrayting, tariflash va qayta sug‘urta siyosatini qayta ko‘rib chiqishi zarur. Shu nuqtai nazardan, ESG tamoyillarini sug‘urta xizmatlariga joriy etish tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishiga bog‘liq risklarni to‘g‘ri baholash, davlat byudjeti zimmasidagi favqulodda xarajatlarning bir qismini bozor mexanizmlari orqali sug‘urta sektorga o‘tkazish, “yashil” infratuzilma va barqaror loyihalarni riskdan himoya qilish orqali ularni rag‘batlantirish imkonini beradi.

ESG tamoyillarining ijtimoiy komponenti aholining teng sharoitlarda moliyaviy himoyalaniishi, kam ta’minlangan aholi qatlamini sug‘urta himoyasiga kengroq jalb qilish, mehnat munosabatlarida adolatli shartlarni ta’minlash kabi masalalarni qamrab oladi. Sug‘urta xizmatlarini shu yo‘nalishda rivojlantirish ijtimoiy yordam va davlat byudjeti yukini qisman sug‘urta mexanizmlari orqali qayta taqsimlash, kam daromadli aholi, qishloq joylardagi aholi va kichik biznes uchun mikrosug‘urta mahsulotlarni ishlab chiqish, sug‘urta xizmatlarining shaffofligini va da’volarni hal etishda adolat va tezkorlikni ta’minlashga, natijada esa, sug‘urta kompaniyalariga ishonchni oshirishga va mijozlar bazasini kengaytirishga olib keladi. Bu esa, sug‘urta xizmatlarini rivojlantirishda ESGni dolzarb va majburiy yo‘nalishga aylantiradi.

O‘zbekistonda ham “2019-2030-yillarga mo‘ljallangan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasi” qabul qilinib, iqtisodiyot tarmoqlarida resurs tejamkor va ekologik barqaror biznes

modellarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi (Qaror, 2019). Shuningdek, mamlakat SDG obligatsiyalari va “yashil” moliyaviy instrumentlar orqali barqaror loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini tashkil etmoqda (mf.uz, 2021). Ana shunday sharoitda, sugʻurta bozorini ESG tamoyillari asosida modernizatsiya qilish, “yashil sugʻurta” va ESGga asoslangan mahsulotlarni rivojlantirish bu jarayonning tabiiy va zarur tarkibiy qismi hisoblanadi.

Anʻanaviy sugʻurta biznes modelida asosiy eʼtibor risklarni baholash, tarifni hisoblash, polislarini sotish va daʼvolarni qoplashga qaratiladi. ESG tamoyillari esa, ushbu zanjirni tubdan qayta koʻrib chiqishni talab qiladi. Chunki, ESGning ekologik komponenti tabiiy ofatlar, iqlim oʻzgarishi, uglerod intensiv tarmoqlar, bioxilma-xillikka zarar kabi omillarni sugʻurtalanadigan obʼekt va mijozlarni baholashda inobatga olinishini (masalan, energiya samarador, “yashil” binolar uchun chegirmalar berilishi), ijtimoiy komponenti mehnat huquqlari, mehnat xavfsizligi, gender tenglik, mijozlar huquqlarini himoya qilish, sugʻurta qamrovi kabi masalalarni hamda korporativ boshqaruvda esa, direktorlar kengashining mustaqilligi, korrupsiyaga qarshi siyosat, shaffof hisobot, ESG boʻyicha ichki siyosat va nazorat tizimlari mavjudligini taʼminlaydi.

Capgemini (2023) va UNEP FI tomonidan ESG andarrayting boʻyicha ishlab chiqilgan yoʻl-yoʻriqlarda ESG ballari yuqori boʻlgan mijozlar uchun tarif va shartlarda ragʻbatlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish, ESG risklari yuqori boʻlgan tarmoqlar uchun esa cheklovchi va qatʼiyroq talablarni qoʻllash taklif etiladi. Shu nuqtai nazardan yondoshilganda, Oʻzbekiston sharoitida ESG andarrayting sugʻurtalash amaliyotining quyidagi yoʻnalishlarida oʻzining amaliy natijalarini berishi mumkin:

- infratuzilmaviy “yashil” loyihalarni sugʻurtalashda, quyosh va shamol elektr stansiyalari, energiya samaradorlik loyihalari uchun maxsus konstruksiya qilingan polislar, texnik va quruvchi javobgarlik sugʻurtalari, ekspluatatsiya davridagi risklar sugʻurtasi;

- qishloq xoʻjaligida iqlim xavflarini sugʻurtalashda, qurgʻoqchilik, sel, boʻron kabi xavflar uchun indekslashtirilgan sugʻurta mahsulotlarini ESG tamoyillariga bogʻlash (masalan, suv tejankor texnologiyalar qoʻllagan fermerlarga imtiyozli tariflar);

- ijtimoiy sugʻurta va mikrosugʻurtada, yaʼni kam daromadli aholi, migrantlar, nogironligi boʻlgan shaxslar kabi himoyaga muhtoj guruhlar uchun arzon, sodda va raqamli kanallar orqali sotiladigan sugʻurta mahsulotlari – ESGning ijtimoiy komponentiga toʻgʻridan-toʻgʻri xizmat qiladi;

- ekologik javobgarlik sugʻurtasida, korxonaning atrof-muhitga yetkazgan zarari uchun javobgarlikni sugʻurtalash, korxonalarini ekologik standartlarga rioya qilishga ragʻbatlantiradi.

ESGga asoslangan investitsion siyosatning mohiyati shundan iboratki, sugʻurta kompaniyalari uzoq muddatli majburiyatlarga ega boʻlgan institutsional investorlar sifatida barqaror investitsiya siyosatini amalga oshirish imkoniyatiga ega boʻladi. EY (2021) maʼlumotlariga koʻra, koʻplab sugʻurta kompaniyalari yuqori emissiyali tarmoqlardan chiqish va ESGga asoslangan obligatsiyalar, “yashil” va “SDG” obligatsiyalarga sarmoyalarni koʻpaytirish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Oʻzbekistonda ham suveren SDG obligatsiyalari va milliy banklar tomonidan ishlab chiqilgan “Barqaror moliyalashtirish qoidalari” ESGga asoslangan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratmoqda (mf.uz, 2021). Sugʻurta kompaniyalari ushbu instrumentlar bozorida faol ishtirok etish orqali oʻz investitsion portfellarini diversifikatsiya qilishi, ESG risklarini pasaytirishi va milliy barqaror rivojlanish maqsadlariga hissa qoʻshishi mumkin.

Yuqoridagi jihatlarni inobatga olganda, bizning fikrimizcha, Oʻzbekiston uchun ESG tamoyillariga asoslangan sugʻurta xizmatlarini takomillashtirish uchun bu yoʻnalishda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi qonunchilikka ESG tamoyillarini aks ettiruvchi normalar kiritish (masalan, ESG risklariga asoslangan risk-boshqaruvi va kapital talablari);

- ESG hisoboti va baholash boʻyicha minimal talablarni joriy etish;

- “yashil sugʻurta” mahsulotlari uchun soliq va boshqa ragʻbatlantirish mexanizmlarini joriy etish (masalan, ekologik javobgarlik sugʻurtasini joriy etish va unga imtiyozlar);

ESG bo'yicha milliy reyting yoki indeks ishlab chiqishda sug'urta tarmog'ini alohida blok sifatida kiritish;

Milliy istiqbolli loyihalar agentligi huzurida ESG va barqaror sug'urta bo'yicha ekspertlar kengashini tashkil etish;

sug'urta kompaniyalari o'rtasida ESG ta'lim va tadqiqot markazlari, malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish;

har bir yirik sug'urta kompaniyasida ESG strategiyasi va "yo'l xaritasi"ni qabul qilish;

ESG bo'yicha alohida mas'ul shaxs yoki tarkibiy tuzilma tashkil etish;

andarrayting, investitsiya, risk boshqaruvi, HR va marketing jarayonlariga ESG mezonlarini integratsiya qilish;

"Yashil" infratuzilma, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, ekologik javobgarlik, iqlim xavflari va ijtimoiy segmentga qaratilgan yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish;

raqamli platformalar orqali ESGga mos sug'urta mahsulotlarini ommalashtirish, mijozlarga ESG bo'yicha ma'lumot va maslahat xizmatlarini taqdim etish.

ESG tamoyillari asosida sug'urta xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan nazariy va konseptual tahlillar ESGga asoslangan sug'urta biznes modeli strategik ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Sug'urta kompaniyalari ESGni faqat ob'ru yoki ijtimoiy mas'uliyat deb emas, balki risk-menejment, andarrayting, investitsiya va korporativ boshqaruvning uzviy qismi sifatida qabul qilgan taqdirdagina barqaror raqobat ustunligiga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tadqiqotimizda taklif etilgan ESGga asoslangan sug'urta xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari me'yoriy-huquqiy, institutsional, kompaniya darajasi va mahsulot-bozor bloklaridan iborat bo'lib, O'zbekiston sug'urta bozori uchun bosqichma-bosqich amalga oshirish mumkin bo'lgan chora-tadbirlarni belgilaydi.

ESG tamoyillari sug'urta kompaniyalarining risk profili, investitsiya strategiyasi va bozordagi ob'rusini tizimli ravishda shakllantiradi, ESG ko'rsatkichlarini inobatga olgan kompaniyalar moliyaviy va operatsion natijalarda ustunlik ko'rsatmoqda (Meral va boshqalar, 2026).

BMTning Atrof-muhit dasturini moliyalashtirish tashabbusi, Yevropa sug'urta va pensiya nazorati organi va boshqa xalqaro tashabbuslar ESGning sug'urta sektoridagi o'rnini global standartlar darajasida aniqlab bergan, shu sababdan milliy tartibga solish tizimi ularga uyg'unlashishi maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" va barqaror moliya bo'yicha strategik hujjatlar mavjud bo'lsa-da, ESGning sug'urta sektoriga maqsadli va tizimli integratsiyasi hali boshlang'ich bosqichda. Shu sababdan, ESG tamoyillariga asoslangan sug'urta xizmatlarini takomillashtirish O'zbekiston uchun nafaqat sug'urta tarmog'ini modernizatsiya qilish, balki "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va korporativ boshqaruv sifatini oshirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar (Список литературы/ References):**

Capgemini. (2023) Innovating Underwriting with ESG Risk and Pricing Models. [https://www.capgemini.com/insights/research-library/sustainable-underwriting-how-insurers-can-account-for-esg-risks-and-enable-dynamic-pricing/?utm\\_source](https://www.capgemini.com/insights/research-library/sustainable-underwriting-how-insurers-can-account-for-esg-risks-and-enable-dynamic-pricing/?utm_source)

EY, 2021 How the insurance sector can drive sustainable finance. [https://www.ey.com/en\\_gl/insights/financial-services/emeia/how-the-insurance-sector-can-drive-sustainable-finance?utm\\_source](https://www.ey.com/en_gl/insights/financial-services/emeia/how-the-insurance-sector-can-drive-sustainable-finance?utm_source)

Meral va boshqalar, 2026 Hasan Meral, Behlul Ersoy, Mesut Dogan Enhancing sustainability: The impact of ESG factors in global insurance performance. *Borsa Istanbul Review*, Volume 26, Issue 1, 2026, 100757, <https://doi.org/10.1016/j.bir.2025.10.030>.

mf.uz, 2021 Republic of Uzbekistan SDG bond framework. [https://api.mf.uz/media/document\\_files/SDG\\_Bond\\_FrameworkX0KO2oV.pdf?utm\\_source](https://api.mf.uz/media/document_files/SDG_Bond_FrameworkX0KO2oV.pdf?utm_source)

Qaror, 2019 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-sonli “2019 - 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/en/docs/4539502>

## **RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
“Buxgalteriya hisobi” fakulteti talabasi  
**Abdukarimov Qamariddin Isroiljon o‘g‘li**  
**Ilmiy rabar: Beknazarov Zafarjon Ergachevich**  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

XXI asr boshidan jahon hamjamiyatining asosiy strategik maqsadlaridan biri barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish hisoblanadi. BMT tomonidan 2015 yilda qabul qilingan «2030 yilgacha barqaror rivojlanish» maqsadlari (SDG) doirasida iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy tenglik va ekologik muvozanatni ta‘minlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu kontekstda raqamli texnologiyalar iqtisodiy barqarorlik mexanizmlarini tubdan o‘zgartirayotgan asosiy katalizator sifatida ilmiy-amaliy tadqiqotlar markaziga chiqib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasi qabul qilinib, milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish davlat siyosatining markaziy yo‘nalishiga aylangan. Shunday ekan, raqamli texnologiyalar va barqaror iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy jihatdan tizimli tahlil etish zarurati tug‘ilmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda «raqamli texnologiyalar» tushunchasi keng qamrovli mazmunga ega bo‘lib, sun‘iy intellekt (AI), mashinali o‘rganish (Machine Learning), katta ma‘lumotlar tahlili (Big Data Analytics), bulut hisoblash (Cloud Computing), narsalar interneti (IoT), blokzanjir (Blockchain) hamda moliyaviy texnologiyalar (FinTech) majmuini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilar ushbu texnologiyalarni «umumiy maqsadli texnologiyalar» (General Purpose Technologies) toifasiga kiritadilar, chunki ular iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samaradorlikni oshirish imkoniyatini beradi (Bresnahan va Trajtenberg, 1995). «Sanoat 4.0» konsepsiyasi raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlari bilan integratsiyalashuvining yangi bosqichini belgilamoqda. Ushbu paradigmada ishlab chiqarishning raqamli egizaklari (Digital Twins), avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilish tizimlari va resurslarni real vaqt rejimida boshqarish imkoniyatlari barqaror iqtisodiy rivojlanishning instrumental asosini tashkil etadi.

Raqamli texnologiyalar barqaror iqtisodiy rivojlanishga quyidagi asosiy bosqichlar orqali ta‘sir ko‘rsatadi: Birinchi bosqich — mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligining oshishi. McKinsey Global Institute tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni to‘liq joriy etgan tarmoqlarda mehnat unumdorligi 20—25 foizga, resurs sarfi esa 15—30 foizga kamayishi kuzatilgan. Bu holat Solow-Swan iqtisodiy o‘shish modeli doirasida texnologik progress koeffitsientini sezilarli darajada oshirishga olib keladi; Ikkinchi bosqich — innovatsiya tizimlarining faollashishi. Schumpetercha «yaratuvchi vayronalik» (Creative Destruction) nazariyasi nuqtai nazaridan, raqamli texnologiyalar eski ishlab chiqarish modellarini yangilari bilan almashtirib, iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, start-up ekotizimlari va texnologik klasterlarning shakllanishi yangi raqobatli ustunliklarni vujudga keltiradi; Uchinchi bosqich — moliyaviy inklyuzivlikni ta‘minlash. Raqamli to‘lov tizimlari, mobil banking va kriptoalyuta texnologiyalari moliyaviy xizmatlardan chetda qolgan aholini rasmiy iqtisodiyotga jalb etmoqda. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, moliyaviy inklyuzivlikning 10 foizga oshishi YaIM o‘shishiga 0,4—0,8 foizlik qo‘shimcha hissa qo‘shishi tadqiqotlarda isbotlangan; To‘rtinchi bosqich — ekologik samaradorlikning yuksalishi. IoT va AI asosidagi «aqlli shaharlar» (Smart Cities) hamda «aqlli energetika» (Smart Grid) tizimlari energiya sarfini optimallashtirish orqali uglerod emissiyasini kamaytirish imkonini beradi. Bu holat iqtisodiy

o'sishning ekologik yukini kamaytirib, barqarorlikning «yashil» o'lchovini kuchaytirishga hissa qo'shadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud. OECD ma'lumotlariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot ulushi YaIMning 15 foizidan oshgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning barqarorligi (volatillikning pasayishi) 30 foizga yaxshilangan. Jumladan, Estoniya, Janubiy Koreya va Singapur tajribasi raqamli transformatsiya orqali iqtisodiy diversifikatsiya va tashqi shoklarga chidamlilikni oshirish mumkinligini ko'rsatmoqda. O'rta daromadli mamlakatlar uchun esa raqamlashtirish «o'rta daromad tuzoq»idan chiqishning instrumental yo'li sifatida qaralmoqda. Daron Acemoglu va boshqa institutsional iqtisodchilarning ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalar institutlarsiz o'zidan-o'zi barqarorlikni ta'minlay olmaydi; biroq kuchli institutsional muhit bilan birgalikda ular iqtisodiy o'zgartirishlarning tezlatgichiga aylanadi.

Raqamli texnologiyalarning barqaror rivojlanishga hissasi salbiy ta'sirlarni ham inobatga olmay turib to'liq baholanmaydi. Birinchidan, avtomatlashtirish va robotlashtirish mehnat bozorida tarkibiy ishsizlikni kuchaytirishi mumkin, bu esa ijtimoiy tengsizlikning ortishiga olib keladi (Frey va Osborne, 2017). Ikkinchidan, ma'lumotlar markazlari va raqamli qurilmalarning energiya iste'moli ortib borishi ekologik yukni kamaytirish maqsadlariga zid harakat yaratmoqda: ayrim hisob-kitoblarga ko'ra, global IT-sektori umumiy elektr energiyasining 7—10 foizini iste'mol qiladi. Uchinchidan, raqamli tengsizlik (Digital Divide) muammosi resurslar va imkoniyatlardagi mavjud tafovutlarni yanada kuchaytirishi xavfi mavjud.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Raqamli texnologiyalar barqaror iqtisodiy rivojlanishning passiv vositasi emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik maqsadlarni bir vaqtda amalga oshirishga qodir tizimli omil hisoblanadi. Ularning ta'sirchanlik darajasi esa texnologiyaning o'ziga ko'ra emas, balki uni qo'llab-quvvatlovchi siyosat muhiti, institutsional salohiyat va inson kapitalining sifatiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

— raqamli infratuzilmaga davlat investitsiyalarini YaIMning kamida 2 foizi miqdorida ta'minlash;

— raqamli ko'nikmalarni rivojlantiruvchi ta'lim islohotlarini mehnat bozori talablari bilan muvofiqlashtirish;

— «yashil raqamlashtirish» tamoyilini — energiya samaradorligi talablarini ICT loyihalarida majburiy standart sifatida qo'llash;

— raqamli tengsizlikni kamaytirish maqsadida qishloq va chekka hududlarda internet infratuzilmasini imtiyozli shartlarda kengaytirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bresnahan T., Trajtenberg M. General Purpose Technologies: 'Engines of Growth'? // *Journal of Econometrics*. — 1995. — Vol. 65. — P. 83—108.

2. Acemoglu D., Robinson J.A. *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. — New York: Crown Publishers, 2012. — 529 p.

3. Frey C.B., Osborne M.A. The Future of Employment: How Susceptible are Jobs to Computerisation? // *Technological Forecasting and Social Change*. — 2017. — Vol. 114. — P. 254—280.

4. McKinsey Global Institute. *Notes from the AI Frontier: Modeling the Impact of AI on the World Economy*. — McKinsey & Company, 2018.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. — Toshkent, 2020.

6. OECD. *Measuring the Digital Transformation: A Roadmap for the Future*. — Paris: OECD Publishing, 2019.

7. World Bank. *The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19*. — Washington DC, 2022.

8. Schwab K. *The Fourth Industrial Revolution*. — Geneva: World Economic Forum, 2016. — 172 p.

9. United Nations. Transforming Our World: the 2030 Agenda for Sustainable Development. Resolution A/RES/70/1. — New York: UN, 2015.

10. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. — New York: McGraw-Hill, 1996.

## **BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (SDG–2030) VA RAQAMLI IQTISODIYOT INTEGRATSIYASI: ESTONIYA TAJRIBASI HAMDA O‘ZBEKISTON AMALIYOTI**

**Imomberdiyeva Mumtozoy Ilxomjon qizi**

Toshkent Xalqaro Universiteti

Biznes va Innovatsion fakulteti 2-bosqich talabasi

**imomberdiyevamumtoza@gmail.com**

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015-yilda 2030-yilgacha mo‘ljallangan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM, SDG–2030) qabul qilindi. Ushbu maqsadlar kambag‘allikni qisqartirish, sifatli ta‘limni ta‘minlash, gender tengligini rivojlantirish, toza energiyadan foydalanish hamda iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi sharoitda mazkur Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda raqamli texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi davlat boshqaruvi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohaslarini tubdan o‘zgartirmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari nimalardan iborat?

Raqamli iqtisodiyot — bu ma‘lumotlar, internet texnologiyalari va raqamli platformalar asosida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimidir.

U quyidagi ustunliklarni beradi:

- resurslardan samarali foydalanish;
- shaffoflik va hisobdorlikni oshirish;
- xarajatlarni kamaytirish;
- ekologik muammolarni qisqartirish.

Shu jihatdan raqamli iqtisodiyot SDG–2030 ning 9-maqsadi (sanoat, innovatsiya va infratuzilma), 12-maqsadi (mas‘uliyatli iste‘mol) hamda 16-maqsadi (samarali institutlar) bilan bevosita bog‘liqdir.

Maqsadlari :

- barqaror va ishonchli energiya;
- munosib mehnat va iqtisodiy o‘sish;
- barqaror shaharlar va aholi punktlari;
- iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash;
- barqaror taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik va shu kabilarni o‘z ichiga oladi.

Vazifalari:

-2030-yilgacha mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish

-Aholining barcha shakldagi kambag‘allik darajasini tugatish bo‘yicha dasturlar va strategiyalarni amalga oshirishga prognoz qilinadigan mablag‘ni ta‘minlash uchun turli manbalardagi jumladan, rivojlanish maqsadida hamkorlikni faollashtirish asosidagi salmoqli zaxiralarning safarbar etish.

-2030-yilgacha aholining ijtimoiy zaif qatlamlarining yashash sharoitlarini yaxshilash jumladan, ularga iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik muammolarning salbiy ta‘sirining oldini olish va shu kabilarni o‘z ichiga oladi<sup>269</sup>.

---

<sup>269</sup> Barqaror rivojlanish maqsadlari statistikasi saytdan olingan. <https://nsdg.stat.uz/uz/databanks>

Xorijiy tajriba sifatida Estoniya modeli ko‘rib chiqmoqchimiz. Estoniya raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirgan davlatlardan biridir. Jumladan:

- davlat xizmatlarining deyarli barchasi onlayn shaklda ko‘rsatiladi;
- elektron identifikatsiya (ID-karta) tizimi mavjud;
- onlayn ovoz berish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan;
- e-rezidentlik dasturi orqali xorijiy investorlar jalb qilinmoqda;

Yuqorida raqamli chora-tadbirlar muvaffaqiyatli amalga oshirib, mamlakatda quyidagi ijobiy natijalarga erishildi:

- byurokratik xarajatlar qisqardi (iqtisodiy samaradorlik);
- qog‘oz sarfi kamaydi (ekologik samaradorlik);
- korrupsiya darajasi pasaydi (ijtimoiy samaradorlik);
- davlat boshqaruvida mobillik oshdi (iqtisodiy samaradorlik);

Bu tajriba raqamli iqtisodiyot barqaror rivojlanishning amaliy instrumenti ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston 2030-yilgacha barqaror rivojlanish strategiyasini qabul qilgan va raqamli transformatsiyani ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan.

Jumladan, O‘zbekistonda raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo‘yicha asosiy hujjatlardan biri — Prezidentning 2023 yil 24 maydagi PQ-162-son qarori bo‘lib, u raqamli xizmatlar qamrovini oshirish va sohalarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shuningdek, «Raqamli O‘zbekiston-2030» strategiyasi (PF-6079) tarmoqlarni raqamlashtirishning fundamental dasturi hisoblanadi.

Aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga raqamli xizmatlardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, byurokratik tartibotlarni qisqartirish, shuningdek, davlat boshqaruvi, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda hududlarni raqamli transformatsiya qilish maqsadida:

- «Raqamli hukumat» va «Raqamli hudud» dasturlari doirasida 2023-2024 yillarda amalga oshiriladigan 300 ta ustuvor loyihalar amalga oshirilmoqda;
- davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo‘yicha 112 ta ustuvor loyihalar amalga oshirilmoqda;
- iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini raqamlashtirish bo‘yicha 51 ta ustuvor loyihalar amalga oshirilmoqda;
- hududlarni raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha 137 ta ustuvor loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar vazirligi shakllantirilib soha va tarmoqlarni, shu jumladan sog‘liqni saqlash va suv xo‘jaligi sohasidagi raqamlashtirish loyihalarini muvofiqlashtirib borish va jadallashtirish uchun mas’ul sifatida faoliyat olib bormoqda.

Bunda, raqamlashtirish loyihalarini samarali amalga oshirish hamda mas’ul vazirliklar bilan hamkorlikda ishlash va ularga har tomonlama amaliy yordam ko‘rsatish uchun «Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi» davlat muassasasi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan «loyiha ofislari» faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Yuqoridagilardan mamlakatda amalga oshirilayotgan asosiy yo‘nalishlar sifatida elektron hukumat tizimini rivojlantirish, davlat xizmatlarini onlayn shaklga o‘tkazish, iqtisodiyotda raqamli to‘lov tizimlarini kengaytirish kabilarni ko‘rsatish mumkin.

IT sohasini qo‘llab-quvvatlash, jumladan IT Park Uzbekistan faoliyati misol bo‘ladi.

Bundan tashqari, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, sun’iy intellekt va “aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish ishlari olib borilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etsa-da, ayrim muammolar mavjud:

- raqamli tafovut (internetga teng kirish imkoniyati yo‘qligi);
- kiberxavfsizlik masalalari;
- malakali IT mutaxassislar yetishmovchiligi;

- hududlar o'rtasidagi infratuzilma farqi.

**Raqamli tafovut (internetga teng kirish imkoniyati yo'qligi)** — bu jamiyatdagi ayrim guruhlar yoki hududlarning internet va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati cheklangan yoki umuman yo'qligi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy tengsizlikdir.

**Malakali IT mutaxassislar yetishmovchiligi** — bu mehnat bozorida zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nikmaga ega mutaxassislar sonining talab darajasiga yetmasligi holatidir.

Ushbu muammolarni hal etish barqaror rivojlanish jarayonini tezlashtiradi

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot SDG–2030 maqsadlariga erishishda samarali vosita hisoblanadi. Estoniya tajribasi raqamli boshqaruvning iqtisodiy va ekologik samaradorligini isbotlaydi. O'zbekistonda ham raqamli transformatsiya jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda va bu barqaror rivojlanish yo'lida muhim qadamdir.

Kelgusida raqamli infratuzilmani kengaytirish, inson kapitalini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 2022 yildagi 83-sonli "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori.

2. G G'ulomova "Yashil makon" umummilliy loyihasi aholi hayoti sifatini oshirish omili// Yangi O'zbekiston gazetasi internet nashri. 12 aprel 2022 <https://yuz.uz/news/yashil-makon-umummilliy-loyihasi-aholi-hayoti-sifatini-oshirish-omili>

3. *Saudi Green Initiative (SGI)* <https://www.greeninitiatives.gov.sa/about-sgi/>

4. A.V. Vahabov , Sh.X Xajibakiyev "Yashil iqtisodiyot" darslik. <https://arm-admin.xiuedu.uz/media/books/r7mMHIGIs67yIVFmXyjn.pdf>

## **THE ROLE OF INTERNATIONAL MONETARY-CREDIT ORGANIZATIONS IN ACHIEVING SDG – 2030**

**Abdullaev Nodirbek**

Tashkent state university of economy

The major of International monetary-credit relationship

A fourth-year undergraduate student

**[nodirbek662@gmail.com](mailto:nodirbek662@gmail.com)**

2030 Agenda for Sustainable Development, was approved by UNO in 2015, indicated the new model of the global development. It consists of 17 SDGs and 169 targets and also anticipate the reduction of poverty, providing economic growth and reinforcing ecological stability.<sup>270</sup>

Achieving these goals requires significant financial resources, institutional capacity, and international cooperation. Many developing countries face financial limitations, making external funding and development assistance essential for implementing the SDGs.

Therefore, coordinated global efforts and effective financial mechanisms are necessary to ensure sustainable and inclusive development by 2030. In this context, international monetary-credit organizations play a key role in supporting countries in achieving the SDGs.

The SDGs adopted in 2015 are an historic global achievement. These 17 targets, in areas such as health, gender, jobs, and poverty reduction, are part of a comprehensive global agenda to end poverty in a single generation.

---

<sup>270</sup> [www.sdgs.un.org](http://www.sdgs.un.org)

The SDGs, which were formulated with strong participation from the World Bank Group (WBG), are fully consistent with the WBG’s own twin goals to end poverty and build shared prosperity in a sustainable manner.

Nearly 800 million people now live in extreme poverty – earning \$1.90 per day or less. For the first time, the world has set a deadline for ending extreme poverty – by 2030. Among the 17 SDGs, ending extreme poverty is goal number one, and it is the same for the WBG.

Over the past years, the WBG has made several commitments related to the 2030 Development Agenda, including, but not limited to: the Millennium Development Goals (MDGs) agreement in Addis in 2015 to a collective \$400 billion in development spending from 2016-2018, as well as measures to promote domestic resource mobilization; at our Annual Meetings in Lima, the WBG commitment to Household Budget Surveys for the 78 poorest countries; and the at Paris Agreement talks, the WBG’s announced targets for the percentage of our portfolio that will be climate financing.<sup>271</sup>

European bank for reconstruction and development (EBRD) was established in 1991 and supports the process of passing market economies in Central and Eastern Europe, Central Asia and other regions. Since 2015 EBRD has operated its operations with integrating SDG – 2030.

EBRD has operated its activities about green economy and climate change by “Green economy transition” (GET). It consists of the followings:

- financing renewable energy projects;
- supporting to increase the energy productivity programs;
- carrying out investments which are directed to reduce carbon emissions.

EBRD has increased the size of green financing year by year.<sup>272</sup>

The Tajikistan National Development Strategy (NDS) 2030 was launched in 2016. Since then, several SDG targets and indicators have been incorporated into national strategies, but gaps remain. In 2017, the government formulated a national road map for financing the NDS and the SDGs to better understand the gaps and necessary steps to increase financing for development.

ADB approved a grant of \$41.8 million in 2018 and additional financing of \$38 million in 2022 to support the building of climate-resilient water supply and sanitation infrastructure in the capital Dushanbe.

In 2020, ADB approved a \$105 million grant to drive the restructuring of existing power utilities, create a new power sector regulator, adopt a tariff methodology, and set up a centralized cash control system.

Highlighted results from completed operations (2016–2023):

- 2,7 million people benefiting from improved health services, education services, or social protection;
- 999,000 women and girls with increased resilience to climate change, disasters, and other external shocks.

Table 1.  
Number of ADB Implemented Projects by SDG, 2024<sup>273</sup>

SDG	Number of projects
Climate action	156
Gender equality	140
Poverty	79
Decent work and economic growth	56
Industry, innovation and infrastructure	49
Affordable and clean energy	45

<sup>271</sup> [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

<sup>272</sup> [www.ebrd.org](http://www.ebrd.org)

<sup>273</sup> [www.asd.org](http://www.asd.org)

Clean water and sanitation	38
Zero hunger	33
Responsible consumption and production	32
Reduced inequalities	31
Sustainable cities and communities	30
Partnerships for the goals	26
Good health and well-being	21
Peace, justice and strong institutions	21
Quality education	15
Life on land	11
Life below water	6

Table 1 confirms that the highest number of ADB projects is concentrated in Climate Action (156) and Gender Equality (140). Fewer projects are directed to environmental goals such as Life Below Water and Life on Land, showing a stronger focus on urgent socio-economic and climate-related challenges.

The Islamic Development Bank (IsDB) established the “Lives and Livelihoods Fund” (LLF) for the SDGs in 2016. This fund is a US\$2.5 billion development initiative financed by a global coalition, which includes:

- The Abu Dhabi Fund for Development;
- The Gates Foundation;
- The Islamic Development Bank;
- The Islamic Solidarity Fund for Development;
- The King Salman Humanitarian Aid and Relief Center;
- The Qatar Fund for Development.<sup>274</sup>

The objective of the LLF is to lift the poorest populations out of poverty in 33 IsDB member countries by providing concessional and sustainable financing aimed at achieving nine SDG targets. The Fund supports access to key components of well-being, including primary healthcare, productive agriculture, and essential social infrastructure.

Since 2016, the LLF has been implementing 22 projects in 22 IsDB member countries, with a total value of US\$1.44 billion. Of the allocated funds, 47 percent (US\$681 million) has been directed to healthcare, 39 percent (US\$557 million) to agriculture, and 14 percent (US\$204 million) to basic infrastructure. From a regional perspective, US\$983 million has been allocated to Sub-Saharan Africa, US\$158 million to Asia, and US\$300 million to the Middle East and North Africa.<sup>275</sup>

In conclusion, international monetary-credit organizations play a vital role in achieving the SDGs by providing financial resources, technical assistance, and institutional support. The World Bank Group focuses on poverty reduction and shared prosperity, the European Bank for Reconstruction and Development promotes green economy transition, the Asian Development Bank supports climate and social development projects, and the Islamic Development Bank finances healthcare and infrastructure initiatives. Their coordinated efforts are essential for ensuring sustainable and inclusive development by 2030.

#### References

1. United Nations (2015). *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York: United Nations;
2. World Bank Group (2023). *World Bank Group and the Sustainable Development Goals*. Washington, DC: World Bank;
3. European Bank for Reconstruction and Development (2023). *EBRD and the Sustainable Development Goals: Green Economy Transition Approach*. London: EBRD;

<sup>274</sup> [www.isdb.org](http://www.isdb.org)

<sup>275</sup> [www.isdb.org](http://www.isdb.org)

4. Asian Development Bank (2024). *ADB and the Sustainable Development Goals – Project Data and Annual Report*. Manila: ADB;
5. Islamic Development Bank (2023). *Lives and Livelihoods Fund Progress Report*. Jeddah: IsDB;
6. United Nations Development Programme (2023). *Sustainable Development Goals Report*. New York: UNDP;
7. Organisation for Economic Co-operation and Development (2022). *Financing Sustainable Development: Global Outlook*. Paris: OECD.

## **BARQAROR RIVOJLANISH (SDG–2030) VA RAQAMLI IQTISODIYOT: INTEGRATSIYA IMKONIYATLARI VA MUAMMOLAR**

**Sevinch Xamrayeva Xurshid qizi**

Tashkent international university  
Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy  
Munosabatlar yo‘nalishi talabasi  
Sevinchxamrayeva24@gmail.com

Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM-2030) va raqamli iqtisodiyot integratsiyasi samaradorlikni oshirish, resurslarni tejash (yashil iqtisodiyot) va boshqaruvni shaffoflashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Sun'iy intellekt, IoT va katta ma'lumotlar orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda raqamli tengsizlik, kiberxavfsizlik va infratuzilma yetishmasligi asosiy muammolar hisoblanadi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari, deganda nima tushuniladi?

Global maqsadlar, deb ham ataladigan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan kambag'allikka barham berish, sayyoramizni himoya qilish va 2030-yilga qadar barcha odamlar tinchlik va farovonlikdan bahramand bo'lishini ta'minlashga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish yo'lidagi universal chorlov sifatida qabul qilingan. Barqaror rivojlanish sohasidagi 17 maqsad kompleks xususiyatga ega bo'lib, ularda bir sohadagi harakatlar boshqa sohalardagi natijalarga ta'sir qilishi hamda rivojlanish ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashi lozimligi e'tirof etiladi. Mamlakatlar rivojlanishda eng ortda qolayotganlarning taraqqiyotiga ustuvor ahamiyat qaratish majburiyatini oldi. BRMlar kambag'allik, очарчилик, OITS va xotin-qizlarga nisbatan kamsitish holatlariga barham berishga qaratilgan. Har qanday sharoitda ham BRMlarga erishish uchun butun jamiyatning ijodiy yondashuvi, nou-xaulari, texnologiya va moliyaviy resurslari zarur bo'ladi. Demak, bundan shuni tushunish mumkinki, Barqaror rivojlanish maqsadlari aholi farovonligini oshirishga qaratilgan va aynan shunga xizmat qiladi.

Birinchi navbatda integratsiya imkoniyatlari, muammolar, to'siqlar va O'zbekiston misolida integratsiyani o'rganib chiqish lozim.

Barqaror rivojlanish maqsadlari va Raqamli Iqtisodiyot Integratsiya imkoniyatlari:

Yashil iqtisodiyot va energiya samaradorligi raqamli texnologiyalar energiya sarfini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiyani boshqarishga yordam beradi. Barqaror ishlab chiqarish IoT (Internet jihozlari deb ataladigan maxsus qurilmalar tarmog'i) va aqlli ishlab chiqarish (Industry 4.0) resurslarni tejankor ishlatishni ta'minlaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish esa raqamli xizmatlar (moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash) aholining keng qatlamlariga xizmat ko'rsatishni osonlashtiradi, bu esa kambag'allikni qisqartirish (BRM-1) va tengsizlikni kamaytirishga (BRM-10) xizmat qiladi. Baholash, nazorat qilish (monitoring) BRM ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish va tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Muammolar va to'siqlar:

Eng birinchi navbatda, raqamli tafovutlar, kiberxavfsizlik, resurs iste'moli, kapital va infratuzilmalarga e'tibor qaratilishi kerak. Raqamli tafovut shahar va qishloq joylar o'rtasidagi

raqamli infratuzilma va savodxonlikdagi farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Kiberxavfsizlik raqamli tizimlarga o'tish kiber jinoyatlar xavfini oshiradi. Resurs iste'moli ma'lumotlar markazlari va texnologiyalarning o'zi energiya sarflaydi, bu esa atrof-muhitga yuk bo'lishi mumkin. Mablag' va infratuzilma yuqori texnologiyalarni joriy etish uchun katta investitsiyalar talab etiladi.

O'zbekistonda integratsiya imkoniyatlari:

O'zbekistonda 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish dasturi doirasida sanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali energiya tejamkorligini ta'minlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu vazifa navbat bilan amalga oshirilib bormoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM-2030) va Raqamli iqtisodiyot bir-birini inkor etuvchi emas, balki to'ldiruvchi strategik yo'nalishlardir. Raqamli iqtisodiyot shunchaki texnologik jarayon emas, balki BRM maqsadlariga erishishning kuchli katalizatori (tezlatgichi) vazifasini o'taydi. Iqtisodiy samaradorlik va inkluzivlik raqamlashtirish an'anaviy iqtisodiy modellarni transformatsiya qilib, resurslarni boshqarishda yuqori aniqlikni ta'minlaydi. Bu orqali ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va aholining barcha qatlamlari (jumladan, chekka hududlar) moliya, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa bevosita kambag'allikni qisqartirish (BRM-1) va tengsizlikni kamaytirishga (BRM-10) xizmat qiladi. Ekologik barqarorlik "Yashil" va raqamli iqtisodiyotning integratsiyasi (Twin Transition) natijasida atrof-muhitga salbiy ta'sir minimal darajaga tushiriladi. Sun'iy intellekt va Big Data tahlillari energiya sarfini optimallashtirish, chiqindilarni qayta ishlash va tabiiy resurslarni asrashda (BRM-12, 13) inson omilidan ko'ra samaraliroq yechimlarni taklif etadi. Tizimli yondashuv raqamli transformatsiya faqat imkoniyat emas, balki mas'uliyat hamdir. Integratsiya jarayonida kiberxavfsizlikni ta'minlash va "raqamli tafovut"ni bartaraf etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi shart. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, raqamli texnologiyalarni BRM bilan uyg'unlashtirish – bu kelajak avlodlar uchun nafaqat boy, balki xavfsiz, toza va adolatli jamiyat qurishning yagona samarali yo'lidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. (2023-yil 11-sentabr, PF-158-son). Lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. (2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son). Lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. (2024-yil 14-oktabr, PQ-358-son). Lex.uz
4. UNDP (BMT Taraqqiyot Dasturi). Barqaror Rivojlanish Maqsadlari: O'zbekiston uchun qo'llanma. UNDP Uzbekistan
5. ADB (Osiyo Taraqqiyot Banki). Harnessing Digitalization for Sustainable Economic Development. (2022). ADB Publications
6. UNCTAD. Digital Economy Report: It's about data and sustainable development. (2024/2025). UNCTAD.org

## **SDG-2030 MAQSADLARIGA ERISHISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING**

### **ROLI**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
"Buxgalteriya hisobi" fakulteti talabasi  
**Qosimova Fazilat Sherzod qizi**

Raqamli iqtisodiyot — bu samaradorlikni oshirish, resurslarni tejash va aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratishning asosiy poydevoridir. Zamonaviy dunyoda barqaror rivojlanish nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki inson kapitali va atrof-muhit muhofazasi bilan ham o'lchanmoqda. BMTning 2030-yilgacha bo'lgan kun tartibidagi 17 ta

maqsadning deyarli barchasi texnologik yechimlarga tayanadi. O‘zbekiston uchun bu mavzu nihoyatda dolzarb, chunki mamlakatimiz iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Muammo shundaki, raqamli tafovutni bartaraf etmasdan va infratuzilmani yangilamasdan turib, SDG maqsadlariga to‘liq erishib bo‘lmaydi. Bu borada mamlakatimiz siyosatining huquqiy asosi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi. Bu hujjat mamlakatda raqamli savodxonlikni oshirish va barcha sohalarni raqamlashtirishni SDG maqsadlariga muvofiqlashtiradi. Bundan tashqari PF-158-sonli farmoni 12-sentabr 2023-yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi qabul qilindi. Unda raqamli texnologiyalar orqali YaIM hajmini oshirish va xizmatlar ko‘rsatishni to‘liq elektron shaklga o‘tkazish vazifasi qo‘yilgan.

Raqamli iqtisodiyot SDG-2030 ning bir necha yo‘nalishlarida sezilarli ijobiy natijalarni ko‘rsatmoqda. Eng asosiysi BMT tomonidan ilgari surilgan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish strategiyasi insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolarni — qashshoqlikni tugatishdan tortib, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashgacha bo‘lgan masalalarni qamrab oladi. Bugungi kunda ushbu maqsadlarga erishishning asosiy omili sifatida raqamli iqtisodiyot namoyon bo‘lmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari nafaqat iqtisodiy o‘shishni jadallashtiradi, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini tenglashtiradi. O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bevosita davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan.

Mavzuning nazariy jihatlarini o‘rganishda xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari muhim ahamiyatga ega. Don Tapskott va Klaus Shvab kabi olimlar raqamli iqtisodiyotni insoniyatning yangi sivilizatsion bosqichi deb hisoblasa, mahalliy iqtisodchi olimlardan akademik S.S.Gulyamov va professor B.Y.Xodiyevlar raqamli transformatsiyani milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning yagona yo‘li sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, raqamli ekotizim yaratilmasdan turib, resurslar samaradorligiga (SDG-12) erishish imkonsizdir. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv va qiyosiy tahlil usullari tanlangan bo‘lib, ular orqali raqamli ko‘rsatkichlarning ijtimoiy farovonlikka ta‘siri o‘rganildi.

Raqamli iqtisodiyotning SDG-2030 maqsadlariga ta‘sirini bir necha yo‘nalishda ko‘rish mumkin. Birinchidan, bu iqtisodiy o‘shish va bandlik (8-maqsad). O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi va IT Park ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda AKT xizmatlari eksporti hajmi 344 million dollarni tashkil etdi, bu esa 2022-yilga nisbatan 2,4 barobar o‘shish demakdir. 2026-yilga borib bu ko‘rsatkichni 5 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Bu nafaqat valyuta tushumi, balki minglab yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratilishi orqali aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi (9-maqsad) hududlar orasidagi raqamli tafovutni kamaytirmoqda.

Ushbu jarayonlarning ijtimoiy samaradorligi ham nihoyatda yuqori. Elektron hukumat tizimining ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)) rivojlanishi natijasida davlat xizmatlarini ko‘rsatish muddati va xarajatlari o‘rtacha 30-40 foizga qisqardi. Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yil yakuniga ko‘ra, aholining 75 foizdan ortig‘i davlat xizmatlaridan elektron shaklda foydalangan. Bu korrupsiya xavfini kamaytiradi (16-maqsad) va davlat boshqaruvida shaffoflikni ta‘minlaydi. Shuningdek, "yashil" iqtisodiyotga o‘tishda raqamli texnologiyalarning o‘rni beqiyos. "Aqlli" energiya tizimlari va suvni tejoychi texnologiyalar yordamida boshqarilishi natijasida resurslarni isrof qilish darajasi 25 foizgacha kamayganligi kuzatilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya barqaror rivojlanishning barcha sohalarda multiplikativ effekt beradi. Masalan, ta‘lim tizimini raqamlashtirish (4-maqsad) orqali chekka qishloqlardagi yoshlarning ham eng sifatli o‘quv resurslaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Bu inson kapitalining sifatini oshirib, kelajakda innovatsion iqtisodiyotni qurishga zamin tayyorlaydi. Statistik tahlillar raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi 1 foizga oshishi, barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlarining umumiy indeksini 0,8 foizga yaxshilashini ko‘rsatmoqda.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash lozimki, SDG-2030 maqsadlariga erishish yo‘lida raqamli iqtisodiyot shunchaki texnologik yangilanish emas, balki jamiyat hayotining barcha jabhalarini

optimallashtiruvchi strategik vositadir. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli strategiyalarning tizimli amalga oshirilishi iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash bilan birga, ijtimoiy adolat va ekologik xavfsizlikni kafolatlaydi. Raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish, kibernetik xavfsizlikni ta‘minlash va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash kelgusida SDG maqsadlariga muddatidan oldin erishishning asosiy omillari bo‘lib qoladi. Barqaror kelajakni qurishda raqamli texnologiyalarning keng imkoniyatlaridan foydalanish mamlakatning xalqaro hamjamiyatdagi nufuzini yanada yuksaltiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – McGraw-Hill, 1995 – 342 p.
2. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – World Economic Forum, Geneva, 2016 – 172 p.
3. Gulyamov S.S. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T. Toshkent moliya instituti, 2019 – 256 b.
4. Xodiyev B.Y. Iqtisodiyotni raqamlashtirish: asosiy yo‘nalishlar va rivojlanish tendensiyalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – T. TDIU, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. (05.10.2020-yildagi PF-6079-son). – <https://lex.uz/docs/5030957>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. (11.09.2023-yildagi PF-158-son). - <https://lex.uz/uz/docs/6600413>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti ma‘lumotlari. – <https://stat.uz/uz/> (Murojaat sanasi: 05.03.2026).
8. Raqamli texnologiyalar vazirligi rasmiy hisobotlari va statistikasi. – <https://digital.uz/> (Murojaat sanasi: 05.03.2026).

#### **ELEKTRON HUKUMAT TIZIMLARI SHAROITIDA DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI**

Ilmiy rahbar TDIU, prof  
**B.U.Shermuxamedov**  
TDIU talabasi  
**F.Sh.Qosimova**

Hozirgi globallashtiruv va raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish muhim strategik vazifalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish, byudjet mablag‘larining shaffofligi hamda hisobdorligini ta‘minlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan elektron hukumat (e-government) tizimlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda elektron hukumat tizimini rivojlantirish va davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish, davlat moliyaviy boshqaruvi tizimlarini integratsiya qilish hamda byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan elektron nazorat mexanizmlarini takomillashtirish vazifalari belgilangan. Bugungi kunda mamlakatda 300 dan ortiq davlat xizmatlari elektron shaklga o‘tkazilgan bo‘lib, 10 milliondan ortiq foydalanuvchi elektron hukumat xizmatlaridan foydalanmoqda.

Dunyodagi yetakchi olimlardan Lucas Renner o‘zining *“Revolutionizing Public Accounting: The Effects of Digital Tools on Government Financial Oversight”* nomli ilmiy ishida digital texnologiyalar — ERP, real vaqt tahlil va onlayn hisobotlar — orqali davlat moliyaviy nazoratini qanday reformalash mumkinligini tahlil qiladi. Tadqiqotda digital vositalar xalqaro davlat buxgalteriya tizimlarini texnologik jihatdan samarali qilishini ko‘rsatadi. Shu bilan

birga **Ali Jamal Tuama kabi tadqiqotchilar ham o‘zining “The Role of Electronic Governance and its Impact on Accounting Systems”** nomli Ishida e-hokimiyat (e-government) tizimining joriy etilishi davlat sektori buxgalteriya va moliyaviy hisobot tizimlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi.

Bundan tashqari mahalliy izlanuvchilardan Tangriyeva F, Musurmonov M, Kasimova G., Mallaev Z.lar ham tadqiqotlarida O‘zbekistonning moliyaviy nazorat tizimini raqamli g‘aznachilik, elektron byudjet va shaffoflik platformalari orqali takomillashtirish, budjet ijrosini monitoring qilish hamda moliyaviy hisobotlarni optimallashtirish masalalarini o‘rganadilar.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida davlat boshqaruvi va moliyaviy nazorat jarayonlarini raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2024 yilgi “E-Government Development Index” (EGDI) reytingiga ko‘ra, elektron hukumat rivojlanishining o‘rtacha global ko‘rsatkichi 0,64 darajaga yetgan bo‘lib, bu raqam davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonining jadal sur‘atlarda rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Mazkur reytingda Daniya, Janubiy Koreya va Estoniya kabi davlatlar yuqori o‘rinlarni egallab, davlat moliyaviy nazoratini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish bo‘yicha ilg‘or tajribaga ega hisoblanadi.

Masalan, Estoniyada davlat boshqaruvi jarayonlarining 99 foizi raqamli shaklda amalga oshiriladi hamda davlat xarajatlari ustidan nazorat real vaqt rejimida olib boriladi. Janubiy Koreyada esa davlat moliyaviy nazoratining “Digital Budget and Accounting System (dBrain)” tizimi orqali amalga oshirilishi natijasida byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshgan va ma‘muriy xarajatlar 20 foizgacha qisqargan. Shuningdek, AQShda “DATA Act” asosida davlat moliyaviy ma‘lumotlarining ochiqligi ta‘minlanib, federal byudjet xarajatlarning 100 foizga yaqin qismi ochiq ma‘lumotlar bazasida e‘lon qilinmoqda.

Raqamli platformalarning joriy etilishi davlat moliyaviy nazoratida sezilarli samaradorlikni ta‘minlaydi, chunki byudjet daromadlari avtomatik tarzda hisobga olinadi, xarajatlar ustidan esa onlayn monitoring olib boriladi. An‘anaviy tizimda moliyaviy nazorat kechiktirilgan hisobotlar asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, raqamli modelda nazorat jarayoni real vaqt rejimida olib boriladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “E-Government Survey 2024” hisobotiga ko‘ra, elektron hukumat rivojlanish darajasini ifodalovchi E-Government Development Index (EGDI) ning global o‘rtacha ko‘rsatkichi 0,64 ni tashkil etgan. Ushbu indeks davlat xizmatlarining raqamlashtirish darajasi, telekommunikatsiya infratuzilmasi va inson kapitali ko‘rsatkichlari asosida hisoblanadi. Hisobotga ko‘ra, Daniya (0,984), Estoniya (0,972) va Janubiy Koreya (0,967) elektron hukumat tizimining rivojlanishi bo‘yicha yetakchi davlatlar qatoriga kiradi. Ushbu mamlakatlarda davlat moliyaviy nazorati tizimi ham to‘liq raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi.

Janubiy Koreyada davlat moliyaviy boshqaruvi va nazorati dBrain (Digital Budget and Accounting System) orqali amalga oshiriladi. Mazkur tizim orqali davlat byudjeti shakllanishidan tortib, mablag‘larning sarflanishigacha bo‘lgan barcha jarayonlar yagona platformada nazorat qilinadi. Janubiy Koreya Moliya vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, ushbu tizim joriy etilgandan so‘ng byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi oshib, ma‘muriy xarajatlar 20 foizga qisqargan.

Shuningdek, AQShda davlat moliyaviy ma‘lumotlarining ochiqligini ta‘minlash maqsadida DATA Act qabul qilingan bo‘lib, ushbu qonun asosida federal byudjet xarajatlari bo‘yicha ma‘lumotlar USAspending.gov platformasi orqali ochiq e‘lon qilinmoqda. 2024 yil holatiga ko‘ra, ushbu platformada 6 trillion dollardan ortiq federal xarajatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar joylashtirilgan.

Xalqaro tashkilotlar ham davlat moliyaviy nazoratining raqamli transformatsiyasini samarali boshqaruvning muhim omili sifatida baholamoqda. Jahon banki (World Bank) tadqiqotlariga ko‘ra, davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida ayrim mamlakatlarda davlat xarajatlari boshqarish samaradorligi 10–15 foizga oshgan. Shuningdek, OECD ma‘lumotlariga ko‘ra, raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlari joriy etilgan mamlakatlarda byudjet shaffofligi indeksi o‘rtacha 30 foizga yaxshilangan.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida

davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, davlat moliyaviy boshqaruv tizimlarini integratsiya qilish va davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yil holatiga ko'ra O'zbekistonda 300 dan ortiq davlat xizmatlari elektron shaklga o'tkazilgan bo'lib, 10 milliondan ortiq foydalanuvchi elektron hukumat xizmatlaridan foydalanmoqda. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali har yili millionlab murojaatlar elektron shaklda ko'rib chiqilmoqda. Bundan tashqari, davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish maqsadida "Ochiq byudjet" portali ishga tushirilgan bo'lib, 2024 yil yakunlariga ko'ra ushbu platforma orqali fuqarolar tomonidan 2 trillion so'mdan ortiq mablag' taqsimoti bo'yicha tashabbuslar ilgari surilgan. Bu esa davlat moliyaviy boshqaruvida jamoatchilik nazoratining kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilda davlat byudjeti daromadlari 232 trillion so'mdan oshgan. Raqamli monitoring tizimlari orqali ushbu mablag'larning harakati nazorat qilinmoqda. Davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan axborot tizimlari asosida risk-tahlil mexanizmlari qo'llanilmoqda. Bu esa bizga moliyaviy buzilishlarni erta aniqlash, tekshiruvlar sonini optimallashtirish hamda resurslarni tejash imkonini bermoqda. BMTning Elektron hukumat rivojlanish indeksiga ko'ra, O'zbekiston 2024-yilda 63-o'rinni egallagan. Bu mamlakatda raqamli davlat boshqaruvi tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirayotganini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki elektron hukumat tizimlari sharoitida davlat moliyaviy nazoratining transformatsiyasi O'zbekiston iqtisodiy islohotlarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali byudjet mablag'larining harakati ustidan doimiy monitoring o'rnatildi, moliyaviy intizom mustahkamlandi va shaffoflik darajasi oshdi. Raqamli boshqaruv tizimi davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish, korrupsion xavflarni kamaytirish hamda iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish imkonini bermoqda.

Umuman olganda, davlat moliyaviy nazoratining raqamli transformatsiyasi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Renner L. Revolutionizing Public Accounting: The Effects of Digital Tools on Government Financial Oversight // Int J Account Res. – 2025.

2. Tuama A.J. The Role of Electronic Governance and its Impact on Accounting Systems // Journal of Finance and Accounting. – 2025. – URL

3. Tangriyeva F. O'zbekistonda g'aznachilik tizimini raqamlashtirish orqali davlat moliyasini boshqarish samaradorligi o'sish yo'nalishlari // Ilmiy jurnal "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot". – Toshkent, 2022. – URL

4. Musurmonov M. Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli // Green Eco Journal. – Toshkent, 2021. – URL

5. Kasimova G., Mallaev Z. O'zbekistonda g'aznachilik xizmatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari // Ilmiy jurnal "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot". – Toshkent, 2020. – URL

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son, kuchga kirish sanasi 06.10.2020

7. **O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi** – budjet, g'aznachilik va moliyaviy nazorat bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar: <https://www.mf.uz/uz>

8. **"Open Budget Portal" (Ochiq byudjet)** – budjet ijrosi va monitoringi: <https://budget.gov.uz/uz>

# CLASSIFICATION OF SPECIAL TYPES OF TOURISM AND ORGANIZATION OF EXCURSION SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY

**Muqimova Rohila Alijon qizi**  
Student of Karshi State University

This study examines how excursion services to ecological areas of Uzbekistan can be organized using sustainable development principles and digital management tools. The research shows that ecotourism is becoming increasingly important for economic development and environmental protection. According to the United Nations World Tourism Organization, interest in nature-based tourism is growing worldwide. Statistical data indicate a steady increase in tourist visits to protected natural areas such as Ugam-Chatkal National Park and Zaamin National Park. The study uses a systems approach, carrying capacity assessment, and digital monitoring technologies to improve excursion planning. The proposed model helps protect biodiversity and supports the sustainable development of ecotourism while strengthening Uzbekistan's position in the international ecotourism market.

Ecotourism is recognized as one of the most dynamically developing sectors of the global tourism industry. According to the United Nations World Tourism Organization, ecotourism forms nearly 20% of international tourism flows and plays an essential role in achieving sustainable development goals [1]. Uzbekistan, possessing unique natural landscapes and biodiversity, has significant potential for the development of ecological excursion services. Key destinations include Ugam-Chatkal National Park, Zaamin National Park, Chatkal Biosphere Reserve, and the Kyzylkum Desert. Statistical indicators confirm positive growth trends. In 2023, Uzbekistan hosted more than 6.6 million foreign tourists and over 15 million domestic visitors, while about 1.2 million tourists visited protected natural areas [3]. Compared to 2019, ecological visits increased by approximately 40%. Revenue from ecological tourism services exceeded 350 billion UZS in 2023, almost doubling compared to 2020 [4]. In certain districts, ecotourism provides 12–15% of local employment, demonstrating its socio-economic contribution [3].

The theoretical foundations of sustainable ecotourism were significantly developed by Martha Honey, who emphasized that ecotourism must combine environmental conservation, benefits for local communities, and educational value. Honey concludes that without strict environmental management and community participation, ecotourism risks transforming into mass tourism with negative ecological consequences [6]. Similarly, David Weaver argues that sustainable tourism requires a balance between conservation and commercialization, proposing a model integrating protected area management with regulated visitor flows [7].

The methodological basis of excursion organization in ecological areas should rely on sustainable development principles formulated by the United Nations within the 2030 Agenda framework [2]. Systems analysis and carrying capacity assessment are essential tools in excursion planning. Research indicates that exceeding permissible recreational load by 15–20% may increase soil erosion by 8–10% and negatively affect biodiversity indicators [1]. Therefore, excursion routes must be designed according to ecological zoning principles and seasonal visitor distribution.

Digital management approaches significantly enhance operational transparency and efficiency. With support from the Ministry of Digital Technologies of Uzbekistan, electronic permit systems and online visitor registration platforms have been introduced [5]. In 2023, approximately 45% of ecological visits were digitally registered, compared to 18% in 2021 [5]. Digital monitoring enables real-time data collection, visitor flow forecasting, and environmental impact analysis, thereby minimizing anthropogenic pressure.

Green management practices further strengthen sustainability. The implementation of renewable energy technologies and waste-sorting systems in national parks has reduced energy expenses by 22–25% and decreased solid waste volumes by nearly 30% [3]. These measures confirm Weaver’s conclusion that sustainable tourism becomes economically viable when environmental standards are systematically integrated into management mechanisms [7].

In addition to the above-mentioned approaches, risk assessment and impact evaluation mechanisms should be incorporated into the management model of ecological excursion services. International practice shows that sustainable tourism planning requires continuous environmental impact assessment (EIA) and adaptive management strategies. According to the United Nations World Tourism Organization, adaptive management enables tourism authorities to respond promptly to fluctuations in visitor flows, climate conditions, and ecosystem vulnerability [1]. For instance, climate variability in mountainous regions can directly influence vegetation recovery periods, which in turn affects permissible recreational load. In the context of Uzbekistan, ecological monitoring systems in areas such as Ugam-Chatkal National Park and Zaamin National Park should incorporate GIS-based spatial analysis and seasonal zoning mechanisms. The application of geo-information systems allows mapping of tourist density, trail degradation levels, and biodiversity sensitivity zones. Empirical assessments indicate that controlled zoning combined with digital visitor tracking may reduce uncontrolled environmental pressure by 15–18% annually [3][5].

Furthermore, community-based tourism (CBT) mechanisms should be integrated into ecological excursion planning. As emphasized by Martha Honey, local population involvement increases economic inclusiveness and strengthens environmental responsibility [6]. When local communities participate in guiding, accommodation services, and handicraft production, the multiplier effect of tourism revenues increases regional income levels by 1.3–1.5 times. This corresponds with the theoretical conclusions of David Weaver, who highlights that sustainable ecotourism becomes effective only when conservation policies are economically beneficial for residents [7].

Additionally, the introduction of differentiated pricing strategies based on ecological sensitivity and seasonal demand can optimize tourist flows. Higher fees during peak seasons and in highly vulnerable zones may limit excessive visitation while generating additional funds for conservation programs. Analytical estimates suggest that differentiated pricing mechanisms could increase conservation financing by 10–12% without reducing overall tourist satisfaction levels [4].

Thus, the integration of environmental risk assessment, GIS-based monitoring, community participation, and adaptive pricing strategies strengthens the institutional framework of sustainable and digital management of ecological excursion services in Uzbekistan.

The organization of excursion services in ecological areas of Uzbekistan based on sustainable and digital management approaches ensures environmental protection, economic efficiency, and social stability. Integration of carrying capacity assessment, statistical monitoring, digital technologies, and green standards contributes to long-term biodiversity preservation and strengthens the country’s competitiveness in the international ecotourism market.

### **References**

1. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). International Tourism Highlights. – Madrid: UNWTO, 2023.
2. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. – New York: United Nations, 2015.
3. Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. Statistical Report. – Tashkent, 2023.
4. Tourism Committee of the Republic of Uzbekistan. Annual Tourism Development Report. – Tashkent, 2023.
5. Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. Digitalization of Tourism Sector Report. – Tashkent, 2023.

6. Honey M. Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise? – Washington, DC: Island Press, 2008.

## **JAMG‘ARMA DARAJASI VA KAPITAL SHAKLLANISHINING VAQT BO‘YICHA O‘ZGARISHI**

**Valiyev Asilbek Alijon o‘g‘li**

Farg‘ona davlat texnika universiteti Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Gmail:[asilbekvaliyev174@gmail.com](mailto:asilbekvaliyev174@gmail.com)

O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror o‘shish trayektoriyasiga olib chiqishda jamg‘arma darajasi va kapital shakllanishi dinamikasi markaziy omillardan biridir. Keng doirada qarasa ham jamg‘arma investitsiyalar uchun ichki resurs bazasini kengaytiribgina qolmasdan, investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlari, mehnat unumdorligi va uzoq muddatli YaIM o‘shishini belgilaydi.

Mamlakatda uzoq muddatli rivojlanish kun tartibi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bilan mustahkamlangan bo‘lib, u iqtisodiy o‘shish, samaradorlik, inson kapitali va institutsional yangilanish kabi yo‘nalishlarda maqsadlarni belgilaydi, mazkur strategiya mantiqan SDG–2030 tamoyillari bilan uyg‘unlashadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayoni jamg‘arma va investitsiyalar samaradorligini oshirishning yangi manbai sifatida ko‘rilmoqda: “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi tasdiqlangani raqamli transformatsiyani davlat siyosati darajasida ustuvor yo‘nalishga aylantirdi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish doirasida IT-loyihalar, axborot tizimlari va davlat organlarining raqamli tashabbuslarini tartibga soluvchi qarorlar qabul qilindi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida YAIM, yalpi jamg‘arma va asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasini rasmiy statistika ma‘lumotlari asosida baholab, jamg‘arma va investitsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hamda kapital jamg‘arish jarayonining iqtisodiy o‘shish va barqaror rivojlanishdagi rolini aniqlashni maqsad qiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jamg‘arma va kapital shakllanish jarayonlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Solou–Svon modeli doirasida kapital jamg‘arilishi, texnologik taraqqiyot va aholi o‘shishi o‘rtasidagi muvozanat iqtisodiy o‘shishning asosiy determinantlari sifatida talqin etiladi. Ular uchun jamg‘arma darajasining optimal qiymatini aniqlash barqaror o‘shishga erishishda muhim masala bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birga, jamg‘arma darajasining pastligi kapital shakllanishining sekinlashuviga, natijada esa iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining susayishiga olib kelishi muqarrar. Bu kabi oqibatlariga esa qarshi choralarni ko‘rib borishimiz lozim.

Jamg‘arma darajasi va kapital shakllanishi nafaqat iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaydi, balki Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG–2030) erishishda ham muhim rol o‘ynaydi. Kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bandlikni kengaytirish va aholi farovonligini yaxshilash orqali inklyuziv o‘shishga xizmat qiladi. Vaqt omili hisobga olinganda, bugungi jamg‘arma qarorlari kelajak avlodlar uchun iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi, bu esa barqaror rivojlanish tamoyillariga to‘liq mos keladi.

Jamg‘arma darajasi va kapital shakllanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik dinamik makroiqtisodiyot nazariyasining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy tizimda jamg‘arma darajasi oshgan sari investitsiyalar hajmi kengayadi, bu esa kapital zaxirasining vaqt davomida o‘shishiga olib keladi. Siz bu jarayonni ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va mehnat unumdorligining ortishi orqali sezishingiz mumkin. O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda jamg‘arma va investitsiyalar ulushi o‘shish tendensiyasini namoyon qilmoqda.

Dinamik makroiqtisodiyotda jamg‘arma va kapital shakllanishining asosiy nazariy modeli sifatida **Solou–Svon modeli** keng qo‘llaniladi. Ushbu modelda kapitalning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi quyidagi differensial tenglama orqali ifodalanadi:

$$K_{t+1} = (1 - \delta)K_t + I_t$$

Mazkur tenglama shuni ko'rsatadiki, agar jamg'arma darajasi ishlab chiqarish hajmiga nisbatan yuqori bo'lsa, kapital zaxirasi ortadi, aks holda esa kapital kamayadi. Ular uchun bu muvozanat uzoq muddatli iqtisodiy o'sish trayektoriyasini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasida kapital shakllanishining asosiy manbai sifatida **asosiy kapitalga investitsiyalar** muhim rol o'ynaydi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2018–2024 yillar davomida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi barqaror o'sib borgan. Quyidagi jadvalda jamg'arma va kapital shakllanishining vaqt bo'yicha o'zgarishi keltiriladi.

**1-Jadval.** O'zbekistonda jamg'arma va kapital shakllanishining asosiy ko'rsatkichlari.

Yillar	YaIM (trln so'm)	Yalpi jamg'arma (% YaIM)	Asosiy kapitalga investitsiyalar (trln so'm)
2018	407,5	28,3	124,2
2019	511,8	30,1	189,9
2020	602,5	31,4	210,2
2021	734,6	32,6	239,6
2022	888,3	34,0	304,6
2023	1 068,3	35,2	352,1
2024*	1 230,0	36,0	395,0


Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, yalpi jamg'arma ulushining YaIMdagi hissi yil sayin oshib borgan. Siz bu holatni iqtisodiyotda investitsion faollikning kuchayishi va davlat hamda xususiy sektor tomonidan kapital qo'yimalarning ko'payishi bilan izohlashingiz mumkin. Ular uchun bu tendensiya ishlab chiqarishning kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Jamg'arma darajasi va kapital shakllanishining o'sishi iqtisodiy o'sish sur'atlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Dinamik makroiqtisodiyot nuqtai nazaridan, ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$Y_t = K_t^\alpha (A_t L_t)^{1-\alpha}$$

Ushbu funksiya asosida kapitalning ortishi ishlab chiqarish hajmini oshirishini ko'rsatadi, biroq chegaraviy mahsuldorlikning kamayib borishi ham e'tiborga olinadi.

Quyidagi diagramma jamg'arma darajasining oshishi kapitalning muvozanat darajasiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi (Solou modeli asosida).



Diagrammadan ko'rinib turibdiki, jamg'arma darajasi oshganda iqtisodiyot yangi, yuqoriroq kapital muvozanatiga o'tadi. Siz bu jarayonni uzoq muddatda aholi jon boshiga daromadning oshishi bilan bog'lashingiz mumkin, biroq texnologik taraqqiyot bo'lmasa, o'sish sur'atlari cheklangan bo'lib qoladi.

Tadqiqot aralash metodlarni qo'llagan holda olib borildi, bunda nazariy va empirik ma'lumotlar tahlili uyg'unlashtirildi. Metodologiya bo'yicha asosiy yondashuv iqtisodiy va statistik tahlil usullari qo'llanildi. Yakuniy bosqichda tizimli va mantiqiy tahlil usullari qo'llanildi.

Empirik tahlilda vaqt qatorlarini tahlil qilish usuli qo'llanildi. Jamg'arma darajasi va kapital shakllanishining 2010–2024 yillar oralig'idagi dinamikasi o'rganilib, o'sish sur'atlari va trendlar aniqlandi.

Jamg'arma darajasi va kapital shakllanishining vaqt bo'yicha o'zgarishini o'rganishda dinamik makroiqtisodiy yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi bo'yicha rasmiy statistika ma'lumotlari tashkil etib, yalpi ichki mahsulot, yalpi jamg'arma va asosiy kapitalga investitsiyalar ko'rsatkichlari vaqt qatorlari usulida tahlil qilindi.

Xulosa qilib aytganda, tejash iqtisodiy xavfsizlik va o'sish uchun ajralmas hisoblanadi. Moliyaviy tashkilotlar ushbu tejashni qulay, tuzilgan va rag'batlantiruvchi tejash imkoniyatlarini taqdim etish orqali rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Moliyaviy savodxonlik va tejash imkoniyatini targ'ib qiluvchi siyosat ushbu ta'sirni yanada kuchaytiradi va ko'proq shaxslarning moliyaviy kelajagini ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlanishini ta'minlaydi. Ushbu tadqiqot natijalari jamg'arma darajasi va kapital shakllanishining vaqt bo'yicha o'zgarishi O'zbekiston iqtisodiyotida uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri ekanini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yalpi jamg'arma hajmining barqaror oshib borishi asosiy kapitalga investitsiyalarni kengaytirib, ishlab chiqarish salohiyati va mehnat unumdorligining ortishiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'z.R.Prezidenti SH.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasidagi nutqini o'rganish bo'yicha risola.T."Ma'naviyat"2017 y.183 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishining YaIMdagi ulushi (rasmiy axborot xabari). – 2022.
3. Shamsidinova G.D. Barqaror taraqqiyot ta'limi, darslik, T. 2023 yil, 365 b.
4. Samandarova G. Davlat byudjetining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati va o'ziga xosliklari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021.

## **ELEKTRON HUKUMAT TIZIMLARI SHAROITIDA DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
"Buxgalteriya hisobi" fakulteti talabasi  
**Qosimova Fazilat Sherzod qizi**

Global miqyosda davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy resurslarni boshqarishning an'anaviy usullari yetarli samaradorlik bermayapti. Shu bois elektron hukumat tizimlari orqali davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish va uni raqamli platformalar asosida qayta tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda. Yaqin yillar ichida O'zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Xususan, Prezidentning 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni davlat boshqaruvi organlari faoliyatini raqamlashtirish, byudjet jarayonlarini avtomatlashtirish va elektron davlat xizmatlarini kengaytirishni ustuvor vazifa sifatida belgiladi.

Elektron hukumat tizimlari orqali biz moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish zaruriyatini qondirishimiz va korrupsion xavflarni kamaytirishimiz mumkin. Bundan tashqari ochiq va hisobdor boshqaruv tizimini shakllantirish xizmat qiladi. Shu jihatdan, elektron hukumat sharoitida davlat moliyaviy nazoratining transformatsiyasini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Elektron hukumat – bu davlat organlari faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va xizmatlarni elektron shaklda ko'rsatish tizimidir. Ushbu model moliyaviy boshqaruv jarayonlariga to'g'ridan-to'g'ri o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Dunyodagi yetakchi olimlardan Lucas Renner o'zining *"Revolutionizing Public Accounting: The Effects of Digital Tools on Government Financial Oversight"* nomli ilmiy

*ishida* digital texnologiyalar — ERP, real vaqt tahlil va onlayn hisobotlar — orqali davlat moliyaviy nazoratini qanday reformalash mumkinligini tahlil qiladi. Tadqiqotda digital vositalar xalqaro davlat buxgalteriya tizimlarini texnologik jihatdan samarali qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga **Ali Jamal Tuama kabi tadqiqotchilar ham o'zining “The Role of Electronic Governance and its Impact on Accounting Systems”** nomli Ishida e-hokimiyat (e-government) tizimining joriy etilishi davlat sektori buxgalteriya va moliyaviy hisobot tizimlariga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Tadqiqotda elektron hukumat orqali automatizatsiya qilinadigan operatsiyalar, ma'lumotlar integratsiyasi va hisobotlar samaradorligi tahlil qilinadi. Natijalarga ko'ra, e-gov platformalari moliyaviy hisob-kitob jarayonlarini ancha yaxshilaydi.

Bundan tashqari mahalliy izlanuvchilardan Tangriyeva F, Musurmonov M, Kasimova G., Mallaev Z.lar ham tadqiqotlarida O'zbekistonning moliyaviy nazorat tizimini raqamli g'aznachilik, elektron byudjet va shaffoflik platformalari orqali takomillashtirish, budjet ijrosini monitoring qilish hamda moliyaviy hisobotlarni optimallashtirish masalalarini o'rganadilar.

Raqamli platformalarning joriy etilishi davlat moliyaviy nazoratida sezilarli samaradorlikni ta'minlaydi, chunki byudjet daromadlari avtomatik tarzda hisobga olinadi, xarajatlar ustidan esa onlayn monitoring olib boriladi. Shu bilan birga, moliyaviy hisobotlar yagona ma'lumotlar bazasida shakllantiriladi, bu esa nazorat organlariga tezkor va sifatli tahliliy axborot taqdim etishni imkonini beradi. An'anaviy tizimda moliyaviy nazorat kechiktirilgan hisobotlar asosida amalga oshirilgan bo'lsa, raqamli modelda nazorat jarayoni real vaqt rejimida olib boriladi.

Elektron byudjet va ochiq ma'lumotlar mexanizmini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida ochiq byudjet mexanizmi joriy etilgan bo'lib, portali orqali byudjet ma'lumotlari keng jamoatchilikka taqdim etilmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, 2023-yilda ochiq byudjet tashabbuslari doirasida minglab fuqarolar tomonidan takliflar berilgan va loyihalar moliyalashtirilgan. Bu esa davlat moliyaviy resurslaridan foydalanishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirgan.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilda davlat byudjeti daromadlari 232 trillion so'mdan oshgan. Raqamli monitoring tizimlari orqali ushbu mablag'larning harakati nazorat qilinmoqda. Davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan axborot tizimlari asosida risk-tahlil mexanizmlari qo'llanilmoqda. Bu esa bizga moliyaviy buzilishlarni erta aniqlash, tekshiruvlar sonini optimallashtirish hamda resurslarni tejash imkonini bermoqda.

BMTning Elektron hukumat rivojlanish indeksiga ko'ra, O'zbekiston 2024-yilda 63-o'rinni egallagan. Bu mamlakatda raqamli davlat boshqaruvi tizimi bosqichma-bosqich takomillashayotganini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki elektron hukumat tizimlari sharoitida davlat moliyaviy nazoratining transformatsiyasi O'zbekiston iqtisodiy islohotlarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali byudjet mablag'larining harakati ustidan doimiy monitoring o'rnatildi, moliyaviy intizom mustahkamlandi va shaffoflik darajasi oshdi. Raqamli boshqaruv tizimi davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish, korrupsion xavflarni kamaytirish hamda iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish imkonini bermoqda.

Umuman olganda, davlat moliyaviy nazoratining raqamli transformatsiyasi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Renner L. Revolutionizing Public Accounting: The Effects of Digital Tools on Government Financial Oversight // Int J Account Res. – 2025.

2. Tuama A.J. The Role of Electronic Governance and its Impact on Accounting Systems // Journal of Finance and Accounting. – 2025. – URL

3. Tangriyeva F. O'zbekistonda g'aznachilik tizimini raqamlashtirish orqali davlat moliyasini boshqarish samaradorligi o'sish yo'nalishlari // Ilmiy jurnal “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”. – Toshkent, 2022. – URL

4. Musurmonov M. Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli // Green Eco Journal. – Toshkent, 2021. – URL
5. Kasimova G., Mallaev Z. O'zbekistonda g'aznachilik xizmatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari // Ilmiy jurnal "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot". – Toshkent, 2020. – URL
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son, kuchga kirish sanasi 06.10.2020
7. **O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi** – budget, g'aznachilik va moliyaviy nazorat bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar: <https://www.mf.uz/uz>
8. **"Open Budget Portal" (Ochiq byudjet)** – budget ijrosi va monitoringi: <https://budget.gov.uz/uz>

## **RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING EKSPORT SALOHIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING AYRIM MASALALARI**

**Yuldashev Eldor Iloxjonovich**

PhD., katta o'qituvchi, TIU

[eldor1989yuldashev@gmail.com](mailto:eldor1989yuldashev@gmail.com)

**Gulomjonov Xudoyor Iloxjon o'g'li**

Nordic International University

1-bosqich magistranti

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini tizimli ravishda kengaytirish hamda uning institutsional va funksional samaradorligini oshirishga qaratilgan. Mamlakatning qulay geoiqtisodiy joylashuvi, boy tabiiy-resurs bazasi hamda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan tarkibiy va institutsional islohotlar tashqi savdo faoliyatini faollashtirish va eksportni rag'batlantirish uchun muhim obyektiv shart-sharoitlarni shakllantirmoqda. Biroq, eksport tarkibida xomashyo va past qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushining yuqoriligi, ishlab chiqarishning yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi hamda xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv jarayonida transport-logistika va infratuzilmaviy cheklovlarning mavjudligi eksport operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur maqolada keltirilgan tadqiqot ishining asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasining eksport faoliyati holatini kompleks iqtisodiy tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda eksport samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Jahon xo'jalik tizimida globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, xalqaro savdo munosabatlarining murakkablashuvi va global qiymat zanjirlarining qayta shakllanishi sharoitida mintaqalarning eksport salohiyatini aniqlash va baholash masalasi iqtisodiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda yuzaga kelgan geosiyosiy beqarorlik, pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayonlari, transport-logistika tizimidagi uzilishlar va proteksionistik siyosatlarining kuchayishi mintaqaviy eksport imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish zaruratini yanada oshirdi[1].

Hozirgi raqamlashtirish sharoitida eksportni diversifikatsiya qilish rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy siyosatining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamlashtirish natijasida eksport hajmini "online" holatda kuzatib boorish kelgusida eksportni diversifikatsiya qilishda aniq va operativ qarorlar qabul qilish imkoniyatini oshiradi. Eksport portfelinig tor ixtisoslashuvi, xomashyo va birlamchi resurslar eksportiga yuqori darajada qaramlik, shuningdek, tashqi talab va narx kon'yunkturasiidagi tebranishlarga yuqori sezgirlik milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday strukturaviy nomutanosibliklar iqtisodiy o'sishning barqarorligini pasaytiradi hamda tashqi shoklar ta'sirini kuchaytiradi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 mlrd. AQSh dollariga yetkazish, mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish, xususi sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish, avtotransport vositalari eksportini 3 barobarga oshirib, 1 mlrd. AQSh dollariga yetkazish, turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan dasturiy ta'minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 barobarga oshirish kabi bir qator vazifalar ilgari surilgan[2].

Mamlakat tashqi savdo aylanmasi, eksport diversifikatsiyasi va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri masalalari ko'plab xorijiy hamda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan tatqiq etigan. Ilk marotaba xalqaro savdo to'g'risida A.Smit, D.Rikardo, E.Xekshir, B.Olinlarning nazariyalari orqali tashqi savdoda ustunlikka erishish to'g'risida ta'kidlangan[3].

A.A. Gnidchenko tadqiqotlarida eksport diversifikatsiyasi va ekstensiv marjaning (yangi tovarlarlaning) uning o'sishiga qo'shgan hissasini baholab, yangi mamlakatlar bozorlari faqat eksport tarkibida yangi tovarlarining paydo bo'lishi hisobga amalga oshishi mumkinligini ta'kidlagan[4].

Eksportni diversifikatsiya qilish deganda milliy iqtisodiyotning tashqi savdo faoliyatini strukturaviy jihatdan kengaytirish va yangi mahsulotlar, xizmatlar hamda xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratish orqali tashqi iqtisodiy risklarni kamaytirish tushuniladi. Ushbu jarayon rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa dolzarb bo'lib, u eksport portfelining barqarorligini oshirish, turli mahsulot va bozorlarga yo'naltirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish imkonini beradi.

Eksportni diversifikatsiyalash milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, o'sish sur'atlarini mustahkamlash, inflyatsiya va valyuta kursi o'zgarishlariga chidamlilikni oshirish hamda global iqtisodiy shoklarga moslashuvchanlikni kuchaytirish uchun strategik vosita hisoblanadi.

Mazkur jarayon asosan milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari va mahsulot segmentlariga asoslangan tashqi savdo faoliyatini kengaytirishni o'z ichiga oladi va quyidagi tamoyillarga tayangan:

1. Mahsulot diversifikatsiyasi – eksport qilinadigan tovarlar va xizmatlarning turli turlarini kengaytirish, shu jumladan yuqori qo'shilgan qiymatga ega va qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish.

2. Bozor diversifikatsiyasi – eksport portfelini geografik jihatdan kengaytirish, mahsulotlarni turli mamlakat va mintaqalarga yo'naltirish orqali tashqi talabning o'zgarishlariga sezgirlikni kamaytirish.

3. Texnologik diversifikatsiya – zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga integratsiya qilish orqali eksportni yuqori texnologiyali mahsulotlar bilan boyitish, milliy sanoat salohiyatini oshirish va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvni kuchaytirish.

SWOT va strategik tahlil yordamida O'zbekiston eksport salohiyatini diversifikatsiya qilishni tizimli, ilmiy asoslangan va maqsadli ravishda baholandi. U nafaqat mavjud imkoniyatlar va cheklolarni ko'rsatadi, balki strategik qarorlar qabul qilish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va global bozor talablariga moslashish uchun asos bo'ladi. Shu boisdan, O'zbekiston eksport salohiyatini diversifikatsiya qilish bo'yicha o'tkazilgan SWOT tahlil natijalarini quyida keltirib o'tdik(3-jadval).

Rivojlanayotgan sanoat salohiyati – qayta ishlangan tovarlar, iste'mol mahsulotlari va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Geografik afzalliklar – Markaziy Osiyo hududida joylashuvi va MDH hamda Yevropa, Osiyo bozorlariga tranzit yo'llarining mavjudligi. Resurs bazasi – tabiiy resurslar (paxta, gaz, neft, metall) va agrar salohiyat eksportni kengaytirish uchun asos yaratadi.

Xomashyo eksportiga qaramlik – eksport tarkibining yuqori ulushi birlamchi resurslar va xomashyoga bog'liq.

## 1-jadval

### O'zbekiston eksport salohiyatini diversifikatsiya qilish: SWOT tahlili

<b>STRENGTHS</b>	<b>WEAKNESSES</b>
<b>Rivojlanayotgan sanoat salohiyati</b>	<b>Xomashyo eksportiga qaramlik</b>
<b>Geografik afzalliklar</b>	<b>Texnologik diversifikatsiyaning pastligi</b>
<b>Resurs bazasi</b>	Infratuzilma va logistika cheklovlari
<b>Bandlik va mehnat resurslari</b>	Bozor diversifikatsiyasi pastligi
<b>Iqtisodiy siyosat va qo'llab-quvvatlash mexanizmi</b>	Qayta ishlash salohiyatining cheklanganligi
<b>OPPORTUNITIES</b>	<b>THREATS</b>
Global talab tendensiyalari	Global bozor shoklari
Yangi bozorlar	Raqobat muhiti
Innovatsion integratsiya	Texnologik orqada qolish
Xalqaro investitsiyalar	Xalqaro standartlarga moslik masalalari
Savdo shartnomalari va erkin iqtisodiy zonalar	Tashqi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik muammolari

Texnologik diversifikatsiyaning pastligi – yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti nisbatan kam, milliy sanoat modernizatsiyasi sekin. Infratuzilma va logistika cheklovlari – transport, saqlash va bojxona tizimi samaradorligi yetarli darajada emas. Bozor diversifikatsiyasi pastligi – eksportning geografik ulushi MDH davlatlariga qattiq bog'langan. Qayta ishlash salohiyatining cheklanganligi – xomashyoni yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga aylantirish darajasi past.

Global talab tendensiyalari – yuqori qo'shilgan qiymatli va ekologik toza mahsulotlar talabining ortishi. Yangi bozorlar – Yevropa, AQSh, Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga eksportni kengaytirish imkoniyati. Innovatsion integratsiya – global qiymat zanjirlariga kirish va texnologik hamkorlikni rivojlantirish imkoniyati.

Global bozor shoklari – narxlarning tebranishi, pandemiya va geosiyosiy to'sqinliklar eksport hajmini o'zgartiradi. Raqobat muhiti – Janubiy Koreya, Vetnam va boshqa rivojlangan eksportyor davlatlar bilan raqobat kuchaymoqda. Texnologik orqada qolish – global innovatsion rivojlanishdan orqada qolish milliy mahsulotlarni raqobatbardoshligini kamaytiradi. Xulosa qilib, eksport hajmining o'sishi iqtisodiy o'sish va valyuta zaxiralari barqarorligini ta'minlab, qayta ishlangan va yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportining o'sishi hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatini beradi. Eksportni diversifikatsiyalash natijasida yuqori qo'shilgan qiymatli va texnologik mahsulotlarni ko'paytirish orqali O'zbekiston iqtisodiy barqarorlik, global integratsiya va ishchi kuchining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. World Bank. World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains. Washington, DC: World Bank Publications, 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов / А. Смит.- М.: Эксмо, 2007. - 960 с, Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Избранное / Д. Рикардо. - М.: Эксмо, 2007. 960 с. Хекшер Э. Влияние внешней торговли на распределение дохода / Э. Хекшер. - Режим доступа: [www.seinstitute.re/Files/Veh6-09\\_Heckscher.pdf](http://www.seinstitute.re/Files/Veh6-09_Heckscher.pdf)
4. Гнидченко, А. А. "Декомпозиция роста экспорта на экстенсивную и интенсивную составляющие с учетом сравнительных преимуществ." Журнал Новой экономической ассоциации 4 (2014): 24

## **“YASHIL IQTISODIYOT” VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR: SDG–2030 MAQSADLARIGA ERISHISH STRATEGIYASI**

**Xasanova Nargiza,**  
Toshkent xalqaro universiteti  
e-mail: [xns916600@gmail.com](mailto:xns916600@gmail.com)

So‘nggi yillarda global iqtisodiyotda yashil iqtisodiyot va raqamli innovatsiyalar markaziy o‘rin egallay boshladi. Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash kabi tamoyillarga asoslanadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, jumladan sun‘iy intellekt, IoT (Internet of Things), smart grids va blokcheyn yechimlari, yashil iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish va monitoring qilish imkonini yaratadi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG–2030) doirasida yashil iqtisodiyot va raqamli innovatsiyalar o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Masalan, SDG 7 (Toza va arzon energiya), SDG 9 (Sanoat, innovatsiyalar va infratuzilma) va SDG 12 (Mas‘uliyatli iste‘mol va ishlab chiqarish) kabi maqsadlar raqamli yechimlar orqali tezroq va samaraliroq amalga oshiriladi.<sup>276</sup> Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi faqat ekologik jihatdan foydali emas, balki iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va innovatsion iqtisodiy tizimlarni shakllantirishda ham strategik ahamiyatga ega.

Shu bois, raqamli innovatsiyalarni joriy etish va yashil iqtisodiy tamoyillarni uyg‘unlashtirish mamlakatlarda barqaror rivojlanishning samarali strategiyasini yaratishga xizmat qiladi. Bu esa, nafaqat milliy iqtisodiyotni mustahkamlash, balki xalqaro tajribaga mos keluvchi barqaror va raqamli iqtisodiy modelni shakllantirish imkonini beradi.

Yashil iqtisodiyot — iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan tizimdir. U tabiiy resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya va suv resurslarini tejash, shuningdek, yashil texnologiyalarni joriy qilishni nazarda tutadi. Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Bu yondashuv yangi ish o‘rinlari yaratish, ekologik investitsiyalarni jalb qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Raqamli transformatsiya yashil iqtisodiyotning samarali ishlashida muhim rol o‘ynaydi. Sun‘iy intellekt (AI) va katta ma‘lumotlar (Big Data) orqali energiya iste‘moli, chiqindilar va resurslardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. IoT (Internet of Things) qurilmalari ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilish va optimallashtirish imkonini beradi. Blokcheyn texnologiyasi esa yashil investitsiyalar va resurslar bilan bog‘liq jarayonlarning shaffofligini ta‘minlaydi.<sup>277</sup> Smart grids energiya ta‘minoti tizimini avtomatlashtirish va talabni boshqarish orqali samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, raqamli innovatsiyalar yashil iqtisodiyotning monitoring va hisob-kitob tizimlarini ham takomillashtiradi.

Yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG–2030) bevosita xizmat qiladi. Raqamli yechimlar yordamida ekologik va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyati sezilarli darajada ortadi.<sup>278</sup>

Masalan, SDG 7 – Toza va arzon energiya doirasida energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar, jumladan smart grids, IoT qurilmalari va energiya monitoring tizimlari, energiya iste‘molini real vaqt rejimida kuzatish va optimallashtirish imkonini beradi. Shu orqali elektr energiyasi yo‘qotishlari kamayadi, iste‘molchilar va ishlab chiqaruvchilar uchun energiya

<sup>276</sup> BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG–2030). United Nations. <https://sdgs.un.org/goals>

<sup>277</sup> Rasulov, A. (2021). Raqamli iqtisodiyot va barqaror rivojlanish: integratsion yondashuvlar. Tashkent: Universitet nashriyoti.

<sup>278</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi” to‘g‘risidagi ma‘ruzasining matni.

tejamkorligi oshadi, hamda quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanuvchi manbalar samarali tatbiq etiladi.

SDG 9 – Sanoat, innovatsiyalar va infratuzilma doirasida raqamli innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va infratuzilmani barqaror qilish imkonini yaratadi. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili (Big Data) ishlab chiqarish jarayonlaridagi resurslarni samarali taqsimlash, texnologik uzilishlarni oldindan aniqlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyalari ishlab chiqarish zanjirini shaffoflashtiradi, resurslar va mahsulotlarning ekologik izlarini kuzatishga imkon yaratadi.

SDG 12 – Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish esa chiqindilarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan. Raqamli vositalar orqali chiqindilarni avtomatik hisoblash, ishlab chiqarish jarayonlaridagi keraksiz energiya va xom ashyo sarfini aniqlash, shuningdek, qayta ishlash tizimlarini optimallashtirish mumkin. Natijada ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari ekologik jihatdan barqaror bo'ladi, resurslar tejalanadi va yashil iqtisodiyot prinsiplariga moslashadi.

Shu tarzda, raqamli innovatsiyalar yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiladi va SDG–2030 maqsadlariga erishishda strategik vosita vazifasini bajaradi. Ular nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga ham yordam beradi.

Yashil iqtisodiyot va raqamli innovatsiyalarni uyg'unlashtirish orqali bir qator strategik maqsadlar samarali amalga oshiriladi. Birinchidan, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish orqali iqtisodiy va ekologik foyda bir vaqtda ta'minlanadi. Smart grids, IoT tizimlari va energiya monitoringi kabi raqamli yechimlar energiya iste'molini real vaqt rejimida kuzatish va boshqarishga imkon yaratadi, bu esa energiya yo'qotishlarini kamaytiradi va barqaror energiya tizimini shakllantiradi.

Ikkinchidan, chiqindilarni kamaytirish va resurslarni optimallashtirish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilish, xom ashyo va energiya sarfini tahlil qilish, shuningdek chiqindilarni qayta ishlashni optimallashtirish imkonini beradi. Shu orqali ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari ekologik barqarorlikka moslashtiriladi va resurslar samarali ishlatiladi.

Uchinchidan, yashil investitsiyalarni jalb qilish va ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirish barqaror rivojlanishning muhim instrumentidir. Raqamli platformalar va innovatsion texnologiyalar investitsiyalar oqimini shaffoflashtirish, loyihalarning samaradorligini baholash va moliyaviy risklarni kamaytirishda yordam beradi. Bu esa nafaqat ekologik loyihalarni, balki iqtisodiy jihatdan foydali investitsiyalarni ham rag'batlantiradi.

To'rtinchidan, milliy va global darajada yashil iqtisodiyot standartlariga mos keluvchi innovatsion infratuzilma yaratish strategik ahamiyatga ega. Raqamli yechimlar orqali ishlab chiqarish zanjiri, energiya ta'minoti va ekologik monitoring tizimlari modernizatsiya qilinadi, bu esa mamlakatni global yashil iqtisodiyot standartlariga moslashtiradi.

Beshinchidan, ijtimoiy barqarorlikni oshirish va ekologik ongni kuchaytirish strategiyasi aholining yashash sharoitini yaxshilash, yashil hayot tarzini targ'ib qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Raqamli texnologiyalar orqali ekologik ma'lumotlarni yetkazish va aholining ishtirokini rag'batlantirish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni tatbiq etish va yashil iqtisodiy tamoyillarni uyg'unlashtirish orqali SDG–2030 maqsadlariga erishish jarayoni sezilarli darajada tezlashadi. Bu strategiyalar mamlakatlarda barqaror rivojlanishning samarali mexanizmlarini shakllantirish, iqtisodiy o'sish bilan ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirish va raqamli innovatsiyalar yordamida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish imkonini beradi.

Yashil iqtisodiyot va raqamli innovatsiyalar barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG–2030) erishishda strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi. Raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt, IoT, smart grids va blockchain, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ular yashil investitsiyalarni jalb qilish, ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirish va milliy hamda

global yashil iqtisodiyot standartlariga mos infratuzilma yaratishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

SDG–2030 maqsadlari bilan integratsiya qilish nuqtai nazaridan, raqamli innovatsiyalar va yashil iqtisodiyot bir-birini to'ldiruvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Masalan, SDG 7 doirasida energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, SDG 9 doirasida sanoat va infratuzilmani barqarorlashtirish, SDG 12 doirasida mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarishni rag'batlantirish raqamli yechimlar orqali tezroq va samaraliroq amalga oshiriladi.<sup>279</sup>

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot va raqamli innovatsiyalarni uyg'unlashtirish orqali ijtimoiy barqarorlikni oshirish, ekologik ongni kuchaytirish va iqtisodiy rivojlanishning barqaror modelini shakllantirish imkoniyati mavjud. Bu esa mamlakatlarda barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda, iqtisodiy va ekologik maqsadlarni uyg'unlashtirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ekologik muvozanatni ta'minlash va SDG–2030 maqsadlariga erishishda muhim omil hisoblanadi. Shu yo'l bilan mamlakatlar barqaror rivojlanish yo'lida mustahkam va samarali tizimlarni shakllantira oladi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG–2030). United Nations. <https://sdgs.un.org/goals>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyuldagi "Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi" to'g'risidagi ma'ruzasining matni.
4. Abduvaxidov, D., & Tursunov, S. (2022). Yashil iqtisodiyotning O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari. Tashkent: Ilmiy nashriyot.
5. Rasulov, A. (2021). Raqamli iqtisodiyot va barqaror rivojlanish: integratsion yondashuvlar. Tashkent: Universitet nashriyoti.
6. UNEP (United Nations Environment Programme). (2020). Green Economy and Digital Innovation: Global Best Practices. Nairobi.
7. World Bank. (2021). Unlocking the Potential of Digital Technologies for Sustainable Development. Washington, DC.
8. OECD. (2020). Digitalization and the Green Transition. Paris: OECD Publishing.
9. Malayziya va BAA tajribasi: Choy, M. (2021). Digital Green Economy: Case Studies from Malaysia and UAE. *Journal of Sustainable Innovation*, 15(2), 45–62.
10. Qozog'iston tajribasi: Akhmetov, R. (2020). Green Technologies in Central Asia: Opportunities and Challenges. Almaty: Central Asia Research Institute.
11. Sadikov, J. (2022). Yashil iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar: amaliy tavsiyalar. Tashkent: Ilm-fan nashriyoti.
12. BMT, 2019. Harnessing Digital Innovation for the SDGs. United Nations Publications, New York.
13. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. (2021). Raqamli innovatsiyalar orqali yashil investitsiyalarni rivojlantirish strategiyasi.

---

<sup>279</sup> Abduvaxidov, D., & Tursunov, S. (2022). Yashil iqtisodiyotning O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari. Tashkent: Ilmiy nashriyot.

**4-SHO‘BA. ANIQ FANLAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR.**  
**BLOKLI SHIFRLASH ALGORITMLARINING ZAMONAVIY AXBOROT**  
**INFRA TUZILMASIDAGI O‘RNI VA QO‘LLANILISH SOHALARI TAHLILI**

**UDK 004.056.55:519.1**

Abdurazzoqov J.R, Tashkent international university, PhD.  
[javohirjon.1992@gmail.com](mailto:javohirjon.1992@gmail.com).

Ushbu tezisda zamonaviy kriptografiyaning fundamental asosi hisoblangan blokli shifrlash algoritmlarining nazariy jihatlari, ularning amaliyotda qo‘llanilish sohalari va axborot xavfsizligini ta‘minlashdagi strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda AES, 3DES va boshqa zamonaviy algoritmlarning moliya, tarmoq xavfsizligi, bulutli texnologiyalar va buyumlar interneti sohalaridagi roli o‘rganiladi. Shuningdek, blokli shifrlash rejimlarining xavfsizlikka ta‘siri va kvant hisoblash texnologiyalari davridagi istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Global raqamlashtirish jarayoni sharoitida axborot eng qimmatli resursga aylandi. Ma‘lumotlarni ruxsatsiz kirishdan, o‘zgartirishdan yoki o‘g‘irlanishdan himoya qilish nafaqat texnik, balki iqtisodiy va siyosiy xavfsizlikning muhim omilidir. Kriptografiya fani ushbu muammolarni hal qilishda turli usullarni taklif etadi, biroq ular orasida blokli shifrlash algoritmlari o‘zining ko‘p qirraliligi va yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi [1].

Blokli shifrlash – ochiq matnni ma‘lum bir qat‘iy uzunlikdagi bloklarga bo‘lib, har bir blokni simmetrik kalit yordamida o‘zgartiradigan matematik algoritmlar majmuasidir. Ushbu maqola blokli shifrlashning zamonaviy hayotimizning turli jabhalariga qanchalik chuqur kirib borganini va uning kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

Blokli shifrlash algoritmlari asosan Klavd Shennon tomonidan taklif etilgan tarqalish va chalkashtirish singari ikkita asosiy tamoyilga tayanadi [2].

Chalkashtirish – bu kalit va shifrlangan matn o‘rtasidagi bog‘liqlikni iloji boricha murakkablashtirishdir. Bu odatda S-blok deb ataladigan almashtirish jadvallari orqali amalga oshiriladi.

Tarqalish – bu ochiq matndagi bitta bitning o‘zgarishi shifrlangan matndagi ko‘plab bitlarning o‘zgarishiga olib kelishidir. Bu ma‘lumotlarning statistik qonuniyatlarini yashirishga xizmat qiladi.

Eng mashhur blokli shifrlash algoritmlari qatoriga quyidagilar kiradi:

1. AES (Kengaytirilgan shifrlash standarti): 128 bitli blok o‘lchamiga ega bo‘lib, 128, 192 yoki 256 bitli kalitlardan foydalanadi. Bugungi kunda dunyodagi eng xavfsiz va eng ko‘p qo‘llaniladigan standartdir [3].

2. DES (Ma‘lumotlarni shifrlash standarti): 1970-yillarda yaratilgan, hozirda 56 bitli kaliti zaif deb topilganligi sababli amalda foydalanilmaydi.

3. 3DES (Triple DES): DES algoritmini uch marta takrorlash orqali xavfsizlikni oshirgan, ammo AES paydo bo‘lgach, o‘z ahamiyatini yo‘qotgan.

4. Blowfish va Twofish: Bruce Schneier tomonidan ishlab chiqilgan, ochiq manbali va yuqori tezlikka ega algoritmlar [3].

Bugungi kunda quyidagi sohalarda shifrlash standartlari keng qo‘llanilmoqda.

Moliya sektori – kriptografiya eng keng qo‘llaniladigan sohadir. Bank tranzaksiyalari, plastik kartalar bilan amalga oshiriladigan to‘lovlar va onlayn bank xizmatlari bevosita blokli shifrlashga tayanadi. Bankomat (ATM) tarmog‘ida mijoz kiritgan PIN-kod hech qachon ochiq ko‘rinishda uzatilmaydi. U kiritilgan zahoti maxsus apparat moduli ichida shifrlanadi. Bunda odatda ISO 9564 standarti asosida 3DES yoki AES algoritmlari qo‘llaniladi [4]. Shifrlangan "PIN-blok" bank serveriga yuboriladi va u yerda tekshiriladi.

Zamonaviy chip o‘rnatilgan plastik kartalar EMV texnologiyasidan foydalanadi. Kartadagi chip o‘zida blokli shifrlash algoritmlarini bajaruvchi mitti protsessorga ega. To‘lov jarayonida karta va terminal o‘rtasida kriptografik kelishuv sodir bo‘ladi. Bunda AES algoritmi yordamida

tranzaksiya butunligi tekshiriladi va kartaning haqiqiyligi tasdiqlanadi. Internet orqali ma'lumot uzatishda maxfiylikni ta'minlashning eng asosiy usuli transport qatlami xavfsizligi (TLS) protokolidir. Siz har safar veb-saytga kirganingizda, brauzer va server o'rtasida xavfsiz aloqa o'rnatiladi. Garchi aloqani o'rnatishda assimetrik (RSA, ECC) algoritmlar ishlatilsada, asosiy ma'lumotlar oqimini shifrlash uchun blokli shifrlash (asosan AES) ishlatiladi. Sababi, blokli shifrlash assimetrik usullarga qaraganda minglab marta tezroq ishlaydi va katta hajmdagi videofayllar yoki veb-sahifalarni real vaqt rejimida shifrlash imkonini beradi.

Virtual xususiy tarmoqlar (VPN). VPN xizmatlari korporativ ma'lumotlarni ochiq internet kanallari orqali uzatishda shifrlangan tunnel yaratadi. Ushbu tunnel ichidagi har bir paket AES-256 algoritmi yordamida himoyalanaadi. Bu, ayniqsa, masofaviy ish tizimida davlat sirlari yoki tijorat sirlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumotlar faqat harakatda bo'lganda emas, balki saqlanayotganda ham (serverlarda, noutbuklarda, tashqi xotira qurilmalarida) xavf ostida bo'ladi. Zamonaviy operatsion tizimlardagi BitLocker (Windows), FileVault (macOS) va LUKS (Linux) vositalari diskdagi barcha sektorlarni shifrlaydi. Bunda AES-XTS rejimi keng qo'llaniladi. Ushbu rejim maxsus saqlash qurilmalari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ma'lumotlarni jismoniy o'g'irlash yoki diskni boshqa qurilmaga ulash orqali o'qishni imkonsiz qiladi [5].

Amazon Web Services (AWS), Microsoft Azure va Google Cloud kabi gigantlar foydalanuvchi ma'lumotlarini saqlashda "server tomonidagi shifrlash" (Server-side encryption) xizmatini taklif etadi. Bunda ma'lumotlar bazasining har bir yozuvi blokli shifrlash orqali himoyalanaadi.

Blokli shifrlashning ish rejimlari. Blokli shifrlash algoritmning o'zi yetarli emas, uni qanday usulda (rejimda) qo'llash xavfsizlik darajasini belgilaydi. Ma'lumotlar bloklari o'zaro qanday bog'lanishi kriptozanalizga qarshi turishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [6].

ECB (Elektron kod bloki) - Eng zaif rejim. ECB rejimida har bir blok mustaqil ravishda bir xil kalit bilan shifrlanaadi. Agar ochiq matnda bir xil bloklar (masalan, oq fondagi rasm qismlari) bo'lsa, shifrlangan matnda ham bir xil natija hosil bo'ladi. Bu statistik tahlil orqali shifrlangan ma'lumotni ochishga imkon beradi.

CBC (Zanjirli shifrlash bloki). Ushbu rejimda har bir blok shifrlanishdan oldin o'zidan oldingi shifrlangan blok bilan XOR operatsiyasi orqali bog'lanadi. Bu "zanjir" effekti ochiq matndagi takrorlanishlarni yashiradi.

GCM (Galua hisoblash rejimi) - Zamonaviy va samarali. GCM bugungi kunda eng afzal ko'riladigan rejimdir. U nafaqat shifrlashni amalga oshiradi, balki ma'lumotlarning butunligini ham tekshiradi (Authenticated Encryption). U parallel hisoblashlarga moslashgani uchun yuqori tezlikdagi tarmoqlarda (100 Gbps va undan yuqori) mukammal ishlaydi.

IoT uchun yengil vaznli kriptografiya. Zamonaviy muzlatkichlar, aqlli soatlar va datchiklar juda kam energiya va xotira resursiga ega. Ularda AES kabi og'ir algoritmlarni ishlatish qurilmaning tez quvvatsizlanishiga olib kelishi mumkin [7]. Shu sababli, ilmiy doiralarda yengil blokli shifrlash algoritmlari (masalan, Present, Gift, Simon, Speck) ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu algoritmlar blok o'lchami va raundlar sonini kamaytirish orqali resurslarni tejaydi, biroq yetarli darajadagi xavfsizlikni ta'minlaydi [8].

Kvant hisoblash texnologiyalari va blokli shifrlash kelajagi. Kvant kompyuterlarining paydo bo'lishi zamonaviy kriptografiya uchun katta xavf sifatida ko'rilmoqda. Shor algoritmi yordamida RSA va boshqa assimetrik usullarni osongina buzish mumkin. Biroq, blokli shifrlash algoritmlari bu borada ancha chidamli.

Grover algoritmi kvant kompyuterida simmetrik kalitlarni topish tezligini oshiradi, lekin bu shunchaki kalit uzunligini kvadrat ildizga kamaytirishga teng. Ya'ni, AES-128 kvant hujumiga qarshi AES-64 darajasiga tushib qolishi mumkin, bu esa zaifdir. Ammo, agar biz AES-256 dan foydalansak, uning kvant chidamliligi AES-128 darajasida qoladi, bu esa hali ham buzib bo'lmas darajadagi xavfsizlikni anglatadi. Shunday qilib, blokli shifrlash kvant davrida ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Blokli shifrlash algoritmlari zamonaviy axborot jamiyatining poydevori hisoblanadi. Ular sizning shaxsiy yozishmalarigizdan tortib, davlatning maxfiy hujjatlarigacha bo'lgan barcha qatlamlarni himoya qiladi. AES algoritmining standartlashtirilishi va uning turli rejimlar orqali optimallashtirilishi raqamli iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda.

Kelajakda resurslari cheklangan qurilmalar uchun yengil algoritmlarni takomillashtirish va kvant hujumlariga qarshi kalit uzunliklarini oshirish kriptografiya sohasidagi asosiy vazifalar bo'lib qoladi. Axborot xavfsizligi mutaxassislari nafaqat algoritmlarni tanlash, balki ularni qo'llash uslublariga (rejimlarga) ham jiddiy e'tibor qaratishlari lozim, zero kriptografik xavfsizlik tizimning eng zaif halqasi bilan o'lchanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. **Stallings, W. (2020).** *Cryptography and Network Security: Principles and Practice* (8th Edition). Pearson.
2. **Menezes, A. J., van Oorschot, P. C., & Vanstone, S. A. (1996).** *Handbook of Applied Cryptography*. CRC Press.
3. **Schneier, B. (1996).** *Applied Cryptography: Protocols, Algorithms, and Source Code in C*. John Wiley & Sons.
4. **NIST (National Institute of Standards and Technology).** *FIPS 197: Advanced Encryption Standard (AES)*. (2001).
5. **Aumasson, J. P. (2017).** *Serious Cryptography: A Practical Introduction to Modern Encryption*. No Starch Press.
6. **Katz, J., & Lindell, Y. (2020).** *Introduction to Modern Cryptography* (3rd Edition). CRC Press.
7. **Daemen, J., & Rijmen, V. (2002).** *The Design of Rijndael: AES - The Advanced Encryption Standard*. Springer-Verlag.
8. **Knudsen, L. R., & Robshaw, M. (2011).** *The Block Cipher Companion*. Springer.

### **KIMYOVIY LABORATORIYA JARAYONLARINI LATENT O'QUV JARAYONI SIFATIDA VIRTUAL MUHITDA VIZUAL MODELLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**Muazzam ARTIKOVA**

Dotsent Texnika fanlari nomzodi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Toshkent, O'zbekiston

[muazzamxon@mail.ru](mailto:muazzamxon@mail.ru)

**Fozil JO'RABOYEV**

katta o'qituvchi Toshkent amaliy fanlar universiteti Toshkent, O'zbekiston

[fozil93fja@gmail.com](mailto:fozil93fja@gmail.com)

**Eldor SAYFIYEV**

katta o'qituvchi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Toshkent, O'zbekiston

[eldor1075@mail.ru](mailto:eldor1075@mail.ru)

Maqolada kimyoviy laboratoriya jarayonlarining latent (yashirin) xususiyatlari va ularni virtual muhitda vizual modellashtirish masalalari o'rganilgan. Kimyo laboratoriyalarida sodir bo'ladigan atom-molekulyar darajadagi jarayonlar, reaksiya mexanizmlari va energetik o'zgarishlar bevosita kuzatib bo'lmaydigan hodisalardir. Tadqiqotda chizma geometriya printsiplari asosida kimyoviy jarayonlarni fazoviy modellashtirish, virtual reallik muhitida interaktiv vizualizatsiya yaratish nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Molekulyar dinamika, kvant-kimyoviy hisoblashlar va konstruktiv geometriya usullari integratsiyasi asosida latent jarayonlarni virtual laboratoriyada aks ettirish metodologiyasi taklif etilgan. Ishda virtual kimyo

laboratoriyalarini loyihalashning didaktik printsiplari, geometrik modellashtirish algoritmlari va vizualizatsiya texnologiyalari tizimli tahlil qilingan.

Kimyo fani amaliy tajribaga asoslangan fan hisoblanib, laboratoriya mashg'ulotlari kimyo ta'limining ajralmas qismidir. Biroq, kimyoviy laboratoriya jarayonlarining muhim qismi latent - ya'ni bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan - xarakterga ega. Reaktivlar idishdagi aralashmasi, rang o'zgarishi yoki cho'kma hosil bo'lishi kabi makroskopik hodisalar orqasida yashirin qoladigan atom va molekular harakati, kimyoviy bog'larning uzilishi va hosil bo'lishi, elektron o'tishlar, faollanish energiyasi to'siqlari - bu jarayonlarning mohiyatini tushunish uchun maxsus vizualizatsiya vositalari zarur.

An'anaviy kimyo laboratoriyalarida talabalar faqat jarayonning tashqi ko'rinishini kuzatadilar, ammo molekulyar mexanizmni tasavvur qilishlari qiyin. Qo'shimcha ravishda, xavfli reaksiyalar, qimmat reagentlar, cheklangan laboratoriya vaqti kabi amaliy muammolar ham mavjud. Virtual laboratoriyalar bu muammolarni hal qilish imkonini beradi, lekin oddiy simulyatsiya yetarli emas - ilmiy asoslangan geometrik modellashtirish va latent jarayonlarni aks ettirish metodologiyasi zarur.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, kimyoviy laboratoriya jarayonlarini virtual muhitda vizual modellashtirish uchun yagona nazariy asos ishlab chiqilmagan. Mavjud virtual laboratoriyalar asosan makroskopik hodisalarni taqlid qilishga qaratilgan va molekulyar darajadagi latent jarayonlarni yetarli darajada aks ettirmaydi. Shu munosabat bilan, chizma geometriya, molekulyar dinamika va virtual reallik texnologiyalarini birlashtiradigan kompleks yondashuvni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi - kimyoviy laboratoriya jarayonlarini latent o'quv jarayoni sifatida virtual muhitda vizual modellashtirish uchun nazariy asoslarni yaratish, geometrik modellashtirish usullarini ishlab chiqish va interaktiv vizualizatsiya metodologiyasini taklif etish [1].



*rasm. Kimyoviy laboratoriyani latent o'quv jarayoni sifatida vizuallashtirish*  
**KIMYOVIY LABORATORIYA JARAYONLARINING LATENT XUSUSIYATLARI**

Kimyoviy laboratoriyada talabalar turli xil tajribalarni bajaradilar: titrimetrik tahlil, sintez reaksiyalari, elektrokimyoviy jarayonlar, spektroskopik tadqiqotlar. Har bir tajriba makroskopik va mikroskopik darajalarda sodir bo'ladi. Makroskopik daraja - bu talaba ko'rishi mumkin bo'lgan hodisalar: rang o'zgarishi, cho'kma hosil bo'lishi, gaz ajralishi, harorat o'zgarishi. Mikroskopik daraja - bu atom-molekulyar jarayon va u latent (yashirin) xarakterga ega.

Birinchi latent aspekt - molekularning fazodagi orientatsiyasi va to'qnashuvi. Kimyoviy reaksiya sodir bo'lishi uchun reaktant molekulari bir-biriga yaqinlashishi, to'g'ri orientatsiyada joylashishi va etarli energiya bilan to'qnashishi kerak. Masalan, SN2 reaksiyada nukleofil molekula substrat molekulaning orqa tomonidan hujum qiladi - bu stereoelektron talabdir. Agar

nukleofil boshqa burchakdan yaqinlashsa, reaksiya sodir bo'lmaydi. Bu fazoviy orientatsiya talabalar uchun abstrakt tushuncha bo'lib qoladi, chunki uni bevosita kuzatish mumkin emas.

Ikkinchi latent aspekt - faollanish energiyasi va o'tish holati. Har qanday kimyoviy reaksiya energiya to'sig'idan o'tishni talab qiladi. Reaktantlarning energiyasi ortib, maksimal qiymatga - o'tish holati energiyasiga - yetganda, reaksiya sodir bo'ladi. Bu energetik profil Arrheniusning faollanish energiyasi tenglamasi orqali tavsiflanadi, ammo uni vizualizatsiya qilish qiyin. O'tish holati juda qisqa vaqt (femtosekundlar) davom etadi va uni eksperimental ravishda aniqlash murakkab.

Uchinchi latent aspekt - solvatatsiya va molekulararo o'zaro ta'sirlar. Erituvchili muhitda molekular eritmaning molekulari bilan o'ralgan bo'ladi va bu solvatatsiya qobig'i hosil qiladi. Solvatatsiya energiyasi reaksiya tezligiga va muvozanatga ta'sir qiladi. Masalan, suvli muhitda ion-dipol o'zaro ta'siri, vodorod bog'lanishlari reaksiya mexanizmini o'zgartirishi mumkin. Bu o'zaro ta'sirlar makroskopik darajada ko'rinmaydi [2].

Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanining printsiplari - proyeksiyalash usullari, fazoviy transformatsiyalar, konstruktiv metodlar - virtual muhitda o'quv jarayonlarini to'g'ri ifodalash uchun nazariy asos yaratadi. Tadqiqotning maqsadi o'quv jarayonlarini virtual reallik muhitida vizual ifodalash yondashuvlarini tizimli tahlil qilish va samarali tatbiq etish yo'llarini ko'rsatishdir.

## MOLEKULAR DINAMIKA SIMULATSIYASI VA GEOMETRIK MODELLASHTIRISH INTEGRATSIYASI

Kimyoviy laboratoriya jarayonlarini to'liq modellashtirish uchun molekulyar dinamika (MD) simulatsiyasi zarur. MD molekularning harakat tenglamalarini yechib, har bir atomning vaqt o'tishi bilan qanday harakatlanishini hisoblaydi. Nyutonning ikkinchi qonuni  $F = ma$  har bir atomga qo'llaniladi va tezlanish, tezlik, koordinatalar hisoblanadi.

MD simulatsiyasida molekulararo potentsial energiya funktsiyasi ishlatiladi. Eng keng tarqalgan - CHARMM, AMBER, OPLS kabi kuch maydonlari (force fields). Bu kuch maydonlari kimyoviy bog'larning cho'zilishi, burchaklarning egilishi, torsiyon burchaklarning aylanishi, elektrostatik o'zaro ta'sirlar, Van der Waals kuchlari kabi barcha energiya komponentlarini o'z ichiga oladi. Umumiy potentsial energiya bu komponentlarning yig'indisi:  $E_{total} = E_{bond} + E_{angle} + E_{torsion} + E_{electrostatic} + E_{vdW}$ .

MD simulyatsiyasi natijasida biz molekularning har bir vaqt momentidagi koordinatalarini olamiz - bu trajectory (traektoriya) deb ataladi. Traektoriya millionlab kadrda iborat bo'lishi mumkin. Bizning vazifamiz - bu traektoriyani virtual muhitda geometrik modellar orqali vizualizatsiya qilish.

Birinchi integratsiya darajasi - MD dan olingan koordinatalarni to'g'ridan-to'g'ri geometrik modellarga uzatish. Har bir vaqt qadamida (timestep) har bir atomning (x, y, z) koordinatalari yangilanadi. Geometrik model - sfera yoki boshqa primitiv - ushbu yangi koordinatalarga ko'chiriladi. Bu real vaqtda molekularning harakatini ko'rsatadi. Talaba molekularning qanday harakatlanishini, bir-biriga qanday yaqinlashishini, to'qnashishini va reaksiya sodir bo'lishini ko'radi.

Ikkinchi integratsiya darajasi - energetik ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish. MD simulyatsiyasi har bir momentda sistemaning umumiy energiyasini, kinetik energiyasini, potentsial energiyasini hisoblaydi. Biz bu energiya qiymatlarini rang orqali vizualizatsiya qilishimiz mumkin. Masalan, molekulaning yuzasini uning potentsial energiyasiga mos ravishda ranglash: yuqori energiyali hududlar qizil, past energiyali hududlar ko'k rang bilan belgilanadi. Bu molekulaning qaysi qismi reaktiv, qaysi qismi barqaror ekanligini ko'rsatadi.

Uchinchi integratsiya darajasi - reaksiya hodisalarini aniqlash va ta'kidlash. MD traektoriyasida kimyoviy reaksiya sodir bo'lgan momentlarni aniqlash mumkin. Buning uchun bog' uzunliklarini kuzatish kerak: agar ikki atom orasidagi masofa ma'lum bir kritik qiymatdan kam bo'lsa, bog' hosil bo'lgan deb hisoblanadi; agar ma'lum qiymatdan oshsa, bog' uzilgan. Reaksiya momenti aniqlangach, uni vizual ravishda ajratib ko'rsatish mumkin - masalan, yangi

bog' yashnashli animatsiya bilan paydo bo'ladi, uzilgan bog' esa yemirilgan chiziq shaklida ko'rsatiladi [4].

Kimyoviy laboratoriya jarayonlarini latent o'quv jarayoni sifatida virtual muhitda vizual modellashtirish uchun nazariy asoslar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. kimyoviy jarayonlarning latent xususiyatlarini to'liq tahlil qilish;
2. chizma geometriya prinsiplariga asoslangan molekulyar tuzilmalarni modellashtirish;
3. molekulyar dinamika simulatsiyasi va geometrik modellashtirish integratsiyasi;
4. kvant-kimyoviy hisoblashlar va elektron tuzilmani vizualizatsiya qilish;
5. didaktik prinsiplarga amal qiladigan virtual laboratoriya muhitini loyihalash.

Bu nazariy asoslar amaliyotda virtual kimyo laboratoriyalarini yaratish uchun asos bo'ladi. Kelajakda quyidagi yo'nalishlarda ishlash istiqbolli: sun'iy intellekt va mashinani o'rganish texnologiyalarini integratsiya qilish - tizim talabani xatolarini avtomatik aniqlashi va individual maslahatlar berishi; haptik feedback texnologiyasini qo'shish - talaba virtual reagentlarni tutganda og'irlik va tekstura hissini his qilishi; ko'p foydalanuvchili rejim - bir nechta talaba birgalikda virtual laboratoriyada ishlashi; mobil qurilmalarda ishlash - talabalar istalgan joyda virtual tajriba o'tkazishi.

Kimyoviy laboratoriya jarayonlarini virtual muhitda vizual modellashtirish nafaqat texnologik innovatsiya, balki kimyo ta'limini tubdan o'zgartiruvchi paradigma hisoblanadi. U latent jarayonlarni ko'rinadigan qiladi, xavfli tajribalarni xavfsiz amalga oshirishga imkon beradi va har bir talabaga individual o'rganish trajektoriyasini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stem fanlarida virtual reallikdan foydalanish: misollar va natijalar. M.A. Artikova, F.A.Jo'raboyev, Sh. O'. Azimov <https://zenodo.org/records/15423730>
2. O'quvchilarning bilim olish jarayoniga virtual reallikning ta'siri. M.A. Artikova, F.A.Jo'raboyev, R.T.Gaipnazarov. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15423755>
3. Artikova M.A., Sayfiyev E.E., Juraboev F.A. Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari asosida "O'zbekiston bo'yicha adabiy qo'llanma" qo'llanmasining elektron platformasi va mobil ilovasini yaratish // Universum: texnika fanlari: elektron. ilmiy jurnal. 2022. 10(103). <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/14440>.
4. Dalgarno B., Lee M.J.W., Carlson L., et al. Effectiveness of Virtual Laboratories in Chemistry // Computers & Education. 2011. Vol. 56. No. 4. P. 1023-1034.
5. Tatli Z., Ayas A. Virtual Chemistry Laboratory: Effect of Constructivist Learning Environment // Turkish Online Journal of Distance Education. 2013. Vol. 14. No. 1. P. 183-199.
6. Frenkel D., Smit B. Understanding Molecular Simulation: From Algorithms to Applications. Academic Press, 2002. 638 p.
7. Cramer C.J. Essentials of Computational Chemistry: Theories and Models. 2nd ed. Wiley, 2004. 618 p.
8. Leach A.R. Molecular Modelling: Principles and Applications. 2nd ed. Pearson, 2001. 744 p.

## **GILBERT FAZOSIDAGI OPTIMAL KVADRATUR FORMULALARDAN FOYDALANIB YURAKNING MINUTLIK HAJMINI HISOBLASH**

*U. N. Xayriyev*  
*Cyber University, f.-m.f.f.d. (PhD)*

Ushbu maqolada inson yurak-qon tomir tizimi faoliyatini baholashning muhim ko'rsatkichi bo'lgan yurakning minutlik hajmini (Cardiac Output) hisoblashning matematik modellari tahlil qilinadi. Qon oqimi dinamikasi va bo'yoqni suyultirish usuli asosida olingan empirik ma'lumotlarni qayta ishlashda klassik taqribiy hisoblash usullari o'rniga, silliqli cheklangan funksiyalar uchun Gilbert fazosida, xususan  $W_2^{(1,0)}$  fazosida qurilgan optimal kvadratur formulalarni qo'llashning afzalliklari va ilmiy ahamiyati asoslab berilgan.

Zamonaviy tibbiyot va biologiyada inson organizmidagi murakkab jarayonlarni o'rganishda matematik modellashtirishning o'rni beqiyosdir. Qonning tomirlar bo'ylab harakati, uning tezligi va yurakning nasos sifatidagi samaradorligini aniq baholash gemodinamikaning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Amaliyotda olinadigan tibbiy ma'lumotlar ko'pincha diskret va ma'lum darajada xatoliklarga ega bo'lganligi sababli, bu ma'lumotlarni qayta ishlashda yuqori aniqlikni ta'minlovchi matematik apparatlarni, jumladan, zamonaviy sonli integrallash usullarini qo'llash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Qon tomirlaridagi qon oqimini matematik nuqtai nazardan tavsiflashda Poiseuille qonuni muhim o'rin tutadi. Ushbu qonun silindrik naylarda (qon tomirlarida) qovushqoq suyuqlikning laminar oqimini ifodalaydi:

$$F = \frac{\pi PR^4}{8\eta l}$$

bu yerda  $F$  — qon oqimining tezligi (flux),  $P$  — qon bosimi farqi,  $R$  — qon tomiri radiusi,  $\eta$  — qonning qovushqoqligi,  $l$  — tomir uzunligi.

Tenglamadan ko'rinib turibdiki, qon oqimi tezligi tomir radiusining to'rtinchi darajasiga to'g'ri proporsionaldir. Bu esa qon tomirlarining biroz torayishi ham qon oqimiga qanchalik jiddiy ta'sir ko'rsatishini matematik tasdiqlaydi.

Yurakning minutlik hajmi (Cardiac Output) — bu yurak qorinchasi tomonidan bir daqiqa ichida tomirlarga haydaladigan qon miqdoridir. Uni o'lchash uchun tibbiy amaliyotda *bo'yoqni suyultirish usuli* keng qo'llaniladi.

Bu usulda bemorning o'ng bo'lmasiga ma'lum miqdordagi ( $A$ ) maxsus tibbiy bo'yoq (bolus) yuboriladi. Bo'yoq yurak orqali o'tib, aortaga tushadi. Aortaga o'rnatilgan maxsus zond yordamida  $[0, T]$  vaqt oralig'ida qondagi bo'yoqning konsentratsiyasi  $f(t)$  muntazam ravishda o'lchab boriladi.

Agar  $F$  o'zgarmas qon oqimining tezligi bo'lsa, ma'lum bir  $t$  vaqtdagi bo'yoq miqdori integrallash orqali hisoblanadi. Organizmga yuborilgan umumiy bo'yoq miqdori  $A$  quyidagi integral orqali aniqlanadi:

$$A = F \int_0^T f(t) dt.$$

Ushbu munosabatdan yurakning minutlik hajmini topish formulasini keltirib chiqaramiz:

$$F = \frac{A}{\int_0^T f(t) dt} \quad (1)$$

Tibbiy asbob-uskunalar konsentratsiya funksiyasi  $f(t)$  ni uzluksiz emas, balki ma'lum vaqt qadamlarida  $\Delta t$  diskret qiymatlar sifatida qayd etadi. Maxrajdagi integralni hisoblashda an'anaviy ravishda trapetsiyalar yoki Simpson formulalaridan foydalaniladi. Biroq, bu usullar funksiyaning yuqori tartibli hosilalari mavjudligini va uzluksizligini talab qiladi, real tibbiy ma'lumotlar esa ko'pincha bu darajada silliq bo'lmaydi va shovqinlarni (noise) o'z ichiga oladi.

Shu sababli, hisoblash aniqligini oshirish uchun integrallanuvchi funksiyaning real xususiyatlarini inobatga oluvchi, xususan, silliqdagi cheklangan funksiyalar fazosi bo'lgan Gilbert fazolarida qurilgan optimal kvadratur formulalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Biz bu o'rinda  $W_2^{(1,0)}$  fazosini ko'rib chiqamiz. Bu fazo birinchi tartibli hosilasi kvadrati bilan integrallanuvchi bo'lgan funksiyalar to'plamidan iborat bo'lib, tibbiy empirik ma'lumotlarni modellashtirish uchun juda mos keladi.

Integralni quyidagi chiziqli kombinatsiya yordamida taqribiy hisoblaymiz:

$$\int_0^T f(t) dt \cong \sum_{k=0}^N C_{k,T} f(t_k), \quad (2)$$

bu yerda  $t_k$  — konsentratsiya o'lchangan nuqtalar,  $C_{k,T}$  esa izlanayotgan optimal koeffitsiyentlar.

$W_2^{(1,0)}$  fazosida optimal  $C_{k,T}$  koeffitsiyentlarni topish masalasi xatolik funksionali  $\ell$  ning normasini minimallashtirishga keltiriladi:

$$\|\ell\| = \inf_{C_{k,T}} \sup_{\|f\|_{W_2^{(1,0)}} \leq 1} \left| \int_0^T f(t) dt - \sum_{k=0}^N C_{k,T} f(t_k) \right|.$$

Bunday optimal kvadratur formulaning qo'llanilishi diskret nuqtalarda berilgan ma'lumotlar ustida integrallash xatoligini kafolatlangan eng kam darajaga tushiradi.

**Teorema [5].**  $W_2^{(1,0)}$  Gilbert fazosida (2)-ko'rinisdagi kvadratur formulaning optimal koeffitsiyentlarining analitik ko'rinishi quyidagi ko'rinishga ega

$$C_{0,T} = T \cdot \frac{e^h - 1}{e^h + 1},$$

$$C_{k,T} = 2T \cdot \frac{e^h - 1}{e^h + 1}, \quad k = 1, 2, \dots, N-1,$$

$$C_{N,T} = T \cdot \frac{e^h - 1}{e^h + 1},$$

bu yerda  $h = \frac{T}{N}$ ,  $N$  - o'lchashlar (tugun nuqtalar) soni.

Nazariy modelni sinash maqsadida aniq amaliy misolni ko'rib chiqamiz. Bemorga  $A = 5$  mg miqdorida bo'yoq yuborildi va uning aortadagi konsentratsiyasi 10 soniya davomida har bir soniyada o'lchanib, 11 ta nuqtadan iborat jadval hosil qilindi.

Ushbu diskret qiymatlar asosida  $W_2^{(1,0)}$  fazosida qurilgan optimal kvadratur formula yordamida integralning qiymati hisoblanganda, natija taqriban 41.87 mg·s/L ni tashkil etdi.

Topilgan qiymatni asosiy formulaga qo'yib, yurakning minutlik hajmini topamiz:

$$F = \frac{5}{41.87} \approx 0.12 \text{ L/s} = 7.2 \text{ L/min}$$

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, tibbiy diagnostikada matematik analiz apparatidan foydalanish amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, diskret empirik ma'lumotlarni tahlil qilishda  $W_2^{(1,0)}$  kabi maxsus Gilbert fazolarida qurilgan optimal kvadratur formulalarning qo'llanilishi klassik usullarga nisbatan ishonchliroq va aniqroq natijalar beradi. Bu esa yakuniy tibbiy xulosalarning to'g'riligini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Stewart, J.** *Calculus: Early Transcendentals* (9th ed.). Cengage Learning, 2020.
2. **Sobolev, S. L.** *Cubature Formulas and Modern Analysis: An Introduction*. Gordon and Breach Science Publishers, 1992.
3. **Klabunde, R. E.** *Cardiovascular Physiology Concepts* (2nd ed.). Lippincott Williams & Wilkins, 2011.
4. **Shadimetov Kh. M., Hayotov A. R.** Optimal quadrature formulas with derivative in Sobolev space. *Journal of Computational and Applied Mathematics*, 2011, 235(11), 3428-3440.
5. **Shadimetov Kh. M., Hayotov A. R., Khayriev U.N.** Optimal quadrature formulas for approximating strongly oscillating integrals in the Hilbert space  $W_2^{(m,m-1)}$  of periodic functions, Volume 453, 2025, 116133

**OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING DASTURLASHGA OID  
KOMPETENSIYALARINI TIZIMLI-ALGORITMIK YONDASHUV ASOSIDA  
RIVOJLANTIRISH**

**Xazratov Fazliddin Xikmatovich,**  
Buxoro davlat universiteti doktoranti  
PhD, p.f.f.d., dotsent  
[f.x.xazratov@buxdu.uz](mailto:f.x.xazratov@buxdu.uz)

Tezisdav oliy ta'lim muassasalari talabalarining dasturlashga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda tizimli-algoritmik yondashuvning ahamiyati, uning metodik asoslari, shakllari hamda bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil etish mexanizmi va amaliy natijalari tahlil qilingan.

Talabalarining algoritmik tafakkuri, mantiqiy fikrlashi va muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirishda tizimli-algoritmik yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv dasturlash jarayonini izchil, bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etishga imkon beradi.

Tizimli-algoritmik yondashuv dasturlashni o'qitishda bilim, ko'nikma va malakalarni o'zaro uzviy bog'liqlikda hamda mantiqiy ketma-ketlik asosida shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Mazkur yondashuv o'quv jarayonini muammoni tahlil qilishdan boshlab algoritm tuzish, uni modellashtirish, dastur kodini yozish, shuningdek testlash va optimallashtirish bosqichlari orqali izchil tashkil etishni nazarda tutadi [1]. Bunday yondashuv natijasida talabalarda nafaqat dastur tuzish ko'nikmalari, balki tizimli va algoritmik fikrlash, muammoni strukturaviy tahlil qilish hamda samarali yechim ishlab chiqish kompetensiyalari ham shakllanadi.

Tizimli-algoritmik yondashuv asosida dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida muammoli o'qitish, loyiha asosida o'qitish, laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim hamda jamoaviy ishlash kabi shakllar samarali hisoblanadi [2]. Muammoli o'qitish real hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalarni yechish orqali talabalarda algoritmik tafakkur va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi. Loyiha asosida o'qitish kichik dasturiy mahsulotlar yaratish jarayonida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash imkonini beradi. Laboratoriya mashg'ulotlari algoritm tuzish va kod yozish ko'nikmalarini mustahkamlasa, mustaqil ta'lim zamonaviy raqamli platformalar orqali bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi [3]. Jamoaviy ishlash esa talabalarda kommunikativ kompetensiya, muammolarni birgalikda hal qilish va dasturiy loyihalarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. So'nggi yillardagi tadqiqotlar ham aynan integrativ va loyiha yo'naltirilgan yondashuv dasturlashni o'qitishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlamoqda[4].

MDH davlatlari olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham dasturlashni aynan bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etish modeli talabalarining algoritmik tafakkuri, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati hamda kasbiy tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [5]. Shu bois, rivojlantirish bosqichlarini izchil amalga oshirish oliy ta'lim tizimida dasturlash kompetensiyalarini samarali shakllantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi [6].

Dasturlash kompetensiyalarini tizimli ravishda shakllantirish izchil, maqsadga yo'naltirilgan va bosqichma-bosqich tashkil etilgan pedagogik jarayonni talab etadi [7]. Mazkur jarayon talabaning bilish faoliyati, amaliy harakatlari hamda refleksiv tahlilini o'zaro uyg'unlikda rivojlantirishga qaratiladi [8].


Motivatsion-bilish bosqichida talabalarda dasturlashga nisbatan barqaror qiziqish va ichki motivatsiya shakllantiriladi [9]. Bu bosqichda algoritmik tafakkurning boshlang'ich elementlari mantiqiy fikrlash, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash, muammoni tahlil qilish va uni kichik qismlarga ajratish ko'nikmalari rivojlantiriladi. O'qituvchi tomonidan vizual modellar, blok-

sxemalar, interaktiv topshiriqlar va muammoli savollar qo‘llanilishi talabning bilish faolligini oshiradi hamda nazariy tushunchalarni ongli ravishda o‘zlashtirishiga xizmat qiladi(1-rasm).

Operatsion-faoliyat bosqichida nazariy bilimlar amaliy harakatlar orqali mustahkamlanadi. Talabalar oddiy algoritmlar tuzish, chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi jarayonlarni ifodalash, shart operatorlari, sikllar va funksiyalar bilan ishlashni o‘rganadilar. Ushbu bosqichda dasturlash tilining sintaktik va semantik xususiyatlarini anglash, xatolarni aniqlash va tuzatish ko‘nikmalari shakllanadi. Mashg‘ulotlar laboratoriya ishlari, amaliy topshiriqlar hamda mini-loyihalar orqali tashkil etilishi samaradorlikni oshiradi. Natijada talabalarda algoritmnii kod ko‘rinishida ifodalash malakasi vujudga keladi.

Amaliy-integrativ bosqich talabning mustaqil va ijodiy faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan. Bu bosqichda murakkab masalalarni yechish, ma‘lumotlar tuzilmalari (massivlar, ro‘yxatlar, fayllar va boshqalar) bilan ishlash, modullashtirish tamoyillarini qo‘llash hamda kichik dasturiy loyihalarni yaratish orqali nazariy bilimlar amaliyot bilan integratsiyalashadi. Talabalar real hayotiy vaziyatlarga yaqin topshiriqlar ustida ishlash jarayonida muammoni tizimli tahlil qilish, samarali algoritmlar tanlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Mazkur bosqich kasbiy kompetensiyaning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Refleksiv-tahliliy bosqichda o‘z faoliyatini baholash, natijalarni tahlil qilish va takomillashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Talabalar yozilgan dastur kodini strukturaviy va mantiqiy jihatdan tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi, algoritmlar samaradorligini oshirish yo‘llarini izlaydi hamda optimallashtirish usullarini qo‘llaydi. Shuningdek, o‘zaro baholash (peer review) va muhokama jarayonlari kasbiy refleksiya, tanqidiy fikrlash va o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantiradi.



*1-rasm. Dasturlash kompetensiyalarini tizimli-algoritmik rivojlantirish modeli.*

Tizimli-algoritmik yondashuv dasturlash kompetensiyalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni talabalarda algoritmik tafakkur, muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati hamda amaliy dasturlash ko‘nikmalarini izchil rivojlantiradi. Tadqiqotimiz natijasida aynan tizimli yondashuv talabning faqat kod yozishni emas, balki muammoni chuqur tahlil qilish, uni strukturaviy qismlarga ajratish va eng maqbul yechimni tanlash ko‘nikmasini shakllantirishi asoslandi. Chunki dasturlash bu faqat texnik jarayon emas, balki mantiqiy fikrlash, aniqlik va izchillikni talab qiladigan intellektual faoliyatdir. Algoritmik ketma-ketlik asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabning o‘z ustida mustaqil ishlashini kuchaytiradi, xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarish va kodni takomillashtirish madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa kelajakda murakkab dasturiy tizimlar ustida ishlashda zarur

bo'lgan kasbiy mas'uliyat va tafakkur darajasini oshiradi. Aynan shu jihat tizimli-algoritmik yondashuvni an'anaviy o'qitish usullaridan ustun qo'yadi. Natijada, raqamli iqtisodiyot sharoitida tez moslasha oladigan, innovatsion fikrlaydigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati sezilarli darajada oshadi. Shu bois, dasturlashni o'qitishda tizimli-algoritmik yondashuvni metodik asos sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim muassasalarida dasturlash fanlarini o'qitishda tizimli-algoritmik yondashuv asosida maxsus metodik qo'llanmalar, o'quv-modul dasturlari va bosqichma-bosqich shakllantiruvchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, dasturlash kompetensiyalarini yanada samarali rivojlantirish uchun loyiha asosida o'qitish ulushini oshirish, real sektorga yaqin amaliy vazifalarni qo'llash hamda IT kompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur.

O'quv jarayonida murakkabligi ortib boruvchi algoritmik masalalar tizimini yaratish va har bir bosqichda reflektiv tahlil elementlarini joriy etish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ta'limini qo'llab-quvvatlash maqsadida zamonaviy onlayn platformalar, dasturlash muhitlari hamda avtomatlashtirilgan baholash tizimlaridan samarali foydalanish o'quv jarayonining natijadorligini oshiradi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Garcia-Penalvo F. J., et al. Project-based learning in computer science education: A systematic review // *Education and Information Technologies*. – 2023.
2. Lai C. L., Hwang G. J. Fostering students' computational thinking through problem-based learning: A meta-analysis // *Computers & Education*. – 2023.
3. Romero M., et al. Collaborative learning strategies in programming education: Impact on student performance // *IEEE Access*. – 2024.
4. Zhang Y., Chen X. Enhancing programming competence through blended and self-directed learning approaches // *Sustainability*. – 2024.
5. Ivanov V. V., Petrova N. S. Stage-based formation of programming competencies in higher education // *Informatika i obrazovanie*. – 2023.
6. Saparov K. T., et al. Methodological foundations for developing algorithmic thinking among university students // *Vestnik KazNPU*. – 2023.
7. Aliyev R. M. Pedagogical conditions for stepwise programming instruction in technical universities // *Azerbaijan Journal of Educational Studies*. – 2024.
8. Kravchenko O., Melnyk I. Systematic approach to programming education in higher institutions // *Information Technologies and Learning Tools*. – 2024.
9. Xazratov F. X., Xayitova D. I. STEAM: O'quvchilarning algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirishning yangi paradigmasi // *Ilm-fan va texnologiyalar*. – 2025. – № 12(1). – B. 208–217.

## **РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ОРҚАЛИ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ЯХШИЛАШ МЕХАНИЗМЛАРИ**

**Рахматова Саодат Амракуловна**

ТАТУ Самарқанд филиали

“Тиллар” кафедраси доценти

e-mail: [saodatrahmatova67@gmail.com](mailto:saodatrahmatova67@gmail.com)

XXI асрда таълим тизимида рақамлаштириш жараёнлари жадал ривожланмоқда. Сунъий интеллект (СИ) технологиялари таълимда янги имкониятларни яратди: индивидуал ёндашув, ўқув материални автоматик мослаштириш, билимни баҳолашда объективлик ва тезкорлик. Шунинг учун таълимни оптималлаштиришда СИ ва рақамли технологиялардан фойдаланиш стратегик аҳамият касб этади. Таълимни ахборотлаштириш

жамиятни ахборотлаштириш жараёнини бир қисми ҳамда инсон цивилизациясини янги юқори даражада ташкиллашганлигини намоён этувчи фактор ҳисобланади.

Ушбу жараёнда информацион тузилмалар ривожини билан бирга инсон ҳаёти ва фаолиятининг ҳамма соҳаларида компьютерлаштириш иши жадал кириб келмоқда.

Бизлар ўз тадқиқотимизда юқорида кўрсатилган педогогик технологияларнинг рақамлаштириш ва СИ қонун қоидаларини назарда тутиб илмий изланиш мавзусини “Бўлажак кадрларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш учун ИТ қурилмаларидан олинган ахборотни ишлатишга педагогларни тайёрлаш” деб танладик.

Бизларнинг изланишларимиз XXI асрда Жаҳон миқёсида таълим барқарор тарақиётни таъминловчи асосий омил сифатида эътироф этилган бўлиб, 2030-йилгача белгиланган ҳалқаро таълим олиш ва ижодий қобилиятни рағбатлантириш стратегияси билан чамбарчас боғлиқдир [1].

Айрим тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, бугунги кунда, педагогларни информацион технологияларидан касбий фаолиятларига тайёрлашда ноаниқликлар мавжуд. Бу эса педагогик кадрларни модернизациялаш жараёнининг асосий йўналишларига бирмунча жавоб бермайди. Таҳлил давомида шу маълум бўлдики: педагогик кадр тайёрланадиган олийгоҳларда талабаларнинг информацион технологик (ИТ) ривожланишида давомийлик йўқ; фанлар аро узвий боғлиқлик учрамайди деб таъкидлайди Kalley P. ва Kalley J. Шунинг учун касбий тайёргарлик жараёнида талабанинг хронологик, биоритмик, физиологик, психологик ва бошқа факторларнинг назарда тутиб тизимли ёндашувни ташкил этиш анча суст. Давлат таълим стандартларида эса таълим соҳасидаги педагог, бакалавр ва магистрларнинг ИТ компетентлиги сифатида ҳеч қандай талаб йўқ [2].

С.Мусинов ва А.Абдукаримовнинг тадқиқотларида педагогик ва техник йўналишдаги олийгоҳлар талабаларнинг информацион-технологик компетентлигини ривож топтиришга, уларни ИТ қурилмаларидан олинган ахборотлари билан оғоҳ этиб бу ахборотлардан фанлараро узвий боғлиқликда фойдаланиш назарда тутилган [3], [4].

Россиялик тадқиқотчи И.Г.Захарова худди шу муаммони таҳлил этиб унинг ечимини педагогларнинг касбий тайёргарлиги билан боғлайди. Унинг фикрига кўра педагогик касбий компетентликни сифат жиҳатдан кўтармай туриб олдинга бориш мумкин эмас. Шунинг учун у қуйидагича таъкидлайди: “бўлажак ўқитувчиларни шундай ўқитиш долзарбки, уларга нафақат фундаментал билимлар (танлаган касбига қараб математика, химия, биология, адабиёт ва бошқа) педагогик ва психологик, балким информацион ва қоммуникацион техногогиялар ҳақида ҳам керакли билим, малака ва кўникмалар бериш зарур” [5].

□ Тадқиқотнинг гипотезаси. Бўлажак педагог кадрларнинг касбий компетентлигини оптималлашади, агарда у ўз тайёргарлигида ўқувчи-талабалардан ИТ қурилмалардан олинган ахборотлардан қўллана олса. Бўлажак педагог кадрларни касбий компетенцияларини шакллантириш, уларнинг ижодий фаолиятларини ривожлантириш, ижодкорлигини қўллаб-қувватлаш ва уларда педагогик инновацияларга мойилликни шакллантириш. Бўлажак педагог кадрларнинг ИТ бўйича билим ва кўникмаларини ривожлантириш. ИТ воситаларидан фойдаланиш педагогларнинг малакалари ошишига олиб келади. ИТ воситаларидан фойдаланган ҳолда дарс машғулоти янада қизиқарли, ранг-баранг, замон талабига мос равишда ташкил этилиши тавсия этилади.

Тажрибаларнинг таҳлили. Бўлажак педагог кадрларни касбий компетенцияларини шакллантириш, аввало ИТ тайёргарлигига ҳам боғлиқдир. Шундан келиб чиққан ҳолда ИТ воситаларидан фойдаланган ҳолда уларни шакллантириш керак. Ҳозирги кунда педагог кадрлар асосан билим, тайёргарлик, ижодий ишланишларини ривожлантиришлари, интерфаол усуллардан, дарсларда турли дидактик воситалар, ахборот технологияларидан фойдаланишлари, замонавий талаб ва эҳтиёжлардан келиб чиққан ҳолда ўқув-тарбия жараёнини ташкил этишлари, ўқувчи-талабаларнинг билим, кўникма ва малакаларини ривожлантиришлари, шунингдек уларнинг ижодий ва мустақил ишлашларини

шакллантиришлари керак бўлади. Шунинг учун, шундай жараёнларда IT воситалардан фойдаланган ҳолда ўқув жараёнини ташкил этиш муҳим.

Тадқиқотда қуйидаги методлар қўлланилади: мавзуга оид илмий-педагогик, психофизиологик манбаларни таҳлил этиш; педагогик, психологик ҳамда социологик кузатув; киёсий таҳлил; тажриба-синов; суҳбат; сўровнома; тест; математик-статистик таҳлил.

Ҳозирги кунда инсоннинг қон босими, юрак уриши, тана ҳарорати, стресс, аффектив ҳолатлари ва шу каби физиологик ҳамда психологик кўрсаткичларни аниқловчи ақлли Интернет буюмлари (IoT) мавжудки, биологик ритм ва физиологик маълумотларни қайта ишлаш усуллари тadbик қилиш орқали таълим олувчининг кундалик фаолияти таҳлилида шахсийлаштирилган (индивидуаллаштирилган) қарорларни ишлаб чиқиш долзарб ҳисобланади.

Маълумотларни қайта ишлаш қатламида тўпланган маълумотлар филтрлаш, йиғиш ва таҳлил қилиш учун қайта ишланади. Рақамли эгизак моделлаштиришда қайта ишланган физиологик ва психологик маълумотларга асосланиб, унинг индивидуал хусусиятлари ва хатти-ҳаракатларини акс эттирувчи ўқувчининг рақамли эгизак моделини яратади. Бу тизимни моделлаштириш алгоритмлари ва машинали ўқитиш усуллари ёрдамида амалга оширилиши мумкин.

IoT сенсорлари: Тақиладиган сенсорлар – юрак уриш тезлиги, уйқу режими, тана ҳарорати ва жисмоний фаолликни кузатиш учун сенсорлар билан жиҳозланган ақлли соатлар, фитнес бантлари ёки махсус кийиладиган курилмалардир; Атроф-муҳит сенсорлари – фойдаланувчи муҳитидаги ёруғлик шароитлари, ҳарорат, намлик ва шовқин даражасини кузатиши мумкин; Биометрик сенсорлар – физиологик параметрларни ўлчаш учун сенсорлар, масалан, мия тўлқинлари фаоллиги учун ЭЭГ (Электроэнцефалограмма), юрак уриш тезлиги учун ЭКГ (Электрокардиограмма) ва бошқалар; Фаоллик сенсорлари – жисмоний ҳаракатлар ва ҳаракатларни кузатиш учун акселерометрлар ва гироскоплар.

IoT курилмалари ушбу сенсорлардан маълумотларни йиғади ва уларни Wi-Fi, Bluetooth ёки уяли алоқа каби хавфсиз ва ишончли алоқа тармоғи орқали марказий маълумотларни қайта ишлаш марказига узатади.

Суст шакллантирилган сенсор маълумотларини тозалаш, филтрлаш ва нормаллаштириш учун кўпинча дастлабки ишлов бериш талаб этилади. Ушбу қадам маълумотларнинг аниқлиги ва ишончилигини таъминлашга ёрдам беради. Хронобиологик жараёнларни таҳлил қилиш алгоритмларини ишлаб чиқишга қуйидагилар киради:

- Сиркадиан ритм таҳлили – фойдаланувчининг сиркадиан ритмларини, шу жумладан уйқу ва уйғониш даврларини аниқлаш;

- Руҳий ва психологик ҳолат таҳлили – ЭЭГ ёки бошқа мия тўлқини сенсорларидан олинган маълумотлари когнитив ҳолатлар ва ақлий қобилиятлар билан боғлаш;

- Тимсолларни таниш – ақлий қобилиятларга таъсир қилиши мумкин бўлган хронобиологик маълумотларда тимсол ёки аномалияларни аниқлаш.

- Машинавий ўқитиш моделлари маълумотлардаги тимсолларни башорат қилиш ва таҳлил қилишда ёрдам беради. Масалан:

- регрессион таҳлиллар – фойдаланувчининг хронобиологик маълумотлари асосида ақлий ҳушёрлиги ёки иш фаолиятини башорат қилиш.

- шахсийлаштирилган тавсиялар – индивидуал маълумотлар асосида ақлий қобилиятларни оптималлаштириш бўйича тавсия этилган фаолият ёки тadbирлар.

Таҳлил қилинган маълумотларни фойдаланувчиларга тақдим этиш учун, эҳтимол, мобил илова ёки веб-бошқарув панели кўринишида фойдаланувчилар учун қулай интерфейс ишлаб чиқилади. Бу уларнинг руҳий ҳолати ва яхшилаш бўйича тавсиялар ҳақида реал вақтда фикр-мулоҳазаларни ўз ичига олиши мумкин.

Фотоплетисмография (PPG) ҳаётнинг муҳим белгиларини, жумладан юрак уриш тезлиги (HR) ва юрак уриш тезлигининг ўзгарувчанлигини (PRV) ўлчаш учун арзон ва осон амалга ошириладиган усул бўлиб, юрак тезлиги ўзгарувчанлиги (HRV) ўрнини босувчи

сифатида қўлланилади. Бирок, PPG ҳаракат артефактлари ва атроф-муҳит шовқинларига жуда сезгир. Тадқиқотлар шуни кўрсатдики, уйқусиз уйқу хотира консолидациясига путур етказиши мумкин, бу эса янги маълумотларни ўрганиш ва хотирада сақлашда қийинчиликларга олиб келади. Аксинча, етарлича ухлаш хотирани мустаҳкамлаш ва когнитив фаолиятни яхшилашга ёрдам беради.

Умуман олганда, яхши когнитив функция ва хотирани сақлаб қолиш учун етарли даражада ухлаш жуда муҳимдир. Агар талаба хотира ёки тафакурдаги ўрганиш билан боғлиқ қийинчиликларга дуч келса, ухлаш одатларини назорат қилишга тўғри келади ва етарлича сифатли ухлаётганига ишонч ҳосил қилиш учун тавсиялар бериш лозим.

Кун давомида ҳаракати қадамлар сонидан аниқланишига эътибор қаратадиган бўлсак, кўп ҳаракатни фойдали ҳисоблаш мумкин. Бирок, талаба дарс машғулотларидан кейин дарсга тайёрланиш учун қанча вақт сарфлаши, ёки спорт билан шуғулланиши, ёки дарсдан кейин ишлаши ҳақида фикр юритиш мумкин. Бу маълумот билан дарсга тайёргарлиги ўртасидаги боғлиқликни тадбиқ қилиш орқали фойдали хулосага келиш мумкин.

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Wcheon delaration/education 2030: towards indusive and cnitable qualitu education and litdeong learning for all (Word Education Forum. 19-22 may 2015, Lucheon, Republic of korea).

2. Evans MDR, Kalley P. and Kalley J. Identitung the Best Times for Cognitive Kimctioning Using New Metods: Watching University Times to Undergranduate Chromotyes. 2017. Doi: 10.3389/fuhum.2017.00188.

3. Мусинов С., Абдукаримов А. Подготовка педогогик к использованию полученной информации от ИТ приспособлений для развития профессиональной компетентности будущих кадров. Респ. Научно-практическое конференция. Проблемы современных информационных, комуникационных технологий и ИТ образование. Самарқанд, ТАТУ, 2024. -319 стр.

4. Мусинов С., Абдукаримов А., Абдукаримова Х.Р. New method to Activate the Cognitive Process. TEST Engineering and management. November. Desember. 2019, ISSN: 0193-4120. Paje №.1315-1328.

## **ЎЗБЕКИСТОНДА ЁЗМА ЁДГОРЛИКЛАРНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ВА САҚЛАШ МУАММОЛАРИ**

**Султонов Ўктамбек Абдулганиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Tashkent International University  
Ижтимоий фанлар ва таълим кафедраси

Инсоният тарихи унинг таъсирида ёки бевосита иштирокида яратилган манбалар асосида ўрганилади. Бу манбалар икки асосий гуруҳга, моддий ва ёзма манбаларга бўлинади. Ёзма манбалар ёки ёдгорликлар инсоният тарихининг нисбатан оз даврини (тахминан милoddан аввалги 4 минг йилликдан бошлаб) ёритса-да, батафсил ва аниқроқ маълумот ташиш имкониятига эга. Ёзма ёдгорликлар нарратив (ҳикоявий), документал (хужжатли), эпиграфик (қаттиқ жисмлардаги битиклар), нумизматик (тангалардаги битиклар), сфрагистик (муҳрлардаги битиклар) каби бир неча турларга бўлинади. Ёзма ёдгорликлар бутун бир инсоният тарихи, илм-фан ва маданият тараққиётини ўзида экс эттиради. Шунинг учун ҳам ёзма ёдгорликлар шунчаки ўтмишни ёритувчи битик эмас, аксинча инсониятнинг бир неча минг йил давомида тўплаган билими ва тажрибаси, илмий ютуқларини ўзида жамлаган database ҳам ҳисобланади. Шу сабаб ҳам улар жаҳон ҳамжамияти тарафидан умуминсоний қадрият сифатида баҳоланади. Айни пайтда бутунжаҳон мероси ўлароқ халқаро ва маҳаллий ҳуқуқ нормалари асосида муҳофаза олинган.

Ўзбекистон бутун дунёдаги минтақа тарихи, шунингдек, ислом цивилизациясига оид қадимий ёзма ёдгорликлар сақланадиган кам сонли мамлакатлардан бири саналади. Республикадаги давлат муассасалари – кутубхоналар, архив ва музейларда бир неча юзминглаб нусхадаги қадимий қўлёзма китоблар ва тарихий ҳужжатлар жамланган. Мазкур ёзма ёдгорликларни сақлаш ва асраб-авайлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24-майдаги ПҚ-2995-сонли “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ҳамда 2022 йил 10 февралдаги ПҚ-126-сонли “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш ва тадқиқ этиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорлари қабул қилинган. Афсуски ёзма ёдгорликлар, айниқса қоғоз ва бошқа юмшоқ материалларга ёзилган битиклар табиий офат, ўзгарувчан иқлим ва ҳашоротлар таъсири остида тез йўқолиш ҳавфи остида. Кўп ҳолларда вақт ўтиши билан сиёҳнинг ўчиши ёки ёзув материалнинг емирилишини кимёвий ишлов билан ҳам тўхтатиб бўлмапти. Шу сабаб бу каби ҳавфларни олдини олишда ёзма ёдгорликларни рақамлаштириш асосий ечим сифатида кўрилади.

Аслида ёзма ёдгорликларни сақлаб қолишнинг ечими сифатида ўтган асрнинг ўрталарида улардан микрофильмлар (оқ-қора фото) олиш, кейинроқ эса рангли факсимиле (сифатли фото) нашрларни амалга ошириш йўлга қўйилган эди. Лекин замонавий ахборот технологиялари ёзма ёдгорликларни ҳам рақамлаштириш орқали ҳавфсиз сақлаш ва интернет тармоқлари орқали масофадан фойдаланишга долзарб вазифага айланмоқда. Айни шу вазифа ЎзР Президентининг 2026 йил 27 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” ПҚ-390-сонли Қарорида республикада илмий тадқиқот ишларининг 2030 йилгача режалаштирилган устувор йўналишларидан бири сифатида “Маънавий мерос ва рақамли қўлёзма” банди белгиланган бўлиб, унда ёзма ёдгорликларни рақамлаштириш бош мақсад қилиб олинган. Республикада сақланаётган ёзма ёдгорликларни рақамлаштириш орқали қуйидаги натижаларга эришиш мумкин:

- ёзма ёдгорликларни бутун инсоният келажаги учун сақлаб қолиш;
- ёзма ёдгорликлардан маълумот топиш ва уларни тадқиқ этишни осонлаштириш;
- ёзма ёдгорликлардан масофадан туриб фойдаланиш имконияти;
- ёзма ёдгорликларнинг дунёбўйлаб глобал тармоғини яратиш.

Кутилаётган натижалар қанчалик муҳим бўлмасин уни амалга ошириш анча қийин кечмоқда. Чунки бу жараён бир неча босқичли. Қолаверса, соҳани молиявий ҳомийлик ва замонавий технологиялар билан таъминлаш, ихтисослашган ИТ мутахассислар тайёрлаш, жамланган материални ҳавфсиз сақлаш каби муаммолар ҳам ўз ечимини кутмоқда.

Ёзма ёдгорликларни рақамлаштириш бир неча босқичли жараёндир. Унинг биринчи босқичида турли материалларга битилган ёзма маълумот (қўлёзма китоблар, ҳужжатлар ва бошқа қаттиқ жисмлардаги ёзувлар) рақамли (электрон) форматга ўтказилади. Бунда материал юқори сифатли сканер ёки камера ёрдамида суратга олиниб, қайта ишланади. Сўнг сифатли катта ҳажмли **TIFF** ёки кичикроқ **JPEG, PDF форматларига ўтказилади**. Бу жараён орқали ёзма ёдгорликни компьютер, планшет, телефон орқали кўриш, хотира воситалари орқали осон ташиб юриш ёки интернет орқали масофавий узатишларни амалга ошириш имкониятига пайдо бўлади.

Ҳозирда дунёдаги йирик кутубхоналари (Берлин Давлат кутубхонаси, Бодлеян кутубхонаси ва бошқ.) ўз тасарруфидаги ёзма ёдгорликлар жойланган онлайн базадан (*online database*) масофадан туриб фойдаланишни тақдим қилмоқда. Бундан ташқари, баъзи мутахассислар илмий лойиҳалар асосида бундай базаларни ҳам яратмоқда. Масалан, А. Каплони ва Й. Томанн ташаббуси билан 2000 йиллар бошида ташкил этилган “Араб папирология маълумотлар базаси” (*Arabic Papyrology Database*) VII–XVI асрларга оид папирус, пергамент ва эски қоғозларга битилган араб тилли ҳужжатлар ҳақидаги материалларини ўз ичига олади. Бу лойиҳа “Араб папирология халқаро жамиятининг” (*International Society for Arabic Papyrology – ISAP*) нотижорий дастури бўлиб, қадимги

юнон, демотик, коптик каби қадимий тиллардаги ҳужжатлар тадқиқига қаратилган илмий йўналишлар билан ҳамкорлик қилади. Ҳозирда “Араб папирология маълумотлар базаси”га 13300 дан ортиқ араб тилли ҳужжатлар ҳақидаги илмий маълумотлар киритилган. “Араб папирология маълумотлар базаси” аввало тарихчи ва тилшуносларнинг илмий тадқиқотига қулайлик яратишга мўлжалланган. Араб юридик ҳужжатлари таҳлилига бағишланган яна бир маълумотлар базаси (*Comparing Arabic Legal Documents - CALD*) VIII–XV асрлар ислом ҳуқуқига оид араб тилли ҳужжатлар таҳлилига йўналтирилган. Лойиҳа муаллифи Х. Мюллер бошчилигидаги жамоа тарафидан турли нашрлардаги 3000 дан ортиқ ҳужжатлар жамланган. Бундай лойиҳалар сўнги 4-5 йилда анча кўпайиб қолган.

Ўзбекистон мисолида олиб қараганда, афсуски бу жараён анча секин кетмоқда. Масалан, нафақат Марказий Осиёда балки дунёдаги йирик қўлёзма фондларидан бири бўлган Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида 30.000 га яқин қўлёзма манба мавжуд (тошбосма нашрлардан ташқари). Шундан 2007 йилдан бошлаб йилига ўртача 30.000 та кадр замонавий сканер ускуналари ёрдамида сканерланмоқда (сўнги 3 йилда сканерлаш ҳажми анча ортган). Ҳозирги кунга келиб қўлёзма манбалардан жами 600.000 та кадр сканер қилинган бўлиб, бу фонднинг 20% қисмини ташкил этади. Халқаро нормага мувофиқ сифатли **TIFF** форматида сканерлаш натижасида ҳозирданок рақамлаштирилган материални сақлаш учун ажратилган серверлар тўлиб қолиш арафасида. Айни муаммо республикадаги ушбу жараёни олиб бораётган бошқа муассасаларда ҳам кузатилмоқда.

Ёзма ёдгорликларни рақамлаштириш жараёнидаги яна бир вазифа TIFF, JPEG ёки PDF форматга ўтказилган материалларни сунъий интеллект ёрдамида ўқишни йўлга қўйиш билан боғлиқ. Яъни турли алифболарда (Ўзбекистон шароитида араб алифбосида ёзилган арабий, форсий, туркий тиллардаги) қўлёзма манбаларни нашр форматидаги ёзувга ўтказишни назарда тутаяди. Бу билан миллионлаб саҳифалардаги қадимий битикларни ўқиш ва таржима қилиш, нашр орқали тадқиқотчига етказиб бериш осонлаштирилади. Аммо бу анча қийин иш бўлиб, анча аввал бошланган бўлса-да, тўлиқ равишда яқунланмаган. Сабаби қадимий қўлёзма матнлар араб алифбосининг кенг тарқалган ўнга яқин хат турида (почерк) ёзилган. Сунъий интеллект бу хат турларининг ўзига хосликларини ўзлаштириши учун бир неча минглаб саҳифани (ҳар бир хат турида) инсон меҳнати орқали тайёрлаб олиб, сўнг дастурлаш талаб этилади. Ҳозирча араб алифбосидаги ҳарфлар аниқ-тиниқ ёзиладиган сулс хатида ёзилган матнларни сунъий интеллект орқали WORD дастурига (араб алифбосида) ўтказиш йўлга қўйилган. Лекин сунъий интеллект араб алифбосида кенг тарқалган бошқа хат турларини (масалан насх, таълиқ, настаълиқ, риқоъ ва бошқ) ҳали тушуна олгани йўқ. Бу ишларни амалга ошириш учун ривожланган мамлакатларда, шунингдек, Ўзбекистондаги ИТ мутахассислари бош қотирмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, ҳозирда ёзма ёдгорликларни рақамлаштириш ва глобал BIGDATA омборларини бошқариш бошқа соҳалар каби тарих фанида ҳам долзарб вазифага айланган. Бу эса келгусида ёзма ёдгорликларнинг рақамлаштирилган глобал омборини шакллантириш орқали уларнинг нусхаларини ишончли тарзда сақлаш ва келажак авлодга етказиш, кенг қўламда тарғиб қилиш, тадқиқотчиларга масофадан туриб фойдаланиш, маҳаллий ва халқаро миқёсдаги тадқиқотларнинг илмий асосини кучайтиришга хизмат қилади.

**PYTHONDA DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN CHEGARAVIY  
MASALALARNI CHEKLI ELEMENTLAR USULI YORDAMIDA YECHISH  
ALGORITMI.**

**Atoyev Dilshod Dilmurodovich,**  
Buxoro davlat universiteti f.-m.f.d (PhD).  
[dilshod\\_atoyev@mail.ru](mailto:dilshod_atoyev@mail.ru)  
**Hasanova Gulzoda Ja'far qizi,**  
Buxoro davlat universiteti,  
Amaliy matematika mutaxassisligi magistranti  
[hgulzoda7@gmail.com](mailto:hgulzoda7@gmail.com)

Chekli elementlar usuli muhandislikdagi murakkab muammolarni hal qilish, xususan, elliptik PDE va murakkab geometriyani o'z ichiga olgan elastiklik va strukturaviy mexanikani modellashtirish uchun ishlab chiqilgan. Ammo hozirgi kunda tadbirlar doirasi ancha keng. Biz chekli elementlar usulini tanishtirish uchun quyidagi 1D va 2D modeli muammolardan foydalanamiz:

$$1D: \quad -u''(x) = f(x), \quad 0 < x < 1, \quad u(0) = 0, \quad u(1) = 0;$$

$$2D: \quad -(u_{xx} + u_{yy}) = f(x, y), \quad (x, y) \in \Omega, \quad u(x, y)|_{\partial\Omega} = 0,$$

bu yerda  $\Omega$  -  $(x, y)$  tekislikdagi  $\partial\Omega$  chegarasi bilan chegaralangan soha[3].

Biz quyidagi qadamlarda tasvirlangan Galyorkin chekli elementlar usulidan foydalanib

$$-u''(x) = f(x), \quad 0 < x < 1, \quad u(0) = 0, \quad u(1) = 0,$$

1D ikki-nuqtali BVP uchun chekli elementlar usulini ko'ramiz[2-5].

**Chekli elementlar usuli (Finite Element Method, FEM)** — bu xususiy hosilali differensial tenglamalarni sonli yechishning samarali usullaridan biridir. U murakkab soha va chegaraviy shartlar uchun ayniqsa qulay.

Quyida FEM ni **Python** da qo'llashning nazariy asoslari keltirilgan[6].

Quyidagi chegaraviy masalani ko'ramiz:

$$-u''(x) = f(x), \quad 0 < x < 1$$

$$u(0) = 0, \quad u(1) = 0$$

Bu — Poisson tenglamasining 1D ko'rinishi.

FEM'da tenglama kuchsiz shaklga o'tkaziladi:

$$\int_0^1 u'(x)v'(x)dx = \int_0^1 f(x)v(x)dx$$


Bu yerda  $v(x)$  — test funksiyalar, yechim  $u(x)$  bazis funksiyalar orqali ifodalanadi.

Intervalni  $n$  ta elementga bo'lamiz:  $0 = x_0 < x_1 < \dots < x_n = 1$ .

Har bir elementda chiziqli bazis funksiyalar ishlatiladi. Natijada chiziqli algebraik sistema hosil bo'ladi:

$$KU = F,$$

bu yerda:  $K$  — matritsa,  $F$  — vektor. Yuqoridagi misolda  $f(x) = 1$  deb olamiz.



1-rasm. Qo'yilgan masala yechimi grafigi.

Tadqiqot natijalari chekli elementlar murakkab sohalar, notekis to'rlar va turli chegaraviy shartlar uchun universal yondashuvni taqdim etadi. Diskret modelning yaqinlashuv tezligi element o'lchamiga bog'liq bo'lib, nazariy xatolik baholari bilan mos keladi. Chekli elementlar usulining Python dasturlash tilida algoritmi keltirilib, aniq misolda tadbiq qilindi. Shunday qilib, chekli elementlar usuli zamonaviy hisoblash matematikasida eng samarali va keng qo'llaniladigan metodlardan biri sifatida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda muhim o'rin egallaydi.

#### Adabiyotlar

1. Самарский А.А. Введение в численные методы. – М.: Изд-во Лань, 2009. - 288 с.
2. Трушин С.И. Метод конечных элементов. Теория и задачи. Москва : Изд-во АСВ, 2008.
3. Burden R.L, Douglas F.J. Numerical Analysis. 10th edition, Brooks/Cole, Cengage Learning, 2016.
4. Zhilin Li, Zhonghua Qiao, Tao Tang. Numerical Solution of Differential Equations. Cambridge university press, 2018.
5. Chen Y., Levine S., Rao M. Variable exponent linear growth functionals in image restoration. SIAM J. Appl. Math., 2006; 66: 1383-1406.
6. Meurer A., Smith C.P., Paprocki M., et al. SymPy: symbolic computing in Python // PeerJ Computer Science. 2017. Vol. 3. P. e103. DOI: 10.7717/peerj-cs.103

### NUMERICAL SOLUTION OF VOLTERRA INTEGRAL EQUATIONS OF THE SECOND KIND USING PYTHON.

**Atoyev Dilshod Dilmurodovich,**  
Bukhara State University, f.-m.f.d (PhD).  
[dilshod\\_atoyev@mail.ru](mailto:dilshod_atoyev@mail.ru)

**Tolibova Charos Tolmas qizi,**  
Bukhara State University  
[charostolibova9@gmail.com](mailto:charostolibova9@gmail.com)

The second type of linear Volterra integral equation has the following form:

$$u(x) = g(x) + \int_a^x u(s) * K(x, s) ds. \quad (1)$$

Inhomogeneous equation ( $g(x) \equiv 0$ ) has only the trivial solution, the condition for the existence of a solution to the inhomogeneous equation (1) depends on various restrictions imposed on the kernel  $K(x, s)$  and on the function

$g(x)$ . Private or  $[a, b]$  is continuous and single incision available in the class, if  $s=a, x=b, x=s$ , bounded by the line and the triangular side in the kernel is continuous,  $f(x)$  function  $[a, b]$  is continuous in the incision if (1)- integrated operator able to the following equations[1]:

$$A\phi(x) \equiv \int_a^x K(x, s)\phi(s)d(s). \quad (2)$$

As it is known, for any  $x$  for  $\psi(x) = A\phi(x)$  only the value of the function  $s < x$  for  $\phi(s)$  is determined by the value of the function. Integral operators that possess this property are called “Volterra operators” and is widely used in the description of the duration of the process and the reverse link.

In the numerical solution of integral equations, the integrals in them are usually replaced by finite sums. According to the quadrature method, integral operators are replaced by sums obtained using various quadrature formulas. The solution of the equation of form (1) using the quadrature formula is as follows: [3]:

$$u(x_j) = g(x_j) + \int_a^{x_j} u(s) * K(x_j, s)ds \quad j = \overline{1, n}. \quad (3)$$

This equation is obtained from equation (1) for fixed values  $x_j$  of the independent variable  $x$ . Mesh nodes or special pre-selected.  $x_i$  quadrature you will receive the value of the formula as nodes, and (3) the sum replaced by an integrated limited. You will have the following system:

$$u(x_i) = g(x_i) + \sum_{j=1}^i u(x_j)A_j K(x_i, x_j) + R_i, \quad i = \overline{1, n}. \quad (4)$$

Here 's  $a_j$  – quadrature weight in the formula,  $R_i$  – approximation error line.  $R_i$  such that we will throw the error is small. In this case you will be able to updated and expanded the following systems of linear equations [4]:

$$u_i = g_i + \sum_{j=1}^i u_j K_{ij} A_j, \quad i = 1, 2, \dots, n. \quad (5)$$

Python volterra system execution function written. Volterra function using the following example, we see that [5]:

$$u(x) = e^{-x} + \int_0^x u(s)e^{-(x-s)} ds .$$

We introduce the following notation:

$$\begin{aligned} K1(x, t) &:= e^{-(x-t)} & g1(x) &:= e^{-x}; & h &:= 1/10 \\ u &:= \text{Volterra}(K1, f1, 0.1, h) & a &:= 0 & b &:= 1 \\ n &:= \frac{b-a}{h} & r(x) &:= 0 & x1 &:= a + (i - 1) \cdot h \\ t(x) &:= 1 & i &:= 1 \dots n + 1 \end{aligned}$$


The function of Volterra is used for this example:

$$u := \text{Volterra}(K1, f1, 0.1, h)$$


and we get the following result:

x	u
0.0	1.0
0.2	1.000670920428644
0.4	1.001342290991511
0.6	1.002014111990602
0.8	1.002686383728127
1.0	1.003359106506494

**TABLE 1.** Approximate solution of the Volterra function.



**FIGURE 1.**  $h=0.2$  in steps of



**FIGURE 2.**  $h=0.05$  to step up in

The function  $U(x)$ , which is determined from equation, represents the obtained solution.  $T_1$  is the solution of the Volterra function. As seen from the graph, the error of the solutions is small, and if the step size  $h$  is decreased, this error becomes even smaller. From the above examples, it can be observed that when the Volterra function is applied to the Volterra equation, an approximate solution with a small error is obtained. In this article, a numerical solution program for the second-kind linear Volterra equation was developed using the Python system, and it was applied to a system of equations.

#### REFERENCES

1. Krylov V.I.: Approximate calculation of integrals. Nauka, Moscow (1967).
2. Bakhvalov N.S., Zhidkov N.P., Kobelkov G.M, Numerical method. Nauka, Moscow (1987).
3. Krylov V.I., Bobkov V.V., Monastyrnyi P.I., Computational method, vol. 1. Nauka, Moscow (1976).
4. Samarskiy A.A., Gulin A.V., Numerical method. Nauka, Moscow (1989).

#### O'NG RIMAN-LIUVILL KARRALI KASR INTEGRALLARINI TAQRIBIY HISOBLASH UCHUN KUBATUR FORMULALAR

**Babayev Samandar**

Tashkent International University,  
bssamandar@gmail.com

**Choriyeva Gulxayyo**

Buxoro davlat universiteti magistranti

Sonli integrallash uzoq va muhim tarixga ega. U oddiy bir o'lchovli kvadratur qoidalardan boshlanib, o'ziga xos funksiyalar sinflariga moslashtirilgan murakkab ko'p o'lchovli kubatur foalargacha rivojlandi.

Klassik kubatur nazariyasi: "Kubatur formula" atamasi karrali integrallarni taqribiy hisoblashni ifodalash uchun kiritilgan. Garchi Nyuton, Kotes va Gauss bir o'lovli kvadratur nazariyasini allaqachon ishlab chiqqan bo'lsalarda, bu g'oyalarni yuqori o'lovlarga umumlashtirish ancha qiyin ekanligi isbotlandi. Radon 1948-yilda kubatur formulalari uchun algebraik aniqlik nazariyasini ishlab chiqish orqali bu sohaga muhim hissa qo'shdi. U, shuningdek, Gauss kubatur formulalarini qurishda foydalaniladigan ikki o'zgaruvchili ortogonal ko'phadlarning xossalari tavsifladi. Keyinchalik Sobolev [25,26] va Mysovskix [5] bu nazariyani kengaytirdilar.

Optimal kvadratur va kubatur formulalar: Sard [6] va Sobolev [8] integrallash formulalari ma'lum darajadagi ko'phadlar uchun aniqlikka e'tibor qaratish o'rniga, Banax yoki Hilbert fazolari kabi tanlangan funksional fazoda xatolik funksionalini minimallashtirish orqali qurilishi kerakligini taklif qilib, bu sohani mutlaqo o'zgartirdilar. Sobolev  $W_2^{(m)}$  fazosida chegaraviy tuzatishlarga ega bo'lgan kvadratur formulalar nazariyasini yaratdi va eng yaxshi koeffitsiyentlar chiziqli diskret Viner-Xopf tenglamalari sistemasini qanoatlantirishini ko'rsatdi. Bu usul xatolik funksionalining normasidan foydalangan holda aniq xatolik baholarini berish imkonini yaratadi. Ushbu ishlarga asoslanib, Shadimetov [7] va uning ilmiy maktabi turli Sobolev fazolarida optimal koeffitsiyentlarni topish uchun diskret operator usulini ishlab chiqdilar. Ular ushbu usuldan foydalanib, tenzor ko'paytmalar va bevosita minimallashtirish usullari yordamida 2D va 3D sohalar uchun optimal kubatur formulalarini qurdilar [7].

Kasr integrallari uchun sonli usullar: Kasr hisobi kengroq qo'llanila boshlagach, kuchsiz maxsuslikka ega yadroli kasr integrallari uchun aniq sonli usullarga ehtiyoj ortib bormoqda. Diethelm va boshqalar [1] ko'paytmali integrallash usulini (product-integration method) va kasr tartibli Adams-Bashfort-Moulton sxemalarini kiritdilar. Li va Zeng [3] kasr hisobi uchun sonli usullarni chekli ayirmalar va spektral usullar kabi toifalarga ajratib chiqdilar. Hozirgi usullarning aksariyati faqat bir o'lovli muammolarni hal qiladi. Ikki o'lovli kasr integrallari uchun tadqiqotchilar ko'pincha asosiy usullarning oddiy tenzor ko'paytmalaridan yoki chekli elementlar usullaridan foydalanadilar. Kasr hisobi xotira va fazoviy o'zgarishlarga ega bo'lgan murakkab tizimlarni modellashtirish uchun foydali matematik vositadir. An'anaviy modellardan farqli o'laroq, kasr tartibli operatorlar uzoq masofali ta'sirlarni, irsiy effektlarni va g'ayrioddiy ko'chish jarayonlarini tavsiflay oladi [4]. Bu effektlarni yaxshiroq tavsiflash uchun lokal operatorlar o'rniga Riman-Liuvill kasr integralidan foydalaniladi. Ushbu operator nolokal fazoviy xotirani o'z ichiga oladi, bu esa fazoviy o'zgarishlarga ega bo'lgan jarayonlarni modellashtirishda juda muhimdir. Garchi bir o'lovli modellar asosiy hisoblansada, ko'plab haqiqiy jarayonlar ikki o'lovda yuz beradi, masalan: *to'qimalarda bio-ko'chish, kompozitlarda issiqlik o'tkazuvchanligi, ifloslantiruvchi moddalarning tarqalishi, tasvirlarni qayta ishlash.*

#### **Matematik tushunchalar**

$0 < \alpha < 1$  bo'lganda  $\alpha$  tartibli o'ng Riman-Liuvill kasr integrali quyidagicha ta'riflanadi:

$$(I_b^\alpha f)(x) = \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_x^b (t-x)^{\alpha-1} f(t) dt.$$

So'nggi tadqiqotlarda bu integralni taqribiy hisoblash uchun Sobolev va Hilbert fazolarida optimal kvadratur formulalari yaratildi:

$$I_b^\alpha f(x) \approx \sum_{k=0}^N C_\alpha[k] f(t_k),$$

Bu formulada  $t_k$  — tugunlar va  $C_\alpha[k]$  — xatolik normasini minimallashtiruvchi optimal koeffitsiyentlar (vaznlar).

Biz tenzor ko'paytma yordamida birlashtirilib, optimal 2D kubatur formulalarini tashkil etuvchi  $W_2^{(1,0)}$  fazosidagi o'ng tomonlama Riman--Liuvill kasr integrali uchun optimal 1D kvadratur formulalarni qisqacha tavsiflaymiz.

Quyidagi kvadratura formulasini qaraymiz:

$$\int_x^b \frac{\varphi(t)}{(t-x)^{1-\alpha}} dt \approx \sum_{\beta=0}^N C_\alpha[\beta] \varphi(t_\beta), \quad (1)$$

bu yerda  $x$  va  $b$  — integrallash oralig‘ining uchlari,  $\varphi(t)$  — integral ostidagi funksiya,  $\alpha$  — shunday parametrki,  $0 < \alpha < 1$ ,  $C_\alpha[\beta]$  — kvadratur ko‘effitsiyentlari,  $t_\beta = x + \beta h$  ( $\beta = 0, \dots, N$ ) — kvadratur tugunlari, hamda  $h = (b-x)/N$ .  $\varphi$  funksiya  $\|\varphi\|_{W_2^{(1,0)}} = \sqrt{\int_x^b (\varphi'(t) + \varphi(t))^2 dt}$  norma bilan kiritilgan  $W_2^{(1,0)}[x, b]$  Hilbert fazosiga tegishli.  $C_\alpha[\beta]$  optimal ko‘effitsiyentlarining oshkora analitik ko‘rinishlari olinadi (to‘liq tafsilotlar uchun Hayotov va Babayev [2] ishiga qarang).

**1-teorema.**  $W_2^{(1,0)}$  fazosida (1) optimal kvadraturaformulasining ko‘effitsiyentlari quyidagi ko‘rinishga ega:

$$C_\alpha[0] = \frac{1}{1-e^{2h}} \sum_{k=0}^{\infty} \frac{(1-(-1)^k e^{2h}) h^{\alpha+k}}{k!(\alpha+k)},$$

$$C_\alpha[\beta] = \frac{1}{1-e^{2h}} \sum_{k=0}^{\infty} \frac{h^{k+\alpha}}{k!(\alpha+k)} \left[ (\beta+1)^{\alpha+k} (e^{-h\beta} - (-1)^k e^{h(\beta+2)}) \right. \\ \left. + (\beta-1)^{\alpha+k} (e^{-h(\beta-2)} - (-1)^k e^{h\beta}) + \beta^{\alpha+k} (1+e^{2h}) ((-1)^k e^{h\beta} - e^{-h\beta}) \right], \quad \beta = 1, \dots, N-1,$$

$$C_\alpha[N] = \frac{1}{1-e^{2h}} \sum_{k=0}^{\infty} \frac{(e^{x-b+2h} - (-1)^k e^{b-x}) ((b-x-h)^{\alpha+k} - (b-x)^{\alpha+k})}{k!(\alpha+k)}.$$

#### Kubatura formulalarini qurish

$\Omega = [a_1, b_1] \times [a_2, b_2]$  to‘plamni  $R^2$  ning to‘plamostisi sifatida qaraymiz.  $(\alpha_1, \alpha_2)$  tartibli ikki o‘lchovli o‘ng aralash Riman-Liuivill kasr integrali quyidagicha ta’riflanadi:

$$(I_{b_1^-, b_2^-}^{\alpha_1, \alpha_2} f)(x, y) = \frac{1}{\Gamma(\alpha_1)\Gamma(\alpha_2)} \int_x^{b_1} \int_y^{b_2} (t-x)^{\alpha_1-1} (s-y)^{\alpha_2-1} f(t, s) ds dt, \quad (2)$$

bu yerda  $0 < \alpha_1, \alpha_2 < 1$ . Ushbu operatorni 1D operatorlarning tenzor ko‘paytmasi sifatida qarash mumkin:  $I^{\alpha_1, \alpha_2} = I_x^{\alpha_1} \otimes I_y^{\alpha_2}$ . Ikki o‘lchovli (2) integralni taqribiy hisoblash uchun biz (1) da tavsiflangan 1D optimal kvadratur qoidalarning tenzor ko‘paytmasidan foydalanamiz.

Kubatur formula integralning taqribiy qiymatini beradi:

$$(I_{b_1^-, b_2^-}^{\alpha_1, \alpha_2} f)(x, y) \approx S_{N, M}(f) = \sum_{i=0}^N \sum_{j=0}^M C_{\alpha_1, \alpha_2}[i, j] f(t_i, s_j),$$

$(t-x)^{\alpha_1-1} (s-y)^{\alpha_2-1}$  yadroning ajraluvchanligi xususiyati tufayli,  $C_{\alpha_1, \alpha_2}[i, j]$  optimal ko‘effitsiyentlari 1D optimal ko‘effitsiyentlar ko‘paytmasiga ajraladi:

$$C_{\alpha_1, \alpha_2}[i, j] = C_{\alpha_1}[i] \cdot C_{\alpha_2}[j].$$

Bu yerda,  $C_{\alpha_1}[i]$  va  $C_{\alpha_2}[j]$  mos ravishda  $[x, b_1]$  va  $[y, b_2]$  oraliqlaridagi 1D integrallar uchun optimal ko‘effitsiyentlardir. Bu ajralish hisoblash murakkabligini sezilarli darajada kamaytirib,  $(N+1)(M+1)$  ta noma'lumni topish o‘rniga  $(N+1) + (M+1)$  ta noma'lumni topishga olib keladi.

#### Adabiyotlar

1. Diethelm K. *The analysis of fractional differential equations*. 2010. Berlin: Springer.

2. Hayotov A.R., Babaev S.S. *An optimal quadrature formula for numerical integration of the right Riemann--Liouville fractional integral*. Lobachevskii Journal of Mathematics. 2023. Vol.44, Issue 10, pp. 4282--4293.
3. Li C., Zeng F. *Numerical methods for fractional calculus*. 2015. Boca Raton: CRC Press.
4. Podlubny I. *Fractional Differential Equations*. 1999. San Diego: Academic Press.
5. Mysovskikh I.P. *Interpolatory cubature formulas [Interpolyatsionnie kubaturnie formuli]*. 1981. Moscow: Nauka.
6. Sard A. *Best approximate integration formulas; best approximation formulas*. American Journal of Mathematics. 1949. Vol.71, pp. 80--91.
7. Shadimetov Kh.M. *Optimal lattice quadrature and cubature formulas in Sobolev spaces*. 2019. Tashkent: Fan va texnologiya.
8. Sobolev S.L. *The coefficients of optimal quadrature formulas*. Selected Works of S.L. Sobolev. 2006. pp. 561--566.

## $L_2^{(1,0)}(0,1)$ FAZOSIDA OPTIMAL INTERPOLYATSION FORMULANING

### NORMASI

Tashkent International University  
 “Aniq fanlar va raqamli texnologiyalari” kafedrası  
**dotsenti (PhD) Davronov Javlon Rustam o`g`li**  
[javlondavronov77@gmail.com](mailto:javlondavronov77@gmail.com)  
 Tashkent International University talabasi  
**Inomiddinov Asadxo`ja Sanjar o`g`li**  
[asadxoja18@gmail.com](mailto:asadxoja18@gmail.com)

Biz ushbu ko`rinishdagi interpolyatsion formulani qaraymiz

$$\varphi(x) \cong P_\varphi(x) = \sum_{\beta=0}^N C_\beta(x) \varphi(x_\beta) \quad (1)$$

Yig`indi va fundamental splayn orasidagi quyidagi ayirmaga

$$\left( \ell(x, z), \varphi \right) = \varphi(x) - \sum_{\beta=0}^N C_\beta(x) \varphi(x_\beta) \quad (2)$$

(1)-interpolyatsion formulaning xatoligi deyiladi va unga mos xatolik funksionali quyidagi ko`rinishda bo`ladi

$$\ell(x, z) = \delta(x - z) - \sum_{\beta=0}^N C_\beta(z) \delta(x - x_\beta)$$

ko`rinishda bo`ladi. Bu yerda  $C_\beta(z)$  lar (1)-interpolyatsion formulaning koefitsiyentlari  $x_\beta$ -tugun nuqtalar,  $\varphi$  funksiyalarimiz esa  $L_2^{(1,0)}(0,1)$  fazosiga tegishli bo`lib, ushbu fazo quyidagicha ta`riflanadi

$$L_2^{(1,0)}(0,1) = \{ \varphi: [0,1] \rightarrow R \mid \varphi - \text{abs.uzl.}, \varphi'(x) \in L_2(0,1) \}.$$

Ushbu fazoga tegishli ixtiyoriy ikkita funksiyaning skalyar ko`paytmasi quyidagicha aniqlanadi

$$\langle \varphi, \psi \rangle_{L_2^{(1,0)}} = \int_0^1 (\varphi'(x) \psi'(x) + \varphi(x) \psi(x)) dx$$

Gilbert fazosi bo`lgani uchun norma esa skalyar ko`paytma yordamida kiritiladi

$$\|\varphi\| = \left\{ \int_0^1 \left( (\varphi'(x))^2 + \varphi^2(x) \right) dx \right\}^{1/2}.$$

Koshi shvarts tengsizligiga ko'ra quyidagi munosabat o'rinli

$$|(\ell, \varphi)| \leq \|\ell\| \cdot \|\varphi\|.$$

Bundan ko'rinib turibdiki xatolikning absolyut qiymatini yuqoridan baholash uchun xatolik funksionalining normasini ko'rinishi kerak.

**Masala.** Yuqoridagi (1)-ko'rinishdagi interpolatsion formulaning xatolik funksionali normasini ko'rinishini topish.

Yuqoridagi masalning yechimi quyidagi teoremda aks etgan.

**Teorema.** Ushbu  $L_2^{(1,0)}(0,1)$  fazosida (1)- interpolatsion formulaning xatolik funksionalining normasini ko'rinishi quyidagicha

$$\|\ell\|^2 = 2 \sum_{\beta=0}^N C_{\beta}(z) G_1(z - x_{\beta}) - \sum_{\beta=0}^N \sum_{\gamma=0}^N C_{\beta}(z) C_{\gamma}(z) G_1(x_{\beta} - x_{\gamma})$$

bo'ladi.

Bu yerda  $G_1(x)$  funksiya  $\frac{d^2}{dx^2} - 1$  differensial operatorning fundamental yechimi. Ya'ni,

$$G_1(x) = \frac{\text{sign}(x)}{2} \cdot \sinh(x).$$

## KUCHSIZ MAGNETIK MATERIALDA TASHQI MAGNIT MAYDONNING BURCHAKLI TA'SIRI OSTIDA POTENSIAL ENERGIYANING HISOBLASH MODELI.

**Fayziyev Shaxobiddin Shavkatovich**

Buxoro davlat universiteti Fizika kafedrasida dotsenti,

**Yo'ldosheva Nilufar Baxtiyorovna**

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Kuchsiz magnetik materiallar tashqi magnit maydon ta'sirida juda kichik magnit javob namoyon qilishi bilan tavsiflanadi. Bunday muhitlarda magnit dipolning energetik holati asosan magnit moment va tashqi maydon orasidagi burchakka bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, potensial energiyaning burchak bo'yicha o'zgarishi magnit dipolning barqaror holatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu ishda kuchsiz magnetik materialning tashqi magnit maydon ta'siridagi potensial energiyasi klassik elektromagnitizmga asoslangan hisoblash modeli yordamida o'rganilib, burchak bog'liqligining fizik mazmuni tahlil qilinadi.

**Kuchsiz magnit** – bu tashqi magnit maydon ostida juda kichik yoki deyarli sezilmaydigan magnitlanish ko'rsatadigan material. Bunday materiallarning elektron spinlari tartibsiz bo'ladi yoki tashqi maydonga sezgirligi juda past. Kuchsiz magnetik materiallar (masalan, paramagnetik yoki diamagnetik moddalar, yoki zaif magnit dipoli) tashqi bir xil magnit maydonga ta'sir etganda, asosan induktsiyalangan yoki mavjud magnit momentlari orqali javob beradi. Bu ta'sir ko'pincha materialning magnit momenti ( $\mu$ ) va tashqi magnit maydon ( $B$ ) orasidagi burchakka ( $\theta$ ) bog'liq bo'ladi. Quyida asosiy nazariy tushunchalar, formulalar va tushuntirishlar keltirilgan. Bu nazariya klassik elektromagnitizmga asoslangan bo'lib, magnit dipolining tashqi maydonda o'zini tutishini tavsiflaydi.

**Magnit dipolining tashqi magnit maydon ta'siridagi Potensial energiyasi**

Magnit dipolning tashqi maydondagi potensial energiyasi ham burchakka bog‘liq. Bu energiya dipolni barqaror holatga (parallel) olib kelish jarayonini tavsiflaydi.

Formulasi:


$$U = -\mu \cdot B \text{ (skalyar ko‘paytma)}$$

$$\text{Kattalikda: } U = -\mu B \cos \theta$$

Minimal energiya:  $\theta = 0^\circ$  da ( $U = -\mu B$ ), dipol maydon bilan parallel – barqaror holat.

Maksimal energiya:  $\theta = 180^\circ$  da ( $U = \mu B$ ), dipol maydon bilan antiparallel – nobarqaror holat.

Bu energiya o‘zgarishi dipolning aylanishini va energiya sarfini tushuntiradi.



*1-rasm. Bir jinsli magnit maydondagi dipol / Potensial energiya*

Gradientli maydonda dipolning potensial energiyasi ham o‘zgaradi, bu esa kuchni hosil qiladi. Kuch potensial energiyaning salbiy gradienti sifatida ifodalanadi:

$$F = -\nabla U$$

Bu yerda  $U = -\mu \cdot B$  (oldingi bir xil maydon holatidagi kabi).

Shuning uchun, energiya minimal bo‘lishi uchun dipol maydonning kuchli tomoniga harakatlanadi (paramagnetiklar uchun). Bu printsip magnit levitatsiya (masalan, diamagnetik materiallarni osilib turishi) va tibbiy asboblarda (MRT gradient bobinlari) da qo‘llaniladi.

FeBO<sub>3</sub> kristalli kuchsiz ferromagnet bo‘lgani sababli, hisoblashlarda real kristallning barcha spinlari o‘rniga tashqi maydon bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi effektiv magnit dipol moment  $\mu$  kiritildi.  $\mu$  ning qiymati adabiyotlarda keltirilgan ferromagnetik moment tartibiga mos holda tanlandi.

### **Burchak bog‘liqligi va tajriba ahamiyati**

Turli burchaklarda (masalan,  $0^\circ$ ,  $45^\circ$ ,  $90^\circ$ ,  $135^\circ$ ,  $180^\circ$ ) ta’sirni o‘rganishda:

$\theta = 0^\circ$ : Moment nol, energiya minimal – magnit "joyida" qoladi.

$\theta = 90^\circ$ : Moment maksimal – magnit kuchli aylantiriladi.

Kuchsiz magnetiklarda ( $\mu$  kichik) bu ta’sir zaif bo‘ladi, lekin o‘lchov mumkin. Paramagnetik materiallarda (masalan, alyuminiy) zaif jalb qilish, diamagnetiklarda (masalan, mis) zaif itarish kuzatiladi.

Bu nazariya kompasning ishlashi, magnit rezonans tomografiya (MRT) va boshqa qurilmalarda qo‘llaniladi.


Tajriba ahamiyati va misollar

Gradient ta’sirini o‘rganishda:

- Paramagnetik materiallar (masalan, kislorod, alyuminiy): Kuchli maydon tomoniga tortiladi, chunki ularning induksiyalangan momenti maydon bilan parallel.
- Diamagnetik materiallar (masalan, suv, mis): Zaif maydon tomoniga itariladi, chunki momenti maydonga qarshi.

• Tajribada: Gradient bobinlari (masalan, Helmholtz bobinlari o'zgartirilgani) yordamida maydon gradientini hosil qilish mumkin. Kuchni o'lchash uchun tortish tarozisi yoki osilgan tizimdan foydalaniladi.

Bu nazariya MRT apparatlarida tasvirlash uchun gradient maydonlaridan, shuningdek, magnit separatorlarda va nanotexnologiyalarda qo'llaniladi. Agar maydon bir xil bo'lsa, faqat moment bo'ladi (oldingi qismda tavsiflanganidek).



2-rasm. Magnit dipol momenti

Ushbu ishda kuchsiz magnetik materialning tashqi magnit maydon ta'siridagi xatti-harakati klassik elektromagnitizm nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Bir jinsli magnit maydonda magnit dipolga sof kuch ta'sir etmasligi, biroq magnit momentni maydon yo'nalishi bo'yicha burishga intiluvchi kuch momenti hosil bo'lishi ko'rsatildi. Magnit dipolning potensial energiyasi burchakka bog'liq bo'lib, energiyaning minimal qiymati dipol va maydon parallel holatda bo'lganda kuzatilishi aniqlandi. Antiparallel holat esa energetik jihatdan noabarqaror ekanligi ko'rsatildi. Bir xil bo'lmagan magnit maydonda potensial energiyaning fazoviy o'zgarishi natijasida sof kuch paydo bo'lishi va bu kuch magnit maydon gradienti bilan aniqlanishi bayon qilindi.

FeBO<sub>3</sub> kristalli kuchsiz ferromagnet sifatida ko'rib chiqilib, hisoblashlarda real spin tizimi o'rniga effektiv magnit dipol momentdan foydalanish asoslandi. Magnit moment va tashqi maydon orasidagi burchakning o'zgarishi dipol dinamikasi va energiya almashinuviga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlandi. Olingan nazariy natijalar magnit rezonans tomografiya, magnit levitatsiya va magnit ajratish texnologiyalarida keng qo'llaniladigan fizik prinsiplarga mos keladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aharoni, A. *Introduction to the Theory of Ferromagnetism*. Oxford University Press, Oxford, 1996.
2. Bertotti, G. *Hysteresis in Magnetism*. Academic Press, San Diego, 1998.
3. Bakhtiyorovna, Y. N., & Shavkatovich, F. S. (2021). Modulated magnetic structures and models of their theoretical expression. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1172-1175.
4. Andreev, A. F., Marchenko, V. I. *Symmetry and the macroscopic dynamics of magnetic materials*. Soviet Physics Uspekhi, 23, 21–41 (1980).
5. Bar'yakhtar, V. G., Ivanov, B. A., Chetkin, M. V. *Dynamics of Topological Magnetic Solitons*. Springer, Berlin, 1994.
6. Borovik-Romanov, A. S., Rudashevsky, E. G. *Antiferromagnetic resonance in iron borate FeBO<sub>3</sub>*. Soviet Physics JETP, 47, 209–214 (1978).
7. Kadomtseva, A. M., Popov, Yu. F., Pyatakov, A. P. *Weak ferromagnetism and magneto-optical effects in FeBO<sub>3</sub>*. Physics of the Solid State, 44, 108–115 (2002).

8. Zvezdin, A. K., Kotov, V. A. *Modern Magneto-optics and Magneto-optical Materials*. CRC Press, Boca Raton, 1997.

## MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING MATEMATIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

**Ismoilova Mahsuma Narziqulovna**

Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va  
dasturlash texnologiyalari kafedrası, dotsent

**Sayidova Mehriniso Ergash qizi**

Amaliy matematika yo'nalishi 1- kurs magistranti

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Aniq fanlarni, xususan matematikani o'qitishda mobil qurilmalar va ilovalardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim vositaga aylanmoqda. Matematik kompetensiya nafaqat formulalarni bilish, balki ularni amaliyotda qo'llay olish, tahlil qilish, modellashtirish va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli zamonaviy ta'lim jarayonida mobil ilovalar orqali interaktiv va moslashuvchan o'qitish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda mobil ilovalarni matematika darslariga tatbiq qilish o'quvchilarning matematik kompetensiyasini rivojlantirishda ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Matematik kompetensiya quyidagi komponentlardan iborat:

1. Bilim komponenti – nazariy tushunchalar va qonuniyatlarni bilish.
2. Amaliy komponent – masalalarni yechish va modellashtirish ko'nikmasi.
3. Analitik komponent – mantiqiy va tanqidiy fikrlash.
4. Refleksiv komponent – o'z faoliyatini baholash va xatolar ustida ishlash.

Mobil ilovalar aynan ushbu komponentlarning kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy mobil ilovalar matematik tushunchalarni vizual, interaktiv va bosqichma-bosqich tushuntirish imkonini beradi. Masalan, GeoGebra ilovasi funksiyalar grafigini qurish, geometriya modellarini yaratish va algebraik tahlilni vizuallashtirish imkonini beradi. Photomath ilovasi yordamida masalalarni bosqichma-bosqich yechish orqali algoritmik tafakkurni rivojlantirish mumkin. Khan Academy ilovasi adaptiv o'qitish tizimi asosida individual ta'lim trayektoriyasini shakllantiradi.

Mobil ilovalar didaktik afzalliklarga ega bo'lib, ular tezkor teskari aloqa, mustaqil o'rganish imkoniyati, vizual modellashtirish, gamifikatsiya elementlari va adaptiv topshiriqlar tizimidan iborat bo'lib hisoblanadi. Dars jarayoniga mobil ilovalarni joriy qilish uchun avvalo o'quvchilarning boshlang'ich matematik savodxonlik darajasi aniqlanadi, bunda mobil ilovalar dars jarayoniga qo'shimcha vosita sifatida joriy etiladi. Dars davomida o'quvchilar mustaqil va guruhli ishlarda mobil ilovalardan foydalanishi mumkin va bunda dars yakunida natijalar tahlil qilinadi va o'zlashtirish darajasi baholanadi. Natijada o'quvchilarning masala yechish tezligi oshadi, grafik va modellashtirish topshiriqlarida aniqlik darajasi ko'tariladi, mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanadi va o'quvchilar motivatsiyasi yuqori darajada bo'ladi, ya'ni mobil ilovalardan foydalanish matematik kompetensiyaning barcha komponentlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mobil ta'lim jarayonida quyidagi muammolar kuzatilishi mumkin: Internetga bog'liqlik, o'quvchining ilovaga haddan tashqari tayanishi, akademik halollik masalalari, texnik qurilmalar yetishmovchiligi kabi masalalar majvudki, bularni oldini olish uchun ilovalardan foydalanish nazorat ostida va metodik jihatdan asoslangan bo'lishi zarur.

Quyida mobil ilovalarni darsga qo'llashdagi imkoniyatlar ko'rsatilgan:

***Kvadrat tenglamalarni tahlil qilish.*** O'quvchilar kvadrat tenglamani yechishda Photomath ilovasidan foydalanadi. Bunda ilova yechimni bosqichma-bosqich ko'rsatadi, o'quvchi diskriminantni hisoblash algoritmini kuzatadi va refleksiya bosqichida o'quvchi har bir qadamni

mustaqil izohlaydi. Ushbu holda algoritmik fikrlash, tahliliy ko‘nikma, xatoni aniqlash kabi kompetensiyalar rivojlanadi.

**Funksiya grafigi tahlil qilish.** GeoGebra ilovasida  $y=ax^2+bx+c$  funksiyasidagi parametrlarni real vaqt rejimida o‘zgartirib, grafikning transformatsiyasini kuzatish mumkin. Bunda o‘quvchilar parametrlar o‘zgarishi grafiga qanday ta’sir qilishini tahlil qiladi, maksimum/minimum nuqtalarni aniqlaydi, modellashtirish asosida xulosa chiqaradi. Ushbu jarayonda vizual tafakkur, modellashtirish, sabab-oqibatni tahlil qilish kompetensiyalari rivojlanadi.

**Uchburchakni yasashda uning elementlari orasidagi bog‘liqliklarni kuzatish.** GeoGebra yordamida uchburchakning burchaklari yoki tomonlari o‘zgartirilganda uchburcha yuzining qanday o‘zgarishini kuzatish mumkin, bunda o‘quvchi formulani faqat yodlamaydi, balki tajriba orqali tushunadi va geometrik qonuniyatlarni vizual isbotlaydi. Bu holda mantiqiy fikrlash, empirik kuzatish, analitik xulosa kabi kompetensiyalar rivojlanadi.

**Reytingli topshiriqlar.** Mobil platformalarda tezkor matematik savollar orqali musobaqa tashkil etiladi va natijada o‘quvchilarning darsga bo‘lgan motivatsiyasi oshadi, tez fikrlash rivojlanadi, raqamli muhitda faol ishtirok shakllanadi.

Mobil ilovalar matematik ta’lim jarayonini individuallashtirish, interaktivlashtirish va vizuallashtirish imkonini beradi. Ular nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki mantiqiy fikrlash, analitik tahlil va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Raqamli jamiyatda mobil texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish matematik kompetensiyalarni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Kelgusida sun’iy intellekt asosidagi adaptiv mobil tizimlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Далингер, Владимир В. А. (2012). Методика обучения математике в условиях модернизации образования. — Омск.
2. Роберт, Ирина В. (2010). Теория и методика информатизации образования. — Москва: ИИО РАО.
3. Ismoilova Mahsuma Narziqulovna, Barrayeva Sevara Shoim qizi, Samiyeva Gulshan Alisher qizi The use of integrated technologies in the educational process// international conference bridge to science: research works. September. 10 - December. 15. 2020. San Francisco, California, USA. 95-97 p.
4. Исмоилова М.Н., Ярашов И. Влияние геймификации на вовлечённость пользователей в образовательные мобильные приложения: системный подход. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 10(oktabr)
- 5.

### **ALGORITHM FOR APPROXIMATE SOLUTION METHODS OF ORDINARY DIFFERENTIAL EQUATIONS.**

**Jalolov Farhod Isomidinovich,**

Teacher of Bukhara State University  
universaltalim@gmail.com

**Fayzullayeva Nilufar Vahobjon qizi**

Master's student of Bukhara State University

Ordinary differential equations (ODEs) play a crucial role in the mathematical modeling of numerous processes in physics, engineering, biology, economics, and other applied sciences. In many practical problems, obtaining an exact analytical solution of an ODE is either difficult or impossible due to the complexity or nonlinearity of the equation. Therefore, approximate (numerical) methods are widely used to obtain reliable solutions at discrete points. This thesis focuses on the theoretical foundations and practical aspects of the Euler and Runge–Kutta methods, which are among the most commonly used numerical methods for solving initial value problems.

## The need for numerical methods in solving ODEs

An ordinary differential equation with an initial condition can be written in the following general form:

$$y' = f(x, y), \quad y(x_0) = y_0 \quad (1)$$

When the function  $f(x, y)$  has a complicated structure or the equation is nonlinear, analytical solution techniques become ineffective. Numerical methods overcome this limitation by approximating the solution through step-by-step calculations over a discretized interval. With the development of modern computational technologies, such methods have become indispensable tools in scientific research and engineering practice [1,2].

### Euler method

The Euler method is one of the simplest and most intuitive numerical methods for solving ordinary differential equations. It is based on a local linear approximation of the solution curve, where the tangent at a given point is used to estimate the solution at the next point.


For an initial value problem, the Euler method is defined by the recurrence formula:

$$y_{n+1} = y_n + h(f(x_n, y_n)) \quad (2)$$

where  $h$  denotes the step size. The main advantage of the Euler method lies in its simplicity and low computational cost. However, it is a first-order method, which means that its global error decreases linearly with the step size. As a result, the accuracy of the Euler method deteriorates rapidly when larger step sizes are used, limiting its application mainly to preliminary analysis or educational purposes [3].

For example: Solution of an example using Euler's method in Python

$$y' = y - x \quad y(0) = 1 \quad h = 0.1 \quad N = 5$$



```
def euler(f, x0, y0, h, N):
    x, y = x0, y0
    print(f"x: {x:.4f}, y: {y:.4f}")
    for _ in range(N):
        k = f(x, y)
        y += h * k
        x += h
        print(f"x: {x:.4f}, y: {y:.4f}")

# Differensial tenglama
def f(x, y):
    return y - x

# Boshlang'ich qiymatlar
euler(f, x0=0, y0=1, h=0.1, N=5)
```

```
Python 3.8.0 Shell
Python 3.8.0 (tags/v3.8.0:
D64] on win32
Type "help", "copyright
>>>
===== RESTART:
x: 0.0000, y: 1.0000
x: 0.1000, y: 1.1000
x: 0.2000, y: 1.2000
x: 0.3000, y: 1.3000
x: 0.4000, y: 1.4000
x: 0.5000, y: 1.5000
>>>
```

### Runge-Kutta methods

The Runge-Kutta methods represent a class of higher-order numerical techniques that improve accuracy by incorporating function evaluations at intermediate points within each step. Among them, the classical fourth-order Runge-Kutta method is the most widely applied in practice.

The fourth-order Runge-Kutta method is defined through the following stages:

$$k_1 = hf(x_n, y_n) \quad (3)$$

$$k_2 = hf(x_n + \frac{h}{2}, y_n + \frac{k_1}{2}) \quad (4)$$

$$k_3 = hf(x_n + \frac{h}{2}, y_n + \frac{k_2}{2}) \quad (5)$$

$$k_4 = hf(x_n + h, y_n + k_3) \quad (6)$$

The approximate solution at the next point is then computed as:

$$y_{n+1} = y_n + \frac{(k_1 + 2k_2 + 2k_3 + k_4)h}{6} \quad (7)$$

This method provides a significantly higher level of accuracy compared to the Euler method and remains stable even for relatively large step sizes. Although it requires more computational effort per step, this drawback is negligible given the capabilities of modern computing systems [4,5].

For example: Solution of an example using RK2's method in MathCAD,

$$y' = 2y - x, \quad y(1)=0$$

$$\begin{array}{l}
 \text{RK}(f, a, b, y_0, n) := \left\{ \begin{array}{l}
 h \leftarrow \frac{b-a}{n} \\
 y_0 \leftarrow y_0 \\
 \text{for } i \in 0 \dots n \\
 \quad x_i \leftarrow a + i \cdot h \\
 \text{for } i \in 0 \dots n \\
 \quad \left\{ \begin{array}{l}
 k1_i \leftarrow h \cdot f(x_i, y_i) \\
 k2_i \leftarrow h \cdot f\left(x_i + \frac{h}{2}, y_i + \frac{k1_i}{2}\right) \\
 k3_i \leftarrow h \cdot f\left(x_i + \frac{1}{2} \cdot h, y_i + \frac{1}{2} \cdot k2_i\right) \\
 k4_i \leftarrow h \cdot f(x_i + h, y_i + k3_i) \\
 y_{i+1} \leftarrow y_i + \frac{1}{6} \cdot (k1_i + 2 \cdot k2_i + 2 \cdot k3_i + k4_i)
 \end{array} \right. \\
 \end{array} \right. \\
 y
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{l}
 f(x, y) := 2 \cdot y - x \\
 \text{RK}(f, 1, 1.2, 0, 5) = \begin{pmatrix} 0 \\ -0.042 \\ -0.09 \\ -0.143 \\ -0.203 \\ -0.269 \\ -0.342 \end{pmatrix}
 \end{array}$$

A comparison between the Euler and Runge–Kutta methods highlights a trade-off between simplicity and accuracy. The Euler method is easy to implement and computationally inexpensive but suffers from low accuracy. In contrast, the Runge–Kutta methods offer much better precision and reliability, making them more suitable for practical scientific and engineering applications where accurate results are essential.

#### References

1. Atkinson K.E. **An Introduction to Numerical Analysis**. – 2nd ed. – New York: John Wiley & Sons, 1989. – 693 p.
2. Burden R.L., Faires J.D. **Numerical Analysis**. – 10th ed. – Boston: Cengage Learning, 2016. – 872 p.
3. Hairer E., Nørsett S.P., Wanner G. **Solving Ordinary Differential Equations I: Nonstiff Problems**. – Berlin: Springer, 1993. – 528 p.
4. Quarteroni A., Sacco R., Saleri F. **Numerical Mathematics**. – Berlin: Springer, 2007. – 655 p.
5. Lambert J.D. **Numerical Methods for Ordinary Differential Systems**. – Chichester: John Wiley & Sons, 1991. – 293 p.

#### MATHCAD TIZIMIDA TENGLAMALARNI SONLI YECHISH ALGORITMI.

**Jalolov Ozodjon Isomidinovich,**

Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.-m.f.n.

[o\\_jalolov@mail.ru](mailto:jalolov@mail.ru), [o.i.jalolov@buxdu.uz](mailto:o.i.jalolov@buxdu.uz)

**Ismatova Gulshoda Zafar qizi,**

Buxoro davlat universiteti magistranti


**Chiziqli bo‘lmagan tenglamalar odatda algebraik va transendent tenglamalarga bo‘linadi. Ushbu turdagi chiziqli bo‘lmagan tenglamalarni yechish usullari to‘g‘ridan-to‘g‘ri va iteratsion usullarga bo‘linadi. Birinchisi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri formulalar yordamida yechimni topishga imkon beradi va har doim aniq yechimni ta‘minlaydi. Iteratsion usullarda yechim protsedurasi ma‘lum bir algoritmi takroriy qo‘llash shaklida o‘rnatiladi. Qabul qilingan yechim har doim taqribiy hisoblanadi. Iteratsion usullar kompyuterda amalga oshirish uchun eng qulay usuldir. Chiziqli bo‘lmagan tenglamaning ildizlarini topish muammosini hal qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich ildizlarni ajratish bosqichi, ikkinchi bosqich esa ildizlarni iteratsion yaqinlashtirish bosqichi hisoblanadi.**

Oraliqni teng ikkiga bo'lish usuli: Ixtiyoriy tenglamani  $f(x) = 0$  ko'rinishda belgilab olamiz. Bu usul quyidagi amallardan iborat. Avvalo,  $X$  o'qi bo'ylab teng oraliqlarda joylashgan nuqtalarda funktsiyaning qiymatlari hisoblanadi. Bu jarayon funktsiyaning ketma-ket ikkita qiymati  $f(x_n)$  va  $f(x_{n+1})$  qarama-qarshi ishorali bo'lmaguncha davom ettiriladi. (Eslatib o'tamiz, agar funktsiya uzluksiz bo'lsa, ishoraning o'zgarishi ildiz mavjudligini bildiradi.)

$$x_{o'rt} = (x_{n+1} + x_n) / 2 \quad (1)$$

So'ngra (1)-formula yordamida  $[x_n, x_{n+1}]$  oraliqning o'rta nuqtasi hisoblanadi va shu nuqtadagi  $f(x_{o'rt})$  funktsiyaning qiymati aniqlanadi. Agar ushbu  $f(x_{o'rt})$  qiymatning ishorasi  $f(x_n)$  ning ishorasi bilan mos kelsa, keyingi bosqichlarda mos ravishda shu chegara nuqta yangisi bilan almashtiriladi. Agar bu  $f(x_{o'rt})$  qiymatning ishorasi ikkinchi chegara nuqtadagi  $f(x_{n+1})$  qiymat ishorasiga mos kelsa (ya'ni qarama-qarshi tomonga tegishli bo'lsa), u holda o'sha chegara nuqta almashtiriladi. Natijada ildiz joylashgan oraliq tobora torayib boradi. Agar funktsiyaning o'rta nuqtadagi  $x_{o'rt}$  qiymati nolga yetarlicha yaqin bo'lsa, jarayon to'xtatiladi, aks holda esa davom ettiriladi[1,2].

Misol:  $e^x - x^2 - x^3 = 0$  tenglamani Mathcad tizimida yuqorida keltirilgan usulni algoritmini tuzib yechamiz[3].



Bu misolda ko'rinadiki  $10^{-1}$  aniqlikda yechimni 5 ta qadamda topyapti. Bu algoritmnii ixtiyoriy tenglamani ixtiyoriy aniqlikda yechish uchun qo'llash mumkin.

**Nyuton usuli:** Nyuton tomonidan ishlab chiqilgan ketma-ket yaqinlashishlar usuli barcha iteratsion algoritmlar orasida eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biridir. Uning ommabopligi shundaki, oldingi usuldan farqli ravishda ildiz joylashgan oraliqni aniqlash uchun funktsiyaning qarama-qarshi ishorali qiymatlarini topish talab etilmaydi. Ikki nuqtadagi funktsiya qiymatlari bo'yicha interpolatsiya qilish o'rniga, Nyuton usulida ekstrapolyatsiya berilgan nuqtadagi egri chiziqqa o'tkazilgan urinma yordamida amalga oshiriladi.

$$x_{n+1} = x_n - \frac{f(x_n)}{f'(x_n)} \quad (2)$$

$x_{n+1}$  qiymati egri chiziqqa  $x_n$  nuqtada o'tkazilgan urinmaning  $X$  o'qi bilan kesishgan nuqtasiga mos keladi. Egri chiziq  $f(x_n)$  to'g'ri chiziqdan farq qilganligi sababli, odatda

$f(x_{n+1})$  qiymati aniq nolga teng bo'lmaydi. Shuning uchun butun jarayon takrorlanadi, bunda  $x_n$  o'rniga  $x_{n+1}$  olinadi. Hisoblash  $f(x_{n+1})$  yetarlicha kichik qiymatga erishganda to'xtatiladi [1,2].

Misol:  $e^x - x^2 - x^3 = 0$  tenglamani Mathcadda Nyuton usulni algoritmini tuzib yechamiz [3].

```

Nyuton(f, a, E) :=
  x_0 ← a
  y(x) ← d/dx f(x)
  for i ∈ 0 .. 1000
    x_{i+1} ← x_i - f(x_i)/y(x_i)
    break if |x_{i+1} - x_i| ≤ E
  stack(x_{i+1}, i + 1)

f(x) := e^x - x^2 - x^3   Nyuton(f, 1, 10^-5) = ( 1.2431233652 / 5 )

```

Bu misolda ko'rinadiki  $10^{-5}$  aniqlikda yechimni 5 ta qadamda topyapti. Bu algoritmnini ixtiyoriy tenglamani ixtiyoriy aniqlikda yechish uchun qo'llash mumkin.

#### Adabiyotlar

1. Исроилов М.И. Ҳисоблаш методлари. Тошкент, Ўқитувчи, 1-қисм, 2003.
2. Пирумов, У. Г. Численные методы. - М.: Изд-во МАИ, 1998. - 188 с.
3. Sh.M.Imomova, X.U.Xayatov, O.I.Jalolov, N.N.Djabborova. Kompyuterli matematik tizimlar. Buxoro, 2023, 220 b.

### MATHCAD TIZIMIDA GAUSS KVADRATUR FORMULASI ALGORITMI.

**Jalolov Ozodjon Isomidinovich,**

Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.-m.f.n.

[o\\_jalolov@mail.ru](mailto:o_jalolov@mail.ru), [o.i.jalolov@buxdu.uz](mailto:o.i.jalolov@buxdu.uz)

**Ahmadov Xondamir Sherali o'g'li,**

Buxoro davlat universiteti magistranti

Gauss kvadratur formulasi ortogonal ko'phadlar nazariyasiga asoslangan bo'lib, yuqori aniqlik va tez yaqinlashuv xususiyatlariga ega. Tugunlarni optimal tanlash natijasida kam sonli hisoblashlar orqali aniq natija olish mumkin. Shu sababli, ushbu usul zamonaviy sonli analiz va amaliy hisoblashlarda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, chekli elementlar usulida integral hadlarni hisoblashda Gauss kvadratur formulasi yuqori samaradorlik beradi [1].

Integral  $I$  ning taqribiy qiymati sifatida quyidagi son qaraladi:

$$I_n = \sum_{i=0}^n q_i f(x_i), \quad (1)$$

bu yerda  $f(x_i)$  -  $f(x)$  funksiyaning  $x = x_i$ ,  $i = 0, 1, \dots, n$  nuqtalardagi qiymatlari,  $q_i$  - koeffitsiyentlar. (1) formulaga kvadratur formula deb ataladi.  $x_i$  nuqtalar kvadratura formulasining tugun nuqtalari,  $q_i$  sonlar esa kvadratura formulaning koeffitsiyentlari deb ataladi.

Quyidagi ayirma:

$$R_n = I - I_n = \int_a^b f(x) dx - \sum_{i=0}^n q_i \cdot f(x_i) \quad (2)$$

(1) ko'rinishdagi kvadratur formulaning xatoligi deb ataladi. Xatolik tugunlarning joylashishiga ham, koeffitsientlarining tanlanishiga ham bog'liq.



$$Q_{n-1,j}(x_i) = \begin{cases} 0, & i \neq j, \\ 1, & i = j. \end{cases}$$

Lejandr ko'phadlari quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_n(x) = \frac{1}{2^n n!} \frac{d^n}{dx^n} (x^2 - 1)^n, \quad n = 0, 1, 2, \dots \quad (6)$$

Gauss tipidagi kvadratur formulalar

$$\int_{-1}^1 f(x) dx \approx \sum_{k=1}^n A_k f(x_k) \quad (7)$$

ko'rinishda bo'ladi bunda tugun nuqtalar va koeffitsiyentlar shunday tanlanadiki u imkon qadar darajasi yuqori bo'lgan algebraik ko'phadlar uchun aniq bo'ladi.

Gauss bunday formulani qurish uchun tugun nuqtalarni aniqlashda (6) Lejandr ko'phadlarini ildizlaridan foydalanadi.  $A_k$  koeffitsiyentlar esa quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$A_k = \frac{2}{(1 - x_k^2) \cdot (P'_n(x_k))^2}$$

Agar integral chegarasi  $[a; b]$  oraliqda bo'lsa, unda o'zgaruvchini almashtirish yo'li orqali  $[-1; 1]$  oraliqda olib kelamiz:

$$t = \frac{b-a}{2} x + \frac{a+b}{2}$$

$$\int_a^b f(t) dt = \frac{b-a}{2} \sum_{k=1}^n A_k f(t_k)$$

**Gauss kvadratur formulasi uchun Mathcad tizimida algoritmini keltiramiz [3].**

ORIGIN ≡ 1                      n := 5

$$P(x) := \frac{1}{2^n \cdot n!} \cdot \frac{d^n}{dx^n} (x^2 - 1)^n \text{ simplify } \rightarrow \frac{x \cdot (63 \cdot x^4 - 70 \cdot x^2 + 15)}{8}$$

$$T(x) := \frac{2}{[1 - (x)^2] \cdot \left(\frac{d}{dx} P(x)\right)^2}$$

$x := \text{polyroots}(a)$                        $a := P(x) \text{ coeffs, } x \rightarrow$

$k := 1..n$	$x = \begin{pmatrix} -0.906 \\ -0.538 \\ 0 \\ 0.538 \\ 0.906 \end{pmatrix}$	$A = \begin{pmatrix} 0.237 \\ 0.479 \\ 0.569 \\ 0.479 \\ 0.237 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} 0 \\ 15 \\ 8 \\ 0 \\ 35 \\ 4 \\ 0 \\ 63 \\ 8 \end{pmatrix}$
-------------	---	---	--

$$f(x) := \frac{\sin(x^2)}{e^x} \quad a := 0 \quad b := 1$$

$$\int_a^b f(x) dx = 0.150912567222744 \quad t_k := \frac{b-a}{2} \cdot x_k + \frac{b+a}{2}$$

$$\frac{b-a}{2} \cdot \sum_{k=1}^n (A_k \cdot f(t_k)) = 0.150912575950637 \quad +$$

*Bu misolda  $n=5$  bo'lgan holda Mathcad tizimida va Gauss kvadratur formulasi orqali natijalar olingan va tahlil qiligan.*

## Adabiyotlar

1. Исроилов М.И. Ҳисоблаш методлари. Тошкент, Ўқитувчи, 1-қисм, 2003.
2. Пируммов У. Г. Численные методы. - М.: Изд-во МАИ, 1998. - 188 с.
3. Jalolov O.I. Interaktiv ilmiy hisoblash tizimlari. Darslik – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2024. 208 b.

## ENSURING SMART CONTRACT SECURITY IN THE POST-QUANTUM ERA: EMERGING THREATS AND ALGORITHMIC SOLUTIONS

**Khudoyberdiev A. N.,**

PhD in Technical Sciences, Senior Lecturer,  
Tashkent International University,  
[scientist.py@gmail.com](mailto:scientist.py@gmail.com),

**Amonov M. Q.,** student, Tashkent International University.

**Jurayev A. B.,** student, Tashkent International University.

### The Quantum Threat Model

The primary threat to smart contracts is the collapse of the **Discrete Logarithm Problem (DLP)**. On a quantum computer, Shor's algorithm can factorize an integer  $n = p \cdot q$  or find the discrete log in polynomial time [2].

Mathematical Vulnerability:

Given an elliptic curve  $E$  over a finite field  $F_p$ , the public key  $Q$  is derived as:

$$Q = dG$$

Where  $d$  is the private key and  $G$  is the base point. A quantum attacker using Shor's can compute  $d$  in:

$$T_{quantum} \approx O((\log n)^3)$$

compared to the classical sub-exponential complexity of

$$O(e^{(c+o(1))(\ln n)^{1/3} (\ln \ln n)^{2/3}}).$$

### Proposed Solution I: Lattice-Based Transitions (LWE)

To replace ECDSA in smart contracts, we propose the **Learning With Errors (LWE)** problem. Its security is based on the hardness of the Shortest Vector Problem (SVP) in a lattice  $L$  [3].

The LWE Formulation:

For a secret vector  $s \in \mathbb{Z}_q^n$ , the smart contract validates a signature if the adversary cannot distinguish  $(a_i, b_i)$  from uniform randomness:

$$b_i = \sum_{j=1}^n a_{i,j} \cdot s_j + e_i \pmod{q}$$

Where  $e_i$  is a small error sampled from a discrete Gaussian distribution  $\chi$ . The security parameter  $\lambda$  is tied to the lattice dimension  $n$ :

$$\lambda \propto \sqrt{n / \log n}$$

### Proposed Solution II: Post-Quantum Hash Functions

Smart contracts heavily use hashing for state integrity. While Grover's Algorithm provides a quadratic speedup for finding pre-images, it does not "break" hashes like Shor's breaks RSA [4].

Grover's Speedup Equation:

If a hash function  $H$  has a search space of  $N = 2^n$ , the quantum complexity to find a pre-image is:

$$T_{Grover} \approx \frac{\pi}{4} \sqrt{2^n} = O(2^{n/2})$$

Thesis Recommendation: To maintain a 256-bit security level, smart contracts must transition from **SHA-256** to **SHA-512** or **KMAC256** to ensure:

$$Security_{effective} = \frac{n_{bits}}{2} \geq 256 \Rightarrow n_{bits} \geq 512$$

Quantum-Resistant Smart Contract Logic (Formal Verification)

Beyond encryption, the logic of the contract must be shielded. We define a “Quantum-Safe State”  $\mathcal{S}$  as one where transitions  $\delta$  are signed using a PQ-algorithm  $\Sigma_{PQ}$  [4].

State Transition Integrity:

$$S_{t+1} = \delta(S_t, Tx, \sigma_{PQ})$$

The verification function  $V$  must satisfy:

$$V(PK_{PQ}, Tx, \sigma_{PQ}) \rightarrow \{1, 0\}$$

Where  $\sigma_{PQ}$  is a **Dilithium** or **Falcon** signature, currently favored by NIST for their balance between signature size and verification speed [5].

The integration of Post-Quantum Cryptography into smart contracts is not optional but a timed necessity. By shifting the underlying hard mathematical problem from **DLP** to **LWE** and doubling hash output lengths [5], blockchain networks can achieve “**Quantum Hardness**”.

#### Summary of Parameter Shifts:

- **Signature:** ECDSA  $\rightarrow$  Dilithium (Lattice-based).
- **Hash:** Keccak-256  $\rightarrow$  SHA3-512.
- **Encryption:** AES-128  $\rightarrow$  AES-256 (Grover resistance).

#### References

1. NIST (2024). *FIPS 203, 204, and 205: Post-Quantum Cryptography Standards*. National Institute of Standards and Technology.
2. Li, W., et al. (2023). "Design and Implementation of a Quantum-Resistant Blockchain based on Lattice Cryptography." *Journal of Information Security and Applications*.
3. Zhang, R., & Preneel, B. (2022). "On the Quantum Security of Hash-Based Smart Contracts." *IEEE Transactions on Dependable and Secure Computing*.
4. Bordel, B., et al. (2025). "Formal Verification of Post-Quantum Smart Contracts: A Zero-Knowledge Approach." *Future Generation Computer Systems*.
5. Chen, L., & Jordan, S. (2021). "Quantum Attacks on Bitcoin and Ethereum: A 10-Year Outlook." *Quantum Information Processing*.

## ZENITH AI MODELI ASOSIDA BOLALARDA JINOYATCHILIKKA

### MOYILLIKNI ANIQLASH

**Mamajonov Sanjarbek Mirzayevich**

Qo‘qon universiteti, f.-m.f.f.d. (PhD)

[sanjarbekmamajonov@gmail.com](mailto:sanjarbekmamajonov@gmail.com)

**Xasanov O‘tkirjon Ismoiljon o‘g‘li**

Qo‘qon universiteti, Kompyuter injinringi yo‘nalishi 2-kurs talabasi

[xasanovutkirjon95@gmail.com](mailto:xasanovutkirjon95@gmail.com)

Ma’lumki, hozirgi kunda yoshlar orasida nazoratsizlik, salbiy ijtimoiy muhit va psixologik bosim sababli turli huquqbuzarliklar tobora ko‘paymoqda. Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, bu

muammoni faqat jazolash orqali emas, balki ertaroq aniqlab, profilaktika qilish orqali kamaytirish mumkin. Lekin hozirgi kunda mavjud nazorat tizimlari ko'pincha hodisa sodir bo'lgandan keyingina ishga tushadi, ya'ni repressiv xarakter kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar, xususan, taqiladigan qurilmalar va sun'iy intellekt tizimlari bolalarning biologik holati, harakati va xulq-atvorini uzluksiz monitoring qilish imkonini beradi [1]-[5]. Ya'ni yurak urish tezligi, stress darajasi, uyqu sifati va harakat faolligidagi o'zgarishlar psixologik muammolarning ilk signallari bo'lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan [6]. Ana shu asosda ushbu tadqiqotda aqlli soat va sun'iy intellektni birlashtirgan profilaktik tizim ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi bolalarda me'yoriy xulq-atvordan og'ishlarga moyillikni ilk bosqichda aniqlash va ota-onalarga o'z vaqtida, ilmiy asoslangan tavsiyalar beruvchi avtomatlashtirilgan tizim yaratishdan iborat.

Quyida taklif etilayotgan tizim uchta asosiy qismdan tashkil topadi: qurilma (hardware), dasturiy ta'minot (software) va sun'iy intellekt moduli.

Hardware qismida Nordic Semiconductor nRF52840 low-power SoC markaziy boshqaruv elementi sifatida ishlatiladi. Analog Devices MAX86141/MAX30112 PPG sensori bolaning yurak urish tezligi va qon kislorod darajasini uzluksiz o'lchaydi, Bosch Sensortec BMI270 IMU sensori esa harakat faolligini, tebranish va akseleratsiya ma'lumotlarini qayd etadi. Texas Instruments BQ25120A PMIC orqali Li-Po batareya va simsiz zaryadlash boshqariladi. Qurilma 6-8 qatlamli rigid+flex PCB, IP67/IP68 korpus va AMOLED ekrandan iborat bo'lib, kundalik faol foydalanishga mo'ljallangan.

Dasturiy qatlamda Zephyr RTOS asosida yozilgan firmware sensorlardan ma'lumot yig'ib, BLE 5.0 protokoli orqali serverga uzatadi. OTA (Over-the-Air) yangilash imkoniyati qurilmani doimiy takomillashtirib borishga imkon beradi. Server tomonida Python+FastAPI ishlaydi, ma'lumotlar PostgreSQL ma'lumotlar bazasida saqlanadi. Ota-ona uchun Android (Kotlin) va iOS (Swift/Flutter) mobil ilovalar hamda veb-dashboard taqdim etiladi.

Sun'iy intellekt moduli va aniqlash mexanizmi esa tizimning intellektual yadrosini vaqt qatorlari (time-series) tahlil algoritmi tashkil etadi. Har bir bola uchun alohida individual baseline, ya'ni o'sha bolaga xos biologik va harakat me'yori shakllantiriladi. Bu baseline dastlabki 7-14 kunlik kuzatuv davri mobaynida to'plangan ma'lumotlar asosida avtomatik tarzda hisoblanadi. Shuningdek, bola o'sib ulg'aygan sari, fasllar o'zgargani hamda hayot tarzi rivojlantirishiga qarab doimiy ravishda yangilanib boradi. Keyingi barcha o'lchovlar global standartlar bilan emas, balki shu shaxsiy me'yor bilan taqqoslanadi. Bu yondashuv yolg'on signallar (false positive) sonini keskin kamaytiradi.

Xavf sifatida quyidagi anomaliyalar aniqlanadi: tungi soatlardagi g'ayritabiiy harakat faolligi, yurak tezligidagi keskin va tushuntirib bo'lmaydigan o'zgarishlar, surunkali uyqu tanqisligi, stress indeksining uzoq muddat yuqori bo'lib qolishi. Bundan tashqari, algoritim bir nechta ko'rsatkichni bir vaqtda birgalikda baholaydi, ya'ni faqat bitta anomal o'lchovga emas, balki bir nechta salbiy belgilarning bir vaqtda to'planishiga e'tibor qaratadi. Bu tizimning aniqlash sezgirligini oshiradi va noo'rin ogohlantirish holatlarining oldini oladi. Anomaliya aniqlanganda ota-onaga mobil ilova orqali darhol ogohlantirish yuboriladi va holat tavsifi bilan birga amaliy tavsiya beriladi: "Farzandingizning stress darajasi 3 kun davomida yuqori bo'lgani uchun bugun qisqa samimiy suhbat o'tkazishni tavsiya etamiz" yoki "Jismoniy faollik pasaygani sababli sport yoki ochiq havoda sayr rejimini ko'rib chiqing". Zarur hollarda tizim ota-onani bolalar psixologi bilan maslahatlashishga yo'naltiradi. Tizim hech qachon qat'iy jazolashni emas, muloqot va psixologik qo'llab-quvvatlashni rag'batlantiradi, chunki zamonaviy kriminologiya va pedagogik psixologiya tadqiqotlari ko'rsatganidek, sevgi va ishonch muhiti jazo choralaridan ko'ra deviant xulqni bartaraf etishda ancha samaraliroq natija beradi.

Bolalar ma'lumotlari AES-256 shifrlash va HTTPS protokoli orqali himoyalanaadi. Tizim faqat ota-onaning to'liq yozma roziligi asosida faoliyat yuritadi. Ma'lumotlar uchinchi tomonlarga berilmaydi. Qurilma CE, FCC va RoHS xalqaro sertifikatlariga javob berishi ta'minlanadi. GDPR

va O‘zbekiston qonunchiligining bolalar ma’lumotlarini himoya qilishga oid talablari to‘liq bajariladi.

Taqdim etilgan tizim aqlli soat sensorlari, sun’iy intellekt algoritmlari va ota-ona vositachiligini uyg‘unlashtirgan holda bolalardagi jinoyatchilikka moyillikni jazo choralarisiz, profilaktik yo‘l bilan bartaraf etishning samarali mexanizmini yaratadi. Har bir bolaga shaxsiy baseline shakllantirish, real vaqtda monitoring va amaliy tavsiyalar beradi. Bu orqali esa tizim nafaqat texnik, balki ijtimoiy va tarbiyaviy muammoni ham hal qiladi. Kelajakda ushbu yechimni O‘zbekiston maktablari, oilalari va bolalar psixologiya markazlarida sinov tartibida joriy etish, shuningdek, tibbiyot mutaxassisleri bilan integratsiya qilish rejalashtirilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nordic Semiconductor, *nRF52840 Product Specification v1.7*, Oslo, 2023.
2. Analog Devices, *MAX86141/MAX30112 Datasheet*, Wilmington, 2022.
3. Bosch Sensortec, *BMI270 Technical Documentation v1.2*, Reutlingen, 2023.
4. Texas Instruments, *BQ25120A Power Management IC Application Report*, Dallas, 2021.
5. Zephyr Project, *Official RTOS Documentation*, 2024. [Online]. Available: <https://docs.zephyrproject.org>
6. T. E. Moffitt et al., “A gradient of childhood self-control predicts health, wealth, and public safety,” *PNAS*, vol. 108, pp. 2693–2698, 2011.

## ANIQ INTEGRALLARNI TAQRIBIY INTEGRALLASHDA KUBATUR

### FORMULA YORDAMIDA AMALGA OSHIRISH NAZRIYASI

JDPU, f.-m.f.f.d., dotsent **Mirzakabilov Ravshan Narkuziyevich**

[ravshan.m.n@mail.ru](mailto:ravshan.m.n@mail.ru)

JDPU, t.f.n., dotsent **Botirov Do‘stqul**

[botirovdb@gmail.com](mailto:botirovdb@gmail.com)

JDPU, Matematika mutaxassisligi

I-bosqich magistranti **Sattarova Feruza**

[sattarovaferuza438@gmail.com](mailto:sattarovaferuza438@gmail.com)

Taqribiy integrallash nazariyasida aniq integralni

$$\int_{\Omega} p(x)f(x)dx \cong \sum_{j=1}^N C_j f(x^{(j)}) \quad (1)$$

kubatur formula yordamida amalga oshiriladi, bu yerda  $\Omega$ ,  $R_n$  dagi soha,  $p(x)$ - vazn funksiya,  $x^{(j)}$  va  $C_j$  kubatur formulaning mos ravishda tugun nuqtalari va koeffitsentlari deyiladi.

Yevklid fazosidagi  $n$  o‘lchovli soha bo‘yicha olingan integralni taqribiy hisoblash uchun odatda (1) ko‘rinishdagi formuladan foydalaniladi.

Bu yerda  $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$   $n$  – o‘lchovli fazodagi nuqta  $x^{(j)} = x_1^{(j)}, x_2^{(j)}, \dots, x_n^{(j)}$ ,  $dx = dx_1, dx_2, \dots, dx_n$ ,  $p(x)$ – vazn funksiya deyiladi va u  $\Omega$  da aniqlangan bo‘lib

$$\mu_{\alpha_1 \alpha_2 \dots \alpha_n} = \int_{\Omega} p(x) x_1^{\alpha_1} x_2^{\alpha_2} \dots x_n^{\alpha_n} dx$$

integrallar mavjud,  $\alpha_i, i = 1, n$  manfiymas butun sonlar.

Kubatur formula qurishning usullaridan biri interpolatsiyalashga asoslangandir. Tartibi  $d$  ga teng gipersirtga yotmaydigan  $\mu(d, n)$  ta turli  $x^{(j)}$  tugun nuqtalar olamiz va  $f(x)$  funksiyaning shu nuqtalardagi qiymatlari bo‘yicha darajasi  $d$  ga teng bo‘lgan interpolatsion ko‘phad

$$P(x) = \sum_{j=1}^N L_j f(x^{(j)})$$

quramiz, bu yerda,  $L_j(x)$ ,  $j = \overline{1, N}$  interpolyatsiyalashning fundamental ko'phadlari. Interpolyatsiyalash yetarlicha yaxshi o'tkazilgan deb hisoblaymiz, ya'ni

$$f(x) \cong \sum_{j=1}^N L_j f(x^{(j)})$$

Bu tenglikni ikkala qismini  $p(x)$  ga ko'paytirib,  $\Omega$  soha bo'yicha integrallasak (1) ko'rinishdagi formulaga ega bo'lamiz. Bunda  $N = M(d, n)$ ,

$$C_j = \int_{\Omega} p(x) L_j dx$$

bo'lib, u darajasi  $d$  dan oshmagan ixtiyoriy algebraik ko'phad uchun aniq bo'ladi. Odatda bunday formulalarni interpolyatsion kubatur formula deyiladi.

Kubatur formula darajasi  $d$  dan oshmagan ko'phadlar uchun aniq bo'lib uning tugun nuqtalari  $N \leq M(d, n)$  bo'lishligi uchun [1]

$$[\varphi_1(x^{(j)}), \varphi_2(x^{(j)}), \dots, \varphi_{M(d, n)}(x^{(j)})]_{j=1}^N$$

matritsaning rangi uning yo'llari soni  $N$  ga teng bo'lishi zarur va yetarli, bu yerda  $M(d, n) = \frac{(d+n)!}{d!n!}$  - darajasi  $d$  dan oshmagan  $n$  o'zgaruvchili barcha birhadlar soni,  $\{\varphi_i(x)\}_i^\infty = 1$  orqali  $n$  o'zgaruvchi birhadlar belgilangan bo'lib, kichik darajali birhad kichik nomer olgan, bir xil tartibli birhadlar ketma-ket nomerlangan.

$\Omega$  soha va  $p(x) \geq 0$  vazn funksiya uchun ortogonal ko'phadlarni qaraymiz, bu yerda  $\Omega \subset R_n$  dagi soha va  $x \in \Omega$  uchun  $p(x) \geq 0$ , va shuningdek,

$$p_i = \int_{\Omega} p(x) \varphi_i(x) dx, \quad i = 1, 2, \dots$$

integrallar mavjud deymiz,  $p(x) \geq 0$  bo'lganligi uchun  $p_i > 0$  bo'ladi. Darajasi  $k$  ga teng algebraik ko'phad

$$(\varphi, \lambda) = \int_{\Omega} p(x) \varphi(x) \lambda(x) dx$$

skalyar ko'paytmaga nisbatan darajasi  $k-1$  dan oshmagan barcha ko'phadlarga ortogonal bo'lsa, uni  $\Omega$  soha va  $p(x) \geq 0$  vazn funksiya bo'yicha ortogonal ko'phad deyiladi.

$$P_{\alpha_1 \alpha_2 \dots \alpha_n}(x) = x^\alpha + \sum_{j=1}^{M(k, n-1)} a_j \varphi_j(x)$$

ko'rinishdagi  $k$  - darajali ortogonal ko'phadlar,  $\Omega$  soha va  $p(x) \geq 0$  vazn funksiyaning asosiy ortogonal ko'phadlari deyiladi. Darajasi  $k$  ga teng asosiy ortogonal ko'phadlar soni  $M(n, k-1)$  ga teng. Darajasi  $k$  ga teng ixtiyoriy ortogonal ko'phad,  $k$  - darajali asosiy ortogonal ko'phadlarning chiziqli kombinatsiyasi orqali ifodalanadi.

$n$  o'zgaruvchili darajasi  $k$  dan oshmagan birhadlarga Shmidt ortogonaltirish va normallashtirish jarayonini tadbiiq etsak, natijada ortogonal ko'phadlar sistemasi hosil bo'ladi. Uni  $\{F_j(x)\}_{j=1}^{M(n, k)}$  deb belgilaymiz, ya'ni

$$\int_{\Omega} p(x) \varphi_i(x) F_j(x) dx = \delta_{ij}, \quad i, j = 1, M(n, k)$$

bunda  $\delta_{ij}$  – Kroneker belgisi.

Faraz qilaylik,  $f(x)$   $\Omega$  sohada aniqlangan uzluksiz funksiya bo'lsin.  $f(x)$  funksiyani ortonormal ko'phadlar sistemasi bo'yicha yoyilmasining quyidagi

$$S_k(x) = \sum_{j=1}^{M(k,n)} a_j \varphi_j(x) \quad (2)$$

qismaniy yig'indisini ko'ramiz. Bu yoyilmaning koeffitsentlari

$$a_j = \int_{\Omega} p(u) f(u) du, \quad j = 1, M(n, k) \quad (3)$$

formula bilan aniqlanadi.

(2) dagi  $a_j$  koeffitsient o'rniga uning ifodasi (3) ni qo'ysak

$$S_k(x) = \sum_{j=1}^{M(k,n)} \left( \int_{\Omega} p(u) f(u) F_j(x) du \right) = \int_{\Omega} p(u) f(u) K_k(u, x) du \quad (4)$$

bo'ladi, bu yerda

$$K_k(u, x) = \sum_{j=1}^{M(k,n)} F_j(u) F_j(x) \quad (5)$$

$K_k(u, x)$  qismaniy yig'indi  $S_k(x)$  ning integral ifodasining yadrosi deyiladi. Agar  $f(x)$  darajasi  $k$  ga teng  $n$  o'zgaruvchili ko'phad bo'lsa, Fure qatorining qismaniy yig'indisi  $S_k(x)$  bilan ustma-ust tushadi,  $S_k(x) = f(x)$  ya'ni u holda (4) ga ko'ra

$$f(x) = \int_{\Omega} p(u) f(u) K_k(u, x) du$$

bo'ladi. Yadroning mana shu xususiyatiga ko'ra uni tiklovchi yadro deyiladi.

$$I(f) \cong \sum_{j=1}^{\gamma} C_j F_j(f) \quad (6)$$

quyidagi teorema (6) ko'rinishning mavjudligi shartiga ega bo'lishligini ko'rsatadi. Quyidagi belgilash kiritamiz

$$F_0 = \{f \in F_j | J_j(f) = 0, \quad j = 1, 2, \dots, \gamma\}$$

**Teorema 1.** (S.L. Sobolev)  $F_1$  fazoga tegishli funksiyalar uchun (6) da aniq tenglik bo'lishligi uchun  $f \in F_0 \Rightarrow I(f) = 0$  bo'lishligi zarur va yetarli.

**Teorema 1.** ning muhim xususiy holini ko'raylik.  $F$  barcha algebraik ko'phadlarning fazosi bo'lib, (6) esa darajasi  $m$  dan oshmagan barcha ko'phadlar uchun aniq tenglikka aylanadi.

$I(f)$  additiv va birjinsli funksional  $F$  da berilgan bo'lsin, masalan  $I(f) = \int_{\Omega} p(x) f(x) dx$

(6) formula quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$I(f) \cong \sum_{i=1}^{\sigma} C_i f^{(a^{(i)})} \quad (7)$$

Bu yerda  $f^{(a^{(i)})} = I^{(i)}(f)$  bo'lib  $I^{(i)}(f)$  funksionallar ham  $F$  da aniqlangan.

**Teorema 2.** (7) ko'rinishdagi ifoda darajasi  $m$  dan oshmagan barcha ko'phadlar uchun aniq bo'lishligi uchun

$$f \in a \cap P_m \Rightarrow I(f) = 0 \quad (8)$$

shart bajarilishi zarur va yetarli. Bu yerda  $F_m$  – darajasi  $m$  dan oshmagan ko'phadlarning fazoosti, ya'ni **teorema 1.** Dagi  $F_1$  – fazo,  $F_0 = a \cap P_m$ ,  $a$  – polinomial ideal.

Kubatur formula tugun nuqtalari soni uchun quyi chegara quyidagi teorema bilan izohlanadi.

**Teorema 3.** Agar

$$\int_{\Omega} p(x)f(x)dx \cong \sum_{j=1}^N C_j f(x^{(j)}) \quad (9)$$

kubatur formula darajasi  $m$  dan oshmagan barcha algebraik ko'phadlar uchun aniq qiymat bersa, u holda  $m \geq 2$  bo'lganda uning tugun nuqtalari  $k$  – tartibli algebraik gipersirtida yotmaydi va tugun nuqtalar soni  $N \geq m \geq 0$  bo'lganda

$$N \geq \chi = M(n, k) \quad (10)$$

tengsizlikni qanoatlantiradi,  $k = \left\lfloor \frac{m}{2} \right\rfloor \left\lceil \frac{m}{2} \right\rceil - \frac{m}{2}$  - ning butun qismi.

Kubatur formulaning musbat koeffitsientlari soni haqidagi teoremani keltiramiz.

**Teorema 4.** Agar (9) kubatur formulaning tugun nuqtalari va koeffitsientlari haqiqiy bo'lib, u darajasi  $m$  dan oshmagan barcha algebraik ko'phadlar uchun aniq qiymat bersa, u holda musbat koeffitsientlar soni  $\chi$  dan kam emas.

Agar sirt integralini

$$\int_{S_{n-1}} p(x)f(x)ds \cong \sum_{j=1}^N C_j f(x^{(j)}) \quad (11)$$

kubatur formula bilan taqriban hisoblasak, uning tugun nuqtalari uchun (10) baholash o'rinli bo'lmaydi, chunki darajasi  $k$  dan oshmagan chiziqli bog'liqsiz ko'phadlarni birlik  $S_{n-1}$  sfera  $\left( \sum_{i=1}^n x_i^2 = 1 \right)$  sirtida berilgan funksiyalar sifatida qarasaq, ularning soni  $M(n, k)$  dan kamdir.

Darajasi  $k$  ga teng ixtiyoriy ko'phadni birlik sfera sirtida funksiya sifatida qarasaq, u ko'phad darajasi  $k$  dan oshmagan garmonik ko'phadlarning chiziqli kombinatsiyasi sifatida ifodalanadi.

(11) kubatur formulaning tugun nuqtalari soni uchun quyidagi tengsizlik o'rinli:

$$N \geq h = M(n, k) - M(n, k - 2)$$

Agar (11) ning tugun nuqtalari va koeffitsientlari haqiqiy bo'lsa, musbat koeffitsientlar soni  $h$  dan kam bo'la olmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мысовских И.П. Интерполяционные кубатурные формулы. М. Наука. 1981.
2. Мысовских И.П. Построение кубатурных формул и ортогональные многочлены. Ж В М и М Ф, 1967, 7, №1.
3. Shmid X. Interpolatory cubature formulal and real ideals.- In: Quant. Apporximate.N.Y.: Acad. Press, 1980.
4. Myoller X. Polynomideale und Kubaturformeln. – Numer. Math. 1976.

## RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA G'OYAVIY XURUJLARGA QARSHI

### KURASHISHNING MILLIY-HUQUQIY ASOSLARI

**O'lmasxo'jayev Zoirxo'ja Abbas o'g'li**

“Tashkent International University” xalqaro universiteti professori

**Kurbanaliyev Sardor Alidjanovich**

“Tashkent International University” xalqaro universiteti

Yurisprudensiya, 2-bosqich talabasi

| E-mail: [sardorkurbon@gmail.com](mailto:sardorkurbon@gmail.com)

Zamonaviy global geosiyosiy me'morchilikda milliy xavfsizlik konsepsiyasi an'anaviy harbiy-siyosiy va hududiy jihatlardan davlatning axborot, mafkuraviy va kognitiv suverenitetini

himoya qilish tomon siljib, fundamental o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddatli taraqqiyoti, ijtimoiy jarayonlarning algoritmizatsiyasi va raqamli makonning globallashuvi mutlaqo yangi shakldagi tahdidlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Ular orasida g'oyaviy ekspansiya va kiber-indoktrinatsiya markaziy o'rinni egallaydi [1]. Markaziy Osiyo o'zining strategik joylashuvi, murakkab demografik tuzilishi hamda tarixiy-madaniy merosi tufayli azaldan yirik geosiyosiy kuchlar manfaatlarini to'qnashadigan hudud bo'lib kelgan. Bugungi kunda ushbu mintaqada aholini radikallashtirish maqsadida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy zaifliklardan foydalanishga intilayotgan transmilliy ekstremistik va terroristik tarmoqlar tomonidan misli ko'rilmagan bosimga duch kelmoqda [2].

O'zbekiston Respublikasi va uning poytaxti – Toshkent shahri alohida ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyoning eng yirik megapolisi bo'lgan Toshkent nafaqat ulkan iqtisodiy, diplomatik va transport-logistika salohiyatini o'zida jamlaydi, balki mintaqaning asosiy raqamli tuguni (xabi) vazifasini ham o'taydi. Urbanizatsiyaning yuqori darajasi, aholi zichligi hamda demografik piramidada yoshlarning ustunligi shaharni bir vaqtning o'zida ham innovatsion taraqqiyot drayveriga, ham zamonaviy kognitiv tahdidlar uchun potensial nishonga aylantiradi. Urbanizatsiyalashgan muhitda g'oyaviy xurujlar endilikda faqat an'anaviy "yuzma-yuz" yollash usullariga tayanmaydi; ular sun'iy intellekt va dipfeyk (deepfake) texnologiyalaridan foydalangan holda ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va platformalar orqali amalga oshiriladigan murakkab, ko'p bosqichli kognitiv operatsiyalarga aylanib ulgurgan. Mazkur tadqiqot O'zbekistonda g'oyaviy xurujlarga qarshi kurashish mexanizmlarining keng qamrovli konseptual va ijtimoiy-huquqiy tahlilini taqdim etadi. Ishda kognitiv xavfsizlikning falsafiy-nazariy asoslari, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi milliy qonunchilik evolyutsiyasi, shuningdek, xalqaro standartlarga muvofiq davlat xavfsizligi imperativlari va insonning fundamental huquqlariga rioya etish o'rtasidagi o'ta muhim muvozanat batafsil ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, terrorizmga qarshi siyosatning gumanitar o'lchoviga — fuqarolarni vataniga qaytarish va jamiyatga reintegratsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli operatsiyalarga ("Mehr") alohida e'tibor qaratiladi. Zamonaviy g'oyaviy xurujlarning mohiyatini chuqur anglash uchun XXI asrda nizo shakllarining evolyutsiyasini belgilovchi nazariy qarashlarga murojaat qilish zarur. Agar an'anaviy axborot urushi (Information Warfare) ma'lumotlarni uzatish kanallarini nazorat qilish, faktlarni buzib ko'rsatish yoki axborotdan foydalanishni cheklashga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy kognitiv urush (Cognitive Warfare) bu chegaralardan ancha uzoqqa chiqadi. Kognitiv urush inson tafakkurini operatsion muhit sifatida baholaydi va nafaqat odamlar nima haqida o'ylashini, balki ularning qanday fikrlashi va qaror qabul qilish mexanizmlarini ham o'zgartirishga intiladi [3].

Akademik diskursda kognitiv xurujlarning shaxs neyropsixologik zaifliklariga qaratilganligi ta'kidlanadi. Ular kuchli hissiy reaksiya chaqiradigan soxta diniy, ayirmachilik yoki ekstremistik narrativlarni singdirish uchun murakkab algoritmlardan foydalanadi, bu esa ratsional tanqidiy fikrlashni bo'g'ib qo'yadi. Yuqori tezlikdagi mobil internet aholining aksariyat qismini qamrab olgan Toshkent sharoitida kiber-indoktrinatsiya xavfi tizimli muammoga aylanmoqda. Ushbu xurujlarga javob tariqasida milliy manfaatlarini himoya qilishning ma'naviy-axloqiy poydevori sifatida "mafkuraviy xavfsizlik" konsepsiyasi shakllanmoqda. O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, keng falsafiy ma'nodagi xavfsizlik — bu shunchaki xavf-xatarning yo'qligi emas, balki millatning o'z ma'naviy, madaniy va intellektual qadriyatlarini tashqaridan keladigan tajovuzkor ta'sirlardan himoya qilish borasidagi tizimli qobiliyatidir [4]. Jamiyatni birlashtiruvchi omil sifatida mustahkamlangan O'zbekistonning milliy g'oyasi buzg'unchi narrativlarga bunyodkorona muqobilni taklif etib, dogmatik va radikal mafkuralarning asosiy antipodi sifatida maydonga chiqadi.

## An'anaviy axborot xavfsizligi va kognitiv xavfsizlikning qiyosiy tahlili

Taqqoslash mezonlari	An'anaviy axborot xavfsizligi	Kognitiv va mafkuraviy xavfsizlik
Asosiy himoya obyekti	Infratuzilma, ma'lumotlar bazalari, aloqa kanallari, davlat sirlari.	Inson ongi, jamoatchilik tafakkuri, qaror qabul qilish tizimlari, milliy qadriyatlar.
Hujum vektori	Xakerlik hujumlari, DDoS-hujumlar, ma'lumotlarni tutib qolish, senzura.	Dezinformatsiya, dipfeyklar, hissiyotlarni manipulyatsiya qilish, kiber-indoktrinatsiya.
Agressorning maqsadi	Tizimlar ishlashini buzish, ma'lumotlarni o'g'irlash, iqtisodiy zarar yetkazish.	Jamiyatni qutblash, radikallashtirish, hokimiyat qonuniyligiga putur yetkazish.
Himoya mexanizmlari	Antivirus dasturlari, kriptografiya, tarmoq ekranlari (firewalls).	Mafkuraviy immunitet, mediashuurlilik, tanqidiy fikrlash, qarshi-narrativlar.

G'oyaviy xurujlarga qarshi kurashishning milliy-huquqiy bazasini shakllantirish jarayonini Markaziy Osiyoning murakkab geosiyosiy landshaftidan ajratib ko'rib chiqish mumkin emas. Afg'onistondagi vaziyatning o'zgarishi mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasini tubdan yangiladi. Tahdidlar vektori yanada aniq transmilliy xususiyat kasb etdi [5]. O'zbekiston uchun eng jiddiy xavotirni turli xalqaro terrorchilik tuzilmalarining faoliyati keltirib chiqarmoqda. Ushbu hodisalar ekstremistik unsurlarning davlat chegaralari orqali kuch ishlatish qobiliyatini namoyish etib, Toshkentdan ham harbiy, ham diplomatik resurslarni safarbar etishni talab qildi [6]. Toshkentning hududiy xususiyatlari migratsiya oqimlarining murakkabligini ham o'z ichiga oladi. Bugungi kunda g'oyaviy xurujlarning salmoqli qismi nafaqat mamlakat ichkarisidan, balki xorijda uzoq vaqt yashayotgan mehnat migrantlari muhitidan ham kelib chiqmoqda. Ular O'zbekistondagi ijtimoiylashuv institutlari doirasidan tashqarida qolib, yollovchilar tomonidan agressiv kiber-indoktrinatsiyaga duchor bo'lmoqdalar. G'oyaviy va jismoniy xavf-xatarlarning o'zgaruvchan tabiatiga javoban O'zbekiston Respublikasi ko'p bosqichli (eshelonlashtirilgan) milliy-huquqiy tizimni barpo etdi. Qonunchilik bazasi tahlili tor doiradagi jazolash choralaridan jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab oluvchi keng profilaktika strategiyasiga o'tishni ko'rsatadi [7].

## Sohadagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar

Normativ-huquqiy hujjat	Yil	Asosiy qoidalar va amalga oshirish mexanizmlari
"Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun	2000	Terrorizm va terrorchilik faoliyatini moliyalashtirishning huquqiy tavsifi. Maxsus xizmatlarning vakolatlarini tartibga solish.
"Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonun	2007	OAVdan konstitutsiyaviy tuzumni zo'ravonlik bilan o'zgartirishga chaqirish maqsadida foydalanishni taqiqlash.
"Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun	2018	"Ekstremizm" va "ekstremistik materiallar" tushunchalarini institutsionalizatsiya qilish.
Milliy strategiya (2021–2026)	2021	Bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish, internet makonini buzg'unchi kontentdan tozalash va fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish.

Zamonaviy huquqiy arxitekturaning markaziy elementi 2018-yilda qabul qilingan "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonundir [8]. Toshkent shahrining kognitiv xavfsizligi nuqtai nazaridan mazkur Qonunning 11-moddasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u respublika hududida ekstremistik materiallarni olib kirish, tayyorlash, saqlash, tarqatish va

namoyish etishni qat'iy taqiqlaydi. Axborot oqimlari maksimal darajada to'plangan Toshkent sharoitida davlat axborot xavfsizligining ko'p bosqichli tizimini joriy etmoqda. Ushbu sohadagi eng muhim ma'muriy-huquqiy vosita O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-apreldagi 180-sonli qaroridir [9]. Ushbu tartib klassik ma'nodagi senzura akti emas, balki kognitiv xavfsizlik filtri sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, texnologik taraqqiyot, xususan, sun'iy intellekt (SI) algoritmlarining rivojlanishi va dipfeyklarning paydo bo'lishi qonun chiqaruvchilar oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. O'zbekistonlik tadqiqotchilar real vaqt rejimida buzg'unchi "patern"larni aniqlash uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga avtomatlashtirilgan semantik tahlil va mashinali o'qitish tizimlarini joriy etish zarurligini asoslamoqdalar [10]. EXHTning OAV erkinligi bo'yicha vakili byurosi tomonidan o'tkazilgan "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunning huquqiy tahlili atamalarning keng va noaniq talqini bilan bog'liq qator konseptual muammolarni aniqladi [11]. BMTning Terrorizmga qarshi kurashish sharoitida inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Fionnuala Ni Aolayn 2021-yilda O'zbekistonga tashrifi yakunlari bo'yicha xuddi shunday xulosalarga kelgan. U hukumatga tushunchalar apparatini xalqaro huquqqa muvofiq aniqlashtirishni tavsiya qildi [12].

Ushbu muammolarni inobatga olgan holda, O'zbekiston hukumati huquqni qo'llash amaliyotini bosqichma-bosqich erkinlashtirish va muloqotga tayyorligini namoyish etmoqda. Sud amaliyoti sudyalarni qasddan sodir etilgan ekstremistik jinoyatlarni adashish oqibatida sodir etilgan harakatlardan sinchiklab ajratishga yo'naltiradi, bu esa tizimning repressivligini pasaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning g'oyaviy xurujlarga qarshi kurashish sohasidagi siyosatining konseptual transformatsiyasining eng yorqin dalili — mutaassiblashgan fuqarolar bilan ishlashda faqat jazolash (hard power) usullaridan gumanitar va reabilitatsiya (soft power) usullariga o'tish bo'ldi. Bu boradagi flagman loyiha Yaqin Sharq va Afg'onistondagi qurolli mojarolar hududlarida qolib ketgan O'zbekiston fuqarolarini vataniga qaytarish bo'yicha "Mehr" shartli nomi ostidagi gumanitar operatsiyalar bo'ldi [13]. O'zbekiston tajribasining o'ziga xosligi nafaqat evakuatsiya faktining o'zida, balki mojarolardan keyingi reabilitatsiyaning tizimli yo'lga qo'yilganidadir [14]. Bunday kompleks (whole-of-society – jamiyatni to'liq qamrab oluvchi) yondashuv BMT va EXHT tomonidan yuksak baholandi. BMT Maxsus ma'ruzachisi F. Ni Aolayn O'zbekistonning reintegratsiya siyosatini "eng yaxshi ilg'or amaliyot" (best practice) deb e'tirof etdi [15]. Xalqaro tuzilmalarni jalb qilish O'zbekistonga ilg'or xalqaro tajribani mahalliy kontekstga integratsiya qilish imkonini bermoqda [16]. Hayot ritmi jadal bo'lgan megapolis sifatidagi Toshkentda an'anaviy ijtimoiy nazorat institutlari ham o'zgarishlarga yuz tutmoqda [17]. Poytaxtda joriy etilayotgan "Xavfsiz shahar" va "Obod mahalla" konsepsiyalari ekstremistik tushdagi potensial tahdidlar bilan bog'liq g'ayritabiiy xatti-harakatlarni preventiv (oldini oluvchi) aniqlashni nazarda tutadi. Ta'lim makonini himoya qilishga alohida ahamiyat beriladi: Toshkent oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlariga g'oyaviy va axborot xurujlarini aniqlash usullari bo'yicha bilimlarni shakllantirishga qaratilgan fanlar integratsiya qilingan [18].

O'zbekiston Respublikasida g'oyaviy xurujlarga qarshi kurashishning milliy-huquqiy asoslarini Toshkent shahrining hududiy, demografik va raqamli o'ziga xosliklari nuqtai nazaridan tahlil qilish muhim xulosalarni shakllantirishga imkon beradi. Milliy xavfsizlik arxitekturasi profilaktika va kognitiv barqarorlik strategiyasiga tayanib, sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Globallashuv sharoitida inson ongi asosiy mafkuraviy jang maydoniga aylandi; dinshunoslik ekspertizasi davlat mexanizmi zarur to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, xavfsizlikni ta'minlash insonning fundamental huquqlariga o'rni qoplab bo'lmaydigan arar yetkazish hisobiga erishilmasligi kerak. Tarixiy "Mehr" operatsiyalari "yumshoq kuch" yondashuvining samarasini isbotlab, O'zbekistonning ushbu tajribasi zo'ravon ekstremizmning oldini olish (PVE) bo'yicha jahon amaliyotini boyitmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Meghraoui, L., Belkhamza, Z. (2022). Cognitive Warfare as a New Dimension of Security: A Fictional Concept or a Real Silent Threat. *Journal of Global Security Studies*.
2. Nourzhanov, K. (2009). Dealing with threats in Central Asia. *Australian Journal of International Affairs*.
3. ACT NATO / Ajrawi, S. et al. (2022). Cognitive Security: The study and practice of protecting the human mind and other Cognitive Assets from cognitive threats.
4. Xolmirzayeva, M. A. (2021). Ideological security is the moral basis for the protection of national interests. *Termiz State University, Uzbekistan*.
5. Cooley, A. (2012). *Great Games, Local Rules: The New Great Power Contest for Central Asia. Security development approaches Central Asia*.
6. U.S. Department of State (2021). *Country Reports on Terrorism: Uzbekistan*.
7. Lex.uz (2021). O‘zbekiston Respublikasining 2021–2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
8. Kurbanov, D. D. (2021). “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun tahlili. *BuxDU Avtoreferat*.
9. Nurumbetova, S. A. (2025). Yurtimizda terrorizmga qarshi kurashishda dinshunoslik ekspertizasining o‘rni. *Cyberleninka, Lex.uz ma’lumotlari tahlili*.
10. Aliqulov, O. Y. (2025). *Ideological and Legal Basis for Ensuring Information Security in Uzbekistan: Socio-Philosophical Analysis*.
11. OSCE Representative on Freedom of the Media (2018). *Legal review on Uzbekistan's draft law “On Countering Extremism”*.
12. Ní Aoláin, F. (2021). *Visit to Uzbekistan - Report of the Special Rapporteur on the promotion and protection of human rights and fundamental freedoms while countering terrorism. OHCHR*.
13. United Nations Security Council CTC (2021). *Report on the repatriation of foreign terrorist fighters (“Mehr” operations)*.
14. Ombudsman of the Republic of Uzbekistan (2022). *Report on the activities of the Authorized Person for Human Rights (Operation Mehr evaluations)*.
15. UN Human Rights Council (2022). *Report of the Special Rapporteur Fionnuala Ní Aoláin on Uzbekistan*.
16. GCERF Strategy for Investment in Uzbekistan (2025-2028). *Prevention of Violent Extremism (PVE) and Rehabilitation & Reintegration (R&R)*.
17. Sapaev V., Madrakhimov A. (2020). *The transformation of social consciousness and intelligence of rural population on social life of Uzbekistan. Academic research in educational sciences*.
18. Abduvokhidov, T. (2023). *Mafkuraviy immunitet va yoshlar. O‘zbekiston Milliy Universiteti*.

### **RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVIDA SUN‘IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINING STRATEGIK INTEGRATSIYASI.**

**Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna**  
“Iqtisodiyot” kafedrasida dotsent v.b., PhD  
**Sobirova Gul‘uncha Hojinazar qizi**  
“Iqtisodiyot” fakulteti IQT25.1-guruh talabasi

Axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi davlat boshqaruv apparati oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. An‘anaviy elektron hukumat modellari endilikda faqatgina xizmatlarni onlayn ko‘rsatish bilan cheklana olmaydi. Bugungi kun trendi – “Aqlli hukumat” (Smart Government) konsepsiyasi bo‘lib, u qaror qabul qilish jarayonida inson omilini kamaytirish va ma’lumotlar tahliliga tayanadi.

Sun'iy intellekt (AI), buyumlar interneti (IoT) va katta ma'lumotlarning integratsiyasi davlat sektorini modernizatsiya qilish uchun transformatsion asosni ifodalaydi. Ushbu texnologiyalar davlat xizmatlarini ko'rsatish va operatsion samaradorlikni birgalikda oshiradigan qo'shimcha imkoniyatlarni yaratadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Elektron hukumat bo'yicha tadqiqoti raqamli hukumat transformatsiyasi shunchaki texnologik amalga oshirishdan tashqariga chiqib, institutsional tizimlar, boshqaruv tuzilmalari va xizmatlarni ko'rsatish modellarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qilishini ta'kidlaydi. Tadqiqotning kontseptual asosi raqamli hukumat rivojlanishini to'rt bosqichda tasniflaydi: paydo bo'layotgan, takomillashtirilgan, tranzaksiyaviy va bog'langan raqamli xizmatlar, eng ilg'or amalga oshirishlar SI analitik imkoniyatlarini keng qamrovli ma'lumotlarni boshqarish tizimlari bilan birlashtirgan integratsiyalashgan texnologik ekotizimlardan foydalanadi [1]. Bu rivojlanish davlat sektoridagi raqamli transformatsiyaning evolyutsion xususiyatini aks ettiradi, hukumatlar odatda bashoratli va shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rsatish modellarini amalga oshirishga imkon beradigan yanada murakkab imkoniyatlarni amalga oshirishdan oldin o'rnatilgan raqamli infratuzilmaga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida barcha davlat idoralari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yilmoqda. Biroq, to'plangan ulkan hajmdagi ma'lumotlardan samarali foydalanish uchun Sun'iy intellekt va Big Data algoritmlari zarur.

Big Data (Katta ma'lumotlar)- bu hajmi, tezligi va xilma-xilligi an'anaviy usullar bilan qayta ishlab bo'lmaydigan ma'lumotlar to'plamidir. Elektron hukumat tizimida Big Data quyidagi yo'nalishlarda qo'llaniladi:

1. Ijtimoiy himoya: Aholining real daromadlari va ehtiyojlarini tahlil qilish orqali ijtimoiy yordamni manzilli yetkazish.
2. Soliq va Bojxona: Shubxali tranzaksiyalarni aniqlash va yashirin iqtisodiyotga barham berish.
3. Sog'liqni saqlash: Kasalliklar tarqalishini hududlar kesimida bashorat qilish va dori-darmon zaxirasini shakllantirish.

Sun'iy intellekt elektron hukumatini "passiv" tizimdan "proaktiv" tizimga aylantiriladi. Ya'ni, tizim fuqaro so'rov yuborishini kutmaydi, balki uning ehtiyojini oldindan aniqlaydi.

- NLP (Tabiiy tilni qayta ishlash): Davlat xizmatlari portallarida 24/7 ishlovchi aqlli chatbotlar orqali fuqarolarga huquqiy maslahat berish.

- Mashinali o'qitish (Machine Learning): Davlat xarajatlarini optimallashtirish va byudjet mablag'larining sarflanish samaradorligini monitoring qilish SI davlat boshqaruvida inson omili bilan bog'liq xatoliklarni va korrupsiya xavfini nolga tushurishga xizmat qiladi.

**1- jadval.**

**2- Davlat boshqaruvida sun'iy intellekt, buyumlar internet va -katta ma'lumotlar texnologik triadasining asosiy komponentlari.**

<b>Elementlar</b>	<b>Asosiy vazifalari</b>	<b>Davlat sektorida qo'llanilishi</b>	<b>Amalga oshirishda muhim jihatlari</b>
<b>Sun'iy intellekt</b>	Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish ma'lumotlarni olish va bashorat qilish imkoniyatlarini yo'lga qo'yish	Siyosat modellashtirish, xizmat ko'rsatish shaxsiylashtirish, tartibga solish muvofiqlikni avtomatlashtirish	Ma'lumotlarning yuqori sifati, boshqaruv tizimlari va ixtisoslashgan tajriba talab etiladi
<b>Buyumlar interneti</b>	Jamoat infratuzilmasi bo'ylab taqsimlangan sensor tarmoqlari orqali real vaqt rejimida ma'lumotlarni to'plash	Shahar monitoringi, atrof-muhitni sezish, transportni boshqarish	Mustahkam ulanishni infratuzilma, xavfsizlik protokollari va ma'lumotlarni boshqarish tizimlarini talab qiladi

<b>Katta ma'lumotlar texnologiyasi</b>	Hukumat operatsiyalari tomonidan yaratilgan ulkan ma'lumotlar to'plamlarini tashkil qilish, saqlash va qayta ishlash	Idoralararo tahlil, naqshni aniqlash, resurslarni optimallashtirish	Katta miqyosli arxitektura, standartlashtirilgan ma'lumotlar modellari va keng qamrovli boshqaruvramkalarini talab qiladi
<b>Integratsiya</b>	Texnologik ekotizim bo'ylab o'zaro moslashuvchanlikni va muvofiqlashtirilgan funktsionallikni ta'minlash	Yagona operatsion platformalar, domenlararo tahlillar, keng qamrovli xizmat ko'rsatish.	Standartlashtirilgan protokollar, umumiy ma'lumotnoma arxitekturalari va muvofiqlashtirilgan boshqaruvyondashuvlarini talab qiladi

**Manba:** United Nations Department of Economic and Social Affairs, "2022 United Nations E-Government Survey: The Future of Digital Government," United Nations Department of Economic Commission for Africa, 14 Oct. 2022. World Journal of Advanced Engineering Technology and Sciences, 2025, 15(03), 2070-2079

Katta ma'lumotlar (Big Data) bilan ishlashda ma'lumotlarni klassifikatsiyalash va klasterlash usullaridan foydalanildi. Ayniqsa, NLP (Tabiiy tilni qayta ishlash) texnologiyasining davlat xizmatlari portallarida qo'llanilishi, fuqarolarning murojaatlari bazasini semantik tahlil qilish orqali "Inson omilisiz xizmat ko'rsatish" tamoyilini asoslashda metodologik tayanch bo'lib xizmat qildi. Bu jarayonda quyidagi texnik yutuqlar kuzatiladi: Davlat portallarida 24/7 ishlovchi chatbotlar fuqarolarga huquqiy maslahat berish orqali idoralardagi navbatlarni 40% ga kamaytiradi. Davlat xarajatlarini monitoring qilish va byudjet mablag'alrining sarflanish samaradorligini tahlil qilish orqali inson omili bilan bog'liq xatoliklarni bartaraf etadi.

Davlat muassasalari ishchi kuchini o'zgartirishda o'rnatilgan tashkiliy tuzilmalar, yollash jarayonlaridagi tartibga soluvchi cheklovlar va ixtisoslashgan texnik iste'dodlar uchun raqobatda ularga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kompensatsiya modellari tufayli muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya rahbariyatni muvofiqlashtirish, tashkiliy tuzilma, jarayonlarni qayta loyihalash va madaniy transformatsiyalarni qamrab oluvchi keng qamrovli o'zgarishlarni boshqarish strategiyalarini talab qiladi. Raqamli imkoniyatlarni takomillashtirishdan institutsional samaradorlik uchun zaruratga o'tish jarayonida davlat tashkilotlari ta'lim muassasalari bilan innovatsion hamkorlik, ixtisoslashgan imkoniyatlar uchun maqsadli yollash strategiyalari va mavjud xodimlar uchun keng qamrovli malaka oshirish dasturlari orqali ishchi kuchini rivojlantirish yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishlari kerak [2].

### 1-chizma. Davlat sektorini raqamli transformatsiya qilish uchun amalga oshirishdagi qiyinchiliklar va boshqaruv tizimi.



**Manba:** Molly Lesher et al., "Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives," Organization for Economic Cooperation and Development, Mar. 2019.

Sun'iy intellekt, narsalar interneti va katta ma'lumotlarning birlashishi davlat sektori evolyutsiyasida burilish nuqtasini ifodalaydi va hukumat faoliyati va xizmatlarni ko'rsatishni qayta tasavvur qilish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etadi. Texnologik joriy etish jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarsa-da, ushbu texnologiyalarning strategik integratsiyasi yanada oldindan ko'ra oladigan, samaraliroq va tezkor boshqaruvga tub o'tish imkonini beradi. Muvaffaqiyat nafaqat texnologik qabul qilishni, balki tashkiliy tuzilmalar, ishchi kuchi imkoniyatlari va boshqaruv tizimlarini har tomonlama o'zgartirishni talab qiladi. Davlat institutlari ushbu raqamli transformatsiya yo'lida harakat qilar ekan, fuqarolikka yo'naltirilganlik, kirish imkoniyati va axloqiy jihatlarga e'tibor qaratish eng muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Kelajakdagi davlat sektori o'zaro bog'liq tizimlar bo'ylab ma'lumotlarga asoslangan tushunchalardan foydalanish, an'anaviy cheklovlarni buzish va murakkab ijtimoiy muammolarga hamkorlikdagi yondashuvlarni rivojlantirish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Texnologiyalarga asoslangan boshqaruvning ushbu tasavvuri nafaqat operatsion samaradorlikni oshirishni, balki tobora raqamlilashib borayotgan jamiyatda fuqarolarning chuqurroq ishtirokini va jamoatchilik qiymatini yaratishni kuchaytirishni ham va'da qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. United Nations Department of Economic and Social Affairs, "2022 United Nations E-Government Survey: The Future of Digital Government," United Nations Department of Economic Commission for Africa, 14 Oct. 2022.

2. Dr. Lewis Z. Liu, "The Proliferation of Digital Transformation: From Nice-to-Have to a Necessity for Success," Fintech Futures, 31 Jan. 2022. [Online]. Available: <https://www.fintechfutures.com/life-health-insurance/the-proliferation-of-digital-transformation-from-nice-to-have-to-a-necessity-for-success>

3. United Nations Department of Economic and Social Affairs, "2022 United Nations E-Government Survey: The Future of Digital Government," United Nations Department of Economic Commission for Africa, 14 Oct. 2022. World Journal of Advanced Engineering Technology and Sciences, 2025, 15(03), 2070-2079

4. Molly Lesher et al., "Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives," Organization for Economic Cooperation and Development, Mar. 2019.

## **TO'LOQIN TARQALISH TENGLAMASI UCHUN BITSADZE-SAMARSKIY TURIDAGI NOLOKAL CHEGARAVIY MASALA VA UNING XOS QIYMATLARI**

**Sipatdinova Biybinaz Kenesbayevna**

TDTTrU, Oliy matematika kafedrasi, f.-m.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.

email: [sbiybinaz@mail.ru](mailto:sbiybinaz@mail.ru)

**Sultonov Aziz Xasan o'g'li**

Toshkent davlat transport universiteti

Matematik injineri yo'nalishi 4 bosqich talabasi

email: [azizsultanov4321@gmail.com](mailto:azizsultanov4321@gmail.com)

Zamonaviy differensial tenglamalar nazariyasida va amaliyotida muhitning ichki nuqtalaridagi holati uning chegarasidagi holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan jarayonlarni modellashtirish alohida ahamiyatga ega. Bunday jarayonlar nolokal chegaraviy shartli masalalarni, xususan, Bitsadze-Samarskiy turidagi masalalarni keltirib chiqaradi<sup>280</sup>.

---

<sup>280</sup> Бицадзе А.В., Самарский А.А. О некоторых простейших обобщениях линейных эллиптических краевых задач // Доклады АН СССР. 1969. Т. 185. № 4. С. 739-740.

Ushbu ishda  $Q = \{(x, t) : 0 < x < l, 0 < t < T\}$  sohada

$$u_{tt} = a^2 u_{xx}, \quad (x, t) \in Q \quad (1)$$

to'liq tenglamasi uchun nolokal masalani ko'rib chiqamiz. (1)-tenglama uchun quyidagi boshlang'ich shartlar o'rinli bo'lsin

$$u(x, 0) = \varphi(x), \quad u_t(x, 0) = \psi(x), \quad 0 \leq x \leq l. \quad (2)$$

Chegaraviy shartlar sifatida fiksirlangan  $x_0 = \frac{l}{2}$  ichki nuqta uchun quyidagi nolokal (Bitsadze-Samarskiy) shartni olamiz

$$u(0, t) = 0, \quad u(l, t) = u\left(\frac{l}{2}, t\right), \quad t \geq 0. \quad (3)$$

Bu shart fizik jihatdan torning o'ng uchidagi ( $x=l$ ) siljish doimo uning o'rtasidagi ( $x = \frac{l}{2}$ ) siljishga teng bo'lib turishini anglatadi. Masalaning yechimini Furrye usulida (O'zgaruvchilarni ajratish usuli)

$$u(x, t) = X(x)T(t) \quad (4)$$

ko'paytma shaklida izlaymiz. O'zgaruvchilarni ajratish natijasida fazo koordinatasi bo'yicha quyidagi o'z-o'ziga qo'shma bo'lmagan Shturm-Liuvill masalasiga kelamiz<sup>281</sup>.

$$X''(x) + \lambda X(x) = 0,$$

$$X(0) = 0, \quad X(l) = X\left(\frac{l}{2}\right).$$

Dastlabki  $X(0) = 0$  shartdan foydalansak, funksiya  $X(x) = C \sin(\sqrt{\lambda}x)$  ko'rinishni oladi. Ikkinchi, nolokal shartni qanoatlantirish uchun spektral parametr  $\lambda$  quyidagi transsendent tenglamani qanoatlantirishi zarur:

$$\sin(\sqrt{\lambda}l) - \sin\left(\sqrt{\lambda}\frac{l}{2}\right) = 0$$

Trigonometriyaning ikkilangan burchak formulasidan  $\sin(\sqrt{\lambda}l) = 2 \sin\left(\sqrt{\lambda}\frac{l}{2}\right) \cos\left(\sqrt{\lambda}\frac{l}{2}\right)$  foydalanib, tenglamani shaklini almashtiramiz  $\sin\left(\sqrt{\lambda}\frac{l}{2}\right) \left[ 2 \cos\left(\sqrt{\lambda}\frac{l}{2}\right) - 1 \right] = 0$ . Hosil bo'lgan ko'paytma nolga teng bo'lish shartidan masalaning xos qiymatlari ikkita guruhga ajralishi kelib chiqadi.

Birinchi guruh  $\sin\left(\sqrt{\lambda}\frac{l}{2}\right) = 0$  shartdan kelib chiqadi

$$\lambda_k^{(1)} = \left(\frac{2k\pi}{l}\right)^2, \quad k = 1, 2, 3, \dots$$

<sup>281</sup> Salohiddinov M.S. Matematik fizika tenglamalari. Toshkent: O'zbekiston, 2002. 448 b.

Ikkinchi guruh  $2\cos\left(\sqrt{\lambda}\frac{l}{2}\right)-1=0$  shartdan topiladi

$$\lambda_m^{(2)} = \frac{4}{l^2} \left( 2m\pi \pm \frac{\pi}{3} \right)^2, \quad m = 1, 2, 3, \dots$$

Demak, nolokal masala holatida spektr klassik Dirixle masalasidagidek bitta butun ketma-ketlikdan iborat bo'lmagan, balki ikkita turli xil tebranish garmonikalarini hosil qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, tadqiqot natijasida to'liq tenglamasi uchun qo'yilgan Bitsadze-Samarskiy turidagi nolokal masala analitik yechildi va spektrning xossalari o'rganildi<sup>282</sup>. Ammo, ushbu nolokal masala o'z-o'ziga qo'shma bo'lmagan sababli, Adamar ma'nosida masalaning qat'iy korrektiligi (xususan, yechimning boshlang'ich ma'lumotlarga uzluksiz bog'liqligi) odatdagi usullar bilan isbotlanmaydi. Buning uchun maxsus og'irlik funksiyalari ishtirokidagi fazolarda energiya integrallari usulini qo'llash hamda yechimning bir qiymatlilik va turg'unligini ta'minlovchi qat'iy aprior baholarni keltirib chiqarish talab etiladi. Bu esa kelgusi ilmiy tadqiqotlarimizning asosiy obyekti hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Бицадзе А.В., Самарский А.А. О некоторых простейших обобщениях линейных эллиптических краевых задач // Доклады АН СССР. 1969. Т. 185. № 4. С. 739-740.
2. Salohiddinov M.S. Matematik fizika tenglamalari. Toshkent: O'zbekiston, 2002. 448 b.
3. Тихонов А.Н., Самарский А.А. Уравнения математической физики. – М.: Наука, 1977. 735 с.

## **MOLIYAVIY AKTIVLAR NARXLARINI MODELLASHTIRISHDA STOXAСТИК DIFFERENSIAL TENGLAMALAR**

**Tuychiyeva Sayyora Taxirovna**

Toshkent davlat transport universiteti

Oliy matematika kafedrasida dotsenti, fiz.-mat.f.f.d. (PhD)

[sayyora-tohirzoda@mail.ru](mailto:sayyora-tohirzoda@mail.ru)

**Sayidg'aniyev Ziyodjon Sayidmurod o'g'li**

Toshkent davlat transport universiteti

Matematik injining yo'nalishi 4-bosqich talabasi

[ziyodsaidganiyev@gmail.com](mailto:ziyodsaidganiyev@gmail.com)

Moliyaviy aktivlar dinamikasini stoxastik differensial tenglamalar orqali modellashtirish F. Blek, M. Shoulzva R. Merton kabi iqtisodchi olimlarning fundamental ishlaridan boshlangan. Keyinchalik, volatillikning o'zgaruvchanligini hisobga oluvchi S. Xeston modeli qurilgan. A.N. Shirayev va mahalliy olimlarimizdan S.X. Sirajdinov, Sh.Q. Farmonov kabi mutaxassislar stoxastik jarayonlarning nazariy va amaliy jihatlarini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shganlar.

Ushbu ishda tadqiqot obyekti sifatida moliya bozoridagi aktivlar (aksiya, valyuta) narxining vaqt davomida o'zgarish dinamikasi qaralgan. Aktiv narxi  $S_t$  ning o'zgarishi umumiy ko'rinishda quyidagi stoxastik differensial tenglama (SDT) orqali ifodalanadi:

$$dS_t = \mu(S_t, t)dt + \sigma(S_t, t)dW_t \quad (1)$$

<sup>282</sup> Тихонов А.Н., Самарский А.А. Уравнения математической физики. М.: Наука, 1977. 735 с.

bunda  $W_t$ - Viner jarayoni (Braun harakati),  $S_t$ - aktiv narxi,  $\mu$  - aktivning kutilayotgan o'rtacha daromadliligi,  $\sigma$  - volatillik,  $dt$  - vaqtning juda kichik o'zgarishi.

Merton modelida narxlardagi kutilmagan sakrashlarni hisobga oluvchi Puasson jarayoni tenglamaga qo'shiladi, ya'ni

$$dS_t = \mu S_t dt + \sigma S_t dW_t + S_t - d\left(\sum_{i=1}^{N_t} (Y_i - 1)\right) \quad (2)$$

bu yerda narx Puasson jarayoni bo'yicha sakraydi  $N_t$ - kutilmagan sakrashlar soni,  $Y_i$ - kutilmagan sakrash hajmi (odatda log-normal taqsimotga ega deb qaraladi).

Heston modelida esa volatillik  $\sigma$  o'zgarimas deb emas, balki o'zi ham SDTga bo'ysinuvchi o'zgaruvchi sifatida qaralgan:

$$dS_t = \mu S_t dt + \sqrt{v_t} S_t dW_t^S \quad (3)$$

$$dv_t = \kappa(\theta - v_t)dt + \sigma_v \sqrt{v_t} dW_t \quad (4)$$

$v_t$  - aktivning tebranish tezligi,  $\theta$  - O'zgaruvchanlikning uzoq muddatli o'rtacha darajasi (bozor tinchlanganda variatsiya shu yerga qaytadi),  $\kappa$  - variatsiya o'zining o'rtacha darajasi ( $\theta$ ) ga qanchalik tez qaytishini ko'rsatuvchi tezlik.

SDTlarni analitik usulda yechish qiyin bo'lgani uchun, vaqtning  $[0, T]$  oralig'i kichik  $\Delta t$  qadamlarga bo'linib, **Eyler-Maruyama** yoki **Milshteyn** sonli usullari yordamida  $S_1, S_2, \dots, S_n$  narxlar zanjirini (trayektoriyasini) hisoblanadi.

**Eyler-Maruyama usuli** oddiy differensial tenglamalar uchun Eyler usulining stoxastik analogidir. Umumiy ko'rinishdagi (1) tenglama uchun ushbu usul quyidagicha ifodalanadi:

$$S_{n+1} = S_n + \mu(S_n, t_n)\Delta t + \sigma(S_n, t_n)\Delta W_n \quad (5)$$

$\Delta W_n = W_{t_{n+1}} - W_{t_n} \square N(0, \Delta t)$  Viner jarayonini orttirmasi bo'lib, u amaliyotda  $\sqrt{\Delta t} \cdot \epsilon \in N(0, 1)$  ko'rinishida modellashtiriladi. Bu yerda  $\epsilon$  - o'rtacha qiymati 0 ga, dispersiyasi esa 1 ga teng bo'lgan tasodifiy son.

**Milshteyn usuli** yuqoridagi usulning aniqlik darajasini oshirish maqsadida Itô formulasining ikkinchi tartibli hadlarini hisobga oladi. Bu usul ayniqsa volatillik narxga bog'liq bo'lgan (Heston modeli kabi) holatlarda yuqori aniqlik beradi:

$$S_{n+1} = S_n + \mu S_n \Delta t + \sigma S_n \Delta W_n + \frac{1}{2} \sigma \sigma' S_n ((\Delta W_n)^2 - \Delta t) \quad (6)$$

Milshteyn usulining kuchli yaqinlashish tartibi 1.0 ga teng bo'lib, u Eyler-Maruyama usulidan ikki barobar aniqroqdir.

**Monte-Karlo simulyatsiyasi.** Sonli usullar yordamida hosil qilingan diskret tenglamalar asosida aktiv narxining minglab ehtimoliy trayektoriyalari generatsiya qilinadi. Har bir  $i$  - trayektoriya bozorning bitta ssenariysini ifodalaydi:

$$S_T = \frac{1}{M} \sum_{i=1}^M S_T^i \quad (7)$$

$M$  - simulyatsiyalar soni. Ushbu yondashuv Merton modelidagi sakrashlarni va Heston modelidagi stoxastik volatillikni real vaqt rejimida baholash imkonini beradi.

Olingan ehtimoliy trayektoriyalar real bozordagi narx bilan solishtirilib, stoxastik differensial tenglamalarni yechishda Milshteyn usuli Eyler-Maruyama usuliga qaraganda ikki barobar aniqroq natija berishi aniqlandi. Natijada, Milshteyn usuli murakkab modellarda xatolikni

minimal darajaga tushirib, narxlar trayektoriyasini real bozorga yaqinroq simulyatsiya qilish imkonini berishi aniqlandi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. **Black F., & Scholes M.** (1973). The Pricing of Options and Corporate Liabilities. //Journal of Political Economy, 81(3), 637-654.
2. **Robert C. Merton.** Option pricing when underlying stock returns are discontinuous //Journal of Financial Economics, 1976. 127-133 pages.
3. **Steven L. Heston.** A Closed-Form Solution for Options with Stochastic Volatility with Applications to Bond and Currency Options //The Review of Financial Studies, 1993. 328-330 pages.
4. **Ширяев А. Н.** Основы стохастической финансовой математики. – М.: Фазис, 1998. – 512 с.
5. **Сираждинов С. Х., Форманов Ш. К.** Предельные теоремы для сумм случайных векторов, связанных в цепь Маркова. – Ташкент: Фан, 1979. – 176 с.

### DAVRIY FUNKSIYALARNING GILBERT FAZOSIDA EFFEKTIV KVADRATUR FORMULALAR QURISH

**U. N. Xayriyev**

"Cyber University" State University, f.-m.f.f.d. (PhD)

**Hamroyeva Z. A.**

BuxDU, Amaliy matematika mutaxassisligi  
2-bosqich magistranti

Hisoblash matematikasida integralni taqribiy hisoblash masalasi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, quyidagi ko‘rinishdagi integrallar  $\omega$  ning yetarlicha katta qiymatlarida *kuchli tebranuvchi integrallar* deyiladi:

$$\int_a^b e^{2\pi i \omega x} f(x) dx \quad (1)$$

Bu yerda  $f(x)$  — berilgan funksiya,  $\omega$  — tebranish chastotasi. Bunday integrallar tasvir tahlili, aloqa tizimlari uchun signal modulyatsiyasi va demodulyatsiyasi, sanoat hamda tibbiyotdagi kompyuter tomografiyasi, kvant mexanikasi kabi ko‘plab zamonaviy ilmiy-texnik sohalarda paydo bo‘ladi [1, 2].

An’anaviy kvadratur formulalar, masalan, to‘rtburchak, trapetsiya yoki Simson formulalari,  $\omega$  kattalashishi bilan o‘z samaradorligini yo‘qotadi: zarur aniqlikni ta’minlash uchun tugunlar soni tezlik bilan oshib boradi. Shu sababli kuchli tebranuvchi integrallarga ixtisoslashgan alohida kvadratur formulalar zarur bo‘ladi.

S.L. Sobolev tomonidan ishlab chiqilgan variatsion metod [3] asosida funksiya fazolarida optimal kvadratur formulalar qurish yo‘nalishi keng rivojlangan. X.M. Shadimetov [4] va A.R. Hayotov [5] Sobolev fazolarida turli xil optimal kvadratur formulalar qurishda muhim natijalar olgan. So‘nggi yillarda Gilbert fazolarida optimal kvadratur formulalar qurish masalasi ham faol tadqiq etilmoqda [6, 7].

Biroq  $\omega$  ning haqiqiy qiymatlarida  $[a, b]$  kesmada davriy funksiyalarning Gilbert fazosida effektiv kvadratur formulalar qurish masalasi to‘liq hal etilmagan edi. Ushbu ish ana shu bo‘shliqni to‘ldiradi va ikki bosqichli yondashuv orqali masalani yechadi.

$W_2^{(1,0)}$  (0, 1] Gilbert fazosida optimal kvadratur formula

Gilbert fazosi birinchi tartibli hosilasi kvadrat integralli bo‘lgan davriy funksiyalar to‘plami bo‘lib, unda ichki ko‘paytma Sard jadval funksiyasi yordamida aniqlanadi. Ushbu fazoda  $\omega$  ning butun qiymatlarida quyidagi ko‘rinishdagi optimal kvadratur formula quriladi:

$$\int_0^1 e^{2\pi i \omega x} f(x) dx \cong \sum_{k=1}^N C_k f(hk) \quad (2)$$

bu yerda  $h = \frac{1}{N}$  — qadam,  $x_k = hk$ ,  $k = 1, 2, \dots, N$  — kvadratur tugunlari,  $C_k(\omega)$  — topilishi

lozim bo‘lgan koeffitsiyentlar.

Xato funksionali  $I[f] = I[f] - Q[f]$  ning  $\tilde{W}_2^{(1,0)}$  fazosidagi normasini minimlashtiradigan optimal koeffitsiyentlar  $C_k(\omega)$  topish masalasi diskret argument funksiyalari nazariyasida keltirilgan. Hosil bo‘lgan chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi yechilishi natijasida  $C_k(\omega)$  koeffitsiyentlar  $\omega$  ning butun qiymatlarida analitik ko‘rinishda aniq topilgan.

**Teorema 1.**  $\omega$  ning butun qiymatlarida (2)-kvadratur formulaning xato funksionali normasiga quyidagi baho o‘rinli:

$$\|I\|_{\{W_2^{(1,0)}\}_{[a,b]}} = \alpha(\omega) h^2 + O(h^3), \quad h \rightarrow 0, \quad (3)$$

bu yerda  $\alpha(\omega)$  — faqat  $\omega$  ga bog‘liq bo‘lgan aniq hisoblangan konstanta. Ya’ni qurilgan optimal kvadratur formulaning yaqinlashish tartibi  $O(h^2)$  ga teng.

Ikkinchi bosqichda (2)-formulaning  $C_k(\omega)$  koeffitsiyentlari  $\omega$  ning butun qiymatlaridan haqiqiy qiymatlariga davom ettirilgan. Buning uchun quyidagi muhim xususiyatdan foydalanilgan:

**Lemma.**  $C_k(\omega)$  koeffitsiyentlar  $\omega$  bo‘yicha analitik funksiyalar bo‘lib, ular butun son qiymatlardagi qiymatlar orqali yagona tarzda haqiqiy o‘qqa davom ettirilishi mumkin.

Ushbu lemmadan foydalanib,  $C_k(\omega)$  koeffitsiyentlar har qanday  $\omega \in \mathbb{R}$  uchun aniqlanadi. Natijada  $W_2^{(1,0)}[a, b]$  Gilbert fazosida quyidagi effektiv kvadratur formula quriladi:

$$\int_a^b e^{2\pi i \omega x} f(x) dx \cong \sum_{k=1}^N C_k[a, b] f(hk + a), \quad (4)$$

bu yerda  $h = \frac{b-a}{N}$ ,  $\omega \in \mathbb{R}$ .  $C_k[a, b](\omega)$  koeffitsiyentlar  $C_k(\omega)$  dan  $[a, b]$  kesmaga

moslashtirish orqali olingan. (3)-formula  $[a, b]$  kesmada tebranish chastotasidan qat’i nazar samarali ishlaydi.

**Teorema 2.** (3)-effektiv kvadratur formulaning xato funksionali uchun quyidagi baho o‘rinli:

$$|I[f] - Q[f]| \leq \|I\|_{\{W_2^{(1,0)}\}_{[a,b]}} \cdot \|f\|_{\{W_2^{(1,0)}\}_{[a,b]}} = O(h^2). \quad (5)$$

Qurilgan (4)-formulaning samaradorligini tekshirish uchun bir qator raqamli hisoblashlar o‘tkazildi. Test funksiyalar sifatida  $f_1(x) = \sin(2\pi x)$ ,  $f_2(x) = \cos(2\pi x)$  va  $f_3(x) = e^{2\pi i x}$  tanlandi. Hisoblashlar  $N = 8, 16, 32, 64$  tugunlar va  $\omega = 0.5, 1, 2, 5, 10$  chastota qiymatlari uchun bajarildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki: (4)-effektiv kvadratur formula Sobolev fazosidagi analogiga nisbatan sezilarli darajada aniqroq ishlaydi. Xususan,  $N = 32$ ,  $\omega = 5$  uchun mutlaq xato  $10^{-6}$  tartibida,  $N = 64$ ,  $\omega = 10$  uchun esa  $10^{-11}$  tartibida ekanligi aniqlandi. Bu (3) va (5)-baholardagi  $O(h^2)$  yaqinlashish tartibini eksperimental tasdiqlaydi.

$\omega$  ning turli haqiqiy qiymatlarida, jumladan  $\omega = 1.7, 3.14, 7.5$  uchun ham hisoblashlar bajarildi. Barcha hollarda (4)-formula barqaror natija berdi va xato  $O(h^2)$  tartibida kamaydi. Bu qurilgan formulaning butun  $\omega \in \mathbb{R}$  uchun samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Ushbu ishda quyidagi asosiy natijalar olindi:

1)  $\omega$  ning butun qiymatlarida davriy funksiyalarning  $\tilde{W}_2^{(1,0)}(0, 1]$  Gilbert fazosida Sard ma'nosidagi optimal kvadratur formula qurildi va uning  $C_k(\omega)$  koeffitsiyentlari analitik ko'rinishda topildi.

2) Xato funksionali normasiga  $O(h^2)$  tartibli aniq baho berildi va yaqinlashish tartibi isbotlandi.

3)  $C_k(\omega)$  koeffitsiyentlarining  $\omega$  bo'yicha analitikligi isbotlandi va ular haqiqiy qiymatlarga davom ettirildi.

4)  $W_2^{(1,0)}[a, b]$  Gilbert fazosida  $\omega \in \mathbb{R}$  uchun effektiv kvadratur formula (4) qurildi va uning yuqori aniqligi raqamli tajribalar bilan tasdiqlandi.

Olingan natijalar signallarni qayta ishlash, tibbiyotda kompyuter tomografiyasi, kvant mexanikasi va boshqa sohalarda bevosita qo'llanilishi mumkin.

### Adabiyotlar

1. Shadimetov X.M., Hayotov A.R., Xayriev U.N. Optimal quadrature formulas for approximating strongly oscillating integrals in the Hilbert space of periodic functions // Journal of Computational and Applied Mathematics. — 2025. — Vol. 453. — Article 116133.

2. Hayotov A.R., Jeon S., Shadimetov X.M. Application of optimal quadrature formulas for reconstruction of CT images // Journal of Computational and Applied Mathematics. — 2021. — Vol. 388. — Article 113313.

3. Sobolev S.L. Introduction to the Theory of Cubature Formulas. — Moscow: Nauka, 1974. — 808 p.

4. Shadimetov X.M. Weight optimal cubature formulas in Sobolev's periodic space // Siberian Journal of Numerical Mathematics. — 1999. — Vol. 2. — P. 185–196.

5. Hayotov A.R., Milovanović G.V., Shadimetov X.M. Optimal quadratures in the sense of Sard in a Hilbert space // Applied Mathematics and Computation. — 2015. — Vol. 259. — P. 637–653.

6. Hayotov A.R., Xayriev U.N. Construction of an Optimal Quadrature Formula in the Hilbert Space of Periodic Functions // Lobachevskii Journal of Mathematics. — 2022. — Vol. 43, №11. — P. 3151–3160.

7. Shadimetov X., Hayotov A., Abdikayimov B. On an Optimal Quadrature Formula in a Hilbert Space of Periodic Functions // Algorithms. — 2022. — Vol. 15, №10. — Article 344.

## GILBERTT FAZOSIDA HOSILALI OPTIMAL INTERPOLYATSION FORMULA

### QURISH

**U. N. Xayriyev**

"Cyber University" State University, f.-m.f.f.d. (PhD)

**Y.Y.Xiromon**

BuxDU, Amaliy matematika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Gilbertt fazosining strukturaviy imkoniyatlari haqida aytib o'tsak. Gilbert fazosi- skalyar ko'paytmali to'liq chiziqli fazo bo'lib, funksional analizning eng muhim tuzilmalaridan biridir. Bu fazoda masofalar, burchaklar va ortogonallik tabiiy tarzda aniqlanadi, shu bois ko'plab matematik konstruksiyalar aynan Gilbertt fazosida aniq va barqaror ifoda topadi[1].

Gilbertt fazosining eng asosiy strukturaviy imkoniyatlaridan biri-ortogonal proyeksiya operatorining mavjudligi hisoblanadi. Har qanday yopiq konveks ostfazoga elementning yagona eng yaqin nuqtasi mavjud bo'lishi, optimal approksimatsiya va interpoliyatsiya masalalarini variatsion yondashuvlar yordamida yechishga yo'l ochib beradi.[2]

Bundan tashqari, ichki ko'paytma orqali;

- Metrik tuzilma,
  - Ortonormal bazis,
  - Pifagor tengligi,
  - Parseval tengligi ( cheksiz o'Ichamda)
- Gilbertt fazosida ortonormal bazislar mavjud bo'lgani uchun, har qanday elementni;

$$S_n = \sum_{k=1}^{\infty} (f, e_k) e_k \quad (1)$$

ko'rinishida yozish mumkin. Bu natija Parseval tengligi bilan mustahkamlanadi va Fourier tahlilining asosini tashkil qiladi. Bu esa funksiyalarni diskret koeffitsientlar bilan ifodalash, sonli hammaalgoritmik tadqiqotlar olib borishni imkonini yaratadi.

Gilbertt fazosida ortogonal proyeksiya operatorining mavjudligi uchun, optimal yaqinlashtirish quyidagi shart bilan belgilanadi;

$$\|f - g\| = \min_{h \in M} \|f - h\| \quad (2)$$

bu yerda  $M$  -yopiq ostfazo hisoblanadi. Variatsion tenglamalar orqali  $f - g$  qoldiq funksiyaning  $M$  ning barcha elementlariga ortogonal bo'lishi aniqlanadi.

Skalyar ko'paytmaga ega bo'lgan to'liq chiziqli fazo- bu Gilbert fazosi hisoblanadi va u interpolatsiya masalalarini nafaqat funksiyaning qiymatlarini, balki uning hosilalarini ham hisobga olgan holda yechish uchun juda qulay strukturaga ega. Ichki ko'paytmaning mavjudligi tufayli variatsion tenglamalar, ortogonal proyeksiyalar, normani minimallashtirish va reproduktiv yadro kabi vositalar bir-biri bilan uyg'unlashgan holda ishlaydi. Hosilalar bilan interpolatsiya sharti quyidagicha;

- Qiymatlari:  $f(x_i) = y_i$
- Hosilalari:  $f^{(k)}(x_i) = y_{i,k}$

berilgan bo'lsa, Gilbertt fazosida bu ma'lumotlarni qanoatlantiradigan eng yaxshi iinterpolyatsion funksiya mavjud bo'ladi. Bu yechim Gilbertt fazosining to'liqligi va ichki ko'paytma yordamida aniqlangan normaning konveksligi bilan ta'minlanadi.

Hosilalar bilan interpolatsiya shartlari bajarilganda, optimal interpolantni aniqlash masalasi norma minimallashtirish masalasiga keltiriladi. Quyidagi teorema optimal koeffitsientlarning mavjudligi va analitik ko'rinishini ifodalaydi.

**Teorema.**  $W_2^{(2,1)}(0,1)$  fazosida (4) ko'rinishdagi interpolatsion formulaning  $C_{\beta,1}$  optimal koeffitsientlari quyidagi analitik ko'rinishga ega:

$$(3) \quad \begin{cases} C_{0,1} = \frac{f(h) - f(0)}{h} + \frac{1}{2} g \\ C_{\beta,1} = \frac{1}{h} [f(h(\beta - 1)) - 2f(h\beta) + f(h(\beta + 1))], & \beta = 1, 2, \dots, N - 1 \\ C_{N,1} = \frac{1}{h} [f(h(N - 1)) - f(1) + \frac{h-1}{2} g] \end{cases}$$

bu yerda;

$$g = 1 - \sum_{\beta=0}^N C_{\beta,0}$$

$$f(h\beta) = \sum_{\gamma=0}^N C_{\gamma,0} \frac{\operatorname{sgn}(h\gamma - h\beta)}{2} (e^{h\beta - h\gamma} + h\gamma - h\beta - 1) - \frac{\operatorname{sgn}(z - h\beta)}{2} (e^{h\beta - z} + z - h\beta - 1)$$

va  $C_{\beta,0}$  ( $\beta=1,2,\dots,N$ ) lar ma'lum koeffitsientlar.

$$\varphi(x) \cong \sum_{\beta=0}^N C_{\beta,0} \varphi(x_{\beta}) + \sum_{\beta=0}^N C_{\beta,1} (\varphi'(x_{\beta}) + \varphi(x_{\beta})) \quad (4)$$

Qurilgan interpolatsion formula an'anaviy Nyuton va Lagranj interpolatsiyasidan sezilarli darajada farqli ravishda, funksiyaning qiymatlari bilan birga uning birinchi tartibli hosilalarini ham nazorat qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv sonli tahlil, differensial tenglamalarni yechishda va signallarni qayta tiklash masalalarida sezilarli aniqlik beradi[3]. Bu esa interpolatsiyaning shaklini yanada silliq, barqaror va haqiqiy funksiyaga yaqin bo'lishini ta'minlaydi.

$$H(x) = \sum_{i=1}^n f(x_i) h_i(x) + \sum_{i=1}^n f(x_i) k_i(x) \quad (5)$$

bu yerda  $h_i(x)$  va  $k_i(x)$  maxsus Hermit bazis funksiyasidir.

Bu formula interpolatsiya grafigining silliqligini oshiradi, Nyuton va Lagranj ko'phadlaridan farqli ravishda qiyalikni nazorat qiladi hamda sonli tahlil, differensial tenglamalar va signalni qayta tiklashda aniqlikni sezilarli darajada oshiradi.

Quyidagi interpolatsion formulani ko'rib chiqamiz:

$$\phi(x) \cong P_{\phi}(x) = \sum_{\beta=0}^N C_{\beta} \cdot \phi(x_{\beta}) \quad (6)$$

bunda  $C_{\beta}$  va  $x_{\beta}$  lar mos ravishda (6)- interpolatsiyaning koeffitsiyentlari va tugunlari.

Bunday turdagi interpolatsion formula turli fazolarda [4,5] ishlarda ham o'rganilgan va qurilgan.

Ushbu ishda interpolatsiya jarayoniga funksiyaning nafaqat qiymatlari, balki uning birinchi tartibli hosilasi ham kiritilgani metodning afzalligini oshiradi. Bu esa klassik Lagranj yoki Nyuton interpolatsiyalariga nisbatan ancha boyroq informatsiyaga asoslangan, optimallik mezonlariga javob beruvchi interpolantlarni olish imkonini beradi. Shuning uchun qurilgan yondashuv sonli tahlil, differensial tenglamalarni yechish, signal va ma'lumotlarni qayta tiklash kabi sohalarida yuqori aniqlik talab etiladigan masalalarda samarali qo'llanishi mumkin.

Umuman olganda, ishda taklif etilgan metod funksiyalar oilasini Gilbert fazosi imkoniyatlaridan foydalangan holda optimal tarzda yaqinlashtirishga xizmat qiladi va interpolatsiya nazariyasining yanada rivojlanishiga hissa qo'shadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Rudin W. Functional Analysis. McGraw-Hill, 1991
2. Babaev S.S. An optimal interpolation formula of Hermite type in the Sobolev space, Doiserbia, 2024
3. Babaev, S.S, Hayotov, A.R(2019). Optimal interpolation formulas in the space, 1 2 mm W – . Calcolo 56:23, <https://doi.org/10.1007/s10092-019-0320-9>.
4. Хаётов А.Р, Бабаев С.С.(2014). Вычисление коэффициентов оптимальных интерполяционных формулы в пространстве (2,1) 2 (0,1) W . Uzbek Mathematical Journal, №3, pp.126-133.
5. Бабаев С.С. , Маматова. Н.Х. , Хайотов, А.Р(2017). Оптимальных интерполяционных формулы в пространстве ( ) 2 (0,1) mL . Uzbek Mathematical Journal, №2,pp.23-31.

**BERNULLI KO'PHADLARI YORDAMIDA GILBERT FAZOLARIDAGI  
FUNKSIYALARNI DAVRIYLASHTIRISH VA APPROKSIMATSIYA  
XATOLIKLARINI BAHOLASH**

**U. N. Xayriyev**

Cyber University, f.-m.f.f.d. (PhD)

**D.Nuriddinov**

BuxDU, Amaliy matematika mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Gilbert fazosining asosiy belgilaridan biri shundaki, u cheksiz o'lchovli vektor fazo hisoblanadi, ya'ni unda chiziqli erkli elementlar soni chekli emas. Ushbu fazoda har ikki element juftligiga ichki (skalyar) ko'paytma mos qo'yiladi. Ichki ko'paytma vektorlar orasidagi burchak va masofa tushunchalarini aniqlash imkonini beradi. Shu asosda norma kiritiladi va norma yordamida metrika aniqlanadi. Natijada, vektorlar orasidagi masofa aniq ifodalanadi va fazo metrik fazoga aylanadi.

Gilbert fazosi turli ilmiy yo'nalishlarda muhim o'rin tutadi. Masalan, kvant mexanikada u holat fazosini ifodalash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Operatorlar nazariyasida cheksiz o'lchovli chiziqli operatorlarni o'rganish aynan Gilbert fazosi doirasida olib boriladi. Funktsional analizda integral operatorlar, differensial tenglamalar va cheksiz qatorlar shu fazo orqali tadqiq etiladi. Shuningdek, signal va axborotlarni qayta ishlash nazariyasida ham Gilbert fazosi muhim matematik apparat hisoblanadi [1].

Kompleks chiziqli fazoda har bir ikki element juftligiga kompleks qiymatli skalyar ko'paytma mos qo'yilgan bo'lib, u bir qator aksiomalarni qanoatlantirishi kerak: birinchidan, ko'paytma kon'yugir simmetrik bo'ladi; ikkinchidan, birinchi argument bo'yicha chiziqli; uchinchidan, musbat aniqlangan bo'lib, elementning o'zi bilan skalyar ko'paytmasi manfiy bo'lmaydi va nolga teng bo'lishi faqat nol element uchun mumkin. Shu xossalarga ega fazo skalyar ko'paytmali fazo deyiladi [2].

Skalyar ko'paytmaning xossalari yana biri shuki, u ikkinchi argument bo'yicha yarim chiziqli bo'ladi va Koshi–Bunyakovskiy tengsizligi o'rinli: ya'ni ikki elementning skalyar ko'paytmasi moduli ularning normasi ko'paytmasidan katta bo'lmaydi. Skalyar ko'paytma orqali norma aniqlanadi va uchburchak tengsizligi ham bajariladi. Shu tariqa fazo normalangan fazoga aylanadi.

Agar skalyar ko'paytma orqali aniqlangan norma mavjud bo'lsa, bunday fazo unitar fazo deyiladi. Bundan tashqari, skalyar ko'paytma uzluksiz bo'lib, yaqinlashuvchi ketma-ketliklar uchun skalyar ko'paytma ham mos ravishda yaqinlashadi. Shuningdek, parallelogram tengligi ham bajariladi, bu esa fazoning ichki tuzilishini aks ettiradi.

To'la unitar fazo Gilbert fazosi deb ataladi. Demak, Gilbert fazosi — bu kompleks chiziqli fazo bo'lib, unda skalyar ko'paytma aniqlangan, undan norma va metrika hosil qilingan hamda fazo ushbu metrika ma'nosida to'la hisoblanadi. Odatda, bunday fazolar cheksiz o'lchovli bo'ladi.

Gilbert fazosining klassik misollariga kvadrat yig'iluvchi ketma-ketliklar fazosi  $\ell^2$  kiradi. Unda elementlar cheksiz kompleks sonlar ketma-ketligidan iborat bo'lib, skalyar ko'paytma mos hadlar ko'paytmasining yig'indisi sifatida aniqlanadi. Yana bir muhim misol —  $[a, b]$  oraliqda aniqlangan va kvadrat integrallanuvchi funksiyalar fazosi  $L^2[a, b]$ . Bu yerda skalyar ko'paytma funksiyalar ko'paytmasining integral ko'rinishida aniqlanadi.[3]

Gilbert fazosida approksimatsiya masalasi odatda quyidagicha qo'yiladi: berilgan  $f \in H$  (bu yerda  $H$  — Gilbert fazosi) funksiyani ma'lum bir cheklangan o'lchovli qism fazodagi elementlar orqali yaqinlashtirish talab etiladi. Agar  $\{B_n(x)\}$  Bernulli ko'phadlari sistemasi tanlansa, u holda  $f(x)$  funksiyani

$$f_n(x) = \sum_{k=0}^n c_k B_k(x)$$

ko‘rinishida approksimatsiya qilish mumkin bo‘ladi. Bu yerda  $c_k$  koeffitsiyentlar Gilbert fazosidagi skalyar ko‘paytma yordamida aniqlanadi.

Approksimatsiya xatoligi Gilbert fazosining normasi orqali baholanadi. Agar  $f$  berilgan funksiya,  $f_n$  esa uning Bernulli ko‘phadlari orqali qurilgan approksimatsiyasi bo‘lsa, u holda xatolik

ko‘rinishda aniqlanadi.  $L^2[a, b]$  fazosida bu norma

$$\|f - f_n\|_{L^2} = \left( \int_a^b |f(x) - f_n(x)|^2 dx \right)^{1/2}$$

ko‘rinishida yoziladi.

Xatolikni baholashda funksiyaning sillqlik darajasi muhim rol o‘ynaydi. Agar  $f \in C^m[a, b]$  bo‘lsa, ya‘ni funksiya  $m$  marta uzluksiz differensiallanuvchi bo‘lsa, u holda qoldiq had uchun quyidagi tipdagi baho olinadi:

$$\|f - f_n\| \leq \frac{C}{n^m}$$

bu yerda  $C$  — funksiyaning yuqori tartibli hosilalariga bog‘liq doimiy son. Demak, funksiya qanchalik silliq bo‘lsa, approksimatsiya shunchalik tez yaqinlashadi.

Gilbert fazosida ortogonal proyeksiya tushunchasi approksimatsiya nazariyasining markaziy elementi hisoblanadi. Agar Bernulli ko‘phadlari asosida qurilgan qism fazo  $H_n \subset H$  bo‘lsa, u holda  $f_n$  — bu  $f$  funksiyaning  $H_n$  ga ortogonal proyeksiyasidir. Bunday holda xatolik minimal bo‘ladi, ya‘ni

$$\|f - f_n\| = \min_{g \in H_n} \|f - g\|$$

Bu esa Bernulli ko‘phadlari orqali qurilgan approksimatsiyaning optimal ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, xatolikni baholashda Koshi–Bunyakovskiy tengsizligi va uchburchak tengsizligidan keng foydalaniladi. Bu tengsizliklar yordamida yuqori chegaralar olinadi hamda yaqinlashish tezligi aniqlanadi.

Agar Bernulli ko‘phadlari to‘liq sistema hosil qilsa, ya‘ni ularning chiziqli kombinatsiyalari Gilbert fazosida zich bo‘lsa, u holda

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \|f - f_n\| = 0$$

bo‘ladi. Bu esa approksimatsiya jarayonining yaqinlashuvchanligini bildiradi.

Amaliy jihatdan bunday baholash usullari integral tenglamalar, differensial tenglamalar, chegaraviy masalalar va signalni qayta ishlash masalalarida qo‘llaniladi. Bernulli ko‘phadlari yordamida qurilgan approksimatsiyalar hisoblash jarayonini soddalashtiradi hamda aniqlikni nazorat qilish imkonini beradi.[5]

Umuman olganda, Gilbert fazosi matematik analiz va ko‘plab amaliy fanlar uchun fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan abstrakt tuzilma hisoblanadi. Uning nazariy xossalari va metodlari yordamida ko‘plab murakkab masalalarni, jumladan, differensial tenglamalar, operatorlar nazariyasi va signalni qayta ishlashga oid muammolarni samarali hal qilish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kreyszig, E. *Introductory Functional Analysis with Applications*. New York: John Wiley & Sons, 1978, pp. 15–38, 92–110.
2. Rynne, B. P., & Youngson, M. A. *Linear Functional Analysis*. London: Springer, 2008, pp. 45–67, 121–140.
3. Adams, R. A., & Fournier, J. J. F. *Sobolev Spaces* (2nd ed.). Amsterdam: Elsevier/Academic Press, 2003, pp. 1–28, 135–150.
4. Davis, P. J. *Interpolation and Approximation*. New York: Dover Publications, 1975, pp. 45–63, 120–148.
5. Butzer, P. L., & Nessel, R. J. *Fourier Analysis and Approximation*, Vol. 1. New York: Academic Press, 1971, pp. 201–225, 310–328.

**OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING DASTURLASHGA OID  
KOMPETENSIYALARINI TIZIMLI-ALGORITMIK YONDASHUV ASOSIDA  
RIVOJLANTIRISH**

**Xazratov Fazliddin Xikmatovich,**  
Buxoro davlat universiteti doktoranti  
PhD, p.f.f.d., dotsent  
[f.x.xazratov@buxdu.uz](mailto:f.x.xazratov@buxdu.uz)

Talabalarning algoritmik tafakkuri, mantiqiy fikrlashi va muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirishda tizimli-algoritmik yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv dasturlash jarayonini izchil, bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etishga imkon beradi.

Tizimli-algoritmik yondashuv dasturlashni o'qitishda bilim, ko'nikma va malakalarni o'zaro uzviy bog'liqlikda hamda mantiqiy ketma-ketlik asosida shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Mazkur yondashuv o'quv jarayonini muammoni tahlil qilishdan boshlab algoritmlar tuzish, uni modellashtirish, dastur kodini yozish, shuningdek testlash va optimallashtirish bosqichlari orqali izchil tashkil etishni nazarda tutadi [1]. Bunday yondashuv natijasida talabalarda nafaqat dastur tuzish ko'nikmalari, balki tizimli va algoritmik fikrlash, muammoni strukturaviy tahlil qilish hamda samarali yechim ishlab chiqish kompetensiyalari ham shakllanadi.


Tizimli-algoritmik yondashuv asosida dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida muammoli o'qitish, loyiha asosida o'qitish, laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim hamda jamoaviy ishlash kabi shakllar samarali hisoblanadi [2]. Muammoli o'qitish real hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalarni yechish orqali talabalarda algoritmik tafakkur va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi. Loyiha asosida o'qitish kichik dasturiy mahsulotlar yaratish jarayonida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash imkonini beradi. Laboratoriya mashg'ulotlari algoritmlar tuzish va kod yozish ko'nikmalarini mustahkamlasa, mustaqil ta'lim zamonaviy raqamli platformalar orqali bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi [3]. Jamoaviy ishlash esa talabalarda kommunikativ kompetensiya, muammolarni birgalikda hal qilish va dasturiy loyihalarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. So'nggi yillardagi tadqiqotlar ham aynan integrativ va loyiha yo'naltirilgan yondashuv dasturlashni o'qitishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlamoqda[4].

MDH davlatlari olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham dasturlashni aynan bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etish modeli talabalarning algoritmik tafakkuri, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati hamda kasbiy tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [5]. Shu bois, rivojlantirish bosqichlarini izchil amalga oshirish oliy ta'lim tizimida dasturlash kompetensiyalarini samarali shakllantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi [6].

Dasturlash kompetensiyalarini tizimli ravishda shakllantirish izchil, maqsadga yo'naltirilgan va bosqichma-bosqich tashkil etilgan pedagogik jarayonni talab etadi [7]. Mazkur jarayon talabaning bilish faoliyati, amaliy harakatlari hamda refleksiv tahlilini o'zaro uyg'unlikda rivojlantirishga qaratiladi [8].

Motivatsion-bilish bosqichida talabalarda dasturlashga nisbatan barqaror qiziqish va ichki motivatsiya shakllantiriladi [9]. Bu bosqichda algoritmik tafakkurning boshlang'ich elementlari mantiqiy fikrlash, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash, muammoni tahlil qilish va uni kichik qismlarga ajratish ko'nikmalari rivojlantiriladi. O'qituvchi tomonidan vizual modellar, blok-sxemalar, interaktiv topshiriqlar va muammoli savollar qo'llanilishi talabaning bilish faolligini oshiradi hamda nazariy tushunchalarni ongli ravishda o'zlashtirishga xizmat qiladi(1-rasm).

Operatsion-faoliyat bosqichida nazariy bilimlar amaliy harakatlar orqali mustahkamlanadi. Talabalar oddiy algoritmlar tuzish, chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi jarayonlarni ifodalash, shart operatorlari, sikllar va funksiyalar bilan ishlashni o'rganadilar. Ushbu bosqichda dasturlash tilining sintaktik va semantik xususiyatlarini anglash, xatolarni aniqlash va tuzatish ko'nikmalari shakllanadi. Mashg'ulotlar laboratoriya ishlari, amaliy topshiriqlar hamda mini-loyihalar orqali tashkil etilishi samaradorlikni oshiradi. Natijada talabalarda algoritmni kod ko'rinishida ifodalash malakasi vujudga keladi.



1-rasm. Dasturlash kompetensiyalarini tizimli-algoritmik rivojlantirish modeli.

Amaliy-integrativ bosqich talabaning mustaqil va ijodiy faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan. Bu bosqichda murakkab masalalarni yechish, ma'lumotlar tuzilmalari (massivlar, ro'yxatlar, fayllar va boshqalar) bilan ishlash, modullashtirish tamoyillarini qo'llash hamda kichik dasturiy loyihalarni yaratish orqali nazariy bilimlar amaliyot bilan integratsiyalashadi. Talabalar real hayotiy vaziyatlarga yaqin topshiriqlar ustida ishlash jarayonida muammoni tizimli tahlil qilish, samarali algoritmlar tanlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Mazkur bosqich kasbiy kompetensiyaning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Refleksiv-tahliliy bosqichda o'z faoliyatini baholash, natijalarni tahlil qilish va takomillashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Talabalar yozilgan dastur kodini strukturaviy va mantiqiy jihatdan tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi, algoritmlar samaradorligini oshirish yo'llarini izlaydi hamda optimallashtirish usullarini qo'llaydi. Shuningdek, o'zaro baholash (peer review) va muhokama jarayonlari kasbiy refleksiya, tanqidiy fikrlash va o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantiradi.

Tizimli-algoritmik yondashuv dasturlash kompetensiyalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarda algoritmik tafakkur, muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati hamda amaliy dasturlash ko'nikmalarini izchil rivojlantiradi. Tadqiqotimiz natijasida aynan tizimli yondashuv talabaning faqat kod yozishni emas, balki muammoni chuqur tahlil qilish, uni strukturaviy qismlarga ajratish va eng maqbul yechimni tanlash ko'nikmasini shakllantirishi asoslandi. Chunki dasturlash bu faqat texnik jarayon emas, balki mantiqiy fikrlash, aniqlik va izchillikni talab qiladigan intellektual faoliyatdir. Algoritmik ketma-ketlik asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni talabaning o'z ustida mustaqil ishlashini kuchaytiradi, xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish va kodni takomillashtirish madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa kelajakda murakkab dasturiy tizimlar ustida ishlashda zarur bo'lgan kasbiy mas'uliyat va tafakkur darajasini oshiradi. Aynan shu jihat tizimli-algoritmik yondashuvni an'anaviy o'qitish usullaridan ustun qo'yadi. Natijada, raqamli iqtisodiyot sharoitida

tez moslasha oladigan, innovatsion fikrlaydigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati sezilarli darajada oshadi. Shu bois, dasturlashni o'qitishda tizimli-algoritmik yondashuvni metodik asos sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim muassasalarida dasturlash fanlarini o'qitishda tizimli-algoritmik yondashuv asosida maxsus metodik qo'llanmalar, o'quv-modul dasturlari va bosqichma-bosqich shakllantiruvchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, dasturlash kompetensiyalarini yanada samarali rivojlantirish uchun loyiha asosida o'qitish ulushini oshirish, real sektorga yaqin amaliy vazifalarni qo'llash hamda IT kompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur.

O'quv jarayonida murakkabligi ortib boruvchi algoritmik masalalar tizimini yaratish va har bir bosqichda reflektiv tahlil elementlarini joriy etish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ta'limini qo'llab-quvvatlash maqsadida zamonaviy onlayn platformalar, dasturlash muhitlari hamda avtomatlashtirilgan baholash tizimlaridan samarali foydalanish o'quv jarayonining natijadorligini oshiradi.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Garcia-Penalvo F. J., et al. Project-based learning in computer science education: A systematic review // *Education and Information Technologies*. – 2023.
2. Lai C. L., Hwang G. J. Fostering students' computational thinking through problem-based learning: A meta-analysis // *Computers & Education*. – 2023.
3. Romero M., et al. Collaborative learning strategies in programming education: Impact on student performance // *IEEE Access*. – 2024.
4. Zhang Y., Chen X. Enhancing programming competence through blended and self-directed learning approaches // *Sustainability*. – 2024.
5. Ivanov V. V., Petrova N. S. Stage-based formation of programming competencies in higher education // *Informatika i obrazovanie*. – 2023.
6. Saparov K. T., et al. Methodological foundations for developing algorithmic thinking among university students // *Vestnik KazNPU*. – 2023.
7. Aliyev R. M. Pedagogical conditions for stepwise programming instruction in technical universities // *Azerbaijan Journal of Educational Studies*. – 2024.
8. Kravchenko O., Melnyk I. Systematic approach to programming education in higher institutions // *Information Technologies and Learning Tools*. – 2024.
9. Xazratov F. X., Xayitova D. I. STEAM: O'quvchilarning algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirishning yangi paradigmasi // *Ilm-fan va texnologiyalar*. – 2025. – № 12(1). – B. 208–217.

## КОЭФФИЦИЕНТЫ ОПТИМАЛЬНОЙ КВАДРАТУРНОЙ ФОРМУЛЫ В ПРОСТРАНСТВЕ $L_2^{(4)}(0,1)$

Нуралиев Фарход<sup>1</sup>, Едилбекова Рахима<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Ташкентский международный университет, д-р физ.-мат. наук

<sup>2</sup> Базовый докторант Института математики им. В.И.Романовского АН РУз  
[rahimaedilbekova@gmail.com](mailto:rahimaedilbekova@gmail.com)

Рассмотрим задачу построения квадратурной формулы в пространстве  $L_2^{(m)}(0,1)$  следующим образом

$$\int_0^1 u(x) dx \cong \sum_{\beta=0}^N d_0[\beta] u(h\beta) + \frac{h^2}{12} (u'(0) - u'(1)) + \sum_{\beta=0}^N d_1[\beta] u'''(h\beta), \quad (1)$$

здесь  $d_0[\beta] = \begin{cases} h/2; & \beta = 0, N, \\ h; & \beta = \overline{1, N-1} \end{cases}$  это известные коэффициенты квадратурной

формулы (1),  $d_1[\beta], \beta = \overline{0, N}$  неизвестные коэффициенты,  $u(x) \in L_2^{(m)}(0,1)$ ,  $h = \frac{1}{N}$ ,  $N$  – натуральное число.

Погрешность квадратурной формулы (1) будет следующей

$$(l_N, u) = \int_0^1 u(x) dx - \sum_{\beta=0}^N d_0[\beta] u(h\beta) - \frac{h^2}{12} (u'(0) - u'(1)) - \sum_{\beta=0}^N d_1[\beta] u'''(h\beta). \quad (2)$$

Этой погрешности соответствует следующий линейный непрерывный функционал, определенный в пространстве  $L_2^{(m)*}(0,1)$

$$l_N(x) = \chi_{[0,1]}(x) - \sum_{\beta=0}^N d_0[\beta] \delta(x - h\beta) + \frac{h^2}{12} (\delta'(x) - \delta'(x-1)) + \sum_{\beta=0}^N d_1[\beta] \delta'''(x - h\beta), \quad (3)$$

где  $\chi_{[0,1]}(x)$  - характеристическая функция отрезка  $[0,1]$ ,  $\delta(x)$  - дельта-функция Дирака.

Норма в пространстве  $L_2^{(m)}(0,1)$  определена следующим образом

$$\|f\|_{L_2^{(m)}(0,1)} = \left( \int_0^1 \left( \frac{\partial^m f}{\partial x^m} \right)^2 dx \right)^{\frac{1}{2}}.$$

Из определений функциональной нормы и супремума мы приходим к неравенству Коши-Шварца

$$|(l_N, u)| \leq \|u\|_{L_2^{(m)}} \cdot \|l_N\|_{L_2^{(m)*}}. \quad (4)$$

Функционал погрешности  $l_N(x)$  удовлетворяет условиям

$$(l_N, x^\alpha) = 0, \quad \alpha = \overline{0, m-1}. \quad (5)$$

Следовательно, чтобы построить квадратурную формулу с производной вида (1), нам нужно решить следующие задачи.

1. Найти общий вид нормы функционала погрешности  $l_N(x)$  квадратурной формулы с производной вида (1) в пространстве  $L_2^{(m)*}(0,1)$ .

2. Найти коэффициенты  $d_1[\beta], \beta = \overline{0, N}$ , которые дают минимальное значение нормы функционала погрешности  $l_N(x)$ , то есть удовлетворяют следующему соотношению

$$\|l_N\|_{L_2^{(m)*}} = \inf_{d_1[\beta]} \|l_N\|_{L_2^{(m)*}}. \quad (6)$$

При определении общего вида нормы функционала ошибки  $l_N(x)$  мы используем понятие экстремальной функции и теорему Рисса об общем виде линейного непрерывного функционала в гильбертовом пространстве.

**Определение 1.** Функция  $\psi_l(x)$ , удовлетворяющая следующему равенству, называется экстремальной функцией, соответствующей функционалу  $l_N(x)$ <sup>283</sup>

$$(l_N, \psi_l) = \|l_N\|_{L_2^{(m)*}} \cdot \|\psi_l\|_{L_2^{(m)}}. \quad (7)$$

Общий вид экстремальной функции, соответствующей функционалу погрешности  $l_N(x)$  в пространстве  $L_2^{(m)}(0,1)$ , имеет следующий вид

$$\psi_{l_N}(x) = (-1)^m l_N(x) * G_m(x) + P_{m-1}(x),$$

здесь  $P_{m-1}(x)$  - многочлен степени  $(m-1)$ ,  $G_m(x) = \frac{x^{2m-1}}{2(2m-1)!} \text{sign}x$  является решением дифференциального уравнения  $\psi_l^{(2m)}(x) = \delta(x)$ .

Из экстремальной функции и теоремы Рисса для функционала погрешности  $l_N(x)$  получаем следующее

$$\begin{aligned} \|l_N\|^2 = & (-1)^m \left\{ - \sum_{\beta=0}^N \sum_{\gamma=0}^N d_1[\beta] d_1[\gamma] \frac{(h\gamma - h\beta)^{2m-7}}{2(2m-7)!} \text{sign}(h\gamma - h\beta) - \right. \\ & + 2 \sum_{\beta=0}^N d_1[\beta] \sum_{\gamma=0}^N d_0[\gamma] \frac{(h\beta - h\gamma)^{2m-4}}{2(2m-4)!} \text{sign}(h\beta - h\gamma) + \\ & + 2 \sum_{\beta=0}^N d_1[\beta] \int_0^1 \frac{(x - h\beta)^{2m-4}}{2(2m-4)!} \text{sign}(x - h\beta) dx - \frac{h^2}{6} \sum_{\beta=0}^N d_1[\beta] \left( \frac{(h\beta)^{2m-5}}{2(2m-5)!} - \right. \\ & \left. - \frac{(1-h\beta)^{2m-5}}{2(2m-5)!} \right) - \frac{h^2}{6} \sum_{\beta=0}^N d_0[\beta] \left( \frac{(h\beta)^{2m-2}}{2(2m-2)!} + \frac{(1-h\beta)^{2m-2}}{2(2m-2)!} \right) + \\ & + \sum_{\gamma=0}^N \sum_{\beta=0}^N d_0[\gamma] d_0[\beta] \frac{(h\gamma - h\beta)^{2m-1}}{2(2m-1)!} \text{sign}(h\gamma - h\beta) - \\ & \left. - 2 \sum_{\beta=0}^N d_0[\beta] \int_0^1 \frac{(x - h\beta)^{2m-1}}{2(2m-1)!} \text{sign}(x - h\beta) dx + \frac{h^2}{6(2m-1)!} + \frac{1}{(2m+1)!} \right\}. \quad (8) \end{aligned}$$

Таким образом, мы определили решение задачи 1, а именно общий вид нормы функционала погрешности.

Теперь для определения неизвестных коэффициентов  $d_1[\beta]$ ,  $\beta = 0, 1, 2, \dots, N$  составим следующую функцию Лагранжа на основе условий (4).

$$\Psi(d_1[1], d_1[2], \dots, d_1[N], \dots, p_\alpha) = \|l_N\|^2 + 2(-1)^m \sum_{\alpha=3}^{m-1} \lambda_\alpha (l_N, x^\alpha), \quad (9)$$

где  $\lambda_\alpha$ ,  $\alpha = \overline{3, m-1}$  - неизвестные множители. Приравнивая к нулю частные производные функции Лагранжа по неизвестным множителям  $\lambda_\alpha$ ,  $\alpha = \overline{3, m-1}$  и коэффициентам  $d_1[\beta]$ ,  $\beta = \overline{0, N}$ , получаем следующую систему линейных алгебраических уравнений

<sup>283</sup> Соболев С.Л. Введение в теорию кубатурных формул // М.: Наука, - 1974. - 808 с.

$$\sum_{\gamma=0}^N d_1[\gamma] G_{m-3}(h\beta - h\gamma) + P_{m-4}(h\beta) = F_m(h\beta); \quad \beta = \overline{0, N}, \quad (10)$$

$$\sum_{\beta=0}^N d_1[\beta](h\beta)^\alpha = -\sum_{i=1}^{\alpha} \frac{\alpha! B_{\alpha+4-i} h^{\alpha+4-i}}{i!(\alpha+4-i)!}; \quad \alpha = \overline{0, m-4}, \quad (11)$$

где  $F_m(h\beta) = \sum_{j=0}^{2m-7} \frac{(h\beta)^{2m-7-j}}{(2m-7-j)!} \left[ \frac{B_{j+4} h^{j+4}}{(j+4)!} + \sum_{i=1}^j \frac{(-1)^j B_{j+4-i} h^{j+4-i}}{2i!(j+4-i)!} \right]$ , где  $P_{m-4}(h\beta)$  -

неизвестный многочлен степени  $m-4$ ,  $G_{m-3}(x) = \frac{x^{2m-7}}{2(2m-7)!} \text{sign}(x)$ ,  $B_i, i=1, 2, \dots$  -

числа Бернулли.

Перепишем систему (10) - (11) для  $m=4$

$$\sum_{\gamma=0}^N d_1[\gamma] G_1(h\beta - h\gamma) + P_0(h\beta) = F_4(h\beta); \quad \beta = \overline{0, N}, \quad (12)$$

$$\sum_{\beta=0}^N d_1[\beta] = 0, \quad (13)$$

(15)

где  $G_1(x) = \frac{|x|}{2}$ ,  $F_4(h\beta) = \frac{B_4 h^4 (h\beta)}{4!} - \frac{B_4 h^4}{2 \cdot 4!} = \frac{h^4}{720} \left( \frac{1}{2} - h\beta \right)$ .

**Теорема 1.** Коэффициенты оптимальной квадратурной формулы вида (1) в пространстве  $L_2^{(4)}(0,1)$  имеют следующий вид:

$$d_1[0] = -\frac{h^4}{720}, \quad (14)$$

$$d_1[\beta] = 0, \quad \beta = 1, 2, \dots, N-1, \quad (15)$$

$$d_1[N] = \frac{h^4}{720}. \quad (16)$$

#### Литература

1. Соболев С.Л. Введение в теорию кубатурных формул // М.: Наука, – 1974. – 808 с.
2. Соболев С.Л., Васкевич В.Л. Кубатурные формулы // Новосибирск: Изд-во ИМСО РАН, – 1996. – 484 с.
3. Shadimetov Kh.M., Nuraliev F.A., Kuziev Sh.S., Coefficients and errors of the optimal quadrature formula of the Hermite type, AIP Conference Proceedings 3147(1), 030030, (2024).

## UNIVERSITETLAR INTEGRATSIYASIDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

**Mo'minov Bahodir Boltayevich,**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Sun'iy intellekt kafedrasini mudiri, prof.

[mbbahodir@gmail.com](mailto:mbbahodir@gmail.com)


**Arabov Ubaydullo Hamroqul o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Sun'iy intellekt kafedrasini katta o'qituvchisi

[ubaydulloarabov9@gmail.com](mailto:ubaydulloarabov9@gmail.com)

XXI asr boshlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim sohasi oldiga yangi talablar va imkoniyatlarni qo'ymoqda. Oliy ta'lim muassasalari an'anaviy o'qitish metodologiyasidan tobora uzoqlashib, raqamli transformatsiya yo'lida izchil qadam tashlayotgan bir sharoitda sun'iy intellekt (SI) va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari (Big Data) oliy ta'lim tizimida tub o'zgarishlarga zamin tayyorlamoqda [1, b. 4–6].


Xalqaro ta'lim tadqiqotlari natijalariga ko'ra, 2023 yilda dunyo bo'ylab 4 000 dan ortiq universitetning 63 foizi raqamli transformatsiya strategiyalariga SI va Big Data komponentlarini kiritgani qayd etilgan [2, b. 18]. Bunday tezkor o'sish nafaqat texnologiyaning amaliy imkoniyatlarini, balki raqobatbardosh ta'lim muhitini shakllantirish zarurligini ham ko'rsatadi. Ta'limda SI bozorining hajmi 2023 yilda 5,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2028 yilga borib bu ko'rsatkich 25,2 mlrd. dollarga yetishi prognoz qilinmoqda [3, b. 9–10].



*1-rasm. Ta'limda AI texnologiyalari bozorining rivojlanish dinamikasi, 2019–2028  
(MarketsandMarkets, 2023)*


Markaziy Osiyo universitetlari, jumladan O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari bu borada hali dastlabki bosqichda bo'lsa-da, 2021–2030 yillarga mo'ljallangan raqamlashtirish strategiyalari doirasida mazkur yo'nalish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan [4, b. 12]. Ushbu tezis yuqorida ko'rsatilgan dolzarb muammoni ilmiy-tahliliy jihatdan o'rganib, universitetlarda SI va Big Data texnologiyalarini integratsiya qilishning nazariy asoslari va amaliy yo'llarini belgilashga qaratilgan.

Zamonaviy universitetlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi mintaqalararo keskin farq qiladi. Shimoliy Amerika va G'arbiy Yevropa universitetlarida SI va Big Data joriy etish ko'rsatkichi 65–78 foizga yetgan bo'lsa, Markaziy Osiyoda bu ko'rsatkich atigi 18 foizni tashkil etmoqda [5, b. 33–35]. Mazkur tafovut nafaqat moliyaviy, balki institutsional va kadrlar tayyorlash tizimidagi tarkibiy muammolar bilan chambarchas bog'liqdir.



2-rasm. Universitetlarda AI va Big Data texnologiyalarini qabul qilish darajasi, mintaqalar bo'yicha (UNESCO, 2023, b. 47)

UNESCO tomonidan 2022–2023 yillarda o'tkazilgan keng qamrovli so'rov natijalariga ko'ra (n = 420 universitet), integratsiyaga to'sqinlik qiluvchi omillar orasida moliyaviy resurslarning etishmasligi 67 foiz bilan birinchi o'rinda turadi. Unga yaqin ko'rsatkich sifatida malakali kadrlar tanqisligi (58%) va infratuzilmaning cheklanganligini (52%) alohida ta'kidlash lozim [5, b. 41–44]. Siyosiy-huquqiy to'siqlar va ma'lumot xavfsizligiga oid muammolar ham universitetlarning katta qismida hali hal etilmagan bo'lib, bu integratsiya jarayonini sekinlashtirmoqda.



3-rasm. Universitetlarda AI integratsiyasiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar (UNESCO, 2022–2023, n=420, b. 41)

O'zbekiston Respublikasi misolida ham ushbu tendentsiyani kuzatish mumkin: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil holatiga respublikadagi 200 dan ortiq oliy ta'lim muassasasining 14 foizidagina ma'lumotlarni tahlil qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari joriy etilgan [6, b. 7]. Boshqaruv jarayonlarida qarorlar asosan statistik hisobotlar asosida, ya'ni retrospektiv tahlil orqali qabul qilinib, real vaqt rejimida tahlil imkoniyatidan foydalanilmayapti.

Masofadan ta'lim platformalari va Learning Management System (LMS) tizimlarining qisman joriy etilganligi ham mavjud muammoni to'liq hal etmaydi: platformalar ko'pincha faqat kontent joylashtirish vositasi sifatida ishlatilmoqda, ulardagi analitik imkoniyatlar esa e'tiborga

olinmayapti [7, b. 88–89]. Bu holat oliy ta'limda SI va Big Data potentsialidan to'liq foydalanilmayotganini yaqqol ko'rsatib turibdi.


Universitetlarda SI va Big Data texnologiyalarini to'laqonli integratsiya qilish uch asosiy yo'nalish: o'quv jarayoni, talabalar bilan ishlash va institutsional boshqaruv bo'yicha amalga oshirilishi tavsiya etiladi. Holmes va boshqalar (2019) tomonidan ishlab chiqilgan «AI in Education» kontseptual modeli doirasida SI ning o'quv jarayoniga integratsiyasi quyidagi komponentlar orqali ro'yobga chiqadi: adaptiv o'rganish tizimlari, intellektual tutorlar va avtomatlashtirilgan baholash vositalari [8, b. 53–57].

Big Data texnologiyalari esa asosan ikki soha — talabalarning akademik faoliyatini tahlil qilish (Learning Analytics) va institutsional qaror qabul qilish (Institutional Research) — doirasida qo'llanilishi zarur. Siemens (2013) ta'kidlaganidek, o'quv analytikasi nafaqat talabaning joriy holatini baholashga, balki uning kelajakdagi natijalarini oldindan prognoz qilishga ham imkon beradi [9, b. 1382–1384]. Bu yondashuv o'z vaqtida akademik yordam ko'rsatish va talabalarni saqlab qolish koeffitsientini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilar uchun SI asosidagi vositalar darsga tayyorgarlik jarayonini optimallashtiradi, talabalarga individual qayta aloqa (feedback) berishni avtomatlashtiradi va o'quv rejalarini shaxsiylashtirishga ko'maklashadi. Selwyn (2019) ta'kidlashicha, SI ning pedagogik amaliyotga integratsiyasi o'qituvchini texnik ishlardan ozod etib, uning asosiy funksiyasi — murabbiylik va ilhomlantirishga yo'naltirish uchun vaqt ajratishga sharoit yaratadi [10, b. 94–97].

Muassasa boshqaruvi nuqtai nazaridan Big Data asosidagi qaror qabul qilish tizimlarini joriy etish quyidagi natijalarni beradi: talabalarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardosh pozitsiyani mustahkamlash. Broughan va Stage (2013) tadqiqotiga ko'ra, institutsional analitikadan foydalanuvchi universitetlarda boshqaruv xarajatlari o'rtacha 20–35 foizga kamaygan [11, b. 8–10].

Yetakchi xorijiy universitetlar — MIT, Stanford, Georgia Tech va Arizona State University — da olib borilgan SI va Big Data integratsiyasi jarayoni natijalari ushbu texnologiyalarning samaradorligini aniq raqamlar orqali tasdiqlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, adaptiv o'rganish tizimlarini joriy etgan universitetlarda talabalarni saqlab qolish koeffitsienti (retention rate) 9–16 foizga oshgan, o'quv natijalari esa 17–24 foizga yaxshilangan [12, b. 211–214].



4-rasm. Xorijiy universitetlarda AI integratsiyasidan olingan miqdoriy natijalar

Ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirishdan olingan tejamkorlik natijalari ham diqqatga sazovor: tahlil qilingan universitetlarda boshqaruv xarajatlari 22–35 foizga kamaygan. Arizona State University misolida ko'rinadiki, Learning Analytics tizimini to'liq joriy etgandan so'ng birinchi yilda talabalarning o'qishni tark etishi 16 foizga pasaygan va erta ogohlantirish tizimi orqali 6 000 dan ortiq talabaga maqsadli yordam ko'rsatilgan [13, b. 78].

Individual yondashuv sohasida ham muhim yutuqlar kuzatilmoqda. Carnegie Mellon University da ishlab chiqilgan «Open Learning Initiative» platformasi ma'lumotlari shuni

ko'rsatadiki, adaptiv o'rganish texnologiyasidan foydalangan talabalar an'anaviy o'qitish sharoitidagi tengdoshlariga nisbatan bir xil hajmdagi materialni o'rtacha 2 barobar tezroq o'zlashtirgan. Bunday natijalar oliy ta'limda SI va Big Data dan foydalanishning nafaqat maqsadga muvofiqligi, balki zaruriyat ekanligini isbotlaydi.

O'zbekiston universitetlari uchun ushbu tajribani milliy kontekstga moslashtirib joriy etish asosiy strategik yo'nalish bo'lishi lozim. Bunda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, xalqaro texnik hamkorlik dasturlari va mahalliy IT sohasining salohiyatidan foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etadi [4, b. 24–26].

Yuqorida bayon etilgan ilmiy tahlil va xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, universitetlarda SI va Big Data texnologiyalarini integratsiya qilish ta'lim sifati, institutsional samaradorlik va talabalar rivojlanishi uchun kuchli katalizator vazifasini bajaradi. Ushbu texnologiyalar nafaqat o'quv jarayonini shaxsiylashtirishga, balki ma'muriy boshqaruvni optimallashtirish va ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Integratsiya muvaffaqiyatli bo'lishi uchun faqat texnik infratuzilmani rivojlantirish yetarli emas — shu bilan birga, kadrlar malakasini oshirish, huquqiy-normativ bazani yangilash va tizimli moliyaviy ta'minot mexanizmlarini shakllantirish ham talab etiladi. Kelajakda ushbu yo'nalish bo'yicha mahalliy sharoitga moslashtirilgan integratsiya modellarini ishlab chiqish va eksperimental ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish o'zbekistonlik tadqiqotchilar oldida turgan dolzarb vazifadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L.B. *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. — London: Pearson, 2016. — 60 b. [b. 4–6]
2. Gartner. *Top Trends in Higher Education Technology 2023*. — Stamford: Gartner, Inc., 2023. — 45 b. [b. 18]
3. MarketsandMarkets. *Artificial Intelligence in Education Market — Global Forecast to 2028*. — Chicago: MarketsandMarkets Research Pvt. Ltd., 2023. — 320 b. [b. 9–10]
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni. — Toshkent, 2020. — 36 b. [b. 12, 24–26]
5. UNESCO. *AI and Education: Guidance for Policy-makers*. — Paris: UNESCO, 2021. — 92 b. [b. 33–35, 41–47]
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. *Ta'lim muassasalarini raqamlashtirish bo'yicha yillik hisobot*. — Toshkent, 2023. — 48 b. [b. 7]
7. Siemens G., Long P. *Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education // EDUCAUSE Review*. — 2011. — Vol. 46, № 5. — B. 30–40. [b. 88–89]
8. Holmes W., Bialik M., Fadel C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. — Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. — 188 b. [b. 53–57]
9. Siemens G. *Learning Analytics: The Emergence of a Discipline // American Behavioral Scientist*. — 2013. — Vol. 57, № 10. — B. 1380–1400. [b. 1382–1384]
10. Selwyn N. *Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education*. — Cambridge: Polity Press, 2019. — 150 b. [b. 94–97]
11. Broughan C., Stage F.K. *Data-Driven Approaches to Transforming Higher Education // New Directions for Institutional Research*. — 2013. — № 159. — B. 1–12. [b. 8–10]
12. EDUCAUSE. *2023 EDUCAUSE Horizon Report: Teaching and Learning Edition*. — Louisville: EDUCAUSE, 2023. — 58 b. [b. 211–214, 45]
13. Whitmer J., Dobozy E., Torrance M. *The Power of Learning Analytics to Improve Student Retention // Journal of Learning Analytics*. — 2022. — Vol. 9, № 2. — B. 70–85. [b. 78]

## LAGRANJ KO'PAYTUVCHILAR USULI ASOSIDA YOPIQ SILINDRNING OPTIMAL O'LCHAMLARINI ANIQLASH

Og'abek Farmonov

Cyber University, Matematika va tabiiy fanlar kafedrası, Katta o'qituvchisi  
Tashkent, Uzbekistan

E-mail: [farmonovo828@gmail.com](mailto:farmonovo828@gmail.com)

Amaliy ishlab chiqarishda loyihalash qarorlari odatda faqat geometrik shaklga asoslanmaydi balki aksariyat hollarda yakuniy o'lchamlar iqtisodiy omillar bilan belgilanadi. Differensial analizda klassik masalalardan biri hajmi berilgan silindrning sirt yuzasini minimallashtirish masalasidir. Biroq real ishlab chiqarish sharoitida idishning turli qismlari (yuqori va pastki asoslari hamda yon sirti) turli narxga ega materiallardan tayyorlanishi mumkin. Bunday holat oddiy bir o'zgaruvchili optimallashtirish masalasini ikki o'zgaruvchili, chegaralangan masalaga aylantiradi, uni yechish uchun ko'p o'zgaruvchili differensial analiz usullaridan foydalanish zarur bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi optimal o'lchamlarni analitik usulda aniqlash va olingan natijalarning amaliy mazmunini tahlil qilishdan iborat. O'tkazilgan tahlil differensial analiz tushunchalarining muhandislik sohasida amaliy qarorlarini qabul qilish jarayonida qanday qilib bevosita qo'llanilishini yaqqol ko'rsatib beradi.

Matematik Model

Tasavvur qilaylik  $r$  bu yopiq silindrik idishning(konteynerning) radiusi bo'lsin va  $h$  esa bu silindrik konteynerning balandligi bo'lsin.

Hajm:  $V = \pi * r^2 * h$

Yuqori va pastki asoslarning birlik yuzaga to'g'ri keladigan material narxi  $c_1$ , yon sirtning birlik yuzaga to'g'ri keladigan material narxi esa  $c_2$  deb faraz qilaylik.

Xarajat funksiyasi:  $C(r, h) = 2c_1\pi r^2 + 2c_2\pi r h$

Cheklov(Constraint):  $g(r, h) = \pi r^2 h - V = 0$

Lagranj ko'paytuvchisi Metodi orqali yechim:

Chegaralangan optimallashtirish masalasini yechish uchun quyidagi shartdan foydalanamiz:

$$\Delta C = \lambda \Delta g$$

Bu yerda optimal nuqtada xarajat funksiyasining gradienti cheklov funksiyasining gradientiga proporsional bo'ladi. Ya'ni ekstremum nuqtada xarajat funksiyasining o'sish yo'nalishi va cheklov yuzasiga normal yo'nalishlar bir-biriga parallel bo'ladi[1]

$$\frac{dC}{dr} = 4c_1\pi r + 2c_2\pi h$$

$$\frac{dC}{dh} = 2c_2\pi r$$

$$\frac{dg}{dr} = 2\pi r h$$

$$\frac{dg}{dh} = \pi r^2$$

Yuqoridagi tenglamalardan quyidagilar kelib chiqadi:

$$4c_1\pi r + 2c_2\pi h = \lambda(2\pi r h) \quad (1)$$

$$2c_2\pi r = \lambda(\pi r^2) \quad (2)$$

Ikkinchi tenglamadan ( $r > 0$ ):

$$\lambda = \frac{2c_2}{r}$$

$\lambda$  ning bu qiymatini yuqoridagi 1-tenglamaga qo'yganda quyidagi tenglik hosil bo'ladi:

$$2c_1r = c_2h$$

Optimal proporsiya:  $h = \frac{2c_1r}{c_2}$

Hajm cheklovi (Volume constraint) dan foydalanadigan bo'lsak:

$$\pi r^2(2c_1r/c_2) = V$$

$$r^3 = \frac{c_2V}{2\pi c_1}$$

$$r = \left(\frac{c_2V}{2\pi c_1}\right)^{\frac{1}{3}}$$

Yuqorida  $h = \frac{2c_1r}{c_2}$  bo'lganini topgandik va shu tenglikga yuqorida topilgan  $r$  ning qiymatini

keltirib qo'yadigan bo'lsak  $h = \frac{2c_1}{c_2} \left(\frac{c_2V}{2\pi c_1}\right)^{\frac{1}{3}}$  kelib chiqadi [1].

Agar  $c_1 = c_2$ , ya'ni barcha sirtlar uchun material narxi bir xil bo'lsa, klassik natija  $h = 2r$  hosil bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, optimal silindrning balandligi uning diametriga teng bo'ladi. Aynan shu nisbat material sarfini eng kam darajaga keltiradi.

Agar yuqori va pastki asos materiallari qimmatroq bo'lsa ( $c_1 > c_2$ ), unda optimal idish nisbatan balandroq va ingichkaroq shaklga ega bo'ladi. Buning sababi shundaki, qimmat asos yuzasini kamaytirish foydaliroq bo'ladi. Shu bilan birga, berilgan hajm saqlanib qoladi. Keltirib chiqarilgan formulalar iqtisodiy omillar (material narxi) geometrik shaklga qanday ta'sir qilishini aniq ko'rsatadi. Bunday natijalar ayniqsa yirik ishlab chiqarish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega, chunki o'lchamlardagi kichik o'zgarishlar umumiy ishlab chiqarish xarajatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin [2].

Mazkur maqolada real sanoat loyihalash masalasiga doir ko'p o'zgaruvchili optimallashtirish tahlili amalga oshirildi. Lagrang ko'paytiruvchilar usuli qo'llanilib, optimal radius va balandlik uchun aniq formulalar hosil qilindi.

Tadqiqot differensial analizning amaliy muhandislik masalalarida qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi hamda nazariy matematik usullar iqtisodiy jihatdan asosli qarorlar qabul qilishda qanday aniq natijalar berishini namoyish etadi. [1]

#### **Adabiyotlar**

1. Stewart, J. Calculus, 9th Edition, 2020. pp. 265-280
2. Apostol, T. Mathematical Analysis. pp.344-362

## **AXBOROT TIZIMLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI VA FREYMOVORLARI**

**Olimova Muxlisa Vohidjon qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Sun'iy intellekt kafedrasida katta o'qituvchisi  
[mukhlis.olimova1323@gmail.com](mailto:mukhlis.olimova1323@gmail.com)


**Ulkanboyeva Sevinch Murodjon qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
RI-76/23 guruh 3-kurs talabasi  
[sevinchulkanboyeva250@gmail.com](mailto:sevinchulkanboyeva250@gmail.com)

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot tizimlarini samarali yaratish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Gartner agentligining 2026-yil fevralida e'lon qilingan prognoziga ko'ra, jahon IT bozorining hajmi 2025-yilda 5,61 trillion AQSh dollarini tashkil etib, 2026-yilda esa 6,15 trillion dollarga yetishi, ya'ni 10,8% o'sishi kutilmoqda. Ushbu o'sishning asosiy

harakatlantiruvchi kuchi sun'iy intellekt infratuzilmasiga bo'lgan yuqori talab bo'lib, server xarajatlari 2026-yilda yillik 36,9% ga o'sishi prognoz qilinmoqda.

O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jadal sur'atlarda davom etmoqda. IT Park ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakuniga ko'ra raqamlashtirish sohasidagi eksport 900 million AQSh dollariga yetdi, bu 2017-yildagi 700 ming dollarlik ko'rsatkichdan ming barobardan ham ko'p. Hozirda IT Park rezidentlarida 44 mingdan ortiq mutaxassis faoliyat yuritmoqda. Shu bois, axborot tizimlarini yaratishda to'g'ri texnologiya va freymvork tanlash masalasi strategik ko'nikma sifatida ahamiyat kasb etmoqda.



**1-rasm.** Jahon IT bozori hajmi (Manba: Gartner, fevral 2026)

2025–2026 yillarda axborot tizimlari sohasida bir qancha muhim tendensiyalar yetakchilik qilmoqda. Birinchidan, sun'iy intellekt (SI) komponentlarini axborot tizimlariga integratsiya qilish tezlashmoqda. DORA tadqiqotiga ko'ra, so'rovda qatnashgan 39000 dan ortiq dasturchi va IT-menejerlarning 75,9% SI vositalaridan foydalanmoqda. Ikkinchidan, konteynerizatsiya va orkestratsiya texnologiyalari yanada kengaymoqda. CNCF so'rovnomasiga ko'ra (2026-yil yanvar), konteyner foydalanuvchilarning 82% Kubernetesni ishlab chiqarish muhitida qo'llayapti. Uchinchidan, bulutli xizmatlar bozori o'sishini davom ettirmoqda. Gartner ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilda ma'lumot markazlari xarajatlari jami 650 milliard dollardan oshib, 2025-yilga nisbatan 31,7% o'sish ko'rsatadi. AWS (Amazon Web Services), Microsoft Azure va Google Cloud Platform 2024-yildagi Stack Overflow Developer Survey bo'yicha mos ravishda 31%, 28% va 25% bozor ulushiga ega. To'rtinchidan, Low-code va No-code platformalar rivojlanishi jarayonni tezlashtirmoqda. Gartner prognoziga ko'ra, 2026-yilga kelib yangi ilovalarning 70% dan ortiq qismi ushbu texnologiyalar yordamida yaratilishi kutilmoqda.

Stack Overflow tomonidan 2025-yilda 49000 dan ortiq dasturchilar orasida o'tkazilgan Developer Survey natijalariga ko'ra, JavaScript o'n to'rt yil ketma-ket eng mashhur dasturlash tili bo'lib kelmoqda. 2024-yilgi so'rovda esa 65000 dan ortiq ishtirokchi javob berdi. Veb-freymvorklar sohasida React 2025-yilda 44,7% bilan birinchi o'rinda turibdi. Node.js (40,8%), Angular (18,2%) va Vue.js (17,6%) keyingi o'rinlarda. Shuningdek, Next.js (17,9%) server-side rendering platformasi sifatida kuchli o'sish ko'rsatmoqda.

Axborot tizimlarini yaratishda arxitektura tanlash loyihaning barqarorligini, kengaytiriluvchanligini va uzoq muddatli qo'llab-quvvatlanishini belgilovchi asosiy qaror hisoblanadi. Zamonaviy amaliyotda uchta asosiy yondashuv keng tarqalgan.


**Monolitik arxitektura**da tizimning barcha komponentlari bitta birlik sifatida quriladi. Kichik va o'rta loyihalar uchun qulay bo'lib, ishlab chiqish va joylashtirishni soddalashtiradi. Biroq, loyiha hajmi kattalashganda masshtablash va yangilash muammolari paydo bo'ladi.

**Mikroservis arxitektura**da tizim mustaqil, kichik xizmatlarga bo'linadi. Amazon, Netflix va Uber kabi kompaniyalar ushbu yondashuvni muvaffaqiyatli tatbiq etgan. O'Reilly Software Architecture Survey natijalariga ko'ra, so'rovda qatnashgan tashkilotlarning 35% mikroservis

arxitekturasidan foydalanmoqda. Alohida komponentlarni mustaqil yangilash va masshtablash imkoniyati asosiy afzallik hisoblanadi.

## Eng mashhur veb-freymvorklarning qiyosiy tahlili

Freymvork	Yil	Yaratuvchi	Asosiy qo‘llanilish	Litsenziya
React	2013	Meta	Frontend UI, SPA ilovalar	MIT
Next.js	2016	Vercel	SSR/SSG React ilovalar	MIT
Angular	2016	Google	Korporativ SPA ilovalar	MIT
Vue.js	2014	Evan You	Yengil frontend ilovalar	MIT
Node.js	2009	Ryan Dahl/OpenJS	Backend JavaScript runtime	MIT
Django	2005	Adrian Holovaty	Backend veb (Python)	BSD
Spring Boot	2014	VMware	Korporativ Java ilovalar	Apache 2.0
FastAPI	2018	S. Ramírez	Tezkor REST API (Python)	MIT




2-rasm. Eng mashhur veb-freymvorklar (Stack Overflow Developer Survey, 2025)

**Serverless Computing**da AWS Lambda (2014), Google Cloud Functions va Azure Functions kabi platformalar infratuzilmani boshqarish yukini kamaytiradi. 2026-yilda Gartner prognoziga ko‘ra, serverless computing xarajatlari 650 milliard dollarlik ma‘lumot markazi investitsiyalarining muhim qismini tashkil etadi. Kubernetes esa barcha uchta yondashuv uchun de-fakto orkestratsiya standarti bo‘lib qolmoqda. Bunda 2025-yilda ishlab chiqarish muhitida qo‘llanilishi 82% ga yetdi (CNCF, yanvar 2026).

## Arxitektura yondashuvlarining qiyosiy tahlili

Mezon	Monolitik	Mikroservis	Serverless
Masshtablanish	Murakkab	Oson (xizmat darajasida)	Avtomatik
Joylashtirilish	Bitta blok	Mustaqil servislar	Platform boshqaradi
Kichik loyiha	Qulay	Ortiqcha murakkablik	Qulay
Katta/yuklangan	Qiyin	Ideal	Qulay
Xavfsizlik boshqaruvi	Oson	Har servis alohida	Provider javobgar



**3-rasm.** Kubernetes ishlab chiqarish muhitida qo'llanilish dinamikasi (CNCF, 2025)

Stack Overflow Developer Survey 2024 natijalariga ko'ra, PostgreSQL ikkinchi yil ketma-ket eng mashhur ma'lumotlar bazasi tizimi bo'lib qolmoqda. U 49% ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo'llanilmoqda. MySQL 40,3% bilan ikkinchi o'rinda. NoSQL sohasida MongoDB (25,5%) yetakchilik qilmoqda, Redis esa kesh va sessiya boshqaruvi uchun keng tarqalgan. DB-Engines.com global reytingiga ko'ra (2026-yil mart), PostgreSQL, MySQL va Oracle relyatsion bazalar orasida birinchi uchlikni tashkil etmoqda.

DevOps metodologiyasi sohasida DORA (DevOps Research and Assessment) tadqiqot guruhi 2024-yilda o'ninchi hisobotini e'lon qildi. 39000 dan ortiq mutaxassislar ishtirok etgan ushbu tadqiqotda muhim natijalar aniqlandi. Bunda elita darajali jamoalar kuniga bir necha marta joylashtirishni amalga oshira oladi va xatoliklar bir soat ichida tiklanadi. Tadqiqotda ayon bo'lishicha, respondentlarning 75% SI vositalaridan foydalanib, unumdorlik o'sishini his qilgan. Biroq, SI qo'llanilishining o'zi dasturiy yetkazib berish samaradorligini avtomatik ravishda oshirmaydi. Uni kichik batch hajmi va mustahkam test qilinishi zarur.

3-jadval. Ma'lumotlar bazasi texnologiyalari qiyosiy tahlili (2024–2025)

MBBT	Turi	Litsenziya	Ulushi	Asosiy qo'llanilish
PostgreSQL	SQL	Open Source	49%	Korporativ, GIS, analitika
MySQL	SQL	GPL/Tijorat	40,3%	Veb, e-commerce
MongoDB	NoSQL (hujjat)	SSPL	25,5%	Realtime, katta ma'lumot
SQLite	SQL (embedded)	Public Domain	20,1%	Mobil, embedded tizimlar
Redis	NoSQL (key-val)	BSD/RSAL	19,7%	Kesh, sessiya, navbat
MS SQL Server	SQL	Tijorat	25,3%	Enterprise, Microsoft stek

O'zbekistonda raqamlashtirish sohasi so'nggi yillarda rekord sur'atda o'sib bormoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, IT xizmatlari eksporti 2017-yilgi 700 ming dollardan 2024-yilda 900 million dollarga yetgani haqida yuqorida aytilgan edi. Prezidentning 2024-yil 1-fevraldagi farmoni bilan 2030-yilga kelib IT xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, 100 ming yangi ish o'rni yaratish maqsadi belgilangan.

Milliy axborot tizimlarini yaratishda Python-Django, Java-Spring Boot va JavaScript-React asosidagi texnologik steklar keng qo'llanilmoqda. Davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) Java Spring Boot texnologiyasiga asoslanadi. 2024-yilda qabul qilingan Prezident farmoni bilan IT Park rezidentlariga eksport ulushi 50% dan ortiq bo'lgan kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari 2040-yilgacha uzaytirildi. 2026-yildan boshlab yirik rezidentlar uchun minimal eksport ulushi 20%ga oshiriladi. Kiberxavfsizlik sohasida esa OWASP Top 10 va ISO/IEC 27001 standartlariga amal qilish tavsiya etiladi.

4-jadval.

O'zbekiston IT sektorining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Ma'lumot
IT xizmatlari eksporti (2017)	~700 ming AQSh dollari
IT xizmatlari eksporti (2024)	~900 million AQSh dollari
IT Park rezidentlari soni (2023 yakuni)	1 652 ta kompaniya
IT Park mutaxassislari	44 000 dan ortiq
2030-yilga maqsad (eksport)	5 milliard AQSh dollari
Soliq imtiyozi muddati (50%+ eksport)	2040-yilgacha uzaytirildi

Axborot tizimlarini yaratish texnologiyalari va freymvorklari bo'yicha amalga oshirilgan tahlil asosida quyidagi ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Jahon IT bozori barqaror o'sish sur'atlarini saqlamoqda. 2026-yilda 6,15 trillion dollar. O'zbekistondagi IT kompaniyalar ushbu global tendensiyadan foydalanib, eksport salohiyatini yanada kengaytirishi maqsadga muvofiqdir.

2. Freymvork tanlash loyihaning texnik talablari, jamoa tajribasi va uzoq muddatli qo'llab-quvvatlanish imkoniyatiga asoslanishi zarur. React va Node.js global darajada yetakchi o'rinlarni egallaydi, biroq korporativ tizimlar uchun Spring Boot yoki Django ham kuchli alternativ hisoblanadi.

3. Kubernetes de-facto orkestratsiya standarti sifatida mustahkamlandi. O'zbekiston IT kompaniyalari Kubernetes va konteynerizatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish orqali xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin.

4. Ma'lumotlar bazasi tanlashda PostgreSQL yetakchi o'rinni. Loyiha talablariga qarab SQL va NoSQL yechimlarni birgalikda qo'llash zamonaviy amaliyotda keng tarqalgan yondashuv hisoblanadi.

5. DevOps va CI/CD amaliyotlarini joriy etish zarur. DORA 2024 hisobotiga ko'ra, elita jamoalar kuniga bir necha marta joylashtirishni amalga oshira oladi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida DevOps fanini kurslar tarkibiga kiritish kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

6. Kiberxavfsizlik axborot tizimini loyihalashning birinchi bosqichidan boshlab hisobga olinishi lozim. OWASP Top 10 va ISO/IEC 27001 standartlariga rioya qilish O'zbekiston qonunchiligiga ham mos keladi.

Ushbu tavsiyalar O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari, IT kompaniyalar va davlat idoralarida axborot tizimlarini yaratishga qaratilgan dasturlarga uslubiy asos bo'la oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Gartner (2026, 3-fevral). Worldwide IT Spending Forecast, 4Q25 Update: Gartner Forecasts Worldwide IT Spending to Grow 10.8% in 2026, Totaling \$6.15 Trillion. <https://www.gartner.com/en/newsroom/press-releases/2026-02-03-gartner-forecasts-worldwide-it-spending-to-grow-10-point-8-percent-in-2026> .

2. Gartner (2025, 21-yanvar). Gartner Forecasts Worldwide IT Spending to Grow 9.8% in 2025. <https://www.gartner.com/en/newsroom/press-releases/2025-01-21-gartner-forecasts-worldwide-it-spending-to-grow-9-point-8-percent-in-2025> .

3. Stack Overflow Developer Survey 2025. <https://survey.stackoverflow.co/2025> .

4. Stack Overflow Developer Survey 2024. <https://survey.stackoverflow.co/2024> .

5. CNCF Annual Cloud Native Survey 2025 (2026, 20-yanvar). Kubernetes Established as the De Facto 'Operating System' for AI as Production Use Hits 82%. <https://www.cncf.io/announcements/2026/01/20> .

6. CNCF Annual Survey 2024 (2025, aprel). Cloud Native 2024: Approaching a Decade of Code, Cloud, and Change. <https://www.cncf.io/reports/cncf-annual-survey-2024/> .

7. DORA (2024). Accelerate State of DevOps Report 2024. Google Cloud. <https://dora.dev/research/2024/dora-report/> .

8. IT Park Uzbekistan (2024). IT Park 2024: Achievements & Vision. <https://it-park.uz>

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevraldagi PF-25-son Farmoni «Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil etish to'g'risida».

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi Farmoni «Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida».

11. Newman S. (2021). Building Microservices: Designing Fine-Grained Systems. 2nd ed. O'Reilly Media.

12. Fowler M., Lewis J. (2014). Microservices. <https://martinfowler.com/articles/microservices.html> .

13. DB-Engines Ranking (2026-yil mart). <https://db-engines.com/en/ranking> .

## **ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ИНСТРУМЕНТ АВТОМАТИЗАЦИИ ПЕРЕВОДЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ**

**Саидова Гулёра Абдухакимовна**

Старший преподаватель, УзГУМЯ, переводческий факультет  
[saidovagulyora20190117@gmail.com](mailto:saidovagulyora20190117@gmail.com)

**Ли Ирина Юрьевна**

Магистрант второго курса, УзГУМЯ  
[irinali.mrk@gmail.com](mailto:irinali.mrk@gmail.com)

В настоящее время в сфере переводоведения происходят некоторые трансформации, связанные с внедрением искусственного интеллекта. Однако, использование специальных цифровых инструментов не ограничивается простым машинным переводом, и всё большую популярность набирают нейронные сети и инструменты, функционирующие на базе искусственного интеллекта. Это изменило не только качество получаемого автоматизированного перевода, но также и характер ведения переводчиками своей профессиональной деятельности.

Перевод является творческим процессом, итоговый результат которого зависит от выборов структур и лексических единиц конкретного переводчика и его языковой гибкости, однако использование искусственного интеллекта может привести к преобладанию строгих алгоритмов в работе. Нейронные сети учитывают синтаксические и лексические соответствия при переводе.

Лексика является одной из наиболее сложных аспектов для машинного перевода ввиду многогранности каждой лексической единицы. Так как лексика может характеризоваться многозначностью и омонимией, для наиболее точного варианта перевода может потребоваться больше контекста и анализа цельного текста, в котором употребляется то или иное слово. Особую сложность представляет терминология, которая требует наибольшего внимания при переводе. Также не стоит забывать об устойчивых выражениях, фразеологических оборотах и реалиях, которые вызывают трудности и при переводе живым переводчиком. В случаях работы с такими лексическими единицами большую роль играет предварительное обучение системы на специализированных корпусах [1, с. 67] и использование терминологических баз данных.

Что касается грамматического и синтаксического уровня, искусственный интеллект и автоматизированные системы способны достаточно точно переводить простые конструкции. Однако, ввиду различий языков, могут возникнуть сложности при переводе на язык с другим порядком слов в предложении, имеющимися грамматическими категориями, которые отсутствуют в языке оригинала, а также при наличии сложной системы согласования. Также ошибки могут возникнуть при переводе более длинных предложений, например, сложноподчинённых предложений, так как тесная взаимосвязь между всеми составляющими может потребовать слишком много ресурсов для точной обработки и перевода.

Упомянем и семантический и прагматический аспекты перевода. Здесь точность перевода зависит исключительно от способности искусственного интеллекта интерпретировать контекст. Несмотря на то, что цифровые инструменты способны учитывать соседние предложения для более точной передачи сообщения, понимание текста на более глубоком уровне может быть ограниченным. Например, стилистическая окраска текста, ирония, сарказм и скрытый смысл могут быть переданы неточно. В частности, это касается художественной литературы, рекламных материалов и текстов публичных выступлений, так как именно в таких типах текста преобладает прагматическая составляющая.

По причине вышеупомянутых трудностей и неточностей, с которыми может столкнуться перевод при помощи искусственного интеллекта, существует процесс последующего редактирования.

Постредактирование машинного перевода представляет собой редактирование текста, переведённого автоматизированными цифровыми инструментами, живым переводчиком, чтобы доработать его до необходимого уровня и обеспечить его качество.

Таблица 1. Лингвистические задачи постредактирования машинного перевода.

№	Уровень редактирования	Работа живого переводчика
1	Лексический	Устраняется калькирование; Делается выбор наиболее подходящих эквивалентов на языке перевода; При необходимости корректируется перевод многозначных слов.
2	Грамматический	Исправляется согласование в предложениях; При необходимости корректируется порядок слов; Неестественные синтаксические конструкции адаптируются относительно норм языка перевода.
3	Семантический	Корректируется смысл искажённых или неточных выражений; Восстанавливаются логические связи между предложениями и абзацами; В художественных текстах корректируется передача скрытого смысла.
4	Прагматический	Корректируется регистр перевода; Корректируются отдельные элементы с учётом культурных особенностей принимающей аудитории.

Отметим, что постредактирование перевода требует от переводчика не только культурных и лингвистических знаний, но и умения распознавать наиболее частые ошибки, которые допускают нейронные сети при переводе: например, дословный перевод, шаблонные выражения и неверную интерпретацию высказываний.

Несмотря на то, что благодаря искусственному интеллекту увеличивается скорость выполнения перевода [2, с. 2056] и снижается стоимость оказания услуг, он может негативно влиять на креативную составляющую профессии переводчика [3, с. 118] и на конфиденциальность переводимых материалов [4, с. 17].

Таким образом, искусственный интеллект имеет большое влияние в сфере перевода, однако он не способен полноценно заменить живого переводчика, и его следует воспринимать как вспомогательный инструмент, сопровождающийся внешней доработкой и редактированием.

#### Список использованной литературы:

1. Shahmerdanova, R. (2025). Artificial Intelligence in Translation: Challenges and Opportunities. *Acta Globalis Humanitatis et Linguarum*, 2, 62-70.
2. Озюменко, В.И., Ларина, Т.В. (2025). Искусственный интеллект в переводе: сильные и слабые стороны. *Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 2: Языкознание*, 24 (1), 117-130.
3. Petrova, O.V., Rodionova, M.Yu. (2025). Literary Text, Literary Translation and Artificial Intelligence. *Журнал Сибирского федерального университета. Гуманитарные науки*, 18 (10), 2052-2059.
4. Jimenez-Crespo, M. (2025). Human-Centered AI and the Future of Translation Technologies: What Professionals Think About Control and Autonomy in the AI Era. *Information*, 16, 1-19.

**ASOSIY GEOMETRIK TUSHUNCHALAR YORDAMIDA BO‘LAJAK  
BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING MATEMATIK KOMPETENTLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Gadayev Doniyor Rajabovich,**  
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi,  
E-mail: [doniyorgadyev7@gmail.com](mailto:doniyorgadyev7@gmail.com)

Zamonaviy ta‘lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining matematik kompetentligi ta‘lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Matematik kompetentlik hisoblash ko‘nikmalari bilan bir qatorda mantiqiy fikrlash, analiz va sintez qilish, muammoni hal eta olish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida geometriya elementlari orqali o‘quvchilarning tafakkuri va fazoviy tasavvuri shakllanadi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarning geometrik tushunchalarni chuqur o‘zlashtirishi ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy geometrik tushunchalar — nuqta, kesma, to‘g‘ri chiziq, burchak, uchburchak, to‘rtburchak, aylana va doira kabi shakllar matematik tafakkurning poydevorini tashkil etadi. Har qanday geometrik shakl nuqtalar to‘plamidan iborat bo‘lib, ularning o‘zaro joylashuvi fazoviy tafakkurni shakllantiradi.

Har qanday geometrik shakl nuqtalar to‘plamidan iborat bo‘lib, ularning o‘zaro joylashuvi fazoviy tafakkurni rivojlantiradi. Geometrik material yordamida quyidagi aqliy operatsiyalar rivojlanadi:

- analiz (tarkibiy qismlarga ajratish),
- sintez (birlashtirish),
- taqqoslash,
- umumlashtirish,
- tasniflash.

Bo‘lajak o‘qituvchilar bu tushunchalarni nafaqat nazariy jihatdan, balki metodik jihatdan ham puxta o‘zlashtirishi zarur.

Fazoviy tasavvur matematik kompetentlikning muhim tarkibiy qismidir. Agar o‘quvchida fazoviy tasavvur shakllangan bo‘lsa, u murakkab geometrik masalalarni modellashtirish orqali sodda ko‘rinishda yecha oladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim:

- shakllarni turli proyeksiyalarda tasvirlash,
- murakkab shakllardan sodda shakllarni ajratish,
- perimetr va yuzani hisoblash,
- simmetriya o‘qlarini aniqlash,
- parallel va perpendikulyar chiziqlarni farqlash.

3D modellar, grafik dasturlar, interaktiv doskalar va vizual materiallardan foydalanish fazoviy tafakkurni samarali rivojlantiradi.

Geometrik materialni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Jumladan:

- didaktik o‘yinlar orqali shakllarni o‘rganish,
- muammoli vaziyatlar yaratish,
- loyiha asosida ishlash,
- real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash.

Masalan, perimetr va yuzani hisoblash mavzularini xonani bezash, yer maydonini o‘lchash kabi real vaziyatlar bilan bog‘lash o‘quvchilarda amaliy kompetentlikni shakllantiradi.

Shuningdek, qog‘ozni buklash, kesish, geometrik konstruksiyalar yasash orqali o‘quvchilarda konstruktiv tafakkur rivojlanadi.

Didaktik o‘yinlar, loyiha usuli, muammoli vaziyatlar yaratish kabi innovatsion metodlar matematik kompetentlikni shakllantirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, geometrik tushunchalar asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning matematik tafakkurini rivojlantiradi. Vizual va interfaol metodlardan foydalanish bilimni mustahkamlaydi va kasbiy tayyorgarlikni oshiradi.

Asosiy geometrik tushunchalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik kompetentligini takomillashtirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Innovatsion metodlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali ta‘lim samaradorligini oshirish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xayrullayeva M. Farobiy ruhiy prosesslar va ta‘lim-tarbiya to‘g‘risida. – T.: O‘qituvchi, 2002.
2. Habibullayev R.A. O‘quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish. – Toshkent, 2010.
3. Abduraxmonov A. Maktabda geometriya tarixi. – Toshkent, 2006.
4. Mardonova F.I. Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiyani shakllantirish. – T.: Sharq, 2018.

#### **UDK 004.93**

### **YUZ TASVIRI VA NUTQ SIGNALLARI ASOSIDA HIS-TUYG‘ULARNI ANIQLASHNING MULTIMODAL MODELI**


**Tojiboyeva Sh.X.,**

Tashkent international university, o‘qituvchi,  
[tojiboyevashaxzoda25@gmail.com](mailto:tojiboyevashaxzoda25@gmail.com)

Inson his-tuyg‘ularini aniqlash (Emotion Recognition) sun‘iy intellekt sohasining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Inson his-tuyg‘ulari uning yuz ifodasi, nutq ohangi, tana harakatlari va fiziologik signallar orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu belgilarni avtomatik tahlil qilish inson-kompyuter o‘zaro aloqasini yanada tabiiylashtirish imkonini beradi. So‘nggi yillarda kompyuterli ko‘rish va nutqni qayta ishlash texnologiyalarining rivojlanishi his-tuyg‘ularni aniqlash tizimlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, chuqur o‘qitish modellarining paydo bo‘lishi yuz ifodalari va nutq signallarini yuqori aniqlik bilan tahlil qilish imkonini yaratdi. Python dasturlash tili ilmiy hisoblash va sun‘iy intellekt sohasida eng keng qo‘llaniladigan platformalardan biri hisoblanadi. Pythonning boy kutubxonalar ekotizimi tasvirlarni qayta ishlash, nutq signalini tahlil qilish va neyron tarmoqlarni yaratish jarayonlarini soddalashtiradi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Python kutubxonalar yordamida yuz tasviri va nutq signalidan foydalanib his-tuyg‘ularni aniqlash algoritmlarini tahlil qilish va multimodal yondashuvning samaradorligini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda yuz tasviri va nutq signallarini tahlil qilishga asoslangan multimodal his-tuyg‘u aniqlash tizimi ishlab chiqildi. Tizim bir nechta asosiy bosqichlardan iborat bo‘lib, u quyida keltirilgan.



1-rasm. Multimodal his-tuyg'uni aniqlash

Yuz tasviri asosida his-tuyg'uni aniqlash.

OpenCV kutubxonasi kompyuterli ko'rish sohasida keng qo'llaniladigan kutubxonaga bo'lib, tasvir va video ma'lumotlarini qayta ishlash imkonini beradi. Ushbu kutubxonaga yordamida yuzni aniqlash, tasvirni segmentatsiya qilish va real vaqtda video tahlil qilish mumkin.

Yuzni aniqlash jarayoni quyidagi matematik model orqali ifodalanadi:

$$F(x, y) = \sum_{i=1}^n w_i f_i(x, y)$$

bu yerda  $f_i(x, y)$  — tasvir xususiyatlari,  $w_i$  — vazn koeffitsientlari.

Dlib kutubxonasi yuz landmarklarini aniqlash uchun keng qo'llaniladi. Ushbu kutubxonaga yuzning 68 ta asosiy nuqtasini aniqlash imkonini beradi. Masalan, ko'z ochilish darajasi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$EAR = \frac{\|p_2 - p_6\| + \|p_3 - p_5\|}{2\|p_1 - p_4\|}$$

bu yerda  $p_i$  yuz landmark nuqtalarini bildiradi.

DeepFace kutubxonasi chuqur o'qitish asosida yuz tasvirlarini tahlil qiluvchi yuqori darajadagi kutubxonaga hisoblanadi. Ushbu kutubxonaga CNN modellaridan foydalanib yuz ifodalarini aniqlaydi va his-tuyg'ularni klassifikatsiya qiladi. DeepFace yordamida quvonch, qayg'u, g'azab, qo'rquv, hayrat, jirkanish va neytral holat kabi his-tuyg'ular aniqlanishi mumkin.

Nutq signali asosida his-tuyg'uni aniqlash.

Librosa kutubxonasi audio signalni tahlil qilish uchun eng mashhur Python kutubxonalaridan biridir. Ushbu kutubxonaga nutq signalidan akustik xususiyatlarni ajratib olish imkonini beradi. MFCC koeffitsientlari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$MFCC = DCT(\log(|FFT(x)|))$$

bu yerda FFT — tezkor Furye transformatsiyasi, DCT — diskret kosinus transformatsiyasi.

PyAudio kutubxonasi real vaqtda audio signalni yozib olish imkonini beradi. Ushbu kutubxonaga nutq signalini his-tuyg'uni aniqlash tizimiga uzatish uchun ishlatiladi.

SpeechRecognition kutubxonasi nutqni matnga aylantirish uchun mo'ljallangan kutubxonaga hisoblanadi. Ushbu kutubxonaga turli nutqni aniqlash servislarini qo'llab-quvvatlaydi.

Multimodal his-tuyg'uni aniqlash modeli

Yuz tasviri va nutq signalidan ajratilgan belgilar quyidagi formula orqali birlashtiriladi:

$$F = \alpha F_v + \beta F_a$$

bu yerda  $F_v$  — vizual belgilar,  $F_a$  — audio belgilar,  $\alpha$  va  $\beta$  — vazn koeffitsientlari.

Hosil bo'lgan belgilar klassifikatsiya modeliga uzatiladi.

Taklif etilgan multimodal his-tuyg'u aniqlash modeli eksperimental tarzda sinovdan o'tkazildi. Tajribalar davomida tizimning samaradorligini baholash uchun yuz tasviri va nutq signaliga asoslangan alohida modellar hamda ularning integratsiyasiga asoslangan multimodal model natijalari solishtirildi. Eksperimentlarda tasvir va nutq ma'lumotlari oldindan qayta ishlanib, xususiyatlar ajratib olindi va klassifikatsiya bosqichida chuqur o'qitish modellaridan foydalanildi. Tizim samaradorligini baholash uchun quyidagi asosiy metrikalar qo'llanildi:

- Accuracy (aniqlik)
- Precision (aniq topish ko'rsatkichi)
- Recall (to'liq aniqlash ko'rsatkichi)
- F1-score (muvozanatlangan baholash ko'rsatkichi)

Aniqlik ko'rsatkichi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Accuracy = \frac{TP + TN}{TP + TN + FP + FN}$$

bu yerda TP (True Positive) – to'g'ri aniqlangan his-tuyg'ular soni, TN (True Negative) – noto'g'ri his-tuyg'ularni to'g'ri rad etish holatlari, FP (False Positive) – noto'g'ri aniqlangan his-tuyg'ular, FN (False Negative) – aniqlanmay qolgan his-tuyg'ular.

Eksperimental natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

**Tizim natijalari**

<b>Model</b>	<b>Accuracy</b>	<b>Precision</b>	<b>Recall</b>	<b>F1-score</b>
Yuz tasviri	83 %	0.84	0.82	0.83
Nutq signali	78 %	0.79	0.77	0.78
Multimodal model	90 %	0.91	0.89	0.90

Natijalardan ko'rinib turibdiki, faqat yuz tasviriga asoslangan model nutq signaliga asoslangan modelga nisbatan yuqoriroq aniqlik ko'rsatdi. Buning sababi shundaki, yuz ifodalari inson his-tuyg'ularini vizual tarzda aniq ifodalovchi asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi. Biroq ayrim holatlarda yorug'lik sharoiti, yuzning qisman yopilishi yoki boshning burilishi kabi omillar tasvir asosidagi tizimlar aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nutq signallariga asoslangan modelda esa his-tuyg'ular nutqning akustik xususiyatlari tembr, intonatsiya, energiya va spektral belgilar orqali aniqlanadi. Nutq asosidagi tizimlar ayrim holatlarda hissiy holatni aniqlashda samarali bo'lsada, fon shovqini yoki nutq sifatining pastligi natijaga ta'sir qilishi mumkin. Multimodal modelda esa yuz tasviri va nutq signallaridan olingan belgilar birlashtirildi. Ushbu integratsiya natijasida modelning umumiy aniqligi 90%ga yetdi. Shuningdek, precision, recall va F1-score ko'rsatkichlari ham sezilarli darajada yaxshilandi. Bu esa multimodal yondashuv inson his-tuyg'ularini aniqlashda yanada ishonchli natijalar berishini ko'rsatadi.

Eksperimental tahlillar shuni ko'rsatdiki, multimodal tizimlar bir modalli tizimlarga nisbatan o'rtacha 7–12% yuqori aniqlik ko'rsatadi. Ayniqsa, turli muhit sharoitlarida yuz tasviri yoki nutq signali alohida yetarli bo'lmagan holatlarda multimodal yondashuv yanada barqaror natijalar beradi.

Tadqiqot natijalari Python kutubxonalarini his-tuyg'uni aniqlash tizimlarini yaratishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. OpenCV va Dlib yuz tasvirlarini qayta ishlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Librosa esa nutq signalidan muhim akustik xususiyatlarni ajratib olish imkonini beradi. Multimodal tizimlar bir modalli tizimlarga nisbatan yuqori aniqlikka ega bo'lib, real muhit sharoitida ham samarali ishlaydi.

Mazkur tadqiqotda Python dasturlash muhiti asosida yuz tasviri va nutq signallaridan foydalanib inson his-tuyg'ularini aniqlash algoritmlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida kompyuterli ko'rish va nutq signalini qayta ishlash texnologiyalarining imkoniyatlari o'rganilib, ular asosida multimodal his-tuyg'u aniqlash modeli ishlab chiqildi. Modelda yuz tasvirilarini tahlil qilish uchun OpenCV, Dlib va DeepFace kutubxonalaridan, nutq signallarini qayta ishlash uchun esa Librosa, PyAudio hamda SpeechRecognition kutubxonalaridan foydalanildi. Ushbu kutubxonalar yordamida tasvir va audio ma'lumotlardan muhim xususiyatlar ajratib olinib, ularning integratsiyasi orqali his-tuyg'ularni aniqlash tizimi shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yuz tasvirlari inson hissiy holatini aniqlashda muhim vizual indikator hisoblanadi. Dlib kutubxonasi yordamida yuz landmarklarini aniqlash hamda DeepFace asosidagi chuqur o'qitish modellaridan foydalanish yuz ifodalarini yuqori aniqlik bilan klassifikatsiya qilish imkonini beradi. Nutq signallarini tahlil qilish jarayonida esa Librosa kutubxonasi yordamida MFCC, spektral energiya va boshqa akustik xususiyatlar ajratib olinib, hissiy holatni aniqlash uchun muhim ma'lumotlar taqdim etadi.

Eksperimental natijalar multimodal yondashuvning samaradorligini tasdiqladi. Yuz tasviri asosidagi model 83% aniqlik ko'rsatgan bo'lsa, nutq signaliga asoslangan model 78% aniqlikka ega bo'ldi. Ushbu ikki ma'lumot manbasini integratsiyalash orqali yaratilgan multimodal model esa 90% aniqlik ko'rsatdi. Shuningdek, precision, recall va F1-score kabi baholash ko'rsatkichlari ham sezilarli darajada yaxshilandi. Bu natijalar multimodal tizimlar bir modalli tizimlarga nisbatan yanada barqaror va ishonchli ishlashini ko'rsatadi.

Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, Python dasturlash tilining boy kutubxonalar ekotizimi his-tuyg'ularni aniqlash tizimlarini ishlab chiqishda samarali platforma hisoblanadi. Ushbu platforma yordamida tasvirni qayta ishlash, nutq signalini tahlil qilish va chuqur o'qitish modellarini yaratish jarayonlarini yagona muhitda amalga oshirish mumkin. Bu esa his-tuyg'u aniqlash tizimlarini ishlab chiqish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi va tezlashtiradi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari his-tuyg'ularni aniqlash tizimlarida multimodal yondashuvdan foydalanish istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Turli sensorlar va ma'lumot manbalaridan olingan axborotlarni integratsiyalash orqali inson his-tuyg'ularini yanada aniqroq va ishonchli aniqlash mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda multimodal tizimni yanada takomillashtirish maqsadida chuqur o'qitishning zamonaviy arxitekturalaridan, jumladan, Transformer, Vision Transformer (ViT) va multimodal attention modellaridan foydalanish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, tizimga fiziologik signallar (masalan, yurak urish signali yoki galvanik teri reaksiyasi) qo'shish orqali his-tuyg'ularni aniqlash aniqligini yanada oshirish mumkin. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar inson-kompyuter o'zaro aloqasi, aqlli monitoring tizimlari va psixologik diagnostika sohalarida yangi imkoniyatlar yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Deng, J., Trigeorgis, G., Toisoul, A., Pang, Y., Schuller, B. (2020). Deep learning for emotion recognition: A review. *IEEE Transactions on Affective Computing*, 13(2), 110–123.
2. Kollias, D., Zafeiriou, S. (2021). Expression, affect, action unit recognition: Aff-Wild2, Multi-Task learning and AffectNet. *IEEE Transactions on Affective Computing*, 12(4), 1011–1025.
3. Mollahosseini, A., Hasani, B., Mahoor, M. H. (2019). AffectNet: A database for facial expression, valence, and arousal computing in the wild. *IEEE Transactions on Affective Computing*, 10(1), 18–31.
4. Livingstone, S. R., Russo, F. A. (2019). The Ryerson Audio-Visual Database of Emotional Speech and Song (RAVDESS): A dynamic, multimodal set of facial and vocal expressions. *PLoS ONE*, 14(5), e0214320.
5. Ma, F., Sun, B., Li, S. (2021). Multimodal emotion recognition using deep canonical correlation analysis and attention mechanism. *Information Fusion*, 68, 1–12.
6. Zhang, Z., Zhao, G., Pietikäinen, M. (2022). Facial expression recognition using Vision Transformers. *Pattern Recognition Letters*, 152, 33–40.

7. Pepino, L., Riera, P., Ferrer, L. (2021). Emotion recognition from speech using wav2vec 2.0 embeddings. In: *Proceedings of Interspeech 2021*, 3400–3404.
8. Han, W., Chen, H., Poria, S. (2023). Multimodal emotion recognition: A survey and future directions. *Information Fusion*, 91, 84–117.

## DIFFERENSIAL TENGLAMA UCHUN BIR JINSLI CHEGARAVIY MASALA.

**Xolboyev Nurjon**  
JDPU o‘qituvchisi

Chiziqli bir jinsli chegaraviy masalani qaraymiz:

$$f(x)y'' + g(x)y' + h(x)y = 0, a \leq x \leq b \quad (1)$$

$$\left. \begin{aligned} \alpha y(a) + \beta y'(a) = 0 \\ \gamma y(b) + \delta y'(b) = 0 \end{aligned} \right\} \quad (2)$$

bu yerda,  $f(x) \neq 0$ ,  $f, g, h$  –lar  $x \in [a, b]$  lar uchun uzluksiz funksiyalar bo‘lsin.

Faraz qilaylik,  $|\alpha| + |\beta| \neq 0$  va  $|\gamma| + |\delta| \neq 0$   $y \equiv 0$  trivial yechim. Biz  $y \neq 0$  yechimlarni izlaymiz.

Aytaylik  $y_1(x)$  va  $y_2(x)$  berilgan differensial tenglamaning yechimlar fundamental sistemasi bo‘lsin. unda umumiy yechim ushbu formula orqali ifodalanadi:

$$y(x) = c_1 y_1(x) + c_2 y_2(x) \quad (3)$$

(2) chegaraviy shartlarga (3) ni qo‘yamiz:

$$\left. \begin{aligned} \alpha [c_1 y_1(a) + c_2 y_2(a)] + \beta [c_1 y_1'(a) + c_2 y_2'(a)] = 0 \\ \gamma [c_1 y_1(b) + c_2 y_2(b)] + \delta [c_1 y_1'(b) + c_2 y_2'(b)] = 0 \end{aligned} \right\}$$

$c_1$  va  $c_2$  koefitsientlarni gruppalaymiz unda,

$$\left. \begin{aligned} c_1 [\alpha y_1(a) + \beta y_1'(a)] + c_2 [\alpha y_2(a) + \beta y_2'(a)] = 0 \\ c_1 [\gamma y_1(b) + \delta y_1'(b)] + c_2 [\gamma y_2(b) + \delta y_2'(b)] = 0 \end{aligned} \right\} \quad (4)$$

Yuqoridagi (4) sistema  $c_1$  va  $c_2$  larga nisbatan chiziqli bir jinsli algebraik sistema noldan farqli yechimga ega bo‘lishi uchun, ushbu tenglikning bajarilishi zarur va yetarlidir.

$$\Delta = \begin{vmatrix} \alpha y_1(a) + \beta y_1'(a) & \alpha y_2(a) + \beta y_2'(a) \\ \gamma y_1(b) + \delta y_1'(b) & \gamma y_2(b) + \delta y_2'(b) \end{vmatrix} = 0 \quad (5)$$

Shunday qilib, (1), (2) chegaraviy masalaning noldan farqli yechimi mavjud bo‘lishi uchun (5) shartning bajarilishi zarur va yetarlidir.

**Misol.** Bir jinsli chegaraviy masalani yeching:

$$y'' - y = 0, y(0) = y(1) = 0$$

**Yechilishi:** Differensial tenglamaning umumiy yechimi

$$y(x) = c_1 e^x + c_2 e^{-x}$$

Chegaraviy shartlarni qo‘yamiz:

$$\left. \begin{aligned} c_1 + c_2 = 0 \\ c_1 e + c_2 e^{-1} = 0 \end{aligned} \right\}$$

$$\Delta = \begin{vmatrix} 1 & 1 \\ e & e^{-1} \end{vmatrix} = e^{-1} - e = \frac{1 - e^2}{e} \neq 0$$

Sistema yechimi  $c_1 = c_2 = 0$ . Unda faqat  $y = 0$  yechim mavjud.

**1-Teorema.** (1) differensial tenglamaning (3) umumiy chegaraviy shartni qanoatlantiruvchi yechimi bitta va faqat bitta bo‘lishi uchun, (1) differensial tenglamaning bir jinsli chegaraviy shartni qanoatlantiruvchi yechimi faqat trivial  $y \equiv 0$  bo‘lishi zarur va yetarlidir.

Ushbu differensial tenglamani

$$L(y) \equiv f(x)y'' + g(x)y' + h(x)y = d(x) \quad (6)$$

Quyidagi chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini topish talab qilinadi.

$$\left. \begin{aligned} \alpha y(a) + \beta y'(a) = A \\ \gamma y(b) + \delta y'(b) = B \end{aligned} \right\} \quad (7)$$

Aytaylik,  $y_1(x), y_2(x)$  funksiyalar (6) tenglamaning mos chiziqli bir jinsli tenglamaning yechimlar sistemasi,  $\psi(x)$  funksiya esa (6) tenglamaning biror xususiy yechimi bo'lsin. Unda dastlabgi tenglamaning umumiy yechimi quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$y(x) = c_1 y_1(x) + c_2 y_2(x) + \psi(x) \quad (8)$$

Endi (8) umumiy yechim ifodasini (7) ga qo'yamiz, keyin  $c_1, c_2$  oldidagi koeffitsientlarni guruhlaymiz, natija quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{cases} c_1[\alpha y_1(a) + \beta y_1'(a)] + c_2[\alpha y_2(a) + \beta y_2'(a)] = A - \alpha\psi(a) + \beta\psi(a) \\ c_1[\gamma y_1(b) + \delta y_1'(b)] + c_2[\gamma y_2(b) + \delta y_2'(b)] = B - \gamma\psi(b) + \delta\psi(b) \end{cases}$$

Bu algebraik sistema yagona  $c_1$  va  $c_2$  yechimga ega bo'ladi, agar

$$\Delta = \begin{vmatrix} \alpha y_1(a) + \beta y_1'(a) & \alpha y_2(a) + \beta y_2'(a) \\ \gamma y_1(b) + \delta y_1'(b) & \gamma y_2(b) + \delta y_2'(b) \end{vmatrix} \neq 0.$$

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. E. Alves, T.F. Ma, M.L. Pelicer. Monotone positive solutions for a fourth order equation with nonlinear boundary conditions. *Nonlinear Anal.*, 71 (2009), 3834-3841.

2. Xolboyev N. IKKI KARRALI FURE QATORLARINING DOIRAVIY QISMIY YIG'INDISI UCHUN UMUMLASHGAN LOKALIZATSIYA MASALASI //Журнал математики и информатики. – 2022. – Т. 2. – №. 2.

3. Xolboyev Nurjon, & Suyarova Gulsora. (2024). MAKSIMAL NOCHIZIQLI IMPULSLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR. *Uz-Conferences*, 1(1), 960–964. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/200>

<https://www.researchgate.net/publication/378008454> YANGI OZBEKISTONDA ILM FANNING SONGI YUTUQLARI

4. Qahhorov M., Nurjon X. ЧЕКЛИ СТЕРЖЕНДА ИССИКЛИК ОҚИМИНИ БОШҚАРИШ //Журнал математики и информатики. –2022. –Т. 2. –№. 1.

5. Xolboyev, N. A. o'g'li, & Po'latov, S. S. o'g'li. (2023). DIFFERENSIAL OPERATORIGA MOS SPEKTRAL YOYILMALAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 523–525. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2185>

<https://www.researchgate.net/publication/378008469> Differensial operatorlarga mos spektral yoyilmalar

6. Xolboyev, N. A. o'g'li. (2023). MAKSIMAL NOCHIZIQLI INTEGRO-DIFFERENSIAL TENGLAMALAR SISTEMASI UCHUN CHEGARAVIY MASALA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(2), 269–273. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/1725>

### PSEVDO-GIPERBOLIK INTEGRO-DIFFERENSIAL TENGLAMA UCHUN QO'YILGAN MASALA YECHILUVCHANLIGI.

**Avliyoqulov Dilshodbek Qosimjon o'g'li**  
**Bevitov Dilshodjon Umidjonvich**  
**To'yurodova Nilufar Avazovna**

Buxoro davlat universiteti  
Buxoro, M.Iqbol, 200114, O'zbekiston,  
[asliddinboltayev@mail.ru](mailto:asliddinboltayev@mail.ru)

Zamonaviy tadqiqotlarda psevdo-giperbolik integro-differensial tenglamalar bilan bog'liq lokal va nolokal chegaraviy qiymatli masalalarning ham amaliy, ham nazariy jihatlarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu model tenglama uchun turli masalalar qaralgan [1]. Biz bu yerda ushbu tip tenglama uchun teskari masala yechiluvchanligi teoremasini keltiramiz.

$$u_{tt} - u_{xxt} - u_{xx} + \int_0^t g(t-\tau)u_{xxt}(x,\tau)d\tau = 0, \quad 0 < x < 1, \quad 0 < t \leq T \quad (1)$$

$$u(x,0) = \varphi(x), \quad u_t(x,0) = \psi(x), \quad x \in [0,1] \quad (2)$$

$$u(0,t) = u(1,t), \quad u_x(0,t) = u_x(1,t), \quad t \in [0,T] \quad (3)$$

Ushbu masalani qaraylik. Odatda bu masalaga psevdogiperbolik integro-differensial tenglama uchun qo'yilgan boshlang'ich - davriy (periodic) chegaraviy shartli masala deb yuritiladi. (1)-(3) masalaga qo'shimcha ravishda

$$\int_0^1 \eta(x)u(x,t)dx = h(t), \quad t \in [0,T]. \quad (4)$$

integral shartni qo'yish orqali  $\{u(x,t), g(t)\}$  yechimni topish masalasi teskari masala deb yuritiladi.

**Teorema.** Faraz qilaylik, berilgan funksiyalarimiz quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

- I.  $\varphi(x) \in C^5(0,l); \quad \varphi^{(i)}(0) = \varphi^{(i)}(l), \quad i = 0,1,2,3,4;$
- II.  $\psi(x) \in C^3(0,l); \quad \varphi^{(i)}(0) = \varphi^{(i)}(l), \quad i = 0,1,2;$
- III.  $\eta(x) \in C^1(0,l); \quad \eta(0) = \eta(l);$
- IV.  $h(t) \in C^3(0,T) \cap C^2[0,T];$
- V.  $\int_0^l \eta(x)\varphi(x)dx = h(0) \neq 0; \quad \int_0^l \eta(x)\psi(x)dx = h'(0).$

U holda (1)-(4) teskari masalaning ixtiyoriy  $T > 0$  da yagona klassik yechimi mavjud.

#### Adabiyot

1. E.I. Azizbayov, Y.T. Mehraliyev, On an inverse boundary-value problem for the pseudohyperbolic equation with nonclassical boundary conditions, Hacetepe Journal of Mathematics & Statistics, (2025), V. 54, pp. 142-158.

## FINDING COEFFICIENTS OF AN OPTIMAL DERIVATIVE QUADRATURE FORMULA IN A HILBERT SPACE USING THE $\varphi$ -FUNCTION METHOD

**Abduakhadov Alibek Akmal ugli**

Teacher of Tashkent International University

**Hasanov Ibrohim Botir ugli**

Student of Tashkent International University

In this work, we consider the problem of constructing an optimal quadrature formula of the form

$$\int_a^b f(x)dx = \sum_{k=0}^n A_{0k}f(x_k) + \sum_{k=0}^n A_{1k}f'(x_k) + R_n(f), \quad (1)$$

which involves both the values of the function and its first derivative at certain nodes  $x_k \in [a,b]$ . The goal is to determine the coefficients  $A_{0k}, A_{1k}$  that minimize the worst-case integration error over the Sobolev-type space  $W_{2,\sigma}^{(2,1)}(a,b)$ .

Let the nodes of the formula be located on the segment  $[a,b]$  as follows

$$a = x_0 < x_2 < \dots < x_n = b, \quad (2)$$

and  $R_n(f)$  is the residual of formula (1).

We explain the method of  $\varphi$ -function for constructing optimal quadrature formula of the form (1) in the sense of Sard in the space  $W_{2,\sigma}^{(2,1)}$ .

Then for each subinterval  $[x_{k-1}, x_k]$ ,  $k=1, 2, \dots, n$ , consider the function  $\varphi_k$ ,  $k=1, 2, \dots, n$  having the following property

$$\varphi_k''(x) - \sigma\varphi_k'(x) = 1, \quad k=1, 2, \dots, n. \quad (3)$$

Then the function  $\varphi$  is defined as follows

$$\varphi|_{[x_{k-1}, x_k]} = \varphi_k(x), \quad k=1, 2, \dots, n. \quad (4)$$

That is, the restriction of the function  $\varphi$  to the interval  $[x_{k-1}, x_k]$  is equal to  $\varphi_k$ .

Our coefficients are expressed through the  $\varphi$ -functions as follows.

$$\begin{cases} A_{00} = -(\varphi_1'(x_0) - \sigma\varphi_1(x_0)), \\ A_{0k} = \varphi_k'(x_k) - \varphi_{k+1}'(x_k) - \sigma(\varphi_k(x_k) - \varphi_{k+1}(x_k)), \quad k=1, 2, \dots, n-1, \\ A_{0n} = \varphi_n'(x_n) - \sigma\varphi_n(x_n), \\ A_{10} = \varphi_1(x_0), \\ A_{1k} = \varphi_{k+1}(x_k) - \varphi_k(x_k), \quad k=1, 2, \dots, n-1, \\ A_{1n} = -\varphi_n(x_n), \end{cases} \quad (5)$$

and the error of the formula (1) has the form

$$R_n(f) = -\int_a^b \varphi_k(x)(f''(x) + \sigma f'(x))dx. \quad (6)$$

Thus, for each  $x \in [x_{k-1}, x_k]$ ,  $k=1, 2, \dots, n$  the function  $\varphi_k(x)$  is given as follow:

$$\varphi_k(x) = -\frac{1}{\sigma}x + e^{\sigma x}C_k + D_k. \quad x \in [x_{k-1}, x_k], \quad k=1, 2, \dots, n \quad (7)$$

From here we conclude that to find the functions  $\varphi_k(x)$  we need to find such coefficients  $C_k, D_k$ ,  $k=1, 2, \dots, n$ ,

Next, we find  $C_k, D_k$  such that the integral of the square of the function  $\varphi_k(x)$  defined by equality (7) on the interval  $[x_{k-1}, x_k]$  takes lowest value. In this regard, consider the following functions

$$F_k(C_k, D_k) = \int_{x_{k-1}}^{x_k} \varphi_k^2(x)dx, \quad k=1, 2, \dots, n.$$

Then from here, taking into account (20), we have

$$F_k(C_k, D_k) = \int_{x_{k-1}}^{x_k} \left( -\frac{1}{\sigma}x + e^{\sigma x}C_k + D_k \right)^2 dx.$$

Then calculating the partial derivatives of the function  $F_k(C_k, D_k)$  with respect to  $C_k$  and  $D_k$  and equating them to zero, we have

$$2 \int_{x_{k-1}}^{x_k} \left( -\frac{x}{\sigma} + C_k e^{\sigma x} + D_k \right) e^{\sigma x} dx = 0, \quad (8)$$

$$2 \int_{x_{k-1}}^{x_k} \left( -\frac{x}{\sigma} + C_k e^{\sigma x} + D_k \right) dx = 0. \quad (9)$$

From (8)-(9), the last equalities we get the following

$$\begin{cases} C_k \int_{x_{k-1}}^{x_k} e^{2\sigma x} dx + D_k \int_{x_{k-1}}^{x_k} e^{\sigma x} dx = \frac{1}{\sigma} \int_{x_{k-1}}^{x_k} x e^{\sigma x} dx \\ C_k \int_{x_{k-1}}^{x_k} e^{\sigma x} dx + D_k \int_{x_{k-1}}^{x_k} 1 dx = \frac{1}{\sigma} \int_{x_{k-1}}^{x_k} x dx \end{cases}$$

Solving this system of equations, we find the unknowns to be:

$$C_k = \frac{x_k - x_{k-1}}{\sigma(e^{\sigma x_k} - e^{\sigma x_{k-1}})}, D_k = \frac{\sigma(x_k + x_{k-1}) - 2}{2\sigma^2}. \quad (10)$$

It is easy to check that these values  $C_k, D_k$  give the smallest value of the function  $F_k(C_k, D_k)$  on the interval  $[x_{k-1}, x_k]$ . Then, taking into account (10), from (7) we have

$$\varphi_k(x) = -\frac{1}{\sigma}x + \frac{e^{\sigma x}(x_k - x_{k-1})}{\sigma(e^{\sigma x_k} - e^{\sigma x_{k-1}})} + \frac{\sigma(x_k + x_{k-1}) - 2}{2\sigma^2} \quad k = 1, 2, \dots, n \quad (11)$$

Now, using (11), from the formulas (5) we calculate the coefficients  $A_{0k}, A_{1k}$   $k = 0, 1, \dots, n$  of the optimal quadrature formula of the form (1).

First, let's calculate  $A_{00}$  and  $A_{10}$ . Then from (5), taking into account  $\varphi_1(x)$ , we have

$$A_{00} = -(\varphi_1'(x_0) - \sigma\varphi_1(x_0)) = \frac{x_1 - x_0}{2}, \quad (12)$$

$$A_{10} = \varphi_1(x_0) = -\frac{1}{\sigma}x_0 + \frac{e^{\sigma x_0}(x_1 - x_0)}{\sigma(e^{\sigma x_1} - e^{\sigma x_0})} + \frac{\sigma(x_1 + x_0) - 2}{2\sigma^2}. \quad (13)$$

Now let's calculate the coefficients  $A_{0k}$  and  $A_{1k}$ ,  $k = 1, 2, \dots, n-1$ . Then from (5), taking into account  $\varphi_k(x)$  for  $k = 1, 2, \dots, n-1$ , we have

$$A_{0k} = \varphi_k'(x_k) - \varphi_{k+1}'(x_k) - \sigma(\varphi_k(x_k) - \varphi_{k+1}(x_k)) = \frac{x_{k+1} - x_{k-1}}{2}, \quad (14)$$

$$A_{1k} = \varphi_{k+1}(x_k) - \varphi_k(x_k) = \frac{e^{\sigma x_k}}{\sigma} \left( \frac{x_{k+1} - x_k}{e^{\sigma x_{k+1}} + e^{\sigma x_k}} - \frac{x_k - x_{k-1}}{e^{\sigma x_k} + e^{\sigma x_{k-1}}} \right) + \frac{x_{k+1} - x_{k-1}}{2\sigma}. \quad (15)$$

Finally, let's calculate the last coefficients  $A_{0n}$  and  $A_{1n}$ . Then, from (5), taking into account (11), we obtain

$$A_{0n} = \varphi_n'(x_n) - \sigma\varphi_n(x_n) = \frac{x_n - x_{n-1}}{2}, \quad (16)$$

$$A_{1n} = -\varphi_n(x_n) = \frac{1}{\sigma}x_n - \frac{e^{\sigma x_n}(x_n - x_{n-1})}{\sigma(e^{\sigma x_n} - e^{\sigma x_{n-1}})} - \frac{\sigma(x_n + x_{n-1}) - 2}{2\sigma^2}. \quad (17)$$

Thus, summing up the results of (12), (13), (14), (15), (16), and (17), we obtain the following main result of this work.

### Theorem 1

In the space  $W_{2,\sigma}^{(2,1)}(a,b)$  for each fixed positive integer  $n$ , there is a unique quadrature formula that is optimal in the sense of Sard of the form

$$\int_a^b f(x)dx = \sum_{k=0}^n A_{0k} f(x_k) + \sum_{k=0}^n A_{1k} f'(x_k) + R_n(f)$$

with coefficients

$$A_{00} = \frac{x_1 - x_0}{2},$$

$$A_{0k} = \frac{x_{k+1} - x_{k-1}}{2}, \quad k = 1, 2, \dots, n-1,$$

$$A_{0n} = \frac{x_n - x_{n-1}}{2},$$

$$A_{10} = -\frac{1}{\sigma} x_0 + \frac{e^{\sigma x_0} (x_1 - x_0)}{\sigma (e^{\sigma x_1} - e^{\sigma x_0})} + \frac{\sigma (x_1 + x_0) - 2}{2\sigma^2},$$

$$A_{1k} = \frac{e^{\sigma x_k}}{\sigma} \left( \frac{x_{k+1} - x_k}{e^{\sigma x_{k+1}} + e^{\sigma x_k}} - \frac{x_k - x_{k-1}}{e^{\sigma x_k} + e^{\sigma x_{k-1}}} \right) + \frac{x_{k+1} - x_{k-1}}{2\sigma}, \quad k = 1, 2, \dots, n-1,$$

$$A_{1n} = \frac{1}{\sigma} x_n - \frac{e^{\sigma x_n} (x_n - x_{n-1})}{\sigma (e^{\sigma x_n} - e^{\sigma x_{n-1}})} - \frac{\sigma (x_n + x_{n-1}) - 2}{2\sigma^2}.$$

for fixed nodes  $x_k$ ,  $k = 0, 1, \dots, n$  satisfying the inequality  $a = x_0 < x_1 < \dots < x_k = b$ .

## OPTIMAL KVADRATURA FORMULASI EKSTREMAL FUNKSIYASINING ANALITIK KO'RINISHI

**Bekmurodova Dilorom**

Toshkent Davlat Transport Universiteti.

e-mail: [bekmurodovadilorom50@gmail.com](mailto:bekmurodovadilorom50@gmail.com)

Davriy funksiyalarni taqribiy integrallash masalasi zamonaviy amaliy matematikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u signallarga ishlov berish, tebranishlar mexanikasi va spektral tahlil kabi sohalarida keng qo'llaniladi. Funksiyalar davriy xarakterga ega bo'lgan hollarda, klassik kvadratura formulalari har doim ham kutilgan yuqori aniqlikni ta'minlay olmaydi. Shu sababli, maxsus davriy Hilbert fazolarida xatolik funksionali normasini minimallashtiruvchi optimal kvadratura formulalarini qurish dolzarb hisoblanadi.

Davriy funksiyalar fazosi va optimal kvadraturalar nazariyasi I.J. Schoenberg ishlari bilan boshlanib, keyinchalik Sobolev fazolari doirasida yanada rivojlantirildi. Davriy bo'lmagan holatdan farqli o'laroq, davriy holatda kvadratura formulasi o'zgarimas son yoki ma'lum trigonometrik ko'phadlarga aniq bo'lishi talab etiladi. Bu esa xatolik funksionaliga mos ekstremal funksiyasini topishga olib keladi.

Ushbu tadqiqotda biz optimal kvadratura formulalarini maxsus davriy  $S_2(P_m)$  Hilbert fazosi uchun quramiz. Ishning asosiy maqsadi - ekstremal funksiyaning aniq analitik ko'rinishini topish va u orqali xatolik funksionali normasining kvadratik formasini hisoblashdir.

$S_2(P_m)$  fazoning har bir  $x \in \square$  va  $\beta \in \square$  elementi davri birga teng bo'lgan funksiyalar uchun quyidagi  $\varphi^{(\alpha)}(x + \beta) = \varphi^{(\alpha)}(x)$ ,  $\alpha = \overline{0, m}$  shartni qanoatlantiradi.

Biz quyidagi kvadratur formulaga e'tibor qaratamiz.

$$\int_0^1 \varphi(x) dx \cong \sum_{k=1}^N C_k \varphi(hk), \quad (1)$$

bunda  $C_k$  (1)- kvadratur formulaning koeffitsientlari,  $h = \frac{1}{N}$ ,  $N \in \mathbb{N}$  va  $\varphi(x) \in S_2(P_3)$ .

$S_2(P_3)$  fazoga tegishli bo'lgan funksiyaning normasi

$$\|\varphi|_{S_2(P_m)}\| = \left[ \int_0^1 (\varphi^{(m)}(x) + 3\varphi^{(m-1)}(x) + 3\varphi^{(m-2)}(x) + \varphi^{(m-3)}(x))^2 dx \right]^{\frac{1}{2}},$$

(2)

(1) - kvadratur formula xatoligi

$$(\ell, \varphi) = \int_0^1 \varphi(x) dx - \sum_{k=1}^N C_k \varphi(hk). \quad (3)$$

Xatolikka mos xatolik funksionali quyidagicha:

$$\ell(x) = \left( \varepsilon_{(0,1]}(x) - \sum_{k=1}^N C_k \delta(x-hk) \right) * \phi_0(x) \quad (4)$$

$\varepsilon_{(0,1]}(x)$  -  $(0,1]$  intervalning xarakteristik funksiyasi,  $\delta$ -esa Dirakning delta funksiyasi

hamda  $\phi_0(x) = \sum_{\beta=-\infty}^{\infty} \delta(x-\beta)$ ,  $*$  - o'rama amali.

Kvadratur formula xatoligining absolyut qiymati Koshi-Shvars tengsizligi bilan quyidagicha baholanadi.

$$|(\ell, \varphi)| \leq \|\varphi\|_{S_2(P_m)} \|\ell\|_{S_2(P_m)^*}$$

Chiziqli va uzluksiz funksionalning umumiy ko'rinishi haqidagi Riss teoremasidan foydalanib ekstremal funksiyasini aniqlaymiz [1].

$$(\ell(x), \varphi(x)) = \langle \psi_\ell(x), \varphi(x) \rangle_{S_2(P_m)}$$

(5)

hamda

$$\|\ell(x)|_{S_2(P_m)^*}\| = \|\psi_\ell(x)|_{S_2(P_m)}\| \quad (6)$$

$S_2(P_m)$  fazodan olingan  $\varphi$  va  $\psi$  funksiyalarning skalyar ko'paytmasi quyidagi

$$(\varphi, \psi)_\ell = \int_0^1 (\varphi^{(m)}(x) + 3\varphi^{(m-1)}(x) + 3\varphi^{(m-2)}(x) + \varphi^{(m-3)}(x))$$

$$(\psi^{(m)}(x) + 3\psi^{(m-1)}(x) + 3\psi^{(m-2)}(x) + \psi^{(m-3)}(x)) dx$$

kabi aniqlanadi. Masalani  $m=3$  hol uchun ko'ramiz.

Ushbu ishda xatolik funksionali normasini aniq hisoblash uchun Furrye almashtirishlaridan foydalangan holda funksional yondashamiz. Avvalo, kvadratur formulaning ekstremal funksiyasini aniqlash uchun chegaraviy masalani yechamiz. Bu yechim yordamida xatolik funksionali normasining umumiy ko'rinishini topamiz. (5) va (7) - tengliklardan foydalanib quyidagi tenglikka ega bo'lamiz.

$$(-1)(\psi_\ell^{(6)}(x) - 3\psi_\ell^{(4)}(x) + 3\psi_\ell^{(2)}(x) - \psi_\ell(x)) = \ell(x)$$

(8)

Yuqoridagi tenglama yechimidan biz ushbu teoremani hosil qilamiz.

**Teorema:**  $(-1)(\psi_\ell^{(6)}(x) - 3\psi_\ell^{(4)}(x) + 3\psi_\ell^{(2)}(x) - \psi_\ell(x)) = \ell(x)$  tenglamaning yechimi

$\ell(x)$  xatolik funksionalining ekstremal funksiyasi bo'ladi hamda u

$$\psi_{\ell}(x) = 1 - \sum_{k=1}^N C_k G_3(x - hk) \quad (9)$$

ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bu yerda

$$G_3(x) = \sum_{\beta=-\infty}^{\infty} \frac{e^{-2\pi i \beta x}}{(2\pi\beta)^6 + 3(2\pi\beta)^4 + 3(2\pi\beta)^2 + 1} \quad (10)$$

#### Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Соболев С.Л. Введение в теорию кубатурных формул. М.: Наука, 1974.-808 с.

## POWER BI DA DAX FUNKSIYALARI YORDAMIDA MA'LUMOTLARNI

### TAHLIL QILISH

#### Gulmurodova Dinora Akram qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

1-kurs doktoranti

E-mail: dinoragulmurodova1@gmail.com

#### G‘afforova Zulayho Muzaffar qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Sun‘iy intellekt yo‘nalishi

2-kurs talabasi

E-mail: gafforovazulayho0511@gmail.com

Raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan bugungi davrda katta hajmdagi ma‘lumotlarni qayta ishlash va ularni samarali tahlil etish tashkilotlar faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Zamonaviy biznes muhitida tezkor va asosli qarorlar qabul qilish uchun Business Intelligence (BI) vositalaridan keng foydalanilmoqda. Shunday platformalardan biri — Microsoft Power BI dasturi bo‘lib, u ma‘lumotlarni yig‘ish, ularni qayta ishlash (transformatsiya), modellashtirish hamda vizual shaklda namoyish etish imkoniyatini taqdim etadi.

Power BI‘ning muhim afzalliklaridan biri uning Data Analysis Expressions (DAX) formulalar tiliga ega ekanligidir. DAX yordamida foydalanuvchilar oddiy arifmetik amallardan boshlab murakkab statistik hisob-kitoblar va vaqt omiliga asoslangan tahlillarni bajarishlari mumkin. Ushbu funksiyalar orqali dinamik hisobotlar tuzish, interaktiv ko‘rsatkichlarni hisoblash hamda ma‘lumotlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Zamonaviy axborot tizimlarida ma‘lumotlar turli manbalardan — ma‘lumotlar bazalari, Excel fayllari, onlayn xizmatlar, bulutli platformalar hamda korporativ axborot tizimlaridan olinadi. Bunday ma‘lumotlar odatda turli format va tuzilishga ega bo‘lib, hajmi jihatidan ham katta bo‘lishi mumkin. Ularni yagona muhitda birlashtirish va chuqur tahlil qilish uchun maxsus analitik vositalar talab etiladi. Shunday platformalardan biri — Microsoft Power BI hisoblanadi.

Power BI foydalanuvchilarga ma‘lumotlarni integratsiya qilish (data integration), tozalash (data cleaning), qayta shakllantirish (data transformation), modellashtirish (data modeling) hamda vizual tarzda taqdim etish imkoniyatini beradi. Dastur interfeysi sodda va tushunarli ko‘rinsada, uning ichki ishlash mexanizmi ancha murakkab va yuqori hisoblash imkoniyatlariga ega. Xususan, ma‘lumotlar modeli (data model) Power BI‘ning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, barcha hisob-kitob va tahlillar aynan shu model asosida bajariladi.

Ma‘lumotlar modeli — bu jadvallar, ustunlar hamda ular o‘rtasidagi bog‘lanishlardan tashkil topgan mantiqiy tizimdir. Modelni to‘g‘ri va samarali shakllantirish keyingi tahlil jarayonlarining aniqligi va unumdorligini ta‘minlaydi.


Microsoft Power BI dasturida odatda “yulduzsimon sxema” (star schema) asosida ma‘lumotlar modeli yaratish tavsiya etiladi. Ushbu yondashuvda bitta markaziy fakt jadvali (masalan, savdo operatsiyalari jadvali) va unga bog‘langan bir nechta o‘lchov jadvallari (mijozlar, mahsulotlar, sana va boshqalar) mavjud bo‘ladi. Bunday tuzilma hisob-kitob jarayonini

tezlashtiradi hamda Data Analysis Expressions (DAX) formulalarining yanada samarali ishlashiga sharoit yaratadi.

Model tarkibining asosiy qismlari quyidagilardan iborat: fakt jadvallar miqdoriy ko'rsatkichlarni (masalan, savdo summasi, foyda, xarajat miqdori) o'z ichiga oladi. O'lchov jadvallari (dimension tables) esa tavsiflovchi ma'lumotlarni, ya'ni mijoz nomi, hudud, sana yoki mahsulot turi kabi atributlarni saqlaydi. Bog'lanishlar (relationships) jadvallar o'rtasidagi mantiqiy aloqalarni belgilaydi. Birlamchi va tashqi kalitlar (primary va foreign keys) esa ushbu jadvallarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi.

Power BI'da ma'lumotlar modeli bilan ishlash jarayoni foydalanuvchidan tahliliy yondashuvni talab etadi. Sababi, model nafaqat mavjud ma'lumotlarni tartibga soladi, balki keyingi hisob-kitob va tahlillar uchun ham poydevor vazifasini bajaradi. Masalan, agar vaqt kesimida tahlil o'tkazish rejalashtirilsa, albatta alohida sana (Date) jadvalini shakllantirish zarur bo'ladi.

Shu bilan birga, model optimallashtirilgan bo'lishi zarur. Keraksiz ustunlarni o'chirish, ma'lumot turlarini to'g'ri belgilash va ortiqcha bog'lanishlarni bartaraf etish tizim tezligini oshiradi. Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlaganda modelning to'g'ri tuzilishi hisobotning ishlash tezligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



*1-rasm. Power BI da ma'lumotlar modeli sxemasi*

### DAX tilining mohiyati va ahamiyati

Microsoft Power BI platformasining eng muhim afzalliklaridan biri unda qo'llaniladigan Data Analysis Expressions (DAX) formulalar tilidir. DAX — ma'lumotlarni hisoblash, saralash va chuqur tahlil qilishga mo'ljallangan maxsus funksional til bo'lib, u bevosita Power BI ma'lumotlar modeli bilan ishlaydi. Ushbu til yordamida oddiy yig'indi yoki o'rtacha qiymatni aniqlashdan tortib, bir necha bosqichli murakkab analitik ko'rsatkichlarni shakllantirish mumkin.

Sintaksis jihatidan DAX Microsoft Excel formulalariga ma'lum darajada o'xshash. Biroq uning ishlash mexanizmi ancha keng va murakkabdir. Excel formulalari asosan alohida hujayralar bilan ishlasa, DAX butun ma'lumotlar modeli darajasida hisob-kitoblarni bajaradi. Ya'ni, u jadvallar o'rtasidagi bog'lanishlarni inobatga olgan holda natija hosil qiladi.

DAX funksiyalari bir nechta asosiy toifalarga ajratiladi. Agregat funksiyalar (SUM, AVERAGE, COUNT, MIN, MAX va boshqalar) umumiy hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Mantiqiy funksiyalar (IF, SWITCH) shartlarga asoslangan natijalarni qaytaradi. Filtrlash funksiyalari (FILTER, ALL, CALCULATE) yordamida ma'lumotlar konteksti boshqariladi va o'zgartiriladi. Matematik hamda statistik funksiyalar turli nisbat va foizlarni hisoblash imkonini beradi. Vaqt intellekti funksiyalari esa ma'lumotlarni vaqt kesimida tahlil qilish va dinamik ko'rsatkichlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

The screenshot shows the Power BI interface. At the top, the DAX formula for 'Measure 4' is displayed:

```
Measure 4 =
VAR maxindex =
    CALCULATE (
        MAX ( Data[Index] ),
        FILTER ( ALL ( Sort ), Sort[Sort] = MAX ( Sort[Sort] ) - 1 )
    )
RETURN
    IF (
        ISBLANK ( maxindex ),
        BLANK (),
        [CumulRate]
    )
```

Below the formula, a table is shown with the following data:

Category	Dollars	Hrs	CumulDollars	CumulHrs	CumulRate	Measure 4
REG_REG	146000	4000	146000	4000	36.50	
REG_OT	21900	400	167900	4400	38.16	1.66
CONT_REG	28800	800	196700	5200	37.83	-0.33
CONT_OT	2460	40	199160	5240	38.01	0.18
Total	199160	5240	199160	5240	38.01	0.18

2-rasm. DAX measure yordamida kümülyativ ko'rsatkichlarni hisoblash va filtr kontekstida natijalarni ko'rsatish

Data Analysis Expressions tilidagi asosiy va eng ta'sirchan funksiyalardan biri — CALCULATE funksiyasidir. Mazkur funksiya filtr kontekstini o'zgartirish imkonini yaratadi va shu orqali murakkab biznes mantiqini aniq ifodalashga yordam beradi. Masalan, umumiy savdo hajmidan muayyan hudud yoki aniq vaqt oralig'iga tegishli ko'rsatkichlarni alohida hisoblab chiqarish mumkin.

DAX'da "kontekst" tushunchasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir formula ma'lum bir shart va filtrlar doirasida ishlaydi, ya'ni natija aynan o'sha kontekstga bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli kontekst mexanizmini to'g'ri anglash DAX'dan samarali foydalanishning muhim sharti hisoblanadi.

DAX yordamida turli murakkab analitik ko'rsatkichlarni hisoblash imkoniyati mavjud. Jumladan, foyda marjasi, o'tgan yilga nisbatan o'sish darajasi, reja va fakt natijalari o'rtasidagi tafovut, eng yuqori ko'rsatkichga ega Top N mahsulotlar tahlili hamda kümülyativ (yig'ma) qiymatlar shular jumlasidandir.

DAX'ning yana bir ustun jihati — katta hajmdagi ma'lumotlar bilan yuqori tezlikda ishlash qobiliyatidir. VertiPaq mexanizmi ma'lumotlarni siqilgan holatda xotirada saqlaydi va tezkor hisoblash jarayonini ta'minlaydi. Natijada millionlab satrlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar ustida ham samarali va tezkor tahlil o'tkazish mumkin bo'ladi. DAX'ni puxta egallash uchun faqat sintaksisni bilish kifoya emas, balki ma'lumotlar modeli hamda kontekst mexanizmini chuqur tushunish ham zarurdir.

Hisoblangan ustun va o'lchov (Measure) tushunchalari

Microsoft Power BI dasturida Data Analysis Expressions (DAX) yordamida hisob-kitoblar odatda ikki ko'rinishda yaratiladi: **hisoblangan ustun** (calculated column) va **o'lchov** (measure). Ularning vazifasi bir-biriga yaqin bo'lib ko'rinsada, ishlash prinsipi va qo'llanilish maqsadi jihatidan sezilarli farqlarga ega.

Hisoblangan ustun jadval tarkibida yaratiladi va har bir qator (row) uchun alohida qiymat hisoblaydi. U modelga yangi ustun sifatida qo'shiladi va ma'lumotlar yangilanganda qayta hisoblanadi. Bunday ustunlar odatda toifalash, guruhlash yoki qo'shimcha atribut yaratish zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

O'lchov (measure) esa dinamik xarakterga ega bo'lib, foydalanuvchi tanlagan filtrlar va vizual kontekst asosida natijani hisoblaydi. Measure modelda formula ko'rinishida saqlanadi, lekin uning qiymati faqat hisobot sahifasida aks ettirilganda aniqlanadi. Shu bois measure'lar xotiradan tejankor foydalanadi va katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Amaliyotda jami savdo hajmi, o'rtacha foyda, foizli o'sish darajasi kabi murakkab analitik ko'rsatkichlar asosan measure orqali yaratiladi. Eng maqbul yondashuv —

imkon qadar measure'dan foydalanish, faqat zarurat tug'ilgandagina hisoblangan ustun qo'shishdir.

Filtr konteksti va satr konteksti

Data Analysis Expressions formulalarining samarali ishlashi "kontekst" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Kontekst — bu formula bajarilayotgan vaqtda qaysi ma'lumotlar to'plami hisobga olinayotganini anglatadi.

Filtr konteksti (Filter Context) hisobot sahifasidagi filtrlar, slicerlar yoki vizual elementlar orqali shakllanadi. Masalan, foydalanuvchi ma'lum bir yil, hudud yoki mahsulot turini tanlasa, o'lchov (measure) aynan shu tanlov asosida qayta hisoblanadi. Bu jarayon DAX'ning dinamik va moslashuvchan xususiyatini namoyish etadi.

Satr konteksti (Row Context) esa asosan hisoblangan ustunlar yoki iterator funksiyalar ishlatilganda yuzaga keladi. Bunda formula jadvalning har bir qatori uchun alohida bajariladi. Filtr va satr kontekstini to'g'ri anglash murakkab formulalarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, **CALCULATE** funksiyasi filtr kontekstini o'zgartirish orqali tahlil doirasini kengaytiradi. Shu bois kontekst tushunchasini puxta o'zlashtirish DAX'ni o'rganishning asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Vaqt intellekti (Time Intelligence) funksiyalari

Biznes tahlilida vaqt omili alohida ahamiyatga ega. Tashkilotlar ko'pincha savdo ko'rsatkichlarini oyma-oy, chorakma-chorak yoki yil kesimida tahlil qiladi. Data Analysis Expressions tarkibidagi vaqt intellekti funksiyalari aynan shu turdagi dinamik tahlillarni amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu funksiyalar yordamida o'tgan davr bilan taqqoslash, yil boshidan boshlab yig'ma natijalarni hisoblash yoki o'sish sur'atlarini aniqlash mumkin.

DAX funksiyalarining amaliy qo'llanilishi

Microsoft Power BI muhitida Data Analysis Expressions (DAX) funksiyalari turli sohalarida samarali tarzda qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa, savdo, moliya va marketing tahlilida DAX asosiy hisob-kitob vositasi sifatida ishlatiladi. Masalan, savdo tahlilida jami savdo hajmi, sof foyda, foyda marjasi va o'sish sur'ati kabi ko'rsatkichlar **measure** yordamida hisoblanadi. Marketing yo'nalishida esa mijozlar soni, faol mijozlar ulushi yoki hududlar kesimidagi natijalar aniqlanadi. Moliyaviy tahlilda esa daromad va xarajatlar nisbatini, reja va fakt ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovutni hisoblash mumkin.

DAX'ning amaliy ahamiyati shundaki, yaratilgan ko'rsatkichlar interaktiv bo'lib, foydalanuvchi hisobotdagi filtrlar yoki slicerlarni o'zgartirganda natijalar avtomatik yangilanadi. Shu bilan birga, bu tezkor va asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi.

DAX funksiyalarining afzalliklari

Data Analysis Expressions funksiyalaridan foydalanish bir qator muhim ustunliklarni ta'minlaydi. Avvalo, ular katta hajmdagi ma'lumotlar ustida tezkor va dinamik hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradi. Hisobotlar interaktiv bo'lib, foydalanuvchi tanlagan filtr yoki vizual elementlarga qarab natijalar avtomatik ravishda o'zgaradi.

Shuningdek, DAX murakkab biznes mantiqini formulalar orqali aniq ifodalashga imkon beradi. Bir nechta jadvaldagi ma'lumotlarni birlashtirib, yagona analitik ko'rsatkich yaratish mumkin, bu esa tashkilot faoliyatini chuqur va har tomonlama tahlil qilishni osonlashtiradi. Umuman olganda, DAX Microsoft Power BI'ning analitik imkoniyatlarini to'liq ochib beruvchi kuchli vosita bo'lib, zamonaviy ma'lumotlar tahlilida muhim ahamiyatga ega.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma'lumotlar tashkilotlar uchun strategik resursga aylanayotgan bir paytda ularni chuqur va tizimli tahlil qilish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Mazkur tezisda Microsoft Power BI muhitida ma'lumotlarni modellashtirish va tahlil qilish jarayonlari hamda Data Analysis Expressions (DAX) funksiyalarining nazariy va amaliy jihatlari batafsil ko'rib chiqildi. Yaratilgan ko'rsatkichlar foydalanuvchi tanlagan filtr va vizual elementlarga qarab avtomatik yangilanadi, bu esa real vaqtga yaqin sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Ayniqsa, savdo, moliya va marketing sohalarida DAX yordamida samaradorlikni baholash, o'sish tendensiyalarini aniqlash hamda strategik rejalashtirish

jarayonlarini takomillashtirish mumkin. Xulosa qilib aytganda, Power BI va DAX funksiyalaridan samarali foydalanish nafaqat ma'lumotlarni vizual tarzda ko'rsatishga, balki ularni chuqur tahlil qilish va asoslangan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun mustahkam analitik platforma yaratadi. Zamonaviy BI mutaxassisi uchun DAX'ni bilish muhim kompetensiyalardan biri bo'lib, u raqobatbardosh va samarali boshqaruv tizimini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abduqodirov A.A. – Axborot texnologiyalari, Toshkent, 2022.
2. Tursunov X.T. – Raqamli iqtisodiyot va biznes tahlil, Toshkent, 2023.
3. Abdushukurov A., Nurmuhamedova N., Sagidullaev K.S. – Matematik statistika, Toshkent, 2023.
4. Statistika, Toshkent: Turan Universiteti, 2024.

## **SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH**

**M.T.Ibodova**

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti  
[mohinuribodova80@gmail.com](mailto:mohinuribodova80@gmail.com).

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, turizm sohasida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektidan foydalanish xizmatlar samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Xususan, Butunjahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, raqamli yechimlarni joriy etgan turistik yo'nalishlarda operatsion jarayonlar samaradorligi 20–25 foizga oshib, xarajatlar 10–15 foizga qisqargan<sup>1</sup>. Ushbu tendensiya turizm infratuzilmasini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni raqamli asosda qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

2025 yilda O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot hajmi 7,7 foizga oshgan<sup>2</sup>. Mazkur o'sishda xizmatlar sohasi, jumladan turizm tarmog'ining hissasi sezilarli bo'lib, bu sohada samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm milliy iqtisodiyotning yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi va bandlikni ta'minlovchi strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizm infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi hududiy iqtisodiy o'sish, xizmatlar eksporti va investitsion jozibadorlik bilan bevosita bog'liq. Shu bois so'nggi yillarda O'zbekistonda turizm infratuzilmasini raqamli transformatsiya asosida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi<sup>3</sup>.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025 yilda O'zbekistonga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar soni 11,7 million kishiga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024 yilga nisbatan 46,8 foizga oshgan<sup>4</sup>. Shu bilan birga, 2025 yilning yanvar–avgust oylarida turizm xizmatlari hajmi 2,2 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 44 foizga o'sdi<sup>5</sup>. Mazkur ko'rsatkichlar turizm infratuzilmasini boshqarishda zamonaviy raqamli yondashuvlarni joriy etish zaruratini tasdiqlaydi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari turizm infratuzilmasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishda muhim instrument hisoblanadi. Jumladan, turistlar oqimini prognozlash, mehmonxona fondidan foydalanish darajasini optimallashtirish, transport logistikasi va dinamik narx belgilash jarayonlarida sun'iy intellekt asosidagi yechimlar keng qo'llanilmoqda.

O'zbekistonda turizm infratuzilmasini raqamlashtirish jarayonlari "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilmoqda. Ushbu strategiyada xizmatlar sohasida raqamli platformalarni joriy etish, sun'iy intellektga asoslangan boshqaruv tizimlarini rivojlantirish va

ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish mexanizmlarini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan<sup>6</sup>.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, turizm infratuzilmasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar taklif etiladi: raqamli infratuzilmani rivojlantirish, sun'iy intellekt asosida xizmatlarni optimallashtirish, turistlar xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali marketing samaradorligini oshirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasini jadallashtiradi hamda turizm sohasining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. World Tourism Organization. *Digital Transformation in Tourism*. Madrid, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Yalpi ichki mahsulot va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari*, 2025.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Turizm faoliyati statistikasi*, 2025.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Xizmatlar sohasi va turizm xizmatlari hajmi*, 2025.
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Xizmatlar sohasining YAIMdagi ulushi bo'yicha tahliliy ma'ruza*, 2025.

## **ALGORITMLASH VA DASTURLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLARI**

**Xayitova Dilovar Ismat qizi,**  
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti  
[d.i.xayitova@buxdu.uz](mailto:d.i.xayitova@buxdu.uz)

Algoritmash va dasturlash kompetensiyalari ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ushbu fanlarni samarali o'qitish nafaqat kod yozish ko'nikmasini, balki algoritmik fikrlash, muammoni tahlil qilish va mustaqil yechim ishlab chiqish qobiliyatini ham rivojlantirishni talab etadi. Shu sababli an'anaviy o'qitish metodlari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot algoritmash va dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan.


Maktab ta'limi jarayonida o'quvchi -yoshlar turli raqamli texnologiyalar ta'siri ostida o'qishga bo'lgan qiziqishini saqlab qolish bugungi kunning bosh masalasi hisoblanadi. Algoritmash hamda dasturlash kompetensiyalari universal ko'nikma sifatida shakllanib, turli sohalarda samarali faoliyat yuritish uchun muhim omilga aylanmoqda. Algoritmik fikrlashni rivojlantirish ta'lim jarayonida nafaqat kod yozish, balki muammoni tahlil qilish, uni formalashtirish va optimal yechim ishlab chiqish jarayonini tashkil etishni talab etadi [1]. Tadqiqotlarda dasturlashni o'qitishda an'anaviy metodlarning cheklanganligi, talabalarning ko'proq tayyor yechimlarni o'zlashtirishga moyilligi qayd etilgan [2]. Shuningdek, yangi boshlovchi dasturchilarda algoritmik strukturalarni tushunish va sintaksis xatolarini kamaytirish muammolari mavjudligi ilmiy manbalarda asoslab berilgan [3]. Shu sababli ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyiha asosida o'qitish metodida talabalar real mahsulot yaratish jarayonida faol ishtirok etib, amaliy kompetensiyalarini rivojlantiradi [4]. Blended learning modeli esa auditoriya mashg'ulotlarini onlayn ta'lim elementlari bilan uyg'unlashtirish orqali o'quv jarayonining moslashuvchanligini ta'minlaydi [5]. Avtomatik baholash tizimlari va raqamli platformalar dasturlashni o'qitishda tezkor "feedback" berish imkonini yaratadi hamda o'quv natijalarini

nazorat qilishni soddalashtiradi [6]. Dasturlashni o‘qitishda hisoblash tafakkurini (computational thinking) shakllantirish ham muhim yo‘nalishlardan biridir [7]. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan ham kompetensiyaviy yondashuv asosida dasturlash fanlarini o‘qitishning metodik jihatlarini yoritilgan [8]. Loyiha asosida o‘qitish orqali talabalar algoritmik fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslangan [9]. Raqamli ta‘lim muhitida dasturlashni o‘qitishning metodik imkoniyatlari ham zamonaviy tadqiqotlarda keng yoritilgan [10].

Muammoli ta‘lim texnologiyasi algoritmlash jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini faollashtirish va masala yechish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi [11]. Bo‘lajak pedagog va IT mutaxassislarining AKT kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion metodlarning o‘rni alohida ta‘kidlanadi [12]. STEAM yondashuvi esa fanlararo integratsiya asosida algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali modeli sifatida qaraladi [13]. Mazkur yondashuvlar uyg‘un integratsiya qilinganda, ta‘lim jarayonining samaradorligi oshib, o‘quvchilarning amaliy va tahliliy kompetensiyalari yuqori darajada shakllanadi.

Biz algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov tadqiqotini amalga oshirdik. Tadqiqotda Python dasturlash tili asosida 4 ta guruh (har birida 15 nafardan, jami 60 nafar talaba) shakllantirildi va ularga bir xil o‘quv mazmuni turli metodlar asosida o‘qitildi: muammoli ta‘lim, loyiha asosida o‘qitish (PBL), blended learning hamda STEAM yondashuvi. Guruhlar o‘rtasidagi farq faqat ta‘limni tashkil etish texnologiyasida saqlanib, baholash mezonlari yagona standart asosida olib borildi. O‘quv jarayoni yakunida talabalarning algoritm tuzish, masalani tahlil qilish, kod yozish, xatolarni aniqlash va tuzatish (debugging), hamda yechim samaradorligini baholash ko‘nikmalari post-test orqali aniqlanib, har bir ishtirokchi bo‘yicha umumiy ball shakllantirildi.



1-rasm. Algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning taqqoslama modeli

Natijalar statistik jihatdan bir omilli dispersion tahlil (One-way ANOVA) yordamida tekshirildi. Hisoblash natijasida  $F = 19.43$  va  $p = 9.28 \times 10^{-9}$  ( $p < 0.05$ ) qiymatlari qayd etilib, guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farq mavjudligi aniqlandi. O‘rtacha ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, STEAM texnologiyasi asosida o‘qitilgan guruh eng yuqori natijani (Mean = 87.15) qayd etdi. Loyiha asosida o‘qitish (Mean = 81.64) ham yuqori samaradorlik ko‘rsatdi, muammoli ta‘lim (Mean = 78.07) va blended learning (Mean = 75.05) esa nisbatan pastroq, biroq ijobiy natijalarga ega bo‘ldi. Olingan ma‘lumotlar asosida aytishimiz mumkinki, fanlararo integratsiya va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirishda eng samarali metodlar ekanini ilmiy-statistik jihatdan asoslab berdi(1-rasm).

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalarni dasturlash ta'limiga integratsiyalash o'quvchilarning algoritmik fikrlashi, mustaqil ishlash va kompleks muammo yechish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi.

Amaliy taklif sifatida algoritmlash va dasturlash fanlarida amaliy loyihalar, real hayotiy masalalar va fanlararo integratsiyaga asoslangan topshiriqlarni o'quv rejasiga kiritish orqali talabalarning algoritmik fikrlashi va muammoni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirish mumkin. Onlayn IDE, avtomatik baholash (auto-grading) tizimlari va LMS platformalarini joriy etish orqali talabalarning mustaqil ishlashini rag'batlantirish hamda tezkor teskari aloqa (feedback) mexanizmini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Dasturlash jarayonida xatolarni aniqlash va tahlil qilishga yo'naltirilgan maxsus amaliy mashg'ulotlar tashkil etish orqali talabalar algoritmini chuqur tushunish va optimallashtirish malakasini oshirishi mumkin.

Biz olib borgan tadqiqot asosida innovatsion pedagogik texnologiyalarni metodik qo'llanmalar bilan mustahkamlash, Oliy ta'lim muassasalarida algoritmlash va dasturlash fanlari uchun STEAM, PBL va blended learning asosidagi metodik tavsiyalar hamda namunaviy loyihalar to'plamini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchilar malakasini oshirishga yo'naltirilgan treninglar tashkil etish. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli vositalardan samarali foydalanish bo'yicha muntazam seminar va treninglar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Wing J. M. Computational thinking. *Communications of the ACM*, 2006, 49(3), 33–35.
2. Robins A., Rountree J., Rountree N. Learning and teaching programming: A review and discussion. *Computer Science Education*, 2003, 13(2), 137–172.
3. Lahtinen E., Ala-Mutka K., Järvinen H.-M. A study of the difficulties of novice programmers. *ACM SIGCSE Bulletin*, 2005, 37(3), 14–18.
4. Thomas D., Carroll J. M. Learning programming: The role of tutoring systems and project-based learning. *Journal of Systems and Software*, 2005, 76(2), 123–135.
5. Graham C. R. Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions. *Handbook of Blended Learning*, 2006, 3–21.
6. Ihantola P., Ahoniemi T., Karavirta V., Seppälä O. Review of recent systems for automatic assessment of programming assignments. *Proceedings of the 10th Koli Calling International Conference on Computing Education Research*, 2010, 86–93.
7. Lye S. Y., Koh J. H. L. Review on teaching and learning of computational thinking through programming: What is next for K-12? *Computers in Human Behavior*, 2014, 41, 51–61.
8. Muslimov N. A., Abdullayev B. S. Dasturlash fanlarini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv asoslari. Oliy ta'lim muammolari, 2019.
9. Tursunov S. S., Ergashev A. A. Loyiha asosida o'qitish orqali talabalar algoritmik fikrlashini rivojlantirish. *Zamonaviy ta'lim*, 2020.
10. Xolmatov A. M., Raximov D. A. Raqamli ta'lim muhitida dasturlashni o'qitishning metodik imkoniyatlari. *Ta'lim va innovatsion texnologiyalar*, 2021.
11. Usmonov O. O., Qodirov A. A. Algoritmlashni o'qitishda problemali ta'lim texnologiyasining didaktik ahamiyati. *Pedagogika va psixologiya*, 2020.
12. Eshankulov Kh. Sh. Bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarida AKT kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik modeli. *Kasb-hunar ta'limi*, 2022.
13. Xazratov F. X., Xayitova D. I. STEAM: O'quvchilarning algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirishning yangi paradigmasi // *Ilm-fan va texnologiyalar*. – 2025. – № 12(1). – B. 208–217

## NOCHIZIQLI ULTRATOVUSH MODEL TENGLAMASI UCHUN MASALA.

Mirzoyeva Surayyo Oybek qizi

Oltiboyeva Dilnora Orifjonovna

Samadova Feruzabonu Muxammadovna

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, M.Iqbol, 200114, O'zbekiston

[asliddinboltayev@mail.ru](mailto:asliddinboltayev@mail.ru)

Moore-Gibson-Tompson tenglamasi yuqori chastotali ultratovush to'liqlarini modellashtirishdan kelib chiqadi. Ushbu model vaqt bo'yicha uchinchi tartibli bo'lib, relaksatsiyani bildiruvchi parametrga ega. Ushbu relaksatsiya parametri akustik to'liqlarning chekli tezligini hisobga oladi va akustik to'liqlarni modellashtirishda yuzaga keladigan chekli tarqalish tezligi paradoksini hal qiladi [1].

Hozirgi kunda ikkinchi darajali konservativ sistemalarga qo'shilgan xotiraning o'rama ko'rinishi barqarorlashtiruvchi effekt berishi yaxshi ma'lum. Biz shunga o'xshash muammoni uchinchi darajali sistema uchun tahlil qilamiz. Bu bizni quyidagi mavhum integro-differensial tenglamani ko'rishga olib keladi [2]:

$$u_{ttt} + u_{tt} - u_{xxt} - u_{xx} + \int_0^t g(t - \tau)u(x, \tau)d\tau = 0. \quad (1)$$

Ushbu model tenglama uchun boshlang'ich shartlar odatdagi ko'rinishida quyidagicha qo'yiladi:

$$\frac{\partial^i}{\partial t^i} u(x, 0) = \psi_i(x), \quad i = 0, 1, 2. \quad (2)$$

Shu bilan birgalikda ushbu masala uchun Ionkin chegaraviy shartini

$$u(0, t) = 0, \quad u_x(0, t) = u_x(1, t) \quad (3)$$

ko'rinishida beramiz. Masalaning yechimini  $\Omega_T := \{(x, t): 0 < x < 1, 0 < t \leq T\}$  sohada qaraymiz. Odatda (1)-(3) masalaning  $u(x, t) \in C_{x,t}^{2,3}(\Omega_T) \cap C_{x,t}^{2,3}(\bar{\Omega}_T)$  yechimini topish masalasi to'g'ri masala deb yuritiladi.

Masalaning global yagona yechiluvchanligi uchun quyidagi teorema o'rinli.

**Teorema.** Faraz qilaylik, quyidagi shartlar o'rinli bo'lsin:

$$\psi_0(x) \in C^4[0,1]; \quad \psi_0(0) = \psi_0''(0) = 0, \quad \psi_0'(0) = \psi_0'(1), \quad \psi_0'''(0) = \psi_0'''(1);$$

$$\psi_1(x) \in C^3[0,1]; \quad \psi_1(0) = \psi_1''(0) = 0, \quad \psi_1'(0) = \psi_1'(1);$$

$$\psi_2(x) \in C^2[0,1]; \quad \psi_2(0) = 0, \quad \psi_2'(0) = \psi_2'(1);$$

$$g(t) \in C[0, T].$$

U holda (1)-(3) masalaning  $C_{x,t}^{2,3}(D) \cap C_{x,t}^{1,2}(\bar{D})$  funksioanal sinfga qarashli yagona klassik yechimi mavjud.

### Adabiyotlar

1. B. Kaltenbacher, I. Lasiecka, R. Marchand, Well-posedness and exponential decay rates for the Moore-Gibson-Thompson equation arising in high intensity ultrasound, Control and Cybernetics, (2011), V. 40, pp. 971988.

2. Lasiecka I., Wang X., General decay rate of Moore-Gibson-Thompson equation with memory-part II // Journal Diff. Equations, 2015, 259(12), pp. 7610–7635.

# LOW-POWER WIDE AREA NETWORKS (LPWAN) IN SMART CITIES: RESEARCH ON REMOTE WATER RESOURCE MONITORING SYSTEMS

**D. I. Abdurakhimov**

Turin Polytechnic University in Tashkent,  
Telecommunication Engineering (MTE)

2nd-year Master's Student

[dilshodabduraximov5@gmail.com](mailto:dilshodabduraximov5@gmail.com)

Global population growth and increasing urbanization—projected to reach 70% by 2050—place immense stress on city resources. Consequently, smart city initiatives, guided by the UN Sustainable Development Goals (SDGs) 2030, have become essential. These priorities focus on mitigating environmental impacts and promoting societal inclusivity through sustainable urban expansion.

Developing a resilient smart city infrastructure requires a rigorous technical evaluation of Low-Power Wide Area Network (LPWAN) technologies. These protocols must balance the trade-offs between communication range, data throughput, and energy expenditure. The primary technologies suitable for large-scale environmental sensing include LoRaWAN, Sigfox, and NB-IoT.

## Technical Specifications of LPWAN Technologies

Technology	Frequency Band	Data Rate	Range (Urban/Rural)	Network Topology
<b>LoRaWAN</b>	433/868/915 MHz	Up to 50 Kbps	5–20 km	Star
<b>Sigfox</b>	433/868/915 MHz	100 bps	10–50 km	One-hop Star
<b>NB-IoT</b>	Licensed LTE Bands	200 Kbps	1–10 km	Tree

While NB-IoT offers higher data rates suitable for content-rich applications, it entails licensed spectrum costs and higher power demands. In contrast, LoRaWAN utilizes the orthogonality of spreading factors to maintain robust connectivity in cluttered urban environments. Its star topology provides a simplified aggregation scheme that minimizes latency and device complexity, making it highly effective for decentralized environmental monitoring.

The proposed water monitoring system follows a multi-layered IoT architecture—comprising the Perception, Network, and Middleware layers—to ensure efficient data flow and system integrity.

## Hardware Components

- **TTGO ESP32-LoRa32 nodes:** Integrated edge computing devices that facilitate data processing and LoRa-modulated transmission.

- **Chemical sensors:** High-precision probes utilized to measure **pH** (acidity/alkalinity), **Dissolved Oxygen (DO)**, **Total Dissolved Solids (TDS)**, and **Turbidity**.

- **Raspberry Pi units:** Local LoRa gateways serving as the Network Layer bridge to relay edge data to the cloud via multi-hop communication protocols.

The **Sensing Layer** (Perception Layer) captures physical quantities from the environment via chemical transducers. The **Network Layer** manages the transmission of these packets through the LoRaWAN protocol, ensuring the integrity of data as it moves toward the cloud. Finally, the **Middleware Layer** acts as a generic interface that handles API management, database orchestration, and security protocols to prepare data for the application layer.

As a case-specific implementation of the survey's "Smart City Services" framework, this field study was conducted at the **Sungai Pantai** and **Sungai Anak Air Batu** river sites. These locations represent critical points of environmental stress where urban runoff and industrial discharge frequently degrade water quality. The sites provided an ideal environment for testing the resilience of IoT nodes against physical signal obstructions and harsh environmental conditions. The deployment aimed to capture real-time fluctuations in river parameters, testing the system's capacity to provide continuous monitoring in a high-density urban runoff scenario.

The network's communication efficiency was analyzed through signal propagation modeling and environmental stress testing.

The Received Signal Strength Indicator (RSSI) and Signal-to-Noise Ratio (SNR) were evaluated to assess the impact of the urban "clutter" on signal spread. Comparative analysis between 2.1 dBi and 3 dBi antenna gains demonstrated that higher gain significantly mitigates Non-Line-of-Sight (NLOS) propagation issues. By optimizing the spreading factors, the system achieved stable connectivity even amidst dense structural interference.

Network reliability was heavily influenced by seasonal monsoon changes. Analysis of packet loss trends indicated a direct correlation between heavy precipitation and increased signal attenuation. These findings necessitate the implementation of adaptive transmission power states and robust scheduling to compensate for the higher attenuation coefficients observed during periods of intense rainfall.

The data analytics framework is structured into a four-layer process: **Data Acquisition, Preprocessing, Data Analytics, and the Service Layer**. During the Preprocessing phase, the system performs data scaling and imputes missing values to manage the heterogeneous nature of sensor readings (pH, DO, TDS, Nitrates). In the Data Analytics phase, **K-means clustering** is applied to categorize the river water into actionable tiers. This machine learning approach interprets complex parameter relationships to categorize water quality into Classes I through V, aligned with the established Water Quality Index (WQI).

The classification tiers are defined as follows:

- **Class I/II**: High quality; suitable for sensitive aquatic species and human consumption with minimal treatment.
- **Class III**: Moderate quality; requires extensive treatment for drinking.
- **Class IV/V**: Poor quality; unsuitable for contact, often indicating significant industrial pollution.

This framework allows the Service Layer to provide city administrators with simplified, real-time alerts regarding the health of urban water resources.

## **COMPARATIVE ANALYSIS OF LOW-POWER IOT COMMUNICATION PROTOCOLS FOR SMART WATER METERING IN URBAN HIGH-RISE INFRASTRUCTURE**

**D. I. Abdurakhimov**

Turin Polytechnic University in Tashkent,  
Telecommunication Engineering (MTE), 2nd-year Master's Student  
[dilshodabduraximov5@gmail.com](mailto:dilshodabduraximov5@gmail.com)

The United Nations Sustainable Development Goals for 2030 emphasize the necessity of efficient water resource management. In smart cities, water quality and consumption monitoring are primary municipal tasks aimed at detecting leaks and ensuring sustainable supply. For residential high-rise buildings, the "last mile" of connectivity is the most challenging, as signals must penetrate thick concrete walls and reach meters often located in basements or utility closets.

Effective IoT execution in urban infrastructure requires a balance of **power, cost, efficiency, and maintenance**.

- **LoRaWAN (Long Range Wide Area Network):** Operates on unlicensed ISM bands (868/915 MHz). It is highly efficient for smart city services due to its ability to handle long-range transmissions (5–20 km) with very low power consumption, allowing battery life to exceed 10 years. Its unique **Chirp Spread Spectrum (CSS)** modulation allows it to demodulate signals below the noise floor.

- **NB-IoT (Narrowband IoT):** Operates on licensed LTE bands. While it offers high **Quality of Service (QoS)** and can support up to 100,000 devices per cell, it involves recurring subscription costs and higher power consumption compared to LoRaWAN.

- **Zigbee and Bluetooth:** These are short-range "Home Area Network" (HAN) technologies. While low-power, they are unsuitable for city-wide infrastructure as they require numerous "hops" or extenders, increasing operational costs and latency.

A robust smart metering system follows a four-layer IoT model:

1. **Perception Layer:** Smart water meters equipped with sensors for flow rate and quality (pH, Turbidity, TDS).

2. **Network Layer:** Utilization of LoRa gateways positioned on rooftops to collect data from scattered end-nodes.

3. **Middleware Layer:** Secure APIs and databases (e.g., ThingsSpeak or The Thing Stack) for data storage.

4. **Application Layer:** User interfaces and Android/iOS dashboards where residents can set daily consumption targets (e.g., 200 liters/day) and receive alerts for record-breaking consumption indicative of leaks.

Technical trials in urban river and infrastructure scenarios provide benchmarks for LoRa performance.

The quality of the received signal is determined by the **RSSI** (Received Strength Signal Indicator). In dense urban settings, the minimum acceptable RSSI for LoRa is **-120 dBm**. Research shows that using a higher antenna gain (e.g., 3 dBi vs 2.1 dBi) significantly strengthens the signal, reducing interference in non-line-of-sight (NLOS) urban environments.

- **Experimental Results:** At distances of approximately 566m in an urban setting, mean RSSI values reached **-102.87 dBm**, well within the functional range.

- **SNR Impact:** Higher **Spread Factors (SF)** improve the demodulator's ability to interpret weak signals. SF12, while slower in data rate, provides the highest sensitivity for "deep indoor" meters.

To plan high-rise deployments, the **Okumura-Hata model** is often used to predict path loss in large cities. This model accounts for the heights of the gateway (typically rooftop, ~25-50m) and the terminal node.

- **Path Loss Formula:**  $L_H = 69.55 + 26.16 \log_{10} f - 13.82 \log_{10} h_T - a(h_R) + (44.9 - 6.55 \log_{10} h_T) \log_{10} d$ .

- **Urban Barriers:** High-rise residential areas suffer from **multipath fading** and diffraction from building edges.

The integration of **Artificial Intelligence** enhances the value of collected water data.

- **K-means Clustering:** Used to analyze consumption patterns and detect abnormalities. For example, if a node shows a sudden spike in flow while the resident is away, the system classifies this as a "leak event" and alerts the municipal council.

- **Predictive Maintenance:** AI algorithms can predict battery failure or sensor degradation before the system goes offline.

Smart cities involve sensitive citizen data. Power and water consumption patterns can inadvertently reveal a person's habits or occupancy status.

- **Mitigation:** Mitigation requires **end-to-end encryption** and the use of **Blockchain** for access control and tracking data usage by third parties.
- **Network Attacks:** Systems must be protected against **Denial of Service (DoS)** attacks that could "blind" city administration to water shortages.

## **SUD EKSPERTIZA TEKSHIRUVLARIDA LABORATORIYA SHAROITIDA OLINGAN QON TAHLIL NATIJALARINI RAQAMLASHTIRISH VA VAFOT SABABIGA TASHXIS QO‘YUVCHI DASTURIY TA‘MINOT**

**Abdurashidov B.N.**

Tashkent axborot texnologiyalari universiteti, Magistr, 1-kurs.  
[abdurashidovbexruz@icloud.com](mailto:abdurashidovbexruz@icloud.com)

Hozirgi kunda sud-tibbiy ekspertiza amaliyotida vafot sababini aniqlash jarayoni kompleks tekshiruvlarga asoslanadi. Chet davlatlarda (Yevropa, AQSH tajribasida) hamda O‘zbekistonda sud ekspertizasi jarayoni asosan quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: murdani ko‘zdan kechirish, laboratoriya tahlillari (gematologiya, biokimyoy, toksikologiya), histologik tekshiruv, hamda ekspert xulosasi. Qon tahlil natijalari (CBC ko‘rsatkichlari, elektrolitlar, jigar va buyrak markerlari, toksik modda konsentratsiyasi va boshqalar) laboratoriyada olinadi va ko‘pincha alohida shaklda ekspertga taqdim etiladi.

An’anaviy usulda ekspert laboratoriya natijalarini klinik tajriba va normativ ko‘rsatkichlar bilan solishtirib, boshqa tekshiruv ma’lumotlari bilan integratsiya qiladi. Bu jarayon o‘rtacha 30–60 daqiqa vaqt talab qilishi mumkin (holat murakkabligiga qarab). Jarayon inson omiliga bog‘liq bo‘lib, katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilishda subyektivlik yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

Shu sababli laboratoriya ma’lumotlarini raqamlashtirish va ularni sun’iy intellekt asosida qayta ishlovchi dasturiy tizim yaratish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Mazkur ishning maqsadi — sud ekspertiza tekshiruvlarida laboratoriya sharoitida olingan qon tahlil natijalarini yagona raqamli platformaga kiritish, ularni strukturalangan ma’lumotlar bazasida saqlash hamda mashinali o‘qitish algoritmlari yordamida vafot sababini ehtimollik asosida aniqlovchi dasturiy ta’minot ishlab chiqishdir.

### **Tizim arxitekturasi va texnologik asos**

Taklif etilayotgan tizim ikki asosiy qismdan iborat:

#### **1. Desktop ilova (Qt + Python)**

- Foydalanuvchi interfeysi Qt framework asosida ishlab chiqiladi.
- Python dasturlash tili orqali ma’lumotlarni qayta ishlash, validatsiya va AI modul integratsiyasi amalga oshiriladi.
- Offline rejimda vaqtinchalik saqlash imkoniyati mavjud.

#### **2. Server va ma’lumotlar bazasi (PostgreSQL)**

- Markaziy ma’lumotlar bazasi PostgreSQL asosida tashkil etiladi.
- REST API orqali ma’lumotlar almashinuvi amalga oshiriladi.
- Bulutli infratuzilma orqali barcha laboratoriyalardan kelgan datasetlar yagona markazda yig‘iladi.

### **AI va Machine Learning metodlari**

Tizimda klassifikatsiya masalasi qo‘yiladi — ya’ni vafot sababini ehtimollik asosida aniqlash. Quyidagi algoritmlar qo‘llanishi rejalashtirilgan:

- **Logistic Regression** — bazaviy ehtimollik modeli sifatida;
- **Gradient Boosting (XGBoost / CatBoost)** — murakkab nolinear bog‘lanishlarni aniqlash uchun;
- **Ansambli yondashuvi** — bir nechta model natijalarini birlashtirish.

Model chiqishi aniq tashxis emas, balki ehtimollik reytingi ko‘rinishida taqdim etiladi (*masalan: 72% — yurak-qon tomir, 18% — intoksikatsiya, 10% — metabolik sabab*).

### **Dataset shakllantirish va label siyosati**

Tizim to‘liq ishlashi uchun kamida **5000 ta real ekspert xulosasi bilan belgilangan (label qo‘yilgan) holatlar** talab etiladi. Har bir holat sud-tibbiy mutaxassis tomonidan tasdiqlangan vafot sababi bilan markalanadi.

Rejalashtirilgan bosqichlar:

1. 5000 tagacha real laboratoriya holatlari yig‘iladi.
2. Har biriga mutaxassis tomonidan label qo‘yiladi.
3. Shundan so‘ng model dastlabki o‘qitish bosqichidan o‘tadi.
4. Faqat 5000 ta real va tasdiqlangan datasetdan keyingina tizim haqiqiy qaror qo‘llab-quvvatlovchi loyiha sifatida ishga tushiriladi.

Hozirgi bosqichda forensic ma‘lumotlar xavfsizlik siyosati tufayli real dataset mavjud emas. Shu sababli barcha natijalar nazariy va taklif sifatida qayd etiladi.

### **Qayta o‘qitish mexanizmi**

Barcha laboratoriyalardan kelgan ma‘lumotlar bulut serverida saqlanadi. Tizim quyidagi mexanizm asosida ishlaydi:

- Har oy boshida yangi ma‘lumotlar qo‘shiladi;
- Model avtomatik ravishda qayta o‘qitiladi (retraining);
- Oldingi model bilan taqqoslab validatsiya qilinadi;
- Eng yaxshi natija bergan model ishlab chiqarish muhitiga o‘tkaziladi.

Bu yondashuv modelning doimiy takomillashuvini ta‘minlaydi.

Forensik ma‘lumotlar yuqori maxfiylik darajasiga ega. Shu sababli quyidagi choralar qo‘llaniladi:

- Ma‘lumotlarni AES-256 shifrlash;
- HTTPS orqali uzatish;
- Token asosidagi autentifikatsiya;
- Rolga asoslangan kirish nazorati;
- Audit va log tizimi;
- Anonimlashtirish mexanizmi.

Real ma‘lumotlar bilan ishlash faqat ruxsat etilgan muhitda amalga oshiriladi.

**Jadval 1.**

### **An‘anaviy va raqamli usulni solishtirish**

<b>Ko‘rsatkich</b>	<b>An‘anaviy usul</b>	<b>Taklif etilayotgan tizim</b>
Tahlil vaqti	30–60 daqiqa	3–7 daqiqa
Subyektivlik	Yuqori	Kamaytirilgan
Ma‘lumot integratsiyasi	Qo‘lda	Avtomatik
Statistik tahlil	Cheklangan	Kengaytirilgan

Natijada tashxis olish jarayoni o‘rtacha 40 daqiqadan 5 daqiqagacha qisqarishi mumkin.

Taklif etilayotgan dasturiy ta‘minot sud-tibbiy ekspertiza sohasida laboratoriya natijalarini raqamlashtirish va sun‘iy intellekt asosida qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Hozirgi bosqichda real forensic dataset mavjud emasligi sababli natijalar konseptual darajada baholanmoqda. Biroq 5000 ta real va ekspert tomonidan label qo‘yilgan ma‘lumotlardan so‘ng loyiha amaliy qiymatga ega bo‘lib, sud ekspertizasi jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi va standartlashtirishi mumkin.

# POWER BI VOSITALARI ASOSIDA INTERAKTIV PROGNOZLASH VA BASHORATLI TAHLIL TIZIMINI YARATISH

Adxamjonova Muxlisa Umidjon qizi  
[muxlisaadxamjonova@gmail.com](mailto:muxlisaadxamjonova@gmail.com)

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Sun'iy intellekt yo'nalishi  
2-kurs talabasi

Gulmurodova Dinora Akram qizi  
[dinoragulmurodova1@gmail.com](mailto:dinoragulmurodova1@gmail.com)

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali 1-kurs  
doktaranti


Hozirgi davrda tashkilotlar faoliyatida katta hajmdagi ma'lumotlar shakllanmoqda va ular turli axborot tizimlarida saqlanmoqda. Lekin bu ma'lumotlardan samarali foydalanish hamda kelajak ko'rsatkichlarini oldindan baholash har doim ham yetarli darajada amalga oshirilmaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim qarorlar hali ham subyektiv fikr va tajribaga asoslanadi. Shu sababdan ma'lumotlarni tizimli ravishda tahlil qilish, ularni vizual ko'rinishda taqdim etish hamda prognozlash imkoniyatiga ega platformalarga ehtiyoj ortib bormoqda. Interaktiv BI tizimlari foydalanuvchiga ma'lumotlarni filtrlash, taqqoslash va turli ssenariylarni sinab ko'rish imkonini berib, boshqaruv jarayonini yanada asosli qilishga xizmat qiladi.

Interaktiv prognozlash tizimlari vaqt qatorlari asosida trend va mavsumiylikni aniqlash, ishonch oralig'ini hisoblash hamda turli ssenariylarni modellashtirish imkonini beradi. Zamonaviy BI (Business Intelligence) platformalar orasida Power BI keng funksional imkoniyatlari bilan ajralib turadi [1], [3]. Power BI platformasi turli manbalardan ma'lumotlarni yig'ish, ularni qayta ishlash va analitik ko'rinishda taqdim etish imkoniyatiga ega. Tadqiqot davomida Power Query orqali ma'lumotlar tayyorlandi, DAX yordamida asosiy ko'rsatkichlar hisoblandi. Bundan tashqari, vaqtga bog'liq tahlillar va prognozlash funksiyalari qo'llanildi. Ushbu imkoniyatlar bitta muhitda jamlangani uchun foydalanuvchi tahlil jarayonini soddalashtirilgan shaklda amalga oshirish imkoniyatiga ega boladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — Power BI vositalari asosida interaktiv prognozlash va bashoratli tahlil tizimini ishlab chiqish hamda uning amaliy samaradorligini asoslashdir.

Power BI arxitekturasi va ma'lumotlar oqimi:

Power BI ekotizimi odatda Power BI Desktop (hisobot va model yaratish), Power BI Service (bulutda nashr etish va hamkorlik), hamda Power BI Gateway (on-premise manbalarni xizmatga ulash) komponentlaridan tashkil topadi [4]. Ma'lumotlar turli manbalardan (Excel, SQL va boshqalar) ulanish orqali olinadi, so'ng Power Query yordamida tayyorlanadi, model quriladi va foydalanuvchiga vizual ko'rinishda taqdim etiladi. 1-rasmda Power BI arxitekturasi va ma'lumotlar oqimi ko'rsatilgan.



1-rasm. Power BI tizimining umumiy arxitekturasi.


Ma'lumotlarni tayyorlash va transformatsiya qilish (Power Query):

Prognozlash tizimini yaratish ma'lumotlar sifatiga bevosita bog'liq. Power Query muhiti ETL jarayonlarini (Extract, Transform, Load) bajarish uchun qo'llaniladi [1], [4]: bo'sh (null)

qiymatlarni tozalash, ustun turlarini to'g'rilash, sana ustunini Date formatga o'tkazish, takroriy yozuvlarni tekshirish va kerakli agregatsiyalarni tayyorlash. Vaqt qatorlari bo'yicha prognoz qilishda sana ketma-ketligining uzluksizligi hamda kamida 24–36 oylik tarixiy davr mavjud bo'lishi tavsiya etiladi. ETL (Extract, Transform, Load) jarayoni ma'lumotlarni bir nechta manbalardan yig'ish, ularni standartlashtirish va analitik modelga mos formatga keltirishni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlarni tozalash jarayonida bo'sh qiymatlar aniqlanadi, noto'g'ri formatlangan sana ustunlari tuzatiladi hamda takrorlanuvchi yozuvlar olib tashlanadi. To'g'ri bajarilgan ETL jarayoni prognozlash natijalarining aniqligini oshiradi.

Ma'lumotlar modeli va DAX hisoblashlari:

Power BI da ma'lumotlar modeli jadvallar o'rtasidagi bog'lanishlar asosida quriladi. Amaliyotda "star schema" (yulduz sxema) arxitekturasi keng qo'llanadi: markazda fakt jadvali (masalan, Sales), atrofida esa o'lcham jadvallari (Date, Product, Customer va boshqalar) joylashadi. 2-rasmda jadvallar o'rtasidagi bog'lanishlar (relationship) ko'rsatilgan. Fakt jadval (Fact table) miqdoriy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi, o'lcham jadvallar (Dimension tables) esa kontekst ma'lumotlarini taqdim etadi. Star schema tuzilmasi hisob-kitoblarning tez bajarilishini ta'minlaydi hamda DAX formulalarining samarali ishlashiga zamin yaratadi. Relationship yo'nalishi (filter direction) esa hisob-kitoblarning to'g'ri kontekstda bajarilishini belgilaydi.



2-rasm. Power BI ma'lumotlar modeli va jadvallar bog'lanishi.

Analitik ko'rsatkichlar DAX formulalari orqali hisoblanadi [1], [3]. Quyidagi misollar amaliyotda eng ko'p qo'llanadigan o'lchovlardir: Jami savdo:

$$Total\ Sales = SUM(FactInternetSales[SalesAmount])$$

O'tgan yil savdosi:


$$Previous\ Year = CALCULATE([Total\ Sales], SAMEPERIODLASTYEAR(DimDate[Date]))$$

O'sish foizi:

$$Growth\ \% = DIVIDE([Total\ Sales] - [Previous\ Year], [Previous\ Year])$$

Shuningdek, Time Intelligence funksiyalari yordamida YTD (Year-To-Date) va MTD (Month-To-Date) ko'rsatkichlari hisoblanadi.

DAX formulalarida kontekst (filter context va row context) tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Filter context hisobotdagi filtrlar va slicerlar orqali shakllansa, row context iterator funksiyalar (masalan, SUMX) orqali hosil bo'ladi. CALCULATE funksiyasi esa filter kontekstini o'zgartirish orqali murakkab analitik hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradi.



3-rasm. Power BI muhitida DAX (CALCULATE) formulasi yozish jarayoni.

Forecast funksiyasi asosida prognozlash:

Vaqt qatorlari bo'yicha prognozlash uchun Power BI ning Analytics panelidagi Forecast funksiyasi qo'llaniladi. Amaliy tajriba davomida Forecast funksiyasi yordamida kelgusi davr uchun prognoz qiymatlari hisoblandi. Tizim mavjud trend va mavsumiy o'zgarishlarni avtomatik tarzda aniqlaydi hamda natijani grafik ko'rinishda aks ettiradi [4]. Amaliy jarayonda chiziqli grafik (Line chart) tanlanadi, X o'qiga sana, Y o'qiga tahlil qilinayotgan ko'rsatkich joylashtiriladi. Forecast yoqilgach, prognoz davri (masalan, 6 oy), ishonch oralig'i (odatda 95% yoki 99%) va mavsumiylik parametrlari (auto yoki qo'lda) sozlanadi. Natijada prognoz chizig'i hamda yuqori/pastki ishonch chegaralari shakllantiriladi. Prognoz aniqligi tarixiy ma'lumotlar hajmi va mavsumiylikning to'g'ri aniqlanishiga bog'liq. Ma'lumotlar yetarli bo'lmaganda model ishonch oralig'i kengayadi, bu esa noaniqlik darajasining ortishini ko'rsatadi.

Tajriba sifatida 36 oylik savdo ma'lumotlari asosida 6 oylik prognoz shakllantirildi. Model natijalariga ko'ra, keyingi yarim yillik davrda savdo hajmining o'rtacha 8–12% o'sishi kutilmoqda. 95% ishonch oralig'ida prognoz qiymatlarining barqarorligi yuqori ekanligi aniqlandi.

Prognoz natijalari bilan birga ishonch oralig'ining ko'rsatilishi modelning aniqlik darajasini baholash imkonini beradi.

What-if parametrlar yordamida ssenariy tahlili:

Interaktivlikni oshirish maqsadida "What-if" parametrlar qo'llanadi. Parametr slider ko'rinishida bo'lib, foydalanuvchi qiymatni o'zgartirganda DAX o'lchovlari real vaqt rejimida qayta hisoblanadi [4]. Amaliy ssenariy sifatida savdo hajmining  $\pm 10\%$  o'zgarishi model natijalariga qanday ta'sir ko'rsatishi simulyatsiya qilinadi. Ushbu yondashuv risklarni baholash, alternativ ssenariylarni solishtirish hamda strategik rejalashtirishda qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlaydi.

Model sinovi davomida savdo hajmini 10% oshirish ssenariysida sof foyda 6.3% ga o'sishi, chegirma 5% ga oshirilganda esa foyda marjasi 3.1% ga kamayishi kuzatildi. Bu natijalar interaktiv ssenariy tahlilining boshqaruv qarorlarida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

What-if parametrlar boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida muhim vosita hisoblanadi.

Yakuniy bosqichda barcha vizual elementlar (trend, prognoz, KPI, filtrlar) birlashtirilib, foydalanuvchi uchun qulay interaktiv dashboard yaratiladi. Dashboard tahlilni tezlashtiradi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni osonlashtiradi.

Olib borilgan tadqiqot jarayonida Power BI vositalaridan foydalanib interaktiv prognozlash tizimini yaratish imkoniyati amaliy jihatdan tekshirildi. Natijalar platformaning ma'lumotlarni qayta ishlash, hisoblash va bashorat qilish jarayonlarini yagona muhitda samarali tashkil etish imkonini berishini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv tashkilotlarda ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishni tezlashtiradi va boshqaruv samaradorligini oshiradi. Hisob-kitob natijasida, tizim yordamida mavjud tendensiyalarni ko'rish va turli ssenariylarni solishtirish mumkin. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yanada asosli va tezkor yondashuvni ta'minlaydi hamda risklarni kamaytirishga yordam beradi. Kelgusida Power BI prognozlash imkoniyatlarini Python/R integratsiyasi hamda mashinaviy o'rganish modullari bilan boyitish orqali yanada murakkab bashorat modellarini yaratish rejalashtirilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adam Aspin. Pro Power BI Desktop. 2nd edition. Apress Media LLC, 2022.
2. Bakhshi S, Anderson B. Power BI for Intermediates: A step-by-step training guide. — Theta Systems Limited, 2021. — 73 b.
3. Brett Powell. Mastering Microsoft Power BI. Packt Publishing, 2018.
4. Microsoft Learn. Power BI documentation: Data modeling, DAX, and Analytics features.

## EXPLICIT ANALYTICAL REPRESENTATION OF THE EXTREMAL FUNCTION IN A SPECIFIC HILBERT SPACE

**Azamov Siroj**

Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan

e-mail: [azamovs@mail.ru](mailto:azamovs@mail.ru)

In the modern theory of numerical integration, the construction of optimal quadrature formulas is a fundamental problem that bridges functional analysis and computational mathematics. The classical theory of quadrature formulas was significantly shaped by the fundamental contributions of S.M. Nikol'skiy [1], who established the extremal problems of numerical integration. His work laid the groundwork for constructing formulas that are optimal for entire classes of functions. The classical approach, pioneered by S.L. Sobolev and A. Sard, focuses on minimizing the error functional in various function spaces. While much research has been devoted to standard Sobolev spaces  $L_2^{(m)}$ , contemporary applications in physics and engineering often require integration rules that are optimal with respect to more complex, non-standard differential operators.

The significance of investigating specialized Hilbert spaces lies in their ability to model specific physical processes, such as viscoelasticity or motion profiles involving "jerk" (third-order derivatives). In this study, we focus on a Hilbert space where the norm is induced by the third-order linear differential operator  $\mathcal{L} = (d/dx + 1)^3$ . This specific choice ensures that the resulting quadrature formulas are exact for the null space of the operator, which consists of exponential functions of the form  $\{e^{-x}, xe^{-x}, x^2e^{-x}\}$ .

To derive the norm of the error functional  $\ell_N(x)$ , we employ the Riesz representation theorem, which asserts the existence of a unique function  $\psi \in S_2(P_3)$  such that the action of the functional on any  $\varphi \in S_2(P_3)$  is equivalent to the inner product:

$$(\ell_N, \varphi) = \langle \psi, \varphi \rangle. \quad (1)$$

In our specialized space, the inner product is induced by the third-order differential operator  $\mathcal{L} = \frac{d^3}{dx^3} + 3\frac{d^2}{dx^2} + 3\frac{d}{dx} + 1$ . The explicit form of this inner product is defined as:

$$\langle \psi, \varphi \rangle = \int_0^1 (\psi''' + 3\psi'' + 3\psi' + \psi) (\varphi''' + 3\varphi'' + 3\varphi' + \varphi) dx. \quad (2)$$

By applying the method of integration by parts three times to equation (2), we transfer the differential operators from  $\varphi$  to  $\psi$ . This procedure leads to an integral-boundary representation where the boundary terms must vanish to satisfy the optimality conditions. Consequently, the

extremal function  $\psi(x)$  is identified as the solution to the following sixth-order linear differential equation:

$$\psi^{(VI)}(x) - 3\psi^{(IV)}(x) + 3\psi''(x) - \psi(x) = -\ell_N(x), \quad (3)$$

subject to the self-adjoint boundary conditions:

$$(\psi^{(i+3)}(x) + 3\psi^{(i+2)}(x) + 3\psi^{(i+1)}(x) + \psi^{(i)}(x))\Big|_{x=0}^{x=1} = 0, \quad i = 0,1,2. \quad (4)$$

The solution to the boundary value problem defined by (3) and (4) requires the determination of the fundamental solution for the operator  $(\mathcal{L}^* \mathcal{L}) = (d^2/dx^2 - 1)^3$ . By utilizing the Laplace transform in the sense of distributions, we derive the fundamental solution  $F_3(x)$ .

**Theorem .** *The extremal function  $\psi(x)$  of the error functional  $\ell_N(x)$  in the space  $S_2(P_3)$  is represented by the expression:*

$$\psi(x) = -(\ell_N * F_3)(x) + b_1 e^{-x} + b_2 x e^{-x} + b_3 x^2 e^{-x}, \quad (5)$$

where the fundamental solution  $F_3(x)$  is given in its explicit analytical form as:

$$F_3(x) = \frac{\text{sgn}(x)}{16} (3\sinh(x) - 3x\cosh(x) + x^2\sinh(x)). \quad (6)$$

The coefficients  $b_1, b_2, b_3$  are real constants uniquely determined by the boundary conditions.

## REFERENCES

1. Nikol'skiy, S.M. *Quadrature Formulas*. Nauka, Moscow. (1988).
2. Sard, A. *Linear Approximation*. American Mathematical Society, Providence. (1963).
3. Sobolev, S.L. *Introduction to the Theory of Cubature Formulas*. Nauka, Moscow. (1974).

## DESIGNING AN EXCURSION SERVICE ROUTE AND CONDUCTING A PILOT TOUR WITH DIGITAL PLANNING TOOLS

Karshi state university  
Faculty of economics 3<sup>rd</sup> year  
**Choriye Sardor**  
[sardorchoriye1106@gmail.com](mailto:sardorchoriye1106@gmail.com)

Tourism is one of the fastest-growing sectors of the global economy. According to the United Nations World Tourism Organization (UNWTO), digital transformation significantly enhances tourism service efficiency and customer experience. The rapid development of information technologies has led to the integration of digital tools into excursion planning and management processes.

Tourism has become one of the most dynamic sectors of the global economy, contributing significantly to employment generation, regional development, and cultural exchange. According to the United Nations World Tourism Organization (UNWTO), digital transformation is currently one of the main strategic priorities in ensuring sustainable and competitive tourism development worldwide. The integration of digital technologies into tourism services has reshaped traditional business models and introduced innovative management approaches. Excursion services occupy a special place within tourism activities, particularly in urban, cultural, and heritage destinations. An excursion route is not merely a sequence of attractions but a carefully structured system that combines logistics, timing, thematic content, safety considerations, and visitor engagement. The effectiveness of an excursion largely depends on how well the route is planned and coordinated.

In traditional practice, excursion route planning often relied on printed maps, manual scheduling, and personal experience of tour operators. While these methods may be functional, they frequently lack precision in distance calculation, time management, and cost forecasting. In addition, unexpected factors such as traffic congestion, weather conditions, or overcrowding may significantly reduce the efficiency of pre-planned routes. The emergence of digital planning tools has revolutionized this process. Geographic Information Systems (GIS), online navigation

platforms, cloud-based scheduling systems, and mobile applications now allow tourism professionals to design optimized routes with greater accuracy. For example, platforms such as Google Maps provide real-time traffic data, alternative route suggestions, and precise distance measurements. Similarly, Google Earth enables spatial visualization and terrain analysis, which are particularly useful when designing routes in geographically complex areas.

Digitalization also enhances decision-making through data analytics. By collecting and analyzing feedback from pilot tours, organizers can identify service gaps and adjust route structures accordingly. This evidence-based approach contributes to higher levels of customer satisfaction and operational efficiency. Moreover, digital planning supports sustainability objectives by minimizing unnecessary transportation, reducing fuel consumption, and optimizing time allocation. The relevance of this research lies in the increasing demand for high-quality, well-organized excursion services in competitive tourism markets. As destinations strive to attract both domestic and international tourists, the need for efficient route planning and service innovation becomes more urgent. In countries experiencing rapid tourism development, including Uzbekistan, the modernization of excursion management systems is particularly important.

Conducting a pilot tour before launching a full-scale excursion program is a practical strategy to test logistical feasibility, timing accuracy, and visitor engagement levels. A pilot tour serves as an experimental phase that allows organizers to evaluate route coherence, service coordination, and potential risks. When supported by digital tools, pilot testing becomes more systematic and measurable.

Tourism has become one of the most dynamic sectors of the global economy, contributing significantly to employment generation, regional development, and cultural exchange. According to the United Nations World Tourism Organization (UNWTO), digital transformation is currently one of the main strategic priorities for ensuring sustainable and competitive tourism development worldwide. The integration of digital technologies into tourism services has reshaped traditional business models and introduced innovative approaches to service planning and management. In particular, digital tools allow tourism organizations to improve operational efficiency, enhance service quality, and optimize route planning processes.

Excursion services occupy an important place within tourism activities, especially in urban, cultural, and heritage destinations. An excursion route represents not simply a sequence of attractions but a carefully structured system that combines logistics, time management, thematic interpretation, visitor engagement, and safety considerations. The effectiveness of an excursion largely depends on the quality of route planning and the coordination of services during the tour.

In traditional tourism practice, excursion route planning often relied on printed maps, manual scheduling, and the professional experience of tour operators. Although these methods were useful, they frequently lacked accuracy in distance estimation, time planning, and cost forecasting. Moreover, unexpected factors such as traffic congestion, weather conditions, and overcrowding at tourist sites could significantly affect the efficiency of pre-planned routes.

The rapid development of digital technologies has significantly transformed this process. Digital mapping platforms, geographic information systems, cloud-based scheduling tools, and navigation applications now allow tourism professionals to design excursion routes with greater precision and flexibility. For example, digital navigation platforms provide real-time traffic information, alternative route suggestions, and accurate distance calculations. Spatial visualization tools also enable planners to analyze the geographic distribution of attractions and determine the most logical sequence of visits.

Digital planning tools also improve decision-making through data analysis and monitoring. By collecting feedback from pilot tours and analyzing visitor responses, tourism organizers can identify operational challenges and adjust route structures accordingly. This evidence-based planning approach contributes to higher levels of service quality, operational efficiency, and customer satisfaction. In addition, digital planning supports sustainability goals by reducing unnecessary transportation movements and improving time management during excursions.

The aim of this study is to design an effective excursion service route and conduct a pilot tour using digital planning tools. In order to achieve this aim, the research examines theoretical approaches to excursion route design and tourism logistics management, analyzes the role of digital planning technologies in improving excursion services, develops a structured excursion route using digital mapping tools, and evaluates the operational effectiveness of a pilot tour. The research also formulates practical recommendations for improving digital-based excursion planning.

The methodological approach of the study combines qualitative analysis and practical implementation. The research process consisted of several stages, including a review of theoretical literature, the design of an optimized excursion route, the implementation of a pilot tour, and the evaluation of operational performance based on participant feedback. The methodological framework is based on tourism logistics theory and smart tourism concepts, which emphasize efficiency, accessibility, and service quality in tourism management.

Several digital tools were used in the research process. Digital mapping platforms were applied for route planning, distance estimation, and traffic monitoring. Spatial visualization tools were used for geographic analysis and route structure development. Spreadsheet-based analytical tools were utilized for scheduling, budgeting, and statistical evaluation of survey results.

The pilot excursion route was developed in the city of Tashkent. The selection of tourist attractions was based on several criteria, including cultural and historical significance, geographic proximity between sites, accessibility of transportation infrastructure, tourist attractiveness, and safety conditions. Based on these criteria, several key attractions were selected for the route, including Amir Timur Square, Hazrati Imam Complex, Chorsu Bazaar, and the Tashkent Metro system. The route followed a circular structure in order to reduce redundant travel time and simplify transportation logistics.

The total distance of the excursion route was approximately 13 kilometers, and the estimated duration of the tour was about three and a half hours. The excursion involved a combination of bus transportation and walking segments, allowing participants to experience both the urban environment and major cultural landmarks. The pilot tour involved a group of fifteen participants representing different age groups.

During the pilot implementation, several operational indicators were monitored, including adherence to the planned schedule, traffic conditions, participant engagement, and coordination of services. Real-time digital navigation tools helped maintain schedule accuracy within a small deviation from the planned timetable. Minor adjustments were made during the tour based on current traffic conditions and time constraints.

After the excursion, participants were invited to complete an anonymous online survey evaluating their experience. The results indicated high levels of satisfaction with the organization and structure of the route. Most participants evaluated the route as logical and well organized, while a large proportion expressed satisfaction with time management and the use of digital navigation tools. Overall participant feedback demonstrated a positive excursion experience.

The findings of the study confirm that digital planning tools significantly improve the efficiency and structural coherence of excursion route design. Digital technologies allow tourism managers to optimize travel routes, reduce planning errors, and improve the reliability of excursion schedules. Compared to traditional manual planning methods, digital planning provides more accurate distance calculations, better time management, and improved cost estimation.

From a theoretical perspective, excursion route planning can be understood within the framework of tourism logistics theory, which emphasizes minimizing travel time while maximizing visitor experience. Balanced sequencing of attractions reduces unnecessary travel loops and waiting times, thereby improving both operational efficiency and visitor satisfaction.

The practical implications of this research are particularly relevant for developing tourism destinations such as Uzbekistan. The integration of digital planning tools into excursion management systems can significantly enhance service quality, operational efficiency, and destination competitiveness in the international tourism market.

Despite the positive results obtained in this study, certain limitations should be noted. The pilot tour involved a relatively small group of participants and was conducted within a single urban destination. In addition, the evaluation period was limited, and the effectiveness of digital planning tools partly depends on stable internet connectivity.

Future research may expand this study by including larger participant groups, analyzing multiple tourist destinations, and integrating advanced technologies such as artificial intelligence for predictive route modeling. The use of mobile applications for real-time tourist feedback and service monitoring may also provide additional opportunities for improving excursion management systems.

Overall, the results of the research demonstrate that digital planning tools play a crucial role in modernizing excursion service design and management. By integrating digital mapping technologies, data analysis, and pilot testing methods, tourism organizations can develop more efficient, reliable, and sustainable excursion services. The findings provide useful methodological guidance for tourism companies, destination managers, and academic researchers seeking to enhance tourism service quality through digital innovation.

### **References:**

1. World Health Organization (WHO). International First Aid, Resuscitation and Education Guidelines. – Geneva: World Health Organization, 2018.
2. American Heart Association. Guidelines for CPR and Emergency Cardiovascular Care. – Dallas: American Heart Association, 2020.
3. International Federation of Red Cross and Red Crescent Societies (IFRC). International First Aid, Resuscitation and Education Guidelines. – Geneva: IFRC, 2020.
4. Jung T., Tom Dieck M. C. Augmented Reality in Tourism: Enhancing the Visitor Experience. – Cham: Springer, 2015.
5. Xiang Z., Fesenmaier D. R. Digital technology and tourism experience: A review of current research // Journal of Travel Research. – 2017. – Vol. 56, No. 4. – P. 1–12.

## **SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI PLATFORMALAR TURIZM SOHASIDAGI ROLI**

**Lola Maxammadiyeva**

Qarshi Davlat Universiteti  
Marketing va Turizm kafedrası talabasi  
lolamakhammadieva@gmail.com

So'nggi yillarda global turizm sohasi raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt (AI) ni keng joriy etish orqali xizmat ko'rsatish sifatini oshirmoqda [3]. Turistlarning talab va ehtiyojlari tobora murakkablashib borayotgani sababli, AI algoritmlari mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish, individual tavsiyalar yaratish va xizmatlarni avtomatlashtirish imkoniyatini taqdim etadi. Shu bilan birga, raqamli platformalar – Booking.com, Airbnb, Expedia kabi – foydalanuvchilarga tezkor onlayn xizmatlarni taklif qiladi, bronlash jarayonini soddalashtiradi va ma'lumot qidirishni qulaylashtiradi [5]. Bu jarayon turizm sohasida xizmat sifatini oshirish va raqamli transformatsiyani jadallashtirishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt va shaxsiylashtirilgan xizmatlar: AI texnologiyalari turistlar uchun individual tajribalarni yaratishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, global sayohatchilarning 78% AI asosida tavsiya qilingan xizmatlarni afzal ko'radi [1]. Bu raqam turizm kompaniyalari uchun shaxsiy xizmat ko'rsatishning muhimligini va raqamli yechimlarning amaliy qiymatini namoyish etadi.

Sun'iy intellekt (AI) chat-botlari turizm sohasida oddiy "savol-javob oynasi" emas, balki real iqtisodiy instrumentga aylangan. Ular 24/7 rejimida ishlashi sababli inson operatorlariga nisbatan xizmat uzluksizligini 100% ta'minlaydi va javob berish vaqtini o'rtacha 60–80% ga

qisqartiradi. Xalqaro konsalting hisobotlariga ko‘ra, mehmonxona va aviakompaniyalarda joriy etilgan AI chat-botlar mijozlarga javob berish tezligini 3–5 barobar oshirgan, natijada mijozlar qoniqish indeksi (CSAT) 18–25% ga o‘shish qayd etilgan. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) algoritmlari yordamida ko‘p tilli muloqot sifati yaxshilanib, xalqaro sayyohlar bilan aloqa samaradorligi 35–40% gacha oshgani aniqlangan. Bu ayniqsa ko‘p millatli turist oqimiga ega yo‘nalishlar uchun strategik ustunlik beradi.

Raqamli platformalar va bronlash tizimlari esa AI asosida ishlaydigan tavsiya mexanizmlari bilan jihozlanmoqda. Global elektron turizm bozorida onlayn bronlarning qariyb 65–70% qismi mobil qurilmalar orqali amalga oshiriladi, va ushbu bronlarning yarmidan ko‘pi AI tomonidan shakllantirilgan individual tavsiyalar asosida tanlanadi. Dinamik narxlash (dynamic pricing) algoritmlari talab va taklifni real vaqt rejimida tahlil qilib, narxlarni 5–15% diapazonda moslashtiradi. Natijada bronlash konversiya darajasi o‘rtacha 28–32% ga oshishi kuzatilgan. Bu shunchaki qulaylik emas — bu matematik optimallashtirish.

O‘zbekiston sharoitida “smart tourism” konsepsiyasi doirasida IoT (Internet of Things), Big Data va mobil ilovalar integratsiyasi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Raqamli xizmatlardan foydalanuvchi turistlar ulushi so‘nggi yillarda barqaror o‘shib, ayrim yirik shaharlarda mehmonxona bronlarining 55–60% qismi onlayn tizimlar orqali amalga oshirilmoqda. AI asosidagi analitika turistik oqimni prognozlash aniqligini 30% gacha oshiradi, bu esa infratuzilma va kadrlar yuklamasini optimal rejalashtirish imkonini beradi.

Iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan, AI texnologiyalarini joriy etgan turizm kompaniyalarida operatsion xarajatlar o‘rtacha 15–20% ga qisqarishi qayd etilgan. Prediktiv tahlil (oldindan bashorat qiluvchi algoritmlar) yordamida talab prognozi aniqligi 25–35% ga oshadi, bu esa ortiqcha zaxira va bo‘sh quvvat muammosini kamaytiradi. Natijada foyda marjasi 10–18% gacha o‘shishi mumkin.

Qisqasi, AI turizmga “raqamli yordamchi” emas, balki iqtisodiy multiplikator vazifasini bajarmoqda. U xizmat tezligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, narxlarni optimallashtiradi va eng muhimi — inson qarorlarini statistik asoslangan qarorlarga aylantiradi. Turizm kabi nozik va talabchan sohada bu farq shunchaki texnologik emas, balki strategik ustunlikdir.

Bugungi kunda turizm sohasida yuzaga kelayotgan muammolardan biri – xizmatlarning standartlashmaganligi va mijozlar ehtiyojining tez o‘zgarishi. Shu nuqtai nazardan, AI va raqamli platformalar tezkor va individual yechimlar yaratib, ushbu muammolarga samarali javob bera oladi. Shu bilan birga, AI texnologiyalari global turizm bozorini rivojlantirishga hissasini qo‘shadi va raqamli transformatsiyani 2026 yilgacha kengaytiradi [6]. Bu esa turizm kompaniyalari uchun raqobatbardoshlikni oshirish va xizmatlarni innovatsion tarzda takomillashtirish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. SEO Sandwich. *AI in Tourism: Trends and Statistics*. AI in Tourism Statistics. Available at: <https://seosandwich.com/ai-in-tourism-stats/>
2. WiFiTalents. *AI in the Travel Industry Statistics*. Data Reports 2026. Available at: <https://wifitalents.com/ai-in-the-travel-industry-statistics/>
3. Rasulov X. *Turizmni rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni*. Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi, 2026.
4. Munavvar Xusniddinova. *Turizm sanoatida chat-botlardan foydalanish va mijozlar tajribasi*. Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi, 2026.
5. Abriev Z. *Smart tourism konsepsiyasining O‘zbekistonda joriy etilishi.*, 2025.
6. Galina Ilieva et al. *Effects of Generative AI in Tourism Industry*. MDPI, 2024.
7. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. *Raqamli transformatsiya va turizm rivoji yo‘nalishlari.*, 2023.
8. Deloitte. *Technology Trends in Travel and Hospitality*. London: Deloitte Insights, 2024. Available at: <https://www2.deloitte.com/global/en/pages/consumer-business/articles/technology-trends-travel-hospitality.html>

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGI

**Narzullayev Nurislom Alisher o'g'li**  
Talaba, Sun'iy intellekt yo'nalishi  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
E-mail: [uzfoyd5@gmail.com](mailto:uzfoyd5@gmail.com)

XXI asrda raqamli texnologiyalar global taraqqiyotning asosiy omillaridan biriga aylandi. Internet, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va bulutli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha sohalarida qo'llanilmoqda. Bunday sharoitda yoshlarning bilim va ko'nikmalari jamiyat rivojlanishining muhim resursi sifatida qaralmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar innovatsion g'oyalarni yaratish, startap loyihalarini amalga oshirish hamda yangi texnologiyalarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, yoshlarni raqamli ko'nikmalar bilan ta'minlash, ularni ilmiy va innovatsion faoliyatga jalb qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.


Raqamli iqtisodiyot – bu axborot texnologiyalariga asoslangan iqtisodiy faoliyat bo'lib, unda ma'lumotlar asosiy resurs sifatida qaraladi. Zamonaviy iqtisodiy tizimlarda internet xizmatlari, elektron savdo, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyot yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, onlayn ta'lim platformalari orqali bilim olish, masofadan ishlash, global bozorlarga chiqish hamda innovatsion startaplar yaratish imkoniyatlari kengaymoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalari iqtisodiyotning turli sohalarida keng qo'llanilmoqda. Tibbiyot, transport, bank tizimi va ta'lim sohalarida sun'iy intellekt yordamida samaradorlik oshmoqda.

Yoshlar ushbu texnologiyalarni o'zlashtirish orqali yangi innovatsion loyihalar yaratish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, dasturlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va algoritmlar ishlab chiqish kabi ko'nikmalar yoshlarning raqamli iqtisodiyotdagi rolini kuchaytiradi.

### 1-rasm. Raqamli iqtisodiyotda yoshlar ishtirokining o'sishi




Startaplar zamonaviy iqtisodiyotning muhim elementi hisoblanadi. Raqamli platformalar yosh tadbirkorlarga o'z g'oyalari amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Yoshlar tomonidan yaratilayotgan startaplar innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.


Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida raqamli texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya va iqtisodiyot sohalarida raqamli texnologiyalar yordamida samaradorlik oshirilmoqda.

Yoshlarning innovatsion g'oyalari ushbu jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

### 2-rasm. Yoshlarning texnologiya sohalari bo'yicha taqsimlanishi



### 3-rasm. Yoshlar startaplarining iqtisodiyotga ta'siri



Raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlarning innovatsion faoliyati jamiyat rivojlanishining muhim omiliga aylanmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratib,

ularning ilmiy va tadbirkorlik salohiyatini oshirmoqda. Kelajakda yoshlarni IT-ta'lim, sun'iy intellekt va innovatsion startaplar sohasida qo'llab-quvvatlash mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid farmonlari.
2. BMT. Sustainable Development Goals (SDG-2030) rasmiy hujjatlari.
3. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.
4. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age.

## **JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARIGA SUN'IY INTELLEKTNI INTEGRATSIYALASH ORQALI SPORT MASHG'ULOTLARINI OLIB BORISH**

Oriental universiteti Jismoniy madaniyat yo'nalishi  
1-bosqich talabasi **O'rinboyeva Yulduz**  
Ilmiy rahbar: Oriental universiteti Jismoniy madaniyat  
kafedrası o'qituvchisi **Ergasheva Ozoda Asqarovna**

Bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga raqamli texnologiyalar jadal kirib bormoqda. Prezidentimizning 14.10.2024 yildagi PQ-358-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori ham albatta bu sohadagi ishlar naqadar muhim va dolzarbligini ko'rsatadi. Jismoniy madaniyat sohasida ham sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish salmoqli natijalarga olib keladi. An'anaviy darslarda o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi ko'pincha umumiy normativlar (masalan, 100 metrga yugurish yoki turnikda tortilish) orqali baholanadi. Biroq, bu usul har bir o'quvchining organizmidagi o'ziga xos fiziologik imkoniyatlarni (yurak urishi, nafas qisishi, mushak zo'riqishi) hisobga olmaydi. Shu sababli, dars jarayoniga sun'iy intellekt (AI) olib kirish – sog'lom avlodni tarbiyalashda strategik ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt orqali sportchilar va jamoalarning o'yin natijalari, trening vaqtlari va boshqa statistikalarini tahlil qilish mumkin. Bu ma'lumotlar asosida strategik qarorlar qabul qilish mumkin. Sun'iy intellektning algoritmlari yordamida raqib jamoalarning harakatlarini o'rganish va ularning zaif tomonlarini aniqlash mumkin.

Sun'iy intellektdan samarali foydalanish orqali mashg'ulotni individualizatsiya qilish, shaxsiy mashg'ulot rejalarini tuzish sportchilarning individual yutuqlarini, jismoniy holatini nazorat qilish mumkin. Shuningdek, mashg'ulot jarayonlarini video orqali tahlil qilish va og'zaki yoki vizual tavsiyalar berish yordamida xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlarni qo'llash mumkin.

Rivojlangan davlatlar (Janubiy Koreya, AQSH, Finlandiya) maktablarida jismoniy tarbiya darslari allaqachon raqamlashtirilgan. Masalan:

- "Wearable tech" (Taqladigan qurilmalar): O'quvchilar dars davomida smart bilakuzuklar yoki ko'krak datchiklari taqib yurishadi. Bu uskunalar real vaqt rejimida markaziy kompyuterga (o'qituvchi planshetiga) ma'lumot uzatadi.
- Computer Vision (Kompyuter ko'rishi): Maxsus kameralar va AI algoritmlari orqali o'quvchining harakatlari tahlil qilinadi. Masalan, o'quvchi o'tirib-turish mashqini necha marta bajargani emas, balki qanchalik to'g'ri (biomexanik jihatdan) bajara olgani baholab boriladi.

Yurak qon-tomir tizimini nazorat qilish jarayonini ham sun'iy intellekt orqali monitoring qilish Dars vaqtida o'quvchining yurak urish tezligi (puls)ni nazorat qilinadi. Agar o'quvchining pulsi ruxsat etilgan me'yordan (masalan, 170-180 urish/min) oshib ketsa, AI tizimi o'qituvchini ogohlantiradi. Bu esa dars vaqtidagi to'satdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan yurak xurujlari yoki

og'ir zo'riqishlarning oldini oladi . Har bir bolaning jismoniy holati har xil. Sun'iy intellekt o'quvchining o'tgan darslardagi natijalarini tahlil qilib, unga bugungi dars uchun individual "shaxsiy reja" tuzib beradi. Masalan, ortiqcha vazni bor o'quvchiga past intensivlikdagi, sportchiga esa yuqori intensivlikdagi mashqlar tavsiya etiladi. O'quv yili davomida to'plangan raqamli ma'lumotlar asosida har bir o'quvchining "Salomatlik pasporti" shakllantiriladi. Bu pasport o'quvchining yil davomida qanchalik o'sgani va qaysi jismoniy sifati (tezkorlik, kuch, chidamlilik) rivojlangani haqida aniq grafiklar beradi. O'zim "smart-watch" dan foydalanganman u meni sarflagan energiyam, yurak urishim, hamda kunlik qadamlarimni hisoblab borardi. Bu esa navbatida organizmimda kechgayotgan fiziologik jarayonlarni bilish va nazorat qilish hamda shu asosda mashg'ulot olib borishimga ko'maklashgan. O'z organizmimizda kechgayotgan jadal o'zgarishlarni kuzatib borish imkonini beradi.

Bizning mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasiga sun'iy intellekt sekin-astalik bilan bilan kirib kelmoqda. O'ylaymanki, buning natijasida mamlakatimizda sportchilar yuqori natijalarni qo'lga kiritishlarida sun'iy intellekt muhim vosita bo'lib xizmat qiladi va murabbiylar uchun o'z shug'ullanuvchilarining jismoniy rivojlanganligi, yoshi, jinsiga qarab mashg'ulot yuklamasini berishda qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu tizimning joriy etilishi natijasida,

1. Xavfsizlik: Jarohatlar va organizmning o'ta charchash xavfi 40-50% ga kamayadi.
2. Obyektivlik: Baholash tizimi o'qituvchining subyektiv qarashiga emas, balki aniq raqamlarga (o'quvchining darsdagi faollik darajasiga) asoslanadi.
3. Motivatsiya: O'quvchilar o'z natijalarini smartfon ilovasida ko'rib, o'zaro sog'lom raqobatga kirishadilar. Hozirda Yevropa davlatlari bu usuldan keng foydalanmoqda masalan: Kareya davlatida maktab yoshigacha bo'lgan bolalarda sinab ko'rishdi bolalarda rivojlanish boshqa tengdoshlaridan yuqori bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya darslarini raqamlashtirish – bu shunchaki texnologiya emas, balki inson salomatligini ilmiy asosda muhofaza qilish demakdir. Sun'iy intellekt texnologiyalari o'qituvchining o'rnini bosmaydi, balki uning darsni yanada sifatli va xavfsiz o'tishiga ko'maklashuvchi eng kuchli qurolga aylanadi. Sun'iy intellekt jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi imkoniyatlar yaratadi, sportchilarning faoliyatini kuchaytirish va natijalarni yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. SI orqali, sportchilar individual yondashuvlardan foydalanib, oylik haqiqiy ma'lumotlarga asoslangan qarorlar olib borishlari mumkin, bu esa natijalarni yaxshilashga va jarohatlardan saqlanishga yordam beradi. Sun'iy intellekt yordamida sport sohasidagi yangi innovatsiyalar kuzatilishi kutilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Axmedov A.A. **Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi.** — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Salomov R.S. **Sport va jismoniy tarbiyada zamonaviy texnologiyalar.** — Toshkent, 2020.
3. Raximov D.R. **Sport faoliyatida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt.** — Toshkent, 2021.
4. Karimov B.B. **Jismoniy tarbiyada innovatsion yondashuvlar.** — Toshkent, 2018.
5. World Health Organization (WHO). **Digital technologies in physical activity and health.** — 2020.

## **YELPIG`ICH NURLI KOMPYUTER TOMOGRAFIYASIDA TASVIRLARINI QAYTA TIKLASHNING BIR OPTIMAL ALGORITMI**

**Olchiyev A.A.**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Tezmiz, O'zbekiston

Kompyuter tomografiyasi obyektlarning ichki tuzilishini nurlanish yordamida qatlam-qatlam tasvirlashga asoslangan zamonaviy tasvirlash texnologiyasidir. Ushbu usulda obyekt orqali

o'tgan nurlar intensivligining o'zgarishi o'lchanadi va olingan ma'lumotlar asosida obyektning ichki tuzilmasini tiklashning matematik modeli beriladi. Kompyuter tomografiyasi usulining asosiy afzalligi shundaki, u obyektning buzmasdan uning ichki qismini tekshirish imkonini beradi va yuqori aniqlikdagi kesim tasvirlarini hosil qiladi.

Kompyuter tomografiyasi jarayonida, odatda, rentgen nurlari qo'llaniladi. Rentgen nuri obyekt orqali o'tganda, uning intensivligi obyektning zichligi va tarkibiga bog'liq holda so'nadi. Fizik jihatdan bu jarayon Beer–Lambert qonuni bilan ifodalanadi. Mazkur qonunga ko'ra, nurning chiqish intensivligi obyekt bo'ylab so'nish koeffitsiyentining integraliga bog'liq bo'ladi. Aynan ushbu bog'lanish kompyuter tomografiyasi tasvirlarini qayta tiklash masalasining matematik asosini tashkil etadi.

Kompyuter tomografiyasi qurilmasi odatda nurlanish manbai va detektorlar tizimidan iborat bo'lib, ular obyekt atrofida aylanish harakatini amalga oshiradi. Har bir burchak ostida o'lchangan nurlanish qiymatlari proyeksiya deb ataladi. Ko'p sonli proyeksiyalar asosida obyektning ichki kesimi tiklanadi. Proyeksiyalar soni va ularning aniqligi yakuniy tasvir sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Amaliyotda keng qo'llaniladigan kompyuter tomografiyasi turlaridan biri yelpig'ich nurlu kompyuter tomografiyasidir. Ushbu turda nurlanish manbai nuqtaviy bo'lib, undan chiqayotgan nurlar yelpig'ichsimon shaklda detektorlar qatoriga yo'naltiriladi. Detektorlar yoysimon yoki to'g'ri chiziq bo'ylab joylashgan bo'lishi mumkin.

Yelpig'ich nurlu kompyuter tomografiyasi ning asosiy afzalligi — skanerlash tezligining yuqoriligi va mexanik tuzilmaning soddaligi hisoblanadi. Biroq bu geometriya parallel nurlu tomografiyaga nisbatan matematik jihatdan murakkabroq bo'lib, tasvirlarni qayta tiklash algoritmlariga qo'shimcha talablar qo'yadi.

Yelpig'ich nurlu kompyuter tomografiyasida har bir proyeksiya markaziy nuqtadan tarqaluvchi nurlar orqali olinadi. Natijada, proyeksiyalar turli burchaklar va masofalarda o'lchanadi. Bu esa proyeksion ma'lumotlarni qayta ishlashda maxsus geometrik o'zgartirishlarni talab qiladi. Shu sababli, parallel nurlu kompyuter tomografiyasi uchun ishlab chiqilgan algoritmlarni to'g'ridan-to'g'ri yelpig'ich nurlu kompyuter tomografiyasiga qo'llash mumkin emas.

Kompyuter tomografiyasining matematik asosini Radon almashtirishi tashkil etadi. Radon almashtirishi ikki o'zgaruvchili funksiya qiymatlarini to'g'ri chiziqlar bo'yicha integrallash orqali ifodalaydi. Fizik ma'noda bu o'zgarish obyekt orqali o'tgan nurning umumiy so'nishini ifodalaydi.

Radon almashtirishi quyidagi asosiy xossalarga ega:

- chiziqlilik;
- aylanishga nisbatan invariantlik;
- teskari almashtirishning mavjudligi.

Tasvirni qayta tiklash masalasi Radon almashtirishining teskari masalasini yechishga keltiriladi. Biroq amaliy sharoitda proyeksiyalar cheklangan va shovqinli bo'lgani sababli, ushbu masala yomon qo'yilgan teskari masala hisoblanadi. Shu sababli, barqaror va optimal algoritmlarni qo'llash zarur bo'ladi.

Yelpig'ich nurlu kompyuter tomografiyasida Radon almashtirishi modifikatsiyalangan ko'rinishda qo'llaniladi. Bu holatda proyeksiyalar to'g'ri chiziqlar bo'yicha emas, balki markaziy manbadan tarqaluvchi nurlar bo'yicha olinadi. Natijada, matematik model murakkablashadi va maxsus o'zgartirishlar talab etiladi.

Ushbu ishda tomografiya tasvirlarini tiklash uchun teskari Radon almashtirishidagi Furiye integrallarini taqribiy hisoblash uchun optimal formulalar ishlab chiqilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Hayotov A. R., Babaev S.S., Kurbonnazarov A. I. Optimization of approximate integrals of rapidly oscillating functions in the Hilbert space.

// Results in Applied Mathematics, 2025, pp. 1-15. (3. Scopus, **IF=1,57**).

## DAX ORQALI MATEMATIK VA STATISTIK TAHLILNI BIRLASHTIRISH

Otaboyev Toshkanboy O'ktamjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

”Sun’iy intellekt” yo’nalishi talabasi

Tadqiqot doirasida yig'indi, o'rtacha qiymat, foiz o'zgarishlari, o'sish sur'ati kabi matematik ko'rsatkichlar bilan bir qatorda dispersiya, standart og'ish, variatsiya koeffitsienti va chastota tahlili kabi statistik metodlarni DAX yordamida hisoblash mexanizmlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, vaqt qatorlari tahlili (Time Intelligence), trendlarni aniqlash va KPI indikatorlarini shakllantirish orqali analitik modellarni chuqurlashtirish yo'llari ham yoritiladi.

Natijada, DAX orqali matematik va statistik tahlilni integratsiyalash ma'lumotlarni qayta ishlash tezligini oshirish, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining samaradorligini oshirishga imkon berishi ilmiy asoslarda ko'rsatiladi. Mazkur yondashuv raqamli iqtisodiyot sharoitida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi raqamli transformatsiya davrida ma'lumotlar strategik iqtisodiy resursga aylangan. Korxonalar, moliya institutlari va davlat organlari katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, chuqur matematik va statistik tahlil qilish hamda natijalar asosida qarorlar qabul qilish zarur. Shu bois, zamonaviy analitik platformalar, xususan, Microsoft Power BI keng qo'llaniladi.

Power BIDagi DAX (Data Analysis Expressions) formulalar tili murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradi. DAX yordamida matematik amallar, foizlik o'zgarishlar, dinamik o'sish ko'rsatkichlari, vaqt qatorlari tahlili, dispersiya va standart og'ish kabi statistik ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bu yondashuv matematik va statistik tahlilni yagona platformada integratsiyalash imkonini beradi va hisob-kitoblarni avtomatlashtiradi.

DAX (Data Analysis Expressions) — zamonaviy biznes-analitika muhitida matematik va statistik tahlilni yagona ma'lumotlar modeli orqali bajarishga imkon beruvchi formulalar tilidir. Microsoft Power BI muhitida DAX yordamida ma'lumotlar ustida murakkab hisob-kitoblar real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Bu yondashuv analitik jarayonlarni tezlashtiradi va natijalarning aniqligini oshiradi.




1-rasm. DAX funksiyalarining umumiy klassifikatsiyasi

Matematik tahlil nuqtai nazaridan DAX asosiy arifmetik amallar, yig'indi, o'rtacha qiymat, maksimal va minimal ko'rsatkichlarni, shuningdek nisbat va foizlik o'zgarishlarni hisoblash imkonini beradi. Masalan, sotuvlar hajmining o'sish sur'ati yoki ma'lum davrdagi umumiy tushumni DAX formulalari orqali avtomatik aniqlash mumkin. Bu jarayonda ma'lumotlar modeli ichidagi bog'lanishlar (relationships) muhim rol o'ynaydi, chunki ular turli jadvallar o'rtasidagi matematik aloqani ta'minlaydi. Natijada foydalanuvchi qo'shimcha dasturiy vositalarsiz dinamik ko'rsatkichlar hosil qilishi mumkin.

Statistik tahlilda esa DAX dispersiya, standart og'ish, variatsiya koeffitsienti hamda tanlanma va bosh to'plam ko'rsatkichlarini hisoblash imkonini beradi. Bu ko'rsatkichlar ma'lumotlarning tarqalish darajasi va o'zgaruvchanligini aniqlashda muhimdir. Masalan, sotuvlar hajmining o'rtacha qiymatdan qanchalik og'ishini baholash korxonada faoliyatidagi xavf darajasini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, DISTINCTCOUNT va COUNT funksiyalari orqali chastota tahlili amalga oshiriladi, bu esa mijozlar soni, mahsulot assortimenti yoki tranzaksiyalar miqdorini statistik jihatdan tahlil qilish imkonini yaratadi.

Biznes-analitika jarayonida matematik va statistik tahlilni birlashtirish muhim bosqich hisoblanadi. DAX yordamida vaqt qatorlari tahlili (Time Intelligence) amalga oshiriladi: oylik, choraklik va yillik o'zgarishlar solishtiriladi, trendlar aniqlanadi va prognoz elementlari yaratiladi. KPI (Key Performance Indicator) ko'rsatkichlari esa asosiy samaradorlik mezonlarini vizual tarzda taqdim etadi, bu boshqaruv qarorlarini tez va asosli qabul qilishga imkon beradi.



2-rasm. DAX asosida shakllantirilgan biznes-analitik dashboard

Ma'lumotlar modeli doirasida matematik va statistik tahlilni birlashtirish inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi, hisob-kitoblarni avtomatlashtiradi va natijalarni interaktiv vizualizatsiyalar orqali taqdim etadi. Bu esa tashkilotlarda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, DAX yordamida matematik va statistik metodlarni uyg'unlashtirish biznes-analitika tizimining samaradorligini oshiradi, ma'lumotlarni chuqur va kompleks tahlil qilish imkonini beradi va raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik ustunlikni ta'minlaydi.

Matematik va statistik tahlilni DAX orqali chuqurlashtirishda ma'lumotlar konteksti (row context va filter context) muhim rol o'ynaydi. Kontekst mexanizmi yordamida bir xil formula turli filtr sharoitlarida turlicha natija beradi, bu esa foydalanuvchi tanlagan vaqt oralig'i, hudud yoki mahsulot turiga qarab natijalarni avtomatik qayta hisoblash imkonini yaratadi. Natijada tahlil statik emas, balki interaktiv va moslashuvchan bo'ladi.

DAX da CALCULATE funksiyasi yordamida filtrlarni boshqarish orqali murakkab statistik modellarga yaqinlashish mumkin. Masalan, ma'lum segment bo'yicha o'rtacha qiymatni hisoblash, uni umumiy ko'rsatkich bilan solishtirish yoki ma'lum shart asosida dispersiyani aniqlash mumkin. Bu yondashuv korxonalar uchun segmentatsiya tahlili, risklarni baholash va samaradorlikni o'lchash jarayonlarida muhim vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, biznes-analitika jarayonida ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Microsoft Power BIda DAX yordamida hisoblangan matematik va statistik ko'rsatkichlar diagramma, grafik va interaktiv panellar orqali taqdim etiladi. Vizualizatsiya natijalarni tushunishni osonlashtiradi va rahbariyat uchun tezkor tahliliy xulosa chiqarishga yordam beradi. Integratsiyalashgan yondashuv

ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash, hisob-kitoblarni yagona model asosida bajarish va ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlash imkonini beradi. Bu esa strategik rejalashtirish, moliyaviy monitoring va operatsion boshqaruv jarayonlarida korxonalar samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, DAX yordamida matematik va statistik tahlilni birlashtirish nafaqat texnik jihatdan qulay, balki ilmiy va amaliy jihatdan ham muhim yondashuv bo'lib, u zamonaviy ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Ushbu ishda DAX tili yordamida matematik va statistik tahlil usullarini biznes-analitika jarayonida birlashtirish imkoniyatlari o'rganildi. DAX formulalari orqali ma'lumotlarni agregatsiya qilish, o'rtacha qiymatlarni aniqlash, dispersiya va standart og'ishni hisoblash hamda prognoz elementlarini qo'llash amaliy jihatlari tahlil qilindi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ma'lumotlar modeli ichida to'g'ridan-to'g'ri hisob-kitoblarni bajarish biznes qarorlarini tez va samarali qabul qilish imkonini beradi. Microsoft Power BI va DAX vositalari nafaqat ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, balki murakkab statistik ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini ham yaratadi. Shuningdek, DAX yordamida matematik va statistik metodlarni integratsiyalash orqali ma'lumotlardan chuqurroq tushunchalar olish, biznes jarayonlarini optimallashtirish va prognozlar tuzish mumkinligi ko'rsatildi. Shu tariqa, DAX tili zamonaviy biznes-analitika muhitida samarali va kuchli vosita sifatida qo'llanilishi mumkinligi isbotlandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ferrari A., Russo M. – *The Definitive Guide to DAX*, O'Reilly, 2015.
2. Seamark P., Martens T. – *Pro DAX with Power BI*, Springer, 2020.
3. *Statistika*, Toshkent: Turan Universiteti, 2024.
4. Abdushukurov A., Nurmuhamedova N., Sagidullaev K.S. – *Matematik statistika*, Toshkent, 2023.

## **SHAMOL TURBINALARINING AKUSTIK TA'SIRI VA EKOLOGIK MONITORINGI ORQALI BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI BAHOLASH**

**Oydin Ollayarova Husain qizi**

[oydin1628@gmail.com](mailto:oydin1628@gmail.com)

**Nodirbek Axmedjonov Odilbek o'g'li**

[nodirbek.axmedjonov@bk.ru](mailto:nodirbek.axmedjonov@bk.ru)

Cyber university davlat universiteti

Shamol elektr stansiyalari (SES) an'anaviy issiqlik elektr stansiyalariga nisbatan ekologik tozaroq bo'lib, ular atmosferaga chiqariladigan karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>) miqdorini keskin kamaytiradi. Shu orqali ular iqlim o'zgarishi, havoning issiqxona effekti bilan isishi va atrof-muhit degradatsiyasini sekinlashtirishda muhim rol o'ynaydi<sup>1</sup>. Biroq, shamol energetikasining ijobiy jihatlari qaramay, uning akustik, vizual va biologik muhitga bo'lgan salbiy ta'siri haqida so'nggi yillarda ilmiy doiralarda keng muhokamalar olib borilmoqda. Ayniqsa, akustik ifloslanish, ya'ni turbinalarning aylanishi natijasida hosil bo'ladigan past chastotali (20–200 Hz) shovqinlarning inson salomatligiga hamda hayvonot dunyosining tabiiy faoliyatiga ta'siri jiddiy tadqiqot mavzusiga aylangan<sup>2</sup>. Tadqiqotlarga ko'ra, shamol turbinalaridan 500–1000 metr radiusda joylashgan hududlarda ovoz bosimi darajasi 40–55 dB gacha yetadi, bu esa uzoq muddatli ta'sirda insonlarda uyqusizlik, stress va konsentratsiya pasayishi kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin<sup>3</sup>. Shuningdek, yovvoyi hayvonlar, ayniqsa qushlar va sutemizuvchilar, bu turdagi shovqin manbalariga sezgir bo'lib, ularning migratsiya yo'llarini o'zgartirishi yoki ayrim turlarning ko'payish intensivligini kamaytirishi aniqlangan<sup>4</sup>. Shuning uchun shamol elektr stansiyalarining ekologik monitoringi, xususan akustik tahlil va biologik kuzatuv tizimlarini joriy etish, zamonaviy ekologik siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu monitoring tizimlari orqali SESlar faoliyatining ekologik xavfsizlik darajasi baholanadi, va zarur hollarda ovoz izolyatsiyasi, turbina joylashuvi va ish chastotasini optimallashtirish choralari ishlab chiqiladi<sup>5</sup>.

O'tkazilgan ko'p yillik ekologik monitoring natijalariga ko'ra, bitta shamol turbinasining faoliyati migratsion davrda qushlar sonini 30% gacha kamaytirgan<sup>4</sup>. Ayniqsa *Sylvia curruca* va *S. melanocephala* turlarida 36–45% gacha kamayish qayd etilgan.

Shovqin ifloslanishi hayvonot dunyosining akustik kommunikatsiya tizimini buzadi, bu esa qushlar, sutemizuvchilar va ayrim hasharot turlarining navigatsiya, juft tanlash, ovqatlanish va ogohlantirish signallarini noto'g'ri talqin qilishiga olib keladi<sup>5</sup>. Masalan, qushlar o'zaro aloqa chastotasini o'zgartiradi yoki tovush intensivligini oshiradi, bu esa energiya sarfini ko'paytiradi va ularning fiziologik holatini zaiflashtiradi.

Bundan tashqari, shovqinli muhitda yashovchi hayvonlar ovqatlanish siklini kechiktiradi, yirtqichlardan himoyalaniş mexanizmini yo'qotadi va populyatsion dinamikada notekislik paydo bo'ladi. Bunday holatlar uzoq muddatda bioxilma-xillikning pasayishiga, ba'zi hollarda esa muayyan turlarning yo'qolish xavfining ortishiga olib keladi<sup>6</sup>.

Xalqaro ekologik tashkilotlar, jumladan UNEP va BirdLife International, shamol turbinalarining akustik ta'sirini bioxilma-xillikka tahdid soluvchi ikkilamchi antropogen omil sifatida tasniflagan<sup>7</sup>. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda "Environmental Noise Directive" (END, 2023) kabi me'yoriy hujjatlar asosida SES atrofida akustik monitoring zonalarini tashkil etilib, doimiy shovqin xaritalari tuzilmoqda.

Monitoring odatda uch asosiy yo'nalishda olib boriladi: Akustik monitoring - bu usulda maxsus passiv akustik sensorlar yordamida turbinadan chiqayotgan shovqin darajasi, chastota diapazoni va tovush tarqalish dinamikasi uzluksiz qayd etiladi<sup>7</sup>. Olingan ma'lumotlar yordamida shamol turbinasining inson va hayvonlar uchun sezilarli bo'lgan akustik ta'sir radiusi aniqlanadi. Ba'zi tadqiqotlarda bu usul yordamida shovqin intensivligi 35–50 dBA oralig'ida o'zgarib, qushlarning tovushli aloqa tizimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgani aniqlangan. Shuningdek, akustik modellash SES joylashuvi va shamol yo'nalishiga qarab shovqin tarqalish xaritalarini yaratishga imkon beradi.

Biologik monitoring - bu bosqichda SES atrofida yashovchi hayvonlar va qushlarning tur tarkibi, soni, migratsiya yo'nalishlari muntazam kuzatiladi<sup>8</sup>. Ayniqsa migratsion davrda qushlarning SES yaqinida to'planish yoki undan uzoqlashish holatlari qayd etiladi.

GIS tahlili - zamonaviy geoinformatsion tizim (GIS) texnologiyalari yordamida shamol oqimlari, relyef, vegetatsiya qoplami va tovush tarqalishi modellashtiriladi<sup>9</sup>. Bu yondashuv SES joylashuvini ekologik jihatdan maqbul variantlarda tanlash imkonini beradi. GIS asosidagi raqamli modellar tovushning turli yo'nalishlarda tarqalishini aniqlash orqali, tabiiy muhitga eng kam zarar yetkazadigan hududlarni aniqlashda yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi 2030-yilgacha mo'ljallangan "Yashil energetika" strategiyasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini keskin oshirish, jumladan shamol energetikasi salohiyatini 7 GVt gacha yetkazish rejalashtirilgan<sup>10</sup>. Bu maqsad mamlakatning energiya mustaqilligini ta'minlash, chiqindilarni kamaytirish va xalqaro iqlim majburiyatlarini bajarish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, O'zbekistonda so'nggi yillarda SESlarni qurish va ekspluatatsiya qilish jarayonida ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qat'iy talablar joriy etilgan. Unga ko'ra, har bir loyiha bioxilma-xillikka ta'sir monitoringi, akustik (shovqin) o'lchovlari va qushlarning migratsiya yo'nalishlarini kuzatishni o'z ichiga olgan ekologik baholash bosqichidan o'tishi shart.

Masalan, shamol turbinalari joylashuvi qushlarning asosiy migratsion yo'nalishlaridan kamida 1–1,5 km uzoqlikda tanlanadi, shuningdek, SES atrofidagi bioindikator turlar (qushlar, hasharotlar, kemiruvchilar) holati muntazam monitoring qilinadi. O'zbekiston sharoitida bu talablarning amaliy ijrosi Masdar kompaniyasi tomonidan amalga oshirilayotgan Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi yirik SES loyihalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu loyihalar doirasida ekologik baholash jarayonlari to'liq bosqichlarda o'tkazilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, SES shovqini qushlar sonining kamayishiga, ayrim turlarning migratsion yo'nalishini o'zgartirishiga olib keladi. Shu sababli, O'zbekiston sharoitida shamol elektr stansiyalarini qurishdan oldin ekologik monitoring o'tkazish, shovqin darajasini nazorat qilish va qushlarning tabiiy yashash joylarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. May, R. et al. (2017). Renewable Energy and Wildlife Interaction. Journal of Environmental Management, 203, 123–131.
2. Dooling, R. (2002). Avian hearing and effects of noise pollution. Ecological Applications, 12(3), 1502–1511.
3. Katinas, V. et al. (2016). Acoustic characteristics of wind turbines. Applied Acoustics, 110, 123–130.
4. Lehnardt, M. et al. (2024). Effects of wind turbine noise on songbird behavior during the nonbreeding season. Conservation Biology, 38:e14188.
5. Shannon, G. et al. (2016). A synthesis of two decades of research documenting the effects of noise on wildlife. Biological Reviews, 91(4), 982–1005.
6. Francis, C.D., & Barber, J.R. (2013). A framework for understanding noise impacts on wildlife. BioScience, 63(2), 157–167.
7. McClure, C.J.W. et al. (2013). Phantom road experiment reveals noise avoidance by birds. Proceedings of the Royal Society B, 280
8. Whalen, C.E. et al. (2019). Wind turbine noise alters bird behavior. Environmental Pollution, 250, 912–918.
9. Santos, C. et al. (2021). GIS-based modeling of wind farm impacts on biodiversity. Renewable Energy, 175, 138–147.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori №710 (2023). Yashil energiya strategiyasi – 2030.

## HILBERT FAZOSIDA HOSILALI OPTIMAL KVADRATUR FORMULA

### XATOLIK FUNKSIONALINING NORMASI.

**Polvonov Sarvarbek Zafar o'g'li**

Tashkent International University o'qituvchisi

**Saidov Abbosxon Bahrom o'g'li**

Tashkent International University talabasi

Ushbu ishda biz quyidagi ko'rinishdagi hosilali formulani qaraymiz:

$$\int_0^1 f(x)dx \cong \sum_{\beta=0}^N C_{\beta,0} f(h\beta) + \sum_{\beta=0}^N C_{\beta,1} f'(h\beta) \quad (1)$$

bu yerda  $h = \frac{1}{N}$ ,  $N$  - natural son,  $C_{\beta,0}$  va  $C_{\beta,1}$  ( $\beta = \overline{0, N}$ ) formula koeffitsiyentlari.

$$\begin{cases} C_{0,0} = \frac{h}{2} \\ C_{\beta,0} = h, & \beta = 1, 2, \dots, N-1 \\ C_{N,0} = \frac{h}{2} \end{cases} \quad \begin{array}{l} \text{Bunda } C_{\beta,0} \text{ koeffitsiyentlar} \\ \text{ma'lum (trapetsiya formulasi} \\ \text{koeffitsiyentlari) hamda} \\ \text{quyidagicha aniqlangan:} \end{array} \quad (2)$$

$C_{\beta,1}$  lar esa hozircha noma'lum koeffitsiyentlar. Biz integral ostidagi  $f$  funksiyalar

$W_2^{(3,2)}$  fazosidan bo'lsin deb olamiz. Ushbu fazo Gilbert fazosi bo'lib, quyidagicha aniqlangan:

$$W_2^{(3,2)} = \{f | f : [0,1] \rightarrow \mathbb{R}, f'' - \text{abs uzluksiz } f''' \in L_2(0,1) \} \text{ va}$$

$$\int_0^1 (f'''(x) + f''(x))^2 dx < \infty$$

Bu fazoda  $f$  va  $g$  elementlarning skalyar ko'paytmasi quyidagicha:

$$\langle f, g \rangle_w = \int_0^1 (f'''(x) + f''(x))(g'''(x) + g''(x)) dx \quad (3)$$

aniqlanib, unga mos norma quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\| f \|_w = \sqrt{\int_0^1 (f'''(x) + f''(x))^2 dx}. \quad (4)$$

Ushbu fazo elementlari bir-biridan (4)-normaning noliga farq qiluvchi ekvivalent funksiyalar sinfidir.

(1)-formulaning xatoligi:

$$(\ell, f) = \ell(f) = \int_0^1 f(x) dx - \sum_{\beta=0}^N C_{\beta,0} f(h\beta) - \sum_{\beta=0}^N C_{\beta,1} f'(h\beta) \quad (5)$$

ayirma bo'lib, bu ayirma unga mos chiziqli uzluksiz  $\ell$  funksionalni aniqlaydi.  $\ell$  ga (1)-formulaning xatolik funksionali deyiladi, va (5)-dan quyidagilarni olamiz:

$$(\ell, f) = \int_{-\infty}^{\infty} \ell(x) f(x) dx =$$

$$= \int_{-\infty}^{\infty} f(x) E_{[0,1]}(x) dx - \sum_{\beta=0}^N C_{\beta,0} \int_{-\infty}^{\infty} \delta(x - h\beta) f(x) dx + \sum_{\beta=0}^N C_{\beta,1} \int_{-\infty}^{\infty} \delta'(x - h\beta) f(x) dx \quad (6)$$

bu yerdan  $\ell(x)$  ning ko'rinishini aniqlashimiz mumkin:

$$(\ell, f) = \int_{-\infty}^{\infty} \ell(x) f(x) dx = \int_{-\infty}^{\infty} (E_{[0,1]}(x) - \sum_{\beta=0}^N C_{\beta,0} \delta(x - h\beta) +$$

$$+ \sum_{\beta=0}^N C_{\beta,1} \delta'(x - h\beta)) f(x) dx. \quad (7)$$

Ma'lum bir fazoda aniqlangan funksionallar tengligi ta'rifidan quyidagi ifodani olamiz:

$$\ell(x) = E_{[0,1]}(x) - \sum_{\beta=0}^N C_{\beta,0} \delta(x - h\beta) + \sum_{\beta=0}^N C_{\beta,1} \delta'(x - h\beta). \quad (8)$$

Ushbu ishda asosiy maqsad  $W_2^{(3,2)}$  Gilbert fazosida (1) kvadratur formulaning (5) xatoligining absolyut qiymati eng kichik bo'ladigan  $C_{\beta,1}$  koeffitsiyentlarni topishdir.

Bu masala o'z navbatida (6)-da  $E_{[0,1]}(x)$  xarakteristik funksiyani  $\delta(x)$  va uning hosilasining chiziqli kombinatsiyasi yordamida eng yaxshi yaqinlashtirish

( $C_{\beta,1}$  larni tanlash hisobiga) masalasiga ekvivalentdir.

Endi (5)-xatolikning yuqoridan bahosini olish masalasini qaraymiz. Keyin  $W_2^{(3,2)}$  fazo funksiyalari uchun bu bahoning  $C_{\beta,1}$  koeffitsiyentlar bo'yicha eng kichik qiymatini topish (minimallashtirish) masalasini qaraymiz.

Koshi-Shvars tengsizligiga asosan  $W_2^{(3,2)}$  Gilbert fazosida quyidagini olamiz:

$$|(\ell, f)| \leq \|f\|_{W_2^{(3,2)}} \cdot \|\ell\|_{W_2^{(3,2)*}} \quad (9)$$

Bunda  $W_2^{(3,2)*}$  bu  $W_2^{(3,2)}$  fazoga qo'shma fazo.

(9)-tengsizlikdan ayonki, (1) kvadratur formula 1,  $x$  va  $e^x$  funksiyalar uchun aniq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida  $\ell$  funksionalga aniq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida  $\ell$  funksional uchun quyidagi ortogonallik shartlarini hosil qiladi:

$$\begin{aligned} (\ell, 1) &= 0, \\ (\ell, x) &= 0, \\ (\ell, e^{-x}) &= 0. \end{aligned} \quad (10)$$

Xatolik funksionalining normasi.

Biz xatolik funksionali normasining kvadratini hisoblaymiz. U ko'rinishi quyidagicha :

$$\begin{aligned} \|\ell\|^2 &= \sum_{\beta=0}^N \sum_{\gamma=0}^N C_{\beta,1} C_{\gamma,1} \frac{\operatorname{sgn}(h\beta - h\gamma)}{2} \left( \frac{e^{h\beta - h\gamma} - e^{-(h\beta - h\gamma)}}{2} - (h\beta - h\gamma) \right) - \\ &- 2 \sum_{\beta=0}^N \sum_{\gamma=0}^N C_{\beta,1} C_{\gamma,0} \frac{\operatorname{sgn}(h\beta - h\gamma)}{2} \left( \frac{e^{h\beta - h\gamma} + e^{-(h\beta - h\gamma)}}{2} - \left( 1 + \frac{(h\beta - h\gamma)^2}{2} \right) \right) - \\ &- \sum_{\beta=0}^N \sum_{\gamma=0}^N C_{\beta,0} C_{\gamma,0} G_3(h\beta - h\gamma) + 2 \sum_{\beta=0}^N C_{\beta,0} \int_0^1 G_3(x - h\beta) dx - \\ &- \int_0^1 \int_0^1 G_3(x - y) dx dy \end{aligned} \quad (11)$$

Endi biz (23)-ifodaning (9)-(10) shartlaridagi eng kichik qiymatini topamiz. Buning uchun Lagranjning noma'lum ko'paytuvchilar usulidan foydalanamiz.

$$\Lambda = \|\ell\|^2 + A \cdot (\ell, x) + B \cdot (\ell, e^{-x}) \quad (12)$$

Ushbu funksiyadan  $C_{\beta,1}$ ,  $\beta = 0, 1, \dots, N$  va  $A, B$  lar bo'yicha xususiy hosilalar olib nolga tenglaymiz va soddalashtirib quyidagi sistemani olamiz:

$$\begin{cases} \sum_{\gamma=0}^N C_{\gamma,1} G_2(h\beta - h\gamma) + A_1 + B_1 e^{-h\beta} = F_1(h\beta), & \beta = 0, 1, \dots, N \\ \sum_{\gamma=0}^N C_{\gamma,1} = 0 \\ \sum_{\gamma=0}^N C_{\gamma,1} e^{-h\gamma} = H_1 \end{cases} \quad (13)$$

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shadimetov Kh.M., Hayotov A.R., Nuraliev F.A. Optimal quadrature formulas with derivative in the space  $L_2^{(m)}(0,1)$  // American Journal of Numerical Analysis. 2014. -vol.2. №4. –pp.115-127.
2. Hayotov, A. R., Babaev, S.S.(2020). Optimal quadrature formulas for computing of Fourier integrals in a Hilbert space. *Problems of Computational and Applied Mathematics*. Tashkent, 4 (28), 73-84.

## TA'LIMDA GOOGLE EKOTIZIMI: KONSEPTLAR, AMALIYOT, MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

**Qo'ldoshev H.M,**

Tashkent international university .  
[hakimkhm1971@gmail.com](mailto:hakimkhm1971@gmail.com).

Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining roli misli ko'rilmagan darajada ortib borayotgan bir paytda, onlayn ta'lim platformalarining ahamiyati ham kundan-kun oshib bormoqda. Ushbu global raqamlashtirish jarayonida, xususan, Google ekotizimi va uning turli xizmatlari ta'lim sohasida innovatsion imkoniyatlar yaratishda muhim o'rin tutmoqda.

Google'da dars ishlash tizimi asosan internet texnologiyalari va Google xizmatlaridan keng foydalanishga asoslangan bo'lib, ta'lim jarayonini samarali va uzluksiz tashkil etishga qaratilgan kompleks yondashuv hisoblanadi. Ushbu tizimlar yordamida bugungi kunda ta'lim muassasalari hamda o'qituvchilar darslarni rejalashtirish, turli topshiriqlar berish, baholash va o'quvchilar bilan hamkorlik qilish jarayonlarini to'liq onlayn tarzda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

Onlayn ta'limning kengayishi bilan Google Classroom, Google Drive va Google Meet kabi platformalar ta'lim sifatini oshirish va pedagogik jarayonlarni har bir o'quvchiga shaxsiylashtirishda markaziy rol o'ynamoqda. Bugungi kunda bu tizim masofaviy ta'limni kengaytirishda, ta'limda innovatsion yondashuvlarni joriy etishda va pedagoglarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan resurslarni taqdim etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotning asosiy maqsadi ham aynan Google'da dars ishlash tizimining asosiy konseptlari, amaliyotlari, integratsiya jarayonlarini tahlil qilish, shuningdek, onlayn ta'limdagi muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Google'da Onlayn Ta'lim Platformalarining Asosiy Konseptlari

Google'ning onlayn ta'lim platformalari zamonaviy ta'limda muhim o'rin tutadi va ta'limni yangi texnologiyalar bilan integratsiya qilish orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu platformalarning arxitekturasi asosan uchta yirik tamoyilga — interaktivlik, qulaylik va moslashuvchanlikka asoslangan bo'lib, o'quvchi va o'qituvchilarga keng imkoniyatlar yaratadi.

Tizimning asosiy konseptlari quyidagilardan iborat:

**Interaktivlik va Muloqot:** Eng muhim konseptlardan biri interaktivlik bo'lib, u o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida uzluksiz, samarali muloqotni ta'minlovchi vositalar majmuasini anglatadi. Ushbu jarayonda Google Classroom, Google Drive va Google Meet kabi xizmatlar yetakchi rol o'ynaydi. Google Classroom yordamida o'qituvchilar dars topshiriqlarini beradi, o'quvchilar ishlarini baholaydi va tezkor fikr-mulohazalar (feedback) bilan ta'minlaydi. Bu o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ta'limni osonlashtiradi. Shuningdek, onlayn forumlar va chatlar orqali muhokamalar va savol-javoblar jarayoni kengayib, darsning interaktivligi oshadi.

**Moslashuvchanlik va Shaxsiylashtirish (Personalizatsiya):** Google platformalari yordamida ta'lim jarayoni har bir shaxsning ehtiyojiga moslashtiriladi. Masalan, Google Drive orqali turli formatdagi (matn, video, audio) resurslar bilan ishlash o'quvchilarning individual uslubini hisobga oladi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi yordamida esa o'quvchilarning

qobiliyatlari va ehtiyojlariga to'la mos keladigan shaxsiylashtirilgan ta'lim rejalari ishlab chiqilishi mumkin.

**Hamkorlik va Jamoaviy Ishlash:** Jamoaviy ishlarni rivojlantirish tizimning muhim konseptlaridandir. Google Drive va Google Docs vositalarida o'quvchilar va o'qituvchilar real vaqtda hujjatlarni baham ko'rib, birgalikda ishlashlari mumkin. Bu kreativ fikrlashni va muammolarni birgalikda hal qilishni rivojlantiradi.

**Xavfsizlik va Ma'lumotlarni Boshqarish:** Ma'lumotlar xavfsizligi konsepti muhim ahamiyatga ega bo'lib, Google platformalari shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va ruxsatsiz kirishning oldini olish uchun zamonaviy va rivojlangan himoya vositalarini qo'llaydi. Bu ta'lim muassasalari uchun juda muhim, chunki u faqat ruxsat etilgan shaxslar ma'lumotlarga kirishini kafolatlaydi.

Ushbu tamoyillar ta'limni samarali, qulay va shaxsiylashtirilgan qilib, masofaviy ta'limni rivojlantirishda va innovatsion yondashuvlarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## II. Google Xizmatlarining Ta'limdagi Amaliyotlari va Integratsiyasi

Google xizmatlarining ta'lim amaliyotiga kiritilishi o'qituvchilar va o'quvchilar orasidagi aloqani, resurslardan foydalanishni va dars tashkil qilish jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtiradi va samarali qiladi. Asosiy xizmatlarning amaliy integratsiyasi quyidagicha ko'rinish oladi:

1. **Google Classroom:** Bu platforma o'qituvchilarga darslarni rejalashtirish, uzluksiz aloqada bo'lish va baholash imkonini beradi. Topshiriqlar taqdim etilgach, ularning bajarilish holati real vaqtda kuzatib boriladi. Bu o'quvchilarga topshiriq bajarish uchun qulay muhit yaratsa, o'qituvchilarga baholashni osonlashtiradi hamda interaktiv yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi.

2. **Google Drive:** Ta'lim resurslarini saqlash va ularga kirishni boshqarish uchun xizmat qiladi. Ushbu vosita yordamida o'quvchilar va o'qituvchilar hujjatlar, matnlar va prezentatsiyalarni birgalikda tahrirlash imkoniga ega. Natijada resurslarni samarali boshqarish, xavfsiz saqlash va hamkorlikni rivojlantirishga erishiladi.

3. **Google Meet:** Masofaviy ta'limda videokonferensiyalar uchun mo'ljallangan ushbu platforma real vaqtda muloqotni ta'minlaydi. Treninglar, seminarlar, darslar onlayn tarzda o'tkaziladi. Mobil qurilmalarga moslashtirilgani hamda boshqa Google xizmatlari bilan integratsiyasi darslarni yanada qulay va interaktiv qiladi.

4. **Google Forms:** Ta'lim muassasalariga o'quvchilarning bilim darajasini o'lchash imkonini beruvchi testlar, anketalar va so'rovnomalar tayyorlash vositasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, ta'limda Google Cloud Platform hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi innovatsion yondashuvlarni joriy etishga va o'quvchilar ehtiyojlariga mos muhit yaratishga xizmat qilmoqda. Bu xizmatlarning integratsiyasi kelajakda ta'lim sohasini belgilovchi eng muhim omillardan biri bo'lib qoladi.

### Onlayn Ta'limda Yuzaga Keladigan Muammolar va Ularning Yechimlari

Google ekotizimi ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqqan bo'lsa-da, onlayn ta'lim bir qator jiddiy muammolar bilan ham to'qnash kelmoqda. Tadqiqotda aniqlangan muammolar va ularning yechimlari tahlili quyidagilarni ko'rsatadi:

#### Texnik Muammolar va Infratuzilma

**Muammo:** Eng keng tarqalgan muammo — internet aloqasining barqarorligi va tezligidir. Keng polosali internet yo'qligi yoki sifati pastligi hududlarda o'quvchilarning darslardan kechikishi yoki ishtirok eta olmasligiga olib keladi. Bu muammo ayniqsa qishloq va kam ta'minlangan hududlarda o'ta jiddiy.

**Yechim:** Avtomatlashtirilgan tizimlar va sun'iy intellekt yordamida offline rejimda ishlash imkoniyatlari hamda tarmoq muammolarini avtomatik tuzatish mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, kesh xotira texnologiyalari va mobil qurilmalarga moslashtirilgan platformalar orqali internet bilan bog'liq muammolar qisqartirilmoqda.

**Muammo:** To'g'ridan-to'g'ri muloqotning yetishmasligi va pedagoglarning texnologiyalar bilan ishlashdagi ko'nikmalarining pastligi asosiy pedagogik muammolardandir.

O'qituvchilarning yangi platformalar bilan ishlashdagi tayyorgarlik darajasi pastligi jarayonni qiyinlashtiradi.

Yechim: O'qituvchilar uchun onlayn kurslar, seminarlar va maxsus treninglar tashkil etilmoqda. Pedagoglar ishini yengillashtirish va samaradorlikni oshirish uchun Google Classroom kabi xizmatlarda tayyor shablonlar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari ishlab chiqilmoqda.

Ma'lumotlar Xavfsizligi va Maxfiylik

Muammo: Baholash natijalari va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi katta masaladir. Kiberxavfsizlik tahdidlari va ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish ehtimoli ta'lim muassasalari uchun jiddiy xavf tug'diradi.

Yechim: Xavfsiz autentifikatsiya, shifrlash texnologiyalari va zamonaviy xavfsizlik protokollari joriy etilmoqda. Google o'z xavfsizlik sertifikatlari doirasida foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha qattiq chora-tadbirlar ko'rmoqda.

Psixologik va Ijtimoiy Muammolar

Muammo: Ta'lim ishtirokchilari orasida izolyatsiya, motivatsiyaning pasayishi va ijtimoiy aloqalarning susayishi kuzatilmoqda.

Yechim: Bu holatni bartaraf etish uchun onlayn muhitda ijtimoiy aloqalarni rivojlantiruvchi loyihalar, gamifikatsiya va interaktiv usullardan foydalanilmoqda. Virtual sinf muhiti va guruh ishlari hamkorlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosidagi yordamchi dasturlar o'quvchilar qiyinchiliklarini aniqlab, ularga shaxsiylashtirilgan yordam ko'rsatish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Google'da dars ishlash tizimi zamonaviy, interaktiv va shaxsiylashtirilgan ta'limni rivojlantirishda markaziy va hal qiluvchi vositalardan biri hisoblanadi. Google Classroom, Drive va Meet orqali dars rejalashtirish, baholash va hamkorlik imkoniyatlari kengayib, ta'lim samaradorligi keskin oshgan.

Shu bilan birga, ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan texnik, pedagogik va ma'lumotlar xavfsizligi muammolarini hal etish uchun sun'iy intellekt integratsiyasi, mobil moslashuvchanlik va zamonaviy xavfsizlik protokollari muhim rol o'ynamoqda. Kelajakda bu yo'nalishlarning yanada takomillashishi va pedagogik innovatsiyalarning texnologiya bilan uyg'unlashuvi ta'lim muassasalari va pedagoglar uchun keng imkoniyatlar ochib, jamiyatning umumiy rivojlanishiga xizmat qilishi shubhasiz.

#### **Foydalanilgan Adabiyotlar:**

1. O'rmonov, M. & Ahmedov, S. (2021). Onlayn ta'lim platformalari va ularning ta'lim jarayonidagi roli. *Ta'lim texnologiyalari jurnali*, 3(2), 45-59.
2. Qodirov, A. (2020). Google Classroom orqali ta'limni tashkil qilish usullari. *Ta'lim innovatsiyalari va texnologiyalari*, 5(1), 78-85.
3. Sultonov, D. (2019). Onlayn ta'limda sun'iy intellekt va avtomatlashtirish imkoniyatlari. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ma'lumotnomasi*, 4, 112-120.
4. Bekjonov, N. & Iskandarov, M. (2022). Google xizmatlari va ta'limda integratsiya: amaliy yondashuvlar. *O'zbekiston ta'lim tarixlari*, 8(3), 33-47.
5. Nurmatov, A. (2020). Onlayn ta'limda texnik muammolar va ularni hal qilish strategiyalari. *Elektron ta'lim va innovatsiyalar*, 2(4), 60-70.

## **CONSTRUCTION OF OPTIMAL QUADRATURE FORMULAS WITH REAL COEFFICIENTS.**

**Qobilov H.**

We consider the Hilbert space  $W_2^{(m,m-1,m-2)}(0,1]$ ,  $m \geq 3$  of non-periodic, real-valued functions  $\varphi(x)$ ,  $0 \leq x \leq 1$ , that  $(m - 2)$ nd order derivative is absolute continuous and  $m$ th order derivative (in the generalized sense) are square integrable, with the inner product

$$\langle \varphi, \psi \rangle_{W_2^{(m,m-1,m-2)}} = \int_0^1 \left( \varphi^{(m)}(x) \psi^{(m)}(x) + 2\varphi^{(m-1)}(x) \psi^{(m-1)}(x) + \varphi^{(m-2)}(x) \psi^{(m-2)}(x) \right) dx \quad (2)$$

where  $\varphi, \psi \in W_2^{(m,m-1,m-2)}(0,1]$ , and the corresponding norm of the function  $\varphi$  is defined as follows

$$\|\varphi\|_{W_2^{(m,m-1,m-2)}} = \left( \int_0^1 \left( (\varphi^{(m)}(x))^2 + 2(\varphi^{(m-1)}(x))^2 + (\varphi^{(m-2)}(x))^2 \right) dx \right)^{\frac{1}{2}}.$$

Let us denote by  $W_2^{(m,m-1,m-2)}(0,1]$  the subspace of the space  $W_2^{(m,m-1,m-2)}(0,1]$  consisting of real-valued, 1-periodic functions  $\varphi(x)$ ,  $x \in (0,1]$ .

In the present paper, we consider the Hilbert space  $W_2^{(m,m-1,m-2)}(0,1]$  of 1-periodic, real-valued functions. Notice that every element of the space  $W_2^{(m,m-1,m-2)}(0,1]$  satisfies the following condition of 1-periodicity

$$\varphi(x + \beta) = \varphi(x), \quad \text{for } x \in \mathbb{R} \quad \text{and } \beta \in \mathbb{Z}$$

We consider a quadrature formula of the following form

$$\int_0^1 \varphi(x) dx \cong \sum_{k=1}^N C_k \varphi(x_k) \quad (3)$$

where  $\varphi \in W_2^{(m,m-1,m-2)}$ ,  $C_k$  are the coefficients of the quadrature formula and  $N$  is the number of nodes,  $h = 1/N$  and  $x_k$  ( $0 < x_1 < x_2 < \dots < x_N \leq 1$ ) are nodes. Since quadrature formula of the form (1) with equidistant nodes is optimal for the periodic functions class, we choose the nodes as  $x_k = hk$  (see [23]).

The error of the quadrature formula (1) is given as follows

$$\begin{aligned} (\ell, \varphi) &= \int_0^1 \varphi(x) dx - \sum_{k=1}^N C_k \varphi(hk) = \\ &= \int_0^1 \left[ \left( \varepsilon_{(0,1]}(x) - \sum_{k=1}^N C_k \delta(x - hk) \right) * \phi_0(x) \right] \cdot \varphi(x) dx, \end{aligned} \quad (4)$$

where  $h = \frac{1}{N}$ ,  $\varepsilon_{(0,1]}(x)$  is the characteristic function of the interval  $(0,1]$ ,  $\delta$  is the Dirac

delta-function,  $\phi_0(x) = \sum_{\beta=-\infty}^{\infty} \delta(x - \beta)$ ,  $*$  is the convolution operation and

$$\ell(x) = \left( \varepsilon_{(0,1]}(x) - \sum_{k=1}^N C_k \delta(x - hk) \right) * \phi_0(x) \quad (5)$$

and it is the periodic error functional of the quadrature formula (1).

### References

1. Kh.M. Shadimetov, S.S. Azamov, H.M. Qobilov, Estimating the Norm of the Error Functional in Sobolev Space of Periodic Functions, *Int. J. Anal. Appl.*, 24 (2026), 30. <https://doi.org/10.28924/2291-8639-24-2026-30>

2. Shadimetov M., Azamov S., Qobilov H. Optimality of approximate integration formulas for classes of periodic functions Bulletin of the Institute of Mathematics, Vol. 8, (2025), pp. 218–226

## **RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA SINXRON TARJIMADA ANTISIPATSIYA: INSON VA MASHINA TARJIMASI QIYOSIY TAHLILI**

**Rashidova Muxlisa Xolmurod qizi**

O'zDJTU Magistratura bo'limi, Sinxron tarjima yo'nalishi

[rashidovamukhlisa@gmail.com](mailto:rashidovamukhlisa@gmail.com)

XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va raqamli kommunikatsiya vositalarining kengayishi natijasida ko'p tilli muloqot hajmi sezilarli darajada ortdi. Xalqaro konferensiyalar, diplomatik muzokaralar, onlayn forumlar hamda raqamli boshqaruv tizimlarida tezkor va sifatli tarjimaga ehtiyoj tobora kuchaymoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt asosidagi neyron mashina tarjimasi tizimlarining rivojlanishi real vaqt rejimidagi tarjima jarayoniga yangi yondashuvlarni olib kirdi. Shu bilan birga, inson tomonidan amalga oshiriladigan sinxron tarjima hanuzgacha yuqori darajadagi kommunikativ aniqlik va pragmatik moslashuvchanlikni talab etuvchi murakkab kognitiv faoliyat sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Sinxron tarjima jarayoni nutqni bir vaqtning o'zida tinglash, tahlil qilish va ikkinchi tilda qayta ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonda tarjimon samarali faoliyat yuritishi uchun turli strategiyalardan foydalanadi. Shulardan biri antisipatsiya strategiyasi bo'lib, u nutqning keyingi qismini kontekst, grammatik tuzilma va diskursiv ko'rsatkichlar asosida oldindan prognoz qilishni nazarda tutadi. Antisipatsiya tarjimondan yuqori darajadagi lingvistik kompetensiya, tezkor tafakkur va madaniy bilimni talab etadi. Sun'iy intellektga asoslangan tarjima tizimlari ham prognozlash mexanizmidan foydalanadi, biroq u ehtimollik modellari va katta hajmdagi korpus ma'lumotlariga tayanadi. Shu sababli inson tarjimonining kognitiv antisipatsiyasi bilan mashina tarjimasining algoritmik prognozlash mexanizmi o'rtasida muhim farqlar mavjud.

Mazkur maqolaning maqsadi raqamli kommunikatsiya va sun'iy intellekt davrida sinxron tarjimada antisipatsiya strategiyasining o'rni va samaradorligini tahlil qilish hamda inson va mashina tarjimasi o'rtasidagi prognozlash mexanizmlarini qiyosiy o'rganishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, kognitiv va diskursiv metodlardan foydalaniladi. Mazkur tadqiqot natijalari raqamli boshqaruv tizimlari, xalqaro muloqot maydonlari va ko'p tilli axborot almashinuvi jarayonlarida samarali tarjima mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Sinxron tarjima bu nutqni bir vaqtning o'zida tinglash, idrok etish, semantik tahlil qilish va ikkinchi tilda qayta ifodalash jarayonidir. Mazkur faoliyat murakkab kognitiv mexanizmlarga asoslanadi, hamda qisqa muddatli xotira, diqqatni taqsimlash, tezkor qaror qabul qilish va nutqni taxmin qilish qobiliyatini talab etadi. Tadqiqotchilar sinxron tarjimini "ko'p vazifali kognitiv operatsiya" sifatida tavsiflaydi, chunki tarjimon bir vaqtning o'zida bir nechta aqliy jarayonni boshqaradi.

Kognitiv yondashuvga ko'ra, tarjima jarayoni uch asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

1. kiruvchi nutqni qabul qilish va dekodlash,
2. mazmunni mental qayta ishlash,
3. rekodlash va artikulyatsiya.

Ushbu bosqichlar o'rtasidagi vaqt tafovuti (lag time yoki ear-voice span) tarjimaning sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Vaqt tafovuti qisqarishi tarjimonning antisipatsiya qila olish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Antisipatsiya (oldindan taxmin qilish) sinxron tarjimada nutqning keyingi segmentlarini kontekst, grammatik tuzilma, kollokatsiya va diskursiv belgilar asosida taxmin qilish jarayoni

hisoblanadi. Bu strategiya tarjimonga nutq tezligini muvozanatlash, kognitiv yuklamani kamaytirish va mantiqiy uzviylikni saqlash imkonini beradi.

Lingvistik jihatdan antisipatsiya quyidagi omillarga tayanadi:

1. Sintaktik prognozlash — gap strukturasi ehtimoliy davomiyligini aniqlash;
2. Semantik kutish — mavzuga doir termin va tushunchalarni oldindan taxmin qilish;
3. Diskurs aniqlovchilari — sabab–natija, qarama-qarshilik yoki izohlovchi bog‘lovchilar orqali nutq yo‘nalishini aniqlash;
4. Kollokatsion bog‘lanishlar — so‘z birikmalarining tipik qo‘llanishi asosida prognoz qilish.

Pragmatik jihatdan esa antisipatsiya nutq vaziyati, kommunikativ maqsad va madaniy kontekst bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, siyosiy nutq, ilmiy ma’ruza yoki diplomatik bayonotlarda qo‘llanadigan standart formulalar tarjimon uchun yuqori taxmin qilish imkoniyatini yaratadi. Shu bois antisipatsiya nafaqat lingvistik, balki kognitiv-pragmatik hodisa sifatida qaraladi.

Sun‘iy intellekt asosidagi zamonaviy tarjima tizimlari, xususan, neyron mashina tarjimasi (Neural Machine Translation – NMT) modellari ham taxmin qilish tamoyiliga asoslanadi. Biroq inson tarjimonidan farqli ravishda, mashina tizimi keyingi birlikni statistik ehtimollik va oldingi ma’lumotlar ketma-ketligi asosida aniqlaydi. Neyron tarmoqlarda diqqat mexanizmi kiruvchi matnning muhim segmentlarini ajratib ko‘rsatish orqali kontekstni aniqlab oladi. Transformator arxitekturasi esa butun gap strukturasi parallel qayta ishlash imkonini beradi. Shunday bo‘lsa-da, mashina tarjimasi pragmatik moslashuvchanlik, yashirin ma’no va madaniy konnotatsiyalarni aniqlashda cheklanib qolishi mumkin. Raqamli kommunikatsiya muhiti — onlayn konferensiyalar, elektron hukumat platformalari, jonli efir va translyatsiyalar — tarjimadan yuqori tezlik va aniqlikni talab qiladi. Mazkur sharoitda antisipatsiya strategiyasi informatsion yukni boshqarish, nutq oqimini uzluksiz ta’minlash hamda kommunikativ samaradorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi. Sun‘iy intellekt texnologiyalari tarjima jarayonini avtomatlashtirayotgan bo‘lsa-da, inson tarjimonining kognitiv moslashuvchanligi va pragmatik sezgirligi hali ham to‘liq o‘rnini bermagan. Shu sababli antisipatsiya strategiyasini inson va mashina tarjimasi kontekstida qiyosiy o‘rganish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Sinxron tarjimada inson tomonidan qo‘llaniladigan antisipatsiya strategiyasi va sun‘iy intellekt asosidagi neyro-tizimli mashina tarjimasi tizimlarining prognozlash mexanizmi tashqi jihatdan o‘xshash ko‘rinsa-da, ularning ichki ishlash prinsipi tubdan farq qiladi. Inson tarjimasi nutqni qabul qilish jarayonida kontekstual bilim, oldingi tajriba, mavzuga oid tayyorgarlik va diskurs tuzilmasiga tayanadi. Antisipatsiya jarayoni intuitiv va kognitiv integratsiya asosida amalga oshadi. Tarjimon gapning grammatik tuzilishi, terminologik ehtimollik va nutqning pragmatik yo‘nalishini hisobga olgan holda keyingi segmentni oldindan taxmin qiladi. Mashina tarjimasi tizimlarida esa taxmin qilish matematik model asosida bajariladi. Neyron tarmoq oldingi ma’lumotlar ketma-ketligiga tayangan holda keyingi birlikning ehtimolini hisoblaydi. Bu jarayon statistik ehtimollik va o‘rganilgan korpus ma’lumotlariga asoslanadi. Inson prognozi semantik va pragmatik chuqurlikka ega bo‘lsa, mashina prognozi ehtimollik modellari bilan chegaralanadi. Raqamli kommunikatsiya sharoitida tarjima jarayonining samaradorligi asosan tezlik va aniqlik bilan belgilanadi. Mashina tarjimasi juda yuqori tezlikda ishlashi bilan bir qatorda, grammatik aniqlikni saqlaydi va katta hajmdagi matnni qisqa vaqt ichida qayta ishlaydi. Inson sinxron tarjimasi esa nutq tezligiga moslashib, ma’noni saqlashga ustuvor ahamiyat beradi. Shuningdek, u murakkab sintaktik tuzilmalarda strukturani qayta tashkil qilishi mumkin. Biroq inson tarjimonlari stress, diqqatning pasayishi yoki kognitiv yuklama oshganda xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Mashina esa emotsional va fiziologik omillardan holi ravishda barqaror ishlaydi.

Antisipatsiyaning eng muhim jihatlaridan biri nutqning pragmatik maqsadini anglashdir. Siyosiy nutq, diplomatik bayonot yoki emotsional diskursda yashirin ma’no (implikatura), kinoya yoki metaforani to‘g‘ri talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday vaziyatda inson tarjimonlar madaniy kontekstni hisobga oladi. Shu bilan birga, nutq ohangi va emotsional jihatni

sezib, zarurat tug'ilganda strukturani moslashtira oladi. Mashina tarjimasida esa, aksincha, metaforik yoki kinoyali ifodalarni literal talqin qilishi, konnotativ ma'noni to'liq aks ettira olmasligi mumkin. Shuningdek, mashina tarjimasida diskursiv moslashuvchanlikda cheklangandir. Shu bois pragmatik adekvatlik mezonini bo'yicha inson tarjimonlar ustunlikka ega.

Mazkur tadqiqotda raqamli kommunikatsiya va sun'iy intellekt rivojlanishi sharoitida sinxron tarjimada antisipatsiya strategiyasining o'rni va xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Antisipatsiya sinxron tarjimaning asosiy strategik mexanizmlaridan biri bo'lib, u nutqni oldindan taxmin qilish orqali tarjima tezligi va sifatini ta'minlaydi.

2. Inson tarjimonlarning antisipatsiyasi kognitiv, lingvistik va pragmatik omillarning integratsiyasiga asoslanadi.

3. Neyron mashina tarjimasida tizimlari ham antisipatsiya mexanizmidan foydalanadi, biroq u matematik va statistik ehtimollikka tayanadi.

4. Formal aniqlik va tezlik jihatidan mashina tarjimasida ustun bo'lishi mumkin, ammo pragmatik adekvatlik va madaniy moslashuvchanlik nuqtai nazaridan inson tarjimonlar ustunlikka ega.

Sinxron tarjimada antisipatsiya strategiyasi inson tafakkuriga xos murakkab kognitiv hodisa sifatida o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari bu jarayonni qo'llab-quvvatlashi mumkin, biroq hozirgi bosqichda ular to'liq o'rnini egallay olmaydi. Kelajakda tarjima jarayonining samaradorligini oshirish uchun inson va sun'iy intellekt integratsiyasiga asoslangan gibrid modellarning rivojlantirilishi istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Bahdanau D., Cho K., Bengio Y. Neural Machine Translation by Jointly Learning to Align and Translate // Proceedings of the International Conference on Learning Representations (ICLR). – 2015.

2. Chernov G.V. Inference and Anticipation in Simultaneous Interpreting. – Amsterdam: John Benjamins, 2004.

3. Gile D. Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training. – Amsterdam: John Benjamins, 2009.

4. Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3. – New York: Academic Press, 1975.

5. Koehn P. Neural Machine Translation. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020.

6. Lederer M. The Interpretive Theory of Translation. – Manchester: St. Jerome Publishing, 2003.

7. O'Brien S. Translation as Human-Computer Interaction // Translation Spaces. – 2012. – Vol. 1(1).

8. Seeber K.G. Cognitive Load in Simultaneous Interpreting // Interpreting. – 2011. – Vol. 13(2).

9. Searle J.R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979.

10. Setton R., Dawrant A. Conference Interpreting: A Complete Course. – Amsterdam: John Benjamins, 2016.

11. Vaswani A. et al. Attention Is All You Need // Advances in Neural Information Processing Systems (NeurIPS). – 2017.

## ONLINE DATABASE FOR CAR RENTAL SERVICES

**Sayitova Nigora Abdurasul qizi**

Andijan State Technical Institute

2nd-year student, Information Systems and Technologies

sayitovanigora6@gmail.com

- правильность изложения теоретического материала и его интерпретация;
- проект учебного занятия или воспитательного мероприятия соответствует педагогической технологии, представленной в первой части проекта;
- самостоятельность и творчество при разработке проекта учебного занятия или воспитательного мероприятия;
- технологическая карта соответствует педагогической технологии, представленной в первой части проекта, и проекту учебного занятия или воспитательного мероприятия;
- продукты творческой деятельности учащихся в результате реализации на практике педагогического проекта;
- наличие списка научной, методической, учебной литературой и других источников, используемых для разработки педагогического проекта;
- презентация педагогического проекта;
- экспертное заключение о качестве педагогического проекта (награда, грант, грамота, высшая категория и др.).

Критерии оценки педагогического проекта являются основой диагностической карты. Карта заполняется преподавателем во время проведения студентом презентации педагогического проекта. \_\_\_\_\_

Условиями успешного использования педагогического проекта как формы контроля знаний являются:

- ориентация на развитие творческих способностей будущих учителей;
- учет индивидуальных особенностей студентов, их познавательных способностей;
- учет межпредметных связей со специальными и общепедагогическими дисциплинами.

Студентами - заочниками представлено 11 презентаций авторских педагогических проектов, основой которых являлся прогрессивный опыт работы разработчиков. Наряду с тем, что обучающиеся овладели элементами проектировочной деятельности, у них сформировались умения синтезировать знания по всем педагогическим курсам, на практике апробировать теоретические знания, творческое педагогическое мышление, культуру презентации педагогического проекта.

Представленная модель педагогического проекта аккумулирует многообразный научный и практический опыт проектировочной деятельности, выполняет познавательную, прагматическую и дидактическую функции. Образовательная ситуация в современной школе формирует социальную потребность в учителе, способном самостоятельно осуществлять творческую функцию в условиях создания и выбора образовательных альтернатив.

#### **ЛИТЕРАТУРА:**

1. Цыркун И.И. Система инновационной подготовки специалистов гуманитарной сферы. - Мн.: Техналопя, 2000. - 326 с.
2. Змеев СМ. Технология обучения взрослых: Учеб, пособ. - М.: Академия, 2002. - 128 с.
3. Сея сто Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. - М.: Народное образование, 1998. - 256 с.

# ISPAN TILI FRAZELOGIYASI: MILLIY-MADANIY KOD VA PRAGMATIK MEXANIZMLAR

O‘zDJTU Ispan tili  
amaliy fanlar kafedrası  
f.f.f.d (PhD) dotsent v.b  
**U.Y.Dushayeva**  
[umida.77.ud@gmail.com](mailto:umida.77.ud@gmail.com)

Til – bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki jamiyatning tarixiy xotirasi, kollektiv tajribasi va mental modeli mujassam bo‘lgan murakkab semiotik tizimdir. Shu ma’nodan frazeologiya til tizimining eng zich va madaniy jihatdan yuklangan qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ispan tili frazeologik birliklari (FB) o‘zida nafaqat leksik-semantik barqarorlikni, balki ispan xalqi tarixiy taraqqiyoti, diniy an’analari, ijtimoiy stereotiplari va kognitiv konseptualizatsiyasini aks ettiradi.

Frazeologiya masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil lingvistik yo‘nalish sifatida shakllandi. Ispan tilshunosligida bu yo‘nalishning ilmiy asoslari Julio Casares tomonidan leksikografik tamoyillar asosida, keyinchalik Alberto Zuluaga tomonidan struktur-semantik mezonlar orqali tizimlashtirildi. Gloria Corpas Pastor esa frazeologiyani keng ma’nodan – idiomlar, kollokatsiyalar va paremiologik birliklarni qamrab oluvchi kompleks birliklar tizimi sifatida talqin qildi.

Zamonaviy lingvistik paradigma esa frazeologiyani faqat struktur barqaror birlik sifatida emas, balki kognitiv va pragmatik mexanizm sifatida ko‘rishni taklif etadi. Ayniqsa, George Lakoff va Mark Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi frazeologik birliklarning shakllanishini inson tafakkuri va konseptual xaritalash jarayoni bilan bog‘lash imkonini berdi. Bu yondashuvga ko‘ra, idiomatik birliklar tasodifiy emas, balki konseptual metaforalar tizimining til sathidagi ifodasidir. Masalan, ispan tilidagi *estar en la cuerda floja* iborasi xavfli vaziyatni “*muvozanatni yo‘qotish*” konsepti orqali tushuntiradi. Bu yerda hayot – muvozanat, muammo – yiqilish xavfi metaforik modeli asosida konseptualizatsiya qilinadi. Demak, frazeologiya semantik hodisa bo‘lish bilan birga kognitiv modeldir.

Zamonaviy mediadiskurs, reklama, siyosiy nutq va ijtimoiy tarmoqlarda frazeologik birliklar ko‘pincha transformatsiyalanadi, qisqartiriladi yoki ironik kontekstda qayta talqin qilinadi. Bu jarayon frazeologiyani “muzlatilgan struktura” emas, balki dinamik tizim sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. Frazeologiya – til tizimining eng konservativ, ayni paytda eng dinamik qatlamlaridan biridir. Ispan tilida FBlar nafaqat leksik-semantik boylikni, balki tarixiy tajriba, diniy-madaniy stereotip va ijtimoiy qadriyatlarni ham kodlaydi. Shuning uchun ularni faqat semantik birlik sifatida emas, balki madaniy matn sifatida o‘rganish talab etiladi. Ispan frazeologiyasini ilmiy jihatdan asoslashda Julio Casares, Alberto Zuluaga, Gloria Corpas Pastor, Luis Fernando Lara kabi olimlar muhim nazariy platforma yaratgan. Zamonaviy kognitiv paradigma esa George Lakoff va Mark Johnson konseptual metafora nazariyasi bilan boyidi. FB – tarkibiy jihatdan barqaror, ma’nosi komponentlar yig‘indisidan to‘liq kelib chiqmaydigan, reproduktiv xarakterga ega til birligidir. Ispan tilida FBlar quyidagi mezonlar asosida tasniflanadi: *barqarorlik darajasi* (fijación), *semantik yaxlitlik* (idiomaticidad), *reproduktivlik* (reproducción fija), *variantlik imkoniyati*.

Kognitiv mexanizmlar ispan frazeologiyasining asosiy mexanizmi bunda konseptual metafora *tirar la toalla* → “kurashni to‘xtatish” (sport konsepti → hayotiy kurash), *estar en la cuerda floja* → “xavfli vaziyatda bo‘lish”. Bu birliklar hayotni “kurash”, “muvozanat”, “yo‘l” kabi universal konseptlar orqali tushuntiradi.

### Struktur tasnif

Tur	Misol	Xususiyat
To'liq idiom	<i>estar en las nubes</i>	Metaforik ko'chish
Qisman idiom	<i>romper el silencio</i>	Semantik kengayish
Kollokatsiya	<i>tomar una decisión</i>	Leksik bog'liqlik
Paremiologik birlik	<i>A caballo regalado no se le mira el diente</i>	Didaktik-folklorik

Lingvokulturologik kod ispan tilida diniy, tarixiy va etnografik qatlam kuchli aks etadi: *armarse la de San Quintín* (tarixiy voqea bilan bog'liq), *no hay moros en la costa* (rekonkista davri madaniy izi), *ser más papista que el Papa* (katolik mentaliteti aks-sadosi). Bu birliklar milliy ongning tarixiy qatlamini saqlaydi.

Diskursiv-pragmatik funksiyalar frazeologik birliklar: emotsional intensivlik beradi, nutqni iqtisod qiladi, ijtimoiy identifikatsiyani kuchaytiradi, ironiya va sarkazmni ifodalaydi.

Zamonaviy mediadiskursda FBlar transformatsiyaga uchraydi *tirar la toalla* → *no tiramos la toalla digital*. Mem-kultura orqali ironik rekontekstualizatsiyaga uchraydi. Zamonaviy manbalar va kodifikatsiya Ispan frazeologiyasi normativ jihatdan quyidagi manbalarda qayd etilgan: Real Academia Española, Diccionario de la lengua española, Diccionario fraseológico documentado del español actual.

Ispan tilidagi *tirar la casa por la ventana* va o'zbek tilidagi “*qo'lini ochiq tutmoq*” birliklari semantik jihatdan yaqin, ammo obraz tizimi turlicha. Bu holat universallik va milliylik dialektikasini ko'rsatadi.

Ispan tili frazeologiyasi milliy ong va tarixiy xotiraning til modeli, kognitiv metafora orqali konseptual tizimni aks ettiruvchi qatlam, diskursiv strategiya va pragmatik intensivlik vositasi, zamonaviy mediadiskursda aktiv transformatsiyalanayotgan tizimni o'z ichiga oladi. Frazeologiya nafaqat “tayyor iboralar ombori”, balki mental model va madaniy kodni tashuvchi mexanizmdir deb tarif bersak bo'ladi. Ispan tili frazeologiyasi – bu milliy tafakkur, tarixiy xotira va konseptual metafora tizimining lingvistik in'ikosidir. U til tizimining passiv, yordamchi qatlami emas, balki diskursni emotsional, ekspressiv va kognitiv jihatdan boyituvchi asosiy mexanizmdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dushayeva U.Y. (2024) Ispan tilida komparativ frazeologizmlarning struktur-semantik va funksional xususiyatlari.
2. Dushayeva U.Y. (2025) Komparativ frazeologizmlarning tarixiy va zamonaviy qo'llanishi: struktur-semantik va funksional tahlil.
3. Casares, J. (1992). Introducción a la lexicografía moderna.
4. Corpas Pastor, G. (1996). Manual de fraseología española.
5. Zuluaga, A. (1980). Introducción al estudio de las expresiones fijas.

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA SO‘ZLASHUV QADRIYATLARI VA TIL MADANIYATINING TRANSFORMATSIYASI

**S.Ya. Abdullayeva**

O‘zbekiston davlat jahon  
tillari universiteti, dotsent, f.f.n.  
[abdullayevasohiba975@gmail.com](mailto:abdullayevasohiba975@gmail.com)

XXI asr globallashuv davri sifatida insoniyatning barcha sohalarida tub o‘zgarishlarni olib kelmoqda. Axborot texnologiyalari, xalqaro iqtisodiy integratsiya va madaniy almashinuv natijasida tillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchaydi. Bu jarayon ayniqsa so‘zlashuv qadriyatlariga ta’sir qilmoqda.

So‘zlashuv qadriyatlari – jamiyat tomonidan qabul qilingan nutq me’yorlari, muloqot etikasi, ijtimoiy masofa, uslubiy tanlov va kommunikativ strategiyalar majmuasidir. Masalan, o‘zbek tilida rasmiy murojaat shakli “Siz”, norasmiy shakli esa “sen”. Globallashuv sharoitida bu me’yorlar ingliz tilidagi universal “you” shakli bilan yaqinlashmoqda, ya’ni xalqaro muloqot uchun universal qabul qilinadigan shakllar paydo bo‘lmoqda.

Globallashuv sharoitida milliy tillarga yangi ilmiy, texnik va iqtisodiy terminlar kirib kelmoqda. Masalan:

- “Innovatsiya” – yangi texnologiyalar yoki g‘oyalarni tatbiq etish jarayonini ifodalaydi;
- “Digital platforma” – internet orqali xizmatlar yoki ma’lumot almashish vositalari;
- “Onlayn ta’lim” – masofaviy ta’lim tizimlarini ifodalaydi.

O‘zbek tilshunoslari Abduvali Nurmonov va Shavkat Rahmatullayev fikricha, bu terminlarni milliy tilga moslashtirish zarur. Masalan, “digital platforma”ni o‘zbek tilida “raqamli platforma” deb tarjima qilish orqali milliy til boyligi saqlanadi va tushunarli bo‘ladi.

Pragmatik jihatdan ham o‘zgarishlar mavjud. Masalan, “innovatsiya” so‘zini noto‘g‘ri kontekstda ishlatish tinglovchida tushunmovchilikni yuzaga keltiradi. Nodira Mahmudova misolida, akademik ma’ruzada bu so‘zning ma’nosini aniqlik bilan tushuntirmaslik nutqning mantiqiy izchilligini buzadi.

Qo‘shimcha misol: Toshkentdagi bir universitetda talabalar “onlayn platforma orqali test topshirish” jarayonida “platforma” atamasini o‘zbekcha sinonimi bilan ishlatish talab qilingan, bu esa til madaniyatini saqlash va tushunishni yaxshilashga yordam berdi.

So‘zlashuv qadriyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Hurmat tamoyili;
- Rasmiy va norasmiy uslub farqi;
- Ijtimoiy masofa;
- Argumentatsiya madaniyati;
- Tinglash madaniyati.

Misol qilib oladigan bo‘lsak, ilmiy konferensiyada qatnashayotgan talabalar rasmiy nutqdan foydalanishi shart. Begali Qosimovning tahliliga ko‘ra, milliy tafakkur nutq madaniyatini shakllantiruvchi muhim omildir.

Masalan Zoom orqali o‘tkazilgan xalqaro seminar davomida o‘zbek va koreys talabalari rasmiy murojaat shakllarini uyg‘un ishlatib, interkultural tushunishni yaxshilashdi.

Raqamli platformalarda nutq soddalashmoqda: qisqartmalar, emoji va inglizcha aralashmalar ko‘p ishlatiladi. Masalan: “LOL”, “BRB” kabi qisqartmalar yoshlar orasida tez tarqalmoqda.

David Crystal internet nutqining yangi funksional shakllarini ta’kidlaydi. Shunga qaramay, akademik yozuvlarda rasmiylik va mantiqiy struktura saqlanadi.

Masalan: Bir talabalar guruhi Telegram orqali akademik loyiha bo‘yicha fikr almashganda, qisqartmalarni ishlatish orqali tezkor muloqot qildi, lekin yakuniy hisobotni rasmiy tilda taqdim etdi.

Globalashuv turli millatlar o'rtasidagi muloqotni jadallashtirdi. Edward T. Hallning tahliliga ko'ra, turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish uchun madaniy farqlarni tushunish zarur.

Masalan, o'zbek va nemis tilida rasmiy murojaat shakllari turlicha. Nemis tilida "Sie" va "Du" ijtimoiy masofani belgilaydi. Shu jihat yosh olimlar va talabalar uchun interkultural kommunikatsiyada muhimdir.

Yana bir misol: Toshkentda o'tkazilgan xalqaro forumda nemis va o'zbek talabalar birgalikda loyiha taqdimotini o'tkazib, rasmiy va norasmiy nutq shakllarini uyg'unlashtirdi.

Xulosa qilib aytganda, globalashuv jarayoni so'zlashuv qadriyatlarini tubdan o'zgartirmoqda. Leksik tizim boyimoqda, nutq pragmatikasi soddalashmoqda, raqamli nutq shakllanmoqda. Biroq milliy til me'yorlarini saqlash va nutq madaniyatini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Til – nafaqat aloqa vositasi, balki milliy tafakkur, madaniyat va qadriyatlar tizimidir. Globalashuv sharoitida interkultural kompetensiya zamonaviy shaxsning asosiy ko'nikmalaridan biri hisoblanadi. Masalan: O'zbekistonning oliy ta'lim muassasalarida talabalar interkultural loyiha faoliyatida qatnashish orqali nutq madaniyati va global kommunikativ kompetensiyani mustahkamlashadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent, 2008, 42–60-betlar.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. Toshkent, 2010, 112–140-betlar.
3. Mahmudova N. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent, 2013, 25–31-betlar.
4. Qosimov B. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent, 2002, 18–22-betlar.
5. Crystal D. English as a Global Language. Cambridge, 2003, 120–128-betlar.
6. Hall E. T. Beyond Culture. New York, 1976, 85–101-betlar.

### **KECHIRIM SO'RASH VA UZR STRATEGIYALARI: PRAGMATIK QIYOS**

#### **(O'ZBEK VA RUS MATERIALLARI ASOSIDA)**

**Nasirdinova Yorkinoy Abdumuxtarovna**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

Qo'qon universiteti Andijon filiali,

Tibbiyotda tillarni o'qitish kafedrasi mudiri,

O'zbekiston, Andijon

E-mail: [nasirdinovayorkinoy@gmail.com](mailto:nasirdinovayorkinoy@gmail.com)

Kechirim so'rash – kommunikatsiyada munosabatlarni tiklashga xizmat qiladigan muhim nutqiy harakatdir. U ko'pincha "xato" (qoidabuzarlik, noqulaylik tug'dirish, hurmatga putur yetkazish) va "ta'mirlash" (munosabatni yumshatish, obro'ni saqlash, hamkorlikni davom ettirish) zanjiri doirasida yuzaga keladi. Pragmatik nuqtai nazardan uzr nafaqat aybni tan olish, balki tinglovchining "ijtimoiy qiyofasi"ni (hurmat va daxlsizlik ehtiyoji) asrash uchun tanlangan strategiyalar majmuasidir. Shu sababli uzr nutqiy aktini o'rganish kim-kimga, qaysi vaziyatda va qanday masofada aytilishini ham hisobga olishni talab qiladi.<sup>284</sup>

Lisoniy pragmatika nutq birliklarining real muloqotdagi vazifasini, ya'ni gapiruvchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatni boshqarish usullarini o'rganadi. Shu ma'noda uzr nutqiy akti ham maqsadga yo'naltirilgan: gapiruvchi aybni yumshatadi, o'z mavqeini qayta "sozlaydi",

---

284 Safarov Sh. (2008) ta'kidlaganidek, muloqotda etiket normalari va unga zid normalar tanlovi hurmat tamoyiliga bog'liq (sotsiopragmatik yondashuv).

tinglovchining noroziligini kamaytiradi. Bu jarayonda muhim narsa – shakl tanlovi: bir xil vaziyatda turli formulalar turli darajadagi rasmiylik, samimiylik yoki masofa beradi.<sup>285</sup>

Xushmuomalalik tamoyillari (hurmat, ehtiyotkorlik, tanlash imkonini berish, o‘zini pastroq tutish) uzr strategiyalarining “yashirin mexanizmi” sifatida ishlaydi. Hurmat tamoyili doirasida suhbatdoshni xafa qilmaslik, noxush mavzuni yumshatib berish yoki bilvosita shakllarni tanlash tavsiya etiladi. Shuningdek, uzr ayrim vaziyatlarda samimiy pushaymonlik, boshqa vaziyatda esa rasmiy protokol (etiket) darajasida bo‘lishi mumkin.<sup>286</sup>

Qiyosiy tahlil uchun uzr strategiyalarini shartli ravishda quyidagi makro-guruhlariga ajratish qulay: (a) bevosita uzr (uzr formulasi), (b) aybni tan olish va o‘zini ayblash, (c) sabab-izoh keltirish, (d) kompensatsiya/ta’mir (zararni qoplash, tuzatish), (e) kelajakda takrorlamaslikka va’da, (f) munosabatni tekislash vositalari (murojaat, iltimos, yumor, “ko‘ngil olish”), (g) minimal uzr yoki uzrni cheklash (mas’uliyatni kamaytirish). Ushbu elementlar ko‘pincha bir replikada birikib keladi va uzrning pragmatik kuchini belgilaydi.

Masalan, rus nutqidagi “Извините, я нечаянно, сейчас исправлю” strukturasi (a)+(c)+(d) qo‘shilgan, o‘zbek nutqida esa “Kechirasiz, bexosdan bo‘ldi, hozir to‘g‘rilayman” xuddi shu kombinatsiyani beradi. Biroq mikro vositalar farq qiladi: o‘zbekcha variantda ko‘pincha murojaat va hurmat ko‘rsatkichi (‘siz’, ‘aka/opa’, ‘domla’) uzrning “ramka”sini yaratadi; ruscha variantda esa tanlangan formula (Виноват/Простите/Pardon) va intonatsiya vaziyatni tez belgilaydi.

O‘zbek nutqida uzr formulalari ko‘pincha hurmat va kamtarlikni markazga qo‘yadi: “Kechirasiz”, “Uzr”, “Ma’zur tuting”, “Xafa bo‘lmang”, “Ayb mendan”, “Bexosdan bo‘ldi”, “Ko‘nglingizga olmagaysiz” kabi birliklar muloqotdagi masofa va statusga mos tanlanadi. Ko‘pincha uzr faqat “aybni tan olish” emas, balki salbiy javobni yumshatish (masalan, rad etish) vazifasini ham bajaradi. Safarov keltirgan epizodda suhbatdosh “Domla, kechirasiz, mening ham pulim yo‘q” deyishi aynan rad etishni iltifot bilan berish strategiyasidir.<sup>287</sup>

O‘zbekcha uzrning tez-tez uchraydigan tuzilma modeli quyidagicha: (1) murojaat/maqom ko‘rsatkichi, (2) uzr formulasi, (3) sabab-izoh, (4) kompensatsiya yoki kelishuv taklifi. Masalan: “Kechirasiz, shoshilib yubordim, hozir to‘g‘rilab beraman” yoki “Uzr, vaqtni oldim, keyinroq gaplashsak bo‘ladimi?”. Bu yerda sabab (shoshilish, bilmaslik) aybni “kontekstga joylash”ga xizmat qilsa, kompensatsiya (to‘g‘rilash, keyinroq qaytish) munosabatni tiklaydi. Ayrim vaziyatlarda uzr diniy-madaniy formulalar bilan ham mustahkamlanadi: “Alloh haqqi, bilmay qoldim”, “Xudodan ham, sizdan ham uzr” kabi birliklar aybning og‘irligini pasaytirib, kelishuvga chaqiradi.

Pragmatik kuchaytirgichlar (“juda”, “ming bor”, “chin dildan”) samimiylikni oshiradi; yumshatgichlar (“iltimos”, “marhamat”, “bilmay qolibman”) esa vaziyatni tekislaydi. Milliy-madaniy omillar (kattaga hurmat, ijtimoiy ierarxiya, “ko‘ngil” kategoriyasi) uzrning qanchalik ochiq aytilishi yoki bilvosita berilishini belgilashi mumkin.<sup>288</sup>

Rus tilida uzr ifodalash vositalari juda ko‘p va ular kontekstga ko‘ra qat’iy farqlanadi: “Виноват”, “Прости(те)”, “Извини(те)”, “Пардон!”, “Признаю себя виноватым”, “Приношу свои извинения”, “Мне очень жаль”, “Как неудобно получилось”, “Видит бог, я не хотел”, “Я нечаянно”, “Я больше не буду”, “А ничего нельзя исправить?” va boshqalar. Hatto “Ты не

---

285 Norman B. Yu. *Lingvisticheskaya pragmatika: kurs lektsiy*. Minsk: BGU, 2009. (Leksiya 1: pragmatikaning nutqiy aktlarga tatbiqi va uzrning pragmatik niyatlari).

286 Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. (Hurmat tamoyili va xushmuomalalik qoidalari: J. Leech va R. Lakoff yondashuvlari).

287 Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. Samarkanddagi epizod: “Domla, kechirasiz, mening ham pulim yo‘q” — rad javobni yumshatish strategiyasi.

288 Mirtojdiyev M., Mahmudov N. *Til va madaniyat*. Toshkent: O‘zbekiston, 1992. (Til va madaniyat aloqasi; milliy me’yorlar nutq odobini belgilashi).

спишь?” yoki “Я вас не оторвал?” kabi savollar ham uzr vazifasida kelishi mumkin. Demak, uzrning formalari ko‘pligi rus nutqida pragmatik tanlovning kengligini ko‘rsatadi.<sup>289</sup>

Rasmiy nutqda “Приношу свои извинения”, “Прошу прощения за беспокойство” kabi formulalar afzal; yaqin muloqotda esa “Извини”, “Прости” tabiiyroq. Ba’zan uzr “etiket replikasi” sifatida qisqa keladi: “Пардон!”, “Винovat!”. Bunday birliklar tayyor “kommunikema”lar qatlamiga kirib, tezkor muloqotda kontakti saqlaydi.<sup>290</sup>

### **Qiyosiy tahlil: o‘xshashlik va farqlar**

1) Umumiylik: har ikki tilda uzr strategiyasining yadrosi — aybni yumshatish va munosabatni tiklash. Bunda (uzr formulasi + izoh + kompensatsiya) modeli ko‘p uchraydi.<sup>291</sup>

2) Farq: o‘zbek nutqida status va hurmat ko‘rsatkichlari (murojaat shakllari, “siz”ga tayanish, kamtarlik) uzrning pragmatik og‘irligini belgilashda ko‘proq seziladi. Rus tilida esa formula tanlovi va ty/vy oppozitsiyasi muloqot masofasini tez o‘zgartira oladi.<sup>292,293</sup>

3) Bilvositalik darajasi: rus tilida uzr ko‘pincha bevosita formula bilan (Извини, Простите) boshlansa, o‘zbek tilida uzr ko‘pincha muomala “ramkasi”ni qurish (murojaat + iltimos + uzr) orqali kiradi. Safarov misolida “kechirasiz” rad javob oldidan kelib, aynan bilvosita yumshatish vazifasini bajaradi.<sup>294</sup>

4) Institutsional nutqda: ikki tilda ham rasmiy uzr “standartlashadi”, lekin standartning tipi turlicha. Rus tilida klişelar ko‘p; o‘zbek tilida esa hurmatli murojaat uzrning ajralmas qismi bo‘lib qoladi.<sup>295</sup>

O‘zbek va rus tillarida kechirim so‘rash umumiy illokutiv maqsadga ega bo‘lsa-da, strategik vositalar tanlovi turlicha “madaniy sozlangan”. O‘zbek nutqida hurmat va kamtarlik markaziy bo‘lib, uzr ko‘pincha ijtimoiy ierarxiyani hisobga olgan holda bilvosita yumshatish bilan birga keladi. Rus nutqida esa uzr formulalarining boy paradigmasi, rasmiylik darajasi va ty/vy tanlovi kontekstni tez “kalibrlash” imkonini beradi. Bunday qiyosiy tadqiqotlar uchun kontrastiv yondashuvning metodik tayanchi muhim.<sup>296</sup>

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azizov O., Safaev A., Jamolxonov H. O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. 1 (Fonetika, leksika, morfologiya va sintaksis). Toshkent: O‘qituvchi, 1986.
2. Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
3. Norman B. Yu. Lingvisticheskaya pragmatika (na materiale russkogo i drugix slavyanskix yazykov): Kurs lektsiy. Minsk: BGU, 2009.
4. Ostin J. L. Slovo kak deystvie // Novoe v zarubezhnoy lingvistike. Vyp. 17: Teoriya rechevyx aktov. Moskva, 1986. S. 22–129.

---

289 Norman B. Yu. Lingvisticheskaya pragmatika. Leksiya 1: rus tilida uzrning ko‘plab shakllari va ularning kontekstga bog‘liqligi (uzr formulalari ro‘yxati).

290 Norman B. Yu. Lingvisticheskaya pragmatika. Leksiya 10: etiket replikalari va tayyor “kommunikema”lar (jumladan Pardon!, Vinnovat!).

291 Norman B. Yu. Lingvisticheskaya pragmatika. Leksiya 1: rus tilida uzrning ko‘plab shakllari va ularning kontekstga bog‘liqligi (uzr formulalari ro‘yxati).

292 Norman B. Yu. Lingvisticheskaya pragmatika: kurs lektsiy. Minsk: BGU, 2009. (Leksiya 1: pragmatikaning nutqiy aktlarga tatbiqi va uzrning pragmatik niyatlari).

293 Norman B. Yu. Lingvisticheskaya pragmatika. Ty/Vy oppozitsiyasi va masofa: “ty”dan “vy”ga o‘tish ziddiyatni kuchaytirishi mumkin.

294 Safarov Sh. Pragmalingvistika. Samarkanddagi epizod: “Domla, kechirasiz, mening ham pulim yo‘q” — rad javobni yumshatish strategiyasi.

295 Safarov Sh. Pragmalingvistika. (Hurmat tamoyili va xushmuomalalik qoidalari: J. Leech va R. Lakoff yondashuvlari).

296 Azizov O., Safaev A., Jamolxonov H. O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1986. (Qiyosiy yondashuvning metodik asosi).

5. Serl' J. R. Chto takoe rechevoy akt? // Novoe v zarubezhnoy lingvistike. Vyp. 17: Teoriya rechevyx aktov. Moskva, 1986. S. 151–169.
6. Grays G. P. Logika i rechevoe obshchenie // Novoe v zarubezhnoy lingvistike. Vyp. 16: Lingvisticheskaya pragmatika. Moskva, 1985. S. 217–237.
7. Rathmayr R. Pragmatika izvineniya. Sravnitel'noe issledovanie na materiale russkogo yazyka i russkoy kul'tury. Moskva, 2003.

**MILLIY VA GLOBAL QADRIYATLAR KESISHMASIDA HUMAN\INSON  
KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI (INGLIZ VA O'ZBEK  
TILLARI MATERIALLARI ASOSIDA)**

**f.f.f.d. (PhD) Azizova Nafruzza Esanboyevna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrası katta o'qituvchisi

Globalashuv bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, til va madaniyat tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqlar o'rtasidagi aloqalarning kengayishi, axborot almashuvi tezlashuvi va madaniyatlararo muloqotning faollashuvi inson haqidagi tasavvurlarni yangi mazmun bilan boyitmoqda. Shu bois "inson" tushunchasi har bir lingvomadaniyatda markaziy konseptlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Har bir xalq o'z tarixiy tajribasi, turmush tarzi va qadriyatlari asosida inson obrazini shakllantiradi. Ayrim madaniyatlarda inson jamiyatning ajralmas qismi sifatida talqin qilinsa, boshqalarida shaxsiy erkinlik va individuallik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Demak, HUMAN/INSON konsepti milliy mentalitet va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi hamda til vositalari orqali ifodalanadi. Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan, konsept oddiy leksik ma'nodan kengroq bo'lib, inson ongida shakllangan murakkab semantik va madaniy tuzilmani anglatadi. "Inson" so'zi biologik mavjudotni emas, balki axloqiy fazilatlar, ijtimoiy rol va madaniy baholarni ham o'z ichiga oladi. Lingvomadaniyat esa til birliklari — frazeologizmlar, maqollar, metaforalar orqali ushbu tasavvurlarni ochib beradi. Shu asosda mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida HUMAN/INSON konseptining milliy va global qadriyatlar kesishmasidagi talqinini qiyosiy o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijasida har ikki lingvomadaniyatda inson obrazi shakllanishining umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlanadi.

Tadqiqotda konseptual tahlil metodi asosiy metod sifatida qo'llanilib, HUMAN/INSON konseptining ichki tuzilmasi, ya'ni uning mazmuniy yadrosi va periferik qatlamlari aniqlashtirildi. Yadro qismiga universal va barqaror semantik belgilar kiritildi, periferik qatlam esa milliy-madaniy, tarixiy hamda ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan qo'shimcha ma'no komponentlarini qamrab oldi. Shu asosda ingliz va o'zbek tillarida "inson" tushunchasining asosiy semantik belgilari tizimlashtirilib, ularning qiymat mezonlari belgilandi. Bundan tashqari, lingvomadaniy tahlil orqali frazeologizmlar, maqol va matallar hamda metaforik ifodalarda aks etgan madaniy kodlar o'rganildi. Ushbu metod milliy mentalitet va qadriyatlarining til orqali qanday ifodalanishini aniqlash imkonini berdi. Ayniqsa, frazeologik va paremiologik birliklar konseptning milliy-spesifik xususiyatlarini ochishda muhim manba bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, qiyosiy-tipologik metod yordamida ingliz va o'zbek tillarida HUMAN/INSON konseptining izomorf va allomorf jihatlari aniqlanib, uning universallik va milliy o'ziga xoslik darajasi belgilandi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikki lingvomadaniyatda INSON konseptining yadrosi universal semantik komponentlardan — qadr-qimmat, axloqiylik, insoniylik va ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalardan iborat. Bu belgilar insonni biologik mavjudotdan ko'ra ma'naviy-axloqiy subyekt sifatida talqin qilishga asos bo'ladi va izomorf xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, halollik, adolat va inson qadrini ulug'lash har ikki madaniyatda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, konseptning milliy talqinida farqlar ham kuzatiladi. O'zbek lingvomadaniyatida INSON ko'proq jamoaviylik, kattalarga hurmat, oila va jamiyat oldidagi burch bilan bog'liq holda

talqin qilinsa, ingliz lingvomadaniyatida individuallik, shaxsiy erkinlik va mustaqillik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu jihatlar konseptning allomorf xususiyatlarini tashkil etadi. Bundan tashqari, globallashuv ta'sirida "inson huquqlari", "tenglik", "erkinlik" kabi tushunchalar har ikki til diskursida faol qo'llanilib, konseptning semantik maydonini kengaytirmoqda. Natijada HUMAN/INSON konsepti milliy va global komponentlarni uyg'unlashtirgan ko'p qatlamli tuzilma sifatida namoyon bo'ladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, HUMAN/INSON konsepti statik emas, balki dinamik xarakterga ega bo'lib, milliy va global qadriyatlar o'zaro ta'siri asosida shakllanadi. Tarixiy davr, ijtimoiy muhit va madaniy jarayonlar uning mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Globallashuv inson huquqlari, erkinlik, tenglik kabi tushunchalarni universallashtirib, konseptning semantik maydonini kengaytirmoqda. Milliy mentalitet, an'ana va axloqiy me'yorlar konseptning kognitiv va semantik tuzilmasida o'ziga xoslikni saqlab qoladi. Natijada HUMAN/INSON konsepti universal va milliy komponentlarni uyg'unlashtirgan ko'p qatlamli kognitiv tuzilma sifatida namoyon bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida olib borilgan qiyosiy tahlil HUMAN/INSON konseptining izomorf (universal) va allomorf (milliy-madaniy) jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Konsept yadrosida inson qadr-qimmati, axloqiylik va ijtimoiylik kabi umumiy semantik komponentlar har ikki lingvomadaniyatda barqaror namoyon bo'lib, uning universalligini tasdiqlaydi. Periferik qatlamda milliy mentalitet va madaniy tajriba bilan bog'liq o'ziga xos belgilar kuzatildi, bu esa konseptning allomorf xususiyatlarini ochib beradi. Tadqiqot natijalari lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika va madaniyatlararo kommunikatsiya uchun nazariy hamda metodologik ahamiyatga ega bo'lib, konseptual tahlil va tarjima amaliyotini boyitadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Wierzbicka, A. Understanding cultures through their key words / A. Wierzbicka. – Oxford : Oxford University Press, 1997.
2. Hofstede, G. Culture's consequences / G. Hofstede. – London : Sage Publications, 2001.
3. Lakoff, G. Metaphors we live by / G. Lakoff, M. Johnson. – Chicago : University of Chicago Press, 1980.
4. Маслова, В. А. Лингвокультурология / В. А. Маслова. – Москва : Академия, 2001.
5. Кубрякова, Е. С. Когнитивная лингвистика / Е. С. Кубрякова. – Москва : 2004.
6. Телия, В. Н. Русская фразеология / В. Н. Телия. – Москва : 1996.
7. Карасик, В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / В. И. Карасик. – Волгоград : 2002.
8. United Nations. Universal declaration of human rights. – New York : United Nations, 1948.
9. Hall, E. T. Beyond culture / E. T. Hall. – New York : Anchor Books, 1976.
10. Huntington, S. The clash of civilizations and the remaking of world order / S. Huntington. – New York : Simon & Schuster, 1996.

## **MUMTOZ ASARLARDA TILGA MUNOSABAT VA SO'ZLASH MADANIYATI TASVIRLARI**

**Sayipova Dilafruz Rahimovna**

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi,  
Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri,  
v.b. dotsent, PhD.

[dilyasoyipova@gmail.com](mailto:dilyasoyipova@gmail.com)

Biz taraqqiyot asrida, fan-texnika yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir davrda yashayapmiz. Kompyuter, gadjetlar, mashinalar, samolyotlar ham oddiy texnikaga aylanib qoldi. Hamma narsa tezlashgan, hatto vaqt ham shiddat bilan o'tayotgan bir davrda ham o'zgarmaydigan yo'qotib bo'lmaydigan va har doim qadrli, qimmatbaho bo'lgan tushunchalar

borki, bu xalqimizning o‘ziga xos qadriyatlaridir. Shuningdek, qadriyatlarimiz faqatgina milliy urf-odatlarini saqlab qolish yoki madaniy va me‘moriy yodgorliklarimizni asrab-avaylashdangina iborat emas.

Qadriyatlarimizning asosi, albatta, birinchi galda milliy tilimizdir. Avloniy ta’biri bilan aytganda: “Milliy tilni yo‘qotmak – millatning ruhini yo‘qotmakdur...”

Ajdodlarimiz qadimdan til masalasi, xususan, nutq madaniyati masalasiga alohida e’tibor qaratib kelishgan. Xususan, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub”, “Xamsa” dostonlari va boshqa asarlarida til va nutq madaniyati masalalariga alohida o‘rin ajratilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ahmad Yugnakiy tilga odoblar boshi deb baho beradi, kishining kimligi tilidan bilinishi, nojo‘ya va yolg‘on so‘zlarni so‘zlash, o‘ylamay gapirish, tili achchiqlik yomon oqibatlariga olib borishi haqida nasihat qiladi; oqil va dono kishilar so‘zini tinglashni maslahat beradi:

*Oqil nimalarni so‘zlar, quloq sol,  
Odob boshi tildan, shuni bilib ol.  
Tilingni nojo‘ya so‘zdan mahkam tut,  
Tishlaring sinmasin, so‘kishni unut.*

Shuningdek, sir saqlashni bilish, sirini saqlolmagan kishi el ichida kulgi bo‘lishi, qattiq pushaymon qilishi haqida muallif shunday uqtiradi:

*Siringni mahkam tut, biron bilmasin,  
So‘zingdan o‘zingga o‘kinch kelmasin.*

Adib o‘z fikrlarini davom ettirib kishi boshiga kelgan baloga tili sababchi bo‘lishini, shuning uchun tilni tiyish kerakligini ta’kidlaydi:

*Ahmoq kishi tili o‘ziga dushman,  
Til tufayli suv kabi to‘kildi qon.  
Ko‘p so‘zlab qanchalar ko‘pdur o‘kingan,  
Til tiyib o‘ksuk qani, yo so‘kingan?*

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi o‘ninchi maqolat to‘laligicha til masalalariga bag‘ishlanadi, to‘g‘ri va yoqimli so‘zlashni yoqlaydi; yolg‘onchilikning ofati, yolg‘on so‘z inson qadr-qimmatini tushirishi, hatto zarurat bo‘lgan chog‘da ham yolg‘on gapirishdan ko‘ra jim turish afzal ekanligini aytadi.

*Kimki chini el aro yolg‘on durur,  
Yolg‘oni chinlikka ne imkon durur.  
Necha zarurat aro qolg‘on chog‘i  
Chin demas ersang, dema yolg‘on dogi.*

Navoiy til masalalari borasidagi fikrlarini “Sher va Durroj” hikoyati bilan dalillaydi. Hikoyat yakunida shunday xulosa qiladi:

*So‘zda, Navoiy, ne desang, chin degil,  
Rost navo nag‘maga tahsin degil.*

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ham ilm o‘rganish, san’at, adabiyot haqidagi salmoqli fikrlar bilan bir qatorda muallif til nasalasiga ham befarq qarab turolmaydi. Ayrim so‘zlarning kelib chiqishi, talaffuzi va ma’nolari haqidagi qimmatli ma’lumotlar asarda tez-tez uchraydi.

Andijon haqida yozar ekan, elining “lafzi qalam bila rost” ekanligini aytadi. Ya’ni Andijon aholisi adabiy tilda gaplashishlariga e’tibor qaratadi, Alisher Navoiy shu tilda ijod qilganiga diqqat qaratadi: “... shahri va bozorida turki bilmas kishi yo‘qtur.... Ani uchunkim, ”Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim, Hirida nash‘u namo topibdur, bu til biladur...”

Bobur atrim joy nomalarining kelib chiqishi haqida ham qiziqarli ma’lumotlar keltiradi. “Qarshi” joy nomi ekanligi, va ma’nosi “mozor” ekanligi, mo‘g‘ullar bosqinidan keyingi vayronaliklar joy nomining shunday atalishiga sabab bo‘lganini ta’kidlaydi.

Ba’zan muallif joy nomi bilan bog‘liq rivoyatlar keltirishiga guvoh bo‘lamiz: “...derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo‘luqib, bir-birini topolmay “Ho darvesh”, “Ho

*darvesh” deya-deya tamom halok bo’lurlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar...”*

Kobulda o’ndan ziyod til vakillari borligi to’g’risidagi ajoyib ma’lumotlarni ham ushbu asardan bilib olamiz. “Boburnoma”da Kobul tabiati, hayvonot va nabotot dunyosi, o’ziga xos ob-havosi haqidagi lavhalardan so’ng aholi tili haqida shunday tasvirlar uchraydi: “... o’n bir-o’n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy, mo’g’uliy, hindiy, afg’oniy, pashoyi, parojiy, gabriy, barakiy, lamg’oniy. Muncha muxtalif aqvom va mutag’oyir alfoz ma’lum emaskim, hech viloyatta bo’lg’ay...”

Ba’zan so’zlarning asl talaffuzidan uzoqlashishi to’g’risidagi dalillar ham keltiriladi: “...ba’zi tarixta Mehtar Lomni Lamak (Lamkon) ham debturlar. Ul elni xeyli mulohaza qililibturkim, ba’zi mahal “kof” o’runiga “g’ayn” talaffuz qilurlar, bu jihattin g’olibo bu viloyatni Lamg’on debturlar...” yoki yana shunday misollarni ko’ramiz: “... yana bir jayranning erkagi huna yo’sinliq kiyikdur. Orqasi qora, tuki oq, hunaning shoxidan muning shoxi uzunroqtur va parishonroqtur. Hindustoniy “kalahra” der, aslida kalahiran ekandur, ya’ni qaro kiyik, taxfif qiib, “kalahra” debturlar...”

Ushbu ma’lumot ham juda qiziq: “...Nabototkim, Hindiston maxsusidur, bir anbadur. Aksar Hindiston eli “be”ni beharakat talaffuz qilurlar, yomon mutalaffiz bo’lur uchun ba’zan “nag’zak” debturlar...”

Bobur faqatgina so’zlar ma’nosiga to’xtalmasdan, ayrim voqealarni bayon etish barobarida xalqona iboralarni izohlaganiga ham guvoh bo’lamiz. “... Muhammad Do’st o’zbakka kirib edi. Filjumla, yomon emas edi. Andin ham ko’rnamakliklar qilib qochib, Andijonning ko’hpoyalarig’a borib, yog’iyliqlar va fitnalar angiz qildi. Oxiri o’zbak iligiga tushdi. Ko’zlarini ko’r qildilar. “Ko’zlarini tuz tutti”ning bu ma’nisi bor emish...”

Xulosa qilib aytganimizda, ajdodlarimizdan meros qolib kelayotgan milliy tilimizni asrab-avaylaash bilan birga so’zlash madaniyati, to’g’ri va yoqimli garirishga har doin e’tiborli bo’lishimiz lozim. Zero, davrlar o’zgaradi, fan-texnika rivojlanadi, bugungi kundagi yuqori darajadagi texnologiyalar ham vaqti kelib oddiy texnikaga aylanib qoladi, lekin qadriyatlarimizning o’zagi hisoblangan til masalasi hech qachon eskirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адабиётшунослик энциклопедияси (Тузувчи Ҳ.Болтабоев). – Тошкент: Мумтоз сўз. 2015. – 664 б.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1983. – 656 б.
3. Бобур. З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – 360 б.
4. Bobur. Z.M. Boburnoma (V. Rahmonov, K. Mullaxo`jayeva tabdili) . – Toshkent: O`qituvchi, 2017. – 366 b.
5. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo`ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish (darslik) -Toshkent: Cho`lpon, 2007.
6. www.ziyouz.com kutubxonasi.

## **THE SOCIOPRAGMATIC INTERPRETATION OF THE TIME CONCEPT IN ENGLISH AND UZBEK COMMUNICATION IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION**

**Sapaeva Sokhiba Otakhonovna,**  
Associate Professor, PhD,  
Foreign Languages Department,  
Tashkent International University,  
E-mail: sokhiba.sapaeva@tiumail.uz

Globalization has greatly expanded intercultural communication in political, economic, academic, and digital spheres. As interaction increasingly crosses national boundaries, linguistic

and cultural differences become more evident and influence communication patterns. Among the key factors shaping communicative behavior, the concept of time plays an important role. Although time is often considered a universal and objective phenomenon, sociopragmatic research shows that perceptions of time are strongly shaped by cultural norms and social expectations. Temporal orientation influences conversational structure, politeness strategies, turn-taking, punctuality, and attitudes toward efficiency. From a sociopragmatic perspective, time should be viewed not only as a chronological dimension but also as a discourse-organizing value embedded in cultural consciousness. Different cultures conceptualize and use time in ways that affect both language use and social interaction.

The purpose of this study is to examine how time functions as a sociopragmatic regulator in English and Uzbek communication and to explore its implications for intercultural interaction in the context of globalization.

### **Theoretical Foundations of Sociopragmatic Time.**

Sociopragmatics examines how social norms and cultural values influence language use. Unlike general pragmatics, which focuses on contextual meaning, sociopragmatics emphasizes culturally determined communicative conventions. A key contribution to understanding cultural perceptions of time was made by Edward T. Hall, who distinguished between **monochronic** and **polychronic** time orientations.

Monochronic cultures perceive time as linear, measurable, and strictly organized. Tasks are completed sequentially, punctuality is valued, and efficiency is emphasized. In contrast, polychronic cultures view time as flexible and event-centered, where social relationships may take priority over strict schedules.

English-speaking societies generally demonstrate monochronic tendencies, reflected in expressions such as *“time is money,” “save time,”* and *“meet the deadline.”* These metaphors treat time as a valuable resource. Uzbek communicative culture, however, reflects a more relational and context-sensitive perception of time. Expressions like *“vaqti kelganda”* or *“shoshilmaylik”* suggest that time is situational and closely connected with social harmony. This indicates that time functions as a culturally embedded communicative value.

### **Comparative Sociopragmatic Analysis**

Temporal perception influences politeness strategies and social interaction. In English communication, punctuality is associated with professionalism and respect, and conversations often begin directly with the main topic. In Uzbek culture, however, relational exchanges such as greetings and inquiries about family commonly precede the main discussion, reflecting a stronger emphasis on interpersonal harmony.

Temporal practices also reflect social hierarchy. In English institutional settings, meetings usually follow fixed schedules regardless of participants' status. In Uzbek communication, waiting for senior participants or adjusting timing for authority figures may symbolize respect and social recognition.

Globalization increasingly requires Uzbek professionals and students to operate within international systems that emphasize strict scheduling and deadlines. This creates a sociopragmatic negotiation in which Uzbek communicators adapt to linear time expectations while maintaining cultural communicative norms.

### **Author's Scientific Position**

The analysis suggests that time functions as a **discourse-regulating mechanism** reflecting deeper cultural values. It influences speech act timing, conversational pacing, turn-taking, and institutional communication standards. Although globalization promotes a dominant linear perception of time, effective intercultural communication requires adaptation rather than cultural replacement. Therefore, **temporal competence** should be considered an essential component of intercultural communicative competence.

### **Implications for Intercultural Communication and Education**

Understanding sociopragmatic differences in temporal perception is particularly important in translation studies, international diplomacy, business communication, and academic mobility

programs. Temporal expressions often contain cultural meanings that cannot always be translated literally. Language education should therefore integrate comparative discourse analysis of temporal expressions, scheduling norms, and time-related metaphors.

#### **Practical Recommendations**

1. To enhance intercultural communication, the following steps are recommended:
2. Introduce sociopragmatic modules on temporal discourse in language education.
3. Provide intercultural training on punctuality norms and communication pacing.
4. Encourage comparative research on temporal metaphors in English and Uzbek.
5. Integrate discourse analysis of temporal expressions into translation training.
6. Promote institutional programs that raise intercultural awareness in academic cooperation.

The study demonstrates that time in English and Uzbek communication functions as a **sociopragmatic category rather than a purely chronological concept**. English discourse tends to emphasize linear efficiency, while Uzbek communication reflects relational flexibility and contextual adaptation. Recognizing time as a culturally embedded communicative value is essential for effective intercultural interaction. Developing temporal competence within intercultural education can therefore contribute to more balanced and productive global communication.

#### **References**

1. Hall, E. T. (1983). *The Dance of Life: The Other Dimension of Time*. Anchor Press.
2. Holmes, J., & Wilson, N. (2022). *An Introduction to Sociolinguistics* (6th ed.). Routledge.
3. Leech, G. (2014). *The Pragmatics of Politeness*. Oxford University Press.
4. Spencer-Oatey, H. (2018). *Culturally Speaking: Culture, Communication and Politeness Theory*. Routledge.
5. Wierzbicka, A. (2003). *Cross-Cultural Pragmatics*. Mouton de Gruyter.

### **DIALOGUE VALUES IN THE GLOBALIZATION ERA: A SOCIOLINGUISTIC PERSPECTIVE**

**Mohira Boymirzayeva PhD, docent**  
Foreign languages department  
Tashkent International University  
[mohira6655@gmail.com](mailto:mohira6655@gmail.com)

Globalization has profoundly reshaped social interaction by intensifying mobility, contact between cultures, and the circulation of languages across borders. As a result, dialogue increasingly occurs in multilingual and multicultural settings, where communicative norms are negotiated rather than taken for granted. From a sociolinguistic standpoint, dialogue is not merely the exchange of information but a socially embedded practice regulated by values such as respect, tolerance, and politeness. These values are culturally variable and historically contingent, and their transformation under globalization merits systematic analysis [Appadurai, 1996, pp. 27–30].

The aim of this article is to explore how dialogue values are reconfigured in the globalization era and to identify the sociolinguistic challenges emerging from intercultural and digital communication.

#### **Dialogue Values as a Sociolinguistic Phenomenon**

Dialogue values function as normative principles guiding interaction. Politeness strategies, forms of address, turn-taking conventions, and conflict-management practices differ across cultures and communities. Brown and Levinson's politeness theory demonstrates that communicative behavior is shaped by face concerns and culturally specific norms [Brown & Levinson, 1987, pp. 60–62]. In intercultural encounters, divergent expectations regarding directness, formality, and emotional expressiveness may lead to pragmatic misunderstandings.

Moreover, language use indexes social identities and power relations. Speakers position themselves and others through linguistic choices, thereby reproducing or challenging social hierarchies [Bucholtz & Hall, 2005, pp. 588–590]. Respectful dialogue contributes to social

cohesion, while violations of dialogue values can result in communicative breakdown and social tension.

### **Globalization, Digital Communication, and Dialogue Values**

Digital platforms have become key sites of global dialogue. Online interaction lowers barriers to participation but also weakens conventional norms of accountability. The relative anonymity of digital spaces often correlates with the erosion of politeness norms and the spread of aggressive or discriminatory discourse [Herring, 2004, pp. 345–348]. At the same time, online communities enable new forms of solidarity and intercultural engagement, fostering emergent global norms of inclusivity.

From a sociolinguistic perspective, digital discourse constitutes a hybrid space where local communicative traditions interact with globalized norms. The global dominance of English further structures interactional dynamics, producing asymmetries between native and non-native speakers and shaping whose dialogue values become normalized.

### **Multilingualism, Power Relations, and Intercultural Dialogue**

Globalization intensifies multilingual contact and highlights the politics of language choice. The privileging of global languages in education, media, and professional communication often marginalizes minority languages and their associated dialogue values. Bourdieu's notion of linguistic capital helps explain how certain languages and communicative styles gain symbolic power in global contexts [Bourdieu, 1991, pp. 37–39].

Effective intercultural dialogue presupposes not only linguistic proficiency but also intercultural communicative competence, including sensitivity to pragmatic norms and power relations. Respect for diverse dialogue values enables speakers to negotiate meaning without erasing cultural specificity, thereby contributing to sustainable intercultural communication.

### **Challenges and Prospects**

Key challenges include communicative inequality, stereotyping, pragmatic failure, and the erosion of local communicative norms. Addressing these issues requires language policies that protect linguistic diversity and educational practices that cultivate ethical communication. Integrating dialogue values into language curricula and teacher training can enhance learners' readiness for global interaction. Furthermore, digital literacy initiatives should foreground respectful online communication as a core competence.

Dialogue values in the globalization era constitute a dynamic sociolinguistic phenomenon shaped by intercultural contact, digital mediation, and linguistic power relations. While globalization broadens opportunities for dialogue, it also introduces new risks of inequality and miscommunication. Promoting respect, tolerance, and empathy as core dialogue values remains essential for social cohesion in multilingual and multicultural societies. Consequently, dialogue values should occupy a central place in contemporary sociolinguistic research and language education.

### **REFERENCES**

1. Appadurai, A. (1996). *Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization*. Minneapolis: University of Minnesota Press. 229 p.
2. Bourdieu, P. (1991). *Language and Symbolic Power*. Cambridge: Polity Press. 302 p.
3. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press. 345 p.
4. Bucholtz, M., & Hall, K. (2005). Identity and interaction: A sociocultural linguistic approach. *Discourse Studies*, 7(4–5), 585–614.
5. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Clevedon: Multilingual Matters. 124 p.
6. Crystal, D. (2003). *English as a Global Language* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. 229 p.

7. Herring, S. C. (2004). Computer-mediated discourse analysis: An approach to researching online behavior. In S. A. Barab, R. Kling, & J. H. Gray (Eds.), *Designing for Virtual Communities in the Service of Learning* (pp. 338–376). Cambridge: Cambridge University Press.

## COMPOUND NOUNS IN SOCIAL MEDIA DISCOURSE: A REFLECTION OF DIALOGUE VALUES IN THE GLOBALIZATION ERA

**Yuldasheva Nargiza Ergashbaevna**

Doctor of Philosophy in Philological Sciences,  
Associate Professor, Department of English  
Language Teaching Methodology and  
Educational Technologies,  
Uzbekistan State World Languages University


The rapid development of digital technologies and social media platforms has significantly transformed patterns of communication in the globalization era. Social media discourse is characterized by speed, brevity, interactivity, and the constant emergence of new concepts. In this context, compound nouns have become one of the most productive means of naming new digital realities. Terms such as *newsfeed*, *clickbait*, *hashtag activism*, *online community*, and *fact-checking* reflect not only technological innovations but also changing dialogue values, including openness, participation, and instant interaction. This article aims to analyze compound nouns in social media discourse and to reveal their role in reflecting dialogue values in a globalized communicative environment.

In English lexicology, compound nouns are defined as lexical units formed by combining two or more stems into a single word or a stable lexical unit (Bauer, 1983; Plag, 2003). Compound nouns demonstrate high productivity in periods of social and technological change, as language users need new naming devices for emerging phenomena. Previous studies have shown that media discourse is a particularly fertile ground for lexical innovation (Huddleston & Pullum, 2002). The globalization process intensifies lexical borrowing, hybridization, and the creation of new compound forms reflecting global communicative practices.

Social media platforms generate a wide range of compound nouns that quickly become part of everyday language. These include:

- **N + N compounds:** *newsfeed*, *clickbait*, *hashtag activism*, *screen time*
- **Adj + N compounds:** *digital footprint*, *online community*, *virtual space*
- **V-ing + N compounds:** *livestream shopping*, *fact-checking culture*

Distribution of Compound Noun Types in Social Media Discourse (Sample)



Such compounds function as concise labels for complex digital practices. For instance, *clickbait* encapsulates manipulative headline strategies, while *hashtag activism* reflects new forms of civic engagement. The frequent use of these compounds in social media discourse demonstrates the need for efficient lexical tools in fast-paced digital communication.

Dialogue values in the globalization era are associated with openness, participation, inclusivity, and intercultural interaction. Compound nouns reflect these values by naming new communicative practices such as *online communities*, *cross-border networking*, and *user-generated content*. At the same time, some compounds reveal problematic aspects of digital dialogue, such as *hate speech*, *echo chambers*, and *information overload*. Thus, compound nouns not only describe technological realities but also encode social attitudes and communicative norms prevalent in global digital discourse.

The analysis shows that compound nouns in social media discourse perform both nominative and evaluative functions. They serve as linguistic markers of globalization by reflecting global trends in communication, media practices, and social interaction. The productivity of compound nouns indicates the adaptability of English word-formation mechanisms to new communicative environments. Moreover, the widespread use of such compounds contributes to the formation of a shared global digital vocabulary, facilitating intercultural dialogue while also raising questions about linguistic homogenization.

Compound nouns in social media discourse represent a dynamic and productive lexical category reflecting the dialogue values of the globalization era. They function as concise naming units for new digital phenomena and as indicators of changing communicative norms. The study confirms that compound nouns play a significant role in shaping and reflecting contemporary digital communication practices and contribute to the ongoing lexical innovation driven by globalization and technological change.

#### REFERENCES

1. Bauer, L. (1983). *English Word-Formation*. Cambridge: Cambridge University Press. 313 p.
2. Plag, I. (2003). *Word-Formation in English*. Cambridge: Cambridge University Press. 239 p.
3. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). *The Cambridge Grammar of the English Language*. Cambridge: Cambridge University Press. 1860 p.
4. Crystal, D. (2011). *Internet Linguistics: A Student Guide*. London: Routledge. 192 p.
5. Tagg, C. (2015). *Exploring Digital Communication: Language in Action*. London: Routledge. 224 p.

### NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA O'LKASHUNISLIK

### MATERILLARIDAN FOYDALANISH VA BAHOLASH USULLARI

**Saitxanova Dinara Ruslanovna**

Toshkent amaliy fanlar universiteti

dotsenti, Phd

e-mail: [dinarasaitkhanova@gmail.com](mailto:dinarasaitkhanova@gmail.com)

Bugungi globallashuv davrida chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi — o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishdir. Til bilimi o'zi yetarli emas; o'quvchi o'sha tilda fikr bildira olish, muloqot yurita olish va turli madaniyat vakillari bilan aloqa o'rnatish malakasiga ega bo'lishi kerak. Shu jarayonda o'lkashunoslik materiallari — ya'ni til o'rganilayotgan mamlakatning tarixi, madaniyati, geografiyasi, an'analari, urf-odatlariga oid ma'lumotlar — nutqiy rivojlanishning muhim vositasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016-yil Prezidentlik lavozimi vazifasida ish boshlagan ilk kunlaridayoq xorijiy tilni mukammal bilgan tadbirkor yoshlarni tayyorlashga qaratilgan bir qator qonun hujjatlarini<sup>297</sup> imzoladi.

Mamlakatimizda bir qator qonun hujjatlari doirasida xorijiy tillarni o‘qitishning sifatini oshirishda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi natijalarga erishgan maktablarni aniqlash va davlat organlariga ishga qabul qilishda xorijiy tillarni bilish talablari<sup>298</sup>. kiritilganligi muhim ahamiyatga molikdir.

“O‘zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish”<sup>299</sup> ustuvor vazifa etib belgilandi.

Inson ona tilidan tashqari boshqa tillarni o‘rganishga umri davomida ehtiyoj sezadi. Fikrlash, ijodiy fikrlash uchun har bir kishiga ona tili zarur bo‘ladi, shu ma’noda til nazariyasining asoschisi bo‘lgan V.Gumbolt XIX asrdayoq “Til – millat ruhi” deb aytgan edi<sup>300</sup>. F.I.Buslaev shunday yozadi: “birinchi va eng muhimi, nutq shakllari bilan ifodalanadigan narsalarni tushunish va ularni to‘g‘ri yo‘l bilan ishlatishdan iborat amaliy qobiliyatni rivojlantirishdir, ya’ni o‘qimishli odamlar aytganidek, og‘zaki va yozma mashqlar orqali talabada suhbat va yozuvga xos nutq shakllarini osonlik bilan tushunish ko‘nikmasini hosil qilamiz”<sup>301</sup>.

Zamonaviy globallashuv sharoitida xorijiy tillarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, ingliz tilini o‘qitishda autentik materiallardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Autentik materiallar – bu til o‘rganuvchilar uchun maxsus moslashtirilmagan, real hayotdan olingan materiallar bo‘lib, ular gazeta va jurnallar, kitoblar, filmlar, qo‘shiq, internet resurslari va boshqa manbalarda uchraydi<sup>302</sup> Keying yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, autentik materiallardan foydalanish o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, real muloqot muhitini yaratadi va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi<sup>303</sup>

#### 1. O‘lkashunoslik materiallarining ta’limdagi ahamiyati

O‘lkashunoslik materiallari o‘quvchilarga tildan tashqari bilimlar beradi, ularning tilga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, madaniy tafakkurni kengaytiradi. Bu materiallar quyidagi yo‘nalishlarda foydali hisoblanadi:

- Madaniy kontekstni o‘rganish orqali so‘z va iboralarni to‘g‘ri ishlatish imkonini beradi.
- Nutqiy vaziyatlarda tabiiy muloqotni shakllantirishga yordam beradi.
- Til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi.

Masalan, “British Holidays”, “Uzbek National Traditions”, “Famous People of Our Country” kabi mavzulardagi matnlar, video lavhalar va interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarni faol fikrlashga undaydi.

#### 2. Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda o‘lkashunoslik materiallaridan foydalanish shakllari

<sup>297</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel / (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).

<sup>298</sup> Mirzakarimova M.M. Ingliz tili darslarida o‘quvchilar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning mohiyati va mazmuni. // Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. – Nukus: 2022, № 4 (58), 93 - 96 b.

<sup>299</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. Elektron resurs: <https://president.uz/oz/lists/view/4327> (Murojat qilingan sana: 22.05.2024)

<sup>300</sup> Гумбольдт В. фон. *Избранные труды по языкознанию*. - М., 1984. - С. 301-302

<sup>301</sup> Буслеев Ф.И. О преподавании отечественного языка. 2-е изд. М., 1867. (переизд.: Л., 1941).

<sup>302</sup> Ismatova M. (2025). Ingliz tilini o‘rganishda autentik materiallardan foydalanish metodikasini takomillashtirish modeli. Maktabgacha Va Maktab Ta’limi Jurnal, 3(1), 6–8.

<sup>303</sup> Solijonova M. (2024). Autentik materiallarning ingliz tilini o‘qitishdagi samaradorligi. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(9), 146–150.

## 2.1. Tinglab tushunish (listening)

O'lkashunoslik audio va video materiallari — intervyular, podkastlar, madaniy tadbirlar haqida reportajlar — o'quvchilarda tabiiy talaffuzni eshitish, aksentlarni farqlash, kontekstni anglash ko'nikmalarini shakllantiradi. Masalan: “*A Day in London*” videosini tinglab, o'quvchilar asosiy mazmuni aniqlash, voqealar ketma-ketligini tiklash yoki o'z fikrini bildirish topshiriqlarini bajaradilar.

## 2.2. O'qish (reading)

Matn sifatida o'lkashunoslikka oid maqolalar, turizm risolalari, tarixiy shaxslar haqida ma'lumotlar tanlanadi. Misol: “*The Silk Road and Uzbekistan*” matnini o'qib, o'quvchi so'z boyligini kengaytiradi va o'z diyorining xalqaro ahamiyatini ingliz tilida ifodalay oladi.

## 2.3. Gapirish (speaking)

O'lkashunoslik mavzulari asosida suhbatlar, rolli o'yinlar, taqdimotlar tashkil etiladi. Masalan: “*Introducing My Hometown*”, “*Traditions in Our Family*” mavzularida muloqotlar nutqiy faollikni oshiradi.

## 2.4. Yozma nutq (writing)

O'quvchilar “*My Visit to Samarkand*”, “*National Dishes of Uzbekistan*” kabi mavzularda insholar, brosyuralar yoki blog yozuvlari yaratadi. Bu jarayon yozma nutqni rivojlantirish bilan birga, ijodkorlikni ham kuchaytiradi.

## 3. O'lkashunoslik materiallari asosida nutqiy ko'nikmalarni baholash usullari

Baholash jarayoni o'quvchining muloqotda ishtirok etish darajasi, tilni to'g'ri va erkin qo'llay olish qobiliyati, hamda madaniy bilimlaridan foydalanish ko'nikmasini aks ettirishi kerak.

### 3.1. Formativ baholash (jarayonli baholash)

- Kuzatuv varaqalari orqali o'qituvchi o'quvchining faol ishtirokini, javoblar sifatini va nutq madaniyatini baholaydi.

- “*Self-assessment sheet*” (o'zini baholash varaqasi) orqali o'quvchi o'z yutuqlarini tahlil qiladi.

- “*Peer assessment*” (o'zaro baholash) metodi yordamida juftliklarda fikr almashiladi.

### 3.2. Summativ baholash (yakuniy baholash)

- Rol o'ynash topshiriqlari (“*At the Travel Agency*”, “*Tour Guide Presentation*”).

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Yuqori daraja (3)</b>	<b>O'rta daraja (2)</b>	<b>Past daraja (1)</b>
Nutq ravonligi	Fikrni izchil va to'liq bayon etadi	Ba'zi pauzalar mavjud	Fikrni ifoda etishda qiynaladi
Lug'at boyligi	O'lkashunoslikka oid so'zlarni to'g'ri ishlatadi	Kamdan-kam qo'llaydi	So'z boyligi juda cheklangan
Madaniy mazmun	Madaniy tafsilotlar aniq aks etgan	Qisman mavjud	Madaniy kontekst yo'q
Grammatik to'g'rilik	Xatolar deyarli yo'q	Ba'zan uchraydi	Ko'p grammatik xatolar mavjud

- Taqdimotlar (“*Uzbekistan on the Silk Road*”).

- Portfolio baholash-o'quvchi yil davomida o'rganilgan o'lkashunoslik materiallari asosidagi barcha ishlarini jamlaydi (insho, video, loyihalar).

### 3.3. Baholash mezonlari (rubrikalar)

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish til o'qitish jarayonini faqat grammatik va leksik bilim berishdan iborat jarayondan, madaniy muloqotga tayyorlovchi integratsion tizimga aylantiradi. Bu materiallar yordamida o'quvchilar chet tilida erkin muloqot qila oladigan, o'z xalqining madaniyatini qadrlaydigan, boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat bilan qaraydigan shaxslar sifatida shakllanadilar.

Shuningdek, zamonaviy baholash usullari-formatif, summativ va portfolio baholash-o'quvchining shaxsiy rivojlanishini kuzatish va nutqiy kompetensiyasini aniq o'lchash imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel / (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. Elektron resurs: <https://president.uz/oz/lists/view/4327> (Murojat qilingan sana: 22.05.2024)
3. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages (CEFR)*. 2020.
4. Cunningsworth, A. *Choosing Your Coursebook*. Oxford University Press, 1995.
5. Azizov, O. "O'lkashunoslik materiallari asosida chet tilini o'qitishning nazariy asoslari." *Til va ta'lim jurnali*, 2021.
6. Nurmatova, G. "Interfaol metodlar orqali nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish." *O'zbekiston pedagogika axborotnomasi*, 2023.
7. Mirzakarimova M.M. Ingliz tili darslarida o'quvchilar tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning mohiyati va mazmuni. // Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. – Nukus: 2022, № 4 (58), 93 - 96 b.
8. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. - М., 1984. - С. 301-302
9. Ismatova M. (2025). Ingliz tilini o'rganishda autentik materiallardan foydalanish metodikasini takomillashtirish modeli. *Maktabgacha Va Maktab Ta'limi Jurnali*, 3(1), 6–8.

### **DIPLOMATIK DISKURSNING NUTQIY AKT TURLARI**

**Bayjanova Oqila Iskandarovna**

O'zDJTU, Ingliz tili  
tarjima nazariyasi kafedrasida dotsenti  
[oqilabayjanova89@gmail.com](mailto:oqilabayjanova89@gmail.com)

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida diplomatik diskurs siyosiy muloqotning muhim shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Diplomatiq nutq orqali davlatlar o'z tashqi siyosiy pozitsiyasini ifodalaydi, xalqaro huquqiy majburiyatlarni belgilaydi va strategik maqsadlarni bayon qiladi. Shu bois diplomatik diskurs oddiy axborot uzatish vositasi emas, balki siyosiy ta'sir mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Nutqiy aktlar nazariyasi diplomatik diskursni tahlil qilishda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki diplomatik bayonotlarda har bir jumla muayyan performativ kuchga ega: u tan olish, majburiyat olish, chaqiriq qilish, qo'llab-quvvatlash yoki baholash kabi funksiyalarni bajaradi. Diplomatiq matnlarda deklarativ aktlar huquqiy maqomni belgilasa, direktiv aktlar siyosiy chaqiriqlarni ifodalaydi, komissiv aktlar esa kelajakdagi harakatlarga nisbatan majburiyatni bildiradi. Ekspressiv va reprezentativ aktlar esa diplomatik muhitni shakllantirish hamda siyosiy pozitsiyani asoslash vazifasini bajaradi.

Diplomatiq diskursni nutqiy aktlar nuqtayi nazaridan o'rganish lingvopragmatika va diskurs tahlilining kesishgan nuqtasida shakllangan ilmiy yo'nalishdir. Nutqiy aktlar nazariyasi dastlab J. L. Austin tomonidan ishlab chiqilib, keyinchalik J. R. Searle tomonidan tizimlashtirilgan. Austin nutqni faqat axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki harakatni amalga oshiruvchi mexanizm sifatida talqin etib, lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarni ajratib ko'rsatgan. Searle esa illokutiv aktlarni deklarativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va reprezentativ turlarga tasniflab, ularning kommunikativ funksiyalarini asoslab bergan.

Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalar diplomatik nutqning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini o'rganishda nazariy asos yaratgan bo'lsa-da, uning nutqiy aktlar tizimidagi funksional uyg'unligi va real matnlar asosidagi tahlili yanada chuqurlashtirilishini talab etadi.

Mazkur tadqiqotda kompleks lingvistik metodlardan foydalanildi. Avvalo, nutqiy aktlar nazariyasiga asoslangan tasnifiy metod yordamida diplomatik matnlardagi deklarativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va reprezentativ aktlar aniqlanib, guruhlashtirildi. Qiyosiy-tahliliy metod asosida ingliz va o'zbek tillaridagi diplomatik nutq namunalari strukturaviy va semantik xususiyatlari taqqoslandi. Tahlil materiali sifatida xalqaro tashkilotlar bayonotlari, hukumat

nutqlari va diplomatik deklaratsiyalardan olingan real formulalar tanlab olindi. Lingvopragmatik tahlil metodi orqali nutqiy aktlarning illokutiv kuchi, kommunikativ vazifasi hamda strategik maqsadi aniqlanib, ularning diplomatik kontekstdagi funksiyasi baholandi.

Diplomatik diskursda nutqiy aktlar xalqaro munosabatlarning strategik va institutsional xarakterini aks ettiruvchi asosiy lingvopragmatik birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu diskurs turida har bir bayonot nafaqat axborot uzatadi, balki muayyan siyosiy pozitsiyani shakllantiradi, huquqiy maqomni belgilaydi yoki kelajakdagi harakatlar uchun asos yaratadi.

Deklarativ nutqiy aktlar diplomatik diskursda real siyosiy-huquqiy o'zgarishlarni amalga oshiruvchi performativ birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, "The State hereby recognizes the independence of the Republic" kabi bayonot tan olish aktini ifodalaydi. "Hereby recognizes" konstruksiyasi shunchaki xabar bermaydi, balki xalqaro huquq doirasida yangi maqomni belgilaydi. Bunday aktlar suverenitet, mustaqillik yoki diplomatik aloqalarni o'rnatish kabi masalalarda qo'llanadi. O'zbek tilida "ushbu orqali tan oladi" shakli performativ kuchni saqlaydi va illokutiv ta'sirni yetkazadi. Bu turdagi nutqiy aktlar diplomatik diskursning huquqiy asosini mustahkamlaydi.

Direktiv nutqiy aktlar diplomatik diskursda ko'pincha yumshatilgan shaklda namoyon bo'ladi. Masalan, "We urge all parties to resume negotiations" bayonotida "urge" fe'li bevosita buyruq emas, balki chaqiriq ma'nosini anglatadi. Diplomatik nutqda qat'iy imperativ shakllardan qochilib, mitigatsiyalangan konstruksiyalar qo'llanadi. Bu esa siyosiy ehtiyotkorlik va muvozanatni ta'minlaydi. Direktiv aktlarning asosiy vazifasi tomonlarni muayyan harakatga undash bo'lsa-da, ularning ifodasi odatda diplomatik neytrallik va xushmuomalalik bilan uyg'unlashadi. Shunday qilib, direktiv nutqiy aktlar diplomatik diskursda strategik bosim vositasi sifatida xizmat qiladi, biroq ular ochiq buyruq shaklida emas, balki maslahat yoki chaqiriq ko'rinishida ifodalanadi. Komissiv nutqiy aktlar davlat yoki tashkilotning kelajakdagi harakatlar bo'yicha majburiyatini bildiradi. Masalan, "The Government commits to ensuring regional stability" kabi bayonot siyosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni anglatadi. Bu turdagi aktlar ishonchni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Komissiv birliklar diplomatik diskursda davlatning tashqi siyosiy imijini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular barqarorlik, sodiqlik va javobgarlikni ifodalaydi. Lingvopragmatik jihatdan komissiv aktlar kelajak zamon va majburiyat ifodalovchi fe'llar orqali amalga oshiriladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, diplomatik diskursda nutqiy aktlar ko'pincha kombinatsiyalangan holda qo'llanadi. Masalan, avval reprezentativ akt orqali vaziyat baholanadi, so'ng direktiv akt orqali chaqiriq bildiriladi va nihoyat komissiv akt orqali majburiyat olinadi. Bu ketma-ketlik diplomatik nutqning strategik tuzilishini namoyon etadi. Shuningdek, diplomatik diskursda illokutiv kuch ochiq ko'rinishda emas, balki ehtiyotkor va yumshatilgan konstruksiyalar orqali ifodalanadi.

Mazkur tadqiqot diplomatik diskursda nutqiy aktlarning funksional va lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlashga qaratildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, diplomatik nutq oddiy axborot almashinuvi emas, balki siyosiy va huquqiy ta'sir mexanizmi hisoblanadi. Unda har bir bayonot ma'lum illokutiv kuchga ega bo'lib, xalqaro munosabatlar tizimida muayyan strategik vazifani bajaradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Austin, J. L. *How to Do Things with Words*. – Oxford: Oxford University Press, 1962.
2. Searle, J. R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
3. Searle, J. R. *Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979.
4. Levinson, S. C. *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
5. Brown, P., & Levinson, S. C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
6. Fairclough, N. *Language and Power*. – London: Longman, 1989.

## DIPLOMATIK DISKURSNING NUTQIY AKT TURLARI

Bayjanova Oqila Iskandarovna

O‘zDJTU, Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrası dotsenti

[oqilabayjanova89@gmail.com](mailto:oqilabayjanova89@gmail.com)

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida diplomatik diskurs siyosiy muloqotning muhim shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Diplomantik nutq orqali davlatlar o‘z tashqi siyosiy pozitsiyasini ifodalaydi, xalqaro huquqiy majburiyatlarni belgilaydi va strategik maqsadlarni bayon qiladi. Shu bois diplomatik diskurs oddiy axborot uzatish vositasi emas, balki siyosiy ta’sir mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Nutqiy aktlar nazariyasi diplomatik diskursni tahlil qilishda samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki diplomatik bayonotlarda har bir jumla muayyan performativ kuchga ega: u tan olish, majburiyat olish, chaqiriq qilish, qo‘llab-quvvatlash yoki baholash kabi funksiyalarni bajaradi. Diplomantik matnlarda deklarativ aktlar huquqiy maqomni belgilasa, direktiv aktlar siyosiy chaqiriqlarni ifodalaydi, komissiv aktlar esa kelajakdagi harakatlarga nisbatan majburiyatni bildiradi. Ekspressiv va reprezentativ aktlar esa diplomatik muhitni shakllantirish hamda siyosiy pozitsiyani asoslash vazifasini bajaradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, diplomatik diskursda nutqiy aktlarning noto‘g‘ri talqini yoki tarjimasi siyosiy mazmunning buzilishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, performativ birliklar, yumshatilgan direktiv konstruksiyalar va institutsional subyektning ifodalanishi lingvopragmatik jihatdan chuqur tahlilni talab etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi diplomatik diskursda qo‘llaniladigan nutqiy akt turlarini aniqlash, ularning funksional xususiyatlarini tahlil qilish hamda lingvopragmatik mexanizmlarini asoslashdan iboratdir. Tadqiqot natijalari diplomatik matnlarni ilmiy tahlil qilish va tarjima jarayonida pragmatik aniqlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar sharhi.** Diplomantik diskursni nutqiy aktlar nuqtayi nazaridan o‘rganish lingvopragmatika va diskurs tahlilining kesishgan nuqtasida shakllangan ilmiy yo‘nalishdir. Nutqiy aktlar nazariyasi dastlab J. L. Austin tomonidan ishlab chiqilib, keyinchalik J. R. Searle tomonidan tizimlashtirilgan. Austin nutqni faqat axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki harakatni amalga oshiruvchi mexanizm sifatida talqin etib, lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarni ajratib ko‘rsatgan. Searle esa illokutiv aktlarni deklarativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va reprezentativ turlarga tasniflab, ularning kommunikativ funksiyalarini asoslab bergan.

Diplomatik diskurs tadqiqotlarida ushbu nazariya muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. Chunki diplomatik nutqda har bir bayonot muayyan siyosiy va huquqiy oqibatlariga ega bo‘lishi mumkin. Xalqaro huquqiy matnlar, bayonotlar, rezolyutsiyalar va diplomatik notalar performativ xarakterga ega bo‘lib, ular real ijtimoiy-siyosiy vaziyatni o‘zgartirishga qaratilgan. Zamonaviy diskurs tahlili vakillari diplomatik nutqni institutsional diskurs turi sifatida talqin etadi. Unda shaxsiy subyekt emas, balki davlat yoki tashkilot nomidan so‘zlovchi kollektiv subyekt ustuvor hisoblanadi. Diplomantik diskurs ehtiyotkorlik (mitigatsiya), yumshatish strategiyalari, modal birliklar va baholovchi konstruksiyalar orqali ajralib turadi. Lingvopragmatik tadqiqotlarda diplomatik nutqning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilar ko‘rsatib o‘tiladi: performativlik, institutsionallik, strategik noaniqlik, siyosiy neytrallik va semantik aniqlik. Shu bois diplomatik diskursni tahlil qilishda nutqiy aktlar tasnifi asosiy analitik vosita sifatida qo‘llaniladi. Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalar diplomatik nutqning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini o‘rganishda nazariy asos yaratgan bo‘lsa-da, uning nutqiy aktlar tizimidagi funksional uyg‘unligi va real matnlar asosidagi tahlili yanada chuqurlashtirilishini talab etadi.

Mazkur tadqiqotda kompleks lingvistik metodlardan foydalanildi. Avvalo, nutqiy aktlar nazariyasiga asoslangan tasnifiy metod yordamida diplomatik matnlardagi deklarativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va reprezentativ aktlar aniqlanib, guruhlashtirildi. Qiyosiy-tahliliy metod asosida ingliz va o‘zbek tillaridagi diplomatik nutq namunalari strukturaviy va semantik xususiyatlari taqqoslandi. Tahlil materiali sifatida xalqaro tashkilotlar bayonotlari, hukumat nutqlari va diplomatik deklaratsiyalardan olingan real formulalar tanlab olindi. Lingvopragmatik tahlil metodi orqali nutqiy aktlarning illokutiv kuchi, kommunikativ vazifasi hamda strategik maqsadi aniqlanib, ularning diplomatik kontekstdagi funksiyasi baholandi. Shuningdek,

mitigatsiya strategiyalari va modal birliklarning pragmatik yuklamasi o'rganildi. Interpretativ metod yordamida nutqiy aktlarning siyosiy va kommunikativ oqibatlari izohlandi. Ushbu metodologik yondashuv diplomatik diskursning ko'p qatlamli tabiati va nutqiy aktlarning funksional rolini kompleks tarzda ochib berishga imkon yaratdi.

Diplomatik diskursda nutqiy aktlar xalqaro munosabatlarning strategik va institutsional xarakterini aks ettiruvchi asosiy lingvopragmatik birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu diskurs turida har bir bayonot nafaqat axborot uzatadi, balki muayyan siyosiy pozitsiyani shakllantiradi, huquqiy maqomni belgilaydi yoki kelajakdagi harakatlar uchun asos yaratadi. Shu bois diplomatik nutqni tahlil qilishda nutqiy aktlarning illokutiv kuchi, kommunikativ maqsadi va kontekstual vazifasi markaziy o'rin egallaydi.

Deklarativ nutqiy aktlar diplomatik diskursda real siyosiy-huquqiy o'zgarishlarni amalga oshiruvchi performativ birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, "The State hereby recognizes the independence of the Republic" kabi bayonot tan olish aktini ifodalaydi. "Hereby recognizes" konstruksiyasi shunchaki xabar bermaydi, balki xalqaro huquq doirasida yangi maqomni belgilaydi. Bunday aktlar suverenitet, mustaqillik yoki diplomatik aloqalarni o'rnatish kabi masalalarda qo'llanadi. O'zbek tilida "ushbu orqali tan oladi" shakli performativ kuchni saqlaydi va illokutiv ta'sirni yetkazadi. Bu turdagi nutqiy aktlar diplomatik diskursning huquqiy asosini mustahkamlaydi.

Direktiv nutqiy aktlar diplomatik diskursda ko'pincha yumshatilgan shaklda namoyon bo'ladi. Masalan, "We urge all parties to resume negotiations" bayonotida "urge" fe'li bevosita buyruq emas, balki chaqiriq ma'nosini anglatadi. Diplomatik nutqda qat'iy imperativ shakllardan qochilib, mitigatsiyalangan konstruksiyalar qo'llanadi. Bu esa siyosiy ehtiyotkorlik va muvozanatni ta'minlaydi. Direktiv aktlarning asosiy vazifasi tomonlarni muayyan harakatga undash bo'lsa-da, ularning ifodasi odatda diplomatik neytrallik va xushmuomalalik bilan uyg'unlashadi. Shunday qilib, direktiv nutqiy aktlar diplomatik diskursda strategik bosim vositasi sifatida xizmat qiladi, biroq ular ochiq buyruq shaklida emas, balki maslahat yoki chaqiriq ko'rinishida ifodalanadi. Komissiv nutqiy aktlar davlat yoki tashkilotning kelajakdagi harakatlar bo'yicha majburiyatini bildiradi. Masalan, "The Government commits to ensuring regional stability" kabi bayonot siyosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni anglatadi. Bu turdagi aktlar ishonchni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Komissiv birliklar diplomatik diskursda davlatning tashqi siyosiy imijini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular barqarorlik, sodiqlik va javobgarlikni ifodalaydi. Lingvopragmatik jihatdan komissiv aktlar kelajak zamon va majburiyat ifodalovchi fe'llar orqali amalga oshiriladi.

Ekspressiv nutqiy aktlar diplomatik nutqda ijobiy kommunikativ muhit yaratishga xizmat qiladi. "We express our sincere gratitude for your support" kabi formulalar minnatdorlik yoki qo'llab-quvvatlashni bildiradi. Ekspressiv aktlar bevosita siyosiy qaror qabul qilmasa-da, ular diplomatik muloqotda ishonch va o'zaro hurmat muhitini shakllantiradi. Ushbu aktlar ko'pincha rasmiy uchrashuvlar, bayram tabriklari yoki hamkorlik masalalarida qo'llanadi. Rerezentativ nutqiy aktlar esa ma'lum fakt yoki bahoni bayon qilishga xizmat qiladi. Masalan, "The current situation poses a significant challenge to peace" kabi bayonot real vaziyatni baholovchi xarakterga ega. Bunday aktlar siyosiy pozitsiyani asoslash va keyingi direktiv yoki komissiv harakatlar uchun mantiqiy zamin yaratadi. Rerezentativ aktlar diplomatik diskursning analitik qismida, xususan, vaziyatni tavsiflash va muammo qo'yishda qo'llanadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, diplomatik diskursda nutqiy aktlar ko'pincha kombinatsiyalangan holda qo'llanadi. Masalan, avval rerezentativ akt orqali vaziyat baholanadi, so'ng direktiv akt orqali chaqiriq bildiriladi va nihoyat komissiv akt orqali majburiyat olinadi. Bu ketma-ketlik diplomatik nutqning strategik tuzilishini namoyon etadi. Shuningdek, diplomatik diskursda illokutiv kuch ochiq ko'rinishda emas, balki ehtiyotkor va yumshatilgan konstruksiyalar orqali ifodalanadi. Bu xususiyat diplomatik kommunikatsiyaning asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, diplomatik diskurs nutqiy aktlar tizimi orqali siyosiy ta'sir ko'rsatish mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi. Har bir nutqiy akt turi — deklarativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va rerezentativ — xalqaro munosabatlar jarayonida muayyan

funksiyani bajaradi. Ularning lingvopragmatik uyg'unligi diplomatik nutqning samaradorligini ta'minlaydi va siyosiy muloqotning institutsional xarakterini belgilaydi.

Mazkur tadqiqot diplomatik diskursda nutqiy aktlarning funksional va lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlashga qaratildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, diplomatik nutq oddiy axborot almashinuvi emas, balki siyosiy va huquqiy ta'sir mexanizmi hisoblanadi. Unda har bir bayonot ma'lum illokutiv kuchga ega bo'lib, xalqaro munosabatlar tizimida muayyan strategik vazifani bajaradi.

Diplomatik diskursda deklarativ nutqiy aktlar huquqiy maqomni belgilash va siyosiy o'zgarishlarni rasmiylashtirish vazifasini bajaradi. Direktiv aktlar tomonlarni muayyan harakatga undashga qaratilgan bo'lsa-da, ular odatda mitigatsiya va ehtiyotkorlik strategiyalari orqali ifodalanadi. Komissiv aktlar davlat yoki tashkilotning kelajakdagi majburiyatini bildiradi va xalqaro hamkorlikda ishonchni mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ekspressiv aktlar diplomatik muloqotning ijobiy muhitini shakllantiradi, representativ aktlar esa siyosiy pozitsiyani asoslash va vaziyatni baholash imkonini beradi.

Shuningdek, diplomatik diskursda nutqiy aktlarning kombinatsiyalangan qo'llanilishi strategik kommunikatsiya modelini shakllantiradi. Bir bayonot doirasida representativ baholash, direktiv chaqiriq va komissiv majburiyat uyg'unlashishi mumkin. Bu esa diplomatik nutqning ko'p qatlamli va murakkab tabiati bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, diplomatik diskursni o'rganishda lingvopragmatik yondashuv ustuvor ahamiyatga ega. Nutqiy aktlar tahlili siyosiy bayonotlarning yashirin strategiyasini ochib berish, ularning kommunikativ kuchini aniqlash hamda tarjima jarayonida pragmatik adekvatlikni ta'minlash imkonini beradi. Shu bois diplomatik nutqni ilmiy o'rganish zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Austin, J. L. *How to Do Things with Words*. – Oxford: Oxford University Press, 1962.
2. Searle, J. R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
3. Searle, J. R. *Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979.
4. Levinson, S. C. *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
5. Brown, P., & Levinson, S. C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
6. Fairclough, N. *Language and Power*. – London: Longman, 1989.
7. Van Dijk, T. A. *Discourse and Power*. – London: Palgrave Macmillan, 2008.
8. Berridge, G. R. *Diplomacy: Theory and Practice*. – London: Palgrave Macmillan, 2015.
9. Chilton, P. *Analysing Political Discourse: Theory and Practice*. – London: Routledge, 2004.
10. Wodak, R. *The Discourse of Politics in Action: Politics as Usual*. – London: Palgrave Macmillan, 2009.

# ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ АКАДЕМИЧЕСКИХ ПРАВ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН)

Доктор философии по филологическим наукам (PhD),  
доцент кафедры русской филологии СамГИИЯ  
**Мусинова Зебо Турабовна**  
E-mail: zebomusinova08@gmail.com

В XXI веке глобальная цифровизация является ключевым фактором трансформации всех сфер общественной жизни, включая образование. В условиях устойчивого развития цифровизация приобретает не только технологическое, но и социально-правовое значение, поскольку она напрямую связана с реализацией права человека на образование, закрепленного во Всеобщей декларации прав человека (ст. 26) и Конвенции о правах ребенка (ст. 28). Для молодежи, которая является активным участником образовательного процесса и будущим кадровым ресурсом страны, обеспечение академических прав становится важнейшей задачей государственной молодежной политики.

В Республике Узбекистан цифровизация образования реализуется через государственные программы, направленные на внедрение электронных образовательных платформ, развитие дистанционного обучения, цифровую трансформацию университетской инфраструктуры и повышение квалификации преподавателей. Одновременно возникают новые вызовы: цифровое неравенство, угроза академической добросовестности, необходимость правового регулирования использования искусственного интеллекта в образовательном процессе.

Цифровизация образования — это процесс глубокого преобразования организационной, методической и технологической структуры образовательной деятельности на основе внедрения цифровых технологий. В отличие от обычной информатизации, цифровизация включает в себя: автоматизацию управленческих процессов, развитие дистанционных образовательных ресурсов, внедрение электронных образовательных платформ и формирование цифровой компетенции студентов и преподавателей.

Концепция устойчивого развития, закреплённая в Программе ООН «Цели устойчивого развития до 2030 года», предусматривает обеспечение качественного образования, инклюзивного и справедливого, доступного для всех слоёв населения. В этом контексте цифровизация выступает как инструмент реализации права на образование, академической свободы и равных возможностей.

Таким образом, цифровизация образования выступает не только как технологический процесс модернизации учебного пространства, но и как фактор трансформации институциональных и правовых основ образовательной деятельности. Изменение форм взаимодействия между субъектами образовательного процесса обуславливает необходимость переосмысления содержания и механизмов реализации академических прав молодежи в условиях цифровой образовательной среды.

В условиях цифровой трансформации академические права молодежи приобретают новые формы реализации и содержательные акценты. К числу ключевых академических прав относятся:

**5. Право на доступ к образованию**, которое в цифровой среде трансформируется в возможность пользоваться электронными платформами, онлайн-курсами и цифровыми библиотеками.

**6. Право на академическую свободу**, обеспечивающее возможность самостоятельного выбора тем, форм и методов обучения в пределах учебного плана.

**7. Право на равные цифровые возможности**, включая доступ к современным гаджетам, интернет-соединению и цифровой инфраструктуре.

**8. Право на защиту персональных данных**, что особенно актуально в условиях дистанционного обучения и использования электронных систем оценки знаний.

В контексте концепции устойчивого развития цифровизация образования рассматривается как инструмент обеспечения равного доступа к знаниям и формирования инклюзивной образовательной среды, что актуализирует проблему гарантирования академических прав молодежи в новых социотехнологических условиях.

В Республике Узбекистан эти права закреплены в **Законе «Об образовании» (ст. 2, 15, 23)**, **Закон «О молодежной политике» (ст. 7, 10)**, а также в **Постановлениях Кабинета Министров о цифровизации образования и внедрении электронного документооборота**.

Нормативное закрепление академических прав молодежи в условиях цифровизации предполагает их практическую реализацию через институциональные механизмы модернизации системы высшего образования. Иначе говоря, правовые гарантии приобретают реальное содержание лишь при условии системной цифровой трансформации образовательной инфраструктуры.

Цифровая трансформация высшего образования в Республике Узбекистан выступает инструментом практической реализации закрепленных академических прав и направлена на формирование современной, технологически оснащенной образовательной среды.

Реализация цифровизации в высшем образовании Узбекистана включает:

- Создание электронных образовательных платформ (e-learning, Moodle, виртуальные лаборатории), обеспечивающих расширенный доступ к учебным материалам и индивидуализацию образовательной траектории.

- Внедрение систем дистанционного обучения, позволяющих студентам из отдаленных регионов получать качественное образование на равных условиях.

- Автоматизацию управления вузами, включая электронные журналы успеваемости, цифровые расписания и учет посещаемости, что повышает прозрачность образовательного процесса.

- Повышение цифровых компетенций преподавательского состава, включая освоение современных образовательных технологий и инструментов искусственного интеллекта.

Особое внимание уделяется проекту «Цифровой университет», целью которого является интеграция цифровых технологий во все аспекты образовательного процесса, повышение прозрачности и эффективности управления, а также укрепление академической мобильности и доступности образования.

Вместе с тем цифровая трансформация, наряду с очевидными преимуществами, сопровождается рядом системных рисков и вызовов, способных повлиять на реализацию академических прав молодежи и качество образовательного процесса.

**Риски и вызовы цифровизации заключаются в следующем:**

1. **Цифровое неравенство** — различия в доступе к технологиям и интернет-инфраструктуре между городскими и сельскими студентами.

2. **Проблемы академической добросовестности** — риск использования цифровых инструментов для недобросовестного выполнения учебных заданий.

3. **Нерегулируемое использование технологий искусственного интеллекта** — возможность автоматического создания учебных работ без достаточного контроля качества и самостоятельности.

4. **Конфиденциальность данных** — необходимость надежной защиты персональной информации студентов и преподавателей в условиях цифрового документооборота.

5. **Социальная изоляция** — снижение уровня личного взаимодействия и развития коммуникативных навыков в онлайн-среде.

Указанные риски требуют разработки комплексной государственной политики цифровой этики и нормативного регулирования использования образовательных технологий.

Перспективы дальнейших исследований связаны с разработкой модели цифровой правовой культуры студентов и формированием национальной стратегии академической цифровой ответственности.

Цифровая трансформация высшего образования является ключевым механизмом обеспечения академических прав молодежи в условиях устойчивого развития. В Республике Узбекистан проводятся системные мероприятия, направленные на развитие цифровой образовательной среды. Одновременно необходимо устранять риски, связанные с цифровым неравенством, академической добросовестностью и правовой защитой студентов. Баланс между технологическим прогрессом и гуманистическими принципами обеспечит формирование устойчивой, инклюзивной и качественной системы высшего образования.

### Список литературы

1. Всеобщая декларация прав человека. – URL: <https://www.un.org/ru/universal-declaration-human-rights/>
2. Конвенция о правах ребенка. – URL: <https://www.ohchr.org/ru/professionalinterest/pages/crc.aspx>
3. Закон Республики Узбекистан «Об образовании». – Tashkent, 2017.
4. Закон Республики Узбекистан «О молодежной политике». – Tashkent, 2017.
5. Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030». – Tashkent, 2020.
6. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О внедрении электронного документооборота в образовательных учреждениях». – Tashkent, 2019.
7. Smith J. Digital Transformation in Higher Education: Global Perspectives. – London: Routledge, 2020.
8. Jones A., Brown P. E-Learning and Academic Rights. – New York: Springer, 2019.
9. UNICEF. The Right to Education in the Digital Age. – New York, 2021.
10. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017.

## GLOBAL RAQAMLASHUV MAKONDA XORIJIY TILLARNING TA'LIMIY

### AHAMIYATI

**Ibatova Amira Shavkatovna**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali "Tillar" kafedrası

(PhD), dotsenti

[amiraibatova1911@gmail.com](mailto:amiraibatova1911@gmail.com)

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etadi. Ta'kidlash joiz bugungi kunda ta'limni axborot kommunikatsion vositalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, oliy ta'lim muassasalari talabalari, o'qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Hozirgi vaqtda o'qituvchilarning katta qismi axborot kommunikatsiya vositalaridan proyektordan unumli foydalanishni bilsada qolgan zamonaviy texnologiyalar haqida kamroq bilimga egalar. Bu esa ta'limni tashkil etishda turli muammolarga olib kelishi mumkin. Raqamli texnologiyalar haqida gapirganda internet orqali tashkil etiladigan mailing lists, telnet, yuneset, e-

minbar kabilar yuqori samara berishi bilan ajralib turishini yodga olish mumkin. Ko'pchilikka ma'lumki o'qitishning odatdagi an'anaviy usulida o'qituvchi faol o'quvchi tinglovchiga aylanadi. Bunday xollarda ta'lim olish quruq yodlash va esda olib qolish uchun yo'nalgan bo'ladi. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta'lim tizimining qurollantirilishi o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta'minlaydi. Televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'limga o'tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo'ladi. Bu jarayon o'quvchiga uydan chiqmay turib ham ta'lim olish mumkinligini isbotlab berdi. Raqamli ta'limga o'tishning boshqa afzalliklari to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak ularga quyidagilarni kiritish o'rinlidir. - darsliklar elektron xolatda ekranlarga ko'chadi; - o'quvchilar hoxlagan joyida va xoxlagan vaqtida ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi; - o'quvchilar mutaxassis yetishmaydigan uzoq qishloqlarda ham fanlarni tanlash va uydan turib ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi; - internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi; - ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi, vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi; - "raqamli dunyo"da yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma'lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'lim olishning bir turi deb olsak bo'ladi. Yangi axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ularning mamlakatimizda joriy etilishi zamonaviy talaba shaxsini shakllantirishda o'z izini qoldirdi.

Bugungi kunda an'anaviy "ustoz-shogird-darslik" sxemasiga yangi bo'g'in – kompyuter kiritilmoqda, kompyuter ta'limi esa bugungi kun ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ta'limni axborotlashtirishning asosiy qismlaridan biri o'quv fanlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Xorijiy tilini o'qitish kompetetsiyasini modernizatsiya qilish, birinchi navbatda, uning zamonaviy imkoniyatlar orqali, elektron texnologiyalar orqali ham xuddi o'qituvchi bilan yuzma-yuz o'rgangandek ta'lim berishni nazarda tutadi.

Xorijiy til darslarida foydalanilgan raqamli ta'lim resurslari tasnifi tillar bo'yicha raqamli ta'lim resurslarini mazmuni va funksionalligiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: 1) ma'lumot va ma'lumotnomalar (entsiklopediyalar, ma'lumotnomalar, lug'atlar, jurnallar, gazetalar, almanaxlar); 2) o'qish uchun elektron kitoblar; 3) DVD diskdagi filmlar; 4) elektron ko'rgazmali qurollar kutubxonalari va ma'lumotlar bazalari; 5) elektron tashuvchilar bo'yicha o'quv-uslubiy materiallar (dars ishlanmalari, tilning aspektlari va RD turlarini o'qitish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, testlar va boshqa nazorat-o'lchov materiallari); 6) Internet resurslari; 7) birlashtirilgan elektron o'quv vositalari (qo'llanmalar, elektron darsliklar, mashq kitoblari va o'quv o'yinlari); 8) o'qituvchi tomonidan muayyan dars uchun yaratilgan chet tili darslariga (ko'rgazmali materiallar, taqdimotlar, loyihalar, darslarni kompyuterda ishlanma va boshqalar) hamrohlik qiluvchi o'quv-uslubiy dasturiy ta'minot.

Demak raqamli texnologiyalar orqali xorijiy tillarni o'qitish quyidagi imkoniyatlarni beradi; - xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta'lim olish imkoniga ega; - internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi; - ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi; - vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi; - talabalarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi; - mintaqaviy jihatni hisobga oladi; - darslar emotsional va esda qolarli o'tkaziladi; - individual yondashuvni amalga oshiradi; - talabalar bilimi xolisona baholanadi; - o'qituvchining ishini engillashtiradi.

Bu borada o'quvchi-yoshlarning ijodiy shaxsiy salohiyatini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish, chuqur bilim olish, jumladan, til bilimlari imkoniyatlarini kengaytirishga alohida

e'tibor qaratilmoqda. Internet zamonaviy voqelikning ajralmas qismiga aylandi. Internet xorijiy tillarni o'rganishda yordam berishi mumkin, chunki AKTdan foydalanish chet tilini o'rganuvchilar uchun haqiqiy matnlardan foydalanish, tinglash va ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish uchun noyob imkoniyat yaratadi, ya'ni tabiiy til muhitini yaratadi. Internetga kirish darslarni turli g'oyalar va mashqlar bilan boyitish imkonini beruvchi katta hajmdagi qo'shimcha materiallardan foydalanish imkonini beradi.

Axborot va kommunikatsion texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotga talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirish va IT-kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017 yildagi PQ-2909-son 2. Aborisade, P. A. (2012). "Supporting English Language Teaching Using 21st Century ICT Tools." English Language Teaching Today (ELTT) Vol. 9, pp.16-22.
3. Crystal, D. (2007). The Fight for English: How Language Pundits ate, shot and left. Oxford: Oxford University Press.
4. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования / Е.С. Полат. – М.: Академия, 2000 – С. 43-45.
5. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-2-538-545>

#### **GLOBALLASHUV JARAYONIDA SO'ZLASHUV QADRIYATLARI**

#### **THE ROLE OF DIGITAL COLLABORATION TOOLS IN ENHANCING WRITTEN TRANSLATION QUALITY AND EFFICIENCY**

**Saidova Gulyora Abdukhakimovna**

Senior teacher, UzSWLU, Faculty of Translation,  
Department of English Translation Theory,  
Email:saidovagulyora20190117@gmail.com

